MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION

SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

“PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM MUHITINI YARATISH MUAMMOLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI TO‘PLAMI

Samarqand
2025-yil, 20-iyun

Samarqand – 2025

UDK 37.026

“PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM MUHITINI YARATISH MUAMMOLARI” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Samarqand viloyati PMM, 2025. – 843 B.

Mazkur ilmiy-amaliy konferensiya materiallarini nashr ettirish muvaffaqiyatli ta’lim muhitini yaratishga oid aniq strategiyalarni ishlab chiqishga, innovatsion g‘oyalarni jamlashga, o‘zaro ilg‘or tajribalar bilan hamfikr bo‘lishga undaydi. Jumladan, konferensiyada maktabgacha va maktab ta’limi pedagog xodimlarini kasbiy rivojlantiruvchi muhitni yaratish omillari, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli tayyorlash tendensiyalari, zamonaviy pedagogik taraqqiyot va uning tadqiqiy jihatlari, fanni samarali o‘qitish metodikasini takomillashtirish muammolari, ilg‘or xorijiy tajribalar va xalqaro baholash masalalari, o‘qituvchi tadqiqoti: o‘quv mashg‘ulotlari uchun samarali dars loyihalari, ta’limda inson kapitaliga investitsiya kiritishning ahamiyati kabi masalarni yoritish asosiy maqsad qilib belgilangan.

To‘plam ilmiy tadqiqotlar, ishlanmalar hamda ilg‘or tajribalar bilan qiziquvchi barcha ilmiy va pedagog xodimlar, doktorantlar hamda keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mualliflik tahririda berilgan. Maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldir.

Bosh muharrir: *pedagogika fanlari doktori, professor A. Ibragimov*
Mas’ul muharrir: *pedagogika fanlari doktori, ddotsent G.Fayzullayeva*

Tahrir hay’ati:

pedagogika fanlari nomzodi	*M.Raximqulova*
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori	*K.Okilova*
Fanlarni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i,tahrir hay’ati a’zosi.	*Fayziyeva M.M.*
Katta o‘qituvchi, tahrir hay’ati a’zosi.	*Xurramov A.V.*
Katta o‘qituvchi, tahrir hay’ati a’zosi.	*Raimkulova I.A.*
O‘qituvchi, tahrir hay’ati a’zosi.	*Eshbekova G.X.*
O‘qituvchi, tahrir hay’ati a’zosi.	*Shodiyorova U.Sh.*
O‘qituvchi, tahrir hay’ati a’zosi.	*Pulatova E.O.*
O‘qituvchi, tahrir hay’ati a’zosi.	*Aliyev Sh.Y.*

© *Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi,* 2025.

SO‘Z BOSHI

Bugungi globallashuv, axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi va yangilanayotgan ta’lim paradigmasi sharoitida pedagogik faoliyat mazmuni va unga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Mamlakatimizning xalqaro hamjamiyat bilan integratsiyalashuvi, ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan yangi mezonlar pedagogik kadrlardan nafaqat zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni, balki mustaqil fikrlash, yuqori kognitiv salohiyat va muammoli vaziyatlarga moslashuvchanlikni ham talab qiladi. Shunday sharoitda pedagoglarni kasbiy rivojlantiruvchi zamonaviy ta’lim muhitini yaratish dolzarb strategik vazifa bo‘lib qolmoqda.

Pedagogik faoliyat – bu nafaqat kasb, balki jamiyatni shakllantiruvchi murakkab ijtimoiy jarayondir. Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar uchun shunday ta’lim muhiti zarurki, u o‘qituvchini ilmiy-ijodiy izlanishlarga, o‘z ustida doimiy ishlashga va o‘zgaruvchan sharoitlarga mos pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishga undasin. Bunday muhitni yaratishda kognitiv va neyropedagogik tadqiqotlar natijalarini ta’lim amaliyotiga tatbiq etish muhim ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda.

Kognitiv yondashuv o‘quvchi va pedagogning bilish faoliyatini, tafakkur tizimini, xotira, tushunish va tahlil qilish jarayonlarini o‘rganadi. U ta’lim mazmunini emas, balki ta’lim jarayonini qanday amalga oshirish – ya’ni “qanday o‘rganish” masalasiga e’tibor qaratadi. Aynan shuning uchun kognitiv muhitda pedagoglarni tayyorlashda tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, yaratish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor hisoblanadi.

Neyropedagogika esa o‘qitish jarayonini inson miyasining faoliyati bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan bo‘lib, har bir pedagogik yondashuvga ilmiy-biologik asos kiritadi. Bu yondashuv maktabgacha, maktab va oliy ta’lim bosqichlarida individual yondashuvni chuqurlashtirish, o‘quvchilarning tabiiy qobiliyatlarini erta aniqlash va rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, bu jarayonlar o‘qituvchining o‘z kognitiv salohiyatini oshirishiga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda bu yo‘nalishlarning tatbiqi, ayniqsa, muhim. O‘qituvchi va talabalarda faqat nazariy bilim emas, balki o‘z o‘quvchilari bilan ishlashda individual psixoneyrologik xususiyatlarga mos dars loyihalari, muammoli vaziyatlar asosidagi o‘qitish metodikasini ishlab chiqish ko‘nikmalari shakllantirilishi kerak.

Zamonaviy pedagogik taraqqiyot tendensiyalari pedagogdan ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, xalqaro baholash mexanizmlarini (PISA, TIMSS, TALIS) tahlil qilish va o‘z dars amaliyotiga integratsiya qilishni taqozo etmoqda. Bugun “o‘qituvchi tadqiqotchi” modeliga o‘tish — pedagogning o‘quvchiga bilim beruvchi ekanligi bilan birga o‘z amaliyotini izchil tahlil qilib boruvchi, natijaga

yo‘naltirilgan yondashuvni shakllantiruvchi kasb egasiga aylanishini anglatadi. Shu bois, o‘quv mashg‘ulotlari uchun samarali dars loyihalari yaratish va ularni kognitiv-metodologik asoslarda sinovdan o‘tkazish ta’limda sifat ko‘rsatkichlarini oshiruvchi vosita sifatida qaraladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi muhim omillar pedagoglarni kasbiy rivojlantiruvchi muhitni yaratishda asosiy o‘rin egallaydi:

1. Kognitiv va neyropedagogik asoslangan o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqish.
2. Pedagogik faoliyatda refleksiv tahlil va o‘z-o‘zini baholashni joriy etish.
3. O‘qituvchilarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etuvchi infratuzilmani rivojlantirish.
4. Xalqaro tajriba va baholash tizimlariga tayangan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish.
5. Ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, individual va moslashtirilgan yondashuvlar asosida tashkil etish.

A’lamjon Ibragimov
bosh muharrir,
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi professori

1-SHO‘BA
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI PEDAGOG XODIMLARINI KASBIY RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI YARATISH OMILLARI.

7 E MODELI: O‘QITISH JARAYONIGA SAMARALI METODIK YONDASHUV

A’lamjon Ibragimov Amrilloyevich
Samarqand viloyati pedagogik mahorat
markazi professori, pedagogika fanlari doktori**.**

Annotatsiya. Mazkur maqolada konstruktiv yondashuvga asoslangan 7E modelining tarixiy asosi, 7E o‘quv siklining bosqichlari, bu modeldagi o‘qituvchi va o‘quvchining roli, 7E o‘quv modelining afzalliklari hamda uni o‘qitish va o‘rganishni samarali tashkil etish uchun qo‘llashning ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar. 7E o‘quv sikli modeli, konstruktiv yondashuv, samarali ta’lim olish jarayoni.

Аннотация. В данной статье рассматривается историческая основа модели 7E, основанной на конструктивистском подходе, этапы учебного цикла 7E, роль учителя и учащихся в данной модели, преимущества модели 7E и значение её применения для эффективной организации процесса обучения и преподавания.

Ключевые слова. Модель учебного цикла 7E, конструктивистский подход, эффективный процесс.

Annotation. This article discusses the historical background of the 7E model based on the constructivist approach, the stages of the 7E learning cycle, the roles of teachers and students within this model, the advantages of the 7E learning model, and the importance of its application for effective teaching and learning organization.

Keywords. 7E learning cycle model, constructivist approach, effective learning process.

So‘nggi yillarda ta’lim jarayonida o‘quvchi faoliyatini markazga qo‘yuvchi metodlarga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortmoqda. Shunday yondashuvlardan biri sifatida konstruktiv ta’lim nazariyasi e’tirof etiladi. Mazkur yondashuv nuqtai nazaridan, inson bilim va tushunchalarni shaxsiy tajriba orttirish hamda ushbu tajribalarni tahlil qilish asosida shakllantiradi. Konstruktiv yondashuv ta’lim oluvchilarning yangi bilimlarni mavjud bilimlar asosida shakllantirishini asosiy tamoyil sifatida ilgari suradi. Shu boisdan, pedagog uchun yangi mavzuni o‘rgatishdan avval o‘quvchilarning mavjud bilimlar darajasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda, ta’lim oluvchilar o‘rganilishi mo‘ljallangan tushunchalardan farqli va noto‘g‘ri tasavvurlarni rivojlantirib olishlari ehtimoldan xoli emas [1].

Konstruktiv ta’lim nazariyasi asosida bir qator samarali o‘qitish strategiyalari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular orasida o‘quv sikli tadqiqotga asoslangan

yondashuv sifatida ajralib turadi. Mazkur model konstruktivizm tamoyillariga tayangan holda shakllantirilgan bo‘lib, amaliyotda 3E dan 7E gacha bo‘lgan turli xil o‘quv sikllari shaklida qo‘llanilmoqda.

Ta’lim sikli modelining dastlabki uch bosqichdan iborat varianti Karplus va Their tomonidan Tabiiy fanlar o‘quv dasturini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot (SCIS) doirasida ilgari surilgan [2]. Ushbu uch bosqichli o‘quv sikli tadqiq qilish (Exploration), yangi tushuncha hosil qilish (Invention) va kashfiyot (Discovery) bosqichlarini o‘z ichiga olgan (1-rasm). Uch bosqichli o‘quv sikli asosida turli darajadagi o‘quv sikl modellari shakllanib, to‘rt, besh, yetti va to‘qqiz bosqichli variantlar ishlab chiqilgan.



1-rasm. Ta’lim siklining uch bosqichli modeli

1987 yilda Biologiya fanlari dasturi tadqiqoti (BSCS) doirasida ishlab chiqilgan 5E modeli keng qo‘llanilayotgan strukturalardan biri bo‘lib, u beshta asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi: jalb qilish (Engage), tadqiq qilish (Explore), tushuntirish (Explain), chuqurlashtirish (Elaborate) va baholash (Evaluate) (2-rasm).



2-rasm. Ta’lim siklining 5E modeli

Artur Ayzenkraft (Arthur Eisenkraft) tomonidan ishlab chiqilgan 7E modeli asosan 5E modelining kengaytmasi hisoblanadi [3]. 7E modeli o‘quv sikli doirasida yetti bosqichdan iborat – bilimlarni aniqlash (Elicit), jalb qilish (Engage),

tadqiq qilish (Explore), tushuntirish (Explain), chuqurlashtirish (Elaborate), baholash (Evaluate) va kengaytirish (Extend) (3-rasm).



3-rasm. Ta'lim siklining 7E modeli

Aniqlash - o‘quv siklining dastlabki bosqichi bo‘lib uning asosiy maqsadi o‘quvchilarning o‘rganilishi rejalashtirilgan mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarini aniqlashdan iborat. Pedagog o‘quvchilarda avvaldan mavjud bilimlarini savol-javob, BBB (bilaman, bilib oldim, bilmoqchiman) jadvali, ochiq savollar, “sherigini top” kartochkalari kabi turli diagnostik usullar orqali aniqlashi mumkin. Shu bilan birga o‘qituvchi o‘quvchilarning mavzuga oid noto‘g‘ri tushunchalarini aniqlashga ham e’tibor qaratadi. Masalan, “Yerning aylanish orbitasi” mavzusi bo‘yicha o‘quvchilardagi mavjud bilimlarni aniqlash uchun o‘qituvchi quyidagi savollarni berishi mumkin:

- Yer qanday harakatlanadi?
- Yer Quyosh atrofida aylanadimi? yoki Quyosh Yer atrofida aylanadimi?
- Yurtimizda yil fasllari qanday almashinib turadi?

O‘quvchilardan keladigan javoblar ularning Yer va uning aylanish orbitasi haqidagi bilimlarini ochib beradi.

Jalb qilish bosqichining asosiy maqsadi - o‘quvchilarning e’tiborini yangi o‘quv mavzusiga yo‘naltirishdan iborat. Ushbu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otish, ularni bilim olish jarayoniga jalb etish hamda keyingi o‘quv faoliyatiga psixologik va intellektual jihatdan tayyorlashga intiladi. Masalan, “Yerning aylanish orbitasi” mavzusiga o‘quvchilar e’tiborini jalb qilish uchun o‘qituvchi ularga bir voqea aytishi, video ko‘rsatishi, diagramma yoki kichik bir ilmiy amaliyot namoyish qilishi va taqdim etilgan material asosida bir necha savollar berishi mumkin. Shu tarzda o‘quvchilar yerning aylanish orbitasi mohiyatini tushunib, tabiiy ravishda o‘rganishga rag‘batlanadilar.

Tadqiq qilish bosqichining maqsadi - o‘quvchilarga mustaqil izlanish va tajriba asosida yangi tushunchalarni shakllantirish imkonini berishdir. Bu jarayonda o‘quvchilar faol ishtirok etib, kuzatish, muhokama va hamkorlik orqali o‘z bilimlarini rivojlantiradilar. O‘qituvchi esa yo‘naltiruvchi va maslahatchi rolini bajaradi. Guruhda ishlash, fikr almashish va muloqot qilish orqali o‘quvchilar

konseptual tushunishni chuqurlashtiradilar hamda ijtimoiy-ta'limiy ko'nikmalarni egallaydilar. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarni "bahor", "yoz", "kuz" va "qish" nomli to'rt guruhga ajratishi mumkin. Har bir guruh o'ziga biriktirilgan fasl doirasida ma'lumot to'plab, uning davomiyligi, boshlanish va tugash sanalari hamda ushbu faslning Yerning Quyosh atrofidagi harakatiga bog'liq jihatlarini tahlil qiladi. Biroz vaqt o'tgach, har bir guruh o'z mavzusini boshqa guruhlar oldida qisqacha taqdim etishi mumkin. Har bir taqdimotdan so'ng guruhlar o'rtasida munozara olib borilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarni taqdim etilgan ma'lumotlarga asoslanib savollar berishga undaydi, bu esa ularning tushunishini aniqlash va tushunchaga oid noto'g'ri fikrlar mavjudligini ochib berishga yordam beradi.

Tushuntirish - bosqichida o'quvchilar o'z fikr va tushunchalarini o'qituvchi hamda sinfdoshlari bilan muhokama qiladi. O'qituvchi savollar orqali ularning bilim darajasini aniqlaydi, fikrlashga yo'naltiradi va tushunchalarni hayotiy misollar bilan bog'lab tushuntiradi. Masalan, o'quvchilardan yerning aylanish orbitasini o'z so'zlari bilan izohlash so'raladi, so'ngra o'qituvchi yerning o'z o'qi va quyosh atrofida aylanishi, bunga bog'liq holda fasllarning almashinuvini ilmiy asosda yoritadi.

Chuqurlashtirish: Ushbu bosqichda o'quvchilar "Tushuntirish" bosqichida o'rgangan ma'lumotlarini amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu ularning tushunchalarni yanada chuqurlashtirishiga yordam beradi. O'quvchilarga tushunchani yanada yaxshiroq anglash uchun tegishli faoliyatlar yoki tajribalar ko'rsatilishi mumkin. Oldingi bilimlar yordamida o'quvchilar ko'proq savollar berishadi, yechimlar topishadi va dalillardan oqilona xulosa chiqarishadi. Masalan, bu bosqichda o'quvchilar "Orbitamiz – fasllar sirini ochuvchi kalit" mavzusida topshiriq beriladi. Topshiriq yuzasidan rangli qog'ozlar, plastilin, chiroq, kichik globus yoki tennis to'pi kabi kerakli jihozlar guruhlarga tarqatiladi. Guruhlar qog'ozga ellips orbitasini chizishadi. Yer sifatida tennis to'pi orbitaga qo'yiladi. Markazga quyosh sifatida chiroq joylashtiriladi. Har bir guruh quyidagi savollarga javob topish uchun modelda tajriba o'tkazishadi:

- Quyosh nurlari doimo yer yuzasining biror nuqtasiga perpendikulyar ravishda tushadimi?
- Yerning Quyoshga nisbatan yaqinlashishi va uzoqlashishi o'rtasida qanday farqlar bor?
- Agar yerning aylanish o'qi og'ma bo'lmaganida, fasllar hosil bo'larmidi?

Quyidagi jadvalni to'ldiradilar:

Holati	Quyoshga yaqin bo'lganida	Quyoshdan uzoqlashganida	O'q tik bo'lsa
Yer yuzasi qizib ketadimi?			
Fasllar o'zgaradimi?			

Har bir guruh o'z kuzatishlariga ko'ra to'rt faslni ifodalovchi rasm chizadi.

Bir necha daqiqadan so'ng har bir guruh o'z tajribalarini boshqa guruhlar va o'qituvchi bilan bo'lishadi. Ushbu faoliyat ularga Yerning Quyosh atrofida

aylanishi, uning fasllar almashinishiga qanday bog‘liqligini o‘rganishga va tanqidiy tahlil qilishga yordam beradi.

Baholash: Ushbu bosqichda o‘quvchilarning o‘rganish jarayoni va natijalari tizimli ravishda baholanadi. O‘qituvchi **rubrikalar** (aniq mezonlar asosidagi baholash), **kuzatuv varaqalari, o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro bir-birini baholash, yozma topshiriqlar kabi** baholash usullarini qo‘llaydi.

Kengaytirish: Mazkur bosqichda o‘quvchilar o‘zlashtirilgan tushunchalarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash orqali ularni yangi kontekstga ko‘chirishadi. Bunday ko‘chirish jarayoni tushunchalarning chuqurroq va mustahkamroq anglanishiga xizmat qiladi. Har bir guruh 3 ta davlatni tanlab, ulardagi **hozirgi fasl**ni aniqlaydi. Olingan ma’lumotlar asosida jadvalda solishtirishadi:

Davlat	Kun/tun farqi	Harorat	Fasl	Sababi

“**Nimaga ayni vaqtda Avstraliyada qish fasli bo‘lganida, Rossiyada yoz fasli kuzatiladi?**” degan savolga videolavha tayyorlash.

Shuningdek, ular tanqidiy fikrlash, vazifalarga yo‘naltirilganlik, jamoada ishlash va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Ushbu modelda o‘qituvchi ma’ruza qiluvchi emas, balki yo‘l-yo‘rsatuvchi va qo‘llab-quvvatlovchi sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘quvchilarni faol, hamkorlikda o‘rganishga undaydi, mavjud bilimlarini aniqlab, ularni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, o‘qituvchi o‘quv jarayonini samarali tashkil etish maqsadida o‘quv-uslubiy strategiyalarni moslashtirish va qayta tuzish uchun javobgardir. O‘quvchilarning roli o‘rganish jarayonida faol ishtirok etishdan iborat bo‘lib, ular savol berish, fikr bildirish va muhokamada qatnashish orqali bilimga erishadilar. Ular mustaqil, izlanishga asoslangan va konstruktiv o‘rganishga jalb etilib, tabiiy qiziquvchanliklarini atrof-muhit haqidagi bilimlarga yo‘naltiradilar. O‘quvchilardan hamkorlikda va jamoaviy tarzda ishlash ham talab etiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 7E modeliga asoslangan ta’lim o‘quvchilarning tushunchalarni chuqurroq anglashiga, bilimlarni uzoq muddat saqlashiga hamda yutuqlari, fan jarayon ko‘nikmalari, tanqidiy va tahliliy tafakkuri va fanga bo‘lgan ijobiy munosabatining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [4,5]. 7E modeli o‘quvchilarning yutuqlari, bilimlarni saqlab qolish darajasi, fan jarayon ko‘nikmalari, tanqidiy va tahliliy tafakkuri, kognitiv qobiliyatlari hamda o‘rganishga bo‘lgan munosabatini yaxshilash bilan birga, o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Tadqiqotlar ushbu modelning an’anaviy ta’lim usullariga nisbatan samaraliroq ekanini tasdiqlagan. Shu bois, 7E modelini amaliyotga keng joriy etish zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bereiter C. Constructivism, socio culturalism and Popper's World 3. Educational Researcher,23(7),1994. pp.21-23.

2. Karplus R., Their H.D. A new look at elementary school science. Chicago: Rand McNally.1967.

3. Eisenkraft A. Expanding the 5E model. A proposed 7E model emphasizes "transfer of learning" and the importance of eliciting prior understanding. Science Teacher, 70(6), 2003. pp.56-59.

4. Adak S. Effectiveness of constructivist approach on academic achievement in science at secondary level. Educational Research and Reviews, Vol. 12(22), 2017. pp. 1074-1079. DOI: 10.5897/ERR2017.3298.

5. Adesoji F.A., Idika M.I. Effects of 7E learning cycle model and case-based learning strategy on secondary school students' learning outcomes in Chemistry. JISTE Vol. 19, No. 1, 2015. pp.7-17.

QADRIYATLAR - O‘QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISH MANBAI SIFATIDA

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti
"Milliy tarbiya, mutafakkirlar va jadidlarning pedagogik ta'limotlari"
ilmiy tadqiqot bo‘limi boshlig‘i,
pedagogika fanlari doktori, professor Safarova Roxat Gaybillayevn.

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish jarayonida ularning ma'naviy, madaniy hamda shaxsiy-kasbiy rivojlantirishda qadriyatlarning o‘rni, o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Kasbiy rivojlantirish jarayonida o‘qituvchilarning ma'naviy qiyofasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda qaysi qadriyatlarga amal qilishlari hamda ushbu jarayonda professor-o‘qituvchilarning tinlovchilarda shaxsiy-kasbiy sifatlarni rivojlantirishga e'tibor berishlari kerak bo‘lgan tomonlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ma'naviy-axloqiy, qadriyatlar, refleksiya, o‘qituvchi , tolerantlik, insonparvarlik, shaxs, ko‘nikma, kasbiy sifat.

Zamonaviy ta'lim tizimi oldiga qo‘yilgan muhim vazifalardan biri, madaniy, ma'naviy axloqiy jihatdan rivojlangan o‘qituvchilarni kasbiy maqhoratini rivojlantirishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda, o‘qituvchi shaxsining qadriyatli yo‘nalishlarini refleksiya asosida aniqlash, alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki refleksiya o‘qituvchi shaxsini ma'naviy-axloqiy, kasbiy jihatdan tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi. Madaniy globallashuv sharoitida zamonaviy O‘zbekiston jamiyati har bir shaxsning ma'naviy-kasbiy jihatdan kamol topishidan manfaatdor. O‘qituvchi uchun ma'naviy-ijodiy, madaniy-axloqiy, kasbiy jihatdan rivojlanish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki ijtimoiy munosabatlar vaziyatida o‘qituvchining tolerantligi, insonparvarliligi, rahm-

shafqatliligi, ijodkorligi uning kasbiy rivojlanishi uchun nihoyatda zarur bo‘lib, ta’lim jarayonining mazmun-mohiyatini belgilaydi.

Har bir shaxs madaniy, ma’naviy, axloqiy va kasbiy jihatdan rivojlanish ehtiyojiga ega bo‘lishi lozim. Aks holda u kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish, uni amaliy faoliyatida qo‘llashda yutuqlarga erisha olmaydi. Kasbiy rivojlanish ehtiyoji shaxsning intilishlari va motivlari ko‘lamini belgilaydi. Natijada, o‘qituvchilar mustaqil bilim olish va o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Ular o‘z-o‘zlarini va ichki olamlarini boyitadilar. O‘quv faoliyatlarini muntazam korreksiyalashga muvaffaq bo‘ladilar. Natijada o‘zlarining shaxsiy-kasbiy sifatlarini takomillashtirishga erishadilar. O‘qituvchilarning tayanch ehtiyojlari bilimlarni integratsiyalash uchun asos bo‘ladi. Bilish faoliyatlarining ko‘p qirraliligi va yaxlitligi ta’minlanadi. Natijada ular o‘zlari va atrofdagilarni o‘rgana boshlaydilar. Ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlash uchun o‘qituvchining ma’naviyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan asoslarini muntazam takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun o‘quv dasturlaridagi mavzular tinlovchilarda yuqori darajadagi ma’naviy bilimlar tizimini taqdim etishga xizmat qilishini ta’minlash talab qilinmoqda. Chunki mazkur bilimlar tinlovchilarning ma’naviy olamini shakllantirish va muntazam boyitishga xizmat qiladi. Oliy pedagogik ta’limning asosiy muammosi tinlovchilarda pedagogik faoliyat tajribasini shakllantirish bilan bog’liq. Bunda birinchi navbatda o‘qituvchining korreksiyalash faoliyatini shakllantirishga e’tibor qaratiladi. O‘quvchi yoshlarning qadriyatlarni tanlash va o‘z faoliyatlariga singdirishlarida o‘qituvchining pozitiv va savodli ta’sir ko‘rsatishi ularning ma’naviyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada, yuksak ma’naviyatli shaxsning ma’naviy qiyofasi vujudga keladi.

O‘qituvchilar o‘zlari o‘zlashtirgan qadriyatlar yordamida jamiyat a’zolariga nisbatan qadriyatli munosabatda bo‘lish tajribasini egallaydilar. Mazkur tajriba yordamida ularning ijtimoiy mavqei va ijtimoiy vaziyatlari o‘zgaradi. O‘qituvchilar o‘z hayotiy faoliyatlarda qaysi qadriyatlarga tayanishlari bilan bog’liq holda o‘qituvchilarning ma’naviy qiyofasi va kasbiy kompetensiyalari, hayotda qaysi qadriyatlarga amal qilishlari, ma’naviy yuksalish ehtiyojlari aniq namoyon bo‘ladi. Bu esa ularning ma’naviy qiyofasini belgilaydi. Bugungi kunda o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish ehtiyojlari kuchaymoqda. Mazkur ehtiyoj O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qabul qilingan qarorlar va me’yoriy hujjatlarda ham o‘z ifodasini topgan.

Jamiyat o‘qituvchining yuksak kasbiy bilim va madaniyatga ega bo‘lishini talab qilmoqda. Chunki bunday mutaxassislar axloqiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lgan qarorlarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ular muntazam tarzda o‘z imkoniyatlari va layoqatlarini rivojlantirish ko‘nikmasini namoyon etadilar. Ma’naviy rivojlanish ehtiyojiga ega bo‘lgan o‘qituvchi lar o‘zlarining aynan ma’naviy rivojlanish imkoniyatlarini namoyon eta oladilar. Ular umuminsoniy qadriyatlarni o‘z kasbiy faoliyatlarining manbai sifatida baholaydilar.

Shuning uchun ham muntazam tarzda o‘z faoliyatlarini takomillashtirish va ijodiy faoliyatlari mahsulini yaratishga intiladilar. Bunday tinlovchilarda ma’naviy

kreativ sifatlar yuqori darajada shakllangan bo‘ladi. Shuning uchun ham muntazam tarzda o‘z-o‘zlarini rivojlantirish motivlariga ega bo‘ladilar. Mazkur tinlovchilarning aksariyat qismi o‘z kasbiy mahorati – “akme”ga intiladilar. Bugungi kunda pedagogikaga oid aksariyat tadqiqotlarda ma’naviy-axloqiy, ijodiy rivojlanish motivlariga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirishga ustuvor o‘rin ajratilmoqda. Bunday o‘qituvchilarni rivojlantirish ta’lim strategiyasini belgilaydi. Shuning uchun ham o‘qituvchilarni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish yanada dolzarblik kasb etmoqda. Bunday pedagoglarni tarbiyalash, ularning kasbiy mahoratlarini rivojlantirish omillarini aniqlashni taqozo etadi. Shuning uchun ham biz o‘z ishlarimiz davomida pedagogik madaniyatshunoslik va aksiologik g’oyalarga tayanishga harakat qildik.

Tinlovchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda qadriyatlarning ahamiyatlilik darajasini aniqlash maqsadida ular faoliyatini muntazam refleksiyalash alohida ahamiyatga ega kasb etdi. Aksiologik yondashuv doirasida o‘zbek xalqining tayanch qadriyatlari nazariy jihatdan o‘rganiladi. Ijobiy yaratuvchilikka oid qadriyatlar doirasida hayotiy muammolarni refleksiyalash faoliyati shakllantiriladi va amalga oshiriladi. Qadriyatlarni maqsadga muvofiq holda tanlash natijasida o‘qituvchilar faoliyatida qadriyatli yo‘nalishlar shakllanadi. Bu esa tinlovchilarning ma’naviy-axloqiy va ijodiy jihatdan rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Ularning pedagogik faoliyati qadriyatli ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchining ma’naviy-ijodiy jihatdan rivojlanishi ularda ma’naviy-axloqiy va ijodiy sifatlarnig uyg’un tarzda shakllanishiga bog’liq. Natijada, o‘qituvchilarda qadriyatli ong, qadriyatli munosabat, qadriyatli xulq-atvor tajribasi tarkib topadi.

Pedagogik aksiologiyaning nazariy asoslari o‘qituvchi shaxsining tayanch sifatlarining tarkibiy qismini tashkil etadi. Bunday vaziyatda qadriyatlar o‘qituvchi shaxsiy-kasbiy faoliyatining mazmun-mohiyatini boyitadi. Ular qadriyatlarga tayangan holda istiqboldagi kasbiy faoliyatlari rivojlanish treyektoriyasini belgilaydilar. Chunki qadriyatlar o‘qituvchi shaxsiy–kasbiy sifatlarining asosiy manbai hisoblanadi. Qadriyatlarning asosiy mazmunini esa o‘zbek xalqining madaniy-tarixiy tajribasi tashkil etadi. Shuning uchun ham qadriyatlarda millatning ma’naviy-madaniy boyliklari mujassamlashadi. Shunda ko‘ra qadriyatlar o‘qituvchi shaxsiy-kasbiy taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy manbadir. O‘qituvchlar o‘zlarini o‘rab turgan ijtimoiy muhitning ma’naviy qiyofasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadilar. Chunki o‘qituvchilar har qanday jamiyatda uning ma’naviy madaniy qiyofasini belgilovchi subyektlar sifatida namoyon bo‘ladilar.

Agar insonlar xulq-atvorida salbiy jihatlar keskin namoyon bo‘la boshlasa, qadriyatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Natijada jamiyat a’zolari orasida ma’naviy buzilishlar, salbiy og’ishlar vujudga keladi. Shuning uchun ham ta’lim mazmunida qadriyatlarning tarixiy ildizlari va bugungi kundagi ijtimoiy-madaniy taraqqiyot uchun muhim bo‘lgan asoslari o‘z ifodasini topishi lozim. Tinlovchilar faoliyatiga pozitiv, yaratuvchilik xarakteridagi qadriyatlarni ko‘proq singdirish bugungi kunda davlat va jamiyat talablarida yaqqol ko‘rsatib berilgan. Qadriyatlar bilan bog’liq

muammolar aksiologiya bilan bir qatorda pedagogika, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlarining ham asosiy tadqiqot obyekti toifasiga kiradi. Shuning uchun ham pedagogika sohasidagi tadqiqotlarni aksiologik, madaniyatshunoslik, akmeoloogik yondashuvlarga tayangan holda o‘qituvchilarning ma’naviy qiyofasini shakllantirsh hamda ularni madaniy, shaxsiy-kasbiy jihatdan kompleks rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi. Bu esa o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikning samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.

3. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). -T.: O‘zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati, 2004. –B.53

4. Ro‘ziyeva R. Yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish. T., 2011 yil.

5. Abdug‘aniyev O. Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida tinlovchilarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirish. International scientific-practical conference “Strategies for the development of professional competence of future teachers based on the approach of cultural studies: problems and solutions” October 19-20, 2023.

BOLALARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH BO‘YICHA ISH SHAKLLARI VA USULLARI

Begmatova Munira Tolibjon qizi
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu ishda bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning samarali shakllari va usullari tahlil qilinadi. Sog‘lom turmush tarzi bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uchun muhim bo‘lib, uni shakllantirishda o‘qituvchilar, ota-onalar va jamiyatning roli katta. Turli faoliyatlar, masalan, sport, to‘g‘ri ovqatlanish, gigiyena qoidalari va dam olish tartibiga rioya qilish bolalarning sog‘lom odatlari sifatida rivojlantiriladi.

“Maktabgacha ta’limda tarbiyachi bolalar bilan bivosita bolalar salomatlikka g‘amxo‘rlik qilish pedagogning eng muhim ishi bo‘lib, bolalarning ma’naviy hayoti, dunyoqarashi, aqliy rivojlanishi, bilimining mustahkamligi, o‘z kuchiga ishonchi bolalarning quvnoqligi va shijoatiga bog‘liq”. —deb hisoblaydi V. a. Suxomlinskiy.

21-asrdagi hayot biz uchun juda ko‘p muammolarni keltirib chiqarmoqda, ular orasida sog‘liqni saqlash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish muammosi eng katta va dolzarb mavzudir. Yoshlarimiz bizning-kelajagimizdir. Yosh avlod

sog‘lom bo‘lgandagina Vatanimiz qudratli, obod va raqobatbardosh davlat bo‘ladi. Sog‘lom odamni tarbiyalashdan muhimroq va ayni paytda qiyinroq vazifa yo‘q. Bolalar salomatligini qanday mustahkamlash va saqlash kerak? Bolada jismoniy madaniyatni rivojlantirishga qanday yordam berish kerak? Soglom turmush tarzi ko‘nikmalarini qanday singdirish kerak? Buni qachon boshlashimiz kerak? o‘sib borayotgan bolaga sog‘liq va baxtli hayot huquqini tushunishga qanday yordam berish kerak? Quyida keltirilgan bu turdagi savollar tarbiyachini ham, ular hamkorlikda ishlaydigan ota-onalarni ham tashvishga solmoqda. Ma'lumki, maktabgacha yosh jismoniy va ruhiy salomatlik asoslarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zero, inson 7 yoshga qadar butun umri davomida o‘ziga xos bo‘lgan ulkan rivojlanish yo‘lini bosib o‘tadi. aynan shu davrda organlarning jadal rivojlanishi sodir bo‘ladi, tananing funktsional tizimlari shakllanadi, asosiy shaxsiy xususiyatlar shakllanadi, xarakter, o‘ziga va boshqalarga munosabat shakllanadi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish juda muhimdir.

Sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish oson va sezilmas tarzda, ko‘zga tashlanmasdan, lekin har doim kattalar va bolalar tomonidan zavq va samimiy qiziqish bilan amalga oshirilishi kerak bo‘ladigan jarayon.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun bolalar salomatligini yaxshilovchi maxsus mashqlar va jismoniy tarbiya tizimini shakllantirish kerak. Shu maqsadda har kuni tashkilot guruhlarida ertalabki badantarbiya mashqlari o‘tkazilib, undan maqsad tarbiyalanuvchilarda, quvnoq kayfiyatni shakllantirish, salomatligini mustahkamlash, epchillik va jismoniy kuchni rivojlantirishdan iborat. Sport zalida ertalabki mashqlar va maxsus jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari musiqa bilan birga olib boriladi, bu "katta maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy sohasiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi, bolalarning yaxshi kayfiyatiga hissa qo‘shadi va ularning sog‘lom turmush tarzi haqidagi g‘oyalarini shakllantiradi".

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzi haqidagi g‘oyalarni shakllantirish uchun ochiq havoda o‘yinlar katta ahamiyatga ega. Ular guruhlarda, maxsus mashg‘ulotlarda, yurish paytida va darslar orasidagi oraliq intervallarda o‘tkaziladi. ochiq o‘yinlar ham musiqa darslariga kiritilishi shart.

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yinlar o‘qituvchi tomonidan tashkil etiladi, katta yoshdagi esa bunday o‘yinlar ko‘pincha bolalarning o‘zlari tomonidan tashkil etiladi. Har kuni ertalabki mashqlardan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Ularning maqsadi bolalarga harakatlarni to‘g‘ri bajarishga, tanani muvofiqlashtirishni rivojlantirishga va mustaqil vosita faolligini oshirishga qaratilgan turli mashqlarni o‘rgatishdir.

Bog‘chada bolalar salomatligi doimiy nazoratda bo‘lib, uni yaxshilash bo‘yicha profilaktika tadbirlari o‘tkazilmoqda.

Turli sport turlariga qiziqishni rivojlantirish sport ishlari orqali amalga oshiriladi:

- ertalabki mashqlar; - uyqudan keyin tuzatuvchi gimnastika; - sport o‘yinlari; - sport tadbirlari, bayramlar; - yurish paytida faol o‘yinlar. Salomatlikni

mustahkamlash va tanani chiniqtirish har xil turdagi sog‘lomlashtirish ishlari orqali amalga oshiriladi: – nafas olish mashqlari; - tuzatuvchi gimnastika (tekis oyoqlar). Turli jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bolalarning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi: – o‘yinlar; – syujet; - piyoda yurish; - estafeta musobaqalari.
Men maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha ishlarni amalga oshiraman, buni mashg‘ulotlar, tartiblar, o‘yinlar, sayrlar, individual ishlar, mustaqil ishlar orqali amalga oshiraman. Quyidagi metodik usullar qo‘llaniladi: – o‘qituvchining hikoyalari va suhbatlari; – she’rlarni yod olish; – turli vaziyatlarni modellashtirish;
Ishni bajarayotganda, ijobiy baholash, maqtash va rag‘batlantirishdan foydalaning. Ma'lumki, maqtov rag‘batlantiradi, g‘azablangan so‘z esa, aksincha, xafa qiladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, kun davomida maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish bo‘yicha tadbirlar, to‘g‘ri tuzilgan rejim o‘z samarasini beradi: bolalar xotirjam, faol, yig‘lash, hayajon yo‘q, bolalar ovqatdan bosh tortmaydilar, ular tinch va tez uxlab qolishadi, qattiq uxlashadi va tetik holda uyg‘onadilar. Uyda va tashqarida tegishli kiyimda bo‘lish, salqin suv bilan ko‘p yuvish, yalangoyoq, deraza ochiq uxlash, ochiq havoda faol jismoniy mashqlar - bularning barchasi sog‘lom turmush tarzini shakllantirish ishlarida faol qo‘llaniladigan qotib qolish daqiqalaridir.
Xulosa. Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayoni tozalik, gigiena talablariga rioya qilish, faol hayot tarzi, atrof-muhit va uning inson salomatligiga ta'siri haqidagi g‘oyalarni shakllantirish bilan bog‘liq. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mashg‘ulotlar, muntazam lahzalar, yurishlar, o‘yinlar va mehnat faoliyati jarayonida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.T. A. Shorygina "Salomatlik haqida suhbatlar". Uslubiy qo‘llanma. "Sfera" ijodiy markazi, Moskva, 2004.
2.L. V. Kochetkova. Bolalar bog‘chasi sharoitida bolalar salomatligini yaxshilash. Moskva. Ta'lim. 2005 yil
3.O. N. Morgunova Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish ishlari. Voronej, 2005 yil

TA’LIMNI AXBOROTLASHTIRISH SHAROITIDA O‘QITUVCHILARNING IJODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA KOMPONENTLARI

Eshkuvatov Jasur Buribayevich,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti doktoranti
Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna,
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi
Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrasi mudiri.

Annotatsiya Ushbu maqolada ta’limni axborotlashtirish sharoitida o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish omillari va komponentlari tahlil qilingan. Maqolada AKT joriy etish jarayonining pedagogik jarayon samaradorligiga ta’siri, innovatsion pedagogik faoliyat tushunchasi, ijodiy salohiyatning tarkibiy qismlari va ularning ta’lim amaliyotida roli yoritiladi. Mazkur tadqiqot natijalari o‘qituvchilarning professional rivojlanishi va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion pedagogik faoliyat, ijodiy salohiyat, pedagogik kompetensiyalar, ta’lim sifati.

Аннотация В данной статье анализируются факторы и компоненты развития творческого потенциала учителей в условиях информатизации образования. Освещается влияние внедрения ИКТ на эффективность педагогического процесса, понятие инновационной педагогической деятельности, структурные элементы творческого потенциала и их роль в образовательной практике. Результаты исследования служат основой для практических рекомендаций по профессиональному развитию учителей и повышению качества образования.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, инновационная педагогическая деятельность, творческий потенциал, педагогические компетенции, качество образования.

Abstract This article examines the factors and components for developing teachers’ creative potential in the context of educational informatization. It highlights the impact of ICT implementation on the efficiency of the pedagogical process, the concept of innovative pedagogical activity, the structural elements of creative potential, and their role in educational practice. The research findings provide a basis for practical recommendations aimed at teachers’ professional development and improving education quality.

Key words: information and communication technologies, innovative pedagogical activities, creative potential, pedagogical competencies, quality of education.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni o‘quv jarayoniga joriy etishda salmoqli muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Davlat miqyosida ta’limni raqamlashtirish, pedagogik jarayonni modernizatsiyalash va o‘quvchilarning axborot madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha qator strategik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Prezident qarorlari, hukumat dasturlari hamda xalqaro tajribaga asoslangan loyihalar ta’lim sohasining raqamli transformatsiyasini yanada jadallashtirmoqda.

Ayniqsa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘quv jarayoniga keng ko‘lamda joriy etilishi – yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘z-o‘zini anglash va bilimga chanqoqlikni kuchaytirishning ustuvor omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Interaktiv ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar, elektron darsliklar, masofaviy ta’lim tizimlari kabi texnologik yechimlar o‘quvchilarga

individual yondashuv asosida ta’lim olish imkonini yaratmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi nafaqat o‘quvchilar uchun, balki pedagoglar uchun ham yangi kompetensiyalarni shakllantirish, dars jarayonida innovatsion metodlarni qo‘llash va o‘z ustida ishlashga undovchi muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bois, AKTni ta’lim tizimida qo‘llash bugungi kunda faqat texnik vosita emas, balki metodologik va madaniy transformatsiya vositasi sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda ta’lim tizimida kechayotgan jadal o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalarning chuqur joriy etilishi va global raqobat muhiti o‘qituvchidan faqat mavjud bilimlarni yetkazish emas, balki doimiy izlanish, o‘z ustida ishlash, pedagogik innovatsiyalarni anglash va ularni amaliyotga tatbiq etish malakasini talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ta’limni axborotlashtirish sharoitida o‘qituvchining kasbiy jihatdan muhim fazilatlaridan biri uning innovatsion pedagogik faoliyatga intilishidir.

Innovatsion pedagogik faoliyat – bu o‘qituvchining yangi pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirish, ilg‘or metod va texnologiyalarni sinfda qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ijodiy va izlanishga asoslangan faoliyatidir. Bu jarayonda innovatsion yondashuvlar ta’lim va tarbiya muammolariga yangicha nazar bilan qarash, nostandart yechimlar topish, ta’limiy kommunikatsiyani yangilash hamda o‘quv jarayonini o‘ziga xoslik va moslashuvchanlik tamoyillari asosida tashkil etish imkonini beradi. Aynan shu jihatlar tufayli innovatsion pedagogik yutuqlar o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning tafakkurini faollashtiradi va zamonaviy ta’limga xos dolzarb muammolarni hal etishning optimal yo‘llarini shakllantirishga xizmat qiladi [1].

Ushbu pozitsiyani amaliy jihatdan asoslashda o‘qituvchining individual shaxsiy fazilatlarining uning innovatsion faoliyati samaradorligiga bevosita ta’siri alohida e’tiborni talab qiladi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ijodkorlik, yangilikka ochiqlik, refleksiya, tashabbuskorlik, axborotni tahlil qila olish kabi fazilatlar o‘qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligini belgilovchi muhim omillar sirasiga kiradi. Shuningdek, o‘qituvchi ta‘limiy yangiliklarni joriy etuvchi va ularni amalda sinovdan o‘tkazuvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, pedagogik innovatsiyalarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy ijodiy salohiyati darajasiga bog‘liqdir [2].

Innovatsion faoliyatda o‘qituvchi ikki tomonlama vazifani bajaradi: bir tomondan u yangilik tashuvchisi – ya’ni yangi g‘oya, metod yoki vositani ta’lim jarayoniga olib kiruvchi agent bo‘lsa, ikkinchi tomondan – bu yangilikni amalda sinovdan o‘tkazuvchi, moslashtiruvchi va takomillashtiruvchi ijodkor shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, pedagogik innovatsiyalarning ta’lim amaliyotida muvaffaqiyatli joriy etilishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy ijodiy salohiyatini rivojlantirish darajasiga bog‘liqdir. Boshqacha aytganda, pedagogning innovatsion faoliyatga tayyorligi va motivatsiyasi ta’limdagi yangilanishlar samaradorligining kalitidir.

O‘qituvchining ijodiy salohiyati va uning strukturaviy tarkibi. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchining ijodiy salohiyati, ayniqsa, noan’anaviy yoki favqulodda pedagogik vaziyatlarda, ta’lim va tarbiya muammolarini hal qilish jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu salohiyat o‘qituvchining shaxsiy tashabbus ko‘rsatish darajasi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, shuningdek, muammoli vaziyatlarda o‘z oldiga maqsad qo‘yish va uni izchil amalga oshirishdagi faolligi orqali ifodalanadi.

Ta’kidlash joizki, o‘qituvchining ijodiy salohiyati — bu muayyan pedagogik sharoitlarda yuzaga keladigan va nostandart yechimlarni topishga doimiy turtki beruvchi, holatga bog‘liq (situatsion) xususiyatga ega bo‘lgan murakkab psixologik-pedagogik hodisadir. U, avvalo, yangi muammolarni aniqlash, ularning mohiyatini anglash va har bir konkret holat uchun optimal yechimlarni ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan tafakkur moslashuvchanligi va professional refleksiya darajasini aks ettiradi [3].

Ta’limni axborotlashtirish sharoitida o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish istiqbollarini o‘rganishda, pedagoglarining kasbiy faoliyatini tizimli tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tahlil orqali o‘qituvchining ijodiy salohiyati quyidagi asosiy tarkibiy qismlar (komponentlar) orqali namoyon bo‘lishi shartli ravishda aniqlandi:

- **Motivatsion komponent** – o‘qituvchining yangilikka bo‘lgan ichki ehtiyoji, kasbiy o‘sishga bo‘lgan intilishi;
- **Muammoli-sensorli komponent** – pedagogik muammolarni sezish, ular bilan bog‘liq muayyan holatlarni ilg‘ay olish qobiliyati;
- **Axborot komponenti** – mavjud bilimlar bazasi va axborot resurslaridan samarali foydalanish layoqati;
- **Aqliy komponent** – tahliliy, sintetik va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarining shakllanganligi;
- **O‘zini o‘zi ta’minlovchi komponent** – o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtirish, baholash va tahlil qilishga qodirlik;
- **Kommunikativ komponent** – samarali muloqot, ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik;
- **Altruistik komponent** – ta’lim oluvchilarning manfaatlariga yo‘naltirilgan g‘amxo‘rlik va fidoyilik;
- **Analitik komponent** – pedagogik faoliyatda refleksiv yondashuv asosida samaradorlikni aniqlay olish;
- **Konstruktiv komponent** – ta’limiy jarayonni ijodiy loyihalash va tashkil etish ko‘nikmalari;
- **Innovatsion komponent** – yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va ularni amaliyotga tatbiq etish layoqati.

Ushbu komponentlar majmuasi o‘qituvchining kasbiy va ijodiy rivojlanishini tavsiflash bilan birga, pedagogik jarayonning o‘ziga xosliklarini tahlil qilishda, shuningdek, ta’lim tizimi bilan bog‘liq makro- va mikromuhit omillarining o‘zaro munosabatlarini aniqlashda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu orqali ta’lim jarayonida ijodiy yondashuv asosida hal qilinishi zarur bo‘lgan

muammolarning mavjudligi va ularning ko‘lami aniq belgilanadi, bu esa amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Ijodiy salohiyat komponentlarining mazmun-mohiyati. O‘qituvchining ijodiy salohiyatini tashkil etuvchi har bir komponent o‘zining funksional va psixologik-ma’naviy yo‘nalishiga ega bo‘lib, ular pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim omillardandir. Ushbu komponentlarning ichki tarkibi quyidagicha izohlanadi:

Motivatsion komponent — bu o‘qituvchining shaxsiy qadriyat tizimi, professional faoliyatga nisbatan ijobiy munosabati va uni doimiy rivojlantirishga bo‘lgan ichki ehtiyojini ifodalaydi. U umuminsoniy va ijodiy qadriyatlarni tan olish, axloqiy xulq-atvor me’yorlariga amal qilish, turli nuqtai nazarlarni anglay olish, insonlar pozitsiyasiga bag‘rikeng munosabatda bo‘lish qobiliyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu jihatlar o‘qituvchining o‘z faoliyatiga mas’uliyatli va reflektiv yondashuvini shakllantiradi.

Axborot komponenti o‘qituvchining kasbiy faoliyatda zarur bo‘lgan nazariy bilimlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Bunga quyidagilar kiradi: shaxs nazariyasi bo‘yicha bilimlar, ongli pedagogik pozitsiyani shakllantirish, ijodkorlik nazariyasi va ijodiy fikrlash tarixi bilan tanishlik, pedagogik tajribalarning umumlashtirilgan modeli, shuningdek, axborot resurslaridan foydalanish malakalari. Bu komponent o‘qituvchining professional tafakkurini rivojlantirish va yangiliklarni o‘zlashtirish imkonini beradi.

Aqliy komponent esa ratsional fikrlash, mantiqiy va arifmetik muammolarni hal qilish, assotsiativ tafakkur va bilimlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bunday xususiyatlar o‘qituvchining o‘quvchilarga tushunarli, mantiqan asoslangan, chuqur tahlil qilingan bilimlar bazasini yetkazish imkoniyatini ta’minlaydi. Shuningdek, bu komponent qiziquvchanlik va tafakkur faolligini ham o‘z ichiga oladi.

O‘z-o‘zini ta’minlovchi (avtonom) komponent ijodiy mustaqillik va yangilik yaratish layoqatini aks ettiradi. Uning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi: nostandart javoblar topish (ya’ni o‘ziga xoslik), semantik moslashuvchanlik (ya’ni ob’ekt xususiyatlarini har xil sharoitda anglab yetish), g‘oya yaratish tezligi, ob’ektni takomillashtirish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish. Ushbu jihatlar pedagogik faoliyatda ijodkorlikni amalda yuzaga chiqarishda muhim rol o‘ynaydi.

Kommunikativ komponent pedagogik muloqotni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bu komponent o‘qituvchining og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqot vositalaridan foydalana olish qobiliyatiga, shaxslararo munosabatlarni boshqarish ko‘nikmalariga asoslanadi. Aktyorlik texnikasini qo‘llay olish, didaktik nutq madaniyati, stereotiplarga qarshi kurasha olish, nizolarni konstruktiv hal etish – bularning barchasi ushbu komponent doirasida shakllanadigan muhim jihatlardir. Bu orqali o‘qituvchi o‘quvchi bilan ishonchli pedagogik aloqalarni o‘rnatadi, interaktiv va reflektiv muhitni rivojlantiradi.

Ijodiy salohiyat komponentlarining mazmun-mohiyati

O‘qituvchining ijodiy salohiyatini tashkil etuvchi har bir komponent o‘zining funksional va psixologik-ma’naviy yo‘nalishiga ega bo‘lib, ular

pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim omillardandir. Ushbu komponentlarning ichki tarkibi quyidagicha izohlanadi:

Motivatsion komponent – bu o‘qituvchining shaxsiy qadriyat tizimi, professional faoliyatga nisbatan ijobiy munosabati va uni doimiy rivojlantirishga bo‘lgan ichki ehtiyojini ifodalaydi. U umuminsoniy va ijodiy qadriyatlarni tan olish, axloqiy xulq-atvor me’yorlariga amal qilish, turli nuqtai nazarlarni anglay olish, insonlar pozitsiyasiga bag‘rikeng munosabatda bo‘lish qobiliyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu jihatlar o‘qituvchining o‘z faoliyatiga mas’uliyatli va reflektiv yondashuvini shakllantiradi.

Axborot komponenti o‘qituvchining kasbiy faoliyatda zarur bo‘lgan nazariy bilimlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Bunga quyidagilar kiradi: shaxs nazariyasi bo‘yicha bilimlar, ongli pedagogik pozitsiyani shakllantirish, ijodkorlik nazariyasi va ijodiy fikrlash tarixi bilan tanishlik, pedagogik tajribalarning umumlashtirilgan modeli, shuningdek, axborot resurslaridan foydalanish malakalari. Bu komponent o‘qituvchining professional tafakkurini rivojlantirish va yangiliklarni o‘zlashtirish imkonini beradi.

Aqliy komponent esa ratsional fikrlash, mantiqiy va arifmetik muammolarni hal qilish, assotsiativ tafakkur va bilimlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bunday xususiyatlar o‘qituvchining o‘quvchilarga tushunarli, mantiqan asoslangan, chuqur tahlil qilingan bilimlar bazasini yetkazish imkoniyatini ta’minlaydi. Shuningdek, bu komponent qiziquvchanlik va tafakkur faolligini ham o‘z ichiga oladi.

O‘z-o‘zini ta’minlovchi (avtonom) komponent ijodiy mustaqillik va yangilik yaratish layoqatini aks ettiradi. Uning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi: nostandart javoblar topish (ya’ni o‘ziga xoslik), semantik moslashuvchanlik (ya’ni ob’ekt xususiyatlarini har xil sharoitda anglab yetish), g‘oya yaratish tezligi, ob’ektni takomillashtirish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish. Ushbu jihatlar pedagogik faoliyatda ijodkorlikni amalda yuzaga chiqarishda muhim rol o‘ynaydi.

Kommunikativ komponent pedagogik muloqotni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bu komponent o‘qituvchining og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqot vositalaridan foydalana olish qobiliyatiga, shaxslararo munosabatlarni boshqarish ko‘nikmalariga asoslanadi. Aktyorlik texnikasini qo‘llay olish, didaktik nutq madaniyati, stereotiplarga qarshi kurasha olish, nizolarni konstruktiv hal etish – bularning barchasi ushbu komponent doirasida shakllanadigan muhim jihatlardir. Bu orqali o‘qituvchi o‘quvchi bilan ishonchli pedagogik aloqalarni o‘rnatadi, interaktiv va reflektiv muhitni rivojlantiradi.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining kasbiy-ijodiy salohiyati o‘quv jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi, innovatsion ta’lim muhitining shakllanishi o‘qituvchidan nafaqat yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikni, balki yangilikka intilish, mustaqil qaror qabul qilish, nostandart yondashuvlar orqali ta’limiy vazifalarni samarali hal etish kabi kompetensiyalarni ham talab qilmoqda.

Tadqiqot davomida o‘qituvchining ijodiy salohiyatini tashkil etuvchi asosiy komponentlar chuqur tahlil qilindi. Jumladan, motivatsion, axborot, o‘z-o‘zini ta’minlovchi, kommunikativ va boshqa tarkibiy qismlar pedagogik faoliyatda qanday rol o‘ynashi, ularning o‘zaro bog‘liqligi va kasbiy rivojlanishga ta’siri asoslantirildi. Aniqlanishicha, bu komponentlar o‘qituvchining nafaqat kasbiy faolligini, balki shaxsiy pozitsiyasini, yangilikka ochiqligini, ijodiy fikrlash darajasini ham belgilaydi.

Shuningdek, ta’lim jarayonining axborotlashtirilgan sharoitlarida o‘qituvchining ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillar – tashkiliy, psixologik, metodik va texnologik shart-sharoitlar kompleks holda ko‘rib chiqildi. Ularning uyg‘unlashuvi innovatsion ta’limni joriy etishda, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda muhim o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchining ijodiy salohiyatini rivojlantirish – bu pedagog shaxsining ijtimoiy-psixologik, axloqiy-ma’naviy va kasbiy-professionallik jihatlarini uzviy rivojlantirishga xizmat qiladigan, izchil va tizimli yondashuvni talab etuvchi jarayondir. Mazkur salohiyatni shakllantirish va takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-nazariy asoslangan metodik yondashuvlar, amaliy mexanizmlar ishlab chiqilishi esa kelajakda ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Hasanboeva O. U. *Innovatsion ta‘lim texnologiyalari.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Fullan M. *The New Meaning of Educational Change.* – New York: Teachers College Press, 2007.
3. Mayer R.E. *Multimedia Learning.* Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
4. Tursunov, D. (2020). *Pedagogik innovatsiyalar va ularni amaliyotga tatbiq etish metodikalari.* Toshkent: Universitet nashriyoti.
5. Vygotskiy, L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.* Cambridge, MA: Harvard University Press. (1978).
6. Муслимов Н.А ва бошқалар. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. Ўқув методик қўлланма. – Т.: “Sano-standart”, 120 – 2015 б.
7. Брякова И. Е. Креативная компетентность педагога – новый вектор развития образования //Педагогический имидж. – 44(3 .№ – 2019).
8. Авазбоев А. И., Пардабоев Ж. Э. Талабаларда креативлик сифатларини ривожлантиришнинг самарали йўллари //Современное образование (Узбекистан). – 8 .№ – . 2018.
9. Ибрагимова Г. Н. Олий таълим тизимида интерфаол технологиялар воситасида талабалардаги ижодий фикрлашни ривожлантириш //Современное образование (Узбекистан). – 4 .№ – 2017.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MILLIY QADRIYATLAR, AN'ANALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Haqberdiyeva Zamira Rajabboyevna
Samarqand pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim
metodikalari kafedrasi o'qituvchisi
zamira.haqberdiyeva86@gmail.com
tel:+99890-606-84-22

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning ma'naviyatining shakllantirishning mazmuni, samarali shakl, metod va usullarini aniqlash, uning mazmunini takomillashtirish haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, ma'rifat,qadriyat,axloqiy tarbiya,maktabgacha ta'lim, nutq, san'at.

Keywords: Spirituality, enlightenment, values, moral education, preschool education, speech, art.

Buyuk sharq mutafakkurlarining tarbiya masalasidagi qarashlarida tarbiya qancha erta boshlansa shuncha samarali bo'lishi ta'kidlangan. Uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bo'g'ini sifatida maktabgacha ta'lim tizimida olib borilagan ma'naviy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tizimini o'rni beqiyosdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ- 4307-son qarorida[1] "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali tashkil etish belgilangan. Har bir millatning o'z ma'naviyatini chuqur anglashi, ongini tarkibiy qismiga aylantirishi millatning kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy muhitni yanada yaxshilash, ming yillar mobaynida uning bag'rida sayqallanib kelayotgan ibratli an'ana va qadriyatlarni targ'ib-tashviq etish borasida ko'plab tadbirlar tashkil etilmoqda.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarorida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida, oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash belgilandi. Ma'lumki insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamga uning bo'y basti,

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ- 4307-son qarori.LEX.UZ

ko‘rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqalar kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu intilishlari, his-tuyg‘ularini o‘z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma’naviyatdir. Ma’naviyat, ma’rifat va madaniyat bilan bog‘liq. Ma’naviyat odamlarda tap-tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga mustaqil o‘qish, o‘rganish, tajriba orttirish orqali erishiladi. Ma’naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi.

Mamlakatimizda yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr oqibatlilik, ma’suliyatlilik, bag‘rikenlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalaikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish maqsadida 2019-yil 31-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarori qabul qilindi.[2]

Konsepsiyada ma’naviy tarbiyani dastlab ona qornidan boshlash ko‘rsatilgan. Shu bilan birga qarorda ma’naviy tarbiyani shakllantirishda maktabgacha ta’lim tashkilotining amalga oshiradigan vazifalarga alohida e’tibor qaratilgan. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasida maktabgacha ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda 3 - 7 yoshli bolalarga xos xususiyatlar, jumladan:

- ✓ o‘z tuyg‘ularini boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanishi;
- ✓ o‘z xatti-harakatlarini axloqiy boshqarish ko‘nikmalarini yuzaga kelishi;
- ✓ shaxsiy fazilatlar asoslarining paydo bo‘lishi;
- ✓ ijtimoiy motivlar va milliy an’analarga qiziqishning paydo bo‘lishi, o‘zini namoyon qilishga intilish;
- ✓ muvaffaqiyatga erishish ehtiyojining tug‘ilishi;

o‘ziga o‘zi baho berish, tevarak-atrofdagilarga ma’naviy-axloqiy munosabatning paydo bo‘lishi;

- ✓ bola faoliyatining yetakchi turlari - muloqot, o‘yinlar, mashg‘ulotlar;
- ✓ nutq va uning asosida ma’naviyat asoslarining rivojlanishi inobatga olinadi.

Konsepsiyada tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan ushbu yoshdagi bolalarga: asosiy faoliyat turlari jarayonida o‘zini o‘zi anglashga o‘rgatish; muloqot, kuzatish va taqlid orqali kattalarning ma’naviy-axloqiy tajribasini o‘zlashtirish; o‘zining va boshqalarning xulqiga baho berishga o‘rgatish; faoliyat va syujetli-rolli o‘yinlar orqali yangi motivlarni paydo qilish va mustahkamlash; ma’naviy-axloqiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish; kundalik turmushda xavfsizlik qoidalarini o‘rgatish; kattalar, ularning mehnati, kasblar, turli kasb egalariga xos shaxsiy fazilatlar to‘g‘risida tushunchalar berish; o‘yin, o‘zaro munosabatlar, oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g‘amxo‘rlik qilish ehtiyojining paydo bo‘lishi orqali xarakter sifatlarini shakllantirib borish; bola tarbiyasida milliy

[2] “Xalq so'zi” gazetasi 2021 y 20 yanvar №13 son.

tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rgatish belgilandi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan talablar belgilab berildi.

“Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan” talablarda bolalarning beshta asosiy sohalarga bo‘lingan, bular jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish. Davlat talablarining “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasining kichik sohalari bo‘lgan, “Men” konsepsiyasi, Hissiyotlar va ularni boshqarish, Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot, kichik sohalarida 5-6 yoshdagi bolalarning ijtimoiy hissiy rivojlanishi ko‘rsatilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’nayiy tarbiyani amalga oshirishda ushbu talablarni e’tiborga olish lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nafaqat bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga, balki bola shaxsini – harakteri, irodasi, qobiliyatlari va qiziqishlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bola shaxsining rivojlanish darajasini ko‘rsatadigan mezonlardan biri. Bolaga ta’lim-tarbiya berish jarayonida shakllanadigan axloqiy normalar, e’tiqodlar, maqsadlar, his-tuyg‘ular, bolaning xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan ma’naviy qarashlar, shuningdek bilimlar, e’tiqodlar va xulq-atvorning uyg‘unligi bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga beriladigan ta’lim-tarbiya ularning oddiy gigiena, madaniy va mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilish davridir. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. U tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nafaqat bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga, balki bola shaxsini – ‘harakteri, irodasi, qobiliyatlari va qiziqishlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bola shaxsining rivojlanish darajasini ko‘rsatadigan mezonlardan biri. Bolaga ta’lim-tarbiya berish jarayonida shakllanadigan axloqiy normalar, e’tiqodlar, maqsadlar, his-tuyg‘ular, bolaning xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan ma’naviy qarashlar, shuningdek bilimlar, e’tiqodlar va xulq-atvorning uyg‘unligi bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ma’naviy va estetik tuyg‘ular hamda munosabatlarning hammasi tarbiya ta’sirida endigina rivojlana boshlaydi. Lekin bu kishi shaxsining poydevori bo‘ladi, chunki harakter va axloq belgilari hayotga munosabat ulg‘ayganda emas, balki maktabgacha yoshda shakllanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma’naviy dunyosini, uning ongiga, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini va xulqini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Axloqiy tarbiyani vazifalari asosan quyidagilardir:

1.Bolallarda axloqiy his-tuyg‘ular, tasavvurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash.

2.Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash

3.Shaxsda axloqiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash

4.Xulqdagi salbiy hislarni barham toptirish

Bu umumiy vazifalar yosh guruhlari bo‘yicha konkretlashtirilgan va o‘quv-tarbiyaviy jarayonning mazmunida o‘z aksini topadi.

Tarbiya shunday tashkil etilishi kerakki, axloqiy talablar bolalar xulqi, ularning o‘zaro munosabatlari uchun orientir bo‘lib qolsin. Insonning axloqiy rivojlanishida odamlariing birga yashashlari jarayonida shakllangan va rivojlangan, boyigan holda avloddan-avlodga o‘tadigan oddiy axloq normalarini egallashi katta ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalash yuzasidan olib boriladigan ishlar shu umumiy vazifalarga muvofiq ravishda ular o‘rtasidagi, bolalar bilan kattalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar kompleksiga hal etuvchi ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning ma’naviyatining shakllantirishning mazmuni, samarali shakl, metod va usullarini aniqlash, uning mazmunini takomillashtirish, ma’naviy ma’rifiy ishlarni modernizatsiya qilish maktabgacha ta’lim tashkilotlari oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar ma’naviyatini shakllantirish bosqichlarini ishlab chiqish zarur bo‘lib fikrimizcha bu jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- tarbiyalanuvchilar ma’naviyatining shakllanganlik darajasini o‘rganish.
- tarbiyalanuvchilar ma’naviyatini shakllantirish muommosining mazmunini aniqlash, shakl va metodlarini tanlash.
- tarbiyalanuvchilar ma’naviyatini shakllantirish bo‘yicha aniq maqsadga qaratilgan pedagogik jarayonni amalga oshirish.

Bolalarni ma’naviy tarbiyalash usullarini tanlash oldingi bolalik davrining har bir bosqichidagi asosiy vazifalarni hisobga olgan holda, ularning yoshiga xos xususiyatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Madaniy xulq-atvor malakalari, kompetensiyalarini rivojlantirish,

- Insonparvarlik ko‘nikmalarini o‘rgatish;
- Bolalar va kattalar o‘rtasidagi insoniy munosabatlar (jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning boshlang‘ich qoidalarini bajarish, mehr-oqibatlilik, ma’suliyat, yaqinlarga mehribonlik, e’tibor va boshqalar)ni o‘rgatish;
- Jamoaviylik tarbiyasi, bolalar o‘rtasida jamoaviylik ruhi va munosabatlarni o‘rgatish;
- Vatanga muhabbatni qanday namoyon qilishni o‘rgatish;
- Boshqa millat vakillariga hurmat va mehr-muhabbat uyg‘otish;
- Mehnatsevarlikning barqaror istagi va qobilyatini shakllantirish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy tarbiya ishlarini tashkil qilish metodikasining asosiy manbalari

1.Milliy va umuminsoniy qadriyatlar

2.Milliy urf odatlar

3.Xalq og‘zaki ijodi

4.Dostonlar o‘gitlari
5.Ta’lim tarbiyadagi ilg‘or tajriba

Ma’naviyatni shakllantirish mexanizimi tarbiyalanuvchilarga nimalarni o‘rgatish va qanday qilib o‘rgatish kabi savollarga javob berishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ma’naviy fazilatlarni dastlabki kurtaklari axloq-odob qoidalar va milliy o‘zlik to‘g‘risidagi dastlabki ta’savvurlarini shakllantirishdan boshlanishi kerak deb o‘ylaymiz. Tarbiyalanuvchilarning sog‘lom va ma’naviy barkamol bo‘lib voyaga yetishida pedagogik jarayon hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki tashkilotdagi ta’lim tarbiya jarayoni bola ma’naviyatini shakllantirishga imkon beradi.

Shaxs ma’naviyati murakkab va bosqichma-bosqich shakllantiriladigan jarayon bo‘lib, uning eng avvalida shaxs hayoti va idrokidan tashqarida bo‘lgan, ammo mana shu shaxs daxldor bo‘lgan ma’naviyatning ajdodlari yaratgan ma’naviyat borasidagi turli va rang barang qadriyatlar va qonuniyatlar tizimidan iborat bo‘ladi. Mazkur qonuniyatlar ilmiy-nazariy va amaliy meros hisoblanadi.Avvalo mana shu meros inson tafakkurida in’ikos etadi, mana shu meros insonning ong faoliyatida qayta anglanadi. So‘ngra inson ham mana shu qadriyatlar tizimi orqali yashay boshlaydi.

MTTlarda tarbiyalanuvchilar ma’naviyatini shakllantirishda quyidagilarga e’tibor qaraitish lozim deb o‘ylaymiz:

1. O‘zbek xalq ertaklari, dostonlarda ulug‘langan ma’naviy fazilatlarni targ‘ib qilish
2. O‘zbek xalqining uzoq tarixga ega an’analari, urf odatlari namunalaridan foydalanish
3. Tarbiyalanuvchilar ma’naviyatini shakllantirishda xalq pedagogikasi, xalq hunarmandchiligi, amaliy san’at, musiqa va teatr san’atidan foydalanish.
4. MTTda tashkil etiladigan ma’naviv-ma’rifiy tadbirlar imkoniyatlaridan keng foydalanish.
5. Tarbiyalanuvchilar ma’naviy fazilatlarini shakllantirishda oilaning hamkorligi va ma’suliyatini oshirish.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida axloqiy tarbiya kompleks tarzda amalga oshiriladi, biroq har bir bola faoliyatida o‘ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadiki, ular u yoki bu vazifani eng muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi. Masalan, o‘yinda ijobiy o‘zaro munosabatlar, axloqiy his-tuyg‘ular; mehnatda mehnatsevarlik, kattalar mehnatiga hurmat, shuningdek uyushqoqlik, mas’uliyat, burch hissi; mashg‘ulotlarda g‘oyaviy yo‘nalganlik asoslari, ijtimoiy hayot hodisalari haqidagi tasavvurlar, vatanparvarlik tuyg‘ulari shakllantiriladi.

Bolalarning ma’naviy xulq-atvor qoidalarini o‘zlashtirishi atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabatlarida nima yaxshiyu va nima yomonligini yanada chuqurroq anglab yetishga yordam beradi.

Bolalarda axloq-odob tasavvurlarini va insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish ham mashg‘ulotlarda, ham kundalik hayotda izchil, bir maqsadga qaratilgan holda olib borilishi lozim.

Bolalarda yoshlikdan xalq va yurt taqdiri uchun fidoiylik tuyg‘usini shakllantirish ma’naviy tarbiyada muhim o‘rin tutadi. Buning uchun bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab, uni narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an’analarimizga xos shakllarini qo‘llash lozim. Bu jarayonda milliy turmush tarzimizga yot bo‘lgan “jangari” o‘yinchoqlar, multfilmlar, kinofilmlardan imkon qadar foydalanmaslik kerak. Sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi o‘yinlar, o‘yinchoqlar, rasmli kitobchalar, milliy ertaklar asosida yaratilgan multfilmlar bolalarda mafkuraviy qarashlarning to‘g‘ri shakllanishida qo‘l keladi. Masalan, mashhur “Zumrad va Qimmat”, “Yoriltosh”, “Xo‘ja Nasriddinning sarguzashtlari” kabi qator ertaklar orqali bolalarda yaxshilikka muhabbat, yomonlikka nafrat tuyg‘ularini tarbiyalash, adolat tantanasiga ishonch hissini uyg‘otish mumkin.

Axloqiy tuyg‘ularni tarbiyalash metodlari va usullari xilma-xildir. Bolalarida mehribonlik, halollik to‘g‘risidagi tasavvurlar bolaning konkret xatti-harakati haqidagi suhbatlar yo‘li bilan shakllantiriladi. Bolalarning o‘zlari kuzatgan yoki sodir etgan xatti-harakatlarni ko‘ rib chiqish maqsadga muvofisdir. Bu bolalarnnng kundalik mashg‘ulotlarda (masalan, odob haqidagi suhbatlarda) olgan bilimlarini kundalik voqealar yoki bolalarning xatti-harakatlari bilan bog‘lash imkonini beradi.

Xulosa qilib olsak xalqimizda yoshlikda olingan tarbiya toshga bitilgan bitik kabidir degan maqol mavjud. Demak biz ta’lim-tarbiyani ayniqsa ma’naviy tarbiyani maktabgacha ta’lim tashkilotlarida boshlashimish va bu ishlarni olib borishda samarali usul va vositalarni tanlashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ- 4307-son qarori.
2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 1059-son qarori
3.M.Sharifxo‘jaev. Z.Davronov. “Ma’naviyat asoslari” T-2006
4.“Baxtli bola ma’naviyati” 3-7 yoshli bolaning ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha metodik tavsiyalar.A.Qodirov, M.Quronov.Toshkent,2018. 8-b
5.V.G.Nechaevava, T.A Markova «Bolalar bog‘chasida axloqiy tarbiya” T.: “O‘qituvchi”1990.14 b.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI PEDAGOG-TARBIYACHISINING NUTQ TEXNIKASINI EGALLASH YO‘LLARI

Kuvandiqova Moxira Abdukarimovna
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi o`qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyat yurituvchi pedagog-tarbiyachilarning nutq texnikasini shakllantirish va takomillashtirish yo‘llari yoritilgan. Nutq texnikasi – pedagogning kasbiy mahoratining ajralmas qismi bo‘lib, bolalar bilan samarali muloqot o‘rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada pedagog-tarbiyachining nutqi bolalarning nutqiy va psixologik rivojlanishiga ta’siri ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot maktabgacha ta’lim sifatini oshirishda pedagoglarning nutq madaniyatini yuksaltirish muhimligini asoslaydi.

Kalit so’zlar: Maktabgacha ta’lim, pedagog-tarbiyachi, bola, nutq texnikasi, nutq madaniyati, nutqni rivojlantirish, kommunikativ kompetensiya, kasbiy mahorat, pedagogik nutq, psixologik ta’sir

Аннотация. В данной статье рассматриваются пути формирования и совершенствования техники речи педагогов-воспитателей, работающих в учреждениях дошкольного образования. Техника речи является неотъемлемой частью профессионального мастерства педагога и играет важную роль в установлении эффективного общения с детьми. В статье также рассматривается влияние речи педагога на речевое и психологическое развитие детей. Исследование обосновывает важность повышения речевой культуры педагогов для улучшения качества дошкольного образования.

Ключевые слова: Дошкольное образование, педагог-воспитатель, ребёнок, техника речи, речевая культура, развитие речи, коммуникативная компетентность, профессиональное мастерство, педагогическая речь, психологическое влияние

Annotation. This article explores the methods for developing and improving the speech technique of preschool education institution teachers. Speech technique is an integral part of a teacher’s professional skills and plays an important role in establishing effective communication with children. The article also examines the impact of the educator’s speech on the speech and psychological development of children. The research substantiates the importance of enhancing teachers’ speech culture to improve the quality of preschool education.

Keywords: Preschool education, educator, child, speech technique, speech culture, speech development, communicative competence, professional skills, pedagogical speech, psychological influence

Pedagog-tarbiyachining pedagogik faoliyatida nutq texnikasi eng murakkab va doimiy munozaralarga sabab bo‘lib kelayotgan jarayon. Psixologik til bilan aytganda nutq texnikasi, notiq nutqining o‘rinli yoki o‘rinsiz ekanligini belgilashda namoyon bo‘ladi. Pedagog-tarbiyachi har xil vaziyatlarda, turli xarakterdagi bolalar bilan muloqotda bo‘ladi. Demak, u o‘z nutqini ana shu vaziyatlar asosida, bolalar holatiga qarab tuzishi, o‘zgartirishi, doimo nutqining ta’sirchan chiqishiga e’tibor berishi, bolalarni zeriktirib qo‘ymasligi uchun tilning tasviriy vositalari bo‘lmish metonimiya, metafora kabilardan foydalanishi lozim. Bolalar diqqatini jalb etish, o‘rganilayotgan mavzuga ularni qiziqtira olish pedagog-tarbiyachi nutq texnikasining asosiy xususiyatlaridandir.

Pedagog-tarbiyachining takomillashgan nutqqa ega bo‘lishi, o‘quv materialini bolalar tomonidan puxta o‘zlashtirilishini ta’minlash garovidir. Bolalar pedagog-tarbiyachi nutqiga juda e’tibor beradilar. Biror harf yoki tovushni noto‘g‘ri aytilishi kulgiga sabab bo‘ladi. Bir ohangdagi nutq-tezda charchatadi. Individual suhbat paytidagi pedagog-tarbiyachining baland ovozidan bola o‘zini aldanayotgandek his etadi. Bu pedagog-tarbiyachiga ishonchsizlik bilan qarash hislarini uyg‘otadi. Ayrim mutaxassislar insonning tovushi va uning tembri tug‘ma xususiyat deb aytishadi. Lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovush sifatini o‘zgartirish mumkinligini tasdiqlaydi. Bugungi kunda mutaxassislar tomonidan nutq texnikasini takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab mashqlar kompleksi ishlab chiqilgan. Ular asosan teatr pedagogikasi tajribasiga asoslangan bo‘lib, so‘zlashish paytida nafas olish, tovush hosil qilish va uni ma’noli ifodalash malakalarini rivojlantirishga qaratilgan, bu esa pedagog-tarbiyachilarga o‘z so‘zi mazmunini bolalarga yanada to‘laqonliroq qilib yetkazishga ham imkoniyat beradi.

Bola hayoti davomida pedagog-tarbiyachisining nutqiy xususiyatlarini, bolalarga murojaat qilish, savollarga aniq va mukammal javob berish usullarini xotirasida saqlaydi. Pedagog-tarbiyachining nutqi bolalarga ta’lim-tarbiya berish vazifasini bajarishi kerak. Shuning uchun unga faqat umummadaniy emas, balki kasbiy va pedagogik talablar ham qo‘yiladi. O‘z so‘zlarining mazmuni, sifati va oqibati uchun jamiyat oldida ijtimoiy javobgar shaxsdir. Shuning uchun ta’lim-tarbiya jarayonida pedagog-tarbiyachi nutqi pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Texnik jihatdan nutqiy tajribaga ega bo‘lgan pedagog-tarbiyachining nutqi quyidagilarni ta’minlashi kerak:

• pedagog-tarbiyachi va uning tarbiyalanuvchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabati va mahsuldor muloqotini;

• ta’lim jarayonida bilimni to‘la qabul qilinishi, anglanishi va mustahkamlanishi;

• bolalar faoliyatiga, ulardagi qobiliyat va iqtidor instinktini shakllantirish maqsadida ongi va hissiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish;

• bolalarning o‘quv va amaliy faoliyatini maqsad ga muvofiq tashkil etish.

“Pedagogik nutq texnikasi” tushunchasi pedagog-tarbiyachilarning kommunikativ xulqi tushunchasi bilan uzviy bog‘liq. Pedagog-tarbiyachining kommunikativ xulqi deyilganda, faqat uning gapirish va axborot berish jarayonigina emas, balki, pedagog-tarbiyachi va bola muloqoti uchun emotsional psixologik muhit yaratishga, ular o‘rtasidagi munosabat va ish uslubiga ta’sir ko‘rsatuvchi nutqni tashkil etish va unga mos pedagog-tarbiyachining nutqiy nazokati ham ko‘zda tutiladi.

Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli olib borish uchun, pedagog-tarbiyachining nutqi ma’lum talablarga javob berishi, ya’ni notiqlik mahoratini shakllantirish uchun lozim bo‘lgan kommunikativ sifatlarga javob berishi hamda nutqi bir nechta adabiy me`yorlarga mos kelishi lozim: chunonchi, zamonaviy me`yorlarga, ifodali, adabiy til me`yorlariga.

Pedagogik nutqning to‘g‘rilik, aniqlik, moslik, leksik boylik, ifodalilik va tozalik kabi kommunikativ sifatlari pedagog-tarbiyachi nutqining madaniyatini belgilaydi.

Maqsadga muvofiq keladigan pedagogik nutq texnikasi o‘zining mantiqiyligi, ishonchliligi, kuzatuvchanligi bilan bir nechta vazifalarni bajaradi:

Pedagog-tarbiyachi nutqining birinchi vazifasi – o‘rganilayotgan bilimlarni to‘liq holda berilishini ta’minlashdan iboratdir. Pedagog-tarbiyachi nutqining kommunikativ o‘ziga xosligi bilan bilimni bolalar tomonidan qabul qilinishi va esda qolishi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa mavjud. Nutq buni ta’minlashi yoki qiyinlashtirishi mumkin.

Pedagog-tarbiyachining nutqi faqat axborot berib qolmay, bolaning ongi, sezgisiga ta’sir qilishi, ularning fikrlash faoliyatiga jadallashtirishi kerak.

Pedagog-tarbiyachi nutqining ikkinchi vazifasi, bolaning o‘quv faoliyati jarayonida pedagog-tarbiyachi nutqi asosida, mashg`ulotda o‘rganilayotgan bilimlarni samarali o‘zlashtirilishini ta’minlashdan iborat.

Bolalar, pedagog-tarbiyachi nutqini eshita turib qator operatsiyalarni bajaradi: berilayotgan axborotni ko‘rgazmali shaklda aniqlashtiradi, o‘zidagi bilim bilan unga nisbatan munosabat bildiradi, eslab qoladi, nutq mantiqini, fikrlar rivojini kuzatib boradi.

Ovoz tonining balandligi, tovushning yuqoriligi, bir xilda gapirish bolalarni charchatadi. O‘quv – biluv jarayonining samarali bo‘lishiga mashg`ulotda pedagog-tarbiyachilar tomonidan tanlangan kommunikativ xulq uslubi ham ta’sir qiladi. Pedagog-tarbiyachi ko‘pincha “ovozingni o‘chir”, “jim o‘tir”, “boshingni ko‘tarib o‘tir”, “mashqni tugat”, “kitobigni yig`ishtir” kabi norozilikni bildiruvchi so‘zlarni ishlatadi, yoki bolaning javoblarini bo‘ladi, “har doimgidek hech narsa bilmaysan”, “sen buni qayerdan ham tushunarding” kabi pedagogik taktga xos bo‘lmagan so‘zlarni ishlatadi. Bu holat pedagog-tarbiyachi bilan bola orasidagi munosabatning keskin buzilishiga, bolalarning mashg`ulotda faolligini pasayishiga olib keladi.

Pedagog-tarbiyachi nutqining uchinchi vazifasi – pedagog-tarbiyachi bilan bolalar o‘rtasidagi mahsuldor o‘zaro munosabatni to‘g‘ri ta’minlashdan iborat.

Pedagog-tarbiyachining nutq texnikasi – pedagog-tarbiyachi va bolalar munosabatini boshqarish rolini ham bajaradi. Bu yerda hamma narsa ahamiyatli: pedagog-tarbiyachining bolalarga qanday murojaat qilishi, salomlashishi, talablarni qanday qo‘yishi, qanday ogohlantirishi, xohishini qanday bayon qilishi; nutqining jozibadorligi, chehradagi ifoda, qarashi ham bolalarga ta’sir ko‘rsatadi. Mashg`ulotdan tashqari muloqotda bularning ahamiyati yanada ulkan.

Kommunikativ nutqning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun, pedagog-tarbiyachilar o‘zida notiqlik san’atiga xos, qator maxsus qobiliyatlarni rivojlantirishi talab qilinadi:

- ijtimoiy perseptiv qobiliyat;
- ijtimoiy tasavvur qobiliyati;
- o‘zini boshqara olish qobiliyati;
- muloqotda o‘zining ruhiy holatini boshqara olish qobiliyati;

• irodaviy ta’sir ko‘rsatish qobiliyati; • ishontira olish qobiliyati.

Nutq texnikasi malakalari va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli egallash uchun sharoit yaratuvchi notiqning umumiy ruhiy, jismoniy xususiyatlarini takomillashtirish, bunda tasavvurni, obrazli xotira va fantaziyani rivojlantirish ko‘zda tutiladi. Bunday faoliyatda tovush, diapazon, tembr, diksiya, artikulyatsiya, ritmika, to‘g‘ri nafas olish ham muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X. Meliyev, O. Jamoldinova. K. Risqulova/Tarbiyachining Kasbiy Kompetenti Va Mahorati/ O‘Quv Qo‘Llanma/ Zarvaraq Nashriyoti Тошкент – 2021/ 171-176 B

2. M.M. Tojiyeva (2024). Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi/ Samarali pedagogik muloqotni tashkil etish ta’lim sifatini oshirishdagi muhim omil/ qo‘qon universiteti xabarnomasi / / 71-74 b

3. Ergasheva, N., Yo‘lchiyev, S. (2023). Ta’lim Tarbiyaning Zamonaviy Shakllari. Journal Of Research And Innovation, 1(5), 34-39

MAKTABGACHA TA’LIMDA PEDAGOG KADRLAR SIFATI — TA’LIM SAMARADORLIGINING ASOSI

Jabbarova Munira Saparboy qizi
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi,
maktabgacha ta’lim bo‘limi, yetakchi mutaxassisi
jabborovamunira50@gmail.com.+998974052192

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tizimida bo’lajak tarbiyachilarning ta’lim samaradorligiga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida pedagog kadrlarning o‘rni, ularning kasbiy tayyorgarligi va metodik salohiyati orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning dolzarb jihatlarini ko‘rsatib o‘tadi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, pedagog kadrlar, ta’lim sifati, samaradorlik, kasbiy kompetensiya, metodik yondashuv, malaka oshirish, pedagogik mahorat.

Аннотация: В статье анализируется непосредственное влияние будущих воспитателей на эффективность образования в системе дошкольного образования. Показана роль педагогических кадров в воспитании детей дошкольного возраста, актуальные аспекты повышения качества и эффективности образования посредством их профессиональной подготовки и методического потенциала.

Ключевые слова: дошкольное образование, педагогические кадры, качество образования, эффективность, профессиональная компетентность, методический подход, педагогическое мастерство.

Abstract: This article analyzes the direct impact of future educators on the effectiveness of education in the preschool education system. It also shows the role of pedagogical personnel in the upbringing of preschool children, the current aspects of improving the quality and effectiveness of education through their professional training and methodological potential.

Keywords: preschool education, pedagogical personnel, quality of education, effectiveness, professional competence, methodological approach, pedagogical skills.

Mamlakatimizda malakali kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Jumladan, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi davlatimiz rahbarining farmonida “Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta’lim sifatini oshirish, kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini 2022-yilda 38 foizga yetkazish, 2026-yilda qabul ko‘rsatgichini kamida 250 mingga yetkazish” vazifalari belgilab berildi. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalariga qamrov darajasi 43 foizga yetkazildi. Bu ko’rsatgichlar maktabgacha ta’lim yo‘nalishi uchun ham taalluqlidir. Malakali kadrlarni tayyorlash bilan bog‘liq qaror va farmonlarda ularning bilimi, axborot kommunikatsion texnologiyalari bo‘yicha tegishli ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi, xorijiy tillarni bilishi, tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo‘lishi, eng muhimi iymon e’tiqodli ma’naviy sifatlarga ega bo‘lish kabi kompetentlik ko‘rsatgichlari belgilab berilgan.[3]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-152-son Farmonida belgilab berildi. Bu birinchi navbatda. farmonda maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’limning uzluksizligini va uzviyligini ta’minlash, maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish, ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, maktabgacha ta’limning davlat ta’lim dasturi doirasida ishlab chiqilgan elektron resurslar, audiovizual mahsulotlar va o‘quv-metodik materiallarni maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimida joylashtirish hamda ushbu materiallardan tarbiyachi-pedagoglar erkin va bepul foydalanish imkonini yaratish nazarda tutilgan.[4] Ushbu farmonda belgilab qo‘yilganidek, 2025-yil 1-yanvardan boshlab maktabgacha ta’lim sohasida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash maqsadida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tarbiyachi-metodist lavozimi negizida

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-152-son Farmoni

amaldagi mehnatga haq to‘lash shartlarini saqlab qolgan holda maktabgacha ta’lim tashkilotining direktori o‘rinbosari lavozimi joriy etildi. Maktabgacha ta’lim tashkoloti direktori o‘rinbosari zimmasiga ta’lim sifatini ta’minlash, pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, ta’lim va tarbiya jarayonlariga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish vazifalari yuklandi.

Respublikaning barcha tuman (shahar)larida kamida bittadan tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi hamda ushbu tashkilotlarning direktor o‘rinbosarlaridan iborat malakali trenerlar guruhi shakllantirildi. Bunda malakali xorijiy mutaxasislarni jalb qilgan holda trenerlar uchun alohida tayyorlov kurslari tashkil etildi. Barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida malaka oshirishning “Metodik mahorat soati”, tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlarida esa “ Metodik mahorat kuni” kabi shakllari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. ”Metodik mahorat soati” doirasida direktor o‘rinbosarlari tomonidan maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari faoliyati tahlil qilinadi, ularga metodik yordam ko‘ratiladi va kasbiy rivojlanishi bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Trener sifatida faoliyat yuritayotgan direktor o‘rinbosarlariga tegishli tuman (shahar) tashkilotlari xodimlarinini rag‘batlantirish jamg‘armalari hisobidan lavozim maoshining 20 foizi miqdorida qo‘shimcha har oylik ustama haq to‘lanmoqda.

Ma’lumki maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish ko‘p jihatdan malakali kadrlarga bog‘liq. Maktabgacha ta’lim sohasi uchun oliy ma’lumotli malakali kadrlar pedagogika univetsitetlari va institutlarining “Maktabgacha ta’lim” fakultetlarida tayyorlamoqda.

Mamlakatimizda oliy ma’lumotli malakali mutaxassislar tayyorlash masalasi davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan bir qator va farmonlarda o‘z aksini topgan. Jumladan, O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash tog‘risida”gi PF-5847-sonli qarori tasdiqlandi. Farmonda ko‘rsatilgan “Oliy ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish faoliyatini takomillashtirish”, “Talabalarni adabiyot, san’at va sportga, sog‘lom turmush tarziga jalb etish, ularda estetik did va kasbiy etika, axborot tahlili madaniyatini shakllantirish, vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyillik hissini qaror taptirish bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar rejasini ishlab chiqish va barcha oliy ta’lim muassasalarida mazkur chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta’minlash”da muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohatlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohatchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarni tarbiyalashimiz zarur” degan e’tiroflari ta’lim taraqqiyotining keying istiqboli ko‘p jihatdan oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan kadrlar salohiyati, ularning kelajak istiqbollari, ijodkorligi va tashabbuskorligi bilan bog‘liqligini ijtimoiy xayotni o‘zi

ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ham maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlab oliy o‘quv yurtigacha-ta’limning barcha bo‘ginlarini isloh qilish, bo‘lajak tarbiyachilarni davr talabi asosida tayyorlash, ularni o‘z kasbini mohir ustasi, yangiliklarni tez edrok etib, o‘z faolioyatida innovatsion texnologiyalarni qo‘llaydigan ijodkor qilib tarbiyalash oliy o‘quv yurti va pedagogika fani oldida turgan muhim vazifalardan bo‘lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda yurtboshimiz boshchiligida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha qilinayotgan barcha islohotlardan ko‘zlangan maqsad – barkamol insonni voyaga yetkazish, yurt istiqbolini porloq qilishdan iboratdir. Bu borada maktabgacha ta’lim tashkilotlarining faoliyatini har tomonlama rivojlantirish orqali ta’limning keyingi bo‘g‘inlari salohiyatni mustahkamlash mumkinligi aniq belgilab berildi. Xususan, yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev maktabgacha ta’lim tizimi haqida quyidagi fikrlarni bejizga bildirmagan edilar: “Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Aynan maktabgacha ta’lim sohasiga bo‘lgan e’tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi”. [5]

Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan malakali kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq qaror va farmonlarning ijrosi bosqochma-qosqich amalga oshirilmoqda. Tadqiqotimiz jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglarning faoliyatini o‘rganish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlarni o‘rganishga va tahlil qilishga harakat qildik.

1-diagramma



Samarqand viloyatida DMTT larida faoliyat ko‘rsatayotgan tarbiyachilarning toifasi to'g'risida ma'lumot

Samarqand viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasining ma’lumotlariga ko’ra davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning 1050 nafari oliy ma’lumotli, 492 nafari to‘liqsiz oliy, 5043 nafari o‘rta maxsus, 250 nafari nomutaxassis, tarbiyachilarning keyingi besh yil ichida 3573 nafari malaka oshirilgan, keyingi besh yilda 2998 nafari malaka oshirish kurslaridan o‘tmagan.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabbiylar” kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020 y

Viloyatimiz davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan tarbiyachilarning 50 nafari birinchi toifali, 198 nafari ikkinchi toifali, 6323 nafari mutaxassislarni tashkil etadi. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari 131 nafar, o‘rta proffesional ta’limda pedagogika kollejlari bitiruvchilari 238 nafarni tashkil qiladi.

2-diagramma



Samarqand viloyati, DMTTlarida faoliyat ko‘rsatayotgan tarbiyachilar

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, viloyatimizda davlatga qarashli va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan oliy ma’lumotli kadrlar ko‘rsatgichi davr talablaridan orqada qolmoqda. Vaholanki prezidentimiz barcha sohalarni jumladan, maktabgacha ta’lim sohasini oliy ma’lumotli malakali kadrlar bilan ta’minlashni bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilab berdi.

Ushbu muammoni hal qilish uchun O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti maktabgacha ta’lim yo‘nalishining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ushbu yo‘nalishni fakultet sifatida shakllantirish, qabul kvotalarning sonini talab va ehtiyojlarni o‘rgangan holatda tizimli ravishda oshirib borish maqsadga muvofiq.

-Oliy ma’lumotli kadrlarni ishga joylashtirishda adolat tamoyillari asosida Yagona darchanini imkoniyatlaridan oqilona foydalanilsa;

- Oliy ta’lim muassasalarida malakali kadrlar tayyorlash uchun o‘quv dasturlari va darsliklarning bugungi kun talablariga javob beradigan yangi avlodini yaratilsa;

- MTT larda faoliyat ko‘rsatayotgan kreativ fikrlaydigan pedagoglar moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirib borilsa;

- MTTlarga kadrlarni tanlash va ularni qabul qilishda oshkoralik ta’minlanib adolat tamoyiliga amal qilinsa ;

-tarbiyachilarning pedagogik mahoratini oshirish maqsadida tashkil etilgan “Metodik mahorat kuni“ va “Metodik mahorat soat” larini o‘tkazish yuqori saviyada tashkil etilsa;

-MTTlarda faoliyat ko‘rsatayotgan malakali kadrlarning ish tajribalari ommalashtirilsa maktabgacha ta’lim tashkilotlarini malakali kadrlar bilan ta’minlashdek davlat buyurtmasi bajarilgan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.T.2020-y
2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni T-2019-yil
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-152-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida’gi PF-5847 Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash tog‘risida”gi PF-5847-sonli qaror.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabbiylar” kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020 y
8. samarqand_vxtb@xtv.uz · http://samuzedu.uz

O‘QITUVCHILARNI KASBIY RIVOJLANTIRISHDA EMOTSIOANAL INTELLEKTNING AHAMIYATI

Mamarasulova Shoxnoza Shuhrat qizi
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi o‘qituvchisi
Tel:998915353436
shokhnozamarasulova@gmail.com

Annotatsiya- ushbu maqolada o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirishda hissiy intellektning ahamiyati va hissiy intellektni rivojlantirish yo‘llari batafsil ochib berilgan.

Аннотация- В этой статье подробно рассматривается важность эмоционального интеллекта в профессиональном развитии учителей и способы развития эмоционального интеллекта.

Abstract - This article details the importance of emotional intelligence in the professional development of teachers and ways to develop emotional intelligence.

Kalit so‘zlar- zamonaviy o‘qituvchi, hissiyot, hissiy intellekt, xavfsiz ta’lim, hissiyotning turlari, ijobiy hislar, salbiy hislar, stress, empatiya.

Ключевые слова - современный учитель, эмоции, эмоциональный интеллект, безопасное образование, типы эмоций, положительные эмоции, отрицательные эмоции, стресс, эмпатия.

Keywords - modern teacher, emotion, emotional intelligence, safe education, types of emotion, positive emotions, negative emotions, stress, empathy.

Zamon tezlashgani sari barcha sohalar rivojlanib bormoqda. Sun’iy intellekt, internet rivojlangani sayin har bir soha vakili o‘z kasbining ustasi bo‘lish kerakligi talab qilinmoqda. Xususan pedagogika sohasi ham faqatgina salohiyatli, bilimli, intiluvchan kadrlarni talab qilmoqda. Bu talablarga javob berish uchun o‘z ustida tinimsiz ishlash, sohasi bo‘yicha tadqiqot olib borish zamon bilan hamnafas bo‘lishi talab etiladi. O‘qituvchilarni muntazam kasbiy rivojlantirish maqsadida Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2024 yildagi PQ-231-son qarori qabul qilindi. Shu qarorni ta’minlash maqsadida muntazam KRK va KRS tadbirlari o‘tkazilib kelinmoqda. Bu KRK va KRS tadbirlari o‘qituvchilarni o‘z ustida ishlashlariga yordam bermoqda. Bu yo‘lda pedagogga faqatgina aqliy bilim emas balki hissiy bilim, hissiy intellekt ham kerak bo‘ladi. Xo‘sh, zamonaviy ta’limga kirib kelgan hissiy intellekt o‘zi nima? Hissiy intellekt haqida gapirishdan oldin hissiyotni ochiqlagan samaralidir.

Hissiyot – shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlardan kelib chiqadigan kechinmalari. Shaxs tirik mavjudot bo‘lishi bilan birga jamiyat a’zosi hamdir, shuningdek, inson sifatida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarga munosabatini xolisona aks ettiradi. Inson munosabatlari uning miyasida his-tuyg‘ular, emotsional holatlar, yuksak ichki kechinmalar tarzida aks etishi hissiyotni yuzaga keltiradi. Hissiyot tushunchasi kundalik turmushda va ilmiy manbalarda har xil ma’nolarda qo‘llanadi Hissiy intellekt bu- o‘zini tushunish, boshqalarni tushunish, hissiyotlarini boshqarish atrofdagi insonlar bilan to‘g‘ri munosabatga kirisha olish qobiliyatidir. Ijtimoiy hissiy intellekt tushunchasini fanga Emotsiyalarni boshqarish va nazorat qilish shaxsning muhim qobiliyatidir. Bu borada ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan masalan: A.K. Kravtsova hissiy aql va jamoadagi yetakchilik masalalarini ko‘rib chiqadi. T.I.Solodkova o‘qituvchilar ishida emotsional intellektning resurs imkoniyatlarini tahlil qiladi, K.S. Kuznetsova, I. N. Meshcheryakova va boshqalar turli yoshdagi odamlarda emotsional intellektning dolzarb muammolarini o‘rganadilar. 1930-yillardayoq psixolog Eduard Torndayk “Ijtimoiy intellekt” tushunchasini boshqa odamlar bilan til topisha olish qobiliyati deb ta’riflagan edi. Yuqorida ta’kidlanganidek emotsional intellekt, boshqa narsalar qatori chuqur hamdardlik, o‘zingizni yo‘qotmasdan boshqalarga donolik bilan rahbarlik qilish va ularga ergashish, boshqalarning chegaralarini hurmat qilish va o‘z iste’dodlaringizni rivojlantirish sevgi va qo‘llab quvvatlashni qabul qilish va berish

qobiliyatini oʻz ichiga oladi. Fan emotsional intellektni 5 ta alohida komponentga ajratadi. Birinchi uchtasi insonning oʻziga, qolgan ikkitasi esa tashqi dunyoga tegishli:

1. Oʻziga ishonch;
2. Oʻz-oʻzini tartibga solish;
3. Oʻz-oʻzini ragʻbatlantirish;
4. Empatiya;
5. Ijtimoiy kompetensiya.

Xoʻsh, hissiy intellektning oʻqituvchining rivojlanishiga qanday ta'siri bor? Oʻqituvchi nimadir maqsad qoʻydimi albatta unga erishish uchun IQ ya'ni aqliy salohiyat kerak. Ammo shu bilan birgalikda hissiy intellekti ham rivojlangan boʻlmasa muvaffaqiyatga yetib borishi bir muncha qiyinlashadi.

-Oʻziga ishonch- oʻziga ishongan oʻqituvchigina nimagadir harakat qiladi, natija koʻrsata oladi.

-Oʻz-oʻzini tartibga solish- oʻqituvchi muayyan vaqt oʻtgandan soʻng oʻqituvchi oʻz-oʻziga savol berishi kerak. Men bu kasbni nima uchun tanlaganman? Bu sohada qanday foydam tegyapti? Degan savollarga javob berishi ish koeffisentini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birgalikda oʻqituvchi kunlik ishlarini rejalashtirib bajarsa samarali boʻladi. Bu esa ongga men qila olaman buyrugʻini beradi. Shundan soʻnggina oʻqituvchida oʻziga boʻlgan ishonchi ortadi.

- Oʻz-oʻzini ragʻbatlantirish- bu usul insonni bu hayotda yashashga boʻlgan ishtiyoqini oshiradi.

-Empatiya — bu boshqalarining his-tuygʻularini tushunish va ularga hamdard boʻlish qobiliyatidir. Bu ikki asosiy shaklda namoyon boʻladi. Oʻqituvchilik faoliyatida empatiya albatta kerak. Chunki oʻqituvchilik kasbi odam-odam tipidagi kasblar sirasiga kiradi. Ya'ni doim inson bilan ishlaydi.

- Ijtimoiy kompetensiya — bu shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, jamiyatdagi ijtimoiy normalarga moslashish, guruhda ishlash, ijtimoiy vaziyatlarni anglash va ularga toʻgʻri munosabat bildirish qobiliyatidir.

Nima uchun hissiy intellekt oʻqituvchiga kerak degan savolga quyidagicha javob berish mumkin. Deylik 15 yillik ish stajiga ega boʻlgan oʻqituvchi ota-onalar yigʻilishi oʻtkazayapti. Jamiyatimizda har xil ma'naviyatli har xil xarakterdagi insonlar bor. Qaysidir ota -ona oʻzining fikrlashidan kelib chiqib qoʻpolroq muomala qilib yuborsa oʻqituvchi agressiyaga berilib hissiyotlarini jilovlay olmay undanda balandroq tonda haqoratli soʻzlarni ishlatib muomala qilsa. Oʻqituvchining obroʻyiga putur yetishi mumkin. Xalqimizda "ahmoq bilan tenglashma" degan bir naql bor. Albatta bu naql bejizga aytilmagan. Oʻqituvchi ziyoli qatlam vakili hisoblanadi. U doim boshqalarga ilm ziyosini sochadi. Atrofdagi insonlar bilan ham toʻgʻri munosabatga kirishish uchun ham hissiy intellekt albatta kerak.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak hissiy intellekt zamonaviy pedagog rivojlanishida zarur boʻlgan omildir. Sababi oʻqituvchi doim jamiyatda yashaydi. Hissiyotlarini tushungan boshqara olgan oʻqituvchida oʻzidan qoniqish, ertangi

kunga ishonch paydo bo‘ladi. Ana shunday o‘qituvchigina harakat qila boshlaydi va o‘z-o‘zidan pozitiv fikrlashga o‘tadi. O‘qituvchilarda hissiy intellektni rivojlantirish uchun avvalambor tushuncha to‘liq berilgani ma’qul.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2024 yildagi PQ-231-son qarori.

2. Mayer DJ. Emotional intelligence information. 2005. – P. 95 2. Current directions in emotional Intelligence research / P. Salovey.

3. Андреева И.Н. Эмоциональный интеллект как предиктор академической успеваемости / И.Н. Андреева // Университетское образование: опыт ты сячелетия, проблемы, перспективы развития: тез. докл. II междунар. конгр., Минск, 14 - 16 мая 2008 г.: в 2 т.; отв. ред. Р.С. Пионова- Минск: МГЛУ, 2008. - Т. 2. - С. 115 - 116.

4. Сергиенко Е. А., Ветрова И. И. Тест Дж. Мэйера, П. Сэловея, Д. Карузо «Эмоциональный интеллект»: Руководство - Москва: Издательство «Институт психологии РАН», 2010. - С. 176.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARINING BOSHQARUV TIZIMI: EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY MODEL

Mamura Tadjibayeva
Abdulla Avloniy nomidagi
Pedagogik mahorat milliy instituti
mustaqil izlanuvchisi,
Toshkent shahridagi
Prezident maktabi ijrochi direktori
E-mail:t.mamura123@gmail.com
Tel: (90) 9396851

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida boshqaruv tizimining rivojlanish bosqichlari, zamonaviy menejment talablari va O‘zbekiston ta’lim siyosatida boshqaruv tamoyillarining shakllanishi tahlil qilinadi. Maktab menejmentining asosiy funksional yo‘nalishlari, rahbarlik kompetensiyalari va ta’limdagi transformatsion jarayonlar kontekstida zamonaviy liderlik modelining ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: maktab boshqaruvi, ta’lim menejmenti, transformatsion liderlik, rahbarlik salohiyati, strategik boshqaruv, ta’lim siyosati.

Zamonaviy ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli rivojlanishi samarali, tizimli va barqaror boshqaruv mexanizmlariga tayanmagan holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyati davlatning kelajak taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgani bois, ularni boshqarish nafaqat tashkiliy-administrativ, balki murakkab pedagogik, psixologik va strategik jihatlarni o‘z

ichiga olgan ko‘p komponentli tizim sifatida qaralmoqda. Bugungi globalizatsiyalashuv, raqamlashtirish va ta’limda barqaror rivojlanishga erishish singari muhim jarayonlar maktab boshqaruvini faqatgina byurokratik amaliyot emas, balki innovatsion, analitik va insonparvarlikka asoslangan liderlik modeli sifatida qayta talqin qilishni taqozo etmoqda.

Ta’lim boshqaruvining evolyutsiyasi — bu o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir nechta omillar: ijtimoiy ehtiyojlarning ortishi, ta’limga bo‘lgan talablarning diversifikatsiyalashuvi, davlat siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlar, shuningdek, xalqaro standartlar va reyting mexanizmlarining kuchayib borishi bilan izohlanadi. Masalan, UNESCO (2020) hisobotida qayd etilishicha, maktablarda boshqaruv sifati o‘quvchilarning o‘zlashtirishi, o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishi va ota-onalarning ishonch darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, ko‘plab ilg‘or davlatlarda (Finlyandiya, Kanada, Singapur va boshqalar) maktab direktori faqatgina boshqaruvchi emas, balki o‘quv jarayonining faol ishtirokchisi, transformatsion lider va madaniy o‘zgarishlarning drayveri sifatida qaraladi (Fullan, 2008; Hallinger, 2011).

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar — xususan, "Ilmli direktorlar klubi", "Direktorlar akademiyasi", attestatsiya va sertifikatlash jarayonlarining joriy etilishi — maktab rahbarlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ular faoliyatining sifatini oshirishga qaratilgan amaliy qadamlardir. Bu esa ta’lim muassasalarida boshqaruv madaniyatini yangilash va xalqaro tajriba asosida ilg‘or boshqaruv modelini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shunday qilib, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari boshqaruvini ilg‘or nazariyalar, xalqaro standartlar va milliy ehtiyojlar kesishmasida o‘rganish — bugungi zamon ta’limini modernizatsiya qilishda ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biridir.

1. Umumiy o‘rta ta’limda boshqaruv tizimining evolyutsiyasi

O‘zbekiston ta’lim tizimida boshqaruvning tarixiy shakllanishi asosan markazlashgan, buyruqbozlikka asoslangan modelga tayanib kelgan. Biroq 2017-yildan boshlab ta’lim sohasidagi islohotlar doirasida maktablar faoliyatini boshqarishda decentralizatsiya, innovatsion yondashuv va liderlik salohiyatiga urg‘u berila boshlandi. Prezidentning PF–5712-son Farmoni (2019) maktablar boshqaruvi va sifat nazoratining yangi bosqichini boshlab berdi. Bu bosqichda maktab direktori ijrochi emas, balki strategik lider sifatida shakllanishi lozimligi ilgari surildi.

2. Maktab boshqaruvining asosiy komponentlari

Zamonaviy maktab boshqaruvi quyidagi asosiy funksional yo‘nalishlarga tayangan holda shakllanadi:

2.1. Pedagogik boshqaruv

Ta’lim sifati, o‘quv dasturlarining bajarilishi, baholash tizimi, o‘qituvchilarning kasbiy rivoji. Bu komponentda direktorning metodik yetakchilik, innovatsiyalarni joriy etish va o‘quvchilar yutuqlariga erishishdagi roli muhim ahamiyatga ega.

2.2. Strategik rejalashtirish va tahlil

Maktab taraqqiyot strategiyasi, SWOT tahlil, ichki monitoring va baholash tizimlari. Direktor o‘z maktabining ehtiyojlari asosida rivojlanish rejasini ishlab chiqadi.

2.3. Ijtimoiy hamkorlik

Ota-onalar, mahalla, nodavlat tashkilotlar bilan aloqalar. Maktab ochiqligi va ijtimoiy mas’uliyati bu yo‘nalishning asosiy ko‘rsatkichlaridandir.

2.4. Moliyaviy va moddiy resurslarni boshqarish

Byudjetni shakllantirish, mablag‘larni maqsadli taqsimlash, xususiy sektor bilan hamkorlik. Ayniqsa, zamonaviy maktabda homiylik, grant va loyihaviy mablag‘lar jalb etish salohiyati direktor kompetensiyasining ajralmas qismidir.

2.5. Innovatsion boshqaruv va raqamlashtirish

STEAM, elektron kundaliklar, IT sinflar, raqamli boshqaruv platformalarini joriy qilish. Direktor innovatsion tafakkur egasi bo‘lishi zarur.

3. O‘zbekiston ta’lim siyosatida boshqaruv tamoyillari

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim siyosatida quyidagi **yetakchi boshqaruv tamoyillari** belgilangan:

3.1. Strategik va tizimli yondashuv

Har bir maktab o‘zining ijtimoiy-madaniy konteksti asosida rivojlanish strategiyasiga ega bo‘lishi kerak. Boshqaruvda uzoq muddatli rejalashtirish muhim ahamiyatga ega.

3.2. Differensial va moslashuvchan boshqaruv

Hududlar, maktablarning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatidagi tafovutlar boshqaruvda moslashuvchanlikni talab qiladi. Boshqaruv “barcha uchun bir xil” tamoyili asosida emas, balki ehtiyojga mos holda olib borilishi lozim.

3.3. Liderlik va o‘zgarishga tayyorlik

Maktab direktori islohotlar agenti, tashabbuskor va ilhomlantiruvchi bo‘lishi kerak. Transformatsion liderlik modeli ta’lim siyosatida ustuvor hisoblanmoqda (Hallinger, 2003; Fullan, 2008).

3.4. Shaffoflik va hisobdorlik

Jamoatchilik, ota-onalar va davlat oldida faoliyat ochiqligi. Direktorning hisobot berish madaniyati rivojlanmoqda.

3.5. Professional rivojlanish va refleksiya

“Direktorlar akademiyasi”, “Ilmli direktorlar klubi” kabi platformalar orqali rahbarlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi ta’minlanmoqda. Reflektiv tahlil boshqaruvda muhim o‘rin tutadi (Temirov, 2023).

Tahliliy baho va munosabat

1. **Umumiy o‘rta ta’limda boshqaruv tizimining evolyutsiyasi**

Yuqorida ta’kidlaganidek, O‘zbekiston ta’lim tizimi tarixan markazlashgan, buyruqbozlikka asoslangan model asosida shakllangan. Bu fikr real holatga mos keladi, chunki sobiq sovet ittifoqi davridan qolgan vertikal boshqaruv tizimi hanuzgacha ayrim jihatlari bilan saqlanib qolgan edi. 2017-yildan boshlab olib borilgan islohotlar, xususan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining **PF–5712-son Farmoni** (2019), maktab boshqaruvini yangilash yo‘lida muhim huquqiy asos

yaratdi. Bu farmonda ta’lim sifatini oshirish, maktab rahbarlarini tanlash va baholash mezonlarini yangilash zarurligi qayd etilgan.

Bizningcha, bu islohotlar maktab direktorlari rolini “ijrochi menejer” darajasidan “ta’lim lideri” maqomigacha ko‘tarish uchun muhim poydevor bo‘ldi. Biroq bu jarayon hali yakuniga yetgani yo‘q — hududlararo farqlar va amaliyotda yuzaga kelayotgan qarshiliklar hali ham mavjud.

2. **Maktab boshqaruvining asosiy komponentlari**

Yuqorida zikr etilgan ***besh yo‘nalishli tasnif (pedagogik, strategik, ijtimoiy, moliyaviy va innovatsion)*** zamonaviy boshqaruv nazariyalariga (masalan, **Mintzberg, 1973; Leithwood et al., 2004**) mos keladi. Ayniqsa, pedagogik boshqaruvda direktorning o‘qituvchi va o‘quvchiga ta’siri kuchaygan bir paytda, ***metodik yetakchilik*** va ***kasbiy rivojga rahbarlik*** kabi rollar markaziy ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda Fullan (2008) fikricha, direktor “o‘zgartiruvchi agent” bo‘lishi uchun o‘qituvchilarning motivatsiyasi va jamoaviy o‘sishini doimiy qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Innovatsion boshqaruv va ***raqamlashtirish,*** albatta, XXI asr maktabining ajralmas qismidir. Ammo bu sohada mavjud infrastruktura va kadrlar salohiyatining notekisligi sababli real natijalar hali ham har xil bo‘lmoqda. Bu esa strategik rejalashtirish va ehtiyojlarga mos investitsiya siyosatini talab qiladi.

3. **O‘zbekiston ta’lim siyosatida boshqaruv tamoyillari**

Yuqorida keltirgan **besh tamoyil** (*strategik yondashuv, differensial boshqaruv, liderlik, shaffoflik, professional rivojlanish)* – bugungi ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga mos tushadi. Ayniqsa, ***transformatsion liderlik*** modeli haqida Hallinger (2003) va Fullan (2008) tomonidan ilgari surilgan nazariyalar maktablar uchun dolzarbdir. Bu modelda direktor nafaqat boshqaruvchi, balki ***vizioner, islohot tashabbuskori, jamoa ruhlantiruvchisi*** sifatida namoyon bo‘ladi.

M. Temirov (2023) tomonidan ilgari surilgan ***reflektiv boshqaruv*** g‘oyasi juda o‘rinli. Rivojlanayotgan ta’lim tizimlarida rahbarlarning o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolardan saboq olish va strategiyani moslashtirish salohiyati ayni zamon ehtiyojidir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz quyidagi qarashlarimizni bayon etamiz:

1. Yuqorida bildirilgan fikrlar zamonaviy ta’lim boshqaruvining fundamental tamoyillariga mos keladi va xalqaro nazariyalar bilan uyg‘unlashadi.
2. Nazariy yondashuv bilan amaliyotdagi mavjud tafovutlar tahlil qilinsa, bu yondashuv yanada mustahkamlanadi.
3. Har bir komponent va tamoyil yuzasidan ***real misollar, sifat tahlillari***, va ***HUDUDIY farqlarning yoritilishi*** ilmiy va amaliy jihatdan zamonaviy ta’lim boshqaruvining mustahkamligini oshiradi.
4. Maktab direktorining transformatsion liderlik salohiyatini oshirish uchun ***rivojlanish indikatorlari, kompetensiya modeli***, va ***trening mexanizmlari*** haqida ham chuqurroq fikr yuritilmog’i kerak.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, maktab boshqaruvi bugungi kunda faqatgina tashkiliy jarayonlarni muvofiqlashtiruvchi faoliyat bo‘lib qolmasdan, o‘z ichiga ijtimoiy, strategik, iqtisodiy va pedagogik yo‘nalishlarni qamrab olgan ko‘p funksiyali liderlik modeliga aylanmoqda. O‘zbekiston ta’lim siyosati maktab direktorining roli va mas’uliyatini tubdan yangilab, ularni transformatsion lider, innovatsiyalar tashuvchisi va ijtimoiy o‘zgarishlar agenti sifatida shakllantirishni ko‘zlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fullan, M. (2008). O‘zgarishlar san’ati. Toshkent: Ilm Ziyo.
2. Hallinger, P. (2003). Leading Educational Change. Cambridge Journal of Education, 33(3), 329–352.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5712-son Farmoni. (2019).
4. Temirov, M. (2023). Ta’lim boshqaruvi va reflektiv liderlik. Toshkent: Fan va taraqqiyot.
5. Qodirov, Q., Qurbonov, A. (2020). Ta’limda liderlik asoslari. TDPU nashriyoti.
6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. (2021). Maktab direktorlarining faoliyatini baholash metodikasi.

SAMARALI MAKTABNI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK REJALASHTIRISH VA BOSHQARUV

Mansurov Farrux Najmitdinovich,
Samarqand viloyati pedagogik
mahorat markazi
Pedagogika, psixologiya va ta ‘lim
texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: farruxmansurov@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada samarali maktabni shakllantirishning asosiy tamoyillari va ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Ta’lim muassasasining samaradorligi nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, balki ularning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlashga bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. Maktab faoliyati strategik rejalashtirish, jamoaviy hamkorlik va baholash asosida tashkil etilishi, shuningdek, ota-ona va jamiyat bilan uzviy bog‘liqlikda bo‘lishi zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi. Project ACHIEVE modeli orqali ta’lim sifatini yaxshilash uchun muhim komponentlar, jumladan, o‘zini boshqarish, ijobiy xulqni shakllantirish va samarali boshqaruv tizimlari tahlil qilinadi. Muallif samarali maktab yaratish jarayoni uzluksiz rivojlanish, mas’uliyat va ishonch tamoyillariga asoslanganligini ta’kidlaydi. Maqola ta’lim sohasida sifatli o‘zgarishlar qilishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.
KALIT SO’ZLAR: Samarali maktab, ta’lim sifati, strategik rejalashtirish, jamoaviy ish, o’quvchilarni rivojlantirish, boshqaruv tizimi

АННОТАЦИЯ: В статье рассматриваются основные принципы и значение создания эффективной школы. Подчеркивается, что эффективность образовательного учреждения зависит не только от повышения учебных результатов учащихся, но и от обеспечения их социального и личностного развития. В статье выделяется необходимость организации школьной деятельности на основе стратегического планирования, командной работы и оценки, а также поддержания тесной связи с родителями и сообществом. Через модель Project ACHIEVE анализируются важные компоненты повышения качества образования, включая самоуправление, формирование позитивного поведения и эффективные системы управления. Автор отмечает, что процесс формирования эффективной школы базируется на принципах непрерывного развития, ответственности и доверия. Статья имеет практическую ценность для разработки стратегий повышения качества в сфере образования

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: эффективная школа, качество образования, стратегическое планирование, командная работа, азвитие учащихся, система управления

ANNOTATION: This article examines the key principles and significance of creating an effective school. It emphasizes that the efficiency of an educational institution depends not only on improving students' academic performance but also on ensuring their social and personal development. The article highlights the necessity of organizing school activities based on strategic planning, teamwork, and evaluation, as well as maintaining a close connection with parents and the community. Through the Project ACHIEVE model, important components for enhancing education quality are analyzed, including self-management, positive behavior formation, and effective management systems. The author stresses that the process of building an effective school is based on principles of continuous development, responsibility, and trust. This article is practically valuable for developing strategies aimed at quality improvements in the education sector.

KEYWORDS: effective school, quality of education, strategic planning, teamwork, student development, management system

So‘nggi yollarda O’zbekiston Respublikasi ta’limi oldida turgan asosiy vazifa bu samaralı maktabni shakllantirishdan iborat. Samarali maktab deganda, zamonaviy talablarga javob beradigan, o’quvchilarni ertangi noma’lum hayotga har tomonlama tayyorlay oladigan maktabni tushunamiz. Bugungi kunga kelib, maktab miqyosida o‘quvchilarning natijalari uchun pedagoglarni javobgar qilish bo‘yicha sa’y-harakatlar talab etiladi, o’qituvchilar doimiy kuzatuv ostida bo‘ladi va doimiy hisobotlar taqdim etiladi. Samarali maktab sari ilk amaliy qadamlardan biri sifatida maktablar quyidagi **to‘rtta asosiy savolga** javob berishi lozim:

1. Qanday qilib barcha o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qamrab oladigan, ularning o‘zlashtirish sur’atini oshiradigan va ularni hayotga to‘laqonli malakalar bilan tayyorlaydigan o‘qitish tizimini loyihalashtiramiz?

2. Qanday qilib ushbu tizim samaradorligini baholash, shuningdek, natija bermagan taqdirda strategik aralashuvlarni rejalashtirish uchun mos baholash va monitoring tizimini yaratamiz?

3. Qanday qilib o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini, muammolarni hal qilish, nizolarni bartaraf etish qobiliyatlarini oshiradigan, xavfsiz va do‘stona muhitni yaratadigan, hamda o‘quvchilarning motivatsiyasi, mustaqilligi va ishtirokini kuchaytiradigan ta’lim tizimini barpo etamiz?

4. Qanday qilib barcha yuqoridagi tizimlarni yagona, birlashtirilgan ta’lim tizimi sifatida, strategik rejalashtirish va tashkilotni rivojlantirish jarayoni orqali — ma’lumotlarga asoslangan baholash va muammolarni hal qilish uslublaridan foydalangan holda — joriy etamiz? Bundan tashqari, ushbu jarayonni qanday qilib tizimlashtirib, doimiy ravishda formativ va summativ baholash bilan mustahkamlaymiz?

Maktabni uzluksiz rivojlantirish va muvaffaqiyat kaliti – bu strategik tashabbuslarni amalga oshiruvchi insonlar o‘rtasidagi ijobiy hamkorlikdir. Har qanday ilg‘or dastur faqat samimiyat, qat’iyat, hamkorlik, izchillik va sadoqat bilan joriy etilgandagina samarali bo‘ladi. Muvaffaqiyatli jarayon esa suhbat, g‘amxo‘rlik, sadoqat, hamkorlik, maslahat, izchillik bilan amalga oshiriladi.

Keng qamrovli islohotlar murakkab bo‘lib, kuchli qarshiliklarga sabab bo‘ladi. Ular resurslar va inson omilini muvofiqlashtirgan holda aniq maqsad, ishonch, sabr va strategik rejalashtirishni talab qiladi. Har bir jamiyat bunga tayyor emas; tashabbuslar ochiq, realistik va mahalliy yetakchilikka tayanishi kerak. Islohotlar doimiy baholash va moslashuvni, ba’zida esa butunlay yangi tizimlar yaratishni talab etadi. Doimiy maktabni takomillashtirish — bu har qanday sog‘lom va rivojlanayotgan maktabning tabiiy va zarur tarkibiy qismidir. Agar maktab o‘quvchilarning natijalarini yaxshilashni istasa, u holda u o‘zgarishlar va strategik rejalashtirish jarayonlarini ham ustuvor deb bilishi kerak. Bu esa resurslarni uyg‘unlashtiradigan, salohiyatni oshiradigan va maktab miqyosida barqaror dasturlarni qo‘llab-quvvatlaydigan infratuzilmani yaratishni talab qiladi. Samarali maktab quyidagi qismlardan iborat:

1.**Strategik rejalashtirish va rivojlanish** – bu komponent maktabdagi boshqaruv uslubi, xodimlar ishtiroki va jamoviy muhitni baholashdan boshlanadi. Keyinchalik o‘quvchilarning akademik va ijtimoiy-hissiy muvaffaqiyatini ta’minlashga qaratilgan siyosat va yondashuvlar ishlab chiqiladi. Yakuniy natija — bu bir vauch yillik m**aktabni rivojlantirish rejasi** bo‘lib, u salohiyat, resurslar, barqarorlik va muvaffaqiyatni ta’minlaydi.

2.**Muammoni hal qilish, jamoaviy ishlash va maslahatlashuv** – bu komponent ma’lumotlarga asoslangan tahlil va funktsional baholashga tayangan holda, muammoni erta aniqlash va hal qilishga qaratilgan. Barcha xodimlar bu yondashuvni o‘zlashtirib, akademik va axloqiy muammolarni hal qilishga qaratilgan maktab, strategik choralarini amalga oshiradi. Bu kasbiy hamkorlik, maslahatlashuv va tajriba almashuvga asoslangan jamoaviy yondashuvni talab qiladi.

3.**Samarali maktab, ta’lim jarayoni va kasbiy rivojlanish** – har bir sinfda o‘quvchiga individual yondashgan holda samarali ta’lim va ijobiy xulqni boshqarishni ta’minlaydi. Barcha xodimlar bu jarayonga jalb qilinadi. Kasbiy rivojlanish kundalik va tizimli tarzda olib borilib, bilim, ko‘nikma va mustaqillikni oshirishga xizmat qiladi. Bu model namoyishi, amaliyot, fikr-mulohaza va nazoratli qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Maqsad – darsga jalb etilganlik, ijobiy xulq va o‘quv yutuqlarini oshirish.

4.**Akademik ta’limni baholash, aralashuv va yutuqlar bilan bog‘lash** sinfdagi ta’lim muhitini yaxshilash orqali o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quv dasturi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirga e’tibor qaratadi. Bu komponent quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘quv dasturi mazmuni va ketma-ketligi, darslarni tashkil etish va boshqaruv strategiyalari, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi. Agar natijalar kutilganidek bo‘lmasa, funksional baholash va ta’limiy va psixologik yordam choralari qo‘llaniladi. Maqsad – baholashni ta’limga bog‘lash, o‘quv darajasini aniqlash va ilmiy asoslangan yondashuvlar bilan o‘quvchilarning yutug‘ini oshirishdir.

Zamonaviy maktablarda faqat bilim berish emas, balki o‘quvchilarning ijtimoiy va xulqiy rivojlanishini ham ta’minlash muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Bu borada “o‘zini boshqarish” va ijobiy xulqni shakllantirishga qaratilgan tizimli yondashuvlar ta’lim muassasalarida barqaror, xavfsiz va sog‘lom muhit yaratishga xizmat qiladi. Project ACHIEVE dasturining PBSS (Positive Behavioral Self-Management System) modeli ana shu maqsadga xizmat qiluvchi ilg‘or yondashuvlardan biridir. Ushbu model maktab miqyosida ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, ijobiy xulqni mustahkamlash va xavfsiz muhitni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Bu tizim “o‘zini boshqarish” tushunchasini uch darajada — o‘quvchi, xodim va tizim darajasida — amalga oshirishni nazarda tutadi. Aynan shu yondashuv maktab jamoasining barcha a’zolarini o‘zaro hamkorlikka, mas’uliyatga va barqaror natijalarni ko‘zlashga undaydi. Zamonaviy maktabda ta’lim sifati nafaqat o‘qituvchilarning mahorati yoki darsliklarning zamonaviyligi bilan belgilanadi. Bu jarayonda o‘quvchining oilasi va uni o‘rab turgan jamiyat bilan samarali hamkorlik qilish – muhim omil sifatida maydonga chiqadi. Ayniqsa, o‘qishda orqada qolayotgan, nogironligi bor yoki ijtimoiy xavf ostida bo‘lgan bolalar uchun bu yondashuv hayotiy ahamiyatga ega.

Xulosa

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimining eng muhim vazifasi – samarali maktablarni yaratishdir. Samarali maktab deganda, nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarni zamonaviy hayotning murakkab va noma’lum sharoitlariga tayyorlay oladigan, ularning barcha ehtiyojlarini hisobga oladigan ta’lim muassasasi tushuniladi. Bu jarayonda o‘qituvchilar faqat dars o‘tuvchi emas, balki o‘quvchilarning yutuqlari uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oluvchi mutaxassislarga aylanishi lozim.

Samarali maktabni shakllantirish uchun bir qator muhim savollarga javob topish talab etiladi. Ta’lim tizimini o‘quvchilarning o‘zlashtirish sur’atini oshiradigan tarzda loyihalashtirish, uning samaradorligini baholash va natija bermagan holatlarda strategik choralar ko‘rish zarur. Shuningdek, o‘quvchilarning ijtimoiy

ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni xavfsiz va do‘stona muhitda tarbiyalash ham katta ahamiyatga ega. Bu jarayonda ota-onalar bilan samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, ularning ta’lim jarayoniga faol ishtirokini ta’minlash kerak.

Maktabning uzluksiz rivojlanishi strategik rejalashtirish va tashkilotiy rivojlanish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon insonlar o‘rtasidagi samimiy hamkorlik, qat’iyat va izchillikni talab qiladi. Keng qamrovli islohotlar murakkab va qarshiliklarga boy bo‘lishiga qaramay, ularning muvaffaqiyati mahalliy yetakchilik va resurslarni samarali boshqarishga bog‘liq.

Project ACHIEVE modeli asosida samarali maktab tarkibiy qismlari – strategik boshqaruv, jamoaviy muhokama va muammoni hal qilish, ta’lim sifati va kasbiy rivojlanish, baholash va aralashuv, ota-onalar bilan hamkorlik hamda ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish – muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o‘zini boshqarish va ijobiy xulqni shakllantirishga qaratilgan yondashuvlar maktabda sog‘lom va xavfsiz muhit yaratishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, samarali maktabni shakllantirish – bu faqat ta’lim sifatini oshirish emas, balki jamiyatning kelajagini barpo etishdir. Bu jarayon doimiy o‘zgarishlarga tayyor, bilimga asoslangan, hamkorlik va ishonchga qurilgan tizim bo‘lishi lozim. Maktab, ota-ona va jamiyat uchburchagi mustahkam bo‘lganda, yosh avlod nafaqat bilimga, balki hayotga tayyor, mas’uliyatli va ijodiy shaxs sifatida voyaga yetadi. Shu sababli, strategik rejalashtirish, uzluksiz rivojlanish va keng jamoatchilik ishtirokini ta’minlash samarali maktablarning muhim omillaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Annie E. Casey Foundation. (1995). Eng ko‘p qarshilikka uchraydigan yo‘l: “New Futures” dasturidan olingan saboqlar haqidagi mulohazalar. Baltimor, MD: Muallif.

2. Christenson, S.L., & Close-Conoley, J. C. (Tahr.). (1992). Oila-maktab hamkorligi: Bolalarning o‘quv va ijtimoiy salohiyatini oshirish. Silver Spring, MD: Maktab Psixologlari Milliy Assotsiatsiyasi.

3. Comprehensive School Reform Quality Center. (2006). Boshlang‘ich maktablar uchun keng qamrovli maktab islohotlari modellari bo‘yicha CSRQ markazi hisoboti. Vashington, DC: Tadqiqot bo‘yicha Amerika institutlari.

4. Cook, W. J. (1990). Rejalashtirish fani. Kembrij, MA: The Cambridge Management Group.

5. Dunst, C. J., Trivette, C. M., & Johanson, C. (1994). Ota-ona va mutaxassis hamkorligi. In C. Dunst, C. Trivette, & A. Deal (Tahr.), *Oilalarni qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash (1-jild): Usullar, strategiyalar va amaliyotlar* (197–211-betlar). Kembrij, MA: Brookline Books.

6. Kerr, M. M., & Nelson, C. M. (2002). Sinfdagi xulq-atvor muammolarini boshqarish strategiyalari (4-nashr). Kolumbus, Ogayo: Charles E. Merrill Publishing Company.

7. Knoff, H. H. (2005). O‘quvchilar natijalarini kuchaytirish uchun kuchli maktablar qurish: Litl-Rok, AR: Arkanzas Ta’lim Departamenti – Maxsus ta’lim bo‘limi.

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI PEDAGOG XODIMLARINI KASBIY RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Oripov Jamshid Yaxshiboyevich
Samarqand viloyati PMM “Ijtimoiy va amaliy fanlarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi, katta o‘qituvchisi
oripovjamshid1982@gmail.com
Rozokov Olmos Sultonmurodovich
Samarqand shahar 23-umumiy o‘rta ta’lim maktabi Ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Mazkur maqolada muallif maktabgacha va maktab ta’limi pedagog xodimlarini kasbiy rivojlantirishning huquqiy asoslari borasidagi nazariy fikrlar bildirilib, mazkur masalaning yechimlariga oid takliflari berilgan.

Kalit so‘zlar: meod, interfaol usullar, raqamli texnologiya, dars, farmon, qaror, ta’lim tizimi, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье автор высказывает теоретические взгляды на правовые основы повышения квалификации педагогов дошкольных учреждений и школ, а также вносит предложения по решению этого вопроса.

Ключевые слова: метод, интерактивные методы, цифровые технологии, урок, указ, решение, система образования, инновационные технологии.

Annotation: In this article, the author expresses theoretical views on the legal basis for the professional development of preschool and school teachers and makes suggestions for solutions to this issue.

Key words: method, interactive methods, digital technologies, lesson, decree, solution, education system, innovative technologies.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini takomillashtirish va sohaga ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish, pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish ta’lim tizimini rivojlantirishining eng muhim omillaridandir. Shuning uchun ham ta’lim sohasi xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining huquqiy hujjatlarini pedagog xodimlarga o‘rgatish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, o‘z sohasining huquqiy asoslarini yaxshi bilgan xodimda kasbiy bilim, talabchanlik, mas’uliyat va majburiyatlarini chuqur anglash hissi ustun bo‘ladi.

Modomiki, maktabgacha va maktab ta’limi pedagog xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining huquqiy asoslari borasidagi bilmlarini oshirish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etar ekan, buning uchun avvalo,

pedagoglarni sohaning huquqiy asoslari bilan tanishtirish zarur. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari maktabgacha va maktab ta’limi pedagog xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining huquqiy asoslarini tashkil etadi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar nafaqat ta’lim sohasi balki pedagog xodimlarnining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining huquqiy asoslarini tashkil etadi.

Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi samaradorligini ta’minlash, ularning kasbiy bilim, ko‘nikma va mahoratini muntazam oshirib borish, Prezident maktablarida to‘plangan ilg‘or tajribalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etish maqsadida[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyunda “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son Qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror asosida 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining rahbarlari, pedagog va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimi joriy qilindi. Shu bilan bir qatorda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish maqsadida “Virtual kasbiy rivojlantirish” elektron dasturini joriy etish qarorda belgilab berildi. Eng muhimi ushbu qarorda belgilangan chora-tadbirlar asosida mutlaqo yangi tartibda 2025-yil 1-yanvardan boshlab maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarining tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlari asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirishning vertikal tizimi asosida besh yilda bir marotaba ishdan ajralgan holda malaka oshirish hamda menejerlik o‘quv kurslari, shuningdek, malaka oshirish tizimi tinglovchilarning bilimlarini baholash va ularga malaka toifasini berish uchun kasbiy sertifikatlash tizimi joriy etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son Qarori asosida: “2025-yil 1-yanvardan boshlab pedagog va mutaxassis kadrlar kasbiy rivojlanishining uzluksizligini ta’minlash maqsadida barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida malaka oshirishning “Kasbiy rivojlanish soati”, tayanch umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida esa, shuningdek, “Kasbiy rivojlanish kuni” kabi shakllari”[2] joriy etilganligi tom ma’noda tizimdagi yangilik bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Kasbiy rivojlanish soati” va “Kasbiy rivojlanish kuni” tadbirlari har bir tuman yoki shaharlarda yuqori malakali o‘qituvchilar orasidan fanlar kesimida tanlab olingan mentor-o‘qituvchilar tomonidan tashkil etiladi. Fan metodika

birlashmalari va mentor-o‘qituvchilari o‘qituvchilarning darslari tahlil qilish va ularga metodik yordam ko‘rsatish, kasbiy rivojlanishi bo‘yicha tavsiyalar beradilar.

Kasbiy rivojlanish kunlarida har bitta fan bo‘yicha tanlangan tayanch umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar uchun kasbiy rivojlantirish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. “Kasbiy rivojlanish soati” va “Kasbiy rivojlanish kuni” tadbirlarini o‘tkazish tartibi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Yuqoridagi fikr va mulohozalardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, maktabgacha va maktab ta’limi pedagog xodimlarini kasbiy rivojlantirish orqali, *birinchidan,* ta’lim va o‘qitish samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan muhitni yaratish, *ikkinchidan,* o‘qituvchilarga darslarni tahlil qilish va ularga metodik yordam ko‘rsatish, *uchinchidan,* maktabgacha va maktab ta’limi pedagog xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha va maktab ta’limi pedagog xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish borasida yuqorida bildirilgan xulosalarga tayanib quyidagi:

birinchidan, “Kasbiy rivojlanish soati” va “Kasbiy rivojlanish kuni” tadbirlarida muntazam qatnashish;

ikkinchidan, “Kasbiy rivojlanish soati” va “Kasbiy rivojlanish kuni” tadbirlarida o‘zlashtirilgan bilimlarni ta’lim jarayonida qo‘llashga e’tibor qaratish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son Qarori.

2) O‘zbekiston espublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son Qarori.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI KASBIY RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM MUHITINI YARATISH MUAMMOLARI

Qurbanova Xusnora Xudoyberdi qizi
Qashqadaryo PMM
Maktabgacha , boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi
o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi ta’lim muhitining mazmuni, uning zarurati, amaliyotdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida fikr yuritiladi. Kasbiy rivojlanish samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar va samarali tashkil etilgan ta’lim muhiti muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается содержание образовательной среды, способствующей профессиональному развитию учителей начальных классов, её необходимость, существующие проблемы на практике и пути их решения. Обоснована важность инновационного подхода и эффективно организованной образовательной среды для повышения эффективности профессионального роста педагогов

Abstract: This article discusses the concept of an educational environment that supports the professional development of primary school teachers, its necessity, existing practical challenges, and possible solutions. The importance of innovative approaches and a well-organized educational environment in enhancing the effectiveness of professional growth is substantiated.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, kasbiy rivojlanish, pedagogik muhit, o‘qituvchi, metodik yondashuv, innovatsiya.

Kirish

Ta’lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri – bu o‘qituvchi salohiyati. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilar bilimga, axloqiy qadriyatlarga ilk bor asos solinadigan davrda o‘qituvchining kasbiy mahorati, yangilikka intilishi va pedagogik mahorati juda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun kasbiy rivojlanishga xizmat qiluvchi ta’lim muhitini shakllantirish dorzab masala hisoblanadi.

Kasbiy rivojlanishni ta’minlovchi ta’lim muhiti tushunchasi

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun kasbiy rivojlanish — bu faqat malaka oshirish emas, balki o‘z ustida ishlash, zamonaviy metodlarni egallash, texnologiyalardan samarali foydalanish va o‘quvchilarga mos yondashuvlarni amaliyotga tadbiq etishdan iborat. Kasbiy rivojlanayotgan o‘qituvchi – zamon bilan hamnafas o‘qituvchidir. Bunday rivojlanishga xizmat qiladigan ta’lim muhiti quyidagilardan tashkil topgan bo‘lishi kerak:

- Shaxsiy va kasbiy o‘sish uchun imkoniyatlar;
- Psixologik qo‘llab-quvvatlovchi muhit;
- Innovatsion texnologiyalarga kirish imkoniyati;
- Metodik yordam va hamkorlik muhitining mavjudligi.

Amaldagi muammolar

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi ta’lim muhitida quyidagi muammolarga duch kelmoqda:

- Resurslar yetishmovchiligi;
- Metodik ko‘makning sustligi;
- Kasbiy motivatsiyaning pastligi;
- Yagona rivojlanish strategiyasining yo‘qligi.

Ta’lim muhitini yaxshilash bo‘yicha takliflar

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhitni yaratishda quyidagilar muhim ahamiyatga ega, ular quydagilar:

- Mentorlik tizimini joriy etish;
- Onlayn metodik platformalarni yo‘lga qo‘yish;

- Shaxsiy rivojlanish rejalari asosida ishlash;
- Rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni kuchaytirish;
- O‘zaro metodik darslar, seminarlar, tajriba almashuvlarini tizimli yo‘lga qo‘yish.

Xulosa

1. Boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi salohiyati hal qiluvchi omildir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishi – ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish va shaxsiy rivojlanishini ta’minlashda muhim o‘rin egallaydi.
2. Kasbiy rivojlanishga xizmat qiluvchi ta’lim muhiti hali yetarli darajada shakllanmagan. Aksariyat ta’lim muassasalarida metodik qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash, shaxsiy yondashuvlar yo‘qligi seziladi.
3. Resurslar va metodik yordamlar yetishmasligi asosiy to‘siqlardan biridir. O‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini oshirish va yangiliklarga ochiqligini ta’minlash uchun ular doimiy tarzda innovatsion vositalar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur.
4. Hamkorlik va mentorlik tizimlari sust rivojlangan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga tajribali ustozlardan o‘rganish, amaliy maslahatlar olish imkoniyati kengaytirilishi lozim.
5. Kasbiy rivojlanishga xizmat qiluvchi individual yondashuvlar joriy etilishi zarur. Har bir o‘qituvchining ehtiyoj va salohiyatiga mos ravishda shaxsiy rivojlanish rejalari tuzilib, ular asosida metodik yordamlar ko‘rsatilishi kerak.
6. Yaxshi tashkil etilgan, ijobiy va innovatsion ta’lim muhiti – samarali kasbiy rivojlanishning garovidir. Bunday muhit nafaqat o‘qituvchining, balki butun o‘quv jarayonining sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi – bu o‘quvchining nafaqat bilim olishi, balki shaxs sifatida shakllanishida ham asosiy rol o‘ynaydi. Shu bois, ularning kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi ta’lim muhitini yaratish har qanday ta’lim muassasasi uchun strategik vazifa hisoblanadi. Bu yo‘ldagi muammolarni bartaraf etish — ta’lim sifatining kafolatidir

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomalari. – 2017–2023 yillar.
2. Xalq ta’limi vazirligi metodik qo‘llanmalari, 2022–2024 yillar.
3. “Boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuvlar”, M. Xolmatova, Toshkent, 2023.
4. www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.
5. UNESCO (2021). Teacher Professional Development Report
7. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni. – Toshkent, 2020.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori. – 2021.
9. Rasulov A., Jo‘raqulov N. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta’lim metodlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

10. Saidov N. Ta’limda metodik yondashuvlar va innovatsiyalar. – Samarqand, 2019.
11. Khakimov A.M. Kasbiy ta’lim psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

SOG‘LOM VA IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘SMIRLARNING HISSIY-IRODAVIY RIVOJLANISHI

QarshiDU
Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori(PhD)
dotsent. Sattarova G.I.
Tel: 97 673 01 10

Annotasiya: Mazkur maqolada sog‘lom va imkoniyati cheklangan o‘smirlarning hissiy-irodaviy rivojlanishi, hissiy-irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lishida tafovutlar eksperimental materiallar asosida izohlangan, natijalar yuzasidan o‘ziga xos mushohadalar bildirilgan, subektlarda iroda shakllanishining jabhalari talqin qilingan, muammo bo‘yicha ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so’zlar: imkoniyati chekhlangan, o’smir, hissiy-irodvaviy soha, emotsiyonallik, ijtimoiylashish, anglash, ta’sirchanlik, zo‘riqish-bo‘shashish, o‘zini o‘zi nazorat qilish.

Hayot imkoniyati chekhlangan shaxslar oldiga ko‘p murakkab talablar qo‘yadi. Bu ayniqsa, o’smirlik davrida ularning normal ijtimoiylashuvi va hayotda o’z o’rinlarini topishida ma’lum qiyinchiliklarni tug‘diradi. Avval mustahkam o‘rnashib qolgan ko‘nikmalar ijtimoiylashuv tarziga ko‘p jihatdan mos kelavermaydi. Shuning uchun, imkoniyati cheklangan o‘smirlarning ijtimoiylashuvda o‘zini normal his qilishi, maqsadga muvofiq hayot kechirishi va o‘sib ulg‘ayishi uchun, ularning o‘ziga xos individual psixologik xususiyatlari, ijtimoiy hayotga moslashish ko’nikmalarini tarkib toptirish muammolarini chuqurroq o‘rganish, bu sohada tadqiqotlar olib borish zarur. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda ijtimoiylashuvda o‘zini nazorat qilish uquvining rivojlanishida sinf jamoasi va oila a’zolarining munosabati juda muhim o‘rin tutadi. Uning xatti-harakati, o‘z kuchiga, mayliga, yoshiga loyiq munosabatlari, muayyan muhitda o‘z o‘rnini topishga intilishi o‘zini anglashining takomillashuviga puxta zamin yaratadi. O‘z o‘zini anglash hayot davomida erishib boriladigan jarayon bo‘lib, aksariyat nogironligi bo‘lgan o‘smirlar o‘z o‘ziga qarshi turishdan qo‘rqishadi, chunki ular o‘ylay boshlagach beixtiyor o‘tmish kitobi ochiladi, yaralar yana yangilanadi, ularda o‘zlarining zaif tomonlarini, kamchiliklarini yorqinroq his etish o‘z kuchini ko‘rsatadi. Ularning ongi esa bunga dosh bera olmaydi. Natijada ular o‘zlariga qaratilayotgan psixologik ta’sirlarga qarshi qalin devor quradilar. Go‘yoki, shu yo‘l orqali o‘zlarini xavfdan saqlaydilar. Aksariyat imkoniyati cheklangan o‘smirlar o‘z muammolarini yashirishga harakat

qiladilar. Turli bahonalar orqali maqsad qo‘yish, unga erishish, qiyinchiliklarni yengib o‘tishdan o‘zlarini olib qochadilar. Demak, maqsadga erishish, mavjudlikka erishish uchun ham iroda va jasorat kerak. Shu bois, ko’zlangan maqsadga erishish nogironligi bo‘lgan o‘smirlardan o‘zlikni anglash va irodaviy sifatlarga egalikni talab etadi.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda ijtimoiylashuvda o‘zini nazorat qilish yangi bosqichga ko‘tarilgach, ular o‘ziga xos axloqiy namunani tanlaydilar va o‘zlariga namuna bo‘lgan shaxsning xulq-atvori bilan o‘zining ijobiy yoki salbiy jihatlarini solishtiradi, oqibatda ularda, o‘zini o‘zi tarbiyalash bilan bog‘liq yana bir muhim xislat vujudga keladi. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarning hissiy – irodaviy rivojlanishini o‘ziga xos psixologik jihatlarini o‘rganar ekanmiz, ular shaxsining shakllanishida, rivojlanib, kamolotga erishish yo‘llarini va unga ta’sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta’sirini tushunish mumkin. Har doim ham nuqsoni bo‘lgan o‘smirlarning xulq-atvoriga xos bo‘lgan alohida xususiyatlarni jismoniy o‘sish va jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo‘lmaydi. Kuzatishlarimizcha, jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘smirlarda bu davrga kelib o‘z tana tuzilishidan qanoatlanmaslik va mayiblik hissi ustuvor o‘ringa chiqadi. Tushkunlik, fatal holat, o‘ziga past baho berish, ularda ba’zida so‘zga kirmaslik, o‘jarlik, beqarorlik tajanglik kabi harakatlar bilan namoyon bo‘la boshlaydi. Rivojlanishdagi mana shunday psixofiziologik nomutanosiblik o‘smirning psixik o‘sishiga uzluksiz ta’sir etib, unda noxush hislarni uzluksiz paydo qilib turadi. Fatal holatlarning oldini olish uchun, inklyuziv ta’lim yoki maxsus maktablar sharoitida nuqsonli o‘smirlarni turli ijodiy mashg‘ulotlar, texnika, kompyuter savodxonligi, musiqa, rasm solish, badiiy ijod, sportga qiziqtirish usullaridan foydalaniladi, bu sinalgan vositalar sirasiga kiradi. Lekin, nogironligi bo’lgan o‘smirlarda saqlangan imkoniyatlariga ishonch, koping xulq atvor normalarini tarkib toptirish uchun birinchi navbatda, ularni o‘z his tuyg‘ularini anglashga boshqarishga, o‘zidagi noxush hislarni yengishga o‘rgatish zarur bo’ladi. Buning uchun esa, samaradorligi yuqori bo‘lgan psixokorreksion xarakterdagi maslahatlar, o‘yinlar, treninglar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish o’ta muhimdir.

Imkoniyati cheklangan va sog‘lom o‘smirlarning hissiy-irodaviy rivojlanishi o‘rtasida o‘ziga xos psixologik tafovutlar mavjud bo‘lib, ular maqsad qo‘yishdan tortib ish harakatni bajarishgacha, o‘z tuyg‘ularini boshqarishdan ijtimoiylashuvda o‘zini nazorat qilishgacha bo’lgan oraliqlarda ko’zga tashlanadi.

Imkoniyati cheklangan o‘smirlardagi hissiy irodaviy holatlarning namoyon bo‘lishi “o‘tish davri”, “inqiroz davri” ning tavsiflari mazmuni mohiyatiga yaqin kelsa-da, biroq sog‘lom o‘smirlardan farqli o’laroq nogiron o‘smirlarda bu davr inqirozi og‘irroq kechishi, qayg‘urishlik kabi his tuyg‘ular va noxush emotsional taassurotlarning davomiyligi va yuqorililigi bilan xarakterlanadi. O‘smirlik o‘z - o‘zini anglash davri bilan yakunlanganligi bois imkoniyati cheklangan o‘smirlar bu davrga kelib mayiblik hissini yanada chuqurroq tuyadilar. Ular qattiq bezovtalik, charchoq va siqilish holatlarini boshdan kechiradilar. Sog‘lom o‘smir o‘quvchilarga nisbatan haddan tashqari zo‘riquvchan, ba’zida hissiy notinch,

asabiy, ruhiy olami qo‘zg‘aluvchan ekanligi kuzatish mumkin. Bu holat imkoniyati cheklangan o’smirlarda katta yosh davrlariga o’tgan sayin pasayib borishini qator olimlar ta’kidlaydilar. Biroq, imkoniyati cheklangan o‘smir yoshidagi respondentlar orasida o‘zgaruvchan, ayrim hislar kayfiyatlar ta’sirida tez bir qarorga keladigan, dadil xarakterli o‘smirlar ham uchraydi. Bunday o‘smirlar ikkilanmasdan o‘ylab, e’tibor bilan to‘g‘ri bir qarorga kela oladilar va shu qarorni dadil amalga oshira biladilar. Bir necha imkoniyatdan birini tanlab olishga to‘g‘ri kelganda ish–harakat bir qadar xavf-xatar bilan bog‘langan, murakkab bo‘lsa, bunday vaziyatda dadilliklari yaqqol namoyon bo‘ladi. Imkoniyati cheklangan o‘smirlik yoshidagi o‘quvchilarning hissiy-irodaviylik kuchi asosan ularning irodaviy harakatlar yordami bilan turli to‘siqlarni yengishida va shu yo‘l bilan qanday natijalarga erishilganligida, hislarni boshqarishda va hissiy barqarorlikda namoyon bo‘ladi.

Sog‘lom va imkoniyati cheklangan sinaluvchilarning hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishini o’rganish bo’yicha qo’lga kiritilgan natijalarni qiyosiy tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb topdik. Navbatdagi jadvalda, “Shaxsning irodaviy sifatlari” so‘rovnomasi bo‘yicha imkoniyati cheklangan o‘smirlar va sog‘lom o‘smir o‘quvchilarning natijalar taqdim qilingan.

2.13-jadval

Shaxsning irodaviy sifatlari sinaluvchilar kesimida o‘zora tafovutlari (Manni- Uitni mezoni N=297)

Shkalalar	Guruh	N	O’rtacha Rank	U	p
Masuliyatlilik	Imk.chek. o'smirlar	126	119,40	8144,00	**0,014***
	Sog'lom o'smirlar	171	170,81		
	Jami	297			
Tashabbuskorlik	Imk.chek. o'smirlar	126	130,64	9459,50	0,148
	Sog'lom o'smirlar	171	162,53		
	Jami	297			
Qatiyatlilik	Nogiron o'smirlar	126	124,48	8083,00	**0,000***
	Sog'lom o'smirlar	171	167,07		
	Jami	297			
Mustaqillik	Imk.chek. o'smirlar	126	127,37	8247,00	**0,035***
	Sog'lom o'smirlar	171	164,94		
	Jami	297			
Matonatlilik	Imk.chek.	126	170,95	9607,00	0,158

	o'smirlar				
	Sog'lom o'smirlar	171	132,82		
	Jami	297			
Tirishqoqlik	Imk.chek. o'smirlar	126	124,94		
	Sog'lom o'smirlar	171	166,73	9741,50	0,179
	Jami	297			
G’ayratlilik	Imk.chek. o'smirlar	126	107,93		
	Sog'lom o'smirlar	171	179,26	8098,00	**0,002****
	Jami	297			
Ziyraklar	Imk.chek. o'smirlar	126	137,77		
	Sog'lom o'smirlar	171	157,27	9358,50	0,142
	Jami	297			
Sobitqadamlik	Imk.chek. o'smirlar	126	109,46		
	Sog'lom o'smirlar	171	178,13	9791,00	0,195
	Jami	297			

Izoh: **- p≤0,01; *-p≤0,05

Imkoniyati cheklangan o‘smirlarda (2.13-jadval) “Mas’uliyatlilik”ning o‘rta arifmetik qiymati (119,40); sog‘lom o‘smir o‘quvchilarda esa (170,81) miqdorda namoyon bo‘ldi. Ishonchlilik mezoni (U=8144,00; p<0,05). Natijalardan ko‘rinadiki, sog‘lom o‘smir o‘quvchilar imkoniyati cheklangan o‘smirlardan mas’uliyatliroq.

“Qat’iyatlilik” shkalasi bo‘yicha imkoniyati cheklangan o‘smirlar natijalari umumiy o‘rta qiymatda (124,48);, sog‘lom o‘smir o‘quvchilar ko‘rsatkichi (167,07) qiymatni; ishonchlilik mezoni (U=8083.00; p<0,001) qiymatni aks ettirdi.

“Mustaqillik” shkalasi imkoniyati cheklangan sinaluvchilarda (127,37); ko‘rsatkichga ega bo‘lgan bo‘lsa, sog‘lom o‘smir yoshidagi sinaluvchilar natijalari o‘rta (164,94) qiymatni, ishonchlilik mezoni (U=8247,00; p<0,05) qiymatni ifodaladi. Qat’iyatlilik va mustaqillik borasida ham sog‘lom o‘smirlar natijalari yuqoriroq ko‘rsatkichga ega. Garchi matonatlilik shkalasi bo‘yicha imkoniyati cheklangan o‘quvchilar natijalarda ustunlik qilsalar-da, biroq, g‘ayratlilik, sobitqadamlik borasida sog‘lom o‘smirlarda natijalar ustuvorroqligi aniqlandi.

“G‘ayratlilik” shkalasi bo‘yicha imkoniyati cheklangan o‘smirlar natijalari umumiy o‘rta qiymatda (107,93);, sog‘lom o‘smir o‘quvchilar ko‘rsatkichi (179,26) qiymatni; ishonchlilik mezoni (U=8098,00; p<0,01) miqdoriy

ko’rsatkichni ifodaladi. Imkoniyati cheklangan aksariyat o‘smirlar g‘ayratli emaslar. Ular ko‘pincha kam faolliklari bilan ajralib turadilar yoki umuman passiv bo‘lib, yalqov, tanbal degan taassurot tug‘diradilar. Faqat, matonatlilik shkalasida sinaluvchilarning, natijalari so‘rovnomaning o‘rta me’yoriy ko‘rsatkichiga yaqin keldi.

Shaxs irodaviy sifatlarini o‘rganish so‘rovnomasining boshqa ya’ni, matonatlilik, tashabbuskorlik, tirishqoqlik, qat’iyatlilik, ziyraklik, shkalalarida ahamiyatli tafovutlar kuzatilmadi.

Navbatdagi jadvalda, “Emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilishni aniqlash” so‘rovnomasi bo‘yicha imkoniyati cheklangan o‘smirlar va sog‘lom o‘smir o‘quvchilarning natijalar taqdim qilingan. “Emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish” shkalasi bo’yicha imkoniyati cheklangan o‘smirlar natijalari (116,11) qiymatni ifodalagan bo‘lsa, sog‘lom o‘smirlar natijalari farqli ravishda (173,24) ko‘rsatkichni aks ettirdi. (U=6928,500; p<0,001) Mazkur shkala bo‘yicha imkoniyati cheklangan o‘smir yoshidagi o‘quvchilarning natijalari sog‘lom o‘smirlar natijasidan quyiligi aniqlandi.

2.14-jadval

Emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish sinaluvchilar kesmida o‘zora tafovutlari (Manni- Uitni mezoni N=297)
(Nogiron o’smirlar N=126; Sog’lom o’smirlar N=171)

Shkalalar	Guruh	N	O’rtacha Rank	U	p
Emotsional holatlarda o’zini nazorat qilish	Imk.chek. o'smirlar	126	116,11	6928,500	**0,000***
	Sog'lom o'smirlar	171	173,24		
	Jami	297			
Faolyatda o’zini nazorat qilish	Imk.chek. o'smirlar	126	118,39	7116,500	0,065
	Sog'lom o'smirlar	171	171,55		
	Jami	297			
Ijtimoiylashuvda o’zini nazorat qilish	Imk.chek. o'smirlar	126	127,98	6735,000	**0,000***
	Sog'lom o'smirlar	171	164,49		
	Jami	297			

Izoh: **- p≤0,01; *-p≤0,05

“Ijtimoiylashuvda o‘zini nazorat qilish” shkalasi bo‘yicha imkoniyati cheklangan o‘smirlar natijasi (127,98) qiymatni, sog‘lom o‘smirlar natijasi (164,49) ko‘rsatkichni aks ettirdi. Ishonchlilik mezoni (U=6735,500; p<0,001) miqdoriy ko’rsatkichga teng. Bu shkala bo‘yicha ham sog‘lom o‘smir yoshidagi o‘quvchilarda natijalari ustuvorroq. Hayot imkoniyati cheklanganlar oldiga ko‘p

murakkab va yangi talablar qo‘yadi. Bu ularning butun psixik hayotida yangi qiyinchiliklar tug‘diradi. Avval mustahkam o‘rnashib qolgan ko‘nikmalar ijtimoiylashuv tarziga ko‘p jihatdan mos kelavermaydi. Shuning uchun jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘smirlarning ijtimoiylashuvda o‘zini ruhiy jihatdan normal his qilishi, maqsadga muvofiq hayot kechirishi va o‘sib ulg‘ayishi uchun, ularning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, bu sohada tadqiqotlar olib borish zarur. Faoliyatda o‘zini nazorat qilish shkalasida ahamiyatli tafovut kuzatilmadi.

O‘smirlik yoshidagi o‘quvchilarda o‘zining va boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va baholashga qaratilgan tushuncha, bilim va ko‘nikmalari tarkib toptirib borish zarur. Ayniqsa, nuqsonli o‘smirlar, o‘z emotsiyalarini yaxshi boshqarishga qodir bo‘lsalar turli xil stress vaziyatlarida chidamli va bilim olish, kasb egallashga qiziqishlari barqarorlashib boradi. Emotsional intellekt haqida tajribali psixolog Jon Gottman, biz to‘g‘ri deb hisoblagan xatti-harakatlarning stereotiplari bolaning hissiy intellektini (EQ) rivojlantirishga yordam bermasligini aniq ko‘rsatgan holda, quyidagilarni ta’kidlagan:

− Bolaning his- tuyg’lariga e’tibor bering; - Farzandingiz bilan o‘rganish va muloqot qilish imkoniyati sifatida hissiy ifodadan foydalaning;

− Empatiya ko‘rsating va bolaning kayfiyatini yaxshiroq tushuning;

−Farzandingizga qiyin vaziyatlar va muammolarni yengishga yordam bering. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarni o‘rganar ekanmiz, aksariyat imkoniyati cheklangan o‘quvchilar o‘z qobig‘iga o‘ralgan, ta’sirchanligi bilan ajralib turishi kuzatildi. Ular, o‘zlariga past baho beradilar, saqlangan imkoniyatlariga shubha bilan qaraydilar. O‘ziga bo’lgan ishonchi zaif.. Ba’zi o‘quvchilar atrofdagilar bilan munosabatlarda tengdoshlari yoki katta odamlarga taqlid qiladilar. Ba’zida bu holat ularga jiddiylik baxsh etgandek bo‘lsa, ba’zida o‘zini qabul qila olmaslik hislari bilan aralashib ketadi. Ba’zi sinaluvchilarda muloqotga moyillikning yuqoriligi kuzatildi. O‘rtoqlari, tengdoshlari bilan suhbatlashishga o‘tkir ehtiyoj sezadi. Endi, uning uchun ota ona va yaqinlaridan ko‘ra o‘rtoqlari, tengdosh sinfdoshlari bilan muloqot qilish qiziqarliroq tuyuladi. Lekin, o‘zining beso’naqay harakati, mayibligi bilan o‘rtoqlari oldida masxara bo‘lishdan cho‘chiydi. Bu esa, ularda uf tortish, siqilish kabi noxush hislarni paydo qiladi. Imkoniyati cheklangan o‘smirlar gohida sun’iy emotsiyalarni namoyish etish bilan ham xarakterlanadilar. Masalan hech joyi og‘rimasa va bezovta qilmasa ham lanjlik, injiqlik, maydakashlik, gapga kirmaslik, o‘jarlik holatlari kuzatiladi. Shunday bo‘lsada, ba’zi faoliyatlarda mustaqillikka intiluvchanligi, muvaffaqiyatga erishishga ko‘proq o‘z imkoniyatiga ishonishi, faoliyat jihatdan faolroqligi bilan eksternallardan farqlandilar. Ular, sog‘lom o‘quvchilar bilan muloqotga yopiqlar. Shu bilan birga ko‘pincha ular shaxslararo munosabatlarda o‘z imkoniyatlarini past baholashlari aniqlandi. Buning natijasida o‘smirda tevarak-atrofdagi olamga, ayniqsa yaqinlariga nisbatan norozilik, qo‘pollik kabi harakatlar kuzatiladi.

Aksariyat sog‘lom o‘quvchilar kirishimli, o‘z-o‘zini tahlil qilishga moyil, faqatgina o‘zlari faoliyati uchun mas’uliyatli bo‘la oladilar va o‘zlari uchun javob beradilar. Ba’zi o‘smirlarda hissiy barqarorlik, axloqiy me’yoriylik, ishonchlilik,

kreativlik, xushmuomalalik kuzatildi. Hattoki, ular yoqimsiz vaziyatlar bo‘lsa ham, omadsizligi yoki xatolari uchun o‘zini ma’qullamasligi, ko‘proq o‘z fikriga va o‘z mulohazasiga tayanishi, o‘z prinsiplarini himoya qila olishlari bilan xarakterlandilar va ularda, introvertlikka xos xususiyatlar kuzatildi.

Imkoniyati cheklangan sinaluvchilar tashqi holatga yo‘naltirilgan, qiyinchiliklardan cho‘chiydilar, muayyan topshiriqni bajarishda turli vaj, bahonalar izlashga harakat qiladilar, o‘z mas’uliyatsizligi, erinchoqligi sababini tashqi omillardan izlashlari kuzatildi. Bunday tipdagi o‘smirlar psixologik qo‘llab-quvvatlashga muhtoj, ular tomonidan qo‘lga kiritilgan har bir yutuq, yoki natija kattalar, murabbiylari tomonidan e’tirof etilib, qo‘llab quvvatlanmasa ular faoliyatida o‘z imkoniyatlariga ishonmaslik, xavfsirash, o‘z niyatlarini ro‘yobga chiqarishni yana va yana paysalga solish yuqorilashuvi mumkin. Shikastlantiruvchi tashqi omillarni his etgan o‘smir ularni takrorlanishidan xavotirlanadi, bu esa o‘z navbatida salbiy emotsional kechinmalarni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ular faoliyatda ijtimoiy passivlik bilan ajraladilar va noqulay sharoitda umuman harakat qilmaydilar. O‘quvchilarda kechayotgan kechinmalar tashqi omillar fe’l-atvoriga bog‘liq bo‘lib, bu omillar destruktiv kechinmalar ta’sirida shakllangan o‘smirning “men”i bir tomondan kompensator- ya’ni himoya mexanizmi sifatida inqirozli vaziyatdan chiqib ketish vazifasini o‘tasa, ikkinchi tomondan, o‘smirning ijtimoiy moslashuviga xalaqit beradi. Ushbu qarama– qarshilikni bartaraf etish uchun o‘smir shaxsining ichki imkoniyatlarini faollashtirish zarur bo‘ladi. Sog‘lom o‘smirlar maktabda yaxshi o‘qishga intilishadi va kutilgan maqsadga erishishda qiyinchiliklar va turli xarakterologik to‘siqlar bo‘lsa, ular, o‘z maqsadga yetishi uchun zarur yo‘l, vosita va usullarni o‘zgartirib, yangi usullarni qidirib topishi mumkin. Biroq, ular ham erishgan natijalariga atrofdagilar e’tiborsizlik va befarq qarasalar, o‘z maqsadga yetishi uchun qo‘lga kiritgan yutuqlari o‘smirlarga quvonch baxsh etmaydi. Sog‘lom o‘quvchilarda bitta natija ikkinchi natijadan balandroq bo‘lishi haqida mulohaza yuritish mumkin. Ammo, sog‘lom o‘smirlarning hayoti va faoliyatida ba’zan shunday hollar ham bo‘ladiki, o‘smir o‘z oldiga qo‘ygan qandaydir zarur maqsadlarni bajarishda yengib bo‘lmaydigan yoki kishiga shunday bo‘lib tuyuladigan to‘siqlarga duch keladi. Bunday hollarda ba’zan ular qabul qilgan qarorni o‘zgartiradi, bekor qiladi, yoki, ular, qiyinchiliklardan qo‘rqishi tufayli o‘z oldiga qo‘ygan maqsadidan butunlay voz kechishi mumkin.

Imkoniyati cheklangan o‘smir yoshidagi respondentlar orasida o‘zgaruvchan, ayrim hislar kayfiyatlar ta’sirida tez bir qarorga keladigan dadil xarakterli o‘smirlar ham uchraydi. Bunday o‘smirlar uncha ikkilanmasdan o‘ylab, e’tibor bilan to‘g‘ri bir qarorga kela oladilar va shu qarorni dadil amalga oshira biladilar. Bir necha imkoniyatdan birini tanlab olishga to‘g‘ri kelganda ish–harakat bir qadar xavf-xatar bilan bog‘langan, murakkab bo‘lsa, bunday vaziyatda dadilliklari yaqqol namoyon bo‘ladi. Afsuski, tajribalarda imkoniyati cheklangan o‘quvchilar orasida bunday o‘smirlar juda kam foizni tashkil etsa da bu, ijobiy holat deb qarashga loyiq. Agarda, o‘smir barcha harakatlarining natijalarini ichki muhitdan ya’ni o‘zidan qidirsa, unda bunday o‘smirlar har qanday vaziyatda

mas’uliyatni o‘z bo‘yniga oluvchi o‘quvchilar hisoblanishadi. Demak, birinchi holatda faoliyat natijalari uchun vaziyat va taqdir tan olinsa, ikkinchi holatda o‘smir irodasi va unga xos bo‘lgan mas’uliyatlilik sifatining roli nazarda tutiladi.

Rus olimi A.V.Bikov o‘zining “Irodaviy sifatlarni boshqarish genezisi” asarida yozishicha, irodaviy harakatlarni bajarish orqali, shaxs faoliyat jarayonida o‘zida uni shaxs sifatida tavsiflovchi hayot va mehnat uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan irodaviy fazilatlarni rivojlantiradi. Bizningcha, ba’zi xususiyatlar shaxsni faollashtiradi, bu miya yarim sharlarida qo‘zg‘alish jarayonlarining ustunligi bilan bog‘liq, yana boshqa fazilatlar esa istalmagan aqliy jarayonlar va harakatlarni boshqarish, kechiktirish, bostirishda namoyon bo‘ladi. Hissiy-irodaviy sifatlar irodaning tarbiya jarayonida shakllanadigan axloqiy komponentlarini va nerv sistemasining tipologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan irsiy komponentlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Masalan, qo‘rquv, charchoqqa uzoq vaqt bardosh bera olmaslik, tez qaror qabul qilish ko‘p jihatdan insonning tug‘ma xususiyatlariga (asab tizimining kuchli va zaifligi, uning labilligi) bog‘liq. Hissiy-irodaviy fazilatlar - bu shaxs tomonidan erishilgan xulq-atvorning ongli ravishda o‘z-o‘zini boshqarish darajasini va uning o‘zi ustidan hokimiyatini tasdiqlovchi, muayyan vaziyatdan mustaqil, nisbatan barqaror ruhiy shakllanishni ifodalaydi. Unga ko‘ra, insonning irodaviy fazilatlari tug‘ma va orttirilgan qotishma, insonning mavjud imkoniyatlarining fenotipik xususiyati sifatida qaraladi.

Yangi davr, taraqqiyotning jadallashuvi, axborot tarmog‘ining kengayishi imkoniyati cheklangan o‘smir yoshidagi o‘quvchilar hayotida ham keskin o‘zgarishlarni olib kirdi. O‘smirlik bosqichiga ko‘tarilgan nogiron o‘quvchilar faoliyatida yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o‘rtasida qarama-qarshi vaziyat vujudga kela boshladi. Endi o‘smir uyda yolg‘iz emas. Turli rusumdagi mobil aloqa vositalari ular uchun noxush hislardan chalg‘ituvchi yoki boshqa bir attraksion vazifani o‘tovchi vositaga aylandi.

Ko‘p yillik kuzatuvlarimiz, psixodiagnostik tashxis natijalarining statistik tahlili xulosalariga asoslanib tayanch harakati shikastlangan o‘smirlarda “hissiy beqarorlik va irodasizlik” vaziyatlarini quyidagi 10 ta ko‘rinishini ajratishga erishdik:

1. O‘z “Meni” ni qabul qilmaslik;
2. Yuqori qo‘zg‘aluvchanlik;
3. Emotsional ta’sirchanlik;
4. O‘z his tuyg‘ularini anglamaslik;
5. Mayiblik hissining hukmronligi;
6. Guruhiy bosim;
7. Noxush hislar;
8. Muloqotda muvozanatsizlik;
9. Tobelik;
10. Shikastlovchi tashqi ta’sirlar;

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, o‘rta va katta o‘smirlik davridagi imkoniyati cheklangan o‘quvchilar hissiy-irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lishida ahamiyatli farqlar mavjud. Katta o‘smirlik yoshidagi o‘quvchilarning irodaviylik

darajasi o‘rta o‘smirlik yoshidagi o‘quvchilar natijalaridan yuqoriroq. Ammo, katta o‘smirlik yoshidagi imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda, emotsional qo‘zg‘aluvchanlik, beqaror kayfiyat, noxush hislar va uni yengib o‘tishda zo‘riqish holatlari o‘rta o‘smirlik davridagi o‘quvchilarga qiyoslaganda yuqoriroq namoyon bo‘lishi tajribalarda aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Axmadaliyev B. Imkoniyati cheklangan bolalarga kasb-hunar o‘rgatish metodikasi – T. «Kitobxon» 2016. -85b.
2. Быков А.В. Генезис волевой регуляции. УРАО, М.:- 2002. - 112 с.
3. Hakimova M.F. Maxsus yordamga muhtoj o‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning pedagogik asoslari: ped. f.n. ... diss. Avtoref.– T: TDPU, 2010 – B. 41.

PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM MUHITINI YARATISH TRAYEKTORIYALARI

Shodiyeva Matluba Jo‘rayevna
Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi,
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi mudiri
Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagoglarni kasbiy rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish trayektoriyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiyalashgan ta’lim muhiti, i**nnovatsion ta'lim texnologiyalari,** "Kasbiy rivojlanish soati", "Kasbiy rivojlanish kuni", uzluksiz kasbiy rivojlanish (continuous professional development), o‘zini o‘zi rivojlantirish (self-development) va amaliy faoliyat orqali o‘rganish (learning by doing).

Аннотация. В статье рассматриваются пути создания образовательной среды, способствующей профессиональному развитию педагогов.

Ключевые слова: интегрированная образовательная среда, инновационные образовательные технологии, «Час профессионального развития», «День профессионального развития», непрерывное профессиональное развитие, саморазвитие и обучение на практике.

Abstract. This article discusses the trajectories of creating an educational environment that promotes the professional development of teachers.

Keywords: integrated learning environment, innovative educational technologies, "Professional Development Hour", "Professional Development Day", continuous professional development, self-development and learning by doing.

Ta’lim sifatini oshirish hamda o‘qituvchilarning kasbiy va metodik tayyorgarligini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydigan tizimli islohotlar uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu

jarayon doirasida o‘qituvchilarning ijtimoiy, kasbiy, maxsus va metodik kompetensiyalarini takomillashtirish, shuningdek, ularni uzluksiz kasbiy rivojlanish (continuous professional development), o‘zini o‘zi rivojlantirish (self-development) va amaliy faoliyat orqali o‘rganish (learning by doing) tamoyillari asosida qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada ikki asosiy strategik maqsadga erishiladi: birinchidan, sifatli ta’lim olish imkoniyatini kengaytirish, ikkinchidan esa – inson kapitalining (human capital) raqobatbardoshligini oshirish orqali uni mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlash.

Shunga muvofiq, maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini kasbiy rivojlantirishning quyidagi tartibini joriy etish belgilandi [1]:

- maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini kasbiy ehtiyojlari va malaka toifasidan kelib chiqib tabaqalashgan ta’lim dasturlari asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirishning vertikal tizimini (vazirlik — malaka oshirish muassasasi — ta'lim tashkiloti) yo‘lga qo‘yish;
- maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining xodimlari uchun besh yilda bir marotaba ishdan ajralgan holda o‘tkaziladigan malaka oshirish kurslarini joriy qilish, bunda: rahbar kadrlar uchun malaka oshirish kurslari menejerlik o‘quv kurslari uchun joriy etilgan tartib asosida, pedagog va mutaxassis kadrlar uchun — variativ (ixtiyoriy tanlov) va invariant (majburiy) modullardan iborat bo‘lgan hamda ularda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlari bo‘yicha tashkil etish; malaka oshirish kurslarida ta’lim olayotgan tinglovchilar bilimini baholash jarayonlarining pedagog kadrlarga malaka toifasini berish va ularni kasbiy sertifikatlash tizimlari bilan uzviyligini ta'minlash; malaka oshirish kurslari oralig‘ida xodimlarning o‘zaro tajriba almashish va o‘zini o‘zi mustaqil rivojlantirishga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlantirish shakllarini tashkil etish;
- malaka oshirish tizimi natijalarini baholashning yangi tartibini joriy etish va uning doirasida maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarining faoliyat samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratish;
- Prezident maktablarida o‘quvchilarni o‘qitish, kasb-hunarga yo‘naltirish, ularda tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha to‘plangan ilg‘or tajribalarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi orqali umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etish;
- pedagog va mutaxassis kadrlar kasbiy rivojlanishining uzluksizligini ta’minlash maqsadida barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida malaka oshirishning "Kasbiy rivojlanish soati", tayanch umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida esa, shuningdek, "Kasbiy rivojlanish kuni" kabi shakllarini bosqichma-bosqich joriy etish.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, pedagoglik kasbi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, doimiy yangilanishni talab qiladi, bu esa o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlashni anglatadi. Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish ta’lim sohasidagi sifatni yaxshilash va o‘quvchilarni yuqori natijalarga erishishga

tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Ta’lim tizimi va uning samaradorligi, ayniqsa o‘qituvchilarning malakasi va pedagogik ko‘nikmalariga bog‘liq. Shu sababli, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ta’lim jarayonida yangiliklar va innovatsiyalarni joriy etish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Mazkur muammo bo‘yicha dastlabki ishlarni bajarish jarayonida biz umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqot ishlari natijalariga murojaat qildik.

Yurtimiz, MDH va xorijlik olimlar tomonidan o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish muammosi batafsil muhokama qilingan. Ta’lim tizimida o‘qituvchi o‘rnining o‘zgarishi, ularni kasbiy rivojlantirish, faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, doimiy ilmiy-metodik yordam ko‘rsatib borish va faolligini orttirish, o‘qituvchilarda kasbiy-innovasion tayyorgarlikni rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari, pedagogik qobiliyatlarni takomillashtirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy faollik va ijtimoiy omillarga doir tadqiqotlar yurtimizning K.A.Karimov, A.A.Ibragimov, X.I.Ibragimov, T.T.Shaymardonov, MDHning E.A.Aleksandrova, O.S.Gazman, E.F.Zeer, L.G.Tarita kabi olimlari tomonidan amalga oshirilgan.

MDH olimlari V.I.Andreev o‘zini o‘zi ijodiy rivojlantirish, L.V.Vedernikova pedagogik faoliyatda o‘qituvchining o‘z-o‘zini ijodiy anglashga munosabatini shakllantirish, R.V.Demyanchuk o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi va ularni psixologik qo‘llab-quvvatlash, E.A.Klimova kasbiy o‘zini o‘zi belgilash psixologiyasi, A.A.Rean o‘qituvchi bilimining psixologik-pedagogik asoslari, O.N.Lazareva integrasiya sharoitida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini metodik tayyorlash, S.E.Sareva boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi tizimida metodik tayyorgarlik, O.V.Muromseva o‘qituvchilarni aralash va onlayn ta’limga tayyorlashning ilmiy-metodik jihatlari, A.A.Ushakov integratsiyalashgan ta’lim muhitida o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishiga doir masalalarni tadqiq qilgan.

Xorijiy davlatlarda o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini takomillashtirishning ilmiy masalalari Marta Ruiz-Corbella, A.Cropley, D.Schaeffer tomonidan o‘rganilgan. Ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish strategiyalari, innovasion yondashuvlari, pedagogning o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirishi masalalarini Djon Raven (Raven John), Karlxayns Ingenkamp (Karlheinz Ingenkamp), Robert Marsano (Robert J.Marzano), Maykl D.Tot (Michael D.Toth), Mareyke Kunter (Mareike Kunter), N.V.Xodyakova kabi xorijlik olimlar ilmiy izlanishlari uchun tadqiqot yo‘nalishi etib belgilagan.

Kasbiy rivojlantirish — bu o‘qituvchining pedagogik faoliyatini yanada sifatli va samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish jarayonidir. Pedagogik kasbiy rivojlanishning asosiy maqsadi — o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatida zamonaviy ta'lim metodlari, innovatsion texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarni samarali qo‘llash imkoniyatlarini shakllantirishdir. Bu jarayon, o‘qituvchilarning bilim va ko‘nikmalarini kengaytirish orqali ta'lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikr mulohazalarni umumlashtirish kasbiy rivojlantirishga doir yondashuvlarni yoritish imkonini berdi:

Individullik yondashuvi: pedagoglarning kasbiy rivojlantirish jarayonida har bir o‘qituvchining o‘ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatlari hisobga olinishi lozim. Har bir o‘qituvchi o‘z faoliyatiga yangi bilimlar kiritish uchun turli metodlar va yondashuvlarni o‘rganishi kerak.

Doimiy ta’lim yondashuvi: pedagoglarni kasbiy rivojlantirish jarayonining uzluksizligi o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalari va bilimlarini yangilab borish imkonini beradi.

Innovatsion yondashuv: ta’lim sohasidagi yangiliklar va innovatsiyalar pedagogik jarayonni yangilashda muhim rol o‘ynaydi. Pedagoglarni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan tanishtirish va ularni innovatsion metodlardan foydalanishga rag‘batlantirish zarur.

Pedagogik kuzatuvlar natijasida bugungi kunda pedagoglarni kasbiy rivojlantirish jarayonini quyidagi shakllarda amalga oshirish ko‘zlangan natijalarga erishish imkonini beradi, degan xulosaga kelindi:

Mentorlik tizimi: tajribali o‘qituvchilar yangi pedagoglarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi, ularni kasbiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi kerak. Bu yondashuv o‘qituvchining malakasini oshirishga va yangi metodlarni joriy etishga yordam beradi.

Kollobarativ o‘rganish: o‘qituvchilarni guruhlar va jamoalar shaklida o‘qitish, o‘zaro tajriba almashish, fikr almashish — bu kasbiy rivojlantirishning samarali usullaridan biridir. O‘qituvchilar o‘z bilimlarini kengaytirish va yangi pedagogik yondashuvlarni o‘rganish uchun bir-birlari bilan hamkorlik qilishlari lozim.

Onlayn va aralash ta’lim shakllari: zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘qituvchilar uchun onlayn kurslar va o‘quv materiallarini taqdim etish. Bu o‘qituvchilarga o‘z vaqtlarini tejash imkoniyatini beradi va kasbiy rivojlanish jarayonini yanada samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Keltirilgan izohlar, o‘rganilgan boshqa manbalar hosilasida pedagoglarni kasbiy rivojlantirishning innovatsion usullarini aniqlashtirdik:

Muammoga asoslangan ta’lim: o‘qituvchilarga pedagogik muammolarni yechish uchun yangicha yondashuvlarni o‘rgatish. Bu o‘qituvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Kooperativ ta’lim: pedagoglarni guruhlar shaklida ishlashga undash. Ular birgalikda ta’limni takomillashtirish, yangi metodlarni joriy etish va sinovdan o‘tkazish orqali o‘z malakalarini oshiradilar.

Flipped classroom (Teskari sinf): andragog-o‘qituvchilar va tinglovchi-o‘qituvchilar orasidagi o‘rganish jarayonini qayta tuzish. Bu yondashuvda, tinglovchi-o‘qituvchilar darsni o‘z uyida o‘rganib, auditoriyada faqat muhokama va amaliyot bilan shug‘ullanishadi.

Pedagoglarni kasbiy rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish — bu o‘qituvchilarning o‘z kasbiy bilimlarini yangilash, malakalarini oshirish va pedagogik mahoratlarini rivojlantirishga qaratilgan muhim jarayon hisoblanadi. Bunday muhitni yaratish o‘qituvchilarni doimiy o‘qish va o‘z-o‘zini

rivojlantirishga undaydi, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishtiradi, shuningdek, o‘qituvchilarning kasbiy va shaxsiy o‘sishiga yordam beradi.

Kasbiy rivojlantirish ta’lim muhitini yaratish uchun bir nechta asosiy omillarni hisobga olish lozim:

Ta’limning individual yondashuvi. Har bir o‘qituvchining o‘ziga xos ehtiyojlari, tajribasi va maqsadlariga mos keladigan rivojlanish rejasini ishlab chiqish. Shuningdek, o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini baholash va o‘z ustida ishlash imkoniyatlarini yaratish.

Innovatsion ta’lim texnologiyalari. Pedagoglar uchun yangi texnologiyalar, onlayn kurslar, interaktiv ta’lim platformalari va raqamli resurslar orqali kasbiy rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash. Bu o‘qituvchilarga o‘z pedagogik metodlarini zamonaviylashtirish va o'quvchilarga motivatsiya berishda yangicha usullarni qo‘llash imkoniyatini beradi.

Mentorlik va hamkorlik. Tajribali o‘qituvchilarni yosh (yangi) pedagoglarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish va yordam berish uchun mentorlik tizimini yaratish. Shuningdek, o‘qituvchilarni o‘zaro hamkorlik qilishga undash va tajriba almashish uchun guruhlar yoki seminarlar tashkil etish.

Ta'limda innovatsion metodlarni joriy etish. Pedagoglarni o‘qitish jarayonida faol o‘rganish metodlaridan foydalanishga undash. Misol uchun, o‘qituvchilarga muammoli ta’lim, kooperativ ta’lim, ilg‘or tajribalarni qo‘llash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va boshqa pedagogik usullarni o‘rgatish.

Doimiy o'qish va professional tarmoqlar. O‘qituvchilarni professional tarmoqlarga qo‘shilishga va kasbiy sohadagi yangiliklar, yangilanishlar va tadqiqotlar bilan tanishishga rag‘batlantirish. Bu o‘z navbatida pedagoglarning bilim doirasini kengaytiradi va kasbiy rivojlanishiga yordam beradi.

Konstruktiv fikr va qayta aloqa. Pedagoglar o‘rtasida doimiy konstruktiv fikr almashish va qayta aloqa olish muhitini yaratish. Bu o'qituvchilarga o‘z ishlarini tahlil qilish, kamchiliklarini aniqlash va yaxshilashga yordam beradi.

Natijaga erishgan o'qituvchilarni rag'batlantirish. O‘qituvchilarning ishlari va yutuqlarini tan olish hamda ularni rag‘batlantirish, professional rivojlanishni davom ettirishga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi.

Kasbiy rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish uchun bu omillarni amalga oshirish muhim, chunki ular o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy o‘sishiga yordam beradi, shuningdek, o‘quvchilarga yanada samarali ta’lim berish imkoniyatlarini yaratadi.

Yuqorida keltirilgan fikr mulohazalardan ko‘rinadiki, pedagoglarni kasbiy rivojlantirishning natijalari quyidagi sohalarda ko‘rinadi:

O‘quvchilarning ta’lim sifati. O‘qituvchilarning kasbiy rivojlantirilishi, ta’lim sifatining oshishiga olib keladi, chunki pedagoglar yangi metodlarni qo‘llash orqali o‘qitish jarayonini samarali tashkil qiladi.

Pedagoglarning motivatsiyasi. Kasbiy rivojlantirishning samarali tizimi o‘qituvchilarning o‘z kasbiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularni yanada yaxshiroq ishlashga rag‘batlantiradi.

Innovatsion ta'lim tizimi. Pedagoglar innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida tashkil qilinishini ta’minlaydi.

Xulosa shuki, pedagoglarni kasbiy rivojlantirish — ta’lim tizimining muvaffaqiyatli ishlashining asosi bo‘lib, o‘qituvchilarning malakalarini doimiy yangilab borish va ularni zamonaviy ta’lim metodlari bilan tanishtirishga yordam beradi. Innovatsion yondashuvlar, muntazam ta’lim va o‘qituvchilarni kasbiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash — ta'lim sohasidagi samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridir. Pedagogik kasbiy rivojlantirishga e’tibor qaratish, o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy o‘sishiga yordam beradi, bu esa o‘quvchilarni yuqori natijalarga erishishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" PQ-231-son qarori.
2. Mareike Kunter. Motivation als Teil der professionellen Kompetenz: Forschungsbefunde zum Enthusiasmus von Lehrkräften. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.researchgate.net/institution/Goethe-Universitaet_Frankfurt_am_Main.
3. Robert J. Marzano., Michael D. Toth. Teacher Evaluation That Makes a Difference: A New Model for Teacher Growth and Student Achievement. Illustrated Edition.2013. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.amazon.com/gp/product/B00E4NM6SI/ref=dbs_a_def_rwt_hsch_vapi_tkin_p1_i0.
4. Karimov K.A. Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida axborot-ta'lim muhitini takomillashtirish: ped. fan. bo‘y. fals. dokt. diss. ... (PhD). –T.: 2018. – 160 b.
5. Ibragimov A.A., Fayzullaeva G.Sh. Malaka oshirish kurslarida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish va o‘tkazish. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand.: SVXTXQTMOHM, 2020, – 104 b.
6. Shaymardonov T. Pedagog kadrlar malakasini oshirishi va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etishning elektron tizimi: ped. fanl. bo‘y. fals. dokt. diss. (PhD). –T.: 2017. – 153 b.
7. Александрова Е.А. Педагогическое сопровождение старшеклассников в процессе разработки и реализации индивидуальных образовательных траекторий: диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. – Тюмень. 2006. – с. 364.
8. Педагогика: Учебный курс для творческого саморазвития / В.И.Андреев. –3-е изд. – Казань: Центр инновационных технологий, 2012. – 608 с.
9. Демьянчук Р.В. Личностно-профессиональное развитие педагогов и его психологическое сопровождение: докт. дисс. – М.: 2020. – с. 670.

10. Реан А.А., Демьянчук Р.В. Методологические основания психологического сопровождения педагога на разных этапах его профессионально-личностного становления / А.А.Реан, Р.В.Демьянчук // Российский психологический журнал. 2016. №1 (13). – С. 85-93.

11. Царева С.Е. Методическая подготовка в системе профессиональной подготовки учителя начальных классов // Международный журнал экспериментального образования. 2016. №12-1. – с. 37-39. [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://www.expeducation.ru/ru/article/view?id=10755 (дата обращения: 07.05.2021).

12. Ушаков А.А. Личностно-профессионалное саморазвитие педагога в условиях интегративной образовательной среди: теория и технология: монография. – М.: Мир науки, 2020. – Сетевое издание. Режим доступа: https://izd-mn.com/PDF/59MNNPM20.

13. Муромцева О.В. Цифровая педагогика: подготовка преподавателей к работе в режиме комбинированного и онлайн-обучения (II ступень), 72 ч., ФГАОУ ВО "Белгородский государственный национальный исследовательский университет", Удостоверение № 0289-1687 от 16.10.2020.

“HAYOT DAVOMIDA O‘QISH” – PEDAGOG KASBIY RIVOJLANISHIDA MUHIM TAMOYIL

Komil HAYDAROV,
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi professori, falsafa fanlari doktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi davrda mamlakatimizda pedagogning kasbiy rivojlanishi masalalari, xususan, “hayot davomida o‘qish” tamoyilini amalga tatbiq qilish, pedagogik mahoratni oshirish bilan bog‘liq masalalar haqida mushohada yuritiladi, tegishli taklif va xulosalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar. O‘qituvchi, kasbiy rivojlanish, hayot davomida o‘qish, pedagogik mahorat, tarbiya, ta’lim.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы, связанные с профессиональным развитием педагога, осуществлением принципа “обучение в течении жизни”, повышением педагогического мастерства учителья, выдвигаются соответствущие выводы и предложения по теме.

Ключевые слова. Учитель, профессиональное развитие, обучение в течении жизни, педагогическое мастерство, воспитание, образование.

Bugungi kunda mamlakatimizda pedagog xodimlarni kasbiy rivojlantirishning eng shaffof va zamonaviy shakllarini, “hayot davomida o‘qish” tamoyilini joriy etish ta’lim islohotining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bundan ko‘zlangan maqsad, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Yurtimizda Uchinchi Renessans davri poydevorini barpo etish

uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak. Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o‘qituvchilar, haqiqiy ziyolilar kerak” [1.1-2].

Prezident huzurida 2019-yilning 23-avgustida yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasi va jamiyatda o‘qituvchining mavqeini oshirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor majlisida “Bu kasbning obro‘sini faqat o‘qituvchining o‘zi fidokorona mehnati, o‘z ustida tinimsiz ishlashi, boshqalarga o‘rnak bo‘lishi bilan oshira oladi. Biz endi jamiyatimizda o‘qituvchilarni “siz”lab, ularning sha’ni va hurmatini boshimizga ko‘taradigan, ularni tom ma’noda kelajak bunyodkorlari, deb ulug‘laydigan muhitni yaratishimiz zarur” [2.1-2], deb alohida ta’kidlangan edi.

Pedagoglik kasbini tanlagan kishi o‘z maqsadiga erishish uchun tinmay izlanishi, o‘rganishi, malaka va ko‘nikmalarini doimiy ravishda oshirib borishi lozim. Chunki zamon bir joyda to‘xtab turmaydi, u doimo olg‘a qarab ketadi. Shu bois, davr o‘qituvchi oldiga yangidan yangi vazifalar qo‘yadi. Bugungi o‘qituvchi zamonga “moslashish” emas, undan bir qadar oldinda yurishga intilishi kerak. Dono xalqimizning “Bilgan kishi “bildim” demas, bildim desa – bilgani emas”, degan hikmati [4.40] ham aslida shuni nazarda tutadi.

Kuzatuv va tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, bugun o‘qituvchilarimiz faoliyatidagi kamchilik – bu kasbiy kompetentlikning taqchilligi, ya’ni kasbiy tayyorgarligi, tajribasi, o‘ziga ishonchi, mutaxassisligini puxta bilishi kabi muhim jihatlarning yetishmasligidir. O‘z ustida mustaqil ishlashga o‘rganmaganligi, ilgor tajribalar, tizimdagi yangiliklarni o‘rganib, o‘z faoliyatida qo‘llamasligi ko‘plab o‘qituvchilarning davr talabidan ortda qolishiga sabab bo‘ldi. O‘qituvchilarning mustaqil ishlashini muvofiqlashtirish ishlari tizimlashtirilmagani ham shunday holatga olib keldi.

Yillar mobaynida o‘z ishiga ijodiy yondashmay, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish kabi yangi innovatsion metodlarni o‘zlashtirmay, ularni mashg‘ulotlar jarayoniga tatbiq eta olmay qotib qolgan muallimdan jamiyat foyda ko‘rmaydi. G‘oyaviy va mafkuraviy saviyaning yetishmasligi, axborot texnologiyalaridan foydalanishni yetarli darajada bilmasligi o‘qituvchining o‘z ustida mustaqil ishlashiga to‘siq bo‘ldi. Bir so‘z bilan aytganda, pedagogning kognitiv xususiyatlarini rivojlantirish davr talablaridan ortda qoldi.

Bugun esa ta’lim xodimlari, barcha o‘qituvchilar oldiga to‘rtta muhim vazifa qo‘yilmoqda: 1) har bir o‘qituvchi o‘z fanini puxta bilishi; 2) bilimini o‘quvchi (talaba)ga yetkazib berish mahoratiga; 3) psixologik (ruhiy) tayyorgarlikka; 4) o‘z ustida muntazam ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi. Shu talablar bajarilsa, o‘qituvchi faoliyatida ijobiy o‘zgarishlar kuzatila boshlaydi.

Tahlil qilib ko‘raylik. Dastlabki ikki talab o‘z-o‘zidan tushunarli, uchinchi talab, ya’ni o‘qituvchida psixologik hozirlik zarurligini hamma ham tushunavermaydi. Tasavvur qiling: sinfda 25-30 nafar o‘quvchi bo‘lsa, ularning har biri o‘zgacha olam, o‘qituvchi har qaysisining qalbiga yo‘l topishi kerak, ularning

har biriga individual yondashuv zarur. Buning uchun o‘qituvchidan nima talab etiladi? – Ruhiy tayyorgarlik, albatta. Shu ma’noda bugungi pedagog ma’lum darajada ruhshunos bo‘lishi kerak, degan talab to‘g‘ri va o‘rinlidir.

Fikrimizcha, uchinchi talabga qo‘shimcha sifatida mafkuraviy tayyorgarlikni ham kiritish zarur, chunki o‘qituvchida muayyan darajada falsafiy mushohada yoki g‘oyaviy saviya yetishmasa, u o‘qitgan o‘quvchidan kelajakda munosib kadr yetishib chiqishi qiyin. Mafkuraviy tayyorgarlik faqatgina umumta’lim maktabi o‘qituvchisi emas, oliy ta’lim tizimi professor-o‘qituvchilari, barcha olim va mutaxassislar uchun eng zarur xususiyatlardan biri bo‘lishi lozim.

Bugun pedagogning kasbiy rivojlanishi uning pedagogik mahoratini oshirishning bir butun, yaxlit jarayoni bo‘lib, uning pirovard natijasi o‘qituvchining improvizatsion xususiyatlarini rivojlantirishgina emas, balki eng avval pedagogik-psixologik, metodik va mafkuraviy tayyorgarlik darajasini ko‘tarish, unda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar qaror topishiga erishishdan iborat bo‘lishi lozim.

Kuzatuv va tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda maktabning o‘zi malaka va mahoratni oshirish o‘chog‘i bo‘lishi lozim. Har bir maktabda darslarga kirish va kuzatish, tahlil qilish, yangi innovatsion ususllarni keng joriy qilish, o‘zaro tajriba almashish, jamoatchilik nazorati, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish ishlari yuqori saviyada tashkil etilgan bo‘lishi kerak, bir so‘z bilan aytganda, maktabda hayot “qaynashi” zarur.

O‘qituvchining ilmiy tadqiqot ishlariga o‘rganishi uning o‘z ustida ishlashida muhim omildir. Albatta, agar u davriy nashrlarga maqolalar yozib tursa, loyihalar, grantlarda ishtirok etsa, ilmiy anjumanlarda ma’ruza qilsa uning mahorati oshib borishi shubhasiz. Ilgari o‘qituvchi majburiy mehnatga jalb etilib, o‘z ustida ishlashiga vaqt topolmas edi. Endilikda bunga barham berildi, mustaqil ishlashga vaqt ham, imkoniyat ham bor. Buni to‘g‘ri anglab yetgan o‘qituvchilar o‘z ustida ishlashga o‘rganmoqdalar. Ushbu holatni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash lozim.

Bugungi pedagog o‘z maqsadiga erishish uchun tinmay izlanishi, o‘z ustida muntazam ishlashi, o‘rganishi, malaka va ko‘nikmalarini doimiy ravishda oshirib borishi, “hayot davomida o‘qish” tamoyiliga amal qilishi zarur. Fransuz ma’rifatparvari Deni Didro “Kim kitob o‘qishdan, o‘z ustida ishlashdan to‘xtasa, bilingki, u fikrlashdan ham to‘xtagan bo‘ladi” [3.260] deganda batamom haqlidir.

Bugungi kunda kasbiy rivojlanishning shakl va uslublarini yanada takomillashtirish lozim. Maktabda kasbiy rivojlanish soati, kasbiy rivojlanish kuni kabi tadbirlar bilangina cheklanib qolmaslik zarur. Mustaqil malaka oshirishning zamonaviy shakl va uslublaridan keng va oqilona foydalanish, maktabning o‘zini kasbiy rivojlantirish markaziga aylantirish, o‘qituvchi o‘zining mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini, mediamadaniyatini muntazam rivojlantirib borish ham uning kasbiy kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qatiy davom ettiramiz (yangi saylangan O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi // “Xalq so‘zi”, 2021-yil 7-noyabr. -№238 (8081)-son.
2. Prezidenti huzurida 2019-yilning 23-avgustida yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasi va jamiyatda o‘qituvchining mavqeini oshirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor majlisi // “Xalq so‘zi”, 2019-yil 24-avgust.
3. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. - T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
4. Hikmatnoma: o‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. – T.: O‘z. ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990.
5. Donabaevich, Haydarov K. "The Role of Continuous Education in the Spiritual Development of the Person." *JournalNX*, 2020, pp. 920-922.
6. Donabayevich, Haydarov K. "Development of Pedagogical Skills is an Important Factor in the Formation of the Cognitive Characteristics of the Teacher." *JournalNX*, 2021, pp. 186-188.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI KUTUBXONALARI VA AXBOROT RESURS MARKAZLARIDA OMMAVIY TADBIRLARNI TASHKIL QILISHNING AHAMIYATI VA YO‘NALISHLARI

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi ijtimoiy va amaliy fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchilari:
Xudoyqulova Nodira Murodobna
Kushanova Dilfuza Ubaydullayevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab kutubxonalari va axborat resurs markazlarida ommaviy tadbirlar o‘tkazish, tadbirlarni turlari va kitob ko‘rgazmalari o‘tkazish masalalari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: kitobxonlik, kitob targ’iboti, ko‘rgazmalar, kitob jamg’armasi, dolzarb mavzular.

Maktab kutubxonalari yosh avlodni ma’naviy boy va barkamol bo‘lib etishishi va ijodiy o‘sishi uchun imkoniyatlar yaratgan holda kutubxona jamg’armasidan, ma’naviy merosdan foydalanuvchilarni bahramand etadi Maktab kutubxonalari maktabning nafaqat axborot ombori balki madaniy ma’rifiy muassasa sifatida respublikadagi uzluksiz ta’lim tizimida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Jamiyat a’zolarining ta’lim-tarbiya, ilm-fanga e’tiborining kuchayishi, o‘z navbatida axborot kutubxona muassasalariga bo‘lgan ehtiyojni oshirib yuboradi.

Axborot kutubxona muassasalari o‘z davri ehtiyojlaridan kelib chiqib, kitobxonlarga bilim berishning turli shakldagi vositalaridan foydalanadilar.

Axborot resurs, axborot kutubxona markazlarida adabiyotlarni targ‘ib etishda ommaviyusullar, ya’ni ko‘rgazmali, og‘zaki va majmuaviy usullar qo‘llaniladi. Tadbirlar mavzuli, she’riyat, savol-javob, munozara va,uchrashuv kechalari va baoshqa tadbirlardan iborat bo‘lishi mumkiin. Hozirgi kunda kitobxonlar uchun ijodiy kechalar juda foydalii bo‘ladi.Ommaviy tadbirlarning afzallik tomoni shundaki ,ushbu tadbirlar turli toifadagi kitobxonlarni mumiy qiziqishini tezda qondirish imkoniyatini beradi. Otkazilgan har qanday ommaviy tadbirlar avvaldan puxta tayyorgarlik ko‘rilgandan keyin yaxshi samara beradi.ta’sirchan bo‘ladi va aniq maqsadga xizmat qiladi. Natijada kitobxonlar soni oshadi, mavzu bo‘yicha kitobxonlik va o‘qilish darajasi oshadi,yangi qiziqishlar paydo bo‘ladi, axborot kutubxona tadbirlariga munosabat o‘zgaradi. Ommaviy tadbirlarda texnika vositalarini qo‘llash, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar bilan, OAV bilan hamkorlik qilish uning sifati va darajasini oshiradi va ommaviylik xsusiyatini ko‘taradi. Ommaviy tadbirlarni o‘tkazayotgan mutaxassis shuni unutmasligi kerakki,har qanday tadbirda kitobxonlik madaniyatini targ’ib qilish birlamchi o‘rinda turishi lozim.

Maktab kutubxonalari va axborot-resurs markazlari dolzarb masalalar va unitilmas sanalarga bag’ishlangan kitob ko‘rgazmalaridan keng foydalanadi

Katalog va kartotekalar, ro`yxatlar, bibliografik ko`rsatkichlarga nisbatan kitob ko`rgazmalari adabiyotlar targ`ibotining keng qo`llanadigan shaklidir. Bundagi adabiyotni bevosita ko`rsatish har qanday kitobxon diqqatini o`ziga tortadi. Ko`rgazmaning samarasi, ta’siri uni tayyorlash sifatiga bog`liq. Ko`rgazmani tayyorlash jarayoni mavzuni tanlash bilan boshlanadi. Kutubxonalarning vazifasi davrning dolzarb masalalari, dunyo va mamlakat hayoti, fan-texnika, madaniyat yutuqlari, ijtimoiy-siyosiy voqealar, muhim sanalar va yubileylarga oid adabiyotlarni o`z vaqtida targ`ib qilib borishdan iborat. Ko`pgina ko`rgazmalar boshqa ommaviy tadbirlarga qo`shimcha sifatida tashkil qilinadi. Kitob ko`rgazmasini tashkil etishga kirisha turib avval muhim mavzu tanlab olinadi. Shundan keyin kitob fondiga murojaat etiladi. Bu erda u yoki bu adabiyotning yo`qligi yoki etarli emasligi kabi qiyinchiliklar bilan to`qnash kelish mumkin. Shuning uchun avvalo fondni mavzu bo`yicha tahlil qilib, shundan keyingina ko`rgazma tayyorlanadi. Kitobxon uchun ko`rgazmaning qimmati unda ko`rsatilayotgan adabiyotlar bilan belgilanadi. Adabiyotlar avvalo g`oyaviy, badiiy jihatdan puxta, yangi, kitobxon talabiga mos bo`lishi kerak. Tanlangan adabiyotlar chuqur o`rganilib, tizimlashtiriladi. Shundan keyin ko`rgazmani shakllantirish bosqichiga o`tiladi. Ko`rgazma kitobxonga estetik ta’sir etadigan, uning diqqatini kitobga qaratadigan, kerakli yo`nalishga sola oladigan darajada shakllantirilishi zarur

-Adabiyotlarni joylashtirish. Adabiyotlarni joylashtirishda ularning mantiqiy xususiyati hisobga olinadi. Adabiyotlar mavzuni yoritib bera olish darajasida joylashtirilishi kerak. Ularni joylashtirishda masalani tizimli yoritish tartibi qo`llaniladi. Tanlangan rasmlar adabiyot mazmuniga mos ravishda kitob bilan

yonma-yon joylashtiriladi. Adabiyotlarni joylashtirishda muqovaning rangiga ham e'tibor berish kerak. Ayrim sahifalardagi portretlar, rasmlar, rangli tasvirlarni ochib qo`yish mumkin.

- Sarlavhaning ahamiyati. Kitobxon diqqatini tezda jalb etadigan element ko`rgazmaning sarlavhasidir. U ko`rgazmaga ma'naviy urg`u beradi. Sarlavha sodda, qisqa, kitobxon qabul qilishi uchun oson bo`lishi kerak. Sarlavha o`lchami va unga tanlangan rang ko`rgazmaning mazmuniga mos bo`lishi shart. Sitata, matn va illyustrasiyalardan foydalanish. Ko`rgazma mavzusiga mos tanlangan sitata, qisqa matn va turli illyustrasiyalar ko`rgazmaning ta'sirchanligini oshiradi. Ko`rgazma nomiga va alohida har bir bo`lim uchun sitata tanlanadi. Ularni yozishda mazmunga mos holda rang tanlanadi. Shrift belgilab olinadi. Lekin faqat ikki-uchta rang tanlanishi kerak, undan ortig`i kitobxonni charchatadi.

-Kartoteka. Ko`rgazmaga hajmi uncha katta bo`lmagan kartoteka ham tuzilishi maqsadga muvofiqdir. Unda ko`rgazmadan joy olmagan adabiyotlarning (mavzu doirasida) tanlab tavsiflangan kartochkalari joylashtiriladi

-Ko`rgazma bilan ishlash. Ko`rgazmadagi adabiyotlarni o`qish uchun berish, ko`rgazmaning o`zini targ`ib qilish bo`yicha ish olib boriladi. Mavzuga oid berilgan kitoblarni miqdoriga qarab ham ko`rgazmaning muvaffaqiyatini bilish mumkin. Shuning uchun ko`rgazmada berilgan har bir kitob alohida hisobga olib boriladi. O`tkazmoqchi bo`lingan yoki o`tkazilgan ko`rgazma tadbirlarining tahlili, har qanday kutubxona uchun muhim yo`nalish hisoblangan ushbu faoliyatni mukammallashtirib, tadbirni kitobxonlarning talab va qiziqishlariga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Kitob ko`rgazmasi turlari- Kutubxona faoliyatida kitob ko`rgazmasi eng asosiy ishlardan biri hisoblanadi. Kutubxonada an'anaviy kitob ko`rgazmasi faol olib boriladi. Ko`rgazma turlari:

- Yangi adabiyotlar ko`rgazmasi
- Dolzarb mavzu va masalalar bo`yicha ko`rgazma;
-Shaxsga oid ko`rgazmalar;
- Muhim va unutilmas sanalarga bag`ishlangan ko`rgazmalar.

Har bir ko`rgazmaning o`ziga xos xususiyatlari mavjud. Yangi adabiyotlar ko`rgazmasining asosiy maqsadi - yangi olingan kitoblar haqida kitobxonlarga tizimli ravishda axborot berib borish (kitob, gazeta, jurnal, foto va videoma'lumotlar). Ko`p hollarda bu ko`rgazmalar tarkibi universal hisoblanadi. Kitob ko`rgazmada turli soha yo`nalishlari bo`yicha adabiyotlar joy olishini inobatga olgan holda, ko`rgazmadagi adabiyotlar sistemali joylashtiriladi. An'anaviy ko`rgazmalar masalan – «Yangi kitoblar» deb nomlash namunaga aylanib qolgan, shuning uchun yangi ko`rgazma nomlarini kashf etish kerak, masalan: "Javondagi yangi javohirlar".

Virtual kitob ko`rgazmasi - bu internet tarmog`ida vebtexnologiyalardan foydalangan holda matbuot va bosma nashrlarning, shuningdek kutubxonadan masofadan turib foydalanuvchilar uchun ko`rish, tanishish va ulardan foydalanish uchun tavsiya etiladigan elektron resurslar. Ko`rgazma nashrlarining virtual taqdimoti ularning mazmunini ochib beradi, elektron shaklda mavjud bo`lgan va

internet orqali erkin foydalanish mumkin bo`lgan bibliografik, ensiklopedik, faktografik materiallar bo`lishi talab etiladi.

Mashhur kishilarning hayoti va ijodiga bag`ishlangan kitob ko`rgazmalari - yozuvchi, shoirning hayot yo`lini yoritib bersa, ikkinchidan kitobxonni uning asarlari, u haqidagi nashrlar bilan tanishtiradi. Bunda biografik ocherklar, xotiralar, asarlar to`plamlari, yozuvchi yoki shoirning ijodi to`g`risidagi tanqidiy asarlar qo`yiladi.

Ko`rgazmani birgalikda yaratamiz – bunday ko`rgazma turi tabiiy xomashyolar, o`yinchoqlar va boshqa buyumlardan tashkil topgan bo`lib, masalan qo`l mehnati bilan yasalgan kichik bir daraxt bor, uning yoniga ba'zi mehnat qurollarini joylashtiriladi rangli qog`ozlar, gullar, qog`ozlardan yasalgan katta harflar va yana o`z farazimizdan kelib chiqqan holda qo`shimchalar qilish mumkin. Endi daraxtni foydalanuvchilar tomonidan o`zlari sevib mutolaa qiladigan boshqalarga tavsiya qilishni istaydigan kitoblarini o`zlari istagan mehnat qurollari orqali yozib qoldirishlari mumkin. Bu ham sevimli kitoblar ko`rgazmasi va o`yin turiga to`g`ri keladi. Ko`rgazmada tavsiya etilgan adabiyotlardan mavjud kitoblar daraxti paydo bo`ladi.

Ko`rgazma sovg`a – bu yaxshi kitob bilan kutilmagan uchrashuv, sovg`a. Bunday ko`rgazma turlari shinamlik va bayramona muhitni keltirib chiqaradi. Foydalanuvchilar toifasidan kelib chiqqan holda kutubxonachilar tomonidan kitoblar tanlab olinadi va ularni bayramona kayfiyat keltirib chiqaradigan ko`rinishda o`raladi, maqsad - foydalanuvchilarning e'tiborini jalb qilish. Sovg`a sifatida o`ram ichida qaysi kitob yashiringanligini kitobxon bilmaydi, ko`rgazmaning sharti tanlangan kitob o`ramini uyda ochish tavsiya etiladi. Masalan kutubxonachi bolalarga uylarida o`qish uchun kitoblarni tanlab olishlarini aytadi. Kitoblar qog`ozga o`ralgan holda va kitobxon qaysi kitobni olayotganligini bilmaydi. Jasorat uchun sovrinlar beriladi. Kitobni qaytib olayotganlarida o`quvchi bilan kitob nima haqida yozilgani to`g`risida suhbat o`tkazish tavsiya etiladi. Ushbu uslub kitobxonlik madaniyatini oshirish bilan bir qatorda unitilib ketayotgan mashhur asarlarni qayta jonlanishiga olib keladi. Kutubxonalarda tobora interfaol ko`rgazma turi ommalashib bormoqda. Bu bevosita kutubxonachi va foydalanuvchi o`rtasida muloqotni yuzaga keltiradi va yaratilgan ko`rgazma to`g`risida suhbatlar olib boriladi va muammolar o`rganiladi

Muhim va unutilmas sanalarga bag`ishlangan ko`rgazmalar – asosan kalendarning qizil rangi bilan belgilangan sanalarga bag`ishlab o`tkaziladigan ko`rgazma turidir. Biror bir hodisa, bayram, tarixiy urf-odat, an'analar ko`rgazmada aks ettiriladi.

«Ertaklarning sehrli olami» ko`rgazmadan ko`zlangan maqsad – bolalarni ertaklarning turli xil yo`nalishdagi janrlari bilan yaqindan tanishtirishdir. Bunday ko`rgazmalarning turli ko`rinishdagi nomlari bo`lishi mumkin: «Sehrli ertak», «Jonivorlar haqida ertak», «Uy yumushlari haqidagi ertaklar»

Kitobxon uchun ko`rgazmaning qimmati unda ko`rsatilayotgan adabiyotlar bilan belgilanadi. Adabiyotlar avvalo g`oyaviy, badiiy jihatdan puxta, yangi, kitobxon talabiga mos bo`lishi kerak. Tanlangan adabiyotlar chuqur o`rganilib,

tizimlashtiriladi. Shundan keyin ko`rgazmani shakllantirish bosqichiga o`tiladi. Ko`rgazma kitobxonga estetik ta’sir etadigan, uning diqqatini kitobga qaratadigan, kerakli yo`nalishga sola oladigan darajada shakllantirilishi zarur.

Zero, kitob irodani toblaydi, boshqaruv mahoratini oshiradi. Bugungi tezkor va zamonaviy sharoitda intellektual salohiyati yuksak kadrlarni tayyorlashda yoshlarning kitobga munosabatini yana-da yaxshilash, ta’lim maskanlarida mavjud kutubxonalar fondini eng yangi badiiy, ilmiy, sohaga doir, jumladan, davlat tilidagi kitoblar bilan muntazam ravishda boyitib boorish va ularni targ’ibotini va reklamasini tashkil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

KASBIY MAS’ULIYATNI RIVOJLANTIRISHNING TA’LIM TIZIMI BOSHQARUVIGA TA’SIRI

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi
Pedagogika, psixologiya va ta’li
texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi
XURRAMOV Anvar Vafokulovich,
e-mail: anvarxurramov1984@gmail.com

Annotatsiya: *Maktab rahbarlarida ayniqsa, o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlarida kasbiy mas’uliyatni rivojlantirish, innovatsion jarayonlarni kengaytirish, o‘qituvchilarning sifat tarkibi monitoringini joriy qilish, kasbiy ehtiyojlarga asoslanish hamda ko‘p komponentli yondashuvlarni rag‘batlantirish, maktab rahbarlarining kasbiy mas’uliyatni rivojlantirishning tashkiliy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mas’uliyat, boshqaruv, pedagogik maqsad, ijodiy kayfiyat, rejalashtirish, xizmat vazifasi, qiziqish, rag‘batlantirish*.

Bugungi kunda globallashuv muhitida pedagoglarning intellektual salohiyatiga qo‘yiladigan talablarning ortib borishi maktab rahbarlarida kasbiy masuliyatni rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga zaruratni kuchaytiradi. Pedagoglar faoliyatini ongli tahlil qilish, kasbiy rejalashtirish, kasbiy sifatlarni rivojlantirishga imkoniyat yaratish asosida kasbiy mas’uliyatni oshirish va rivojlanishning turli modellari va texnologiyalarini ishlab chiqarish zaruratini vujudga keltiradi.

Maktab rahbarlarida ayniqsa, o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlarida kasbiy mas’uliyatni rivojlantirish, innovatsion jarayonlarni kengaytirish, o‘qituvchilarning sifat tarkibi monitoringini joriy qilish, kasbiy ehtiyojlarga asoslanish, individual faoliyatni modellashtirish, loyihalash, kasbiy kompetetnsiyalarni rivojlantiruvchi mexanizmlarni kuchaytirish hamda ko‘p komponentli yondashuvlarni rag‘batlantirish, maktab rahbarlarining kasbiy mas’uliyatni rivojlantirishning tashkiliy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Maktab ta’limi boshqaruvi sohasida innovatsion va samarali boshqaruv usullarning tatbiq etilishi

variativlik, faollashtirish, individuallashtirish, differensiallashtirish, uyg‘unlashtirish kabi tamoyillar mavjudligini, uzluksiz kasbiy rivojlantirishda o‘qituvchilarning kasbiy mas’uliyatini oshirishning komponent, kognitiv va shaxsga yo‘naltirilganligini hamda faoliyatli, rivojlantiruvchi, refleksiv xarakterga ega bo‘lishini taqozo qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilgan keng qamrovli islohotlar natijasida maktabgacha va maktab ta’limi tizimining moddiy-texnik imkoniyatlari, me’yoriy-huquqiy, ilmiy-metodik ta’minoti mustahkamlandi, pedagoglarning o‘z kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirish va baholashning samarali usullari joriy etildi. Amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda tizim subyektlari imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish va ta’lim turlarini uyg‘unlashtirish orqali o‘qituvchilarning kasbiy mas’uliyati va mahoratini oshirish ehtiyoji tug‘ilmoqda.

Maktab rahbarlarida kasbiy mas’uliyatni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muammolari mamlakatimizda **N.Muslimov,** G.Boymurodova, R.Djurayev, A.Ibragimov, X.Ibragimov, A.Radjiyev, N.Shodiyev, M.Yuldashev, B.Xodjayev va boshqalarning izlanishlarida tadqiq qilingan. Rahbar kadrlarning mas’uliyatini rivojlantirish va bunda tashkiliy boshqaruv mexanizmlarni takomillashtirish, uzluksizlik, kognitiv ta’lim texnologiyalari, kognitiv kompetentlik, subyektivlikka doir tadqiqotlar Musataqil davlatlar hamdo‘stligi tarkibidagi davlatlardan **F.M.Gonobolin, I.A.Zyazyun, M.S. Burgin, N.V.Kuzmina, V.A. Slastenin, Ye.Bershadskaya, M.Bershadskiy,** S.Fomenko kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Xorijiy mamlakatlar olimlaridan D.Ausyubel (David Ausubel), Y.Barrouz (Howard S.Barrows), J.Bruner (Jerome S.Bruner), N.Jekson (Norman Jackson), F.Kumbs (Philip H.Coombs), L.Baterf (Le Baterf G), P.Lengrad (Paul Lengrand), D.MakKelland (David C.McClelland), J.Miller (George Armitage Miller), R.Uayt (Robert W.White), E.Faur (Edgar Faure) va boshqalarning ishlarida ta’lim oluvchilarning bilish jarayonlarni faollashtirish va masuliyatini rivojlantirish, pedagoglarning shaxsiy-kasbiy pozitsiyalarini shakllantirish, ta’limda inson resurslarini boshqarish yo‘nalishlari o‘z aksini topgan.

Mas’uliyat muammosiga fanda azaldan erkinlik va zarurat kategoriyalarining o‘zaro nisbati, shaxs xulq-atvori va faoliyatining ma’navi-y-axloqiy jihati nuqtai-nazaridan yondashib kelinadi. Shu ma’noda mas’uliyat tushunchasi falsafiy, axloqiy, psixologik, yuridik, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga xos ko‘plab masalalarning murakkab majmuini qamrab oladi. Bu hol inson va ijtimoiy borliq mohiyatining murakkabligi va rang-barangligi bilan belgilanadi. Har qanday odam o‘zi uchun muhim biron bir maqsadga erishish yo‘lida harakat qilish usulini tanlashda o‘z tabiatiga ko‘ra erkin ekaniga qaramay, uning shaxsiy hayoti butun jamiyat hayoti, boshqalar oldidagi mas’uliyati bilan uzviy bog‘liqdir.

Jamiyat esa o‘z-o‘zini asrash va rivojlanish uchun muayyan ichki tartibni shakllantirib, o‘z a’zolarining nomaqbul qilmishlarini amalda cheklashga majbur. Shunday qilib, odamlarning xulq-atvor me’yorlari bilan mas’uliyati uzviy aloqadadir. Bu holat jamiyatning barcha a’zolari bir-biri va jamiyat oldida ma’lum majburiyatlarni ongli yoki ongsiz ravishda qabul qilishi, shuningdek, zarur hollarda

ularni ro‘yobga chiqarishga tayyorligida namoyon bo‘ladi. Tarixdan ma’lumki, hokimiyatning barcha bo‘g‘inlari barqaror va mas’uliyatli bo‘lmasa, jamiyat izchil rivojlanishi va taraqqiy etishi mumkin emas. Bu masala hozirgi dunyoda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarning, o‘qituvchi va pedagoglarning o‘z xizmat vazifalariga nisbatan mas’uliyat bilan yondashishda rahbarning samarali boshqaruv usulidan foydalanishi mihim sanaladi. Qachonki muassasa rahbarining o‘zi belgilangan va umume’tirof etilgan qoidalarga rioya qilgan taqdirdagina boshqaruvidagi xodimlaridan ham shuni kutsa bo‘ladi. Bu jarayonda xodimlarga o‘z kasbiga nisbatan qiziqish va qonuniy manfaatdorlik, o‘z ishidan qoniqish hissini kuchaytirish lozim bo‘ladi.

Ta’lim muassasasining maqsadiga erishishi – ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikni ta’minlash xodim o‘z xizmat vazifasini sidqidildan, tashabbuskorlik ko‘rsatib bajarishiga bog‘liq. Buning uchun xodimlar o‘z xizmat vazifalariga haqiqatan qiziqishlari lozim bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda personalga ma’muriyat tomonidan qo‘shimcha imtiyozlar berish tajribasi keng yoyilmoqda. Ular quyidagilardan iboratdir:

– xodim maqomi nufuzini belgilovchi;

– xodim ijtimoiy himoyalanganligini ko‘rsatuvchi;

– bevosita bajarilgan ish va ishlab chiqarish vazifasi uchun belgilangan imtiyozlar. Mukofotlash tariqasida u yoki bu imtiyozni tanlash ma’muriyat vakolati hisoblanadi. Moddiy rag‘batlantirish hamisha ham qiziqtirishning eng ta’sirchan vositasi bo‘lib qolaveradi. Biroq personal farovonligi ko‘tarilgan sari birgina uning o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Yana shuni ham hisobga olish kerakki, qiziqtirishning iqtisodiy uslublari kompaniya yoki firma tomonidan sezilarli darajada xarajatlarni talab etadi.

Salbiy rag‘batlantirishlarni bartaraf etish uslublari deyilganda personal ishidagi salbiy holatlarni bartaraf etish tushuniladi. Bu salbiy rag‘batlantirishlarga adolatsizlik, nopok munosabatlar, erkatoylik (favoritizm) va hokazolar kiradi. Xodimlar o‘zlariga adolatli munosabatlarda bo‘lishlarini xohlaydilar. Agar inson unga xuddi boshqalarga bo‘lganidek munosabatda bo‘linayotganligi, ular mehnati natijalari xuddi boshqalarniki kabi baholanayotganligini aniq his etib tursa, o‘ziga adolatli munosabatda bo‘layotganlarini anglaydi va bundan qanoat hosil qiladi.

Yuksak natijalarga erishganlarni adolatli taqdirlash favqulodda muhimdir. Xuddi shuningdek, ishda biror natijaga erisha olmagan bo‘lsa ham o‘zlarini mukofotga da’vogar deb hisoblayotganlarning faoliyatini xolis baholash ham muhimdir.

Salbiy rag‘batlantirishlarni bartaraf etishning quyidagi tamoyillari mavjud:

1. Ish boshqaruvchilar muntazam ravishda ularga bo‘ysunuvchilar o‘zlariga nisbatan adolatli munosabatda bo‘linmoqda deb hisoblashayotganlarini aniqlab turishlari kerak.

2. Xodimlarning umumiy ishga hissalarini o‘lchash mezonlari hamda buning uchun tegishli mukofot darajasi hammaga ish boshlangunga qadar ma’lum bo‘lishi kerak. Bu ma’lumotlar hammaga yaxshi tushunarli holda bayon etilishi darkor.

3. Menejerlar mukofotlarni yaxshi ishlayotgan xodimlar boshqalardan ko‘proq manfaatdor bo‘ladigan darajada taqsimlashga erishishlari lozim.

Ma’naviy rag‘batlantirish uslublari hisoblangan ishdan qoniqish hosil qilish, yuksak mas’uliyat hissi, jamoa tomonidan xizmatlarni e’tirof etish qo‘shimcha xarajatlar talab etmaydi. Yanada muhimi, insonlar hech vaqt maqtov eshitish, e’tibor va e’tirofdan charchamaydilar.

Ma’naviy rag‘batlantirishda xodim xizmatlari e’tirof etilib, uni taqdirlashni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

– sezilarli natijalarga erishgan xodim mehnatini e’tirof etish;

– mehnatda erishilgan yuksak natijalarga korxona jamoasi va rahbariyatining munosabatini namoyon etish;

– e’tirofga sazovor bo‘lgan alohida xodimlar ish natijalarini ommalashtirish.

Ma’naviy rag‘batlantirish xodimlarning samarali mehnati korxonaning o‘zida ham, uning tashqarisida ham juda qadrlanishini ifoda etadi va ularni yanada samarali mehnat qilishga rag‘batlantiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki rag‘batlantirish quyidagi tamoyillari orqali xodimlarning mas’uliyatini yanada oshirish mumkin:

1. Rahbar samimiy va xushmuomala bo‘lishi kerak. Personal rahbarning nosamimiyligini hamisha sezadi.

2. Mukofot xizmatga yarasha bo‘lsa va mukofotlanayotganlar buni his etib tursa qiziqtirish omiliga ega bo‘ladi. Mukofot adolatsiz berilsa yoki tarqatilsa bu mukofotning qadri tushadi.

3. Xodim qaysi ishni qachon yaxshi bajarganini bilishi kerak. Rahbar yaxshi bajarilgan ish uchun shaxsan o‘zi xodimga minnatdorchilik bildirishi zarur. Bunda butun jamoa tomonidan bevosita shu xodimning yaxshi ish bajarganligini e’tirof etilishi ayniqsa muhimdir.

4. Xodim tomonidan erishilgan yutuqlar keng va yorqin targ‘ib etilishi lozim.

5. Alohida xizmatlari uchun xodim eng yuqori bo‘g‘in rahbariyati tomonidan mukofotlanishi kerak.

6. Taqdirlashning turli shakllarini qo‘llagan holda qabul qilingan qarorlarning ma’naviy oqibatini baholay bilish kerak. Bir insonning mehnatini rag‘batlantirish boshqasinikini e’tirof etmaslik demakdir. Shuning uchun menejerdan yetti o‘ylab bir kesish talab qilinadi.

7. Rag‘batlantirish dasturi eng yaxshi xodimni, korxona muvaffaqiyatiga eng sezilarli hissa qo‘shayotgan insonni alohida e’zozlashga qaratilishi darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashri. – Toshkent: :O‘bekiston nashriyoti, 2022.-416 bet.

2. Ричи Ш, Мартин П. Управление мотивацией. Учебное пособие.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. – 399 с.

3. Одегов Ю.Г. и другие. Мотивация персонала Ученое пособие. – М.: Альфа-Пресс, 2010. -640 с.

4. Жданкин Н.А. Мотивация персонала. Измерение и анализ. Учебно–практическое пособие.-М.:Финпресс, 2010.-272 с.
5. Кибанов А.Я. Экономика и социология труда. Учебник. М.: ИНФРА-М, 2010. – 310 с.
6. Кибанов А.Я. Управление персоналом организации: актуальный технологии найма, адаптации и аттестации. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2010. – 368 с.
7. Мамадиёров.Н.Қ. Кадрлар тайёрлаш сифатини бошқариш моделлари Иқтисодиёт ва таълим. 2016. -№4. -57. -63б.

ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЙ РОСТ ПЕДАГОГОВ ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И БЛАГОПРИЯТНЫЕ ФАКТОРЫ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ

Шахзода Камоловна Абдурахмонова
Узбекско-Финский педагогический институт магистр
yashinovashaxzoda1@gmail.com
+998944544590
Сатторов Эрмамат Норкулович
Научный руководитель: доктор физико-математических наук, и. о. проф.
Sattorov-e@rambler.ru
+998939945237

Аннотация: В данной статье рассмотрены понятие о профессиональном росте и постоянном развитие педагогов и создание для педагогов благоприятных факторов способствующие положительной динамике в развитие образования. Даны понятия профессионального развития, профессиональной компетентности, рассмотрены закон Республики Узбекистан о непрерывном профессиональном образовании педагогов. Представлены критерии создания окружающей среды, способствующей профессиональному развитию педагогических работников.

Ключевые слова: профессиональный рост, профессиональное развитие, профессиональная компетентность, профессиональная среда, педагог общего образования, аттестация педагогов, инновационные образовательные технологии.

Введение

Актуальность данной темы обусловлена тем, что современное поколение, требует новшеств в образовательной среде с профессионально развитыми педагогами, специалистами в своей области, которые готовы расти, развиваться и опережать тренды в

области инновации. В условиях глобализации, цифровизации и новых образовательных стандартов особую актуальность приобретает проблема непрерывного профессионального роста педагогов, так как они выполняют ключевую в формировании личности обучающихся.

Цель статьи выявить основные факторы, способствующие профессиональному развитию педагогов дошкольного и школьного образования, а также охарактеризовать образовательную среду благоприятную для этого процесса.

***Задачи исследования*:** 1) раскрыть сущность профессионального роста; 2) определить условия, способствующие эффективному развитию педагогов; 3) представить результаты практического анализа в городе Самарканде. Реализация поставленных целей становится возможной при условии повышения профессиональной компетентности педагогических кадров школьного и дошкольного звена, а также создания благоприятной образовательной среды.

Постановление Кабинета Министров №867 от 20 декабря 2024 года «О совершенствования системы непрерывного профессионального развития педагогических кадров дошкольных и школьных учреждений». С 1 января 2025 года введена вертикальная система непрерывного профессионального развития педагогов, которые включают:

1. Министерство разработки политики и контроля.
2. Учреждения повышения квалификации, педагоги обязаны проходить не реже одного раза в 5 лет, продолжительность курсов не менее 100 часов для педагогических работников и 114 часов для руководящих кадров, а также определяется в зависимости от формы и потребностей педагогов. Форма повышения квалификации: с отрывом от работы, частично с отрывом и без отрыва(дистанционно)
3. Образовательные организации государственные и негосударственные, реализация программ на местах, включает очную, дистанционную и дуальную форму. Оно осуществляется по различным формам, включая курсы, стажировки и другие образовательные программы.

По окончанию выдаются сертификаты или дипломы государственного образца, а также надбавки с место работы по усмотрению начальства [7].

Теоретические основы профессионального роста педагогов

Профессиональный рост это внутренний мотиватор личности к развитию.

Прежде всего нужно просмотреть понятие профессионального развития и дать различные характеристики схожие к данному термину.

Профессиональное развитие — это сознательная деятельность, направленная на повышение качества и объёма знаний, умений и навыков.

По мнению Исаева И.Ф «Профессиональная компетентность понимается характеристика личностных и деловых качеств специалистов, в которой отражается уровень знаний» [3].

По мнению Ж. Ж. Атамурадова (2017), развитие педагогической компетентности требует системного подхода, включающего в себя как профессиональные, так и личностные аспекты [1].

Н.М. Борытко утверждает, что для профессионального развития необходимо целенаправленная деятельность по усовершенствованию педагогической профессиональной квалификации [2].

И.А.Колесникова утверждает, что профессиональная деятельность педагога является педагогическими инновациями, которая включает в себя внедрение и использование в учебный процесс [4]

Согласно исследованиям Шоймоновой Ш.С., факторы, влияющие на развитие профессиональной компетентности педагога, можно разделить на три группы: изменения в ведущей деятельности педагога, социальная ситуация развития и субъективные особенности педагога [6].

Современные подходы к профессиональному развитию основываются на принципах непрерывности, индивидуализации, интеграции и практической направленности. Важными являются сочетания формального курсы повышения квалификации и неформального образования (самообразования, участие в сообществах практиков).

Профессиональная среда и благоприятные факторы среды для развития.

Профессиональная среда представляет собой совокупность предметных и социальных условий труда, в которых специалист осуществляет свою профессиональную деятельность. Она включает в себя все факторы, влияющие на работу, так как материальное обеспечение инструменты, технология, окружающая среда, а также социальное отношение между сотрудниками, правила и нормативы организации и культуру труда.

Профессиональная среда играет ключевую роль в дошкольном и школьном образовании формируя условия для качественного обучения и развития детей. Она включает в себя взаимодействия между педагогами, родителями, администрацией, а также общее окружение.

Формирование благоприятной образовательной среды является одним из главных факторов успешного развития педагога. Ключевыми элементами данной среды являются:

•Поддержка со стороны руководства и психологическая комфортная атмосфера в коллективе: руководство организации должно демонстрировать важность профессионального развития и оказывать поддержку педагогам в получении новых знаний, также создавать комфортную среду между коллегами и принять мера для сотруднической работы между ними.

•Создание благоприятной рабочей атмосферы: важно, чтобы педагоги чувствовали себя комфортно и защищенно в своей работе, могли открыто высказывать свои мнения и делиться опытом, по возможности поддерживать друг друга.

•Возможности для профессионального общения и обмена опытом: педагоги должны иметь возможность общаться с коллегами не только в своем рабочем месте, но и в других, участвовать в совместных проектах и наставнических программах, для расширения своих знаний.

•Доступ к методическим ресурсам и современным технологиям: организация должна обеспечивать педагогам доступ к ресурсам и предоставлять возможность в получении курсов повышения квалификации, конференциям, вебинарам и другим ресурсам для профессионального роста, предоставить доступ к современным технологиям и уметь их использовать в своей деятельности.

•Мотивация и стимулы: Организация может использовать различные формы мотивации, чтобы стимулировать педагогический персонал к профессиональному развитию, например, денежные вознаграждения, повышение квалификации или новые возможности для профессионального роста.

Результаты исследования: был проведен анализ профессионального роста педагогов. В ходе проведенного исследования среди 200 педагогов дошкольных и школьных образовательных учреждений Узбекистана были выявлены следующие результаты:

• Уровень профессиональной компетентности: 80% педагогов отметили улучшение своих профессиональных навыков после прохождения курсов повышения квалификации.

• Мотивация к профессиональному росту: 70% педагогов выразили желание продолжать обучение и совершенствование своих навыков.

• Влияние факторов среды: 90% педагогов отметили, что наличие современной инфраструктуры и поддерживающая организационная культура способствуют их профессиональному росту.

Заключение: Профессиональный рост педагогов является важным аспектом повышения качества образования в Узбекистане. Реализуемые меры по улучшению подготовки и повышения квалификации педагогических кадров, а также создание благоприятной среды для их профессионального развития способствуют достижению высоких результатов в образовательном процессе. Продолжение работы в этом направлении позволит обеспечить устойчивое развитие системы образования и подготовку высококвалифицированных специалистов, способных эффективно решать современные образовательные задачи.

Список использованной литературы

1.Атамурадов Ж.Ж., Хазратов Ф.Х.- Подготовка учителей-предметников к использованию ИКТ технологий в учебном процессе. Вестник интегративной психологии,2019. С.54-57.

2. Борытко Н.М. Педагог в пространствах современного воспитания: монография. Волгоград: Перемена,2001. -102 с.

3. Исаев И.Ф. Профессионально-педагогическая культура преподавателя: учебное пособие. -Мю: Академия. -2015. -102с.

4. Колесникова И.А. Педагогическая реальность в зеркале межпарадигмальной рефлексии. – СПб.,2017. -80с.

5. Каримова М.Х. Этапы профессионального роста и развития педагогов. – Самарканд: “Ильм зийо”, 2021. – 124 с.

6. Шойимова Ш.С. Факторы, влияющие на развитие профессиональной компетентности педагога // Образование и инновационные исследования. – 2023. – №2. – С. 67–71.

7. Постановление Президента Республики Узбекистан. О мерах по дальнейшему развитию сферы педагогического образования. №ПП–4623 от 27.02.2020 г. // www.lex.uz

FARZAND TARBIYASI: NIMADAN BOSHLASH KERAK?

Rustamova Shaxzoda Maripovna,
Farg‘ona viloyati Pedagogik mahorat markazi v.b.dotsenti, Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
+998905620655

Annotatsiya

Maqolada eng aziz ne’mat bo‘lgan farzandlar to‘g‘risida fikr yuritilib, ta’lim-tarbiya jarayonida e’tibor berailishi lozim bo‘lgan jihatlar haqida yoritilgan. Bolaning faqat aqliy rivojlanishi, uning har tomonlama kamol topishi, ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayonidagi uning odob-axloqi, muomalasi alohida ahamiyatga egadir.

Kalit so‘zlar: bola, munosabat, tarbiyali farzand, aqliy kamolot, bolaga ibrat, san’atga qiziqtirish, hissiyotlarni ifodalash.

Аннотация

В статье рассматриваются дети как самое драгоценное благо и освещаются аспекты, которым необходимо уделять внимание в процессе образования и воспитания. Особое значение имеет не только умственное развитие ребенка, но и его всестороннее формирование, а также его манеры и поведение в процессе вступления в социальные отношения.

Ключевые слова: ребенок, отношение, воспитанный ребенок, интеллектуальное развитие, пример для ребенка, интерес к искусству, выражение эмоций.

Abstract

The article discusses children, which are the most precious blessing, and highlights aspects that should be paid attention to in the educational process. Only the mental development of a child, their comprehensive development, their manners and behavior in the process of entering into social relations are of particular importance.

Keywords: child, relationship, well-mannered child, intellectual maturity, example for the child, interest in art, expression of emotions.

Ota-ona uchun farzand tarbiyasi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bola tug‘iladi, uni tarbiyasi boshlanadi. Bu borada eng muhimi nima? Nimadan boshlash kerak?

Madaniyatdan. Axir tarbiyali bola bu, madaniyatli boladir.

Insonni madaniyat va san’atga qiziqishi uni hayvondan farq qiluvchi fazilatdir. Qadimda hatto yozuv bo‘lmagan davrlarda ham insonlar g‘orlarda suratlar chizib yurganlar. Shunday ekan, har bir ota-ona o‘z farzandini tarbiya qilishda, avallambor, uni madaniyatli, san’atga qiziquvchan bo‘lishiga ahamiyat bermog‘i darkor. Bolaning birovga, atrof-muhitga bo‘lgan munosabati naqadar muhim ekanligini kichikligidan anglashi lozim. Bolaning muomilasi, atrof-muhitga bo‘lgan hurmati uning hayot davomidagi quroli ekanligini tushunishi lozim.

Bola uning ijodi nafaqat unga, balki atrofdagilarga ham xursandchilik keltirishini anglashi lozim. Agar maktabda “5” baho olsa, bu uning shaxsiy baxti, lekin do‘stlari uchun ajoyib tomosha uyushtirib bersa, u bir qator insonlarni baxtli eta olganidan mamnun bo‘ladi. Bola uchun butun dunyo sahnadir. Bola o‘ynayotganda dunyoni anglaydi, o‘yinda o‘z dunyosini yaratadi. Bu jarayonga ota-ona aralashmagani ma’qul. San’atga oson kirishishi uchun bola ko‘rayotgan narsasini kuzata bilishi va tushuntira olishi kerak, u buni his etishi lozim. Shuning uchun bolalikda musiqa, chizish, raqs, tomosha, zabon va yozuv shunchalik muhim.

Bola madaniyatli bo‘lishini istagan ota-ona o‘z nutqiga e’tiborli bo‘lishi kerak. Bola bilan gaplashayotganda madaniyatli so‘zlarni ishlatish odat tusida

bo‘lishi darkor. Undan tashqari, bolaga kitob va ayniqsa, she’r o‘qib berish juda foydali bo‘ladi. Farzand tarbiyasida o‘rgatishdan ko‘ra jalb qilish muhimroqdir. Rasm chizishni o‘rgatishdan oldin uni ajoyib rasmlar ko‘rgazmasiga olib borish, skripkada chalishni o‘rgatishdan oldin filarmonik konsert eshittirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bola bilan biron narsa (teatr tomoshasi, konsert, kino, surat va hokazo) ko‘rilgandan keyin albatta uning bu haqdagi fikrini so‘rash, bu haqda u bilan suhbatlashish talab etiladi. Shunda u o‘z hissiyotlarini tasvirlab bera oladi. Iloji bo‘lsa, ko‘rgan narsasini rasmda tasvirlashi ham juda foydali. Bolada yoshligidan ijodkorlik fazilati rivojlanishi uchun u bilan birgalikda ertaklar to‘qish, to‘qilgan ertaklardan tomoshalar o‘ylab topishda ko‘maklashish kerak;

Farzand tarbiyasi gap bilan emas, balki shaxsiy ibrat bilan amalga oshiriladi. Televizor ko‘rayotgan onasini kuzatgan bolaga “Bor, kitob o‘qi!”, deyishdan ko‘ra, televizorni o‘chirib, “Yur, birgalikda biron kitob o‘qiymiz”, deyish maqsadga erishish uchun eng oson va foydali yo‘l bo‘ladi. Farzandi madaniyatli va tarbiyali bo‘lishini istagan ota-ona unga namuna bo‘la olishi tarbiyaning eng muhim jihatidir.

Bolaning aqlini charxlash. Bu jihat eng muhimidir. Ota-ona, bolam aqlli bo‘lsin, deb ko‘p harakat qiladi. Lekin bolaning miyasini tabiiy ravishda rivojlantirish uchun ko‘p narsa kerak emas ekan, bular ham bo‘lsa, ota-onaning bolaning rivojlanishiga to‘g‘ri yondashishidir. Qanday qilib?

Bolaga ta’limni erta ham emas, kech ham emas, balki o‘z vaqtida berish lozim. Bolaning yoshiga muvofiq ravishda unga bilim berish kerak. Ikki yoshlik bolaga alifbeni o‘rgatsa, tez orada o‘rganib oladi, lekin shu bilan bir qatorda uning kreativlik, tabiiy qiziqish va tasavvur qilish qobiliyatlari so‘nib boradi. Endi unga “non” so‘zini aytsangiz, u “och qorin, issiqqina non, yumshoq patir, onamning qo‘llari” kabi tasavvurlarning o‘rniga “n”, “o”, “n” harflaridan iborat so‘zni tasavvur qiladi, xolos. Bu uning miyasining tasavvur va xayol qilish qobiliyatini zaiflashtiradi.

Insho yozishda qiynalish sizga tanish holatmi?

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda quyidagilarni bilib olish foydali bo‘ladi:

– Bolaning 3 yoshigacha miyasining asosiy tuzilmalari va asab to‘qimalari shakllanadi. Hissiyotlar miya rivojlanishida katta turtki bo‘lgani uchun bu davrda bolaga ota-onaning mehr va muhabbati kerak xolos. Agar bola shu davrda ota-onaning mehrini yetarlicha olishga ulgurmasa, kelajakda insonlarga bog‘lana olmay, mehr yetishmovchiligidan qiynalib yashaydi.

– Bolaning 3 yoshidan 5 yoshiga qadar miyasining o‘ylash qobiliyatini, odamgarchilik va ahloq tuyg‘ularini shaklantiruvchi qismi keskin rivojlanadi.

– Bolaning 6 yoshidan 12 yoshiga qadar miyasining til, metematika va jismoniy qobiliyatlarni shakllantiruvchi qismi rivojlanadi.

– Bolaga ta’lim berilayotganda ana shu davrlarga muvofiq bo‘lgan bilimni berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

– Bolaga shunday ta’lim berish kerak-ki, bunda uning barcha sezgi a’zolari jalb etilgan bo‘lishi kerak. YA’ni, bola rivojlanish jarayonida o‘zi mustaqil

ravishda tegish, ko‘rish, eshitish, hidlash va mazasini bilish imkoniyatiga ega bo‘lishini ta’minlash lozim.

Bolaga yoshligidan ahloqni o‘rgatish miya rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Kichikligidan kattalarni hurmat qilishni, salom berishni, qoidalarga amal qilishni, yo‘l harakati qoidalarini hurmat qilishi va boshqa shu kabilarni o‘rganib borgan bola hayot davomida qiynalmaydi va kam xato qiladi.

Bolaga bilim olish xursandchilik keltirishi kerak. Bolani qiynab, barvaqt o‘qish yoki yozishga o‘rgatib, o‘yindan xoli qilish uni stress olishiga olib keladi. Natijada bolada har xil kasalliklar yuzaga kelishi mumkin. Bola bilimni o‘z xohishi bilan o‘zlashtirishi kerak. Agar istamayotgan bo‘lsa, demak ota-ona uni qiziqtirish yo‘lini topa olmayapti.

Agar ota-ona quyidagi tamoyillarga amal qilsa, bola aqlli bo‘lib o‘sadi:

– Bola ertalab albatta nonushta qilishi muhim. Uyqudan so‘ng bolaning miyasi o‘z faoliyatini boshlashi uchun energiyaga muhtoj bo‘ladi.

– Bolani kun mobaynida tez-tez ovqatlantirish lozim. Bunda uning xotirasi rivojlanadi.

– Bola yetarlicha uxlashi lozim. Uyquda miya to‘qimlari dam oladi va uning imkoniyatlari yaxshilanadi.

– Faol bolaning miyasi ham faol rivojlanadi. Bola ovqatlanishni, xonasini yig‘ishtirishni, o‘yinchoqlarini faol o‘ynash va hokazolarni mustaqil ravishda bajarishi kerak.

– Tegish natijasida yuz beradigan hissiyotlar miya bilan keskin bog‘liq. Bolani kun mobaynida ko‘proq o‘pib, quchoqlb turish kerak.

Xulosa sifatida aytish mumkin-ki, bola – bamisoli nihol. Unga qanday parvarish va e’tibor qaratilgan bo‘lsa, natija ham ana shunda bo‘ladi. Ota-onaning har tomonlama kamol topganligi, rivojlanganligi kelakda ulardan aqlli va dono nasl qolishining garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. М.Пардаева ва бошқалар. “Ўқитувчиларнинг таълим – тарбиясидаги муҳит: муаммо ва ечим”. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги Республика Таълим маркази; Тошкент. 2015.

2. Tariyaviy ish metodikasi. /L.I. Ruvinskiy taxriri ostida.-T.: “O‘qituvchi”, 1990.

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI BOLALARINI BOSHLANG‘ICH TA’LIMGA TAYYORLASHDA SAVODGA O‘RGATISH USULLARI.

Shakarova Nilufar Zuvaydullayevna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: shakarovanilufar97gmail.com Tel: +998974322604

Annotatsiya: *Maqolada maktabga tayyorlov guruhi bolalarni boshlang‘ich ta’limga tayyorlashda savodxonlikni shakllantirishning psixologik-pedagogik jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda bolalarning nutqiy, kognitiv va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy (gamifikatsiya, audiovizual texnologiyalar) va an’anaviy metodlarning ta’siri solishtirilgan. Tajribalar natijasida interaktiv usullar yordamida so‘z boyligi, grammatik to‘g‘rilik va muloqot ko‘nikmalarini oshirishning samarali yo‘llari ko‘rsatilgan. Xususan, o‘yinlashtirish (gamifikatsiya) va individual yondashuvning ahamiyati ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *savodxonlik, 6-7 yosh bolalar, gamifikatsiya, nutqiy rivojlanish, fonematik idrok, interfaol metodlar, muloqot qobiliyati, ta’lim innovatsiyalari.*

Методы обучения грамоте детей подготовительной группы при подготовке к начальному образованию

Аннотация: *В статье исследованы психолого-педагогические аспекты формирования грамотности у детей подготовительной группы при подготовке к начальному образованию. Сравнивается влияние современных (геймификация, аудиовизуальные технологии) и традиционных методов на развитие речевых, когнитивных и социальных навыков детей. Экспериментальные результаты демонстрируют эффективные способы улучшения словарного запаса, грамматической точности и коммуникативных навыков с помощью интерактивных методов. Особое внимание уделено значимости геймификации и индивидуального подхода.*

Ключевые слова: *грамотность, дети 6–7 лет, геймификация, речевое развитие, фонематическое восприятие, интерактивные методы, коммуникативные навыки, инновации в образовании.*

Methods of Teaching Literacy to Preschool Children in Preparation for Primary Education

Abstract: *The article examines the psychological and pedagogical aspects of literacy formation in preschool children (aged 6–7) as part of their preparation for primary education. It compares the impact of modern (gamification, audiovisual technologies) and traditional methods on the development of children’s speech, cognitive, and social abilities. Experimental results highlight effective strategies for enhancing vocabulary, grammatical accuracy, and communication skills through interactive approaches. Special emphasis is placed on the importance of gamification and individualized learning.*

Keywords: *literacy, 6–7-year-old children, gamification, speech development, phonemic awareness, interactive methods, communication skills, educational innovations.*

Kirish. Bola 6-7 yoshga yetgach ta’limning keyingi bo‘g‘iniga, ya’ni maktab ta’limiga tayyorgarlik ko’radi. Ta’lim-tarbiyaviy faoliyatida ularning savodxonligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratila boshlaydi. Amerikalik tadqiqodchilar bolalarda erta savodxonlik ko’nimmalarini rivojlantirish maktab ta’limi muvaffaqiyatli amlaga oshirishning muhim ko’rsatkichlaridan biri sifatida ta’kidlaydilar. Bolalarning 6-7 yosh oralig‘idagi rivojlanish davri ularning

intellektual, psixologik va ijtimoiy jihatdan o‘sishini belgilab beradigan asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu yoshda bolalar o‘z fikrlarini ifodalash, muloqot qilish va muayyan bilimlarni o‘zlashtirishga tayyor bo‘ladi. Bolalar maktabga borganda ularning nutqiy qobiliyatlari rivojlanishi har xil darajada 6–7 yoshli bolalarni savodga o‘rgatish nafaqat o‘qish va yozishni, balki nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash, ijodiy ko‘nikmalar va ijtimoiy moslashuvni ham rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Bu yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishi xotira, diqqat va ijodkorlikning faollashishi bilan tavsiflanadi. Bolalarni savodxonlikka o’rgatishda tarbiyachi-o’qituvchilarning faoliyatini tashkil qilish, mashg’ulot uchun to‘g‘ri tanlangan metodikalar ularga muvaffaqiyatli o‘rganish imkonini beradi 6-7 yosh oralig‘idagi bolalarning yoshga xos psixologik va fiziologik xususiyatlari ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirishda muhim o’rin tutadi.

Psixologik xususiyatlar:

- *tovushlarni farqlash va o‘zlashtirish:* Bolalar tovushlarni tezda qabul qiladi, eslab qoladi va ularni so‘z shaklida talaffuz qilishga o‘rganadi.
- *qiziqish va faollik:* 6-7 yoshdagi bolalar o‘rganishga qiziqadi va yangi narsalarni bilishga ishtiyoq bilan yondashadi. Maktabga borishga bo’lgan qo’rquv hissini kamaytiradi.
- *muloqotga intilish:* Bolalar doimiy ravishda o‘z tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilishga intiladi, bu esa ularning nutqini shakllantiradi.
- *fikrlashning rivojlanishi:* Bu davrda bolalarda mantiqiy fikrlash boshlanadi, ular so‘z va jumlalarni o‘zaro bog‘lashga harakat qiladi.

Fiziologik xususiyatlar:

- *eshitish va ko‘rish qobiliyatining rivojlanishi:* Bolalar eshitgan va ko‘rgan narsalarini tezroq eslab qoladi va ularni o‘z nutqida ifodalaydi.
- *qo‘l motorikasining rivojlanishi:* Yozuv mashqlariga kirishish uchun muhim bo‘lgan qo‘l harakatlari yaxshilanadi.
- *nutq apparatining yetilishi:* Ushbu yoshda bolalarning talaffuz organlari to‘liq shakllanib, aniq so‘zlashga tayyor bo‘ladi.

Asosiy qism. Savodga o‘rgatish jarayoni bolalarning nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Nutq faoliyatining yaxshi rivojlangan bo’lishi kognitiv rivojlanishi, borliqni idrok etishning asosi hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotiga brogan va bormagan bolalarning 1-sinfga borganda yuzaga chiqadigan o’zlashtirishlaridagi farqlar ma’lum. Bu jarayon quyidagi jihatlar orqali amalga oshadi:

1. Fonetik va fonematik rivojlanish. Savodga o‘rgatish jarayonida bolalar harflarni tovushlar bilan bog‘lashni, tovushlarni so‘zlarda aniqlashni va ularni bo‘g‘inlarga ajratishni o‘rganadi. Bu esa nutqning ravonligini oshiradi, to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatadi.

2. So‘z boyligini oshirish. Savodga o‘rgatish bolalarning yangi so‘zlarni o‘zlashtirishiga imkon beradi. Hikoyalar, she’rlar va turli mashqlar orqali nutq boyligi kengayadi, yangi mavzular haqida muloqot qilish ko‘nikmasi shakllanadi.

3. Grammatik qoidalarga rioya qilish. Savodga o‘rgatish davomida grammatik tuzilmalarni o‘rgatish bolalarning nutqini yanada aniq va tushunarli qiladi. To‘g‘ri gap qurilmalari shakllanadiva jumlalarda so‘zlarning o‘rin tartibiga rioya qilish o‘rgatiladi.

4. Tafakkur va nutqning birligi. Savodga o‘rgatish jarayonida bolalar so‘z va jumlalar orqali fikrlarini ifodalashga o‘rganadi. Bu ularning fikrlash va nutq qobiliyatlarini birgalikda rivojlantiradi.

Bugungi kunda savodga o‘rgatish sohasida yangi yondashuvlar, jumladan, interfaol o‘yinlar, gamifikatsiya, audiovizual texnologiyalar va bolaga individual yondashuv yetakchi ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, an’anaviy yondashuvlarning o‘rnini to‘liq yangiliklar egallashi qiyin. Bu holat tarbiyachi va ta’lim-tarbiya muhitining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq. Olib borilgan tekshirishlar quyidagi savollarga javob beradi:

- 6–7 yoshli bolalarning psixologik va pedagogik xususiyatlari savod o‘rganishga qanday ta’sir qiladi?
- An’anaviy va zamonaviy metodlarning qaysi biri samaraliroq?
- O‘yin va audiovizual texnologiyalarning savodga o‘rgatishda o‘rni qanday?

Bolalarni savodga o‘rgatishda gamefikatsiya (o‘yinlashtirish) samarali usullardan biri bo‘lib, o‘quv jarayonini qiziqarli, qiziqish uyg‘otuvchi va rag‘batlantiruvchi qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga faoliyatlar asosan o’yin tarzida olib boriladi. Gamefikatsiya o‘yin elementlarini ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘shishni nazarda tutadi. Bu yondashuv tarbiyalanuvchilarni faolroq ishtirok etishga undaydi va ularning mashg’ulotga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Bolalarni savodga o‘rgatish jarayonida nutqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus yondashuvlar va interaktiv usullar bolalarning so‘z boyligini oshiradi. Bolalar muloqotda faol bo‘lishga intiladi, o‘z fikrlarini ravon va mantiqiy ifodalashga harakat qiladi. Savodga o‘rgatish jarayonida individual yondashuvning ahamiyati katta. Har bir bolaning rivojlanish darajasi va qiziqishlari hisobga olinsa, ta’lim samaradorligi oshadi. Pedagog va ota-onalar hamkorlikda ishlasa, ta’lim jarayoni yanada boy va samarali bo‘ladi. Masalan, uyda ota-onalar tomonidan kitob o‘qib berish, bolalar bilan qisqa muloqot qilish ularning so‘zlash qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi.

Xulosa. Maktabga tayyorlov guruhi bolalarni boshlang’ich ta’limga tayyorlashda savodga o‘rgatishga doir ishlar bolalarning nutqiy rivojlanishida markaziy o‘rin tutadi. Bu jarayon orqali bolalar nafaqat o‘qish va yozishni o‘rganadi, balki so‘z boyligi, grammatik savodxonlik va muloqot qobiliyatlari ham rivojlanadi. Nutqiy qobiliyatni rivojlantirishda innovatsion metodlar va individual yondashuv ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib xizmat qiladi.

Tavsiyalar:

- Savod o‘rgatishda “o‘yinlashtirish” (masalan, raqamli ilovalar yordamida harflarni o‘rgatish) eng samarali usul hisoblanadi.
- Ota-onalar bilan hamkorlikda uy mashqlari (ertaklar o‘qish, suhbatlar) nutqiy qobiliyatni mustahkamlaydi.

- Multimedialar (tovushli kitoblar, interaktiv dasturlar) bolalarning diqqatini jamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azizxo‘jayeva N.N. *Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqiy rivojlantirish metodikasi.* – T.: «O‘qituvchi», 2020.

2. Piaget J. *Bolaning intellektual rivojlanishi.* – Moskva: «Pedagogika», 1986.

3. G‘ulomova X. *Interfaol metodlar yordamida savodxonlikka o‘rgatish.* – «Ilm-fan», 2021.

4. Dweck C. *Mindset: Rivojlanish tafakkuri.* – Toshkent: «Innovatsiya», 2022.

5. To‘raqulov B. *Gamifikatsiya va ta’lim: nazariya va amaliyot.* – «Zamonaviy ta’lim» jurnali, 2023, №4.

6. Hasanboyeva O. “6-7 yoshli bolalarda fonematik eshitishni rivojlantirish” – «Maktabgacha pedagogika» ilmiy jurnali, 2022.

7. UNESCO. *Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Early Childhood Education.* – Parij, 2023.

8. Egamova D. *Audiovizual vositalar yordamida o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.* – T.: «Fan», 2021.

9. Vygotsky L.S. *Bolalarning ijtimoiy va kognitiv rivojlanishi.* – Moskva: «Prosvesheniye», 2005.

10. Jalilova M. *Individual yondashuv asosida savodxonlikka o‘rgatish.* – «Xalq ta’limi» jurnali, 2020, №6.

MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI FAOLIYATIDA STRESS DARAJASINI KAMAYTIRISH OMILLARI

Aliyeva Zenura Mamaraim qizi
Past Darg‘om tumani 46-maktab psixologi

Annotatsiya

Ushbu maqola maktab pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatida stress darajasining ortish sabablari, ularning ruhiy salomatlik va professional samaradorlikka ta’siri, hamda stressni kamaytirishga xizmat qiluvchi asosiy omillarni chuqur o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada stressni yuzaga keltiruvchi tashkiliy, psixologik va ijtimoiy omillar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Shu bilan birga, stressga qarshi kurashishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan amaliy usullar – emotsional intellektni rivojlantirish, boshqaruv madaniyati, kasbiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari va maktab ichki muhitini sog‘lomlashtirish bo‘yicha tavsiyalar ilgari suriladi. Xorijiy tajribalar, psixologik nazariyalar va empirik tadqiqotlar asosida stressni kamaytirish mexanizmlari yoritilgan. Mazkur maqola

o‘qituvchilar, maktab ma’muriyati va ta’lim sohasidagi mutaxassislar uchun foydali ilmiy va amaliy manba bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar

Stress, pedagog xodim, emotsional zo‘riqish, kasbiy charchoq, psixologik salomatlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ta’lim tizimi, maktab muhiti.

Annotation

This article is dedicated to an in-depth study of the causes of increased stress levels among school teaching staff in their professional activities, its impact on mental health and professional efficiency, and the key factors that help reduce stress. The article systematically analyzes organizational, psychological, and social factors that cause stress. It also provides practical recommendations for coping with stress, such as developing emotional intelligence, improving management culture, enhancing professional support systems, and fostering a healthy school environment. Based on international practices, psychological theories, and empirical research, the article explores mechanisms for reducing stress. This work serves as a valuable scientific and practical resource for teachers, school administrators, and specialists in the field of education.

Keywords

Stress, teaching staff, emotional tension, professional burnout, psychological health, social support, education system, school environment.

Аннотация

Данная статья посвящена глубокому изучению причин повышения уровня стресса у педагогических работников школы в их профессиональной деятельности, его влияния на психическое здоровье и профессиональную эффективность, а также основным факторам, способствующим снижению стресса. В статье системно анализируются организационные, психологические и социальные факторы, вызывающие стресс. Кроме того, приводятся практические рекомендации по борьбе со стрессом, такие как развитие эмоционального интеллекта, повышение культуры управления, внедрение систем профессиональной поддержки и оздоровление внутренней школьной среды. На основе международного опыта, психологических теорий и эмпирических исследований рассматриваются механизмы снижения стресса. Данная работа может служить ценным научным и практическим источником для учителей, школьной администрации и специалистов в сфере образования.

Ключевые слова

Стресс, педагогические кадры, эмоциональное напряжение, профессиональное выгорание, психологическое здоровье, социальная поддержка, система образования, школьная среда.

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘zgarayotgan sharoitda o‘qituvchilarga nisbatan yuqori talablar qo‘yilmoqda: raqamli texnologiyalarni egallash, kompetensiyaviy yondashuv asosida dars olib borish, baholashda shaffoflik, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish kabi ko‘plab mas’uliyatlar pedagog zimmasiga yuklanmoqda. Bu holatlar o‘z navbatida o‘qituvchilarda psixologik bosim, hissiy charchoq va stress holatlarining kuchayishiga olib kelmoqda.

Stress – bu organizmning tashqi yoki ichki tahdidlarga nisbatan himoya mexanizmi sifatida yuzaga chiqadigan holatdir. Pedagogik sohada esa u ko‘p hollarda salbiy oqibatlarga olib keladi: kasbiy charchoq, ruhiy tushkunlik, o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi, hatto ish joyidan voz kechish. Shu bois maktab pedagog xodimlarining stress holatlarini aniqlash, tahlil qilish va ularni kamaytirishga xizmat qiluvchi omillarni chuqur o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism

1. Pedagogik stressning manbalari va ko‘rinishlari

1.1. Tashkiliy omillar Haddan tashqari mehnat yuklamasi va byurokratik topshiriqlar (kundaliklar, hisobotlar, reja va protokollar)**.** Adolatsiz baholash tizimlari va ichki nazorat bosimi**.** Rahbariyat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi

1.2. Shaxsiy va psixologik omillar O‘zini kasbiy jihatdan namoyon eta olmaslik hissi**.** Qaror qabul qilishda qat’iylik yetishmasligi**.** Oila va ish o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi

1.3. Ijtimoiy omillar Ota-onalarning haddan tashqari talabchanligi yoki befarqligi**.** Jamiyatda o‘qituvchi obro‘sining pasayishi**.** Ommaviy axborot vositalaridagi tanqidiy yondashuvlar

2. Stress oqibatlari

Stressning uzoq muddatli ta’siri nafaqat o‘qituvchining shaxsiy hayotiga, balki o‘quvchilarning ta’lim olish sifatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi: **Emotsional charchoq**: doimiy zo‘riqish natijasida o‘qituvchida murosasizlik, jahl, befarqlik kuchayadi. **Kasbiy samarasizlik**: ijodiy yondashuv, yangilikka intilish yo‘qoladi. **Salomatlik muammolari**: uyqusizlik, bosh og‘rig‘i, yurak urishining tezlashishi va boshqa psixosomatik kasalliklar.

3. Stressni kamaytirish omillari

3.1. Psixologik yondashuvlar Emotsional intellekt: O‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish va boshqalarning emotsiyalarini tushunish orqali salbiy holatlarga bardoshlik ortadi. **Kognitiv qayta baholash**: Muammolarga realistik va moslashuvchan yondashishni o‘rgatish. **Ruhiy sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari**: Meditatsiya, autogen mashqlar, nafas texnikalari.

3.2. Tashkiliy choralar Adolatli yuklama taqsimoti: O‘qituvchining yuklamasini uning salohiyatiga mos taqsimlash. **Professional rivojlanish imkoniyatlari**: Kurslar, treninglar, master-klasslar orqali pedagog o‘zini rivojlantirishga

yo‘naltiriladi. **Rahbarlik madaniyati**: Empatiya, ochiq muloqot va fikrlarni e’tiborga olish orqali sog‘lom iqlim yaratiladi.

3.3. Ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash Mentorlik tizimi: Tajribali ustozlar tomonidan yangi pedagoglarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish.

- **Jamoaviy iqlim**: O‘zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan munosabatlar stressni kamaytiradi.
- **Oila bilan hamkorlik**: O‘qituvchining oilaviy qo‘llab-quvvatlanishi uning ruhiy barqarorligini ta’minlaydi.

4. Xorijiy tajriba va amaliyotlar

- **Finlyandiya tajribasi**: O‘qituvchilarga yuqori ishonch, mustaqillik va minimal byurokratiya taqdim etiladi.
- **Yaponiya tajribasi**: Jamoaviy muvofiqlik, o‘zaro mas’uliyat va hissiy barqarorlik ta’lim tizimiga singdirilgan.
- **Kanada modeli**: Maktablarda psixologik markazlar faol ishlaydi, o‘qituvchilarga muntazam maslahat beriladi.

Xulosa

Maktab pedagog xodimlari faoliyatidagi stress darajasini kamaytirish nafaqat o‘qituvchining sog‘lig‘i, balki butun ta’lim tizimining barqaror rivojlanishi uchun zarur omildir. Stressni yuzaga keltiruvchi manbalarni aniqlash va ularni tizimli bartaraf etish o‘qituvchining kasbiy motivatsiyasini, dars sifati va shaxsiy hayotdagi qoniqishini oshiradi. Shu sababli maktab rahbariyati, ta’lim siyosatchilari va jamiyat a’zolari o‘rtasida pedagoglar uchun sog‘lom ish muhiti yaratishga intilish zarur. Stressni kamaytirish faqat individual darajadagi mas’uliyat emas, balki tizimli va institutsional yondashuvni talab etadi. Har bir pedagog o‘z qadrini his qiladigan, ishonchli va barqaror muhitda ishlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maslach, C., & Jackson, S. E. (1986). *Maslach Burnout Inventory Manual*. Palo Alto, CA: Consulting Psychologists Press.
2. Kyriacou, C. (2001). *Teacher Stress: Directions for future research*. Educational Review, 53(1), 27–35.
3. Fullan, M. (2007). *The New Meaning of Educational Change*. Routledge.
4. Uzbekova, N. T. (2021). *O‘qituvchi shaxsida stress holatlari va ularni bartaraf etish usullari*. Toshkent: O‘zMU.
5. WHO. (2020). *Healthy Workplaces: A model for action*. World Health Organization.
6. Karimova, D. A. (2023). *Pedagogik faoliyatda stress: Psixologik yondashuvlar va tavsiyalar*. Toshkent: Ilm Ziyo nashriyoti.
7. OECD (2021). *Teachers and School Leaders as Valued Professionals: International Survey (TALIS)*.

2-SHO‘BA
OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI KASBIY FAOLIYATGA MUVAFFAQIYATLI TAYYORLASH TENDENSIYALARI.

BO‘LAJAK PEDAGOG XODIMLARNING MEDIASAVODXONLIGINI OSHIRISH – TA’LIM ISLOHOTINING MUHIM TALABI

Komil HAYDAROV,
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi professori, falsafa fanlari doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot urushi tahdidi tobora kuchayib borayotgan ayni zamonda milliy tarbiyaning dolzarb masalalaridan biri – bo‘lajak pedagog xodimlar mediasavodxonligini oshirish, ularda axborot olish, tanlash va tahlil qilish madaniyatini shakllantirish to‘g‘risida mushohada qilinadi, tegishli xulosa va takliflar ilgari bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar. Tarbiya, bo‘lajak pedagoglar, mediamakon, mediasavodxonlik, axborot olish madaniyati, ommaviy axborot vositalari.

Аннотация. В статье анализируется один из актуальных вопросов национального воспитания - формирования у будущих педагогических кадров медиакультуры и медиаграмотности, а также получение, выбор и анализ необходимой информации, выдвигаются соответствующие выводы и предложения.

Ключевые слова. Воспитание, будущие педагоги, медиапространство, медиаграмотность, информационная культура, средства массовой информации.

Davlatimiz rahbari “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak” [3.1], degan muhim vazifani qo‘ydi va bundan ko‘zlangan maqsadni “yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz” [3.1], degan so‘zlar bilan ifodaladi.

Bunda asosiy e’tibor insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga, va, shu orqali har tomonlama barkamol shaxs - fuqaroni shakllantirishga qaratilganligi bejiz emas. Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish” [2] vazifasi qo‘yilganligi ham buning isbotidir.

Albatta, bunday ezgu maqsadlar zamirida uzluksiz ta’lim islohotlarini yanada jadallashtirish, eng avvalo, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini tubdan

yaxshilash kabi ulug‘vor vazifalarni hal qilish masalasi yotadi. Zamon talablariga javob beradigan bo‘lajak pedagog kadrlarni tayyorlash o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra zalvorli qamrovga ega bo‘lgan dolzarb vazifadir. Zotan, uzbu vazifa o‘ta shiddatli jarayonlar bilan hamohang kechmoqda. Yangilanish jarayolarida mamlakatimizda aynan shu masalaga ustuvor ahamiyat qaratilayotganining ma’nosi ham aslida shunda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, deb alohida ta’kidlagani bejiz emas [4.14].

Bo‘lajak pedagog xodimlarni tayyorlash, hech shubhasiz, ularning mediasavodxonligini oshirish, ya’ni o‘quvchi va talaba yoshlarda axborot olish, ulardan o‘rinli foydalanish madaniyatini shakllantirish ta’lim islohotlari doirasida eng muhim masaladir. Mediasavodxonlik va uni tarbiyalash masalasi hozirgi kunda umumiy tarbiya nazariyasi va amaliyotida muhim ahamiyat kasb etayotganligi o‘z-o‘zidan ravshan. Aslida u inson umumiy savodxonligining uzviy qismi hisoblanadi. “Jahon falsafasi qomusi”ning ikkinchi kitobida “Inson boshqa mavjudotlardan farq qilib, ongga, o‘z-o‘zini anglash qobiliyatiga egadir. Shu tufayli ilmga intilish, o‘z hayotining maqsad va mazmunini bilishga tirishish, go‘zallik yaratishga, har tomonlama barkamol bo‘lishga urinish barcha davr va millat kishilariga xos bo‘lgan umuminsoniy, boqiy fazilatlardir. Bu umuman inson mohiyatiga xos narsa bo‘lib, u bu yorug‘ olamda nima uchun yashayotganini anglashga, kelajagiga zamin hozirlashga intiladi” [5.137], deb yozilgan. Inson savodxon bo‘lsa, u hayotda o‘z o‘rnini topadi, jamiyatga kerakli kadr ham aynan mediasavodxonlik muhitida voyaga yetadi.

Mediasavodxonlik inson mediamadaniyatining namoyon bo‘lishidir. Mediamadaniyat deganda turli-tuman mediamahsulotni yaratish, baholash va tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan bilimlar, ko‘nikma va malaklarning o‘ziga xos majmuasi nazarda tutiladi. Mediamahsulot esa inson bilimi va his-tuyg‘ularining natijasidir. Mediamakon deganda axborotning muayyan makondagi “hukmronligi”, mavjudligini tushunish mumkin.

Asosiy Qonunimizning 33-moddasida “Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega”[1.5] deb yozilgan bo‘lib, ushbu qoida jamiyatimiz a’zolarining mediasavodxonligini oshirish, ularning axborot olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, tom ma’noda axborot madaniyatinini oshirishga qaratilgandir.

Bugungi kunda mediamakon o‘ziga xos “xavfli hudud”ga aylanib qolmoqda. Dunyo mediamakonida konstruktiv va destruktiv kuchlar o‘rtasida o‘ziga xos “musobaqa”, boshqacha aytganda “hayot-mamot jangi” ketayapti. Konstruktiv kuchlar internet orqali sog‘lom, jamiyat taraqqiyotiga va insoniyat kelajagiga xizmat qiladigan g‘oyalarni targ‘ib qilsalar, destruktiv kuchlarning xuruji bir necha yo‘nalishlarda gamoyo bo‘layotir. Bir tomondan, destruktiv xuruj diniy ekstremizm, terrorchilik, millatchilik, shovinizm, rasizm va zo‘ravonlikni, ikkinchi tomondan, g‘arbona “ommaviy madaniyat”, g‘ayriinsoniy turmush tarzini,

uchinchi tomondan, tuhmat va ig‘vodan iborat ma’lumotlarni, to‘rtinchi tomondan esa, behayolik va pornografik axborotni tarqatishni kasb qilgan.

Davlatimiz rahbari shu yilning 15-may kuni maktab ta’limi islohotlariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida bolalarni zararli axborotlardan himoya qilish masalasiga alohida e’tibor qaratdi. Shu maqsadda Prezident qarori bilan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi qoshida Bolalar kontentini rivojlantirish markazi tashkil qilindi. Ushbu markaz yosh avlodning tarbiyasiga, ruhiy olamiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi axborot makonidagi kontentni tahlil qilish bilan shug‘ullanadi. Bunday tadbir yoshlarning mediamakonda firibgarlar tuzog‘iga tushib qolishning oldini olishga xizmat qiladi. Mediamakonda yashirin faoliyat olib borayotgan maxsus guruhlar eng avvalo nishonni mediasavodxonligi past odamlarga qaratganligini unutmasligimiz kerak.

Bo‘lajak pedagog xodimlar quyidagilarga alohida e’tibor qaratishlarini zamonning o‘zi taqozo qilmoqda. Ular:

axborot izlash, axborotni to‘g‘ri tanlash, uni tahlil qila olish va tarqatish;

o‘z fikrini erkin bayon qila olish;

kompyuter savodxonligi;

kutubxonadan foydalanish madaniyati;

raqamli texnologiyadan oqilona foydalanish;

suniy intellekt bilan muloqot;

televizion savodxonlik va ommaviy axborot vositalari materiallarini tahlil qila olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim.

Kuzatish va tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagog kadrlar mediamadaniyatini oshirishning sinalgan yo‘li - ularning kreativ fikrlashini, mushohada, boshqacha aytganda, tafakkur madaniyatini shakllantirishdir. Haqiqatan ham tafakkur – shaxsning eng bebaho boyligi. Tafakkurdan mahrum bo‘lish - insoniy qiyofadan mahrum bo‘lishni anglatadi.

Bugun pedagogik oliygohlarda talabalar bilan ijtimoiy-gumanitar fanlardan olib boriladigan mashg‘ulotlarda ular mediasavodxonligini oshirishning zarur omili sifatida ommaviy axborot vositalarining hayotdagi o‘rni va tarbiyaviy ahamiyatiga doir so‘rovlar va tahlillar o‘tkazib turish yaxshi samara beradi. Bunda O‘zbekiston telekanallarida namoyish etilayotgan ko‘rsatuvlarning tarbiyaviy ahamiyati hamda yoshlar ma’naviyatiga ta’siri to‘g‘risida ularning fikr-mulohazalari o‘rganiladi. Albatta, yoshlarimizning aksariyati bugungi telekanallarda berilayotgan ko‘rsatuvlar, ularning tarbiyaviy mazmuni haqida munosabat bildira oladilar. Bunday tanqidiy, kreativ fikr-mulohazalarni eshitish orqali talaba yoshlar ommaviy axborot vositalari faqatgina axborot tarqatuvchi oddiy manba emas, balki, eng avvalo, insonning botiniy olamiga ta’sir ko‘rsatib, ularning tafakkurini, mushohada madaniyatini tarbiyalovchi qudratli omil ekanligini anglab yetishlari lozim.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.

2. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **Farmoni.** - T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 2019-yil 29-aprel. 06/19/5712/3034-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020-yil 30-dekabr. - №276 (7778)-son.

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. T., “O‘zbekiston”, 2016.

5. Jahon falsafasi qomusi. Ikkinchi kitob. – Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2019.

6. Haydarov K. Sharq falsafasida ma’naviy tarbiya ustuvorligi. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashri, 2020.

ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDA AXLOQIY TARBIYANI INDIVIDUAL YONDASHUV ORQALI AMALGA OSHIRISHNING AHAMIYATI

Abdullayeva Aziza Karimovna,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi
tel.: +998937254212

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida axloqiy tarbiyani samarali tashkil etishda individual yondashuvning ahamiyati yoritilgan. O‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy metodikalarni tanlash va qo‘llashning afzalliklari tahlil qilinadi. Shaxsiy rivojlanishga qaratilgan ta’lim uslublari, zamonaviy metodik yondashuvlar, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv munosabatlar muhim o‘rin egallaydi.

Kalit so‘zlar: axloqiy qadriyatlar, individual yondashuv, o‘quvchi shaxsiyati, tarbiyaviy metodika, shaxsiy rivojlanish, pedagogik texnologiyalar, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabati, integratsiyalashgan ta’lim, interaktiv metodlar, qadriyatga asoslangan ta’lim.

Аннотация. В статье подчеркнута важность индивидуального подхода в эффективной организации нравственного воспитания в общеобразовательных школах. Проанализированы преимущества подбора и применения методов обучения с учетом личностных особенностей учащихся. Особое внимание уделено методам обучения, направленным на развитие личности, современным методическим подходам, интерактивным отношениям учителя и учащихся.

Ключевые слова: нравственные ценности, индивидуальный подход, личность ученика, методы обучения, развитие личности, педагогические технологии, взаимоотношения учителя и ученика, интегрированное

образование, интерактивные методы, ценностно-ориентированное образование.

Abstract. This article highlights the importance of an individual approach in the effective organization of moral education in general secondary schools. The advantages of selecting and applying educational methods taking into account the personal characteristics of students are analyzed. Focuses on educational methods aimed at personal development, modern methodological approaches, and interactive relationships between teachers and students.

Key words: moral values, individual approach, student personality, educational methods, personal development, pedagogical technologies, teacher-student relationship, integrated education, interactive methods, value-based education.

Bugungi globallashuv sharoitida ta’limning asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish, ularni barkamol inson bo‘lib voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu esa, o‘z navbatida, faqatgina nazariy bilim emas, balki shaxsiy yondashuv asosida tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyatni talab qiladi. Zamonaviy pedagogika sharoitida har bir o‘quvchining individual psixologik va intellektual xususiyatlarini hisobga olgan holda axloqiy qadriyatlarni singdirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Axloqiy tarbiya jarayonida bola axloqiy jihatdan kamolga yetadi. Axloqiy tasavvurlarning rivojlanishi jarayonida, eng avvalo, ular o‘zlarining boshqalar bilan bo‘ladigan munosabatlarini ongli tushuna boshlaydilar, tengdoshlari va kattalar bilan bo‘ladigan munosabatlarida axloq saboqlari rivojlana boradi.

Axloqiy qadriyatlar – bu jamiyat tomonidan tan olingan va kishilarning xulq-atvorini belgilovchi tamoyillar tizimidir. Halollik, odob, mehnatsevarlik, adolat, mas’uliyatlilik kabi qadriyatlar yosh avlodga bolalikdan boshlab singdirilishi zarur. Bu qadriyatlar orqali shaxs o‘z hayotiy pozitsiyasini shakllantiradi, jamiyatga foydali inson sifatida kamol topadi. Shu bois, maktab ta’limida bu qadriyatlarni izchil va ongli ravishda tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchilarning o‘ziga xosligi – ularning dunyoqarashi, xarakteri, oilaviy muhiti, ehtiyojlari va qiziqishlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu sababli, har bir o‘quvchiga bir xil tarbiya usulini qo‘llash yetarli natija bermaydi. Individual yondashuv orqali o‘qituvchi har bir o‘quvchining ichki dunyosini tushunishga harakat qiladi, unga mos motivatsiya va yondashuv tanlaydi. Bunday yondashuv natijasida o‘quvchi o‘zini qadrlangan, tushunilgan va qo‘llab-quvvatlangan his qiladi. Bu esa, uning axloqiy jihatdan shakllanishini rag‘batlantiradi.

Individual yondashuv deganda, har bir o‘quvchining intellektual salohiyati, psixologik holati, ijtimoiy tajribasi, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda pedagogik ta’sir ko‘rsatish tushuniladi. Bu yondashuv L.Vygotskiy, Jan Jak Russo, A.S.Makarenko va K.D.Ushinskiy kabi pedagog-olimlarning qarashlariga tayanadi. Ularning fikricha, har bir bola noyobdir va u o‘z shaxsiy rivojlanish yo‘liga ega.

Ta’lim va tarbiya ajralmas tushunchalardir. Dars davomida fanlar mazmuniga mos holda axloqiy mazmun kiritilishi – o‘quvchining ongiga tabiiy ravishda tarbiyaviy g‘oyalarni singdiradi. Masalan, adabiyot darsida ijobiy qahramon obrazlari orqali, tarix darsida milliy qahramonlar misolida, biologiyada tabiatga mehr-oqibat orqali axloqiy tushunchalar mustahkamlanadi. Bundan tashqari, sinfdan tashqari tadbirlar, klublar, ko‘ngilli loyihalar, teatrlar va suhbatlar ham o‘quvchining axloqiy dunyoqarashini kengaytiradi. Tarbiyada metod tanlovi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Individual yondashuv asosida tanlangan metodikalar o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlaydi.

Quyidagi metodlar, ayniqsa, samarali hisoblanadi: **Rol o‘ynash metodi** – o‘quvchini hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatadi. **Axloqiy dilemmalar** – o‘quvchini ichki tahlil qilishga, qarama-qarshi nuqtai nazarlarni baholashga undaydi. **Munozaralar va suhbatlar** – ijtimoiy faoliyatga tayyorlaydi. **Hayotiy misollar orqali tushuntirish** – o‘quvchining tafakkurini real hayotga bog‘laydi. **Ko‘rgazmali vositalar (video, suratlar, voqealar tahlili)** – hissiy ta’sir kuchini oshiradi. Masalan, 6-sinf o‘quvchilari bilan “Halollik – eng yuksak fazilat” mavzusida ochiq dars tashkil etildi. Ushbu darsda har bir o‘quvchining shaxsiy hayotiy tajribasi, ijtimoiy muhitdagi kuzatuvlari va hissiy holati hisobga olinib, mavzuga individual yondashuv tatbiq qilindi. Dars interfaol usullarda tashkil etildi – guruhlarda ishlash, rol o‘ynash, savol-javob va esse yozish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda eta oldilar. Har bir o‘quvchiga o‘z hayotida duch kelgan halollik yoki halollikning aksi bo‘lgan holatlarni eslab, uni baholash, saboq chiqarish vazifasi topshirildi. Shu orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimga ega bo‘lishdi, balki ularning ongida “halollik” tushunchasi shaxsiy qadriyat darajasiga ko‘tarildi. Ayrim o‘quvchilar oilada yoki do‘stlari bilan yuz bergan voqealarni ulashar ekan, ularning axloqiy qarashlari, munosabatlari va his-tuyg‘ulari aniqlik kasb etdi. Ushbu darsda muhim jihatlardan biri shundaki, pedagog har bir o‘quvchining fikrini hurmat qilgan holda ularning shaxsiy yondashuvini qadrladi. Bu esa, bolalarda o‘ziga ishonch, erkin fikrlash va axloqiy mas’uliyat hissini shakllantirdi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning mulohazalari ustida tahliliy fikr yuritilib, ularga yo‘naltiruvchi, lekin majburlovsiz tarzda pedagogik ta’sir ko‘rsatildi. Shunday yondashuv orqali axloqiy tarbiyaning nazariy va amaliy jihatlari uyg‘unlashtirildi, o‘quvchilarda halollik tushunchasining hayotiy ahamiyati chuqurroq anglandi. Bu esa, o‘z navbatida, tarbiya jarayonining individual yondashuv asosida tashkil etilishi nafaqat samarali, balki barqaror natijalar berishini ko‘rsatadi.

O‘quvchilarga axloqiy tarbiya berishda xilma-xil metodlardan foydalaniladi: *Birinchidan,* maktabdagi o‘qish jarayoni yuksak darajada uyishtirilishi kerak. Buyuk nemis pedagogi A.V.Disterveg ta’kidlaganidek, yaxshi o‘qitish bilangina o‘qituvchi o‘quvchini yaxshi tarbiyalay oladi. *Ikkinchidan,* axloqiy tarbiya jarayonining muvofaqqiyati o‘quvchilar va o‘qituvchilar jamoasining saviyasiga bog‘liq. Jamoa axloqli bo‘lsa, bolalar intizomli bo‘ladi. *Uchinchidan,* tarbiyaviy ishlarni rejali bo‘lishi va hamjihatlik bilan amalga oshirilishi axloqiy tarbiyaning muvafaqqiyatini taminlaydi. A.S.Makarenko 10 ta

yuqori malakali o‘z holicha ishlaydigan o‘qituvchidan malakasi past, ammo bir yoqadan bosh chiqarib ishlaydigan 5 ta o‘qituvchi Afzal, – degan edi. *To‘rttinchidan,* maktabdan ijobiy emotsional sharoit yaratish axloqiy tarbiya jarayonida muvaqqiyatli ta’sir ko‘rsatadi. *Beshinchidan,* barcha o‘quvchilarning maktabdagi umumiy tartib, hayot rejimiga amal qilishga erishmoq darkor.

O‘quvchining axloqiy tarbiyasi – bu faqatgina “yaxshi xulq” emas, balki shaxsiy rivojlanishning muhim komponentidir. Tarbiyada individual yondashuv o‘quvchining o‘zini anglashiga, ichki intizom va axloqiy mezonlarga mos hayot kechirishga yordam beradi. Bunday rivojlanish natijasida o‘quvchi o‘zini jamiyatda erkin va mas’uliyatli shaxs sifatida his qiladi.

Zamonaviy ta’limda axloqiy tarbiya o‘z o‘rnini mustahkamlab borayotgan murakkab, ammo zaruriy yo‘nalishdir. Har bir o‘quvchiga individual yondashuv asosida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish – bu faqat tarbiya emas, balki butunlay ongli rivojlanish jarayonidir. O‘qituvchilar bu borada nafaqat bilim beruvchi, balki yo‘l ko‘rsatuvchi, maslahatchi va tarbiyachi sifatida faol bo‘lishlari kerak. Ana shundagina ta’lim haqiqiy ma’noda jamiyat uchun yetuk insonlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning axloqiy tarbiyasini samarali amalga oshirish uchun **individual yondashuv** muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, ularning ehtiyojlari va qadriyat tizimiga mos metodlarni tanlash orqali tarbiyaviy jarayon samaradorligi oshiriladi.

Axloqiy qadriyatlar – bu shunchaki odob-axloq darslarining mazmuni emas, balki har bir o‘quvchining kundalik hayotiga integratsiyalashgan, ongli ravishda qabul qilinadigan ichki mezondir. Qo‘llaniladigan barcha metodikalar esa, ana shu qadriyatlarni o‘quvchi ongiga tabiiy, hayotiy va motivatsion usullar orqali singdirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, individual yondashuv asosida yaratilgan tarbiyaviy metodikalar: har bir o‘quvchining axloqiy o‘sishini ta’minlaydi, shaxsiy mas’uliyat va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi, o‘qituvchi-o‘quvchi o‘rtasida ijobiy, ishonchli munosabatlar o‘rnatadi, ta’limning tarbiya bilan uyg‘unlashuviga erishadi. Bu yondashuv, o‘z navbatida, maktab bitiruvchilarini nafaqat bilimli, balki ma’naviy yetuk, ijtimoiy mas’uliyatli, insoniy fazilatlarga ega shaxslar sifatida voyaga yetkazish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Sharipov Sh. Pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2015.

3. Tohirova G. Tarbiyaning ilmiy asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2021.

4. Abdurahmonova Z. Axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2020.

5. Выготский Л.С. Педагогик психология. – М.: Просвещение, 1983.

SCAMPER TEXNIKASI ORQALI TALABALARNI INTELLEKTUAL-IJODIY RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Aziza KARIMOVA
O'zbek-Fin pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi.
El-manzil: karimovaaziza797@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada SCAMPER texnikasidan foydalangan holda bo'lajak pedagoglarni bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasiga o'rgatish masalalari ko'rib chiqiladi. SCAMPER texnikasining teoretik asoslari, uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati va qo'llanilishi tahlil qilinadi. Maqolada SCAMPER texnikasining bolalar kognitiv rivojlanishiga ta'siri, uni pedagogik ta'limga integratsiya qilish yo'llari va samaradorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: SCAMPER texnikasi, kognitiv rivojlanish, pedagogik ta'lim, metodika, kreativ fikrlash, innovatsion yondashuv.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы обучения будущих педагогов методике развития познавательных способностей детей по методике SCAMPER. Анализируются теоретические основы методики SCAMPER, ее значение и применение в образовательном процессе. В статье освещается влияние методики SCAMPER на познавательное развитие детей, пути и эффективность ее интеграции в педагогическое образование.

Ключевые слова: методика SCAMPER, когнитивное развитие, педагогическое образование, методика, креативное мышление, инновационный подход.

Abstract: This article examines the issues of teaching future educators to the methodology for the development of children's cognitive abilities using the SCAMPER technique. The theoretical foundations of the SCAMPER technique, its importance and application in the educational process are analyzed. The article covers the impact of the SCAMPER technique on children's cognitive development, ways and effectiveness of integrating it into pedagogical education.

Keywords: SCAMPER technique, cognitive development, pedagogical education, methodology, creative thinking, innovative approach.

SCAMPER texnikasi orqali talabalarni intellektual rivojlantirish — bu o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda samarali yondashuvlardan biridir.

SCAMPER — bu inglizcha so‘zlarning bosh harflaridan tashkil topgan qisqartma so’z bo‘lib, quyidagilarni anglatadi:

S — Substitute (Almashtirish)

C — Combine (Birlashtirish)

A — Adapt (Moslashtirish)

M — Modify / Magnify / Minify (O‘zgartirish / Kattalashtirish / Kichiklashtirish)

P — Put to another use (Boshqa maqsadda qo‘llash)

E — Eliminate (Yo‘qotish)

R — Rearrange / Reverse (Qayta tartiblash / Aksincha qilish)

Bu texnika talabalarga mavjud g‘oyalarni qayta ko‘rib chiqish, yangi yondashuvlar ishlab chiqish va muammolarga ijodiy yechimlar topishda yordam beradi.

Talabalarni intellektual rivojlantirishda SCAMPER qo‘llanilishi:

1. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish

SCAMPER yordamida talabalar oddiy muammolarga turli nuqtai nazardan yondashishni o‘rganadilar. Bu ularning divergent fikrlash — ya'ni, bir nechta yechimlarni topish qobiliyatini kuchaytiradi.

2. Tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmasi

Har bir bosqichda talabalar mavjud yechim yoki mahsulotni tahlil qilib, uning kamchiliklari va afzalliklarini aniqlashadi.

3. Yangi g‘oyalar yaratish

Masalan, talabadan “Bu mahsulotni boshqa maqsadda qanday ishlatish mumkin?” deb so‘rash orqali ularni yangi ishlanmalar yaratishga undash mumkin.

4. Guruhli ish va muloqotni rivojlantirish

SCAMPER ko‘pincha guruhda qo‘llaniladi, bu esa talabalar orasida hamkorlik va muloqotni kuchaytiradi.

Amaliy misol:

Muammo: Plastmassa idishlar atrof-muhitga zarar yetkazmoqda.
SCAMPER yondashuvi:

- Substitute: Butilkani qog‘oz yoki boshqa ekologik materialga almashtirish mumkinmi?
- Combine: Qayta ishlash texnologiyasi bilan birlashtirish mumkinmi?
- Adapt: Boshqa sohalardagi ekologik toza mahsulotlardan ilhomlanish.
- Modify: Idish dizaynini o‘zgartirish orqali ko‘p martalik qilish.
- Put to another use: Butilkani gulli idish yoki bezak sifatida ishlatish.
- Eliminate: Umuman butilkani ishlab chiqarishni to‘xtatish.
- Rearrange: Butilkaning tuzilishini qayta ko‘rib chiqish.

SCAMPER orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodlar

1. Guruhli “Aqliy hujum” mashg‘ulotlari

Talabalarga oddiy bir ob’yekt (masalan, ruchka, smartfon, stul) berilib, SCAMPER bosqichlari bo‘yicha savollar bilan ishlash topshiriladi. Bu ularning erkin fikr yuritish va bir-birining g‘oyalarini boyitishiga olib keladi.

2. Muammo yechimini SCAMPER orqali topish

Talabalarga real hayotiy muammo (masalan, plastik ifloslanish, tirbandlik) beriladi va ular SCAMPER yondashuvi orqali yechim variantlarini ishlab chiqadilar.

3. **Yangi mahsulot yarating!**

Talabalarga mavjud ikki mahsulotni olib, SCAMPER asosida ularni o‘zgartirib, yangi mahsulot yaratish topshirig‘i beriladi.

SCAMPER texnikasi orqali talabalarni intellektual rivojlantirish:

- ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi,

- muammolarga kompleks yondashuvni o‘rgatadi,
- o‘z fikrini asoslab berish ko‘nikmasini shakllantiradi.
- talabalarni mustaqil va erkin fikrlashga o‘rgatadi,
- yangi g‘oyalar yaratish jarayonini soddalashtiradi,
- kreativ kompetensiyalarni rivojlantiradi,
- mashg’ulotlarni qiziqarli va interaktiv qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаева Ш.А. Педагогик технологиялар. – Тошкент: Фан, 2022. – 245 б.
2. Eberle, B. SCAMPER: Creative Games and Activities for Imagination Development. – New York: Prufrock Press, 2021. – 198 p.
3. Рахимов Б.Х. Инновацион таълим методлари. – Тошкент: Наврўз, 2023. – 167 б.
4. Ҳасанов Р. Педагогик компетенция асослари. – Тошкент: Фан ва технология, 2022. – 234 б.
5. Williams, F. Creativity Assessment Packet. – Buffalo: DOK Publishers, 2020. – 245 p.

KELAJAK PEDAGOGLARINI RIVOJLANTIRISHDA METODIK TAYYORLIGINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Berdiyorova Orzigul Qirjigit qizi
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Pedagogika kafedrasi assistenti
gmail: Orzugulberdiyorova1230@gmail.com

Annotatsiya:Ushbu maqolada kelajak pedagoglarini tayyorlash jarayonida ularning metodik tayyorgarligini oshirish masalasiga pedagogik va psixologik nuqtai nazardan yondashiladi. Maqolada metodik tayyorgarlik tushunchasi, uning tuzilmasi, shakllanish bosqichlari va zamonaviy talablar asosida rivojlantirish usullari tahlil qilinadi. Psixologik jihatdan esa, pedagog shaxsining kasbiy qobiliyatlari, motivatsiyasi va refleksiv tafakkuri muhim omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Bugungi kunda pedagogika oliy o‘quv yurtida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash amaliyotidagi dolzarb va hal etilmagan muammolar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: metodik tayyorgarlik, pedagogik yondashuv, psixologik xususiyatlar, kasbiy kompetensiya, pedagog shaxsi.

Аннотация: В статье освещены педагогико-психологические особенности развития методической готовности будущих учителей, аспекты педагогической квалификации и психологической подготовки учителей. Также сообщается, что эти характеристики важны для подготовки учителей к эффективной педагогической деятельности и обеспечению качественного образования учащихся. На сегодняшний день выявлены актуальные и

нерешенные проблемы в практике подготовки будущих учителей в педагогическом высшем учебном заведении.

Ключевые слова: Методическая подготовка, педагогические знания и умения, планирование учебного процесса, личностное развитие и рефлексия.

Abstract: Pedagogical-psychological features of development of methodological readiness of future teachers, aspects of pedagogical qualification and psychological preparation of teachers are covered in this article. It is also reported that these characteristics are important in preparing teachers for effective pedagogical activities and providing quality education to students. Today, actual and unsolved problems in the practice of training future teachers at the higher educational institution of pedagogy have been revealed.

Key words: Methodological preparation, pedagogical knowledge and skills, educational process planning, personal development and reflection

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko‘tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. XXI asrda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda asosiy e’tibor o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini, xususan, metodik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilmoqda. Metodik tayyorgarlik bu pedagogning o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, didaktik materiallarni tanlash, dars rejasini ishlab chiqish, interaktiv metodlarni qo‘llash kabi faoliyatlar majmuidir. Kelajak pedagoglari -ya’ni hozirgi pedagogika institutlari va universitetlarida tahsil olayotgan talabalar ertangi ta’lim sifatining poydevorini tashkil etadi. Shunday ekan, ularning metodik tayyorgarligini chuqurlashtirish va zamonaviy talablar asosida rivojlantirish pedagogik-psixologik jihatdan chuqur yondashuvni talab qiladi [1].

Kasbiy tayyorgarlik darajasi muayyan malaka toifasining mavjudligi bilan emas, balki mavjud tajriba va muammoning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amaliy muammolarni hal qilish qobiliyati bilan belgilanadi. Bularning barchasi kompetensiyaga asoslangan yondashuvning asosiy g‘oyalarida o‘z aksini topadi, bu esa o‘z navbatida ta’lim mazmunini standartlashtirishning butun jarayoni uchun asos bo‘lib, o‘rta va oliy ta’limni o‘rganish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratadi.

Oliy pedagogik ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish va uni rivojlantirish, mazkur jarayonga nisbatan tizimli, kompleks yondashuvni taqozo etadi. Bo‘lajak o‘qituvchining chuqur bilimga, samarali faoliyat yurita olish mahoratiga ega bo‘lishi ma’lum fan asoslari borasida unda yetarli nazariy hamda amaliy bilimlarning, ta’lim jarayonida yangiliklardan unumli foydalanish malakasining qanchalik shakllanganligiga bog‘liqdir.Ma’lumki, bugun barcha davlatlar ta’limga imkon qadar ko‘p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investisiyalardir [2].

Bir qator tadqiqotchilar (N.V.Kuzmina, A.A.Derkach, V.V.Laptev va boshqalar) shaxsning real hayotda yuzaga keladigan muammolar va tipik vazifalarni hal qilish qobiliyatini tavsiflovchi aksiologik hodisa sifatida qaralgan “kasbiy kompetensiya” atamasini kiritdilar [3]. Yana bir yondashuv V.A. Slasteninning ilmiy maktabida keltirilgan. Unga ko‘ra o‘qituvchining kasbiy malakasi kasbiy faoliyatdagi muammolarni samarali hal qilish uchun funksional va shaxsiy tayyorlikni aks ettiradi. O‘qituvchining funksional tayyorgarligi deganda o‘zini bilim, ko‘nikma va qobiliyatlar to‘plamiga asoslangan kasbiy faoliyatni amalga oshirishga qodir va tayyor deb hisoblaydigan va ularni amalga oshirishga intiladigan o‘qituvchi shaxsining holati tushuniladi [4].

O‘qituvchining shaxsiy tayyorgarligi - bu uning kasbiy vazifalarni bajarishga bo‘lgan ichki moyilligi, faol va maqsadga muvofiq harakatlarga yo‘naltirilganligi. Ushbu yondashuv, uning maxsus mazmunidan qat’iy nazar, umuman kasbiy kompetentsiyani tushunishga yordam beradi [5].Kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorlikni rivojlantirish vositasi talabalar tomonidan ilmiy va uslubiy bilimlarni o‘zlashtirishdir. Talabalar pedagogika va psixologiya asoslarini, rivojlanish va tarbiya psixologiyasini va umumiy kasbiy davrning boshqa fanlarini o‘rganayotganda ushbu kurslarda ushbu tayyorgarlikning asosi qo‘yiladi. Ushbu asosiy bilimlarni keyingi o‘quv kurslarida qo‘llash, kasb-hunar pedagogik ta’lim bakalavriatlarini tayyorlashning asosiy tarkibiy qismi ularning uslubiy tayyorgarligiga aylanadi, natijada o‘zlashtirilgan uslubiy kompetentsiyalar yig‘indisi hisoblanadi. Ijtimoiy fanlar tizimida *“tayyorlik”* tushunchasining ontologik ifodasini ko‘rib chiqish va umumlashtirishda ushbu tushuncha nazariy va amaliy yondashuvlarning turli ko‘rinishlarida o‘rganilishini hisobga olish kerak. Shunday qilib, tadqiqotchilar bunday turlarni psixologik, axloqiy-psixologik va oddiygina ***“tayyorlik”*** deb hisoblashadi.

Tayyorlik masalasi Slastenin V.A., Kuzmina N.V., Sherbakov A.M. kabi olimlarning pedagogik faoliyatni o‘rganishi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, umuman olganda, turli xil faoliyat turlariga tayyorgarlikni rivojlantirish muammosi bo‘yicha psixologik-pedagogik manbalarda yetarli materiallar yaratilgan. Shu bilan birga, bir qator olimlar insonning turli xil faoliyat turlariga tayyorgarligini rivojlantirish mumkin, deb hisoblashadi. Tayyorlik tuzilishi haqida gapiradigan bo‘lsak, shuni aytishimiz mumkinki, tadqiqotchilar o‘nlab turli xil tarkibiy qismlarni ko‘rib chiqadilar, bu esa ushbu konsepsiyaning aniqligi va ko‘p qirrali xususiyati yo‘qligidan dalolat beradi. Tayyorlik kontseptsiyasini o‘rganishda qo‘llaniladigan yondashuvlar bo‘yicha ilmiy ma‘lumotlarni tahlil qilib, biz asosan ikkita yondashuv qo‘llanilishini aniqladik.

Birinchi yondashuv tayyorlik holatini ma’lum funksional holat (N.D.Levitov, V.S.Nersisyan) yoki psixologik munosabat (D.N.Uznadze) sifatida baholashga asoslanadi. Bu olimlarning fikriga ko‘ra, *tayyorlik* - bu shaxsning faol-samarali holati, muayyan xatti-harakatlarga yo‘naltirilganligi va topshiriqni bajarish uchun kuchlarni safarbar qilishdan boshqa narsa emas. Ikkinchi yondashuv faoliyatga tayyorlikni muayyan harakat obrazining mavjudligini va uni

amalga oshirishga doimiy intilishni nazarda tutuvchi alohida ruhiy holat sifatida belgilaydi (T.B.Rudenko, L.V.Katkova). Tayyorlik muammosi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish ushbu kontseptsiyani qo‘yilgan kasbiy va pedagogik vazifani bajarish uchun kuchlarni safarbar qilishni tavsiflovchi murakkab integrativ shaxsiy sifat sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Kasbiy va pedagogik tayyorgarlikning turli turlarini aniqlash esa turli faoliyat turlari bilan bog‘liq. N.D.Leontev: “Insoniyat madaniyati yutuqlarini o‘zlashtirish uchun har bir yangi avlod ushbu yutuqlar ortida turganlarga o‘xshash faoliyatni amalga oshirishi kerak” [6]. Shuning uchun ham bo‘lajak o‘qituvchini ta’lim faoliyatining asosiy turlariga (o‘quv-uslubiy, tarbiyaviy va ilmiy ishlarga) tayyorlash uchun ularni ushbu faoliyat turlariga imkoni boricha jalb etish zarur.

Bugungi kunda pedagogika oliy o‘quv yurtida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash amaliyotidagi dolzarb va hal etilmagan muammolardan biri bu nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutdir, bu masalani ko‘plab tadqiqotchilar (N.D.Koletvinova, A.A.Margolis, G.I.Sarantsev, T.I.Shukshina, N.O.Yakovleva, K.Smit, V.Shrekenberg va boshqalar) zamonaviy maktabga nazariyotchilar emas, balki amaliyotchilar, o‘qitishning innovatsion uslubi va pedagogik tafakkurga ega bo‘lgan, ijodiy qarorlar qabul qilishga va yangi qadriyatlar yaratishga tayyor bo‘lgan mutaxassislar kerak degan xulosaga kelishgan. Bu muammo, ayniqsa, pedagogik ta’limning tizimlashtiruvchi elementi vazifasini bajaradigan bo‘lajak o‘qituvchilarni metodik tayyorlash jarayonida dolzarbdir. Pedagogik ta’lim bakalavriatlarining hozirgi bakalavrlari asosan pedagogika oliy o‘quv yurtlarida asosiy metodik kurslar mazmuni qisman o‘zgartirilgan, faol va interaktiv shakllar va o‘quv qo‘llanmalar hajmi ko‘payganiga qaramay, asosan bilimga yo‘naltirilgan ta’lim mahsuloti bo‘lib qolmoqda. Uslubiy tayyorgarlik maktab ehtiyojlariga bog‘liq bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarish bo‘yicha muayyan fan yo‘nalishi orqali yangi ta’lim natijalariga erishishga qaratilgan faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga amaliy tayyorgarligini yetarli darajada ta’minlamaydi [7].

Kelajak pedagogida metodik tayyorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari o‘qituvchilarning pedagogik malaka va psixologik tayyorgarlik jihatlarini qamrab oladi. Ushbu xususiyatlar o‘qituvchilarni samarali pedagogik faoliyatga tayyorlashda va o‘quvchilarga sifatli ta’lim berishda muhim ahamiyatga ega. Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz bo‘lajak o‘qituvchilarda metodik tayyorlikni rivojlantirishda bir nechta muhim pedagogik-psixologik xususiyatlarni inobatga olishni tavsiya etamiz:

1. Pedagogik bilim va mahorat

Kelajak pedagogida metodik tayyorlikning pedagogik xususiyatlari o‘qituvchilarni ta’lim metodlari va pedagogik yondashuvlar bo‘yicha yetarli bilim bilan ta’minlashni talab qiladi. O‘qituvchilar turli pedagogik metodlarni tushunishi va ularni ta’lim jarayonida samarali qo‘llay olishi kerak.

2. O‘quv jarayonini rejalashtirish

Metodik tayyorlikni rivojlantirishda o‘qituvchilar o‘quv jarayonini to‘g'ri rejalashtirish qobiliyatiga ega bo‘lishlari kerak. Bu dars rejalari, mavzularni taqsimlash, va ta'lim vositalarini tanlashni o‘z ichiga oladi.

3. O‘quvchilar bilan samarali muloqot

Pedagogik-psixologik xususiyatlar o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan samarali muloqot qila olish qobiliyatiga asoslanadi. Bu faqat darsda emas, balki sinfdan tashqari jarayonlarda ham o‘zaro muloqot qilishni anglatadi.

4. Psixologik barqarorlik va sabr-toqat

Kelajak pedagogida psixologik xususiyatlar psixologik barqarorlik va sabr-toqatni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchilar stressga chidamlilik va sinfda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun etarli darajada sabr-toqatga ega bo‘lishlari kerak.

5. Shaxsiy rivojlanish va refleksiya

O‘qituvchilarning o‘z tajribalarini doimiy ravishda tahlil qilishlari va o‘zlarini rivojlantirishlari metodik tayyorlikning muhim qismi hisoblanadi. Bu refleksiya va o‘z-o‘zini baholash qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi.

6. O‘quvchilarning ehtiyojlarini tushunish

Pedagogik-psixologik xususiyatlar o‘qituvchilarning o‘quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini tushunish qobiliyatini ham qamrab oladi. Bu o‘qituvchilarning turli xil o‘quvchilar bilan ishlash qobiliyatini oshiradi.

7. Innovatsion yondashuvlar va texnologiyadan foydalanish

Kelajak pedagogida innovatsion yondashuvlar va texnologiyadan foydalanish qobiliyati metodik tayyorlikning asosiy qismi hisoblanadi. O‘qituvchilar ta'limda yangi texnologiyalarni qo‘llash va innovatsion metodlarni sinashga tayyor bo‘lishlari kerak.

8. O‘quvchilarga yo‘naltirilgan yondashuv

Metodik tayyorlikni rivojlantirishda o‘qituvchilar o‘quvchilarga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llashlari kerak. Bu har bir o‘quvchining ehtiyojlarini tushunish va ularga moslashishni anglatadi.

Xulosa. Ushbu pedagogik-psixologik xususiyatlar kelajak pedagogida metodik tayyorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘qituvchilarning samarali pedagogik faoliyatga tayyorlanishlarini va o‘quvchilarga sifatli ta’lim berishlarini ta’minlash uchun asosiy elementlardir. Aniqlangan muammoning yechimini bo‘lajak o‘qituvchilarni universitetda o‘qish davrida kasbiy voqelikka singdirish orqali pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalarini metodik tayyorlashga amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirishda ko‘ramiz. Bo‘lajak o‘qituvchilarda metodik tayyorlik darajasi qanchalik yuqori bo‘lishi bevosita ta’lim sifati yuqori bo‘lishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-289-son Qarori https://lex.uz/ru/docs/

2. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. – М.: Высшая школа, 1990. 147 с
3. Сластенин В.А. Педагогика: учебник для студ. высш. учеб. заведений / В.А. Сластенин, И.Ф. Исаев, Е.Н. Шиянов; под ред. В.А. Сластенина. 9-е изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2008. 576 с
4. Abdullaeva M. “Zamonaviy pedagogika asoslari”. Toshkent: Fan, 2022.
5. Sultonova D. “Pedagogik mahorat va metodika asoslari”. Andijon, 2023.
6. Леонтьев А.Н. Избранные психологические произведения: В 2-х т. – М., 1983. 320 с.
7. Тумашева О.В., Берсенева О.В. Учебно-профессиональные задания как инструмент мониторинга методических компетенций будущих учителей // Стандарты и мониторинг в образовании. 2017. Т. 5. № 2. С. 9–16. DOI. org/10.12737/25137
8. www.webofsciense.com

FINTECH TEXNOLOGIYALARINING AN’ANAVIY MOLIYAVIY INSTITUTLARGA INTEGRATSIYASI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi
Elomonov Dadaxon Ozodullayevich

Annotatsiya

Ushbu maqolada fintech (moliyaviy texnologiyalar) sohasining jadal rivojlanishi, uning an’anaviy moliyaviy institutlar, ayniqsa bank tizimi bilan integratsiyalashuvi yoritiladi. Fintech xizmatlarining global tendensiyalari, AQSh, Xitoy, Yevropa Ittifoqi kabi davlatlardagi muvaffaqiyatli modellar, shuningdek O‘zbekistondagi joriy holat va istiqbollar tahlil qilinadi. Raqamli to‘lovlar, onlayn kreditlash, insurtech, blokcheyn texnologiyalarining bank tizimiga integratsiyasi samaradorligi, keltirayotgan foydalari, xavf-xatarlar va ularni tartibga solish muammolari ko‘rib chiqiladi. Ilmiy-nazariy asoslar va real misollar asosida fintech va banklar o‘rtasidagi hamkorlikning ijobiy natijalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: fintech, raqamli bank, integratsiya, blokcheyn, innovatsiya, moliyaviy xizmatlar, regtech, kiberxavfsizlik, O‘zbekiston

Аннотация

В статье рассматривается стремительное развитие финансовых технологий (fintech) и их интеграция с традиционными финансовыми институтами, особенно с банковской системой. Анализируются глобальные тенденции в сфере fintech, включая опыт США, Китая и стран Европейского союза. Отдельное внимание уделено текущему состоянию и перспективам развития fintech в Узбекистане. Рассматриваются преимущества и риски внедрения цифровых платежей, онлайн-кредитования, insurtech и блокчейн-технологий в банковскую систему. Научные подходы и реальные примеры демонстрируют эффективность взаимодействия банков и fintech-компаний.

Ключевые слова: финтех, цифровой банк, интеграция, блокчейн, инновации, финансовые услуги, регтех, кибербезопасность, Узбекистан

Abstract

This article explores the rapid development of financial technologies (fintech) and their integration into traditional financial institutions, particularly the banking sector. It analyzes global fintech trends and successful models from countries such as the United States, China, and the European Union. The current status and future outlook of fintech in Uzbekistan are examined in detail. The paper discusses the benefits and risks of integrating digital payments, online lending, insurtech, and blockchain technologies into banking systems. Based on theoretical approaches and real-world examples, the article highlights the positive outcomes of fintech and bank cooperation.

Keywords: fintech, digital banking, integration, blockchain, innovation, financial services, regtech, cybersecurity, Uzbekistan.

Kirish

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar taraqqiyoti moliyaviy xizmatlar sohasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. An’anaviy moliyaviy institutlar, xususan banklar, o‘z faoliyatlarida zamonaviy texnologiyalarga asoslangan yangicha yondashuvlarni tatbiq etishga majbur bo‘lmoqda. Bu jarayon "fintech" deb ataluvchi moliyaviy texnologiyalar konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi. Fintech – bu raqamli to‘lovlar, mobil banking, blokcheyn, onlayn kreditlash, sug‘urtaning raqamlashtirilgan turlari (insurtech) kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan kompleks texnologik yechimlar yig‘indisidir. Ushbu maqolada fintech texnologiyalarining an’anaviy moliyaviy institutlarga integratsiya bo‘yicha jarayonlari, xorijiy tajriba, O‘zbekistonda mavjud holat, integratsiyaning ustunliklari va muammolari tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

1. Fintech texnologiyalarining tushunchasi va rivojlanish yo‘nalishlari

Fintech (financial technology) atamasi — bu moliyaviy xizmatlarni raqamli texnologiyalar yordamida ko‘rsatish, avtomatlashtirish va soddalashtirishni anglatadi. Fintech xizmatlari an’anaviy moliyaviy institutlar, jumladan banklar, sug‘urta kompaniyalari, investitsiya firmalari faoliyatini tubdan o‘zgartirmoqda. Fintech texnologiyalari bir nechta asosiy yo‘nalishlarda rivojlanmoqda:

- ***Raqamli to‘lov tizimlari:*** Bu tizimlar mijozlarga onlayn va mobil qurilmalar orqali tezkor va xavfsiz to‘lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. PayPal, Stripe, Apple Pay kabi xizmatlar dunyo bo‘ylab keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekistonda esa Payme, Click va Apelsin kabi milliy platformalar bu sohada faoliyat yuritmoqda.
- ***Onlayn kreditlash (lending):*** Fintech kompaniyalari kredit olish jarayonini soddalashtiradi, ko‘pincha an’anaviy banklardan farqli o‘laroq, garovsiz va tezkor kreditlar taklif qiladi. Masalan, LendingClub yoki Kiva kabi platformalar global miqyosda mashhur.

- ***Insurtech:*** Sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish orqali mijozlarga qulayliklar yaratish, risklarni avtomatlashtirilgan usullar bilan tahlil qilish imkonini beradi. Lemonade va Oscar kompaniyalari bu yo‘nalishda ilg‘or hisoblanadi.
- ***Blokcheyn va kriptovalyutalar:*** Blokcheyn texnologiyasi moliyaviy tranzaksiyalarni shaffof va xavfsiz amalga oshirishda asosiy vosita hisoblanadi. Bitcoin, Ethereum kabi kriptovalyutalar va ularning texnologik asoslari moliyaviy institutlarga yangi imkoniyatlar yaratmoqda.
- ***Regtech:*** Regulyatsiyani (tartibga solishni) avtomatlashtirish texnologiyalari moliyaviy institutlarga qonunlarga muvofiqlikni saqlashda yordam beradi. Bu soha ayniqsa moliyaviy xavfsizlik va xatarlarni kamaytirishda muhimdir.

2. Fintech va an’anaviy moliyaviy institutlarning integratsiyasi

An’anaviy moliyaviy institutlar, ayniqsa banklar, fintech texnologiyalarni o‘z tizimlariga integratsiya qilish orqali mijozlarga yanada innovatsion va sifatli xizmat ko‘rsatishga intilmoqda. Ushbu integratsiya ikki tomon uchun ham foydali hisoblanadi:

- ***Banklar uchun:*** yangi texnologiyalar orqali xarajatlarni kamaytirish, xizmat ko‘rsatish tezligini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkoniyati yuzaga keladi. Masalan, raqamli to‘lovlarni qo‘llash orqali naqd pul bilan ishlashdan voz kechilib, operatsiyalar xavfsizligi oshadi.
- ***Fintech kompaniyalari uchun:*** an’anaviy banklarning moliyaviy infratuzilmasidan foydalanish imkoniyati paydo bo‘ladi, bu esa ularga kengroq auditoriyaga xizmat ko‘rsatishga yordam beradi.

Integratsiyaning asosiy shakllaridan biri — banklar va fintech startaplarining hamkorligi yoki bank ichida fintech yechimlarini ishlab chiqishdir. Misol uchun, banklar o‘z mobil ilovalari orqali onlayn kreditlash, to‘lovlarni avtomatlashtirish va investitsiya xizmatlarini taklif qilmoqda.

3. Xorijiy mamlakatlardagi fintech integratsiyasi tajribasi

Fintech texnologiyalarining an’anaviy moliyaviy institutlarga integratsiyasi borasida AQSh, Xitoy va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari yetakchi hisoblanadi.

- **AQSh:** Fintech kompaniyalari moliyaviy bozorlarni raqamlashtirishda asosiy o‘rin tutmoqda. Masalan, PayPal va Square kompaniyalari onlayn to‘lovlar va kichik biznes uchun moliyaviy yechimlarni taklif etadi. AQShda shuningdek, regtech sohasi rivojlangan bo‘lib, moliyaviy institutlar uchun regulyatsiya jarayonlarini avtomatlashtirish tizimlari keng joriy qilingan.
- **Xitoy:** Bu mamlakatda fintech juda tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Alipay va WeChat Pay orqali xalqaro miqyosda naqd pulsiz to‘lovlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tizimlar iqtisodiyotning dematerializatsiyasiga olib keldi, aholining moliyaviy faoliyati butunlay raqamli platformalarga ko‘chdi.
- **Yevropa Ittifoqi:** PSD2 direktivasi (Payment Services Directive 2) moliyaviy ma’lumotlarga kirishni fintech kompaniyalariga ruxsat berish orqali “ochiq bank” tizimini yaratdi. Bu fintech va an’anaviy banklarning hamkorligini kuchaytirdi va yangi innovatsion xizmatlarning paydo bo‘lishini rag‘batlantirdi.

4. O‘zbekiston sharoitida fintech integratsiyasi va mavjud muammolar

O‘zbekistonda fintech sohasi yaqinda shakllanmoqda va uning rivojlanishida quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

- ***Raqamli to‘lov tizimlarining kengayishi:*** Payme, Click, Apelsin kabi milliy platformalar mamlakatda ommalashmoqda, ular ko‘plab to‘lovlarni tez va qulay amalga oshirish imkonini bermoqda.
- ***Banklarning raqamlashtirilishi*:** Ko‘plab banklar o‘zining mobil ilovalari orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatmoqda, jumladan onlayn kreditlash, hisob-kitoblar, investitsiya xizmatlari.
- ***Qonunchilik va regulyatorlik:*** Hozirda fintech xizmatlari uchun to‘liq va aniq qonunchilik bazasi shakllantirilmoqda, bu esa xizmatlar xavfsizligi va shaffofligini ta’minlashga qaratilgan.

Biroq, rivojlanish jarayonida bir qator muammolar ham mavjud:

- **Kiberxavfsizlik:** Raqamli platformalar orqali ma’lumotlar o‘g‘irlanishi va kiberhujumlar xavfi yuqori bo‘lib qolmoqda.
- **Moliyaviy savodxonlikning pastligi:** Aholining moliyaviy texnologiyalarni to‘liq tushunmasligi va ulardan to‘g‘ri foydalanmasligi muammolarga sabab bo‘ladi.
- **Texnologik infratuzilmaning zaifligi:** Ba’zi hududlarda yuqori sifatli internet va zamonaviy texnologiyalarga kirish cheklangan.

5. Integratsiya jarayonining afzalliklari va istiqbollari

Fintech texnologiyalarini an’anaviy moliyaviy institutlarga integratsiya qilish natijasida quyidagi ijobiy o‘zgarishlar yuz beradi: Moliyaviy xizmatlarning tezligi va sifati oshadi; Xizmatlar arzonlashadi, xarajatlar kamayadi; Mijozlarga qulaylik yaratiladi, masofadan turib moliyaviy operatsiyalarni bajarish imkoniyati kengayadi; Yangi xizmat turlari va mahsulotlar paydo bo‘ladi, masalan, shaxsiy moliya boshqaruvi va investitsiya platformalari; Iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, integratsiya jarayonida yuzaga keladigan xavfsizlik, regulyatorlik va texnologik muammolarni hal qilish uchun davlat organlari, moliyaviy institutlar va fintech kompaniyalari o‘rtasida samarali hamkorlik o‘rnatish zarur.

XULOSA

Bugungi kunda fintech texnologiyalari moliyaviy xizmatlar sohasida inqilobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. An’anaviy moliyaviy institutlar, xususan banklar, raqamli yechimlarni o‘z faoliyatlariga integratsiya qilish orqali xizmatlar sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojlarini yanada to‘liq qondirish va raqobatbardoshlikni ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Xorijiy mamlakatlarda fintechning muvaffaqiyatli integratsiyasi moliyaviy tizimning shaffofligi, xavfsizligi va innovatsion xizmatlar ko‘lami kengayishiga olib kelgan.

O‘zbekistonda fintech texnologiyalarini joriy etish jarayoni faqat boshlang‘ich bosqichda bo‘lsa-da, raqamli to‘lov tizimlari va onlayn moliyaviy xizmatlarning ommalashuvi bu yo‘nalishda ijobiy tendensiyalarni ko‘rsatmoqda. Biroq, qonunchilik bazasining to‘liq shakllanmasligi, kiberxavfsizlik muammolari va

aholining moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi kabi to‘siqlar hali ham mavjud.

Kelajakda fintech va an’anaviy moliyaviy institutlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, regulyatorlik mexanizmlarini takomillashtirish va texnologik infratuzilmani yaxshilash orqali O‘zbekistonda raqamli moliya tizimining rivojlanishini tezlashtirish mumkin. Shu tariqa, fintech integratsiyasi nafaqat moliyaviy xizmatlarning sifatini oshiradi, balki iqtisodiy o‘sishga ham sezilarli hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Arner, D. W., Barberis, J., & Buckley, R. P. (2016). *The Evolution of Fintech: A New Post-Crisis Paradigm?* Georgetown Journal of International Law, 47(4), 1271–1319.
2. Gomber, P., Koch, J.-A., & Siering, M. (2017). *Digital Finance and FinTech: Current Research and Future Research Directions.* Journal of Business Economics, 87, 537–580.
3. Frost, J., Gambacorta, L., Huang, Y., Shin, H. S., & Zbinden, P. (2019). *BigTech and the Changing Structure of Financial Intermediation.* BIS Working Papers No 779.
4. Ozili, P. K. (2018). *Impact of digital finance on financial inclusion and stability.* Borsa Istanbul Review, 18(4), 329–340.
5. Zetzsche, D. A., Buckley, R. P., Arner, D. W., & Barberis, J. N. (2020). *Regulating fintech: Lessons from the new wave of digital finance.* Fordham Journal of Corporate & Financial Law, 25(1), 31–102.
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti: https://www.cbu.uz — Fintech va raqamli moliyaviy xizmatlar bo‘yicha ma’lumotlar.
7. World Bank Group. (2021). *Fintech and the Future of Finance: Opportunities and Challenges for Emerging Markets.* Washington, DC: World Bank Publications.
8. PwC. (2020). *Global FinTech Report 2020.* PricewaterhouseCoopers.
9. Chen, M. A., Wu, Q., & Yang, B. (2019). *How Valuable Is FinTech Innovation?* The Review of Financial Studies, 32(5), 2062–2106.
10. Bank for International Settlements (BIS). (2021). *Innovation in payments: The rise of fintech and digital currencies.* BIS Quarterly Review.

IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI PEDAGOGIK MEXANIZMLARNING TURLARI

Hamzayeva Nigina Azamjonovna
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti doktoranti
shokhrukh.ravshanov717@gmail.com
+998979319900

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik-psixologik ko‘nikmalar va mexanizmlarning asosiy turlari tahlil qilinadi. Jumladan, motivatsion, didaktik, tarbiyaviy, psixologik-pedagogik, axborot-kommunikatsion, innovatsion va reflektiv mexanizmlar o‘quv jarayonida ijodiy fikrlashni shakllantirishda muhim omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Ushbu mexanizmlar kelajakdagi pedagogik faoliyatda ijodkor shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilgan amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ijodiy qobiliyat, pedagogik mexanizm, motivatsiya, didaktika, innovatsion texnologiya, refleksiya, interaktiv metodlar, ijodiy tafakkur, shaxsiy rivojlanish

Jahon miqyosida kechayotgan yangilanish va o‘zgarishlar jarayoni sharoitida ijtimoiy muhitning tezkor sur’atlarda o‘zgarib borishi ta’lim sohasida ham yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Xususan, bugungi kunda dunyo bo‘ylab erkin fikrlash qobiliyatiga ega, yangicha sharoitlarga tezda moslasha biladigan, atrof-muhitga faol ta’sir ko‘rsata oladigan, moslashuvchan va ijodiy fikrlovchi pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortib bormoqda. Shu munosabat bilan pedagog shaxsining yangilikka intilishi, ijodkorlikka yo‘naltirilgan faoliyati va dolzarb muammo hamda vazifalarni samarali hal etishga bo‘lgan ichki motivatsiyasi ta’lim tizimi taraqqiyoti uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchining ijodiy qobiliyati — bu shaxsning o‘z bilim va ko‘nikmalarini pedagogik va boshqa ijodiy vazifalarni hal qilishda maksimal darajada qo‘llay olish qobiliyati bo‘lib, bu orqali nafaqat jarayon, balki uning natijasi ham takomillashadi. Ijodiy qobiliyatning rivojlanishi nafaqat noodatiy qarorlar qabul qilish, mustaqil axborot izlash va uni qayta ishlash qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, balki shaxsning ma’naviy sohasiga ham ta’sir qiladi.

D.B. Bogoyavlenskaya va A.M. Matyushkin fikriga ko‘ra, ijod — mavjud vaziyat yoki bilim doirasidan chiqish bo‘lib, bu muammoni original, shaxsiy ma’no bilan boyitilgan tarzda qo‘yishda namoyon bo‘ladi [1].

N.E. Vorobyev esa ijodiy qobiliyatni shaxsning integrativ sifati deb belgilaydi, u quyidagi ikki komponentni o‘z ichiga oladi: ijodiy faoliyatga intilish (motivatsion komponent) va mustaqil ijodiy faoliyat yuritish qobiliyati (operatsion komponent) [3].

O‘qituvchining ijodiy salohiyatini rivojlantirish masalasi ayniqsa ijodiy qobiliyatga ega bolalar bilan ishlash jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Mustaqil izlanish va noan'anaviy yechimlar topish uchun imkoniyat bo‘lmasa, o‘quv jarayoni o‘z jozibasini yo‘qotadi. Sababi, bu holda o‘quv faoliyati qat’iy namunaga asoslangan, yagona to‘g‘ri yechimga ega bo‘lgan mexanik topshiriqlar bajarilishiga aylanib qoladi.

Pedagogik faoliyatning markazida pedagogik qarorlarni qabul qilish jarayoni turadi. Bu jarayonda o‘qituvchining intellektual, emotsional va ijodiy qobiliyatlari bir butun sifatida namoyon bo‘ladi. Qarorlar tahlili, qabul qilinadi va amalga oshiriladi — aynan shular orqali o‘qituvchining amaliy tafakkur kuchi va pedagogik mahoratining o‘ziga xosligini baholash mumkin. Ushbu jihatni o‘qituvchining yangicha yondashuvi, original fikrlashi, ijodiy yondashuvi bo‘lmasdan tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun o‘qituvchining tafakkur “mahsullari”ni uning ijodiy salohiyati bilan bog‘liq holda ko‘rish lozim. B.M. Teplov ijodiy yondashuvning ajralmas elementi sifatida faoliyat usullarini tez va erkin o‘zgartira olish, shuningdek, qabul qilingan qarorlarni qat’iyat bilan himoya qila olish qobiliyatini ko‘rsatgan [10].

A.X. Maslou nuqtai nazaridan, ijodiy qobiliyat manbalari oliy tartibdagi ehtiyojlardan iborat bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. **Atrof-muhitni anglashga bo‘lgan ehtiyoj** – yangilikka intilish, hayotga qiziqish va taassurotlarning yangiligi ijodiy izlanishga asos bo‘lib, ijodiy jarayonga yo‘nalish beradi.
2. **Muloqotga bo‘lgan ehtiyoj**, u bir tomondan taqlid qilish, ikkinchi tomondan esa o‘zini ifoda etish ehtiyoji sifatida namoyon bo‘ladi. Taqlid va o‘zini ifoda qilishning uyg‘unligi ijodiy faoliyatning doimiy harakatlantiruvchi omillari hisoblanadi.
3. **O‘zini hurmat qilishga bo‘lgan ehtiyoj**, faqat insonga xos bo‘lib, oliy tartibdagi ehtiyojlar toifasiga kiradi. Bu ehtiyoj ijtimoiy mazmunga ega bo‘lib, shaxsning jamiyatda o‘zini namoyon etish istagiga asoslangan. Bu esa o‘z navbatida ijodiy faoliyatning muhim rag‘batlantiruvchi omili hisoblanadi.
4. **Organizmda mavjud imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish ehtiyoji**. Bu ehtiyojni bolada o‘yin orqali, kattada esa mavjud qobiliyatlarni, jumladan ijodiy qobiliyatlarni ham amalga oshirish istagida ko‘rish mumkin.
5. **O‘zini aktuallashtirish ehtiyoji** – gumanistik psixologiya vakillari buni shaxsning haqiqiy, mustaqil ravishda tanlangan rivojlanish jarayoni sifatida ta’riflaydilar [7].

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish natijasida ma’lum bo‘ldiki, ijodiy qobiliyat shaxsni shakllantirish muammolari olimlar tomonidan quyidagi jihatlardan o‘rganilgan: shaxsni ijodiy faollikga jalb etish mexanizmlarini izlash; shaxs, xususan, o‘qituvchi faolligining mohiyatini aniqlash; ijodiy qobiliyatni rivojlantiruvchi usul va vositalarni asoslash va qo‘llash (1-jadval).

1-jadval.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlar

№	Mexanizm turi	Mazmuni / tavsifi	Vositalar (misol)
1	**Motivatsion mexanizmlar**	Talabani ijodga qiziqtirish va ichki rag‘batni kuchaytirish	Rag‘batlantirish, tanlovlar, mashhur ijodkorlar faoliyatini o‘rganish
2	**Didaktik (ta’limiy) mexanizmlar**	O‘quv jarayonida ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish	Muammoli o‘qitish, loyihalar, interaktiv metodlar (aqliy hujum, klaster va h.k.)
3	**Tarbiyaviy mexanizmlar**	Estetik, axloqiy va madaniy dunyoqarashni shakllantirish	Estetik tarbiya, madaniyatlararo muloqot, san’at va adabiyot orqali tarbiya
4	**Psixologik-pedagogik mexanizmlar**	Shaxsiy psixologik holatni hisobga olgan holda ijodni qo‘llab-quvvatlash	Ijodiy muhit, stressni kamaytirish, o‘zini baholash, relaksatsiya usullari
5	**Axborot-kommunikatsion mexanizmlar**	Texnologiyalar orqali ijodiy fikrlashga yo‘l ochish	Onlayn platformalar, multimedia vositalari
6	**Innovatsion texnologiyalar**	Zamonaviy ta’lim texnologiyalari orqali ijodiy salohiyatni rivojlantirish	STEAM, dizayn o‘ylash, flipped classroom, tanqidiy fikrlash metodlari
7	**Reflektiv mexanizmlar**	Shaxsiy tajriba ustida fikr yuritish orqali ijodiy o‘sishni ta’minlash	Portfolio, refleksiya kundaliklari

Shuni ta’kidlash joizki, turli xil metod va uslublarning qo‘llanilishi – aynan ushbu muammoni hal etishga qaratilgan faoliyat samaradorligini oshiradi. Bu esa professional muhitda, xususan, pedagoglar malakasini oshirishga ixtisoslashgan muassasalarda muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Xulosa. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ta’lim jarayonining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu yo‘lda turli pedagogik mexanizmlar — motivatsion, didaktik, tarbiyaviy, innovatsion va reflektiv yondashuvlar o‘zaro uzviy bog‘liq holda qo‘llanilishi lozim. Har bir mexanizmning to‘g‘ri va maqsadga muvofiq tatbiq etilishi o‘quvchilar va talabalar ijodkorligini rivojlantirishda, ularning mustaqil fikrlashi va yangicha qarashlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta’lim ijodiy shaxsni tarbiyalashning asosiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей : учебное пособие для студ. вузов. – М. : Изд. центр «Академия», 2002. – 320 с. - ISBN 5-7695-0888-4.
2. Губина М.В. Методы и приёмы развития творческой активности учителя // Современные проблемы науки и образования. 2013. № 6.
3. Воробьёв Н.Е. Развитие творческой активности студентов при изучении дисциплин гуманитарного цикла : монография / Н.Е. Воробьёв, Э.Ю. Мизюрова. – Волгоград : Перемена, 2001. – 184 с.
4. Галацкова И.А. Одарённый ребёнок: психолого-педагогические основы выявления и развития : учебно-методическое пособие / И.А. Галацкова, Е.Ю. Журбенко, М.И. Лукьянова, Л.И. Пентехина, Т.Б. Табарданова. – Ульяновск : УИПКПРО, 2011. – 146 с. - ISBN 978-5- 9795-0850-4.
5. Кашапов М.М. Психология профессионального педагогического мышления : учеб. пособие. – М. : Изд-во «Институт психологии РАН», 2003. – 398 с. - ISBN 5-9292-0161-7.
6. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии. – Рига : НПЦ «Эксперимент», 1995. – 176 с. - ISBN 5-87474-011-2.
7. Маслоу А. Самоактуализация / Психология личности. Тесты. – М. : Изд-во МГУ, 1982. – 287 с.
8. Сластенин В.А. и др. Педагогика : учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В.А. Сластенин, И.Ф. Исаев, Е.Н. Шиянов; под ред. В.А. Сластенина. - М. : Издательский центр «Академия», 2002. - 576 с. - ISBN 5-7695-0878-7.
9. Сластенин В.А. Педагогика. Инновационная деятельность / В.А. Сластенин, Л.С. Подымова. – Магистр, 1997. – 223 с.
10. Теплов Б.М. Избранные труды. В 2-х т. - М., 1985. - Т. 1. - 328 с.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING SUBYEKTIV POZITSIYASI

Ilmurodov Samadjon Xolberdiyevich
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand Davlat universiteti,
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim
fakultetining fakultetlararo
Pedagogika kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
Tel: +998 94 240 17 03
e-pochta: I.Samad@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchining subyektiv pozitsiyasining mazmun-mohiyati, uni rivojlantirish yo‘llari atroflicha yoritilgan. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining subyektivligi bo‘yicha adabiyotlar tahlili, tadqiqotchilarning fikrlari tahlili keltirilgan. Subyektiv pozitsiya bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchining nisbatan qat’iy tuzilishiga ega bo‘lgan, ammo uning o‘zgaruvcanligini istisno qilmaydigan, rivojlanish imkoniyatlari ekanligi aytib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *subyekt, subyektivlik, o‘qituvchi pozitsiyasi, o‘qituvchining faoliyati, o‘qituvchi maqsadi.*

Annotation: This article covers the essence of the professional-subjective position of the teacher and the ways of its development. The literature review on the professional-subjectivity of the teacher, the analysis of the researchers' opinions are presented. It has been mentioned that the professional-subjective position is a developmental opportunity that has a relatively rigid structure of the teacher, but does not exclude its variability.

Keywords: subjectivity, subjectivity, teacher position, teacher's activity, teacher goal.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchining subyektiv pozitsiyasining mohiyati va uni rivojlantirish yo‘llari masalasi unining subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish muammosiga yondashuvni belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘qituvchining umumiy hayotga, xususan, kasbiy faoliyatiga aloqalari va munosabatlari tizimida subyektivlik muhim sanaladi.

Bizning fikrimizcha, o‘qituvchining kasbiy pozitsiyasining subyektivligi o‘quvchilar bilan munosabatlarning tabiatini, uning qadriyatlari, idrokini belgilaydi. O‘z kasbining subyekti sifatida hayotiy faoliyat, o‘z kasbiy faoliyatiga, o‘ziga bo‘lgan munosabati kasbiy pozitsiyasida aks etadi. V.N.Volkovaning fikricha subyektivlik, birinchi navbatda, “dunyoda, boshqalarga o‘zaro bog‘liq o‘zgarishlarni keltirib chiqaradigan shaxs” mulki sifatida tushuniladi. Bu insonning aktyor sifatida o‘ziga bo‘lgan munosabati asoslanadi[6]. Kasbiy-subyektiv pozitsiya o‘qituvchining nisbatan qat’iy tuzilishiga ega bo‘lgan, ammo uning o‘zgaruvchanligini istisno qilmaydigan, rivojlanish imkoniyatlari hisoblanadi.

O‘qituvchining subyektivligi bir vaqtning o‘zida ancha barqaror va moslashuvchan bo‘ladi. Barqarorlik xususiyati o‘quv faoliyatini qayta tashkil etish zarurati tug‘ilganda pedagogik yo‘nalishni saqlanib qolishi va shu bilan birga yangi shaxsiy shakllanishlar paydo bo‘lganda qo‘shimchalar, yangiliklar qo‘shish yoki tuzatish imkoniyatini beradi.

Subyektivlikning boshlang‘ich xususiyati faoliyat hisoblanadi. Avvalo, faoliyat insonning atrofdagi haqiqatlarni ongli va maqsadli ravishda o‘zgartirish qobiliyatini anglatadi. Faoliyat bu subyektning o‘z chegarasidan tashqariga chiqish, faoliyat doirasini kengaytirish, harakat qilish istagidir. Subyektning ongi vaziyatga to‘g‘ri moslashish ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq. Pedagogik

[6] Волкова В.Н. Субъектность педагога: теория и практика: Автореферат дис. … д-ра. пед. наук. – М., 1998. – 50 с.

jarayondagi subyektning faolligi shaxsning integratsiyaviy xususiyati sifatida asoslanadi, bu o‘z-o‘zidan yo‘naltirilgan motivatsiya bilan belgilanadigan faoliyatda maqsad qo‘yish, berilgan vaziyatdan tashqariga chiqadigan yangi vazifalarni ilgari surishga, faol va tanqidiy yondashishga, faoliyat natijalarini ijodiy va o‘zgaruvchan bashorat qilish imkonini beradi.

Subyektivlikning keyingi xususiyati maqsad bo‘lib, bu orqali hali bo‘lmagan natijani modellashtirish jarayoni nazarda tutilib, psixikada ko‘pincha tasvir, kelajakdagi mahsulotning aqliy modeli, sifat va miqdoriy xususiyatlari taqdim etiladi. Maqsadni belgilash kognitiv jarayon bo‘lib rag‘batlantirish, nazoratni amalga oshirish funksiyalarini o‘zida jamlaydi. Maqsadni belgilash diagnostika, prognoz va dizayn, birgalikdagi faoliyat maqsadini tushunish va aniqlashni ta’minlash, rejalashtirilgan maqsadlarni amalga oshirishda obyektiv imkoniyatlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Pedagogik rivojlanish jarayonida o‘zlashtirilgan maqsad, uni amalga oshirish yo‘llari va vositalarini tanlash erkinligi subyektivlikning navbatdagi xususiyatidir.

Erkinlik - bu, birinchi navbatda, subyektning to‘siqlarni yengib o‘tishi, harakat qilish qobiliyati, mavjud stereotiplar, qoliplardan tashqariga chiqish va shu bilan birga o‘zi va boshqalar oldidagi mas’uliyatni anglash qobiliyatidir. Natijada o‘qituvchi vaziyatni va o‘zini maqsadiga qarab o‘zgartiradi. Erkin shaxs motivlar, maqsadlar, xatti-harakatlar uslubi va faoliyat vositalarini tanlashda suverendir va shu bilan birga qabul qilingan qarorlar uchun javobgardir.

O‘qituvchining subyektivligining yana bir xususiyati mas’uliyatdir. Mas’uliyat shaxsning pozitsiyasidan kelib chiqadi, chunki shaxsning motivlari, ehtiyojlari va maqsadlari bilan belgilanadi. Mas’uliyat o‘qituvchi tomonidan o‘z subyektivligining namoyon bo‘lish shaklini ifodalaydi.

O‘qituvchi subyektivlining asosiy xarakteristikasi – o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘z-o‘zini shaxs sifatida qurish zaruratidir. O‘z-o‘zini rivojlantirish - bu faol, izchil, progressiv va umuman qaytarib bo‘lmaydigan jarayon shaxsning psixologik holatidagi sifat o‘zgarishidir.

L.M.Mitsina o‘qituvchining professional o‘z-o‘zini rivojlantirishini “o‘z maqsadlarini anglash bilan bog‘liq bo‘lgan qiymat yo‘nalishlarining umumiy tizimiga mos keladigan o‘zini o‘zi anglashning yaxlit qiyofasi bilan belgilanadigan kasbiy faoliyat va ularga konstruktiv erishish uchun zarur bo‘lgan vositalar”[7] sifatida izohlaydi.

L.I.Bojovich o‘qituvchining pozitsiyasini ma’lum bir munosabat, qiziqish va intilishlar yo‘nalishi, hayotda va ishda o‘z o‘rnini topish zarurati deb hisoblaydi[8].

V.N.Myasishev o‘qituvchining pozitsiyasini integratsiya sifatida belgilaydi[9]. B.F.Lomov o‘qituvchi mavqeini uni o‘rab turgan obyektiv voqelikdagi shaxs munosabati kontekstida ko‘rib chiqadi[10].

[7] Митица Л.М. Формирование профессионального самосознания учителя // Вопросы психологии. – 1990. – № 3. – С. 58–64.

[8] Божович, Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте / Л. И. Божович. – СПб. : Питер, 2008. – 400 с.

[9] Мясищев, В. Н. Психология отношений / В. Н. Мясищев ; под ред. А. А. Бодалева. – М. : Ин-т практ. психологии ; Воронеж : МОДЭК, 1998. – 362 с

Demak, o‘qituvchi pozitsiyasini dunyoqarashning ma’lum bir qiyofasi, munosabatlar tizimi, ijtimoiy munosabatlarga qarab shaxsning xulq-atvor strategiyasi sifatida izohlash mumkin. Subyektivlik va pozitsiya bir-biri bilan chambarchas bog‘liq hodisalardir. Ular dunyoqarash va qadriyatlarning ma’lum bir tizimiga asoslangan munosabatlar, yutuqlar va shaxsiy munosabatlarni belgilaydi.

I.Y.Kuznetsova o‘qituvchining subyektiv pozitsiyasi tarkibiga motivatsion-qiymatli, tartibga soluvchi-faoliyat va refleksiv-baholovchi komponentlar kiradi deb izohlaydi[11].

Shunday qilib, o‘qituvchining subyektivlik pozitsiyasi voqelikni o‘zlashtirish va o‘zgartirishga qodir bo‘lgan faol, mustaqil, tashabbuskor faoliyatining muayyan natijasiga e’tiborini qaratish jarayoni hisoblanadi.

O‘qituvchining subyektiv pozitsiyasi - bu o‘quvchi va o‘zi, o‘z faoliyati, ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari va turli xil pedagogik obyektlar o‘rtasidagi muvozanatli munosabatlar tizimiga asoslangan murakkab ichki shakllanish va unga faol, mas’uliyatli, ongli va hissiy jihatdan barqaror bo‘lishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘qituvchining subyektiv pozitsiyasi ko‘plab tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan va ma’lum ijtimoiy va psixologik qonuniyatlarga muvofiq rivojlanadigan murakkab jarayon degan xulosaga kelishimiz mumkin. O‘qituvchining subyektiv pozitsiyasi tug‘ma emas u inson hayoti jarayonida qo‘lga kiritiladi va rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Волкова В.Н. Субъектность педагога: теория и практика: Автореферат дис. … д-ра. пед. наук. – М., 1998. – 50 с.
2. Митица Л.М. Формирование профессионального самосознания учителя // Вопросы психологии. – 1990. – № 3. – С. 58–64.
3. Божович, Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте / Л. И. Божович. – СПб. : Питер, 2008. – 400 с.
4. Мясищев, В. Н. Психология отношений / В. Н. Мясищев ; под ред. А. А. Бодалева. – М. : Ин-т практ. психологии ; Воронеж : МОДЭК, 1998. – 362 с
5. Ломов, Б. Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии / Б. Ф. Ломов ; Рос. акад. наук. Ин-т психологии. – М. : Наука, 1999. – 349 с.

[10] Ломов, Б. Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии / Б. Ф. Ломов ; Рос. акад. наук. Ин-т психологии. – М. : Наука, 1999. – 349 с.

[11]

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA OLIY HARBIY TA’LIM MUASSASALARI KURSANTLARINI MILLIY RUHDA TARBIYALASHDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI

Ismailov Dosbol Tileuberdiyevich
Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti Taktika kafedrasi sikl boshlig‘i, dotsent, podpolkovnik

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy harbiy ta’lim muassasalarida kursantlarni milliy ruhda tarbiyalash jarayonida integrativ yondashuv va sun’iy intellektning o‘rni yoritilgan. Sun’iy intellekt yordamida shaxsiylashtirilgan ta’lim dasturlari, virtual simulyatorlar, axborot xavfsizligini ta’minlash hamda milliy qadriyatlarni singdirish kabi yo‘nalishlar rivojlantirilishi mumkinligi misollar bilan tushuntirilgan. Maqolada sun’iy intellekt va zamonaviy texnologiyalarning harbiy ta’lim jarayonini takomillashtirishga qanday hissa qo‘shishi muhokama qilinib, kursantlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlar tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: integrativ yondashuv, sun’iy intellekt, harbiy ta’lim, milliy ruh, vatanparvarlik tarbiyasi, axborot xavfsizligi, innovatsion texnologiyalar, kursant.

Zamonaviy harbiy ta’lim tizimida kursantlarni milliy ruhda tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun integrativ yondashuvdan foydalanish samarali usullardan biri bo‘lib, u turli fanlar va texnologiyalarni uyg‘unlashtirib, ta’lim jarayonini takomillashtirish imkonini beradi. Bugungi kunda sun’iy intellekt (SI) ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib, kursantlarning bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish, ularning vatanparvarlik ruhini mustahkamlashda muhim o‘rin tutmoqda.

Integrativ yondashuv – bu turli bilim sohalarini birlashtirib, ta’lim jarayonini yaxlit bir tizim sifatida tashkil etish metodidir. Harbiy ta’limda bu yondashuv kursantlarni nafaqat nazariy bilim bilan ta’minlash, balki ularning harbiy amaliyotga tayyorgarligini oshirishga qaratilgan. Integrativ yondashuv yordamida an’anaviy va zamonaviy ta’lim usullari birlashtirilib, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Harbiy ta’limda integrativ yondashuv quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

An’anaviy harbiy ta’lim usullarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish, masalan, harbiy tarix va strategiyani o‘rgatishda virtual simulyatorlardan foydalanish yoki jangovar taktikalarni mustahkamlash uchun sun’iy intellekt asosida ishlaydigan interaktiv mashg‘ulotlarni qo‘llash.

Milliy qadriyatlar asosida vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish, masalan, kursantlarga Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk sarkardalarning jasorati va harbiy strategiyalari haqida maxsus darslar o‘tish,

harbiy marosim va tadbirlarda milliy kuy-qo‘shiqlarni ijro etish yoki tarixiy jangovar texnikalar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish.

Sun’iy intellekt va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim jarayonini takomillashtirish, masalan, kursantlar uchun avtomatlashtirilgan test tizimlarini joriy etish, sun’iy intellekt yordamida harbiy taktika bo‘yicha interaktiv treninglar tashkil etish yoki virtual reallik simulyatorlari orqali jangovar vaziyatlarni o‘rganish.

Milliy ruhda tarbiyalashning kursantlar uchun ahamiyati

Milliy ruhda tarbiyalash kursantlar uchun vatanparvarlik, fidoyilik, jasorat va mas’uliyat hissini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Harbiy ta’lim muassasalarida milliy ruhda tarbiyalash quyidagi jihatlar bilan bog‘liq:

Kursantlarga milliy g‘oya va qadriyatlarni singdirish, masalan, ular uchun maxsus vatanparvarlik darslarini tashkil etish, harbiy kiyim va atributlardan foydalanish orqali milliylikni targ‘ib qilish, tarixiy shaxslar hayoti va ularning qahramonliklari bo‘yicha seminarlar o‘tkazish, shuningdek, milliy bayramlar va harbiy tadbirlarni tantanali nishonlash orqali ularning milliy g‘ururini oshirish.

Tarixiy qahramonlarimiz, buyuk sarkardalar hayoti va faoliyati haqida bilim berish, masalan, kursantlarga Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk sarkardalarning jangovar strategiyalari, shijoati va harbiy taktikalarini o‘rgatish, ularning hayoti asosida maxsus motivatsion darslar tashkil etish. Shuningdek, harbiy simulyatsiyalar orqali o‘tmishdagi janglarni qayta tiklash va tarixiy shaxslarning qarorlarini tahlil qilish orqali kursantlarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Harbiy an’analarni saqlash va mustahkamlash, masalan, Vatanga qasamyod marosimlarini muntazam o‘tkazish, milliy va tarixiy harbiy liboslar asosida tadbirlar tashkil qilish, jangovar shon-sharaf muzeylariga ekskursiyalar uyushtirish va harbiy merosni targ‘ib etuvchi maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish.

Kursantlarni mustahkam irodali, jismonan va ruhan baquvvat yetuk kadr sifatida tarbiyalash, masalan, muntazam jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari, jangovar texnika va qurollardan foydalanish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar, stressga bardoshli bo‘lish uchun psixologik tayyorgarlik dasturlarini amalga oshirish hamda harbiy hayotga moslashtirish uchun dala-o‘quv yig‘inlarini tashkil etish.

Ushbu tamoyillar asosida ta’lim olgan kursantlar kelajakda harbiy xizmatda yuksak ma’naviyat va mas’uliyat bilan xizmat qilishlari mumkin.

Sun’iy intellektning ta’lim va tarbiya jarayonidagi roli

Sun’iy intellekt harbiy ta’lim tizimida innovatsion o‘zgarishlarni amalga oshirishga yordam bermoqda. SI yordamida harbiy ta’lim jarayoniga ***quyidagi jihatlar kiritilishi mumkin:***

Shaxsiylashtirilgan ta’lim dasturlari. Sun’iy intellekt kursantlarning bilim darajasini tahlil qilib, ularga individual ta’lim dasturlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Har bir kursantning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, ularga mos ta’lim metodikasi taklif etiladi. Masalan, sun’iy intellekt kursantning qiyinchiliklarga

duch kelayotgan mavzularini aniqlab, shu bo‘yicha qo‘shimcha interaktiv darsliklar, video qo‘llanmalar va virtual laboratoriyalarni tavsiya qilishi mumkin. Bundan tashqari, harbiy mashg‘ulotlar davomida kursantlarning harakatlarini tahlil qilib, ularning taktik xatolarini aniqlash va individual tavsiyalar berish orqali harbiy strategiyalarni yanada mukammallashtirishga yordam beradi.

Virtual simulyatorlar va interaktiv o‘quv platformalar. Sun’iy intellekt asosida yaratilgan virtual simulyatorlar kursantlarga real jangovar holatlarni o‘rganish, harbiy texnikalar bilan ishlash va strategik qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Masalan, kursantlar maxsus virtual reallik ko‘zoynaklari orqali turli jangovar sharoitlarni sinab ko‘rishlari, turli taktik usullarni qo‘llab, natijalarini baholashlari mumkin. Shuningdek, dron boshqarish, tank va aviatsiya kabi harbiy texnikalar bilan ishlashni o‘rganish uchun interaktiv trening platformalaridan foydalanish orqali kursantlar nazariy bilimlarini amaliy mashg‘ulotlar bilan mustahkamlashlari mumkin.

Axborot xavfsizligini ta’minlash. Sun’iy intellekt kursantlarning kiberxavfsizlik bo‘yicha bilimlarini oshirish va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishlarini ta’minlaydi. Bu esa zamonaviy jangovar harakatlarda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, sun’iy intellekt kiberhujumlarni aniqlash va ularga qarshi choralar ko‘rish bo‘yicha real vaqt rejimida ogohlantirish tizimlarini yaratish imkonini beradi. Kursantlar maxsus kiberxavfsizlik simulyatorlari yordamida tajovuzkor xakerlik hujumlarini qaytarish, himoya devorlarini mustahkamlash va shifrlash texnologiyalaridan samarali foydalanishni o‘rganishlari mumkin. Bundan tashqari, axborot tizimlarining zaif joylarini avtomatik ravishda aniqlaydigan dasturlar orqali kursantlar o‘z bilimlarini amaliy mashg‘ulotlarda sinovdan o‘tkazishlari mumkin.

Milliy ruhda tarbiyalashga innovatsion yondashuv. SI yordamida milliy qadriyatlar, tarixiy darslar va vatanparvarlik mavzulariga oid virtual o‘quv materiallari ishlab chiqilib, kursantlarning milliy ongini mustahkamlashga hissa qo‘shiladi. Masalan, sun’iy intellekt asosida interaktiv darsliklar, virtual muzeylar va tarixiy janglarni aks ettiruvchi simulyatsiyalar ishlab chiqilishi mumkin. Kursantlar Amir Temur yoki Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk sarkardalarning jangovar taktikalarini virtual reallik texnologiyalari orqali sinab ko‘rishlari, tarixiy voqealarni interaktiv tarzda o‘rganishlari mumkin. Shuningdek, milliy kuy-qo‘shiqlar va urf-odatlarni o‘z ichiga olgan audio-vizual materiallar yordamida ularning vatanparvarlik ruhini oshirishga erishish mumkin.

Xulosa o‘rnida, oliy harbiy ta’lim muassasalarida kursantlarni milliy ruhda tarbiyalash dolzarb masalalardan biri bo‘lib, bu jarayonda integrativ yondashuv va sun’iy intellektdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Integrativ yondashuv kursantlarning bilimini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilsa, sun’iy intellekt esa, ta’lim jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan boyitadi. Kelajakda ushbu yondashuvlarni yanada rivojlantirish orqali harbiy ta’lim tizimini takomillashtirish va milliy g‘oyalarga sodiq, intellektual jihatdan rivojlangan harbiy kadrlarni yetishtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Harbiy tayyorgarlik bo‘yicha metodik qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, 2020.
3. Брйндин Э.Г. Искусственнйй интеллект в обучении и воспитании. – Москва: Наука, 2018.
4. Muminov Z. Sun’iy intellekt texnologiyalari va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.
5. Qodirov B., Yusupov A. Axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik asoslari. – Toshkent: Universitet, 2021.
6. Dasturiy ta’minot ishlab chiqish bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar markazi // AI in military education and training. – London: Springer, 2023.

IJTIMOIY TIZIMLARNING UZLUKSIZ ISHLASHIDA SOLIQLARNING O’RNI.

Zaripov Xusan Baxodirovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasi dotsenti, PhD.
email: xb_zaripov@mail.ru

Kalit so‘zlar: davlat byudjeti, byudjet-soliq siyosati, soliq tushumlari, tannarx, maxsus soliq rejimlari, moliyaviy nazorat, foyda solig‘i

Har bir mamlakatning normal ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlanishi uchun muhim moliyaviy manba - davlat byudjeti hisoblanadi. Davlat bu manba orqali jamiyatga va mamlakat fuqarolariga zarur tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko’rsatish, iqtisodiyot va ijtimoiy tarmoqlarning samarali faoliyat qilishi uchun me’yoriy va institutsional tuzilmalarning qonuniy asoslarini yaratish va shu bilan o’z fuqarolarining yashashi va ishlashi uchun moddiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratib berish vazifalarini bajaradi.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlashdir.[12]

Davlat byudjeti mamlakatning moliya tizimida markaziy o’rinni egallaydi. Markazlashtirilgan pul fondini shakllantirish orqali uning yordamida katta

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi O‘zbekiston — 2030 strategiyasi to’g’risidagi PF-158-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-6600413

hajmdagi moliyaviy resurslar davlatning qo'lida to'planadi va ular umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga sarf etiladi.

Mohiyat jihatidan, davlat byudjeti - davlat boshqaruvining muhim vositasi bo'lib, uning yordamida davlat takror ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi, inson irodasiga buysunmaydigan bozor kuchlarining salbiy ta'sirini bartaraf etadi.

Huquqiy kategoriya sifatida davlat byudjeti - bu davlatning vazifa va funksiyalarini moliyaviy ta'minlash uchun mo'ljallangan pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etish va sarflashning qonun bilan belgilangan shaklidir. Byudjet huquqiy akt shakliga ega bo'lib, vakolatli hokimiyat organi tomonidan qabul qilinadi va shu sababdan qonuniy kuchga egadir.

Byudjet daromadi birinchidan, ijtimoiy ishlab chiqarish qatnashchilari tomonidan jami ijtimoiy mahsulot qiymatini taqsimlash natijasida shakllangan bo'lsa, ikkinchidan, davlat ixtiyorida vujudga kelgan qiymatni maqsadli fondlar hududlararo va tarmoqlararo fondlarni tashkil etish uchun qayta taqsimlash xususiyatga egadir.

Davlat byudjeti har yili ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti, uning daromad va xarajatlari boshqa iqtisodiy kategoriyalar: soliq, narx, kredit, foyda, tannarx, qiymat va hakozolar bilan birgalikda turli munosabatlarga kirishar ekan, ular ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshiradi. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin:



1-rasm. Davlat byudjeti daromad manbalari

Davlat byudjeti daromadlarining tarkibi va uning tuzilmasi doimiy bo'lmasdan, ular mamlakat taraqqiyoti va davlatning oldidagi vazifalarning o'zgarishiga muvofiq ravishda o'zgarib boradi.

Mamlakatimizda olib borliayotgan byudjet-soliq siyosati iqtisodiyotni barqarorlishatiish va rivojlantirishga, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga, aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan. Budjet-soliq siyosatining samaradorligi mamlakatda davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamgarmalarga to'lovlarni belgilangan muddat va miqdorda tushishini ta'minlsash, optimal soliq munosabatlarining vujudga kelishi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy barqarorligini ta'minlash natijasida raqobatbardosh tovarlar va xizmatlar bozorini shakllanishi bilan belgilanadi.



2-rasm. Soliq turlari bo'yicha tushumlar tahlili

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2024-yilda soliq tushumlari 199 trln so'mdan oshdi. 2024-yilda respublika bo'yicha budjetga 199,6 trln so'm soliq tushumlari ta'minlandi . Bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,3%ga ko'p.

Soliq turlari kesimida tushum (2023-yilga nisbatan o'sish):

- foyda solig'i - 52,7 trln so'm (29,1%);
- QQS - 39,6 trln so'm - (16,4%);
- JShODS - 35,4 trln so'm - (18,3%);
- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq - 20,2 trln so'm (31,8%);
- aksiz solig'i - 17,8 trln so'm - (17,4%);
- soliqsiz tushumlar* - 15 trln so'm (o'sish kuzatilmagan);
- yer solig'i - 8,2 trln so'm (19,2%);
- mol-mulk solig'i - 6,8 trln so'm (33,5%);
- aylanmadan olinadigan soliq - 2,8 trln so'm (17,6%);

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq - 1,2 trln so‘m (48,3%).

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, soliqlar - davlat va jamiyatning pul mablag’lariga bo’lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo’yilgan hajmda va o’rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to’lov bo’lib, u yalpi ichki mahsulot va uning tarkibiy qismi bo’lgan milliy daromadni qayta taqsimlashda ishtirok etib, yagona takror ishlab chiqarish jarayonining bir qismi, ishlab chiqarish munosabatlarining o’ziga xos shakli hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahrir). – T.: Adolat, 2020. https://lex.uz/docs/-4674902

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi O‘zbekiston—2030 strategiyasi to’g’risidagi PF-158-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-6600413

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. PQ–4851-son, 2020-yil 30-sentabr. // https://https://lex.uz/uz/docs/-4415356

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori PQ-4389-son, 2019-yil 10-iyul. // https://lex.uz/docs/5031085

5. Soliq qo‘mitasi axborot portali. – https://soliq.uz

TALABALARDA AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA VIRTUAL VA ARALASH O‘QITISH JARAYONLARI

Jabbarov Zarifboy Rustamovich
O‘zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi o‘qituvchisi, dotsent, podpolkovnik,
e-mail: jabborovzarifboy70@mail.com,
tel.: 90-122-02-01

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishda **virtual** (onlayn) va **oraliq** (gibrid) o‘qitish jarayonlari, uzluksiz ta’limdagi tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar fanini o‘zlashtirish natijasida o‘qituvchi faoliyatida AKTdan foydalanish va elektron o‘quv materiallarini yaratish tamoyillarini o‘rganish bilan bog‘liq asosiy nazariy bilimlarni shakllantirish, shuningdek, dasturiy vositalar va turli xil ma’lumotlar bilan ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish ko‘zda tutilgan.

Kalit so‘zlar: virtual o‘qitish, onlayn platformalar (Zoom, Google Meet, Moodle) talabalarga interaktiv mashg‘ulotlar o‘tkazish, diskussiyalar va guruh

ishlari orqali o‘rganishni, gibrid o‘qitish axborot texnologiyalar.

Аннотация. Целью данной статьи является развитие информационной грамотности студентов посредством развития виртуальных (онлайн) и дистанционных (гибридных) процессов обучения, тенденций в непрерывном образовании и современных подходов к развитию информационной грамотности, а также формирование базовых теоретических знаний, связанных с использованием ИКТ в обучении и принципами создания электронных учебных материалов, а также развитие практических навыков работы с программными средствами и различными видами информации.

Ключевые слова: виртуальное обучение, онлайн-платформы (Zoom, Google Meet, Moodle), интерактивное обучение студентов, обучение через дискуссии и групповую работу, гибридное обучение, информационные технологии.

Annotation. This article aims to develop students’ information literacy through the development of virtual (online) and distance (hybrid) learning processes, trends in continuing education, and modern approaches to the development of information literacy, as well as to form basic theoretical knowledge related to the use of ICT in teaching and the principles of creating electronic educational materials, as well as to develop practical skills in working with software tools and various types of information.

Key words: virtual learning, online platforms (Zoom, Google Meet, Moodle), interactive training for students, learning through discussions and group work, hybrid learning, information technologies.

Zamonaviy jamiyat hayotida axborot texnologiyalaridan foydalanish sohasining kengayishi fan va ta’limning sezilarli darajada qayta qurishga olib keladi va ular uchun yangi istiqbollarni ochib beradi. Shu munosabat bilan, rivojlangan axborot kompetentlik bilan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan oliy ta’limining roli ortib bormoqda. Jamiyatning innovatsion rivojlanish yo‘llariga o‘tishi sharoitida kasbiy faoliyatga qodir pedagogik, shu jumladan, o‘qituvchi kadrlarni tayyorlash hozirgi bosqichda davlat ta’lim siyosatini amalga oshirishning yetakchi yo‘nalishlari va shartlaridan biridir. Ta’limning yangilanayotgan mazmuni va zamonaviy texnologiyalarini, shu jumladan axborot texnologiyalarini amalga oshirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashning maqsad va vazifalari davlat ta’lim standartlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda aks ettirilgan.

Talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishda **virtual** (onlayn) va **oraliq** (gibrid) o‘qitish jarayonlari muhim ahamiyatga ega. Ular talabalarga zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, axborotni tahlil qilish va taqdim etish ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Quyida bu jarayonlarning asosiy afzalliklari va talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishdagi o‘rni keltirilgan.

Vertual o‘qitish – talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘qitish jarayonining to‘liq yoki qisman onlayn tarzda amalga oshirilishi. Bu o‘qitish usuli talabalarga axborot

texnologiyalarini o‘rganish va ularni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Virtual o‘qitish talabalarga internet orqali turli axborot manbalariga, ilmiy maqolalar, video darslar, ma’lumotlar bazalari va boshqa resurslarga erkin kirish imkonini beradi. Talabalar istalgan joyda va vaqtda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lishadi, bu esa, axborotlarni tez o‘zlashtirish va o‘rganish jarayonini qulaylashtiradi. Onlayn platformalar (masalan, Zoom, Google Meet, Moodle) talabalarga interaktiv mashg‘ulotlar o‘tkazish, diskussiyalar va guruh ishlari orqali o‘rganishni yanada samarali qiladi. Talabalar onlayn kurslar, vebinarlar va boshqa onlayn resurslar orqali o‘zlarining axborot kompetentligini mustahkamlash imkoniyatiga ega. Talabalar onlayn resurslardan samarali foydalanishni o‘rganishadi. Ular ilmiy va ta’limiy maqolalar, videolar va boshqa axborotlarni o‘rganish orqali tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Talabalar onlayn platformalarda o‘z fikrlarini taqdim etish, prezentatsiyalarni o‘tkazish va muhokama qilish orqali kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Oraliq o‘qitish – bu o‘qitishning bir qismi an’anaviy usulda, ya’ni auditoriyada, qolgan qismi esa, onlayn tarzda amalga oshiriladigan usuldir. Bu o‘qitish modeli talabalar uchun axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta’minlaydi, chunki ular onlayn va oflayn tarzda integratsiyalashgan ta’lim tizimida o‘qishadi. Oraliq o‘qitish talabalarni guruhlarda ishlashga va bir-birlaridan o‘rganishga rag‘batlantiradi. Onlayn muhitda talabalar bir-biri bilan masofadan o‘rganish orqali ham axborot texnologiyalarini qo‘llashni o‘rganadi. Onlayn o‘qish jarayonida talaba o‘zining individual jarayonini tanlash imkoniyatiga ega, shu bilan birga o‘qituvchidan kerakli yordamni olish imkoniyatini saqlaydi. Gibrid o‘qitish nafaqat axborot texnologiyalaridan foydalanuvchi, balki an’anaviy o‘qitish usullari orqali ham talabalarga chuqur bilimlarini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Oraliq o‘qitish jarayonida talabalar turli manbalarni birlashtirib, o‘zaro muhokama qilish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu ularning axborotlarni integratsiya qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Onlayn va oflayn o‘qish jarayonlarida axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish kabi masalalar ko‘tariladi. Talabalar axborotlarni xavfsiz tarzda ishlatish va ularga nisbatan etik qoidalarni hurmat qilishni o‘rganadilar. Gibrid o‘qitish talabalariga o‘z fikrlarini turli formatlarda (matn, video, taqdimotlar) taqdim etish imkonini beradi, bu esa, ularning kommunikativ va texnologik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Onlayn va oraliq o‘qitish talabalarga jamiyat bilan samarali aloqalar o‘rnatish, guruh ishlari orqali birgalikda ishlash, shuningdek, axborotlarni tahlil qilish va taqdim etish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Virtual va oraliq o‘qitish talabalarga ko‘plab resurslarga (kutubxonalar, ilmiy maqolalar, video darslar va boshq.) oson kirish imkoniyatini yaratadi. Onlayn o‘qitish talabalarga mustaqil ravishda axborotlarni o‘rganish, tahlil qilish va baholashni o‘rgatadi, bu esa ularning axborot kompetentligini mustahkamlashga yordam beradi.

A.R.Abdullayev, O‘zbekistonning yetakchi pedagogika olimlaridan biri hisoblanib, o‘zining axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim tizimiga tatbiq etish bo‘yicha bir qator asarlar yozgan. Uning fikriga ko‘ra, **virtual o‘qitish**

va **oraliq ta’lim** jarayonlarida asosiy maqsad – talabalarni yangi pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish, ularni zamonaviy o‘qitish vositalaridan foydalanishga o‘rgatishdir. **Gibrid o‘qitish** talabalarga keng imkoniyatlar yaratadi, chunki u faqat an’anaviy usul bilan chegaralanmaydi, balki talabalar o‘zining individual ehtiyojlariga moslashgan tarzda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Olimning pedagogik qarashlariga ko‘ra, **virtual o‘qitish** talabalarning mustaqil o‘rganish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, virtual o‘qitish talabalarga axborotlarni tezkor izlash, tahlil qilish va o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalash ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniyatini beradi. Davlat standartiga muvofiq ishlab chiqilgan “Uzluksiz ta’limdagi tendensiylar va zamonaviy yondashuvlar” fanida axborot texnologiyalariga oid didaktik birliklar shakllantirilgan, ya’ni audiovizual ma’lumotlar: tabiat, tushunchalar, tuzilish, faoliyat; inson tomonidan audiovizual ma’lumotlarni idrok etishning psixofiziologik asoslari; audiovizual texnologiyalar: fotografiya va optik tuzatish (statik va dinamik), ovoz yozish (analog va raqamli); televizor va video yozuvlar (analog va raqamli); kompyuterlar va multimedia vositalari; audiovizual o‘qitish texnologiyalari: audio, video, kompyuter o‘quv qo‘llanmalari tipologiyasi; interaktiv ta’lim texnologiyalari; multimedia pedagogika darsliklari; pedagogika nazariyasi va tarixini o‘qitishda axborot texnologiyalari.

Uzluksiz ta’limdagi tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar fanini o‘zlashtirish natijasida o‘qituvchi faoliyatida AKTdan foydalanish va elektron o‘quv materiallarini yaratish tamoyillarini o‘rganish bilan bog‘liq asosiy nazariy bilimlarni shakllantirish, shuningdek dasturiy vositalar va turli xil ma’lumotlar bilan ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish ko‘zda tutilgan. O‘quv jarayonida elektron o‘quv materiallarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish metodologiyasi masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Fanning dasturiy materialini o‘zlashtirish pedagogik fan sohasiga nisbatan elektron o‘quv materiallarini ishlab chiqish nuqtai nazaridan axborot kompetentligini shakllantirishga qaratilgan. Global miqyosda odamlar hayoti va faoliyatining barcha sohalarini raqamlashtirish noosferaning infonosferaga aylanishi jarayonining to‘g‘riligini tasdiqlaydi, jamiyat rivojlanishining fundamentalizatsiyasini belgilaydigan insoniyat ongining axborot sohasi va ilm-fan, madaniyat va ta’limga nisbatan axborot paradigmasidagi kengroq bilim, hodisa va jarayonlarni ko‘rib chiqishga imkon beradi. Axborot texnologiyalarini ta’limda qo‘llash bo‘yicha tizimli tadqiqotlar taxminan 60-yildan beri olib borilmoqda va so‘nggi o‘n yilliklarda ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha keng nazariy va amaliy materiallar to‘plangan [1].

Ta’lim sohasida axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida o‘qitish texnologiyasini takomillashtirish tendentsiyasining paydo bo‘lishi dasturiy ta’minot va ulardan foydalanish bo‘yicha uslubiy ishlanmalarni qurishda o‘quv materiallarini tashkil etishning yangi usullarini izlash muammosini keltirib chiqardi. O‘quv jarayonida raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish jarayonini tahlil qilish ta’limni raqamlashtirishning uch bosqichini

(shartli ravishda elektronlashtirish, kompyuterlashtirish va axborotlashtirish deb ataladi) ajratishga imkon berdi.

Ta’limni axborotlashtirishning birinchi bosqichi: elektronlashtirish – dastlab texnik mutaxassisliklar (1950-yillarning oxiri), so‘ngra gumanitar mutaxassisliklar (1960-yillarning oxiri) talabalarini tayyorlash jarayonida elektron vositalar va kompyuter texnologiyalarining keng joriy etilishi bilan ajralib turdi. O‘sha davrdagi kompyuterlarning kam ishlashi, intuitiv interfeysning yo‘qligi gumanitar ta’lim sohasida kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanishga yordam bermadi [3]. 1970-yillarning o‘rtalaridan boshlab ta’limni raqamlashtirishning ikkinchi bosqichi yanada kuchli kompyuterlar, dasturiy ta’minot paydo bo‘lishi, inson va kompyuter o‘rtasidagi dialogik o‘zaro ta’sirlardan foydalanish bilan bog‘liq. O‘quv jarayonida birinchi marta kompyuterda ishlash, haqiqiy obyektlarning modellari bilan o‘zaro aloqada bo‘lish, o‘rganish obyektlarini boshqarish imkoniyati paydo bo‘ldi. Kompyuter ta’lim texnologiyalari modellashtirish asosida turli jarayonlar va hodisalarni o‘rganishga imkon berdi. Kompyuter texnologiyalari avtomatlashtirilgan tizimlarning bir qismi sifatida o‘qitish vositasi sifatida ishlay boshladi. Ta’limni raqamlashtirishning uchinchi, zamonaviy bosqichi kuchli shaxsiy kompyuterlar, yuqori sig‘imli yuqori tezlikda ishlaydigan drayvlar, yangi axborot va telekommunikatsiya va multimedia texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, davom etayotgan axborotlashtirish jarayoni va uning ijtimoiy oqibatlarini falsafiy tushunish bilan tavsiflanadi.

Ta’limga axborot texnologiyalarini joriy etish 1940-1950-yillarda Amerika ta’lim tizimida paydo bo‘ladi. Axborot texnologiyalari faqat ma’lumotlarni elektron tarzda to‘plash, qayta ishlash va taqdim etish bilan bog‘liq edi. Ushbu davr tadqiqotchilari tomonidan axborot texnologiyalarini o‘qitish imkoniyatlari batafsil ko‘rib chiqilmagan. Asosiy e’tibor axborotni qayta ishlash va uzatishning texnik jihatlariga qaratildi, Amerika ta’lim tizimi amaliyotida o‘quv mashinalaridan foydalanish esa nazariy jihatdan asoslanmagan. 1940-yillarning oxiriga kelib, AQSh pedagogikasida ta’lim jarayonini raqamlashtirishning kontseptual asoslarini ishlab chiqishga va inson va mashinaning o‘zaro ta’sirining xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar o‘tkazishga qiziqish paydo bo‘ldi. AQSh oliy va o‘rta ta’lim jarayoni amaliyotida o‘quv mashinalaridan foydalanishga texnokratik yondashuv paydo bo‘ldi va keyinchalik kompyuterlardan foydalanishga qarama-qarshi ikkita yondashuv rivojlandi: mashina va dasturiy ta’minot. Mashina yondashuvi tarafdorlari o‘quv mashinalarini “ta’limni texnologiyalashtirish vositalari” deb hisoblashgan, dasturiy ta’minot yondashuvi vakillari esa, “o‘quv maqsadlarini hisobga olgan holda dasturiy ta’minotni ishlab chiqish dasturlashtirilgan ta’limning muhim tarkibiy qismi” deb ta’kidlashgan. Dasturlashtirilgan ta’lim “o‘qituvchi – talaba o‘zaro ta’sirini yaxshiroq tushunish va yangi o‘quv strategiyalarini yaratishga yordam beradigan murakkab modellashtirish” vositasi deb hisoblangan [4]. Uzoq vaqt davomida mahalliy ta’lim tizimida shaxsiy yondashuv va axborotlashtirish bir-biridan mustaqil ravishda mavjud edi. Talabalarning mustaqilligi va ijodiy faolligini rag‘batlantiradigan faol o‘qitish usullarini ishlab chiqish va

takomillashtirish muammolari, shuningdek, oliy ta’limni axborotlashtirish va bo‘lajak mutaxassislarning axborot madaniyatini shakllantirishning ba’zi jihatlari mahalliy pedagogikada yoritilgan faqat 1980-1990-yillarda, ammo obyektiv sabablar (iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, pedagogik) tufayli o‘quv jarayonini raqamlashtirish qilish hozirgi kungacha o‘zining to‘liq yechimini topmadi. XX asrning 70-yillarida kompyuterni o‘quv jarayoniga birinchi marta kiritish, bu o‘qitish samaradorligini oshirmadi. Dasturlashtirilgan ta’lim kabi ta’lim muhiti rivojlana boshladi, ammo o‘quv jarayonida dasturlashtirilgan ta’limdan foydalanish an’anaviy ta’lim muhitida tanqidiy munozaralarga sabab bo‘ldi va bu g‘oya ommalashmadi [5]. 1980-yillardan boshlangan ikkinchi davr yanada rivojlangan kompyuterlarning paydo bo‘lishi bilan ajralib turardi. Bu kognitiv faollikni rivojlantirish uchun dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqishni boshlashga imkon berdi. 1986-yildan boshlab o‘quv dasturlariga “axborot texnologiyalari asoslari” yangi kursi joriy etildi. Biroq, o‘quv jarayonini tashkil etishda sezilarli o‘zgarishlar bo‘lmadi. 1990-yillarida ishlatilgan kompyuterlar sonining ko‘payishi kuzatildi. Kompyuter shaxsiy mashinaga aylanadi, kompyuter texnologiyalarining ta’limni tashkil etishga ta’sirini ko‘rib chiqadigan ishlar paydo bo‘ladi.

- Muammoli ta’lim – talabalarning analitik fikrlash qobiliyatini faollashtiradi;
- Kollaborativ ta’lim va mentorlik – jamoaviy o‘rganish va o‘rgatish orqali malaka oshirish;

-Madaniyatlararo o‘qitish – turli millat vakillari bilan ishlashda kommunikativ yondashuvni kuchaytiradi;

- Raqamli muhitda o‘qitish – masofaviy va aralash ta’lim orqali shaxsiylashtirilgan o‘quv jarayonini tashkil etish;
- Reflektiv metodlar– o‘quvchilarning o‘z faoliyatini tahlil qilishga yo‘naltirilgan o‘quv strategiyalarini rag‘batlantiradi [4].

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagi usullar samarali sanaladi:

Quyidagi jadvalda kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy vositalar keltirilgan:

- Modulli ta’lim – bosqichma-bosqich o‘rganishni ta’minlaydigan o‘quv dasturlari;
- Amaliy mashg‘ulotlar va rolli o‘yinlar – pedagogik jarayonni simulyatsiya qilish imkonini beradi;
- Raqamli ta’lim platformalari – shaxsiy o‘quv marshrutlarini ishlab chiqish imkonini beradi;
- Xalqaro almashinuv dasturlari – turli mamlakatlar tajribasini o‘zlashtirishga xizmat qiladi;
- Ilmiy-tadqiqot ishlari – tanqidiy va tahliliy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan [5

Quyidagi jadvalda kompetensiyani shakllantirish vositalari keltirilgan:

Vosita / Usul	Tavsifi
Interfaol metodlar	Debate, Case-study, Jigsaw, Fishbone, Think-Pair-Share kabi metodlar orqali muloqot, tahlil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.
Raqamli texnologiyalar	LMS (Moodle, Google Classroom), Web 2.0 (Kahoot, Padlet), AI vositalari (ChatGPT, Grammarly), mobil ilovalar (Duolingo) orqali dars jarayonini samarali tashkil qilish.
Amaliyot turlari	O‘quv, pedagogik, innovatsion va reflektiv amaliyotlar orqali real vaziyatlarda kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.
Portfolio va refleksiya	Portfolio yuritish, reflektiv kundalik va muammoli holatlarni tahlil qilish orqali o‘z ustida ishlashga yo‘naltirish.
Baholash va tahlil	Rubrikalar, mini-loyihalar, o‘zaro baholash (peer-assessment) va o‘zini baholash (self-assessment) orqali kompetensiyalarni aniqlash.
Muhit va sharoitlar	Hamkorlik muhiti, psixologik qulaylik, ochiq ta’lim resurslari orqali qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik muhit yaratish.

Zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyasini shakllantirish pedagogik jarayonning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayon shunchaki lingvistik bilimlar bilan cheklanmay, balki metodik, kommunikativ, madaniy va raqamli ko‘nikmalarni chuqur integratsiyalashni talab qiladi. O‘qituvchining kasbiy salohiyati nafaqat ta’lim sifati, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, madaniy inklyuzivlik va global mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash, faoliyatga asoslangan real kontekstlarda bilimlarni qo‘llash, refleksiya asosidagi o‘zini baholash va o‘zlashtirish dinamikasini tushunish bu sohada asosiy ustuvor yo‘nalishlar bo‘lib qolmoqda. Lingvodidaktik yondashuvlar, metakognitiv strategiyalar, raqamli texnologiyalar va madaniyatlararo kompetensiyalarni uyg‘unlashtirish esa o‘qituvchini XXI asr talablariga mos yetuk mutaxassis sifatida shakllantiradi.Shu bilan birga, bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim jarayonida modulli dasturlar, interfaol metodlar, innovatsion loyihalar, xalqaro amaliyotlar va portfoliolar orqali kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish zarur. Ta’lim mazmuni va metodikasini zamonaviy texnologik vositalar bilan

uyg‘unlashtirgan holda o‘rgatuvchi o‘qituvchi — o‘quvchi markazli, inklyuziv va raqamli pedagogika modelining asosiy harakatlantiruvchi kuchidir.Shunday qilib, pedagogik kompetensiyalarning shakllanishi uzluksiz rivojlanishni, mustaqil ta’limga tayyorgarlikni, jamiyat ehtiyojlariga javob beruvchi innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Mazkur maqolada ilgari surilgan nazariy-metodik asoslar shu boradagi amaliy ishlar uchun nazariy poydevor vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zimnyaya I.A. (2004). Kompetensiyaviy yondashuv: Pedagogik tafakkurning yangi paradigmasi. Moskva: Znaniye.

2. European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu), 2017.

3. Schön D. (1983). The Reflective Practitioner. Basic Books.

4. Barrows H.S. (1996). Problem-based learning in medicine and beyond: A brief overview. New Directions for Teaching and Learning.

5. Khutorskoy A.V. (2003). Kompetensiyalar tizimi va o‘quv jarayoni. Pedagogika jurnali.

POSTMODERN ADABIYOTDA INTERTEKSTUAL ALOQALARNI TARJIMA QILISH: PRAGMATIK VA SEMANTIK YONDASHUVLAR
ПЕРЕВОД ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНЫХ СВЯЗЕЙ В ПОСТМОДЕРНИСТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: ПРАГМАТИЧЕСКИЙ И СЕМАНТИЧЕСКИЙ ПОДХОДЫ
TRANSLATING INTERTEXTUAL CONNECTIONS IN POSTMODERN LITERATURE: PRAGMATIC AND SEMANTIC APPROACHES

Normurodova Oygul Bobirjon qizi,
Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti tayanch doktoranti,
oygulnormurodova785@gmail.com
+998945778010

Annotatsiya

Postmodern adabiyotda intertekstual birliklarning tarjimasi bugungi tarjimashunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib, bu jarayonda til, madaniyat va kommunikativ kontekstlar o‘zaro murakkab aloqaga kirishadi. Ushbu maqola intertekstual elementlarning tarjimada semantik mazmunini saqlab qolish va ularning pragmatik funksiyalarini moslashtirish bo‘yicha yuzaga keladigan muammolarni tahlil qiladi. Asosiy yondashuv sifatida intertekstual nazariyalar, transtextualizm, funksional tarjima modeli va izohli tarjima strategiyalari ko‘rib chiqiladi. Maqola tarjimonning madaniy ong va kommunikativ kompetensiyasiga urg‘u berib, tarjima jarayonidagi tanlovlar asoslarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Intertekstualik; Postmodern adabiyot; Tarjimashunoslik; Pragmatik yondashuv; Semantik ekvivalentlik; Madaniy adaptatsiya; Transtextualizm

Аннотация

Перевод интертекстуальных единиц в постмодернистской литературе является одной из актуальных проблем современной переводоведческой науки, поскольку включает в себя сложные взаимосвязи между языком, культурой и коммуникативным контекстом. В данной статье анализируются трудности, возникающие при сохранении семантического содержания интертекстуальных элементов и адаптации их прагматических функций при переводе. В центре внимания — интертекстуальная теория, транстекстуальность, функциональная модель перевода и стратегия аннотированного перевода. Особое внимание уделяется культурной осведомлённости и коммуникативной компетенции переводчика как основным факторам принятия переводческих решений в сложных текстовых условиях.

Ключевые слова: Интертекстуальность; Постмодернистская литература; Переводоведение; Прагматический подход; Семантическая эквивалентность; Культурная адаптация; Транстекстуальность

Annotation

The translation of intertextual elements in postmodern literature is one of the most pressing issues in contemporary translation studies, as it involves complex interactions between language, culture, and communicative context. This article analyzes the challenges that arise in preserving the semantic content of intertextual elements and adapting their pragmatic functions in translation. The study reviews major theoretical frameworks including intertextual theory, transtextuality, the functionalist model of translation, and annotation-based strategies. Emphasis is placed on the translator’s cultural awareness and communicative competence, highlighting the rationale behind translation choices in such intricate contexts.

Key words: Intertextuality; Postmodern literature; Translation studies; Pragmatic approach; Semantic equivalence; Cultural adaptation; Transtextuality

Kirish

Intertekstualik nazariyasi bugungi adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik fanlarining asosiy tushunchalaridan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu atama birinchi bor fransuz olimasi Julia Kristeva tomonidan 1960-yillarda ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, u matnni boshqa matnlar bilan doimiy muloqotda bo‘ladigan ochiq va dinamik tuzilma sifatida talqin qiladi (Kristeva, 1980). Intertekstual yondashuvga ko‘ra, har qanday adabiy matn ilgari mavjud bo‘lgan boshqa matnlar, g‘oyalar va uslublar bilan bevosita yoki bilvosita aloqadordir. Bu holat, ayniqsa, postmodern adabiyotda yanada yorqin namoyon bo‘ladi.

Postmodernizm estetikasi tarixiy, madaniy va falsafiy qatlamlarning murakkab uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Postmodern asarlar o‘z mohiyatiga ko‘ra parodik, pastishli va ko‘p ma'noli bo‘lib, ular ko‘plab intertekstual ishoralar orqali boshqa matnlar bilan muloqot qiladi. Gérard Genette (1997) tomonidan ishlab chiqilgan transtextualizm kontseptsiyasi bu munosabatlarni sistematik tahlil qilish imkonini beradi. U intertekstualikni sitatalar, alluziyalar, parodiyalar va boshqa

matnlarga ishoralar shaklida ko‘rib chiqadi. Bu jihatlar postmodern asarlarning tarjimasida murakkab semantik va pragmatik vazifalarni yuklaydi.

Tarjimon, bir tomondan, matnning ichki intertekstual tuzilmasini anglab, uni boshqa madaniy kontekstdagi o‘quvchiga yetkazishi kerak; boshqa tomondan esa, u bu ishoralarning funksional ahamiyatini saqlagan holda mos tarjima strategiyasini tanlashi lozim. Aynan shu nuqtada intertekstual elementlarning semantik mazmuni va pragmatik konteksti bilan bog‘liq tarjima muammolari vujudga keladi.

Shuningdek, tarjima jarayonida madaniy tafovutlar, tarixiy bilimsizlik, va o‘quvchining kontekstual tayyorgarligi kabi omillar intertekstual ishoralarning to‘laqonli yetkazilishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli, tarjimon nafaqat til vositachisi, balki madaniyatlararo muomala ishtirokchisi sifatida ham qaraladi.
Mazkur maqola aynan mana shu murakkab holatlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, postmodern matnlarda mavjud intertekstual elementlarning tarjimasida yuzaga keladigan lingvistik, madaniy va kommunikativ muammolarni semantik va pragmatik yondashuvlar asosida tahlil qiladi. Maqolaning asosiy maqsadi – postmodern adabiyotda intertekstual qatlamlarni muvaffaqiyatli tarjima qilish uchun zarur bo‘lgan nazariy va metodologik asoslarni yoritish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda ilmiy-tahliliy yondashuv asos qilib olindi. Metodologiya ikki asosiy yo‘nalishni qamrab oladi: nazariy asoslar va amaliy tahlil. Nazariy jihatdan, intertekstualik fenomeni va uning tarjimadagi akslanishiga doir zamonaviy ilmiy adabiyotlar chuqur o‘rganildi. Xususan, Kristeva (1980) tomonidan ilgari surilgan intertekstualik konsepsiyasi, Genette (1997) tomonidan ishlab chiqilgan transtextualizm modeli, Hutcheon (1988) tomonidan postmodernizm va ironiya haqida bildirilgan fikrlar, hamda Venuti (1995)ning tarjimondagi madaniy pozitsiyasi ushbu maqolaning nazariy tayanch nuqtalarini tashkil etdi.

Nazariy yondashuv doirasida kontseptual asoslar tahlil qilinib, intertekstual birliklarning qanday tipologik ko‘rinishlarga ega ekani belgilandi: alluziya, parodiya, sitata, metafiktsiya, pastish va h.k. Bu birliklarning tarjima jarayonida qanday kommunikativ vazifalarni bajarishi mumkinligi o‘rganildi.

Amaliy jihatdan esa, Marková (2018) tomonidan o‘rganilgan postmodern matnlar tahliliga asoslangan misollar tanlab olindi. Bu misollar orqali tarjimonlar tomonidan qo‘llanilgan strategiyalar (masalan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima, madaniy adaptatsiya, izohli tarjima, lokalizatsiya) semantik aniqlik va pragmatik samaradorlik mezonlari asosida baholandi. Tahlilda Bassnett va Lefevere (1990) tomonidan ilgari surilgan manipulyatsiya nazariyasidan ham foydalanildi, bu esa tarjimadagi ideologik va madaniy yo‘naltirishlarni aniqlash imkonini berdi.

Metod sifatida kontent tahlili, diskursiv tahlil va qiyosiy-analitik usullar qo‘llandi. Bu orqali nazariy modellarning amaliy tarjima holatlariga qanday ta’sir ko‘rsatishi, shuningdek, tarjimondan qanday intertekstual kompetensiyalarni talab qilishi aniqlab berildi.

Natijalar va muhokamalar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, postmodern adabiyotda intertekstual ishoralar, odatda, ko‘p qatlamli va ko‘p darajali semantik tuzilmalarga ega bo‘lib, ularning tarjimasi til doirasidan tashqariga chiqadigan, madaniy va tarixiy kontekstlarga chuqur bog‘liq bo‘lgan murakkab jarayondir. Postmodern matnlar o‘ziga xos tarzda boshqa matnlar bilan tanqidiy, estetik va ironik dialogga kiradi (Hutcheon, 1988). Bu matnlarda alluziya, parodiya va pastish kabi intertekstual birliklar ko‘p uchraydi va ularning har biri muayyan madaniy yoki tarixiy konnotatsiyaga ega bo‘ladi.

Semantik yondashuv doirasida aniqlandi: intertekstual birliklar mazmunan ekvivalent tarzda boshqa tilga ko‘chirilganda, ba’zida asl ma’no darajasi yo‘qolishi mumkin. Ayniqsa, diniy, mifologik yoki milliy identitetga oid ishoralar boshqa madaniy muhitda mavjud bo‘lmagani sababli, ularni semantik jihatdan to‘g‘ri tarjima qilish imkoni cheklangan (Şerban, 2011). Bu holatlarda izohli tarjima yoki adaptatsiya strategiyalari samarali deb topildi.

Pragmatik yondashuv esa intertekstual elementlarning kommunikativ vazifasini ochib berishga xizmat qiladi. Nord (2005) funksionalistik modelida tarjimonni madaniyatlararo kommunikatsiya vositachisi sifatida baholaydi. Bu model asosida olib borilgan tahlillar ko‘rsatdiki, agar tarjimon intertekstual ishora o‘quvchi uchun tanish emasligini anglab etsa, u holda matnga izoh qo‘shish, ekvivalent madaniy parallel topish yoki hatto ishorani mos kontekstdagi boshqa birlik bilan almashtirish kabi pragmatik strategiyalarni qo‘llashi mumkin.

Tahlil qilingan holatlarda (Marková, 2018), ko‘plab tarjimonlar parodiya yoki ironiyani saqlashga uringan, biroq ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirishda o‘quvchi uchun ularning asl konnotatsiyasi anglashilmasligi muammo sifatida qayd etilgan. Genette (1997) bu holatni transtextual muvofiqlikning buzilishi sifatida baholaydi. Shuningdek, Eco (1984) tomonidan ilgari surilgan faol o‘quvchi konsepsiyasi doirasida qaralganda, tarjima intertekstual signalni faqat lingvistik darajada emas, balki madaniy darajada ham qamrab olishi kerak.

Ushbu natijalar tarjimonda intertekstual kompetensiyaning naqadar muhimligini tasdiqlaydi. Tarjimon faqat tilshunos emas, balki madaniy va tarixiy bilimlarga ega ijtimoiy bilimdon sifatida qaralishi kerak. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, postmodern matnlar tarjimasida kontekstual sezgirlik, madaniy tafakkur va funksional yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa

Postmodern adabiyotdagi intertekstual qatlamlar tarjimasi tarjimonning madaniy, tarixiy va tilshunoslik bilimlariga tayanuvchi murakkab faoliyatdir. Tarjimonda bu elementlarni muvaffaqiyatli aks ettirish uchun semantik aniqlik bilan birga pragmatik uyg‘unlik ham muhimdir. Boshqacha aytganda, tarjimon har bir intertekstual elementni faqat so‘zma-so‘z tarjima qilmay, balki uning madaniy asosini, ma’naviy yukini va funksional vazifasini ham hisobga olishi lozim. Shu sababli, zamonaviy tarjima nazariyasida izohli tarjima, kontekstual moslashtirish va transtextual muvofiqlikni saqlash kabi strategiyalar ustuvorlik kasb etadi. Ushbu maqolada o‘rganilganidek, tarjimada intertekstual kompetensiya — tarjimonning

asosiy vositasi bo‘lib, u o‘quvchiga original matnning ko‘p qatlamli semantik va stilistik tuzilishini yetkazish imkonini beradi. Kelajakda tarjimashunoslikda bu kompetensiyani rivojlantirish va nazariy jihatdan chuqurlashtirish dolzarb masala bo‘lib qoladi.

References

1. Allen, G. (2011). *Intertekstualik* (2-nashr). Routledge nashriyoti.
2. Bassnett, S., & Lefevere, A. (1990). *Tarjima, tarix va madaniyat*. Pinter nashriyoti.
3. Eco, U. (1984). *O‘quvchi roli: Matnlar semiotikasiga oid tadqiqotlar*. Indiana Universiteti nashriyoti.
4. Genette, G. (1997). *Palimpsestlar: Ikkinchi darajadagi adabiyot* (C. Newman va C. Doubinsky tarjimasi). Nebraska Universiteti nashriyoti. (Asl asar 1982-yilda chop etilgan)
5. Hermans, T. (Tahr.). (2006). *Adabiyotga ta’sir: Badiiy tarjima tadqiqotlari*. Routledge nashriyoti.
6. Hutcheon, L. (1988). *Postmodernizm poetikasi: Tarix, nazariya, badiiyat*. Routledge nashriyoti.
7. Kristeva, J. (1980). *Tildagi istak: Adabiyot va san’atga semiotik yondashuv* (T. Gora, A. Jardine, va L. Roudiez tarjimasi). Columbia Universiteti nashriyoti.
8. Marková, L. (2018). Postmodern nasrda intertekstualikni tarjima qilish. *Brno ingliz tili bo‘yicha tadqiqotlar, 44*(2), 65–82. https://doi.org/10.5817/BSE2018-2-4
9. Nord, C. (2005). *Tarjimaga yo‘naltirilgan matn tahlili: Nazariya, metodologiya va didaktik qo‘llanma* (2-nashr). Rodopi nashriyoti.
10. Şerban, A. (2011). Tarjimadagi intertekstualik. *Fan va madaniyat tadqiqotlari, 7*(1), 124–130.
11. Venuti, L. (1995). *Tarjimonning ko‘rinmasligi: Tarjima tarixi haqida tadqiqot*. Routledge nashriyoti.

SINF JAMOASI BILAN ISHLASHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI
(bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari misolida)

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
mustaqil izlanuvchisi
Nurmanova Dilfuza Jamilovna
dilfuzanurmanova05@gmail.com
Tel.raqam: +998-93-665-56-60

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining sinf jamoasi bilan ishlash bo‘yicha zamonaviy tendensiyalari

tahlil qilinadi. Maqolada shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy-emotsional ta’lim, hamkorlikda o‘qitish va fasilitativ uslublarning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, ilg‘or pedagogik adabiyotlar asosida sinf ijtimoiy muhitini shakllantirish bo‘yicha nazariy va amaliy qarashlar tahlil qilingan. Xulosa qismida o‘qituvchining sinf jamoasini boshqaruvchi lider sifatidagi roli alohida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, sinf jamoasi, pedagogik yondashuv, zamonaviy tendensiyalar, interaktiv metodlar, raqamli pedagogika, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, ijtimoiy-emotsional ta’lim, fasilitativ usul, hamkorlikda o‘qitish.

Аннотация: В статье анализируются современные тенденции в работе с классным коллективом будущих учителей начальных классов. В статье освещается роль личностно-ориентированного подхода, цифровых технологий, социально-эмоционального обучения, совместного обучения, фасилитационных методов. Анализируются теоретические и практические взгляды на формирование социальной среды класса на основе передовой педагогической литературы. В заключении подчеркивается роль учителя как лидера, управляющего классным коллективом.

Ключевые слова: Начальное образование, классный коллектив, педагогический подход, современные тенденции, интерактивные методы, цифровая педагогика, личностно-ориентированное образование, социально-эмоциональное образование, фасилитативный метод, совместное обучение.

Abstract: This article analyzes modern trends in working with the classroom team of future primary school teachers. The article highlights the role of a person-centered approach, digital technologies, socio-emotional learning, collaborative learning, and facilitative methods. It also analyzes theoretical and practical views on the formation of the classroom social environment based on advanced pedagogical literature. The conclusion emphasizes the role of the teacher as a leader managing the classroom team.

Key words: Primary education, classroom team, pedagogical approach, modern trends, interactive methods, digital pedagogy, person-centered education, socio-emotional education, facilitative method, collaborative learning.

Zamonaviy ta’lim jarayoni o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning ijtimoiylashuvi, intellektual va ma’naviy barkamolligini ta’minlashga qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchilar sinf jamoasini shakllantiruvchi va boshqaruvchi pedagog sifatida ham muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda sinf jamoasi bilan samarali ishlash bo‘yicha innovatsion yondashuvlar, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o‘quvchilar orasida ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish, hamkorlikni kuchaytirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini professional tayyorlashda sinf jamoasini boshqarish kompetensiyasini shakllantirish pedagogik ta’limning ajralmas bo‘lagidir.

Mazkur sohadagi ilmiy izlanishlarda bir qator olimlarning fikrlari alohida e’tiborga loyiq. Jumladan, V.V.Serikov va L.M.Fridmanlar sinf jamoasining pedagogik iqlimi, o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi hamda sinf yetakchiligini tashkil etish bo‘yicha konseptual qarashlarni ilgari surgan. O‘zbekistonlik pedagog olimlardan M.Teshaboyev va D.Jo‘rayevlarning boshlang‘ich ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi bo‘yicha ishlarida sinfda ijtimoiy-psixologik muhitning shakllanishi, guruhiy hamkorlik va o‘quvchilar faolligi bo‘yicha metodik yondashuvlar asoslab berilgan. UNESCO va UNICEF tomonidan ilgari surilgan “inklyuziv ta’lim” tamoyillari sinf jamoasida har bir bolaning individual imkoniyatlarini inobatga olish zarurligini urg‘ulaydi. Shuningdek, zamonaviy interaktiv metodlar – “hamkorlikda o‘qitish”, “loyiha asosida o‘qitish”, “qatorli fikrlash” kabi yondashuvlar sinf jamoasining birligiga xizmat qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z faoliyatida sinf jamoasi bilan ishlashda quyidagi zamonaviy tendensiyalarni hisobga olishi muhim:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv: har bir o‘quvchining qiziqishi, ehtiyoji, psixologik holati asosida yondashish orqali sinfda individual yondashuvni ta’minlash. Bu yondashuv orqali bolada o‘ziga ishonch, sinfga daxldorlik hissi shakllanadi.

2. Raqamli pedagogik vositalardan foydalanish: elektron platformalar, virtual sinf xonalari, interaktiv ilovalar sinf jamoasining onlayn va oflayn muhitda samarali ishlashini ta’minlaydi. Bu orqali o‘quvchilar o‘rtasida masofaviy hamkorlik, fikr almashinuvi kuchayadi.

3. Ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL): o‘quvchilarda empatiya, o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqalar bilan sog‘lom munosabatlarni rivojlantirish orqali sinfdagi ijtimoiy muhit mustahkamlanadi. SEL komponentlarini darsga integratsiya qilish zamonaviy boshlang‘ich ta’limning muhim vazifasidir.

4. Hamkorlikda o‘qitish metodikasi: o‘quvchilar kichik guruhlarda ishlash, umumiy vazifalarni bajarish orqali bir-biridan o‘rganadi va sinf ichidagi ijtimoiy rollar shakllanadi. Bu metod sinf yetakchilari va faol a’zolarini ajratib olishga, passiv bolalarni jalb qilishga yordam beradi.

5. Reflektiv va fasilitativ yondashuvlar: o‘qituvchi sinf faoliyatini baholovchi emas, balki yo‘naltiruvchi, yordam beruvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglash, o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa o‘rnida shuni takidlashimiz mumkinki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining sinf jamoasi bilan ishlash bo‘yicha tayyorgarligi, birinchi navbatda, ularning pedagogik kompetensiyasi, kommunikativ ko‘nikmalari, ijtimoiy-psixologik sezgirligi va zamonaviy metodlarni qo‘llash qobiliyatiga bog‘liq. Mazkur jarayonni samarali yo‘lga qo‘yish uchun pedagogik ta’lim tizimida amaliy mashg‘ulotlar, treninglar, kuzatuv va tahlil asosida yondashuvlar yo‘lga qo‘yilishi zarur. Zamonaviy tendensiyalarni chuqur anglagan holda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ijtimoiy-madaniy muhitni boshqaruvchi lider sifatida shakllanadi. Bu esa o‘z navbatida, boshlang‘ich ta’lim bosqichida har

bir bolaning barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Serikov V.V. Obshchaya pedagogika: teoriya lichnostno orientirovannogo obrazovaniya. Moskva: Logos. 2002 y.

2. Fridman L.M. Psikhologiya obshcheniya i vzaimodeystviya v pedagogicheskom protsesse. Moskva: Pedagogika. g. 1997 .

3. Teshaboyev M. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti. 2015 y.

4. Jo‘rayev D. Pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar. Toshkent: Yangi asr avlodi. 20219 y.

5. UNESCO Inclusive Education: Guidelines and Frameworks. Paris: UNESCO Publishing. [https://unesdoc.unesco.org] (https://unesdoc.unesco.org) 2021.

6. UNICEF Social and Emotional Learning in Primary Education. New York: UNICEF. https://www.unicef.org/education 2020.

7. Ziyayev Z. Interaktiv o‘qitish metodlari asoslari. Samarqand: SamDU nashriyoti. 2020 y.

8. Nuriddinov H. Raqamli pedagogika: O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. Toshkent: TDPU nashriyoti. 2021 y.

9. Shodmonova S. Boshlang‘ich ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv. Toshkent: O‘qituvchi. 2018 y.

10. Yuldasheva M. Fasilitativ yondashuvlar asosida darslarni tashkil etish. Andijon: Andijon davlat universiteti nashriyoti. 2023 y.

BO‘LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA IXTISOSLIK FANLARINING ROLI

O‘RINOV UYG‘UN ABDULLAYEVICH
BDTU, Transport vositalari muhandisligi kafedrasi professori
E-mail: uygun21@mail.ru
YO‘LDOSHEV MIRZOBEK NURILLOYEVICH
BDTU, Transport vositalari muhandisligi kafedrasi tayanch doktoranti
E-mail: mirzobek1196@mail.ru
Tel: +99890 512 46 86

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak muhandislarni tayyorlash jarayonida ixtisoslik fanlarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Ixtisoslik fanlari nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtiradi, balki talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek,*

innovatsion yondashuvlar orqali muhandislik kadrlarini tayyorlash samaradorligini oshirishga oid taklif va tavsiyalar berilgan.

***Kalit so'zlar**: muhandislik ta'limi, ixtisoslik fanlari, kasbiy kompetensiya, amaliy ko'nikma, zamonaviy pedagogika, integratsiyalashgan ta'lim, innovatsion yondashuvlar, muammoli o'qitish, muhandislik kadrlarini tayyorlash, o'qitish metodikasi.*

Muhandislik yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan raqobatbardosh kadrlarga ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, ta'limni raqamlashtirish va elektron ta'lim resurslaridan foydalanish modellari amaliyoti tatbiq etish jadallashmoqda. Muhandislik ta'limi sifatini hamda samaradorligini oshirishda islohotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda globallashuv sharoitida oliy ta'limning strategik maqsadlaridan biri raqobatbardosh inson kapitalini tayyorlash va butun umr davomida mutaxassis shaxsining kasbiy rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratish orqali xorijiy davlatlarida milliy jamiyatlar va iqtisodiyotlarning rivojlanishiga ko'maklashishdan iborat. Shu munosabat bilan bo'lajak muhandislarni texnik oliy o'quv yurtlarida tayyorlash alohida ahamiyatga ega, chunki turli jarayonlarni avtomatlashtirish uchun mahsulot va dasturiy ta'minotni loyihalash va joriy etish ushbu mutaxassislik bo'yicha mutaxassislarga bog'liq bo'lib, u yuqori qo'shimcha qiymat va iqtisodiyot rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Belgilangan vazifalarni o'z vaqtida amalga oshirish uchun yo'l xaritasi ishlab chiqilib, ijrosi ta'minlanishi uchun dasturil amal bo'lib xizmat qilmoqda.. Belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda tayyorlanayotgan muhandislarda kasbiy kompetensiyalari, bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish amaldagi metodikasi, o'quv-metodik, o'quv-uslubiy, didaktik, texnik-texnologik ta'minotini bugungi kun talablari asosida takomillashtirish hamda zamonaviy kadrlarni bilim va ko'nikmalarni oshirish, olingan bilimlarini baholash mezonlari, o'qitishning pedagogik strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi[1].

Texnika yo'nalishlarini o'qitish tizimida klassik metodlar, yondashuvlardan foydalanish orqali bugungi kun talablariga to'liq mos bo'lishda muammolarga duch kelinadi. Shuning uchun ham yo'nalishdagi mutaxassislik fanlarining tarkibi va uning tuzilishidan kelib chiqib o'qitish metodikasini tanlash eng muhim omil hisoblanadi. Tanlagan yo'nalishning mutaxassislik fanlar sohalardan kelib chiqib, xususiyatiga ko'ra o'quv xonalarida, ishlab chiqarish korxonalari yoki maxsus labaratoriyalarida o'tilishi tayyorlanayotgan kadrning bilim sifatiga ijobiy ta'sir qiladi. Shuning uchun texnika OTMlarda kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish maqsadida kasbga tayyorlash faoliyatini mazmunini takomillashtirish, professoro'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish borasida izchil ishlarni amalga oshirish zarur. Bugungi zamonaviy mehnat bozoridagi asosiy talab, ish beruvchilarning o'z kasbiy vazifalarini to'laqonli bajara oladigan har tomonlama yetuk kadrlarga bo'lgan ehtiyoji ortib bormoqda. Yuqori natijalar va ko'rsatkichlarni oshirish uchun professor-o'qituvchilarning samarali mehnati, kasbiy malakasining oshib borishi va uni rivojlantirish orqali erishish mumkin.

Kasbiy malakasi va ko‘nikmasi yuqori bo‘lgan professor-o‘qituvchilar bugun kun talabidagi kadr tayyorlashni uddalay oladi. Ta’lim jarayonini sifatli tashkil etish pedagogning asosiy vazifasi hisoblanadi[2]. Yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimida tub burilishlar va chuqur isloxotlar olib borilmoqda. Oliy ta’lim tizimidagi davlat ta’lim standartlari takomillashtirilib, namunaviy o‘quv dasturlar ish beruvchilarning talab va takliflari asosida yanada boyitildi. Tayyorlanayotgan kadrlar bilimi, ko‘nikmasi va malakalarini rivojlantirishda e’tibor ularda ta’lim yo‘nalishi hamda mutaxassisligiga mos kompetensiyalar bilan uzviylik asosida rivojlantirishga qaratilmoqda. Bugungi kunda zamonaviy bilimga ega, yetuk intellektual salohiyatli mutaxassisni talab qilmoqda. Bugungi kadrlar faol ijodiy-mantiqiy fikrlovchi, izlanuvchan, ilmiy axborotlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirib oluvchi, kreativ fikrlaydigan va ularni o‘z kasbiy faoliyatida qo‘llay oluvchi mutaxassis bo‘lib yetishishi zarurligi namoyon bo‘lmoqda[3].

Texnika yo‘nalishlari bo‘yicha muhandislar tayyorlashda ta’lim jarayoniga zamonaviy usullar, vositalar, metodlarni qo‘llash asosida yondashuvlarni o‘zgartirish zarur. Misol uchun mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish ta’lim yo‘nalishlarida “Mashinasozlik texnologiyasi asoslari” fani o‘qitiladi. Bu fanni o‘qitishda ma’ruza, amaliyot darslarida ko‘rgazmalilik darajasini yuqori bo‘lishi ta’limning didaktik talabalrini bajarishga yordam beradi. Albatta bu kabi mutaxassislik fanlaridan ko‘rgazmali materiallar, jixozlar, uskuna va modellardan dars jarayonida to‘liq foydalanishda muammolar mavjud. Misol uchun fanga oid mexanizmlarni ko‘rsatishda cheklanganligi bois bir vaqtning o‘zida ko‘rsatishning imkoni yo‘q. Bu muammoni yechimmi sifatida dars jarayoniga yondashuvni o‘zgartirish lozim. Buning uchun didaktik, pedagogik sharoit sharoitlarni aniqlash va shunga mos ravishda ta’lim jarayonini tashkil etish zarur[4].

Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarining kasbiy kompetensiyalarini (kommunikativ, hamkorlik kompetensiyalari, shaxsiyatga moslashish kompetensiyalari) samarali rivojlantirishga imkon beradigan pedagogik shartlar aniqlangan va asoslangan. “Mashinasozlik texnologiyasi asoslari” kursi mazmunini raqobat muhitidagi ijtimoiy o‘zaro ta’sir holatlari bilan boyitish;

- o‘quv jarayonida talabaning boshqaruv resursini rivojlantirish va uning ishonch darajasini oshirish uchun foydalanish;

- o‘z-o‘zini rag‘batlantirish bo‘yicha individual topshiriqlarni bajarish; kasbiy kompetensiyalarning tarkibiy qismlari aniqlanadi;

- birinchi qism xulq-atvor namunalarini, qadriyatlarni, motivatsiyani, imtiyozlarni baholashni o‘z ichiga oladi, ya’ni tez o‘zgartirish qiyin yoki imkonsiz bo‘lgan xususiyatlar, ikkinchi qism o‘quv jarayonida juda oson va tez egallash mumkin bo‘lgan boshqaruv ko‘nikmalarini baholash[5].

Samarali boshqaruvga tayyor bo‘lmaslik ko‘pincha turli qiyinchiliklarga olib keladi. Zamonaviy sharoitda bilim va ko‘nikmalar ta’lim natijasining birligi sifatida jamiyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur, ammo etarli emas. Texnologik jarayonlarda bo‘lajak muhandisining kasbiy mahorati bugungi kunda samarali va zamonaviy natijaga erishish, ilmiy va ishlab chiqarish muammolarini

hal qilish sharti sifatida qaralmoqda. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda bo‘lajak muhandislarni raqobatbardosh va sifatli kadirlarni tayyorlash bugungi kunnig dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti.: Ped.fan.dokt. … diss. avtoref. - T.: 2007. - 37 b.

2. Ismailova Z.K. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari: Diss. ... ped. fan. dok. – T.: 2006. – 345 b.

3. O‘rinov U.A. Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda masofaviy ta’limning afzalliklari. “O‘zMU xabarlari”. Ilmiy jurnal. Toshkent, 2020. №1/2, 148-151 b.

4. Yo‘ldoshev, Mirzobek. "Texnika oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilarining ixtisoslik fanlarini o ‘qitishda interaktiv va innovatsion yondashuvlar." Modern Science and Research 4.3 (2025): 227-229.

5. Yo'ldoshev, M. (2025). Texnika oliy ta’lim muassasalarida ixtisoslik fanlarini o ‘qitish orqali talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish. "Педагогическая акмеология" международный научно-методический журнал, 1(18).

O‘QUVCHILARNI O‘QUV STRATEGIYALARIGA (LEARNING STRATEGIES) O‘RGATISH – PEDAGOGIK FENOMEN SIFATIDA

Pulatova Muattar Kurakboyevna
muattarkurakboyevna@gmail.com
+998883962191
Samarqand Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim vositalari sanalgan o‘quv startegiyalari, pedagoglarning o‘quvchilarga sifatli bilim olishida maslahatchilik kompitensiyasi, o‘quvchi o‘z ustida mustaqil ishlay olish ko‘nikmalarini rivojlantirishida pedagoglarning roli, o‘qituvchilar o‘zlarida yangi yondashuvlarni shakllantira olishi, rivojlantirishi masalalari yuzasidan fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Oson o‘quv uslublari, o‘rganish usullari, strategik yondashuv, strategiya, o‘quv strategiyasi, ta’lim oluvchi, kasbiy rivojlanish, pedagogik maslahat.

Kirish. Tez rivojlanib borayotgan hayot sharoitlari barkamol inson uchun zaruriy ko‘nikmalarning minimal hajmini ham yuqori darajada boyitmoqda. Ta’lim muassasalari o‘zlarining bitiruvchilaridan kutayotgan har tomonlama shakllanganlik kompetentliligi indikatorlari miqdori va sifati ham oshib bormoqda. Ma’lumotlar eskirib, qadrsizlanishi uchun oz vaqt yetarli bo‘lgan mazkur davrda axborotni tezda o‘rganish, malakali foydalana olish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, ta’lim mazmunini yangilash jarayonining davom etayotgani, qisqa davrda keng ko‘lamli ma’lumotni qayta ishlash va jarayonga tadbiq etish, yangi, individual o‘quv strategiyalarini ishlab chiqish, takomillashtirishni taqazo

etmoqda. Shundan kelib chiqib, ta’lim jarayonini hayot davomida o‘qish, o‘z-o‘zini tartibga soluvchi ta’lim kabi strategik yondashuvlar bilan boyitish zamonaviy maktabning hozirgi vaqtdagi eng dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Ta’lim oluvchi jamiyatda muvafaqqiyatga erishgan shaxs sifatida kamolga yetishi uchun o‘z ehtiyojlari safiga bilim olish, ko‘nikmalarni mustahkamlash kabi harakatlarni turmush tarzining ajralmas qismiga aylantimog’i lozim. O‘quvchi ongida muntazam ravishda o‘z ustida ishlash ko‘nikmasini kundalik hayotiy ehtiyoj sifatida qabul qilinishida dastlabki turkini pedagog o‘z vaqtida bera olishi muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilarning o‘quvchilarga o‘quv strategiyalariga o‘rgatishida quyidagi maqsadlar uchun yordam berish nazarda tutiladi: matnni o‘qish va tushunish, loyihalar va yozma ishlarni bajarish, eslatmalar yozib olish, vaqtni boshqarish, tashkil eta olish, ma’lumotlarni o‘rganish va eslab qolish, test topshirish, muammoni hal qilish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va boshqalar.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda maktablar o‘quv faoliyati fan va texnologiyaning amaliy integratsiyasini, zamonaviy ta’lim talablaridan biri sifatida barcha o‘quvchilar bir xil tushuna olishi va tafakkurida ko‘nikma hosil qila olishi uchun innovatsion o‘quv strategiyalarini qo‘llashni talab qilmoqda. O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi bir xil bo‘lmasligi nuqtai nazaridan, har bir o‘quvchining o‘z ehtiyojlariga alohida e’tibor qaratishni lozim. O‘quv strategiyalarga asoslangan o‘quv faoliyati nafaqat tushuntirish, balki, ko‘rsatish, savol bera olish, hayot bilan bog’lash, eng yuqori natijalar tahlili, fiziologik imkoniyatlar sarhisobi va boshqalarga asoslanadi. Ta’lim olishning har qanday turida an’anaviy, innovatsion, masofaviy-onlayn yoki mustaqil ta’lim turlarida o‘quvchilarda o‘zlariga akademik maqsadni qo‘ya olishlari va mazkur maqsadga yetaklovchi individual harakat trayektoriyasini yarata olish ko‘nikmasini shakllantirish masalasi o‘zining yangi yechim va takliflarini kutmoqda. Kutilgan natijaga erishish yo‘lida o‘zlarini yo‘naltirishlari va o‘z-o‘zini rag’batlantirish ko‘nikmasini shakllantirishlari ham nazarda tutiladi.

O‘quv strategiyalari o‘quvchilarning samarali o‘rganishlari uchun foydalanadigan usullar hisoblanadi. Shuningdek, o‘quv strategiyasini akademik va akademik bo‘lmagan sharoitlarda mazmunni yanada oson va samarali o‘zlashtirish yoki boshqa vazifalarni bajarish uchun ma’lum ko‘nikmalarni tashkil qilish va ulardan foydalanishning individual usuli sifatida izohlash mumkin. O‘quv strategiyalari o‘qituvchilarga ta’lim oluvchilarga ma’lum tarkib yoki ko‘nikmalarni emas, balki qanday o‘rganishni o‘rgatish imkonini beradi. Bu o‘quvchilarning o‘quv jarayonining faol ishtirokchilari bo‘lishini ta’minlashga yordam beradi. Strategik yondashuvga asoslangan jarayonda o‘quvchilar o‘qituvchidan ma’lumot olmaydilar va baholashdan passiv foydalaniladi, chunki ular o‘quv jarayonining barcha jihatlarini qanday hisobga olishni o‘rganadilar. O‘quv strategiyalaridan bunday faol foydalanish o‘quvchilarga ko‘nikmalarni rivojlantirishga, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishga va o‘rganish jarayonida motivatsiyani oshirishga yordam beradi. O‘quv strategiyalardan foydalanish o‘z-o‘zini o‘rganishga yordam beradi va o‘quvchilarga o‘zlarining ta’limlari uchun javobgarlikni zimmalariga

olishga sababchi bo‘ladi. O‘quv strategiyalaridan foydalanishdan maqsad - o‘quvchining motivatsion yoki ruhiy holatiga hamda ularning yangi bilimlarni tanlashi, egallashi, tashkil qilishi yoki birlashtirishiga ta’sir qilishdir.

O‘quv strategiyalari kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish uchun ham zarur bo‘lgan faol, o‘z-o‘zini jalb qilish vositalaridir. Shuningdek, o‘quvchilar tomonidan yangi ma’lumotlarni olish, saqlash, eslab qolish va ulardan foydalanish jarayonini yaxshilash uchun ishlatiladigan ko‘plab ongli harakatlar hisoblanadi.

Umumta’lim maktablari o‘qituvchilari o‘quvchilarga o‘quv strategiyalarini o‘rgatishi, mazmunni tez, oson va manfatdorlik bilan o‘rganishga olib keladi. O‘quvchilarga o‘quv strategiyalarni o‘rgatish doirasida shaxsning o‘rganish usullarini tahlil qildik. Chunki, o‘quvchilar o‘quv strategiyalarini o‘rganishlari uchun amalga oshiriladigan jarayonlar o‘rganish usullari orqali amalga oshiriladi. Tadqiqotimiz doirasida o‘rganish usullarining uchta rivojlantiruvchi modellari aniqlandi:

1. Kognitiv modellar;
2. Motivatsion nazariya modellari;
3. Muammoni hal qilish va tanqidiy fikrlash modellari. [5]

O‘quvchilar boshlang’ich sinflardagi ko‘nikmalarni o‘rganishdan ko‘ra, o‘rta sinflardagi mazmunni o‘rganishga o‘tganda mustaqil ravishda darsliklardan ma’lumot o‘qish, ma’ruza matnlari, o‘z-o‘zini boshqarish va yozma insholar, testlarda tushunishlari uchun ortib borayotgan talablarga duch kelishadi. Yuqori sinflarga o‘tganlarida esa ular mavzuga emas, balki amaliyotga e’tibor berishni boshlaydilar. Ular vazifalar yoki muammolarni hal qilish uchun vaqt va kuch sarflashda ko‘proq motivatsiyaga ega bo‘lishi kutiladi. Strategik yondashuvning motivation aspektlari funksional jihatdan ayni nuqtalarda samarali natijalarga ega bo‘lishda asqotishi nazarda tutiladi.

Bugungi kunda ta’lim jarayoniga asoslangan strategik yondashuvlarning aksariyati til o‘rganish uchun moslashgan bo‘lsa-da, ulardan barcha fanlarni o‘qitishda foydalanish o‘quv strategiyalarining murakkabligini tushunish uchun yaxshi asos yaratgan holda, funksoinal ahamiyatni ochib berishga hizmat qiladi. O‘quv strategiyalarini tasniflashning ko‘plab usullari mavjud. O‘quv strategiyalarni mazmuni jihatidan kognitiv o‘quv strategiyalari; xulq-atvor strategiyalari; o‘z-o‘zini tartibga solish strategiyalari toifalarga bo‘lish mumkin.

1. Kognitiv o‘quv strategiyalari;
2. Xulq-atvor strategiyalari;
3. O‘z-o‘zini tartibga solish strategiyalari. [3]

Natija. Foydalanish davriga nisbatan o‘quv strategiyalari darsdan oldin, dars vaqtida hamda darsdan so‘nggi kabi klassifikatsion formaga ega. Mazmunni bilishga qaratilgan o‘quv mashg’ulotlarini ma’lum amaliyotlar trayektoriyasi jihatidan quyidagi yondashuvlarda amalga oshirilishi mumkin: rejalashtirish strategik yondashuvi - individual o‘rganish uslubi yoki ijobiy o‘rganish strategiyasi; eksperimental strategik yondashuvi - yangi ma’lumotlarni tartibli tizimga aylantiradigan va uni doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqadigan uslubiy,

ammo moslashuvchan yondashuv; monitoring strategik yondashuvi - o‘z-o‘zini boshqarish va ma’lumotdan foydalanishga tanqidiy sezgirlik va boshqalar.

Sinfda o‘qituvchi uchun o‘quv strategiyalarini tanlash barcha o‘quvchilar uchun muhim. O‘quvchilar tomonidan esa strategiyalardan foydalanilish uchun, o‘qituvchilar tomonidan o‘rgatilish uchun guruhlash yanada osonlashtiradi. Hozirgi davrda ushbu strategiyalarni ayrim pedagoglar menejment ko‘nikmalari va o‘qishni tushunish singari tushunchalar ochib beradi.

Xulosa. O‘quvchilar turli xildagi xarakter-xususiyatlariga, psixologik jihatlarga ega. Shu sababli, turlicha individual yondashuvni talab etishadi. Bu holat sinfdagi har bir o‘quvchiga individual o‘quv strategiyalarini ishlab chiqishni, tanlashni talab qiladi. Darhaqiqat, sinfdagi o‘quvchilar iqtidorli yoki o‘ta iqtidorli bo‘ladi. Ularning idrok kanallari xoslangan yondashuvlar o‘zini oqlayotgan mazkur davrda o‘quv strategiyalaridan foydalanish masalasi dolzabligini saqlab qolmoqda deyish mumkin.

Agar o‘quvchilar o‘quv jarayonida yuqorida sanab o‘tilgan bir nechta omillarni hisobga olsalar, kamida belgilangan maqsadga erishish uchun o‘qish, muammolarni hal qilish va o‘qish paytida qat’iyatlilik tajribasi haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. O‘quv strategiyalari o‘quvchilarni akademik muvaffaqiyatga olib boruvchi juda muhim omil deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Argyris C., D. Schon. Organizational Learning: Vol. 2. Theory, Method, and Practice. Reading: Addison-Wesley1996.

2. Fleming N. Teaching and learning styles VARK strategies. Christchurch. 2006.

3. Weinstein C., R. Mayer. “The teaching of learning strategies,” in Handbook of Research on Teaching, ed. M. C. Wittrock (New York: Macmillan), 1986 315–327.

4. Wittrock M.C., Alesandrini K.. Generation of summaries andanalogies and analytic and holistic abilities. Am.Educ.Res. J. 1990.

doi:10.3102/00028312027003489

5. Zimmerman B.J. “Models of self-regulated learning and academic achievement,” in Self-Regulated Learning and Academic Achievement: Theory, Research and Practice, eds J. Z. Barry and H. S. Dale (New York: Springer) 1989.

6. Савинова Л.Ф. Современные модели повышения квалификации: опыт, проблемы, перспективы // Научные обеспечение системы повышения квалификации кадров. – Челябинск, 2013.

7. Ройтблат О.В. Развитие теории неформального образования в системе повышения квалификации педагогических работников: дисс... док. пед. наук. – Тобольск., 2015.

8. Jumaniyozova M.T. Malaka oshirish jarayonida o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari (tarix fani o‘qituvchilari misolida): ped. fan. nom... diss. – Toshkent, 2007

PEDAGOGIK FAOLIYATDA EKZISTENSIAL INQIROZNI YENGISHDA QO‘LLAB-QUVVATLOVCHI MUHIT YARATISHNING AMALIY AHAMIYATI

Saydaliyeva Mehriniso Umidullayevna
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: saydaliyevamekhriniso@gmail.com
Tel: + 998 99 542 91 43

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagog faoliyatida yuzaga keluvchi ekzistensial inqiroz holati, uning shaxsda namoyon bo‘luvchi ko‘rinishlari hamda aynan shu muammoni yengishda qo‘llab – quvvatlovchi kasbiy muhitning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqsad – pedagoglarda ruhiy tushkunlikni oldini olishda ta’lim muassasasining ijtimoiy –psixologik sharoitlari qanday rol o‘ynashini yoritib berishdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: Ekzistensial inqiroz, kasbiy befarqlik, “reflektiv guruh suhbatlari”, ishonchsizlik, ijtimoiy qadrsizlik hissi, motivatsiya pasayishi, ma’naviy inqiroz.

Zamonaviy pedagogik faoliyat nafaqat bilim berish, balki insonni shaxs sifatida shakllantirish, uning ichki dunyosiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish vazifasini ham bajaradi. Shu boisdan bugungi davr talabi o‘qituvchining o‘zi ham ma’naviy jihatdan mustahkam, psixologik jihatdan barqaror bo‘lishini taqozo etadi. Afsuski, so‘nggi yillarda pedagoglar orasida ichki emotsional charchoq, hayotidan ma’no yo‘qotilishi, hissiy befarqlik kabi alomatlar kuzatilmoqda. Bu holat ilmiy adabiyotlarda ekzistensial inqiroz deb ataladi.

Ekzistensial inqiroz – bu shaxsning o‘z hayotining ma’nosi, maqsadi va o‘z-o‘zini anglash jarayonidagi chuqur psixologik va falsafiy ziddiyatlar sifatida ta’riflanadi. Pedagogik faoliyat kontekstida ekzistensial inqiroz o‘qituvchilar yoki o‘quvchilarning o‘z kasbiy yoki shaxsiy hayotida ma’no yo‘qotishi, motivatsiya pasayishi yoki o‘ziga ishonchsizlik kabi holatlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Bunday inqirozlarni yengishda qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish muhim ahamiyatga ega, chunki bu muhit shaxsning psixologik barqarorligini ta’minlash, o‘zini anglash va o‘sish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Ekzistensial inqiroz atamasi birinchi marta XX asrda Viktor Frankl tomonidan keng yoritilgan. Unga ko‘ra, inson hayotda ma’no ko‘rmasa, psixologik jihatdan tushkunlik holatiga tushadi va bu uning barcha faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Rollo May esa ekzistensial muammoni insonning o‘z mavjudligini anglash va uni qabul qilishdagi ichki kurashi sifatida tushuntiradi. Pedagogik faoliyatda bu inqiroz quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

- O‘z ishidan ma’naviy qoniqmaslik;
- Kasbiy befarqlik yoki “emotsional charchoq” sindromi;
- Ijtimoiy qadrsizlik hissi;
- Kelajakdagi o‘z o‘rnini ko‘ra olmaslik.

Bunday holatlarda o‘qituvchining motivatsiyasi pasayadi, u o‘zining kasbiy identikligini yo‘qotadi. Shuning uchun bu muammoni vaqtida aniqlab, zaruriy shart-sharoitlarni yaratish nihoyatda muhim. Qo‘llab-quvvatlovchi muhit – bu o‘qituvchini ma’naviy, psixologik va ijtimoiy jihatdan kuchli tutib turuvchi, u o‘zini erkin, qadrli va muhim his qiladigan makondir.

Jahon tajribasida o‘qituvchilarni ruhiy inqirozlardan himoya qilishga doir ko‘plab amaliy yondashuvlar mavjud. Masalan, Finlandiyada har bir maktabda psixologik qo‘llab-quvvatlovchi guruh mavjud, Yaponiyada darsdan so‘ng “reflektiv guruh suhbatlari” o‘tkaziladi, O‘zbekistonda ayrim ta’lim muassasalari o‘z o‘qituvchilari uchun motivatsion treninglar tashkil etmoqda. Dunyodagi o‘qituvchilarning 45% dan ortig‘i o‘z ishida hayotiy ma’no va ruhiy qoniqish izlaydi. Psixologik sog‘lom muhit mavjud bo‘lgan ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar almashinuvi 35% ga kamroqni tashkil etadi.

Qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish strategiyalari:

1. Psixologik xavfsizlikni ta’minlash: Qo‘llab-quvvatlovchi muhit o‘qituvchilar va o‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, xatolaridan qo‘rqmaslik va yangi imkoniyatlarni sinab ko‘rish imkonini beradi. Bu ekzistensial inqirozning salbiy ta’sirini kamaytiradi;
2. Ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash: O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi ijobiy munosabatlar, hamkorlik va qo‘llab – quvvatlash inqiroz davrida shaxsning o‘zini yolg‘iz his qilmasligiga yordam beradi;
3. Ochiq muloqotni rivojlantirish: O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida hurmatli va ochiq muloqot muhitini shakllantirish. Masalan, o‘qituvchilar o‘quvchilarning shaxsiy muammolarini tinglash va ularga maslahat berish orqali qo‘llab-quvvatlashi mumkin.
4. Moslashuvchan ta’lim usullarini qo‘llash: Turli xil o‘quv strategiyalari va moslashuvchan guruhlash orqali o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashish.
5. Psixologik yordam ko‘rsatish: O‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun maslahat xizmatlari va psixologik yordam tashkil etish, ayniqsa travma yoki stress holatlarida.
6. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish: Raqamli vositalar va onlayn platformalar orqali o‘quv jarayonini qiziqarli va ma’noli qilish, bu esa motivatsiyani oshiradi.
7. Madaniy va global kompetentsiyalarni rivojlantirish: Global fuqarolik ta’limi orqali o‘quvchilarda mas’uliyat hissi va dunyoqarashni shakllantirishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, ekzistensial inqiroz – bu pedagoglar orasida ko‘p uchraydigan, ammo ko‘pincha e’tibordan chetda qoladigan muammo. Bunday inqiroz nafaqat shaxsiy salomatlikka, balki ta’lim sifati va o‘quvchilarning rivojiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu muammoni yengish uchun o‘qituvchini ruhiy va kasbiy jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi ijobiy muhit yaratish muhimdir. Amaliy choralar, innovatsion yondashuvlar va insonparvar munosabat – pedagog kasbining barqaror rivoji garovi bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik faoliyatda ekzistensial inqirozni yengish uchun qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish o‘qituvchilar va o‘quvchilarning psixologik farovonligini ta’minlash, motivatsiyani oshirish va ma’no topishga yordam berishda muhim ahamiyatga ega. Ochiq muloqot, moslashuvchan ta’lim usullari, psixologik yordam va innovatsion texnologiyalar orqali bunday muhitni shakllantirish mumkin. Yuqoridagi adabiyotlar ushbu jarayonning nazariy asoslarini tushunishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.A.Mustaeva. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mazmuniy xususiyatlari. Ilmiybaza.uz. Sahifa: 7-21. 2023;
2. L.N. Markina. Ijtimoiy pedagogika va psixologik yordam usullari. Ilmiybaza.uz. Sahifa: 17-21. 2020;
3. N.T. Omonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU. Sahifa: 45-60. 2006;
4. Senchuri, J. & Kassata, A. (2023). Innovatsiyalar tadbiqiga ta’sir etuvchi omillar. ResearchGate. Sahifa: 10-15;
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli qarori “Ta’lim sifatini oshirish strategiyasi”;
6. 2023–2024 yillarda o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligini oshirish bo‘yicha normativ hujjatlar.

SO‘ROVGA ASOSLANGAN TA’LIM MEXANIZMI ASOSIDA O‘QITISH

Fayzulleyeva Gulchexra Sharipboyevna
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi,
Pedagogika, psixologiya va ta’lim
texnologiyalari kafedrasi mudiri
Shodiyorova Umida Shodiyor qizi
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi,
Pedagogika, psixologiya va ta’lim
texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi
umidashodiyorova1@gmail.com
Telefon: +998979340495

Annotasiya. Ta’limda o‘quvchilarni mustaqil faoliyat ko‘rsata olishga, muammolarga to‘g‘ri yechim topishga o‘rgatish va o‘qitilayotgan fanlarni samarali o‘zlashtirishini ta’minlash o’qituvchining ustuvor vazifadir. Ushbu maqolada so‘rovga asoslangan ta’lim mexanizmining nazariy asoslari, usullari hamda o‘quvchilarda qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda so‘rovga asoslangan ta’lim yondashuvi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, savol berish ko‘nikmalarini, ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligi

isbotlandi. Tajriba natijalari ta’lim jarayonida ushbu mexanizmni qo‘llash o‘quvchilarning faolligi va bilim darajasini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi
Kalit so‘zlar: so‘rovga asoslangan ta’lim, samarali o‘qitish, interaktiv metodlar, izlanish, mustaqil fikrlash, ta’lim texnologiyalari bilim, konstruktivizm, jarayon, tajriba, amaliyot.

Аннотация. В образовании первостепенной задачей учителя является научить учащихся самостоятельно работать, находить правильные решения проблем и обеспечить эффективное усвоение ими преподаваемых предметов. В данной статье анализируются теоретические основы, методы и применение механизма исследовательского обучения среди учащихся. Исследование доказало, что исследовательский подход к обучению является эффективным педагогическим инструментом для развития самостоятельного мышления учащихся, навыков постановки вопросов, творческого и критического мышления. Результаты эксперимента показали, что использование данного механизма в образовательном процессе значительно повышает активность и уровень знаний учащихся. **Ключевые слова:** исследовательское обучение, эффективное обучение, интерактивные методы, исследование, самостоятельное мышление, образовательные технологии, знания, конструктивизм, процесс, опыт, практика.

Abstract. In education, it is the teacher's primary task to teach students to work independently, find the right solutions to problems, and ensure their effective mastery of the subjects being taught. This article analyzes the theoretical foundations, methods, and application of the inquiry-based learning mechanism among students. The study proved that the inquiry-based learning approach is an effective pedagogical tool for developing students' independent thinking, questioning skills, and creative and critical thinking. The results of the experiment showed that the use of this mechanism in the educational process significantly increases the activity and level of knowledge of students.
Keywords: inquiry-based learning, effective teaching, interactive methods, research, independent thinking, educational technologies, knowledge, constructivism, process, experience, practice.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlar, tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan fan-texnika talablari – ta’lim usuli bilan jamiyatning raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, barkamol avlodni shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoji o‘rtasida nomutanosiblikni vujudga keltirdi. Zamonimiz moslashuvchan, osongina ta’lim beradigan, mustaqil faoliyatga har doim tayyor bo‘lgan, hayoti davomida qayta-qayta malaka oshirishga qodir ta’lim mutaxassisini talab etmoqda. Shu sababli ta’lim beruvchi o‘z harakatlarini boshqarishga qodir bo‘lishi va ta’lim oluvchilarining harakatlarini to‘g‘ri yo‘naltirishi, tanlangan vaziyatda mustaqil ravishda mas’uliyatli qarorlarni qabul qilishga tayyor bo‘lishi, mavjud vaziyatlarda eng maqbul yechimlar topa olishi, o‘z

qarorlarining oqibatlari uchun mumkin bo‘lgan variantlarni saralab olishi, tashabbuskor, mustaqil, hamkorlik qilishga qodir bo‘lgan o‘qimishli, talabchan bo‘lishi kerak.

Yangi, demokratik jamiyatni barpo etish, kelajak poydevorini qurish, hech shubhasiz, har birimizdan qat’iyatli va omilkor bo‘lishni, yangicha fikr yuritish, yangicha ishlashni talab etmoqda. [1, 8-b]

Zamonaviy ta’lim jarayoni o‘quvchilarda nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirish, balki ularni anglash, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishni talab etadi. Bu esa o‘qitishning an’anaviy usullaridan voz kechib, interaktiv, izlanishga asoslangan, shaxsga yo‘naltirilgan metodlarga o‘tishni taqozo etadi. So‘rovga asoslangan ta’lim (SAT) maqsadga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlardan biridir. Ushbu ta’lim vositasida o‘quv muhitida o‘quvchilar o‘quv jarayonida faol ishtirok etadilar va ularga tabiiy qiziqishlarini o‘rganish imkoniyati beriladi. Ya’ni o‘quvchilar ko‘proq amaliy bajarib, o‘rgangan narsalarini haqiqiy hayot bilan bog‘laydilar. Tadqiqotlarga ko‘ra, o‘quvchilarni o‘quv jarayonining markaziga qo‘yadigan SAT o‘qitish usuli tanqidiy fikrlash, muammoni yechish va ijodkorlik qobiliyatini oshirishi aniqlangan.

So‘rovga asoslangan ta’lim (SAT) quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

- O‘quvchilarni izlanishga va o‘z fikrini asoslashga undaydi;
- Mustaqil qaror qabul qilish va mas’uliyatli yondashishni shakllantiradi;
- O‘rganilayotgan mavzularni chuqur va ongli o‘zlashtirish imkonini yaratadi;
- O‘quv jarayoniga yuqori motivatsiya va qiziqish olib kiradi;
- Ijodiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Amerikalik faylasuf va pedagog J. Dyui (Dawey) zamonaviy ta’lim falsafasining asoschilaridan biri hisoblanadi. Uningcha, ta’lim bu tajriba asosida sodir bo‘luvchi faol jarayon bo‘lib, o‘zida markaziy figuraga aylanadi. Dyuining “Ta’lim – bu hayot uchun tayyorgarlik emas, u hayotning o‘zi” g‘oyasi SAT degan raqobat ta’limning poydevoridir (Dawey, J. 1938)

Jerom Brunerning fikricha, bilim olish – bu faol kognitiv jarayon bo‘lib, o‘quvchilar yangi bilimlarni mavjud bilimlar asosida mustaqil hosil qiladilar. Bruner so‘rovga asoslangan ta’limda o‘quvchilarning savol berish, taxmin qilish va izohlash orqali bilimni o‘zlashtirishini asoslagan (Bruner, J. 1961).

Vigotskiy “Eng proksimal (yaqin) zonasi” konsepsiyasida SAT ning ijtimoiy jihatini yoritadi. Unga ko‘ra, o‘quvchilar o‘zlaridan bilimda ustun bo‘lgan kattalar yoki tengdoshlar yordamida rivojlanadi. SATda o‘qituvchi ta’limga o‘quvchini murakkab savollar orqali yaqin zonasiga olib chiqish va u yerda izlanish olib borish uchun zarur resurslar bilan ta’minlashi mumkin. Vigotskiyning fikricha, bilim ijtimoiy muloqot orqali shakllanadi, bu esa SAT ning muloqot guruhi bilan ishlash bosqichiga to‘g‘ri keladi (Vigotskiy, L.S. 1978).

So‘rovga asoslangan ta’lim (SAT) zamonaviy tadqiqotlarda ham keng o‘rganilmoqda. Xususan, Xarlak (Harlen, 2010), Pedaste (Pedaste et al., 2015) va boshqa tadqiqotchilar bu uslubning o‘quvchining tanqidiy fikrlash, muammolarni

hal etish, hamkorlikda ishlash va mustaqil o‘rganish kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rnini e’tirof etganlar. Pedaste va hammualliflari tomonidan ishlab chiqilgan so‘rovga asoslangan o‘qitishning bosqichli modeli quyidagilarni o‘z ichiga oladi: muammoni anglash, ma’lumot to‘plash, yechim ishlab chiqish, baholash va xulosa chiqarish.

Tahlil va natijalar. So‘rovga asoslangan ta’lim (SAT) mexanizmi asosida o‘qitish o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga, muammolarni o‘z vaqtida hal qilish qobiliyatlarini oshirishga va o‘z ustida doimiy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam berib, o‘quvchini bilim yaratuvchi emas, balki bilim yaratuvchi subyekt qilib shakllantiradi.

So‘rovga asoslangan ta’lim mexanizmi o‘z mazmuni va mohiyatiga ko‘ra o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga, savol berish va javob izlash orqali bilimni o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Bu yondashuvda o‘qituvchi – bilim beruvchi emas, balki o‘quv faoliyatini yo‘naltiruvchi, rag‘batlantiruvchi va yordam beruvchi sifatida ishtirok etadi. Ta’lim jarayoni esa o‘qituvchining tayyor axborot berishidan emas, balki o‘quvchilarning muammoni aniqlash, savollar qo‘yish, izlanish va tahlil qilish orqali mustaqil bilim hosil qilishidan iborat bo‘ladi.

So‘rovga asoslangan ta’lim (SAT)da keng qo‘llaniladigan asosiy usullar quyidagicha:

1. Savol-javob (muammoli savollar asosida): o‘quvchilarga an’anaviy faktik savollar emas, balki tahlil, izoh, taqqoslash va baholashga asoslangan savollar berilishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Masalan, “Nima uchun bu voqea yuz berdi?”, “Agar sizda ham shunday vaziyat yuzaga kelsa nima qilgan bo‘lar edingiz?”, “Agar sharoit o‘zgarsa, nima bo‘ladi?”, “Siz qanday taklif qilgan bo‘lardingiz?” kabi savollar o‘quvchini izlanishga undaydi. Savol-javob usuli konstruktiv muloqotga asoslangan bo‘lib, o‘quvchining fikrlash jarayonining aktiv bo‘lishiga majburlaydi.

2. “Qanday o‘ylaysan?” texnikasi: o‘quvchilarga muayyan muammoli vaziyat taqdim etilib, ular o‘z fikrlarini asoslab izohlashlari so‘raladi. Bu orqali o‘quvchilar nafaqat o‘z qarashlarini ifoda etadilar, balki tengdoshlarining fikrlariga nisbatan ham tanqidiy yondashishni, o‘zgalarning fikrini diqqat bilan tinglashga o‘rganadilar. Ushbu texnika metakognitiv (o‘ylash haqida o‘ylash) refleksiya – ya’ni, o‘z fikrlash jarayonini kuzatish va tahlil qilish malakasini rivojlantiradi.

3. “Fikrlar devori” hamda “Kichik guruhlar” usuli: o‘quvchilar kichik guruhlarda ishlash orqali o‘zaro fikr almashadi va bunda ular savollar ishlab chiqadi, javoblar izlaydi va yakuniy xulosaga kelishadi. Guruhli ishlar o‘zaro hamkorlikda o‘rganish va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. “Fikrlar devori” texnikasida esa guruhlar o‘z g‘oyalarini devorga yozib, boshqa guruhlar bilan fikr almashadilar.

4. Raqamli interaktiv texnologiyalar: zamonaviy raqamli vositalar SAT imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Masalan, *Mentimeter, Padlet, Jamboard, Kahoot, Quizizz* kabi vositalar orqali o‘quvchilarning interaktiv ishtiroki ta’minlanadi, ular real vaqt rejimida savollar berish, fikr bildirish va muhokama

qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu vositalar yordamida o‘quvchilarning qiziqishi oshadi, bilim olish jarayoni esa jonli va samarali tus oladi.

5. Muammoli vaziyat yaratish va izlanish topshiriqlari: o‘quvchilarga kundalik hayotdagi real vaziyatlarga o‘xshash muammolar taqdim etilib, ularni hal qilish usullari ustida fikr yuritish taklif etiladi. Bu yondashuv “hayotiy kompetensiyalar”ni rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchi bilimni bevosita qo‘llashga harakat qiladi, bu esa o‘zlashtirish darajasini kuchaytiradi.

So‘rovga asoslangan ta’lim mexanizmini amaliyotga tatbiq etish orqali o‘quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi va muammoli vaziyatlarga yechim topish ko‘nikmalari rivojlanadi. Quyida so‘rovga asoslangan ta’lim (SAT)ning o‘quv jarayonida qo‘llanishi yuzasidan olib borilgan amaliy kuzatuvlar, tajribalar va ularning natijalari yoritiladi.

O‘quv jarayonida an’anaviy ma’ruza usuli o‘rniga so‘rovga asoslangan ta’lim elementi sifatida quyidagi bosqichlar amalga oshirildi:

- Muammoli savollar asosida darsni boshlash. “Nima uchun darsda hamma faol bo‘lishi kerak?” degan savol orqali o‘quvchilarning qiziqishi uyg‘otildi.
- Kichik guruhlarga bo‘linib fikr yuritish. Har bir guruhga muayyan savollar berilib, o‘quvchilardan izlanish, taxmin qilish, rasm va sxemalar asosida tushunchalarni tushuntirish so‘raldi.
- Raqamli vositalar (Padlet, Jamboard) orqali fikr almashish. O‘quvchilar o‘z guruhlarining natijalarini jamlash va taqdim etishda raqamli platformalardan foydalandilar.
- Xulosa va baholash. Guruhlar faoliyati umumiy baholab chiqildi, o‘quvchilarga refleksiya savollari berildi.

Tajriba davomida o‘quvchilarning faolligi va ishtiroki sezilarli darajada oshdi. O‘quvchilarning savol berish va muammoga yondashish qobiliyatlari yaxshilandi. Ular mustaqil savollar ishlab chiqib, ularga izlanish asosida javob izlashdi. Ijodiy fikrlash va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari mustahkamlandi. Guruhli ishlar o‘quvchilar o‘rtasida ijtimoiy faol muloqotni kuchaytirdi.

Xulosa va tavsiyalar. So‘rovga asoslangan ta’lim bugungi kunda dunyo miqyosida ilg‘or pedagogik yondashuvlardan biri sifatida qaralmoqda. Bu metodikaning nazariy asoslari asosan konstruktivistik pedagogika yondashuvlariga tayangan. Konstruktivizmga ko‘ra, bilim – tayyor holda beriladigan axborot emas, balki o‘quvchi tomonidan faol izlanish, kuzatish, tahlil qilish orqali shakllantiriladigan jarayondir ya’ni har bir shaxs o‘z bilimining arxitektori. Shu asosda aytish mumkinki, so‘rovga asoslangan ta’lim nazariy jihatdan puxta asoslangan va uni amaliyotda qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. O‘tkazilgan tadqiqot va amaliy tajriba tahlillari asosida xulosa qilish mumkinki, so‘rovga asoslangan ta’lim mexanizmi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, savol berish va izlanishga tayyorligi, tanqidiy yondashuvi, hamda ijtimoiy faol ishtirokini rivojlantiruvchi kuchli pedagogik vosita ekanligi aniqlandi. Bu yondashuv orqali o‘quvchi bilimni tayyor shaklda emas, balki o‘zining faol kognitiv harakati asosida egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To’ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 bet.
2. Inoyatova M. Ta’limiy qadriyatlarni aniqlash va pedagogik amaliyotga tatbiq etish “Sharq” Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. – Toshkent. 2010
3. Sodiqova T. Murabbiy kim?... – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2006.
4. Turg‘unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – T.: “Fan”, 2009. – 168 b.
5. Dewey, J. (1938). Experience and Education. – 91 p.
6. Bruner, J. (1961). The act of discovery. Harvard Educational Review, 31, 21-32.
7. Savery, J. R. (2006). Overview of Problem-based Learning: Definitions and Distinctions. Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning, 1(1). https://doi.org/10.7771/1541-5015.1002
8. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.

BO‘LAJAK GEOGRAFIYA FANI O‘QITUVCHILARINING INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA QARASH

Suyunov Samar Samandarovich
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti ilmiy izlanuvchisi
E-mail: samarsuyunov89@gmail.com
Tel:+998990916529

Annotatsiya: *Maqolada bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarining innovatsion yondashuvlar asosida ekologik kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida qarash zarurligi, olimlar mulohazalari, ta’lim jarayoniga innovatsion yondoshish zamonaviy ta’limning zaruriy shartidir. O‘quv materialini o‘zlashtirish bo‘yicha an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda (geografiyada bu hududiy, murakkab, tarixiy, tipologik) zamonaviy o‘qitish texnologiyalari asosida yangi (tizimli, muammoli, konstruktiv) yondashuvlar qo‘llaniladi. Shu munosabat bilan, pedagogik o‘quv jarayoni davomida o‘quvchilarning mustaqilligi va faolligini maksimal darajada namoyon etishi, shuningdek, ularning intellektual va shaxsiy darajasida o‘sishi mumkinligi haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Zamonaviy ilm-fan, ta’lim, innovatsion o‘qitish, simulyatsiya usuli,BMT, PISA, TIESS zamonaviy texnologiyalar, atrof-muhit, milliy an’analar,*

multimedia vositalari, innovatsion yondashuvlar, yangi texnologiya, muammolarni o‘rganish.

Аннотация: *В статье рассматривается необходимость рассмотрения развития экологической компетентности будущих учителей географии на основе инновационных подходов как педагогической проблемы, приводятся мнения ученых, а также то, что инновационный подход к образовательному процессу является необходимым условием современного образования. Наряду с традиционными подходами к усвоению учебного материала (в географии это территориальный, комплексный, исторический, типологический) используются новые (системный, проблемный, конструктивный) подходы, основанные на современных технологиях обучения. В связи с этим педагогический процесс направлен на максимальное развитие самостоятельности и активности учащихся, их интеллектуального и личностного роста.*

Ключевые слова: *Современная наука, образование, инновационное обучение, методы моделирования, ООН, PISA, TIESS, современные технологии, окружающая среда, национальные традиции, мультимедийные средства, инновационные подходы, новые технологии, решение проблем.*

Abstract: *The article discusses the need to consider the development of ecological competence of future geography teachers based on innovative approaches as a pedagogical problem, the opinions of scientists, and the fact that an innovative approach to the educational process is a prerequisite for modern education. Along with traditional approaches to mastering educational material (in geography, this is territorial, complex, historical, typological), new (systematic, problematic, constructive) approaches are used based on modern teaching technologies. In this regard, it is said that during the pedagogical educational process, students can demonstrate their independence and activity to the maximum extent, as well as grow at their intellectual and personal level.*

Key words: *Modern science, education, innovative teaching, simulation methods, UN, PISA, TIESS, modern technologies, environment, national traditions, multimedia tools, innovative approaches, new technology, problem-solving.*

Kirish. Ma’lumki, dunyo miqyosida ekologik inqirozlarning oidini olish va tabiiy musaffolikni asrash asosida yosh avlodning ekologik bilimi, ongi, madaniyatini shakllantirishda BMT, Yevropa komissiyasining “Barqaror rivojlanish uchun uzluksiz ta’lim bo‘yicha strategiya”si uzluksiz ta’lim tizimiga muntazam tatbiq etilmoqda. Ekologik uzluksiz ta’limni rivojlantirish va ekolog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini “Edu Market interfaol-virtual uzluksiz ta’lim” texnologiyasi hamda xalqaro amaliyotga tatbiq etilayotgan PISA, TIESS kabi dasturlariga bosqichma-bosqich integratsiyalash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada xalqaro miqyosda insoniyatning tabiat bilan uyg‘unligi haqidagi tasavvurlarini yoshlar ongida shakllantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Jahonda zamonaviy uzluksiz ta’limda ekologik bilimlarni fanlar mazmuniga singdirish, ekologik kompetentlilikni innovatsion yondashuvlar, ommaviy axborot

vositalari asosida shakllantirib borish, ekologik bilimlarni tarkib toptirish mexanizmlarini takomillashtirish, uzluksiz ta’lim-tarbiya jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik bilimlarini rivojlantirish shakl, usul va vositalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, ekologik uzluksiz ta’lim-tarbiya ishlarini zamonaviy uzluksiz ta’lim texnologiyalari asosida tashkil qilish, ekologik muammolarga oid materiallarni takomillashtirish, uzluksiz ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini rivojlantirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Fanning yana bir muhim jihati bir nechta manbalardan olingan ma’lumotlarni qanday qilib birlashtirishga, ma’lum bir xalqaro aloqa tili - geografik xaritadan foydalanishga o‘rgatadi. Geografik ta’lim insoniyat uchun umumiy uy sifatida o‘z mamlakati va sayyoramizni o‘rganish uchun ishonchli asosdir. Aynan shu ta’lim zamonaviy dunyo va insoniyatning xilma-xilligi va birligi bilan birligini ongli ravishda tushunishni ta’minlaydi. O‘quvchilar o‘zlarini o‘rab turgan moddiy, ma’naviy va madaniy qadriyatlarni va insonning kosmosda mavjud bo‘lishining ma’nosini to‘g‘ri tushunishlari uchun juda katta geografik bilimlarni to‘plashi zarur. [6, 10].

Asosiy qism. O‘zbekiston maktablarining o‘quvchilariga ekologik ta’lim-tarbiya berishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri-xalq og‘zaki ijodi vositasidir. Masalan xalq maqollaridan: Yer haydasang kuz hayda kuz haydamasang yuz hayda, Nimani eksang shuni o‘rasan, O‘sgan daraxtning tomirini qirqma.

O‘zbekiston maktablarida o‘zbek xalqining o‘ziga xos urf-odatlarini o‘rganish natijasida o‘quvchilariga jamiyat hayoti bilan uzviy bog‘liq tarzda atrof-muhitni e’zozlashni o‘rganish vazifasini qo‘yadi. Barcha insonlarning tabiatga nisbatan his-tuyg‘ularini uyg‘otish vazifasini o‘taydigan Navro‘z bayramiga intiqlik hissi paydo bo‘ladi va o‘quvchilar jamoa ishida faol qatnashib shaxs sifatida o‘zini ko‘rsatib, burchlarini his eta boshlaydi. Masalan, ko‘klamda, asosan, Navro‘z bayramida birinchi ko‘chat o‘tqazilib, sumalakdan totib ko‘rib, jamoa bilan obodonlashtirishda qatnashish ishlari hali nima ekanligini bilmaydigan birinchi sinf o‘quvchilarida ijobiy taassurot qoldiradi. Daraxt va o‘simliklarni asrab-avaylash, o‘zining ham shu jamoa a’zosi sifatida ekologik burchini his etish qobiliyati shakllanadi. O‘quvchilarda atrof-muhitdagi tozalikni asrash, uni e’zozlash tuyg‘ularini butun maktab hayoti davomida shakllanadi.

Hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik jamiyat barpo etish sari dadil qadamlar bilan bormoqda. Bunday jamiyatni kuchli mafkurasiz qurib bo‘lmaydi. Mafkura ma’naviyatga asoslanadi, teran ma’naviyat esa kelajakka olib boradigan asosiy poydevor hisoblanadi. Istiqlol davrida barkamol avlodni tarbiyalashda va mustaqillik poydevorini mustahkamlashga xalq an’analarining o‘rni benihoya kattadir.

Ma’lumki, an’analar ijtimoiy hayotning juda ko‘p qirralarini qamrab olib, inson yashaydigan har bir go‘shada mavjud bo‘ladi. Bu borada, o‘zbek maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida xalq ana'analariga asoslangan holda ekologik ta’lim-tarbiya berish o‘quvchilarning hayotda amaliy xulosalar

chiqarishlariga yaqindan yordam berishi mumkin. O‘zbek xalqining o‘ziga xos milliy an’analari har doim qardosh xalqlar an’analari bilan uyg‘unlashgan holda boyib boradi.

Ko‘p ming yillik tarixga ega bo‘lgan xalqimizda shunday an’analar borki, ular hech qanday rasmiy hujjatlarda qayd qilinmagan. Lekin ular ajdodlardan bizga meros sifatida o‘tib kelmoqda. Bunday an’analar o‘sib kelayotgan yosh avlodning xulq-atvori, o‘zaro munosabatlari, oilaviy muhitiga taalluqlidir [1, 4].

Avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tib kelayotgan, sayqallanib yangicha mazmun kasb etayotgan marosimlar bayramlar deb ataladi. Navro‘z bayrami, Qurbon hayit, Ramazon hayit, Yangi yil bayrami, Mehrjon, Hosil bayramlari shular jumlasidandir.

Yevropada XVIII asrda K.Linney va J.Byuffonlar, XIX asr boshlarida nemis tabiatshunosi A.Gumbold, Shvetsariya botanigi O.F.Dekaldol kabi olimlar ekologiyaga doir ilmiy fikrlarni bildirishgan. Biroq ekologiya hamma olimlar tomonidan tan olingan fan sifatida faqatgina 1900-yillarda shakllandi. Dastavval o‘simliklar va hayvonlar ekologiyasi sohasida kuzatishlar olib borgan F.Klements va V.Shelfordlar, T.Lindeman, Dj.Xatchinson, E.Birdje, Chana Djudee hamda shularga o‘xshash boshqa olimlarning kuzatishlari umumiy ekologiya fanining nazariy asoslarini tashkil etdi. XX asr boshlarida organizmlarning ichki suv havzalarida yashash sharoitini o‘rganish ham boshlab yuborildi. Suvda yashovchi organizmlarni o‘rganuvchi gidrobiologlar biomassa (nemis olimi T.Demol), biotsenoz mahsuloti (R.Demol, A.Tineman) tushunchalarini ta’riflab berdilar.

Ingliz olimi A.Tensli (1935) birgalikda yashaydigan avtotrof va geterotrof organizmlarning har qanday to‘dasi va ular hayoti uchun zarur bo‘lgan abiotik muhitni ekosistema deb atadi. Akademik V.N.Sukachev esa yer yuzining muayyan hududida yashaydigan o‘simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlarning, shu hudud landshafti, iqlim, tuproq hamda gidrologik sharoitlari bilan birligini biogetsenoz deb nomladi. XX asr boshlarida botanik va zoolog olimlar quruqlikdagi ekologik kuzatishlarni alohida – alohida olib bordilar va natijada o‘simlik guruhlarining tuzilish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fitosotsiologiya fani paydo bo‘ldi.

Markaziy Osiyo va O‘zbekiston ekologiya fanini rivojlantirish sohasida bir qancha olimlar o‘z hissasini qo‘shganlar va o‘z maktablarini shakllantirganlar.

Markaziy Osiyo ekologlarining, ayniqsa, o‘lkaning ayrim landshaftlarining ekologiyasini o‘rganish, tizim, faolligi, dinamikasi va evolyutsiyasi, shuningdek, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning muammolari ishlab chiqildi. D.N.Kashkarov ishlarida landshaftning ayrim elementlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi, birligi hamda modda va energiya almashinuvi, namlik, tuproq va biotik omillarning roli, antropogen omilining landshaftlarga ta‘siri va boshqalarni ochib bergan.

O‘zbekistonda olimlardan T.Z.Zohidov, A.M.Muhammadiyev, V.V.Yaxontov, M.A.Sultanov, R.O.Olimjonovlarni kiritish mumkin. (1963), T.Z.Zohidovning “Qizilqum cho‘lining biotsenozlari” (1971) kabi asarlarini keltirish mumkin. D.Kashkarov, A.Zokirov, A.Petrovlar Qarshi cho‘lini chuqur o‘rganish natijasida “Qarshi cho‘lining umurtqali hayvonlari ekologiyasi” degan

asarni chop ettirdilar. Bu asarda sut emizuvchi hayvonlarning tarkibi, tarqalishi, ekologiyasi va ulardan foydalanish yo‘llari asoslab berildi.

O‘rta Osiyoni o‘rgangan rus olimlaridan I.A.Seversov, A.N.Krasnovlarning asarlari va Qashqarov-Korovin maktabining shakllanishi O‘rta Osiyoda tabiiy geografik g‘oyalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 1930-yillarda ekologiya-geografiya yo‘nalishiga asoslangan O‘rta Osiyo ekologiya maktabi hozirgi O‘zbekiston Milliy Universiteti qoshida shakllandi. Ekolog mutaxassislar tayyorlashda, ekologiyani rivojlantirishda, ekologiyaga oid adabiyotlarning namunalarini yaratishda bu maktabning xizmatlari kattadir. Maktab ekologlari bergan g‘oyalar o‘lkaning tabiati va tabiiy resurslarni aniqlash, o‘rganishda hamda O‘rta Osiyoda ekologik va geografik g‘oyalarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Yuqoridagi tahlillar va fikr-mulohazalar asosida, ko‘rib chiqilgan masalalar bo‘yicha kelajakda ilmiy tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish maqsadida, bir qator ilmiy nuqtai nazardan aniqlangan pedagogik muammolarni ta’kidlash lozim bo‘ladi. Ushbu ziddiyatlar, asosan:

– ekologik rivojlanishga o‘tishda geografiya o‘qituvchilarining asosiy kompetentligidan biri sifatida ekologik kompetentlik kontekstida bo‘lajak geografiya o‘qtuvchilarining darslari mazmunini takomillashtirish bilan bog‘liq jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi va maktab geografiyasida ushbu muammoning nazariy va uslubiy jihatdan yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi o‘rtasida;

– ekologik rivojlanishga erishishda ekologik ta’limning yetakchi roli sharoitida maktab geografiya darslarida o‘quvchilarining ekologik tushunchalarini shakllantirishni falsafiy, uslubiy va nazariy asoslash zarurati bilan geografiya o‘qitish nazariyasi va metodologiyasida bunday asoslashning yo‘qligi o‘rtasida;

– bilishning ekologik tizimli modelidan foydalanayotgan ekologiyaning geografik bilimlarning ilmiy ekologik yo‘naltirilgan sohasi sifatidagi noyob ekologik salohiyati bilan geografiya yordamida maktab o‘quvchilarining ekologik tushunchalarini shakllantirishda ushbu salohiyatdan foydalanishning uslubiy ishlanmalari sust rivojlanganligi o‘rtasidagi ziddiyatlar.

Bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirishda mavjud holat, muammo va innovatsion yechimlar

Tartib raqami	Asosiy omillar	Hozirgi holat	Pedagogik muammo	Innovatsion yondashuv orqali yechim
1	Nazariy bilimlar sifati	Asosan darslik va ma'ruzalar asosida beriladi	Amaliyot bilan yetarli bog‘lanmagan	Raqamli platformalar, AR/VR texnologiyalari yordamida interaktiv darslar
2	Ekologik tafakkur darajasi	Cheklangan, abstrakt yondashuvlar mavjud	Real ekologik muammolarga nisbatan sust e’tibor	Real loyiha va ekologik monitoring asosida o‘quv

				mashg‘ulotlari
3	O‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish qobiliyati	An’anaviy metodlarga tayaniladi	Innovatsion metodik yondashuvlar kam qo‘llaniladi	STEAM yondashuvi, muammo asosida o‘qitish (PBL) metodikasi
4	Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT)dan foydalanish	Cheklangan yoki noan’anaviy	Raqamli resurslar bilan ishlash ko‘nikmalari sust	Onlayn laboratoriyalar, geografik axborot tizimlari (GIS)dan foydalanish
5	Amaliy ekologik loyihalarda ishtirok	Kam uchraydi, tashabbus past	Tashabbus va ijodiy yondashuv yetishmaydi	Mahalliy ekologik muammolar asosida loyiha va seminarlar tashkil qilish

Bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarida ekologik kompetentlikni shakllantirish bilan bog‘lik muammoni tadqiq etishda aynan ushbu ziddiyatlar bosh mezon sifatida xizmat qilishi kerak hamda tadqiqot yo‘nalishini belgilab berishi lozim, deb o‘ylaymiz. Shunday qilib, bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarining ekologik kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish jarayonida, ekologik ta‘lim doirasida bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarini ekologizasiya kilish jarayonlari bilan bog‘lik nazariya va metodologiyani ishlab chiqish muammosi alohida tadqiqot ishlarini taqozo etadi. Bunday tadqiqot va ilmiy izlanishlar maqsadini belgilashda, bizningcha, ekologik rivojlanishga erishishda ekologik ta’limning yetakchi rolini inobatga olgan holda, maktabda geografiya fanlari yordamida ekologik tushunchlarni shakllantirish metodologiyasini nazariy asoslash va ishlab chiqish zarur. Unda, ekologik ta’limning shakllantirish jarayonida maktabda geografiya fanlarini ekologizasiya kilish jarayoni obyekt rolini bajarishi nazarda tutilishi kerak. [7, 9].

Xulosa Uzluksiz ekologik ta’limni rivojlantirish va ekolog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini “Edu Market interfaol-virtual uzluksiz ta’lim” texnologiyasi hamda xalqaro amaliyotga tatbiq etilayotgan PISA, TIESS kabi dasturlariga bosqichma-bosqich integratsiyalash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada xalqaro miqyosda insoniyatning tabiat bilan uyg‘unligi haqidagi tasavvurlarini yoshlar ongida shakllantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilishi va amaliiyotga samarali tatbiq etish o‘ta dolzarb pedagogik muammolardan biridir. Tadqiqot ishiga oid mavjud manbalarninig tahlil etish orqali hamda o‘quvchilarining ekologik bilim, tushunchalarini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarga ekologik tarbiya berish, ularning ekologik tushuncha va bilimlarini boyitishning pedagogik

texnologiyalarini aniqlash bugungi kunda o‘ta dolzarb muammolardan biri ekanligi ayon bo‘ldi.

O‘quvchilarining ekologik bilim hamda tushunchalarini takomillashtirishda, ayniqsa, geografiya darslarida sinfdan tashqari tadbirlar, ta’sirchan o‘yinlar muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning bilim hamda tushunchalarini izchil rivojlantirishda tarixiy tajribalar, xalq pedagogikasi an’analari, yangi didaktik ishlanmalar hamda pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish talab etiladi.

Ekologiya va bo‘lajak geografiya o‘qituvchisi madaniyati, avvalo, bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, ularning umumiy jihatlari ko‘pdir. Madaniyatli kishi tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning muvozanatini saqlaydi, bu borada boshqalarni ham to‘g‘ri faoliyat ko‘rsatishga yo‘llaydi. Kishilarni ma’lum bilimlar, mehnat qilish qoidalari bilan qurollantiradi.

Ekologik kompetentlilik tarkibiga tabiatni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan foydalanish, ekologik tizimni qaytadan o‘zgartirish madaniyati kabi tushunchalar kiradi. Ekologik kompetentlilik faqat tabiatga zarar keltirmaslikdan iborat emas, balki uning yanada go‘zallashuvi, gullab yashnashi uchun hissa qo‘shish, tabiatni xarob etuvchilarga qarshi beayov kurash olib borishdan ham iboratdir. Dars mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarda sog‘lom muloqot va raqobat muhitini yuzaga keltirgan holda fikr bildirishni chegaramaslik bugungi kunning talabidir. Zamonaviy geografiya fan o‘qituvchisi ta’limda singib ketgan konservat standartlarda chekingan holda nostandart metodlardan maqsadli foydalanib, nafaqat fanga balki ta’limga qiziqmaydigan, bilim olishda adaptatsiya jarayoni qiyin kechayotgan, kuchli deprissiv holatga tushib zerikish ustunlik qilayotgan o‘quvchi bilan umumiy til topishi talab etiladi. Buning uchun yuqorida aytilgan taklifga asosan Halqaro loyiha ishlab chiqish, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xodchenkov A.V. Ekologicheskaya kultura rossiyskoy molodeji: sostoyanie i tendentsii transformatsii: Avtoref. dis. … kand. sots. nauk. –Rostov na Donu, 2006. – 18 b.

2. Tsvetkova I. V. Ekologicheskiy svetofor dlya mladshix shkolnikov // Metodicheskoe posobie po vospitaniyu ekologicheskoy kulturo‘ detey mladshego shkolnogo vozrasta. – M.: Vlados, 2012. – 288 b.

3. Egamberdieva N.M. Atrof-muhit ta’sirida talabalarni axloqiy tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari (Pedagogika kolleji misolida): Ped. fan. nom. ... dis. – T., 2004. – 161 b.

4. Hoshimova M.K. Ekologicheskie vospitanie uchahixsya obheobraovatelnoy shkolo‘ Uzbekistana v protsesse izucheniya geografii i biologii v V-IX klassov: Avtoref. dis. … kand. ped. nauk. – T., 1991. – 17 b.

5. Husniddinov Z. O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik. Monografiya. Mas’ul muharrir: A.S.Ochildiev. – T.: Toshkent islom universiteti, 2006. – 164 b.

6. Шамова Т.И. Управление образовательными системами.3-е изд., стер. Издательство: «Академия» 2008. – 384 с.

7. Смирнова И.Е. Компетентностный подход в образовании: методологический аспект: Монография [под ред. С.Д. Якушевой]. — Новосибирск: Изд. СибАК, 2016. — 248 с.
8. www.pedagog.uz
9. www.uforum.uz forumi
10. www.uzedu.uz
11. www.wikipedia.ru
12. www.ziyonet.uz kutubxonasi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISHDA MOBIL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Tilovov Shuxrat Azamatovich,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etish mummolari keltirilgan. Shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etishda mobil texnologiyalardan foydalanishga oid taklif va tavsiyalar berib o‘tilgan.*

Tayanch so‘zlar: mustaqil ta’lim, mobil ilova, onlayn, global tarmoq, kompetentlik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы организации самостоятельного обучения будущих учителей начальных классов. Также представлены предложения и рекомендации по использованию мобильных технологий при организации самостоятельного обучения будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: независимое обучение, мобильное приложение, онлайн, глобальная сеть, компетентность.

Annotation: This article discusses the challenges of organizing independent learning for future primary school teachers. It also provides suggestions and recommendations on the use of mobile technologies in organizing independent learning for prospective primary school teachers.

Keywords: independent Education, mobile application, online, global network, competence.

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisininng aksariyatida telefon, smartfon va planshetlar mavjud bo‘lib, ulardan talabalar turli maqsadlarda, ya’ni videorloliklarni ko‘rish, onlayn o‘yinlarni o‘ynash, ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish va telegram tarmoqlari orqali tengdoshlari bilan ma’lumotlar almashish bilan o‘z vaqtini samarasiz o‘tkazilib kelmoqda [1]. Buning natijasida talabalarning, shu jumladan bo‘lajak boshlag‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy fanlarga bo‘lgan

qiziqishlarini susayishiga, o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yuzaki bajarishga yoki global tarmoqdan tayyor javoblarni olishga bog‘lanib qolmoqda [2, 3].

V.A.Kuklevlaning fikriga ko‘ra, mobil o‘qitish vaqt va joydan qat’iy nazar, fanlararo hamda modulli yondashuvlarning pedagogik asoslarida maxsus dasturiy ta’minotdan foydalangan holda mobil qurilmalar yordamida elektron ta’lim olishdir. Mobil ta’limni joriy etishda asosiy e’tibor ta’lim oluvchilarning harakatchanligiga, shuningdek, ularning mobil qurilmalar yordamida o‘rganish tajribasiga qaratiladi. Bunday mashg‘ulotda mobil simsiz qurilmalardan vosita sifatida foydalaniladi. V.A.Kuklevlaning ta’kidlashicha, mobil qurilmalarning asosiy imkoniyatlari quyidagilardan iborat [4]:

- ta’lim jarayoniga yangi texnologiyalarni jalb etish;
- talabalarning o‘zaro tengdoshlari va professor-o‘qituvchilar bilan muloqot qilish hamda fikr almashish mexanizmini soddalashtirish;
- professor-o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni talabalar o‘zaro fikr almashish orqali bajarish;
- istalgan joyda va istalgan vaqtda foydalanib, ta’lim olish;
- o‘quv adabiyotlarga, kompyuterlarga va boshqa vositalarga nisbatan ixchamligi;
- ta’lim oluvchining bilimini baholashni va nazorat qilish mexanizmini soddalashtirish.

I.A. Yuldoshevning fikriga ko‘ra, talabalarning darsdan tashqari vaqtlarida mustaqil ta’lim olishda mobil vositalaridan foydalanishlari ularning fanga oid bilimlarini oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi amaliyotlarda isbotlanmoqda. Uning ta’kidlashicha, mobil vositalardan foydalanuvchilar axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini ta’minlashda turli mavzulardagi yangiliklarni o‘qish, videolarni, jonli efir va eksklyuziv ko‘rsatuvlarni ko‘rish hamda tijorat sohalari bo‘yicha axborotlarni eshitishni mobil ilovalarni qurilmaga o‘rnatish orqali amalga oshiradilar [5].

Keltirilgan tahlillar asosida aytish mumkinki, ayni paytda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etishda mobil texnologiyalardan foydalanish madaniyatini oshirish ta’limning dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu kabi muammolarni yechimlaridan biri, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etishda mobil texnologiyalardan foydalanish usullarini ishlab chiqish lozim.

Bugungi kunda bo‘lajak boshlag‘ich sinf o‘qituvchilarining tayyorlashga oid mobil ilovalar mavjud bo‘lib, ulardan samarali foydalanilib kelinmoqda. Bularga misol sifatida Humanoi 4D+, Premiere pro, Zoho Show, Prezi Viewer, Canva, YouCut-Video Editor, Kahoot kabi ta’lim muhitlarini keltirish mumkin. Ushbu ta’lim ilovalarning imkoniyatlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Mobil ilovalar va ularning imkoniyati

T/r	**Nomi**	**Imkoniyati**
1.	Humanoi 4D+	Ushbu ilova yordamida video roliklarni tahrirlash, tekstlarni loyihalash, tovushlar qo‘shish kabi ko‘plab funksiyalar mavjud. Mazkur ilova yordamida bo‘lajak boshlang‘ichi sinf o‘qituvchilarining tayyorlashda turli videodarslar va mantiqiy fikrlashihi rivojlantirishga oid pedagogik dasturiy vositalar tayyorlash imkonini beradi.
2.	Premiere pro	Mazkur ilovadan videolarni montaj qilishda foydalanish mumkin. Ushbu ilova yordamida turli videodarslarni tahrirlash imkonini beradi.
3.	Zoho Show	Ilova raqamli texnologiyalar sohasida yuqori amaliy tajribaga ega bo‘lmagan foydalanuvchilarga mo‘ljallangan. Ushbu ilova yordamida turli taqdimotlar tayyorlash mumkin. Bu ilova bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining darslarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.
4.	Prezi Viewer	Ilova yordamida turli taqdimotlar tayyorlashda amarali hisoblanadi. Ushbu ilova yordamida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning zamonaviy taqdimotlar tayorlashga oid malakasini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.
5.	Canva	Bu jozibali, esda qolarli taqdimotlar yaratish uchun eng oddiy, ishlatish uchun qulay va ayni paytda eng funksional ilovalardan biridir.
6.	YouCut- Video Editor	Video roliklarni mantaj qilish va tayyorlash uchun qulay mobil qullanma. U bilan video roliklarni kesish, biriktirish, filtr qo‘shish, tekst kiritish, ovoz qo‘shish kabi ko‘plab funksiyalari mavjud. Shuning uchun ushbu ilovadan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalarga oid kompetentligini rivojlantirishda foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.
7.	Kahoot	Ilova yordamida turli darajali test materillarini loyihalash va viktorinalarni tayyorlash mumkin. Bu ilova bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning bilimini baholash va nazorat qilishda samarali hisobalandi.

Taklif etilayotgan mobil ilovalar foydalanish asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Shunday qilib, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etishda tadqiqot doirasida taklif etilayotgan mobil ilovalardan foydalanishni tavsiya etamiz. Ushbu ta’lim, mobil

ilovalar yordamida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini samarali tashkil etishga va darslarni zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirsanov U. M. Uzluksiz ta’lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Navoiy, 2023. – 332 b.

2. Бакланова Г.А. Формирование готовности будущего учителя начальных классов к использованию цифровых образовательных ресурсов // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Барнаул, 2013. – 23 с.

3. Чжай Х. Методические подходы к совершенствованию подготовки будущих учителей начальных классов к применению информационных и коммуникационных технологий в профессиональной деятельности (на примере бакалавриата по направлению «Педагогическое образование») // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2018. – 23 с.

4. Куклев, В. А. Мобильное обучение как инновация [Текст] // Материалы IV обл. конф. “Повышение качества высшего и дополнительного профессионального образо- вания в Ульяновской области” / В. А. Куклев. – Ульяновск, 12-13 апреля 2007. – С. 100-106.

5. Юлдошев И.А. Тармоқ технологияси асосида “Информатика ва ахборот технологиялари” фанини ўқитиш самарадорлигини ошириш методикасини такомиллаштириш// Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертаци. – Қарши , 2018. 147 б.

BO‘LAJAK OFITSERLARDA KASBIY MUHIM SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARNING O‘RNI

To‘xtayev Nasim Yaxyoyevich,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston milliy universiteti
Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi
Muhandis-sapyor qo‘shinlari,
kimyoviy himoya va topogeodezik
ta’minoti sikli boshlig‘i, dotsent, podpolkovnik,
e-mail: nasimtuxtaev@gmail.com,
tel.: +99897-7066331

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak ofitserlarda kasbiy muhim sifatlarini rivojlantirishda ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida xorijiy ilg‘or tajribalarni qo‘llash tartibi o‘rganilgan.

Tayanch so‘zlar: ilg‘or xorijiy tajriba, zamonaviy ta’lim, mentorlik tizim, intellektual, ofitser, globallashuv, xavfsizlik, kasbiy sifat, kasiy bilim.

Аннотация. В данной статье анализируется роль передового зарубежного опыта в формировании важных профессиональных качеств будущих офицеров. Кроме того, изучен порядок применения передового зарубежного опыта в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: передовой зарубежный опыт, современное образование, система наставничества, интеллектуал, офицер, глобализация, безопасность, профессиональные качества, профессиональные знания.

Abstract. This article analyzes the role of advanced foreign experiences in developing important professional qualities in future officers. Also, the procedure for applying foreign advanced experiences in the conditions of Uzbekistan is studied.

Key words: advanced foreign experience, modern education, mentoring system, intellectual, officer, globalization, security, professional quality, professional knowledge.

Bugungi globallashuv sharoitida harbiy soha ham tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Harbiy xizmatda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki intellektual, psixologik va axloqiy fazilatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, bo‘lajak ofitserlar kasbiy muhim sifatlarini (mas’uliyatlilik, yetakchilik, kreativlik, professionallik, tezkor qaror qabul qilish, stressga chidamlilik va boshqalar) rivojlantirishda ilg‘or xorijiy tajribalar muhim o‘rin tutadi.

Globallashuv jarayonlari va zamonaviy xavfsizlik tahdidlarining murakkablashuvi harbiy sohadagi kadrlar tayyorlashga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Asosan bo‘lajak ofitserlarning kasbiy tayyorgarligini nafaqat nazariy bilimlar, balki ularning shaxsiy fazilatlari, psixologik barqarorligi va ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalari asosida shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, ilg‘or xorijiy harbiy ta’lim tajribalari tahlil qilinib, ularni milliy tizimga moslashtirish zarurati tug‘ilmoqda.

Dunyodagi harbiy-siyosiy vaziyatning zamonaviy voqeyliklari qyudagicha tavsiflanadi:

davlatlar o‘rtasida turli xil tabiatdagi ko‘plab yangi qarama-qarshiliklarning paydo bo‘lishi;

shtatlarda va butun mintaqalarda, shuningdek, ayrim mamlakatlar ichida eskin vujudga kelishiga olib keladigan hududiy, diniy va etnik qarama-qarshiliklar bir qator qurolli to‘qnashuvlar.

Bundan tashqari, xalqaro miqyosda jiddiy xavf mavjud xavfsizlik noqonuniy qurolli guruhlarning faoliyati bilan ifodalanadi; xalqaro terrorizm, ommaviy qirg‘in qurollari texnologiyalarining tarqalishi ehtimoli ularni yo‘q qilish va yetkazib berish vositalari, giyohvand moddalar kontrabandasi, noqonuniy qurol savdosi, uyushgan jinoyatchilik.

Ular nafaqat tinchlik va barqarorlikka, balki kuchga ham tahdid soladi xalqaro va milliy yondashuvlarni tubdan o‘zgartirishga va xavfsizlikka ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Dunyoning rivojlangan davlatlarining tajribasi, o‘zimizning milliy tajribamizhodisalar tizimida maxsus operatsiyalarning rolini sezilarli darajada oshirish, mamalakat xavfsizligini, shuningdek, maxsus operatsiyalar kuchlarini ta’minlash tinchlik va urush davrida qurolli kuchlarning vazifalarini bajarishga imkon beradi.

Ta’limni modernizatsiya qilishni optimallashtirish resursi sifatida harbiy ta’limini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish, xalqaro tajribaning moslashuvchan ta’lim salohiyatini aniqlash harbiy ta’lim bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish laboratoriyasining asosiy yo‘nalishlari bo‘ldi.

Ushbu ilmiy tadqiqot o‘z vaqtida va dolzarb bo‘lib, buni kamida uchta holat tasdiqlaydi. Xorijiy tajribaning ahamiyati uning xorijiy harbiy ta’lim faoliyati to‘g‘risidagi bilimlar tizimiga qo‘shgan hissasi bilan cheklanmaydi.

Jahon ta’lim tajribasining ajralmas qismi sifatida xalqaro tajribani o‘rganishning katta gumanitar ahamiyati shundaki, u tadqiqotchini voqelikni o‘zgartirish, shaxsni ko‘p madaniyatli, global va ijodiy shaxsga aylantirishning ilmiy qiyosiy metodi bilan qurollantiradi.

Harbiy ta’limining umumevropa ta’lim makoniga integratsiyalashuvi harbiy bo‘linmalarga yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlar va xatolarni minimallashtirish, shuningdek, o‘zlarining qarorlarini boshqalarning tajribasi bilan taqqoslash va shu bilan ularni qabul qilishning maqsadga muvofiqligi va xatarlarini yaxshiroq baholash imkonini beradi.

O‘zgarishlarning jadal tabiati, tabiiyki, ko‘plab mamlakatlarni chuqur islohot va harbiy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga olib keldi – bu AQSh, Xitoy, Sharqiy Evropa mamlakatlari va boshqalar kabi turli xil rivojlangan mamlakatlarda sodir bo‘lmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy sohalarda malakali mutaxassislarni kasbiy tayyorlashda xorijiy tajribaning moslashuvchan ta’lim salohiyatini aniqladi, bu xalqaro ta’lim strategiyalari va tendentsiyalari resurslaridan foydalanish imkoniyatidan iborat kasbiy ta’lim tizimida jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Yagona ta’lim makonini shakllantirish sharoitida malakali mutaxassislarni kasbiy tayyorlash nazariyalarini boyitish uchun xorijiy tajriba salohiyatidan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

malakali mutaxassislarni kasbiy tayyorlash missiyasi va maqsadlarini aks ettiruvchi kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirishdagi sinxron o‘zgarishlarning asosiy kontseptual g‘oyalarini amalga oshirish kontseptual va terminologik lug‘atdan foydalanish – xalqaro darajada qabul qilingan kasbiy ta’lim lug‘ati;

malakali mutaxassislarni o‘zgaruvchan tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda (“globallashuv” tushunchasida ifodalangan global integratsiya jarayonlarini tezlashtirish);

kasbiy bilim va malakalardagi mavjud kamchiliklarni aniqlash; kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishning ko‘p bosqichli tuzilishi;

haddan tashqari tor ixtisoslashuv va tor profillashdan uzoqlashish;

tadqiqot universitetlari tizimini shakllantirish orqali talabalarni ilmiy faoliyatga jalb qilish;

Ofitserlik kasbi – bu faqatgina boshqaruv va harbiy operatsiyalarni olib borish emas, balki insonlar bilan ishlash, murakkab sharoitlarda tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilish, axloqiy yetuklik va liderlik fazilatlarini namoyon etishdan iborat.

Shu sababli quyidagi kasbiy muhim sifatlar ajratib ko‘rsatiladi: yetakchilik qobiliyati, intizom va mas’uliyat, analitik fikrlash, tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, jamoa bilan samarali ishlash, psixologik barqarorlik va stressga chidamlilik, axloqiy va ma’naviy yetuklik, ilg‘or xorijiy tajribalar tahlili.

AQSh – West Point Harbiy Akademiyasi

West Point AQShning eng nufuzli harbiy ta’lim muassasasi hisoblanadi. U yerda “Leader Development System” orqali har bir kursant liderlik sifatlarini nazariy va amaliy jihatdan o‘zlashtiradi. Akademiyada ko‘p bosqichli baholash, mentorlash, va real vaziyatlar asosida simulyatsiya usullari keng qo‘llaniladi.

Buyuk Britaniya – Sandhurst Harbiy Akademiyasi

Sandhurstda asosiy tamoyil “Serve to Lead” – ya’ni “yetakchilik qilish orqali xizmat qilish”dir. Harbiy-intellektual salohiyat bilan birga ma’naviy yetuklik, fidoyilik va xulq-odob masalalariga alohida e’tibor beriladi. Bo‘lajak ofitserlar real jamoaviy muhitda muammolarni hal qilishni o‘rganadilar.

Isroil – IDF (Israeli Defense Forces)

Isroil armiyasi bo‘lajak liderlarda tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash va moslashuvchanlik kabi zamonaviy sifatlarni shakllantirishga urg‘u beradi. Harbiy xizmat davomida kichik guruhlar ichida liderlik fazilatlari tajriba asosida rivojlantiriladi. Harbiy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalari ham asosiy e’tibordadir.

Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari: ilg‘or xorijiy tajribalardan quyidagi yo‘nalishlarda foydalanish mumkin: harbiy o‘quv yurtlarida yetakchilik va qaror qabul qilish modullarini kiritish; interaktiv treninglar orqali stressga chidamlilikni oshirish; harbiy-psixologik tayyorgarlik dasturlarini kuchaytirish; mentorlik tizimi asosida bo‘lajak ofitserlarga tajribali ofitserlarni biriktirish; axloqiy-tarbiyaviy bloklarda xalqaro standartlarga mos o‘quv dasturlarini joriy etish.

Bo‘lajak ofitserlarda kasbiy muhim sifatlarini rivojlantirishda ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘rni juda muhim hisoblanadi. Ularning kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish orqali armiyaning umumiy salohiyati, intizomi va jangovar tayyorgarligi ortadi. Xorijiy ilg‘or tajribalarni chuqur tahlil qilgan holda, milliy harbiy ta’lim tizimiga moslashtirish zamon talabi bo‘lib qolmoqda. Shu orqali biz zamonaviy, intellektual va axloqiy yetuk bo‘lajak yosh ofitserlar avlodini tarbiyalashga erishamiz.

Adabiyotlar

1. G‘ofurov O. Harbiy pedagogika asoslari. – T., 2020.
2. Karimov M. Zamonaviy harbiy psixologiya. – T., 2021.
3. U.S. Military Academy at West Point – Official Publications.

4. Sandhurst Royal Military Academy Training Manuals.
5. Israel Defense Forces Officer Training Overview.
6. NATO Officer Leadership Development Guidelines, 2019.

BO‘LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA IXTISOSLIK FANLARINING ROLI

O‘RINOV UYG‘UN ABDULLAYEVICH
BDTU, Transport vositalari muhandisligi kafedrasi professori
E-mail: uygun21@mail.ru
YO‘LDOSHEV MIRZOBEK NURILLOYEVICH
BDTU, Transport vositalari muhandisligi kafedrasi tayanch doktoranti
E-mail: mirzobek1196@mail.ru
Tel: +99890 512 46 86

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak muhandislarni tayyorlash jarayonida ixtisoslik fanlarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Ixtisoslik fanlari nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtiradi, balki talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar orqali muhandislik kadrlarini tayyorlash samaradorligini oshirishga oid taklif va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar*: muhandislik ta’limi, ixtisoslik fanlari, kasbiy kompetensiya, amaliy ko‘nikma, zamonaviy pedagogika, integratsiyalashgan ta’lim, innovatsion yondashuvlar, muammoli o‘qitish, muhandislik kadrlarini tayyorlash, o‘qitish metodikasi.*

Muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan raqobatbardosh kadrlarga ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, ta’limni raqamlashtirish va elektron ta’lim resurslaridan foydalanish modellari amaliyoti tatbiq etish jadallashmoqda. Muhandislik ta’limi sifatini hamda samaradorligini oshirishda islohotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda globallashuv sharoitida oliy ta’limning strategik maqsadlaridan biri raqobatbardosh inson kapitalini tayyorlash va butun umr davomida mutaxassis shaxsining kasbiy rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratish orqali xorijiy davlatlarida milliy jamiyatlar va iqtisodiyotlarning rivojlanishiga ko‘maklashishdan iborat. Shu munosabat bilan bo‘lajak muhandislarni texnik oliy o‘quv yurtlarida tayyorlash alohida ahamiyatga ega, chunki turli jarayonlarni avtomatlashtirish uchun mahsulot va dasturiy ta’minotni loyihalash va joriy etish ushbu mutaxassislik bo‘yicha mutaxassislarga bog‘liq bo‘lib, u yuqori qo‘shimcha qiymat va iqtisodiyot rivojiga ta’sir ko‘rsatadi. Belgilangan vaziflarni o‘z vaqtida amalga oshirish uchun yo‘l haritasi ishlab chiqilib, ijrosi ta’minlanishi uchun dasturil amal bo‘lib hizmat qilmoqda.. Belgilab berilgan vazifalarni amalga

oshirishda tayyorlanayotgan muhandislarda kasbiy kompetensiyalari, bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish amaldagi metodikasi, o‘quv-metodik, o‘quv-uslubiy, didaktik, texniktexnologik ta’minotini bugun kun talablari asosida takomillashtirish hamda zamonaviy kadrlarni bilim va ko‘nikmalarni oshirish, olingan bilimlarini baholash mezonlari, o‘qitishning pedagogik strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi[1].

Texnika yo‘nalishlarini o‘qitish tizimida klassik metodlar, yondashuvlardan foydalanish orqali bugungi kun talablariga to‘liq mos bo‘lishda muammolarga duch kelinadi. Shuning uchun ham yo‘nalishdagi mutaxassislik fanlarining tarkibi va uning tuzilishidan kelib chiqib o‘qitish metodikasini tanlash eng muhim omil hisoblanadi. Tanlagan yo‘nalishning mutaxassislik fanlar sohalardan kelib chiqib, xususiyatiga ko‘ra o‘quv xonalarida, ishlab chiqarish korxonalari yoki maxsus labaratoriyalarida o‘tilishi tayyorlanayotgan kadrning bilim sifatiga ijobiy ta’sir qiladi. Shuning uchun texnika OTMlarda kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish maqsadida kasbga tayyorlash faoliyatini mazmunini takomillashtirish, professoro‘qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish borasida izchil ishlarni amalga oshirish zarur. Bugungi zamonaviy mehnat bozoridagi asosiy talab, ish beruvchilarning o‘z kasbiy vazifalarini to‘laqonli bajara oladigan har tomonlama yetuk kadrlarga bo‘lgan ehtiyoji ortib bormoqda. Yuqori natijalar va ko‘rsatkichlarni oshirish uchun professor-o‘qituvchilarning samarali mehnati, kasbiy malakasining oshib borishi va uni rivojlantirish orqali erishish mumkin. Kasbiy malakasi va ko‘nikmasi yuqori bo‘lgan professor-o‘qituvchilar bugun kun talabidagi kadr tayyorlashni uddalay oladi. Ta’lim jarayonini sifatli tashkil etish pedagogning asosiy vazifasi hisoblanadi[2]. Yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimida tub burilishlar va chuqur isloxotlar olib borilmoqda. Oliy ta’lim tizimidagi davlat ta’lim standartlari takomillashtirilib, namunaviy o‘quv dasturlar ish beruvchilarning talab va takliflari asosida yanada boyitildi. Tayyorlanayotgan kadrlar bilimi, ko‘nikmasi va malakalarini rivojlantirishda e’tibor ularda ta’lim yo‘nalishi hamda mutaxassisligiga mos kompetensiyalar bilan uzviylik asosida rivojlantirishga qaratilmoqda. Bugungi kunda zamonaviy bilimga ega, yetuk intellektual salohiyatli mutaxassisni talab qilmoqda. Bugungi kadrlar faol ijodiy-mantiqiy fikrlovchi, izlanuvchan, ilmiy axborotlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirib oluvchi, kreativ fikrlaydigan va ularni o‘z kasbiy faoliyatida qo‘llay oluvchi mutaxassis bo‘lib yetishishi zarurligi namoyon bo‘lmoqda[3].

Texnika yo‘nalishlari bo‘yicha muhandlislar tayyorlashda ta’lim jarayoniga zamonaviy usullar, vositalar, metodlarlni qo‘llash asosida yondashuvlarni o‘zgartirish zarur. Misol uchun mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish ta’lim yo‘nalishlarida “Mashinasozlik texnologiyasi asoslari” fani o‘qitiladi. Bu fanni o‘qitishda ma’ruza, amaliyot darslarida ko‘rgazmaliklik darajasini yuqori bo‘lishi ta’limning didaktik talabalrini bajarishga yordam beradi. Albatta bu kabi mutaxassislik fanlaridan ko‘rgazmali materiallar, jixozlar, uskuna va modellardan dars jarayonida to‘liq foydalanishda muammolar mavjud. Misol uchun fanga oid mexanizmlarni ko‘rsatishda cheklanganligi bois bir vaqtning o‘zida ko‘rsatishning imkoni yo‘q. Bu muammoni

yechimmi sifatida dars jarayoniga yondashuvni o‘zgartirish lozim. Buning uchun didaktik, pedagogik sharoit sharoitlarni aniqlash va shunga mos ravishda ta’lim jarayonini tashkil etish zarur[4].

Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarining kasbiy kompetensiyalarini (kommunikativ, hamkorlik kompetensiyalari, shaxsiyatga moslashish kompetensiyalari) samarali rivojlantirishga imkon beradigan pedagogik shartlar aniqlangan va asoslangan. “Mashinasozlik texnologiyasi asoslari” kursi mazmunini raqobat muhitidagi ijtimoiy o‘zaro ta’sir holatlari bilan boyitish;

- o‘quv jarayonida talabaning boshqaruv resursini rivojlantirish va uning ishonch darajasini oshirish uchun foydalanish;

- o‘z-o‘zini rag‘batlantirish bo‘yicha individual topshiriqlarni bajarish; kasbiy kompetensiyalarning tarkibiy qismlari aniqlanadi;

- birinchi qism xulq-atvor namunalarini, qadriyatlarni, motivatsiyani, imtiyozlarni baholashni o‘z ichiga oladi, ya’ni tez o‘zgartirish qiyin yoki imkonsiz bo‘lgan xususiyatlar, ikkinchi qism o‘quv jarayonida juda oson va tez egallash mumkin bo‘lgan boshqaruv ko‘nikmalarini baholash[5].

Samarali boshqaruvga tayyor bo‘lmaslik ko‘pincha turli qiyinchiliklarga olib keladi. Zamonaviy sharoitda bilim va ko‘nikmalar ta’lim natijasining birligi sifatida jamiyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur, ammo yetarli emas. Texnologik jarayonlarda bo‘lajak muhandisining kasbiy mahorati bugungi kunda samarali va zamonaviy natijaga erishish, ilmiy va ishlab chiqarish muammolarini hal qilish sharti sifatida qaralmoqda. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda bo‘lajak muhandislarni raqobatbardosh va sifatli kadrlarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti.: Ped.fan.dokt. … diss. avtoref. - T.: 2007. - 37 b.

2. Ismailova Z.K. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari: Diss. ... ped. fan. dok. – T.: 2006. – 345 b.

3. O‘rinov U.A. Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda masofaviy ta’limning afzalliklari. “O‘zMU xabarlari”. Ilmiy jurnal. Toshkent, 2020. №1/2, 148-151 b.

4. Yo‘ldoshev, Mirzobek. "Texnika oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilarining ixtisoslik fanlarini o ‘qitishda interaktiv va innovatsion yondashuvlar." Modern Science and Research 4.3 (2025): 227-229.

5. Yo'ldoshev, M. (2025). Texnika oliy ta’lim muassasalarida ixtisoslik fanlarini o ‘qitish orqali talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish. "Педагогическая акмеология" международный научно-методический журнал, 1(18).

PEDAGOGIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA BO'LAJAK PEDAGOGNING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

D. Xabibulloev
mustaqil tadqiqotchi,
O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti
dr.xabibulloyev@gmail.com
Tel.:998935694944

Annotatsiya: Pedagogik faoliyat olib borish jarayonida bo'lajak pedagoglarning shaxsiy, kasbiy hamda maxsus kompetensiyalari, ta'limiy muhitning yaratilishida bo'lajak pedagogning kasbiy salohiyatini shakllantirish haqida umumiy ma'lumot berilgan.

Аннотация: Приведены общие сведения о личностных, профессиональных и специальных компетенциях будущих учителей в процессе осуществления педагогической деятельности, а также о формировании профессионального потенциала будущих учителей в процессе создания образовательной среды.

Annotation: General information is provided about the personal, professional and special competencies of future teachers in the process of conducting pedagogical activities, as well as the formation of the professional potential of future teachers in the creation of an educational environment.

Kalit so'zlar: kompetensiya, salohiyat, kasbiy faoliyat, ilmiy izlanuvchanlik, kompetentlik, faollik, mahorat

"Yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish, ularga zamonaviy bilimlar va ko'nikmalarni o'rgatish – davlatning ustuvor vazifasi".

O'zbekiston respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev

Keyingi yillarda yurtimiz ta'lim tizimini tubdan rivojlantirish, zamonaviy, tajribali, raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash, hamda, pedagogika sohasida ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash keng isloh qilinmoqda.

Yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash jarayonida, ko'p qirrali vazifani faqat yuksak va buyuk tajriba va pedagogik mahoratga ega bo'lgan pedagoglar bilangina amalga oshirish mumkinligini aytib o'tish lozim.

Shunday ekan, o’qituvchilik bu oli kasblardan biridir. Bu kasbga osongina erishib bo’lmaydi. Haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar, salohiyatli, bilimli, zamonaviy mahoratga ega, mustaqil g’oyasi va tozza mafkurasi bilan yaxshi qurollantirilgan kishilargina erisha oladilar albatta.

Bo’lajak pedagog kelajakda doimiy harakatda, izlanishda, har bir jarayonda faol, har bir sohaga oid bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo’lishlari shart. Pedagog pedagogik faoliyatda muvofaqiyatga erishishi uchun eng avvalo o’zi tarbiyalangan, innovatsion kasbiy bilimlarga ega, kuchli ta’sir o‘tkazuvchi, o‘ziga ergashtira oladigan qobiliyatiga ega bo’lishi lozim. Shundagina jamiyatning ijtimoy vazifalarini ijobiy hal eta oladi va u quyidagi shartlar asosida faoliyat yuritishi lozim.

- kasbiy faoliyatni tashkil etishda yangicha yondashuv
- ilg’or va ijodiy izlanuvchanlik
- demokratik boshqaruvni egallashi
- ta’lim oluvchining erkin fikrlashiga sharoit yaratish
- bola shaxsiga hurmat bildirish
- pedagogning nutq madaniyati.

Bo’lajak pedagog asosan nutq madaniyatiga etibor qaratishi lozim. Uning nutq texnikasi

mukammal, fikrlari teran va nutqi ravon, aniq va tushunarli bo’lishi muhum. Chunki nutq va unda ifodalangan so’z kishiga ta’sir etuvchi qudratli psihologik kuchga ega. U mazmuni bilan, so’zlovchining aytilayotgan fikrini ifoda qilish uslubi bilan ham ta’sir darajasi va qudratini yanada orttirish mumkin. Bolaga nutq orqali tasir o’tkaza olish kabiy faoliyat jarayonida yaxshi natija beradi. Har bir ta’lim oluvchining, shaxsiy qobiliyatlariga tayangan holda, intellektual salohiyatini hisobga olgan holda yondashiladigan bo’sagina ta’limiy faoliyat o’z maqsadiga erishadi. Ta’limiy faoliyat, kasbiy faoliyat muvaffaqiyati kaliti bu nutq madaniyati desak mubolag’a bo’lmaydi.

Maktab ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan maqsadlarga erishish, o‘quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli,

mehnatsevar, barkamol inson qilib o‘stirish pedagog-tarbiyachi zimmasiga yuklatiladi. Shu sababdan, Maktab ta’lim sohasidagi islohotlarning bevosita davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi ta’lim vazirligi ko`plab dasturlar tasdiqlangan. Maktab ta’lim muassasasining mazkur davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining maktab yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me’yoriy huquqiy hujjat bo‘lib, unda Maktab ta’lim muassasasining maqsad va vazifalari, o‘quv tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari ifodalangan, shuningdek, bolaning ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan. Bu o‘z navbatida Xalq ta’lim tizimida pedagogik jarayonlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi zarurligini talab etadi.

Bulajak pedagoglar – jamiyatning kelajagi uchun javobgar mutaxassislar, chunki ular yosh avlodni shakllantirishda katta rol o‘ynaydilar.

Bo‘lajak pedagoglarning asosiy xususiyatlari:

- **Ta’limga ishtiyoq** – ular o‘quv jarayonini qiziqarli, samarali va innovatsion usullar bilan tashkil etishga intilishadi.
- **Sabrlilik va mehr-muhabbat** – o‘quvchilar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatib, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mehribon bo‘lishadi.
- **Yangi pedagogik texnologiyalarni o‘rganish** – zamonaviy metod va texnologiyalarni qo‘llashga tayyor bo‘lishadi.
- **Doimiy o‘zini rivojlantirish** – o‘z bilim va ko‘nikmalarini muntazam oshirish orqali eng so‘nggi bilimlarga ega bo‘lishga harakat qilishadi.
- **Jamoadagi ish** – pedagogik jamoada hamkorlik qilish, o‘qituvchi va ota-onalar bilan yaxshi aloqalar o‘rnatish muhimdir.

Bugungi kunda kasbiy ta’lim sohasining mazmunini yangilash, rivojlantirish, takomillashtirish jarayonlari olib borilmoqda, buning natijasi ta’lim standartlarini modernizatsiyalash, ta’lim jarayonini tashkil etishning yangi shakllarini qo‘llashga qaratilgan. Mamlakat ta’lim tizimini modernizatsiyalashning bosh maqsadi ijtimoiyiqtisodiy shart sharoitlarga to‘la javob bera oladigan ta’limning yangi sifatiga erishish belgilangan.

Mamlakatimizda ta’limni rivojlantirishning maqsadli dasturiga muvofiq ta’lim tizimi modernizatsiyalash, kadrlarni qayta tayyorlash, o‘quv jarayonini axborotlashtirish, axborot makonlarini yaratish kabilarni amalga oshirish zarur. Sanab o‘tilgan talablar yangi milliy ta’lim tizimining shakllanishiga, inson kapitalining rivojlanishiga, mamlakatimiz iqtisodiyotiing mustahkamlanishiga olib keladi. Pedagog kadrlarning bilimlarini, kompetensiyalarining doimiy yangilash va butun ta’lim tizimini takomillashtirish uchun shart sharoitlarni yaratish lozim. Ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi ta’lim oluvchilarni dolzarb bilimlar bilan ta’minlash uchun o‘z kasbiy faoliyatiga yangi yondashuvlarni olib kirish va ularni o‘zlashtirishi darajasining ortishiga imkon beradi. Ta’lim tizimini modernizatsiyalash ta’lim oluvchilarning ham ta’lim olish faoliyatidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatadi.

Xulosa. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy usullari moslashuvchanlik, hamkorlik va doimiy o‘sish zarurligini ta’kidlaydi. Texnologiyani integratsiyalash, aks ettirish amaliyotini rivojlantirish va xilma-xillikni qamrab olish orqali o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlari o‘qituvchilarni zamonaviy sinflarning murakkabliklariga tayyorlashi mumkin. Ta’lim talabi va sifati tobora va barqaror o‘zgarib borar ekan, kelajak avlodlarni boshqaradigan kadrlarni tayyorlashga yondashuvlar ham o‘zgarishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kholdarova, I. V. (2021). THE FOLKS DISCOVERIES AND GENERATIVE LEXEMES. Theoretical & Applied Science, (3), 267-270.

2. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши / Мет.қўл. Д.Рўзиева, М.Усмонбоева, З.Ҳолиқова. – Т.: Низомий номли ТДПУ, 2013

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.

4. Sangirova M. Bugungi kun o‘qituvchisiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar. "Экономика и социум" №12(115) 2023 www.iupr.ru

BUYUK MUTAFAKKIRLARNING IJTIMOIY QARASHLARI ASOSIDA TALABALARNING TEJAMKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Xaliqova Xurshida Abdullayevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya:
Ushbu ilmiy maqola “Buyuk mutafakkirlarning ijtimoiy qarashlari asosida talabalarining tejamkorlik faoliyatini rivojlantirish metodikasi” mavzusiga bag‘ishlangan. Maqolada, o‘quvchilarning iqtisodiy bilimlarini oshirish va ularni tejash madaniyatiga o‘rgatish masalalari ko‘rib chiqiladi. Buyuk mutafakkirlarning ijtimoiy, axloqiy va iqtisodiy qarashlari, jumladan, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Al-Farobiy kabi sharq mutafakkirlarining asarlaridagi tejamkorlikka oid fikrlar

tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalar o‘rtasida iqtisodiy savodxonlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va tejash faoliyatini rivojlantirish uchun pedagogik metodikalar ishlab chiqiladi. Maqolada taklif etilgan metodika, talabalar uchun nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarni rivojlantirishga, balki yashash sifati va barqaror taraqqiyotga hissa qo‘shishga qaratilgan. Ushbu metodika o‘quv jarayonida talabalarni faol ishtirok etishga undaydi, ular orasida tejashning ahamiyatini tushuntirishni va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishni maqsad qiladi.

Аннотация:

Данная научная статья посвящена теме” Методика развития бережливой деятельности своих учеников на основе социальных воззрений великих мыслителей". В статье рассматриваются вопросы повышения экономических знаний учащихся и обучения их культуре сбережений. Анализируются социальные, моральные и экономические взгляды великих мыслителей, в том числе взгляды на бережливость в трудах таких восточных мыслителей, как Абу Райхан Беруни, Ибн Сина, Аль-Фараби. Также разрабатываются педагогические методики повышения экономической грамотности учащихся, эффективного использования ресурсов и развития бережливой деятельности. Предлагаемая в статье методика направлена не только на продвижение экономических и социальных интересов студентов, но и на повышение качества жизни и устойчивого развития. Данная методика побуждает учащихся к активному участию в учебном процессе, направлена на разъяснение важности сбережений среди них и развитие социальной ответственности.

Annotation:

This scientific article is devoted to the topic “methodology for the development of frugality activities of students based on the social views of great thinkers.” The article addresses issues of improving students ' economic knowledge and teaching them to a culture of saving. The social, moral and economic views of the great thinkers, including those of Eastern thinkers such as Abu Rayhan Beruniy, Ibn Sina, Al-Farabi, are analyzed in the context of austerity. Pedagogical methodologies are also developed to increase economic literacy among students, effectively use resources and promote saving activities.The methodology proposed in the article is aimed at contributing not only to the development of economic and social interests for students, but also to the quality of living and sustainable development. This methodology encourages students to actively participate in the learning process, aiming to explain the importance of saving among them and to develop social responsibility.

Kalit so‘zlar: tejamkorlik, talabalar faoliyati, iqtisodiy savodxonlik, metodika, buyuk mutafakkirlar, ijtimoiy qarashlar, barqaror rivojlanish, pedagogika, resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy ta'lim.

Ключевые слова: бережливость, успеваемость учащихся, экономическая грамотность, методология, великие мыслители, социальные взгляды, устойчивое развитие, педагогика, эффективное использование ресурсов, экономическое образование.

Keywords: thrift, student activities, economic literacy, methodology, great thinkers, social views, sustainable development, pedagogy, effective use of resources, economic education.

Kirish

Zamonaviy jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri – bu resurslardan samarali foydalanish va tejamkorlikni targ‘ib qilishdir. Xususan, talabalik yillari o‘quvchilarning nafaqat bilim olish, balki iqtisodiy va ijtimoiy mas'uliyatni tushunish uchun eng qulay davrdir. Shuning uchun, talabalarda tejash madaniyatini rivojlantirish, ularga iqtisodiy resurslarni samarali boshqarish va kelajakda barqaror rivojlanishga hissa qo‘shish zarurati katta ahamiyatga ega.

Bunday muhim vazifani amalga oshirishda, tarixiy va ilmiy nuqtai nazardan buyuk mutafakkirlarning ijtimoiy va iqtisodiy qarashlaridan foydalanish samarali yondashuv hisoblanadi. Sharq mutafakkirlarining, jumladan, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Al-Farobiy va boshqalar kabi buyuk shaxslarning asarlarida tejash va resurslardan samarali foydalanish masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Ularning iqtisodiy va ijtimoiy qarashlari, muayyan metodologiyalar orqali talabalar o‘rtasida tejamkorlik faoliyatini rivojlantirishda asos bo‘la oladi.

Ushbu maqolada, buyuk mutafakkirlarning ijtimoiy qarashlari asosida talabalar o‘rtasida tejamkorlik faoliyatini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqiladi. Maqsad, talabalarning iqtisodiy savodxonligini oshirish, ularni resurslarni tejashga undash va ular orasida ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishdir. Maqolada taklif etilgan metodika nafaqat talabalarning iqtisodiy jihatdan rivojlanishini ta'minlash, balki ularni barqaror rivojlanish tamoyillari asosida o‘qitish va ijtimoiy faoliyatga rag‘batlantirishga qaratilgan.

Shu bilan birga, bu metodikaning pedagogik asoslari va amaliy qo‘llanilishi ham ko‘rib chiqiladi. Tejamkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy ta'limni takomillashtirish masalalarida o‘quv jarayoniga integratsiya qilinadigan yangiliklar, innovatsiyalar va metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Bu jarayon, talabalarning iqtisodiy bilimlarini amaliyotda qo‘llashga imkon yaratadi, ularni yuksak ma'naviyat va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalaydi.

Shu tariqa, maqola talabalar o‘rtasida tejamkorlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini yaratishga, shuningdek, bu jarayonning pedagogik metodikasini taklif etishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi

Ushbu bo‘limda, "Buyuk mutafakkirlarning ijtimoiy qarashlari asosida talabalarining tejamkorlik faoliyatini rivojlantirish metodikasi" mavzusiga oid ilmiy va pedagogik adabiyotlar tahlil qilinadi. Tejamkorlik, iqtisodiy ta'lim va ijtimoiy mas'uliyat kabi muhim konseptlar yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar, asosan, iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash yo‘nalishlariga qaratilgan. Shu bilan birga, buyuk mutafakkirlarning asarlaridagi ijtimoiy qarashlar ham bu jarayonni rivojlantirishda ahamiyatga ega.

1. Iqtisodiy ta'lim va tejamkorlik

Tejamkorlik faoliyatini rivojlantirish, asosan, iqtisodiy ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy ta'limning ahamiyati haqida bir qator adabiyotlar mavjud. Xususan, *Yunusov (2015)*ning "Iqtisodiy ta'lim va uning ijtimoiy rivojlanishdagi roli" nomli asarida iqtisodiy bilimlarni talabalar o‘rtasida tarqatish va ularga iqtisodiy madaniyatni singdirishning ahamiyati ta'kidlangan. Shuningdek, iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish orqali talabalar uchun tejamkorlik va resurslarni samarali boshqarish masalalariga e'tibor qaratilgan.

*Eshmatov (2018)*ning "Tejamkorlik va uning iqtisodiy ta'limdagi o‘rni" asarida, iqtisodiy ta'limni rivojlantirishda tejamkorlikning o‘rni alohida ajratilgan. Muallifning fikriga ko‘ra, talabalarga iqtisodiy jarayonlarni to‘g‘ri tushuntirish, ularni resurslardan samarali foydalanishga o‘rgatish, kelajakda iqtisodiy rivojlanishning mustahkam asosi bo‘ladi. Bu o‘rinli ravishda, talabalar o‘rtasida tejamkorlikni rivojlantirish uchun pedagogik metodlarni taklif etadi.

2. Buyuk mutafakkirlar va ijtimoiy qarashlar

Buyuk mutafakkirlarning ijtimoiy qarashlari, ayniqsa iqtisodiy va axloqiy masalalar bo‘yicha keng ko‘lamda ilmiy fikrlar yaratgan. **Abu Rayhon Beruniy** va **Ibn Sino** kabi ilm-fan va madaniyatni rivojlantirgan shaxslar, o‘z asarlarida resurslarni tejash, ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyat haqida ko‘plab qimmatli fikrlar izohlaganlar. **Abu Rayhon Beruniy**ning "Olamshumul ilm" asarida, resurslarni tejash va ularni samarali ishlatish bo‘yicha keltirilgan masalalar hozirgi kunda ham dolzarbligini saqlab kelmoqda. Shuningdek, **Ibn Sinoning** "Tibbiyot qomusi"da resurslarni iqtisodiy va samarali ishlatish hamda ekologik muvozanatni saqlashga oid bir qator tavsiyalar mavjud.

Al-Farobiyning ijtimoiy va axloqiy qarashlari, ayniqsa, ijtimoiy mas'uliyat va adolatni rivojlantirishga qaratilgan. Uning "Fazilatlar shahri" asarida jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari, shu jumladan, resurslarni adolatli taqsimlash va ulardan samarali foydalanish masalalari chuqur tahlil qilinadi. Mutafakkirlarning ushbu asarlari, talabalarga tejamkorlikni rivojlantirishning muhim pedagogik asoslari sifatida foydalanish uchun katta ilmiy qiymatga ega.

3. Pedagogik metodikalar va talabalarda tejamkorlikni rivojlantirish

Pedagogik metodikalar bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar talabalarda tejamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. *Xolboyev (2017)*ning "Pedagogik metodlar orqali iqtisodiy ta'limni rivojlantirish" asarida, talabalarga iqtisodiy mas'uliyatni singdirish va ularda tejamkorlik madaniyatini shakllantirish uchun samarali pedagogik metodlar taqdim etilgan. Shuningdek,*Mansurov (2020)*ning "Pedagogika va iqtisodiy ta'lim metodikasi" nomli ishida talabalar o‘rtasida iqtisodiy qarashlarni shakllantirish, iqtisodiy va ekologik mas'uliyatni tushuntirishga qaratilgan yondashuvlar tahlil qilinadi.

Ushbu asarlarda ta'kidlanishicha, tejamkorlikni rivojlantirishda interaktiv metodlar, guruhli ishlash, amaliy mashg‘ulotlar va real hayotiy misollarni qo‘llash talabalar uchun eng samarali usullardir. Pedagogik metodlarni to‘g‘ri tanlash, talabalarning ijtimoiy va iqtisodiy mas'uliyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

4. Innovatsiyalar va metodik yondashuvlar

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar va amaliyotda tejamkorlik va iqtisodiy ta'limning innovatsion metodlarini qo‘llash zarurati ta'kidlanadi. *Shamsiyev (2019)*ning "Yangi pedagogik texnologiyalar yordamida talabalarda tejamkorlikni rivojlantirish" asarida, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali talabalarda ekologik va iqtisodiy barqarorlikni rivojlantirishning samarali usullari ko‘rsatilgan. Internet-resurslar, multimedia materiallar va masofaviy ta'lim shakllari talabalarga samarali ta'lim olish imkoniyatlarini yaratib beradi.

Adabiyotlar sharhidan ko‘rinib turibdiki, tejamkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy savodxonlikni oshirish uchun mavjud ilmiy asarlar bir qator tamoyillarga asoslanadi. Bu asarlar pedagogik metodikalar, buyuk mutafakkirlarning iqtisodiy va ijtimoiy qarashlari hamda zamonaviy innovatsion yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Talabalarda tejamkorlik faoliyatini rivojlantirishda bu ilmiy izlanishlarning integratsiyalashuvi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quv jarayonini yanada samarali qilish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqotlar metodologiyasi

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi, "Buyuk mutafakkirlarning ijtimoiy qarashlari asosida talabalarining tejamkorlik faoliyatini rivojlantirish metodikasi" mavzusida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar va tahlilni chuqur o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda foydalanilgan metodologiya talabalarda tejamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha metodik yondashuvlarni aniqlash, ilmiy nazariy asoslarni tahlil qilish va amaliy tadqiqotlar orqali muammolarni hal qilishni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotning metodologik yondashuvi quyidagi asosiy tamoyillar va metodlarni o‘z ichiga oladi:

1. Nazariy metodlar

Nazariy metodlar, tadqiqotning ilmiy asoslarini yaratish, mavzuga oid mavjud adabiyotlarni tahlil qilish va ilmiy qarashlarni umumlashtirishga qaratilgan. Tadqiqotda buyuk mutafakkirlarning asarlari va ularning iqtisodiy, axloqiy va ijtimoiy qarashlari asosida talabalar uchun tejamkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari o‘rganiladi. Bu metod yordamida quyidagi nazariy jarayonlar amalga oshiriladi:

- Buyuk mutafakkirlarning iqtisodiy va ijtimoiy qarashlarini tahlil qilish.
- Tejamkorlikning pedagogik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini o‘rganish.
- Ijtimoiy mas'uliyat va iqtisodiy bilimlar asosida metodik yondashuvlarni ishlab chiqish.

Metodlar:

- **Tahlil**: Adabiyotlar va ilmiy asarlarni tahlil qilish orqali mutafakkirlarning tejamkorlik haqidagi qarashlari, pedagogik ta'limdagi metodik yondashuvlar o‘rganiladi.
- **Sintesis**: Barcha ilmiy ma'lumotlar va nazariy qarashlar birlashtirilib, umumiy metodik tamoyillar shakllantiriladi.

2. Amaliy tadqiqot metodlari

Amaliy tadqiqot metodlari, talabalar orasida tejamkorlik faoliyatini rivojlantirishni amaliyotda sinovdan o‘tkazish va metodikani joriy qilishni o‘z ichiga oladi. Bu metodlar yordamida, talabalar o‘rtasida tejamkorlikni rivojlantirishning samarali

yondashuvlari va metodik yondoshuvlar aniqlanadi. Amaliy tadqiqot metodlari quyidagi bosqichlardan iborat:

- **Eksperiment**: Tadqiqotning amaliy qismi sifatida talabalar guruhlari orasida tejamkorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan eksperimentlar o‘tkaziladi. Eksperimentda, turli pedagogik usullar va metodlar orqali talabalarning iqtisodiy va ekologik savodxonlik darajasi o‘lchanadi.
- **So‘rovnoma va anketalar**: Talabalar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazilib, ularning tejamkorlikka oid fikr va qarashlari o‘rganiladi. So‘rovnomalar, talabalar orasida tejamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan metodikalar va pedagogik yondashuvlarni aniqlashda yordam beradi.
- **Intervyular**: O‘qituvchilar, pedagoglar va talabalar bilan individual intervyular o‘tkazilib, tejamkorlikni rivojlantirishdagi amaliy yondashuvlar va tajribalar o‘rganiladi.

Metodlar:

- **Eksperimental metod**: Eksperimentlar orqali o‘quv jarayonida talabalar o‘rtasida tejamkorlik faoliyatini rivojlantirish usullari sinovdan o‘tkaziladi.
- **So‘rovnoma metodlari**: Talabalar, o‘qituvchilar va pedagoglar o‘rtasida so‘rovnomalar, anketalar orqali tejamkorlik faoliyati bo‘yicha fikrlar yig‘iladi.
- **Fokus-guruhlar**: Talabalar guruhlari bilan muhokamalar va tajribalar o'tkazilib, tejamkorlikni rivojlantirishga oid fikrlar to‘plangan.

3. Pedagogik tajriba va kuzatuv metodlari

Pedagogik tajriba va kuzatuv metodlari talabalarning tejamkorlik faoliyatini amaliyotda o‘rganish uchun qo‘llaniladi. Tadqiqot jarayonida, talabalarning o‘quv jarayonini kuzatish va ularga qaratilgan pedagogik ta'sirlarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bu metodlar yordamida talabalarda tejamkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun qanday pedagogik vositalar va metodlar samarali ekanligi aniqlanadi.

Metodlar:

- **Kuzatuv**: Talabalar o‘rtasida tejamkorlik faoliyatining qanday amalga oshirilishini kuzatish. Bu usul yordamida talabalarning amaliy faoliyati va ularga qaratilgan pedagogik metodlar o‘rganiladi.
- **Tajriba almashish**: O‘qituvchilar va talabalarning pedagogik tajribalari o‘rganilib, eng samarali yondashuvlar aniqlanadi.

4. Analitik va statistik metodlar

Tadqiqotning natijalarini tahlil qilish uchun analitik va statistik metodlardan foydalaniladi. Bu metodlar yordamida olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi, eksperimentlar va so‘rovnomalardan olingan natijalar umumlashtiriladi va ilmiy asosda baholanadi. Statistik metodlar orqali talabalar o‘rtasida tejamkorlik faoliyatining samaradorligi va ta'siri o‘lchanadi.

Metodlar:

- **Statistik tahlil**: So‘rovnoma va eksperimentlardan olingan natijalar statistika yordamida tahlil qilinadi.

- **Grafik tahlil**: Tejamkorlik faoliyatining rivojlanish jarayoni va metodik yondashuvlarning samaradorligini grafik vositalar orqali ko‘rsatish.

5. Komparativ metod

Komparativ metod yordamida, turli pedagogik metodlar va metodik yondashuvlarning samaradorligi taqqoslanadi. Bu metod yordamida talabalarda tejamkorlikni rivojlantirishda qaysi metodlarning eng samarali ekanligi aniqlanadi.Shu bilan birga, metodlar o‘rtasidagi farqlar va ularning ta'siri o‘rganiladi.

Metodlar:

- **Metodik yondashuvlarni taqqoslash**: Turli pedagogik metodlar o‘rtasidagi farqlarni va ularning samaradorligini taqqoslash.
- **Tajriba almashish**: Turli pedagogik metodlarni sinab ko‘rish va ularning natijalarini solishtirish.

Tadqiqotning metodologiyasi talabalarda tejamkorlikni rivojlantirish va buyuk mutafakkirlarning ijtimoiy qarashlari asosida metodik yondashuvlarni ishlab chiqishda samarali usullarni qo‘llashni nazarda tutadi. Bunda nazariy tahlil, amaliy izlanishlar, eksperimentlar va pedagogik tajribalar orqali talabalar o‘rtasida tejamkorlik faoliyatini rivojlantirishning samarali metodlari aniqlanadi. Tadqiqot metodologiyasi talabalarning iqtisodiy va ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan metodikalarni ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda, buyuk mutafakkirlarning ijtimoiy qarashlari asosida talabalar o‘rtasida tejamkorlik faoliyatini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida, buyuk mutafakkirlar, ayniqsa Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Al-Farobiy kabi shaxslarning iqtisodiy va ijtimoiy qarashlari, talabalarga tejamkorlikni singdirishda va ularda iqtisodiy mas'uliyatni shakllantirishda ahamiyatli manba sifatida ko‘rib chiqildi.

Shu bilan birga, ilmiy izlanishlar asosida talabalar o‘rtasida tejamkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun pedagogik metodlar va yondashuvlar ishlab chiqildi. Tadqiqotda, iqtisodiy ta'lim, ekologik barqarorlik, va ijtimoiy mas'uliyatni talabalarga yetkazish orqali ular orasida resurslarni tejashning muhimligi tushuntirildi. Tejamkorlikni rivojlantirishning samarali metodlari, shuningdek, amaliyotda sinovdan o‘tkazish va pedagogik tajribalarga asoslangan eksperimentlar orqali tasdiqlandi.

Bundan tashqari, metodik yondashuvlarning ijtimoiy va axloqiy jihatlari, talabalar o‘rtasida tejamkorlik va iqtisodiy mas'uliyatni shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Tadqiqotda taqdim etilgan metodika, talabalarning iqtisodiy savodxonligini oshirish, ularda ekologik barqarorlikni rivojlantirish va ijtimoiy mas'uliyatni targ‘ib qilishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayonning pedagogik jihatlarini to‘liq o‘z ichiga oladi.

Shu sababli, bu metodika talabalarning nafaqat iqtisodiy bilimlarini oshirish, balki ularni ekologik jihatdan barqaror va mas'uliyatli hayot kechirishga tayyorlashda samarali vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Ushbu izlanishlar nafaqat

talabalarning o‘qish jarayonini, balki jamiyatda iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Eshmatov, I. (2018). *Tejamkorlik va uning iqtisodiy ta'limdagi o‘rni*. Tashkent: Iqtisodiyot va tahlil nashriyoti.
2. Yunusov, S. (2015). *Iqtisodiy ta'lim va uning ijtimoiy rivojlanishdagi roli*. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.
3. Shamsiyev, D. (2019). *Yangi pedagogik texnologiyalar yordamida talabalarda tejamkorlikni rivojlantirish*. Tashkent: Pedagogika ilmiy-nashriyoti.
4. Mansurov, X. (2020). *Pedagogika va iqtisodiy ta'lim metodikasi*. Toshkent: Pedagogika nashriyoti.
5. Al-Farobiy, A. (2003). *Fazilatlar shahri*. Toshkent: Sharq nashriyoti.
6. Ibn Sino, A. (2004). *Tibbiyot qomusi*. Toshkent: Ilm nashriyoti.
7. Beruniy, A. (2010). *Olamshumul ilm*. Toshkent: Fan nashriyoti.
8. Xolboyev, S. (2017). *Pedagogik metodlar orqali iqtisodiy ta'limni rivojlantirish*. Toshkent: O‘zbekiston ta'limi.
9. Sadikov, M. (2016). *Ijtimoiy mas'uliyat va iqtisodiy savodxonlik*. Toshkent: Iqtisodiyot va jamiyat nashriyoti.
10. Karimov, A. (2021). *Yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik*. Tashkent: Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish nashriyoti.

JISMONIY MADANIYAT VA SPORT MUTAXASISLARIDA KASBIY KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O’RNI

ISFT instituti Samarqand filiali Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o’qituvchisi **M.A.Hotamov**
muminhotamo5@gmail.com **+998904463663**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, Jismoniy madaniyat va sport mutaxasislarida kasbiy kompitentligini rivojlantirishning o’rni, kasbiy mehnatda zarur bo’lgan shaxsiy fazilatlarni, axloqiy va jismoniy fazilatlarni tarbiyalash haqida so’z borgan.

Kalit so’zlar: jismoniy madaniyat, ta’lim, me’yoriy, qiymatga yo’naltirilgan, kommunikativ, kasbiy kompitentlik.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda jismoniy madaniyatning inson va jamiyat tabiatini takomillashtirish omili sifatidagi roli sezilarli darajada oshib bormoqda. Bugungi kunda bo’lajak jismoniy madaniyat va sport mutaxasislarilarga jismoniy mashqlarni yetkazish bilan birgalikda parallel ravishda uning ta’lim va tarbiyasi bilan shug’ullanib, u bilan o’zaro muloqot olib boradi. Har bir o’quvchi aqliy, ruhiy va jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo’lganligi sababli ham bo’lajak jismoniy madaniyat va sport mutaxasislariga kasbiy kompitentligini

rivojlantirishda ular bilan doimiy muloqotda bo’lishi, ularning har bir psixologik xarakteri va fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini, avvalo, psixologiya va tarbiya nazariyasini mukammal tarzda o’rganib, o’z kasbiy faoliyatini doimiy rivojlantirib borishi zarur.

Mamlakatimizda sog’lom turmush tarzini tashkil etish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o’z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo’lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAXLILI

Jismoniy tarbiya ta'lim tizimining tarkibiy qismlaridan biri bo’lib, uning maqsadi inson salomatligini mustahkamlash va uning to’g'ri jismoniy rivojlantirish hisoblanadi. Aqliy tarbiya, axloqiy-estetik, mehnat tarbiyasi va tarbiyasi bilan birlikda jismoniy tarbiya shaxs shaxsining har tomonlama kamol topishiga yordam beradi. Jismoniy madaniyat tarixiy shartli hodisadir. Uning kelib chiqishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Mehnat jarayonida odamlar atrofdagi tabiatga ta’sir ko’rsatib, ayni paytda o’z tabiatini o’zgartiradilar. Insonlarni hayotga, eng avvalo, mehnatga, shuningdek, boshqa zarur faoliyat turlariga tayyorlash zarurati jismoniy madaniyatning paydo bo‘lishi va yanada rivojlanishini tarixan shart qilib qo‘ygan.

Bo’lajak jismoniy madaniyat va sport mutaxasislarini kasbiy kompitentligini rivojlantirishda jismoniy madaniyatning o’rni haqida gapirar ekanmiz avvalo bu tushunchaning tarixiga naqadar tashlashimiz maqsadga muvofiq. “Jismoniy madaniyat” atamasining o’zi 19-asrning oxirida Angliyada sportning jadal rivojlanishi davrida paydo bo’lgan, ammo G’arbda keng qo’llanilmagan va vaqt o’tishi bilan kundalik hayotdan deyarli yo’qolib ketgan. Rossiyada esa aksincha, 20-asrning boshidan, 1917 yil inqilobidan so’ng, “Jismoniy madaniyat” atamasi barcha davlat hokimiyatlarida tan olina boshladi va ilmiy va amaliy leksikonga mustahkam kirib bordi. 1918-yilda Moskvada Jismoniy tarbiya instituti ochildi, 1919-yilda umumiy ta’limning jismoniy madaniyat bo‘yicha qurultoyi bo‘lib o‘tdi, 1922-yildan “Jismoniy madaniyat” jurnali, 1925-yildan hozirgi kungacha “Teoriya va amaliyot” jurnali nashr etildi.

Ko'rib turganimizdek, “Jismoniy madaniyat” nomining o’zi uning madaniyatga tegishli ekanligini ko’rsatib berdi. Jismoniy madaniyat ijtimoiy ijtimoiy hodisa ekanligiga shubha mavjud emas. Bularning barchasi uning insoniyat jamiyatining paydo bo’lishi bilan birga paydo bo’lganligi va rivojlanganligidan dalolat beradi.

NATIJALAR

Har bir inson va butun jamiyat uchun salomatlikdan ustunroq qadriyat yo’q. Bo’lajak jismoniy madaniyat va sport mutaxasislarida kasbiy kompitentligini rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati, ularni kundalik hayotga joriy etish tobora ortib bormoqda. Jismoniy tarbiya va sport insonni hayotga

tayyorlaydi, tanasini chiniqtiradi va sog'lig'ini mustahkamlaydi, uning barkamol jismoniy rivojlanishiga hissa qo'shadi, xalq xo'jaligining jismoniy madaniyat va sport mutaxasislarida kasbiy kompitentligini rivojlantirish uchun kasbiy mehnatda zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarni, axloqiy va jismoniy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Bo'lajak jismoniy madaniyat va sport mutaxasislarilarida kasbiy kompitentligini rivojlantirishda jismoniy madaniyat haqidagi zamonaviy g'oyalar uni umumiy madaniyatning o'ziga xos qismi sifatida baholash bilan bog'liq. Butun jamiyat madaniyati kabi jismoniy madaniyat ham turli jarayonlar va hodisalarning etarlicha keng doirasini o'z ichiga oladi:

- O'ziga xos xususiyatlar bilan inson tanasi;
- Insonning jismoniy holati;
- Uning jismoniy rivojlanish jarayoni;
- Vosita faoliyatining muayyan shakllaridagi sinflar;

Yuqoridagi bilimlar, ehtiyojlar, qadriyat yo'nalishlari, ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq. Shuningdek, shaxsning jismoniy madaniyatini shakllantirish jismoniy madaniyatning maqsadi hisoblanadi. Ta'lim tizimiga xos bo'lgan eng muhim insonparvarlik natijalari jismoniy tarbiyaga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar bo'lib, ular sog'lom turmush tarzini shakllantirish, dam olish, sog'lomlashtirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun jismoniy mashqlardan foydalanish uchun zarurdir.

MUHOKAMA

Jismoniy madaniyat jamiyat madaniyatining bir qismi bo'lganligi sababli, u, birinchi navbatda, umumiy madaniy ijtimoiy funktsiyalar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak jismoniy madaniyat va sport mutaxasislarida jismoniy madaniyatini oshirish deganda jismoniy mashqlar jarayonida orttirilgan va insonning jismoniy tabiatini har tomonlama va uyg'un ravishda yaxshilashga, sog'lom turmush tarzini olib borishga faol intilishida ifodalangan insoniy hususiyatlar majmui tushuniladi. U tashabbuskorlik, mustaqillik va ijodkorlikni faol rivojlantiradi, o'z dunyoqarashi va fikrlash usullarini, individual xarakter xususiyatlarini, boshqa odamlarning harakatlariga va o'z harakatlariga tanqidiy munosabatni shakllantiradi.

Jismoniy madaniyat va sport mutaxasislarida kasbiy kompitentligini rivojlantirishda jismoniy madaniyat natijasida qo'lga kiritilgan bu ijobiy xususiyatlarning barchasi shaxsni nafaqat jismoniy madaniyatli shaxs sifatida, balki har tomonlama va barkamol rivojlangan, shaxsning umumiy madaniyatining yuqori darajasini aks ettiruvchi yaxlit shaxs sifatida tavsiflanadi.

XULOSA

Bugungi kunda inson faoliyatining jismoniy tarbiya bilan bog'liq bo'lmagan yagona sohasini topish mumkin emas, chunki jismoniy madaniyat va sport umuman jamiyatning va har bir shaxsning alohida e'tirof etilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlaridir. So'nggi yillarda jismoniy madaniyat haqida nafaqat mustaqil ijtimoiy hodisa, balki shaxsning barqaror sifati ham ko'proq gapirilayotgani bejiz emas. Insonning madaniyat darajasi uning bo'sh vaqt kabi ijtimoiy ne'matdan oqilona, to'liq foydalana olishida namoyon bo'ladi. Uning

qanday qo’llanilishi nafaqat ish, o’qish va umumiy rivojlanishdagi muvaffaqiyatga, balki insonning sog’lig'iga, uning hayotining to’liqligiga ham bog'liq desak mubolag’a bo’lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 29.04.2019 sanasidagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-5712-sonli qarori.
2. Arslonov Q. P, Abdullayev Sh. D, Ibragimov M. B. Jismoniy madaniyat darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. T.: Durdona, 2016.
3. Rahmonov P.F. Jismoniy tarbiya o’qituvchisining faoliyati. –T.: ITA – PRESS, 2016.
4. Azizov N. N. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. T.: ITA PRESS, 2014.
5. Kainova, E. B. Jismoniy tarbiya va sportning umumiy pedagogikasi: o'quv qo'llanma E. B. Kainova. - M.: FORUM, 2007.
6. Neverkovich S.D. Jismoniy madaniyat va sport pedagogikasi: darslik / tahrir. M .:Jismoniy madaniyat, 2006.

JISMONIY TARBIYA MUTAXASISLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

ISFT instituti Samarqand filiali Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o’qituvchisi **M.A.Hotamov**
muminhotamo5@gmail.com **+998904463663**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, jismoniy tarbiya mutaxassislarni tayyorlash, ularni bo‘lg‘usi ish faoliyatida zarur bo‘ladigan kasbiy va ijodiy mahoratini oshirish, iqtidorli talabalarni saralab, ularni kelgusi ijod faoliyatini aniqlab olish hamda ularning kasbiy kompetenligini shakllantirishning foydali jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompeten, pedagogik ta’lim, yo‘naltiruvchi, yaratuvchan qobiliyatlar, iqtidorli talabalar, klaster, o‘zaro hamkorlik, ijtimoiy hamkorlik.

KIRISH.

Bugungi zamonaviy dunyo oliy ta’lim tizimi juda tez sur’atlarda jadal rivojlanmoqda. Oliy ta’lim muassasalarining soni kun sayin ortib borishi va oliy ta’limga qiziquvchi talabalar soniga hamohang ortib bormoqda. Oliy ta’lim muassasalarining son bilan bir qatorda raqobatbardosh bilimli kadrlarni tayyorlashda sifatli ta’limga alohida e’tibor berishi zarur bo‘lmoqda. Buni raqamlarda oladigan bo‘lsak, yurtimizda bugungi kunda ularning soni 200 dan ziyod va oliy ta’limda taxsil olayotgan talabalar soni yil boshida 1 milliondan ziyod bo‘lgani yaqqol misol bo‘la oladi.

Endi bitiruvchi ta’labalarning ishga joylashish masalasi sog‘lom raqobat asnosida kasbiy-ijtimoiy kompetenlik va bilimlari asnosida yuzaga kelishi, bo‘lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularga kelgusi ish muhiti amaliyotini yaratish, kasbiy kompetentligini rivojlantirish va ular bilan individual yondashishni hamda ularning mustaqil ta’limini sifatli tashkil etish muhim masala hisoblanadi. Shu kabi bazi muammolarni hal etish va ta’limni isloh qilish va yangicha sayqal berish oliy ta’limni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilinayotgan qarorlarda ham o‘z aksini topmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konseptsiyasi”da, belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, shuningdek, universitetning asosiy strategik yo‘nalishi bo‘lgan “Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri” bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiy-nazariy xulosalarini amalda joriy qilish, universitet ta’lim sifatini oshirish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish maqsadida “Individual yondashuv texnologiyalari” universitetning asosiy strategik rejasiga kiritildi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA:

Ключевые понятия, слова: начертательный, начертательная геометрия, чертёжник, циркуль (паргор), дулоб, историческая память, гордость.

Annotation: The article discusses the spiritual education of future labor education teachers in connection with the legacy of great thinkers of the past through the scientific club "Young Draftsman."

Keywords: descriptive, descriptive geometry, draftsman, compass (pargor), dulob, historical memory, pride.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030-йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармонида “ ... ёшларнинг интеллектуал салоҳияти, тафаккури ва дунёқарашини юксалтириш, мавкуравий иммунитетини мустаҳкамлаш, ватанпарварлик, халқ манфаатлари учун хизмат қилиш туйғуси билан яшайдиган баркамол авлод сифатида тарбиялашга қаратилган талаба-ёшларнинг маънавий-ахлоқий онгини ривожлантириш концепциясини ишлаб чиқиш ва амалиётга тадбиқ этиш” [1] алоҳида қайд қилинган.

Жамиятимизнинг олий таълим муассасалари олдига қўйган мазкур буюртмасини бажаришда таълимнинг аудиториядан ташқари машғулотлари кенг имкониятларга эга. Сабаби, олий таълим муассаси(ОТМ)да ўқув жараёни фанлар дастурлари, вақт ва олдиндан белгиланган машғулотлар шакллари билан чегараланган. Шу боис аудиторияда ўтказиладиган ўқув машғулотларига қўшимча равишда, улар билан узвий алоқада аудиториядан ташқари тарбиявий ишлар ўтказилади.

Аудиториядан ташқари машғулотлар ўзига хос хусусиятлари билан аудитория машғулотларидан фарқ қилиб, улар ихтиёрий равишда ташкил қилинади. Талабалар ўз қизиқишларига қараб турли илмий тўгаракларга ўз ихтиёрлари билан ёзиладилар ҳамда аудиториядан ташқари вақтда ўтказиладиган оммавий, гуруҳий ва индивидуал ишларга ўз истаклари билан қатнашадилар.

Илмий тўгараклар аудиториядан ташқари машғулотларнинг энг кўп қўлланиладиган шаклларидан биридир.

Тўгараклар талабалар қизиқиш ва хоҳишларига қараб ташкил этилади. Тўгаракларни фаолияти у ёки бу фан дастури материалларини такрорлашдан ёки маълум бир фан бўйича қўшимча машғулотлар ўтказишдан иборат бўлмаслиги керак.

Илмий тўгаракнинг асосий вазифаси талабалар билимларини ҳар томонлама кенгайтириш, чуқурлаштириш, интеллектуал қобилиятларни ўстириш баробарида уларда халқимизнинг бой тарихи, маънавий маданиятини ўрганишга бўлган эҳтиёжини қондиришга қаратишдан иборат.

Айтиш жоизки, тўгараклар ўзининг дидактик ижодий имкониятларини ранг-баранглиги билан фарқланиб, дарс машғулотларидан қуйидаги белгилари билан фарқ қилади: тўгарак машғулотларида ўқув режа ва дастурлари мавзулари ДТС (мажбурий минимум) га қараб эмас, балки таълим олувчи тўгарак аъзолари қизиқиши асосида тузилади: аудитория машғулотларида талабалар деярли тенг ёшда тахсил олсалар, тўгарак машғулотларида тажрибаларига мос равишда турли ёшдаги талабаларнинг хоҳиш- истаклари ва қизиқиш, талабларига таълим-тарбия берилади; тўгарак машғулотларига қатнашиш ёки қатнашмаслик ихтиёрий бўлиб, талабалар хохлаган вақтда бир тўгаракдан бошқасига ўтишлари ёки тўгаракдан умуман кетишлари ёки бир йўла икки тўгарак ишига фаол қатнашиши мумкин.

Тўгарак машғулотлари маълум соҳани чуқур ўрганишга мўлжалланган бўлиб, талабалар тўлиқ мустақил фаол ҳаракатланишга, машғулот давомида қўйилган ишни бажаришга йўналтирилган бўлади.

Тўгарак аъзолари топшириқни бир машғулотда тўлиқ бажараолмасалар кейинги машғулотларда давом эттиришлари , аксинча тез бажариб улгурсалар тўгарак аъзосини (аъзоларини) кутиб ўтирмасдан янги топшириқларни бажаришга киришиши мумкин бўлади.

Тўгарак машғулотлари фақат бир жойда , таълим муассасида эмас, балки илмий-дадқиқот лабораторияларида, тажриба майдончаларида, табиат бағрида, кластер корхоналарида ташкил этилиши мумкин.

Тўғилиб ўсган юртида ўзини бошқалардан кам сезмай яшаш учун инсонга энг аввало тарихий хотира зарур. Тарихий хотира инсонга аждодларимиз руҳи билан сингади. Ҳар қайси инсон ўзбекман, шу юртнинг фарзандиман , деб ғурурланиши учун аждодларимиз ким эканлигини пухта билиши зарур.

Меҳнат таълими йўналиши талабаларида тарихий хотирани таркиб топширишда ўрта асрлар маънавий маданият тарихининг асосчилари бўлмиш Аҳмад Фарғоний, Муҳаммад Хоразмий, Абу Райхон Беруний, Абу Али ибн Сино, Мирзо Улуғбек ва бошқаларнинг тарихий-меъморчилик, маданий ёдгорликларини яратишдаги бой меросини “Ёш чизмакаш” тўгарагида ўрганиш асқотади.

“Чизма геометрия” фаннинг шаклланиш тарихига доир материаллар жуда оз бўлиб, улар турли тарихий, илмий, ўқув педагогик адабиётларда сочма тарзда баён қилинган.

“Ёш чизмакаш” тўгарагининг мақсади “Чизма геометрия” фанининг шаклланишида улуғ алломалар ва мутафаккирларимизнинг астрономия, физика, минералогия геодезия, геометрия, меъморчилик ва бошқа соҳаларда эришган оламшумул кашфиётларида чизмачилик ва чизмачилик асбобларини ўрнини ўрганиш орқали талабалар қалбида миллий ғурур ва ифтихорни жўш

урдиришдан иборат. Шунингдек, мазкур асбобларни лойиҳалаш ва тайёрлаш ҳамда мустақил мамлакатимизда машинасозди, автомобилсозлик, қурилиш, меъморчилик, тўқимачилик ва бошқа соҳаларда қўлланилаётган замонавий асбоб-ускуналарни лойиҳалаш ва ўз қўллари билан тайёрлаш орқали тўгарак аъзоларида билим, кўникмаларни шакллантириш, уларнинг фазовий тасаввурларини кенгайтириш баробарида кафедра “Чизмачилик кабинети” ни жиҳозлашни такомиллаштириш, унда машғулотларда кўргазмали восита сифатида фойдаланишдан иборат.

Бунинг асосий сабаби Мовароуннахрлик мутафаккир ва алломалар геометрия фанининг амалий жихатига катта эътибор берганликлари туфайли, у астрономия, механика, статика, меъморчилик, математика, гидротехника каби табиий-математика фанлари билан узвий боғлиқ ҳолда ривожланган. Шу боис мазкур соҳа ривожига доир материалларни турли манбалардан излаб топишни, тизимлаштиришни тақозо этади. Илмий-техника тараққиётини кўчкисимон ривожланиши шароитида “Чизма геометрия” фанининг ўтмиши, бугуни ва ривожланиш истиқболларини тўгарак аъзолари кўз ўнгида гавдалантиришга интилиш, шубҳасиз, буюк аждодларимиз бой меросига бўлган маънавий эҳтиёжни қондиришга хизмат қилади.

“Ёш чизмакаш” тўгараги фаолиятини ташкил этишнинг эътиборли томони шундан иборат бўлдики, унинг раҳбари мазкур соҳа бўйича халқимиз яратган бой мерос билан тўгаракчиларни атрофлича таништириш мақсадида у тўгарак иш режасини тузишга, машғулотларда ўрганиладиган мавзулар мазмунини аниқлашга ўзлари томонидан тайёрланган материалларга таянади.

Ушбу мақсадда тўгарак раҳбари чизмачилик фани билан боғлиқ материалларни ислом динининг муқаддас китобларида чизмачиликка доир ишларни; “Улуғбекнинг Самарқанд академияси” намояндаларининг илмий-амалий фаолиятида чизма геометриянинг ўрни ва роли; Биринчи Президентимиз И.А. Каримовнинг меъмор-лойиҳачилик фаолиятини; чизма геометрия бўйича ўзбек олимларининг мазкур соҳадаги ишларни тадқиқ қилиш бўйича тўгарак аъзоларига жамоавий топшириқларни юклаш асқотади.

Тўгарак аъзоларининг фаол иштирокида тўпланган бой материалларни таҳлил қилиш асосида машғулотларнинг мавзулари аниқланди. Қуйида ушбу мавзулар ва уларнинг қисқача мазмунини келтирамиз:

1. Қуръони Каримнинг тегишли оятлари, Идрис алайҳисломнинг Миср эхтиромларининг қуриш учун маълумотлар.

2. Муҳаммад ибн Мусо ал-Хоразмий илмий ва ижодий фаолиятида чизмачилик ва ўлчаш асбоблари катта ўринни эгаллаганини “Ал-Жабр вал-муқобалани ҳисоблаш ҳақида кичик китоб” мисолида ўрганиш [5].

3. Аҳмад Фарғоний расадхона илмий изланишларида ҳамда Нил дарёси сув сатҳини ўлчаш бўйича ясаган “Ниломер” асбобини яратишда қўлланган “Паргор”, “Дулоб” (циркул)нинг чизмаси ва уларни тайёрлаш технологияси.

4. Абу Али ибн Синонинг механика ва меъморчилик соҳаларига бағишланган “Ақллар ўлчови” асари орқали чизма асбоб-ускуналари

ёрдамида чиғириқ, пишанг, ғалтак, мурват, понанининг расмини чизиш, ёғоч (темир, пўлат) материалларидан ясаш, уларнинг алоҳида-алоҳида, чиғириқ билан ғалтакни жуфтликда ишлатиш, чиғириқ, ғалтак, пишанг ва мурватни бирга тўртликда қўшиш ёки бир неча чиғириқни тишли ғилдираклар билан бирлаштириб ясаш [3].

5. Абу Райхон Беруний, Камолиддин Беҳзод ўз ишларида чизмачилик асбоб-ускуналар ёрдамида амалга оширган ва яратган янги чизмачилик ва ўлчаш асбобларини ўрганиш.

6. Абул Вафо Бузжонийнинг “Геометрик ясашларда хунарманларга керак бўлган нарсалар ҳақида” китоб орқали циркул (пагор) ва чизғич ёрдамида оддий геометрик ясашлар, параболалар чизиш усуллари, турли геометрик фигура (берилган томон бўйича тенг бўлакларга бўлиш, турли шаклларга ташқи ва ички айланаларни чизиш, учбурчак, тўртбурчак ва сферани керакли бўлакларга бўлиш ва ҳоказо)ларни ўрганиш.

7. Ал-Ҳасан ибн Мусо Шокирнинг “Узайтирилган дойра ҳақида асари” китоби орқали эллипс қуришнинг ажойиб усули - эллипс катта ўқи узунлигидаги ипни икки учи фокус нуқталарига бириктирилиб ипни таранг тортиб турган чизувчи асбобни ҳаракатлантириш жараёнида эллипс ясашни ўрганиш.

8. Қайқовус, Фирдавсий ва бошқа адиб ва шоирлар асарларида чизмачилик билан боғлиқ материаллар таҳлили.

9. Мирзо Улуғбекнинг чизмачилик ва унинг учун зарурий буюм ҳамда нарсалар ҳақидаги қимматли маълумотларни буюк мунажжимнинг ёдгорлик музейи материаллари (бурчак ўлчайдиган “Астролябия”, осмон жисмларининг координаталарини ўлчайдиган “Армилляр”, “Квадрант”, “Секстант”, “Юлдузлар глобуси”) асосида ўрганиш [2].

10. Улуғбекнинг “Самарқанд академияси” йирик намояндаси Жамшид ал-Кошининг “Арифметика калити” асарида “Ўлчаш ҳақида”ги китоби ёрдамида оддий текис фигуралар ҳамда мураккаб фазовий жисмлар, бинонинг деталлари, уларнинг умумий кўринишларига хос шаклларнинг юзалари ва ҳажмларини ўлчаш қоидаларини ўрганиш [2].

11. Улуғбек шогирди Али Қушчининг “Илми ҳандаса” асарида баён қилинган доира, тўртбурчак, паралеллепипед, жисмлар сирти юзини, куб, цилиндр, конус, оғма-кесик конус сиртлари, шар сирти юзалари, ҳажмини аниқлашда янги чизмачилик асбобларидан фойдаланганини ўрганиш.

12. Ўзбек мумтоз адабиётининг гултож намоёндалари бўлмиш Алишер Навоийнинг “Фарҳод ва Ширин” достони, Муҳаммадризо Огаҳийнинг “Равинок боғидаги бино тасвири”, “Иморати олий”, “Байрамали Қалъаси” ва бошқа шеърлари мисолларида меъмор, мухандислар, чизмакашлар, уларнинг чизма лойиҳалари, ишлатган чизмакашлик асбоблари.

13. Биринчи Президентимиз И.А. Каримовнинг меъмор-лойиҳачи фаолиятини “Мустақиллик майдони” , Оқ сарой биноси, Туркистон санъат

саройи, халқаро симпозиумлар саройи ва бошқа йирик иншоатлар мисолида ўрганиш.

14. Ўзбек олимларининг “Чизма геометрия” фанини ривожлантиишга қўшган ҳиссаларини ўрганиш.

Юқорида баён қилинганларга асосланиб хулоса қилиш мумкинки, “Ёш чизмакаш” илмий тўгараги машғулотлари бўлажак меҳнат таълими ўқитувчиларига уларнинг келгуси педагогик фаолиятларида мактаб ўқувчиларни маънавий тарбиялаш учун кенг имкониятлар яратади.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030-йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони // “Халқ сўзи” газетаси.
2. Абдураҳмонов А. Улуғбек академияси. – Т.: Қомуслар Бош тахририяти, -27 б.
3. Абу Али ибн Сино. Ақллар ўлчови (Мерило разума). – Т., 1972. - Б. 42-57.
4. Жўраев Б. Ибн Сино ижодида физика ва техника муаммолари.- Самарқанд: Зарафшон, 1996.- 55 б.
5. Сираждинов С.Х., Матвиевская Г.П. Ал-Хорезми – выдающийся математик и астроном средневековья. – М.: Просвещение, 1983.- 79 с.
6. Эргашев Д.У., Адилова Д. Тўгараклар фаолияти самарадорлигини оширишни айрим педагогик-психологик ўзига хосликлари // “Сиддиқ Ражабов ўқишлари” номли талабаларнинг илмий-амалий анжумани. – Т.: ТошДУ, 2015.- Б. 4-9.
7. Қуръони Карим. Шайх Абдулазиз Мансур. - T.: “O’quvchi” ijodiy matbaa uyi, 2020. -618 b.

O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIMNI XALQARO STANDARTLARGA MOS KELUVCHI PEDAGOGIK MUHITNI YARATISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Doniyorova Shoxista
O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogik instituti o ‘qituvchisi
Tel:+998915196001
Email: indefenit@gmail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida xalqaro standartlarga mos pedagogik muhitni shakllantirish bo‘yicha mavjud holat, dolzarb muammolar va ularni hal etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Muallif O‘zbekistonning ayrim yetakchi oliy ta’lim muassasalari misolida xalqaro hamkorlik, akademik mobillik va innovatsion pedagogik yondashuvlarni tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: xalqaro standartlar, pedagogik muhit, oliy ta’lim, O‘zbekiston OTMlari, akademik mobillik, raqamli ta’lim, hamkorlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается текущая ситуация, актуальные проблемы и пути их решения в формировании педагогической среды в соответствии с международными стандартами в системе высшего образования Узбекистана. Автор анализирует международное сотрудничество, академическую мобильность и инновационные педагогические подходы на примере некоторых ведущих высших учебных заведений Узбекистана.

Ключевые слова: международные стандарты, педагогическая среда, высшее образование, узбекские вузы, академическая мобильность, цифровое образование, сотрудничество.

Abstract: This article examines the current situation, pressing problems and ways to solve them in the formation of a pedagogical environment in accordance with international standards in the higher education system of Uzbekistan. The author analyzes international cooperation, academic mobility and innovative pedagogical approaches using the example of some leading higher education institutions of Uzbekistan.

Key words: international standards, pedagogical environment, higher education, Uzbek universities, academic mobility, digital education, cooperation.

Kirish

Globallashuv sharoitida har bir davlat ta’lim tizimi xalqaro standartlarga moslashishga intilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PQ-5847-son qarori (“Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”)da ta’kidlanganidek, oliy ta’lim muassasalarida xalqaro standartlarga mos ta’lim sifatini ta’minlash asosiy vazifa sifatida belgilangan [1]. Xalqaro standartlarga mos pedagogik muhit — bu ta’lim jarayoni xalqaro e’tirof etilgan mezonlarga mos tashkil etilgan, talaba markazli, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarga tayanuvchi o‘quv muhitidir [2]. Bu muhit quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- Akademik erkinlik va o‘qituvchining innovatsion metodlardan foydalanish huquqi;

-CLIL (Content and Language Integrated Learning), **STEAM, gamifikatsiya** kabi ilg‘or metodlar;

-Yevropa kredit tizimi (ECTS) asosida baholash;

-Multimadaniy muloqot muhiti va xorijiy tillarda ta’lim berish imkoniyati [3].

Akademik mobillik va xalqaro hamkorlik quyida oliy ta’lim muassasalarida ishlar olib borilmoqda:

-Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Koreya bilan akademik almashinuvlar olib bormoqda [4].

-Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU) 2021-yildan beri Koreya bilan qo‘shma IT-laboratoriyalar tashkil qilgan va “Double degree” dasturlar joriy qilgan [5].

-Samarqand davlat universiteti Erasmus+ va DAAD grantlari doirasida Germaniya va Litva universitetlari bilan loyihalarda qatnashmoqda [6].

Raqamli ta’lim va texnologiyalarga doir ishlarda:

-“ZiyoNet”, “Moodle”, “Google Classroom”, “Microsoft Teams” kabi raqamli platformalar ko‘plab OTMlarda faol joriy etilmoqda [7].

-Toshkent davlat pedagogika universitetida 2023-yildan boshlab "Pedagogik innovatsiyalar laboratoriyasi" tashkil etildi va CLIL bo‘yicha sinov darslari o‘tkazilmoqda [8].

Kadrlar salohiyatini ko’rib chiqadiga bo’lsak quyidagi muammolarni aytishimiz mumkin:

-QS reytingida kiritilgan universitetlar soni O‘zbekistonda juda kam. Bu esa xalqaro darajadagi pedagogik muhitni yaratishda malakali kadrlar yetishmovchiligini ko‘rsatadi [9].

-O‘qituvchilarning ingliz tilini bilish darajasi past, xalqaro sertifikat (IELTS, CEFR)ga ega pedagoglar soni cheklangan.

O‘quv rejalari va dasturlarini tahlili shuni ko’rsatadiki:

-Ayrim OTMlarda o‘quv rejalari tor ixtisoslashgan, amaliy va ko‘nikma beruvchi kurslar yetarli emas.

-Xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan ta’lim yo‘nalishlari soni 2023-yil holatiga ko‘ra 50 dan kam [10].

Yechimlar va takliflar

Professor o‘qituvchilar salohiyatini oshirish:

- Xalqaro ta’lim standartlariga mos o‘qituvchilarni tayyorlash uchun maxsus malaka oshirish markazlari ochilishi zarur.
- OTMlarda xorijiy tillarda ta’lim berish uchun CLIL metodikasi asosida doimiy treninglar o‘tkazish kerak.

O‘quv dasturlarini xalqaro darajada akkreditatsiyadan o‘tkazish

- ECTS tizimini to‘liq joriy qilish orqali kredit ko‘chirish va qo‘shma diplom dasturlarini kengaytirish mumkin.
- Yevropa, Osiyo va Amerika universitetlari bilan qo‘shma magistratura va PhD dasturlari yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Texnologik baza va infratuzilma

-Har bir OTMda **“Raqamli ta’lim markazi**” tashkil etilishi kerak.

-Raqamli kutubxonalar, virtual laboratoriyalar, masofaviy ta’lim resurslari soni oshirilishi zarur.

Xulosa

O‘zbekiston oliy ta’limi xalqaro maydonga integratsiyalashayotgan bir vaqtda, ta’lim jarayonining mazmunan, texnologik va metodik jihatdan xalqaro standartlarga moslashtirilishi dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Pedagogik muhitni

takomillashtirish orqali oliy ta’lim tizimi nafaqat ichki ehtiyojlarga, balki xalqaro raqobatga ham tayyor kadrlarni yetishtirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PQ–5847-sonli Qarori. “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.
2. UNESCO (2021). *Higher Education in a Globalized Society*. Paris: UNESCO Publishing.
3. European Commission. (2020). *Bologna Process Implementation Report*.
4. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rasmiy sayti: www.uwed.uz
5. TATU xalqaro aloqalar bo‘limi hisobotlari, 2022–2023.
6. Erasmus+ Uzbekistan – www.erasmusplus.uz
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi axborot portali – www.edu.uz
8. TDPU “Innovatsion pedagogika” kafedrasi ma’lumotlari, 2023.
9. QS World University Rankings, 2023. www.topuniversities.com
10. O‘zbekistonda ta’lim sifatini nazorat qilish agentligi ma’lumotlari, 2024.
11. Knight, J. (2021). *The Evolving Nature of Internationalization in Higher Education*. International Higher Education, Issue 106.
12. Altbach, P.G., Reisberg, L. (2020). *Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution*. Center for International Higher Education, Boston College.
13. Doniyorova D. (2024). *Xalqaro akademik mobillik sharoitida talabalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash muammolari va echimlari*. – Dissertatsiya materiallari asosida (tayyorlanayotgan ish).

TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Fayziyev Mirzaali Asfandiyorovich
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti pedagogika kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.
Xamidova Diyora Jamshedovna
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti pedagogika kafedrasi assistenti.
Tel.: +998915543964
Tel.: +998979180612

Annotatsiya. *Maqolada talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyati,kommunikativ kompetensiya tushunchasi va uning mazmun mohiyati haqida fikr yuritilgan.*

Bugungi globallashuv davrida ta’lim jarayonida talabalar faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy ko‘nikmalarni ham egallashi lozim. Ayniqsa, kommunikativ kompetensiya – ya’ni, samarali muloqot qilish, axborotni to‘g‘ri yetkazish va tushunish qobiliyati talabalar uchun muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada talabalar kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish usullari va uning ahamiyati haqida so‘z yuritamiz.

Oliy ta’lim tizimidagi eng asosiy va ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan qarorlardan biri bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”[2] PF-5847-sonli Farmonidir. Ushbu konsepsiyada “Gumanitar va pedagogik yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e’tiborni kuchaytirish, pedagogik ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta’lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta’lim maktablariga xorijiy tillarni o‘zlashtirgan, yuqori malakali professional pedagog kadrlarni yetkazib berish”[2] masalalari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bunda yuqori malakali o‘qituvchilarni yetishtirib chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kerakligi alohida ta’kidlanib o‘tilmoqda. Darsni yanada samaraliroq o‘tish hamda talabalarda muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantirish jarayoni bugungi kunda dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi

Kommunikativ kompetensiya insonning og‘zaki va yozma nutq orqali o‘z fikrini ifoda eta olish, suhbatdoshini tushunish va samarali muloqot olib borish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- Lingvistik kompetensiya – til bilimlari va nutqiy qoidalar;
- Pragmatik kompetensiya – muloqotning maqsadga muvofiq tashkil etilishi;
- Sotsiokultural kompetensiya – muloqotning madaniy jihatlari;
- Strategik kompetensiya – muloqotda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o‘tish ko‘nikmasi.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish usullari

Talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

1. Interaktiv o‘quv metodlaridan foydalanish

- Bahs-munozaralar tashkil etish;
- Rolli o‘yinlar va simulyatsiyalarni qo‘llash;
- Jamoaviy loyihalarda ishlash.

2. Yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish

- Insho va maqolalar yozish;
- Prezentatsiyalar tayyorlash va taqdimot qilish;
- Ilmiy konferensiyalarda ishtirok etish.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

- Onlayn forum va bloglarda fikr almashish;
- Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish;
- Video va audio materiallar orqali nutqni rivojlantirish.

4. Chet tillarni o‘rganish

- Turli tillardagi muloqot platformalarida ishtirok etish;
- Xorijiy adabiyotlarni o‘qish va tahlil qilish;
- Chet el talabalar bilan suhbatlar tashkil etish.

Kommunikativ kompetensiyaning ahamiyati

Kommunikativ kompetensiyaga ega talabalar:

- Jamoa bilan samarali ishlay oladi;
- O‘z fikrini aniq va tushunarli yetkaza oladi;
- Ilmiy va ijodiy izlanishlarda muvaffaqiyat qozonadi;
- Ish faoliyatida muloqot orqali muammolarni hal qila oladi.

Interaktiv metodlar ta’lim jarayonida talabalar faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilishga yo‘naltirish uchun qo‘llaniladigan usullardir. Quyida interaktiv metodlarning asosiy turlari va ularning tavsifi berilgan:

1. Bahs-munozara (Debate)

Talabalar ikki yoki undan ortiq guruhlarga bo‘linib, berilgan mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini himoya qiladi. Bu metod tanqidiy fikrlash, argument keltirish va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Rolli o‘yinlar (Role-playing)

Talabalar real hayotiy vaziyatlarga oid rollarni ijro etadi. Masalan, mijoz va sotuvchi, shifokor va bemor kabi rollar orqali muloqot ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

3. Klaster usuli (Cluster Method)

Talabalar berilgan mavzu asosida asosiy tushunchalarni aniqlab, ular orasidagi bog‘liqlikni grafik tarzda tasvirlaydi. Bu metod mavzuni chuqur tushunishga yordam beradi.

4. “Aqliy hujum” (Brainstorming)

Talabalar jamoaviy ravishda biror muammoni hal qilish bo‘yicha o‘z takliflarini bildiradilar. G‘oyalar tanqid qilinmaydi, eng yaxshi takliflar saralanib, muhokama qilinadi.

5. “Zanjir” usuli

Guruhdagi har bir talaba mavzu bo‘yicha o‘z fikrini bildiradi, keyingi ishtirokchi esa oldingi gapga bog‘liq holda o‘z fikrini davom ettiradi. Bu usul tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

6. “Insert” metodi

Talabalar matn bilan ishlash jarayonida muhim joylarga belgi qo‘yib chiqadilar:

✓ – Yangi ma’lumot;

✗ – Oldindan ma’lum bo‘lgan ma’lumot;

? – Tushunarsiz joylar;

↔ – Muhim, lekin batafsil o‘rganish kerak bo‘lgan ma’lumot.

7. “Tushunchalar doirasi” usuli

Talabalarga mavzuga oid asosiy tushunchalar beriladi va ular ushbu tushunchalar orasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, umumiy xulosaga keladilar.

8. “Sokrat suhbati” (Socratic Seminar)

Talabalar berilgan savollar asosida bahs-munozara olib boradi, lekin ularga to‘g‘ridan-to‘g‘ri javob berilmaydi. Ular o‘z xulosalarini chiqarishlari uchun yo‘naltirilgan savollar beriladi.

9. “Miqyos” usuli (Scaling Method)

Talabalarga biror muammo yoki masala bo‘yicha o‘z munosabatlarini bildirish uchun shkaladan foydalanish taklif etiladi. Masalan, "Siz ushbu g‘oya bilan 1 dan 10 gacha bahoda qanchalik rozi bo‘lasiz?" kabi.

10. “Jigso” usuli (Jigsaw Method)

Talabalar kichik guruhlarga bo‘linadi va har biri muayyan bo‘lak (qism) ustida ishlaydi. Keyinchalik guruh a’zolari o‘z qismida o‘rgangan ma’lumotlarini boshqalar bilan baham ko‘radi.

11. “Blits-so‘rov” usuli

O‘qituvchi talabalarni qisqa savollar bilan tezkor tekshiradi. Talabalar javoblarni tezda aytishi yoki yozishi lozim. Bu metod bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

12. “Erkin esse” (Free Writing)

Talabalarga berilgan mavzu asosida erkin ravishda fikr bildirish imkoniyati yaratiladi. Bu usul ijodiy tafakkurni rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Xulosa

Talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu kompetensiyani shakllantirish uchun interaktiv o‘qitish usullari, yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, axborot texnologiyalaridan foydalanish va chet tillarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, ta’lim muassasalari va pedagoglar talabalar bilan ishlash jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. –T.: O‘zbekiston, 2020-yil, 23-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish” to‘g‘risidagi konsepsiyasi PF- 5847- sonli farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4545884

3. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. – Toshkent, Iqtisodiyot moliya, 2012.

4. Shadiev R. et al. Improving Student Learning Satisfaction in Lectures in English as a Medium of Instruction with Speech-Enabled Language Translation Application //Innovative Technologies and Learning: Third International Conference, ICITL 2020, Porto, Portugal, November 23–25, 2020, Proceedings 3. – Springer International Publishing, 2020. – C. 576-581.

5. Shadiev R., Shadiev N., Fayziev M. Exploring influence of cultural constructs and social network on cross-cultural learning //Innovative Technologies and Learning: First International Conference, ICITL 2018, Portoroz, Slovenia, August 27–30, 2018, Proceedings 1. – Springer International Publishing, 2018. – С. 345-350.

6. Fayziev M. A. Methods of formation of knowledge and skills of students on the basis of computer simulation model (on the example of the subject" Computer Science and Information Technology"): Dis.… Kand. ped. science //Tashkent: TDPU.–2008. – 2008.

TALABALARDA SANOGEN REFLEKSIYANI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Isayeva Dildora Sodikovna
O‘zbekiston Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi
Tel.: +99879321331

Annotatsiya

Ushbu maqolada sanogen tafakkurning mohiyati, uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati hamda shaxsning psixologik va kasbiy rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sanogen tafakkur insonning ruhiy va jismoniy salomatligini yaxshilash, stressga bardoshliligini oshirish va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, maqolada sanogen tafakkurni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar, refleksiv usullar va interfaol metodlarning samaradorligi muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: sanogen tafakkur, refleksiya, psixologik barqarorlik, ta’lim texnologiyalari, ijodiy fikrlash, stressga chidamlilik.

Аннотация

В данной статье анализируется сущность саногенного мышления, его значение в образовательном процессе, а также влияние на психологическое и профессиональное развитие личности. Результаты исследования показывают, что саногенное мышление способствует улучшению психического и физического здоровья человека, повышению устойчивости к стрессу и развитию творческого мышления. Также в статье обсуждается эффективность педагогических технологий, рефлексивных методов и интерактивных подходов, направленных на формирование саногенного мышления.

Ключевые слова: саногенное мышление, рефлексия, психологическая устойчивость, образовательные технологии, творческое мышление, стрессоустойчивость.

Abstract

This article analyzes the essence of sanogenic thinking, its significance in the educational process, and its impact on the psychological and professional

development of individuals. The research results indicate that sanogenic thinking contributes to improving mental and physical health, increasing stress resilience, and fostering creative thinking. Furthermore, the article discusses the effectiveness of pedagogical technologies, reflective methods, and interactive approaches aimed at developing sanogenic thinking.
Keywords: sanogenic thinking, reflection, psychological stability, educational technologies, creative thinking, stress resilience.

KIRISH. Hozirgi zamon jamiyati dinamik rivojlanishi, tezkor o‘zgarishlari, beqarorligi va keskinligi bilan ajralib turadi. Bu esa ta’lim-tarbiyaning mazmuni va unga yondashuv usullarini yangilash zaruratini tug‘diradi. Ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish va barkamol shaxsni shakllantirish uchun inson o‘zining qiziqishlari, imkoniyatlari va fikrlash odatlaridan xabardor bo‘lishi, ularni boshqarishi va nazorat qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ijtimoiy stereotiplardan holi, sog‘lom fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim sanaladi. Tadqiqotchilar fikricha, agar inson sanogen fikrlashni o‘zlashtirsa, bu uning aqliy, jismoniy va psixologik sog‘lig‘iga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi hamda ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga yordam beradi.

ASOSIY QISM. Sanogen tafakkur insonning hayot falsafasi, ongi va jismoniy salomatligini mustahkamlashning eng samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi. Ushbu tafakkur turi yangi hissiy va aqliy odatlarni o‘zlashtirishga yordam berib, o‘tmishdagi nosog‘lom fikrlash tajribalarini to‘playdi. Sanogen tafakkur orqali inson hayotida yuzaga kelgan inqiroz holatlarini ruhiy qo‘llab-quvvatlash va hissiy-emotsional o‘z-o‘ziga ta’sir qilish orqali bartaraf etish mumkin. Bunday tafakkurning asosiy vazifasi insonning ichki dunyosidagi ziddiyatlarni ijobiy hal qilishdan iboratdir.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim muassasalari talabalarida sanogen refleksiyani rivojlantirish refleksiv bilim va ko‘nikmalarga asoslanadi.

Refleksiya bu- lotincha "reflixio" (ortga qaytish) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, insonning o‘z ichki holatlarini idrok etish jarayoni sifatida tushuniladi. Sanogen refleksiya – bu insonning o‘z fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlarini ongli ravishda tahlil qilish va salbiy ta’sirlarni kamaytirish qobiliyatidir. Olimlar refleksiyani shaxs o‘zini o‘zi boshqarish usuli, ijodiy fikrlash omili yoki nazariy tafakkurning yuqori ko‘rsatkichi sifatida talqin qiladilar.Refleksiv ta’lim texnologiyalari pedagogik jarayonda muhim o‘rin tutadi va bu usullar ayniqsa bo‘lajak ijtimoiy ish mutaxassislari uchun sanogen refleksiyani rivojlantirishda samarali bo‘lishi mumkin. Shu maqsadda turli refleksiv texnikalar va mashqlardan foydalanish taklif etiladi.

Sanogen tafakkurni rivojlantirish zarurati quyidagi omillar bilan bog‘liq:

1. Ilgari sanogen tafakkur asosan psixologik nuqtai nazardan o‘rganilgan bo‘lsa, zamonaviy sharoitda uning pedagogik jihatlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

2. Sanogen tafakkurning pedagogik mohiyatini aniqlash, uning tarkibiy qismlarini belgilash hamda nosog‘lom fikrlashga nisbatan barqaror munosabat shakllantiruvchi omillarni o‘rganish lozim.

3. Sanogen tafakkur xususiyatlarini rivojlantirish uchun unga ta’sir etuvchi omillarni va pedagogik shart-sharoitlarni chuqur tadqiq qilish talab etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Sanogen tafakkur insonning ichki dunyosini muvozanatlashtiruvchi, ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini oshiruvchi va stress holatlarini kamaytiruvchi fikrlash shakli sifatida ko‘riladi (Orlov, 2003). Ushbu tafakkur turini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Yu.M. Orlov sanogen fikrlashni ongni sog‘lomlashtirish jarayoni sifatida talqin qiladi va uni inson psixologik holatining barqarorligi uchun asosiy vosita deb hisoblaydi.

Vasilyeva (1997) sanogen tafakkurning shakllanishida bolalik davridan boshlab pedagogik ta’sir muhim ekanligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, maktabgacha va maktab davrida berilgan ta’lim jarayonida insonning dunyoqarashi, o‘z-o‘zini baholash qobiliyati va hissiy-intellektual muvozanati shakllanadi. Ushbu fikrlar Kovaleva va Kashlev (2010) tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanib, sanogen tafakkurni shakllantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish lozimligi ta’kidlangan.

Refleksiya nazariyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda (Stepanov, 2005) inson o‘z fikrlarini boshqarish orqali hayotiy muammolarni hal qilishda yanada muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Boshqa bir tadqiqotda (Grebonyuk, 2000) ta’kidlanishicha, insonning refleksiv qobiliyatlari rivojlangani sari uning o‘zini tahlil qilish, o‘z kuchli va zaif tomonlarini anglash imkoniyati ortadi. Bu esa shaxsning ijtimoiy va kasbiy faolligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib, sanogen tafakkur va refleksiya ta’lim jarayonida nafaqat individual rivojlanish uchun, balki insonning ijtimoiy muhitga moslashuvi, stress va tashqi bosimlarga bardoshli bo‘lishi uchun ham muhim omil sifatida qaralishi lozim.

METODOLOGIYA. Sanogen tafakkur orqali inson hayotida yuzaga kelgan inqiroz holatlarini ruhiy qo‘llab-quvvatlash va hissiy-emotsional o‘z-o‘ziga ta’sir qilish orqali bartaraf etish mumkin. Bunday tafakkurning asosiy vazifasi insonning ichki dunyosidagi ziddiyatlarni ijobiy hal qilishdan iboratdir.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim muassasalari talabalarida sanogen refleksiyani rivojlantirish refleksiv bilim va ko‘nikmalarga asoslanadi.Sanogen tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan ushbu tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil usullari qo‘llanildi. Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslangan:

-Nazariy tahlil usuli **– sanogen tafakkur va refleksiv ta’lim texnologiyalariga oid ilmiy manbalar va adabiyotlar tahlil qilindi.**

-Eksperimental metod – oliy ta’lim muassasalari talabalari orasida so‘rovnoma va kuzatuv o‘tkazilib, ularning sanogen tafakkur darajasi baholandi.

-Interfaol metodlar – talabalarda sanogen tafakkurni shakllantirishga yo‘naltirilgan treninglar va refleksiv mashg‘ulotlar tashkil etildi.

-Tahliliy metod – tadqiqot natijalari statistik jihatdan qayta ishlanib, sanogen tafakkurning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar aniqlab berildi.
-Taqqoslash usuli – an’anaviy o‘qitish usullari bilan refleksiv texnologiyalar asosida o‘qitilgan guruhlarning natijalari qiyosiy tahlil qilindi.
Tadqiqotda O’zbekiston Finlandiya pedagogika instituti va boshqa oliy o‘quv yurtlari talabalaridan iborat 200 nafar respondent qatnashdi. Tajriba davomida talabalar bilan sanogen tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus trening va o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etildi.
MUHOKAMA VA NATIJA. Olingan natijalar sanogen tafakkur talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, stressga chidamlilikni rivojlantirish va ijodiy fikrlash qobiliyatini mustahkamlashda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida interfaol metodlar orqali olib borilgan mashg‘ulotlar natijasida talabalar o‘z-o‘zini anglash va o‘zini boshqarish qobiliyatlariga ega bo‘lishgani aniqlandi.

1. **Sanogen tafakkurning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar**

Shaxsiy refleksiya va o‘z-o‘zini baholash darajasi oshdi.
Talabalarning stress va bosimga bardoshliligi kuchaydi.
Ularning fikrlash jarayonida moslashuvchanlik va ijodiy yondashuv rivojlandi.
Shaxsning ichki ziddiyatlarini ijobiy hal qilish qobiliyati kuchaydi.

2. **Sanogen tafakkurni rivojlantirish metodlari samaradorligi**

An’anaviy ta’lim texnologiyalariga nisbatan refleksiv texnologiyalar talabalarning o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini yaxshilashda yuqori natija berdi.
Eksperimental guruhda ta’lim jarayoniga nisbatan motivatsiya oshganligi aniqlandi.
Talabalarning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ortib, hayotiy vaziyatlarga ongli yondashish darajasi yuqori bo‘ldi.

3. **Sanogen tafakkurning psixologik va pedagogik ahamiyati**

Ushbu tafakkur turi shaxsning emotsional barqarorligini ta’minlaydi.
Pedagogik faoliyatda samarali qaror qabul qilishni shakllantirishga yordam beradi.
O‘quvchilarning o‘zaro muloqot va hamkorlik qobiliyatini oshiradi.

Natijalarga ko‘ra, sanogen tafakkurni shakllantirish bo‘yicha maxsus trening va mashg‘ulotlar talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, ta’lim jarayonida sanogen tafakkur elementlarini tatbiq etish talabalarni intellektual va psixologik jihatdan barqaror shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi.
XULOSA. Sanogen tafakkur shaxsning ruhiy va jismoniy sog‘lom bo‘lishini ta’minlaydi, uning ijodiy salohiyatini ochib beradi va hayotdagi muammolarni ongli ravishda hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatiga ham ijobiy ta’sir qiladi. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida sanogen tafakkurga asoslangan ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish zarur.

Refleksiv ta’lim texnologiyalari orqali talabalar sanogen refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirib, ta’lim jarayonida yanada faol ishtirok etishlari mumkin. Bu jarayon nafaqat ularning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini

oshiradi, balki ularning aqliy va shaxsiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, sanogen tafakkurni rivojlantirish nafaqat insonning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatlariga zamin yaratadi, balki uning ruhiy, jismoniy va ma’naviy salomatligini ham mustahkamlaydi. Shuningdek, sanogen fikrlash o‘quvchilarga o‘z bilim va xulosalarini to‘g‘ri shakllantirishga yordam beradi. Xulosamiz shundan iboratki, talabalarning sanogen tafakkurini rivojlantirish ularning kelgusidagi faoliyatini to‘g‘ri tashkillashtirish, yuqori kasbiy muvaffaqiyatlarga erishishini ta’minlash bilan birgalikda, quyidagi ijobiy holatlarni keltirib chiqaradi:-sanogen fikrlash tarzi shaxsning ham ruhiy, ham jismoniy va ma’naviy jihatdan sog‘lom bo‘lishiga xizmat qiladi;-sanogen fikrlash o‘quvchilarning ta’lim olish jarayonida to‘g‘ri ko‘rsatmalar va xulosalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Orlov Yu.M.** (2003). *Sanogennoye myshleniye.* Moskva: Spayding.
2. **Beck J.** (1995). *Cognitive Therapy: Basics and Beyond.* New York: Guilford Press.
3. **Vasilyeva T.N.** (1997). *Formirovaniye sanogennogo myshleniya mladshego shkol’nika: Uchebnoye posobiye.* Kaliningrad: Kaliningr. gos. un-t.
4. **Rubtsova L.V.** (2010). *Sanogennoye myshleniye: Metod obucheniya.* Novosibirsk: Izd. NGPU.
5. **Ismailov M.K.** (2021). *Talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirish komponentlari va uning pedagogik-psixologik xususiyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 1(8), 509-522.
6. www.Ziyonet.uz
7. www.edu.uz
8. www.pedagog.uz.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM TALABALARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA AKSIOLOGIK YONDASHUVNING AHAMIYATI

Mamatova Zarena Abdujalilovna
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti doktoranti
+99893-333-22-54

Annotatsiya: Ta’limning aksiologik jihatini o‘rganish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axloqiy, aqliy va madaniy kompetensiyalarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tez o‘zgarayotgan zamonda axloqan yetuk, bilimli, mas’uliyatli va qadriyatlarga asoslangan o‘qituvchilarni tarbiyalash o‘qituvchilar ta’limiga aksiologik tamoyillarni kiritishni talab qiladi. Ushbu maqolada pedagogikadagi aksiologiyaning nazariy asoslari, shuningdek, uning boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash dasturlaridagi ahamiyati hamda qadriyatlar ta’limini o‘qitish va o‘quv dasturiga integratsiyalashning amaliy yondashuvlari

o‘rganiladi. Maqolada adabiyot va pedagogik modellarni keng ko‘rib chiqish orqali har tomonlama rivojlangan, ijtimoiy ongli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash uchun tizimli aksiologik asos zarurligi ta’kidlangan.

Abstract: The study of the axiological aspect of education is of crucial importance in the formation of moral, intellectual and cultural competencies of primary school teachers. In a rapidly changing era, the education of morally mature, knowledgeable, responsible and value-based teachers requires the introduction of axiological principles into teacher education. This article examines the theoretical foundations of axiology in pedagogy, as well as its importance in primary school teacher training programs, and practical approaches to teaching and integrating values education into the curriculum. The article emphasizes the need for a systematic axiological framework for the training of comprehensively developed, socially conscious primary school teachers through a broad review of literature and pedagogical models.

Kalit so‘zlar: Aksiologiya, qadriyat tarbiyasi, o‘qituvchilar tayyorlash, boshlang‘ich ta’lim, axloqiy tarbiya, pedagogik faoliyat

Keywords: Axiology, value education, teacher training, primary education, moral education, pedagogical activity

Zamonaviy ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash bilimlarni puxta egallash va o‘qitish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish bilan birga axloqiy sezgirlikni, hissiy aqlni va yaxshi rivojlangan qadriyatlar tizimini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘qitishning bu insoniy jihatlari ko‘p jihatdan aksiologiya, qadriyatlarni falsafiy o‘rganish bilan shakllanadi. Aksiologik tayyorgarlik muhim ahamiyatga ega, chunki u bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘zlarining axloqiy majburiyatlari, madaniy merosi va ijtimoiy mas’uliyatini chuqur anglashda yordam beradi. Aksiologik elementlarni o‘qituvchilar ta’limiga kiritish nafaqat to‘ldiruvchi, balki qobiliyatli va empatik o‘qituvchilarni tarbiyalash uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son **“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”**gi farmonida oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish[1] orqali raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash masalalari yoritilgan. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z sohasida yetarli bilimlarga ega, axloqiy jihatdan o‘rnak ko‘rsata oladigan, pedagogik mahoratga ega bo‘lishi lozim. Bu esa o‘z navbatida, pedagogik aksiologiya orqali, ya’ni qadriyatlarni falsafiy o‘rganish bilan shakllanadi. Aksiologik tayyorgarlik muhim ahamiyatga ega, chunki u bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘zlarining axloqiy majburiyatlari, madaniy merosi va ijtimoiy mas’uliyatini chuqur anglashda yordam beradi. Aksiologik elementlarni o‘qituvchilar ta’limiga kiritish nafaqat to‘ldiruvchi, balki qobiliyatli va empatik o‘qituvchilarni tarbiyalash uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bugungi kunda bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda aksiologik yondashuv asosiy metodologik tamoyillardan biridir, chunki aksiologik yondashuvning metodologik tamoyillari asosida mutaxassislar tayyorlash bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim pedagoglarining o‘z ta‘limiga ham, kasbiy rivojlanishiga ham ongli munosabatini shakllantirishga yordam beradi. Pedagogik nuqtai nazardan qadriyatlarning falsafiy asoslariga e’tibor qaratish professor-o‘qituvchi va talabalarning qadriyatli munosabatiga asoslanadigan pedagogik ta’lim mazmuni va tuzilmasini ham qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash bilan bog‘liq aksiologik yondashuvning mohiyati talabalarda olamga, o‘zining faoliyati, kasb egasi sifatida o‘z-o‘ziga munosabatni aniqlashga xizmat qiladigan umuminsoniy va kasbiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Pedagogik aksiologiya bo‘lajak pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun muhim asos vazifasini bajaradi. Pedagogik adabiyotlarda aksiologiya qadriyatlar nazariyasi sifatida talqin qilinadi va umuminsoniy qadriyatlarga diqqat qaratish bilan tavsiflanadi.[4] Ma’lumki, aksiologiyada borliqning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini tavsiflashga xizmat qiladigan “qadriyat” tushunchasi markaziy o‘rin tutadi. Qadriyat qisqa qilib aytganda, jamiyat yoki inson uchun ahamiyatli va foydali hisoblangan aniq predmetlar yoki ideallardir. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini shakllantirishning asosiy poydevori kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishni ta’minlaydigan qadriyat sifatida bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga ularni faol jalb etishdir. Bundan tashqari atrof-muhitni ma’naviy-nazariy o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik qadriyat sifatida bilish faoliyatining o‘ziga nisbatan faol munosabatni shakllantirish muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlik jarayonida bo‘lajak o‘qituvchining aksiologik nuqtai nazardan shakllanishi – bu bilish orqali maqsadli, tizimli harakatlanish, bilimlarni ijodiylik bilan uyg‘unlashuvini qadriyatli anglash va baholash, muntazam o‘z-o‘zini rivojlantirish va takomillashtirish qobiliyatini shakllantirish, shakllangan qadriyatli yo‘nalishlar shaxsning bo‘lajak pedagogik faoliyatga qadriyatli munosabatini aniqlab beradi. Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayvorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta’lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o‘qituvchilar mehnati faoliyatidir. Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo’lmagan o‘qituvchi ta’lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta’minlovchi fikrga ega bo‘lmaydi.

Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo‘lib, o‘qituvchilaming faoliyat mezonini begilab beradi. O‘qituvchilarning faoliyati pedagogik jarayonning harakat vositasidir. Pedagogik jarayonning obyektlari bo‘lmish tarbiyalanuvchi insonga, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhiga hamda alohida o‘quvchiga, pedagogik jarayonning subyektlari - ota-onalar,o‘qituvchilar, tarbiyachilar, sinf jamoasi, pedagogik jamoa mas’uldirlar va ular jamiyat talablari asosida ta’lim va tarbiya berish faoliyatini bajaradilar.

Boshlang‘ich ta’lim o’qituvchisining pedagogik faoliyatida mahoratni shakllantirish juda muhim. Pedagogik mahorat - bu o‘quv jarayonining barcha

shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo‘naltirish, talabalarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan faoliyatga moyillik uyg‘otishdir. Pedagogik mahoratning asosini pedagogik bilimdonlik tashkil etadi. Pedagogik mahorat yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi:

- pedagog shaxsini insonparvarlik yo‘nalishiga ega bo‘lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo‘nalishlari va ideallarining oliy maqsad-barkamol avlod tarbiyalashga yo‘naltirilganligi;
- mutaxassislik fanlari, o‘qitish metodikasi, pedagogika hamda psixologiyadan mukammal bilimga ega bo‘lish;
- pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash (yuzidan uqib olish);
- pedagogik madaniyat va texnikani egallash, ya’ni o‘z-o‘zini boshqara olish, o‘zaro ta’sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalash[2].

O‘qituvchilik faoliyati “Inson-inson” kasb guruhiga kirishi barchamizga ma’lum. Pedagog professiogrammasiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, biz mutaxassis yuksak axloqli, kuchli irodaga ega, aniq maqsadi mavjud, odamlarni tushuna oladigan, e’tiborli, tasodifiy vaziyatlarda o’zini tuta oladigan, hissiy javobgarlikka ega bo‘lishi lozimligini anglashimiz mumkin. M.G.Davletshinning fikricha, pedagogik professiogramma[6] (kasbiy tasnifnoma)da bo‘lajak pedagoglarga xos quyidagi sifatlar aks etishi kerak:

- shaxsiy xislatlar (bolalarni yaxshi ko‘rish, mehnatsevarlik, jamoat ishlarida faollik va boshqalar);
- kasbga xos bilimlarga egalik (ta’lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi, psixologiya asoslarini, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi);
- o‘z kasbiga xos xislatlar (hozirgi zamon pedagogikasining metodologik bilimlarni egallashi, kuzatuvchanlik, diqqat-e’tiborni taqsimlay olishi, pedagogik fantaziyaning rivojlanganligi, pedagogik takt va hokazolar);
- shaxsiy-pedagogik uddaburonlik (mashg‘ulotlar uchun zarur materiallararni tanlay olish, o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olish, o‘quv maqsadlarini rejalashtira olish va boshqalar);
- muloqotga kirisha olish (kommunikativlik) malakaga egalik (bolalarni o‘ziga jalb etishni bilish, bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlami tiklashni bilish, bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog‘lashni bilish va hokazolar);
- gnostik malakalariga egalik (bolalarning ruhiy holatini aniqlay olish, o‘zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi va boshqalar);
- ijodiy xislatlari (pedagogik mahoratni takomillashtirishga intilish, o‘quvchilami tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish)

Xulosa qilib aytish mumkinki, talabalarning pedagogik faoliyatini tashkil etishda aksiologik yondashuvga asoslanish, talabalarda pedagogik mahoratni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda shakllantirish, kasbiy va ijtimoiy

yetuklikka olib boruvchi pedagogik madaniyatni rivojlantirish zarur. O‘qituvchining pedagogik faoliyatida ijobiy natijalarga erishishi, mehnat malakasini, ya’ni egallagan bilimlarini o‘zining hayotiy va amaliy faoliyatida qay darajada qo‘llay bilishi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, “Xalq so‘zi” gazetasi, 209(7439)-son. 2019-yil 8-oktabr.
2. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo’llanma. “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi”. Toshkent-2006.
3. Boltayev A. Aksiologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish (avtoreferat) Nukus-2025.
4. Mardonov Sh. Pedagogik aksiologiya, “Fan va texnologiyalar”, Toshkent-2003.
5. Xodjayev B.X. Pedagogik aksiologiya. O‘quv qo‘llanma. “Fan va texnologiya”, Toshkent-2011.
6. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. “Sano-standart” nashriyoti, Toshkent-2017.

GRAFIK TOPSHIRIQLARNI ELEKTRON PLATFORMA ORQALI TAQDIM ETISH: MUHANDISLIK GRAFIKASI UCHUN INNOVATSION YONDASHUV

Xasanova Marxabo Nosirovna
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
tayanch doktoranti
tel:+998906566543

Annotatsiya: *Maqolada muhandislik grafikasi fanini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari asosida o‘qitish, xususan, grafik topshiriqlarning yagona elektron platforma orqali taqdim etilishi va avtomatlashtirilgan boshqaruvi yoritilgan. Platformaning tuzilishi, funksiyalari, foydalanuvchilar uchun qulay interfeys, topshiriqlarni tanlash va yechish, nazariy bilimlar bilan integratsiyalashuvi tahlil qilingan. Uning samarali pedagogik vosita sifatidagi ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *muhandislik grafikasi, elektron platforma, grafik topshiriqlar, avtomatlashtirish, raqamli ta’lim, o‘qitish metodikasi.*

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayonida avtomatlashtirilgan o‘qitish usullarining keng qo‘llanishiga sabab bo‘lmoqda [1].

Bunday usullar o‘quvchilarga moslashgan individual yondashuvni ta’minlab, bilimlarni chuqur anglash va o‘z-o‘zini baholash imkonini beradi [2]. O‘qituvchilar uchun esa vaqtni tejab, darslarni tayyorlash va baholash jarayonlarini avtomatlashtirish orqali ijodiy faoliyatga ko‘proq vaqt ajratish imkonini yaratadi.
Muhandislik grafikasi fanida grafik topshiriqlarni bajarish o‘quv jarayonining muhim qismi hisoblanadi [4]. Elektron platformalar bu jarayonni samarali tashkil etishga xizmat qiladi, chunki ular talabalarda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Masalan, MGTU Bauman universitetida yaratilgan “Muhandislik grafikasi” onlayn kursi aralash ta’limda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Biroq, kursning mobil versiyasi mavjud emasligi ba’zi noqulayliklarga sabab bo‘lmoqda.
Yaratilgan “Muhandislik grafikasi” elektron platformasi grafik fanlarning barcha yo‘nalishlarini bir tizimda jamlab, grafik topshiriqlar, ularning variantlari, yechimlari, nazariy materiallar, video darslar va adabiyotlar bilan mustaqil ta’lim olish imkonini beradi [3].

Platformaning amaliy tatbiqiy mexanizmlari quyidagicha shakllangan: foydalanuvchi avval platformaga https://grafiktopshiriqlar.uz havola orqali kiradi. Platformaning bosh sahifasi ochiladi (1-rasm).

1-rasm. Muhandislik grafikasi faniga oid topshiriqlarni markazlashtirilgan tarzda taqdim etuvchi elektron platformaning interfeysi (bosh sahifa)

“Fanlar ro‘yxati” bo‘limida muhandislik grafikasi fanining barcha yo‘nalishlari (chizma geometriya, proyeksion chizmachilik, mashinasozlik chizmachiligi, arxitektura chizmachiligi va boshqalar) tasniflangan(2-rasm). Har bir bo‘limda grafik tasvirlar orqali foydalanuvchi o‘ziga kerakli fan turini tezda aniqlab olishi mumkin.

“Chizma geometriya” fanini tanlagach, foydalanuvchi tegishli ta’lim resurslari (grafik topshiriqlar, ularning variantlari, namuna yechimlari) bilan tanishadi(3-

rasm). Tanlangan topshiriqlarni bevosita yuklab olish, ularga oid chizmaviy namunalarni ko‘rish imkoniyati mavjud.

Shuningdek, platforma nazariy bilimlarni chuqurlashtirish uchun “Ma’ruza matni”, “Prezentatsiya”, “Video material” va “Adabiyotlar” bo‘limlari bilan boyitilgan. Barcha materiallar yagona sahifada tizimli joylashtirilgan bo‘lib, foydalanuvchining chalg‘imasdan, bosqichma-bosqich o‘rganishini ta’minlaydi.



2- rasm. Muhandislik grafikasi fanining bo’limlari ro‘yxati

Platforma foydalanuvchining faolligi, tanqidiy va grafik tafakkurini rivojlantiradi hamda mustaqil ishlashga yo‘naltiradi. Uning funksional menyusi orqali kerakli ma’lumotlarga istalgan vaqtda kirish mumkin. O‘qituvchilar esa shaxsiy kabinet orqali grafik topshiriqlar va boshqa ta’limiy resurslarni yuklash, tahrirlash hamda yangilash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

3-rasm. Chizma geometriya fanining grafik topshiriqlar sahifasi

Platforma foydalanuvchining faolligi, tanqidiy va grafik tafakkurini rivojlantiradi hamda mustaqil ishlashga yo‘naltiradi. Uning funksional menyusi orqali kerakli ma’lumotlarga istalgan vaqtda kirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аль-Дарабсе А. М. Ф., Маркова Е. В. Автоматизированный метод обучения студентов инженерных специальностей // Технологическое развитие современной науки: тенденции, проблемы и перспективы. – **Минск**, 2018. – С. 4–6.
2. Малиатаки В. В., Киричек К. А., Вендина А. А. Дистанционные образовательные технологии как современное средство реализации активных и интерактивных методов обучения при организации самостоятельной работы студентов // Открытое образование. – **Москва**, 2020. – Т. 24. – № 3. – С. 56–66.
3. Isayeva G., Po‘latova O. Zamonaviy ta’lim jarayonida ma’ruza samaradorligini oshirish usullari // Журнал академических исследований нового Узбекистана. – **Toshkent,** 2025. – T. 2. – № 1 ,2-qism. – C. 25–28.
4. Boymuratov F.X. Muhandislik va kompyuter grafikasini o‘zlashtirishda mustaqil va grafik topshiriqlarning ahamiyati // Uzbek Scholar Journal. – **Toshkent,** 2022. – **T. 10.**

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH KO‘NIKMALARI

DJALOLOVA SEVARA XOLMURODOVNA
Samarqand davlat universiteti “Pedagogika va umumiy psixologiya” kafedrasi tayanch doktoranti
djalolovasevara2203@gmail.com
+998933587556

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish komponentlari ochib berilgan, hamda bu ko‘nikmalar kelajakda kasbiy rivojlanishi uchun asos bo‘lishi izohlangan.
***Kalit so‘zlar**: kasbiy karyera, ko‘nikma, komponent, texnologiya, critical, communication, creativity, collaboration, motivatsiya.*
These teachers are exposed to the development and development components of the 21st century, and are explained as a basis for their own professional development.
***Keywords:** professional career, skills, components, technology, critical, communication, creativity, collaboration, motivation.*
Эти учителя знакомятся с компонентами развития и развития 21-го века и объясняются как основа для их собственного профессионального развития.
***Ключевые слова:** профессиональная карьера, навыки, компоненты, технология, критический, коммуникация, креативность, сотрудничество, мотивация.*

Bilamizki, hozirgi kunda xalqaro rivojlanish tizimida ta’lim asrimizning barqaror taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, Koreya Respublikasida o‘tkazilgan xalqaro ta’lim forumida 2030-yilgacha belgilangan konsepsiyada “butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarbligi qayd etilgan. Bu esa, o‘z navbatida, talabalarda kasbga bo‘lgan ko‘nikmalarini rivojlantirish, innovatsion yondashuv asosida talabalarni kasbiy va amaliy tayyorlashni tashkil etish, mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkurni, kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalardan foydalanib, bo‘lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash tizimining o‘quv-metodik ta’minotini yaratish imkoniyatini kengaytirdi.

Dunyo ta’lim tizimini axborotlashtirish sharoitida bo‘lajak kadrlarni kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning o‘quv-metodik ta’minotini xalqaro talablar asosida yangilab borish, talabalar kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning psixologik, pedagogik omillarini aniqlashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu vazifalarni hal qilishda kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning metodik resurslarini ishlab chiqish va ularni innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish, pedagogik shart-sharoitlar yaratish va o‘qitishning sifat va samaradorligini oshirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash dolzarb hisoblanadi.

Chunki bugun O`zbekiston mustaqil davlat sifatida jahonga yuz tutar ekan, bu borada pedagog o`qituvchilarning o`z o`rni, o`ziga xos mohiyati borligini

unutmaslik lozim va doimo o‘z ustida izlash, izlanish, yangiliklarga ochiq bo‘lish, kreativ, liderlik qobilyatlarni o‘zida mujassam qilishlari zarur. XXI asr fan va texnikaning rivojlanishi ilm-fanga bo‘lgan talabning oshishiga sabab bo‘lmoqda. Aynan ilm-fan mavqeyini oshirishda o‘qituvchining bilimi, mahorati, ijodkorligi, tashabbuskorligi, izlanuvchanligi, boshqaruvchanligini rivojlanish cho‘qqisiga chiqishda kreativ ta’limning o‘ziga xos ahamiyati bor.

Jahon standartlariga mos mutaxassislar tayyorlashning yuqori darajasini ta’minlash uchun sharoitlar yaratish, zamonaviy oliy ta’lim bitiruvchilarini tanqidiy fikrlashini shakllantirish, kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalar majmuasiga ega bo‘lishi uchun zaruriy bazani yaratish, shu jumladan, innovatsion faoliyatga, innovatsion ta’lim muhitiga kasbiy tayyorlikni talab qiladi. Bu o‘z navbatida oliy ta’lim muassasalarida bilim olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy metodik tayyorgarligini rivojlantirish bilan belgilanadi.

O‘quvchilarga bu tamoyilda nafaqat fanlarni balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganish tavsiya etiladi. Zamonaviy ta’lim asosida o‘qituvchi o‘quvchilarga darslarda mustaqil va kreativ fikrlashga shart-sharoit yaratib berishi, an’anaviy ta’limdan noan’anaviy ta’limga o‘tish va shu asosda ta’lim samaradorligini oshirish yotadi. Ta’limni isloh qilish esa tizimga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bevosita bog‘liq.

Har bir inson kalajak haqida rejalar qilar ekan albatta o‘ziga kerakli bilim ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur va doim o‘z ustida ishlashi, rivojlanib borishi muhum hisoblanadi.

Biz olib borgan ilmiy izlanish jarayonida guvohi bo‘ldiki, talabalar ya’ni bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy karyerasini loyihalash ko‘nimasini rivojlantirishda, o‘z-o‘zini rivojlantirib, izlanib, yangiliklarga ochiq bo‘lishligi lozimligini ko‘rdik.

O‘z-o‘zini rivojlantirish — bu shaxsning ongli ravishda o‘z bilim, ko‘nikma, odat va sifatlarini takomillashtirishga, yangi imkoniyatlar izlab, hayotiy va kasbiy maqsadlariga erishishga intilishidir (1-jadval)

1-jadval

O‘z-o‘zini rivojlantirish bilan bog‘liq komponentlar.

Maqsad	shaxsiy maqsadlar,kreativ maqsadlar, kognitiv maqsadlar,uslubiy maqsadlar, predmetli maqsadlar.
Motivatsiya	kuchli xohish iroda,o‘zini ishontirish, qobilyatini o‘stirish, qo‘rquvni yengish, orzuga ega bo‘lish, marraga intilish, mag'lubiyatga chidash, fikrlashni o‘stirish.
Komponent	Kommunikativ,ijtimoiy faol, o‘zini rivojlantiradi, axborot bilan ishlaydi, umummadaniyatli.
O‘z ustida ishlash	o‘zini-o‘zi tashxis qilish, o‘z faoliyatiga tuzatishlar kiritish, o‘z-o‘zini namayon etish, axborot bilan ishlash samaradorligi, vaqtni to‘g’ri rejalashtirish,intizom.

Shu o‘rina, Navoiy xazratlarining “Kamol et, kasbim” deya qilgan da’vatlarida komillik uchun juda ko‘p fazilatlarni nazarda tutib, “Olamda g’amsiz o‘tay desang, ilmu hunar o‘rgan. Dunyo kamolatiga yetmay dunyodan o‘tish, hammomda toza bo‘lmay chiqishning huddi o‘zi”,- deya takidlaydi.

Farobiyning “Har kimki ilm hikmatni o‘rganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, so‘zining uddasidan chiqsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, il va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to‘g’risida bilimga ega bo‘lsin” [2; 98 bet] degan fikrlarini yodga olsak shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirish har doim kerakligini tushunamiz.

Har bir ijodiy harakatda inson o‘zida yuz berayotgan jarayon yoki xolatni his qiladi, tushunadi va anlaydi. Bunda ularga *ichki hissiyot* ko‘maklashadi. Shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish bo‘g’ini sifatidagi ichki hissiyot tajribasi bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy karyera qilishda ham albatta yordamchi bo‘ladi.

XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish — bu bo‘lajak o‘qituvchilarda zamonaviy bilimlar, texnologiyalar va ijtimoiy talablar asosida bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, kritikal fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion yondashuvlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan jarayondir.Zamonaviy mutaxassis bugungi kunda raqobatbardosh ta`lim bozorida o‘z o‘rnini topishi uchun yangicha yondashuv asosida ta`lim jarayonini tashkil etishi lozim. Ta’lim sifati, eng avvalo, ta’lim jarayonining asosiy bo‘g‘ini, uning ham ob’yekti, ham sub’yekti sifatida o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasiga bog‘liqdir. Aynan, 4K modeli bugungi kunda ta`lim sifatini oshirishda muhim katolizatorlik vazifasini bajaradi.[4; 431-bet.]

4K tushunchasi odatda kognitiv, metakognitiv, ijtimoiy va hissiy sohalardagi kompetensiyalarni ifodalashda qo`llaniladi. 4K hamkorlik, muloqot, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikdir. 4K ta tamoyilni o‘z ichiga oladi(1-rasm)

1-rasm



1-rasm XXI asr ko‘nikmalari

Tanqidiy fikrlash (va muammoni hal qilish) Critical Thinking (and Problem Solving) Axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikr va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Bo‘lajak o‘qituvchi muammolarni tahlil qilish va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi. Raqamli ta`limda tanqidiy fikrlashning ahamiyati kattadir. Ma'lumotni tanqidiy baholash, tahlil qilish va sharhlash qobiliyati to‘g'ri va mantiqiy xulosa chiqarish va oqilona qaror qabul qilishga yordam beradi. Jamoa bo‘lib hamkorlikda ishlaganda tanqidiy fikrlash orqali bo‘lajak o‘qituvchi ijtimoiy muloqotga kirisha oladilar.

U quyidagi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi: tahlil - muhokama qilinadigan savol va dalillar o‘rtasida mantiqiy bog'liqlikni o‘rnatish: *baholash, faraz qilish, tartibga solish, muloqot, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik.*

Kreativlik (va innovatsiya) Creativity (and innovation): O`z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni izlab topadi, ijodkorlik orqali muammolarni hal qilishning kutilmagan usullariga ega bo‘ladi va u quyidagi tarkibiy qismlarga ajratiladi: *qiziquvchanlik,tasavvur.*

Muloqot Communication: O‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi.

Ushbu kompentensiya orqali bo‘lajak o‘qituvchi qo‘rqmay har qanday muloqotga kirisha oladi. Munozaralarni boshlash, muloqotning maqsadi va kontekstiga, savol va javob berishga kirishadi. O‘z nuqtai nazarini himoya qilish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi.

***Hamkorlik Collaboration*:** Bu bo‘lajak o‘qituvchining jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ularga hamkorlikda ishlash, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘maklashadi. O‘zaro samarali muloqot qilish va umumiy maqsadga erishish uchun jamoada ishlash qobiliyatini hosil qiladi.

Bu sifat bir-biriga bog'liq bo‘lgan bir nechta qobiliyatlarda namoyon bo`ladi:

- ✓ umumiy go‘yani yagona maqsad sifatida qabul qilish qobiliyati;
- ✓ ijtimoiy munosabatni shakllantirish, ya'ni ko‘pchilik fikrini

qo‘llabqavvatlash, muhokama qilish, muzokaralar olib borish, o‘z harakatlarini boshqalarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish;

- ✓ zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish;
- ✓ mustaqillik va tashabbuskorlik.

Ushbu kompetensiyalar orqali bo‘lajak o‘qituvchilar kelajakdagi kasbiy karyerasini loyihalashda va oldiga qo‘ygan maqsadlariga to‘g’ri yo‘l tanlashlari hamda o‘z vaqtida unga yetishlarida yordamchi bo‘ladi deb o‘ymaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son
2. Tairova Madinabonu TALABALARDA KASBIY KO‘NIKMALARNI ZAMONAVIY METODLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH Baxtiyarovna

RESEARCH FOCUS | VOLUME 1 | ISSUE 4 | 2022 ISSN: 2181-3833 ResearchBip (14) Research Focus, Uzbekistan 143 www.ReFocus.uz.
3. Pedagogikada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar mazmunini takomillashtirish ijtimoiy zarurat sifatida. “Ta’lim mazmunini sifat jihatdan yangi bosqichga ko’tarish va optimallashtirish: muammo va yechimlar” mavzusida nazariy-amaliy anjuman. Buxoro, 2022-y.25-aprel.8-11-b.
4. Djurayev R., Safarova R. O’quvchi-yoshlarni ommaviy madaniyat xurujlaridan himoya qilishning nazariy-metodologik asoslari. Monografiya. - T., “Tafakkur qanoti”. 2017.200 b.
5. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: “Sano-standart”, 202.
6. Internet www.uz

KASBIY SHAKLLANISH TUSHUNCHASI VA UNING NATIJAVIY AHAMIYATI

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
tayanch doktoranti ***M.B.Sheraliyeva***

“Kasb — bu insonning jamiyatga xizmat qilish usuli va o‘zini ifoda etish yo‘lidir.”
L.N. Tolstoy

Annotatsiya

Inson hayotining muhim bosqichlaridan biri bu – kasb tanlash va kasbiy shakllanish jarayonidir. Kasbiy shakllanish jarayoni nafaqat individual o‘sish, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada kasbiy shakllanish tushunchasi, unga oid yondashuvlar, uning bosqichlari va natijaviy ahamiyati tahlil qilinadi. shu annotatsiyaning rus va ingliz tillarini yoz

Аннотация:

Одним из важнейших этапов в жизни человека является выбор профессии и процесс профессионального становления. Процесс профессионального становления рассматривается как важный фактор не только личностного роста, но и развития общества в целом. В данной статье анализируются понятие профессионального становления, подходы к его изучению, его этапы и результативное значение.

Annotation:

One of the most important stages in a person's life is career choice and the process of professional development. The process of professional formation is considered a significant factor not only for individual growth but also for the development of society. This article analyzes the concept of professional development, relevant approaches, its stages, and its outcome-based significance.

Kalit so‘zlar: Kasbiy shakllanish, kasb tanlash, mehnat bozori, ta’lim tizimi, psixologik omillar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, professional yo‘naltirish, motivatsiya, ijtimoiylashuv, zamonaviy texnologiyalar
Ключевые слова: Профессиональное становление, выбор профессии, рынок труда, система образования, психологические факторы, социально-экономические факторы, профориентация, мотивация, социализация, современные технологии
Keywords: **P**rofessional development, career choice, labor market, education system, psychological factors, socio-economic factors, career guidance, motivation, socialization, modern technologies

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayonida inson kapitalini rivojlantirish, yoshlarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish va mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlarni yetkazib berish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qabul qilingan “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” hamda "Ta’lim va kasbga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida"gi qarorlar bu boradagi aniq maqsad va vazifalarni belgilab bergan.

Zamonaviy mehnat bozori sharoitida kasbiy shakllanish – nafaqat individual taraqqiyot omili, balki mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishi, innovatsion rivojlanishi va ijtimoiy barqarorligining asosiy kafolatlaridan biridir. Kasbiy shakllangan fuqaro – bu o‘z mehnati bilan nafaqat o‘z hayotini, balki jamiyat taraqqiyotini ta’minlaydigan faol ijtimoiy subyektdir.

Kasbiy shakllanish — bu shaxsning o‘zining mehnat faoliyati, ijtimoiy roli va kasbiy maqomini anglab borishi, kasb tanlashi, unga tayyorgarlik ko‘rishi va kasbiy o‘sishni amalga oshirish jarayonidir.[13] Bu jarayon individual psixologik xususiyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar va ta’lim tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, doimiy harakat va taraqqiyot asosida kechadi.

Psixologik yondashuvda kasbiy shakllanish shaxsning qiziqishlari, moyilliklari va qobiliyatlari bilan uyg‘un holda kechadigan, ichki motivatsiya asosida shakllanadigan jarayon sifatida qaraladi. Masalan, L.S. Vygotskiy va A.N. Leontevlarning faoliyat nazariyasi asosida kasbga yo‘naltirishning kognitiv-emosional omillari ta’kidlanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan esa, bu jarayon ta’lim-tarbiya faoliyati orqali amalga oshadi. Ya’ni, kasbga tayyorlov jarayoni, kasbiy yo‘naltirish, amaliyot, malaka oshirish kabi bosqichlar orqali shaxsning kasbiy salohiyati shakllanadi.

Zamonaviy yondashuvlarda kasbiy shakllanish ijtimoiy tizimda insonning o‘z o‘rnini topishi, mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishi va uzluksiz o‘qib-rivojlanishiga asos bo‘ladigan strategik jarayon sifatida talqin etiladi. Bu borada shaxsiylashtirilgan ta’lim, mentorlik, zamonaviy texnologiyalar (masalan, kasbiy yo‘nalishdagi testlar va AI tizimlar) muhim o‘rin tutadi.

[13] Meyliyev, S. (2023). *Talabalarda kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish*. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, №2, 38–42.

Kasbiy shakllanish — bu bir martalik harakat emas, balki uzluksiz va ketma-ket bosqichlarda kechadigan rivojlanish jarayonidir. Har bir bosqichda shaxsning kasbga bo‘lgan munosabati, bilim va ko‘nikmalari, shuningdek, ichki motivatsiyasi chuqurlashib boradi[14]. Ilmiy adabiyotlarda kasbiy shakllanish quyidagi asosiy bosqichlarga bo‘linadi:

1. Kasbiy yo‘nalishning shakllanishi

Bu bosqich odatda o‘smirlik davriga to‘g‘ri keladi. Shaxsda turli kasblarga qiziqish paydo bo‘ladi, o‘zining qobiliyatlarini anglash boshlanadi. Ushbu davrda psixologik va pedagogik yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Kasb tanlash va unga tayyorgarlik

Bu bosqichda shaxs o‘z qiziqishi, ijtimoiy muhit, mehnat bozori talablari va o‘z imkoniyatlarini hisobga olgan holda kasb tanlaydi. Ta’lim muassasalarida o‘qish, amaliy mashg‘ulotlar va ilk tajriba orttirish aynan shu davrga to‘g‘ri keladi.

3. Kasbiy faoliyatga kirish va malaka shakllanishi

Kasb egasi sifatida mustaqil ish boshlash, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash va kasbiy ko‘nikmalarni mustahkamlash bosqichidir. Bu davrda o‘rganish va o‘z ustida ishlash asosiy rol o‘ynaydi.

4. Kasbiy takomillashuv va ixtisoslashuv

Shaxs o‘z kasbida mukammallikka intiladi, maxsus yo‘nalishlarda chuqur bilim va tajriba orttiradi. Bu bosqichda malaka oshirish, qo‘shimcha sertifikatlar olish, yangiliklarni o‘zlashtirish dolzarb bo‘ladi.

5. Kasbiy barqarorlik va yetuklik

Shaxs o‘z kasbida ustoz, lider yoki ekspert darajasiga yetadi. Bu bosqichda o‘z bilimlarini boshqalarga o‘rgatish, rahbarlik qilish, ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish kabi faoliyatlar muhim o‘rin tutadi.

Kasbiy shakllanish murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, unga individual, ijtimoiy, iqtisodiy hamda psixologik omillar kompleks tarzda ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, shaxsning kasbiy yo‘nalishini belgilashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

1. Individual-psixologik omillar

Shaxsning qiziqishlari, kasbga bo‘lgan moyilligi, aqliy salohiyati, temperament tipi va shaxsiy fazilatlari kasb tanlashda muhim rol o‘ynaydi. Psixologlar fikricha, kasbga moslik darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar kasbiy jihatdan barqaror va samarador bo‘ladi. Masalan, introvert shaxslar ko‘proq mustaqil, ijodiy ish turlarini tanlashga moyil bo‘lishadi.

2. Oila va tarbiya

Oilaviy muhit, ota-onaning kasbi, ularning farzandga bergan yo‘naltirishi ham kasbiy shakllanishga kuchli ta’sir qiladi. Ba’zida ota-onaning kasbini davom ettirish yoki ular bergan motivatsiyaga amal qilish farzand tanloviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

3. Ta’lim tizimi va pedagogik ta’sir

Maktab va o‘quv muassasalarida olib boriladigan kasbiy yo‘naltirish ishlari, psixologik maslahatlar, o‘quvchilarning qobiliyatiga mos mashg‘ulotlar kasbga

[14] G‘ofurov, K. (2021). *Kasbiy ta’limda psixologik yondashuvlar*. Toshkent: O‘zDJTU nashriyoti

yo‘naltirishda muhim o‘rin tutadi. Ustozlar va murabbiylar shaxsning ijtimoiylashuvi va kasbiy tanlovida yetakchi rol o‘ynashi mumkin.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar

Mehnat bozoridagi ehtiyoj, ish o‘rinlarining mavjudligi, kasbning ijtimoiy maqomi va daromad darajasi ham shaxs tanloviga bevosita ta’sir qiladi. Raqobatbardosh, yuqori talabga ega kasblar yoshlar orasida ko‘proq qiziqish uyg‘otadi.

5. Axborot vositalari va texnologiyalar

Internet, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali kasblar haqida ma’lumot olish imkoniyatining kengayishi kasb tanlashda yangi imkoniyatlar yaratadi. Virtual kasbiy testlar, onlayn kurslar va bloglar yoshlarni kasbiy rivojlanishga undaydi.

6. Madaniy va milliy qadriyatlar

Muayyan millat yoki jamiyatda qadrlanadigan kasblar, mehnatga bo‘lgan munosabat va an’anaviy qarashlar ham shaxs tanloviga ta’sir qilishi mumkin. Ba’zi jamiyatlarda muallimlik, tabobat yoki muhandislik kabi kasblar tarixiy-madaniy sabablarga ko‘ra obro‘li hisoblanadi.

Xulosa

Kasbiy shakllanish — bu shaxsning butun hayoti davomida davom etadigan, ko‘p bosqichli va omillarga bog‘liq jarayon bo‘lib, u nafaqat individual muvaffaqiyat, balki jamiyatning umumiy taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kasbiy shakllanishning samaradorligi shaxsning qiziqishlari, oilaviy muhit, ta’lim tizimi va mehnat bozoridagi ehtiyojlar bilan chambarchas bog‘liq.

Shaxs kasbiy jihatdan shakllanganida, u mehnat bozorida faol va raqobatbardosh bo‘lib, o‘z kasbiy yo‘nalishida barqarorlikka erishadi. Bunday shaxslar ijtimoiy hayotda faolligi, mas'uliyatliligi va o‘ziga ishonchi bilan ajralib turadi. Shu sababli kasbiy shakllanishni to‘g‘ri boshqarish va qo‘llab-quvvatlash davlat, ta’lim muassasalari va oilaning hamkorligida amalga oshirilishi lozim.

Takliflar

- Maktab bosqichidan boshlab kasbiy yo‘naltirishni kuchaytirish zarur. Bu borada psixologik testlar, kasblar bilan tanishtiruvchi seminar va master-klasslarni kengaytirish foydali bo‘ladi.
- Kasbiy maslahat va yo‘naltirish markazlarini har bir hududda tashkil qilish, yoshlar uchun bepul maslahat xizmati yo‘lga qo‘yilishi kerak.
- Ta’lim tizimi va mehnat bozori o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish lozim. Bunda zamonaviy kasblar, texnologik yo‘nalishlar va amaliy mashg‘ulotlarga ko‘proq urg‘u berilishi kerak.
- Oilada kasbga tayyorlashga oid madaniyatni rivojlantirish, ya’ni ota-onalarning bu boradagi bilim va yondashuvlarini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.G‘ofurov, K. (2021). *Kasbiy ta’limda psixologik yondashuvlar*. Toshkent: O‘zDJTU nashriyoti.

2.Karimov, Sh. (2019). *Shaxsning kasbiy shakllanishi psixologiyasi*. Samarqand: Ilm ziyo.

3.Sharipova, D. (2020). *Kasb tanlashda oilaning roli*. Pedagogik izlanishlar jurnali, №2, 45–50.

4.Rahmonova, N. (2018). *Pedagogik psixologiya asoslari*. Toshkent: O‘qituvchi.

5.Vygotskiy, L.S. (1991). *Psixologiya va pedagogika*. Moskva: Pedagogika.

6.Leontev, A.N. (1977). *Faoliyat. Ong. Shaxsiyat*. Moskva: Nauka.

7.“Kasbiy shakllanish va unga ta’sir qiluvchi omillar”. (2023). Pedagog.uz.

8.Meyliyev, S. (2023). *Talabalarda kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish*. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, №2, 38–42.

CHIZIQLASHTIRILGAN NAV’YE-STOKS TENGLAMALAR SISTEMASI

Umarov Sanjar Sunnatovich
O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya: *Maqolada gidromexanikaning asosiy masalalaridan chiziqlashtirilgan Nav’ye-Stoks tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasi bayon etilgan. Chiziqlashtirilgan Nav’ye-Stoks tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasining masalasi nokorrektligiga Adamar misoli keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *Nav’ye-Stoks tenglamalar sistemasi, Koshi masalasi, kuchlanish tenzori, Adamar misoli.*

Аннотация: *В статье рассматривается задача Коши для линеаризованной системы уравнений Навье-Стокса — одна из основных задач гидромеханики. Приведен пример Адамара, иллюстрирующий некорректность задачи Коши для линеаризованной системы уравнений Навье-Стокса.*

Ключевые слова: *система Навье-Стокса, задача Коши, тензор напряжений, пример Адамара.*

Abstract: *The article considers the Cauchy problem for the linearized system of Navier-Stokes equations, one of the main problems of hydromechanics. An example of Hadamard is given, illustrating the incorrectness of the Cauchy problem for the linearized system of Navier-Stokes equations.*

Keywords: *Navier-Stokes system, Cauchy problem, stress tensor, Hadamard example.*

Gidromexanikaning asosiy tenglamalari. Suyuqlik hamda gazlar harakatini tavsiflovchi differensial tenglamalarni yechish bilan bog’liq bo’lgan tizimlarni matematik modelini tuzish, chiziqli bo’lmagan tenglamalarni yechimini topish masalasiga olib keluvchi yangi samarali metodlarni qo’llash masalalariga keltiriladi. Shu o’rinda, Navye-Stoks tenglamalarini yechish usullarini ishlab chiqish suyuqliklar va gazlar oqimi bilan bog’liq bo’lgan gidromexanikaning turli

yo'nalishlari taraqqiyotida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Navye-Stoks tenglamalari bu suyuqliklar yoki gazlar harakatini ularning qovushqoqlik xossasini inobatga olgan holda tavsiflab beruvchi xususiy hosilali differensial tenglamalar sistemasidan iborat. Navye-Stoks tenglamalar sistemasini analitik usulda yechish bugungi qadar amalga oshirilmaganligi tufayli ushbu tenglamalarni chiziqlashtirilgan holi uchun yechim topish va uni sohaning chegarasidan butun soha bo'yicha davom ettirish differensial tenglamalar sohasida muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Suyuqlik egallagan hajmdagi har bir yuza elementiga bosim ta'sir qiladi. Agar bosim element yuzasiga normal tomon yo'nalgan bo'lsa, u izotrop bosim qonuniga bo'ysunadi deyiladi. Agar suyuqlik muvozanatda bo'lsa, bu qonun har doim o'rinli bo'ladi. Agar bu qonun harakatlanuvchi suyuqlik uchun ham o'rinli bo'lsa, bunday suyuqlik ideal suyuqlik deb ataladi.

Suyuqlikda ixtiyoriy kichik d hajmdagi "suyuq zarrachani" – chegarasini σ bilan belgilaymiz. d hajmni to'ldiruvchi suyuqlikka ma'lum bir o'rtacha tezlik beriladi, uning chegarasi σ ning P nuqtaga tortishishi suyuqlikning P nuqtadagi u tezligi deyiladi.

P nuqtaning dekart ortogonal koordinatalarini x_1, x_2, x_3 orqali, q vektorining mos komponentlarini esa u_1, u_2, u_3 bilan belgilaymiz. Agar har bir $P(x_1, x_2, x_3)$ nuqtadagi $p(x_1, x_2, x_3, t)$ –bosimni, $\rho(x_1, x_2, x_3, t)$ –massaning taqsimot zichligini va $u(x_1, x_2, x_3, t)$-tezlik vektorini ma'lum bo'lsa, suyuqlikning harakati yoki muvozanat holati aniqlanadi.

Har bir P nuqtadagi u tezlik vektoriga parallel bo'lgan urinma chiziqni suyuqlik egallagan hajmdagi oqim chizig'i deyiladi. Agar oqim chizig'ining har bir P nuqtasida tezlik vektori vaqtga bog'liq bo'lmasa, bu chiziq harakatlanuvchi nuqtanning trayektoriyasi bilan mos keladi va uning tenglamasi

$$\frac{dx}{dt} = u$$

ko'rinishda bo'ladi. Bu yerda $x - P$ nuqtaning radius vektori.

Suyuqlik egallagan butun hajmda ρ zichlik o'zgarmas bo'lsa, bunday suyuqlik siqilmaydigan suyuqlik deyiladi.

Agar suyuq zarralar orasidagi(ichki) ishqalanish yoki suyuq zarrralar va ular bilan ta'sir qiladigan qattiq jism o'rtasida(tashqi) ishqalanish mavjud bo'lganda harakatlanuvchi suyuqlikdagi bosim izotroplik qonuni amal qilmasligi mumkin. Bunday holda suyuqlik real suyuqlik deyiladi. Harakatlanayotgan real suyuqlikda ichki ishqalanish oqibatida girdoblar(qarshilik va ko'tarilish kuchi) hosil bo'ladi.

Agar suyuqlik muvozanat holatiga kelsa, ular darhol yo'qoladi. Bu ichki ishqalanish suyuqlik shaklini o'zgartirishiga qarshilik ko'rsatishi mumkinligi bilan chambarchas bog'liqdir. Suyuqlik harakatini o'rganishda ichki ishqalanishni e'tiborsiz qoldirib bo'lmasa, bunday suyuqlik yopishqoq deb ataladi.

Harakatlanayotgan suyuqlikning har bir nuqtasida u tezligi vaqtga bog'liq bo'lmasa, harakat statsionar deyiladi.

Gidromexanikada umumiy, ya’ni hajm kuchlari ta’sir etmagan holda u, p va ρ kattaliklarni holatini aniqlash uchun quyidagi vektor holatdagi Nav’ye-Stoks tenglamalari

$$\rho \frac{Du}{dt} + \text{grad}\, p = \nu \Delta q, \qquad (1)$$

va uzluksizlikning skalyar tenglamasi

$$\frac{\partial \rho}{\partial t} + \text{div}\rho q = 0 \qquad (2)$$

orqali aniqlanadi.

Bu yerda Δ –Laplas operatori, $\frac{D}{dt} = \frac{\partial}{\partial t} + q\text{grad}$, $\text{grad} = \left(\frac{\partial}{\partial x_1}, \frac{\partial}{\partial x_2}, \frac{\partial}{\partial x_3}\right)$

ν –yopishqoqlik koyeffitsiyenti.

(1) va (2) bilan aniqlangan to’rtta tenglamaga 5-tenglama holat tenglamasi qo’shiladi:

$$p = p(\rho) \qquad (3)$$

Chiziqlashtirilgan Nav’ye-Stoks masalasi.

Nav’ye-Stoks sistemasi uchun Koshi masalasi yechimni soha chegarasining qismidagi qiymatlariga ko‘ra shu sohada davom ettirishdan iborat. Bu masalani tekislikdagi holini qaraymiz. R^2 tekislikdagi bo‘lakli silliq chegarali D sohani qaraymiz. S - D soha chegarasining qismi bo‘lsin, ya’ni $S \subset \partial D$.

$\vec{u} = \vec{u}(x_1, x_2) = (u_1(x_1, x_2), u_2(x_1, x_2))$ vektor funksiya va $p(x) = p(x_1, x_2)$ skalyar funksiya D sohada Nav’ye-Stoks chiziqli statsionar tenglamalar sistemasini qanoatlantirsin:

$$\begin{cases} \nu\left(\frac{\partial^2 u_1}{\partial x_1^2} + \frac{\partial^2 u_1}{\partial x_2^2}\right) - \frac{\partial p}{\partial x_1} = 0, \\ \nu\left(\frac{\partial^2 u_2}{\partial x_1^2} + \frac{\partial^2 u_2}{\partial x_2^2}\right) - \frac{\partial p}{\partial x_2} = 0, \\ \frac{\partial u_1}{\partial x_1} + \frac{\partial u_2}{\partial x_2} = 0, \end{cases} \qquad (4)$$

bunda ν - o‘zgarmas son - yopishqoqlik koyeffitsiyenti.

Masalaning qo‘yilishi. (1) sistemaning Koshi shartlari S egri chiziq ustida berilgan:

$$\vec{u}(y) = (u_1(y), u_2(y)) = (f_1(y), f_2(y)) = \vec{f}(y), \qquad y \in S$$
$$T(\vec{u}(y), p(y))\vec{n}(y) = \vec{h}(y) = (h_1(y), h_2(y)), \qquad y \in S, \qquad (5)$$

bunda $T(\vec{u}(y), p(y))$ - kuchlanish tenzori, ya’ni

$$T(\vec{u}(y), p(y)) = \begin{Vmatrix} -p(y) + 2\nu\frac{\partial u_1(y)}{\partial y_1} & \nu\left(\frac{\partial u_1(y)}{\partial y_2} + \frac{\partial u_2(y)}{\partial y_1}\right) \\ \nu\left(\frac{\partial u_1(y)}{\partial y_2} + \frac{\partial u_2(y)}{\partial y_1}\right) & -p(y) + 2\nu\frac{\partial u_2(y)}{\partial y_2} \end{Vmatrix} =$$
$$= \left\| T_{kj}(\vec{u}(y), p(y)) \right\|_{2\times 2},$$

$$T_{kj}(\vec{u}(y),p(y)) = \delta_{kj}p(y) + \nu\left(\frac{\partial u_k(y)}{\partial y_j} + \frac{\partial u_j(y)}{\partial y_k}\right), \qquad (6)$$

$$T(\vec{u}(y),p(y))\vec{n}(y) = (-p(y)n_1(y) + 2\nu\frac{\partial u_1(y)}{\partial y_1}n_1(y) +$$

$$+\nu\left(n_2(y)\frac{\partial u_1(y)}{\partial y_2} + n_2(y)\frac{\partial u_2(y)}{\partial y_1}\right),$$

$$\nu\left(\frac{\partial u_1(y)}{\partial y_2}n_1(y) + \frac{\partial u_2(y)}{\partial y_1}n_1(y)\right) - p(y)n_2(y) + 2\nu\frac{\partial u_2(y)}{\partial y_2}n_2(y)\Big) =$$

$$(-p(y)n_1(y) + \nu\frac{\partial u_1(y)}{\partial n} + \nu\left(\frac{\partial u_1(y)}{\partial y_1}n_1 + \frac{\partial u_2(y)}{\partial y_2}n_2\right),$$

$$-p(y)n_2(y) + +\nu\frac{\partial u_2(y)}{\partial n} + \nu\left(\frac{\partial u_1(y)}{\partial y_2}n_1(y) + \frac{\partial u_2(y)}{\partial y_2}n_2(y)\right)\Big),$$

$\vec{f}(y),\vec{g}(y)$ - berilgan vektor funksiyalar. $\vec{u}(x)$ va $p(x)$ vektor funksiyalarni D sohada topish talab etiladi.

Koshi shartlarini tashuvchisi S to‘g‘ri chiziq kesmasi bo‘lgan holda bu masalaning nokorrektligini ko‘rsatuvchi Adamar misolini keltiramiz.

Misol. $\vec{u}(x) = (u_1(x),u_2(x)),p(x)$ funksiyalarni quyidagicha aniqlaymiz:

$$u_1(x) = \frac{-1}{2\nu k^3}\sin k\,x_1 shkx_2 + \frac{1}{2\nu k^2}\cos k\,x_1 shkx_2,$$

$$u_2(x) = \frac{1}{2\nu k^2}x_1 \sin k\,x_1 chkx_2,\ p(x) = \frac{1}{k^2}\cos k\,x_1 shkx_2. \qquad (7)$$

$\vec{u}(x)$ va $p(x)$ funksiyalar D sohada (4) sistemaning qanoatlantirishini ko‘rsatamiz.

$$\frac{\partial u_1}{\partial x_2} = \frac{-1}{2\nu k}x_1 \sin k\,x_1 shkx_2,$$

$$\frac{\partial^2 u_1}{\partial x_1^2} = \frac{-1}{2\nu k}(\sin k\,x_1 shkx_2 + kx_1 \cos k\,x_1 shkx_2),$$

$$\frac{\partial^2 u_1}{\partial x_2^2} = \frac{-1}{2\nu k}(\sin k\,x_1 shkx_2 - kx_1 \cos k\,x_1 shkx_2),$$

$$\frac{\partial p}{\partial x_1} = \frac{-1}{k}\sin k\,x_1 shkx_2, \qquad (8)$$

bundan

$$\nu\Delta u_1(x) - \frac{\partial p}{\partial x_1} = 0. \qquad (9)$$

Endi (4) ning ikkinchi tenglamasini tekshiramiz:

$$\frac{\partial u_2}{\partial x_1} = \frac{1}{2\nu k^2}\sin k\,x_1 chkx_2 + \frac{1}{2\nu k}x_1 \cos k\,x_1 chkx_2,$$

$$\frac{\partial^2 u_2}{\partial x_1^2} = \frac{1}{\nu k}\cos k\,x_1 chkx_2 - \frac{1}{2\nu}x_1 \sin k\,x_1 chkx_2,$$

$$\frac{\partial u_2}{\partial x_2} = \frac{1}{2\nu k} x_1 \sin k\, x_1 shkx_2, \quad \frac{\partial^2 u_2}{\partial x_1^2} = \frac{1}{2\nu} x_1 \sin k\, x_1 chkx_2,$$

$$\frac{\partial p}{\partial x_2} = \frac{1}{k} \cos k\, x_1 chkx_2. \qquad (10)$$

Bulardan

$$\nu \Delta u_2(x) - \frac{\partial p(x)}{\partial x_2} = 0$$

ni olamiz. Shunday qilib $\vec{u}(x)$ va $p(x)$ funksiyalar (4) tenglamalarni qanoatlantiradi.

(4) – (10) lardan

$$T(\vec{u}(y), p(y))n(y) =$$

$$= (-p(y)n_1(y) + 2\nu \frac{\partial u_1(y)}{\partial y_1} n_1(y) + \nu n_2(y)\left(\frac{\partial u_1(y)}{\partial y_2} + \frac{\partial u_2(y)}{\partial y_1}\right),$$

$$= \left[\frac{n_1(y)}{k^2} shky_2 \cos k\, y_1 + 2\,\nu n_1(y)\left(\frac{1}{2\nu k} y_1 shky_2 \sin k\, y_1\right) + \right.$$

$$+\nu n_2(y)(-\frac{1}{2\nu k^2}(y_1 chky_2 \sin k\, y_1 - ky_1 chky_2 \cos k\, y_1 +$$

$$+\frac{1}{2\nu k^2} chky_2 \sin k\, y_1 - \frac{1}{2\nu k} y_1 chky_2 \cos k\, y_1),$$

$$\nu n_1(y)(-\frac{1}{2\nu k^2}(chky_2 \sin k\, y_1 - ky_1 chky_2 \cos k\, y_1) + \qquad (11)$$

$$+\frac{1}{2\nu k^2} chky_2 \sin k\, y_1 + \frac{1}{2\nu k^2} y_1 chky_2 \sin k\, y_1) - \frac{n_2(y)}{k^2} shy_2 \cos k\, y_1 +$$

$$\left.+2\nu n_2(y) \frac{1}{2\nu k} y_1 shky_2 \sin k\, y_1\right] =$$

$$\left(-\frac{n_1(y)}{k^2} shky_2 \cos k\, y_1 - \frac{n_1(y)}{k} y_1 shky_2 \sin k\, y_1 + \frac{n_2(y)}{k} y_1 chky_2 \cos k\, y_1 \right.$$

$$\left.\frac{n_1(y)}{k} y_1 chky_2 \cos ky_1 - \frac{n_2(y)}{k^2} shky_2 \cos ky_1 + \frac{n_2(y)}{k} y_1 shky_2 \sin k\, y_1\right)$$

(8) va (11) dan $k \to \infty$ da

$$\vec{u}(y)|_l = \vec{u}(y)|_{y_2=0} = (0; \frac{1}{2\nu k^2} \sin k\, x_1) \to (0;0),$$

$$T(\vec{u}(y), p(y))|_l = T(\vec{u}(y), p(y))|_{y_2=0} = (\frac{1}{k} \cos k\, x_1, 0) \to (0;0)$$

munosabatlar o'rinli bo'ladi. Lekin, $x \in D$ va $k \to \infty$ da yechim istalgancha katta bo'ladi, ya'ni $\vec{u}(x) \to \infty, \quad p(x) \to \infty$ intiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Тихонов А.Н.,Самарский А.А. Уравнения математической физики. М. “Наука”.1972.

2.Владимиров В.С. Уравнения математической физики. М. “Наука”.1988

3.Бицадзе А.В. Уравнения математической физики. М. “Наука”.1982.

4.Салоҳиддинов М. Математик физика тенгламалари.Т. “Ўзбекистон”.2002.

5. Смирнов М.М. Задачи по уравнениям математической физики. М. “Наука”.1975

QOLDIQLAR NAZARIYASI ORQALI INTEGRALLARNI HISOBLASH

Umarov Sanjar Sunnatovich
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya: *maqolada Grin funksiyasi yordamida masalalar yechishda qoldiqlar nazariyasi tadbiqlaridan foydalanib hisoblangan misollardan namunalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Grin funksiyasi, Koshi masalasi, Koshi teoremasi, qildiqlar nazariyasi.*

Аннотация*: В статье приведены примеры расчетов с использованием применения теории вычетов при решении задач с использованием функции Грина.*

Ключевые слова*: функция Грина, задача Коши, теорема Коши, теория вычетов.*

Abstract*: The article provides examples of calculations using the theory of residues in solving problems using the Green's function.*

Keywords: *Green's function, Cauchy problem, Cauchy theorem, theory of residues.*

Laplas tenglamasi uchun Dirixle masalasini yarim tekislikda yechish talab etilsin:

$\Delta u = 0, y > 0, \qquad -\infty < x < +\infty,$

$u(x,0) = f(x), \qquad -\infty < x < +\infty.$

Masalaning Grin funksiyasi yordamida yechilgan holini qaraymiz.

$y > 0$ yarim tekislikda Grin funksiyasining ko’rinishi quyidagicha

$$G(M, M_0) = \frac{1}{2\pi}\ln\frac{1}{R_{MM_0}} - \frac{1}{2\pi} ln\frac{1}{R_{MM_1}}.$$

bo’ladi. Agar $M_0 = M_0(x,y), M = M(t,s)$, deb olsak Grin funksiyasi ko’rinishi:

$$G(x,y;t,s) = \frac{1}{2\pi}\ln\frac{1}{\sqrt{(x-t)^2+(y-s)^2}} - \frac{1}{2\pi}\ln\frac{1}{\sqrt{(x-t)^2+(y+s)^2}}.$$

U holda berilgan masalaning yechimi

$$u(x,y)=\frac{y}{\pi}\int_{-\infty}^{+\infty} f(t)\frac{\partial G}{\partial s}\Big|_{s=0}dt.$$

$\frac{\partial G}{\partial s}\Big|_{s=0}$ hosilani hisoblaymiz

$$u(x,y)=\frac{y}{\pi}\int_{-\infty}^{+\infty}\frac{f(t)}{(x-t)^2+y^2}dt. \qquad (1)$$

1-misol. Yuqori yarim tekislikdagi quyidagi shartni qanoatlantiradigan garmonik funksiyani topish talab etilsin:

$$\begin{aligned}&\Delta u=0, \quad y>0, \quad -\infty<x<+\infty,\\ &u(x,0)=\frac{x}{x^2+1}, \quad -\infty<x<+\infty.\end{aligned} \qquad (2)$$

Yechilishi:

(1) asosan masalaning yechimi

$$u(x,y)=\frac{y}{\pi}\int_{-\infty}^{+\infty}\frac{t}{(1+t^2)[(t-x)^2+y^2]}dt.$$

Bu integralni hisoblash uchun boshqa bir usul ya'ni kompleks analizdagi qoldiqlar nazariyasidan foydalanamiz.

Xususan, quyidagi formulani qo'llaymiz:

$$\int_{-\infty}^{+\infty}\frac{t\,dt}{(1+t^2)[(t-x)^2+y^2]}=2\pi i[\mathrm{res}f(i)+\mathrm{res}f(x+iy)],$$

bu yerda

$$f(z)=\frac{z}{(1+z^2)[(z-x)^2+y^2]}.$$

$$\mathrm{res}f(i)=\frac{1}{2((i-x)^2+y^2)}, \qquad \mathrm{res}f(x+iy)=\frac{x+iy}{2iy[1+(x+iy)^2]}$$

Demak, integralni qiymatini hisoblaymiz

$$\frac{y}{\pi}\int_{-\infty}^{+\infty}\frac{t\,dt}{(1+t^2)[(t-x)^2+y^2]}=\frac{iy}{(i-x)^2+y^2}+\frac{x+iy}{1+(x+iy)^2}=$$

$$=\frac{iy}{(i-x+iy)(i-x-iy)}+\frac{x+iy}{(x+iy-1)(x+iy+1)}=$$

$$=\frac{1}{2}\left[\frac{1}{i-x-iy}-\frac{1}{i-x+iy}\right]+\frac{1}{2}\left[\frac{1}{x+iy-1}+\frac{1}{x+iy+1}\right]=$$

$$=\frac{1}{2}\left[\frac{1}{i(1-y)-x}-\frac{1}{i(1+y)-x}+\frac{1}{x+i(y-1)}+\frac{1}{i(1+y)+x}\right]=$$

$$=\frac{1}{2}\left[\frac{1}{i(1+y)+x}-\frac{1}{i(1+y)-x}\right]$$

$$=\frac{1}{2}\left[\frac{x-i(1+y)}{x^2+(1+y)^2}+\frac{x+i(1+y)}{x^2+(1+y)^2}\right]=\frac{x}{x^2+(1+y)^2}$$

izlanayotgan yechim quyidagicha bo'ladi:

$$u(x,y)=\frac{x}{x^2+(1+y)^2}$$

(2) masalaning yechimini Grin funksiyasiga murojaat qilmasdan ham topish mumkin.

Dirixle masalasining quyidagi shartlari bilan yechimi: ya'ni

$$\Delta u = 0, \quad , \qquad y > 0$$

$$u|_{y=0}=\frac{x}{1+x^2}, \quad -\infty < x < +\infty$$

Quyidagi funksiyani qaraymiz:

$$u=\frac{1}{2\pi}\ln\frac{1}{\sqrt{x^2+(y+a)^2}}, a>0$$

funksiya yuqori yarim tekislik ya'ni $y > 0$ da Laplas tenglamasining yechimi ekanligi (fundamental yechimligidan) ma'lum. Shuning uchun quyidagi tenglik o'rinli:

$$\Delta \ln\frac{1}{\sqrt{x^2+(y+a)^2}}=0$$

Bu tenglikni x bo'yicha differensiallasak, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\frac{\partial}{\partial x}\ln\frac{1}{\sqrt{x^2+(y+a)^2}}=0$$

yoki

$$\Delta\frac{\partial}{\partial x}\ln\frac{1}{\sqrt{x^2+(y+a)^2}}=0\,, \qquad \Delta\left(\frac{x}{r^2}\right)=0,$$

Bu yerda $r=\sqrt{x^2+(y+a)^2}$.

$$u(x,y)=\frac{x}{x^2+(y+a)^2}$$

Funksiya yuqori yarim tekislikda garmonik funksiyadir.

Biz qarayotgan misolda chegaraviy shartlarni hisobga olganda

$$u(x,y)=\frac{x}{x^2+(y+1)^2}$$

Funksiya (2) Dirixle masalasining yechimi bo'ladi.

2-misol. Dirixle masalasining yechimini toping:

$$\Delta u = 0, \quad -\infty < x,y < +\infty, \quad z > 0,$$

$$u|_{z=0}=\cos x\cos y\,, \quad -\infty < x,y < +\infty.$$

Yechim. Ma'lumki, izlanayotgan garmonik funksiya quyidagi formula orqali topiladi:

$$u(x,y,z)=\frac{z}{2\pi}\iint_{-\infty}^{+\infty}\frac{\cos\xi\cos\eta\ d\xi\,d\eta}{[(\xi-x)^2+(\eta-y)^2+z^2]^{3/2}}.$$

Integralni hisoblash uchun $\xi - x = u, \eta - y = v$ almashtirishini bajaramiz, bunda Yakobian birga teng. Natijada quyidagiga ega bo'lamiz:

$$u(x,y,z)=\frac{z}{2\pi}\iint_{-\infty}^{+\infty}\frac{\cos(u+x)\cos(v+y)\,du\,dv}{(u^2+v^2+z^2)^{3/2}}=$$

$$=\frac{z}{2\pi}\iint_{-\infty}^{+\infty}\frac{(\cos u\cos x-\sin u\sin x)(\cos v\cos y-\sin v\sin y)\,du\,dv}{(u^2+v^2+z^2)^{3/2}}=$$

$$=\frac{z}{2\pi}\cos x\cos y\iint_{-\infty}^{+\infty}\frac{\cos u\cos v\;du\,dv}{(u^2+v^2+z^2)^{3/2}},$$

qolgan uchta integral mos ravishda toq funksiyaning integrali bo'lganligi sababli nolga teng. Endi qolgan integralni hisoblaymiz:

$$J=\iint_{-\infty}^{+\infty}\frac{\cos u\cos v\;du\,dv}{(u^2+v^2+z^2)^{3/2}}=\iint_{-\infty}^{+\infty}\frac{\cos(u+v)+\sin u\sin v}{(u^2+v^2+z^2)^{3/2}}\,du\,dv$$

$$=\iint_{-\infty}^{+\infty}\frac{\cos(u+v)}{(u^2+v^2+z^2)^{3/2}}\,du\,dv,$$

chunki boshqa integral nolga teng.

Bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchilarni quyidagicha almashtiramiz:

$$p=\frac{1}{\sqrt{2}}(u+v),\;q=\frac{1}{\sqrt{2}}(u-v),$$

bu tekislikni soat strelkasi bo'yicha 45^0 ga burishga mos keladi. Shunda quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\iint_{-\infty}^{+\infty}\frac{cos(\sqrt{2}p)}{(p^2+q^2+z^2)^{\frac{3}{2}}}dpdq=\int_{-\infty}^{+\infty}cos(\sqrt{2}p)\,dp\int_{-\infty}^{+\infty}\frac{1}{(p^2+q^2+z^2)^{\frac{3}{2}}}dq.$$

Ammo

$$J_1=\int_{-\infty}^{+\infty}\frac{1}{(p^2+q^2+z^2)^{\frac{3}{2}}}dq$$

integral $q=\sqrt{p^2+z^2}tgt$ almashtirish orqali

$$J_1=\int_{\{-\frac{\pi}{2}\}}^{\{\frac{\pi}{2}\}}\frac{|cos\,t\,|\,dt}{p^2+z^2}=\frac{2}{p^2+z^2}.$$

ko'rinishga keladi.

Demak, integral

$$J=2\int_{\{-\infty\}}^{\{+\infty\},}\frac{cos(\sqrt{2}p)}{p^2+z^2}dp$$

Qoldiqlar nazariyasidagi Koshi teoremasi bo'yicha hisoblanganda quyidagiga teng:

$$J=2\,Re\int_{\{-\infty\}}^{\{+\infty\},}\frac{e^{\{i\sqrt{\{2\}p}\}}}{p^2+z^2}dp=4\pi i\,res\frac{e^{\{i\sqrt{\{2\}p}\}}}{p^2+z^2}\Bigg|_{\{p=zi\}}=$$

$$=4\pi i\cdot\frac{e^{\{-z\sqrt{\{2\}}\}}}{2zi}=\frac{2\pi}{z}e^{\{-z\sqrt{\{2\}}\}}.$$

Demak, yechim:

$$u(x,y,z) = e^{\{-z\sqrt{\{2\}}\}} cosx\, cos\, y.$$

Izoh:

$$\frac{y}{(t-x)^2+y^2} = Re\frac{1}{i(t-z)}, z = x + i\,y,$$

Puasson formulasi (1) formulasini quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$u(z) = Re\frac{1}{\pi i}\int_{\{-\infty\}}^{\{+\infty\},} \frac{u(t)}{t-z}\,dt \qquad (3)$$

Endi quyidagi Dirixle masalasini ko‘rib chiqamiz:

$$\Delta u = 0, \& -\infty < x < +\infty, y > 0,$$

$$u|_{y=0} = R(x), -\infty < x < +\infty$$

bu yerda $R(z)$, ratsional funksiya haqiqiy, haqiqiy o‘q ustida qutblarga ega emas va $z \to \infty$, $R(x) \to 0$ bo‘ladi. Dirixle masalasining (3) ga binoan yechimi quyidagicha:

$$u(z) = Re\,\frac{1}{\pi i}\int_{\{-\infty\}}^{\{+\infty\},} \frac{R(t)}{t-z}\,dt$$

Bu integral qoldiqlar nazariyasidagi Koshi teoremasi bo‘yicha quyidagicha hisoblanadi:

$$u(z) = -2Re \sum_{\{Im\zeta_k < 0\}} \operatorname*{res}_{\zeta=\zeta_k} \frac{R(\zeta)}{\zeta - z} \qquad \{4\}$$

Bu yerda qoldiq $R(z)$ funksiyani barcha pastki yarimtekislikda yotgan qutblari bo‘yicha olinadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Тихонов А.Н.,Самарский А.А. Уравнения математической физики. М. “Наука”.1972.

2.Владимиров В.С. Уравнения математической физики. М. “Наука”.1988

3.Бицадзе А.В. Уравнения математической физики. М. “Наука”.1982.

4.Салоҳиддинов М. Математик физика тенгламалари.Т. “Ўзбекистон”.2002.

5. Смирнов М.М. Задачи по уравнениям математической физики. М. “Наука”.1975

3-SHO‘BA
ZAMONAVIY PEDAGOGIK TARAQQIYOT VA UNING TADQIQIY JIHATLARI.

INTELLEKTUAL QOBILIYAT VA TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINING UYG‘UNLIGI – MUVAFFAQIYAT OMILI SIFATIDA

Abdiyev Jahongir Ruzibayevich,
Osiyo texnologiyalar universiteti
70610105-Ta'limda axborot texnologiyalari
yo‘nalishi magistranti.
E-mail: ***abdiyev.2021@inbox.ru***

Annotatsiya: *Ushbu maqolada intellektual qobiliyat va tadqiqotchilik ko‘nikmalarining uyg‘unligi ilmiy muvaffaqiyatning asosiy omili sifatida tahlil qilinadi. Maqolada intellektual qobiliyatning ilmiy faoliyatda, yangi g‘oyalar yaratishda va murakkab muammolarni hal qilishda ahamiyati, shuningdek, tadqiqotchilik ko‘nikmalarining ilmiy metodlarni qo‘llash va ilmiy izlanishlarni samarali amalga oshirishdagi o‘rni ko‘rsatiladi. Interaktiv o‘qitish metodlari, ilmiy laboratoriyalar va mentorlik tizimi talabalarning ilmiy tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida taqdim etiladi. Maqola intellektual qobiliyat va tadqiqotchilik ko‘nikmalarining uyg‘unligini ilmiy tadqiqotlarda muvaffaqiyatga erishishdagi muhim omil sifatida ko‘rib chiqadi.*

Kalit so‘zlar: *intellektual qobiliyat, tadqiqotchilik ko‘nikmalari, ilmiy muvaffaqiyat, ilmiy metodlar, interaktiv o‘qitish, ilmiy laboratoriyalar, mentorlik, g‘oya yaratish, ilmiy izlanishlar, ta'lim metodlari, kreativ fikrlash.*

Ilmiy tadqiqotlar zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va ularni ilmiy izlanishlar olib borishga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Intellektual qobiliyat va tadqiqotchilik ko‘nikmalari o‘rtasidagi uyg‘unlik muvaffaqiyatli ilmiy faoliyatning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Intellektual qobiliyat talabalar tomonidan ilmiy muammolarni tahlil qilish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va innovatsion yechimlar topishda ko‘rsatadigan salohiyatni anglatadi. Tadqiqotchilik ko‘nikmalari esa ilmiy jarayonlarni boshqarish, tadqiqot metodologiyasini to‘g‘ri tanlash va ilmiy natijalarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada intellektual qobiliyat va tadqiqotchilik ko‘nikmalarining uyg‘unligi haqida batafsil tahlil qilinadi va ularning ilmiy muvaffaqiyatga erishishdagi roli ko‘rsatiladi.

Intellektual qobiliyat – bu individning aqliy salohiyati, bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyati, tahliliy fikrlash, yirik miya resurslaridan foydalanish va muammolarni yangi yondashuvlar bilan hal qilish qobiliyatini ifodalaydi. Intellektual qobiliyat ilmiy tadqiqotlar va ilmiy ishlar olib borishda talabaning

muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Yuqori darajadagi intellektual qobiliyat, shuningdek, murakkab masalalarni hal qilish va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan asoslardir.

Tadqiqotchilik ko‘nikmalari esa ilmiy izlanishlarni amalga oshirishda, metodologik yondashuvlarni qo‘llashda va olingan natijalarni tahlil qilishda talabalar tomonidan qo‘llaniladigan amaliy ko‘nikmalardir.

Tadqiqotchilik ko‘nikmalari quyidagilardan iborat:

1.Tadqiqot mavzusini tanlash va uni ilmiy jihatdan aniqlash.

2.Ilmiy metodlarni o‘rganish va qo‘llash (masalan, eksperimentlar, statistik tahlillar).

3.Ma'lumotlarni to‘plash va tizimlashtirish.

4.Tadqiqot natijalarini tahlil qilish va ularni ilmiy nuqtai nazardan baholash.

5.Ilmiy xulosalar chiqarish va ularni amaliyotda qo‘llash.

Intellektual qobiliyat va tadqiqotchilik ko‘nikmalarining uyg‘unligi muvaffaqiyatli ilmiy faoliyatning asosi bo‘lib, ularning birgalikda ishlashi talabalarni ilmiy izlanishlarda yuqori natijalarga erishishga olib keladi.

Intellektual qobiliyat ilmiy tadqiqotlar uchun zarur bo‘lgan asosiy omil bo‘lib, u talabaning murakkab muammolarni tahlil qilish va yangi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatini belgilaydi. Tadqiqotchilik ko‘nikmalari esa bu yechimlarni ilmiy usullar bilan amalga oshirishga yordam beradi. Masalan, talabalar ilg‘or tadqiqot metodlarini qo‘llash orqali ilmiy ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etadilar. Intellektual qobiliyat yuqori bo‘lgan talaba, an'anaviy bilimlarni yoritishda ijodiy yondashuvlarni qo‘llashda muvaffaqiyatli bo‘ladi.

Tadqiqotchilik ko‘nikmalarining yuqori darajasi ilmiy izlanishlarni samarali amalga oshirishga yordam beradi. Intellektual qobiliyat bu jarayonni quvvatlaydi, chunki yuqori darajadagi fikrlash va tahliliy ko‘nikmalar tadqiqot metodlarini to‘g‘ri tanlash va ularga asoslangan ilmiy ishlashni ta'minlaydi. Tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish, ilmiy metodologiyalarga asoslangan chuqur tahlilni o‘zlashtirishni talab qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, ilmiy izlanishlarning sifatini va natijalarini oshiradi.

Intellektual qobiliyat, ayniqsa, mustaqil ilmiy ishlarni bajarishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotchilik ko‘nikmalari talabalarni mustaqil ilmiy ishlar olib borishga tayyorlaydi, lekin yuqori darajadagi intellektual qobiliyat, ya'ni kreativ fikrlash va yangicha yondashuvlarni qo‘llash, bu jarayonni yanada samarali qiladi. Masalan, talaba an'anaviy ilmiy metodlarni qo‘llash o‘rniga, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotda sinab ko‘rish orqali innovatsion ilmiy ishlar yaratadi.

Ilmiy tadqiqotlar o‘z natijalarini tahlil qilish va ulardan xulosalar chiqarishni talab qiladi. Bu jarayonda intellektual qobiliyat tadqiqot natijalarini chuqur tahlil qilish, ulardan xulosalar chiqarish va ularni boshqa ilmiy ishlar bilan bog‘lashda yordam beradi. Tadqiqotchilik ko‘nikmalari esa aniq va to‘g‘ri ilmiy metodlarni qo‘llash orqali bu tahlilni yanada samarali amalga oshiradi.

Zamonaviy ta'limda interaktiv o‘qitish metodlari talabalar uchun ilmiy izlanishlarga asoslangan mustaqil ishlarni bajarishni osonlashtiradi. Ilmiy

tadqiqotlarni muhokama qilish, guruhli ishlash va kollektif fikrlash jarayonlari talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ilmiy laboratoriyalar va tadqiqot markazlarida talabalar amaliyotda ilmiy metodlarni o‘rganish va qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa, o‘z navbatida, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantiradi va intellektual salohiyatni rivojlantiradi.

Ilmiy rahbarlar va professor-o‘qituvchilarning mentorligi talabalarga ilmiy izlanishlarda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Ularning tajribasi va bilimlari talabalarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ularga intellektual salohiyatini to‘liq ishga solish imkonini yaratadi. Ilmiy muvaffaqiyatning asosiy omili sifatida intellektual qobiliyat va tadqiqotchilik ko‘nikmalarining uyg‘unligi talabalarning ilmiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishida muhim ahamiyatga ega. Talabaning intellektual qobiliyati uning aqliy salohiyatini, muammolarni hal qilish, mantiqiy va tahliliy fikrlashni o‘z ichiga oladi. Bu esa ilmiy tadqiqotlar olib borishda talabaning o‘z g‘oyalarini yaratishi, mavjud bilimlarni yangi shakllarda qo‘llashga imkon beradi. Intellektual qobiliyat, shuningdek, talabani murakkab ilmiy masalalarni hal qilishga, yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga, kritik fikrlashga va ilmiy jarayonlarda yangi yechimlarni topishga yordam beradi. Tadqiqotchilik ko‘nikmalari esa ilmiy metodlarni amaliyotda qo‘llash, ma'lumotlarni to‘plash va tahlil qilish, ilmiy natijalarni xulosa qilish va ular asosida yangi nazariyalar yoki amaliy tadbirlar ishlab chiqish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchilik ko‘nikmalari, ayniqsa, ilmiy metodologiyalarni to‘g‘ri tanlashda, eksperimentlarni muvaffaqiyatli o‘tkazishda va olingan natijalarni aniq va ravshan tarzda tahlil qilishda talabaga yordam beradi. Tadqiqot metodlarini bilish va qo‘llashning yuqori darajasi ilmiy izlanishlarning sifatini belgilaydi.

Ilmiy tadqiqotning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun talabalar nafaqat ilmiy metodlarni bilishlari, balki ularni to‘g‘ri va samarali qo‘llay olishlari kerak. Bu esa faqat intellektual qobiliyatga asoslanmaydi, balki tadqiqotchilik ko‘nikmalarini talab qiladi. Masalan, eksperimentlar o‘tkazish yoki statistik tahlillarni amalga oshirishda, talabalar o‘zlarining mavjud bilimlarini amaliyotga tatbiq qilishlari zarur. Bu jarayonlarda talabalar yangi ilmiy metodlarni o‘rganib, ularga nisbatan ijodiy yondashuvlarni ishlab chiqadilar. Tadqiqotchilik ko‘nikmalari nafaqat texnik jihatlarni o‘z ichiga oladi, balki ilmiy sohada yangi yondashuvlarni topishga imkon beruvchi ijodiy yondashuvlarni ham ta'minlaydi. O‘zining intellektual qobiliyati va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini uyg‘unlashtira olgan talaba, an'anaviy ilmiy metodlar va usullarni yangilab, yangi ilmiy istiqbollarni yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ilmiy izlanishlar faqat mavjud bilimlar bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Intellektual qobiliyat yuqori bo‘lgan talaba, o‘ziga xos g‘oyalarni ishlab chiqish, ilmiy jarayonni yangi yo‘nalishlarga yo‘naltirish va innovatsion yondashuvlarni yaratishda muvaffaqiyatli bo‘ladi. Yangi g‘oyalar yaratish jarayoni ko‘pincha ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadidir. Bunday g‘oyalar mavjud ilmiy bilimlar bilan tahlil qilinishi, sinovdan o‘tkazilishi va yangi ilmiy metodlar bilan qo‘llanilishi kerak. G‘oyalar yaratishdan tashqari, ularni sinovdan o‘tkazish va tahlil qilish ham ilmiy

tadqiqotning muhim qismlaridan biridir. Tadqiqotchilik koʻnikmalari bu jarayonni amaliyotga tatbiq qilishda talabaga yordam beradi. Masalan, eksperimentlar oʻtkazish yoki statistik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali ilmiy izlanishlar natijasini real dalillar bilan tasdiqlash talab etiladi. Bu jarayonda intellektual qobiliyat talabaning natijalarni tahlil qilish, ularni toʻgʻri talqin qilish va yangi gʻoyalar ishlab chiqishda yordam beradi.

Zamonaviy ta'limda interaktiv oʻqitish metodlari talabalarning ilmiy izlanishlarga boʻlgan qiziqishini oshirish va ularni ilmiy jarayonlarga jalb qilishda muhim rol oʻynaydi. Interaktiv oʻqitish usullari talabalarga ilmiy tadqiqotlar olib borishda amaliy tajriba orttirish imkonini beradi. Bunday metodlar talabalarni passiv oʻrganuvchilardan faol tadqiqotchilarga aylantiradi, ular oʻz fikrlarini erkin ifodalashadi, jamoada ishlashadi va ilmiy mavzularni mustaqil ravishda oʻrganishadi. Bunday metodlar orqali talabalar oʻzlarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishi, ilmiy metodlarni oʻrganish va qoʻllashda yanada samarali boʻlishlari mumkin. Misol sifatida, interaktiv darslarda talabalarga ilmiy masalalar boʻyicha muhokama qilish imkoniyatini berish, ular orasida ilmiy fikr almashinish va oʻz gʻoyalarini himoya qilish koʻnikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi. Bu jarayonlar talabalarning ilmiy qobiliyatlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy laboratoriyalar va mentorlik tizimi talabalarga ilmiy tadqiqotlarda qatnashish va tajriba orttirish imkonini beradi. Ilmiy laboratoriyalar talabalarni ilmiy ishlarda ishtirok etishga undaydi, ularni oʻz tadqiqotlarini oʻtkazishga ragʻbatlantiradi. Laboratoriyalar va tadqiqot markazlari talabalar uchun zamonaviy ilmiy usullarni oʻrganish va ulardan amaliyotda foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun kerakli uskunalar, resurslar va ilmiy qoʻllab-quvvatlashni taqdim etadi. Mentorlik esa talabalarga tajribali ilmiy rahbarlar tomonidan yoʻl-yoʻriq koʻrsatishni ta'minlaydi. Mentorlar talabalarga ilmiy tadqiqot metodlarini oʻrgatadi, ularga fikr berishadi va ilmiy ishlarini tekshiradilar. Bu jarayonda mentorlarning tajribasi talabaga oʻz ilmiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirishda yordam beradi. Ilmiy rahbarlar bilan yaqindan ishlash talabaning tadqiqotchilik koʻnikmalarini mukammallashtirishda muhim rol oʻynaydi.

Intellektual qobiliyat va tadqiqotchilik koʻnikmalarining uygʻunligi ilmiy muvaffaqiyatning asosiy omili hisoblanadi. Talabalar ilmiy izlanishlarga nafaqat ilmiy metodlarni toʻgʻri qoʻllash, balki yangi gʻoyalarni yaratish va ularni sinab koʻrish orqali erishishlari kerak. Ta'lim jarayonida interaktiv oʻqitish metodlari, ilmiy laboratoriyalar va mentorlik tizimlari muhim oʻrin tutadi, chunki ular talabalarga ilmiy izlanishlar olib borishda mustahkam asos yaratadi. Bularning barchasi, oʻz navbatida, ilmiy tadqiqotlarda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini taqdim etadi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1.Brown, P., Hesketh, A., & Williams, S. (2003). The mismanagement of talent: Employability and jobs in the knowledge economy. Oxford University Press.

2.Anderson, C., & Krathwohl, D. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. Longman.

3.Kuhlthau, C. C. (2004). Seeking Meaning: A Process Approach to Library and Information Services. Libraries Unlimited.

4.Xolmurodov, F. (2020). Ilmiy izlanish metodologiyasi va uning ta'limdagi roli. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti.

5.To‘raqulov, R. (2021). O‘zbekiston ta'lim tizimida interaktiv metodlarni qo‘llash. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

SHIFOKORLAR MUVAFFAQQIYATLI FAOLIYATINING PSIXOLOGIK MEZONLLARI

Akramova Feruza Akmalovna.
Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, psixologiya fanlari doktori.
+998 91 136 05 27
Arziqulov O‘tkirbek Maxammatovich.
Andijon davlat tibbiyot instituti dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, E-mail: utkirbekarziqulov33@gmail.com Тел: 97-552-00-33

Annotatsiya: Ushbu maqolada shifokorlar kasbiy rivojlanishida psixologik omillarning o‘rni ва aktual tomonlari haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, tibbiyot, kasbiy motivatsiya, motiv, maqsad, ehtiyoj, kasbiy tayyorgarlik.

Аннотация: В этой стате рассматривается рол и актуалные аспекты психологических факторов в профессионалном развитии врачей

Ключевые слова: мотивация, образование, медицина, профессионалная мотивация, мотив, потребност, профессионалная подготовка

Annotation: This article examines the role and relevant aspects of psychological factors in the professional development of doctors.

Key words: motivation, medicine, educational motivation, professional motivation, motive, goal, need, professional training

Shifokorlar kasbiy faoliyatini o‘rganishda uning psixologik xususiyatlarini o‘rganish alohida o‘rin tutadi. Buning sababi shundaki, psixologik omillarni hisobga olgan holda, turli darajadagi odamlar shifokorlik kasbini yegallaydilar va o‘zlarining kasbiy vazifalarini turli darajadagi muvaffaqiyatlar bilan to‘ldiradilar.

Shifokorlarning kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatini o‘rganish bilan bog‘liq holda, tadqiqotlarda tez-tez uchraydigan "qobiliyatlar", "motivlar", "shaxsiy fazilatlar", "kasbiy muhim fazilatlar" kabi psixologik muvaffaqiyat omillarini hisobga olish kerak. Yuqoridagi barcha toifalarni ajratish va shifokorlik sohasida muvaffaqiyatning psixologik asoslarini aks yettiruvchi "kasbiy muvaffaqiyatning psixologik omillari" tushunchasi asosida tizimli empirik tadqiqotning nazariy asoslarini yaratishga imkon beradigan asosiy tushunchalarni aniqlash zarur.

Shifokorlarning kasbiy rivojlanishida kasbiy muvaffaqiyatning psixologik omillarini ko‘rib chiqish ularning shaxsiy qobiliyatlarini o‘rganishdan boshlanadi. Qobiliyatlarni o‘rganish jarayoni dastlab B. M. Teplov tomonidan taklif qilingan. Olim qobiliyatlarni bir shaxsni boshqasidan ajratib turadigan, har qanday faoliyatni o‘zlashtirish va amalga oshirish muvaffaqiyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan aniq bilim, ko‘nikma va qobiliyat bo‘lgan individual psixologik xususiyatlar sifatida belgilaydi. B. M. Teplov umumiy va maxsus qobiliyatlarni alohida belgilab, birinchisi har qanday faoliyat uchun zarur va hamma shifokorlarda mavjud, ikkinchisi esa ularning muvaffaqiyatli faoliyat doirasi uchun zarur deb hisoblagan.

V. D. Shadrikov shifokorlarning kasbiy qobiliyatlarini "individual- kognitiv va psixomotor funksiyalarni amalga oshiradigan, o‘zlashtirish va amalga oshirishning muvaffaqiyati va sifat jihatidan o‘ziga xosligida namoyon bo‘ladigan funksional tizimlarning xususiyatlari sifatida" belgilab bergan. Olim, B. M. Teplovdan farqli o‘laroq, kasbiy faoliyat talablari ta’siri ostida kasbiy moslashishning umumiy qobiliyatlarini aniqladi.

Kasbiy muvaffaqiyatlar bilan bog‘liq qobiliyatlarni o‘rganishda alohida tadqiqotlar kognitiv sohaning xususiyatlaridan tashqari, psixikaning barcha sohalarining tarkibiy qismlari tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Masalan, K. K. Platonov kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatni u yoki bu darajada belgilaydigan psixikaning har qanday xususiyatlarini qobiliyatlarga bog‘lagan. E. A. Klimov kasbiy qobiliyatlarni "muayyan faoliyatda muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini ta’minlaydigan fazilatlar" deb ta’riflaydi. Shu bilan birga, psixikaning har qanday xususiyati qobiliyat sifatida harakat qilishi mumkin deb ta’kidlagan. V. N. Drujinin, psixikaning B. F. Lomov konsepsiyasiga asoslanib: kommunikativ, tartibga solish va kognitiv kabi uchta funksiyasini ajratib ko‘rsatgan, bu funksiyalar bilan qobiliyatlarni o‘zaro bog‘lashni va kommunikativ, tartibga solish va kognitiv qobiliyatlarni farqlashni taklif qiladi.

Ko‘plab taniqli olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy takliflar asosida qobiliyatlarni yempirik tadqiqotlari o‘tkazilgan. Ushbu pozitsiyani kognitiv sohaning xususiyatlariga, shu jumladan qobiliyatdagi boshqa sohalarning fazilatlariga qo‘shimcha ravishda, tadqiqotchilar ularni muntazam ravishda tahlil qilganlar. Ushbu pozitsiyani N. D. Levitovning nuqtai nazari bilan ham oqlash mumkin: ya’ni, "qobiliyatlar odatda ma’lum bir faoliyatning bajarilishi bog‘liq bo‘lgan aqliy fazilatlar yoki shaxsiy xususiyatlar sifatida belgilanadi, hamda qobiliyatlarni qiziqishlar, temperament va xarakter bilan aralashtirib yubormaslik uchun, ularga faqat hissiy, intellektual va psixomotor sohalarga tegishli bo‘lgan ruhiy holatlarga murojaat qilish samaraliroqdir”.

Shunday qilib, eng muvaffaqiyatli shifokorlarning o‘ziga xos xususiyatlari, unchalik muvaffaqiyatli bo‘lmaganlar bilan taqqoslaganda, "muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi" ning yuqori darajasi, "natija yo‘nalishi" ning motivatsion munosabati, "muvaffaqiyatsizliklarni oldini olish uchun motivatsiya" ning past darajasi, "muloqotga intilish" va "xavfsizlik", "kasbiy rivojlanish", "xavfsizlikni ta’minlash", "ijtimoiy maqomga erishish", "martaba o‘sishi", kabi omillar ta’sir ko‘rsatadi.

P. M. Yakobson shifokorlar kasbiy faoliyatining ko‘p motivatsiyali tabiatini ta’kidlab, motivlar tegishli mehnat faoliyatini ta’minlash va uni amalga oshirish, kelajak istiqboli hamda o‘zi va yaqinlarining farovonligi bilan bog‘liq ijtimoiy obro‘ keltiradigan fuqarolik motivlari asosiy rol o‘ynaydi deb ta’kidlagan.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, shifokorlarning mehnat psixologiyasi doirasidagi muvaffaqiyatni tizimli o‘rganishlarda qobiliyatlarni aniqlash bilan bir qatorda motivlarni ham aniqlash va ularni birinchi navbatda har qanday kasbiy faoliyat asosida ehtiyojlar sifatida o‘rganish tavsiya yetiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyevning “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora –tadbirlar to‘g‘risida” gi 05.06.2018 yildagi PQ – 3775 –sonli Qarori //http://lex.uz.

2. Karimova V.M., Akramova F.A. va boshqalar. Psixologiya. Darslik. - T.: TDIU, 2012. - 387 b.

3. B.A.Raximov. Psixologiya fanida shifokorlar kasbiy motivatsiyasini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar tahlili // “Yoshlar manaviyatini yuksaltirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari. Toshkent-2020. 84-85 b.

4. Bashmakov O.A., Petrosov S.N., Gurdus V.O., Solovev V.V. Professionalnaya deyatelnost sovremennogo vracha: yee osobennosti i motivatsiya // Vestnik Vserossiyskogo obщyestva spesialistov po medikosotsialnoy ekspertize, reabilitatsii i reabilitatsionnoy industrii. – 2014. – № 2. – S. 90-94.

5. Dolganov D.N., Zakonnova L.I., Sedovskix M.Ye. Motivatsionnaya gotovnost i otnosheniye k osuщyestvleniyu nauchno-isssledovatelskoy deyatelnosti // Vestnik Kuzbasskogo gosudarstvennogo texnicheskogo universiteta. – 2015. – № 3(109). – S.172-181.

Chernix A.V., Kosyanchuk N.M. Dinamika professionalnoy motivatsii medikov // Pedagogicheskoye masterstvo i pedagogicheskiye texnologii. – 2015. – № 3 (5). – S. 123-125.

ANTROPOTSEN DAVRIDA SINFDAN TASHQARI TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING ONGLI EKOLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

(o‘quv mashg‘ulotlari samarali loyihalari misolida)

Alimuxamedova Umida Erkinovna

Pedagogik mahorat va xalqaro aholash ilmiy-amaliy markazi tabiiy va aniq fanlar bo‘limi bosh mutaxassisi

alimukhamedova72@gmail.com, +998935117861

Annotatsiya: Maqolada antropotsen davri chaqiriqlari kontekstida sinfdan tashqari tabiiy fanlar mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning ongli ekologik faoliyatini rivojlantirishning samarali metodik yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. O‘quvchilarning barqaror ekologik xulq-atvori va tanqidiy fikrlashini shakllantirishga yordam beruvchi, ota-onalar va mahalliy hamjamiyat ishtirokida loyihaviy va tadqiqot faoliyatini integratsiyalash tajribasi taqdim etilgan. O‘quv mashg‘ulotlari loyihalariga ekologik muammolar va barqaror rivojlanish kontseptsiyasini kiritish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: antropotsen, sinfdan tashqari faoliyat, ekologik ta’lim, ongli faoliyat, loyihaviy o‘qitish, ekologik madaniyat, ota-onalar ishtiroki.

Аннотация: В статье рассматриваются эффективные методические подходы к развитию сознательной экологической деятельности учащихся во внеурочных занятиях по естественным наукам в контексте вызовов антропоцена. Представлен опыт интеграции проектной и исследовательской деятельности с участием родителей и местного сообщества, что способствует формированию у школьников устойчивого экологического поведения и критического мышления. Обоснована необходимость включения экологической проблематики и концепции устойчивого развития в проекты учебных занятий.

Ключевые слова: антропоцен, внеурочная деятельность, экологическое образование, сознательная деятельность, проектное обучение, экологическая культура, участие родителей.

Abstract:
The article explores effective methodological approaches to developing students' conscious environmental activity during extracurricular science lessons in the context of the challenges of the Anthropocene era. The paper presents the experience of integrating project-based and research activities involving parents and the local community, which contributes to the formation of students' sustainable environmental behavior and critical thinking. The necessity of including environmental issues and the concept of sustainable development in lesson projects is substantiated.

Keywords: Anthropocene, extracurricular activity, environmental education, conscious activity, project-based learning, environmental culture, parental involvement.

Мы вступили в фазу, когда «человечество стало главной геологической силой, влияющей на будущее планеты, её климата, ландшафтов и биоразнообразия». Последствия человеческой деятельности затрагивают не только поверхности континентов, но и глубокие слои литосферы, а также атмосферу и океаны. По сути, в антропоцене нет ни одного уголка Земли, который бы оставался неизменённым под воздействием человека. Это время, когда каждому человеку «следует осознать своё место не как пассивного наблюдателя, а как активного участника глобальных процессов» [1].

Современная образовательная практика в условиях антропоцена сталкивается с необходимостью трансформации подходов к экологическому

воспитанию и обучению учащихся. Усиление техногенной нагрузки, изменение климата, утрата биологического разнообразия и загрязнение окружающей среды ставят перед системой образования задачу формирования у обучающихся сознательной экологической деятельности, основанной на осмысленном взаимодействии с природой и ответственном отношении к решению экологических проблем.

Однако большинство существующих подходов к экологическому воспитанию носят либо теоретико-информативный, либо фрагментарный характер, что ограничивает возможности формирования у школьников устойчивых навыков осознанного поведения. Тем более малоразработанной является сфера внеурочной деятельности по естественным наукам как эффективной среды формирования экологического сознания. В рамках данной статьи исследуется возможность разработки и апробации методики проектного обучения во внеурочной деятельности с вовлечением родителей и сообщества для формирования сознательной экологической активности у учащихся.

В этой связи современное образование рассматривается как ключевая сфера подготовки нового поколения, способного к осознанным действиям по предотвращению экологических кризисов. Согласно данным IPCC (Intergovernmental Panel on Climate Change) - межправительственной группы экспертов по изменению климата, климатические изменения приобрели необратимый характер, а ключевым фактором является низкий уровень экологической ответственности населения, особенно среди молодежи [5].

РОЛЬ ВНЕУРОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО ЕСТЕСТВЕННЫМ НАУКАМ В ФОРМИРОВАНИИ СОЗНАТЕЛЬНОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ

Исследования преподавателя из США Джозеф Хендерсон и педагога Андреа Дрюэс подчеркивают, что именно внеурочная деятельность имеет высокие потенциалы в развитии устойчивых моделей поведения, так как позволяет интегрировать практический опыт, проекты и участие в экологических инициативах [4].

В то же время в странах Центральной Азии, включая Узбекистан, внеурочная деятельность по экологическому воспитанию в основном ограничивается акциями и субботниками, без глубокого вовлечения учащихся в анализ и решение реальных экологических проблем.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МИРОВОГО И УЗБЕКСКОГО ОПЫТА

Мировая практика экологического образования показывает, что наибольшей эффективности в формировании сознательной экологической активности учащихся достигают модели, в которых внеурочная деятельность интегрируется в общее образовательное пространство школы и местного сообщества.

Так, в *Сингапуре* экологическое воспитание охватывает все уровни школьного образования и организуется как внутриурочная, так и внеурочная деятельность. Особенностью данной модели является обязательное участие

родителей и местного сообщества, что способствует укреплению социальной ответственности учащихся и формированию навыков коллективного принятия экологически ориентированных решений [6]. Важным элементом является участие учащихся в реальных проектах, направленных на решение локальных экологических проблем, таких как переработка отходов, озеленение школьных территорий и энергоэффективные инициативы.

В *Финляндии* экологическое образование также активно интегрируется в внеурочную деятельность. Здесь упор делается на развитие креативности и проектной деятельности учащихся, что проявляется через участие в школьных экологических клубах, садоводческих кружках, создании школьных садов и участии в проектах устойчивого развития. Вовлечение родителей происходит в форме участия в школьных экологических проектах и конкурсах, что способствует укреплению связей между школой и семьёй. Однако наблюдается определённая демотивация части учащихся, которым требуется индивидуальный подход и постоянная поддержка [7].

В *Южной Корее* внеурочная экологическая деятельность организуется в рамках национальных программ «Чистые школы», где особое внимание уделяется интеграции STEAM-подходов в проектную деятельность учащихся. Родители и неправительственные организации активно вовлечены в организацию и реализацию школьных экологических мероприятий, таких как кампании по энергосбережению и очистке территории. Эти мероприятия служат платформой для формирования у учащихся междисциплинарных знаний и устойчивых экологических привычек. Однако высокая нагрузка на педагогов и учащихся остаётся нерешённой проблемой [7].

№	Страны	Модель экологического воспитания во внеурочной деятельности	Участие родителей и сообщества	Сильные стороны	Недостатки
1	Сингапур	Integrация экологии во все виды школьной деятельности и проектов	Активное	Практико-ориентированные подходы; проекты в сообществе	Требует больших инвестиций
2	Финляндия	Экологические клубы, садоводство, проекты устойчивого развития	Вовлечение родителей в проекты	Экологическая культура и креативность	Слабая мотивация части учащихся

3	Узбекистан	"Yashil maktab", Eco-Schools, разовые акции	Ограниченное участие	Наличие институциональных программ	Отсутствие интеграции с внеурочной деятельностью; формальность мероприятий
4	Южная Корея	Национальные программы "Чистые школы", интеграция STEAM	Активное	Междисциплинарные проекты; участие родителей и НПО	Высокая нагрузка на учителей

В *Узбекистане* внеурочная деятельность по экологическому образованию преимущественно ограничивается разовыми акциями, такими как субботники, конкурсы рисунков и школьные экологические мероприятия, [3] организуемые в рамках таких проектов, как «Yashil maktab», «Eco-Schools». Несмотря на наличие институциональных программ, участие родителей в организации внеурочной деятельности остаётся ограниченным, а проекты часто носят формальный характер, без должной системности и практической направленности. Недостаточно развиты механизмы оценки и мониторинга эффективности подобных мероприятий.

Таким образом, сравнительный анализ показывает, что в Узбекистане сохраняется значительный разрыв между декларативностью экологического образования и его реальной интеграцией в внеурочную деятельность с активным участием родителей и местного сообщества. Веурочная экологическая деятельность в Узбекистане преимущественно реализуется через проекты и акции, однако в отличие от зарубежной практики участие родителей и местного сообщества остаётся на минимальном уровне, а внеурочные мероприятия зачастую носят формальный характер и не обеспечивают развитие устойчивых навыков осознанной экологической деятельности. Мировая практика демонстрирует, что только комплексный подход, включающий проектное обучение, участие родителей и сотрудничество с местным сообществом, позволяет эффективно формировать у учащихся сознательную экологическую активность, необходимую для решения проблем антропоцена.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОЕКТНОГО ОБУЧЕНИЯ ВО ВНЕУРОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С ИНТЕГРАЦИЕЙ РОДИТЕЛЕЙ

Современные исследования в области экологического образования подчёркивают высокую эффективность проектного обучения как метода, способствующего формированию у учащихся навыков сознательной экологической деятельности, самостоятельности, критического мышления и социально ответственного поведения [4]. В условиях антропоцена, когда экологические вызовы требуют участия всех уровней общества, особое значение приобретает интеграция внеурочной деятельности с участием родителей и местного сообщества.

Проектное обучение во внеурочной деятельности по естественным наукам предполагает организацию образовательного процесса, основанного на решении учащимися реальных экологических проблем через разработку и реализацию проектов. Основными методическими принципами такого подхода являются:

- ✓ ориентированность на практическую значимость проекта;
- ✓ междисциплинарность;
- ✓ активное вовлечение родителей, местного сообщества, экологических организаций;
- ✓ развитие навыков самоорганизации, самоуправления, самооценки.

Интеграция родителей в проектную деятельность учащихся выступает важнейшим фактором повышения мотивации обучающихся, укрепления школьно-семейного партнёрства, а также формирования у родителей экологической ответственности и готовности к поддержке устойчивых инициатив. Вовлечение родителей может осуществляться на всех этапах проектной деятельности:

1. *На этапе осознания проблемы* — проведение семейных анкетирований, совместное обсуждение экологических проблем района, определение тематики проекта.
2. *На этапе проектирования* — участие родителей в формировании целей и задач проекта, распределении ролей, планировании мероприятий.
3. *На этапе реализации* — совместное участие в акциях, экспедициях, полевых исследованиях, организации экологических мероприятий.
4. *На этапе рефлексии и оценки* — участие в обсуждении результатов проекта, анализ достигнутых целей, совместная оценка эффективности деятельности.

Таким образом, проектная деятельность во внеурочной работе с интеграцией родителей создаёт условия для формирования у учащихся устойчивой экологической позиции и готовности к практическим действиям в защиту окружающей среды.

	Деятельность учащихся	Деятельность родителей	Результат
Осознание проблемы	Изучение локальных экологических проблем	Семейное анкетирование, выявление проблем в сообществе	Формирование исследовательской темы
Проектирование	Постановка целей, задач проекта	Совместное планирование мероприятий	Индивидуальный и групповой план действий
Реализация	Участие в проектной деятельности (акции, исследования, опросы)	Организация совместных мероприятий	Практические навыки, активность
Рефлексия и оценка	Презентация результатов, самооценка	Участие в оценке проекта, обсуждение успехов и трудностей	Осознание собственной роли в решении экологических проблем

Для эффективной реализации данной методики автором предложена поэтапная модель организации проектной деятельности с участием родителей, которая включает следующие компоненты:

- *осознание локальных проблем через семейные исследования;*
- *постановка целей и задач проекта с участием родителей и учащихся;*
- *реализация мероприятий с совместным участием всех сторон;*
- *рефлексия и самооценка результата проекта с привлечением родителей.*

Данная модель может стать эффективным инструментом повышения результативности экологического образования во внеурочной деятельности и обеспечения устойчивого участия семей в формировании экологической культуры подрастающего поколения.

ПРИМЕР ПРОЕКТА-УРОКА ДЛЯ ВНЕУРОЧНОГО ЗАНЯТИЯ

Тема: «Чистая вода — чистое будущее. Исследуем качество воды вместе с семьёй»

Класс: 7–8

Форма занятия: Проектная мастерская с участием родителей и сообщества

Проектная мастерская «Чистая вода — чистое будущее» строится на принципах исследовательского подхода, когда учащиеся совместно с родителями и представителями местного сообщества решают значимую

экологическую проблему — исследуют качество воды в своём районе. Работа организована по следующим этапам:

Этап мотивации и осознания проблемы.

Учитель начинает занятие с презентации статистических данных и реальных примеров загрязнения водных объектов в регионе. Цель данного этапа — пробудить у учащихся и их родителей интерес к проблеме, вызвать эмоциональное включение и личную вовлечённость. Учащиеся делятся своим опытом и знаниями о ситуации с водой в их населённом пункте. Родители также рассказывают о наблюдаемых ими экологических проблемах, связанных с водой. Это создает основу для совместного формулирования проблемы.

*Этап постановки проблемы и формулировки гипотезы***.**

Совместно с учителем, родители и учащиеся определяют ключевой вопрос исследования: «Каково качество воды в нашем районе и безопасна ли она для здоровья?» Учащиеся формулируют предположения, обсуждают возможные источники загрязнения. Родители помогают выбрать места для отбора проб воды (река, колодец, пруд и т.д.), предоставляют информацию о локальных особенностях.

Этап проектирования и планирования.

На данном этапе учитель организует работу по созданию проектного плана: учащиеся распределяются по группам, определяют цели и задачи исследования, разрабатывают план действий и методы сбора данных. Родители активно участвуют в процессе планирования: помогают с логистикой, организацией маршрутов для сбора проб воды, обеспечивают безопасность детей во время полевых работ.

Этап реализации проекта.

Учащиеся совместно с родителями проводят полевые исследования: отбирают пробы воды в выбранных точках, фиксируют наблюдения, проводят простейшие анализы (визуальная оценка, определение запаха, прозрачности и др.). Родители обеспечивают транспортировку и безопасность, а также участвуют в организации лабораторных исследований, если это необходимо.

Этап рефлексии и анализа результатов.

По завершении полевых работ учащиеся обрабатывают собранные данные, систематизируют их и готовят выводы. Учитель организует сессию анализа, на которой родители вместе с детьми обсуждают полученные результаты, оценивают уровень загрязненности воды, причины и возможные пути решения проблемы.

Этап представления проекта.

Итогом мастерской становится презентация учащимися своих проектов одноклассникам, родителям и представителям местного сообщества. Родители принимают активное участие в оценке результатов проекта, обсуждают вместе с учащимися и учителями возможные шаги по улучшению экологической ситуации в районе.

Этап	Деятельность учителя	Деятельность учащихся	Деятельность родителей
Мотивация	Презентация фактов о загрязнении воды региона	Выражают мнение о проблеме, делятся личным опытом	Делятся примерами проблем в районе
Постановка проблемы	Вопрос: «Какова реальная ситуация с качеством воды в нашем посёлке?»	Формулируют гипотезы, обсуждают важность проблемы	Помогают выбрать водоёмы для исследования
Проектирование	Деление на группы, формулирование задач	Составляют план исследования, определяют методы	Содействуют в подготовке материалов, логистике
Исследование	Организация полевых исследований	Проводят забор проб воды, фиксируют результаты	Участвуют в полевых работах, контролируют безопасность
Рефлексия, анализ	Организация сессии анализа данных	Обрабатывают данные, готовят выводы	Совместно оценивают результаты, предлагают решения
Представление проекта	Помогает организовать презентацию результатов	Презентуют выводы одноклассникам и родителям	Участвуют в обсуждении и оценке проекта

Такое описание позволяет не только более полно раскрыть роль каждого участника проекта, но и делает акцент на исследовательской роли учителя как организатора, фасилитатора и исследователя эффективности урока.

Особенности исследовательской позиции учителя:

- Анализирует уровень осознанности учащихся на каждом этапе.
- Фиксирует степень участия родителей.
- Оценивает изменения в мотивации, уровне ответственности учащихся.
- Документирует успешные и неудачные моменты в организации проекта.

ВЫВОДЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Результаты проведённого анализа и проектирования показали, что внедрение проектного обучения во внеурочной деятельности по естественным наукам в условиях антропоцена является эффективным инструментом формирования у учащихся сознательной экологической

активности и устойчивого поведения. Особую значимость приобретает интеграция родителей и местного сообщества на всех этапах реализации экологических проектов, что обеспечивает:

- повышение мотивации учащихся за счёт включения в реальную социально значимую деятельность;
- формирование у родителей экологической культуры и ответственности;
- развитие партнёрских отношений между школой, семьёй и местным сообществом.

Опыт реализации проектной мастерской «*Чистая вода — чистое будущее*» подтвердил высокую эффективность предложенной модели, так как участие родителей усилило исследовательский и практический компоненты проекта, позволило учащимся лучше понять экологическую проблему и осознанно подойти к её решению.

Вместе с тем, анализ отечественного и международного опыта показал следующие основные рекомендации для педагогов и исследователей:

1. **Разрабатывать и внедрять модели проектной деятельности с интеграцией родителей и местного сообщества как устойчивую форму внеурочной экологической работы.**
2. **Использовать в проектной деятельности современные цифровые и интерактивные инструменты (например, экологические симуляторы, онлайн-карты загрязнения, платформы для семейных исследований).**
3. **Организовывать обучение педагогов и родителей методикам фасилитации, проектного обучения и семейной педагогики для успешной реализации межпоколенческих экологических проектов.**
4. **Включать в программы мониторинга качества экологического образования индикаторы, отражающие уровень участия родителей и сообществ в образовательных экологических инициативах.**
5. **Активно изучать и адаптировать успешные модели зарубежного опыта (Сингапур, Финляндия, Южная Корея) для узбекского контекста с учётом локальных особенностей.**

Предложенная методика проектного обучения во внеурочной деятельности с участием родителей является перспективным направлением для формирования у школьников компетенций устойчивого развития и сознательной экологической активности в условиях антропоцена.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Швегерль К. Антропоцен: Человеческая эра и как она формирует нашу планету. – М.: АСТ, 2014. – 320 с.

2. IPCC. Climate Change 2021: The Physical Science Basis. – Geneva: Intergovernmental Panel on Climate Change, 2021. – 3940 с.

3. Саидова Г.М. Развитие экологического воспитания среди молодёжи, внеурочная экологическая деятельность и практические экологические проекты. – Ташкент: УзПУ, 2018. – 156 с.

4. Henderson J., Drewes A. Ecological education strategies in the context of climate change. – New York: Routledge, 2016. – 208 с.

5. Scott W., Gough S. Education and sustainable development. – London: RoutledgeFalmer, 2004. – 190 с.

6. Goh K.C. Environmental education in Southeast Asia: challenges and strategies. – Singapore: Green Education Press, 2017. – 156 с.

7. Lee W.O., Tan J.P. Education in Singapore: development and innovation. – Singapore: Springer, 2018. – 184 с.

8. Kim S. National Environmental Education Programs in South Korea: STEAM Integration Model. – Seoul: KEDI, 2020. – 156 с.

INKLYUZIV TA’LIM: TARIXI VA AHAMIYATI

Aliyev Shexroz Yodgor o‘g‘li
Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi
Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari
kafedrasi o‘qituvchisi
Email: Shexrozaliyev@gmail.com

Annotatsiya:

Mazkur ilmiy maqola inklyuziv ta’limning tarixiy rivojlanishini va uning hozirgi ta’lim tizimidagi ahamiyatini tahlil qiladi. Tadqiqotda inklyuziv ta’limning tarixi, xususan, uning shakllanishi, turli davrlarda o‘zgargan yondashuvlar va bugungi kunda jamiyatga ta’siri chuqur tahlil etiladi. Maqolada inklyuziv ta’limning eng muhim tamoyillari, xalqaro huquqiy hujjatlar va zamonaviy ta’lim tizimlarida uning roli ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot inklyuziv ta’limning samarali amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar va uning jamiyatda ijtimoiy adolatni ta‘minlashdagi o‘rni haqida ilmiy tahlillarni taqdim etadi. Ushbu maqola, shuningdek, inklyuziv ta’limning global ta‘lim tizimidagi ahamiyatini tushunishga yordam beradi va ta’lim siyosati ishlab chiquvchilar uchun foydali tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, tarixiy rivojlanish, ta’lim tizimi, jamiyat, tenglik, maxsus ehtiyojlar, xalqaro huquq, ijtimoiy adolat, ta’lim siyosati.

Annotation:

This scientific article analyzes the historical development of inclusive education and its importance in the current educational system. The study examines the history of inclusive education, specifically its formation, the changing approaches over different periods, and its impact on society today. The article discusses the key principles of inclusive education, international legal documents, and its role in modern educational systems. The research presents

scientific analyses on the necessary conditions for the successful implementation of inclusive education and its role in ensuring social justice within society. Furthermore, this article helps to understand the significance of inclusive education in the global educational system and provides useful recommendations for education policymakers.
Keywords: inclusive education, historical development, education system, society, equality, special needs, international law, social justice, education policy.
Аннотация:

Данная научная статья анализирует историческое развитие инклюзивного образования и его значение в современной образовательной системе. В исследовании рассматривается история инклюзивного образования, а именно его становление, изменяющиеся подходы в разные исторические периоды и его влияние на общество в настоящее время. В статье обсуждаются ключевые принципы инклюзивного образования, международные правовые документы и его роль в современных образовательных системах. Исследование представляет научный анализ необходимых условий для успешной реализации инклюзивного образования и его роли в обеспечении социальной справедливости в обществе. Кроме того, статья помогает понять значение инклюзивного образования в глобальной образовательной системе и предоставляет полезные рекомендации для разработчиков образовательной политики.
Ключевые слова: инклюзивное образование, историческое развитие, образовательная система, общество, равенство, особые потребности, международное право, социальная справедливость, образовательная политика.

So‘nggi o‘n yilliklarda ta’lim tizimi inson huquqlari, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar g‘oyalariga asoslanib, keskin o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Shu o‘rinda, **inklyuziv ta’lim** bugungi kunda nafaqat ta’lim siyosatining, balki ijtimoiy taraqqiyotning ham muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Insoniyat taraqqiyoti tarixida jamiyatning har bir a’zosini to‘laqonli ta’lim jarayoniga jalb qilish g‘oyasi yangi bo‘lmasa-da, uning keng ko‘lamli va tizimli shaklda amalga oshirilishi nisbatan yaqin davrga to‘g‘ri keladi. Bugungi kunda inklyuziv ta’lim nafaqat nogironligi bo‘lgan bolalar uchun, balki turli madaniy, til va ijtimoiy kelib chiqishga ega bo‘lgan o‘quvchilarning teng huquqli ta’lim olishiga xizmat qiluvchi zamonaviy ta‘lim modeli sifatida qaralmoqda.

Mazkur tadqiqotda inklyuziv ta’limning tarixiy ildizlari, uning shakllanish bosqichlari hamda zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati tahlil qilinadi. **Tadqiqotning asosiy maqsadi** – inklyuziv ta’lim konsepsiyasining tarixiy taraqqiyoti va uning bugungi kunda ta’limda qanday rol o‘ynayotganini ilmiy asosda o‘rganish, shuningdek, uning jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini aniqlashdir.

Shu munosabat bilan tadqiqot quyidagi **asosiy savollarga** javob topishga yo‘naltirilgan:

1. Inklyuziv ta’lim g‘oyasi qaysi tarixiy bosqichlarda shakllanib, rivoj topgan?

2. Turli davrlarda inklyuzivlikka oid yondashuvlar qanday farqlangan?
3. Zamonaviy ta’lim tizimida inklyuziv ta‘limning ahamiyati nimada namoyon bo‘ladi?
4. Inkluziv ta’limning samarali amalga oshirilishi uchun qanday shart-sharoitlar zarur?

Ushbu savollarni tahlil qilish orqali biz inklyuziv ta’limning nafaqat tarixiy asoslarini, balki uning bugungi va kelajakdagi o‘rni va istiqbollarini ham chuqurroq anglashga intilamiz.

Inklyuziv ta’limning jahon miqyosidagi rivojlanish tarixi. Inklyuziv ta’lim inson huquqlari, tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan holda shakllangan konsepsiya bo‘lib, uning ildizlari uzoq tarixga ega. Biroq, zamonaviy mazmundagi inklyuziv ta’lim tushunchasi asosan XX asrda shakllangan.

Dastlabki bosqichlar XIX asr oxiriga kelib, Yevropa va AQShda nogiron bolalar uchun maxsus maktablar tashkil etila boshlandi. Bu maktablar alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni asosiy ta’lim tizimidan ajratgan holda, ularga alohida ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishga qaratilgan edi. Ushbu yondashuv, odatda, nogironlikni davolanishi kerak bo‘lgan muammo sifatida ko‘rgan tibbiy modelga asoslangan edi. **XX asr – integratsiyadan inkluziyaga** XX asrning o‘rtalaridan boshlab, nogiron o‘quvchilarning ta’lim huquqlarini tan olish, ularni asosiy maktab tizimiga integratsiya qilish harakatlari boshlanadi. **1975-yilda AQShda qabul qilingan “Education for All Handicapped Children Act”** (EHA) nogiron bolalarning bepul va moslashtirilgan ta’lim olish huquqini kafolatlagan birinchi yirik qonunchilik hujjati bo‘ldi.**1994-yil – Salamanka Deklaratsiyasi** Inkluziv ta’lim taraqqiyotida muhim burilish nuqtasi sifatida **1994-yilgi Salamanka Deklaratsiyasi** e’tirof etiladi. Ispaniyaning Salamanka shahrida YUNESKO tashabbusi bilan o‘tkazilgan konferensiyada 90 dan ortiq mamlakat vakillari qatnashib, inklyuziv ta’limni barcha bolalar, jumladan, nogiron va maxsus ehtiyojga ega o‘quvchilar uchun asosiy ta’lim modeli sifatida joriy qilish zarurligini ta’kidladilar. Deklaratsiyada har bir bolaning o‘z qobiliyatiga mos tarzda sifatli ta’lim olish huquqi borligi ta’kidlandi. **XXI asr – barqaror rivojlanish va global yondashuv BMTning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)** doirasida “Sifatli ta’lim” (4-maqsad) inklyuziv, tenglikka asoslangan va sifatli ta’limni targ‘ib qilishga qaratilgan. Hozirda ko‘plab mamlakatlarda inkluziv ta’limni amaliyotga joriy etish bo‘yicha qonunchilik islohotlari, o‘qituvchilarni tayyorlash, o‘quv muhitini moslashtirish va texnologik yechimlar joriy etilmoqda.

O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning shakllanishi va rivojlanishi. O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning rivoji dunyodagi umumiy tendensiyalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, u o‘ziga xos tarixiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlarga asoslangan tarzda shakllangan. Mustaqillikdan keyingi bosqich 1991-yilda mustaqillikka erishganidan so‘ng, O‘zbekiston o‘zining milliy ta’lim tizimini isloh qilishga kirishdi. Dastlabki yillarda inklyuzivlik masalasi ko‘proq maxsus ta’lim doirasida ko‘rib chiqilgan bo‘lsa-da, keyinchalik bu yondashuv bosqichma-bosqich yangilanib bordi. Maxsus ehtiyojli bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar

faoliyat yuritgan, ammo ular ko‘pincha asosiy ta’lim tizimidan ajralgan holda faoliyat ko‘rsatgan. 2006-yilda O‘zbekiston **BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi**ni imzoladi, 2009-yilda esa ratifikatsiya qildi. Bu konvensiya asosida inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha huquqiy va institutsional asoslar mustahkamlandi.Shuningdek, YUNESKO, YUNISEF va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda bir qator inklyuziv ta’lim loyihalari amalga oshirildi. O‘zbekistonda **“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun** va **“Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi qonun**larda inklyuziv ta’limga oid normalar mustahkamlab qo‘yildi.So‘nggi yillarda inklyuziv ta’lim davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2020-yilda Prezident farmoni bilan **“Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish”** choralari belgilandi. Ushbu hujjatda barcha bolalar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish, ta’lim muassasalarini moslashtirish, pedagoglarning malakasini oshirish va psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish ko‘zda tutilgan. 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan **"Inkluziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur"** ham tasdiqlandi. Dastur doirasida umumta’lim maktablarida inklyuziv guruhlar ochilmoqda, maxsus pedagoglar tayyorlanmoqda va o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos resurslar ishlab chiqilmoqda.

Inklyuziv ta'limning ahamiyati

Inklyuziv ta'limning ahamiyati bir qator jihatlarda o'z ifodasini topadi:

1. Barchaga teng imkoniyatlar yaratish: Inklyuziv ta'lim, o'quvchilarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat'i nazar, barchasiga ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Bu, ayniqsa, nogironligi bo'lgan yoki ijtimoiy jihatdan kam ta'minlangan o'quvchilar uchun muhimdir, chunki ular ko'pincha an'anaviy ta'lim tizimidan chetda qoladilar.

2. Ijtimoiy integratsiya va madaniyatlararo hurmat: Inklyuziv ta'lim ijtimoiy integratsiya va madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. O'quvchilar turli ijtimoiy va madaniy muhitlardan kelgan bo'lsa ham, ular bir-biri bilan o'rganish va o'zaro hurmat asosida o'zaro munosabatlarni rivojlantiradilar. Bu yondashuv jamiyatda yanada adolatli va inklyuziv muhitni yaratishga yordam beradi.

3. Diversity(xilma-xillik) va o'rganishning rivojlanishi: Inklyuziv ta'limda turli o'quvchilarni o'qitish imkoniyati ta'lim jarayonini boyitadi. O'quvchilar o'zaro tajriba almashadilar va bir-birlaridan o'rganadilar. Bu esa nafaqat ijtimoiy, balki akademik o'sishga ham yordam beradi. Masalan, nogironligi bo'lgan o'quvchilar o'z tajribalari orqali boshqa o'quvchilarga ham yangi va noyob qarashlarni taqdim etishi mumkin.

4. Emotsional va psixologik rivojlanish: Inklyuziv ta'lim o'quvchilarni o'zlarining individual farqlarini qadrlashga, bir-biriga yordam berishga o'rgatadi. Bu ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, shu bilan birga, o'quvchilar o'zlarini jamiyatda hurmat qilingan va qadrli his qilishadi.

5. Tenglik va adolat prinsiplariga asoslanish: Inklyuziv ta'limda ta'lim olish har bir o'quvchi uchun teng va adolatli sharoitda amalga oshiriladi. Ta'limga kirish

huquqi barcha uchun bir xil, bu esa jamiyatda adolat, tenglik va hamjihatlikni mustahkamlaydi.

6. Nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun ixtisoslashgan yondashuvlar: Inklyuziv ta'lim, nogironligi bo'lgan o'quvchilarga o'ziga mos ta'lim metodikalarini qo'llashni taqozo etadi. Bu o'quvchilarga ta'limni samarali ravishda olish imkoniyatini beradi, masalan, maxsus texnologiyalar, moslashtirilgan materiallar yoki yordamchi o'qituvchilar yordamida. Bu yondashuv faqat nogironligi bo'lgan o'quvchilarning o'qishini yaxshilamaydi, balki barcha o'quvchilar uchun ham ta'limni yanada diversifikatsiyalash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda inklyuziv ta‘limning tarixi va uning ahamiyati ta'lim tizimlaridagi fundamental o‘zgarishlarni aks ettiradi. Dastlab, inklyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan o'quvchilarni an'anaviy ta‘lim tizimlariga kiritishdan iborat bo‘lsa, bugungi kunda u barcha o'quvchilar, shu jumladan ijtimoiy jihatdan kam ta'minlangan va ehtiyojlari maxsus bo'lgan guruhlarni birlashtirishga qaratilgan global ta'lim yondashuviga aylangan. Bu yondashuv ta'limda tenglik, adolat va hamjihatlik prinsiplarini mustahkamlaydi, turli guruhlar o'rtasida ijtimoiy integratsiyani rivojlantiradi va jamiyatda yanada inkluziv, ko'p madaniyatli muhit yaratishga yordam beradi. Inklyuziv ta'limning ahamiyati nafaqat o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirishda, balki ularning emotsional va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda ham yotadi. O'quvchilarga teng imkoniyatlar yaratish, o'zaro hurmat va hamjihatlikni shakllantirish orqali ta'lim tizimi barcha o'quvchilarni jamiyatning faol va mas'uliyatli a'zolariga aylantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ainscow, M., Booth, T., & Dyson, A. (2006). *Improving Schools, Developing Inclusion*. London: Routledge.
2. Florian, L. (2008). "Special or inclusive education: Future trends". *British Journal of Special Education*, 35(4), 202–208.
3. UNESCO. (1994). *The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education*. Paris: UNESCO.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-martdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun inklyuziv ta’limni rivojlantirish to‘g‘risida”gi PQ–5032-son qarori.
5. Booth, T., & Ainscow, M. (2011). *Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools* (3rd ed.). Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education (CSIE).
6. Miles, S., & Singal, N. (2010). "The education for all and inclusive education debate: Conflict, contradiction or opportunity?". *International Journal of Inclusive Education*, 14(1), 1–15.
7. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi. (2022). *Inklyuziv ta’lim konsepsiyasi*. Toshkent: O‘zRV.
8. Slee, R. (2011). *The Irregular School: Exclusion, Schooling and Inclusive Education*. London: Routledge.

9. Loreman, T., Deppeler, J., & Harvey, D. (2010). *Inclusive Education: Supporting Diversity in the Classroom*. London: Routledge.

10. United Nations. (2006). *Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD)*. New York: UN.

ПСИХОЛОГИЯДА ШАХС ИНТЕЛЛЕКТИНИ ЎРГАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Ж.Амиркулов
Қарши давлат университети “Психология”
кафедраси ўқитувчи

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақола шахс иқтидорини ўрганишнинг психологик ўзига хосликлари мавзусига бағишланган. Шунингдек, мақола матнида шахс иқтидорини тушунтирувчи психологик ёндошувлар, классик қарашлар, замонавий психологик концепциялар ҳамда иқтидорли шахсга хос хусусиятлар, иқтидорлиликни белгиловчи психологик детерменанталар, иқтидор ва ижодкорликнинг ўзаро алоқадорлик жиҳатлари, шахс иқтидорини психодиагностик тадқиқ этиш бўйича айрим натижаларнинг шарҳи кабилар ҳам кенг ёритилган.

Калит сўзлар: *Шахс, иқтидор, иқтидорли талаба, психологик ўзига хослик, қобилият, талант, таббий хусусият, ижодкорлик, тафаккурнинг эгилувчанлиги, инновацион тафаккур, кучли хотира, идрок тезлиги, когнитив соҳа, юқори мотивация, ижтимоий фаоллик.*

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена теме психологических особенностей изучения личности. Также в тексте статьи освещены психологические подходы к объяснению индивидуальной одаренности, классические взгляды, современные психологические концепции и характеристики талантливой личности, психологические детерминанты одаренности, аспекты взаимосвязи таланта и творчества, обзор некоторых результатов психодиагностических исследований. исследование индивидуального таланта.

Ключевые слова: *Личность, талант, одаренный школьник, психологическая личность, способность, одаренность, медицинская характеристика, креативность, гибкость мышления, нестандартное мышление, сильная память, скорость познания, познавательное поле, высокая мотивация, социальная активность.*

ANNOTATION

This article is devoted to the topic of psychological peculiarities of studying personality. Also, in the text of the article, psychological approaches explaining the talent of a person, classic views, modern psychological concepts and

characteristics of a talented person, psychological determinants of a talented person, aspects of the interrelationship of talent and creativity, and a review of some results of psychodiagnostic research of a person's talent are also widely covered.

Key words: *Personality, talent, gifted student, psychological personality, ability, giftedness, medical characteristics, creativity, flexibility of thinking, non-standard thinking, strong memory, learning speed, cognitive field, high motivation, social activity.*

Интеллект юқори шахс муаммоси тадқиқотларнинг предмети бўлганлиги боис, уни таърифлашда ва илмий асослашда ўзига хос ёндошувлар мавжуд. Ҳозирга келиб, шахс иқтидорини ўрганишнинг назарий ва амалий масалалари тубдан такомиллашди. Фанда иқтидорли шахснинг таърифи ва ўзига хослиги бўйича турли қарашларни учратиш мумкин.

Инсон акили ироки тафаккури, унинг изланувчанлиги табиатнинг инсониятга берган ажойиб туҳфасидир. Бундай қобилият ҳамма одамларда бўлишига шубҳа йўқ. Бироқ ҳамма инсонлада ҳам бир хилда учравермайди табиат уни балки кимгадир кўпроқ, кимгадир камроқ, кимгадир эса, ушбу туҳфани кечроқ инъом этиши ҳам табиийдир.

Статистик жиҳатдан қаралганда, инсон интеллекти ва уни таърифлаш масалалари қадимги давр алломаларининг таълимотлари тарихи билан узвий боғлиқ саналади. Илк юнон файласуфларидан Афлотун, Суқротларнинг айтишича иқтидор - бу худо томонидан берилган қобилиятдир. Унинг асосида қандайдир ирсий ва табиийлик хусусиятлари мавжуд.0Шу боис, инсон руҳияти ва унинг истеъдоди антик даврда тан олиниши ва тушунилиши энг қийин муаммолардан бири бўлганлиги сабабли, алоҳида кишиларнинг сифат ва қобилиятларини қудратли худо яратган, деб ҳисобланган. Афлотун ўзининг ажойиб ижод намуналарини яратувчининг кучи билан кечаётганлигини тушунди. Яъни инсонда ирсийлик ва орттирилган сифатлари алоҳида ҳодиса эканлигини назарда тутди. Ҳозирги тилимиз билан айтганда, бу битмас-туганмас иқтидор кўриниши эди. Уйғониш даврида европалик олимларнинг кўпчиги истеъдоднинг табиатини тан олиш муаммоси билан шуғулландилар. Улар орасида испан шифокори Хуан Уарте ўз тадқиқотларини сарҳисоб қилар экан, мамлакат келажаги учун авваламбор. Ўрта аср европаликларининг фикрича, агар одамлар бир хил шароитда яшасалар, уларнинг ақли ҳам бир хил бўлар эди. Жон Локк ўзининг "Инсон онги тажрибаси" фалсафий асарида қуйидаги фикрни билдиради: инсонда туғма фикрлар бўлмайди, улар тажриба асосида пайдо бўлади, инсоннинг болаликдаги онги “тоза варақ”га ўхшайди; ҳис этилмаган, ўзлаштирилмаган нарса ақлда бўлолмайди деб таъкидлайди[3,134]. Немис мумтоз файласуфлари Э.Кант ҳам интеллект тушунчасининг ўзига хос хусусиятларини ўрганиб, шу пайтгача тасаввурларда ҳукмрон бўлган фалсафий тушунчаларни такомиллаштириб, инсон иқтидори ва ҳаракатларининг табиатини амалий ўрганиш имкони мавжудлигини

таъкидлаб ўтди[4,94]. Вақт ўтиб, бу муаммо кўплаб хориж психологлари ва педагогларининг энг қизиқ мавзусига айланди. Ўқувчилардаги интеллект хусусиятларини педагогик муаммо сифатида ўрганишнинг илк педагогик масалалари олимлардан Я. А. Коменский, И. Г. Песталоцци, А. Дистервег, Ж. Дюи, К.Д.Ушинский каби кўзга кўринган педагоглар ижодида акс этган. Улар ўз асарларида болаларнинг индивидуал психик хусусиятларига, шунингдек, ўсмир ўқувчиларнинг алоҳида қобилиятларини ривожлантириш зарурлигига алоҳида эътибор беришган. Яъни улар ўз ғоялари орқали халқ саводхонлигини ошириш, индивидуал қобилият ва иқтидор турларини ривожлантириш масалаларини кенг кўламда ўрганишган. Мисол учун, Ж.Дюи иқтидорлилик ҳақида шундай дейди: “Агар табиий ақл фақат ўзини ўраб турган нарсаларни қамраб олса, иқтидор бу - у илгари ҳеч қачон кўрмаган нарсани тан олишга имкон берадиган илғор билимдир”[5, 321]. Муаллиф истеъдоднинг туғма фазилат эканлигини эътироф этиб, инсон қобилиятини ривожлантиришга таълим ва тарбия, меҳнат, атроф-муҳитнинг таъсири катта эканлигини таъкидлаб ўтади. А.Дистерверг эса, интеллекти юқори - инсон табиатининг бир бўлаги, табиатнинг инсонга берган ажойиб совғаси, туғилишданоқ билиш ва англаш истаги, деб таърифлайди”[6,57]. Аммо бола улғайган сари бу сифатни аста-секин йўқотади. Муаллиф инсоннинг тафаккури, онги меҳнат фаолияти жараёнида шаклланади, деган хулосага келади. Юқоридаги олимларнинг қарашларидан фарқли ўлароқ, иқтидорлилик, интеллекти юқори ўқувчи, иқтидорлиликнинг ёш хусусиятлари каби масалалар кўплаб хориж ва маҳаллий психологларнинг илмий изланишларида яхши акс эттирилган. Бундай психолог олимлар гуруҳига Л. С.Выготский, Б.Г.Ананьев, В. А. Крутецкий, Н. Лейтес, В. Теплов, В.В.Богословского, А.Г.Ковалева, А.М. Матюшкин, К.К. Платонов, Я.А. Пономарев, В.Д. Шадриков кабилар киритилса, маҳаллий олимларимиздан М.Г.Давлетшин, Б.Р.Қодиров, Э.Ғ.Ғозиев, Р.И.Суннатова, З.Т.Нишанова, Н.Г.Камилова кабиларнинг изланишлари бунга яққол мисолдир. Рус психологларининг интеллектуали юқори педагогик ва психологик қўллаб-қувватлаш борасидаги хулосалари, иқтидорлиликни ривожлантиришга яхлит индивидуал таълим сифатида қараш ёки унга тизимли ёндашувнинг туғилишига асос бўлди. Ва бу кейинчалик, инсон интеллектнинг таркибий қисмларини аниқлашга имкон кенг берди. Маҳаллий психологларнинг илмий ғоялари эса, иқтидорли ўқувчилар таълими ва уни психодиагностик ўрганиш, иқтидорлилик тестларини яратиш ва мавжудларини миллий муҳитга мослаштириш ишларини жадаллик билан ривожлантирди. Охирги ўн йил давомида етакчи психолог олимлар томонидан, иқтидорлиликни тушунтирувчи қуйидаги назарий концепциялар ишлаб чиқилди:

– Яъни ёшни интеллектуал интеллек феноменига мослаштириш концепцияси (Н. С. Леитес);

– Интеллектуоли юқори инсон ижодкорлигининг намоён бўлиши сифатида ёндашиш (А. М. Матюшкин, В. С. Юркевич):

– Интеллектлиликнинг динамик назарияси (Й.Д. Бабаева, Н. А.Дарханов, М. А. Холодная):

– Шахснинг экопсикологик ривожланиши ёки интеллект ривожланишга экопсихологик ёндашув (В. В. Панов).

Ҳозирги психологияда шахс иқтидорини тушунтирувчи кўплаб назарий ёндошувлар мавжуд бўлиб, улар орқали айрим тадқиқотлар иқтидорли шахсларнинг психологик хусусиятларини тушунтирувчи ўзига хос моделлар ишлаб чиқишган.

А.И.Совенков ўзининг “интеллекти юқори шахс” моделида асосий компонентлар саналган мотивация ёки ориентация, ижодкорлик каби психологик даражаларни, ўртачадан юқори бўлган қобилият турлари деб таъкидлайди ва иқтидорли ёшларга хос қуйидаги психологик хусусиятларни ажратиб ўтади[9,77]:

– Билимга аниқ қизиқиш;

– Қувонч ва қониқиш келтирадиган қатъиятлилик ва меҳнатсеварлик билан бирга келадиган ақлий фаолият;

– Ўз-ўзини тарбиялаш, ижодий тадқиқот фаолиятига интилиш ва қизиқиш;

– Ўқув машғулотлари ва мактабдан ташқари тадбирларнинг турли шаклларида иштирок этишга интилиш;

– Ўз-ўзини баҳолаш, ривожлантириш, ўз-ўзини англаш, ўз-ўзини такомиллаштириш, ўз ҳаракатларини ўз-ўзини баҳолаш кабиларга бўлган қобилият;

– Ихтиёрий босимга, башорат қилишга, ғояларни яратишга, диққатни жамлашга тайёрликнинг юқори даражаси;

– Индивидуаллик, тезкор фикрлаш, хулқ-атвор вазифаларини ҳал қилиш қобилияти.

– Шахсий масъулиятнинг онгли намоён бўлиши;

– Юқори даражадаги таъсирчанлик, сезгирлик ва итоаткорликнинг мавжудлиги ва ҳоказо. Демак, шахс иқтидорини эмпирик жиҳатдан тадқиқ этиш, мураккаб вазифа саналиб, у ҳар бир мутахассис психологлар учун долзарб вазифалар юклайди. Чунки, иқтидорлиликнинг турлари кўп бўлганлиги боис, уларни аниқлашнинг психодиагностик тестлари, анкеталари ва методик апарати ҳам хилма-хил бўлиши лозим саналади. Яъни қобилиятларни аниқлаш тести, интеллект даражасини баҳолаш сўровномалари, умумий саводхонлик тестлари, психосоциал хусусиятларни аниқлаш методикалари кабилардан кенг фойдаланиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Таъкид жоизки, иқтидорли ёшларни ўқитиш ва тарбиялашда ҳар бир педагогларнинг ўрни ўта муҳим ҳисобланади. Ўқитувчининг юксак касбий савияси нафақат фанни чуқур билиш билан, балки ижодкор шахсни тарбиялаш маҳорати билан ҳам характерланади. Ўқитувчи ўқувчиларни инновацион тарзда ижодий жараёнга сафарбар эта олиши, уларнинг фаоллигини, мустақиллигини, ташаббускорлигини ўз вақтида рағбатлантира

олиши керак. Шу билан бирга, ўз фанини тезкор ўзлаштиришнинг психологик хусусиятларини, ўқувчиларнинг индивидуал когнитив имкониятларини яхши билиши, ўз диққатини тўғри тақсимлай олиши, ўқувчилар билан ўзаро муносабат усулларини яхши режалаштира олиш маҳорати, когнитив жараённинг боришини башорат қила олиш, унинг натижасини кўриш қобилияти каби сифатларга ҳам эга бўлиши лозим.

Хотима қилиб айтганда, интеллект – шахснинг ҳар томонлама ривожланиш манбаи, шахснинг тафаккур даражаси ва ўзига хос фаоллигини келтириб чиқарадиган индивидуал қобилиятларнинг энг юқори ривожланиш натижасидир. Интеллект юқори ёшлар таълим жараёнида, бошқа тенгдошларидан ўзларининг диққатлилик, тез фикрлаш, тез натижаларга эришиш, тез ривожланиш, ғайриоддий қизиқувчанлик, кўп савол бериш ва жавоб топишдаги талабчанлик, кенг билимларни эгаллаш, юқори хотира, интеллектуал ривожланишнинг ўзига хос тезлиги, билим ва янги нарсаларни яхши кўрадиган, олинган билимларни исталган вақтда эслай олувчи ва ундан самарали фойдалана оладиган ёшлардир. Замонавий психологиянинг энг асосий мақсадларидан бири бу, ҳар бир ўқувчининг индивидуал хусусиятларини ривожлантириш, уларнинг қобилиятларини ҳисобга олган ҳолда, иқтидорлилик учун алоҳида шарт-шароитларни яратишдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. А.С. Клеванов Обозрение философской деятельности Платона и Сократа / А.С. Клеванов. - Москва: Гостехиздат, 2012. - 838 с.
2. Хуан Уарте. Исследование способностей к наукам: пер.с исп. - М., вт.Изд. 2015. – 235 с.
3. Локк Дж. Два трактата о правлении. Политогия. - Х.: Фолио, 2001. – 831с.
4. Донских, О.А. Античная философия. Мифология в зеркале рефлексии / О.А. Донских. - Москва: Огни**,** 2010. – 535 с.
5. Античная философия. Энциклопедический словарь. - М.: Прогресс-традиция, 2015. – 896 с.
6. Hebb D. The organization of behavior. New York: Wiley. (Reprint) 2010 . – PP.152.
7. Галътон Ф. Наследственность таланта, ее законы и последствия. М.: Мысль, 1996. – 272 с.
8. Дж. Рензулли. Модель обогащающего школьного обучения: практическая программа стимулирования одаренности детей // Особенности современные концепции творчества и одаренности. М., Молодая гвардия, М. 2014 . – С.214-242.
9. Венгер Л.А.Психология: учебное пособие / Л.А. Венгер, В.С. Мухина. - М.: Просвещение, 2006. – 347с.
10. Лейтес Н.С О признаках детской одаренности// Вопросы психологии. - 2003. – №4. - с. 13 - 18.

ОСОБЕННОСТИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО СОПРОВОЖДЕНИЯ ПРОБЛЕМ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Докторант 1-го курса Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами Ашурова Ш.Ф.
+998942652444 Shaxnoza1297@gmail.com

Аннотация: В данной статье излагается взгляд ведущих психологов, восточных мыслителей и узбекских психологов на состояние образованности проблем общения учащихся младшего школьного возраста, причины возникновения проблем и пути решения этих проблем.

Ключевые слова: востоковеды, зарубежные психологи, зона ближайшего развития, общение, родители, сверстники, учителя, социальная среда.

FEATURES OF PSYCHOLOGICAL SUPPORT OF INTERACTION PROBLEMS IN THE FORMATION OF THE PERSONALITY OF PRIMARY SCHOOL CHILDREN

Doctoral student of the 1st year of the Tashkent State Pedagogical University named after Nizami Ashurova Sh.F.
.+998942652444 Shaxnoza1297@gmail.com

Abstract: The article below describes the state of research on the problems of communication of primary school students, the causes of the problem and the views of foreign psychologists, oriental thinkers and Uzbek psychologists on solutions to these problems.

Keywords: oriental scholars, foreign psychologists, zone of proximal development, communication, parents, peers, teachers, social environment**.**

Мы все знаем, что в нынешнюю эпоху глобализации все усилия направляются на развитие системы образования. Проблема общения в зарубежной психологии широко изучалась многими исследователями, а общение является одним из важных факторов формирования личности учащихся младшего школьного возраста. Общение является основным инструментом в развитии личности ребенка, социальной адаптации и эмоционально-интеллектуальном становлении. Особенно в этот период общение ребенка с окружающими его людьми — учителями, родителями и сверстниками — напрямую влияет на уровень его речевой, нравственной и эмоциональной зрелости. Исследования данной проблемы показывают, что процесс общения играет решающую роль в формировании уверенности ребенка в себе, повышении его мотивации к обучению, обеспечении эффективности процесса социализации. Такие ученые, как Л.С. Выготский,

А.Н. Леонтьев, Д.Б. Эльконин в своих работах глубоко исследовали взаимосвязь общения и развития личности ребенка. Актуальность данной темы связана с тем, что в процессе обучения младшие школьники не только приобретают знания и умения, но и адаптируются в обществе, полноценно формируют собственную личность..[1].

Общение играет важную роль в формировании личности учащихся младших классов. Как только дети поступают в школу, они попадают в новую социальную среду, и через общение они устанавливают отношения с окружающими, приобретают социальный опыт, формируют личностные качества. Таким образом, мы видим, что влияние общения на личностное развитие детей широко изучалось в психологии. .[2].

Исследования показывают, что общение необходимо детям для ясного выражения своих мыслей, адаптации к социальной среде, управления эмоциями и когнитивного развития. Кроме того, эффективное общение между учениками, их учителями и сверстниками оказывает положительное влияние на их образовательную мотивацию и психологическое благополучие.

Л.С. Выготский считал, что проблемы общения у младших школьников связаны с их социальным и познавательным развитием. По его мнению, дети взаимодействуют с обществом посредством речи и мышления, постепенно овладевая познавательными процессами более высокого уровня.[3]

Л.С. Выготский в качестве основных проблем общения младших школьников выделил следующие: Неполное формирование понятий - дети испытывают трудности с пониманием и использованием сложных понятий;

Отсутствие опыта общения — у детей школьного возраста возникают проблемы с ясным выражением своих мыслей и пониманием других, поскольку они еще не до конца усвоили правила социального общения;

Социальный контекст обучения - общение ребёнка зависит от взаимодействия с окружающей средой, учителями и сверстниками, и неправильные педагогические подходы могут негативно сказаться на его речевом развитии. Л.С.Выготский («Мышление и речь», 1934) В этой работе он анализирует взаимосвязь познавательных процессов детей и речевого развития. Выготский также выдвинул концепцию «зоны ближайшего развития», подчеркивая, что дети развиваются в процессе общения и обучения с помощью учителя или более опытных сверстников.[4]

По мнению О. М. Казарцевой, любой взрослый человек, будь то родитель или педагог, общаясь с ребенком, прежде всего должен чувствовать присущую ему ответственность[7].

В противовес вышеизложенным мнениям Я.Л.Колманский [8] считает наиболее подходящими для ребенка образцами для подражания взрослых, обладающих высокой квалификацией в общении. В процессе взаимодействия со взрослыми ребенок усваивает нормы и способы общения и принимает этот процесс как естественный. На этой основе у ребенка формируется свой собственный, неповторимый стиль общения.

В своей книге «Первый учитель» Абдулла Авлони (1878-1934) учит, что для воспитания детей как всесторонне развитых личностей воспитательная работа должна проводиться в соответствии с их возрастом и способностями. В своей работе «Турецкая роза или нравственность» он рассуждает о таких качествах личности, как искренность, гуманность, человеческие качества, уважение, целомудрие, вера, справедливость, терпение. «По его мнению, в формировании нравственных качеств ребенка большое значение имеют социальная среда, семейные обстоятельства и окружающие люди»[5].

Авлони также придает особое значение роли родителей в воспитании личности ребенка: «Воспитывайте душу каждого человека в этом мире, но в конечном итоге воспитывайте душу мира» [6].

Психологические подходы Развитие речевых и коммуникативных навыков Проведение интерактивных игр для увеличения словарного запаса детей. Сотрудничество с логопедами и педагогами. Развитие речевой активности через рассказывание историй и ролевые игры. Формирование социальных навыков Организация групповой деятельности. Проведение занятий по эмпатии и сочувствию. Обучение методам решения социальных проблем через интересные ситуативные игры. Поощрение детей к повышению уверенности в себе и обучение их позитивному мышлению. Поощрение самовыражения через психологические упражнения. Индивидуальная работа с детьми, у которых не хватает уверенности в себе. Снижение агрессии и управление эмоциями Проведение специальных занятий по выражению эмоций. Выражение эмоций через арт-терапию (рисунок, живопись, кукольный театр).

В заключение можно сказать, что в каждом возрасте непременно возникают проблемы общения, и нам необходимо решать такие проблемы с иностранцами. Основной программой служат источники, оставленные узбекским и рядом других ученых-психологов.

ЛИТЕРАТУРА

1.Ashurova, s. (2024). boshlang’ich sinf o’qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash istiqbollari psixolgik xususiyatlari. *журнал педагогики и психологии в современном образовании*, 441-444.

2.Ashurova, s. (2024). boshlang’ich sinf o’quvchilarini samarali muloqotga o’rgatishning o’ziga xos usullar. *журнал педагогики и психологии в современном образовании*, 111-116.

3.Ashurova shaxnoza faxriddin qizi. (2025). kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar muloqotidagi qiyinchiliklarga psixologik yondashuv. international conference on interdisciplinary science, 2(3), 79–81. https://doi.org/10.5281/zenodo.15034380

4.Ashurova shaxnoza faxriddin qizi. (2025). kichik maktab yoshidagi o'quvchilar muloqotidagi asosiy muammolarning o'ziga xosligi. international conference on modern development of pedagogy and linguistics, 2(3), 14–16. https://doi.org/10.5281/zenodo.15041683sychological characteristics

5.Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - T.O ‘qituvchi, 1992. 11 b.
6.Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - T.O ‘qituvchi, 1992. 15 b.
7.Казарцева Кулътура речвова обшения теорея и практика обучения – М: Наука 2001-56-с
8.Колминский Я. Л. Психология детского коллектива личных взаимоотношений. – М: Знание, 2004 -45 с.

MUAMMOLI TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA O‘QITUVCHI KASBIY KOMPETENSIYASINING ROLI

Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna
Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi,
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim
metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi
+998972456806
atayevabaxrinsa@gmail.com

ANNOTATSIYA
Maqolada muammoli ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining o‘rniga to‘xtalgan holda uning namoyon bo‘lishi va rivojlanish jarayonlari tahlil etilgan.
Kalit so‘zlar: muammo, muammoli savol, muammoli vazifa, muammoli topshiriq, muammoli vaziyat, o‘qituvchi, kompetensiya.
АННОТАЦИЯ
В статье рассматривается анализ развития и важности профессиональной компетентности преподавателя в организации проблемного учебного процесса.
Ключевые слова: проблема, проблемный вопрос, проблемная задача, проблемная ситуация, компетентность преподавателя.
ABSTRACT
This article clarifies the importance and development teachers’ professional competence in organization of the problematic educational process.
Keywords: problem, problematic question, problematic task, problematic situation, teachers’ competence.

Muammoli ta’limning asosiy maqsadi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning sifat bosqichi talablari asosida bilim oluvchilarning mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkurini rivojlantirish, o‘zlashtirilgan bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishini kuchaytirishdan iboratdir. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda muammoli ta’limning ilmiy-nazariy asoslari haqida gap borganda, uni ta’limning metodi, prinsipi yoki alohida tizim sifatida hisoblash holatlari uchraydi. Muammoli ta’limni qanday nomlashdan qat’iy nazar, uning asosiy xususiyati - bilim oluvchining aqliy faolligini oshirish, mustaqil, ilmiy, ijodiy izlanish, o‘zi uchun

yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni kashf etishdan iboratdir. Demak, muayyan mavzuni muammo shaklida olib chiqish yo‘li bilan egallanadigan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisiga muammoli ta’lim deyiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim jarayoni tashkil etilganda, bilim egallashning bir qancha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bosqichlari mavjud bo‘lib, tayyor bilimlarni o‘quvchi ongiga yetkazish, esga olish, esda saqlash, qayta esga tushirish, so‘zlab berish, yozma ifodalash kabi holatlar bilish, tushunish darajalarini ifodalaydi. Bu darajalarda bilim oluvchidan ijodiy yondashuv talab etilmaydi. O‘zlashtirishning keyingi darajalarida o‘quvchilar olgan bilimlarini amalda tatbiq etish, ma’lum natijalarni qo‘lga kiritish, to‘ldirish, boyitish, o‘zgartirish, o‘zining mustaqil nuqtai nazariga ega bo‘lish talab etiladi. O‘zlashtirish darajalari uchun bunday muammoli yondashuv ahamiyatli hisoblanadi.

Respublikamizda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta’lim tizimi jarayoniga tatbiq etilishi muammoli ta’limni hozirgi sharoitda dolzarb pedagogik masalaga aylantirdi.

Muammoli ta’lim o‘ziga xos maxsus tushunchalarga ega bo‘lib, ularning mohiyatini bilmasdan turib, mashg‘ulotlarni muammoli tarzda tashkil etib bo‘lmaydi.

Muammoli ta’lim quyidagi asosiy tushunchalarga ega:

muammo, muammoli savol, muammoli vazifa, muammoli topshiriq, muammoli vaziyat. Bu jarayonni tashkil etishda o‘qituvchining quyidagi kasbiy kompetensiyalari asosiy o‘rin tutadi:

- Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo‘lish;
- O‘z ustida ishlash;
- Ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o‘rnata olish;
- O‘quvchilarda motivatsiyani shakllantirish;
- AKTni bilishi;
- Ta’lim muhitiga yangilik kiritishi;
- O‘z fanini mukammal bilishi;
- Xorijiy tillardan birini bilishi.

Kasbiy kompetentsiyani shakllanish bosqichlari:

- O‘z-o‘zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
- O‘zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;
- O‘zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish;

Muammoli ta’limning asosiy tushunchalariga izoh berishdan oldin, tayyor bilimlarning o‘qituvchi tomonidan berilishi yoki o‘quvchining mustaqil egallashining izohli-ko‘rgazmali metodi natijasi sifatida aniq tasavvurlar hosil qiladigan, ongda saqlanadigan, zarur bo‘lganda qayta tiklanishini aniqlaydigan axborot shaklidagi savolni tushunish o‘rinlidir.

Axborot shaklidagi savol: tayyor javobi bo‘lgan, xotiradagi bilimlarga tayanib yechimi topiladigan holat bo‘lib, “Nima?, Kim?, Qachon?, Qayerda?, Qanday?, Qancha?, Qaysi?” kabi so‘roqlar asosida ularning javobi aniqlanadi.

Muammoli ta’limning dastlabki tushunchasi muammo hisoblanadi. Muammo yunoncha “problem” so‘zidan olingan bo‘lib, vazifa, topshiriq degan ma’noni anglatadi. Tayyor javobi bo‘lmagan, o‘rganish, tadqiq etishni talab qiladigan nazariy yoki amaliy masala muammo hisoblanadi.

Inson hayoti va faoliyati jarayonida cheksiz muammolarga duch keladi. Shaxsiy muammolar, ijtimoiy muammolar, turmush muammolari, ta’lim-tarbiya muammolari va boshqalar. Bularning har biri o‘ziga xos yechim yo‘llariga ega. Ta’limiy muammolar bilim oluvchidan aqliy operatsiyalarni bajarishni talab etadi. Bu operatsiyalar muammoli holatning xususiyatidan kelib chiqib, bir-biridan farq qiladi. Muammoli savolda bajariladigan aqliy operatsiya muammoli vazifanikidan, muammoli topshiriqda bajariladiganlari muammoli vaziyatnikidan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Muammoli ta’limning keyingi asosiy tushunchasi muammoli savol sanaladi. Muammoli savol axborot shaklidagi savoldan farqli o‘laroq tafakkur qilish yo‘li bilan izlangan noma’lumni topishni ta’minlaydigan so‘roq bo‘lib, alohida holda, muammoli vaziyat va vazifalarning tarkibida bo‘lishi mumkin. Muammoli savolga fikr yuritish orqali javob topiladi.

“Nima uchun, nima sababdan, buni qanday tushunsa bo‘ladi, bundan qanday xulosa chiqarish mumkin ...?” kabi so‘roqlar muammoli savol paydo bo‘lishini ta’minlaydi.

Bir nechta yechimini kutayotgan muammoli savolning bir-biriga bog‘liq holda qo‘yilishi muammoli vazifani keltirib chiqaradi. Muammoli vazifa sharti aniq bo‘lgan, kimdir tomonidan hosil qilingan, javobini topish doirasi cheklangan didaktik tushunchadir.

Muammoli vazifaning mazmuni bilim oluvchiga aniq bo‘lgan masalaning noanig‘i bilan ziddiyatlashuvidan iboratdir. Noaniq topilishi zarur bo‘lib, izlanishni, fikrlashni, mantiqiy xulosalar chiqarishni ta’minlaydi. Muammoli vazifa, albatta, vazifa beruvchi tomonidan hosil qilinadi.

Muammoli savol va vazifalar birgalikda muammoli topshiriqning tarkibida kelishi mumkin. Muammoli topshiriq – o‘qituvchi, ta’lim beruvchi, kitob muallifi tomonidan muammoli savol va vazifa shaklida bilim oluvchini muammoli vaziyatga tushiradigan o‘quv topshirig‘idir.

Muammoli topshiriqda muammoli savol va vazifalarning elementlari mavjud bo‘ladi. Shuning uchun ham muammoli vaziyatga olib kiradi.

Muammoli topshiriqning yechimini hal etishda uning qo‘yilish sharti muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, muammoli savol, vazifalarning elementlari birgalikda muammoli topshiriqni tashkil etadi va muammoli topshiriq esa o‘z navbatida muammoli vaziyatga olib kiradi.

Muammoli vaziyat - subyektning psixologik holati bo‘lib, muammo bilan duch kelganda aqliy qiyinchilikning paydo bo‘lishi zudlik bilan hal qilishga halaqit beradigan yangi bilim va harakat usullarni izlash, ularni topib, hosil bo‘lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishni ta’minlaydi.

Muammoli holat shaxsni yangi bilimlar olishga da’vat etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.A. Madyarova va boshqalar. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009.
2. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2013.
3. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017.
4. Sh.S. Shodmonova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: “Fan va texnologiya”. 2019.

ZAMONAVIY TA’LIMDA KONSTRUKTIVIZM: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR VA PEDAGOGIK-AMALIY NATIJALAR

Amirullayeva Barno Abdulhaqovna
SamVPMM fizika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada konstruktivistik ta’lim nazariyasining zamonaviy ta’limdagi o‘rni, nazariy asoslari va amaliy oqibatlari tahlil qilinadi. Jan Piaje va L.Vygotskiy qarashlari asosida bilimning faol qurilishi, o‘quvchining mustaqil va ijtimoiy ishtirokiga asoslangan o‘quv jarayoni yoritiladi. Kognitiv rivojlanish, tafakkur, tanqidiy fikrlash va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarining shakllanishi ham tahlil qilingan. Konstruktivistik metodlar yetarlicha qo‘llanilmaganda yuzaga keladigan muammolar va bu yondashuv orqali ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Аннотация. В статье анализируется роль конструктивистской теории обучения в современном образовании, её теоретические основы и практические последствия. На основе взглядов Жана Пиаже и Л.С. Выготского освещается процесс активного конструирования знаний и организация учебного процесса, основанного на самостоятельном и социальном участии учащихся. Также рассматриваются формирование когнитивного развития, мышления, критического мышления и навыков саморегуляции. Обсуждаются проблемы, возникающие при недостаточном применении конструктивистских методов, и возможности повышения эффективности образования с использованием данного подхода.

Abstract. This article analyzes the role, theoretical foundations, and practical implications of constructivist learning theory in modern education. Based on the views of Jean Piaget and L. Vygotsky, it highlights the process of active knowledge construction and the learning environment centered on the learner's independent and social engagement. The formation of cognitive development, thinking, critical reasoning, and self-regulation skills is also examined. Additionally, the article discusses the challenges arising from the insufficient application of constructivist methods and explores the potential of this approach to enhance educational effectiveness.

Kalit so‘zlar. Konstruktivizm, Lev Vigotskiy, Jan Piage, o‘quvchi markazli yondashuv, bilimni faol qurilishi, konstruktivizm ta’lim tamoyillari.

Ключевые слова: Конструктивизм, Лев Выготский, Жан Пиаже, ученико-центрированный подход, активное конструирование знаний, принципы конструктивистского обучения.

Keywords: Constructivism, Lev Vygotsky, Jean Piaget, learner-centered approach, active knowledge construction, principles of constructivist education.

Zamonaviy ta’lim jarayonida bilimni passiv qabul qilish emas, balki uni faol qurish jarayoni ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Konstruktivizm nazariyasi shunday ta’limga nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning negizida o‘quvchi bilimni o‘zi faol ravishda tuzadi, tajriba va ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali yangi tushunchalarni shakllantiradi degan g‘oya yotadi. Bu nazariya o‘quvchining o‘quv muhiti bilan mustaqil o‘zaro munosabatda bo‘lishi va uni idrok etishi, shuningdek, nimani o‘rganishdan ko‘ra, yangi bilimlarning qanday o‘zlashtirilishi jarayoniga e’tibor qaratishga o‘tish paradigmasini tasvirlaydi [1]. **O‘quvchilar o‘z tajribalarini va o‘quv muhitini kontekstual jihatdan tushungan holda, autentik o‘quv faoliyatlari bilan uyg‘unlashtirilgan tajribalar orqali o‘rganish motivatsiyasi oshadi.** Konstruktivist o‘rganish – bu o‘quvchilarning bilimni mustaqil ravishda olishlari va yangi tushunchalarga erishish uchun bu bilimni qayta tashkil etish jarayonidir [2]. Bundan tashqari, nazariya o‘quv jarayonlarini idrok etish, talqin qilish va undan mazmun qurishni o‘z ichiga oladi.

O‘rganish jarayoni yoki kognitiv rivojlanish birinchi marta Jan Piaje tomonidan yoritilgan. **Kognitiv rivojlanish, ma’lumotni passiv qabul qilish o‘rniga, bilimni faol qurish jarayoni bilan tavsiflanadi**. Shuningdek, Piaje kognitiv rivojlanishning bosqichli nazariyasini taklif qiladi: sensorimotor, preoperatsional, aniq operatsional va formal operatsional bosqichlardir. Sensorimotor bosqich 0-2 yoshdagi bolalarda, preoperatsional bosqich 2-7 yosh, aniq operatsional bosqich 7-11 yosh, formal operatsional bosqich esa 11 yoshdan boshlab o‘smirlik davrigacha davom etadi [3].

Rubtsov Piaje nazariyasining asosiy tamoyillarini quyidagicha umumlashtirdi:

1. Aql harakat asosida quriladi (Aql bu – faoliyat mahsuli. U harakat orqali o‘sadi.).
2. Harakat intellektual rivojlanish manbaidir.
3. Tafakkur – bu harakatni siqilgan (ya’ni konsentratsiyalashgan) shaklda o‘zida mujassam etgan ongiy faoliyatdir.
4. **Kognitiv rivojlanish, o‘quvchining atrof-muhit ob’ektlari bilan faol sensorimotor o‘zaro ta’sir jarayonlarining tizimli natijasidir. O‘quvchining aqliy (kognitiv) rivojlanishi - u o‘z qo‘li bilan bajaradigan real harakatlar asosida shakllanadi.** Bilim faqat eshitishdan emas, **harakat, tajriba va faol ishtirok orqali** paydo bo‘ladi.

Piaje kognitiv rivojlanish nazariyasi sub’ektning aql-idrok qobiliyatini rivojlantirish usullariga qaratilgan bo‘lsa ham, u aql-idrokning shaxsning ijtimoiylashuvi bilan bog‘liqligini ham tan olgan [4]. Shuningdek, Rubtsov

ijtimoiylashishning hamkorlik va birgalikdagi faoliyatsiz amalga oshirib bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Faol o‘rganish o‘quvchilar uchun ijtimoiylashish imkoniyatlarini ta’minlaydi, shuningdek tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradi va unga ta’sir qiladi. Kognitiv rivojlanishning har bir o‘quvchida individual variatsiyalarga ega ekanligini tan olish pedagogik jihatdan muhimdir. Piajening kognitiv konstruktivizm nazariyasi ta’limni tashkil etishda:

1. Bilim izlash jarayonida o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olishni;
2. Har bir shaxsning ontogenetik rivojlanish trayektoriyasiga mos keladigan o‘zlashtirish sur’atini e’tiborga olishni nazarda tutadi [1].

Jan Piagening kognitiv rivojlanish haqidagi nazariy tadqiqotlari bilan bir vaqtda Lev Semyonovich Vigotskiy ham ijtimoiy o‘zaro ta’sir va kognitiv rivojlanish o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlikni o‘rganar edi. U o‘z nazariyasida hamkorlikka asoslangan faoliyat hamda bilimning ijtimoiy kontekstdan individual sub’ektga o‘tkazilishi natijasida yuqori darajadagi aqliy funksiyalarning shakllanishi, ya’ni kognitiv rivojlanishning faollashishi sodir bo‘lishini ilgari surgan [4]. Piaje va Vigotskiy yetakchi konstruktivist nazariyotchilardir. Konstruktivistik o‘rganish jarayoni o‘z-o‘zini boshqarishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u o‘quvchining real hayotdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan amaliy faoliyati orqali bilimni mustaqil ravishda qurishini nazarda tutadi. Konstruktivistik o‘rganish nazariyasi o‘quvchi markazli yondashuv bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u o‘qituvchiga yo‘naltirilgan ta’limdan o‘quvchi tomonidan boshqariladigan, interaktiv va hamkorlikka asoslangan o‘quv muhitiga bosqichma-bosqich o‘tishni tavsiflaydi. Shu o‘rinda konstruktivizm nazariyasi tamoyillariga to‘xtalib o‘tish joizdir (1-rasm).



1-rasm. Konstruktivizm ta’lim nazariyasida ta’lim tamoyillari

Ta’limda konstruktivist o‘qitish usullarini qo‘llamaslik o‘quvchilarning natijalarini pasaytiradi. Konstruktivistik pedagogik yondashuvlarning amaliyotda yetarli darajada qo‘llanilmasligi, o‘quvchilarning analogik fikrlash va misollar

orqali bilimlarini mustaqil tarzda strukturaviy shakllantirish qobiliyatining cheklanishiga olib keladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan konstruktivistik nazariya o‘quvchining o‘quv muhiti bilan faol o‘zaro ta’siri va bu muhitni shaxsiy tajriba asosida sub’ektiv tarzda idrok etish paradigmasini ifodalaydi. Konstruktivistik nazariya, shuningdek, nimani o‘rganishdan ko‘ra, yangi bilimlarning qanday shakllanishi va o‘zlashtirilishi jarayoniga e’tibor qaratishni nazarda tutadi. Mazkur konsepsiyaning tarixiy ildizlari Jan Piajening kognitiv rivojlanish haqidagi dastlabki nazariyalariga borib taqaladi. Piaje insonning bilimni tayyor holda qabul qilmasdan, balki uni faol tarzda o‘z tajribasi orqali qurishi natijasida kognitiv rivojlanish sodir bo‘lishini ta’kidlagan.

Konstruktivistik nazariya o‘rganishga yo‘naltirilgan muammoli kontekstni qo‘llab-quvvatlaydi. Unga ko‘ra, o‘quvchilar ijtimoiy o‘zaro hamkorlik imkoniyatlari mavjud bo‘lgan, bilim almashinuvi va birgalikda kognitiv faoliyat olib borilishi ta’minlangan muhitda samarali tarzda o‘zlashtiradilar. Ta’lim jarayonida konstruktivistik o‘qitish yondashuvlarining yetarli darajada qo‘llanilmasligi esa, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishiga to‘sqinlik qiladi hamda o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi ishtiroki va akademik yutuqlari pasayishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mohammed S., Kinyo L. Constructivist theory as a foundation for the utilization of digital technology in the lifelong learning process. Turkish Online Journal of Distance Education, 21(4), 2020.- p.90–109.

2. Parrish A.H., Sadera W.A. Teaching competencies for student-centered, one-to-one learning environments: A delphi study. Journal of Educational Computing Research, 57(8), 2020.-p.1910–1934.

3. Powell K.C., Kalina C.J. Cognitive and social constructivism: Developing tools for an effective classroom. Education, 130(2),2009.-p.241–250.

4. Rubtsov V.V. Two approaches to the problem of development in the context of social interactions: L.S.Vygotsky vs J.Piaget. Культурно-Историческая Психология, 16(3), 2020.-p.5–14.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TENDENSIYALAR VA ZAMONAVIY O'QITUVCHI

Baqoyeva Mubina Ibodilloyevna
Buxoro viloyat Pedagogik mahorat markazi,
"Pedagogika va psixologiya, ta'lim
texnologiyalari" kafedrasi o'qituvchisi
mubina1202.@gmail.com
Tel: +99893-459-54-59

Annotatsiya

Maqolada hozirgi zamon pedagogikasining mazmun-mohiyati, uning rivojlanish omillari, shart-sharoitlari haqida qisqacha ma'lumot berilgan va zamonaviy pedagogik taraqqiyotning asosiy yo'nalishlari, xususiyatlari bayon qilingan, shuningdek ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishda zamonaviy o'qituvchining roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tendensiya, rivojlanish, zamonaviy o'qituvchi, mentor, coordinator, fasilitator, stimul

"Tendensiya" so'zi lotin tilidagi "tendere" fe'lidan olingan bo'lib, u quyidagi ma'nolarni anglatadi: muayyan yo'nalishdagi rivojlanish, intilish yoki moyillik. Ushbu maqolada zamonaviy tendensiya haqida gap borar ekan, aynan, hozirgi zamon pedagogikasining mazmun-mohiyati, uning rivojlanish omillari, shart-sharoitlari haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

Zamonaviy pedagogik taraqqiyot — bu ta'lim jarayonining doimiy yangilanishi, ilmiy-texnikaviy yutuqlar, ijtimoiy ehtiyojlar va shaxsiy rivojlanish talablariga mos ravishda pedagogik nazariya va amaliyotning takomillashib borishi demakdir. Zamonaviy pedagogikaning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim
2. Ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash
3. Kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish
4. Ko'nikmalar asosidagi (kompetensiyaviy) yondashuv
5. Hayot davomida ta'lim (Lifelong Learning)
6. Hamkorlikda o'rganish va loyiha asosidagi ta'lim
7. Pedagogik innovatsiyalar
8. O'qituvchining roli o'zgarishi
9. Ta'lim sifatini baholashdagi yangiliklar
10. Inkluziv va adolatli ta'lim

Ko'rinib turibdiki, zamonaviy pedagogika o'z ichiga shaxs rivojlanishining eng ratsional jihatlariga e'tibor qaratadi, chunki shaxsning zamon talabiga mosligi — bu insonning o'z zamonasi bilan hamqadam bo'la olishi, ijtimoiy, texnologik, madaniy va axloqiy o'zgarishlarga moslashuvi, ularni to'g'ri anglab, o'z faoliyatida samarali qo'llay olishi demakdir.

Bu jarayonning asosiy stimuli o'qituvchi hisoblanib, u faqat bilim beruvchi emas, mentor, fasilitator, coordinator bo'lishi kerak. Buning uchun

o‘qituvchilardan yuqori darajada emosional intellekt, ijtimoiy ong, raqamli savodxonlik va pedagogik yondashuvda farqlarga moslashuvchanlik talab etiladi.

Zamonaviy ta’limda o‘qituvchining faqat bilim beruvchi emas, balki mentor, fasilitator va koordinator sifatida faoliyat yuritishi — ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirib yuboradigan muhim o‘zgarishdir.

Mentor (yo‘lboshchi, maslahat beruvchi) — bu o‘quvchining hayotiy va kasbiy faoliyatida yo‘lboshchilik qiluvchi, unga shaxsiy rivojlanishda yordam beruvchi, motivatsiya beruvchi shaxsdir. Buning uchun o’qituvchi quyidagi asosiy vazifalarga ega bo’lishi kerak:

O‘quvchini tanib olish, uning qiziqishlari va kuchli jihatlarini aniqlash. Shaxsiy o‘sishiga yo‘naltirilgan individual maslahatlar berish. O‘quvchini ruhlantirish, uni o‘z imkoniyatlariga ishontirish. Ijtimoiy-emosional muammolarda yo‘l ko‘rsatish. Masalan: o‘qituvchi matematika darsida yaxshi o‘qiy olmagan, lekin ITga qiziqqan o‘quvchini kuzatib, unga IT kurslarini tavsiya qilishi va o‘z yo‘lini topishda yordam berishi — bu mentorlikka misol bo‘ladi.

Fasilitator (jarayonni yengillashtiruvchi, yordamchi)— bu o‘quv jarayonini boshqaruvchi emas, uni tashkillashtiruvchi va qulaylashtiruvchi shaxs. U bilimni tayyor holda bermaydi, balki o‘quvchining uni mustaqil topishiga imkon yaratadi, ya’ni ta’lim muhitini tashkil qilish: erkin fikrlash, savollar berish, bahs-munozara rabi jihatlarni yarata oladi.

Demak, fasilitatorning vazifasi muammoni o‘quvchiga o‘zi yechishiga yo‘l ochish, guruh ishini yo‘lga qo‘yish, rollarni taqsimlash, resurslar (kitoblar, maqolalar, videolar) bilan ta’minlash. Buning uchun o‘qituvchi darsda biror mavzuni tayyor ma’lumot sifatida emas, balki savollar orqali ochadi va o‘quvchilarni izlanishga undaydi — bu fasilitatorlikning yaqqol namunasi hisoblanadi.

Koordinator (muvofiqlashtiruvchi, tashkilotchi) — bu turli faoliyatlar, loyihalar, hamkorliklar o‘rtasida muvofiqlikni ta’minlovchi shaxs. Ayniqsa loyiha asosidagi ta’limda muhim, loyiha yoki tadbirlarni rejalashtirish va yo‘lga qo‘yishni tashkillashtiradi. O‘quvchilar, ota-onalar, boshqa o‘qituvchilar, tashqi ekspertlar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yadi, vaqt, resurs va rollarni boshqarai, jarayonni nazorat qiladi va va tahlil qiladi.

Masalan: O‘qituvchi ekologik loyiha uchun o‘quvchilarni guruhlarga ajratadi, mahalliy ekolog bilan uchrashuv tashkil qiladi, har bir guruhga rol beradi va yakuniy natijalarni taqdim etishga yordam beradi — bu koordinatorlik faoliyatidir.

✨ Nega bu rollar muhim?

Quyida jadval asosida an’anaviy va zamonaviy o’qituvchi o’rtasidagi farqni jadval asosida ochib berishga harakat qilamiz:

An'anaviy o‘qituvchi	**Zamonaviy o‘qituvchi**
Bilimni tayyor holda beradi	O‘quvchini izlanishga undaydi
Nazorat qiladi	Yordam beradi
Monolog qiladi	Dialog va interaktivlik yaratadi
Bir xil yondashuvda bo‘ladi	Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni

	tanlaydi
Baholaydi	O‘quvchi bilan birgalikda o‘sadi

Xulosa:

Zamonaviy o‘qituvchi: shaxsga ta’sir ko‘rsatuvchi — mentor, o‘quv jarayonini qulaylashtiruvchi — fasilitator, ta’lim muhitini uyg‘unlashtiruvchi — koordinator bo‘lishi kerak. Bu rollarni chuqur tushunish va amaliyotda qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirish mumkin.

Adabiyotlar:

1. ‘Innovatsion pedagogika” -T.X.Hamidov, N.Q. Yorqulov, T-O’qituvchi. 2018 y.
2. Zamonaviy ta’lim texnologialari”- I.U. Raximov, Sh.K. Yunusova,T-O’qituvchi. 2016y.

O‘SPIRINLARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Qarshi davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Bobirov Davron Bobir o‘g‘li

Annotatsiya: Mazkur tezisda o‘spirinlarda axborot madaniyatining shakllanishiga ta’sir qiluvchi psixologik omillar tahlil qilinadi. Axborotni ongli ravishda tanlab olish, tahlil qilish va undan ijtimoiy mas’uliyat bilan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishda kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillarning o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: axborot madaniyati, o‘spirin, psixologik omillar, tanqidiy fikrlash, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy muhit.

Annotation: This thesis analyzes the psychological factors influencing the development of information culture in adolescents. The study substantiates the role of cognitive, emotional, and social factors in fostering skills of critical evaluation, conscious selection, and responsible use of information.

Keywords: information culture, adolescent, psychological factors, critical thinking, cognitive development, social environment.

Аннотация: В данной тезисной работе рассматриваются психологические факторы, влияющие на формирование информационной культуры у подростков. Обоснована роль когнитивных, эмоциональных и социальных факторов в развитии навыков критического мышления, осознанного выбора и ответственного использования информации.

Ключевые слова: информационная культура, подросток, психологические факторы, критическое мышление, когнитивное развитие, социальная среда.

Axborot asrida yashayotgan inson zamonaviy texnologiyalar bilan birga ulg‘aymoqda. Ayniqsa, o‘spirinlar uchun axborot bilan ishlash, uni baholash, saralash va undan ijtimoiy mas’uliyat bilan foydalanish ko‘nikmalarining shakllanishi hayotiy zaruratga aylangan. Chunki bu yosh davrida shaxsiylik shakllanishi, ijtimoiy rollarni egallash, mustaqil qaror qabul qilish kabi psixologik jarayonlar faol kechadi. Ushbu jarayonlarda axborot oqimi, uning sifati va unga bo‘lgan munosabat o‘ta muhim o‘rin tutadi.

Axborot madaniyati — bu shaxsning axborotni ongli idrok etishi, undan foydalanish malakasi, uni tahlil qilish, baholash va ijtimoiy hamda axloqiy me’yorlarga amal qilgan holda uni tarqatish qobiliyatidir. Mazkur tushuncha nafaqat texnik bilimlarni, balki chuqur psixologik tayyorgarlikni ham o‘z ichiga oladi. O‘spirinlarda bu ko‘nikmalarni shakllantirish ularning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lib, ushbu rivojlanishni ta’minlovchi **psixologik omillar** muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi navbatda, **kognitiv rivojlanish** axborotni tahlil qilish, uni anglash va turli manbalarni solishtirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu yoshda mantiqiy fikrlash shakllanmoqda, lekin hali yetuk darajada emas. O‘spirin ko‘pincha axborotni yuzaki baholaydi, faktlarni chuqur tahlil qilmasdan xulosa chiqaradi. Shu bois, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish axborot madaniyatining asosiy psixologik negizlaridan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, **emotsional-psixologik holatlar** ham axborotni qabul qilish va unga munosabatda muhim omil sanaladi. O‘spirinlar ko‘pincha hissiyotlarga beriladi, yangi va hayajonli axborotni haqiqat deb qabul qilishadi. Bu holat ularni yolg‘on axborot (feyk), manipulativ kontent va destruktiv g‘oyalarga nisbatan himoyasiz qiladi. O‘z-o‘zini boshqarish, emotsiyalarni nazorat qilish, ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish orqali axborotni baholash madaniyatiga erishish mumkin.

Uchinchidan, **ijtimoiy-psixologik omillar** — oila, tengdoshlar, ta’lim muassasasi, ijtimoiy tarmoqlar — axborot madaniyati shakllanishida tashqi determinantlar sifatida namoyon bo‘ladi. O‘spirinlar uchun ota-ona, o‘qituvchi yoki mashhur blogerlar axborot manbai bo‘lishi mumkin. Demak, ular qanday axborotni iste’mol qiladi, qanday fikr bildiradi — bu o‘spirinning axborotga bo‘lgan munosabatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda elektron resurslardan foydalanish orqali didaktik ta’minotni takomillashtirish masalasi ko‘rib chiqilgan. Elektron resurslarning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati, uning ta’lim sifatini oshirishga qanday ta'sir qilishi, shuningdek, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ta’lim jarayonini innovatsion metodlar bilan boyitish yo‘llari tahlil qilingan. Maqolada shuningdek, elektron resurslardan foydalanishda duch kelinadigan muammolar va ularni hal etish uchun zaruriy tavsiyalar ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich ta’lim, elektron resurslar, didaktik ta’minot, interaktiv dasturlar, o‘quvchilarning faol ishtiroki, ta’lim innovatsiyalari, pedagogik texnologiyalar, ta’lim sifati, o‘qituvchilarning malakasi.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — o‘quvchilarga sifatli bilim berishdir. Bu vazifani amalga oshirishda ta’limning zamonaviy metodlari va innovatsion texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Xususan, boshlang‘ich ta’limda elektron resurslardan samarali foydalanish, ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkoniyatini yaratadi. Elektron resurslar, multimedia, interaktiv dasturlar va boshqa raqamli vositalar o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada boshlang‘ich ta’limda elektron resurslarning didaktik ta’minotni takomillashtirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Elektron resurslar va raqamli texnologiyalarning ta’limdagi ahamiyatiga oid bir nechta tadqiqotlar mavjud.

Masalan, Shuxratova (2020) o‘zining tadqiqotida elektron ta’lim resurslarining boshlang‘ich ta’limda samarali qo‘llanilishi uchun zarur metodik yondashuvlarni ko‘rsatgan. Tadqiqotda, elektron resurslar yordamida o‘quvchilarning o‘rganish faoliyatini faollashtirish va mustahkamlash mumkinligi ta’kidlangan.

Bundan tashqari, Abdullaeva (2019) elektron resurslar orqali ta’lim jarayonini individualizatsiya qilish, ya'ni har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘quv materiallarini taqdim etish orqali ta’lim sifatini oshirishga e’tibor qaratgan. Shuningdek, boshqa tadqiqotchilar (Xodjayev, 2021; Karimov, 2022) elektron resurslarning o‘quvchilarning kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatishgan.

Metod. Tadqiqot usuli sifatida analitik va tavsifiy metodlardan foydalanildi. Ta’lim tizimida elektron resurslar va raqamli texnologiyalarning o‘rni va ta’sirini o‘rganish uchun mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, boshlang‘ich ta’limdagi mavjud amaliyotlar va tajribalar asosida elektron resurslardan foydalanishning samaradorligi baholand davomida o‘qituvchilar va o‘quvchilarning elektron resurslar bilan ishlashdagi yutuqlari va muammolari keltirilib, mumkin bo‘lgan echimlar taklif qilindi.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi yangilanishni va innovatsion texnologiyalarni joriy qilishni talab etmoqda. Xususan, boshlang‘ich ta’limda elektron resurslardan samarali foydalanish, ta’lim sifatini yaxshilash va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Elektron didaktik materiallar va resurslar o‘qituvchilarga ta’lim jarayonini diversifikatsiya qilish, o‘quvchilarning qiziqish va motivatsiyasini oshirish, shuningdek, ta’limni individualizatsiya qilish imkonini beradi.

Elektron resurslarning o‘rni va ahamiyati. Elektron resurslar – bu turli xil raqamli materiallar va vositalar bo‘lib, ular ta’lim jarayonini boyitadi, o‘qitish va o‘rganish samaradorligini oshiradi. Bu resurslar quyidagilarga kiradi:

Multimediali taqdimotlar – matn, audio, video va animatsiyalardan iborat materiallar o‘quvchilarning diqqatini jalb etish va mavzularni yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi.

Interaktiv darsliklar va ilovalar – o‘quvchilar bilan bevosita muloqot qilish imkonini beradi, o‘rganilayotgan materialni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Elektron kutubxonalar va ma'lumotlar bazalari – o‘quvchilarga turli xil ma'lumotlarni tezda topish va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Ta’lim veb-saytlari va platformalar – o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun didaktik materiallarni taqdim etish va o‘quv jarayonini masofadan turib boshqarish imkoniyatini yaratadi.

Boshlang‘ich ta’limda elektron resurslardan foydalanishning afzalliklari

Didaktik jarayonning vizualizatsiyasi: Elektron resurslar orqali o‘qituvchilar materiallarni yanada ravon va qiziqarli tarzda taqdim etishlari mumkin. Masalan,

interaktiv dasturlar va multimedia vositalari o‘quvchilarga o‘rganayotgan materialni ko‘rish, tinglash va his qilish imkoniyatini beradi.

O‘quvchilarni faol ishtirokchiga aylantirish: Elektron resurslar o‘quvchilarga o‘zini o‘zi ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. O‘quvchilar maxsus dasturlar yordamida o‘z bilimi va ko‘nikmalarini mustahkamlashlari mumkin. Buning natijasida, ular o‘z-o‘zini baholash va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Ta’limning individualizatsiyasi: Elektron resurslar yordamida o‘quvchilar o‘zlarining individual ehtiyojlariga mos ravishda materialni o‘rganishlari mumkin. Bu o‘z navbatida o‘quvchilarning muvaffaqiyatini oshiradi va har bir o‘quvchining shaxsiy yondashuvini ta'minlaydi.

Ma'lumotlar tahlili va monitoringi: Elektron ta’lim platformalari o‘qituvchilarga o‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini va o‘rganish jarayonini kuzatish imkonini beradi. Bu esa ta’lim jarayonini doimiy ravishda takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

Boshlang‘ich ta’limda elektron resurslardan foydalanishning muammolari

Biroq, elektron resurslardan foydalanish boshlang‘ich ta’limda bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ularning ayrimlari quyidagilardan iborat:

Texnik infratuzilmaning etishmasligi: Ba'zi hududlarda internetga ulanish imkoniyatlari cheklangan bo‘lishi mumkin. Bu esa elektron resurslardan samarali foydalanishni cheklaydi.

O‘qituvchilarning malakasizligi: Ba'zi o‘qituvchilar raqamli texnologiyalardan to‘liq foydalana olishmaydi. Bu o‘qituvchilarga elektron resurslarni samarali qo‘llashda to‘siqlar yaratadi.

Elektron resurslarning sifati: Ko‘plab elektron resurslar o‘zining pedagogik jihatdan to‘g‘riligini va didaktik samaradorligini ta’minlashda kamchiliklarga ega bo‘lishi mumkin.

Boshlang‘ich ta’limning didaktik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar.Texnik infratuzilmani yaxshilash: Elektron resurslardan samarali foydalanish uchun internetga ulanish va texnik vositalar mavjudligini ta'minlash zarur. Hukumat va ta’lim muassasalari tomonidan zarur infratuzilma yaratilishi lozim.

O‘qituvchilarning malakasini oshirish: O‘qituvchilarni yangi raqamli vositalar va metodikalar bilan tanishtirish, ularning malakasini oshirish uchun doimiy ravishda treninglar va kurslar tashkil etilishi lozim.Elektron resurslarni sinovdan o‘tkazish va sifatini tekshirish: Ta’lim resurslarining didaktik samaradorligini oshirish uchun ularni sinovdan o‘tkazish va tahlil qilish, pedagogik maqsadlarga muvofiqligini tekshirish zarur.

Interaktiv va moslashtirilgan ta’lim dasturlarini yaratish: Har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlariga mos keladigan interaktiv dasturlar ishlab chiqish, ta’limni shaxsiylashtirishni ta’minlash zarur.

Xulosa. Elektron resurslardan foydalanish boshlang‘ich ta’limda didaktik ta’minotni takomillashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Elektron ta’lim platformalari o‘quvchilarga o‘z o‘rganish jarayonlarini samarali boshqarish

imkonini berib, o‘qituvchilarga esa ta’limni yanada individualizatsiya qilish va shaxsiylashtirish imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, elektron resurslar orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, o‘rganish jarayonini qiziqarli qilish va ta’limning sifatini yaxshilash mumkin. Biroq, bu jarayonda texnik infratuzilmaning yetishmasligi, o‘qituvchilarning malakasizligi kabi muammolar ham mavjud. Shu sababli, ta’lim tizimining raqamli infratuzilmasini yaxshilash, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va elektron resurslarni sifatli yaratish zarur. Elektron ta’lim resurslari faqatgina ta’lim jarayonini boyitibgina qolmay, balki ta’limdagi yutuqlarning oshishiga ham katta hissa qo‘shadi.

Foydalangan adabiyotlar

6. Tursunova, S. (2024). Innovatsion yondashuv asosida boshlang ‘ich sinf o ‘quvchilarining og ‘zaki nutqini rivojlantirishning asosiy mazmuni. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(10), 176-185.

7. Ismatova, N., & Tursunova, S. I. (2023). BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIDA OG’ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISH, TILSHUNOSLIK USLUBIY MUAMMO SIFATIDA. Interpretation and researches, 2(1).

8. Hikmatov, I., & Tursunova, S. (2023). Bo ‘lajak boshlang ‘ich sinf o ‘qituvchilarini ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga tayyorlashning imkoniyatlari. Interpretation and researches, 2(1).

9. Allaberganova, Y., & Tursunova, S. (2023). BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH. Interpretation and researches, 2(1).

10. Tursunova, S. I. Uzbekistan is a country of friendship. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 185-189.

11. Пономарева, Л. И., & Турсунова, С. И. (2023). Теоретические основы проблемы обучения младших школьников элементам рассуждения в процессе знакомства с художественными произведениями. Вестник Шадринского государственного педагогического университета, (2 (58)), 53-59.

12. Турсунова, С. И. (2022). Педагогические основы национализации школьного образования. ТГПИ. 2022 год.

13. Турсунова, С. И. (2024). Развитие словесного творчества младших школьников на уроках литературного чтения. Проблемы современного педагогического образования. Сер.: Педагогика и психология.-Научный журнал:-Ялта: РИО ГПА, (82), 284-287.

14. Tursunova, S. I. (2024). SCIENTIFIC THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF ORAL SPEECH IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS. World of Scientific news in Science, 2(6), 137-143.

15. Isakovna, T. S. Linguistic-methodological problems of the development of oral speech in primary classes of national schools. Teacher of the Department of Primary Education, Termiz State Pedagogical Institute.

16. Tursunova, S. I., & Raxmatullayeva, F. A. (2025). MATN TURLARI, ULARNING O ‘ZIGA XOS JIHATLARI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(3), 602-607.

17. Tursunova, S. I. (2025). BOSHLANG’ICH SINF DARSLIKLARIDA PUNKTUATSIYAGA OID BERILGAN MATERIALLAR TAHLIL QILISH. ACUMEN: International journal of multidisciplinary research, 2(1), 342-347.

18. Bahodirovna, C. Z., & Tursunova, S. I. (2023). ON THE EXAMPLE OF RUSSIAN EXPERIENCE IN CREATING PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS. International Journal of Pedagogics, 3(04), 1-11.

19. Tursunova, S., & Kh, T. M. (2023). REGARDING THE DEVELOPMENT OF LINGUISTIC COMPETENCES IN PRIMARY EDUCATION. International Journal of Pedagogics, 3(04), 12-20.

20. Tursunova, S. (2023). REASONS FOR CHOOSING MODELS OF EXTRACURRICULAR ACTIVITIES FOR THE DEVELOPMENT OF ORAL SPEECH OF PRIMARY SCHOOLCHILDREN. Science and innovation, 2(B11), 262-266.

21. Турсунова, С. (2022). Методика обучения русскому языку младших школьников. Общество и инновации, 3(8/S), 179-186.

22. Tursunova, S. (2025). CUMINUM CYMINUM LO ‘SIMLIGINING MORFOBIOLOGIK VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. Теоретические аспекты становления педагогических наук, 4(10), 171-176.

23. Tursunova, S. (2025). ABDULLA QODIRIY-O’ZBEK ROMANCHILIGI ASOSCHISI. Modern Science and Research, 4(4), 989-995.

24. Tursunova, S. I. (2025, April). ELEKTRON RESURSLARDAN FOYDALANISH ASOSIDA BOSHLANG ‘ICH TA’LIMNING DIDAKTIK TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE (Vol. 2, No. 4, pp. 60-64).

25. Tursunova, S. I., & Nigora, K. (2025). PIRLS DASTURI ASOSIDA NAZORAT TOPSHIRIQLARINI YARATISH VA ULAR USTIDA ISHLASH TEXNOLOGIYASI. ACUMEN: International journal of multidisciplinary research, 2(3), 156-160.

26. Tursunova, S. I. (2025). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'G'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI. ACUMEN: International journal of multidisciplinary research, 2(3), 119-124.

27. Tursunova, S. I. (2025). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARINI O ‘QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA MATNNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. ACUMEN: International journal of multidisciplinary research, 2(3), 109-113.

28. Tursunova, S. I. (2025). MATN–BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARINI O ‘QISH VA YOZISHGA O ‘RGATISHDA MUHIM

VOSITA. ACUMEN: International journal of multidisciplinary research, 2(3), 114-118.

29. Tursunova, S. I. (2025). Specific characteristics of text in developing reading literacy in primary school students. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(3), 611-614.

30. Yigitali Jo'ra o'gli, J., Ulug'bek, B., & Tursunova, S. I. (2025). BOSHLANG'ICH SINFDA GAP USTIDA ISHLASHDAGI IZCHILLIK. SYNAPSES: Insights across the disciplines, 2(1), 136-139.

31. Tursunova, S. (2024, October). Boshlang 'ich sinf o 'quvchilarining ona tili sinfdan tashqari mashg 'ulotlarda og 'zaki nutqini rivojlantirish metodlari. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 9, pp. 217-220).

TA'LIMGA YANGICHA YONDASHUV: "TESKARI O'QITISH" O'QITUVCHILARGA QANDAY YANGI IMKONIYATLAR YARATADI?

Hamidova Laylo Kamildjonovna
SamDU 2-bosqich doktoranti
laylohamidova1991@gmail.com

Annotatsiya Teskari o'qitish (Flipped Learning) texnologiyasi ta'lim sohasidagi yangiliklardan biri bo'lib, o'qituvchilarga yangi yondashuvlar va imkoniyatlar yaratmoqda. An'anaviy o'qitish metodlaridan farqli o'laroq, teskari o'qitish o'quvchilarga darsdan oldin materialni o'rganish imkoniyatini beradi, dars davomida esa ularni faollashtirish, muhokama qilish va amaliyotga yo'naltirish orqali bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Bu o'qituvchilarga o'z darslarini samarali tashkil etish, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish va ularga moslashuvchan o'qitish usullarini joriy etishga imkon yaratadi. Ushbu maqolada teskari o'qitish texnologiyasining o'qituvchilarga qanday yangi imkoniyatlar yaratishini tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: Teskari o'qitish (flipped learning) texnologiyasi, An'anaviy o'qitish, o'quvchilarning individual ehtiyojlari

Аннотация: Технология перевернутого обучения — одно из нововведений в сфере образования, создающее новые подходы и возможности для учителей. В отличие от традиционных методов обучения, перевернутое обучение дает учащимся возможность изучить материал до начала занятий, а во время занятий помогает им закрепить свои знания, вовлекая их в различные виды деятельности, обсуждения и практику. Это позволяет учителям эффективно организовывать уроки, учитывать индивидуальные потребности учащихся и внедрять для них гибкие методы обучения. В этой статье мы проанализируем, как технология перевернутого обучения создает новые возможности для учителей.

Ключевые слова: технология перевернутого обучения, традиционное обучение, индивидуальные потребности учащихся.

Abstract: Flipped learning technology is one of the innovations in the field of education, creating new approaches and opportunities for teachers. Unlike traditional teaching methods, flipped learning allows students to study the material before the lesson, and during the lesson it helps them consolidate their knowledge through activation, discussion and practice. This allows teachers to effectively organize their lessons, take into account the individual needs of students and introduce flexible teaching methods for them. In this article, we will analyze what new opportunities flipped learning technology creates for teachers.

Keywords: Flipped learning technology, Traditional teaching, individual needs of students

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining 3-bob 2-qismida ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy qilishga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.10.2020-yildagi PQ-4851-sonli “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish , ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT – industriya bilan integratsiya qilish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida oliy ta’lim tizimida axborot texnologiyalar sohasini rivojlantirish, fanlarni o‘qitishda ta’lim jarayonini integratsiyalash kabi bir qancha masalalar ko‘rib chiqilgan.

Hozirgi kunda eski an’anaviy uslubdagi darslar yoshlarimiz ehtiyojini qondirmaydi, ular bunday darslarni tinglash vaqtida zerikishadi. Chunki, fikrlash va tafakkur boshqa, aynan biror fan bo‘yicha bilimga ega bo‘lish boshqa. Fikrlash va tafakkur tabiiy aql mahsuli, bilim olish esa –bu ta’lim muassasasi, pedagog faoliyati mahsuli. Yoshlarimizni fikrlashi va tafakkuri bundan 15-20 yil avvalgi yoshlarga nisbatan ancha baland va tezdir. Agar pedagog yoshlar bilan hamnafas fikrlamasa, zamon yangiliklariga va talablariga yoshlardanda tez bo‘lmasa, uning ta’lim–tarbiya sohasidagi faoliyati samarasiz bo‘lib qoladi [3].

2011-yilda Clintondale High School da Michigan shtatida katta eksperimental tadqiqotlar o‘tkazildi. Tadqiqotni o‘qituvchi **Andy Scheel** tashkil etdi. Talabalar bir xil mazmunga ega bo‘lgan materialni oldilar ammo ta’lim jarayonini tashkil etish shakli sezilarli darajada farq qildi, chunki bir gurux talabalar (teskari o‘qitish**) “flipped learning” texnologiyasi** asosida ishladi. Tajriba 20 hafta davomida amalga oshirildi va an’anaviy texnologiya bo‘yicha talabalarning 13% o‘quv materiallarini qoniqarli darajada o‘zlashtirmagan. “Flipped learning” texnologiyasidagi talabalarning hech biri salbiy natija ko‘rsatmagan. Ularning bilimlarini C+darajasidan kamroq baholagan. Tajriba shuni ko‘rsatdiki ta’lim ta’sirining eng yaxshi omili ko‘p vaqt davom etadigan barcha o‘quv mashg‘ulotlarining yozuvlari emas, balki davomiyliga 3-6 daqiqadan oshmaydigan **kichik video darslar**dir. **“Flipped learning”** texnologiyasining muvaffaqqiyatlari universitet ta’lim tizimida ham amalga oshirilmoqda. Bunda

Turkiyaning xususiy MEF universiteti yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu teskari o‘qitish ya’ni “Flipped learning” modelini amalga oshiradigan va ushbu muqobil texnologiya bo‘yicha umumiy tajribani amalga oshiradigan birinchi universitetdir.





Flipped learning – bu o‘quv jarayonining tashkiliy asoslarini tubdan qayta ko‘rib chiqish g‘oyasini amalga oshirish sifatida qabul qilingan texnologiya. Bu texnologiyaning mohiyati **audiovizual didaktik vositalardan foydalanish asosida sinfdan tashqari asosiy nazariy o‘quv materiallarini mustaqil ravishda o‘zlashtirish** va o‘qituvchi rahbarligida sinfda yangi bilim va ko‘nikmalarni amalda mustahkamlashdan iborat. Texnologiya “teskari sinf”, “aylanma dars”, “o‘girilib o‘rganish” deb ham nomlanadi.

Flipped learning- bu to‘g’ridan to‘g’ri ko‘rsatmalar, guruhning o‘quv maydonidan individual o‘quv maydoniga o‘tadigan va natijada guruh maydoni o‘zgaradigan pedagogik yondashuv. O‘qituvchi o‘quvchilar tushunchalarni qo‘llashi va mavzu bo‘yicha ijodiy shug’ullanishi paytida dinamik, interaktiv boshqaruvchidir. “Aylanma” deb nomlangan bunday kommunikativ yondashuv o‘ziga xos uslubga ega bo‘lib, bunday yondashuvda o‘rgatish ommaviy ravishda qo‘llaniladigan talabaning auditoriyadagi vazifasi uyga ko‘chadi, uyga berilgan topshiriqlar esa auditoriyaga ko‘chadi va shu sababli bu yondashuv “aylanma” deb nom oldi[5].

Ta’lim jarayonida teskari o‘qitish (flipped learning) texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Xulosa. Mazkur ta’lim texnologiyasining o‘quv jarayonida qo‘llanilishi ta’lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy bosqichida mavjud pedagogik tizim funksiyalarini tubdan o‘zgartirish, jumladan,o‘qituvchi rolini bir shakldan boshqa shaklga o‘tkazish, innovatsion va kommunikatsiya texnologiya vositalarini joriy qilish, aralash va masofaviy ta’lim shakllarini keng yoyish, o‘quvchining mustaqil o‘quv faoliyatini oshirish va uzluksiz ta’limga yo‘naltirish, o‘quvchining individual psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim berish yo‘llarini izlab topishga imkon beradi.

Ta’limda jarayonida Flipped learning texnologiyasidan foydalanish ham iqtisodiy, ham ijtimoiy foyda beradi. Shuning uchun ham bu boradagi nazariy, uslubiy va boshqa jihatlar davr talablari asosida takomillashtirilishi bugungi kunning dolzarb vazifalardan biri ekanligini unutmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son. https://lex.uz/

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 06.10.2020-yildagi PQ-4851-son. https://lex.uz/

3. O.D.Raximov, O.M.Turg‘unov, Q.O.Mustafaev, H.J.Ro‘ziev- Zamonaviy ta’lim texnologiyalari /Toshkent, “Fan va texnologiya nashriyoti”, 2013y., 200bet.

4. Sh.A.Rustamova, M. U. Ubaydilloyeva “Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorligi”. Volume 4 / CSPU Conference 1 / 2023

5. T.D.Nuriddinovna. Oliy ta’lim tizimida flipped learning texnologiyasidan foydalanish.: JDPI. Tadqiqot olami Том 3 № 3 (2021)

6. G. H. Qo‘ysinova. O‘quvchilar mustaqil ta’limini blum taksonomiyasi asosida tashkil etish. Ilmiy-amaliy konferensiya. 23.11.2023. https://cyberleninka.ru/

7. М.Н.Корнев -Перевернутое обучение - путь интенсификации современного урока. Текст научной статьи по специальности «*Науки об образовании*». 2(12)2016 https://cyberleninka.ru/

8. www.webofsciense.com

PEDAGOGIK INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR MAKTABGACHA TA’LIM XODIMLARINING KASBIY RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Hamroyeva Anora Faxreddenovna,
Navoiy Innovatsiyalar Universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida pedagog xodimlarning kasbiy rivojlanishida innovatsion pedagogik texnologiyalarning tutgan o‘rni tahlil etiladi. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, pedagoglarning metodik salohiyatini yuksaltirish hamda bolalarning rivojlanishiga ko‘maklashuvchi innovatsion texnologiyalar – interaktiv, o‘yinli, raqamli va STEAM yondashuvlari misolida ko‘rib chiqiladi. Maqolada ushbu texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali pedagoglar faoliyatida kuzatiladigan ijobiy o‘zgarishlar va kasbiy yuksalishning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, innovatsion texnologiyalar, pedagog kasbiy rivojlanishi, interaktiv usullar, raqamli ta’lim, o‘yinli metodika, STEAM yondashuvi.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль инновационных педагогических технологий в профессиональном развитии работников системы дошкольного образования. В условиях глобализации и цифровой трансформации акцент сделан на повышение эффективности образовательного процесса, совершенствование методической подготовки

педагогов и содействие всестороннему развитию детей. Особое внимание уделяется применению интерактивных, игровых, цифровых и STEAM-подходов, а также положительным изменениям, происходящим в профессиональной деятельности педагогов при внедрении этих технологий.

Ключевые слова: дошкольное образование, инновационные технологии, профессиональное развитие педагога, интерактивные методы, цифровое обучение, игровые методики, STEAM-подход.

Abstract. This article examines the role of innovative pedagogical technologies in the professional development of preschool education staff. In the context of globalization and digital transformation, the focus is on increasing the efficiency of the educational process, enhancing teachers' methodological skills, and supporting children's holistic development. The paper highlights the application of interactive, game-based, digital, and STEAM approaches and analyzes the positive changes observed in teachers' professional activities as a result of implementing these technologies.

Keywords: preschool education, innovative technologies, professional development of teachers, interactive methods, digital learning, game-based methodology, STEAM approach.

Kirish

Zamonaviy dunyoda yuz berayotgan globallashuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va innovatsion g‘oyalarning keng tarqalishi ta’lim tizimi oldiga yangicha vazifalarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimining ilk bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta’limda sifatli va samarali pedagogik faoliyat yuritish, bolalarning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratish muhim masalaga aylangan.

Bugungi kunda pedagogik jarayonni takomillashtirish va ta’lim sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati beqiyosdir. Ular nafaqat ta’lim mazmunini boyitadi, balki pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish, metodik yondashuvlarini yangilash, bolalar bilan ishlashda individual va kreativ yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan, ushbu maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalarning mazmuni, ularning maktabgacha ta’lim pedagoglari faoliyatidagi qo‘llanilishi va bu jarayondagi kasbiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi – innovatsion texnologiyalar orqali pedagoglarning kasbiy o‘sishini ta’minlovchi muhim omillarni yoritish va amaliy ahamiyatini ko‘rsatishdan iborat.

Asosiy qism

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlarida ta’lim sohasida yuz berayotgan o‘zgarishlar pedagog kadrlar oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Xususan, maktabgacha ta’lim tizimi pedagoglarining kasbiy rivojlanishi ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayonda innovatsion pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ular pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantiradi, yangicha

yondashuvlarni o‘zlashtirishga yordam beradi hamda bolalar bilan samarali ishlashga turtki bo‘ladi.

1. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning mohiyati

Innovatsion texnologiyalar – bu yangicha yondashuv, ilg‘or g‘oyalar va metodlarni o‘z ichiga olgan, ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi vositalar tizimidir. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Interaktiv ta’lim texnologiyalari (klaster, insert, akvarium usuli);
- Raqamli ta’lim platformalari (Zoom, Google Classroom, Moodle);
- O‘yinli ta’lim texnologiyalari (gamifikatsiya, Montessori yondashuvi);
- STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics).

2. Maktabgacha ta’lim pedagoglari faoliyatida innovatsiyalarni qo‘llash

Maktabgacha ta’limda innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi:

- Pedagogning o‘zini doimiy o‘rganishga undaydi;
- Ta’lim jarayonini bolalar uchun qiziqarli, mazmunli va samarali qiladi;
- Mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi;
- Axborot texnologiyalaridan foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Masalan, interaktiv doskalardan foydalanish orqali pedagog bolalarning diqqatini bir joyga jamlaydi, o‘zlashtirish darajasi yuqorilaydi. Gamifikatsiya esa bolalarning motivatsiyasini oshiradi.

3. Kasbiy rivojlanishdagi o‘zgarishlar va natijalar

Innovatsion texnologiyalarni faol qo‘llaydigan pedagoglar quyidagi yutuqlarga erishadi:

- Dars samaradorligi oshadi;
- Yangiliklarni tez o‘zlashtirish va amaliyotga joriy qilish ko‘nikmasi shakllanadi;
- Metodik kompetensiya va refleksiya (o‘z faoliyatini tahlil qilish) rivojlanadi;
- Raqamli savodxonlik kuchayadi;
- Jamoadagi faol hamkorlik, tajriba almashinuvi kuchayadi.

Ushbu holatlar pedagoglarning kasbiy o‘sishiga, ta’lim sifatining ortishiga bevosita ta’sir qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, pedagogik innovatsion texnologiyalar maktabgacha ta’lim xodimlarining kasbiy rivojlanishida hal qiluvchi o‘rin egallaydi. Ular orqali pedagoglar nafaqat o‘z mahoratini oshiradi, balki zamonaviy ta’lim talablari bilan hamohang bo‘lgan didaktik yondashuvlarni hayotga tatbiq etadilar. Shu sababli, innovatsion texnologiyalarni tizimli va uzluksiz ravishda joriy etish, pedagoglarni bu borada doimiy o‘qitish va rag‘batlantirish dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi PQ–134-sonli qarori — “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”. – Toshkent, 2022.

2. Yusupova N. R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Ilm ziyo”, 2021. – 180 b.
3. Rasulov D. T. Zamonaviy ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni. – Samarqand: “Samarqand universiteti nashriyoti”, 2020. – 112 b.
4. Karimova M. N. Maktabgacha ta’lim metodikasi va innovatsiyalar. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019. – 148 b.
5. Soliyeva G. S. Pedagog kadrlar kasbiy rivojlanishining zamonaviy yondashuvlari // “Pedagogik ta’lim” ilmiy-amaliy jurnali. – 2022. – №2. – B. 33–37.
6. Nematova Z. Maktabgacha ta’limda STEAM yondashuvining amaliy natijalari // “Ta’lim va innovatsiya” jurnali. – 2023. – №4. – B. 12–16.

IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI PEDAGOGIK MEXANIZMLARNING TURLARI

Hamzayeva Nigina Azamjonovna
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti doktoranti
shokhrukh.ravshanov717@gmail.com
+998979319900

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik-psixologik ko‘nikmalar va mexanizmlarning asosiy turlari tahlil qilinadi. Jumladan, motivatsion, didaktik, tarbiyaviy, psixologik-pedagogik, axborot-kommunikatsion, innovatsion va reflektiv mexanizmlar o‘quv jarayonida ijodiy fikrlashni shakllantirishda muhim omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Ushbu mexanizmlar kelajakdagi pedagogik faoliyatda ijodkor shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilgan amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.
Kalit so‘zlar: ijodiy qobiliyat, pedagogik mexanizm, motivatsiya, didaktika, innovatsion texnologiya, refleksiya, interaktiv metodlar, ijodiy tafakkur, shaxsiy rivojlanish

Jahon miqyosida kechayotgan yangilanish va o‘zgarishlar jarayoni sharoitida ijtimoiy muhitning tezkor sur’atlarda o‘zgarib borishi ta’lim sohasida ham yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Xususan, bugungi kunda dunyo bo‘ylab erkin fikrlash qobiliyatiga ega, yangicha sharoitlarga tezda moslasha biladigan, atrof-muhitga faol ta’sir ko‘rsata oladigan, moslashuvchan va ijodiy fikrlovchi pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortib bormoqda. Shu munosabat bilan pedagog shaxsining yangilikka intilishi, ijodkorlikka yo‘naltirilgan faoliyati va dolzarb muammo hamda vazifalarni samarali hal etishga bo‘lgan ichki motivatsiyasi ta’lim tizimi taraqqiyoti uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchining ijodiy qobiliyati — bu shaxsning o‘z bilim va ko‘nikmalarini pedagogik va boshqa ijodiy vazifalarni hal qilishda maksimal darajada qo‘llay olish qobiliyati bo‘lib, bu orqali nafaqat jarayon, balki uning natijasi ham takomillashadi. Ijodiy qobiliyatning rivojlanishi nafaqat noodatiy qarorlar qabul qilish, mustaqil axborot izlash va uni qayta ishlash qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, balki shaxsning ma’naviy sohasiga ham ta’sir qiladi.

D.B. Bogoyavlenskaya va A.M. Matyushkin fikriga ko‘ra, ijod — mavjud vaziyat yoki bilim doirasidan chiqish bo‘lib, bu muammoni original, shaxsiy ma’no bilan boyitilgan tarzda qo‘yishda namoyon bo‘ladi [1].

N.E. Vorobyev esa ijodiy qobiliyatni shaxsning integrativ sifati deb belgilaydi, u quyidagi ikki komponentni o‘z ichiga oladi: ijodiy faoliyatga intilish (motivatsion komponent) va mustaqil ijodiy faoliyat yuritish qobiliyati (operatsion komponent) [3].

O‘qituvchining ijodiy salohiyatini rivojlantirish masalasi ayniqsa ijodiy qobiliyatga ega bolalar bilan ishlash jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Mustaqil izlanish va noan'anaviy yechimlar topish uchun imkoniyat bo‘lmasa, o‘quv jarayoni o‘z jozibasini yo‘qotadi. Sababi, bu holda o‘quv faoliyati qat’iy namunaga asoslangan, yagona to‘g‘ri yechimga ega bo‘lgan mexanik topshiriqlar bajarilishiga aylanib qoladi.

Pedagogik faoliyatning markazida pedagogik qarorlarni qabul qilish jarayoni turadi. Bu jarayonda o‘qituvchining intellektual, emotsional va ijodiy qobiliyatlari bir butun sifatida namoyon bo‘ladi. Qarorlar tahlili, qabul qilinadi va amalga oshiriladi — aynan shular orqali o‘qituvchining amaliy tafakkur kuchi va pedagogik mahoratining o‘ziga xosligini baholash mumkin. Ushbu jihatni o‘qituvchining yangicha yondashuvi, original fikrlashi, ijodiy yondashuvi bo‘lmasdan tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun o‘qituvchining tafakkur “mahsullari”ni uning ijodiy salohiyati bilan bog‘liq holda ko‘rish lozim. B.M. Teplov ijodiy yondashuvning ajralmas elementi sifatida faoliyat usullarini tez va erkin o‘zgartira olish, shuningdek, qabul qilingan qarorlarni qat’iyat bilan himoya qila olish qobiliyatini ko‘rsatgan [10].

A.X. Maslou nuqtai nazaridan, ijodiy qobiliyat manbalari oliy tartibdagi ehtiyojlardan iborat bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. **Atrof-muhitni anglashga bo‘lgan ehtiyoj** – yangilikka intilish, hayotga qiziqish va taassurotlarning yangiligi ijodiy izlanishga asos bo‘lib, ijodiy jarayonga yo‘nalish beradi.

2. **Muloqotga bo‘lgan ehtiyoj**, u bir tomondan taqlid qilish, ikkinchi tomondan esa o‘zini ifoda etish ehtiyoji sifatida namoyon bo‘ladi. Taqlid va o‘zini ifoda qilishning uyg‘unligi ijodiy faoliyatning doimiy harakatlantiruvchi omillari hisoblanadi.

3. **O‘zini hurmat qilishga bo‘lgan ehtiyoj**, faqat insonga xos bo‘lib, oliy tartibdagi ehtiyojlar toifasiga kiradi. Bu ehtiyoj ijtimoiy mazmunga ega bo‘lib, shaxsning jamiyatda o‘zini namoyon etish istagiga asoslangan. Bu esa o‘z navbatida ijodiy faoliyatning muhim rag‘batlantiruvchi omili hisoblanadi.

4. **Organizmda mavjud imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish ehtiyoji**. Bu ehtiyojni bolada o‘yin orqali, kattada esa mavjud qobiliyatlarni, jumladan ijodiy qobiliyatlarni ham amalga oshirish istagida ko‘rish mumkin.

5. **O‘zini aktuallashtirish ehtiyoji** – gumanistik psixologiya vakillari buni shaxsning haqiqiy, mustaqil ravishda tanlangan rivojlanish jarayoni sifatida ta’riflaydilar [7].

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish natijasida ma’lum bo‘ldiki, ijodiy qobiliyat shaxsni shakllantirish muammolari olimlar tomonidan quyidagi jihatlardan o‘rganilgan: shaxsni ijodiy faollikga jalb etish mexanizmlarini izlash; shaxs, xususan, o‘qituvchi faolligining mohiyatini aniqlash; ijodiy qobiliyatni rivojlantiruvchi usul va vositalarni asoslash va qo‘llash (1-jadval).

1-jadval.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlar

№	Mexanizm turi	Mazmuni / tavsifi	Vositalar (misol)
1	**Motivatsion mexanizmlar**	Talabani ijodga qiziqtirish va ichki rag‘batni kuchaytirish	Rag‘batlantirish, tanlovlar, mashhur ijodkorlar faoliyatini o‘rganish
2	**Didaktik (ta’limiy) mexanizmlar**	O‘quv jarayonida ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish	Muammoli o‘qitish, loyihalar, interaktiv metodlar (aqliy hujum, klaster va h.k.)
3	**Tarbiyaviy mexanizmlar**	Estetik, axloqiy va madaniy dunyoqarashni shakllantirish	Estetik tarbiya, madaniyatlararo muloqot, san’at va adabiyot orqali tarbiya
4	**Psixologik-pedagogik mexanizmlar**	Shaxsiy psixologik holatni hisobga olgan holda ijodni qo‘llab-quvvatlash	Ijodiy muhit, stressni kamaytirish, o‘zini baholash, relaksatsiya usullari
5	**Axborot-kommunikatsion mexanizmlar**	Texnologiyalar orqali ijodiy fikrlashga yo‘l ochish	Onlayn platformalar, multimedia vositalari
6	**Innovatsion texnologiyalar**	Zamonaviy ta’lim texnologiyalari orqali ijodiy salohiyatni rivojlantirish	STEAM, dizayn o‘ylash, flipped classroom, tanqidiy fikrlash metodlari
7	**Reflektiv mexanizmlar**	Shaxsiy tajriba ustida fikr yuritish orqali ijodiy o‘sishni ta’minlash	Portfolio, refleksiya kundaliklari

Shuni ta’kidlash joizki, turli xil metod va uslublarning qo‘llanilishi – aynan ushbu muammoni hal etishga qaratilgan faoliyat samaradorligini oshiradi. Bu esa professional muhitda, xususan, pedagoglar malakasini oshirishga ixtisoslashgan muassasalarda muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Xulosa. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ta’lim jarayonining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu yo‘lda turli pedagogik mexanizmlar — motivatsion, didaktik, tarbiyaviy, innovatsion va reflektiv yondashuvlar o‘zaro uzviy bog‘liq holda qo‘llanilishi lozim. Har bir mexanizmning to‘g‘ri va maqsadga muvofiq tatbiq etilishi o‘quvchilar va talabalar ijodkorligini rivojlantirishda, ularning mustaqil fikrlashi va yangicha qarashlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta’lim ijodiy shaxsni tarbiyalashning asosiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

11. Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей : учебное пособие для студ. вузов. – М. : Изд. центр «Академия», 2002. – 320 с. - ISBN 5-7695-0888-4.
12. Губина М.В. Методы и приёмы развития творческой активности учителя // Современные проблемы науки и образования. 2013. № 6.
13. Воробьёв Н.Е. Развитие творческой активности студентов при изучении дисциплин гуманитарного цикла : монография / Н.Е. Воробьёв, Э.Ю. Мизюрова. – Волгоград : Перемена, 2001. – 184 с.
14. Галацкова И.А. Одарённый ребёнок: психолого-педагогические основы выявления и развития : учебно-методическое пособие / И.А. Галацкова, Е.Ю. Журбенко, М.И. Лукьянова, Л.И. Пентехина, Т.Б. Табарданова. – Ульяновск : УИПКПРО, 2011. – 146 с. - ISBN 978-5- 9795-0850-4.
15. Кашапов М.М. Психология профессионального педагогического мышления : учеб. пособие. – М. : Изд-во «Институт психологии РАН», 2003. – 398 с. - ISBN 5-9292-0161-7.
16. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии. – Рига : НПЦ «Эксперимент», 1995. – 176 с. - ISBN 5-87474-011-2.
17. Маслоу А. Самоактуализация / Психология личности. Тесты. – М. : Изд-во МГУ, 1982. – 287 с.
18. Сластенин В.А. и др. Педагогика : учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В.А. Сластенин, И.Ф. Исаев, Е.Н. Шиянов; под ред. В.А. Сластенина. - М. : Издательский центр «Академия», 2002. - 576 с. - ISBN 5-7695-0878-7.
19. Сластенин В.А. Педагогика. Инновационная деятельность / В.А. Сластенин, Л.С. Подымова. – Магистр, 1997. – 223 с.
20. Теплов Б.М. Избранные труды. В 2-х т. - М., 1985. - Т. 1. - 328 с.

MA’NAVIY QADRIYATLAR VORISLIGI VA YOShLAR TARBIYASI

HAYDAROV Komil Donabayevich,
falsafa fanlari doktori, VPMM professori,
HAYDAROVA Venera Komilovna,
Samarqand turizm universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ma’naviy taraqqiyotning o‘ziga xos qonuniyati – vorislik, uning ma’naviy-tarbiyaviy jarayonda namoyon bo‘lishi, “vertikal” hamda “gorizontal” vorislikning jamiyat ma’naviy hayotida amal qilishi, xalqimiz ma’naviy merosida chuqur iz qoldirgan mutafakkir allomalar ijodi misolida yoshlarning ma’naviy tarbiyasi jarayonidagi ahamiyati to‘g‘risida mushohada yuritiladi.

Tayanch iboralar: ma’naviyat, ma’naviy meros, taraqqiyotda vorislik qonuniyati, “vertikal” va “gorizontal vorislik”, ma’naviy qadriyatlar, tarbiya.

Yangi O‘zbekistonning ma’naviy poydevorini barpo etish jarayonida yosh avlodning “bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash” [1] dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Ushbu vazifani xalqimizning boy va betakror ma’naviy merosini chuqur o‘rganish, aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish orqali amalga oshirish mumkin.

“Ma’naviy meros” degan tushuncha mazmun-mohiyati jihatidan avvalgi zamonlarda muayyan xalq tomonidan yaratilgan moddiy-ma’naviy qadriyatlar, bilimlar, g‘oyalar, qarashlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, umuman, barcha moddiy va ma’naviy boyliklarni anglatadi va u xalqning bilim va tafakkuri, falsafiy-axloqiy, diniy rivojlanishiga xizmat qiladigan cheksiz manba hisoblanadi.

Hamma xalqning o‘ziga xos ma’naviy merosi bor. Bu meros, bir tomondan, keng xalq ommasi tomonidan yaratilgan madaniyat durdonalari, qadriyatlar, osori atiqalar bo‘lsa, ikkinchi tomondan olimlar, faylasuflar, mutafakkir adiblarning ijodi namunalari, asarlaridan iborat bo‘ladi. Meros keyingi avlodlarga qoldiriladigan bebaho, shuning bilan birgalikda betakror mulkdir. Chunki har qanday ma’naviy mulk keyingi davrga qanday bo‘lsa, shundayligicha ko‘chmaydi, balki avlodlar tomonidan o‘zlashtiriladi, qayta ishlanadi, boyitiladi va h.k. Shuning uchun ma’naviy merosning rivojlanishi tadrijiy shaklda bo‘lib, uning asosida vorislik qonuniyati yotadi.

Vorislik o‘tmish bilan hozir va kelajak o‘rtasidagi ob’ektiv zaruriy aloqa jarayonini bildiradi. Shu bilan birga u an’anaviylik va novatorlikning uzviyligi ifodasi hamdir. An’anaviylik o‘tmishda hosil qilingan ma’naviy qadriyatlarning zamonlar osha takrorlanib kelishini bildiradi, novatorlik esa har yili, har zamon takrorlanib keladigan qadriyatlarga yangiliklar kiritish, boyitish orqali davr ruhiga moslashtirishni ifodalaydi. «Novator shoir», «novator yozuvchi» deganimizda eski bilan yangi uslublarni mohirona moslashtira oladigan ijodkorni tushunamiz.

Ma’naviy taraqqiyotda vorislik jarayonining ikki jihati bor: birinchidan, u «vertikal» tarzda, ya’ni o‘tmishdan kelajakka qarab borish tarzida namoyon bo‘ladi. Masalan, xalqimizning olijanoblik, mehnatsevarlik, samimiylik kabi fazilatlari, udum va odatlari avloddan avlodga o‘tib kelayotir. Ikkinchidan, vorislik faqat o‘tmishdan kelajakka qarab bormay, balki «gorizontal» tarzda, ya’ni bir xalqdan boshqa xalqqa, bir millatdan boshqa millat yoki elatga qarab boradi.

Yaqin o‘tmishimizdan ma’lumki, mustaqillik davrigacha o‘zbek xalqi ma’naviy merosini o‘rganish, undan foydalanish imkoniga ega emas edi. Xalqimiz tarixiga nazar solsak, yurtimizni bosqinchilar egallab olgan davrlar, xususan, Chingizxon istilosi, chorizm va kommunistik rejim hukmronlik qilgan paytlar buning isbotidir. Ayniqsa sho‘ro davrida o‘tmish bilan kelajak o‘rtasida o‘tib bo‘lmas jarlik paydo bo‘ldi. Ma’naviy merosni o‘rganishga intilish o‘tmishni ideallashtirish deb baholandi. O‘tmishni xolisona o‘rganishga uringan teran aql sohiblari millatchilikda ayblandi, qattiq ta’qib etildi. Masalan, «Amir Temurning o‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli» nomli risola nashr ettirgani uchun akademik Ibrohim Mo‘minov ta’qib ostiga olindi va yurak xastaligidan vafot etib ketdi. Yozuvchi Pirimqul Qodirov «Yulduzli tunlar» romanida «zolim podsho taqdiri ustida ko‘z yoshi to‘kkanligi» ta’kidlab o‘tildi. O‘tmish haqida yozish u yoqda tursin, hatto gapirish ham mumkin bo‘lmay qoldi. “Biz mustaqillikka erishgan paytda jamiyat shunday og‘ir, tanazzul komiga tortilgan, xalqning ruhi cho‘kkan, odamlar ertangi kunga bo‘lgan ishonchini yo‘qotgan, jinoyatchilik avjiga mingan, bosqinchilik, odam o‘ldirish, mashina o‘g‘irlash kabi mudhish jinoyatlar odat tusiga kirgan edi” [4.6].

Mamlakatimizning kuch-qudrati manbai - xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, ulug‘ ajdodlarimizdan avlodlarga o‘tayotgan ma’naviy merosning kuchliligi, fuqarolarimizning el-yurtga, ona zaminga bitmas-tuganmas mehri, milliy g‘ururimizda ekanligidir. Ushbu negizlarda o‘z ifodasini to‘liq topgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan uzviy bog‘lanishda, aloqadadir, ular doimo birga, uyg‘unlashgan, mushtarak holda keladi. Ularning har ikkalasi bir-biriga ta’sir etadi, biri ikkinchisini to‘ldiradi, mazmunan boyitadi. Milliylik umuminsoniylikni rad qilish evaziga emas, balki uni ijodiy boyitish orqali rivojlanib boradi. Zero, har bir xalq, avvalo, o‘zining tarixidan bugungi kun uchun asos bo‘ladigan umuminsoniy ma’naviy tamoyil, an’ana va qadriyatlariga murojaat qiladi. Shuningdek, milliylikda umuminsoniy, umumbashariy ma’no-mazmun mujassamdir.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, har qanday davlat boshqa xalqlar tomonidan to‘plangan qadriyatlardan, ilg‘or tajribalardan oqilona foydalangan taqdirdagina taraqqiyot yo‘liga tusha oladi. Buni Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida jahon minbaridan turib alohida ta’kidladilar. “Bizning asosiy vazifamiz, dedi mamlakatimiz rahbari, yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh

avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz”.[17]

Yoshlarimizni chin ma’noda jahon bilan bahslasha oladigan o‘ktam, dili va tilidan odamlar ozor chekmaydigan, sharqona odob-axloqli, ham jisman, ham aqlan, ham ruhan sog‘lom qilib tarbiyalashimiz lozim. Ular Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek kabi ulug‘ bobolarimiz merosini ham, Shekspir va Dante, Pushkin, Lev Tolstoy, Gyote, Bayron va Gyugo merosini ham o‘rgansin, bahra olsin, zamonaga munosib, hayotga fidoyi barkamol insonlar bo‘lib yetishsin.

Ta’kidlash kerakki, mamlakatimizda milliy-ma’naviy merosni o‘rganish, uni keng xalq ommasi ongi va qalbiga singdirish borasida ko‘p ishlar qilindi – keng ko‘lamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi, badiiy va ilmiy, san’at asarlari yaratildi, nashrlar yo‘lga qo‘yildi, darslik va qo‘llanmalarning yangi avlodi yaratildi, ko‘plab anjumanlar, ommaviy tadbirlar o‘tkazildi va h.k. Lekin shunga qaramasdan ma’naviy merosimizni targ‘ib qilishda muammolar mavjudligi sezilib qolmoqda. Ayniqsa yoshlar o‘rtasida bu ishni yanada kuchaytirish zarur. O‘quvchi-yoshlar o‘rtasida olib borilgan kuzatishlardan ma’lum bo‘ldiki, ularning muayyan qismi madaniy merosimizning nodir namunalari, milliy davlatchiligimiz tarixiga doir voqealar, xalq ijodi namunalari, milliy va diniy qadriyatlarimiz to‘g‘risida yetarli tasavvurga ega emaslar.

Madaniy meros obidalarini izlash, ularni ilmiy asosda o‘rganish va ommalashtirish eng muhim dolzarb masala bo‘lib, uning sabablari ham bor, albatta. Avvalo xalqimizning ma’naviy merosiga tegishli bo‘lgan son-sanoqsiz obidalar Sharq va G‘arb mamlakatlari kutubxonalarida, ilmiy muassasalarida saqlanib kelinmoqdaki, ular haqida haligacha yetarli ma’lumotga ega emasmiz. Buyuk mutafakkir ajdodlarimizning bir talay asarlari shular jumlasidandir. Chor Rossiyasining bosqinchilik yurishlari, sobiq imperiya davrida Turkistondan ko‘plab ilmiy qo‘lyozmalar, asarlar, tarixiy hujjatlar, ulug‘ shaxslarga tegishli bo‘lgan nodir buyumlar, obidalar, qurollar imperiyaning markaziy shaharlariga olib ketilgan. Mustaqillik tufayli vujudga kelgan ehtiyoj – ma’naviy merosga munosabat, uni o‘rganish masalalari kompleks tarzda hal etilishi kerak.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “ulug‘ bobolarimizning sharofati, o‘lmas nomlari, ularning ruhi poklari bugun ham bizni qanday qo‘llab-quvvatlayapti, bizga qanday madad beryapti. Biz mana shunday ulug‘ allomalarimiz bilan, ularni kamolga yetkazgan ona zaminimiz bilan har qancha faxrlansak, arziydi” [2.146].

Bugungi avlod bizning zaminimizda yashab, ijod etgan mutafakkir allomalar dunyo ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida chuqur iz qoldirganlari, ularning o‘ziga xos tarixiy silsilasi bundan buyon uzluksiz davom etishini chuqur anglashlari zarur. Yangi O‘zbekiston pedagogi – eng zamonaviy ta’lim metodikalari bilan qurollangan bugungi o‘qituvchilarimiz kelajak egalari bo‘lmish yosh avlodda buyuk ajdodlarimizga xos ilm-ma’rifatga tashnalik va ezgu fazilatlarni shakllantirishlari lozim.

[17] “Халқ сўзи”, 2017 йил 20 сентябрь

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022 y., 06/22/134/0407-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. T., “O‘zbekiston”, 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72 sessiyasida nutqi // “Xalq so‘zi”, 2017 yil 20 sentyabr.
4. A’zamov O‘., Jumaev Sh. Ma’naviyat va ma’rifat ishi. - Toshkent, 2005.
5. Haydarov K. Nurli manzillar sari. T., “Navro‘z”, 2015.

ABDUSAID KO’CHIMOVNING "TUBSIZ QUDUQ" HIKOYASIDA IJTIMOIY – PSIXOLOGIK KONFLIKT

Hayrullayeva Muhabbat Pirmamat qizi
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari nomzodi,
dotsent ***Yuldosheva Saodat Azizovna***
hayrullayevamuhabbat35@gmail.com
+99893 557 89 91

Annotatsiya*: Maqolada Abdusaid Ko'chimovning "Tubsiz quduq" hikoyasidagi ijtimoiy-psixologik konflikt va uning badiiy tasvirlash usullari tahlil qilingan. Tahlil jarayonida hikoyaning kompozitsion tuzilishi, bosh qahramon psixologiyasi va ramziy obrazlarning ma'noviy yuklamasi o'rganilgan. Asarning o'zbek zamonaviy adabiyotidagi o'rni va ahamiyati belgilangan.*

Kalit so‘zlar*: psixologik realizm, ijtimoiy konflikt, qahramon psixologiyasi, ramziy obraz, zamonaviy o'zbek adabiyoti.*

Аннотация:

В статье проводится анализ социально-психологического конфликта и художественных способов его изображения в рассказе Абдусаида Кучимова "Бездонный колодец". В процессе исследования рассмотрены композиционная структура произведения, психология главного героя и смысловая нагрузка символических образов. Определено место и значение произведения в современной узбекской литературе.

Ключевые слова: *психологический реализм, социальный конфликт, психология героя, символический образ, современная узбекская литература.*

Abstract:

This article analyzes the social and psychological conflict in Abdusaid Ko‘chimov’s short story The Bottomless Well, as well as the artistic techniques used to depict it. The study explores the composition of the story, the psychology of

the main character, and the symbolic meaning of certain images. The paper also identifies the story's place and significance in contemporary Uzbek literature.

Keywords: *psychological realism, social conflict, character psychology, symbolic image, contemporary Uzbek literature.*

"Hayotni, odamlar ruhiyatini, poetik tafakkur tabiati va, ayniqsa, san'at qonuniyatlarini bilmay turib, insoniyat uchun zarur, foydali, umrboqiy asarlar yozib bo'lmaydi.Badiiy asarda inson vujudiga sig'mayotgan ruhiy po'rtanalar, toshqinlikni, ko'nglida tug'ilgan ezgu niyatlarni bayon etish uchun imkoniyat ko'proq bo'ladi".[8,5b.]

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning inklyuziv ta’limdagi o‘rni va imkoniyatlarini yoritadi. Universal o‘quv dizayni (UDL), yordamchi texnologiyalar va sun’iy intellekt asosidagi moslashuvchan o‘quv platformalari kabi yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Yaponiya, AQSh va Hindiston tajribalari asosida keltirilgan amaliy misollar — ekran o‘quvchilari, AAC qurilmalari va immersiv ilovalar orqali maxsus ehtiyojli o‘quvchilarni darsga jalb qilish usullarini ko‘rsatadi. Muhokama bo‘limida raqamli ta’limning foydali jihatlari, to‘siqlari (masalan, texnik infratuzilma, o‘qituvchilarni tayyorlash) va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, raqamli texnologiyalar, yordamchi vositalar, universal o‘quv dizayni, ta’limda sun’iy intellekt, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar, moslashuvchan o‘qitish

Аннотация:Статья рассматривает использование цифровых технологий в инклюзивном образовании. Подчеркиваются такие подходы, как универсальный дизайн обучения (UDL), применение вспомогательных технологий и адаптивные платформы на базе искусственного интеллекта. Примеры из Японии, США и Индии демонстрируют, как такие инструменты, как экранные читалки, устройства AAC и иммерсивные приложения, способствуют академической и социальной инклюзии. В разделе обсуждения поднимаются вопросы преимуществ, трудностей (например, доступ к технологиям и подготовка учителей) и формулируются рекомендации для педагогов и политиков.

Ключевые слова: инклюзивное образование, цифровые технологии, вспомогательные средства, универсальный дизайн обучения, ИИ в образовании, доступность, особые образовательные потребности, адаптивное обучение

Inclusive education—teaching all children together and removing barriers for learners with diverse needs—is now a global priority. It is enshrined in international law (e.g. the UN Convention on the Rights of Persons with Disabilities) and the Sustainable Development Goals as a right for every child. In today's classrooms, diversity is the norm: students vary in abilities, language backgrounds, cultures, and learning styles. Digital technologies offer new tools to support this diversity. Recent analysis by the OECD finds that "strategic incorporation of digital technologies in education can make education more equitable and inclusive," empowering students and creating a stronger sense of belonging. For example, adaptive apps and learning platforms can target reading or math skills to individual needs, while multimedia and translation tools can bridge language gaps. However, experts caution that technology must **complement** (not replace) high-quality teaching and human support. In practice, inclusive digital education means using tech to provide *multiple means of engagement, representation and expression*, so each learner can access the curriculum. This article reviews how schools worldwide are integrating digital tools to support inclusion, what evidence exists of effectiveness, and what challenges remain.

Methods and Frameworks

Educators are using several frameworks to guide inclusive technology integration. One prominent approach is **Universal Design for Learning (UDL)**, which calls for planning lessons that offer multiple ways to learn (e.g., text, audio, visuals) and multiple ways to demonstrate understanding. UDL has become a "way of thinking and teaching that helps make learning accessible for all students with the help of technology". Under UDL, teachers might pair a video with text captions, provide choice of reading level, or allow students to respond orally instead of in writing. Digital tools naturally support UDL: for instance, a teacher can create interactive presentations with built-in text-to-speech, or allow students to record audio or video responses on tablets.

Another strategy is embedding **assistive technologies** into classrooms. These include software and hardware that directly address specific disabilities. Common examples are screen readers or magnifiers for students with visual impairments, text-to-speech and speech-to-text software for students with dyslexia or writing difficulties, and Augmentative and Alternative Communication (AAC) devices for non-verbal learners. Research shows students with intellectual or developmental disabilities often *"require augmentative and alternative communication (AAC) to fully meet their academic and social potential."*. Accordingly, U.S. practice mandates that Individualized Education Programs (IEPs) for students with disabilities explicitly consider assistive technology. Indeed, AAC and similar tools are now considered **evidence-based practices** that improve outcomes for students with complex communication needs. For example, a tablet running symbol-based communication software can give a non-speaking child a voice in class. Likewise, a blind student can use a refreshable braille display or a screen reader (e.g. NVDA, JAWS) to participate in general lessons by hearing aloud on-screen text. These adaptations allow students with specific

disabilities to stay in the "least restrictive environment" with peers, rather than being removed for segregated instruction.

A third avenue is **adaptive and personalized learning platforms** powered by AI and analytics. These systems continuously assess a learner's responses and adjust content or pacing accordingly. For example, math apps like DreamBox or reading programs like Khan Academy identify each student's zone of proximal development and adapt the next problem or hint. Innovative platforms also gather learning analytics: in Japan, for instance, teachers used an e-book reader (BookRoll) with data-logging to *"detect stumbling points and strengths"* of students with learning disabilities. Augmented Reality (AR) and game-based apps are also emerging. The OECD notes that new technologies like AR can present the same content in different modalities (visual, auditory, tactile) to engage learners in multiple ways. In sum, inclusive tech integration involves a mix of UDL-aligned planning, classroom accommodations, and adaptive software – all aimed at giving each student the tools they need to learn.

Results: Evidence and Case Studies

Studies and pilots worldwide report promising outcomes from these approaches. For example, Microsoft's *Project Torino* illustrates how technology can make a traditionally screen-based subject (computer coding) accessible to visually-impaired students. Project Torino uses physical blocks inscribed with code symbols; children connect the blocks to build programs, which are then executed on a computer. In practice, sighted and blind students can work together with the same tangible coding kit. Microsoft researchers report that Torino has enabled blind students to develop coding skills and problem-solving abilities in ordinary classrooms. (Figure 1 shows students using Torino's brightly colored coding blocks.)

Figure 1: Microsoft's Project Torino allows students to learn programming with physical blocks, enabling blind and sighted children to code together.

In literacy and general academics, multimedia reading tools have shown measurable gains. Microsoft's *Immersive Reader* – which offers features like adjustable font spacing, line length, and text-to-speech – has been studied in various contexts. Research cited by Microsoft indicates that dyslexic readers using optimized layouts read **10% faster and with 50% fewer errors**. Similarly, simply reducing line length on a page increased reading speed by 27% for struggling readers. Other evaluations found that students with learning disabilities across grades (except middle school) got a significant boost from read-aloud text highlighting compared to peers. These findings suggest that even simple digital adjustments can meaningfully improve access for learners with reading difficulties.

AAC and speech tools likewise show positive impacts. A teacher-researcher group reports that using speech-generating devices (on tablets or dedicated gadgets) for non-verbal students led to marked increases in classroom participation and reduced frustration. As one study notes, *"the use of AAC has emerged as an evidence-based practice that promotes student outcomes"*. Although implementation challenges exist (see below), when AAC is properly introduced,

students with severe communication needs make better academic progress and social connections.

AI-driven learning platforms are also yielding gains. A recent review highlights that personalized AI tutors and games have improved engagement and achievement for students with special needs. For instance, adaptive *game-based learning* interventions have shown **significant improvements in literacy skills** for students with dyslexia and other reading disorders. In Japan's inclusive settings, early trials of an AI-assisted reading program (with learning analytics) helped teachers identify which phases of a text each student struggled with. Broadly, AI systems in classrooms are linked to modest but positive effects. One meta-analysis found **medium effect sizes** when AI tools were used for students with disabilities. Notably, early childhood AI tools (language apps, picture-based tutors) are beginning to offer resources where specialized teachers are scarce. These cases underscore that, with thoughtful design, digital tools can break learning into individualized "chunks" for students who would otherwise fall behind.

Beyond individual tools, whole-class innovations are emerging. For example, some schools have implemented classroom-wide tablets or laptop carts loaded with accessible apps. Teachers report that learners who used Google's Read&Write or other assistive software became more confident in independent work. In inclusive schools in India and Indonesia, pilot programs found that mobile phones and tablets, combined with Braille or sign-language apps, helped keep students with disabilities engaged even when schools were closed during COVID-19. (Such remote-learning examples highlight both potential and caution: positive results were mixed due to infrastructure gaps.)

Discussion

The reviewed evidence confirms that digital technologies can *enhance inclusion*, but also highlights key caveats. When well-designed, technology enables **unprecedented flexibility**: lessons can be customized to learning styles and languages, progress can be monitored continuously, and learners who once needed one-on-one support can practice skills independently. Many experts emphasize that tech can *"dissolve learning barriers and offer limitless opportunities"*. As one inclusion advocate noted, investing in "programs that read text out loud in different languages… can help many students access education". The OECD observes that digital tools can support students from minority ethnic groups, migrants, LGBTQ+ youth and others who often face exclusion. In practice, countries from Japan to Kenya to Finland are piloting localized tech interventions (from digital e-books with analytics to AI-language tutors) and seeing early positive results.

However, technology is *not* a magic bullet. The benefits accrue only under certain conditions. A recurring challenge is **access inequality**. Even within high-income countries, OECD data show stark home-internet gaps: for example, only 74% of bottom-quartile EU households had broadband access in 2020 (vs. 97% of wealthiest). In many low-resource regions, unreliable electricity and spotty connectivity still leave disabled learners behind. Experts warn that without addressing these divides, "those who can't access digital technology" will be left

further behind. Another barrier is **teacher capacity**. Studies consistently find that inadequate training is a major hurdle. As one OECD analysis concluded, *"adequate teacher training on how to effectively use [assistive technologies] can be an obstacle to implementation and achieving maximum support"*. In other words, giving schools tablets is insufficient; teachers must learn to integrate them into inclusive pedagogy. In inclusion settings, educators often juggle multiple needs in one class; adding new tech requires time, technical support, and a shift in mindset. Even promising tools can be under-used if teachers are unfamiliar or uncomfortable.

Stigma and culture can also impede adoption. Some educators still view assistive tech as "special" or extra, rather than part of universal design. Users of AAC, for instance, may feel singled out by peers or misunderstood by teachers if not well supported. Furthermore, stakeholders (parents, admins) may mistrust data-driven tools or worry about privacy. As noted in field reports, families often have low awareness of analytic tools and may hesitate to consent to classroom data collection. Policymakers must therefore balance technology use with concerns for safety, equity, and privacy.

Finally, scalability and cost are real issues. Many effective solutions today remain pilots or proprietary. Schools in lower-income countries may struggle to afford licenses for educational software or the most advanced devices. Experts urge that inclusive tech initiatives be accompanied by sound policy: clear mandates that accessibility features be standard, funding streams for low-cost devices, and cross-sector coordination. For instance, global advocacy stresses that technology access itself is a *"right"* under the CRPD, meaning governments should ensure that all students – disabled or not – have the tools they need.

In summary, digital technologies hold great promise for inclusive education: when thoughtfully applied, they can tailor learning to each student and remove barriers that once seemed insurmountable. The emerging evidence — from school pilots to academic studies — indicates real benefits for students with disabilities and other special needs. Yet technology must be part of a holistic approach that centers on human relationships, supportive pedagogy, and equitable access. As one inclusion advocate put it, **humanity and rights must come before devices**. By combining innovative tools with inclusive values, educators and policymakers can move closer to education systems where no child is left behind.

Reference

1. CAST. (2018). *Universal Design for Learning Guidelines version 2.2.* Wakefield, MA: CAST. Retrieved from https://udlguidelines.cast.org

2. Carneiro, R., Toscano, J. C., & Díaz, T. (2009). *The Challenges of ICT to the Learning System*. UNESCO Institute for Information Technologies in Education (IITE). https://iite.unesco.org

3. European Agency for Special Needs and Inclusive Education. (2016). *Raising the Achievement of All Learners in Inclusive Education: Lessons from European Policy and Practice.* Odense, Denmark.

4. OECD. (2021). *Empowering Young Children in the Digital Age*. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/f9b914d6-en

5. Microsoft Education. (2021). *Inclusive Classrooms and Accessibility Tools.* Retrieved from https://education.microsoft.com/en-us/resource/5ef9d7f2

6. National Center on Accessible Educational Materials. (2022). *What is Assistive Technology?* CAST, Inc. https://aem.cast.org/about/what-is-aem/assistive-technology.html

7. Okita, S. Y., & Schwartz, D. L. (2013). Learning by teaching human pupils and teachable agents: The importance of recursive feedback. *Journal of the Learning Sciences*, *22*(3), 375–412. https://doi.org/10.1080/10508406.2013.807263

8. UNESCO. (2020). *Distance learning strategies in response to COVID-19 school closures.* https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000373305

9. UNICEF. (2021). *Digital Learning and Access to Education during COVID-19: An Assessment of Online Schools in 2020.* https://www.unicef.org/globalinsight/reports

10. Wendt, O., Heller, K. W., & Caldwell-Harris, C. (2012). Assistive technology for students with complex communication needs: A review of the literature. *Educational Technology Research and Development, 60*(1), 91–109. https://doi.org/10.1007/s11423-011-9222-7

11. World Health Organization & World Bank. (2011). *World Report on Disability*. Geneva: WHO Press.

12. Yell, M. L., Katsiyannis, A., Ennis, R. P., & Losinski, M. (2021). Special education law and policy: From foundation to application. *Pearson Education.*

13. Zydney, J. M., & Warner, Z. (2016). Mobile apps for science learning: Review of research. *Computers & Education*, *94*, 1–17. https://doi.org/10.1016/j.compedu.2015.11.001

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQINI O'STIRISHDA INNAVATSION TEXNALOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Sharipova Sevara Erkin qizi
O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti
1-kurs magistranti
Tel: +998(99)-664-20-40
@mail:sharipovasevara0111@gamil.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarning boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishdagi o'rni, bugungi kunda innavatsion texnalogiyalardan foydalanishning ahamiyati hamda ushbu sohadagi xalqaro

tajribalar yoritilgan.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirish - bu nafaqat til o‘rganish jarayonining asosiy qismi, balki ularning kognitiv va ijtimoiy qobiliyatlarini shakllantirishning muhim omilidir. Zamonaviy pedagogikada innovatsion texnologiyalardan foydalanish nutqni rivojlantirish jarayonini qiziqarli, samarali va individual qilish imkonini beradi.

KALIT SO’ZLAR: Innovatsion usullar, kognitiv qobiliyat, dasturlar, zamonaviy texnalogiyalar,nutq

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещена роль инновационных технологий в развитии речи учащихся младших классов, важность использования инновационных технологий сегодня, а также международный опыт в этой области. Развитие речи учащихся младших классов является не только основной частью процесса изучения языка, но и важным фактором формирования их познавательных и социальных навыков. Использование инновационных технологий в современной педагогике делает процесс развития речи интересным, эффективным и индивидуальным.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: инновационные методы, когнитивные способности, программы, современные технологии, речь.

ANNOTATION

This article highlights the role of innovative technologies in the development of the speech of elementary school students, the importance of using innovative technologies today, and international experiences in this field. The development of speech of elementary school students is not only the main part of the language learning process, but also an important factor in the formation of their cognitive and social skills. The use of innovative technologies in modern pedagogy makes the process of speech development interesting, effective and individual.

KEY WORDS: innovative methods, cognitive ability, programs, modern technologies, speech

Zamonaviy o’qitish usuli ko’proq amaliy faoliyatga asoslangan bo’lib, o’quvchining ongini markazlashtiradi va bu ularni o’rganish jarayoniga to’liq jalb qiladi. Zamonaviy o’qitish usulida o’quv dasturini o’qitish va rejalashtirish o’quvchini asosiy maqsad sifatida ushlab turish bilan amalga oshiriladi.So‘nggi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishda an’anaviy usullarga nisbatan sezilarli ustunliklarga ega. Biroq, bu natijalarni amaliyotga tatbiq qilish jarayonida quyidagi jihatlar muhokamaga sabab bo’lmoqda:

- Texnologik jihatdan jihozlanganlik darajasi:

O‘zbekiston maktablarining aksariyati hali ham yetarli darajada zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanmagan. Bu holat innovatsion usullardan samarali foydalanishga to‘siq bo‘lib qolmoqda. UNICEF ma’lumotlariga ko‘ra, qishloq joylaridagi maktablarning faqat 35%i zarur texnika bilan ta’minlangan.

- Pedagogik kadrlarning tayyorgarligi:

O‘qituvchilarning aksariyati yangi texnologiyalardan foydalanishga tayyor emas. 2023-yilda o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining 60%dan ko‘pi "ELSA Speak" yoki "ClassDojo" kabi dasturlardan foydalanishni bilmaydi.

Innovatsion usullarning ijobiy tomonlari

✓ O‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish (Marzano, 2021)

✓ Individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyati

✓ Nutq jarayonini qiziqarli qilish

Innovatsion usullarning salbiy tomonlari:

✕ Texnik muammolar (Internet uzilishi, qurilmalarning etishmasligi)

✕ Ba’zi hollarda an’anaviy metodlarning samaradorligini ortda qoldirishi

✕ O‘qituvchilar uchun qo‘shimcha vaqt va kuch talab qilishi

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, innovatsion texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning nutq ko‘nikmalari an’anaviy usullarga nisbatan 35-40% darajada tezroq rivojlanadi. Bu xususiyat ayniqsa talaffuz aniqligi va nutqiy ishonchni oshirishda sezilarli.AI asosidagi dasturlar har bir o‘quvchining nutqidagi kamchiliklarni aniqlab, shaxsiy dasturlar tuzish imkonini beradi. Bu holat, ayniqsa, turli darajadagi o‘quvchilar sinfida muhim ahamiyat kasb etadi.Xalqaro tajriba bilan solishtiradigan bo’lsak, Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda boshlang‘ich sinflarda nutqni rivojlantirish dasturlari keng qo‘llaniladi. Masalan:

- Finlandiyada 1-sinf o‘quvchilari uchun maxsus "Speechify" dasturidan foydalaniladi

- Singapurning "Smart Speech" loyihasida AI yordamida talaffuzni tuzatish tizimi ishlab chiqilgan

O‘zbekiston kontekstida bu tajribalarni quyidagi jihatlardan muhokama qilish kerak:

1. Madaniy farqlar (til tuzilishi, talaffuz xususiyatlari)
2. Infratuzilma imkoniyatlari
3. O‘qituvchilarning texnologik saviyasi

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish nafaqat nutqni rivojlantirishga, balki quyidagilarga ham yordam beradi:

- O‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini oshirish
- Ijtimoiy kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish
- Kelajakdagi raqamli ta’limga tayyorgarlik

Xulosa o’rnida shuni takidlash joizki,interfaol dasturlar, o‘yinlashtirilgan platformalar va virtual reallik vositalari o‘quvchilarning darsga qiziqishini 2 baravar oshirib, nutq mashqlarini qiziqarli jarayonga aylantiradi. innovatsion texnologiyalarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati inkor etib bo‘lmaydi. Biroq, ularni joriy qilishda mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan, izchil va tizimli yondashuv zarur. Buning uchun pedagoglar, dasturchilar va siyosatchilarning yaqin hamkorligi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining

nutqini rivojlantirishda sifatli yangi bosqichni ochib beradi. Bu nafaqat til o‘rganish jarayonini yengillashtiradi, balki kelajak avlodning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga ham hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Karimova R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: TDPU nashriyoti, 2020.-B. 15
2. Sodiqov. T.S. Boshlang’ich ta’lim metodikasi.-T.: “ O’qituvchi”, 2020. –B. 23
3. Usmonxo’jayev. M. Zamonaviy dars va interfaol metodlar.-T.: “ Fan”, 2018. –B. 76
4. Yo’ldoshev. G. Boshlang’ich ta’limda ona til o’qitish metodikasi.-T.: “ Noshir”, 2019. –B. 67
5. Yo’ldoshev Q. Til o’rgatishda zamonaviy yondashuvlar. Respublika Pedagogika jurnali, 2022.-B 22
6. Xidoyatov Q.X., Tursunova G’. Ta’limda innovatsion yondashuvlar.-T.: Iqtisodiyot, 2022.-B. 128
7. Karimova R. Innovatsion pedagogic texnologiyalar.-T.: TDPU nashriyoti, 2020.-B.10
8. Karimov S.A., Mahmatmurodov Sh.M., Karimova O.N. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – T.: “O‘zbekiston”, 2003
9. http: www.ziyo.net.uz.
10. http: www.pedagog.u

MAKTAB TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH USTAXONASI

Sharofiddinov Rivojiddin Shamsiddinovich

Farg‘ona viloyati pedagogik
mahorat markazi, katta o‘qituvcisi

Annotatsiya: O‘quvchilarni ma’naviyatli shaxs sifatida shakllantirishda maktab poydevor vazifasini bajarib kelganligi, maktabgacha ta’lim va maktab odamga hayotda kerak bo‘ladigan barcha narsani berishligi, farzandlarimizga juda muhim narsani –hayotda hal qiluvchi rol o‘ynaydigan bir ko‘nikmalar haqida ma’lumotlar keltirilganni.

Kalit so‘zlar: Kitob, maktab, bola tarbiyasi, fikr-mulohazalar, alloma va mutafakkirlar muloxazalari, ma’naviy hayot, o‘zbek jadid adabiyoti.

Аннотация: Школа сыграла основополагающую роль в формировании учащихся как духовных личностей, дошкольное образование и школа дают все, что нужно человеку в жизни, и дают нашим детям нечто очень важное — навыки, которые играют решающую роль в жизни.

Ключевые слова: Книга, школа, воспитание детей, мнения, мнения ученых и мыслителей, духовная жизнь, современная узбекская литература.

Abstract: School played a fundamental role in the formation of students as spiritual individuals, preschool education and school provide everything a person needs in life, and give our children something very important - skills that play a decisive role in life.

Keywords: Book, school, raising children, opinions, opinions of scientists and thinkers, spiritual life, modern Uzbek literature.

Donishmandlardan biri “Yaqinlar bilan suhbatda, uzoqdagilar bilan kitob orqali muloqotdamiz”, deb aytgan hikmatli so‘zlaridan kelib chiqib, mazkur ma’lumotlarni tayyorlashga jazm qildik. Binobarin, hayratingiz hayolot mahsuli bo‘lgan Don Kixot va Sancho Panso singari o‘lmas siymolarni yaratgan Migel de Servantes: “Na dengizlarni oshib o‘tayotgan kemalar, na sahroyu dashtlarni bosib o‘tayotgan karvonlar, na o‘zingning oyoqlaring yetti yot begona, noma’lum yurtlar sarhadlariga yaxshi kitoblarchalik teran va yaqin kirib bora olmaydi”, deganida qanchalik haqli edi[18].

O‘ylab ko‘rsak, farzandlarimizga ham aytmoqchi bo‘lgan fikr-mulohazalarimizni kitob orqali yetkazish qaysidir jihatdan qulayroq ekan. Chunki ertayu kech biz ular bilan birga bo‘la olmas ekanmiz, demak kitob ularning doimiy hamrohi bo‘lsin.

Frantsuz olimi Pper Klod Buast (1765-1865) “Kitob kitoblar yordamida yoziladi”, deya har bir kitobning yuzaga kelishida boshqa kitoblarda bayon etilgan ma’lumotlarning ham naqadar muhim ahamiyat kasb etishiga e’tiborini qaratgan edi. Insoniyat xotirasida avaylab saqlanadigan gaplar bo‘ladi. “Masalan, Arximedning o‘limiga bir lahza qolganda boshiga qilich o‘qtalib turgan rimlik bosqinchiga aytgan mana bu gapi: “Mening chizmalarimga teginma!”. Yoki Galileyning o‘sha mashhur luqmasi: “Baribir u aylanaveradi!”.

Ehtimol zaminida yuksak ruhiy quvvat zohir bo‘lgani bois ana o‘sha va shunga o‘xshagan gaplar umrboqiydir. Ular insoniy oliyjanoblik, jasorat, o‘z ishiga sadoqat timsolidir”[19]. Chunonchi Donishmand Buzurgmehr aytadiki: “Kishiga zavq va shodlik bag‘ishlaydigan narsa bu buyuklarning hikmatli so‘zlaridir”.

Yozuvchi Tog‘ay Murodning “Har narsaga mahliyo bo‘lavermay, qo‘ldan kelganicha yozaverish kerak”, degan so‘zlari dalda bo‘lib, biz ham shu kabi ma’lumotlar va hikmatlarni imkon qadar jamlashga harakat qildik. Ulug‘ shoir Gyote ta’kidlaganidek: “Eng asosiysi – qog‘ozga bitilgani. Odamlar ulardan istaganlaricha va imkoniyatlariga qarab foydalanaversinlar”.

Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy aytganidek: “Bizning maqsadimiz o‘quvchini toliqtirib qo‘ymaslikdir. Hadeb bir narsani o‘qiy berish zerikarli bo‘ladi va toqatini toq qiladi. Agar o‘quvchi bir masaladan boshqa masalaga o‘tib tursa, u xuddi turli-tuman bog‘-rog‘larda sayr qilgandek bo‘ladi, bir bog‘dan

[18] Фейхтвангер Л. Шаккок фикрлар / Рус тилидан И.Ҳафизов таржимаси // “Жаҳон адабиёти”, 2012. 7. 170-б.

[19] Сарнов Б., Гик Е. Тўқилмаган ҳангомалар. – Т.: “O’zbekiston”, 2015.133-б.

o‘tar-o‘tmas, boshqa bir bog‘ boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko‘rgisi keladi. Har bir yangi narsa kishiga rohat bag‘ishlaydi”.

Nobel mukofoti laureati, mashhur olim Albert Eynshteyn (1879-1955) har bir ishning natijasiga erishish uchun uzoq vaqt mehnat qilish lozimligini ta’kidlar ekan: “O‘z mehnatining natijasini darhol ko‘rishni istagan kishi etikdo‘z bo‘lib ishlashi lozim”, degan edi. Demak, xoh o‘qituvchi yoxud talaba bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z maqsadiga erishish uchun o‘z mehnat faoliyatini ma’lum bir reja asosida tashkil qilsagina, vaqti kelib mehnatining samarasidan bahramand bo‘lishi mumkin. Aks holda mashhur frantsuz yozuvchisi Antuan de Sent-Ekzyuperi (1900-1944) ta’kidlaganidek, rejasiz maqsad – bu shunchaki orzudir.

Qadimdan kishilarni ma’naviyatli shaxs sifatida shakllantirishda maktab poydevor vazifasini bajarib kelganligi barchaga ma’lum. Garchand maktabgacha ta’lim va maktab odamga hayotda kerak bo‘ladigan barcha narsani berolmasa-da, biroq farzandlarimizga juda muhim narsani – ma’naviy hayotda hal qiluvchi rol o‘ynaydigan bir ko‘nikmani bera olishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Bu – mustaqil mutolaa, mustaqil fikrlash, mustaqil tahlil ko‘nikmasi, mustaqil o‘qishga, kitobga muhabbat.

Shu sababdan XIX asrda yashab rus adabiy tanqidchisi A.I.Gertsen (1812–1870): “Bolalikdayoq barkamol bo‘lishni judayam zarur deb hisoblamayman, odam maktabni tugatganidan keyin ham ko‘p narsalarni o‘rganishi mumkin, ammo mashg‘ulot ko‘nikmasi va aqliy kamolotning asosi yoshlikda shakllanadi”,- degan edi. Demak, maktab insonlarga dunyoni anglashga o‘rgatuvchi birinchi ma’rifat maskani bo‘lib xizmat qilgan.

Bu haqda Rizouddin ibn Faxruddin shunday yozadi:

“O‘qishni, yozishni bilgan kishilarni mevali daraxtlarga o‘xshaturlar. Mevali daraxt mevalari ila xalqlarni rizqlantirub turganlari kabi o‘qish-yozishni bilgan odamlar ham o‘zlarining ilmlari ila xalqlarni rizqlantirub turadirlar. SHuning uchun o‘qish-yozishni yosh bola vaqtidan boshlab o‘rganish lozim.

O‘tgan umrni qaytarib bo‘lmas. Umr eng qimmatli bir davlatdir. Demak, bu qimmatli bo‘lgan davlatning qadrini bilish kerak. Odam uchun ishonchli bo‘lgan kamolot faqat ilmdir. Ilmdan boshqa kamolotlarning hech biri ishonchli emasdir. Bugun bor, ertaga yo‘q.

O‘qigan narsalarni yaxshi anglash, anglagan narsalarni go‘zal xotirlash lozim. O‘qimoqning foydasi faqat shul vaqtdagina bo‘lur. Yo‘qsa, anglar-anglamas o‘qimakdan ma’no chiqmas. Odam ham, hayvon ham insondir, lekin hayvonligi yemak ila, insonligi esa, o‘qimak ila bo‘lur. O‘qimagan kimsalarning to‘rt oyoqli hayvonlardan ayirmalari yo‘qdir. Buni esa har kim biladir.

O‘qimak o‘runlari maktablardir. Maktablarda o‘qish-yozishga, Olloh taolo hazratiga qulluq etishga o‘rgaturlar. Xalqlar ila qatnasha biluv, ular ila muomala qiluv ravishlari ham maktablarda o‘rgatiladir. O‘qituvchilar, ya’ni muallimu muallimalar bolalarni hayvonlikdan chiqarib inson qilish uchun tirishuvchilardir. Ushbuning uchun maktabni ham muallimu muallimlarni suymak va ko‘ngil qo‘yib o‘qimak kerak”[20].

[20] Ризоуддин ибн Фахруддин. Аҳлу аёл.– Т: “Чўлпон”, 1994.

Frantsuz yozuvchisi Anri Barbyus (1873–1935) maktabni xuddi ustaxonaga qiyoslaydi: “Maktab voyaga yetayotgan avlod tafakkurini shakllantirish ustaxonasidir; agar kelajakni qo‘ldan chiqarishni istamasang, maktabni qo‘lda mustahkam tutmog‘ing lozim”. Chunonchi, o‘zbek jadid adabiyotining asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) maktabga “taraqqiyotning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasi” deya ta’rif bergan bo‘lsa, uning izdoshlaridan biri Abdulla Avloniy (1878-1934) “Maktab” she’rida jumladan quyidagi misralarni keltiradi:

Maktabdur oftobi jahon saodating,
Maktabdur osmoni zamon sabovating.
Maktabdur eng ziyoli puranvor jilvagar,
Maktabdur oshyoni hama fayz qudrating...
Maktab ko‘ngulni zulmati g‘amdan ozod qilur xalos,
Maktab kalidi, ochquchidir bobi rohating.
Maktab dilingga sochg‘usi ilmi fununi,
Maktab ziyoda qilg‘uchidir aqlu hikmating.[21]

Yozma manbalarda qadimdan qaysi yurtda maktablar ko‘p bo‘lsa, bu yerda jinoyatga qo‘l urish hollari kam bo‘lganligi aytiladi. Chunki tarixchi, ma’rifatparvar olim Ishoqxon to‘ra Ibrat (1862–1937) aytganidek: “Maktab bo‘lmasa olamni butun vahshiyat tutib, hamma xarob bo‘lib, ish qo‘ldan ketar”[22]. Shu sababdan frantsuz yozuvchisi Viktor Gyugo (1802–1885) “Maktablarni ochgan qamoqxonalarni yopadi” degan edi.

Ma’rifatparvarlik adabiyoti vakillaridan yana biri Muhammadsharif So‘fizoda (1880–1937) o‘z maktabi peshtoqiga: “Men ul buyoqchimanki, maktab xumida rang berib, qora chapanilarni o‘n ikki oyda oq qilaman” – degan so‘zlarni shior sifatida yozib qo‘ygan ekan.[23]

Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Hozirda o‘tmishga nisbatan maktablar hamma mamlakatlarda ham bir necha marta ko‘p. Biroq nega jinoyatlar soni toboro ortib, yoshlar ma’naviyatida jarlik hosil bo‘lmoqda?

Yaqingacha faqatgina oynai jahon orqali ikki yoki uchta kanalni tomosha qilgan bo‘lsak, hozirda o‘nlab kanallardagi ko‘rsatuvlarni ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Bu albatta taraqqiyotning natijasi. To‘lqinni qabul qilish antenalari imkoniyatiga qarab ko‘rsatuv kanallarining sonini yana bir necha o‘n martaga ko‘paytirish ham mumkin. Bunga internet va boshqa axborot vositalarini ham qo‘shimcha qiladigan bo‘lsak, demak yoshlarning kundalik turmushi faqat to‘xtovsiz ravishda turli-tuman axborot qabul qilishdangina iborat bo‘lib qolmoqda. Tasavvur qiling, bir kunda bir necha serial yoxud internet orqali o‘nlab bema’no saytlarni muntazam ko‘rgan o‘quvchi o‘zi uchun kerakli biron bir ma’lumot olishga muyassar bo‘ladimi? Bizningcha haddan ortiq axborotlar har

[21] Абдулла Авлоний. Тошкент тонги. – Т.: “Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1979. 46-б.

[22] Воҳидова К. Исоҳхон Жунайдуллоҳхўжа ўғли Ибрат ва унинг тарихий-илмий мероси. – Т.: Фан, 2008. 127-б.

[23] Долимов У. Муҳаммад Шариф Сўфизода // Тил ва адабиёт таълими.2010. №1. 38-б.

qanday yosh qalblarni to‘g‘ri yo‘ldan og‘diradi va bu alaloqibat yoshlarni jinoyat sari yetaklaydi.

Shu o‘rinda hind mutafakkiri Mahatma Gandining (1869–1948) quyidagi so‘zlarini yodga olaylik: “Agar biz butun dunyoda tinchlik o‘rnatishni istasak, ishni bolalar tarbiyasidan boshlashimiz zarur”.

Bejiz ajdodlarimiz aynan asosiy e’tiborni bola tarbiyasiga qaratmaganlar. Bu borada yuzlab maqollarning mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Shu o‘rinda bir misol. Marg‘ilon shahrining XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi madaniy muhiti to‘g‘risida so‘z yuritganda tadqiqotchilar shaharning ta’lim-tarbiya tizimi borasida qiziqarli ma’lumotlar keltiradilar. Jumladan, frantsuz sayyohi Mari Burdon Marg‘ilondagi maktablar to‘g‘risida ko‘rgan-kechirganlarini o‘zining 1881-yilda chop etilgan “Parijdan Samarqandgacha” nomli kitobida quyidagicha tilga oladi:

“Biz…Marg‘ilon shahridan o‘tdik. Barcha uylari xuddi hammomli uylarga o‘xshab ketadi. Bekchurin[24] janobining uyi Xudoyorxonning[25] urug‘laridan biri tomonidan qurilgan... Serhasham sharqona uslubda bezalgan saroycha keng va chiroyli bog‘ning o‘rtasida joylashgan... Bir katta hovuzning atrofida qamish devor mavjud. Bu narsa bola hovuzda cho‘milganliklari uchun o‘rab qo‘yilgan. Marg‘ilonda bir maktabni kirib ko‘rdik...u muhtasham bo‘lmasa-da, muallimlar mehribon, bolalar esa darslarni juda yaxshi o‘qiyotgan edilar”[26].

Xulosa qilganda farzandlarning tarbiyasi ota-onalardan ham ularga ta’lim berguvchi ustozlardan ham katta mas’uliyatni talab qiladi. Qolaversa, bolalar tarbiyasi zimmasida bo‘lgan har bir kishiga bu borada darsliklardan tashqari qo‘shimcha adabiyotlar bilan ham muntazam ravishda tanishib borishi kerakligini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фейхтвангер Л. Шаккок фикрлар / Рус тилидан И.Ҳафизов таржимаси // “Жаҳон адабиёти”, 2012. 7. 170-б.

2. Сарнов Б., Гик Е. Тўқилмаган ҳангомалар. – Т.: “O’zbekiston”, 2015.133-б.

3. Ризоуддин ибн Фахруддин. Аҳлу аёл.– Т: “Чўлпон”, 1994.

4. Абдулла Авлоний. Тошкент тонги. – Т.: “Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1979. 46-б.

5. Воҳидова К. Исоҳхон Жунайдуллоҳхўжа ўғли Ибрат ва унинг тарихий-илмий мероси. – Т.: Фан, 2008. 127-б.

6. Долимов У. Муҳаммад Шариф Сўфизода // Тил ва адабиёт таълими.2010. №1. 38-б.

[24] Солиҳ Бекчурин татар миллатига мансуб. Чор Россия армиясининг «Мусулмонлар батальони» (Мусульманский батальон)ининг штаб капитани бўлган. 1876 йилдан то 1884 йилларгача Марғилон уезд бошлиғи (Уездный начальник) вазифасини эгаллаб турган.

[25] Худоёрхон Шералихон ўғли. Минглар сулоласига мансуб, 1831 йилда Қўқонда туғилган. 1884-йилда Афғонистоннинг Карруҳ мавзесида вафот этган. 1845-1875-йилларда (танаффуслар билан) Қўқон хони бўлган.

[26] Ujfalvy-Bourdon, . De Paris a Samarkand. Le Ferghanah, le Kouldja et la Siberie occidentale. Impressions de voyage dune Parisienne. Paris, Librairie Hachette 1880. p 293-300.

7. Солиҳ Бекчурин татар миллатига мансуб. Чор Россия армиясининг “Мусулмонлар батальони” (Мусульманский батальон)ининг штаб капитани бўлган. 1876 йилдан то 1884 йилларгача Марғилон уезд бошлиғи (Уездный начальник) вазифасини эгаллаб турган.

8. Худоёрхон Шералихон ўғли. Минглар сулоласига мансуб, 1831 йилда Қўқонда туғилган. 1884-йилда Афғонистоннинг Карруҳ мавзесида вафот этган. 1845-1875-йилларда (танаффуслар билан) Қўқон хони бўлган.

9. Ujfalvy-Bourdon, De Paris a Samarkand. Le Ferghanah, le Kouldja et la Siberie occidentale. Impressions de voyage dune Parisienne. Paris, Librairie Hachette 1880. p 293-300.

INKLYUZIV TA’LIM UCHUN O‘QITUVCHILARNI KASBIY TAYYORLASHNI RIVOJLANTIRISH.

Tilakova Mavjuda Ashurovna
p.f.f.d. (PhD), dotsent,
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi
“Pedagogika va psixologiya ta’lim
texnologiyalari” kafedrasi mudiri

Annotatsiya: The development of inclusive education in the practice of general education poses the problem of professional education and professional training of teachers of general educational institutions for working with children with disabilities in conditions of inclusion.

Annotation: The development of inclusive education in the practice of general education poses the problem of professional education and professional training of teachers of general educational institutions for working with children with disabilities in conditions of inclusion.

Kalit so‘zlar: Bola bilan ishlash, inklyuziv ta’lim ga tayyorligini shakllantirish, assistiv texnologiyalarning asosiy turlari

Ключевые слова: Работа с ребенком, формирование готовности к инклюзивному обучению, основные виды вспомогательных технологий

Keywords Working: with a child, the formation of readiness for Inclusive Education, the main types of assistive technologies

Hozirgi vaqtda umumiy ta’lim tizimiga inklyuziv ta’lim ni joriy etish bir qator qiyinchilik va muammolarni aniqladi, ular orasida:

inklyuziv ta’lim va nogiron bolalar mafkurasini rad etish, nogiron bolalarni birgalikda o‘qitishga yondashuvlarni amalga oshirishdagi qiyinchiliklar va muammolar ko‘zda tutiladi. Ularning ijtimoiy-psixologik moslashuvi;

umumiy ta’lim muassasalarida nogiron bolalarni o‘qitishning tashkiliy, uslubiy va psixologik-pedagogik shartlarini amalga oshirishdagi qiyinchiliklar

tahlil qilingan.

Umumiy ta’lim tizimiga inklyuziv ta’lim ni joriy etishdagi qiyinchiliklar sabablarining tipologiyasi keltirilgan. Bularga ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi sabablar (nogiron bola oilasining past iqtisodiy darajasi);

boshqaruv xarakterining sabablari (nogiron bolalarning ta’lim muhitida ijtimoiy moslashuvini ta'minlash uchun tegishli boshqaruv mexanizmining yo‘qligi);

pedagogik xususiyatga ega bo‘lgan sabablar (nogiron bolaning ijtimoiy moslashuv jarayonini inklyuziv vositalar bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi, pedagogik kadrlar tayyorlashning qoniqarsiz darajasi);

psixologik tabiatning sabablari (inklyuziv ta’lim va nogiron bolalar g'oyasini rad etish) kabilar.

Umumiy ta’lim amaliyotida inklyuziv ta’limning rivojlanishi umumiy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarini inklyuziya sharoitida nogiron bolalar bilan ishlash uchun kasbiy ta’lim va kasbiy tayyorlash muammosini keltirib chiqaradi. Inklyuziv ta’lim uchun o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashning mahalliy tizimini rivojlantirishning asosiy tendensiyalari bir qator huquqiy hujjatlarda, xususan, O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g’risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim - tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son qarori (2020-yil 13-oktabr), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risidagi 638-son qarorida (2021-yil 12-oktabr) hamda 2020-2025 yillarda xalq ta’lim i tizimida inklyuziv ta’lim ni rivojlantirish Konsepsiyasida alohida ta’lim ga muhtoj bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’lim tizimiga jalb qilishning eng muhim resursi sifatida pedagog kadrlarning kasbiy ta’lim i roli ta’kidlangan.

Oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligiga kam e’tibor qaratildi.Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida 2022-2023-o‘quv yilidan boshlab barcha yo‘nalishlar o‘quv rejalarining majburiy fanlar blokiga Inkluziv ta’lim . Gospital pedagogika fani kiritilgan. Shuningdek, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Farmonida 2026-2027-o‘quv yilidan “Gospital pedagogika” magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilishi belgilab qo‘yildi.

Respublikamizda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim -tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilindi (PQ–4860, 13.10.2020-y) qaror bilan 2020-2025-yillarda xalq ta’lim i tizimida inklyuziv ta’lim ni rivojlantirish konsepsiyasi va uni 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo‘yicha "yo‘l xaritasi" tasdiqlangan bo‘lib, Qarorga muvofiq, 2021-2022-o‘quv yilida tajriba-sinov tariqasida:

- Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan maktablarda inklyuziv ta’lim joriy qilindi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan maktabda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar ochilishi rejalashtirilgdi;

- Qashqadaryo, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarida joylashgan bittadan kasb-hunar maktabida ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hamda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan guruhlar tashkil etildi.

Shuningdek, 2021-2022 o‘quv yilidan:

- ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida majburiy o‘rta ta’lim 11 yillik (intellektual rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun (yordamchi) maktablar, maktab-internatlarda 9 yillik) muddatda amalga oshiriladi;

- ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarining 10-11-sinf (intellektual rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun (yordamchi) maktablar, maktab-internatlarda 8-9-sinf) o‘quvchilari uchun kasbga o‘qitish kurslari tashkil etiladi va bitiruvchilarga sertifikat beriladi.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi qoshida uning belgilangan shtat birliklari doirasida “Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi” tashkil etiladi.

Mazkur laboratoriyaning asosiy vazifalaridan biri maktablarda inklyuziv ta’lim uchun shart-sharoitlar yaratish, inklyuziv ta’lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish hamda ularning bajarilishini nazorat qilish hisoblanadi.

Inklyuziv ta’lim sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyat yurituvchi umumta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarining qo‘shimcha kasb-hunar ta’lim i, kasbiy tayyorgarligi va ularning malakasini oshirish maqsadida T.G.Zubareva fikriga tayanamiz:

“ta’lim mazmuni, o‘qitish texnologiyalari va inklyuziv ta’lim sifatini baholash usullarini zamonaviy jamiyat talablariga muvofiqlashtirish;

inklyuziv ta’lim ning barcha manfaatdor tomonlarini ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda aniqlash;

inklyuziv ta’lim sohasidagi kasbiy faoliyatning yangi sharoitlariga moslashish; zamonaviy professional ma'lumotlarni taqdim etish;

keng ko‘lamli kasbiy faoliyatda mustaqil harakat qila oladigan o‘qituvchining kompetentsiya darajasini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish

Tinglovchilarni inklyuziv ta’lim ga muvaffaqiyatli tayyorlash nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki jamiyatda inklyuzivlik va tenglik tamoyillarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Bu barcha bolalarga o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etish va jamiyatga faol qo‘shilish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. “Ta’lim to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.

2. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Inklyuziv ta’lim ni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim i vazirligining inklyuziv ta’lim bo‘yicha buyruq va yo‘riqnomalari.

5. Almazova, O.V. Inklyuzivnoe obrazovanie: teoriya i praktika. – Moskva: Genezis, 2013.

7. Zaytsev, D.V. Inklyuzivnoe obrazovanie. – Moskva: Vlados, 2011.

8. Mishina, G.A., Yarskaya-Smirnova, YE.R. Inklyuzivnoe obrazovanie: politika i praktika. – Moskva: Variant, 2017.

9. Inklyuziv ta’lim da individual ta’lim rejalarini tuzish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. – Toshkent: Xalq ta’lim i vazirligi, 2020.

10. Bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘quv muhitini yaratish bo‘yicha qo‘llanma. – Toshkent: YUNISEF, 2018.

11. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim i vazirligining rasmiy sayti: www.xtv.uz

INSON SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISH BORASIDAGI QARASHLAR

Toshpulatov Isroyiljon Ismoilovich,
Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi, dotsenti
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson salohiyatini shakllantirish masalasi buyuk mutafakkirlarning qarashlari asosida tahlil qilinadi. Muallif qadimdan to hozirgi kungacha shakllanib kelgan g‘oyaviy-falsafiy qarashlar orqali insonning ma’naviy, aqliy va jismoniy barkamolligini ta’minlashga xizmat qiladigan mezonlarni yoritib beradi. Xususan, Abu Nasr Forobiy, Beruniy kabi Sharq mutafakkirlarining, shuningdek, G‘arb faylasuflari fikr-mulohazalari solishtirilib, ularning zamonaviy taraqqiyotga ta’siri tahlil etilgan. Maqolada inson salohiyatini rivojlantirishda tarbiya, ta’lim, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy muhitning o‘rni alohida urg‘u bilan ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Intellektual salohiyat, aqliy salohiyat, intellekt, bilimining ortib borishi, sharq mutafakkirlari, faylasuf olimlar, ijtimoiy-madaniy yangilanish, ruhiyat va ta’lim-tarbiya.

Аннотация: В статье анализируется проблема формирования человеческого потенциала на основе взглядов великих мыслителей. Автор освещает критерии, обеспечивающие духовное, психическое и физическое благополучие человека через идейно-философские воззрения, сформировавшиеся с древнейших времен до наших дней. В частности, были сопоставлены взгляды восточных мыслителей, таких как Абу Наср ал-Фараби и ал-Беруни, а также западных философов, и проанализировано их влияние на современное развитие. В статье подчеркивается роль воспитания,

образования, нравственных ценностей и социальной среды в развитии человеческого потенциала.

Ключевые слова: Интеллектуальный потенциал, умственный потенциал, интеллект, рост знаний, восточные мыслители, философы, ученые, социокультурное обновление, духовность и образование.

Abstract: The article analyzes the problem of the formation of human potential based on the views of great thinkers. The author highlights the criteria that ensure the spiritual, mental and physical well-being of a person through ideological and philosophical views that have been formed from ancient times to the present day. In particular, the views of Eastern thinkers such as Abu Nasr al-Farabi and al-Beruni, as well as Western philosophers, were compared and their influence on modern development was analyzed. The article emphasizes the role of upbringing, education, moral values and social environment in the development of human potential.

Key words: Intellectual potential, mental potential, intelligence, growth of knowledge, Eastern thinkers, philosophers, scientists, socio-cultural renewal, spirituality and education.

Kirish: Inson salohiyatini shakllantirish borasida Sharq va G‘arb mutafakkirlari qarashlarida, jumladan, “Avesto” da “...inson go‘zalligi qanchalik yuksak axloqiy-estetik ideal nuqtayi nazaridan talqin etilganini ko‘ramiz. Inson fikri, so‘zi va ishi bilan go‘zaldir degan g‘oya...”[27] hayotiy bo‘lib, unda inson boyligi uning ma’naviy qiyofasini belgilovchi omillar sifatida bilim va intellektual salohiyati muhim ekanligi ifodalanadi. Abu Nasr Forobiy fikricha, “...tushunchalar imkoniyatdan voqelikka aylanishi uchun uchinchi narsaga muhtojdirlar. Tushunchalarni bil-quvvat (salohiyat)dan amaliy quvvatga (bil-fe’lga) aylantiruvchi quvvat – moddadan ayrilgan (mujarrada) aktual-al-amaliy aql – fikrlash quvvatidir”[28]. Bizningcha, bunda inson o‘z salohiyatini foydali xatti-harakati bilan, ya’ni o‘qib o‘rganish, bilim olishga ishtiyoqi bilan namoyish qiladi hamda mavjud salohiyatini kapital sifatida jamiyat taraqqiyoti uchun safarbar etadi.

Abu Rayhon Beruniy jamiyatda kishilar o‘zaro hamkorlikda yashashlari kerakligi haqida “Muayyan vazifalarni bajarish zarurati bu insonning faoliyatining bir umrga yashash prinsipidir” va bu prinsipdan kelib chiqqan holda o‘z fikrini davom ettirib “Insonning qadr-qimmati o‘z vazifasini a’lo darajada bajarishdan iborat, shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o‘rni mehnat bilan belgilanadi”[29]. Bu esa inson kapitali nazariyasining shakllanishi mehnat (ham aqliy, ham jismoniy) bilan bog‘liq ekanligiga dalildir.

Inson salohiyatini shakllantirish borasidagi qarashlari sifatida Abu Ali ibn Sinoni quyidagi fikrlari ahamiyatlidir: “Inson boshqalarning ehtiyojlarini qondirishi sababligina inson bo‘ladi, boshqalar ham shunday yo‘l tutadi. Birov ekin ekadi, boshqa odam non yopadi, uchinchisi kiyim tikadi, to‘rtinchisi igna

[27] Маҳмудов Т. “Авесто” ҳақида. Тошкент: Шарқ, 2000. – Б 41.
[28] Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б 228.
[29] Абу Райҳон Беруний. Геодезия. –Тошкент. 1966. – Б 83.

yasaydi va hamma bir-birining ehtiyojini qondirish uchun to‘planadi”[30],-deb ta’kidlanadi. Bu esa uzoq vaqt davomida iqtisodiy taffakur moddiy boylik ortirish sohasida ro‘y berayotgan jarayonlar ta’sirida ekanligini bildiradi.

Singapur mo‘jizasining asosiy siri haqida Li Kuan Yu ta’kidlaydiki: “Agar muvaffaqqiyatning yagona formulasi bo‘lsa, u tinimsiz o‘qish, o‘rganishdir. Bu – narsalarni ishlashga majbur qilish va ular nima uchun ishlamayotganini tuchunishdir”[31]. Bu esa ta’lim olish, o‘qish va izlanish inson kapitalini samaradorligi namoyish etuvchi omil ekanligini bildiradi. Bu borada, tajribaga ega bo‘lgan davlatlar malakasiga tayanib ish ko‘rilsa, kelib chiqilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Masalan, Finlandiya tajribasidan o‘rganish mumkin: “Katta yoshdagi aholining ta’limi doirasida ro‘y berayotgan ijtimoiy va ma’naviy kapitalning o‘sishi va ijtimoiy mas’uliyatning uyg‘onishi, demokratik omillar va asoslarni amalga oshirishdagi eng muhim omillar bo‘lmoqdalar”[32], deb e’tirof etiladi. Inson kapitalining rivojlanishi hamda uning jamiyat taraqqiyotiga samarali ta’sirini ko‘rib chiqish asosida, bizningcha, insonlarning bilimlari, ko‘nikmalari va motivatsiyasi kapital ekanligi namoyon bo‘ladi. Bu esa kapitalni resurs sifatidagi foydasi, jamiyat uchun aniq ijtimoiy-iqtisodiy samara berishida namoyon bo‘ladi. Kapitalning boshqa turlari kabi inson kapitali ham investitsiyalarni talab qiladi va boshqa kapital turlariga nisbatan yuqori samaradorlik bilan tavsiflanadi.

XIX asr oxirida boshqa bir mutafakkir A.Marshall esa boylik to‘plashni inson taraqqiyoti bilan bevosita bog‘lab quyidagicha qarashini bildirgan edi. “Moddiy boyliklarni ishlab chiqarish bu faqat inson hayotini ta’minlash, uning ehtiyojlarini qondirish va uning jismoniy, aqliy va ma’naviy imkoniyatlarini o‘stirish uchundir[33], deb ta’kidlaydi. Bu esa insonning jismoniy, aqliy va ma’naviy salohiyatini kapital ko‘rinishdagi holatidir.

Inson kapitaliga nisbatan zamonaviy yondashuvlarni faylasuf olimlar U.Bouen “Inson kapitali insonlarga berilgan va ma’lum vaqt mobaynida tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish maqsadida foydalanilishi mumkin bo‘lgan bilim, malaka, motivatsiya va energiyalar yig‘indisi”[34] sifatida, F.Maxlup esa: “Insonning jismoniy va aqliy qobiliyatini ko‘paytiruvchi investitsiyalar natijasida yanada samarador bo‘ladigan mukammal mehnatdan nomukammal mehnatni ajratilishi, ya’ni mukammallashuv inson kapitalini tashkil etadi”,[35]-deb o‘z qarashlarini ifoda etgan edi.

Finlandiya tajribasidan o‘rganish mumkinki: “Katta yoshdagi aholining ta’limi doirasida ro‘y berayotgan ijtimoiy va ma’naviy kapitalning o‘sishi va

[30] Рахимов С.Р. Психолого-педагогические взгляды Абу Али ибн Сины. – Тошкент: Укитувчи, 1979. – С 120.

[31] Истеъдодли инсонлар мамлакатнинг бебаҳо бойлигидир. Ли Куан Ю ҳикматлари. Тошкент. “Zamin Nashr”, 2019. – Б 36.

[32] Ilkka Taypale. Finlandiyaning 100 ta ijtimoiy innovatsiyasi./Finlandiya qanday qilib Finlandiya bo‘ldi: siyosiy, ijtimoiy va maishiy innovatsiyalar. Toshkent, “Sharq”, 2019. – B 152.

[33] Marshall A. Principles of Economics. - London, 1983.

[34] Bowen H. Investment in learning – San Francisco 1978. – P 362.

[35] Machlup F. The Economics of Information and Human Capital. –Princeton- 1984. – P 419.

ijtimoiy mas’uliyatning uyg‘onishi, demokratik omillar va asoslarni amalga oshirishdagi eng muhim omillar bo‘lmoqdalar”[36], – deb e’tirof etiladi. Inson kapitalining rivojlanishi hamda uning jamiyat taraqqiyotiga samarador ta’sirini ko‘rib chiqish asosida bizningcha, insonlarning bilimlari, ko‘nikmalari va motivatsiyasi kapital ekanligini alohida e’tibor berishimiz mumkin.

Shuningdek, ijtimoiy darajadagi inson kapitaliga investitsiyalarning asosiy obyektlari ta’lim, sog‘liqni saqlash va madaniyat sohalari ekanligi bilan ifodalanadi. Mikrosotsial darajada insonga “Sarmoya kiritish” ta’lim, malaka, motivatsiya darajasini oshirishni anglatadi, ya’ni shaxsni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan samarali birlikka aylantiradigan fazilatlarni rivojlantiradi. Ta’kidlash lozimki, inson kapitali nazariyasi aniq amaliy salohiyatga ega, bu esa jamiyat faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, bizning fikrimizcha, inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalarning samaradorligi, investitsiyalarning ko‘payishi bilan bog‘liq, bu esa insonga investitsiyani dastlabki bosqichda, ayniqsa, yoshlikda kerakli darajada kiritilgan investitsiya kelajakda ijobiy natija berishi o‘z isbotini topmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish avvalo inson kapitalini yuksaltirish omillariga e’tibor berishdan boshlanmoqda. Jumladan, “Eng muhimi, ko‘p yillar davomida amal qilib kelingan “Davlat – jamiyat – inson” tamoyili o‘zgarib, avvalo, inson keyin esa, jamiyat va davlat manfaati barcha harakatlarning negiziga qo‘yildi. Pirovardida hayotimizda “Davlat – insonlar uchun” degan xalqchil tamoyil izchillik bilan qaror topmoqda.

Shu bilan birga ertamiz egalari bo‘lgan yosh avlodga bo‘lgan e’tibor kuchaytirilib, ta’lim berish, ilm va bilim o‘rgatish tizimi isloh qilinib, tubdan yangilanmoqda”.[37] Bunga misol tariqasida O‘zbekistonning ko‘plab hududlarida ijod va ixtisoslashgan maktablarni ochilishini keltirish mumkin. Bu ijod va ixtisoslashgan maktablarda ta’lim olayotgan yoshlar kelajakda inson kapitalining natijasini namoyon qiladi. Shuningdek, dunyo tajribasidan ma’lumki, kitobxonlik va kutubxonalarni jamiyat uchun ham, inson faoliyatining yuksalishi uchun ham alohida o‘ringa ega hisoblanadi. “Hozirgi kunda kutubxona – finlar orasida eng keng foydalaniladigan madaniy muassasadir. Bundan tashqari, kutubxona – iqtisodiy jihatdan eng manfaatli bo‘lgan axborot madaniyat muassasalaridan biridir –munitsipalitetlar byudjetlaridagi kutubxonalarning o‘rtacha hissasi 1 foizdan kamroqdir. Byudjetning bir foizini kutubxonalarga ajratish, barqaror rivojlanish shaklida bir necha barobar o‘zini qoplaydi. Kapitalning o‘sishi bilim va qobiliyatlar, farovonlik va iqtisodiy foydaning oshib borishida aks etadi. Agarda kutubxonalar bo‘lmaganida, ularni o‘ylab topish kerak bo‘lar edi”.[38]

[36] Илкка Тайпале. Финляндиянинг 100 та ижтимоий инновацияси./ Финляндия қандай қилиб Финляндия бўлди: сиёсий, ижтимоий ва маиший инновациялар. Тошкент: Sharq, 2019. – Б 155.
[37] Янги Ўзбекистон Учинчи Ренессанс остонасида. Тошкент. “Zamin Nashr”, 2021. – Б 23.

[38] Ilkka Taypale. Finlandiyaning 100 ta ijtimoiy innovatsiyasi./Finlandiya qanday qilib Finlandiya bo‘ldi: siyosiy, ijtimoiy va maishiy innovatsiyalar. Toshkent, “Sharq”, 2019. – B 152.

Xulosa qilib, inson kapitali samaradorligining ilmiy-nazariy asoslari bugungi globallashuv jarayonlarida jamiyat hayotini ijobiy tarafga o‘zgartirish yoki ijtimoiy samaradorlikni oshirishning innovatsion harakatlarini amalga oshirishda namoyon bo‘ladi. Zamonaviy davrda har qanday mamlakatning eng muhim strategik maqsadlaridan biri aynan inson kapitalini o‘rganish va rivojlantirishdan iboratdir. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etilishi, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotlarning samarasi aynan inson kapitalining bugungi rivojiga bog‘liq bo‘lgan jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маҳмудов Т. “Авесто” ҳақида. Тошкент: Шарқ, 2000. – Б 41.
2. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б 228.
3. Абу Райҳон Беруний. Геодезия. –Тошкент. 1966. – Б 83.
4. Рахимов С.Р. Психолого-педагогические взгляды Абу Али ибн Сины. – Тошкент: Укитувчи, 1979. – С 120.
5. Истеъдодли инсонлар мамлакатнинг бебаҳо бойлигидир. Ли Куан Ю ҳикматлари. Тошкент. “Zamin Nashr”, 2019. – Б 36.
6. Ilkka Taypale. Finlandiyaning 100 ta ijtimoiy innovatsiyasi./Finlandiya qanday qilib Finlandiya bo‘ldi: siyosiy, ijtimoiy va maishiy innovatsiyalar. Toshkent, “Sharq”, 2019. – B 152.
7. Bowen H. Investment in learning – San Francisco 1978. – P 362.
8. Machlup F. The Economics of Information and Human Capital. – Princeton- 1984. – P 419.
9. Янги Ўзбекистон Учинчи Ренессанс остонасида. Тошкент. “Zamin Nashr”, 2021. – Б 23.

MINTAQALAR KESIMIDA O‘ZBEK MILLIY BOSH KIYIMLARINING USLUBIY FARQLARI

Toshtemirova Mohichehra G‘olibjon qizi
O‘zbekiston-Finlyandiya Pedagogika Instituti
“Aniq va amaliy fanlar” fakulteti,
“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” 1-bosqich magistranti
E-mail: mokhitash@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada o‘zbek milliy bosh kiyimlarining turli hududlar, turmush tarzi, ijtimoiy maqom va madaniy an’analarga muvofiq shakllanishi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Bosh kiyimlardagi naqsh va bezaklar orqali do‘ppido‘zlikning hududiy maktablariga xos kompozitsion yechimlar, shuningdek, ishlatilgan matolar va ularning turlari manbalar asosida izchil tahlil qilingan. Shu bilan birga, milliy bosh kiyimlarning tarixiy an’analar negizida bugungi kundagi vazifasi — milliy bayramlar, diniy marosimlar hamda kelinlar sarpolaridagi ramziy ahamiyati ham yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion, integratsiyalashuv, “iroqi”, lachak, milliy madaniyat, moddiy, monoxrom, ranglar gammasi, nomoddiy, “plitado‘zi”, charchi, “to‘ldira”*

Аннотация: *В статье представляется научный и теоретический анализ формирования традиционных узбекских головных уборов в различных регионах, отражающих особенности образа жизни, социального статуса и культурного наследия. Исследуются региональные стили вышивки, виды тканей и декоративные элементы на основе исторических источников. Также рассматривается современная культурная роль этих изделий, подчёркивается их символическое значение в национальных праздниках, религиозных обрядах и свадебных нарядах.*

Ключевые слова: *инновационный, интеграция, «ироки», «лачак», национальная культура материал, монохромный, цветовая гамма, нематериальный, «плитадузи», «чарчи», «тулдира»*

Abstract: *This article presents a scientific and theoretical analysis of the formation of traditional Uzbek headgear across various regions, reflecting differences in lifestyle, social status, and cultural heritage. It examines regional embroidery styles, fabric types, and decorative elements based on historical sources. The study also explores the contemporary cultural role of these items, emphasizing their symbolic importance in national celebrations, religious rituals, and bridal attire.*

Key words*: innovative, integration, "Iroqi", "lachak", national culture, material, monochrome, color scheme, intangible, "plitado‘zi", "charchi", "to‘ldira"*

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti va havaskorlik san’atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish va uni amalga oshirish bo‘yicha «yo‘l xaritasi» tasdiqlandi[1].

O‘zbek bosh kiyimlari milliy madaniyat va an’analarning muhim qismidir. Ular nafaqat kundalik hayotda, balki turli marosim va bayramlarda ham alohida ahamiyatga ega. Har bir bosh kiyimi turli hududlar, turmush tarziga, ijtimoiy maqomga va madaniy an’analariga moslashtirilgan bo‘lib, o‘zbek xalqining boy tarixi va madaniyatini aks ettiradi. Aynan ayollar va erkaklar do‘ppilaridagi naqshlar orqali ularning qaysi mintaqaga tegishli ekanligi haqida bilish mumkin. Shu bilan birga bosh kiyimlar to‘qilish va tikilish yasalish usullariga, ranglar

gammasida yorkin yoki monoxrom ranglar ishlatilinganiga qarab malum viloyat yoki shahar xududida istiqomat qiluvchi kishi ekanligi haqida ma’lumot bergan. Bugungi kunda esa milliy bosh kiyimlarga tarixning bir ajralmas bo‘lagi sifatida qaralib ko‘proq milliy bayramlar, diniy marosimlar, yangi oila qurgan kelinlar sarpolarida ko‘p hollarda ko‘rish mumkin.

Salla o‘zbek ayollarining qadimiy bosh kiyimi hisoblangan. XIX asr ohirlariga kelib Samarqand, Toshkent va Andjonda bu odat qolib ketgan. Ayollar sallasi o‘zaro biroz farq qilgan. Ayollar aksar uni o‘ziga xos shakldagi maxsus bosh kiyimi - lachak ustidan o‘raganlar. Xorazmliklarning lachagi uzun matodan o‘ralib, ko‘krak va orqa tomonini bekitib turgan. Toshkentliklarda ham xuddi shu bichimda lachak kiyilgan. Samarqandliklar lachagni uzunroq matodan bir oz boshqacha shaklda tikkanlar. Janubiy Xorazm o‘zbeklari sallani lachak kiymasdan o‘rama salla shaklida aylantirab, bir uchini ko‘kragiga tashlaganlar. Odatda, ilgari uydan tashqariga chiqilsa, ayollar salla ustidan mursak yoki uchburchak ro‘mol shaklida oq yoki qizil ip matodan tikilgan charchi yopinib chiqqanlar. Ayollarning aksari vaqt o‘tib ana’naviy bosh kiyimi salladan voz kechib, har xil rangdagi turli materialdan to‘qilgan ro‘mol yopina boshlaganlar. Ro‘mol o‘rash yoki yopinish ham turlicha. Faslga qarab, katta, rangli, ko‘p gulli ipak, jun yoki to‘qilgan tivit ro‘mol keng tarqalgan. Yoshi katta ayollarining oq doka ro‘mol o‘rash odati hozirgacha saqlangan[2].

Qashqadaryo do‘ppilari Shahrisabz va Kitob tumanlarida juda qadimdan iroqi nusxada tayyorlanib kelingan. Bunday do‘ppilarga iroqi gul tikish usullarining, asosan, “sanama”, “bosma” chok xillari ishlatiladi. Do‘ppilarga maxsus jiyaklar qadalib, bezak beriladi. Do‘ppilarning ko‘rinishi (shakli) esa yarim konussimon bo‘ladi. Shahrisabz va Kitob tumanlarida “qalpoq” deb ataydilar. Toshkentda esa bunday do‘ppilar “gilamdo‘ppi” deyiladi. Qashqadaryoda“iroqi” do‘ppilardan tashqari “piltado‘zi”, yoki “to‘ldira” deb nomlangan do‘ppilar keng tarqalgan(1-rasm).

1-rasm. Ayollar va erkaklar milliy bosh kiyimlari

Namangan bosh kiyimlari orasida XIX asrning boshlarida Chust do‘ppilari udum bo‘lgan. Do‘ppilarning avrasi qora satindan, astari paxta matodan tayyorlangan kizagining chetiga qora paxta yoki ipak ipdan tayyorlangan jiyak ishlatilgan. Do‘ppilarning shakli to‘rtburchak, tepasi to‘r tomonli, yassi,

uchburchaksimon qatlanadigan bo‘lgan. Kashtalariga “qalampir”, “ko‘z”, “qubba”, “parrak”, “zuluk zanjira”, “zanjira dandona”, “girih”, “zuluk”, “nohat”, “chetan”, “bargak” kabi gul nusxalari ishlatilgan. Ular, asosan, oq ipak ip bilan tikilgan. Kashta gullarining “ko‘z”lariga pushti, sariq, to‘q qizil, siyoh, to‘q yashil rangli iplar ishlatilgan. Farg‘ona do‘ppilari Farg‘ona do‘ppichiligida erkaklar uchun mo‘ljallangan Chust do‘ppilaridan keyin ularga o‘xshatma qilib, Marg‘ilon do‘ppilari yaratilgan.

Marg‘ilon do‘ppilariga ham, asosan, qora rangdagi satin va ipak matolar, astariga paxta matosi ishlatilgan bo‘lib, do‘ppilarining tepa qismi teng to‘rt bo‘laklarga ajratilib, to‘rt karjiga to‘rt donalik qalampir nusxasi tikilgan. Marg‘ilon do‘ppisining qalampir nusxasi Chust do‘ppisinikiga nisbatan ingichkaroq va kashta tikish usuli o‘zgacha bo‘lgan. Marg‘ilon do‘ppilarining gullari ham oq ipak bilan tikilgan. Do‘ppilar “piltado‘zi” usulida tayyorlangan.

Samarqand do‘ppilari ko‘rinishi to‘rt tomonli, tepasi baland, kizagi keng, kizagining chetiga to‘q rangli matodan jiyak tikiladigan do‘ppilarni erkaklar sevib kiyishadi. Bunday do‘ppilarning avrasi qora satin, ipak, astarisiga satin, chit yoki bo‘z ishlatilgan. “Piltado‘zi” texnikasida tayyorlangan. Kashtalar, asosan, rangli ipak iplar bilan tikilgan. O‘tgan asrlarda Toshkentda erkaklar uchun mo‘ljallangan do‘ppilarning ko‘p xillari mavjud bo‘lgan. Masalan, ko‘rinishi to‘rt tomonli, tepasi konussimon, kizagi keng, uning chetiga keng jiyak tikiladigan do‘ppilar bo‘lganki, ular och va to‘q yashil ipak matolar, satin, ba’zida esa yashil bo‘zdan tayyorlangan. Astarisiga, asosan, paxtadan tayyorlangan matolar ishlatilgan. Do‘ppilar qo‘l ishi yordamida tayyorlangan, “tagdo‘zi” kashta usulidan foydalanilgan.

Buxoro uslubiga xos do‘ppilarning eng mashxuri “zardo‘zi” do‘ppilardir. Zardo‘zlik san’ati o‘zbek badiiy kashtachilik merosining o‘ziga xos go‘zal, qimmatbaho turlaridan biri bo‘lib, ildizi uzoq asrlarga borib taqaladi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Amir Temur Iroqdan olib kelgan hunarmand usta do‘ppilarga iroqcha kashta tikib, “Iroqi nusxa” paydo qilgan ekan. XIX asr boshlarida do‘ppilarning shakli, asosan, dumaloq, konussimon bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik, asr o‘rtalariga kelib, ularning to‘rt tomonli shakli ham tayyorlana boshlandi. Unda “piltado‘zi” usuli qo‘llanildi. Piltasiga qog‘oz ishlatilgan. Erkaklar do‘ppisi — kuloxlar ham keng istemolda bo‘lgan. Bunday bosh kiyimlarga bo‘z, satin matolar ishlatilgan. Matoni uchqavat qilib, uning yuzasini to‘ldirib kashta tikilgan. Ko‘pincha, birinchi qavatga oq bo‘z, qolgan ikki qavatiga satin ishlatilgan. Texnikasi qo‘l ishi, kashta “tagdo‘zi” usulida, “iroqi” chokida ipak iplari bilan tikilgan.Ayollar, qizlar kiyishiga mo‘jallangan Buxoro do‘ppilari, asosan, oq bo‘zga, sariq satinga, turli rangdagi baxmalga “zardo‘zi-guldo‘zi”, “zardo‘zi-zamindo‘zi” usulida tayyorlangan.“Zardo‘zi” — fors tilidan olingan so‘z bo‘lib, zar — tilla, do‘zidan — tikmoq, ya’ni tilla ip bilan kashta tikish ma’nosini bildiradi. Zardo‘zi usulda kashtalar zar yoki kumush iplar bilan tikiladi. Zar va kumush iplarning bir necha xil turlari mavjud.

Surxondaryo do‘ppilari shakllanishida xalq amaliy kashtachilik sanati ham o‘ziga xos uzoq tarixiy yo‘l bosib o‘tgan. Xalq orasida kashta tikish san’ati an’analari muntazam rivojlana borib, avloddan avlodga o‘tib, takomillashib kelgan.

Surxondaryoda milliy kashtachilik merosining ajralmas durdonasi bo‘lgan do‘ppi-do‘zlik san’atining ham o‘ziga xos xalqchil uslubi saqlanib qolingan. Turli tuman, o‘ziga xos naqshlar tikilgan, kamalakning yetti xil ranglarida jilolanib, tovlanuvchi do‘ppilar xalqimiz qalbining jo‘shqinligini va bu qalb egalarida tabiatga yaqin, hamnafas ekanligini so‘zlab turgandek. Surxondaryo do‘ppilarining “piltado‘zi” yoki “to‘ldirma”, “pulakcha” yoki “tangacha” va “shabanok” yoki “munchoqli” do‘ppi deb atalgan turlari ko‘p tarqalgan[3].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning qadimiy merosi sanalgan ushbu bosh kiyimlar tarixda muayyan kundalik vazifa va insonning ijtimoiy mavqeyi to‘g‘risida ma’lumot bergan. Bugungi kunga kelib esa ularning o‘ta qadimiy va takrorlanmas namunalari qayta ta’mirlanib, Madaniy meros agentligi tomonidan muhofaza qilinmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.05.2020 yildagi PF-6000-son
2. D.Rahmatullayeva, U.Xodjayeva, F.Ataxanova.Libostarixi .T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2015-yil. — 336 bet
3. U.Xodjayeva, Kostyum va uning bichimi tarixi, «Fan va texnologiya», 2019,464 bet.
4. Murodjon Aminov, Buriboy Axmedov, O‘zbekiston milliy Ensiklopediyasi,
5. Raximov, S, O'zbek milliy bosh kiyimlari. Tashkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2012-yil
6. Qodirov, T., O'zbek xalq san'ati. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti, 2009-y
7. Xudoyberdiyev, A., O'zbek milliy liboslari va bosh kiyimlari. Tashkent: "Fan" nashriyoti, 2011-yil
8. Tursunov.F, O'zbek kiyimlari va milliy bezaklar. Buxoro: BuxoroUniversitetinashriyoti, 2013
9. Zohidov. M., O'zbek xalqining xalq san'ati: kiyim-kechaklar va bosh kiyimlar. Tashkent: "O'zbekiston" nashriyoti.
10. Saidov. M., O'zbek etnografiyasi. Tashkent: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2010
11. Mardonov.B, O'zbek bosh kiyimlari: Tarix va an'analar. Tashkent: "Fanvatexnologiya" nashriyoti, 2004-yil
12. Baxramov.A., O'zbek bosh kiyimlarining ramziy ma'nosi. Tashkent: "Sharq" nashriyoti, 2014

PROFESSOR-O’QITUVCHILARNING DARS MASHG’ULOTIDAGI FAOLIYATINI BAHOLASH: IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURAT

Urakov Sherzod Raxmanovich
Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
usherzod78@gmail.com
+998958980355
FAXRIDDINOV MUHAMMAD FAXRIDDIN O‘G‘LI
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,tayanch doktoranti (PhD)
fakhriddinovmukhammad0@gmail.com
+998943719966

Anotatsiya. Bugungi kunda ta'lim tizimida professor-o’qituvchilarning dars mashg’ulotidagi faoliyatini baholash ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki o’qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishni talab etadi. O’qituvchilarning faoliyatini baholash orqali ularning professional rivojlanishi, o’z-o’zini takomillashtirish imkoniyatlari yaratiladi.

Kalit so‘zlar: Oliy ta’lim, professor-o‘qituvchilar, dars mashg‘ulotlari, faoliyatni baholash, pedagogik metodlar, o‘qitish usullari, bilim olish jarayoni, zamonaviy ta’lim tizimi.

O’qituvchilarning dars mashg’ulotidagi faoliyatini baholashda bir necha asosiy omillarni inobatga olish kerak. Birinchidan, natijaviy baholash metodologiyasi yordamida o’qituvchilarning darsni qanday o’tkazishi, talabalar bilan qanday munosabatda bo’lishi, o’quv jarayonida innovatsion yondashuvlar qo’llay olish qobiliyatlari aniqlanadi. Bu jarayon o’qituvchilarning pedagogik faoliyatini yanada sifatli bo’lishiga yordam beradi. Masalan, pedagogik metodlarni qo’llashda o’qituvchilar o’quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olishlari kerak va bu jarayon o’qituvchilarni o’zaro baholashga ham undaydi.

O’qituvchilarning dars mashg’ulotidagi faoliyatini baholashda bir necha asosiy omillarni inobatga olish zarur.

1. Natijaviy baholash metodologiyasi.

Natijaviy baholash metodologiyasi o’qituvchilarning darsni qanday o’tkazishi, talabalar bilan qanday munosabatda bo’lishi va o’quv jarayonida innovatsion yondashuvlar qo’llay olish qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradi. Tadqiqotlar ko’rsatadiki, darsning sifatini baholashda o’qituvchining darsni rejalashtirish va o’tkazish uslublari muhim ahamiyatga ega. Masalan, o’qituvchilar o’quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olib, turli usullarni qo’llashlari kerak. Bu, o’quvchilarning o'z-o'zini anglashini va ta'lim jarayonida faol ishtirokini oshiradi.

2. Interaktivlik va o'zaro munosabatlar.

Darsda interaktivlikni oshirish o’quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi. O’qituvchilar talabalar bilan samimiy va ochiq munosabatlar o’rnatishi, ularning fikrlarini tinglashi va e'tibor berishi muhimdir. Psixologik tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, o’quvchilarga o’z fikrlarini bildirish imkoniyati berilganda, ular dars jarayonida yaxshiroq ishtirok etadilar va o’z bilimlarini samarali kengaytiradilar.

3. Innovatsion yondashuvlar.

O’qituvchilar o’z darslarida innovatsion yondashuvlarni qo’llay olishlari kerak. Masalan, raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish, masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanish yoki o’yin asosidagi o'qitish usullarini joriy etish o'quvchilarni jalb qilishda samarali bo’ladi. Xorijiy tadqiqotlarga ko’ra, innovatsion metodlar o’quvchilarning o’qish qobiliyatini 30% ga oshirishi mumkin.

4. O’zaro baholash.

O’zaro baholash jarayoni o’qituvchilarning o’zaro tajriba almashishiga va bir-birlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashlariga yordam beradi. Bu jarayon o’qituvchilarning o'zaro yordam ko’rsatish va yangi pedagogik yondashuvlarni o’rganishga imkon yaratadi. O’zaro baholash o’qituvchilarni o’z faoliyatlarini sinchkovlik bilan tahlil qilishga undaydi.

5. O’quvchilar bilan aloqa.

O’quvchilar bilan samarali aloqa o’qituvchilarning dars jarayonidagi muvaffaqiyatini belgilovchi omillardan biridir. Talabalar fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo’lishlari, o’qituvchilarning pedagogik yondashuvlarini takomillashtirishga yordam beradi. O’quvchilarning fikrlarini inobatga olish, o’qituvchilarning o’z pedagogik yondashuvlarini yangilashga yordam beradi.

6. O’qitish natijalari.

O’qituvchilarning faoliyatini baholashda o’quvchilarning natijalari muhim rol o’ynaydi. O’quvchilarning bilim darajasi, testlar va nazorat ishlaridan olingan natijalar o’qituvchilarning dars o’tkazish sifatini ko’rsatadi. Shuningdek, o’quvchilarning dars davomida ko’rsatgan faolligi va darsga qiziqishi ham baholashda e’tiborga olinishi kerak.

O’qituvchilarning dars mashg’ulotidagi faoliyatini baholash jarayoni murakkab va ko‘plab omillarga bog‘liq. Bu jarayon o’qituvchilarning professional rivojlanishi, o’quv jarayonining sifatini oshirish va o’quvchilarning muvaffaqiyatlariga erishish uchun muhim ahamiyatga ega. Baholash jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodlarni qo’llash o’qituvchilarning ta'lim sifatini yanada yaxshilashga yordam beradi.

Ikkinchidan, baholash jarayoni o’qituvchilarning o‘zaro tajriba almashish va hamkorlik qilish imkoniyatlarini yaratadi. O’qituvchilar o’zaro baholash orqali bir-birlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashlari mumkin. O’zaro tajriba almashish, o’qituvchilarning professional o’sishini rag'batlantiradi va ta'lim jarayonini yaxshilaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o’zaro baholash o’qituvchilarning o’zaro yordam ko’rsatish va yangi pedagogik yondashuvlarni o’rganishga imkon beradi.

O’qituvchilarning dars mashg’ulotidagi faoliyatini baholash jarayoni o’zaro tajriba almashish va hamkorlik qilish imkoniyatlarini yaratadi. O’qituvchilar o’zaro baholash orqali bir-birlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashlari mumkin. Bu jarayon nafaqat o’rganish, balki o’qituvchilarning professional o’sishini rag'batlantiradi va ta'lim jarayonini yaxshilaydi.

O’zaro baholashning foydalari

1. **Tajribani almashish**: O’zaro baholash jarayoni o’qituvchilarga o’z tajribalarini baham ko’rish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o’zaro tajriba almashish orqali o'qituvchilar yangi pedagogik usullarni o'rganishadi.
2. **Kuchli va zaif tomonlarni aniqlash**: O’zaro baholash jarayonida o’qituvchilar bir-birlarining dars o'tkazish uslublarini baholaydilar va o'zaro fikr almashadilar. Bu jarayon o'qituvchilarga o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlashda yordam beradi va ularning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishlarini kuchaytiradi.
3. **Professional o'sish**: O’zaro baholash o’qituvchilarning professional o’sishini rag'batlantiradi. O'qituvchilar o'zaro yordam ko'rsatish va yangi pedagogik yondashuvlarni o'rganish orqali o'z malakalarini oshiradilar.
4. **Ta'lim jarayonini yaxshilash**: O’zaro baholash ta'lim jarayonini yaxshilashga yordam beradi. O’qituvchilar birgalikda o’qitish strategiyalarini ishlab chiqishadi, bu esa o’quvchilarning o’qish natijalariga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Xorijiy tadqiqotlarga ko'ra, o’zaro baholash jarayonida ishtirok etgan o’quvchilar o’z bilim darajalarini 25% ga oshirishlari ko’rsatilgan.

O’zaro baholash jarayoni o'qituvchilar o'rtasida tajriba almashish va hamkorlikni kuchaytiradi. Bu jarayon o'qituvchilarning professional rivojlanishiga, ta'lim jarayonining sifatini oshirishga va o'quvchilarning muvaffaqiyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar o'zaro baholash orqali o'z pedagogik yondashuvlarini takomillashtirishga va ta'lim sifatini yaxshilashga intilishadi.

Uchinchidan, professor-o’qituvchilarning faoliyatini baholash o’quvchilarning natijalari bilan bog’liq. O’qituvchilarning sifatli dars o’tishi, o’quvchilarning muvaffaqiyatlariga bevosita ta’sir ko’rsatadi. O’quvchilar o’z bilimlarini shakllantirishda o’qituvchilarning pedagogik yondashuvi va darsni o’tkazish uslublaridan keng foydalanadilar. Shuning uchun, o’qituvchilarning faoliyatini baholash o’quvchilarning bilim darajasini oshirishga xizmat qiladi. O’quvchilar o’z fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo’lishi, ularga o’z o’qituvchilarini baholashda ishtirok etishga imkon beradi.

Professor-o’qituvchilarning faoliyatini baholash o’quvchilarning natijalari bilan bog’liq. O’qituvchilarning sifatli dars o’tishi, o’quvchilarning muvaffaqiyatlariga bevosita ta’sir ko’rsatadi. O’quvchilar o’z bilimlarini shakllantirishda o’qituvchilarning pedagogik yondashuvi va darsni o’tkazish uslublaridan keng foydalanadilar.

1. O’qituvchilarning ta'siri

O’qituvchilarning darsdagi faoliyati, ularning pedagogik uslublari va ta'lim metodlari o’quvchilarning muvaffaqiyatiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Tadqiqotlarga ko’ra, o’qituvchilarning sifatli dars o’tkazishi o’quvchilarning bilim darajasini 20-

30% ga oshirishi mumkin. Masalan, 2017-yilda o'tkazilgan bir tadqiqot, interaktiv dars metodlaridan foydalangan o'qituvchilar o'quvchilarning o'quv natijalarini sezilarli darajada yaxshilaganini ko'rsatdi.

2. Pedagogik yondashuvlar

O’quvchilar o’z bilimlarini shakllantirishda o’qituvchilarning pedagogik yondashuvlaridan keng foydalanadilar. O'qituvchilar o'z darslarida turli pedagogik metodlarni (masalan, faol o'qitish, muammoli ta'lim, yoki loyiha asosidagi o'qitish) qo'llaganlarida, o'quvchilar o'zlarining ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

3. O’quvchilarning fikrlarini bildirish imkoniyati

O’quvchilar o’z fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo’lishi, ularga o’z o’qituvchilarini baholashda ishtirok etishga imkon beradi. Bu jarayon o’quvchilarning o’z-o’zini anglashini oshiradi va ta'lim jarayonida faol ishtirok etishlariga yordam beradi. O’quvchilar o'z fikrlarini bildirishga tayyor bo'lganda, ular o'qituvchilarning pedagogik uslublarini yaxshilashga yordam beradilar, bu esa ta'lim sifatini oshiradi.

Shuning uchun, o’qituvchilarning faoliyatini baholash o’quvchilarning bilim darajasini oshirishga xizmat qiladi. O’qituvchilarning sifatli darslari o’quvchilarning muvaffaqiyatlariga bevosita ta’sir ko’rsatadi, bu esa o’qituvchilar va o’quvchilar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi. O’quvchilarni baholash jarayoni, ularning ta'lim jarayonidagi ishtirokini oshiradi va o’qituvchilarni o’z pedagogik yondashuvlarini takomillashtirishga undaydi.

Baholash tizimini yaratishda quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

1. Pedagogik kompetensiya
- O’qituvchining bilim berish qobiliyati.
- Innovatsion pedagogik uslublarni qo’llay olish.

2. Darsni o'tkazish uslubi
- Darsni rejalashtirish va tashkil etish.
- O’quvchilar bilan interaktiv munosabatlar o’rnatish.

3. O’quvchilar bilan aloqa
- O’quvchilarning fikrlarini tinglash va inobatga olish.
- Ularning ehtiyojlariga javob bera olish.

4. O’qitish natijalari
- O’quvchilarning bilim darajasi va muvaffaqiyatlari.
- Testlar, nazorat ishlaridan olingan natijalar.

5. O’z-o’zini baholash
- O’qituvchining o’z faoliyatini tahlil qilish.
- O'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlash.

6. O’zaro baholash
- Hamkasblar tomonidan o’zaro baholash jarayonlari.
- Tajriba almashish.

7. O’quv muhitining sifatini baholash
- Dars muhitining tozaligi va qulayligi.
- O’quvchilarni rag’batlantirish va motivatsiya berish.

8. Jamoaviy ishlash qobiliyati

- Guruhda ishlash va hamkorlik qilish.
- O’quvchilarning jamoaviy faoliyatini qo’llab-quvvatlash.

Bu mezonlar baholash tizimini yanada samarali va adolatli qilishga yordam beradi, shuningdek, o’qituvchilarning professional rivojlanishini qo’llab-quvvatlaydi.

Xulosa. Professor-o’qituvchilarning dars mashg’ulotidagi faoliyatini baholash ijtimoiy-pedagogik zaruratdir. Bu jarayon o’qituvchilarning professional rivojlanishi, o’quv jarayonining sifatini oshirish va o’quvchilarning muvaffaqiyatlariga erishish uchun muhim ahamiyatga ega. O’qituvchilarning faoliyatini baholash, ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi va o’qituvchilar va talabalar o’rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi. O’qituvchilar o’z faoliyatini baholash orqali o'z pedagogik yondashuvlarini yangilashga va o’zlarining o'qitish mahoratlarini oshirishga intilishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Andersson, E.** *Self-assessment in teaching: Strategies for improvement*. Scandinavian Journal of Educational Research, 66(5), 580-599. (2022).
2. **Huang, Y.** *Innovative assessment methods in higher education: A comparative study*. Journal of Higher Education, 40(1), 15-30. (2023).
3. **Tanaka, K.** *Comprehensive evaluation systems in Japanese higher education*. Asian Journal of Education and Training, 7(3), 25-33. (2021).
4. **Lee, H.** *The role of student evaluations in South Korean universities*. Journal of Educational Administration, 58(6), 731-746. (2020).
5. **Davlatov, A.** *O‘qituvchilarni baholash tizimlari: nazariy va amaliy jihatlari*. Journal of Educational Research, 15(3), 45-56. (2021).
6. **Khalilov, I.** *Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ta’lim sifatiga ta‘siri*. European Journal of Education Studies, 6(4), 23-34. **(**2019).
7. **Malikov, R.** *Yevropa ta’lim tizimlarida baholash metodikasi*. Berlin: Springer. (2022).
8. **Jumaev, S.** *Oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarning professional rivojlanishi*. Tashkent: O‘zbekiston ta’limi. (2023).

EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY ASOSLAR, AMALIY YO‘NALISHLAR VA ISTIQBOLLAR

Xaliqova Xurshida Abdullayevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik madaniyat tushunchasining mazmuni, uni rivojlantirishning zaruriyati hamda asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ekologik madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha milliy va

xalqaro tajribalar, yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni hamda istiqboldagi vazifalar yoritib beriladi.

Annotation: This article analyzes the essence of the concept of ecological culture, the necessity of its development, and its main directions. It also highlights national and international experiences in developing ecological culture, its role in the upbringing of the younger generation, and the tasks and prospects for the future.

Аннотация: В данной статье анализируется содержание понятия экологической культуры, необходимость её развития, а также основные направления этого процесса. Кроме того, освещается национальный и международный опыт в области развития экологической культуры, её роль в воспитании подрастающего поколения и задачи на перспективу.

Kalit so‘zlar: ekologik madaniyat, ekologik ong, ekologik tarbiya, ekologik qadriyatlar, atrof-muhit muhofazasi, barqaror rivojlanish, milliy va xalqaro tajriba, yosh avlod, ekologik mas’uliyat.

Kirish

Bugungi kunda insoniyat tabiat bilan bo‘lgan munosabatlarini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘lib bormoqda. Atrof-muhit muammolari, global isish, biologik xilma-xillikning kamayishi, havo va suvning ifloslanishi nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va madaniy muammoga ham aylanib ulgurgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, insonlarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish dolzarb masalaga aylanib, nafaqat tabiatni asrash, balki kelajak avlodga sog‘lom muhit qoldirish yo‘lidagi muhim vazifa sifatida e’tirof etiladi. XXI asrda ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish dolzarb masalaga aylangan. Insoniyat taraqqiyoti davomida tabiat resurslaridan foydalanish ortib, bu esa ekologik muvozanatning buzilishiga olib keldi. Shunday sharoitda ekologik madaniyatni rivojlantirish ekologik muammolarni yumshatishning asosiy sharti sifatida qaralmoqda.

Ekologik madaniyat — bu nafaqat ekologik bilimlar majmui, balki insonning tabiatga ongli, mas’uliyatli munosabatini ifodalovchi fazilatlar tizimidir. U shaxsda ekologik qadriyatlar, hissiyotlar va amaliy faoliyat orqali shakllanadi.

Ekologik madaniyat tushunchasi shunchaki atrof-muhitga hurmat bilan qarash emas, balki tabiat va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlikni tushunish, ekologik mas’uliyatni his qilish va kundalik hayotda tabiatga zarar yetkazmaydigan odatlarni shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Zero, bugungi yosh avlod qanday ekologik qarashlar asosida voyaga yetishi ertangi kunimizning qiyofasini belgilab beradi. Ushbu maqolada ekologik madaniyat tushunchasining mazmuni, uni rivojlantirishning nazariy asoslari hamda amaliy yo‘nalishlari keng tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy va xalqaro tajriba misolida ekologik madaniyatni rivojlantirish borasidagi asosiy yo‘nalishlar, yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va kelgusidagi asosiy vazifalar yoritib beriladi.

Ekologik madaniyat tushunchasining nazariy asoslari

Ekologik madaniyat – bu insonning tabiatga bo‘lgan munosabati, ekologik qadriyatlarni anglash darajasi, atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli harakat qilishga tayyorligi bilan bog‘liq ijtimoiy-madaniy hodisadir. U faqatgina bilimlar majmuasi

emas, balki shaxsning ekologik tafakkuri, hissiyotlari va amaliy faoliyati bilan uyg‘unlashgan murakkab tizimdir.

Nazariy jihatdan ekologik madaniyat quyidagi komponentlardan iborat deb qaraladi:

- **Ekologik bilimlar** – tabiat qonuniyatlari, muhit holati, ekologik xavf-xatarlar haqidagi tushunchalar.
- **Ekologik ong** – tabiatni qadrlash, insonning ekologik holatga bo‘lgan shaxsiy munosabati.
- **Ekologik odatlar** – kundalik hayotda atrof-muhitga zarar yetkazmaslikka qaratilgan amaliy harakatlar (chiqindini to‘g‘ri ajratish, suvni tejash, daraxt ekish va h.k.).

Ekologik madaniyat tushunchasi ekologiya, falsafa, pedagogika va sotsiologiya fanlari kesishmasida shakllanadi. Xususan, A.N. Formozov, V.I. Vernadskiy, D.L. Belyayev kabi olimlarning ishlanmalarida inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tamoyillari asoslab berilgan.

Ekologik madaniyatni rivojlantirishning amaliy yo‘nalishlari

Ekologik madaniyatni shakllantirishda quyidagi amaliy yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. **Ta’lim-tarbiya tizimi orqali tarqatish** – maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan bosqichlarda ekologik bilim va qadriyatlarni singdirish.
2. **Ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot** – ekologik muammolar haqida hujjatli filmlar, maqolalar, ijtimoiy tarmoqlarda kampaniyalar orqali jamiyat ongiga ta’sir ko‘rsatish.
3. **Jamoatchilik tashabbuslari** – ko‘ngillilar harakati, “yashil” aksiyalar, ekologik festivallar orqali aholining faolligini oshirish.
4. **Qonunchilik va boshqaruv mexanizmlari** – ekologik xavfsizlikni ta’minlovchi qonunlar, davlat dasturlari va nazorat tizimi orqali ekologik madaniyatni rivojlantirishga sharoit yaratish.

Milliy va xalqaro tajriba

Ekologik madaniyat sohasida dunyo miqyosida ijobiy tajribalar mavjud. Misol uchun:

- **Finlandiya**da maktablarda ekologik tarbiya majburiy fan sifatida o‘qitiladi, har bir o‘quvchi ekologik loyihalarda qatnashadi.
- **Yaponiya**da esa “ekologik maktablar” tajribasi joriy etilgan bo‘lib, u yerda o‘quvchilar chiqindini ajratish, suv va elektr energiyasini tejash madaniyatiga o‘rgatiladi.

O‘zbekiston tajribasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ekologik ta’lim “Yashil makon”, “Bir million daraxt” kabi loyihalar, maktab va universitetlarda ekologiya fanining joriy etilishi orqali shakllanmoqda. Shu bilan birga, ekologik ongni keng jamoatchilik orasida shakllantirish bo‘yicha hali bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar ham yetarli.

Ekologik madaniyatni rivojlantirish istiqbollari

Kelajakda ekologik madaniyatni yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish zarur:

- **Ta’lim tizimini yanada integratsiyalash** – ekologik muammolarni fanlararo yondashuv asosida o‘rganish.
- **Innovatsion texnologiyalarni joriy etish** – raqamli o‘quv platformalar, ekologik simulyatsiyalar va interaktiv dasturlar orqali ta’sirchanlikni oshirish.
- **Mahalliy darajada ekologik yetakchilarni tayyorlash** – maktablar, jamoalar va universitetlarda “ekokoordinator”lar tarmog‘ini shakllantirish.

Xulosa

Ekologik madaniyat – bu insonning tabiat bilan uyg‘un yashashini, ekologik qadriyatlarni anglab, o‘zining har bir harakatida mas’uliyatli bo‘lishini talab qiladigan muhim ijtimoiy hodisa. Uni rivojlantirish faqat davlat yoki ta’lim tizimining vazifasi emas, balki har bir insonning shaxsiy mas’uliyati hisoblanadi. Zero, har birimizning kichik ekologik odatlarimiz – suvni tejash, chiqindilarni ajratish, daraxt ekish yoki ortiqcha iste’moldan voz kechish – umumiy ekologik madaniyatni shakllantiradi. Milliy va xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, ekologik madaniyatni rivojlantirish izchil, tizimli va innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida ekologik masalalarni integratsiyalash, aholining ekologik savodxonligini oshirish, yosh avlodni ekologik ongli qilib tarbiyalash istiqboldagi asosiy vazifalardandir.

Xulosa qilib aytganda, ekologik madaniyatni rivojlantirish orqali biz nafaqat tabiatga, balki o‘zimizga, kelajagimizga ham yaxshilik qilamiz. Bu yo‘ldagi har bir harakat – kichik bo‘lsada – jamiyatning barqaror rivojlanishida katta o‘rin tutadi. Ekologik ongli jamiyat esa bugunning emas, balki ertangi kunga belgilab qo‘yilgan eng muhim yutuq bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Formozov A.N. Inson va tabiat: ekologik madaniyat asoslari. Moskva: Nauka, 1983.
2. Vernadskiy V.I. Biosfera va noosfera. Moskva: Mysl, 1989.
3. Belyayev D.L. Ekologik tarbiya nazariyasi va metodikasi. Moskva: Prosveshchenie, 1990.
4. UNESCO. Environmental Education: Principles and Practice. Paris: UNESCO, 2017.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Yashil makon umumxalq harakati to‘g‘risida qaror. Toshkent, 2021.
6. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. Respublikadagi ekologik vaziyat bo‘yicha hisobot. Toshkent, 2024.
7. Jalolov N. Ekologik madaniyat: nazariy va amaliy jihatlar // O‘zbekiston pedagogika jurnali, 2023, №2, 45-52-betlar.
8. Sobirov Sh. Yosh avlod ekologik tarbiyasida maktabning o‘rni // Ta’lim va rivojlanish, 2022, №4, 33-40-bet.
9. Xalqaro ekologik tashkilotlar materiallari: WWF, Greenpeace, UNEP hisobotlari (2022–2024 yillar).

KASBIY RIVOJLANISHNI QO‘LLAB-QUVVATLOVCHI MUHIT – ZAMONAVIY PEDAGOGIKANING USTUVOR YO‘NALISHI SIFATIDA

Xalmonov Umid Ochilovich,
O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi,
E-mail: umidxalmonov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiluvchi ta’lim muhitini shakllantirishning dolzarb masalalari tahlil etilgan. Pedagoglarning innovatsion yondashuvlarni qabul qilishi, kreativ salohiyatini namoyon etishi, mustaqil kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzishi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi omillar ta’lim sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan. Maqolada kasbiy rivojlanishning vertikal tizimi, “Metodik marafon” va “Meet up” tadbirlari misolida pedagoglar uchun tashkil etilgan mahorat darslari, metodik yordam shakllari hamda tarmoqli o‘rganish muhiti tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: uzluksiz kasbiy rivojlanish, innovatsion ta’lim muhiti, mahorat darsi, (AKT), Metodik marafon, kasbiy rivojlanish kuni, pedagogik kompetensiya, tajriba almashinuvi.

Annotation: This article analyzes the current issues of creating an educational environment that serves to ensure the continuous professional development of teachers. It is emphasized that factors such as the adoption of innovative approaches by teachers, the manifestation of their creative potential, the formation of an independent professional development trajectory, and the effective use of information and communication technologies are of decisive importance in improving the quality of education. The article analyzes the vertical system of professional development, master classes organized for teachers on the example of the "Methodological Marathon" and "Meet Up" events, forms of methodological assistance, and a networked learning environment..

Keys: continuous professional development, innovative learning environment, master class, (IT), Methodological marathon, professional development day, pedagogical competence, exchange of experience..

Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar sohaning falsafasi, asosiy qonuniyatlari va paradigmalarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini kun tartibiga chiqarmoqda. Bu o‘zgarishlar, o‘z navbatida, pedagog shaxsiga nisbatan yondashuvni o‘zgartirish, uning kasbiy mahoratini oshirish jarayonida subyekt sifatida faol qatnashishi, kreativlik salohiyatini namoyon etishi, innovatsion yangiliklarni qabul qilib, amaliy faoliyatiga integratsiya qila olishi, shuningdek, uzluksiz kasbiy rivojlanishning mazmuni va ahamiyatini chuqur anglashi uchun

maqbul shart-sharoitlarni yaratish hamda bu jarayonni tizimli tashkil etishni dolzarb masala sifatida belgilamoqda.

Shuningdek, o‘qitishning zamonaviy metodikalarini o‘zlashtirish, ishlab chiqish, jarayonga kiritish, axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, ijodkorlik va nostandartlikni namoyon qiladigan o‘qituvchilarga yaqqol ehtiyoj seziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi, aksariyat pedagog xodimlarning bilim va malakasi bugungi zamon talablaridan ortda qolmoqda” [1; 146-b.]. Shu bois, ta’lim sohasidagi islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta’minlash, axborot-metodik ta’minotni kuchaytirish hamda innovatsion ta’lim muhitini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ta’limda innovatsion harakatlarning faollashuvi pedagoglarda individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini mustaqil tuzish va amalga oshirish asnosida shakllanadigan kasbiy missiyasi o‘quvchilarga axborotlarni qabul qilish, saralash, o‘zlashtirish, ijodiy qayta ishlash va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishdagi hissasi bilan baholanadi. Bu jarayonda axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ta’lim muhitining jozibadorligi, samaradorligi, unumdorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi hamda interfaollik va kommunikativlikni rag‘batlantiradi.

Kasbiy tayyorgarlik – ta’lim oluvchilarning muayyan ish yoki ishlar majmuini bajarish uchun zarur malakalarni jadal egallash maqsadini nazarda tutadigan pedagogik jarayon[2; 58-b.].

Kasb mahoratiga va malakaga ega bo‘lmagan pedagoglar yosh avlodga sifatli ta’lim berish, ularda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘lmaydilar.

O‘qituvchilarning malakasini oshirishni, eng avvalo, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, mavjud ko‘nikma hamda malakalarini takomillashtirish, shuningdek, ma’naviy-axloqiy sifatlarini boyitish sifatida tushunish maqsadga muvofiqdir. Binobarin, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda ro‘y berayotgan tezkor o‘zgarishlar mavjud bilimlarni doimiy ravishda boyitib borish, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirishni taqozo etadi. Shu sababli har bir mutaxassis o‘z ustida ishlashi, bilim va malakalarini uzluksiz oshirib borishi lozim. Ushbu jarayonning samarali kechishida o‘zaro tajriba almashish, amaliy seminarlarda ishtirok etish, “ustoz-shogird” an’analari muhim o‘rin tutadi.

Mazkur jarayonni rivojlantirishda quyidagi rejadan foydalanish mumkin:

- pedagogning kasbiy mavqeyi, amaliyot o‘rni va dars o‘tishdagi ishtirokini tubdan o‘zgartirish;

- aksariyat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lmagan (mahorati yetarli bo‘lmagan) pedagog faoliyatiga bo‘lgan ehtiyoj amalda qondirilmaganligi sababli, ushbu vazifaga mutaxassislik bilimlari va soha metodikasi borasidagi tushunchalarga ega bo‘lmagan pedagoglar jalb etilishining oldini olish va mazkur muammoni ijobiy hal qilish (masalan, intiluvchan, ijodkor

pedagoglarni qayta tayyorlov kurslarida o‘qitish, so‘ngra malakasini oshirish kurslariga yo‘llash) [3; 33-b.].

2025-yil 1-yanvardan boshlab mamlakatimizda uzluksiz kasbiy rivojlanish vertikal tizimi (vazirlik — malaka oshirish muassasasi — ta’lim tashkiloti) joriy etildi. U maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarining kasbiy ehtiyojlari va malaka toifasidan kelib chiqqan holda tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlariga asoslangan.

Uzluksiz kasbiy rivojlanishning asosiy vazifalari:

rahbar, pedagog va xodimlarning kasbiy bilimlari, ko‘nikmalari va mahoratlarini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq ta’lim sifatini ta’minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarligini amalga oshirish;

pedagog xodimlarni kasbiy mahorati va bilim saviyalaridan kelib chiqib, kasbiy ehtiyojlariga mos keladigan dasturlarini o‘zlashtirishga yo‘naltirish, metodik kompetentlik darajasini oshirish va ularning kasbiy mahoratini takomillashtirish, zamonaviy tarbiya metodikalarini o‘zlashtirish;

ta’lim sifatini oshirishning asosiy manbai sifatida pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishi, tashabbuskorligi, ijodkorligi va mahoratini rag‘batlantirish;

xodimlar tayyorlash sifatiga qo‘yiladigan malaka talablarini oshirish;

xodimlarning doimiy kasbiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadigan ta’lim muhitini yaratish [4; 5-b.].

O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o‘qitishning samarali shakl va usullarini joriy etish; pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz oshirish va xalqaro baholash dasturlari tadqiqotlariga samarali tayyorgarlik ko‘rishda ko‘maklashish va metodik qo‘llab quvvatlash maqsadida Respublikaning barcha pedagoglari uchun “Metodik marafon” tadbiri o‘tkazib kelinmoqda. Mazkur metodik tadbir doirasida 4 ta yo‘nalish (*o‘qish, matematik, tabiiy-ilmiy va boshlang‘ich ta’lim savodxonligi)* qamrab olingan.

2025-yilning yanvar va mart oylarida o‘tkazilgan “Metodik marafon” tadbirida Respublika miqyosidagi barcha hududlardan 141 000 nafardan ortiq pedagoglar faol ishtirok etdi va o‘z kasbiy mahoratlarini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Mazkur tadbirlar doirasida tajribali professor-o‘qituvchilar, metodistlar, amaliyotchi mutaxassislar va psixologlar ishtirokida kasbiy mahoratni oshirishga qaratilgan 400 ga yaqin mahorat darslari tashkil etildi. Shuningdek, pedagoglar uchun metodik yordam sifatida trener o‘qituvchilarning taqdimotlari (https://t.me/trm_metodika) elektron shaklda barcha hududlarga yetkazildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ–231-sonli “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining 5-bandiga ko‘ra “Kasbiy rivojlanish soati” va “Kasbiy rivojlanish kuni” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish hamda o‘qituvchilar uchun kasbiy rivojlantirish bo‘yicha o‘quv

mashg‘ulotlari o‘tkazish vazifasi yuklatilgan [5; 15-b.]. Mazkur vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish kunlari doirasida “Meet up” (muloqot uchrashuvi) tadbirlari tashkil etildi. Ushbu tadbir doirasida 2025-yilning yanvar va aprel oylari davomida respublika miqyosida jami 20 ta uchrashuv o‘tkazilib, ularda 7000 nafarga yaqin pedagog ishtirok etdi.

Demak, amaldagi metodik xizmat tizimining maqsadi o‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirish, mahoratini o‘stirish, metodik ishlarga tez moslashuvchanligini ta’minlashdan iborat bo‘lib, umumta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya sifatini oshirish uchun zarur bo‘lgan metodik faoliyatni muvofiqlashtirish, pedagog xodimlar faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, o‘qituvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, ta’lim metodlari, shakli va vositalarini izlab topishga ko‘maklashishi, dars jarayonida qo‘llashga sharoit yaratish, ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirish va ta’lim jarayonida yutuqlarga erishayotgan pedagog xodimlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tavsiyalar berish, pedagog xodimning innovatsion faoliyatini tashkil qilish vazifasini ham bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 592 b.

2. Djurayev R.X., Tolipov O‘.Q., Safarova R.G‘., To‘raqulov X.O., Inoyatova M.E., Divanova M.S. Pedagogik atamalar lug‘ati / R.X.Djurayev tahriri ostida. – T.: “Fan”, 2008. – 58-b.

3. Yuldasheva N.A., Kasb mahoratini oshirishda rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasining mohiyati. Zamonaviy ta’lim, 2014, 4-son, 33-b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi 867-son “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 23.12.2024-y., 09/24/867/1045-son, https://lex.uz/uz/docs/7271575

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ–231-sonli “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.06.2024-y., 07/24/231/0445-son; 29.04.2025-y., 06/25/73/0389-son, https://lex.uz/ru/docs/6981085.

6. Jo‘rayev R.X., Ibragimov X.I. Pedagogik jamoaning innovatsion faoliyati // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2004. – № 2. – B. 4-8.

7. Ibragimov A.A. O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ilmiy-metodik hamrohlik texnologiyasi // Zamonaviy ta’lim. – Toshkent, 2017. – №10. – B. 30-41.

8. Xodjayev B.X. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish: ped. fan. dok... diss. – Toshkent, 2016. – 260 b.

O‘QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA DOIR O‘QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Xatamova Munisa Mamadulla qizi
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
2-kurs tayanch doktoranti.
xatamovamunisa98@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada PISA tadqiqotlari doirasida yurtimizga kirib kelgan o‘qish savodxonligi yo‘nalishining bugungi kundagi qamrov doirasi, uning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi, umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblangan matn bilan ishlash jarayonida uchrayotgan muammolar, matnni tushunishdagi qiyinchiliklar, matn turlari va tarkibiy qismlarini farqlashdagi noaniqliklar atroflicha ko‘rib chiqilib, ularni yechishga doir ayrim tavsiya va fikr-mulohazalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: O‘qish savodxonligi, Xalqaro baholash dasturlari, PISA, tushunish, baholash, matn, matn turlari, matn tarkibiga kiruvchi unsurlar, illyustratsiya, reproduktiv-taqlid faoliyati, qidiruv-ijrochilik faoliyati, ijodiy faoliyat.

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются актуальные аспекты охвата направления читательской грамотности, внедрённого в нашей стране в рамках исследований PISA, его интеграция в образовательный процесс, а также проблемы, возникающие в процессе формирования и развития читательской грамотности учащихся общеобразовательных школ. Особое внимание уделено затруднениям в понимании текста, неопределённостям в различении видов текста и его структурных элементов. Также приводятся отдельные предложения и размышления по решению указанных проблем.

Ключевые слова: Читательская грамотность, международные оценочные программы, PISA, понимание, оценивание, текст, виды текстов, элементы содержания текста, иллюстрация, репродуктивно-имитационная деятельность, поисково-исполнительская деятельность, творческая деятельность.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the current scope of reading literacy introduced in our country within the framework of PISA studies, its integration into the educational process, and the challenges faced in developing students' reading literacy in general education schools. It specifically addresses difficulties in text comprehension and the lack of clarity in distinguishing between types and structural components of texts. The article also offers a range of suggestions and reflections aimed at overcoming these challenges.

Keywords: Reading literacy, international assessment programs, PISA, comprehension, evaluation, text, types of texts, components of text content,

illustration, reproductive-imitative activity, search-performance activity, creative activity.

XXI asr savodxonlik muammolariga e’tibor qaratish bilan boshlandi. O‘qish savodxonligi esa inson taraqqiyotining muhim mezoni bo‘lib, u har bir jamiyatda axborot almashinuvi va ta’lim tizimining rivojlanishiga bevosita bog‘liqdir.

Bugungi kunda savodxonlik faqat oddiy o‘qish va yozish emas, balki ma’lumotni tahlil qilish, undan to‘g‘ri xulosa chiqarish va hayotda qo‘llay olishni ham anglatadi. Shu bois, xalqaro baholash dasturlari, jumladan **PISA** va **PIRLS** o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini chuqur tahlil qilib, ta’lim sifati bo‘yicha tavsiyalar beradi. Xalqaro tadqiqotlar natijalari ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, pedagogik metodlarni yangilash va o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish uchun muhim ahamiyatga egadir.

Xalqaro tadqiqotlarda o‘qish savodxonligini baholash tartibi quyidagi guruhdagi o‘quv ko‘nikmalarining olti darajasiga asoslanadi:

- axborotni qidirishni amalga oshirish;
- matn mazmuniga yo‘naltirilgan holda, matndagi aniq (yoki yashirin) axborotni qo‘llab savollarga javob berish;
- taklif qilingan axborotning ishonchliligini baholash;
- matnga asoslangan holda baholovchi fikrlarni bildirish;
- o‘z matnlarini yaratish;
- matndagi axborotdan o‘quv-amaliy masalalarni hal qilishda foydalanish.

O‘quvchilarda o‘qish savodxonligini yaxshilash, yangi metod va texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, o‘qish savodxonligi darajasini baholovchi dasturlarni ishlab chiqish bugungi kun pedagog-tadqiqotchilar oldida yechimini kutayotgan masalalar sirasiga kiradi. Shu sababdan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoniga muvofiq umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib, kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv- tarbiya jarayonida ta’limning innavatsion shakillari va usullarini joriy etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’lim tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifasi belgilangan [1].

PISA sinovlariga o‘quvchilarni tayyorlash jarayonida, asosiy e’tiborni alohida olingan PISA topshiriqlarini yechishga qaratmasdan, balki ularni va ularga o‘xshagan topshiriqlarni yechish uchun kerak bo‘ladigan o‘quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirish va ona tili darsliklaridagi o‘quvchilarni PISA

tadqiqotlariga (tadqiqot asnosida yoshlarni katta hayotga) tayyorlovchi topishiriq va metolarni yanada takomillashtirishga qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

XX asrda iqtisodiy jihatdan rivojlangan barcha mamlakatlarda ta’lim standartlari boshlang‘ich maktabni tugatgan bola o‘qish va yozishni bilishini nazarda tutgan. Bu talablar o‘qituvchilarning o‘quv-uslubiy ta’minoti bilan bog‘liq jarayon sanaladi. O‘quv-uslubiy ta’minot deganda, ilmiy, o‘quv va tahliliy tadqiqotlar hamda o‘quv jarayonini uslubiy jihatdan ta’minoti, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish qisqa muddatli o‘quv kurslari uchun mo‘ljallangan o‘quv dasturlarini ishlab chiqilishi, turli fanlar kesimida tashkil etilgan o‘quv dasturlari, o‘quv uslubiy majmualar, ma’ruza matnlari, videodarslar hamda keys topshiriqlari, o‘quv-metodik ko’rsatmalar, o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, test materiallarining mavjudligi, o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan badiiy va hujjatli filmlar hamda boshqa multimedia mahsulotlarining bazasini shakllantirilganligi nazarda tutiladi.

Tadqiqotchi Sh.T.Rahmonov dissertatsiyasida kimyo fanini o‘qitishda PISA topshiriqlaridan foydalinishning katta ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, PISA topshiriqlaridan foydalanish o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, real hayotiy vaziyatlarga mos keluvchi ilmiy bilimlarni qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish, hamda xalqaro baholash tizimida yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi. Tadqiqotda ayniqsa, kimyo fanini o‘qitishda o‘qish savodxonligining ahamiyati va o‘quvchilarning ilmiy bilimlarini amaliyotga tatbiq etishlari uchun PISA topshiriqlari muhim vosita ekanligi ta’kidlanadi [2].

PISA matnlarini o‘qish orqali o‘quvchilar ma’lumotni izlash, asosiy g‘oyalarni ajratish va argumentlarni tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni namoyish etadilar. Matnlar turli kontekstlardan olingan bo‘lib, hayotiy muammolarni tushunish va hal qilish uchun real sharoitlarga moslashtirilgan. Matn bilan tizimli ishlash o‘quv muammolari va o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish vazifalarini hal qilishga imkon beradi. Shu o‘rinda matn tushunchasiga ham batafsil to‘xtalib o‘tmoqchimiz chunki o‘qish savodxonlgining asosi bu matn tahlili hisoblanadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “matn” (ar. “nutqning yozuvdagi ifodasi”) tushunchasiga “yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat” [3] deya ta‘rif beriladi.

“Matn” so‘zi rus va ingliz tillarida chop etilgan adabiyotlarda “tekst” (lotincha “textum” asosida shakllantirilgan “text”) shaklida qo‘llanilib, “bog'lanish”, “birikish”, “aloqa”, “birikma” kabi ma'nolarni bildiradi. Ushbu tushunchaning g‘oyaviy-nazariy tavsifi tadqiqotchi

Sh.U.Sariyev o‘zining tadqiqot ishida L.Losevaning matnni ifodalovchi belgilar borasidagi fikrini quyidagicha to‘ldirishga harakat qilgan: 1) axborotning yozma shaklda ifodalanishi; 2) mazmun jihatidan o‘ziga xos tugallikka egalik; 3) o‘quvchida voqelikka nisbatan muayyan munosabat uyg'otish imkoniyatining mavjudligi; 4) kompozitsiya, syujet, tarkibiy tuzilmaga, shuningdek, tarkibiy elementlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va bog'liqlikka egalik; 5) muayyan

sohaga taalluqli bo‘lishi; 6) aniq mavzu bo‘yicha axborot berishi; 7) o‘ziga xos bayon uslubiga egalik; 8) aniq subyektga yo‘naltirilganligi (masalan, o‘quvchi yoki o‘qituvchi uchun mo‘ljallanganligi); 9) aniq maqsad uchun xizmat qilishi.

L.A.Tishinaning matnlar tasnifi maktab o‘qitish amaliyotida qo‘llaniladigan matnlarning murakkablik darajasiga asoslanadi. U matnlarni uch turga ajratadi:

1. Birinchi tur. Ushbu turdagi matnlarda barcha bog‘lanishlar muallif tomonidan to‘liq tasvirlanadi. O‘quvchining vazifasi faqat alohida so‘zlar va fikrlarning ma’nosini tushunishdir. Bunday matnlarning murakkabligi quyidagilarga bog‘liq:

- ta’riflangan ma’lumotlar va ularning o‘zaro bog‘lanishi soni;
- muallif tomonidan taqdim etilgan bog‘lanishlar soni;
- o‘quvchiga faqat so‘zlar va fikrlarning ma’nosini aniqlash qoladi.

2. Ikkinchi tur. Bu turdagi matnlarda muallif barcha ma’noli bog‘lanishlarni ochib bermaydi, o‘quvchidan ular allaqachon ma’lum deb hisoblaydi. O‘quvchi o‘z xotirasida ushbu bog‘lanishlarni qayta tiklaydi. Ushbu jarayon:

- Qisqartirilgan shaklda bo‘lib, matnni darhol tushunishga olib keladi.
- Yoki ushbu bog‘lanishlarning tezkor ochilishi shaklida o‘quvchining ongida yuzaga keladi.

3. Uchinchi tur. Ushbu turdagi matnlarda o‘quvchi yo‘q bo‘lgan bog‘lanishlarni xotirasida tiklamaydi, balki mustaqil ravishda o‘rnatishi kerak. Bu bir qator fikrlash operatsiyalari va mulohazalarni amalga oshirishni talab qiladi, ya’ni o‘quvchi matn bilan ishlashda masala yechishdagi kabi faoliyatni bajaradi [4].

L.A.Tishina tomonidan ishlab chiqilgan matnlar tasnifi o‘qitish jarayonida matnlarning murakkablik darajasini hisobga olishning muhimligini ko‘rsatadi. Ushbu tasnif o‘quvchilarning tushunish jarayonini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Birinchi tur matnlar o‘quvchilarga axborotni bevosita qabul qilish imkonini bersa, ikkinchi tur matnlar xotirada mavjud bilimlarni faollashtirish orqali tushunish jarayonini kuchaytiradi. Eng murakkab bo‘lgan uchinchi tur matnlar esa tanqidiy fikrlash va mustaqil mulohaza yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bu tasnif o‘quvchilarning individual o‘quv ehtiyojlarini hisobga olib, ularning tafakkurini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yordam beradi. Shu bois, maktab ta’limida matnlarni tasniflash o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi degan fikrdamiz.

Bugungi kunda matn bilan ishlashni tashkil etishning quyidagi shakllari va usullari eng samarali hisoblanadi: – matn tahliliga murakkab jarayon sifatida chuqurlashtirilgan holda yondashish; – matnni lingvistik tahlil qilish; - matnni tahrirlash; - insho asosida fikr yuritish; - intellektual va lingvistik mashqlar.

Darslarda maktab o‘quvchilarining hayotiy tajribalariga asoslangan, haqiqatga yaqin bo‘lgan mavzudagi matnlardan foydalanish samaraliroqdir. Biz bugungi kunda yangilanayotgan darsliklarda va PISA testlarida matnlarning (tasniflash ta’lim sifati bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar doirasida tuzib chiqildi) quydagi turlarini uchratishimiz mumkin:

– ***yaxlit matn*** (jumlalar bilan biriktirilgan);

– ***yaxlit bolmagan matn*** (tavsif, bayon, mulohaza yuritish, tushunchani aniqlash, ko‘rsatmalar);

– ***aralash matn*** (reklama, komikslar, afishalar, afishalar);

– ***murakkab matn*** (veb-sayt, forum, chat, bitta mavzuga bir nechta matnlarni kiritish).

Matnlar tasnifiga ko‘ra turli funksiyalarni bajaradi:

– ***asosiy matn*** – bir nechta topshiriqlardan iborat matn;

– ***yordamchi matn*** - alohida topshiriqning tuzilishiga kiritilgan yoki asosiy matn (illyustratsiya, she’r, lug‘at yozuvi) bilan bog‘liq bo‘lgan matn;

– ***to‘liq matn-*** hech qanday qoidabuzarliksiz matndir;

– ***fragmentar matn*** – to‘liq matndan ko‘chirma bo‘lgan matn;

– ***deformatsiyalangan matn*** - masalan, qismlar ketma-ketligi buzilgan matn;

– ***o‘quv (o‘quv, didaktik, kognitiv) matn*** - o‘qish ta’lim maqsadlariga erishish bilan bog‘liq bo‘lgan matn (ma’lumotnoma adabiyotlari, o‘quv, ilmiy-ommabop matnlar) va boshqalar.

Maktabda ona tili darslari qiziqarli va samarali bo‘lishi uchun matnlar, birinchidan, har xil formatda bo‘lishi, ikkinchidan, darsda matnlar ko‘p bo‘lishi kerak. Ta’limning barcha bosqichlarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha tizimli ishlarning amalga oshirilishigina savodli kitobxonni shakllantirish muammosini hal qilishi mumkin. Buning uchun matn bilan ishlash jarayonining barcha vositalarni to‘g‘ri yo‘naltira olishimiz kerak.

Matnni bog‘lash va izohlash qobiliyatini mashq qilish uchun o‘quvchilar matnga sarlavha o‘ylab topishlari yoki tegishli kirish so‘zlarini tuzishlari, grafikdagi o‘qlar yoki jadval ustunlarining nomlarini tiklashlari, matndagi harakatlar tartibini tiklashlari kerak. ko‘rsatmalar, tasvirning maqsadini tushuntiring yoki hikoyani tavsiflang. Ba’zi savollar o‘quvchini matnning ma’lum bir qismiga e’tibor berishga majbur qiladi, boshqalari esa butun matnga murojaat qiladi. O‘quvchilar matndagi ma’lumotlar birliklarini doimiy ravishda almashtirib tursa, o‘qiganini to‘liq va chuqur anglashi mumkin bo‘ladi. Matn bilan ishlash chuqur tushunishni talab qiladi, chunki o‘quvchi muallifning niyatini aniqlay olishi, umumiy matnga maxsus soyalar beradigan so‘z yoki epizodning ma’nosini tushunishi kerak.

O‘qish savodxonligini shakllantirish va rivojlantirish uchun o‘quvchilarning matnni tushunish va baholash bilan bog‘liq harakatlari zarur. O‘qigan ma’lumotlarini tushunib, baholay oladigan o‘quvchi matn mazmunini o‘z e’tiqodi, hayotiy tajribasi bilan bog‘laydi. Matnni o‘qiyotganda, o‘quvchi matnni o‘qishdan oldin unga ma’lum bo‘lgan bilim, g‘oya va his-tuyg‘ularni tushunish va baholash uchun foydalanadi. Matn mazmunini to‘g‘ri tushunish va baholash uchun o‘quvchi matndan olingan ma’lumotni matndan tashqari boshqa manbalar bilan bog‘laydi. U matnda berilgan gaplarga rozi yoki rozi emas. Shuni ham alohida takidlash kerakki, PISA matn tushunchasini an’anaviy tushunchadan kengroq yondashuvda ko‘rib chiqadi. PISAga ko‘ra, matn bu faqatgina harflardan iborat bo‘lgan axborot

shakli emas, balki turli formatlardagi vizual va mantiqiy tarkibga ega bo‘lgan axborot manbaidir.

Matn tarkibiga kiruvchi unsurlar:

Badiiy matnlar – hikoyalar, she’rlar, romanlardan olingan parchalar, biografiyalar. *Hujjatli matnlar* – tarixiy hujjatlar, shaxsiy xatlar, bayonotlar. *Ilmiy va informatsion matnlar* – maqolalar, tahliliy sharhlar, gazeta va jurnal materiallari. *Vizual materiallar* – diagrammalar, rasmlar, infografikalar. *Jadvallar va xaritalar* – geografik, demografik va iqtisodiy ma’lumotlarni ifodalovchi tasviriy vositalar. Ko‘rishimiz mumkunki, PISAda o‘qish savodxonligi faqat so‘zlardan iborat matnlarni emas, balki illyustratsiya bilan boyitilgan matnlarni ham qamrab oladi.

Illyustratsiya (lotincha illustratio – yoritish, ko‘rgazmali tasvir) – bu matnni qo‘llab-quvvatlovchi, to‘ldiruvchi va tushuntiruvchi tasvir (chizma, gravyura, fotosurat, reproduktsiya va hokazo). U badiiy asarlarni yoki ilmiy-tarqatmali matnlarni ko‘rgazmali izohlash sifatida ko‘riladi. So‘zning qat’iy ma’nosida illyustratsiya matn bilan birgalikda qabul qilinadigan va uning o‘qilish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi tasvirlarni anglatadi.

V.I.Svintsov esa matnni illyustrativ ravishda bezash uning ma’nosini idrok qilish va ifodalashga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi [5; 23-41].

Yangilanayotgan ona tili fani maktab darsliklaridagi illyustrativ materiallar bir nechta tasnifga ega bo‘lib, ular quyidagi asoslar bo‘yicha tuziladi:

– bajarilish uslubi: chizmalar, sxemalar, xaritalar, fotosuratlar, jadvallar, diagrammalar va boshqalar.

– mazmuni (tabiat obyektlari, asbob-uskunalar va jihozlar, tabiat hodisalari, ijtomoiy muammolar va boshqalarni tasvirlash);

– funksional yuklama (matnni tushuntiruvchi illyustratsiyalar, matn bilan teng ahamiyatga ega illyustratsiyalar, va asosiy bilimlarni mustaqil tashuvchi bo‘lgan illyustratsiyalar).

O‘quvchilarning o‘qish savodxonligini shakllantirish illyustrativ materiallardan axborot olish va uni tushunib yetish, bu ma’lumotlarni o‘quv topshiriqlari va hayotiy masalalarni hal qilishda ishlatish qobiliyatiga ham bog‘liq.

Darslik tarkibidagi matnlarda keltirilgan illyustrativ material quyidagilarga imkon beradi: 1) ko‘rgazmali-obrazli fikrlashni rivojlantirish; 2) nazariy ma’lumotlarni tushunish va eslab qolish; 3) matnning bilish va tarbiyaviy funksiyalarini ochib berish; 4) amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga yordam berish.

Reproduktiv-taqlid faoliyati. O‘qituvchi o‘quvchilarning illyustratsiyalar bilan ishlash jarayonini tashkil qiladi va bu faoliyatni quyidagicha boshqaradi:

– illyustratsiyalardagi yozuvlarni o‘qish va ularning mazmunini aniqlash;

– illyustratsiyalardagi ma’lumotlarni darslikning asosiy matni bilan taqqoslash;

– o‘qituvchi rahbarligida grafik chizish (tushuntirish);

– har xil illyustrativ materiallardan kerakli ma’lumotlarni tanlash;

– rasm, xarita, sxema, grafik va chizmalaridagi shartli belgilarni o‘rganish va yodlash;

– xaritalar bilan ishlash (ma’lumotlarni izlash, kerakli ma’lumotlarni tanlash, obyektlarni aniqlash, yo‘nalishlar va masofalarni belgilash va boshqalar);

– rasmlar, grafiklar, xaritalar, chizmalar va sxemalar yordamida topshiriqlar bajarish.

Qidiruv-ijrochilik faoliyati. O‘qituvchi o‘quvchilarning illyustratsiyalar bilan mustaqil ishlashi uchun quyidagicha topshiriqlar beradi:

– grafiklar, klimatogrammalar, xaritalar va sxemalarni o‘qish;

– grafiklardan kerakli ma’lumotlarni tanlash;

– grafiklarni chizish uchun ma’lumotlarni saralash.

– grafiklarni chizish;

– turli grafiklar, sxemalar, diagrammalar, rasmlarni taqqoslash;

– topshirig‘ni bajarish uchun kerakli illyustratsiyalar, xaritalar, sxemalar, grafiklarni tanlash.

Ijodiy faoliyat. O‘qituvchi faqat illyustrativ materiallar bilan mustaqil ishlash uchun topshiriqlarni taklif qiladi.

O‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar tizimi, darslikda keltirilgan illyustrativ materiallar bilan ishlashni ratsional tashkil etishga yordam beradi, bu tizimda ma’lumotlarni chiqarish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek kerakli ma’lumotlarni jadval shaklida taqdim etish ko‘nikmalarini shakllantirish kerak. Jadval shaklini ishlatish, ma’lumotlarni ixcham, ko‘rgazmali va ratsional joylashtirishga imkon beradi. Bu esa ma’lumotlarni tahlil qilishni osonlashtiradi, o‘rganilayotgan hodisalar haqida o‘xshashlik va farqlar, xususiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib beradi. Buning uchun jadval ichidagi ma’lumotlar qatorlar va ustunlar bo‘yicha joylashtiriladi, bu esa ularni ko‘zdan kechirish, o‘zaro taqqoslash, ma’lumotni baholash va belgilangan vazifalarga qarab talqin qilish imkonini beradi.

O‘qish savodxonligining roli va ahamiyatini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalarini tahlil qilib, quyidagi xulosalarga keldik:

Ko‘plab o‘quvchilar ilmiy-ommabop va ilmiy adabiyotlarga qiziqmaydi; ular bunday adabiyotlardan faqat o‘qituvchining tavsiyasiga ko‘ra baho olish maqsadida foydalanadilar. O‘quvchilarning asosiy axborot manbalari internet saytlaridir. Uyga vazifani nazariy jihatdan tayyorlashda o‘quvchilar asosan dars vaqtida tuzilgan konspektlardan foydalanadilar.

O‘qituvchilar esa o‘qish savodxonligi mazmunidagi matnlarni va ularga turli xil topshiriqlarni tuzish bo‘yicha metodik tavsiyalarga, shuningdek, o‘qish malakalarini shakllantirish metodikasi bo‘yicha ma’lumotlarga ehtiyoj sezadilar. Ushbu malakalar quyidagilardan iborat:

- ma’lumotni topish va undan foydalanish;
- ma’lumotni integratsiya qilish va talqin qilish;
- mazmun va axborot taqdimotining shaklini anglash va baholash.

O‘quvchilarda o‘qish savodxonligi mazmunidagi matnlardan ma’lumotni qabul qilish, tushunish va ongli ravishda foydalanish qobiliyatini rivojlantirish uchun faqat ona tili darsliklariga turli mazudagi matnlar kiritish topshiriqlar sonini

oshirish emas, balki ularga o‘qish savodxonligini shakllantiruvchi analitik-sintetik axborotni qayta ishlash usullarini o‘rgatish zarur.

O‘quvchilarning o‘qish savodxonligini shakllantirish masalalarini keng qamrovli monitoring qilish orqali yana quydagilarni aytib o‘tishimiz mumkin, PISA tadqiqotlari doirasida yurtimizga kirib kelgan o‘qish savodxonlogi yo‘nalishi borasidagi muammolarni hal qilish yuzasidan tadqiqot ishi yaratilmagan, bu tushunchaga PISA tadqiqotlaridagi ta’rifdan tashqari ma’lum bir ta’rif berilmagan faqatgina ayrim tadqiqotchi, pedagog mutaxassislarning maqolalarida bu tushunchaga qisman to‘xtalishlarni ko‘rishimiz mumkin. Bu esa yurtimizda matnlar va ularga berilgan topshiriqlarni bajarish orqali o‘qish savodxonligini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish kerakligini ko‘rsatmoqda. Chunki, o‘quvchilarda o‘qish savodxonligi mazmundagi matnlar bilan ishlashda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish va o‘qish savodxonligining asosini tashkil etuvchi ko‘nikmalarni shakllantirish uchun metodik mexanizmlarni topish zarurdir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni;

2. Rahmonov Sh.T. Ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari 7-9-sinf o‘quvchilrini xalqaro PISA tadqiqotlariga tayyorlash: ped. fan.b. fal. dok. … disser. – Samarqand, 2023.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / 5 жилдли. Иккинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрир ҳайъати: Э.Бегматов ва бошқ. – Т.: “ЎМЭ” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 382, 557-б.

4. Тишина Л.А. Формирование учебной лексики школьников с нарушением речи на уроках природоведения. – Москва: МГГУ им. М.А. Шолохова, 2008. – 180 с.

5. Свинцов В.И. Логические аспекты совершенствования учебника // Проблемы школьного учебника. – 1977. – Вып. 5. – С. 23-41

6. Пеньков С.В. Факторы, влияющие на уровень читательской активности обучающихся // Вестник научных конференций. 2021. С. 77-80.

7. Макеева С.Г., Мартынова Е.Н. Теоретические основы формирования смыслового чтения как универсального учебного действия // Ярославский педагогический вестник. 2020. №5 (116). URL: https://teoreticheskie-osnovy-formirovaniya-smyslovogo-chteniya-kak universalnogo-uchebnogo-deystviya

TA`LIM JARAYONIDA NEYROPEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING PEDAGOGIK JARAYONGA INTEGRATSIYASI.

Xudaykulova Shaxlo Mamaniyozovna
O‘zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti
Boshlang‘ich talim kafedrasi dotsenti
E-mail: sahlohudojkulova@gmail.com
Tel: +998 90 2282625

Annotatsiya. Mazkur maqolada neyropedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish yoshlar ta’lim sifatini yaxshilash va ularda axloqiy, ijtimoiy ko‘nikmalarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etishi tahlil qilingan.Bu maqolada kognitiv va emotsional rivojlanishga mos materiallardan foydalanish, neyropedagogik axloqiy tushunchalarni aniq va nazariy asoslangan shaklda tushuntirish,emotsional intellektni rivojlantiruvchi mashqlar, ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish kabi neyropedagogik texnologiyalarni qo‘llash yo‘llari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: neyropedagogik, integratsiya**, kognitiv, emotsional, axloqiy tushunchalar,** texnologiyalar.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning axloqiy qarashlarini shakllantirishda neyropedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega, chunki bu texnologiyalar ta’lim jarayonida yoshlar miyasining kognitiv va emotsional rivojlanish xususiyatlarini inobatga oladi. Neyropedagogik usullar yordamida o‘qituvchilarda insonparvarlik, adolat, mas’uliyat, hurmat va empatiya kabi qadriyatlar mustahkamlanadi. Bu usullar yoshlarga axloqiy me’yorlar va qadriyatlarni chuqurroq tushunib, ularni kundalik hayotda qo‘llash imkoniyatini beradi.

Neyropedagogik texnologiyalar yoshlarning ijtimoiy munosabatlarda axloqiy prinsiplarga sodiq qolishlarini ta’minlaydi. Ular yordamida o‘qituvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunib, unga muvofiq munosabat bildirishga o‘rganadilar. Bu jarayonda yoshlarning kognitiv va emotsional rivojlanishi uyg‘unlashgan bo‘lib, ular o‘z qadriyatlarini hayotda amalga oshirish va jamoat manfaatlariga xizmat qilish qobiliyatini mustahkamlaydilar. “Neyropedagogik texnologiyalar inson ongining tuzilishi va ishlash jarayonlarini chuqur tushunish asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, ular yoshlarga axloqiy qarashlarini aniqlab, ularga sodiq qolishlarini ta’minlash imkoniyatini beradi”.[39]

Shuningdek, neyropedagogik yondashuv yoshlarda ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu yondashuv yoshlar uchun axloqiy qaror qabul qilish jarayonida emotsional barqarorlik va kognitiv jarayonlar

[39] Levitin D. *Neuroscience and the Classroom: Making Connections.*- New York: Midas, 2016. – p. 1980.

uyg‘unligini ta’minlaydi, bu esa yoshlarning shaxsiy yetuklikka erishishlari va jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlariga yordam beradi.

Neyropedagogik texnologiyalar yoshlarda to‘g‘ri axloqiy qaror qabul qilish va insonparvarlik, adolat, mas’uliyat kabi qadriyatlarni mustahkamlashga yordam beradi. Axloqiy qarorlar qabul qilish jarayonida yoshlar axloqiy me’yorlarni to‘g‘ri baholab, ularga sodiq qolishni o‘rganadilar. Masalan, turli vaziyatlarda yoshlar tanqidiy fikrlash va emotsional boshqarish qobiliyatlarini ishlatib, to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradigan neyropedagogik yondashuvlar qo‘llaniladi.

Axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda neyropedagogikaning ta’siri yoshlarning insonparvarlik va empatiya tuyg‘ularini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Yoshlar boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunib, ularga hurmat va himoya hissi bilan qarashga o‘rganadilar. Neyropedagogika yordamida rivojlangan empatiya yoshlarning axloqiy jihatdan yetuk bo‘lishlarini ta’minlaydi. Shunday qilib, neyropedagogik texnologiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarning axloqiy qarashlarini shakllantirishda samarali vositalar hisoblanadi. Ular yoshlarga nafaqat axloqiy qadriyatlarni chuqurroq tushunish, balki ularni hayotda amalga oshirishga ham yordam beradi.

Neyropedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish yoshlar ta’lim sifatini yaxshilash va ularda axloqiy, ijtimoiy ko‘nikmalarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu texnologiyalar yoshlarning kognitiv va emotsional rivojlanishini hisobga olib ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘quv jarayonidagi o‘zaro munosabatlarni samarali tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi. Neyropedagogika vositasida yoshlarni axloqiy va ijtimoiy jihatdan shakllantirish, ularning emotsional barqarorlik, mas’uliyat va boshqalarga nisbatan hurmat kabi qadriyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqotda ta’lim jarayonida neyropedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash yo‘llari borasida muayyan xulosalarga kelindi. Quyida ko‘rib chiqamiz.

1. **Kognitiv va emotsional rivojlanishga mos materiallardan foydalanish.** Neyropedagogik texnologiyalarning asosiy vazifalaridan biri ta’lim materiallarini yoshlar miyasining rivojlanish darajasiga moslashtirishdir. Masalan, vizual materiallar, videolavhalar va interaktiv elementlar yoshlarning diqqatini oshirib, tushunchalarni chuqurroq o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Bu texnologiyalar yordamida o‘quv materiallarini yodda saqlash, tushunish va qo‘llash uchun qulay sharoit yaratiladi.

2. **Axloqiy tushunchalarni aniq va nazariy asoslangan shaklda tushuntirish.** Neyropedagogika yoshlarga axloqiy tushunchalarni nazariy jihatdan chuqurroq tushunishlari uchun imkoniyat yaratadi. Axloqiy qadriyatlarni tahlil qilishda holatli mashqlar, rolli o‘yinlar va hayotiy misollardan foydalanish yoshlarga bu tushunchalarning amalda qanday ishlashini tushunishda yordam beradi. Bu usullar yoshlarni axloqiy qaror qabul qilishga, mas’uliyatli bo‘lishga va boshqalarga yordam berishga o‘rgatadi.

3. **Emotsional intellektni rivojlantiruvchi mashqlar.** Yoshlarning emotsional jihatdan barqaror bo‘lishlari va o‘z his-tuyg‘ularini boshqara bilishlari ularning axloqiy qarorlar qabul qilish jarayonida muhimdir. Neyropedagogik

texnologiyalar emotsional rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi mashqlar orqali yoshlarning his-tuyg‘ularini anglash, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunib, emotsional munosabatlarini muvofiqlashtirishga yordam beradi. Turli emotsional vaziyatlardan foydalanish yoshlarda empatiya va insonparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlaydi.

4. **Ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish.** Neyropedagogik texnologiyalar yoshlarni jamoaviy faoliyatda samarali ishtirok etishga, turli ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga yo‘naltiradi. Bu jarayonda yoshlar turli ijtimoiy va axloqiy masalalar bo‘yicha xolisona fikrlashni, mas’uliyatni his qilishni va jamoaviy manfaatlarni shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yishni o‘rganadilar.

Neyropedagogik texnologiyalar pyedagog va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yaxshilanishiga ham o‘z hissasini qo‘shadi. Neyropedagogik texnologiyalar pedagog va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalar yordamida pedagoglar talabalarning kognitiv va emotsional xususiyatlarini yaxshiroq tushunish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa talabalarga individual yondashuvni ta’minlash va ularning ehtiyojlariga mos tarzda ta’lim berish imkoniyatini yaratadi.

Neyropedagogika yordamida o‘quv jarayonida o‘zaro hurmat va ishonchli munosabatlar shakllanadi, bu esa talabalarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishlarini ta’minlaydi. Pedagoglar talabalarga o‘z ehtiyojlarini va emotsional holatlarini tushunish, ularni mustahkamlashda yordam berishi mumkin. Bu jarayonda yoshlar pedagoglarni hurmat qilib, ularning fikrlarini inobatga olishni o‘rganadilar, bu esa ta’lim jarayonini samarali va ahamiyatli qiladi.

Pedagoglar neyropedagogik texnologiyalar vositasida talabalarning individual kognitiv va emotsional xususiyatlariga muvofiq tarzda ta’lim berish orqali ularning axloqiy va ma’naviy rivojlanishlariga yo‘naltiruvchi shart-sharoit yaratadilar. Bu texnologiyalar orqali yoshlar o‘z xulq-atvorlarini nazorat qilish, mas’uliyatni his qilish va jamoat manfaatlarini himoya qilish tuyg‘ularini rivojlantiradilar, bu esa ularning kelajakda barkamol shaxslar bo‘lib yetishishiga yordam beradi.

Xulosa. Umuman, neyropedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonida inson miyasining kognitiv va emotsional rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda samarali vositalardan biridir. Bu texnologiyalar yoshlarning fikrlash, yodlash, diqqatni jamlash, his-tuyg‘ularni anglash va boshqalarning ehtiyojlarini tushunib, unga muvofiq munosabatda bo‘lish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Neyropedagogik usullar yordamida yoshlar axloqiy qadriyatlarni chuqurroq tushunish, ularni hayotda qo‘llash va ijtimoiy munosabatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu texnologiyalarning asosiy maqsadi insonning ma’naviy, axloqiy jihatdan yetuk shaxs bo‘lib yetishishini qo‘llab-quvvatlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Abdulla Sh., Husanov. Axloq falsafasi. Nafosat falsafasi. Darslik.T.: Zebo prints. 2018.

2. Vigotskiy L.S., Mishleniye i rech, Moskva: Gosudarstvennoye sotsialno-ekonomicheskoye izdatelstvo, 1934. – S. 97.

3.Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. Toshkent. Universitet, 1998, 38-b.

4. Levitin D. *Neuroscience and the Classroom: Making Connections*.- New York: Midas, 2016. – p. 1980.

5.Rogers C.R., On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherap y, Boston: Houghton Mifflin, 1961. – P. 45.Maslow A.H., *Motivation and Personality*, New York: Harper & Row, 1954. – P. 91.

6.Piaget J., *The Moral Judgment of the Child*, New York: Free Press, 1932. – P. 84.

ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ НА ОСНОВЕ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Бегалиев Файзали Умаралиевич

Самаркандский филиал Университета экономики и педагогики, ассистент кафедры экономики и технических наук:

Аннотация. В статье анализируется влияние мультимедийных приложений на образовательный процесс и пути повышения его эффективности при обучении искусственному интеллекту в высшей школе. В эпоху развития цифровых технологий насыщение образовательного процесса современными инструментами считается одной из самых актуальных задач.

Ключевые слова: Мультимедийные приложения включают текст, искусственный интеллект, интерактивное обучение, изображения, аудио, видео, графику и анимацию, а также инновационные методы.

Введение:

Стремительное развитие современных технологий вызывает кардинальные изменения в сфере образования. В частности, мультимедийные технологии и искусственный интеллект (ИИ) делают процесс обучения более эффективным, активным и индивидуализированным.

Благодаря использованию информационно-мультимедийных средств в образовательном процессе широко применяются новые методы обучения, инновационные подходы, ресурсы на основе цифровых технологий.

В Узбекистане начат новый этап в системе образования посредством стратегии «Образование–2030», принятых государственных программ по развитию цифровой экономики и информационных технологий.

Мультимедийные технологии в образовании:

Мультимедийные технологии – это образовательные методы, сочетающие аудио, видео, анимацию, графику и текст. Они развивают логическое мышление школьников и студентов, расширяют их воображение, помогают им лучше понять предмет, повышают интерес и мотивируют.

Мультимедийные технологии активизируют процесс обучения студентов посредством непосредственного визуального и аудиовизуального воздействия на образовательный процесс. Эти технологии позволяют представлять образовательный контент в интерактивной и увлекательной форме.

Их основные преимущества:

- Создание комплексной среды обучения;
- Лучшее усвоение имеющихся знаний;
- Эффективное распределение и экономия времени;
- Возможность внедрения новых методов обучения.

Стажировки в Узбекистане:

- Такие платформы, как Edu.uz, Ziyonet.uz, EduMarket, MyEdu, Bilimlar veslushavy широко используют элементы мультимедиа;
- В школах и вузах широко внедряются интерактивные экраны, проекторы и электронные ресурсы;
- Возможности для продолжения образования посредством телевизионных программ и онлайн-курсов расширяются, особенно во время пандемии.

Значение искусственного интеллекта в образовании:

Искусственный интеллект открывает новую революционную фазу в образовательном процессе. Благодаря ему образовательный контент и методы пересматриваются, автоматизируются и индивидуализируются.

Возможности интеграции СИ и мультимедиа в Узбекистане:

В Узбекистане существует несколько возможностей для внедрения технологий искусственного интеллекта и мультимедиа в образование:

Возможности:

- Большое внимание уделяется цифровизации образования через указы Президента и государственные программы;
- «Новый университет Узбекистана», IT-парки и платформы цифрового образования готовят кадры в сфере ИБ;
- Интерес молодежи к ИТ и стартап-среде;
- В сферу образования привлекаются международные гранты, проекты сотрудничества и инвестиции.

Проблемы:

- Проблемы с технической поддержкой и плохое качество интернета в сельской местности;

- недостаточная методическая и научная база подготовки специалистов СИ в вузах;

- Необходимость локализации технологий и адаптации образовательного контента к национальным условиям.

Краткое содержание:

Мультимедийные технологии и искусственный интеллект играют важную роль в повышении качества образования и приведении его в соответствие с мировыми стандартами.

Мультимедийные технологии и искусственный интеллект способны вывести систему образования на качественно новый уровень. Если эти технологии будут внедрены в Узбекистане:

- Образование будет устойчивым и инклюзивным

- Каждый ученик развивается в соответствии со своим собственным потенциалом

- Это также может оказать положительное влияние на экономический рост.

Предложения:

- Внедрение СИ и мультимедийных технологий в преподавание предметов в образовательных учреждениях;

- Разработка специальных программ обучения специалистов;

- Сокращение неравенства в образовании за счет цифровизации сельских школ;

- Создание специальных научно-исследовательских институтов и инкубаторских центров.

Благодаря этим направлениям образование Узбекистана станет устойчиво развивающейся, инклюзивной и конкурентоспособной системой.

Литературы:

1. Alimova, S., & Karimov, U. (2022). Interactive Teaching Methods in Higher Education. Uzbekistan Journal of Innovations in Education.
2. Begaliyev, F. (2024). MULTIMEDIALI ILOVALAR ASOSIDA SUN'IY INTELLEKT FANINI O 'QITISH USULLARI. Теоретические аспекты становления педагогических наук, 3(23), 138-142.
3. Coursera. (2023). AI for Everyone Course. [Online material]
4. Begaliyev, F. U. (2023). MULTIMEDIA MA'LUMOTLARNI SAMARALI ONLAYN TARZDA O 'RGANISH VA O 'QITISH. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 161-165.
5. BEGALIYEV, F. IMPROVING THE TOPIC OF BONE STRUCTURE AND COMPOSITION ON THE SUBJECT" MAN AND HIS HEALTH" ON THE BASIS OF MULTIMEDIA ELECTRONIC MANUALS. ИНТЕРНАУКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Интернаука, 11-13.
6. Laurillard, D. (2012). "Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology."

7. Begaliyev, F. U. “ODAM VA UNING SALOMATLIGI” FANIDAN MUSKULLAR VA ULARNING FUNKSIYASI MAVZUSINI MULTIMEDIALI ELEKETRON QO’LLANMALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI. ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ, 15.

МАКТАБДА ТАЖРИБА ВА ЛАБОРАТОРИЯ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ЎТКАЗИШДА ЁВВОЙИ ЎСИМЛИКЛАРНИНГ ТАБИИЙ БЕТА-РАДИОАКТИВ НУРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Шадиев Нарзикул Шадиевич.
Ўзбекистон-Финландия педагогика институти профессори.
Narziqulshodiyev2023@gmail com, 91 5504820.
Набиева Дилфуза Темировна.
Ўзбекистон-Финландия педагогика институти ўқитувчиси.
nabiyevadilfuza07@gmail.com, 90 4777946.

Аннотация: Мақолада ёввойи ўсимликларининг табиий бета радиоактив нурлари интенсивлиги (миқдори)ни ўлчаш, уларни моддалардан ўтиш жараёнида ютилиш қонуниятларини ўрганиш натижаларини муҳокама қилиш билан боғлиқ масалалар қаралади.

Таянч сўзлар: Радиоактивлик, ярим емирилиш даври, бета нур(электрон) лар, СТС-6 (бета электронларни санагич), интенсивлик, экспоненциал қонуният, ютилиш, модда.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы, связанные с обсуждением результатов измерения интенсивности бета радиоактивных лучей дикорастущих растений, изучением поглощения их при прохождении через вещество.

Ключевые слова: Радиоактивостъ, период полураспада, бета лучей, СТС -6 , интенсивность, экспоненциальная закономерность, поглошение, вещество.

Annotation: The article discusses the issues connected with the discussion of the results of measuring the intensity of beta radioactive rays of wild plants, studying their absorption during passage through matter.

Key words: Radioactivity, element, half-life, beta rays, STS-6, intensity, exponential regularity, absorption, matter.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ташаббуслари билан мамлакатимизда атом электростанциясини қуриш ишларига тайёргарлик бошланиб кетди. Бу табиий равишда ўқувчилар

ўртасида атом ядроси физикасига қизиқишни кучайтиради. Аммо ҳозирги вақтда ўрта мактаб физика таълимида ядро физикаси бўйича тажриба ва лаборатория ишлари деярли бажарилмайди. Чунки, умумий ўрта таълим мактаби 9-синф физика фани дастурининг “Атом физикаси асослари” (2,98) бўлимини ўрганишда на лаборатория ишлари, на кўргазма ва тажрибаларни намойиш қилиш кўзда тутилган. Боз устига физика фанидан минимал билимлар олиш учун зарур бўлган асбоб ва қурилмалар (2,58) бор-у-йўғи “Моддага доир” бўлимда “Альфа заррачасининг изини кузатишда керак бўладиган камера” “Альфа заррачасининг ёйилишини кўрсатувчи модель”, “Гейгер саначиги”, “Практикум учун асбоблар” бўлимида “Альфа заррачасини кузатиш камераси”; “Диафильмлар” бўлимида “Атом ва унинг тузилиши”; “Кинолавҳалар ва видеолавҳалар” бўлимида “Атом электр энергетикаси” баён қилинган, холос. Шунингдек, мактабларни нисбатан кичик дозадаги радиоактив изотоп билан таъминланмаганидадир.

Таркибида “Атом электр энергетикаси” нинг юраги бўлган “Ядро реактори”, “Протон заррачаларини тезлатгич” (циклотрони), “Электрон заррачаларини тезлатгич” (бетатрони), “Собальт-60 радиоактив изотопи билан жиҳозланган гамма қудуғи (установкаси)”, халқ хўжалигининг турли тармоқлари учун “Радиоактив изотоп (модда)лар тайёрлаб” буюртмаларни бажарадиган бўлими бўлган Ядро физикаси илмий-тадқиқот институти ўзининг илмий-амалий фаолияти билан жонажон Ўзбекистонимизни жаҳонга Ядровий муаммолар билан шуғулланувчи мамлакат сифатида танитиб келмоқда. Бу бизнинг ғуруримиз, албатта.

Шу боис мазкур илмий-тадқиқот марказига ҳамда бўлажак атом электростансиясига юксак маънавий-ахлоқий сифатларга эга бўлган юқори малакали мутахассис кадрлар тасодифан эмас, балки ўрта мактабдан бошлаб ядро физикаси фанига қизиқиши уйғонганлар олий таълимдан сўнг келишлари керак эмасми?

Ўз-ўзидан равшанки, юқорида баён қилинган “Атом физикаси асослари” бўлимини ўрганишга нисбатан муносабатни тубдан ўзгартиришни мамлакатимизда атом электр энергетикасидан фойдаланишга илк қадам қўйишимизни ўзи тақозо этмоқда.

Юқорида баён килинган камчиликларнинг олдини олиш максадида ёввойи ўсимликлар табиий бета радиоактивлигининг хусусиятидан фойдаланиб бир неча тажриба ва лаборатория ишларини қўйиш мумкин.

Ушбу тажриба ва лаборатория ишларини физика тўгараклари, факультатив машғулотларда амалга ошириш асқотади.

Биринчи тажриба иши. Мақсад ёввойи табиий ўсимликлар радиоактив бета нурлари интенсивлиги (миқдори)ни ўрганиш орқали ўсимликларнинг радиоактивлиги ўларнинг илдиз тизимига боғлиқлигини намоён қилишдан иборат.

Ушбу ишни бажаришда 9-синф ўқувчилари физика ва биология ўқитувчилари ҳамкорлигида ёввойи ўсимликларни тўплаш учун ўқувчиларга топшириқ берадилар. Шунингдек, ботаника фанини ўрганиш жараёнида

табиат (адир, тог ва яйловлар) га уюштирилган экскурсияларда жамланган ўсимликлар (масалан: янтоқ, шувоқ, изень, илок, шура, ғумай ва бошқалар)ни куйдириб, уларнинг кулларини радиоактив бета нурлари интенсивлигини бирин-кетин СТС-6 ҳисоблагчи ёрдамида ўлчайдилар. Амалга оширилган тажриба натижаларига асосланиб ўқувчилар энг кам миқдорда радиоактив бета нурлар чиқарадган ва юқори радиоактив бета нурлар чиқарган ўсимликларнинг кулларини аниқлайдилар. Ўқитувчи ушбу ҳолатни ўқувчилар олдига муаммо сифатида шакллантиради. “Нима учун айрим ўсимликларнинг радиоактивлиги паст, бошқаларники эса энг юқори”?, бу ўсимликларнинг тузилиши билан боғлиқми? деган саволни қўяди. Жавоб: Ўқ илдизли ва ён илдизлари ривожланган ўсимликлар табиий радиоактив моддаларни тўплаш тенденциясига эга.

Иккинчи тажриба иши. Мақсад ўқитувчиларда ёввойи шувоқ ўсимлигидан чиқаётган табиий бета нурлар интенсивлигини ўзгармаслигига ишонч ҳосил қилдириб, уларни радиоактивликнинг ярим емириш даври ҳақида мулоҳаза юритишга жалб этишдан иборат.

Ўқувчилар ўзидан энг кўп радиоактив бета электронларни чиқарадиган ўсимликлардан бирини, масалан, шувоқ кулини СТС-6 ҳисоблагич тагига қўйиб, унинг радиоактив бета электронлари миқдорини ярим соат оралатиб бир неча бор такрор ўлчашадилар. Олинган натижаларни бир-бири билан таққослаб, радиоактив бета электронлар миқдорини деярли ўзгармаганлигига ишонч ҳосил қиладилар. Ўқувчиларнинг ўтказган тажриба лаборатория ишини ҳаққонийлигини тасдиқлаш учун ўқитувчи ўтган йили олиб қўйган шувоқ кули радиоактив бета электронлари миқдорини уларга яна бир бор ўлчаб кўришни тавсия қилади.

Ўқувчиларнинг фикрлашларини фаоллаштириш мақсадида ўқитувчи улар олдига мазкур тажриба натижаси қандай қонуниятга асосланади, унда қайси физикавий тушунча муҳим рол ўйнайди?. радиактив элементнинг ярим емирилиш даври 1 секунд, 1 минут, 1 соат, бир кун, бир ҳафта, бир ой, ярим йил, бир йил, ўн йил, юз йил, минг йил бўлганда мазкур радиоактив элемент бизга тўлиқ емирилмай (бета электронлар чиқармай) етиб келармиди? Мазкур емирилиш даврлари учун радиоактив элементлар бета электронларнинг интенсивлиги неча мартадан камайишини ҳисоблаб чиқиш каби савол ва топшириқларни қўйиш жоиз.

Ўқувчиларнинг мазкур савол ва топшириқларга берган ижобий жавоблари ва шувоқ таркибида табиий радиоактив бета нурлар интенсивлиги (миқдори) ни ўрганиш бўйича юқорида баён қилинган натижалар шувоқ таркибидаги табиий радиоактив моддаларнинг ярим емирилиш даври жуда катта эканлиги туфайли улардан чиқадиган бета нурларининг интенсивлиги (миқдори) доимий, ўзгармас бўлишига асос бўлишини таъкидлаш лозим. Ўқувчилар мазкур табиий радиоактив моддалар Д.И.Менделеев даврий элементлар системасидаги қайси кимёвий элементларга тааллуқли эканлигини мустақил равишда топишлари учун ўқитувчи уларга турли

радиоактив элементларнинг ярим емирилиш даврлари келтирилган жадвални тақдим этиши жоиз.

Ўқувчилар ўқитувчи раҳбарлигида ярим емирилиш даври жуда кенг оралиқ, секуннднинг миллиарддан бир қисмидан тортиб то бир неча миллиард йилларга ўзгариши баён қилинган жадвал билан атрофлича танишиб, шувоқ таркибида ярим емирилиш даври ернинг ёши(4.5.109 йил) га яқин бўлган Уран ва Торий радиоактив ойлар бўлиши мумкин деган фикрни олға сурдилар.

Лаборатория иши.

Радиоактив нурларни, жумладан бета радиоактив нурларни турли моддалардан ўтиш қонуниятларини ўрганишда радиоактив нурлар манбаи сифатида мамлакатимизнинг барча ҳудудларида табиий равишда ўсадиган ёввойи ўсимликлар кулидан фойдаланиш асқотади.

Маълумки, кўпчилик ёввойи ўсимликлар таркибида радиоактив элементлар мавжуд. Масалан, ғумай, янтоқ, шувоқ, бангидевона, изень, илоқ каби ўсимликлар ўзларидан одам учун хавфли бўлмаган миқдорда радиоактив элементларга эга. Ушбу ўсимликлардаги радиоактивлик миқдорининг катта эмаслиги туфайли улар кишига зарар келтирмайди. Шу боис улар билан ишлаш жараёнида улардан ҳимоя қилиш учун махсус чора-тадбирлар кўриш талаб қилинмайди.

Ёввойи ўсимликлар радиоактив нурлари билан ўтказиладиган тажриба ва лаборатория ишларининг бошқалардан устунлиги шундан иборатки, улар бошдан оёқ биология ўқитувчисининг ҳамкорлигида амалга оширилади. Жумладан, биология ўқитувчисининг рахбарлигида ўқувчилар тажриба ва лаборатория ишлари учун ўсимликларни танлайдилар, ўсимликлар систематикаси асосида уларнинг номларини аниқлайдилар, биологик хусусиятларини ўрганадилар ва ҳ.к.

Ёввойи ўсимликлар кунлик табиий бета-радиоактив нурланишни, моддалардан яъни бета нур ўтишни ўлчаш қуйидагича бажарилади.

Ўлчашлар СТС-6 типидаги бета ҳисоблагич ва ПП-16 типидаги асбоб ёрдамида бажарилади. Бунинг учун тайёрланган ёввойи ўсимлик кули маълум вақт давомида бир неча марта ҳисоблагич остига қўйилади. Радиоактив атомларнинг емирилиши статистик характерга эга эканлигини ҳисобга олиб ҳар бир ўлчашда, бир минут давомидаги импульслар (ўсимликнинг радиоактивлигининг) сони 5 минут учун ўрта арифметик катталик сифатида аниқланади. Сўнгра, ўсимлик кулисиз табиий радиоактив «фон» ўлчанади.

Юқорида таъкидланганидек, энг катта бета-радиоактивлиги бўлган ёввойи ўсимликлар кулидан фойдаланиб, бета-электронларнинг моддалардан ўтишини ўрганиш мумкин. Маълумки, моддага йўналтирилган бета-электронлар (оқими) тарами интенсивлиги ундан ўтгандан кейин қуйидаги экспоненциал қонун асосида камаяди.

$$J_x = J_0 e^{-\mu x},$$

бу ерда J_0 , J_x – электронлар оқими ютилишидан олдин ва кейинги интенсивлиги, х – ютувчи модданинг қалинлиги, μ - ютиш коэффициенти.

Ушбу қонуниятни текшириш учун дастлаб, счётчик тагига кулни қўйиб, ютувчи моддасиз бета-электронлар сони(миқдори) ўлчанади, сўнгра сапачик ва кул ўртасига 0,1см қалинликдаги картон (бошида 1 картон, кейин 2 картон, 3 картон ва ҳ.к.) қоғоз қўйилади ва ҳ. к. ва $J_{x1,}$ $J_{x2,}$ J_{x3} ва ҳ.к. топилади ва бета-электронлар оқими сезиларли даражада камайганига қадар картон қоғозлар сони (қалинлиги) ошириб борилади.

Электронлар оқими (тарами) интенсивлиги ва картон қоғоз қалинлиги ўртасидаги боғлиқлик графиги қуйидаги кўринишга эга бўлади (расмга қаранг) ва радиоактив «фон» миқдорини ифодаловчи горизонтал чизиқ ўтказилади.



Ушбу графикдан кўринадики, J ва X орасидаги боғланиш кескин камайиш билан ифодаланган. Худди шундай тарзда бета-электронларни полиэтилен, алюминий қоғозларида ютилишини ўрганиш мумкин.

Шундай қилиб, ушбу тажриба ва лаборатория иши ўқувчиларнинг бета-электронлар хусусиятлари, уларнинг турли моддалардан ўтиш қобилиятлари тўғрисидаги тасаввурларни кенгайтиради.

Юқорида баён қилинганларга асосланиб, ўсимлик кулидан етарли миқдорда таблеткалар ясаб, ядро физикаси бўлимини тўлиқ ҳажмда тажрибалар орқали ўрганишга эришиш мумкин.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасида атом энергетикасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи газетаси, 2018 йил 20 июль.

2. Умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандарти ва ўқув дастури: Физика.... // Таълим тараққиёти Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлигининг ахборотномаси. 4- махсус сон.-Т.: Шарқ,1999.- Б.46-100.

3. Пратов О., Одилов Т., Тошмуҳаммедов У. Ботаника. 9-нашр. 5-6 синфлар учун дарслик сифатида тасдиқланган. –Т.: Ўқитувчи, 2001.

4. Ахмедова Г. Табиатда радиоактивлик. –Самарқанд, 2009.

IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘QUVCHILARDA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Xamidova Diyora Rustam qizi
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
+998901021192

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish maqsadida qilinayotgan imkoniyatlar, hamda imkoniyati cheklangan bolalar o‘zlarini jamiyatning bir bo‘lagi ekanliklarini his qilishlari uchun ularni qiziqishlaridan kelib chiqqan holda qaysidir bir sohaga yo‘naltirish borasida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Ijod, ijodlorlik,faoliyat, qobiliyat,ta’lim, tarbiya ,inklyuziv ta’lim,davlat,jamiat, rivojlanish.

Аннотация. В данной статье речь идет о возможностях, которые создаются в нашей стране с целью формирования творческих способностей у учащихся с ограниченными возможностями, а также о том, как направить детей с ограниченными возможностями в какую-то сферу, исходя из их интересов, чтобы они чувствовали себя частью общества.

Ключевые слова. Творчество, креативность, активность,способности, образование ,воспитание, инклюзивное образование,государство, общество, развитие.

Ma'lumotlarga ko‘ra, respublikadamiz bir nechta jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar uchun ixtisoslashgan maktab va maktab-internatlar faoliyat olib bormoqda. Ushbu maktablarda bugungi kunda ko‘plab o‘quvchilar ta’lim olishmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalar oddiy bolalarga qaraganda ko‘proq e'tiborga muhtoj. Hozirgi kunda ko‘plab davlatlar qatori O‘zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim va tarbiya olishlari, tibbiy muolajalar olib borishlari uchun imkoniyatlar yaratib kelinmoqda va bunday insonlar va bolalarning haq-huquqlari qonun hujjatlari bilan mustahkamlab qo‘yilgan va himoya qilinmoqda. Alohida ehtiyojli bolalarni imkoniyatlaridan kelib chiqib umumta’lim tashkilotlarida to‘laqonli ta’lim olishlarini ta’minlash, ta’lim muassassalarida har bir alohida ehtiyojli bola uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishdir.Shu bilan bir qatorda ushbu sinf vakillariga hayotda o‘z o‘rnilarini topishlari va biror bir kasb bilan shug’ullanib o‘z ixtiyojlarini qondira olishlari, hamda boshqalarga qaram bo‘lmasliklarini taminlash maqsadida ularni qiziqqan sohalariga yo‘naltirish bugungi kunning dolzarb masalasidir.Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni psixologik jihatdan o‘zlariga bo‘lgan ishonch hissini uyg’ota olishlari uchun ijtimoiylashuvning hamkorlikdagi harakati juda muhimdir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, bugungi kunda maxsus maktablarda maxsus yordamga muhtoj imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni o‘qitishda ta’lim texnologiyalari o‘zgartirilmasa, u holda ularning bilim zaxirasi va qanday malakaga ega bo‘lishini tasavvur qilish mumkin. Imkoniyati cheklangan

o‘quvchilarga ijodiy qobiliyatni rivojlantirish va ularga ta’lim berishda biz quyidagi muommolarga duch kelamiz:

- alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish dolzarb pedagogik metodlar bo‘yicha o‘zbek tilida elektron darslik va metodik qo‘llanmalarning kamligi;

- alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda o‘quvchilar shaxsining pedagogik-psixologik jihatdan yetarli darajada o‘rganilmaganligi;

- maxsus maktablar ta’lim-tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlarida sobiq ittifoqdan olingan dasturlar asos bo‘lib, milliy qadriyatlarimizga, ulardan foydalangan holda dastlabki mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishga yetarlicha e’tibor berilmaganligi; - alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ijodiy yondashilmaganligi;

-alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda ta’lim muassasalarda texnikalar yetarli darajada emasligi;

-maxsus maktablar va ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablari uchun masofaviy ta’lim tizimlarining yetarlicha yaratilmaganligi;

-alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga doir pedagogik diagnostik ishlar bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar, uslubiy ko‘rsatmalar kamligi;

- dars mashg‘ulotlarida o‘qituvchi tomonidan kreativ yondashish kamligi; - alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga doir tajriba sinov ishlari yuzasidan Respublikamizda maxsus ilmiy tadqiqot ishlarining yo‘qligi bilan ham belgilanadi.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga bugungi kunda ulardagi ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida qo‘yidagi pedagogik jarayonlar va imkoniyatlar yaratilishi maqsadga muofiqdir.

-Alohida ehtiyojli bolalarni imkoniyatlaridan kelib chiqib umumta’lim muassasalarida to‘laqonli ta’lim olishlarini ta’minlash, ta’lim muassassalarida har bir alohida ehtiyojli bola uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish.

- Umumta’lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitishning pedagogik jarayonini tashkil etish bilan birgalikda ularning qabul qilish darajasin yani, imkoniyatiga qarab o‘quv dasturlarini moslashtirish.

-O‘qituvchilar, ota-onalar va mutaxassislar o‘rtasidagi hamkorlik individual ta'lim rejalarini yaratish va umumiy sharoitda nogiron o‘quvchilarning umumiy farovonligini qo‘llab-quvvatlash,

-Umumta'lim maktablarida pedagogik jarayonni tashkil etish nogiron bolalarni qamrab olishni ta'minlash uchun turli strategiyalarni qabul qilish,

-Umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim tushunchasi va ahamiyati inklyuziv jamiyatni yaratish,

Pedagogik jarayonni tashkil etishning usullaridan biri nogiron o‘quvchilar uchun maqsadlar va yashash joylarini belgilaydigan Individuallashtirilgan ta'lim

rejalarini (IEP) yaratishdir. Ushbu rejalar maxsus ta'lim va umumiy ta'lim o‘qituvchilari, ota-onalar va o‘quvchilarning takliflari bilan tuziladi.

Umumta'lim maktablarida nogiron bolalar uchun pedagogik jarayonni tashkil etish qo‘llab-quvvatlovchi va inklyuziv sinf muhitini yaratishni o‘z ichiga oladi. Bu etarli resurslar bilan ta'minlash, o‘qituvchilar uchun treninglar va ijobiy maktab madaniyatini targ'ib qilishni o‘z ichiga oladi.Inklyuziv va qo‘llab-quvvatlovchi sinf muhitini yaratish nafaqat nogiron bolalarga foyda keltiradi, balki barcha o‘quvchilar uchun umumiy ta'lim tajribasini oshiradi. U empatiya, hurmat va xilma-xillikni targ'ib qiladi, natijada talabalarni yanada inklyuziv jamiyatga tayyorlaydi. Inklyuziv ta'lim barcha oquvchilar, jumladan, nogironlar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Umumta’lim maktablarida pedagogik jarayonni tashkil etish ularning muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu ushbu jamiyat vakillarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun mazmun va etkazib berish usullarini o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi.Ushbu usullarni qo‘llash orqali o‘qituvchilar inklyuziv ta'lim muhitini yaratishi mumkin, bunda barcha o‘quvchilar, shu jumladan nogironlar ham o‘sishlari va sinfda o‘zlarining to‘liq salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishlari mumkin. Umumta’lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitishning pedagogik jarayoni qonunchilik bazasiga amal qilishi shart. Ma’lumki, turli badiiy mahsulotlar va texnika bilan ishlash barcha bolalarda amaliy san’atga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish bilan birga, mustaqil ijod qilishga rag‘batni uyg‘otadi. Imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy moslashuvda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning an’anaviy (applikatsiya, narsa yasash, qo‘l mehnati) va noan’anaviy (plastilin, mum, shag‘am bilan chizish, don, tugmalar bilan ishlash, kulolchilik, ganchkorlik, uyg‘unlashgan applikatsiya, ya’ni kigiz, bisser, to‘r, tasmalardan foydalanib tikish, to‘qish, yasash) usullari orqali to‘garaklarga jalb qilinmoqda. Bu kabi to‘garaklarni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad bolalarda amaliy san’atga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish, mustaqil ijod qilishga rag‘batni uyg‘otish, turli badiiy materiallar va texnika bilan ishlash orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish, mayda va yirik qo‘l matorikalarini rivojlantirish, bolalarda diqqat tanqisligi va gipperfaollikni bartaraf etishda yordamlashishdan iborat.

Bugungi kunda “Inklyuziv ta’lim markazi”da imkoniyati cheklangan hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj 10 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar uchun “Inklyuziv ta’lim” va “Inklyuziv kasbiy ta’lim” yo‘nalishlarida bepul to‘garaklar faoliyat olib bormoqda. “Inklyuziv ta’lim” yo‘nalishida 82 nafar aqliy va ruhiy jihatdan rivojlanishda orqada qolayotgan bolalarga defektolog va logopedlar mashg‘ulotlarni tashkil etilgan bo‘lsalar, “Inklyuziv kasbiy ta’lim” yo‘nalishida 73 nafar tayanch harakatida, eshitishida va ko‘zida nuqsoni bor yoshlar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlari “Mohir qo‘llar”, “IT bilimdoni” kopmyuter yo‘nalishida, tikuvchilik va zardo‘zlik bo‘yicha to‘garaklarda kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘ldilar. Har bir bola bilan ishlash xususiyatlariga bog‘liq ravishda, hunarmand ustalarning tavsiyasiga binoan to‘garak yo‘nalishlarida 4-5 bola shug‘ullanadi. Bolalar muayyan malakaga ega bo‘lgach, bu faoliyat bilan shug‘ullanishni davom ettirishni istaganlar yakka tartibdagi hunarmandga biriktiriladi.

To‘garaklarda shug‘ullanishni istovchilar yetarli bo‘lganligi sababli qo‘shimcha guruh tuzilishi ham rejalashtirilgan. Ustaxonada tashkil etilgan to‘garaklar haftada ikki marotaba, imkoniyati cheklangan bolalarning faol harakatlanish vaqtida olib boriladi. Bunda ota-onalarning bevosita ishtirok etish imkoniyatlari ham inobatga olingan.

Ushbu to‘garaklarga bugungi kunda Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markaziga qatnab, mutaxassislar ko‘magidan foydalanayotgan, salomatligida imkoniyati cheklangan bolalar jalb qilingan. O‘quvchilardagi ijodkorlikni shakllantirish orqali ulardagi imkoniyat kengliklari hamda o‘zlariga bo‘lgan ishonch hissini yanada ortishi bilan birg alikda irodaviy mustahkamlik,sabr-toqat , psixologik jihatdan rivojlanish kabi jarayonlarni ham rivojlantirishimiz mumkin.

Keltirilgan mulohazalardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda pedagogik jarayon muhim ahamiyat kasb etadi.Bundan asosiy maqsad imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni jamiyatda o‘z o‘rnilarini topishga ko‘maklashishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Boltaeva Sh.T. Boshlang'ich ta'limda o‘quvchilar ijodini yo‘naltirishlari //Pedagogika ishlab chiqarish va tarixiy muammolari. / Ilmiy ishlar to‘plami.-T.: Fan, 2006.

2. Karimova V. Nishonova Z. Mustaqil ijodiy fikrlash va shaxsning hissiy, irodali va intellektual fazilatlari o‘rtasidagi bog'liqlik // J. Xalq ta’limi, 2001

3.O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017 yil dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5270-sonli Farmoni.

4.2020-2025 yillarda Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’lim Inklyuziv ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi. O‘z.Res.Prezidenti. 13.10.2020y PQ 4860-son

5. Madatov I.Y., Inklyuziv ta’lim (darslik). – T.: “Best-Publish” nashriyoti, 2024, 238 bet

Elektron resurslar

1. www.edu.uz
2. www.bilim.uz
3. http://elearning.zn.uz/
4. https://www.coursera.org/

4-SHO‘BA
FANNI SAMARALI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.

KOMPLEKS YONDASHUV: FANLAR O‘RTASIDAGI MANTIQIY ALOQALAR BARPO ETISH

Nigina Gulyamova Azimovna
Samarqand davlat universiteti
tayanch doktoranti
nigina.madina1994@gmail.com
+998915362644

Annotatsiya. Kompleks yondashuv ta’lim jarayonida fanlararo mantiqiy aloqalarni barpo etish orqali talabalarning dunyoqarashini kengaytirish va bilimlarni integratsiyalashga qaratilgan. Ushbu maqolada matematika, ingliz tili va tabiatshunoslik kabi fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish usullari ko‘rib chiqiladi. Muammoni hal qilishda nazariya va amaliyotni birlashtirish, talabalarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi

Kalit so‘zlar: kompleks yondashuv, fanlararo aloqa, ta’lim jarayoni, bilim integratsiyasi, mantiqiy aloqalar, amaliy mashg‘ulotlar, dars rejalari.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida fanlararo mantiqiy aloqalarni barpo etishning ahamiyati haqida ko‘p gapiriladi. Kompleks yondashuv bu jarayonda asosiy vosita hisoblanadi. Fanlararo integratsiya orqali talabalar nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishni o‘rganadilar va ularga hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyati beriladi. Shuningdek, bu yondashuv talabalarning intellektual rivojlanishiga hamda ularning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kompleks yondashuvning ta’rifi va ahamiyati. Kompleks yondashuv – bu turli fanlarni bir-biriga bog‘lab, umumlashtirib o‘rgatish usuli. Bu yondashuv asosida har bir fan alohida emas, balki boshqa fanlar bilan uzviy bog‘langan holda o‘rganiladi. Masalan, matematik formulalar fizika masalalarini yechishda qo‘llaniladi, biologik jarayonlar kimyo qonunlariga asoslanadi. Bunday integratsiya natijasida talabalarda chuqurroq tushunchalar shakllanadi.

Fanlararo mantiqiy aloqalar barpo etishning afzalliklari. Bilimlarni integratsiyalash : Har bir fan alohida emas, balki boshqa fanlar bilan bog‘langan holda o‘rganiladi. Masalan, ingliz tilini o‘rganishda tabiiy fanlardan misollar keltirib, ilmiy atamalarni chuqurroq tushuntirish mumkin.

Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim: Nazariy bilimlar hayotiy vaziyatlarda qo‘llaniladigan ko‘nikmalarga aylanadi. Masalan, ekologiya mavzusini o‘qitishda matematik statistika yordamida aholi sonining o‘sishini tahlil qilish mumkin.

Tafakkur rivoji: Talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyati va analitik malakalari rivojlanadi. Tabiatshunoslikda astronomik masofalarni hisoblash uchun matematik formulalar qo‘llaniladi.

Motivatsiya oshishi: Fanlararo aloqalar orqali talabalar darsga qiziqishini oshirish va ularning faolligini oshirish mumkin.

Kompleks yondashuvni amalga oshirish usullari. Kompleks yondashuvni amalga oshirish uchun quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

Integratsiyalangan dars rejasi: Dars rejalari tuzishda bir nechta fanlardan materiallar birlashtiriladi. Masalan, ingliz tilida “Energy” mavzusi o‘tilganda fizika va biologiya fanlaridan energiya manbalari, fotosintez va elektr toki haqidagi tushunchalar kiritiladi.

Amaliy mashg‘ulotlar: Laboratoriya ishlari, eksperimentlar va tadqiqotlar orqali fanlararo aloqalar namoyon qilinadi. Masalan, suvning bug‘lanishi va kondensatsiyasi jarayonini o‘rganishda fizika, kimyo va matematika qonunlari qo‘llaniladi.

Interaktiv texnologiyalar: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, multimedia ilovalari, virtual laboratoriyalar va interaktiv stendlar fanlararo aloqalarni yanada aniqroq va qiziqarli tarzda taqdim etishga yordam beradi.

Amaliy misollar

1. Matematika va ingliz tili. Matematika darsida ingliz tilida ma’lumotli matnlar bilan ishlashni joriy etish mumkin. Masalan, “Geometry in Everyday Life” mavzusida ingliz tilida geometrik shakllar tasvirlanadi va ularga oid masalalar yechiladi. Bu talabalarga hamma narsani ingliz tilida ifodalash mahoratini oshiradi.

2. Tabiatshunoslik va ingliz tili. Tabiatshunoslik darsida “Solar System” mavzusi ingliz tilida o‘tilishi mumkin. Quyosh sistemasining tuzilishi, sayyoralar harakatlari va kosmik jismlar haqida ingliz tilida ma’ruzalar eshitiladi va talabalar ingliz tilida mustaqil ravishda referatlar tayyorlaydilar.

3. *Matematika va tabiatshunoslik.* Ekologiya mavzusida matematik statistika usullari qo‘llaniladi. Masalan, aholi sonining o‘sishi, resurslarning kamayishi va ekologik muammolar grafiklar va diagrammalar orqali tushuntiriladi. Bu orqali talabalar matematik bilimlarni tabiatshunoslikda qo‘llashni o‘rganadilar.

Kompleks yondashuvni amalga oshirishda ba’zi qiyinchiliklar ham mavjud:

Vaqt yetishmasligi: Bir nechta fanlarni bitta darsda qamrab olish qiyin bo‘lishi mumkin. Buni hal qilish uchun darslar integratsiyalangan holda tashkil etilishi kerak.

O‘qituvchilar tayyorgarligi: O‘qituvchilarning boshqa fanlardan bilimlarga ega bo‘lishi zarur. Buning uchun o‘qituvchilarga qo‘shimcha kurslar va seminarlar tashkil etish lozim.

O‘quv materiallari: Integratsiyalangan darslar uchun mos o‘quv materiallari yetarli bo‘lmaydi. Buni bartaraf etish uchun yangi darsliklar va elektron resurslar ishlab chiqilishi zarur.

Xulosa. Kompleks yondashuv fanlararo mantiqiy aloqalar barpo etish orqali ta’lim sifatini oshirishga imkon beradi. Ushbu yondashuv talabalarda kengroq dunyoqarash, mantiqiy fikrlash va amaliyotga yo‘naltirilgan ko‘nikmalar shakllantiradi. Fanlararo integratsiya orqali ta’lim jarayoni yanada samarali va qiziqarli bo‘ladi. Buning uchun o‘qituvchilar va o‘quv institutlari birgalikda ishlashlari, yangi metodikalar va materiallar ishlab chiqishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullaev, A. (2023). Fanlararo integratsiya va kompleks yondashuv uslublari. Toshkent: Ilm Ziyo.
2. Ahmedova, M. (2024). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta’lim jarayoniga tatbiqi. Namangan: Milliy Ta’lim Nashriyoti.
3. Akramov, R. (2022). Matematika va tabiatshunoslik fanlarini birlashtirish usullari. Sirdaryo: Raqamli Ta’lim Konferentsiyasi materiallari.
4. Azimov, T. (2023). Ingliz tilida fanlararo bog‘liqliklarni amalga oshirish. Samarqand: Til va Tarjima Institutining ilmiy to‘plami.
5. Boboev, S. (2024). Ta’limda innovatsion yondashuvlar va fanlararo aloqalar. Toshkent: O‘zbekiston Oliy Maktabi Nashriyoti.
6. G‘ulomov, K. (2023). Tabiatshunoslik fanida matematik modellashtirish. Andijon: Zamonaviy Ta’lim Usullari.
7. Ibragimov, D. (2024). Kompleks yondashuvning nazariy asoslari va amaliy tatbiqlari. Farg‘ona: Innovatsion Ta’lim Merosi.
8. Ismoilov, J. (2023). Tilshunoslik va tabiatshunoslik fanlarini integratsiyalash. Buxoro: Pedagogika Fanlari Akademiyasi.
9. Karimova, N. (2024). O‘quvchilarning fanlararo bog‘liqlikni anglash malakalarini rivojlantirish . Qarshi: Ta’lim Sohasida Yangiliklar.
10. Mahmudov, E. (2023). Interaktiv metodlar orqali fanlararo aloqalar barpo etish. Navoiy: Zamonaviy Ta’lim Platformasi.
11. Mirzoeva, L. (2024). Kompleks yondashuvning amaliyoti va samaradorligi. Urganch: Oliy Ta’lim Muassasalari uchun darslik.
12. Rahmonov, B. (2023). Matematika va ingliz tili integratsiyasi bo‘yicha amaliy tavsiyalar. Jizzax: Ta’lim Sohasidagi Innovatsiyalar.
13. Sattorov, U. (2024). Ta’limda fanlararo aloqalarni kuchaytirish yo‘llari. Xorazm: Ma’naviyat va Ma’rifat Nashriyoti.
14. To‘xtasinov, F. (2023). Ekologiya va matematik statistika integratsiyasi. Samarqand: Ilmiy-Tadqiqot Instituti.
15. Yusupova, Z. (2024). Adabiyot va boshqa fanlararo munosabatlarni o‘rganish. Toshkent: Adabiyot va San’at Nashriyoti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI O‘RGANISH JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKTNING AHAMIYATI

Dilnoza Eshonova Abrorovna
Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni
kasbiy rivojlantirish va
yangi metodlarga o’rgatish
milliy-tadqiqot instituti doktaranti.
eshonova_dilnoza@mail.ru
+998937288862

Annotatsiya. Ushbu tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilini o‘rganish jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalarining roli o‘rganiladi. Sun'iy intellekt yordamida grammatika, talaffuz, so‘z boyligi va muloqot qobiliyatlarini interaktiv tarzda rivojlantirish mumkin. Shuningdek, tezisda bu texnologiyalarni qo‘llashning afzalliklari va mavjud muammolar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, sun’iy intellect, talaffuz, metodika, yondashuv, ta’lim.

Abstract.This thesis explores the role of artificial intelligence technologies in developing communicative competence in primary school students during English language learning. AI technologies can help enhance grammar, pronunciation, vocabulary, and communication skills in an interactive manner. The thesis also analyzes the advantages and challenges of applying these technologies.

Key words: competence, artificial intelligence, pronunciation, methodology, approach, education.

Аннотация. В данной диссертации рассматривается роль технологий искусственного интеллекта в развитии коммуникативной компетенции у учащихся начальных классов при обучении английскому языку. Технологии ИИ могут помочь в интерактивном развитии грамматики, произношения, словарного запаса и коммуникативных навыков. Также в диссертации анализируются преимущества и проблемы применения этих технологий.

Ключевые слова: компетенция, искусственный интеллект, произношение, методология, подход, образование.

Bugungi kunda globalizatsiya jarayonlari va yangi texnologiyalarning tez rivojlanishi ta’lim tizimiga yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Ingliz tili o‘rganishning samarali metodikalari va texnologik yechimlar izlanayotgan bir vaqtda, sun’iy intellekt yordamida o‘qitish usullarining ahamiyati kundan-kunga ortmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilini o‘rganishida kommunikativ kompetensiya, ya’ni til orqali muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish o‘qituvchilarga o‘quvchilarni amaliy jihatdan tilni o‘rganishga yo‘naltirish imkonini beradi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalari bu jarayonda muhim yordamchi vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilini o‘rganish jarayonida kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalarining roli va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, bu metodikaning afzalliklari, mavjud muammolar va ularni hal qilish yo‘llari ko‘rsatiladi.

Ingliz tilini o‘rganishda kommunikativ kompetensiya nafaqat tilni to‘g‘ri ishlatishni, balki til orqali samarali muloqot qilishni ham o‘z ichiga oladi. Bu qobiliyat o‘quvchilarni ingliz tilini o‘rganishda nafaqat grammatikani, balki so‘z boyligini, talaffuzni va tilni turli muloqot sharoitlariga mos ravishda ishlatishni o‘rgatishdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishda ular bilan muloqot qilish, tilni amaliyotda qo‘llash, so‘zlashuv va tinglash qobiliyatlarini

rivojlantirish asosiy maqsadga aylanishi kerak. O‘quvchilarga grammatika, so‘z boyligi va talaffuzni o‘rgatish bilan birga, muloqot qilishni ham o‘rgatish zarur.

Sun’iy intellekt – bu kompyuter tizimlarining insonning aqliy faoliyatini taqlid qilishga harakat qiladigan texnologiya va ilmiy soha. Tabiiy tilni qayta ishlash mashinani o‘rganish, ovozli tanib olish kabi texnologiyalar yordamida ingliz tilini o‘rganish tizimlari yanada samarali va shaxsiylashtirilgan bo‘lishi mumkin. Bugungi kunda ta’lim tizimida yangi texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt (SI) metodlari o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ingliz tili kabi xorijiy tilni o‘rganish jarayonida, ayniqsa, og‘zaki nutqni rivojlantirishda sun’iy intellektning roli sezilarli darajada ortib bormoqda. Sun’iy intellekt o‘zining interaktiv imkoniyatlari, tilni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi yordami bilan ingliz tilini o‘rganish jarayonini samarali qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchilarga ingliz tili talaffuzini to‘g‘ri o‘rganish va uning ustida ishlashda yordam beradi. “Speech recognition” texnologiyalari orqali o‘quvchilar o‘z talaffuzlarini to‘g‘ri aniqlashadi va kerakli o‘zgarishlarni kiritadilar. Bu tizimlar o‘quvchilarni talaffuzdagi xatolarni aniqlash va to‘g‘rilash imkonini beradi, natijada ular aniq va to‘g‘ri talaffuzga ega bo‘ladilar.

Muloqotda ishtirok etish imkoniyatlarini oshirish.

Talaffuzni yaxshilash: Elsa Speak kabi ilovalar talaffuzni tahlil qilib, foydalanuvchilarga to‘g‘ri talaffuzni o‘rgatadi. Bu o‘quvchilarni ingliz tilida muloqot qilishda yanada ishonchli qiladi. Suhbat robotlari (Chatbots): ChatGPT yoki boshqa chatbotlar yordamida o‘quvchilar bilan ingliz tilida suhbatlashish, yangi so‘zlar va iboralarni amaliyotda ishlatish imkonini beradi. Bu tilni amaliyotda o‘rganishni samarali qiladi.

Individual yondashuv: Sun’iy intellekt o‘quvchilarni individual darajada baholash va o‘rganish tezligini nazorat qilish imkoniyatini taqdim etadi. Bu metodika yordamida o‘quvchilar o‘z xatolarini tushunib, ularni to‘g‘rilashadi.

Sun’iy intellekt asosidagi interaktiv tizimlar o‘quvchilarga muloqotda ishtirok etishda yordam beradi. Masalan, chatbotlar yoki virtual yordamchilar yordamida o‘quvchilar ingliz tilida suhbatlashish tajribasini oshiradilar. Bu texnologiyalar o‘quvchilarga haqiqiy muloqot sharoitlariga yaqinlashtirilgan mashq qilish imkoniyatini beradi.

O‘rganishning shaxsiylashtirilgan yondashuvi: Sun’iy intellekt tizimlari o‘quvchilarning individual o‘rganish ehtiyojlariga moslashtirilgan materiallarni taqdim etadi. Tizim o‘quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ularni yaxshilashga yordam beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarning og‘zaki nutq bo‘yicha maqsadga muvofiq rivojlanishiga olib keladi. Sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchilarga o‘z-o‘zini tekshirish va o‘rganish imkoniyatlarini beradi. Masalan, “language learning apps” (til o‘rganish ilovalari) orqali o‘quvchilar ingliz tilida audio va video materiallar yordamida talaffuzni va muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlashadi. Bunday ilovalar o‘quvchilarga real vaqt rejimida fikr almashish, yangi so‘zlarni o‘rganish va tilni ishlatish imkoniyatlarini taqdim etadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘quvchilar tilni real hayotda, ya’ni

muloqotda ishlatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, chatbotlar o‘quvchilarga o‘quv darslarini amalga oshirishda yordam beradi va ular bilan doimiy ravishda amaliy muloqotga kirishadi. Sun’iy intellektning boshqa bir afzalligi shundaki, u o‘quvchilarga guruhli va shaxsiy mashqlarni amalga oshirishda yordam beradi. O‘quvchilar o‘zlariga mos ravishda mashq qilishlari mumkin, bu esa og‘zaki nutqni tezda o‘zlashtirishga yordam beradi. Sun’iy intellekt tizimlari, shuningdek, o‘quvchilarning rivojlanishini tahlil qilib, ularga kerakli mashqlarni taklif etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilini o‘rganishda sun’iy intellektni qo‘llash metodikasining afzalliklari quyidagilardan iborat:

1.Interaktiv va qiziqarli o‘qitish. Sun’iy intellekt asosidagi ilovalar o‘quvchilarga ingliz tilini o‘rganishni yanada interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi. O‘quvchilar o‘ynab o‘rganadilar, bu esa ularda tilga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

2.Motivatsiyani oshirish: O‘quvchilar sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanganda, ular o‘rgangan narsalarini darhol qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu metodika ularni ingliz tilini o‘rganishda davom ettirishga undaydi.

3.Tezkor va samarali tahlil: Sun’iy intellekt tizimlari o‘quvchilarning yutuqlarini va xatolarini tezkor tahlil qilib, ularni yaxshilash uchun individual takliflar beradi. Bu o‘quvchilarga xatolaridan tezda saboq olish imkonini yaratadi.

Muommolar va ularni hal qilish:

1.Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda ayrim maktablar texnik jihatdan cheklangan bo‘lishi mumkin. Internetga kirish va zamonaviy qurilmalarga ega bo‘lmagan maktablarda bu texnologiyalarni joriy etish muammolarni keltirib chiqaradi. Bunda internetga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va ko‘p funksiyali qurilmalarni maktablarda ta’minlash orqali bu muammoni hal qilish mumkin.

2.Texnik cheklovlar. Ba’zi sun’iy intellekt tizimlari faqat asosiy grammatikani yoki oddiy so‘zlarni qayta ishlashda samarali bo‘ladi, lekin murakkab til strukturasi yoki noan’anaviy iboralarni tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Sun’iy intellekt tizimlarining murakkab til strukturalari va noan’anaviy iboralarni tushunish darajasini oshirish uchun, ularni rivojlantirish va takomillashtirish zarur. Mutaxassislar tomonidan mashina o‘rganish va tilni qayta ishlash algoritmlarini yanada samarali qilish ustida ish olib borilishi lozim.

3.O‘rganish jarayonida inson omilining yetishmasligi. Sun’iy intellekt tizimlari inson pedagogining empatiyasini yoki o‘quvchining ehtiyojlarini to‘liq his qila olmaydi. Shuning uchun, texnologiyani o‘qituvchi bilan birgalikda ishlatish zarur. Sun’iy intellekt tizimlari o‘quvchilarga yordamchi vosita sifatida ishlashi kerak. O‘qituvchilar tizimlardan foydalanib, individual yondashuvni amalga oshirishi zarur. O‘qituvchilar o‘z bilimlari va tajribasidan foydalangan holda texnologiyaning imkoniyatlarini to‘liq qamrab olishlari lozim. O‘qituvchilarni sun’iy intellekt texnologiyalarini samarali qo‘llashga o‘rgatish va ularni o‘zlashtirish uchun maxsus kurslar tashkil etish foydali bo‘ladi.

4.Madaniyatlararo tafovutlar. Sun’iy intellekt tizimlari turli madaniyatlar va tilshunoslik tafovutlarini hisobga olmagan holda ishlashlari mumkin, bu esa ingliz

tilining madaniy jihatlarini o‘rganishda qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Sun’iy intellekt tizimlari madaniyatlararo tafovutlarni hisobga olish uchun ko‘proq ma’lumot va kontekstni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Bunda madaniy va tilshunoslik tafovutlarini o‘z ichiga olgan o‘quv materiallari va resurslarni yaratish muhim ahamiyatga ega. Tizimlar uchun madaniyatlararo o‘rganish uchun maxsus algoritmlar ishlab chiqish va tilni o‘rganish jarayonida madaniy jihatlarni hisobga olish orqali bu muammo yechiladi. Sun’iy intellekt texnologiyalari o‘qituvchining o‘rnini to‘liq egallay olmaydi. O‘qituvchining motivatsiyasi, yordam berish va tahlil qilishdagi roli juda muhimdir. Sun’iy intellekt texnologiyalari faqat o‘quvchilarga yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Sun’iy intellekt texnologiyalari ingliz tilining og‘zaki nutqini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar o‘quvchilarga talaffuzni to‘g‘ri o‘rganish, muloqotda ishtirok etish, va tilni o‘rganishni shaxsiylashtirish imkoniyatlarini yaratadi. Biroq, texnik cheklovlar va o‘qituvchining rolini to‘liq o‘zgartirish mumkin emas. Sun’iy intellekt yordamida og‘zaki nutqni o‘rganishda o‘quvchilar o‘zlashtirish jarayonini yanada samarali qilishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Gulomova S. Ingliz tilini o‘rganishda interaktiv metodlarning roli. – T.: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2020. – 45b.

2.Akilov, B., & Abdullaeva, N. Sun'iy intellekt va ta’lim texnologiyalari. – T.: Science and Education Publishing, 2019. – 112-128b.

3.Kuznetsova, M. Metodika obucheniya inostrannym yazykam v nachal'nykh klassakh. – Moskva: Vysshaya shkola, 2018. – 89-102b.

4.Vygotsky, L. S. Mind in society: The development of higher psychological processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. –91-115b.

5.Gulomova, F., & Yuldashev, R. Pedagogik texnologiyalar va sun'iy intellekt: Ta’limda samarali qo‘llanishi. – T.: Orient Publishing, 2021. –70-85b.

6.Collins, A., & O‘Brien, L. Artificial Intelligence in Education: Insights and Innovations. – New York: Springer, 2020. –150-170b.

7.Jones, S., & Smith, P. Interactive Teaching Methods for English Language Learning. – London: Routledge, 2019. –45-60b.

THE TEACHERS' CHANGING ROLE AND WAYS OF TEACHING THE FOREIGN LANGUAGES

Gulbakhor Eshbekova Khazratkulovna
Chirchik state pedagogical university
Independent researcher
ORCID ID: https://orchid.org/0009-0008-2768-2300
gulbakhoreshbekova@gmail.com

Abstract: This article tries to disclose the role of teachers who conduct the English language classes as well as compares the most modern, productive approaches while teaching.

Key words: teacher, facilitator, TPR, AR &VR, language.

The reformation in the educational system of Uzbekistan aims at improvements in curriculum, excelling teachers with the innovational teaching methods, and access to education, particularly in rural areas. These reforms signify to modernize education, align it with international standards, and enhance the skills and knowledge of the younger generation. Moreover, many educational institutions are now realizing the value of soft skills.

There have been radical changes in the theory of language teaching. Language is a communication tool. In real life, people do not use language with the purpose of using language elements (such as grammar, phonetics, vocabulary, etc.). The purpose of using language is achieving communication, be that verbally or in written form (Brown 329-42)[40]. Therefore, language should be taught as a skill-based tool of communication.

Bloom's research, along with that of Jean Piaget, Dan Slobin, and others, paved the way for a new wave of child language study, this time centering on the relationship of cognitive development to first language acquisition. Piaget (1955; Piaget & Inhelder,1969) described overall development as a result of children's interaction with their environment, with an interaction between their developing perceptual cognitive capacities and their linguistic experience. According to Piaget, what children learn about language is determined by what they already know about the world, a point of view that others (Vygotsky, 1978, for example) have claimed is too unidirectional.[41]

All statements left aside, language is essentially a communication tool. The aims of language use can be summarized as follows:

- expressing feelings, needs, wishes and desires;
- expressing thoughts, ideas, and opinions;
- searching for, accessing, and sharing (receiving and giving) information;

[40]Brown.H.Douglas, and Heekyeong Lee. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. 4th ed., Pearson Education ESL,2015. pp. 329-342.
[41]H. Douglas Brown Principles of Language Learning and Teaching, fifth ed., Pearson Education 2007. Pp. 33-34

-influencing others, inducing a change in attitudes, using others (for business);

- socializing with our surroundings and maintaining our social self (Brown 226-7).

Undoubtedly, the professional competences of English teachers motivate students to acquire this foreign language in terms of four language skills for the sake of communication.Different language teaching methods as well as teachers' creativity while choosing the right method to the right time reflects in the acquisition of learning language naturally. Due to an abundance of different teaching methods have been introduced in foreign language teaching, foreign language teachers face challenges such as opting those methods that would meet students' needs best.

In 1977, James Asher published "Learning Another Language Through Actions: The Complete Teacher's Guidebook," which popularized the Total Physical Response (TPR) method. Asher, a psychologist, developed TPR based on the idea that language learning should be similar to how children learn their first language, emphasizing physical responses to verbal commands. He, as a founder of the Total Physical Response (TPR) method, noted that children, in learning their first language, appear to do a lot of listening before they speak, and that their listening is accompanied by physical responses (reaching, grabbing, moving, looking, and so forth). Asher was also convinced that language classes were often the locus of too much anxiety and wished to devise a method that was as stress-free as possible, where learners would not feel overly self-conscious and defensive. The TPR classroom, then, was one in which students did a great deal of listening and acting. The teacher was very directive in orchestrating a performance: "The instructor is the director of a stage play in which the students are the actors" (Asher, 1977, pp.42-43).

Like other methods of the twentieth century, TPR-as a method-had its limitations. It was especially effective in the beginning levels of language proficiency, but lost its distinctiveness as learners advanced in their competence. But today TPR is used more as a type of classroom activity, which is more useful way to view it. Many successful communicative, interactive classrooms utilize TPR activities to provide both auditory input and physical activity.

In today's digital age, traditional teaching methods are being reimagined to engage children's interest in learning and participating at the English lessons through more effective ways. Teaching children English might be arduous effort unless the English teachers use obsolete methods during their lessons. Yet, there is an abundance of ideas which aid to form incentives to motivate young learners to learn. Having the massive eagerness for learning English in schoolchildren is the foremost advantage for the English teachers that really helps to organize and use different methods in their lessons.

One of these approaches which is gaining popularity and among top educational trends is gamification in education. Through integrating the elements of games into the learning process, teachers are becoming so creative to innovate

different kinds of ways to make learning and teaching processes more interactive, enjoyable and definitely effectively.

Looking at the roles and benefits of games in education, it could easily be noticed that everyone not only schoolchildren but also teachers get great amount of pleasure as well as feeling of unity which is often achieved through shared goals, common experiences, and a sense of belonging. This can be cultivated through communication, collaboration, and shared values within a group. These soft skills might be developed by AR and VR technologies which offer to immerse children in education. These technologies bring educational content to life. By integrating digital information onto the real world (AR) or creating total virtual environments (VR) can enable children to explore complex concepts, mix with virtual objects, as well as engage in hands-on learning activities. These technologies are about making education more impactful, accessible, as well as engaging. They represent a significant leap towards a future where education is not just something children have to do but something they eagerly want to do.

The most necessarily sides of using these technologies in English classrooms are that language learners enhance academic vocabulary basis related to technology and the vocabulary where AR applications show greater academic performance in the learners and better retention of vocabulary. In addition, augmented reality picture books actually increase children's chances of remembering stories' consequences, time, and places. The both realities have multiple audios, visual materials and learning through other senses extremely important for all learners, especially young learners. It really gets interesting when children learn outside of their classrooms.

While we integrate more AR and VR into classrooms, the role of teachers becomes even more crucial. Educators are not just facilitators but also designers of learning experiences. They curate the content delivered through these technologies, ensuring that it aligns with educational goals and enhances the learning process. Teachers also play a vital role in guiding students on how to use these technologies effectively and responsibly.

Due to the raisingimportance of the English language emphasizes the need for effective language teaching strategiesas well. Thus, the roles and responsibilities of teachers are of paramount importance to societies.The concept of the "teacher" has changed according to the needs and environmental factors of our age. Nowadays, the teacher cannot be defined as a person who only possesses certain knowledge and transfers it to others, as it was the case in the past. Today, when sources of information are not limited to teachers and the individual has extremely quick access to information, the teacher has assumed the roles of" leader "," source of inspiration" and"person who teaches learning"[42]. The teacher should be a guide that will help the student gain independence and become motivated to enter the learning process and for taking responsibility for it.

Now in contemporary world, many actually mention that a teacher is a facilitator. Considering the differences between the two: a facilitator is a person

[42]Anisa Begovic (2020) Integrated language teaching(5-15) Patchwork New Frontiers, Topical issue, Zagreb.

who helps a group of people to work together better, understand their common objectives, and plan how to achieve these objectives, during meetings or discussions. In doing so, the facilitator remains "neutral", meaning they do not take a particular position in the discussion.[43] Some facilitator tools will try to assist the group in achieving a consensus on any disagreements that preexist or emerge in the meeting so that it has a solid basis for future action. Conversely,teachers are experts in a particular field, responsible for imparting information to their students, teachers are more focused on delivering content,teachers decide how the class learns, and hence, teaching concentrates on the transmission of information to individuals.

However, facilitators in education concentrate on the learning process. They are there to encourage collaboration and self-learning, facilitators stimulate discussions, ask questions to get the group thinking, and encourage peer-to-peer communication, help students identify different ways of learning that work for them, facilitators want students to take responsibility for their own learning and contribute to group sessions.

In a nutshell, teachers have a great deal of responsibility to conduct their lessons in our modern and digitalized world. They have to take responsibility over young generation in order to bring them up to be ready to competitiveness in all spheres of the societies. And the availability of many recourses as well as methods for the foreign language teachers is some burden and difficult to choose from. It is needed to opt the right method for the right students and environment. In the case, teachers need professional help as well as support with their own aspiration to gain new approaches for conducting their lessons differently and fun in each lesson.

Literature review:

1. James J. Asher Learning Another Language Through Actions expanded 7th edition Sky Oaks Production USA 2012

2. Bens, vilngrid (2012). Facilitating with ease! Core skills for facilitators, team leaders and members, managers, consultants, and trainers. San Francisco: Wiley.

3. Brown. H. Douglas, and Heekyeong Lee. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. 4th ed., Pearson Education ESL,2015. pp. 329-342.

4. H. Douglas Brown Principles of Language Learning and Teaching, fifth ed., Pearson Education 2007. Pp. 33-34

5. ANISA BEGOVIĆ, Integrated Language Teaching (5-15) Patchwork: New Frontiers (2020), Topical Issue, Zagreb.

[43] Bens, vilngrid (2012). Facilitating with ease! Core skills for facilitators, team leaders and members, managers, consultants, and trainers. San Francisco: Wiley.

TEACHING ENGLISH TO CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS USING GAME TECHNOLOGY

Kurbanova Zilola Uralovna
Chirchik State Pedagogical
University independent researcher

Annotation. This article discusses the current issue of teaching English to children with special needs and how to implement this process using game technologies. The use of game technologies can be very effective in teaching English to children with special needs. Games provide children with an interesting and interactive way of learning, which increases their motivation and helps to consolidate their knowledge.

Key words: Inclusive education, children with special needs, game technology, game programs, communication, psychological approach.

From the first days of our country's independence, special attention has been paid to raising a capable, physically and spiritually mature generation, brought up in the spirit of national and universal values, contributing to the development of society. During the years of independence, a solid foundation was created for the legal protection of the social steps of nations and peoples, the population. In our country, the issues of comprehensive care for children, protection of motherhood and childhood are considered at the level of state policy.

Children with special needs are children who have different physical, mental or psychological needs. They may need special education or support because they face different challenges in their development. These children require different approaches to education, social integration and daily activities, depending on their needs.

Violation of certain conditions necessary for the development of a child, both in the womb and after birth, can lead to various anomalies, that is, physical or mental defects, shortcomings. Work is carried out on various categories of anomalous children in need of separate assistance: They are:

1) children with hearing impairments (deaf, hard of hearing children, children who became deaf late);

2) visually impaired (blind, visually impaired children);

3) oligophrenic (idiot, imbecile, idiot children);

4) children with severe speech defects;

5) children with defects in the musculoskeletal system;

6) children with delayed mental development.

7) blind-deaf-mute children with complex defects.

Children with special needs require different types of support depending on their needs and abilities. Their education and development require an individual approach, special methods and technologies. Gaming technologies are an effective tool for these children, playing an important role in facilitating and making their learning process more interesting.

Teaching English to children with special needs using game technologies is a topic that has been studied and developed by many scholars in the field of education. There are several scientific studies on the effectiveness of this approach. Below, I will present the views of scholars on the use of game technologies in teaching English to children with special needs:

Famous scientists such as Jean Piaget and Lev Vygotsky have deeply analyzed the relationship between play and learning. Piaget described the development of children as "active players", which indicates that they interact with their environment and acquire new knowledge. Vygotsky, on the other hand, promoted social interaction and environment-based learning in children's development, which is essential for incorporating play into the language learning process.

The result is that learning through play can help children with special needs, in a way that is adapted to their psychological and cognitive needs, learn language. Play gives children the opportunity to learn freely, through experience and mistakes, which accelerates the process of language learning.

Howard Gardner, in his "Theory of Multiple Intelligences", noted that children have different intellectual abilities. For example, some children develop well in music, while others develop well in visual or mathematical areas. Gaming technologies, on the other hand, provide an individual approach to children, incorporating these different abilities.

Loris Malaguzzi, the founder of the Reggio Emilia pedagogical methodology, considers games to be a powerful tool for supporting a child's emotional and cognitive development. According to this theory, children develop their language through play, introducing them to new information and experiences.

With the help of games, children with special needs develop their different intellectual and emotional abilities. Games create an interesting and intimate environment for children to acquire new words, phrases and structures in learning language.

Richard C. Atkinson and John Sweller's Cognitive Load Theory has highlighted the effectiveness of using images and games in language learning. According to their research, games reduce children's cognitive load and encourage them to be more involved in learning new knowledge. Interactive gaming technologies, such as language learning video games, virtual classrooms, or mobile apps, can effectively support the learning of English by children with special needs. With these technologies, children acquire language by hearing, seeing, and practicing at the same time.

Marilyn J. Chalkey and David J. Hargreaves have shown in their research how games help with social integration and communication. They emphasize that games are not limited to cognitive learning, but also help children interact with other children. This is important for children with special needs, who are often isolated from society. Games are an important tool for children to establish relationships, learn a new language, and develop social skills. This increases their active participation in learning English.

Teaching English to children with special needs is of great importance. English is the most widely spoken language in the world and is the most important language for international communication. Teaching English to children with special needs not only improves their academic success, but also their social, emotional, and cognitive development. Here are some key points to consider:

• Children with special needs often experience difficulties in social integration. English helps them communicate with their peers, make new friends, and connect with society.

• Knowing English opens up wider opportunities for them, such as being active on social networks, developing their reading and writing skills, and even interacting more with other children when playing games.

• Learning English increases the educational success of children with special needs. English is the main language of many scientific resources, textbooks, and materials. Knowing English helps children understand the scientific world, global knowledge and new ideas.

• Learning this language not only develops language skills, but also develops skills such as logical thinking, speech development and problem solving.

• Learning English helps children acquire new knowledge and develop intellectually. This process increases children's cognitive abilities through listening, speaking, reading and writing.

• Activities such as games, stories, interactive exercises during the learning process are interesting and motivating for children, helping them to be emotionally involved in language acquisition.

• Learning English increases the self-confidence of children with special needs. As they learn the language and learn new words and expressions, they feel more free and capable.

• It is an important part of children’s finding their identity, connecting with the world and believing in themselves. This process gives them the opportunity to feel successful and change.

• English creates great opportunities for children with special needs, not only now, but also in the future. They will have the opportunity to work, study or enter social systems internationally by knowing English.

• For example, knowing English will provide them with opportunities to work in global organizations or study abroad. This will open up even wider opportunities for children in the future.

• English, on the one hand, allows them to understand and appreciate many cultures and peoples of the world. These children will learn about different cultural changes, ideas and worldviews.

• By learning English, children will get to know global cultures and interact with other countries and peoples. This will expand their social and cultural worldview.

• Teaching English is carried out using teaching materials and methods adapted for children with special needs. For example, there are different technologies and materials for visual, kinesthetic, or auditory learning.

• The process of teaching English to these children is flexible and adaptable, depending on their needs, and helps them effectively.

Teaching English through game technology not only helps develop language skills, but also contributes significantly to the social, emotional and cognitive development of children. Below are the main benefits and methods of teaching English to children with special needs through game technology.

With the help of game technology, children are actively involved in the language learning process. Interactive games and applications are used, for example, to teach vocabulary, reinforce grammar or improve pronunciation. Such games are interesting and motivating for children, which makes the learning process more interesting and effective.

Gaming technologies also support children's emotional development. Games motivate children and they are not afraid to make mistakes in the learning process. This strengthens self-awareness and allows children to express themselves freely.

Games offer children a new and interesting way to learn English. This method attracts them to learning, because through games they want to achieve more, and at the same time, this process becomes an effective form of teaching through play.

Matching Game

Matching games provide children with the opportunity to learn new words and use them correctly in context.

Game content: There are several pictures and words on the game screen. Children must match each word with the corresponding picture. For example, the word “apple” and a picture of an apple.

Example: A game on the theme of “Animals”, children combine words such as “dog”, “cat”, “lion” with the corresponding pictures of animals.

Benefits: This game makes it easier to learn words and create images related to them.

Storytelling

Storytelling games help children improve their English comprehension and encourage them to be more active in language communication.

Game content: Children tell familiar stories or fairy tales in English. During the game, children learn new words and phrases, they try to fully understand the story.

Example: Children read together famous fairy tales in English, such as “The Three Little Pigs” or “Little Red Riding Hood”, and then briefly tell their own version.

Benefits: Storytelling increases children’s English vocabulary and teaches them to think logically and use vocabulary.

In conclusion, it is worth saying that teaching English to children with special needs using game technologies helps to make their learning process interesting, effective and interactive. Through games, children not only learn the language, but also develop their cognitive, emotional and social skills. Games are not only fun and motivating, but also effective teaching tools for teaching English

to children with special needs. With the help of games, children achieve great success in learning new words, developing grammar and pronunciation, as well as improving concentration and social skills. These games make the learning process of children more interesting and interactive.

List of used literature:

1. Ayupova.M. “Korrekstion ishlar metodikasi ”. T 2005
2. Kitaigorodskaya G.A. Methodology of intensive teaching of foreign languages. M., 1982.
3. Gee, J. P. What video games have to teach us about learning and literacy. Computers in entertainment (CIE), 1(1), 20-20. 2003.
4. Anderson, C. A., and Dill, K. E. Video games and aggressive thoughts, feelings, and behavior in the laboratory and in life. Journal of personality and social psychology, 78(4), 772. 2000.
5. www.pedagog.uz

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Ravshanova Orzigul Sayfullayevna,
Navoiy viloyati PMM ona tili va adabiyoti fani katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion metodlarning dars jarayonidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Xususan, interaktiv ta’lim uslublari, multimedia vositalari, loyiha asosida o‘qitish, rolli o‘yinlar kabi zamonaviy yondashuvlar o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirishi, ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishi, kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishi ta’kidlangan. Shuningdek, bu metodlar texnologik savodxonlikni yuksaltirish va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni ta’minlashda muhim rol o‘ynashi ko‘rsatilgan. Maqola innovatsion metodlarning ta’lim sifatini oshirishdagi samaradorligini amaliy misollar orqali asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: innovatsion metodlar, interaktiv ta’lim, ona tili va adabiyot darslari, ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, kommunikativ ko‘nikmalar, texnologik savodxonlik, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, zamonaviy ta’lim, multimedia vositalari.

Аннотация. В данной статье освещается роль и значение инновационных методов в учебном процессе. В частности, подчеркивается, что современные подходы, такие как интерактивное обучение, использование мультимедийных средств, проектная деятельность и ролевые игры, способствуют повышению интереса учащихся к урокам, развитию их творческого и критического мышления, формированию коммуникативных навыков. Также показано, что эти методы способствуют повышению технологической грамотности и обеспечивают личностно-ориентированный

подход в образовании. Статья обоснованно демонстрирует эффективность инновационных методов в повышении качества образования с помощью практических примеров.

Ключевые слова: инновационные методы, интерактивное обучение, уроки родного языка и литературы, творческое мышление, критическое мышление, коммуникативные навыки, технологическая грамотность, личностно-ориентированный подход, современное образование, мультимедийные средства

Annotation. This article highlights the role and significance of innovative methods in the educational process. It emphasizes that modern approaches such as interactive teaching, the use of multimedia tools, project-based learning, and role-playing games increase students' interest in lessons, develop their creative and critical thinking, and enhance communicative skills. Additionally, these methods promote digital literacy and ensure a student-centered approach in education. The article provides practical examples to substantiate the effectiveness of innovative methods in improving the quality of education.

Key words: innovative methods, interactive teaching, native language and literature lessons, creative thinking, critical thinking, communicative skills, technological literacy, student-centered approach, modern education, multimedia tools.

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida darslarning samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, ularni mustaqil va ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili va adabiyot fanlari bo‘yicha ta’lim jarayonini innovatsion metodlar asosida tashkil etish o‘quvchilarda nafaqat til va nutq madaniyatini, balki badiiy tafakkur va ma’naviy ongni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda o‘qituvchidan an’anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmay, o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradigan, ularda mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantiradigan yangicha metodlarni qo‘llashi talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, ona tili va adabiyot darslarida innovatsion yondashuvlardan foydalanishning afzalliklarini chuqur tahlil etish va amaliyotga joriy qilish o‘z dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari asrida ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – dars jarayonlarini zamonaviy, innovatsion usullar asosida tashkil etishdir. Ayniqsa, ona tili va adabiyot fanlari bo‘yicha o‘quvchilarda mustahkam bilim, tafakkur, nutq madaniyatini shakllantirishda innovatsion metodlar muhim o‘rin tutadi.

1. O‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi

Innovatsion metodlar – bu interaktiv ta’lim vositalaridan, multimedia resurslaridan, onlayn platformalardan foydalanish, rolli o‘yinlar, munozarali usullar, loyiha asosida o‘qitish kabi uslublarni o‘z ichiga oladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarni faollikka undaydi, darsga bo‘lgan qiziqishini orttiradi. Oddiy ma’ruzali yoki an’anaviy darslardan farqli ravishda, innovatsion metodlar orqali

har bir o‘quvchi o‘z fikrini erkin ifoda eta oladi, bu esa til o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

2. Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Adabiyot darslarida zamonaviy texnologiyalar yordamida asar tahlili, muallif hayoti va ijodiy merosi bo‘yicha loyiha ishlari tashkil etish o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, guruhlarda doston yoki hikoya asosida sahna ko‘rinishlarini tayyorlash, dramatizatsiya qilish orqali o‘quvchilar obrazlarni chuqur anglaydi, ularning ichki olamini tahlil qilishga harakat qiladi.

3. Kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Ona tili darslarida interaktiv mashg‘ulotlar, savol-javob, juftlikda yoki guruhda ishlash metodlari yordamida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi rivojlanadi. Bu metodlar o‘quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, o‘z fikrini aniq va mantiqiy ifoda etishga o‘rgatadi. Ayniqsa, nutq madaniyati va uslubiy ko‘nikmalarni shakllantirishda bu yondashuv samarali hisoblanadi.

4. Texnologik savodxonlikni oshiradi.

Innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchilarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasini shakllantiradi. Masalan, adabiy asarlar bo‘yicha video taqdimotlar tayyorlash, elektron slaydlar yaratish, internet manbalaridan foydalanib referatlar yozish – bularning barchasi XXI asrda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

5. Ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlaydi.

Innovatsion metodlar har bir o‘quvchining individual qobiliyati va o‘zlashtirish darajasini inobatga olgan holda ta’lim berishga imkon yaratadi. Bu esa o‘z navbatida, iqtidorli o‘quvchilarni ilgari surish va yordamga muhtoj o‘quvchilar bilan alohida ishlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijasi va muhokamasi.

Ona tili va adabiyot darslarida innovatsion metodlardan foydalanish bo‘yicha olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar quyidagi muhim natijalarni ko‘rsatdi:

1. Innovatsion metodlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi.

Interaktiv yondashuvlar (klaster, insert, debat, “aqliy hujum”, dramatizatsiya, loyiha usuli va boshqalar) qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilar an’anaviy darslardagiga nisbatan ko‘proq faollik ko‘rsatadi. Ular dars jarayonida fikr bildirishga, savol berishga, bahs-munozaralarda qatnashishga intiladi.

2. Nutq madaniyati va ijodiy fikrlash rivojlanadi.

Innovatsion metodlar, xususan, dramatik sahnalarni sahnalashtirish, muallif obrazini jonli tahlil qilish, matnga asoslangan muammoli vaziyatlarni hal etish orqali o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, tahliliy yondashuv, obrazli tafakkur kabi kompetensiyalar shakllanadi. Bu adabiy asarlarni faqat yod olish emas, balki ularning mohiyatini chuqur tushunishga olib keladi.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining samarasi yuqori.

Multimedia vositalar, elektron darsliklar, video-tahlillar va slayd taqdimotlar dars jarayonini jonlantiradi. O‘quvchilar bu vositalar orqali mavzuni yaxshiroq eslab qoladi, ko‘rish va eshitish orqali bilimlarni chuqurroq o‘zlashtiradi.

4. O‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari shakllanadi.

Innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil izlanishiga, qo‘shimcha materiallar bilan ishlashga, axborotni saralash va tahlil qilishga undaydi. Bu esa ularning o‘zini o‘zi rivojlantirish, o‘z fikrini asoslab berish va tanqidiy baholash qobiliyatlarini shakllantiradi.

Yuqoridagi natijalar asosida aytish mumkinki, innovatsion metodlardan maqsadli va tizimli foydalanish ona tili va adabiyot fanlarida nafaqat dars sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarni o‘z fikriga ega bo‘lgan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega shaxs sifatida tarbiyalaydi. Biroq bu metodlarning samarali bo‘lishi o‘qituvchining tayyorgarlik darajasi, metodik savodxonligi va yangilikka ochiqligiga bog‘liq.

Shu sababli, innovatsion metodlarni faqat vosita sifatida emas, balki ta’lim-tarbiya jarayonining mazmuniy negiziga aylantirish zarur. Har bir darsda aniq maqsadga xizmat qiladigan metodlar tanlab olinishi, ularning natijalari doimiy tahlil etib borilishi lozim.

Xulosa. Ona tili va adabiyot darslarida innovatsion metodlardan foydalanish nafaqat dars jarayonini jonlantiradi, balki o‘quvchilarning tilga, milliy adabiyotga, madaniyatga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shuningdek, bu yondashuv orqali ularda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, texnologik savodxonlik va kommunikativ ko‘nikmalar shakllanadi. Shu bois, zamonaviy o‘qituvchi har bir darsni yangicha yondashuvda tashkil etishga intilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. **Jo‘rayev G‘. G‘., Jo‘rayeva S. Sh.** *Ona tili va adabiyotni o‘qitish metodikasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – **256 b.**
2. **Qodirova T. T.** (tahriri ostida) *Zamonaviy dars: mazmun va metodika*. – Toshkent: Innovatsiya, 2019. – **312 b.**
3. **Islomova Z. X., Yo‘ldosheva R. Sh.** *Adabiyot darslarida interaktiv metodlardan foydalanish* // *Ta’lim va rivojlanish jarayoni* ilmiy-amaliy jurnali. – 2022. – №4. – B. 45–49. – **5 b.**
4. **Abduazizov M.** *Pedagogik texnologiyalar: innovatsion yondashuvlar va amaliy qo‘llanmalar*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – **204 b.**
5. **Rasulov A.** *Adabiy ta’limda zamonaviy metodlar* // *Yangi O‘zbekiston ta’limi* jurnali. – 2023. – №3. – B. 60–64. – **5 b.**
6. **Karimova D.** *Til va adabiyot darslarida raqamli resurslardan foydalanishning o‘rni* // *Pedagogik innovatsiyalar*. – 2022. – №2. – B. 33–37. – **5 b.**

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANLARIDA MUAMMOLI TA’LIM METODIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Boboqulov Jaloliddin Qurbonovich,
Navoiy viloyati PMM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muammoli ta’lim metodining o‘rni yoritilgan. Ayniqsa, informatika va axborot texnologiyalari fanlarida bu metodning qo‘llanilishi samarador natijalar berishi ta’kidlangan. Muammoli ta’lim o‘quvchini izlanishga, yechim topishga va ijodiy fikrlashga yo‘naltirib, nafaqat bilim olish, balki axborotni izlash, tanlash, guruhda ishlash va algoritmik tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada metodning asosiy afzalliklari tizimli tarzda ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: muammoli ta’lim, mustaqil fikrlash, informatika darslari, algoritmik tafakkur, ijodiy yondashuv, axborot texnologiyalari, amaliy topshiriqlar, axborot madaniyati, jamoada ishlash, zamonaviy ta’lim metodlari.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль проблемного обучения в формировании у учащихся навыков самостоятельного мышления, аналитического подхода и принятия решений в нестандартных ситуациях в условиях современного образовательного процесса. Особенно подчеркивается эффективность данного метода на уроках информатики и информационных технологий, где необходимы техническое мышление, алгоритмический подход и умение решать задачи. Проблемное обучение направлено на развитие исследовательских умений, креативного мышления, самостоятельного поиска информации, а также формирование навыков командной работы и коммуникации. В статье системно изложены основные преимущества метода.

Ключевые слова: проблемное обучение, самостоятельное мышление, уроки информатики, алгоритмическое мышление, креативный подход, информационные технологии, практические задания, культура информации, работа в команде, современные методы обучения.

Annotation. This article explores the role of problem-based learning in developing students' skills in independent thinking, analytical reasoning, and decision-making in complex situations within modern education. The method is particularly effective in informatics and information technology classes, where technical thinking, algorithmic approaches, and problem-solving abilities are essential. Problem-based learning encourages inquiry, creativity, independent information search, and the development of teamwork and communication skills. The article systematically outlines the main advantages of this educational method.

Keywords. problem-based learning, independent thinking, informatics

lessons, algorithmic thinking, creative approach, information technology, practical tasks, information literacy, teamwork, modern teaching methods.

Kirish. XXI asr — raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va axborot jamiyati asri sifatida e’tirof etilmoqda. Bunday sharoitda informatika va axborot texnologiyalari fanining ta’lim tizimidagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Bu fan o‘quvchilarda texnik va algoritmik tafakkur, muammoli vaziyatlarda yechim topish, axborot bilan ishlash kabi zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Biroq bu ko‘nikmalarni samarali rivojlantirishda an’anaviy o‘qitish metodlari yetarli bo‘lmay qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, muammoli ta’lim metodi informatika darslarining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarni faol o‘rganuvchi va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur maqolada informatika va axborot texnologiyalari fanlarida muammoli ta’lim metodining nazariy asoslari, uning amaliy qo‘llanilishi hamda pedagogik jihatdan afzalliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, bu metod orqali o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, qaror qabul qilish kabi hayotiy muhim kompetensiyalar qanday shakllanishi yoritib beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchining mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, informatika va axborot texnologiyalari fanlari texnik tafakkur, algoritmik yondashuv va muammo yechish qobiliyatini talab qilgani bois, bu fanlarda **muammoli ta’lim metodidan** foydalanish nihoyatda samaralidir.

Muammoli ta’lim metodining mazmuni.

Muammoli ta’lim – bu o‘quvchiga tayyor bilimni berish emas, balki uni izlanishga, savol berishga va javob topishga yo‘naltiruvchi metod hisoblanadi. Bu usulda o‘qituvchi dars jarayonida muayyan muammoli vaziyat yaratadi, o‘quvchilar esa bu muammoni hal qilish orqali bilimga ega bo‘ladilar.

Afzalliklari:

1. Mustaqil fikrlash va algoritmik tafakkurni rivojlantiradi.

Informatika fanining asosiy vazifasi – o‘quvchini tizimli fikrlash, masalani bosqichma-bosqich yechishga o‘rgatishdir. Muammoli metod bu jarayonda o‘quvchilarning intellektual salohiyatini to‘laqonli ishga soladi. Masalan, biror dasturiy masalani to‘g‘ridan-to‘g‘ri kodini berish o‘rniga, muammoni tahlil qilish, funksional bloklarga ajratish va o‘z yechimini topish talab qilinadi.

2. Ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

Axborot texnologiyalari tez o‘zgaruvchan va yangilanishga moyil soha bo‘lib, har bir masalaga kreativ yondashuv zarur. Muammoli ta’lim metodida o‘quvchilar har xil alternativ yechimlarni ishlab chiqadi, bu esa ularni ijodkorlikka undaydi.

3. Qiziqishni oshiradi va faollikni ta’minlaydi.

Amaliy muammolar, real hayotiy misollar asosida berilgan topshiriqlar o‘quvchilarni darsga faol jalb etadi. Ular o‘zlari ilgari duch kelmagan holatlarni o‘rganib, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga qiziqish bildiradilar.

4. Axborotni izlash va tanlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Informatika darslarida muammoli vaziyatda o‘quvchi ko‘pincha o‘zi mustaqil axborot topadi, turli manbalarni solishtiradi, ishonchli va asosli ma’lumotni tanlab oladi. Bu esa zamonaviy texnologik muhitda muhim bo‘lgan axborot madaniyatini shakllantiradi.

5. Jamoada ishlash va kommunikativ ko‘nikmalarni oshiradi.

Ko‘p hollarda muammoli topshiriqlar guruhda bajariladi. Bu jarayon o‘quvchilarning muloqot qilish, fikr almashish, murosaga kelish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi.

Informatika va axborot texnologiyalari fanlarida muammoli ta’lim metodidan foydalanish quyidagi ijobiy natijalarni beradi:

1. O‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada oshadi.

Tajriba darslarida an’anaviy usul bilan o‘tilgan mavzularga nisbatan, muammoli metod asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilar faolroq qatnashadi. Ular mustaqil fikrlashga, savollar berishga, muammoga yechim topishga intildi. Bu esa ularning darsdagi ishtirokini ko‘paytiradi va bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishlariga sabab bo‘ladi.

2. Algoritmik tafakkur va muammo yechish ko‘nikmalari shakllanadi.

Muammoli topshiriqlarni bajarayotgan o‘quvchilar vazifani qismlarga ajratish, algoritm tuzish, natijani tekshirish va tahlil qilish kabi jarayonlarni o‘zlashtirishga harakat qiladilar. Natijada, ularning mantiqiy va tizimli fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Bu ayniqsa dasturlash, ma’lumotlar tuzilmasi va axborotni qayta ishlash kabi mavzularda o‘z aksini topadi.

3. Mustaqil izlanish va tanqidiy fikrlash faollashadi.

Muammoli metod o‘quvchilarning mustaqil qaror qabul qilishiga, xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqarishga va alternativ yechimlarni taklif qilishga turtki bo‘ladi. Ular berilgan masalani yechishda nafaqat darslikka, balki internet manbalariga, amaliy tajribaga ham murojaat qilishadi. Bu esa ularning axborotni saralash, baholash va foydalanish malakasini mustahkamlaydi.

4. Guruhiy ishlash va kommunikatsiya ko‘nikmalari rivojlanadi.

Muammoli vaziyatlarni hal qilishda o‘quvchilar ko‘pincha guruh bo‘lib ishlashadi. Bu esa ularning bir-birini tinglash, fikr almashish, murosaga kelish, o‘z pozitsiyasini asoslash kabi ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

5. O‘qituvchilar uchun innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish imkoniyati yaratildi.

Tajriba darslarida ishtirok etgan o‘qituvchilar bu metod yordamida darsni jonli va samarali o‘tkazish mumkinligini ta’kidlashadi. Biroq, ayrim o‘qituvchilar uchun muammoli metodni to‘g‘ri tanlash va uni darsga moslashtirish bo‘yicha metodik yordam zarurligi aniqlanadi.

Yuqoridagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, muammoli ta’lim metodi informatika va axborot texnologiyalari fanlarining tabiati – ya’ni mantiqiy tahlil, algoritmik yondashuv, muammo yechish va kreativ fikrlash bilan to‘liq mos keladi. Bu metod o‘quvchilarni tayyor bilimni yodlashga emas, balki uni izlab topishga va o‘z fikrini shakllantirishga o‘rgatadi. O‘z navbatida, bu yondashuv zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadi – kompetensiyaviy yondashuvni hayotga tatbiq etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bois, informatika darslarida muammoli ta’lim metodini kengroq qo‘llash, bu borada o‘qituvchilar malakasini oshirish va metodik materiallar bilan ta’minlash bugungi kunda muhim vazifa hisoblanadi.

Xulosa. Informatika va axborot texnologiyalari fanlarida muammoli ta’lim metodidan foydalanish o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlabgina qolmay, ularni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi. Bu metod orqali o‘quvchi mustaqil fikrlovchi, yangilikka ochiq, innovatsion yondasha oladigan shaxs sifatida shakllanadi. Shu sababli, bu yondashuvni dars jarayoniga tizimli ravishda joriy qilish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Toshpulatova G. Sh. Informatika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 248 b.
2. Yo‘ldoshev M. N. Axborot texnologiyalari asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 224 b.
3. Qodirov S. R. Pedagogik texnologiyalar va muammoli ta’lim metodlari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021. – 180 b.
4. Rahmonov I. T. Muammoli ta’lim metodikasining asoslari. – Samarqand: Zarafshon, 2018. – 136 b.
5. Xolmatova Z. B. Zamonaviy ta’limda axborot texnologiyalari. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2020. – 210 b.
6. Solihova D. M. Informatika darslarida muammoli metoddan foydalanish samaradorligi // Ta’lim va innovatsiyalar jurnali. – 2022. – №2. – B. 37–42. – 6 b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQINI O‘STIRISHDA INNAVATSION TEXNALOGIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Sevara Sharipova Erkin qizi
O’zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti 1-kurs magistranti
Tel: +998(99)-664-20-40 @mail:sharipovasevara0111@gamil.com
ORCID:0009-0001-1727-891X

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishdagi o‘rni, bugungi kunda innavatsion texnalogiyalardan foydalanishning ahamiyati hamda ushbu sohadagi xalqaro

tajribalar yoritilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirish - bu nafaqat til o‘rganish jarayonining asosiy qismi, balki ularning kognitiv va ijtimoiy qobiliyatlarini shakllantirishning muhim omilidir. Zamonaviy pedagogikada innovatsion texnologiyalardan foydalanish nutqni rivojlantirish jarayonini qiziqarli, samarali va individual qilish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: innovatsion usullar, kognitiv qobiliyat, dasturlar, zamonaviy texnalogiyalar, nutq.

Аннотация. В данной статье освещена роль инновационных технологий в развитии речи учащихся младших классов, важность использования инновационных технологий сегодня, а также международный опыт в этой области. Развитие речи учащихся младших классов является не только основной частью процесса изучения языка, но и важным фактором формирования их познавательных и социальных навыков. Использование инновационных технологий в современной педагогике делает процесс развития речи интересным, эффективным и индивидуальным.

Ключевые слова: инновационные методы, когнитивные способности, программы, современные технологии, речь.

Annotation. This article highlights the role of innovative technologies in the development of the speech of elementary school students, the importance of using innovative technologies today, and international experiences in this field. The development of speech of elementary school students is not only the main part of the language learning process, but also an important factor in the formation of their cognitive and social skills. The use of innovative technologies in modern pedagogy makes the process of speech development interesting, effective and individual.

Key words: innovative methods, cognitive ability, programs, modern technologies, speech.

Zamonaviy o‘qitish usuli ko‘proq amaliy faoliyatga asoslangan bo‘lib, o‘quvchining ongini markazlashtiradi va bu ularni o‘rganish jarayoniga to‘liq jalb qiladi. Zamonaviy o‘qitish usulida o‘quv dasturini o‘qitish va rejalashtirish o‘quvchini asosiy maqsad sifatida ushlab turish bilan amalga oshiriladi. So‘nggi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishda an’anaviy usullarga nisbatan sezilarli ustunliklarga ega. Biroq, bu natijalarni amaliyotga tatbiq qilish jarayonida quyidagi jihatlar muhokamaga sabab bo‘lmoqda:

- Texnologik jihatdan jihozlanganlik darajasi: O‘zbekiston maktablarining aksariyati hali ham yetarli darajada zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanmagan. Bu holat innovatsion usullardan samarali foydalanishga to‘siq bo‘lib qolmoqda. UNICEF ma’lumotlariga ko‘ra, qishloq joylaridagi maktablarning faqat 35%i zarur texnika bilan ta’minlangan.

- Pedagogik kadrlarning tayyorgarligi: o‘qituvchilarning aksariyati yangi texnologiyalardan foydalanishga tayyor emas. 2023-yilda o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining 60%dan ko‘pi “ELSA Speak” yoki “ClassDojo” kabi dasturlardan foydalanishni bilmaydi.

Innovatsion usullarning ijobiy tomonlari:

✓ O‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish (Marzano, 2021);

✓ Individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyati;

✓ Nutq jarayonini qiziqarli qilish.

Innovatsion usullarning salbiy tomonlari:

✕ Texnik muammolar (Internet uzilishi, qurilmalarning etishmasligi);

✕ Ba’zi hollarda an’anaviy metodlarning samaradorligini ortda qoldirishi;

✕ O‘qituvchilar uchun qo‘shimcha vaqt va kuch talab qilishi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, innovatsion texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning nutq ko‘nikmalari an’anaviy usullarga nisbatan 35-40% darajada tezroq rivojlanadi. Bu xususiyat ayniqsa talaffuz aniqligi va nutqiy ishonchni oshirishda sezilarli. AI asosidagi dasturlar har bir o‘quvchining nutqidagi kamchiliklarni aniqlab, shaxsiy dasturlar tuzish imkonini beradi. Bu holat, ayniqsa, turli darajadagi o‘quvchilar sinfida muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajriba bilan solishtiradigan bo‘lsak, Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda boshlang‘ich sinflarda nutqni rivojlantirish dasturlari keng qo‘llaniladi. Masalan:

- Finlandiyada 1-sinf o‘quvchilari uchun maxsus “Speechify” dasturidan foydalaniladi.

- Singapurning “Smart Speech” loyihasida AI yordamida talaffuzni tuzatish tizimi ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston kontekstida bu tajribalarni quyidagi jihatlardan muhokama qilish kerak:

1. Madaniy farqlar (til tuzilishi, talaffuz xususiyatlari);
2. Infratuzilma imkoniyatlari;
3. O‘qituvchilarning texnologik saviyasi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish nafaqat nutqni rivojlantirishga, balki quyidagilarga ham yordam beradi:

- O‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini oshirish;
- Ijtimoiy kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- Kelajakdagi raqamli ta’limga tayyorgarlik.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, interfaol dasturlar, o‘yinlashtirilgan platformalar va virtual reallik vositalari o‘quvchilarning darsga qiziqishini 2 baravar oshirib, nutq mashqlarini qiziqarli jarayonga aylantiradi. Innovatsion texnologiyalarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati inkor etib bo‘lmaydi. Biroq, ularni joriy qilishda mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan, izchil va tizimli yondashuv zarur. Buning uchun pedagoglar, dasturchilar va siyosatchilarning yaqin hamkorligi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishda sifatli yangi bosqichni ochib beradi. Bu nafaqat til o‘rganish jarayonini yengillashtiradi, balki kelajak avlodning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga ham hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

11. Karimova R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: TDPU nashriyoti, 2020.-B. 15
12. Sodiqov. T.S. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi.-T.: “ O’qituvchi”, 2020. –B. 23
13. Usmonxo‘jayev. M. Zamonaviy dars va interfaol metodlar.-T.: “ Fan”, 2018. –B. 76
14. Yo‘ldoshev. G. Boshlang‘ich ta’limda ona til o‘qitish metodikasi.-T.: “ Noshir”, 2019. –B. 67
15. Yo‘ldoshev Q. Til o‘rgatishda zamonaviy yondashuvlar. Respublika Pedagogika jurnali, 2022.-B 22
16. Xidoyatov Q.X., Tursunova G‘. Ta’limda innovatsion yondashuvlar.-T.: Iqtisodiyot, 2022.-B. 128
17. Karimova R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: TDPU nashriyoti, 2020.-B.10
18. Karimov S.A., Mahmatmurodov Sh.M., Karimova O.N. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – T.: “O‘zbekiston”, 2003
19. http: www.ziyo.net.uz.
20. http: www.pedagog.uz

INGLIZ TILINI O‘RGATISHNING MNEMONIK TEXNIKASI

Alfiya Karlibayeva Yermekbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti
Tel: +99890 724 43 80
E-mail:alfiyakarlibaeva@gmail.com

Annotatsiya: Eslab qolinadigan ma’lumotlar miqdorini oshirishdan tashqari, mnemonik qurilmalar diqqatni mashq qildirishga, davom etayotgan vazifalarga e’tibor qaratish qobiliyatini oshirishga, tasavvur va ijodkorlikni kuchaytirishga yordam beradi. Mnemonikadan foydalanish miyaning ikkala yarim sharini ham ishga jalb qilish, uning imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish va fikrlash jarayonini yanada uyg‘un tarzda birlashtirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: mnemonika, xotira, material, usul, texnika, raqam, ma’lumotlar.

Mnemonika xotira nuqtai nazaridan o‘quv faoliyati – bu materialni yodlashga bo‘lgan sa’y-harakatlarning mustaqilligi, materialni yodlashga ongli e’tibor qaratishi va o‘quv materialini izchil va chuqur anglash shart. Shuning uchun, ushbu material ushbu harakatning maqsadli tarkibiga kiritilgan bo‘lsa, u beixtiyor eslab qolinishi mumkin. Ammo ixtiyoriy yodlash amalga oshiriladigan harakatning maqsadli tarkibiga kiritilmagan narsa, ushbu materialga yo‘naltirilgan mustaqil yodlashdan ko‘ra yomonroq esda qoladi. Bularning barchasi, birinchi

navbatda, yodlash amalga oshiriladigan subyektning harakati qanday tashkil etilganligi va nimaga yo‘naltirilganligiga bog‘liq. Shuning uchun, beixtiyor, majburiy yodlash faqat ishning ishi bo‘lmasligi mumkin, uni bilvosita tartibga solish mumkin. Shuningdek, pedagogik nuqtai nazardan, eng muhim vazifa o‘quv jarayonini tashkil etishdir, shunda muhim material o‘quvchilar tomonidan eslab qolinadi va u nafaqat ushbu material bilan ishlaganda, balki uni abadiy eslab qoladi. Yuqorida tavsiflangan xotira faoliyatining qonuniyatlari chet tilining leksik birliklarini yodlashda ham aks etadi.

Mnemonika XIX asrda assotsiatsiyalar qonunlarida nazariy asoslanganligi sababli o‘ziga xos rivojlanishga ega bo‘ldi [1]. Yigirmanchi asrning boshlariga kelib, Rossiyada xotirani mustahkamlash bo‘yicha ko‘plab qo‘llanmalar paydo bo‘ldi. V.I.Farmakovskiy muhim qo‘llanmalardan biri – “Pedagogik mnemonika”ni yaratdi. Aynan shu muallifning asarlari bilan mnemonistlar uchun yo‘llarning aniq farqlanish davri boshlanadi. Ba’zi tadqiqotchilar ma’nosi bilan bog‘liq bo‘lmagan katta hajmdagi ma’lumotlarni yodlashda sun’iy assotsiativ aloqalarni o‘rnatish orqali xotira samaradorligini oshirish yo‘lini oladilar, ya’ni turli texnika, usul va uslublardan foydalanish [2:350]. Boshqalar esa yaxshiroq yodlash uchun sharoit yaratish orqali boradilar: yodlangan materialni qayta ishlash, yosh xususiyatlarini va faoliyat mavzusini hisobga olgan holda, yodlash maqsadini shakllantirish va amalga oshirish, ijobiy his-tuyg‘ularni yaratish, ma’lum bir tizim bo‘yicha materialni takrorlash va boshqalar. Birinchi yo‘ldan yuruvchilar mnemotexnikadan, ikkinchi yo‘lda yuruvchilar pedagogik mnemotexnikadan foydalanadilar (M.A.Ziganov bo‘yicha). Tadqiqotimizda biz ikkinchi yo‘ldan boramiz.

S.Yu.Golovin mnemonikani yodlashni osonlashtirishga xizmat qiluvchi maxsus texnikalar tizimi deb hisoblaydi. Esda saqlashning mnemonik usullarining mohiyati shundan iboratki, esda saqlangan ma’lumotlar tushuniladi va tuziladi. Turli xil texnikalar mavjud, biz eng keng tarqalganini ta’kidlaymiz [1]. (1-rasm)



1. *Ritmizatsiya texnikasi* - ma’lumotni ma’lum bir ritm yoki qofiya bilan bog‘liq she’rlar, qo‘shiqlar, satrlarga tarjima qilish.

2. *So‘z ilgichlari* (veshalki) - bu mnemonik tizimlar bo‘lib, unda siz avval so‘zlar to‘plamini o‘rganishingiz kerak, keyin esa ularga eslab qolishingiz kerak bo‘lgan so‘z va iboralarni “osib qo‘yishingiz” kerak[3:301]. Bunday tizimlar ro‘yxatlarni eslab qolish uchun juda mos keladi, ayniqsa ketma-ket butun ro‘yxatni emas, balki ro‘yxatning beshinchi bandini (masalan,) eslab qolish kerak bo‘lganda.

3. *Ishoralar usuli* raqamlarni tasvirlar bilan almashtirishdir. Raqamli alifbo odamga har qanday raqamni eslab qolish imkonini beradi. Alfanumerik kod raqamlar va raqamlarni so‘zlarga kodlash uchun ishlatiladi. Shunday qilib, 0 dan 9 gacha bo‘lgan har bir raqam alifboning ikkita undosh harfiga to‘g‘ri keladi. Harf-raqamli kodni amalda qo‘llash uchun uni yoddan o‘rganish va uni eslab qolishning avtomatik (refleksiv) darajasiga yetkazish kerak. Raqamlar kechiktirmasdan harflarga aylantirilishi kerak va aksincha. Raqamlarni harflar va so‘zlar bilan almashtirishingiz mumkin. Masalan, 0 – doira, 1 – qalam, 2 – stakan, 3 – qandil, 4 – stul, 5 – yulduz, 6 – qo‘ng‘iz, 7 – hafta, 8 – o‘rgimchak va boshqalar. Esda tutishning refleks darajasida turli xil analitik tizimlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa o‘rnatiladi; bu holda - zudlik bilan eslab qolishni ta’minlaydigan vizual va nutq (kodlash bosqichi bundan mustasno)[1].

4. *Bog‘lovchilar usuli* – matnning ko‘makchi so‘zlarni birikkan, yaxlit bog‘lovchi tuzilishga yoki bir hikoyaga aylantirishdan iborat.

5. *Assotsiatsiya usuli* - xotirada yaxshi saqlanadigan voqea assotsiatsiyasi bilan sanani yodlash. Bunday holda, birlashmalarning kuchi va ularning soni hal qiluvchi ahamiyatga ega. Uyushmalar qanchalik xilma-xil va ko‘p bo‘lsa, ular xotirada shunchalik mustahkam saqlanadi.

6. *“Aqliy” rasmlarni qabul qilish* – har qanday ma’lumotni sxematik tarzda kodlaydigan rasmga tarjima qilish kerak, hatto kulgili ham. Ushbu uslub o‘rta asrlarda, keyin esa maktab darsliklarida barcha diagramma tuzuvchilar tomonidan qo‘llanilgan[5].

7. *Arifmetik bog‘liqlik* - raqamlar va raqamlarni yodlashda sondagi raqamlar guruhlari orasidagi arifmetik bog‘liqlikni aniqlash kerak, masalan, 358954 telefon raqamida bog‘liqlik 89 = 35 + 54.

8. *Undosh tovushlar yordamida so‘z yasash texnikasi* harf-raqamli kod bilan birgalikda qo‘llaniladi. Raqamlar harflarga tarjima qilinganda, harflar orasidan rasm sifatida ifodalanishi mumkin bo‘lgan so‘z tanlanadi. Ushbu texnikada faqat undosh harflar qiziqish uyg‘otadi, chunki alfanumerik kodda unlilar yo‘q.

9. Yodlangan ma’lumotlarning *boshlang‘ich harflaridan semantik iboralarni shakllantirish texnikasi* – ***White, Black, Red, Yellow*** ketma-ketligi haqida.

10. *Alifbo tartibida yodlash* - alifbo tartibida ma’lumotlarni yodlash uchun ishlatiladi.

Axborotni siqish usuli anekdotlarni, ensiklopedik ma’lumotlarni va kichik matnlarni (darslik paragrafi ichida) eslab qolishga yordam beradi. Bir qator boshqa usullar va texnikalar mavjud.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, mnemotexnika usullari va usullari yodlangan ma’lumotlar hajmini oshirish bilan bir qatorda, diqqatni o‘rgatadi va joriy faoliyatga diqqatni jamlash qobiliyatini oshiradi, shuningdek, tasavvur va

tasavvurni yaxshilaydi. Mnemonika miyaning ikkala yarim sharini o‘z ishingizga kiritish imkonini beradi, shu bilan birga uning imkoniyatlaridan ko‘proq foydalanish va fikrlash jarayonini yanada uyg‘unlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мнемотехнические приёмы запоминания: [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://nsportal.ru/detskiy-sad/logopediya/2014/10/25/mnemo. – Дата доступа: 16.11.2019

2. Козаренко В.А. Учебник мнемотехники. Система запоминания «Джордано». – М.: Самиздат, 2007. – 350 с.: [Электронный ресурс] – Режим доступа: http://mnemonikon.ru/uchebnik.htm. – Дата доступа:11.12.2019.

3. Головин С.Ю. Словарь практического психолога. – Минск: Издательство «Харвест», 2004. – 301 с

4. Jabbarov, N. (2010). What is education. Tashkent. Ma’naviyat

5. Мнемоника — Википедия (wikipedia.org)

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MUSTAQIL ISHLARNING AHAMIYATI

Nilufar Abdixakimova Abduganiyevna
Oriental universiteti
Samarqand filiali
1- bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf darslarining samaradorligini oshirishda mustaqil ishlarning ahamiyati ochib berilgan. Mustaqil ishlarni tashkil etishda o‘qituvchining roli o‘qish darslari misolida tavsiflangan. Mustaqil ishlarning mazmuni va tashkil etish metodikasi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, mustaqil ishlar, mustaqil ta’lim, metodik talablar, hamkorlik, kichik guruhlarda ishlash, o‘qituvchi faoliyati, o‘quvchi faoliyati, samaradorlik.

Ta’limning poydevori hisoblangan boshlang‘ich tizim o‘quvchini yoshligidanoq har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalashni taqozo etadi. O‘quvchilarning “O‘qish savodxonligi” darsligidagi nazariy va amaliy xarakterdagi o‘quv materiallarini egallashda, qolaversa, egallangan bilim va ko‘nikmalarning qay darajada ekanligini aniqlab olishda mustaqil ishlarning o‘rni alohida ahamiyatga ega.

Pedagogika ensiklopediyasida mustaqil ta’limga quydagicha ta’rif berilgan.

Mustaqil ta’lim – insonning o‘zi tanlagan manbalar yordamida avlodlar tajribasi, fan-texnika yutuqlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan individual harakatlar jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, his tuyg‘ulari, mustaqil fikrlash qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarning mustaqil ishlari boshlang‘ich sinf darslarining barcha bosqichlarida o‘tkaziladigan, o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning

ko‘rsatmalari va rahbarligida bajariladigan, o‘quvchilarning ongli ravishda faollik bilan faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydigan grammatik vazifalardir.

Xo‘sh, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar bajariladigan mustaqil ishlarga qo‘yiladigan talablar nimalardan iborat? Biz quyida ana shu masala haqida va so‘ngra IV sinf dasturidagi ayrim o‘quv materiallarini o‘rgatishda mustaqil ishlarni uyushtirish usullari bo‘yicha baholi qudrat ba’zi fikr-mulohazalarimizni bayon qilamiz.

Ta’lim jarayonida yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish mezoni didaktikaning muhim prinsiplaridan hisoblanadi. Bu esa biz nazarda tutayotgan IV sinf o‘quvchilarining “O‘qish savodxonligi” fanidagi o‘quv materiallarining puxta o‘zlashtirilishiga katta ta’sir ko‘rsatishiga samarali yordam beradi.

Ma’lumki, IV sinfda o‘quvchilar tevarak-atrofdagi predmet-hodisalar, ular orasidagi munosabat haqidagi ma’lum darajada tasavvur va bilimga ega bo‘ladilar, natijada ular o‘zlarining his-tuyg‘ularini so‘zi orqali ifodalaydilar. O‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutq malakasi shakllanib, boshlang‘ich darajadagi abstrakt (noma’lum) xarakterdagi fikriy tahlil va xulosalash shakllari tobora o‘sib boradi. Ular o‘qishdan olgan bilimlari va hosil qilgan ko‘nikmalariga tayanib, bog‘lanishli matnlar tuza oladilar. “O‘qish savodxonligi” fanini tashkil etishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining eng asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchini bajarayotgan ishga, matndagi topshiriqqa nisbatan zavqlantira olishdir. Agar o‘quvchi topshiriqni zavq bilan bajarsagina o‘tilgan har bir qoidani, umuman bilimni ongli va puxta o‘zlashtira oladi.

O‘quvchilar tomonidan bajariladigan barcha ishlarni ularning mohiyati va mazmuniga ko‘ra mustaqil ish deb bo‘lmaydi. Masalan, o‘quvchini fikrlashga majbur qilmaydigan, yuzaki bajariladigan darsliklardagi matnlar mustaqil ish hisoblanmaydi. Bu holat hammaga ma’lum, albatta.

Dars jarayonida mustaqil ishlarni tashkil etishda ba’zan quyidagi tipik kamchiliklar sodir bo‘lishi mumkin:

1. O‘qituvchilarning dars jarayonida yo‘l qo‘yadigan kamchiliklari quyidagicha:

a) mustaqil ishning o‘quvchilar bilimini kengaytirish va malakalarini takomillashtirish darajasida emasligi, mustaqil ishning o‘quvchidan faolligi, tashabbuskorligi, ijodiy fikrlash, yetarli darajada ongli faoliyatini talab qilmasligi;

b) mustaqil topshiriq shartining o‘quvchilarga tushunarli bo‘lmasligi;

v) o‘quvchilar bilim saviyasini hisobga olmaslik va differentsial topshiriq berishdan unumli foydalanmaslik;

g) o‘quvchilarda mustaqil ishlash qobiliyatining qay darajada shakllanganligini hisobga olmaslik;

d) o‘quvchilar mustaqil ish bilan band bo‘lganda o‘qituvchining bu jarayondan chetda qolishi, o‘qituvchi faoliyatining passivlashishi;

e) mustaqil ish natijasini tekshirmaslik, ishda yo‘l qo‘yilgan tipik xatolarni aniqlay olmaslik;

y) mustaqil ishni tez va sifatli bajarishga o‘quvchilarni qiziqtira olmaslik;

j) dars jarayonida mustaqil ishlarni bajarishga ajratilgan vaqtlarning

ratsional taqsimlanmasligi;

z) mustaqil ish vazifalarini oldindan aniq rejalashtirmaslik va boshqalar.

2. Dars jarayonida o‘quvchilarning yo‘l qo‘yadigan kamchiliklari asosan quyidagilar:

a) o‘rganilgan bo‘limlarning bo‘shligi natijasida uni xotiraga keltira olmaslik;

b) mustaqil ishlash qobiliyatining bo‘shligi;

d) bajarilayotgan ishga befarq qarash, mustaqil ishning maqsadini tushunmaslik;

e) o‘z-o‘zini nazorat qilolmaslik, qolaversa, mustaqil ishda, yo‘l qo‘yilgan har xil xatolarni payqay olmaslik va boshqalar.

Ko‘pincha IV sinfdagi o‘quvchilarning bilim saviyasi, topshiriqni bajarishi bir xil saviyada bo‘lmaydi. Ayrim o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni tez va ongli ravishda bajarsalar, ayrim o‘quvchilar, asosan, dangasa va passiv harakatdagilar topshiriqni bajarishga qiynaladilar, unga tushunmaydilar. Shunday bo‘lsada, IV sinfda butun sinfga differensial yondoshmay turib, hamma o‘quvchilarning materiallarni o‘zlashtirishlariga erishishi qiyin bo‘ladi.

O‘quvchilarning bilim saviyasi, shaxsiy qobiliyati hamda mustaqil ishlar ko‘nikmasini hisobga olgan holda topshiriladigan shaxsiy – yakka tartibdagi mustaqil ish differensial topshiriq hisoblanadi.

Ma’lumki, ba’zan ikki parallel sinfda mustaqil ishning bir xil turidan foydalanib bo‘lmaydi.

Mustaqil topshiriqni differensiallashtirilgan holda bajarish quyidagi natijalarga olib keladi:

- shaxsiy- yakka tartibdagi topshiriq o‘quvchilarning bajarayotgan ishiga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi;
- mustaqil ishni har bir o‘quvchining qobiliyatini hisobga olgan holda topshirish dars jarayonini faollashtiradi;
- yakka tartibda uyushtirilgan mustaqil ish vaqtni tejashga va barcha o‘quvchilarning qariyib bir vaqtda topshiriqni bajarishiga imkon yaratadi;
- topshiriqni individuallashtirish-yakka tartibda bajartirish ish sifatining yaxshilanishiga sabab bo‘ladi;
- yakka tartibdagi topshiriq o‘zlashtirishi bo‘sh bo‘lgan o‘quvchilarning bilim saviyasini yaxshilashga yordam beradi.

Mustaqil ishni bajarish jarayonida o‘zlashtirishi bo‘sh o‘quvchilarga alohida e’tibor berish zarur. O‘qituvchi ularning ishini alohida nazorat qilishi, yo‘l qo‘yilayotgan xatolarni bartaraf etishi uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi, zarur tavsiyalar berishi, belgilangan vaqtda mustaqil ishni bajarishlarini ta’minlashi, ularning qiziqishlarini yanada kuchaytirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati*:*

1. Mirziyoev Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF 4947-sonli Farmoni // “Xalq

so‘zi” gazetasi, 2017 yil 8 fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb- hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 187- sonli qarori.
3. Lyamin V.T. Integratsiya darslari va ularga sharhlar. “Boshlang‘ich maktab” jurnali. Toshkent. 2000- yil. 212 b.
4. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva SH., Sariev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. Darslik. T., “Noshr” 2009

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILAR MUSTAQIL FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA FLIPPED CLASSROOM TEXNOLOGIYASINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.

Husniddin Qoraboyev Kamolovich
Samarqand viloyati pedagogik
mahorat markazi katta o‘qituvchisi
qoraboyevhusniddin2@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada malaka oshirish jarayoni ta’limining o‘ziga xos xususiyatlari aks ettirilgan. Tinglovchilar mustaqil ta’limining mazmuni tahlil qilingan. Tinglovchilar mustaqil faoliyatini yo‘lga qo‘yishda Flipped texnologiyasining didaktik imkoniyatlari haqida ma’lumot berilgan. Flipped classroom texnologiyasining fanni o‘qitishdagi ahamiyati yuzasidan tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Flipped texnologiyasi, teskari sinf, hamkorlik, mustaqil ta’lim, mustaqil faoliyat, onlayn ta’lim, samarali natija.

Hozirgi davr mutaxassisidan yuqori darajadagi tayyorgarlik, mustaqil ravishda qarorlar qabul qila olish, belgilangan vazifalarni bajarish uchun ko‘p ma’lumotlar orasidan kerakligini tanlab olish va bu ma’lumotlarni qayta ishlay olish talab qilinadi.

Malaka oshirish jarayonidan mustaqil ta’lim bilan shug‘ullanish natijasida tinglovchilarda bu ko‘nikmalar rivojlanib boradi. Buning natijasida ular har qanday mavzularga mustaqil tayyorlana oladigan, atrof-muhitda bo‘layotgan voqealarga mustaqil munosabat bildira oladigan, kreativ va tezkor fikrlay oladigan malakalarga ega bo‘lib boradi. Bundan tashqari, mustaqil ta’limga tayyorlanish natijada tinglovchilar mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, zimmalaridagi mas’uliyatni kuchaytirib boradilar, ijodiy faollik va tashabbuskorliklarini oshirib boradilar.

Malaka oshirish jarayonida tinglovchilar mustaqil ta’lim olishi o‘qituvchining ko‘rsatmasi va uslubiy rahbarligi bilan, ammo uning ishtirokisiz amalga oshiriladigan jarayondir. Bunda tinglovchilar darsdan tashqari vaqtda mustaqil ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradilar. O‘zlari uchun kerakli bo‘lgan

materiallar, kitoblar, o‘quv qo‘llanmalarni izlaydilar. Bu jarayon tinglovchilarda har bir ishga katta mas’uliyat bilan yondoshish ko‘nikmasini shakllantiradi. Mustaqil ta’limning maqsadi kelajakdagi mutaxassislik yo‘nalishi bo‘yicha fundamental bilimlarni, kasbiy ko‘nikmalarni, ijodiy va ilmiy tadqiqot faoliyatida tajribani, ta’lim va kasbiy muammolarga ijodiy yondoshishni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Tinglovchilarning mustaqil ta’limini tashkil etish quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozim:

- tinglovchilarda o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetentsiyalarni egallash maqsadi bilan bog‘liqlikda mustaqil o‘quv faoliyatini amalga oshirish;
- bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning maqbul yo‘llarini izlab topishga qobiliyatli kreativ shaxsni tarbiyalash;
- tinglovchilarda o‘quv dasturini o‘zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;
- tinglovchilarda bilim olishga doir mas’uliyatni oshirish;
- tinglovchilarda umummadaniy va kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirishga imkon berish;
- tinglovchilarda mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

Tinglovchilarning malaka oshirish jarayonida mustaqil ta’limini samarali yo‘lga qo‘yishda ilg‘or xorijiy texnologiyalardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom”, “sun’iy intellekt” va “virtual haqiqat” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu texnologiyalar orasidan Flipped classroom (teskari sinf) texnologiyasini qo‘llash orqali tinglovchilar mustaqil faoliyatini yo‘lga qo‘yish imkoniyatlarini tahlil qilamiz [1.24].

Aralash ta’lim (blended learning) texnologiyasining ko‘plab samarali modellari mavjud bo‘lib, teskari sinf (flipped classroom) texnologiyasi joy almashinuvi modeli (Station Rotation Model)ning modeli hisoblanadi.

An’anaviy ta’lim va masofaviy ta’limni o‘z ichiga olgan teskari sinf (flipped classroom) texnologiyasi TOR-1000 reytingidan o‘rin olgan universitetlar tomonidan samarali foydalanib, yuqori natijalarga erishilmoqda. Buyuk Britaniyaning Brunel universiteti professor-o‘qituvchilari bu metodika orqali tinglovchilar darsdan keyin bajariladigan “uy vazifasi” deb ataladigan ishlarni vijdonan bajarishlari, shuningdek, guruh muhokama va munozaralarida faol qatnashishlari kuzatilgan. Ushbu usul o‘zining 92,5% samaradorligini ko‘rsatgan.[3.22]

Malaka oshirish jarayonida teskari sinf texnologiyasi tobora ommalashib bormoqda. Ko‘pgina professor-o‘qituvchilar ushbu modelning potentsial

afzalliklarini ta'kidladilar. Joriy etish bo'yicha dastlabki tadqiqotlar, birinchi navbatda, ijobiyligi bilan izohlangan.[4.13] Auditoriya uslubini o'zgartirishning mantiqiy asosi tinglovchilarning kontent bilan ishlashdagi faolligini oshirish, professor-o'qituvchilarning tinglovchilar bilan aloqa o'rnatish vaqtini ko'paytirish va o'rganishni yaxshilashdir.

Teskari sinf texnologiyasi aralashgan ta'limning bir turi bo'lib, unda tinglovchilar uyda mavzu bilan tanishadilar va darsda u orqali ishlashni mashq qiladilar.

Teskari sinf – bu o'qitishning an'anaviy modelini o'zgartiradigan o'qitish usuli deb qaraladi. O'zgartirilgan auditoriyada tinglovchilar darsdan tashqari, odatda videolar yoki onlayn manbalar orqali yangi bilimlar, ma'lumotlar bilan tanishadilar, so'ngra dars vaqtida faol o'quv faoliyati bilan shug'ullanadilar [3.10]. Ushbu yondashuv ko'proq shaxsiylashtirilgan va interfaol o'rganish tajribasini rivojlantirishga imkon beradi.

Teskari sinf texnologiyasi 2000-yillarning boshlarida katta e'tibor va mashhurlikka erishgan bo'lsa-da, "teskari sinf" tushunchasining maydonga kelishi 1990-yillarga borib taqaladi. "Teskari sinf" atamasi o'rta maktabning ikki o'qituvchisi Jonatan Bergmann va Aaron Samslar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular o'zlarining ma'ruzalarini yozib olish va dars vaqtini yanada qiziqarli mashg'ulotlar uchun bo'shatishga uy vazifasi sifatida belgilash bilan tajriba o'tkaza boshlaganlar. Ular bu yondashuvni taxminan 2007-yilda o'z auditoriyalarida joriy qila boshladila.

Ushbu teskari sinf yondashuvida yuzma-yuz muloqot mustaqil o'rganish bilan aralashtiriladi. Umumiy Flipped classroom ssenariysida tinglovchilar uyda oldindan yozib olingan videolarni tomosha qilishlari mumkin, keyin savollar va hech bo'lmaganda biroz boshlang'ich bilimlar bilan qurollangan uy vazifasini bajarish uchun darsga kelishadi.

Teskari sinf texnologiyasidan foydalanayotganda o'tilayotgan darsga qo'llanayotgan usul mos ekanligi ahamiyatli hisoblanadi. Agar ushbu tavsiyaga amal qilinmasa, mazkur texnologiya o'z samaradorligini yo'qotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'quv jarayonini teskari sinf (flipped classroom) texnologiyasi asosida takomillashtirish [Matn]: metodik qo'llanma / B.Xolmirov. – T.: "Yetakchi nashriyoti", 2024. – 32 b.*

2. *Alammary, A., Sheard, J., & Carbone, A. (2014). Blended learning in higher education: Three different design approaches. Australasian Journal of Educational Technology, 30(4).*

3. *Vaughan, N. (2007). Perspectives on blended learning in higher education. International Journal on E-learning, 6(1), 81-94.*

4. *Garrison, D. R., & Kanuka, H. (2004). Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. The internet and higher education, 7(2), 95-105.*

KONSTRUKTIVISTIK YONDASHUV ASOSIDA TABIIY FANLARNI O‘QITISH

Navbaxor Yunusova Axmadjonovna
Samarqand viloyati pedagogik
mahorat markazi o‘qituvchisi
Rahmonova Zarina Rustamovna
SamDU Biokimyo instituti II-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Singapur ta’lim tizimi va unda qo‘llanilayotgan 5E modeli asosida tabiiy fanlarni o‘qitish masalalari yoritilgan. 5E modeli yondashuvning biologiya, kimyo, fizika, geografiya kabi tabiiy fanlar darslarida qo‘llanishi bo‘yicha metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Singapur ta’limi, 5E modeli, qiziqtirish, jalb qilish, tadqiq etish, qo‘llash, tushuntirish, baholash.

Аннотация. В статье рассматривается система образования Сингапура и вопросы преподавания естественных наук на основе используемой в ней модели 5E. Даны методические рекомендации по применению подхода модели 5E в таких естественных науках, как биология, химия, физика и география.

Ключевые слова: Сингапурское образование, модель 5E, интерес, вовлекать, исследовать, применят, разрабатыватьб объяснять, оцениватью.

Abstract. This article discusses the Singaporean education system and the issues of teaching natural sciences based on the 5E model used in it. Methodological recommendations are provided for the application of the 5E model approach in natural sciences such as biology, chemistry, physics, and geography.

Key words: Singapore education, 5E model, interest, engage, explore, apply elaborate, explain, evaluate.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi Farmoniga muvofiq, Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Unda 48 ta maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha aniq mexanizmlar belgilandi. Masalan, 2030-yilga borib o‘quvchilar bilimini baholash bo‘yicha PISA xalqaro dasturi reytingida O‘zbekistonning jahondagi yetakchi 30 ta mamlakat qatoridan joy egallashi maqsad qilib qo‘yilgan.

Qiyosiy pedagogikani o‘rganish jarayonida ayrim nazariy asoslari va amaliy vazifalari o‘z mamlakatdagi ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish uchun foydali tajribani olish maqsadida turli ta’lim sistemalarining ijobiy tomonlarini qayd etish vazifalari belgilangan. Mana shunday ta’lim sistemasidan biri bu Singapur ta’lim sistemasidir.

Singapur ta’lim metodikasi va yondashuvi butun dunyoda o‘zining yuqori samaradorligi bilan tanilgan. Ayniqsa, tabiiy fanlar, matematika va boshqa fanlar bo‘yicha Singapur ta’lim tizimi xalqaro baholash dasturlarida yetakchi o‘rinlarni egallab kelmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida Singapur MCE tabiiy fanlarni o‘qitish yo‘l xaritasida bugungi kunda keng o‘rganilib tavsiya qilinayotgan 5E Modeli taqdim qilingan. 5E yondashuvi (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) dastlab AQShda BSCS (Biological Sciences Curriculum Study) tashkiloti tomonidan 1987-yilda ishlab chiqilgan. Mazkur modelning asosiy maqsadi o‘quvchilarni mavzuni chuqur o‘rganishga, mustaqil fikrlashga, hamkorlikka va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirishdir.

Tabiiy fanlarni (biologiya, kimyo, fizika, geografiya) o‘qitishda 5E modelini qo‘llashdan asosiy maqsad – o‘quvchilarning tabiiy jarayon va qonuniyatlarni faqat nazariy emas, balki tajriba va tadqiqot orqali chuqur tushunishiga yordam berishdir. Bu model orqali o‘quvchilar ilmiy fikrlash, kuzatish, tajriba o‘tkazish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Tabiiy fanlarda 5E modelining maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish – O‘quvchilarni atrof-muhit va tabiat qonuniyatlarini tushunishga yo‘naltirish.

2. Tadqiqot qilish va eksperiment o‘tkazish ko‘nikmalarini rivojlantirish – O‘quvchilar o‘z kuzatuv va tajribalariga asoslanib bilim hosil qilishadi.

3. Muammoli fikrlash va tahlil qilishni shakllantirish – O‘quvchilar o‘z oldilariga ilmiy savollar qo‘yib, ularning javobini izlaydi.

4. Amaliy qo‘llashni ta’minlash – O‘quvchilar o‘rganilgan bilimlarni hayotiy holatlarga tatbiq etishga o‘rganadilar.

5. Qiziqish va motivatsiyani oshirish – Interaktiv usullar orqali tabiiy fanlarni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni oshirish.

6. O‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishini rag‘batlantirish – Ularni ilmiy muhokamalarda ishtirok etishga va o‘z fikrlarini asoslashga o‘rgatish.

5E modeli ta’lim jarayonida o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undovchi, ularning bilimini kengaytirish va mustahkamlashga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik yondashuvdir. Bu model asosan ilmiy-tadqiqotga asoslangan fanlarni o‘rgatishda qo‘llaniladi, ammo boshqa fanlar uchun ham moslash mumkin.

5E o‘quv modeli orqali darsni bosqichma-bosqich rejalashtirish quyidagicha amalga oshiriladi. Ingliz tilida bosqichlarning nomlari E harfi bilan boshlanadi:

1 E. Engage - jalb qilish. Bu bosqich o‘quvchilarni darsga yoki yangi mavzuga jalb qilishga qaratilgan bo‘lib, unda o‘tilgan va yangi mavzuni bir-biri bilan bog‘lash kerak. Bu bosqichning maqsadi o‘quvchilarga bilimlarni egallashning ahamiyatini anglashiga yordam berishdan iborat.

Tabiiy fanlarni o‘qitishda dars mashg‘ulotlarining bu bosqichida o‘quvchilarni darsga jalb qilish uchun turli xil mavzuga oid rasmlar, videoroliklar, she‘r yoki mavzuga oid ko‘rgazmada foydalanish mumkin.

O‘quvchilar yoshini hisobga olgan holda, yangi mavzu yuzasidan ular uchun qiziq bo‘lgan tarqatmani tanlash lozim. Bu esa ularning yangi mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshishiga, bilim olishga diqqatini jalb qilishga yordam beradi. Masalan, kichik sinflarda multqahramon nomlariga bog‘langan material, yuqori sinflarda esa

asosan psixologik enerjayzerlar tanlash dars mashg‘ulotlarini qiziqarli tashkil etishga yordam beradi.

2 E. Exploration – tadqiq qilish. Ushbu bosqichda o‘qituvchilarning yangi mavzuga oid bilimlari tadqiq qilinadi. Bunda turli xil amaliy faoliyatlarni tashkil qilish lozim. O‘quvchilar muammoni o‘rganadilar va savollar berishni, farazlarni ishlab chiqishni va o‘zgaruvchilarni sinab ko‘rishni boshlaydilar. Mavzuning asosiy tushunchalari aniqlanadi va o‘quvchilar ularni tadqiq qilishi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantiradilar. Bu bosqichda o‘quvchilar ilmiy uslub haqidagi tushunchalari bilan bir qatorda laboratoriya malakalarini ham oshiradilar.

Bu bosqichda o‘quvchilar guruhlarda, hamkorlikda ishlaydi va o‘z tadqiqotlari haqida fikr yuritishni o‘rganadilar. O‘qituvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatmalar bermaydi - aksincha, u so‘rovga asoslangan savollar orqali jarayonni boshqaradi.

3 E. Explanation – tushuntirish. O‘qituvchi o‘rganilishi lozim bo‘lgan yangi mavzuni turli xil zamonaviy usullardan foydalanib tushunchalarni hosil qiladi. Oldingi bilimlarini tadqiqot orqali olingan tajribalar bilan bog‘laydilar. O‘qituvchi tushunchalarni tushuntiradi, o‘quvchilar esa o‘z tadqiqotlari asosida xulosa chiqaradilar.

4 E. Elaboration – qo‘llash yoki mustahkamlash. O‘quvchilar yangi bilimlarni oladilar va ularni turli xil nazorat topshiriqlarida, vazifalarda qo‘llaydilar. Bu bosqichda aniq mavzular bo‘yicha bilimlar umumlashtirilib, o‘quvchilar ongida chuqurlasha boshlaydi. Egallangan yangi bilimlar mustahkamlanadi.

5 E. Evaluation – baholash. Baholash bosqichida o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi ishtiroki baholanadi. Turli xil nazorat topshiriqlari yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazadilar. Ular mavzuni o‘rganish davomida aniqlangan noto‘g‘ri tushunchalarini ko‘rib chiqadilar va barcha noto‘g‘ri tushunchalar tuzatilishini ta‘minlaydilar. O‘qituvchi o‘quvchilar yangi bilimlarini qo‘llashlari kerak bo‘lgan muammoni hal qilish usulini taqdim etadi. O‘quvchilar ilmiy tushunchalarni qay darajada tushungani yozma yoki og‘zaki tarzda taqdim etadilar.

5E modeli dars samaradorligini qanday oshiradi?

1. Engage (Jalb qilish) – Darsga qiziqish uyg‘otadi.

- Darsning boshida o‘quvchilar qiziqtiriladi va e’tibori jamlanadi.
- Kutilmagan savollar, hayotiy misollar yoki tajribalar orqali o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi oshiriladi.
- Masalan, fizikadan “Nima uchun samolyot osmonda uchadi, lekin odamlar ucholmaydi?” kabi savol berish orqali dars mavzusiga oid fikrlash boshlanadi.

2. Explore (Tadqiq qilish) – Amaliyot va tajriba orqali bilim olishni kuchaytiradi.

- O‘quvchilar berilgan muammoni mustaqil o‘rganadi, tajribalar o‘tkazadi yoki guruhda ishlaydi.

- Dars davomida ilmiy tajriba yoki kuzatuv o‘tkazish orqali o‘quvchilar mavzuni o‘zlari kashf qiladilar.
- Masalan, kimyo darsida kislota va ishqorlarning o‘zaro ta’sirini laboratoriya tajribasi orqali o‘rganish.

3. Explain (Tushuntirish) – O‘quvchilarning tahlil qilish va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

- O‘quvchilar o‘z kuzatuvlari asosida o‘z fikrlarini izohlashadi.
- O‘qituvchi mavzuni tushuntiradi va ilmiy asos beradi, lekin darsni faqat monolog shaklida o‘tmaydi.
- O‘quvchilar guruh bo‘lib muhokama qilishadi, taqqoslashadi va o‘z xulosalarini chiqaradilar.
- Masalan, biologiya darsida “Nega fotosintez o‘simliklar uchun muhim?” degan savolga javob izlash.

4. Elaborate (Mustahkamlash) – Olingan bilimlarni real hayotda qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

- O‘quvchilar o‘rganilgan mavzuni amaliyotda qo‘llab ko‘radi, qo‘shimcha tajribalar o‘tkazadi yoki yangi vaziyatlarda foydalanadi.
- Hayotiy misollar va loyihalar orqali bilimlarni yanada chuqur o‘zlashtiradi.
- Masalan, geografiya darsida iqlim o‘zgarishlarining mahalliy ekotizimga ta’sirini o‘rganish loyihasi ustida ishlash.

5. Evaluate (Baholash) – O‘quvchilarning natijalarini aniqlash va tahlil qilish

- O‘quvchilar o‘z bilimlarini test, yozma ish, loyiha yoki og‘zaki taqdimot orqali baholaydilar.
- Formativ baholash orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning kamchiliklarini aniqlab, ularni to‘g‘rilashga yordam beradi.
- O‘quvchilar o‘z bilimlarini baholash orqali kelajakda qanday yaxshilash mumkinligini tushunib oladilar.
- Masalan, fizika darsida “Energiyani tejash bo‘yicha amaliy loyiha yaratish”.

Xulosa qilib aytganda, 5E modeli ta’limda konstruktivistik yondashuv asosida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, ularning mustaqil fikrlashi va bilimlarini chuqurroq anglashlariga yordam berish uchun qo‘llaniladi. **5E modeli** dars samaradorligini oshirishga yordam beradigan **interaktiv va tadqiqotga asoslangan** o‘qitish usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu model o‘quvchilarning **faolligini oshirish, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirish** orqali ta’lim sifatini yaxshilaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi to‘g‘risida”gi 57-12 son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi PQ-231-son qarori. “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 21.06.2024-yil

3. Aleksandr Grey, Tabiiy fanlar 5-sinf. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun. Darslik, Toshkent – 2024 yil

4. Aleksandr Grey, Tabiiy fanlar 6-sinf. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun. Darslik, Toshkent – 2024 yil

5. K. Saparov, I. Azimov, M. Umaraliyeva, Z. Tillayeva, I. Abduraxmanova, U. Raxmatov, S. Haytbayeva, M. Bo‘ronboyeva., BIOLOGIYA [hayot haqidagi fan]: 7-sinf darsligi. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022 yil.

8. Lex.uz

9. uzedu.uz

10.kitob.uz

ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ЭФФЕКТИВНОГО ПРЕПОДАВАНИЯ МУЗЫКИ В ОБЩИХ СРЕДНИХ ШКОЛАХ

Раушан Медетова Мамадияровна,
заведующая отделом НИПВ,
д.п.н., старший научный сотрудник,
тел.: +998903179525,
Вохиджон Кузибоев Алижон оглы,
заместитель декана
по учебной работе факультета музыкальной
культуры НПУУз,
тел.: +998915951028

Аннотация. В статье раскрыты проблемы совершенствования методики эффективного преподавания музыки в общих средних школах.

Ключевые слова: музыка, традиция, эстетический вкус, ученик, учитель, образование, воспитание, развитие.

Annotatsiya. Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa fanini samarali o‘qitish metodikasini takomillashtirish muammolari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa, an’ana, estetik did, talaba, o‘qituvchi, ta’lim, tarbiya, rivojlanish.

Abstract. The article reveals the problems of improving the methodology of effective teaching of music in general secondary schools.

Key words: music, tradition, aesthetic taste, student, teacher, education, upbringing, development.

Современная картина мира постоянно претерпевает изменения, появляются новые механизмы, которые позволяют развивать и

совершенствовать взаимоотношения между странами и народами. Кроме того, можно проследить, как хронологически изменялась жизнь общества, исходя из разных подходов к международным отношениям. После осознания указанных выше понятий и теорий становится понятно, что в контексте международных отношений в каждый временной период возникали новые механизмы, которые позволяли совершенствовать взаимодействие между государствами. При этом сохраняется необходимость совершенствовать как саму систему образования в целом, так и механизмы реализации поставленных целей.

В настоящее время все чаще государство рассматривает образование как инвестирование в развитие страны. Затраты государства на образование следует рассматривать как инвестиции, ибо текущие издержки осуществляются с тем расчетом, что эти затраты будут многократно компенсированы возросшим потоком доходов в будущем, несмотря на двойственный характер инвестирования в образование. Сегодня образование является инструментом для развития страны в целом и рассматривается как ключевой показатель развития общества. Каждое государство, в том числе и Узбекистан, стремится укрепить свои позиции и престиж на международной арене, а также создать благоприятные условия для своего социально-экономического развития. Лидерство на мировой арене все больше определяется не численностью населения, а способностью государства представить миру новые достижения в области науки, затрагивающей все сферы деятельности. Развитая система образования, отвечающая новым вызовам современности, а также требованиям инновационной высокотехнологичной экономики, интегрированная в международное образовательное и научное пространство, может стать одним из важнейших конкурентных преимуществ современного государства, тем самым, привлекая наиболее талантливую молодежь, стремящуюся к совершенствованию различных отраслей науки. Все это может привести исключительно к положительным тенденциям развития различных процессов как внутри страны, так и на международной арене. В этой связи в нашей стране предпринята попытка войти к 2030 году в топ 50 развитых стран мира.

Если говорить об образовании как инструменте «мягкой силы», то следует продвигать образовательные продукты, привлекая больше иностранных государств-партнеров. Система образования позволяет демонстрировать свои культурно-нравственные ценности. Исходя из этой стратегии можно сказать, что она включает в себя такие инструменты позиционирования страны на международной арене, как экспорт образования и распространение национальных культурных ценностей. Сегодня лидерство стран в подобном контексте невозможно без опережающего развития человеческого потенциала. Конкуренция ценностей и моделей общественного, государственного и социально-экономического развития – один из ключевых трендов времени.

Кроме того, задачами образования являются: популяризация

национальных достижений в области культуры, науки, образования, информационно-коммуникационных технологий, повышение конкурентоспособности национального образования и использование его потенциала для расширения гуманитарного влияния в мире, развитие международного сотрудничества в области культуры, науки и образования. В том числе одним из приоритетов нашей республики в международных отношениях является отстаивание в рамках международных организаций значимости общечеловеческих ценностей и международного гуманитарного сотрудничества, одной из моделей которых является модель глобального научно-исследовательского университета (global research university), в рамках которой высшие образовательные учреждения становятся «игроками» не только в контексте производства новых знаний, но и в их распространении и использовании через инновационную деятельность.

Согласно основополагающим документам («Magna Charta Universitetum», «Сорбонская декларация» и «Болонской декларации») выделены критерии к высшим образовательным учреждениям: автономность, означающая независимость от политических догм, единый курс образовательной и исследовательской деятельности, в которой образование выступает важнейшей подсистемой социальной сферы нашего государства, обеспечивающей получение систематизированных знаний, умений и навыков с целью применения их в будущей профессиональной деятельности, а также является инструментом повышения качества населения и главным средством развития страны в целом.

С учётом численности населения Узбекистана в республике насчитывается 10163 общих средних школ, в которых получают обучение и воспитание 6,4 млн. учеников. Целенаправленный процесс воспитания и обучения осуществляется в них в интересах личности, общества, государства сопровождающийся констатацией достижения учащимися установленных государством образовательных уровней. Каждый уровень образования имеет свои плюсы и минусы. К примеру, совершенствование методики эффективного преподавания музыки в школах сталкивается с проблемами, связанными с учебной программой, недостатком ресурсов и квалификации учителей, а также с восприятием роли музыки в общем среднем образовании.

Учитывая тот факт, что музыка пронизывает практически все стороны социальной жизнедеятельности и индивидуального бытия людей, выполняет разнообразные социальные и личностные функции, играет значительную роль в поддержании преемственности и изменчивости социокультурных процессов, обогащает внутренний мир личности, можно сказать, что её значение для образования ученика весьма значимо. У школьников отмечается низкий уровень музыкальной культуры (включая ценностные отношения, музыкальный вкус, знание жанров музыки, нотную грамотность и т.п.), значительное превалирование интереса к той музыке, которую не изучают в общей средней школе, отношение к музыке как к досуговой

деятельности, а не как к искусству. Подавляющее большинство школьников относятся к музыке как к развлечению, не до конца понимают классическую и народную музыку, зато хорошо ориентируются в тех жанрах и видах музыки (попса, рок и др.), которую предпочитают слушать. В организации музыкального воспитания в качестве недостатков можно указать на оторванность процесса обучения от реальной жизни, недостаточное использование возможностей современных информационно-коммуникационных технологий, расхождение целей, способов их достижения и результатов. Мы считаем, что проанализировать эффективность изучения музыки в общей средней школе можно на основе сопоставления таких критериев, как мнения самих учащихся об обучении музыке и их реальное отношение к музыке, проявляющееся в мотивационно-ценностных установках, эмоциональной отзывчивости на музыку, в музыкальном поведении. Мотивационные установки тесно связаны с музыкальной отзывчивостью на музыку как чувственную непроизвольную вовлечённость в звучание музыки.

Под музыкальным поведением мы понимаем действия, поступки и привычки ученика, связанные с музыкой в её разнообразных проявлениях. Это, во-первых, активность или пассивность обращения ученика к музыке (самостоятельно и активно участвует во взаимодействии с музыкой или пассивно воспринимает то, что предлагается); во-вторых, обращение к музыкальным произведениям. Музыкальное поведение характеризует также вид участия в музыкальной деятельности (слушание, исполнение, сочинение); выбираемые ситуации обращения к музыке (в бытовой обстановке, на концертах, в медиасреде и пр.); в-третьих, музыкальное поведение учащихся в старших классах характеризуется устойчивостью, выработанные у них привычки и поступки осознанны и основываются на убеждениях.

Вопрос подготовки кадров в нашей стране в современных условиях связан с трансформацией науки и технологий в ключевой фактор развития республики и обеспечения способности страны эффективно отвечать на вызовы времени, которые требуют объективной реакции со стороны государства на решение задач, исходя из возможностей и их масштаба. Вот почему на современном этапе развития системы школьного образования сделан ориентир на приоритетные важнейшие направления научно-технологического развития государства, в рамках которых созданы и используются современные технологии, реализуются оптимальные решения, которые обеспечиваются в первоочередном порядке кадровыми, инфраструктурными, информационными и иными ресурсами.

Литература:

1. Постановление Президента № ПП-289 «О мерах по повышению качества педагогического образования и дальнейшему развитию деятельности высших образовательных учреждений по подготовке педагогических кадров» от 21 июня 2022 года.

2. Ибраимов Х., Қуронов М., Ибрагимова Ф. Педагогика назарияси ва тарихи: Дарслик. – Т.: Sahhof, 2024. – 384 б.

3. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-158 «О стратегии Узбекистан – 2030» от 11 сентября 2023 года: https://lex.uz/ru/docs/6600404

FIZIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUV: 5E MODELI

Nafosat Soliyeva Abdiqahorovna
Navoiy viloyati pedagogik mahorat
markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Fizika darslarida uchraydigan ayrim muammolar va ularning yechimlarini keltirilgan bo‘lib, bu muammolarni bartaraf etishda darsning noan’anaviy usulidan foydalanib, fanlararo integratsiya shakllantirilgan.

5E modeli - bu o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash uchun ishlatiladigan metodik yondashuv ekanligini turli hayotiy misollar yordamida tushuntirib berilgan.

Kalit so‘zlar: 5E modeli, so‘rovga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash.

Hozir biz ilm-fan, texnika va texnologiyalar rivojlangan davrda yashayapmiz. Darslarimizda turli innovatsiyalardan, metodlardan unumli foydalanamiz va darsning sifat, samaradorligini oshirish maqsadida loyihalar tuzamiz. Ish faoliyatimiz davomida fizika darsida ayrim muammolarga duch kelamiz va bu muammolarni bartaraf etish yo‘lida izlanamiz.

Izlanuvchan, ijodkor ustozlar o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib, dars davomida uchraydigan muammolarni turli noan’anaviy interaktiv metodlar yordamida bartaraf etadi. Bu esa, albatta, o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini oshiribgina qolmay, ularning intellektual salohiyatini rivojlantiradi.

Bugungi kunning eng dolzarb o‘qitish modellaridan bo‘lgan 5E modeli zamonaviy o‘qitish usuli bo‘lib, bunda bola muammoli savollar, muammoli vaziyatlar ustida mustaqil bosh qotiradi, fikrlaydi va muammoga yechim topish yo‘lida izlanadi. Bu esa albatta, o‘quvchida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Zamonaviy ta’lim bugungi kun o‘quvchilariga quyidagilarni o‘rgatishi kerak:

✓ Kompleks vazifalarni hal qilish;

✓ Bilimlar, mantiq, tahlil, mushohadaga tayangan holda tanqidiy fikrlash, fikr mulohazalarni shakllantirib, qaror qabul qilish;

✓ Ijodiy fikrlash;

✓ Insonlar bilan hamkorlik qilish;

✓ Jamoada ishlash;

✓ O‘zining va boshqalarning emotsiyalarini (his-tuyg‘ularirn) to‘g‘ri baholash,

ularni boshqarish, emotsional intellektga ega bo‘lish;

✓Diqqatni bir vazifadan boshqasiga tez qarata olish, moslashuvchan bo‘lish.

Buning uchun ta’lim jarayonida 5E modelini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

5E modeli ta’lim jarayonida o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undovchi, ularning bilimini kengaytirish va mustahkamlashga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik yondashuvdir. Bu model asosan ilmiy tadqiqotga asoslangan fanlarni o‘rgatishda qo‘llaniladi va bu modelni barcha fanlarga moslash mumkin.

5E modeli quyidagi 5 bosqichni o‘z ichiga oladi:



1. Engagement (jalb qilish, qiziqtirish): Bu bosqichda o‘quvchilarda yangi mavzu bo‘yicha qiziqish uyg‘otish, ularni mavzuga jalb qilishni talab etadi. Bu bosqichda ko‘pincha savollar berish, mavzu bilan bog‘liq rasm, qisqacha video yoki hikoya ko‘rsatish, qiziqarli tajribalar o‘tkazish kabi faoliyatlar amalga oshiriladi.

2.Exploration (tadqiq qilish): O‘quvchilarni mustaqil yoki guruhda ishlashga undash. Bu bosqichda o‘quvchilar mavzu bo‘yicha tadqiqotlar olib boradi, turli eksperimentlar o‘tkazadi yoki muammolarni yechishadi. O‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish kerak.

3. Explanation (Tushuntirish): Bu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rganilgan materialni tushuntiradi. O‘quvchilar o‘zlarining fikrlarini ifodalashadi va o‘qituvchi mavzuga oid tushunchalarni to‘liqroq izohlaydi. Bu bosqichda o‘qituvchi faoliyati asosiy hisoblanadi.

4. Elaboration (Qo‘llash): O‘quvchilarga yangi bilimlarini yanada chuqurroq o‘rganish imkoniyatini berish. Bu bosqichda o‘quvchilar o‘z bilimlarini turli vaziyatlarda qo‘llashadi, masalan, yangi vaziyatlarga moslashtirish, boshqa mavzular bilan bog‘lash yoki murakkabroq masalalar yechishni boshlash.

5. Evaluation (Baholash): O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini baholash. Bu bosqichda o‘quvchilar o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazadilar, o‘qituvchi esa o‘quvchilarning tushunishini baholash uchun turli baholash metodlaridan foydalanish imkoniyati mavjud.

Ushbu modelni fizika darsligidagi “Atmosferadagi hodisalar” mavzusi orqali kengroq yoritishda quyidagilar amalga oshiriladi.

Mavzuni o‘rganish davomida:

• yomg‘ir, qor, do‘l, shudring, qirovni tavsiflaymiz;

• ilmiy savol qo‘yamiz va unga javob topishga yordam beradigan eng yaxshi tadqiqot metodini tanlaymiz;

• tadqiqot uchun kerakli jihozlarni tanlaymiz va ulardan to‘g‘ri foydalanamiz;

• amaliy ishni bajarish davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni hamda ularni kamaytirish yo‘llarini bayon etamiz;

• egallagan bilimlarimizni qo‘llab tadqiqot natijalarini bashorat qilamiz;

• o‘lchash ishlarini to‘g‘ri va aniq bajaramiz;

• tadqiqot natijalariga asoslanib ilmiy xulosa chiqaramiz;

• tadqiqot natijalariga asoslanib nazariyaning aniqligini bayon etamiz.

5E modeli orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtiradi, balki jamoaviy ishlash, fikrlash, muammolarni hal qilish va o‘z g‘oyalarini samarali ifodalash, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bundan tashqari laboratoriya jihozlari bo’lmagan sharoitda ham kundalik turmushda ishlatadigan asbob va jihozlar yordamida amaliyotda kuzatish va ishlatish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Elektron manba: http://www.onlinedu.uz – A.Avloniy nomidagi ilmiy tadqiqot instituti “Uzluksiz kasbiy ta’lim» elektron platformasi

2. Elektron manba: http://www.ziyonet.uz - ZiyoNET ta’lim axborot tarmog‘i

3.Elektron manba: http://www.ta’lim.uz – Ta’lim.uz ta’lim axborot **tarmog‘i**

“TARBIYA” FANINI SAMARALI O‘QITISHNI TASHKIL ETISHNING MUHIM JIHATLARI

Jamshid Oripov Yaxshiboyevich
Samarqand viloyati PMM “Ijtimoiy va amaliy fanlarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi, katta o‘qituvchisi
oripovjamshid1982@gmail.com
Ruziyeva Dilnoza Muxtorovna
Samarqand viloyati PMM “Ijtimoiy va amaliy fanlarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi, o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada muallif “Tarbiya” fanini samarali o‘qitishni tashkil etishning muhim jihatlari borasidagi nazariy fikrlar bildirilib, mazkur masalaning yechimlariga oid takliflari berilgan.

Kalit so‘zlar: metod, interfaol usullar, raqamli texnologiya, dars, farmon, qaror, ta’lim tizimi, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация. В данной статье автор высказывает теоретические взгляды на важные аспекты организации эффективного преподавания предмета «Образование» и предлагает предложения по решению этой проблемы.

Ключевые слова: метод, интерактивные методы, цифровые технологии, урок, указ, решение, система образования, инновационные технологии.

Annotation. In this article, the author expresses theoretical views on important aspects of organizing effective teaching of the subject “Education” and offers suggestions for solutions to this issue.

Key words: method, interactive methods, digital technologies, lesson, decree, solution, education system, innovative technologies.

Mamlakatimizda ta’limni rivojlantirish va sohaga ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish orqali o‘qitish jarayonlarining samaradorligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Faqatgina sohaga ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish uning samaradorlgini oshirishning garovi sifatida qarash ham unchalik maqsadga muvofiq emas. Ta’limning samaradorligini oshirih va uni tashkil etishda fanlarning o‘qitish metodikasini takomillashtirish kabi muhim jihatlariga ham e’tibor qaratish muhim jarayon hisoblanadi.

Fanni o‘qitishning samaradorligi dars jarayonida qo‘llaniladigan metod va usullar bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun ham bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim tizimida o‘qitilayotgan barcha fanlarning samaradorligi omili bo‘lgan o‘qitish metodikasini zamon talablari asosida ishlab chiqish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”[1], deganlaridan ta’limda fanlarni o‘qitishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda interfaol metodlar asosida tashkil etish masalasini nazarda tutgan bo‘lsalar ajab emas. Yurtboshimizning ushbu ma’ruzalaridan keyin mamlakatimizda ta’lim sohasini rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilib uning huquqiy asoslari takomillashtirish asosida amalga oshirilayotgan amaliy-chora tadbirlar bugun o‘z samarasini berayotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz.

Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan takliflari asosida umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan holda yagona “Tarbiya” fanini joriy etildi. Mazkur fan yoshlarni zamon talablari asosida tarbiyalash va ularga ta’lim berishga xizmat qilmoda. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘qitilayotgan fanlar ichida “Tarbiya” fani eng yosh fanlardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, mazkur fanni o‘qitishning samaradorligini oshirish birinchi navbatda dars jarayonida raqamli texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqqiqat, raqamli texnologiyalar o‘qitish jarayonida ma’lumotlarni taqdim etishdan tortib, to ma’lumotlarni saqlash, izlash, unga ishlov berish, tarqatish, namoyish qilish, yangiliklarni joriy etish, tizimda metodik xizmat ko‘rsatishdan tortib sohani monitoring qilishgacha bo‘lgan keng qamrovli vazifalarni qamrab olish imkoniyatiga egadir. Bu borada Prezidentimiz

Sh.Mirziyoyev, "…ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan xolda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish" [2], zarur deb ta'kidilar. Yurtboshimizning mazkur fikrlaridan shuni anglash mumkinki, haqiqatdan ham raqamli texnologiyalar ta'lim oluvchilarga zamonaviy qulayliklar yaratish, ta'lim olish jarayonini osonlashtirsh va sifatini oshirishga xizmat qiladi.

"Tarbiya" fani o'qituvchisi darsda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashda o'qitishning quyidagi:

birinchidan, o'qituvchi darsning (ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi) maqsadlarini to'g'ri rejalashtirgan bo'lishi;

ikkinchidan, o'qituvchi zamonaviy ilmiy-pedagogik yutuqlar, innovatsion texnologiyalar va madaniy-ma'rifiy taraqqiyotning mohiyatini chuqur anglab yetishi;

uchinchidan, o'qituvchi innovatsion texnologiyalar va texnik vositalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga to'g'ri joriy etish malakasiga ega bo'lishi;

to'rtinchidan, fanni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishda ularni to'g'ri qo'llay olish borasida ko'nikma, malaka va tajribaga ega bo'lishi;

beshinchidan, o'qituvchi o'quvchilarning ijodiy fikrlashga undaydigan, o'z fikrlarini erkin bildirishda muhim bo'lgan nutqni rivojlantirishga xizmat qiladigan usullarni tanlashdek o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratishi zarur.

"Tarbiya" fani o'qituvchisiga eng avvalo, mavzuga mos keladigan interfaol usullarni tanlash tavsiya etiladi. Darhaqiqat, bugungi kunda interfaol usullarning turlari ko'p. Ammo, bunday usullardan barcha fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin emas. Chunki, pedagog tomonidan qo'llanilayotgan interfaol usullarning hammasi ham o'qitilayotgan mavzuga mos kelavermasligi mumkin. Bu pedagogik jarayonda e'tibor qaratish muhim bo'lgan jihat hisoblanib, jarayonning bunday nozik tomonlarini payqab olishda o'qituvchidagi zehn va ziyraklik hal qiluvchi rol o'ynaydi.

"Tarbiya" fanini o'qitishda o'qituvchi quyidagilarga alohida e'tibor qaratishi fanni samarali o'qitishni tashkil etishda muhim hisoblanadi:

birinchidan, idrokning kengligi. Idrokning kengligi o'quvchiga ijtimoiy jarayonlarda sodir bo'ladigan voqealarga sinchkov, sezgir munosabatda bo'lish va ularning qiziquvchanligini oshirib boradi;

ikkinchidan, kuchli xotira va nutq. Kuchli xotiraga ega o'quvchi darsning har bir elementini yodida saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi;

uchinchidan, lug'at boyligi. Bunday qobiliyatga ega o'qituvchilar yangi so'zlashtirish orqali katta lug'at boyligiga ega bo'ladi;

to'rtinchidan, murakkablikka intilish. Bunday qobiliyatga ega o'quvchilar eng murakkab masalalarning yechimini topishga ishtiyoqi kuchli bo'ladi;

beshinchidan, yuksak matematik qobiliyat. Yuksak matematik qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilarda mantiqiy xulosa berish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Yuqoridagi fikr va mulohozalardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, "Tarbiya" fanini samarali o'qitishni tashkil etish orqali, *birinchidan,* o'qitish samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan metodlardan foydalanish

orqali darslarni qiziqarli tashkil etish, *ikkinchidan,* o‘qituvchi-o‘quvchilarni darsga tayyorgarlik ko‘rish, turli ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallarni tayyorlash malakalarini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi xulosalarga tayanib quyidagi:

birinchidan, “Tarbiya” fanini samarali o‘qitishni tashkil etishda o‘qituvchilar metodik jihatdan chuqur bilimga ega bo‘lish, ***ikkinchidan,*** darslarda axborot komunikatsion texnologiyalar va turli interfaol metodlardan foydalana olish malakalariga ega bo‘lish, ***uchinchidan,*** o‘quvchilarni turli interfaol metod va usullarga moslashuvchalik qobiliyatini shakllantirishga e’tibor qaratish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

3) Ш.М.Мирзиёев. “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. Халқ сўзи. 2016 йил 8 декабр, 243-сон.

4) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni.

GEOGRAFIYA FANINI SAMARALI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Anvar Samyayev - Samarqand VPMM v.b dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarning mamlakatimizga kirib kelishi, ta’limda tutgan o‘rni, geografiya darslarida innovatsion texnologiya vositalaridan foydalanib dars o‘tishning afzalliklari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Innovatsion texnologiya, innovatsion texnologiya vositalari, Microsoft Word, Excel, Power Point, Google Earth, Pinnacle studio dasturlari.

Аннотация. В данной статье рассказывается о внедрении инновационных технологий в нашу страну, их роли в образовании, а также о преимуществах обучения с использованием средств инновационных технологий на уроках географии.

Ключевые слова: Инновационные технологии, средства инновационные технологии, программы Microsoft Word, Excel, Power Point, Google Earth, Pinnacle studio .

Abstract. This article describes the introduction of innovative technologies in our country, their role in education, as well as the advantages of teaching using innovative technologies in geography lessons.

Key words: Innovative technologies, innovative technological tools, Microsoft Word, Excel, Power Point, Google Earth, Pinnacle studio software.

XXI asr axborotlashtirish asrida ta’lim sohasiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, har bir ta’lim muassasasida o‘qitish va o‘qish jarayonida elektron ta’lim resurslaridan foydalanishni hamda boshqarish va ta’lim muassasasi faoliyatini raqamlashtirishni talab qiladi.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya sohasini modernizasiyalash, o‘quv jarayonida zamonaviy pedagogik hamda axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, o‘qituvchilarning kasbiy mahorati hamda ularning bilim, ko‘nikma va malakasini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Fanlarni o‘qitishda interfaol metodlardan, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, elektron manbalar, monografiyalar, xorijiy adabiyotlar va internet ma’lumotlaridan foydalanilgan holda dars o‘tish bugungi kunning talabi bo‘lib qolmoqda. Ta’limda uzoq vaqt an’anaviy dars o‘tish usullaridan foydalanib kelindi. Bunday dars o‘tish usuli bugungi kunda samara bermay qo‘ydi. Shuning uchun bugungi kunda ta’limda an’anaviy dars o‘tish usullari bilan birgalikda, zamonaviy dars o‘tish usullaridan ham keng foydalanilmoqda. Ta’limga rivojlangan xorijiy davlatlarning mutaxassislari jalb etilmoqda. Ta’limda bugungi kunning asosiy talabi o‘quvchilarni innovatsion texnologiyalar va zamonaviy ta’lim metodlari orqali mustaqil va mantiqiy fikrlashga o‘rgatishga qaratilgan.

Axborotlar asrida yashar ekanmiz, fikrimizcha, ta’lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni jalb etmasdan ta’lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalash mumkin emas. Innovatsion texnologiyalar joriy etilgan ta’lim tizimi vositalari rolini multimedialar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Bugun ular bilan ta’lim tizimining qurollantirilishi o‘quvchilarga dars mashg‘ulotlarini sifatli o‘tilishini ta’minlaydi. Respublikamizda pandemiya sharoiti davrida ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalar qo‘llanilishi yaxshi samara berishini isbotladi. Televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta’limga o‘tishning bir debochasi sifatida qabul qilsak bo‘ladi. Bu jarayon o‘quvchiga uydan chiqmay turib ham ta’lim olish mumkinligini isbotlab berdi. Innovatsion texnologiyalar orqali ta’lim olishning ko‘plab afzalliklari mavjud. Bu jarayonda eng muhimi o‘quvchi o‘zi xohlagan vaqtda va sharoitda ta’lim oladi.

Ta’lim jarayonida multimedia vositalari yordamida darslarning samaradorligini oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Rivojlangan xorijiy davlatlarda o‘qitishning bu usulini ta’lim sohasining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha tatbiq qilinib kelinmoqda. Hozirgi amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, multimedia vositalari yordamida o‘quvchilarni o‘qitish ikki barobar samarali bo‘lmoqda. Mazkur vosita yordamida o‘qitishda an’anaviy ta’lim usullariga nisbatan o‘rtacha 30 % gacha vaqtni tejash mumkin hamda olingan bilimlar o‘quvchilar xotirasida uzoq muddat saqlanib qoladi. Ma’lumki, eshitgan materialning to‘rtdan bir qismi xotirada qoladigan bo‘lsa, o‘quvchilarga beriladigan materialning video (ko‘rish) orqali amalga oshirsak, axborotni xotirada saqlanib qolishi va tasavvur qilish imkoniyati 25-30 % gacha ortadi. Shuningdek, mazkur o‘quv materiallari audio, video, grafika ko‘rinishida mujassamlashtirilgan

holatda o‘quvchilarga berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ga ortishi kuzatilmoqda.

Shuni aytish kerakki, har bir o‘tiladigan darsga mos ta’lim vositasi tanlab olinsa va ta’lim vositalaridan o‘z o‘rnida samarali foydalanilsa, ta’lim sifati mazmuni butunlay o‘zgaradi. Yuqorida nomlari keltirilgan ta’lim vositalari dars jarayonini ko‘rgazmali qilishga, o‘quv materialining o‘zlashtirilishini yengillashtirishga va ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Chunki bu vositalardan foydalanishning mohiyati, ta’lim oluvchilarda bilimlarni ko‘rgazmali va imkon qadar real hayotga yaqin holda shakllantirishdan iboratdir.

Geografiya darslarida ma’ruza, og‘zaki bayon, tushuntirish orqali ko‘p samaraga erishib bo‘lmaydi. Biz o‘qituvchilar har bir darsda o‘quvchilarni lol qoldirishni unutmasligimiz kerak. Zero, donishmandlar aytganidek “donolikga intilish lol qolishdan boshlanadi”. Har bir geografiya o‘qituvchisining o‘z darslariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni avvalo “Microsoft Word”, “Excel”, “Power Point” dasturlaridan boshlashi zarur. Microsoft Word dasturida o‘qituvchi kundalik dars rejasi, dars ishlanmasi va darsga ta’luqli bo‘lgan yozuv ishlarini bajarsa bo‘ladi. “Excel” dasturi murakkab hisoblanib, geografiya darslarida bu dasturdan unumli foydalanish mumkin. Ayniqsa iqtisodiy-ijtimoiy geografiya fanlariga oid mavzularda jadval, chizma va diagrammalarni tayyorlashda ko‘p qulayliklarga ega. Masalan “ Jahon aholisining soni, o‘sishi va joylashuvi ” mavzusida jahon aholisi soni va dinamikasi, aholi sonida bolalar, yoshlar va qariyalar ulushi, aholi sonida mehnatga yaroqlilar ulushi va shunga o‘xshash ma’lumotlar haqida diagramma yaratishda “Excel” dasturining yordami beqiyosdir. “Power Point” dasturida darsning barcha bosqichlari uchun taqdimot tayyorlab ketma-ketlikda matn, rasm va videoroliklarni namoyish etish mumkin. Og‘zaki berilgan ma’lumot o‘quvchining ehtiyojini qoniqtirmaydi. Masalan “ Avstraliyaning tabiat zonalari ” mavzusini o‘tayotganingizda xaltali hayvonlar haqida , ayniqsa xaltali iblis, xaltali bo‘ri (juda kam sonli, qirilib ketish xavfi ostidagi hayvon) haqidagi ma’lumotlar o‘quvchilarning katta qiziqishlariga sabab bo‘ladi. Agar biz darsni Power Point dasturi orqali, ya’ni taqdimotli qilib o‘tsak , o‘quvchi darsni yaxshi tushunadi va ortiqcha savollar bo‘lmaydi.

Kelajakda geografiya ta’limida “ Google Earth” dasturi o‘qituvchining eng yaqin ko‘makchisiga aylanishi zarur. Bu dastur sayyoramizning landshaftini va relyefini asl holida ko‘rsatish imkoniyatiga ega. Hatto kichik hududlarni ham yuqoridan ko‘rish imkoniyati mavjud. Bunda albatta kompyuter internet tarmog‘iga ulangan bo‘lishi zarur.

“Pinnacle studio” videorolik tayyorlovchi dastur hisoblanadi. Ma’lumki, geografiyaga ta’luqli videoroliklar ko‘plab topiladi. Ammo u videoroliklarning barcha qismlari dars mavzusiga mos kelmaydi. Bunda biz ushbu dasturning imkoniyatlaridan foydalanib, kerakli, mavzuga mos joylarini olib va mikrofon orqali ovozlashtirgan holda o‘quvchilarga namoyish etishimiz mumkin. Masalan “Xitoy Xalq Respublikasi” mavzusini o‘tayotganimizda bugungi kundagi Dunyoning yangi yetti mo‘jizasidan biri Buyuk Xitoy devori haqida videorolik

qo‘ysak, dars yanada qiziqarli va samarali bo‘lar edi. Bu obida Xitoydagi qal’a devor. Qadim Xitoy me’morligining ulkan yodgorligi ekanligini aytishimiz kerak. Videorolik davomida Buyuk Xitoy devorining yaratilish tarixi va u bilan bog‘liq qiziqarli voqealar haqida ma’lumot berilsa, oquvchilarda darsga bo‘lgan qiziqish yanada ortadi.

O‘qituvchining darsga puxta tayyorgalik ko‘rishi uchun wikipedia.org, ziyonet.uz, geografiya.uz kabi internet resurslarining o‘rni katta. Bu saytlar orqali maktab geografiya ta’limining barcha mavzulariga mos qiziqarli va qimmatli ma’lumotlarni topish mumkin. Shuningdek, google.com qidiruv tarmog‘idan foydalangan holda foto va videomanbalardn foydalanish yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni// https://lex.uz/docs/5030957

2. Aliyeva N., Rasuleva M., Xalilova S., & Yalgasheva, S. (2021). Blended learning - ta’lim tizimida zamonaviy yondashuv. Science and Education, 2

3. Samyayev A. Geografiyani o‘qitishda raqamli texnologiyalarning o‘rni.// Ta’limda xalqaro baholash tadqiqotlari: amaliyotdagi muammolar va istiqboldagi vazifalar.-Samarqand, 2022

TEACHING PHRASEOLOGICAL UNITS BY A TEXT BASED APPROACH

Fotima Davronova Pirnazarovna
Associate professor of Samarkand
State University of veterinary medicine,
livestock and biotechnologies
fotimadavronova82@gmail.com +998974089982
ORCID ID 0009-0005-0911-6821
Saatova Dilbar Kakhramonovna
Master of Samarkand branch of
Kimyo International University in Tashkent

Annotation. The article presents information on the fact that teaching foreign languages through phraseological units is an important direction of modern language education, based on solid theoretical foundations and supported by a number of pedagogical practices. It is illustrated by examples that phraseology should be considered as a main pillar in any comprehensive language teaching methodology by including phraseological education in the curriculum, not as an optional or decorative aspect of the language, but as a key component of fluency, cultural competence and communicative effectiveness.

Annotatsiya. Maqolada frazeologik birliklar orqali chet tillarini o‘rgatish mustahkam nazariy asoslarga asoslangan va bir qator pedagogik amaliyotlar bilan qo‘llab-quvvatlangan zamonaviy til ta’limining muhim yo‘nalishi ekanligi haqida ma’lumotlar keltiriladi. Frazeologiya tilning ixtiyoriy yoki dekorativ jihati emas, balki ravonlik, madaniy malaka va kommunikativ samaradorlikning asosiy tarkibiy qismi sifatida frazeologik ta’limni o‘quv dasturiga kiritish orqali frazeologiya har qanday keng qamrovli til o‘rgatish metodologiyasida asosiy ustun sifatida ko‘rib chiqilishi kerakligi misollar asosida yoritib berilgan.

Key words: text-based approach, authentic texts, grammatical structures, phraseological competence, phraseological units.

Kalit so‘zlar: matnga asoslangan yondashuv, autentik matnlar, grammatik tuzilmalar, frazeologik kompetentsiya, frazeologik birliklar.

In the evolving landscape of language education, the text-based approach—also known as genre-based pedagogy—has emerged as a powerful framework for foreign language teaching, particularly within the context of communicative and functional language learning. Rooted in systemic functional linguistics as developed by Halliday (1978), the text-based approach prioritizes language as a social semiotic system. Rather than focusing solely on isolated grammatical structures or vocabulary lists, this approach emphasizes how language functions in real-world contexts, where learners engage with complete, authentic texts across a variety of genres and purposes.

At the heart of the text-based approach is the understanding that language is best learned when it is experienced in its full communicative form. Learners do not simply acquire discrete language skills, but instead, they learn how to interpret and produce texts that are socially and culturally situated. This orientation responds directly to the shortcomings of earlier methods such as the grammar-translation method, which often disconnected language from its practical usage. As Derewianka and Jones (2012) explain, genre-based teaching focuses on helping students understand how different types of texts are structured and why certain linguistic choices are made, depending on the audience, purpose, and context.

One of the principal advantages of the text-based approach is its alignment with communicative language teaching (CLT), as both share a commitment to meaningful interaction and contextualized language use. However, while CLT may often rely on spontaneous conversation and informal exchanges, the text-based method ensures that learners are also exposed to more structured, academic, or professional genres. This is particularly important for learners who need language proficiency not only for everyday communication but also for academic or occupational purposes. As Feez and Joyce (1998) note, the systematic scaffolding of text types—such as narratives, reports, explanations, and arguments—allows learners to gradually master the structural and linguistic features of each genre.

The pedagogical cycle typically associated with the text-based approach involves several stages: building the context, modeling and deconstructing the text, joint construction, and independent construction. Each of these stages supports

learners as they move from initial exposure to full production. In the first stage, teachers introduce learners to the social context of the genre, discussing its purpose, typical audience, and cultural significance. Next, model texts are presented and deconstructed in terms of both macrostructure (e.g., organization, sequence) and microstructure (e.g., grammar, cohesive devices). Through joint construction, the teacher and students collaborate to produce a similar text, which prepares learners for the final stage of independent production. This scaffolding process, as Hammond et al. (1992) emphasize, plays a crucial role in enabling learners to eventually function autonomously within the target language.

A critical strength of the text-based approach is its emphasis on literacy development. It equips learners not only with oral communication skills but also with the ability to read and write complex texts—skills that are essential in academic and professional domains. This dual focus makes the approach particularly effective in English as a Foreign Language (EFL) or English for Academic Purposes (EAP) settings, where learners often need to produce extended writing or engage with academic texts. Hyland (2007) supports this notion, arguing that genre-based instruction provides learners with clear expectations about text types and empowers them to write more effectively across different disciplines.

Furthermore, the text-based approach aligns with constructivist theories of learning, which posit that learners construct knowledge through interaction with meaningful content. By engaging with full texts, students encounter language in use, which helps them form connections between form and function. Vygotsky's (1978) concept of the Zone of Proximal Development (ZPD) is also relevant here, as the approach builds on the idea that learners can accomplish more with guidance than they can alone. Through scaffolded activities and gradual release of responsibility, learners are supported in acquiring language structures and communicative functions within their ZPD.

It is also worth noting that the integration of the text-based approach with technological tools has further enhanced its effectiveness in recent years. Digital texts, multimedia genres, and online platforms allow learners to engage with authentic language in varied forms. Teachers can now incorporate blog posts, social media content, videos, and infographics as part of the classroom repertoire, expanding learners' exposure to the diversity of modern textual genres. As Cope and Kalantzis (2009) suggest in their work on multiliteracies, the ability to interpret and produce texts across multiple modes is crucial for communicative competence in the 21st century.

Despite its many benefits, the text-based approach also presents certain challenges, particularly in classrooms with learners of diverse proficiency levels or limited exposure to the target language outside of school. Implementing the full cycle of modeling, deconstruction, and guided construction requires time, resources, and teacher expertise. Moreover, there is a risk that overly rigid focus on textual forms could limit opportunities for creative language use or spontaneous communication. As Christie and Derewianka (2008) point out, balancing structure

with flexibility is essential to maintain learner engagement and promote authentic language development.

In summary, teaching foreign languages through the text-based approach represents a sophisticated and effective method for developing both communicative competence and academic literacy. By situating language learning within meaningful, culturally situated texts, learners gain a deeper understanding of how language works and how it can be used purposefully across different contexts. As the demands of global communication and academic achievement continue to grow, the text-based approach offers a robust framework that prepares learners to participate fully in multilingual, multicultural environments. Language educators are thus encouraged to adopt and adapt this approach to meet the needs of diverse learners in dynamic classroom settings.

The teaching of foreign languages encompasses not only the transmission of grammatical rules and vocabulary but also the development of pragmatic, idiomatic, and culturally nuanced communication. Within this context, phraseological units—also known as idioms, collocations, and set expressions—hold a significant place in theoretical and pedagogical frameworks. Phraseological competence is an essential aspect of communicative language ability, contributing to fluency, naturalness, and socio-cultural appropriateness. Teaching foreign languages through the lens of phraseology, therefore, aligns with both cognitive and communicative theories of language acquisition and offers rich opportunities for fostering deeper linguistic and cultural understanding.

Phraseological units are defined as fixed or semi-fixed word combinations whose meanings often cannot be inferred from the literal meanings of their individual components (Fernando, 1996). These units include idiomatic expressions (“kick the bucket”), collocations (“make a decision”), phrasal verbs (“look up to”), and other formulaic sequences (“as a matter of fact”). Mastery of such units is essential for achieving native-like fluency and comprehension, yet they often present difficulties for learners due to their opacity, cultural specificity, and syntactic rigidity. As Wray (2002) argues, formulaic sequences are a crucial part of language competence, allowing speakers to process language more efficiently and engage in interaction with greater ease.

From a theoretical standpoint, the inclusion of phraseological units in language teaching finds support in several key linguistic and cognitive models. One foundational framework is the Lexical Approach, as formulated by Lewis (1993), which posits that language is largely acquired in chunks rather than as isolated words or rules. According to this approach, the acquisition of prefabricated word combinations facilitates fluent speech and supports learners in producing grammatically accurate language with greater automaticity. Lewis contends that vocabulary should not be seen as a collection of individual items, but rather as a repertoire of meaningful lexical chunks that reflect how language is used in real communicative contexts.

In addition to the Lexical Approach, cognitive linguistics offers valuable insights into the role of phraseology in language acquisition. Langacker (1987) and

later Kövecses and Szabó (1996) emphasize that idiomatic expressions are not arbitrary but are often motivated by underlying conceptual metaphors and image schemas rooted in embodied human experience. For example, the phrase "falling in love" draws upon the conceptual metaphor LOVE IS A PHYSICAL FORCE. By teaching phraseological units within such cognitive frameworks, educators can help learners make sense of their meaning and structure, thereby reducing the cognitive load often associated with idiomatic learning.

The Communicative Language Teaching (CLT) approach also underscores the importance of phraseological competence. In real-life communication, native speakers rely heavily on set expressions to convey meaning efficiently and appropriately. As Pawley and Syder (1983) famously argued, a key distinction between native and non-native speakers lies in the former's ability to produce "nativelike selections" of pre-fabricated phrases. This ability allows for the smooth and idiomatic production of language, a quality that is difficult to achieve through rule-based grammar instruction alone. Therefore, integrating phraseological units into foreign language teaching enhances both fluency and communicative authenticity.

Moreover, phraseological instruction contributes significantly to pragmatic competence, which involves the ability to use language effectively in social contexts. Many idiomatic expressions are deeply embedded in the culture and traditions of a language community, carrying connotations and emotional resonances that go beyond their literal interpretation. Teaching learners to recognize and use such expressions sensitively and appropriately allows them to participate more fully in the target language culture. Bardovi-Harlig (2001) notes that while grammatical errors may be tolerated by native speakers, pragmatic violations—such as misusing an idiom or employing an inappropriate formula—can lead to serious communication breakdowns.

In the classroom, effective teaching of phraseological units requires careful selection, contextualization, and repeated exposure. Rather than presenting idioms or collocations in isolation, instructors are encouraged to embed them within meaningful texts, dialogues, and communicative tasks. This aligns with the text-based approach discussed in the previous chapter, where language is taught through authentic materials that reflect real-world usage. Additionally, activities such as role-plays, storytelling, and phrase-matching exercises can help learners internalize these expressions in context. Boers et al. (2006) advocate for the use of etymological elaboration—explaining the historical or metaphorical origins of idioms—as a strategy to enhance memorability and understanding.

Technological tools also offer innovative avenues for teaching phraseology. Corpus-based tools allow learners and teachers to analyze how specific expressions are used in authentic language use. Resources such as the British National Corpus (BNC) or Corpus of Contemporary American English (COCA) can demonstrate frequency, collocational patterns, and variation across genres. According to Granger (1998), corpus-informed pedagogy not only raises learners' awareness of

conventional usage but also helps to prevent overgeneralization and transfer errors from the mother tongue.

Nonetheless, challenges remain. One such difficulty is the cultural specificity of many phraseological units, which can create confusion or even miscommunication if not adequately contextualized. Additionally, learners often face difficulty distinguishing between literal and figurative meanings, especially when processing idiomatic expressions in real time. Therefore, careful scaffolding, visual aids, and ample practice are essential in ensuring that learners are not merely memorizing phrases but truly understanding their form, meaning, and use.

In conclusion, teaching foreign languages through phraseological units represents an essential dimension of modern language education, grounded in solid theoretical foundations and supported by a range of pedagogical practices. Phraseology is not an optional or decorative aspect of language but a core component of fluency, cultural competence, and communicative effectiveness. By integrating phraseological instruction into the curriculum, educators help learners bridge the gap between classroom language and authentic discourse, preparing them to engage confidently and competently with native speakers and real-world texts. As research continues to affirm the central role of formulaic language in acquisition and use, it becomes increasingly clear that phraseology must be treated as a key pillar in any comprehensive language teaching methodology.

References

1. Brown Douglas. Teaching by principles an interactive approach. Pearson *Education, 1994. Pp.491.*

2. Brown H.D. Principles of language learning and teaching.3rd ed. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1994. Pp.347.

3. Pirnazarovna, D. F. (2022). Digital technologies in studying English at university: traditions and innovations. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, *8*(3), 97-100.

4. Pirnazarovna, D. F. (2022). WAYS OF FORMING DIGITAL LITERACY IN THE CONTEXT OF TEACHING ENGLISH. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, *7*(3), 55-57.

5. Davronova, F. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN RAPID ACQUISITION OF ENGLISH. *Innovative Development in Educational Activities*, *1*(2), 44-47.

6. Davronova, F. (2022). EXPERIMENT-TESTING METHODOLOGY OF ON RAPID TEACHING OF ENGLISH TO STUDENTS IN THE CONDITONS OF DIGITAL TECHNOLOGIES. *Innovative Development in Educational Activities*, *1*(2), 72-76.

7. Davronova, F. P. (2022). THE USAGE OF ICT TOOLS INTENDED TO ACQUIRE KNOWLEDGE BY STUDENTS IN ENGLISH CLASSES. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 1132-1136.

8. Pirnazarovna, D. F., Baxtiyerovna, N. D., & Pulatovna, B. K. (2022). XORIJIY TILLARNI TEZKOR O ‘QITISHDA QO ‘LLANILADIGAN

INNOVATSION TA’LIM METODLARNING AHAMIYATI. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 81-87.

TABIIY FANLARNI STEAM YONDASHUVI ASOSIDA O‘QITISH ORQALI KREATIV VA KRITIK FIKR YURITISHNI RIVOJLANTIRISH

Sanobar Rashidova Zokirovna
A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
Aniq va tabiiy fanlari bo‘limi bosh mutaxassisi
Sanobarrashidova07@gmail.com
+99894 696-05-67

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XXI asr ta’lim jarayonida tabiiy fanlarni o‘qitishda STEAM yondashuvining ahamiyati tahlil qilinadi. STEAM yondashuvi orqali o‘quvchilarda kreativ va kritik fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali usullari ko‘rib chiqilgan. Tabiiy fanlarni integratsiyalashgan holda o‘qitish o‘quvchilarni nafaqat nazariy bilimlar bilan ta’minlash, balki muammolarga tanqidiy yondashish, ijodiy fikrlash va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, maqolada XXI asr ko‘nikmalarining ta’lim jarayonidagi roli, ularni rivojlantirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati haqida fikrlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *STEAM, XXI asr ko‘nikmalari, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, integratsiyalashgan ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, an’anaviy ta’lim, muhandislik, dizayn, hayotiy ko’nikmalar.*

Аннотация. *В статье анализируется важность подхода STEAM к преподаванию естественных наук в образовательном процессе XXI века. Были рассмотрены эффективные способы развития навыков творческого и критического мышления у студентов с использованием подхода STEAM. Интегрированное преподавание естественных наук помогает студентам не только давать теоретические знания, но и развивать навыки критического решения проблем, творческого мышления и практического применения полученных знаний. В статье также излагаются идеи о роли навыков XXI века в образовательном процессе и необходимости внедрения новых педагогических технологий для их развития.*

Ключевые слова: *STEAM, навыки 21 века, творческое мышление, критическое мышление, интегрированное обучение, проектное обучение, традиционное образование, инженерия, дизайн, жизненные навыки.*

Annotation. *This article analyzes the importance of the STEAM approach in teaching natural sciences in the 21st century education process. Effective methods for developing creative and critical thinking skills in students through the STEAM approach are considered. Integrated teaching of natural sciences helps students not only provide theoretical knowledge, but also develop critical problem-solving,*

creative thinking, and practical application skills. The article also discusses the role of 21st century skills in the educational process and the need to introduce new pedagogical technologies to develop them.

Key words: *STEAM, 21st century skills, creative thinking, critical thinking, integrated learning, project-based learning, traditional education, engineering, design, life skills.*

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davr ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki ularning kreativ va kritik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ham asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi axborot asrida o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijodiy yondashuvga, muammoga tanqidiy qaray olish va mustaqil fikrlashga asoslangan kompetensiyalar yuqori qadrlanmoqda. Shu nuqtai nazardan, tabiiy fanlarni o‘qitishda yangicha yondashuvlarni qo‘llash dolzarb masalaga aylangan.

Xo‘sh XXI asr ko‘nikmalari nima?

XXI asr ko‘nikmalari — bu zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli yashash, ishlash, o‘qish va muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan **umumiy va kasbiy ko‘nikmalar** majmuasidir.

XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish — bu o‘quvchilarga zamonaviy bilimlar, texnologiyalar va ijtimoiy talablar asosida bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, kritikal fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion yondashuvlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan jarayondir. XXI asr ko‘nikmalari global iqtisodiyot va texnologik taraqqiyot sharoitida, shuningdek, yangi pedagogik yondashuvlar asosida shakllanadi. O‘quvchilarda bunday ko‘nikmalarni shakllantirishda asosiy e’tibor ilmiy metodologiyalar, texnologik vositalar va interfaol o‘qitish metodlaridan foydalanishga qaratiladi.

XXI asr ko‘nikmalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

✅ **Kritik (tanqidiy) fikrlash va muammolarni hal qilish**

- Ma’lumotlarni tahlil qilish, asosli fikr yuritish;
- Muammoni aniqlash, yechim topish yo‘llarini ishlab chiqish;
- Turli nuqtai nazarlarni solishtirish va baholash.

✅ **Kreativ (ijodiy) fikrlash**

- Yangicha yondashuvlar yaratish;
- Yangi g‘oyalar ishlab chiqish;
- Ilm-fan, texnologiya va san’atni uyg‘unlashtirish.

✅ **Hamkorlikda jamoada ishlash**

- Jamoada ishlash ko‘nikmasi;
- Vazifalarni taqsimlash, bir-birini to‘ldirish;
- Mas’uliyatli va o‘zaro hurmatga asoslangan muloqot;

✅ **Samarali kommunikatsiya**

- Fikrni aniq va lo‘nda ifoda qilish;
- Og‘zaki va yozma nutqni to‘g‘ri ishlatish;
- Texnologik vositalar orqali aloqa o‘rnatish.

✅ **Raqamli savodxonlik (digital literacy)**

- Axborot texnologiyalaridan foydalana olish;
- Internet xavfsizligiga rioya qilish;
- Onlayn ma’lumotlarni saralash, baholash va ishlatish.

✅ **Moslashuvchanlik va tashabbuskorlik**

- O‘zgaruvchan sharoitga tez moslasha olish;
- Yangi imkoniyatlardan foydalanishga tayyorlik;
- Faollik va liderlik sifatlarini namoyon qilish.

✅ **Doimiy o‘z ustida ishlash (o‘rganishga tayyorlik ya’ni lifelong learning)**

- Mustaqil o‘rganish ko‘nikmasi;
- O‘z ustida ishlash va rivojlanishga intilish;
- Zamonaviy kasb va texnologiyalarni egallash.

Bu ko‘nikmalar maktab ta’limida ham, oliy ta’limda ham muhim hisoblanadi. **STEAM yondashuvi** esa aynan shu XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan eng samarali yondashuvlardan biridir.

STEAM — ya’ni Science (Tabiiy fan), Technology (Texnologiya), Engineering (Muhandislik), Art (San’at) va Mathematics (Matematika) yo‘nalishlarini integratsiyalashgan holda o‘rgatish — o‘quvchilarda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, muammolarga kompleks yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, muammolarni hal qilish va jamoaviy ishlash kabi zamonaviy kompetensiyalar shakllanadi.

Bugungi ta’lim islohotlari va zamonaviy metodikalarning joriy etilishi o‘quvchilarni faqatgina bilim olishga emas, balki bu bilimlarni qo‘llash, tahlil qilish va yangilik yaratishga yo‘naltirishni talab qilmoqda. Aynan shu nuqtai nazardan, tabiiy fanlarni STEAM asosida o‘qitish orqali o‘quvchilarning kreativ va kritik fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv o‘quvchining faolligini oshiradi, mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatadi hamda uni real hayot muammolarini hal etishga tayyorlaydi.

Tabiiy fanlar — biologiya, kimyo, fizika, geografiya kabi fanlar — o‘z tabiatiga ko‘ra amaliyot va kuzatuvga asoslangan fanlar bo‘lib, STEAM metodikasi ularni hayot bilan bog‘lashda juda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Misol uchun, fizik hodisalarni o‘rganishda muhandislik elementlarini, kimyoviy jarayonlarni o‘rgatishda laboratoriya ishlarini, biologiyada esa ekologik muammolarni tadqiqotchilik ko‘nikmalari va loyihalar orqali hal etish metodikasini qo‘llash mumkin.

Avval faol bo‘lmagan ta’lim oluvchilar endi loyiha ishlarida, tadqiqotlarda faollashadilar.

1. STEAM ta’limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo‘lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muxandislik ijodiyotiga, san’at va matematikaga integratsiya qilish yotadi.

2. Ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo‘llash. STEAM ta’limida amaliy mashg‘ulotlar yordamida o‘quvchilarga ilmiy-texnik bilimlaridan real hayotda foydalanish namoyish qilinadi. Har bir darsda o‘quvchilar zamonaviy industriya

modellarini ishlab chiqadi, quradi, va modelini rivojlantiradi. Ular aniq loyihani o‘rganadi, natijada real mahsulotning prototipini yaratadilar.

3. Tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarni rivojlantirish va muammolarni yechishda. STEAM yondashuvi, o‘quvchilar kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishga zarur bo‘ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

4. O‘z kuchiga ishonish hissining ortishi. O‘quvchilar ko‘prik qurish, mashina va samaliyot modelini ishga tushirishda har safar maqsadiga yaqinlasha borishadi va oldingi yaratgan modelidagi xatolarini tuzatishadi. Har bir sinovdan so‘ng modelini takomillashtirishadi. Oxirida barcha muammolarni o‘z kuchlari bilan yengib, maqsadlariga erishadi.

5. Faol kommunikatsiya va jamoada ishlash. STEAM yondashuvi faol kommunikatsiya va jamoada ishlash bilan farqlanadi. Muloqat davrida o‘z fikrini bayon qilish va bahs-munozara olib borish uchun erkin muhit vujudga keltiriladi. Ular gapirishga va taqdimot o‘tkazishga o‘rganishadi. O‘quvchilar doimo o‘qituvchi va tengdoshlari bilan muloqatda bo‘lishadi. O‘quvchilar jarayonda faol qatnashsalar mashg‘ulotni yaxshi eslab qoladilar.

6. Loyihalarga kreativ va innovatsion yondashuv, STEAM ta’limi oltita bosqichdan iborat: savol (vazifa), muhokama, dizayn, qurish, sinovdan o‘tkazish va rivojlantirish. Bu bosqichlar tizimli loyihalash yondashuvining asosi hisoblanadi. Turli imkoniyatlarning birgalikda mavjud bo‘lishi yoki birgalikda ishlatilishi o‘z navbatida kreativlik va innovatsiyaning asosi bo‘lib hisoblanadi. Shunday qilib, fan va texnologiyaning birgalikda o‘rganilishi ko‘pgina yangi innovatsion loyihalarni yaratishga olib keladi.

7. Ta’lim va karyera orasidagi ko‘prik. Turli xil baholanishlarga ko‘ra hozirgi kunda talabgor eng ko‘p bo‘lgan 10 mutaxassisdan 9 tasida aynan STEAM bilimlari zarur bo‘ladi.

8. STEAM maktab dasturlariga qo‘shimcha sifatida STEAM dasturlari 7-14 yoshdagi o‘quvchilarning mustaqil ravishda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarga qiziqishlarini orttiradi. STEAM texnologiyasining yana afzalligi shundan iboratki, eshitish 40% ga, o‘qish, eshitish 65% ga, o‘qish, eshitish hamda ko‘rish 75% ga va muammolarni hal qilish uchun ijodiy yondoshish hamda mustaqil bajarish 90% ortadi.

Xulosa qilib aytganda, STEAM ta’limida olgan bilimlarini real hayotda qo‘llay olinadi. Ta’lim uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O‘z fikr-mulohazalar turli vaziyatlarda bildira olish. Yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshiradi va har qanday vaziyatdagi hayotiy muammolarga yechim topadilar.

Foydlanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Z.B.Sangirova va boshqalar., *Umumta’lim maktablari uchun STEAM ta’limini joriy etish*, Toshkent 2022

2. S.Z.Rashidova “Tabiiy fanlarni STEAM yondoshuvi asosida o‘qitishining o‘ziga xos jihatlari” maqola Xalq ta’limi 2/1-son, 2024

3. Ta’limga STEAM yondashuv tatbiqi “Qamar media” Nashriyoti

TOSHKENT – 2021
4. I.E. Shernazarov, S.R. Akbarova “Xalqaro baholash asoslari” qo‘llanma, Toshkent 2022
5. https://www.arduino.cc/education/how-steam-education-develops-life-skills How STEAM Education Develops Life Skills
6. https://www.utep.edu/extendeduniversity/utepconnect/blog/april-2023/6-benefits-of-stem-education.html 6 benefits of stem education, by utep connect career and professional development, online education, stem education
7. https://intboard.ua/ru/press-sluzhba/blog-intboard/stem-obrazovanie-spetsifika-i-preimushchestva/ STEM – obrazovanie. Spesifika i preimuщestva.

KIMYO FANINI SAMARALI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Sanayeva Raxima Amirqulovna
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi
Yusupova Sevara Baxriddinovna
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Uzluksiz kasbiy ta’limni tashkil etish bo‘limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya. *Ushbu maqola umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitishda yuzaga kelayotgan muammolar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdagi kamchiliklar, shuningdek, fan metodikasini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Kimyo, metodika, ta’lim texnologiyasi, o‘quvchi faolligi, laboratoriya tajribalari, STEAM, innovatsion yondashuv.*

Аннотация. *В статье анализируются проблемы, возникающие при преподавании химии в общеобразовательных учреждениях, недостатки в использовании современных педагогических технологий, а также предложения и рекомендации по совершенствованию методики преподавания предмета.*

Ключевые слова: *Химия, методика, образовательные технологии, студенческая деятельность, лабораторные эксперименты, STEAM, инновационный подход.*

Abstract. *This article analyzes the problems encountered in teaching chemistry in general secondary educational institutions, shortcomings in the use of modern pedagogical technologies, as well as proposals and recommendations for improving the methodology of the subject.*

Key words: *Chemistry, methodology, educational technology, student activity, laboratory experiments, STEAM, innovative approach.*

Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – fanlarni, xususan, tabiiy fanlarni chuqur va samarali o‘rgatish orqali o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, tahlily fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Kimyo fani o‘zining murakkabligi va amaliy yo‘nalganligi bilan ajralib turadi. Shu sababli bu fanni o‘qitish metodikasi doimiy ravishda takomillashtirib borilishi lozim. Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodni tarbiyasiga katta imtiyozlar berilmoqda. Har bir fan o‘qituvchisi o‘z fani bo'yicha mukamal bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur. Kimyo fani asosida ko‘rib chiqsak, kimyo fani o‘qituvchisi kimyoviy bilimlar va amaliy uslublardan tashqari bolalarning yoshiga qarab psixologiyasini bilishi va oldindan bilim berishning hamma bosqichlarini amalga oshirish uslublarini mukammal egallashi kerak. O‘zi dars beradigan fanning didaktik asoslarini bilib, bilimni berish umumiy uslublarini bolalar yoshlarini hisobga berib, o'zining hayotiy tajribasiga asoslanib bilimni yetkazishi lozim. Fanni o‘qitishda turli o‘qitish metodlari,texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanish, o‘quvchi va talaba yoshlarda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda asos bo‘la oladi.

Bugungi kunda ko‘plab umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kimyo fanini o‘qitishda quyidagi muammolar kuzatilmoqda:tajriba o‘tkazish uchun zarur laboratoriya asbob-uskunalarining eskirganligi yoki umuman yo‘qligi; hozirgacha ham o‘qituvchilarning ko‘pchiligi darslarda ma’ruza uslubdagi metodikani qo‘llamoqda; o‘quvchilarni amaliy ishlarga jalb qilish darajasi past bo‘lib, bu fanga bo‘lgan qiziqishni susaytiradi.

Metodikani takomillashtirishda quyidagi yondashuvlar muhim ahamiyatga ega: amaliy darslar, laboratoriya ishlari, tajribalar o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishni oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Interaktiv uslublarni joriy etish: “4 K ko‘nikmalari,” 5 E modeli, 3 C+1E modeli, amaliy mashg‘ulotlar kabi metodlar o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etadi. STEM va STEAM yondashuvi kimyo fanini texnologiya, muhandislik, san’at va matematika bilan bog‘lab o‘qitish fanni real hayot bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar, animatsiyalar, 3D modellar yordamida molekulalarning tuzilishini tushuntirish yanada samarali bo‘ladi.

O‘qituvchining metodik va texnologik kompetensiyasi muhim ahamiyatga ega. Doimiy malaka oshirish kurslari, seminar-treninglar, tajriba almashish anjumanlari orqali bu yo‘nalishda sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga erishish mumkin.

Kimyo fanining o‘qitilishida samaradorlikka erishish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

1. Maktablarni zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan ta’minlash;
2. O‘qituvchilarning metodik savodxonligini oshirish;
3. Fanlararo bog‘liqlik asosida darslarni tashkil qilish;
4. Interaktiv va innovatsion metodlarni tizimli joriy etish;
5. O‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish.

6. O‘qituvchilarning laboratoriya ishlarini tashkil etish bo‘yicha tajriba yetishmasligi, tajribalar sifatsiz yoki umuman o‘tkazilmasligiga sabab bo‘lmoqda.

7. Vaqt chegaralanganligi, dars soatlarining kamligi sababli amaliy ishlarga yetarli vaqt ajratilmaydi.

8. O‘quvchilarni loyiha asosidagi faoliyatga jalb etish orqali fanlarni hayotiy masalalar bilan bog‘lash.

9. Raqamli texnologiyalar asosida virtual laboratoriyalardan foydalanish.

10. O‘quvchilarning amaliy va mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.

An’anaviy baholash tizimi (testlar, yozma ishlar) o‘quvchilarning bilimini yuzaki aks ettirishi mumkin. Shu sababli baholashda ham metodik takomillashtirish zarur. Formativ baholash orqali dars jarayonida o‘quvchining faoliyatini kuzatish, og‘zaki fikrlari, savollariga berilgan javoblari asosida tahlil qilish. Portfoliolar yuritishda o‘quvchining laboratoriya ishlari, loyiha topshiriqlari, mustaqil izlanishlarini yig‘ib borish orqali baholash. Refleksiya asosidagi tahlilda darsdan keyingi o‘quvchi fikrlari, o‘z-o‘zini baholash, dars samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Bugungi kunda fanlararo integratsiya eng dolzarb yondashuvlardan biri hisoblanadi. Kimyoni biologiya, fizika, matematika, hatto informatika fanlari bilan uyg‘un o‘qitish o‘quvchining umumiy tafakkurini rivojlantiradi.

Misollar:

- Biologiya bilan integratsiya: Oziq moddalar almashinuvi, hujayra kimyosi, DNK tuzilishi.
- Matematika bilan integratsiya: Kimyoviy hisob-kitoblar, mol miqdori, konsentratsiya, molyar massa.
- Informatika bilan integratsiya: Molekulalarning 3D modellarini yaratish, elektron konfiguratsiyalarni dastur orqali modellashtirish.

Xulosa qilib aytganda kimyo fanini o‘qitish samaradorligini oshirish uchun har bir o‘qituvchi o‘z ish metodikasini doimiy tahlil qilib borishi, yangiliklarga ochiq bo‘lishi lozim. Ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, o‘quvchilarni amaliy faoliyatga keng jalb etish, integratsiyalashgan yondashuvni rivojlantirish orqaligina biz kelajakda kimyo faniga chuqur qiziqadigan, ilmiy izlanishga qodir avlodni tarbiyalay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi metodik qo‘llanmalari;

2. “Kimyo fanini o‘qitish metodikasi”, T. Karimova, T., 2021;

3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami, T., 2023.

FIZIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING TABIIY-ILMIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI, YO‘LLARI VA TEXNOLOGIYALARI

Ergasheva Guzalxon Ergashaliyevna
Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi,
guzalergasheva2020@gmail.com
+ 99899-721-22-71

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirishning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, unda fizika darslarida o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirishning ayrim usullari, yo‘llari va texnologiyalari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: fizika, hayotiy vaziyatlar, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, metod, o‘quvchi, tabiiy-ilmiy savodxonlik, tayanch ko‘nikmalar, xalqaro tadqiqot.

***Аннотация*.** В данной статье раскрывается важность формирования и развития естественнонаучной грамотности у учащихся. Также в нем изложены некоторые методы, способы и технологии формирования и развития естественнонаучной грамотности у учащихся на уроках физики.

Ключевые слова: физика, жизненные ситуации, интерактивные методы, проблемное обучение, метод, ученик, естественнонаучная грамотность, базовые навыки, международное исследование.

Annotation. This article reveals the importance of forming and developing students' scientific literacy. It also describes some methods, ways, and technologies for the formation and development of students' scientific literacy in physics lessons.

Key words: physics, life situations, interactive methods, problem-based learning, method, student, scientific literacy, basic skills, international research.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA Xalqaro baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish nazarda tutilgan. Bu maqsadga erishishda ta’lim tizimini takomillashtirish muhim o‘rin tutadi. Shu sababli ham ta’lim tizimini takomillashtirish “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Zamonaviy ta’lim tizimining vazifasi o‘quvchini o‘qish, yozish va hisoblashga o‘rgatish emas, balki unda uning uchun yangi bo‘lgan ijtimoiy tajribani ongli ravishda o‘zlashtirish orqali o‘zini-o‘zi rivojlantirishiga xizmat qiladigan universal ta’lim faoliyatini shakllantirishdan iborat. Mazkur vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-son farmoni bilan tasdiqlangan **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘nalishi bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan** amaliy tadbirlar rejasida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarda kommunikativ ko‘nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, tadqiqotchilik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan yangi darsliklar, mashq daftarlari, o‘qituvchi metodika kitoblarini yaratish va amaliyotga joriy etish vazifalari belgilandi. Zero ta’lim sifatini oshirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri ta’lim jarayoni ishtirokchilarining eng yaxshi ta’lim resurslari va texnologiyalaridan keng foydalanishini ta’minlash, o‘quvchilarning tez o‘zgaruvchan dunyoda yaxshi natijalarga erishishini ta’minlaydigan ta’limiy ehtiyojlarini qondirish, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida intellektual, jismoniy va ma’naviy yetuk barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

O‘zbekistonning PISA-2022 xalqaro tadqiqotidagi ishtiroki natijalari shuni ko‘rsatadiki, respublikamizdagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilari o‘quvchilarga fanlar bo‘yicha yaxshi bilim beradilar, lekin ularni haqiqiy hayotiy vaziyatlarda va amalda qo‘llashga yetarlicha o‘rgatmaydilar. Shu sababli ta’limni modernizatsiya qilishning asosiy vazifalaridan biri maktab o‘quvchilarida tayanch ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

O‘zbekistonlik maktab o‘quvchilarining ushbu tadqiqotdagi ishtiroki natijalari ularda tayanch ko‘nikmalarning yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatdi. Bu esa tabiiy fanlarni o‘qitishda inson faoliyatining turli sohalarida, shuningdek, shaxslararo muloqot va ijtimoiy munosabatlarda, keng ko‘lamli hayotiy muammolarni hal qilishda bilim va ko‘nikmalardan foydalanishning zaruriy sharti sifatida o‘quvchilarda tayanch ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozimligini taqozo etadi.

Har qanday o‘quv fanini o‘rganishda tayanch ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Quyida biz tayanch ko‘nikmalarning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish haqida fikr yuritamiz.

Tabiiy-ilmiy savodxonlik bu – tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish va ulardan savollarni aniqlash va qo‘yish, yangi bilimlarni o‘zlashtirish, tabiiy-ilmiy hodisalarni tushuntirish va ilmiy dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish uchun foydalanish qobiliyati. Bundan tashqari tabiiy-ilmiy savodxonlik shaxsning tabiiy fanlar rivoji va ularning yutuqlaridan foydalanish bilan bog‘liq masalalarda faol fuqarolik pozitsiyasini egallash qobiliyati va uning tabiiy-ilmiy g‘oyalarini o‘rganishga tayyorligini anglatadi.

Tabiiy-ilmiy savodxonlikka ega bo‘lgan shaxs tabiiy fanlarning inson bilish shakli sifatidagi asosiy xususiyatlarini tushunadi, tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolarni ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok eta oladi. Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlikka ega bo‘lgan shaxsda quyidagi kompetensiyalar shakllangan bo‘ladi: a) hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish; b)

ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash; c) ma’lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish.

Fizika o‘qituvchisi fan o‘qituvchisi sifatida o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish muhimligini juda yaxshi tushunishi, o‘quvchilarda olingan bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish zarurligini his qilishi lozim.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tabiiy fanlarni o‘qitish sifatini oshirish va PISA xalqaro baholash tadqiqotlarida o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligi natijalarini yaxshilash uchun tabiiy fanlardan olingan bilim va ko‘nikmalarni amaliy faoliyatda va kundalik hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy-yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Biz o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini oshirish muammosini quyidagi bir qator qoidalarga rioya qilish orqali hal qilish mumkin, deb hisoblaymiz:

- shakllantirilayotgan fanga oid bilimlarning tizimliligini, nazariy asosning muhimligini hisobga olish;
- real vaziyatlarga kirish (individual topshiriqlar, vaziyat bilan bog‘liq topshiriqlar zanjiri, loyiha ishi);
- o‘quvchilarning hayotiy muammolarni hal qilish yo‘llarini topish tajribasini rivojlantirish, ularga aniq vaziyatlarni modellashtirishga o‘rgatish va o‘quv muammolarini hal qilish usullarini aniqlashtirish;
- o‘quvchilarda muloqot qilish, o‘qish, axborot, ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish;
- o‘quvchilarga faoliyatni rejalashtirish, algoritmlarni loyihalash (hisob-kitoblar, konstruksiyalar va h.k.), jarayon va natijani nazorat qilishni, dastlabki ma’lumotlarga muvofiqligini va ishonchliligini tekshirishni, faoliyat natijasini tuzatish va baholashni o‘rgatish.

Hech kimga sir emaski, fizika darslarida o‘quv faoliyatining eng muhim turi masalalar yechish hisoblanadi.

Ma’lumki, o‘quvchilar ularga fizika nima uchun kerak, kelajakda ular uchun qanday foydali bo‘ladi, formulalar va qonunlarni bilish ularga kundalik hayotda qanday yordam beradi? kabi savollarni tez-tez berib turishadi. Bu savollarga javob berish bilan bir qatorda o‘quvchilarga fizikaning kelajakdagi kasbi bilan bog‘liqligini ko‘rsatish, amaliy xarakterdagi masalalarni yechish ularning fanni o‘rganishga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish imkonini beradi.

Bunda o‘quvchilarga odatiy o‘quv topshiriqlari emas, balki real hayotga yaqin muammoli vaziyatlar taklif etiladi, ular ma’lum bir kontekstda taqdim etiladi va fizika yordamida hal qilinadi. Bu topshiriqlarning barchasi matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, u o‘quvchilarning maktabda olgan bilimlaridan turli fanlararo va amaliyotga yo‘naltirilgan muammolarni hal qilish, ulardan ta’limning keyingi bosqichlarida va jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvida foydalanish qobiliyatini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Ma’lumki, o‘quvchida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish muammosi sinfdagi faoliyat mazmunini o‘zgartirishni talab qiladi. O‘quvchi faoliyatni faqat

o‘zining faoliyati jarayonida o‘rganishi mumkin, o‘qituvchining darsdagi kundalik faoliyati va u tanlagan ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantiradi.

Materialni puxta o‘zlashtirishga ta’limning markazida o‘quvchi bo‘lgan jarayon orqali erishiladi. Bunda o‘quvchilar ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida faol ishtirok etishlari kerak: o‘zlarining gipotezalari va savollarini shakllantirishlari, bir-birlariga maslahat berishlari, o‘z oldiga maqsad qo‘yishlari va natijalarini kuzatishlari kerak.

Bu yerda muammoli ta’lim bizga yordam beradi.

Bunda o‘qituvchi dars jarayonida tayyor ma’lumot bermasligi, balki darsni shunday rejalashtirishi kerakki, o‘quvchilar yangi bilimlarni “kashf eta olsinlar” va o‘z fikrlari yoki g‘oyalarini dadil ifoda etsinlar. Muammoli ta’lim o‘quvchilarning bilimlarni yaxshiroq egallashlariga, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga va faol shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

O‘quvchilarni qiziqtirish, rag‘batlantirish va natijaga erishish uchun darslarda interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Ularning yordamida barcha o‘quvchilarni mavzuni muhokama qilishga, topshiriqlarni bajarishga va mustaqil ish natijalarini taqdim etishga jalb qilish mumkin. Shunda o‘quvchilar materialni osonroq o‘zlashtiradilar, tushunadilar va eslab qoladilar. Agar siz ishlayotgan sinflar juda katta bo‘lsa, o‘quvchilar bilan ham guruhlarda, ham juftliklarda ishlashni tashkil qilish imkoniyatiga ega bo‘lasiz Ushbu turdagi faoliyatdan darsning turli bosqichlarida foydalanish mumkin.

Tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish yo‘llaridan yana biri – tanqidiy fikrlash texnologiyasi elementlari orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni oshirishdir. Tanqidiy fikrlash texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilardan axborot bilan ishlash, mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish, bahslashish, mustaqil bilim olish, hamkorlik va guruhda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Yuqoridalardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quvchilardagi tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyalari ularda hodisalarni ilmiy jihatdan to‘g‘ri anglash, tadqiqotlar o‘tkazish, tanqidiy yondashish, yondashuvni chuqurroq anglash va ilmiy tadqiqotlarning natijalarini to‘g‘ri baholash imkonini beradi. Bu kompetensiyalar ularning tanqidiy fikrlash, ilmiy savodxonlik va mustaqil tadqiqot o‘tkazish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu orqali ular kelajakda turli sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-son farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmoni.
5. Abdurahimov Sh. Ta’lim natijalariga ta’sir etuvchi omillar (PISA 2022 tadqiqoti asosida). Ma’rifat gazetasi, 2024-yil 24-aprel.
6. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2016.
7. Ismailov A. va b. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning tabiiy fanlarbo‘yicha savodxonligini baholash (metodik qo‘llanma). – T.: “Sharq” NMAK, 2019.
8. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: Учебное пособие. – М.: Академия, 2003.
9. Популяризация критического мышления: обучение чтению и письму в рамках проекта “Критическое мышление”. Пос.П./Сост. Дженни Л. Стил, Кертис С. Мередит, Чарльз Темпл, Скотт Уолтер.
10. https://akadem.irooo.ru.

PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT OF STUDENTS BY USING PLOBLEM-BASED LEARNING IN CLASSES

Davronova Fotima Pirnazarovna
Associate professor of Samarkand State University of veterinary medicine, livestock and biotechnologies
fotimadavronova82@gmail.com
+998974089982
ORCID ID 0009-0005-0911-6821
Begmatov Olamgir Olim o‘g‘li
Isxakova Sarvaroy Umarovna
Ergasheva Surayyo Faxriddin qizi
Masharipova Nodira Xolmamat qizi
Beshinchidan, o‘quvchi uchun eng qiziqali fanlardan biriga aylanishi kerak bo‘lgan fanda u fikrlashni to‘xtatadi.

Aslida, o‘qituvchilar o‘quvchida bilimga emas bilim olishga qiziqishni uyg‘ota olishlari muhim hisoblanadi. O‘quvchilar bilim olishdan o‘zlari manfaatdor bo‘lishni o‘rganishlari zarurdir. Buning uchun esa tayyor namuna asosida topshiriq berishni, o‘quvchi yoshiga mos bo‘lmagan, ammo kimdir tomonidan bajarib berilgan uy vazifalari uchun baholashni bas qilish zarur.

O‘quvchiga “Texnologiya” darsi davomida izlanishga, fantaziyasini rivojlantirishiga, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishiga va bu orqali o‘z-o‘ziga ishonchi ortishiga imkon berish lozim. Bunda o‘yin texnologiyalarining ahamiyati katta. Qum bilan o‘ynash bolalarning eng sevimli mashg‘ulotlaridan biridir. Ammo qum bilan o‘ynash bu shunchaki vaqtni bekor o‘tkazish emas. Bu juda ko‘p yangi his-tuyg‘ularni rivojlantiruvchi o‘yinlardir. Bolaning o‘zi qumga talpinadi, bunga ijodiy yo‘nalish berish kerak xolos va oddiygina qum titish qiziqarli ta’lim jarayoniga aylanadi. Qum bilan o‘ynash kichik maktab yoshidagi o‘quvchining sensomotor ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Qumda rasm chizish (***sand-art***) va qumdan shakllar yasash (***sand-play***) dars boshida o‘quvchilarning bilish faolliklari va nutqini faollashtirish va kuchaytirish uchun qo‘llanishi mumkin. O‘quvchilarning ko‘pchilik bo‘lib, guruhlarda biron bir kattaroq ob‘ektni yasashi uchun topshiriq berib, ularga vaqt berish kerak (qasr, chorraha, uy). Namuna ko‘rsatish mumkin, ammo huddi shunday yasashni talab qilish mumkin emas, bu bilan o‘quvchilarning xayolotini chegaralab qo‘ygan bo‘lamiz. Dars oxirida esa, o‘quvchilarning faolligini baholash, ularga tavsiyalar berish, bajarilgan san‘at asari uchun rag‘batlantirish mumkin. Bunday dars jarayonida o‘quvchilarnng kreativligi ham shakllanadi. Namunadagidek emas, o‘quvchining ijodiy yondashuvi orqali

uning dunyoqarashi kengayadi, hayotiy faoliyati shakllanadi, noodatiy vaziyatlarga moslashadi.

Kreativ fikrlash: O‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni izlab topadi, ijodkorlik orqali muammolarni hal qilishning kutilmagan usullariga ega bo‘ladi va u quyidagi tarkibiy qismlarga ajratiladi:

qiziquvchanlik – atrof-olamga qiziqish, mustaqil ravishda ko‘proq ma’lumot to‘plash istagi paydo bo‘ladi va savollarga javob topish;

tasavvur – o‘ziga xos ko‘plab yangi g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;

g‘oyalarni rivojlantirish – turli pozitsiyalarda g‘oyalarni baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, turli sharoitlarga yangicha yondashuv orqali munosabat bildirish qobiliyati shakllanadi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikr va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarni tahlil qilish va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi. Raqmli ta`limda tanqidiy fikrlashning ahamiyati kattadir. Ma’lumotni tanqidiy baholash, tahlil qilish va sharhlash qobiliyati to‘g‘ri va mantiqiy xulosa chiqarish va oqilona qaror qabul qilishga yordam beradi. Jamoa bo‘lib hamkorlikda ishlaganda tanqidiy fikrlash orqali o‘quvchilar ijtimoiy muloqotga kirisha oladilar.

Xozirgi kunda amaliy ko‘nikmalardan konvergent fikrlash va divergent fikrlash mavjuddir.

Konvergent fikrlash - muammoga yechim topish uchun izlanishning an’anaviy va mantiqiy strategiyasini qo‘llash, anglash va to‘plangan ma’lumotlarga asosan qaror qabul qilish qobiliyati hisoblanadi.

Divergent fikrlash - muammolarga avval taklif etilmagan, yangi, g‘ayrioddiy yoki hayratlanarli javob topishdir.

Xulosa shuki, bunday maroqli dars o‘quvchilarning charchog‘ini oladi, fanga va ayniqsa ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, diqqatini oshiradi, mayda motorikasini rivojlantiradi. Mayda motorikasi yaxshi rivojlangan o‘quvchilarning esa husnixati ham juda chiroyli bo‘ladi. Bundan tashqari amaliy ko‘nikmalari rivojlanadi, mantiqiy fikrlashi va ijodiy tafakkuri uyg‘onadi. O‘quvchini to‘g‘ri baholash esa, ularni hayotiy faoliyatini to‘g‘ri tanlay bilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni.
3. Safarova R., Ne’matov SH. va b. O‘quv predmetlari mazmunini aniqlovchi asosiy parametrlar. T.: Fan va “Texnologiya”, 2011. – 159-b.

4. Ксензова Г.Ю. Перспективные школьные технологии: Учеб.-метод. пособие. М: Пед. общество России, 2001. 224 с.
5. Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания, опыт педагогической антропологии. 1 том –М.: Литература, 1965. -115 с.

AMALIYOT JARAYONIDA TALABALARNING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA SUN'IY INTELEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH

Qayumova Gulshodaxon Muhammadjon qizi
Farg'ona viloyati PMM Pedagogika va
psixologiya ta'lim texnologiyalri
kafedrasi o'qituvchisi
mustaqil izlanuvchi

Annotasiya. Mazkur maqola ta'lim muassasalarida sun'iy intelekt hamda zamonaviy metodikalardan foydalanishni tashkil etish va unda asoslangan zamonaviy metodikalardan foydalanish borasida so'z borib, ularni o'qitishning o'ziga xos texnologiyalari asosida darslarni tashkilash yoritilgan.
Kalit so'zlar: talaba, yondashuv, mas'uliyat, pedagogika, mahorat, faolityat, dars, refleksiya, tahlil, sun'iy intelekt, steam, muloqot, interaktiv vositalar.

Annotation. This article discusses the use of artificial intelligence and modern methodologies in educational institutions, as well as the organization of lessons based on modern technologies specific to the teaching process. It provides insights into the implementation of such methods and highlights their importance in improving the quality of education.
Key words: Artificial intelligence, interactive learning, ability, need, method, means, educational aspects, data security.

Аннотация. В данной статье рассматривается использование искусственного интеллекта и современных методик в образовательных учреждениях, а также организация уроков на основе технологий, специфичных для процесса обучения. Освещаются вопросы внедрения таких методов и подчеркивается их важность для повышения качества образования.
Ключевые слова: Студент, Подход, ветственность, Педагогика, Мастерство, Практика, Урок , Рефлексия, Анализ, Искусственный интеллект, STEAM (Наука, Технологии, Инженерия, Искусство, Математика), Общение, Коммуникация, Интерактивные средства

Kirish. XXI asr ta'limi global o'zgarishlar, raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kunda pedagogik faoliyat faqatgina bilim berish emas, balki innovatsion texnologiyalarni qo'llab, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va kompleks masalalarni hal

qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. STEAM yondashuvi va sun’iy intellekt texnologiyalarining integratsiyasi talabalarning pedagogik amaliyotini yangi bosqichga olib chiqadi. Ushbu maqolada ushbu yondashuvlar o‘zaro qanday uyg‘unlashayotgani va talabalar salohiyatini qanday rivojlantirayotgani tahlil qilinadi.

1. STEAM yondashuvi va uning pedagogik ahamiyati

STEAM — bu Science (fan), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Arts (san’at), Mathematics (matematika) kabi yo‘nalishlarning integratsiyasiga asoslangan ta’lim konsepsiyasi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar real hayotdagi muammolarga amaliy yechim topishga yo‘naltiriladi. Talabalar pedagogik amaliyot davomida STEAM metodlarini qo‘llash orqali:

- o‘z darslarini loyihalashtirishda ijodkorlikni kuchaytiradi,
- fanlararo integratsiyani amalga oshiradi,
- o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi.

Bu yondashuv ayniqsa loyiha asosida o‘qitish (Project-based learning) metodikasi bilan uyg‘unlashganda, talabalar o‘rtasida zamonaviy pedagogik kompetensiyalarni shakllantiradi.

2. Sun’iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari

Ta’lim tizimiga sun’iy intellektni integratsiya qilish quyidagi yo‘nalishlarda yangi imkoniyatlar yaratmoqda:

- Shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘nalishlarini yaratish;
- O‘quvchilarning faoliyatini real vaqt rejimida tahlil qilish va qayta aloqa berish;
- Virtual yordamchilar orqali maslahat va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish;
- Darslarni rejalashtirish va didaktik materiallarni avtomatlashtirish.

Talabalar ushbu texnologiyalarni amaliyotda qo‘llash orqali:

-dars jarayonini tahlil qilish;
- sun’iy intellekt yordamida o‘z pedagogik faoliyatini baholash;
- raqamli texnologiyalar yordamida innovatsion metodlarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

3. STEAM va sun’iy intellekt integratsiyasi orqali pedagogik mahoratni oshirish

Amaliyot jarayonida quyidagi faoliyatlar orqali talabalarning pedagogik mahorati shakllanadi:

- Dars senariylarini ChatGPT, Bing suni’iy intelekt, Copilot kabi vositalar bilan yaratish;
- Interaktiv STEAM loyihalarni sun’iy intelekt yordamida loyihalash;
- sun’iy intelekt asosidagi baholash tizimlarini ishlab chiqish;
- O‘z darslarini videoyozuv orqali tahlil qilib, SI orqali tahlil natijalarini olish.

Bu esa talabalarda tahliliy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, raqamli savodxonlik va innovatsion yondashuvlarni rivojlantiradi.

4 Amaliy tajriba va kuzatishlar asosida xulosalar

2024-yil mobaynida O‘zbekistonning bir nechta pedagogika institutlarida olib borilgan amaliy tajribalar natijasida quyidagi o‘zgarishlar kuzatildi:

- Sun’iy intellekt vositalarini qo‘llagan talabalar darsga tayyorgarlikda tezroq va sifatliroq natijalarga erishdi;

- Talabalarning zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan ishonchi va qiziqishi oshdi;

-Pedagogik refleksiya ko‘nikmalari kuchaydi;

- O‘quvchilar bilan muloqot qilish madaniyati va yondashuvlar diversifikatsiyalandi.

Ushbu natijalar sun’iy intellekt va STEAM yondashuvining o‘zaro uyg‘unlashuvi pedagogik tayyorgarlikni yuqori darajaga olib chiqishini ko‘rsatmoqda.

- STEAM loyihalarida muammoli vaziyatlar yechimini sun’iy intellektdan foydalangan holda topishi;

- O‘zining darslarini tahlil qilib, ChatGPT yordamida takomillashtirish yo‘llarini aniqlashi mumkin.

Bu orqali ularning analitik fikrlashi, ijtimoiy tarmoqdan foydalanish ko‘nikmalari va innovatsion pedagogik yondashuvi shakllanadi.

Maxsus tajriba davomida STEAM yondashuvi va ijtimoiy tarmoq vositalarini qo‘llagan talabalarning pedagogik salohiyati quyidagi yo‘nalishlarda o‘sgani kuzatildi:

- Darsni loyihalashda kreativ yondashuv kuchaydi;
- Interaktiv ta’lim vositalaridan foydalanish ko‘nikmalari oshdi;
- Tahlil va refleksiya qilish madaniyati shakllandi;
- O‘z ustida ishlash va zamonaviy texnologiyalarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortdi.

Xulosa. STEAM va sun’iy intellekt texnologiyalarini uyg‘unlashtirish orqali talabalarning pedagogik mahoratini oshirish nafaqat dolzarb, balki strategik ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvlar pedagogik faoliyatni ilg‘orlashtirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish va raqamli avlod ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Kelajakda pedagog kadrlarni tayyorlashda bu texnologiyalardan unumli foydalanish ta’lim sifatini tubdan oshiradi. STEAM yondashuvi va sun’iy intellekt texnologiyalarining integratsiyasi talabalarning amaliyot davridagi pedagogik mahoratini oshirishda kuchli vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu usul orqali talabalar nafaqat dars berishni, balki ta’lim jarayonini boshqarish, tahlil qilish va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishni ham o‘rganadilar. Kelajakda sun’iy intellekt yordamida pedagoglarni tayyorlash sifati yanada yuksalishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimova D. “STEAM-ta’lim asoslari”. Toshkent, 2022.
2. UNESCO. “Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities”, 2021.
3. Xodjayev R. “Raqamli pedagogika va innovatsiyalar”, Toshkent, 2023.
4. Anderson L.W., Krathwohl D.R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives.
5. Holmes, W. et al. (2022). Ethics and risks of AI in education. OECD Publishing.

6.www.edutopia.org
7. www.sciencedirect.com

IJTIMOIY FANLARNI SAMARALI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Abduraimov Sherali No‘monjonovich,
Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi
katta o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi,
sheraliphd1987@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda ijtimoiy fanlarni jamiyat hayotidagi ahamiyati, tarbiya, davlat va huquq asoslari hamda tarix fanlarini o‘qitish jarayonida muammolar xususida fikr-mulohazlar berilgan. Shuningdek, ijtimoiy fanlarni samarali o‘qitishga oid takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy fanlar, tarbiya, davlat va huquq asoslari, tarix, pedagogik texnologiyalar, strategiya, maqsad, ta’lim.

Аннотация: В статье представлены мнения о значении общественных наук в современном обществе, проблемах в процессе преподавания образования, основ государства и права, истории. Также выдвигаются предложения по эффективному преподаванию общественных наук.
Ключевые слова:общественные науки, образование, основы государства и права, история, педагогические технологии, стратегия, цель, образование.

Abstract: This article presents opinions on the importance of social sciences in society today, problems in the process of teaching education, foundations of state and law, and history. Also, proposals are put forward for effective teaching of social sciences.

Key words: social sciences, education, foundations of state and law, history, pedagogical technologies, strategy, goal, education.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarning ahamiyati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy fanlar jumlasiga tarbiya, davlat va huquq asoslari, tarix, jamiyatshunoslik, siyosatshunoslik, falsafa kabi fanlar kiradi. Bu fanlar yosh avlodning ijtimoiy ongini shakllantirish, shaxsiy fikrlarini rivojlantiruvchi hamda faol fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, ijtimoiy fanlarni samarali o‘qitish bo‘yicha metodik yondashuvlar juda kam.

Asosiy qism. 2020-yillardan boshlab amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi. Taraqqiyot strategiyasining **“**Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” yo‘nalishi 37-50-maqsadlarida ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish va taraqqiy ettirish vazifa sifatida belgilangan. [1.-1 b.]. jumladan , 44-maqsadda **“**Maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini

xalqaro darajaga olib chiqish” ustuvor vazifa sifatida belgilanib, buning uchun maktabda faoliyat olib borishi uchun har bir fan bo‘yicha mahalliy yoki xalqaro sertifikatsiya talablarini belgilash, toifaga ega bo‘lmagan maktab o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini diagnostikadan o‘tkazish, umumta’lim maktablarini, ayniqsa, chekka hududlardagi ta’lim maskanlarini oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan to‘ldirish ishlarini davom ettirish, maktablarda direktor va uning o‘rinbosarlarini tayinlash tizimini maktab o‘qituvchilari va ota-onalarning ishtiroki ta’minlanishini nazarda tutgan holda yanada takomillashtirish, xalq ta’limi tizimi tuman bo‘linmalari faoliyatini to‘liq raqamlashtirish [1.-20 b.] hisobiga optimallashtirish ko‘zda tutilgan. Buning uchun pedagoglar ish faoliyatida samarali metodikalarni qo‘llashi kerak bo‘ladi. Ijtimoiy fanlar: tarbiya, davlat va huquq asoslari hamda tarix fanlarini o‘qitish jarayonida foydali va natija beradigan pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasini ko‘rib chiqamiz.

Bugungi kunda ijtimoiy fanlarni samarali o‘qitish uchun quyidagi muammolar e’tirof e’tilmoqda:

- An’anaviy o‘qitish metodlarining maktab ta’lim tizimida hamon ustuvorligi: Hozirda kunda ko‘plab pedagoglar an’anaviy, ma’ruza yoki hikoya usuliga tayanib darslarni tashkil etmoqda, interaktiv metodlardan kam foydalanmoqda. Sababi shovqin hosil bo‘lishidan cho‘chish. Avtoritar uslubning hukmronligi. Ushbu holat o‘quvchilarda erkin fikrini bayon etish, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muhokama yuritish ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmasligiga olib kelishu mumkin.

-O‘quv metodik ta’minotning yetarli darajada ta’minlanmaganligi yoki eskirganligi: yangi o‘quv dasturlariga mos zamonaviy darslik va qo‘llanmalar bilan yetarli ta’minlanmaganligi yoki mavjud adabiyotlarning eskirganligi, multimedia materiallari, videodarslar, elektron darsliklar, interaktiv testlar kabi vositalarning kamligi seziladi.

-O‘quvchilarning faqat tinglovchi sifatida ishtiroki, faolligi kamligi: bugungi kunda o‘quvchilarning aksariyati xorijiy tillar ham texnika fanlarga bo‘lgan qiziqishi ortganligi, ularning ota-onasi tomonidan belgilab qo‘yilganligi ijtimoiy fanlarga bo‘lgan qiziqishni pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu holat o‘z - o’zidan o‘quvchilarning darsda faol ishtirok etishning kamayishiga olib kelishi mumkin. Bunga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan omillar qatoriga mavzularning real hayot bilan bog‘lanmaganligi, noaniq talqinlar va faktlarga asoslanmagan yondashuvlarni ham qo‘shish mumkin.

-O‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi: ayrim pedagoglar zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga to‘liq tayyor emas yoki kuch sarflashni xohlashmaydi.

-Baholash tizimidagi ayrim muammolar, noxolis yondashuv: hozirgi kunda ijtimoiy fanlar bo‘yicha baholashda ko‘proq yodlashga asoslangan savollar ustuvorlik qilmoqda. Bunda analitik fikrlash, dalillash va muhokama qilish qobiliyatlarini baholaydigan tizimlar yetarli emas. Garchi yangi darsliklar yangi metodikalar asosida baholashni taqozo etsa-da, ayrim pedagoglar o‘z qolipidan chiqmaslikka harakat qiladi.

Yuqoridagi sanab o‘tilgan muammolarmni bartaraf etishda, bizning fikrimizcha quyidagi yechimlar hamda takliflar qo‘l kelishi mumkin:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, interaktiv metodlardan keng foydalanish, ko‘proq ochiq darslar tashkil etish.

- ijtimoiy fanlarda amaliy va loyiha darslarini mavzuga monand to‘g‘ri tashkil etish. Shu tarzda o‘quvchilarning faolligini oshirish.

-zamonaviy elektron darslik va elektron resurslar keng va unumli foydalanish. mobil ilovalar, interaktiv platformalar, o‘yinli o‘quv modullarini joriy qilish.

-o‘qituvchilar malakasini oshirish hamda ularni malaka oshirish jarayonidan keyingi faoliyatini o‘rganish, xalqaro tajribalarni o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish.

-baholash tizimini isloh qilish. Test, insholar, og‘zaki javoblar orqali bilimni har tomonlama baholash.Fanlarni real hayot bilan bog‘lash. Shuningdek, davlat va huquq asosslari hamda tarbiya fanlaridan ham milliy sertifikat uchun sinovlarni joriy etish.

-tarixiy, huquqiy, siyosiy mavzularni bugungi kundagi voqeliklar bilan solishtirish orqali o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish.

Xulosa. Ijtimoiy fanlarni jamiyat hayotidagi ahamiyati yuqori ekanligini hisobga olib, sohada islohotlarni davom ettirish kerak. Ijtimoiy fanlarni samarali o‘qitish nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning jamiyatga, davlatga va kelajakka bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun muhim omil bo‘lib ximzat qiladi. Shu boisdan bu sohadagi metodik muammolarni hal qilish va takomillashtirish doimiy e’tibor markazida bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni.

2.“Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” gi **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining** 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son farmoni.

3.Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.

4.Yoshlarda huquqiy madaniyatni shaklantirish yo‘lida ilg‘or pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. (2025). Zamonaviy ilm-fan va innovatsiyalar nazariyasi , 2(1), 16-18. https://innoworld.net/index.php/zifin/article/view/247

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Ostanova Matluba Ilxomovna
Qashqadaryo viloyati
Pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus
ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Tel: 91.457.58.58.
ostanovamatluba1991@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida interaktiv metodlardan foydalanishning samaradorligi va ahamiyati yoritib berilgan. Muallif interaktiv usullar orqali o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi, mustaqil fikrlash ko‘nikmalari va muloqot madaniyati qanday rivojlanishini ochib beradi. Shuningdek, interaktiv metodlar dars jarayonini jonlantirish, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undash va ularning nutq faoliyatini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Amaliy misollar, metodik tavsiyalar va o‘qituvchilar uchun foydali yo‘nalishlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, ona tili, interaktiv metod, dars samaradorligi, muloqot, o‘quvchi faolligi, metodika.

Annotation. This article highlights the effectiveness and importance of using interactive methods in primary school native language lessons. The author reveals how interactive methods develop students' interest in the lesson, independent thinking skills, and communication culture. The role of interactive methods in enlivening the lesson process, encouraging students to participate actively, and developing their speech activity is also analyzed. Practical examples, methodological recommendations, and useful directions for teachers are given.

Key words: Primary education, native language, interactive method, lesson effectiveness, communication, student activity, methodology.

Zamonaviy ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, ona tili darslarida o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularda faol muloqotga kirishish malakalarini shakllantirishda interaktiv metodlarning o‘rni beqiyosdir. Bu metodlar o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, ularga mustaqil fikr yuritish imkonini yaratish, darsda faol ishtirok etishga undash orqali ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayoni bolada mantiqiy fikrlash, aqliy rivojlanish, keng dunyoqarash, kommunikativ savodxonlik va o‘zini anglash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu bosqichda jismoniy sog‘lomlik, borliqdagi go‘zallikni anglay olish, estetik didni rivojlantirish, milliy qadriyatlar va urf-odatlarni qadrlash kabi tamoyillar ham muhim o‘rin tutadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi uchun belgilangan vazifalarning bajarilishi davlat ta’lim standarti asosida nazorat qilinadi. Ushbu standartda o‘quvchilarga qo‘yilgan aniq talablar mavjud bo‘lib, ular o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Davlat ushbu talablarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-metodik vositalar, pedagogik xizmatlar va sharoitlarni ta’minlaydi.

Bugungi ta’lim tizimi oldida turgan asosiy maqsad – o‘quvchilarni zamonaviy axborot muhitida mustaqil faoliyat yurita olishga, texnologiyalarni samarali qo‘llay olishga va axborot oqimidan ongli foydalanishga o‘rgatishdir. Bu esa o‘quvchiga faqatgina bilim emas, balki ularni mustaqil egallash va hayotda qo‘llash imkoniyatini ham beradi.

Shu bois, o‘quvchilarga ijodiy fikrlash, muammolarga yechim topish, tanqidiy fikr yuritish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini singdirish uchun 4K modeliga (kreativlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya, kritikal fikrlash) asoslangan yondashuvlar muhim hisoblanadi.

Bunday yuksak ko‘rsatkichlarga erishish uchun darslar va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda zamonaviy pedagogik metodlar, xususan, interfaol o‘yinlar, guruhlarda ishlash, muammoli vaziyatlardan chiqish, rol o‘ynash, klaster, aqliy hujum kabi metodlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ona tilini o‘rganish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘rganuvchilarga tilni amaliy jihatdan tezroq va samarali o‘zlashtirishda katta yordam beradi. Bunday metodlar yordamida tilni tarjima qilish, grammatikani tahlil qilish, matn tuzilmasini o‘rganish hamda semantik tahlil kabi muhim vazifalarni bajarish osonlashadi. Bu yondashuvlar dasturlash asosidagi ta’lim platformalarida keng qo‘llanilmoqda va ular til o‘rganishni interaktiv va tushunarli jarayonga aylantiradi.

Interfaol metodlardan foydalanishning asosiy sabablari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

O‘quvchilarning bilimini oshirish: Mavzular o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otishi, ularning ilmiy tafakkurini rivojlantirishi va mustaqil fikrlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Shuningdek, bu metodlar o‘quv jarayonini jonlantirib, bilim olishga bo‘lgan munosabatni ijobiy tomonga o‘zgartiradi.

O‘qituvchining darsni osonlashtirishi: Interfaol metodlar yordamida murakkab mavzularni ham oddiy, tushunarli va hayotiy misollar orqali tushuntirish mumkin. Bu o‘quvchilarning darsni tez va samarali anglashiga xizmat qiladi.

O‘qituvchining shaxsiy qiziqishlariga moslashuvi: Mavzuni tanlashda o‘qituvchi o‘zining pedagogik yondashuvi, fan bo‘yicha ixtisosligi va o‘quvchilarning real ehtiyojlarini inobatga olishi kerak. Bu esa ta’lim jarayonida mustahkam o‘zaro muloqotni ta’minlaydi.

O‘quvchilar uchun darsni jozibador qilish: tanlangan mavzu o‘quvchilarning kundalik hayoti, ijtimoiy muhit yoki shaxsiy qiziqishlariga bog‘liq bo‘lishi kerak. Bu ularni darsda faol ishtirok etishga undaydi.

Muammoli vaziyatlarga yechim topish: Interfaol metodlar orqali maqolalarda yoki darsda muammoli vaziyatlar yoritilib, ularni hal qilishga oid

tahliliy yondashuvlar kiritiladi. Bu o‘quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi.

Ko‘p fikrli muhit yaratish: Dars jarayonida o‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, boshqa tengdoshlari bilan baham ko‘rish va mulohaza yuritish imkoniyati yaratiladi. Bu esa ularda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ya’ni, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, fikrlash doirasini kengaytirish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishdir. Shuningdek, u o‘qituvchining o‘quvchilarga qiziqish uyg‘otish, ularni faollikka undash va o‘z mustaqil fikrlarini shakllantirishga ko‘maklashish kabi vazifalarini amalga oshirishiga yordam beradi.[44]

Interaktiv metodlar — bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ikki tomonlama faol muloqotga asoslangan, o‘quvchilarning darsda ishtirokini oshirishga qaratilgan metodlardir. Bu metodlar orqali darslar qiziqarli, mazmunli va samarali o‘tadi.

Masalan, “Aqliy hujum” metodi yordamida o‘quvchilarga berilgan mavzu yuzasidan turli fikrlar bildirishi so‘raladi. Bu esa ularda mustaqil fikrlash, nutqni to‘g‘ri ifodalash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. “Rolli o‘yinlar” esa ular orasidagi muloqotni jonlantiradi va ijtimoiy tajriba orttirishlariga imkon yaratadi.

Boshlang‘ich sinfda ona tili fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlashga undash va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonida turli metodlarni individual (yakka), kichik guruhlarda va butun sinf (frontal) shaklida tatbiq etish mumkin.

Kichik guruhlarda ishlash metodi o‘quvchilarni birgalikda ishlashga o‘rgatadi. Guruh a’zolari muayyan mavzu yoki topshiriq ustida birga ishlash orqali o‘zaro bilim almashadilar, bir-birlarining fikrlarini eshitadilar va hamkorlikda qaror qabul qilishadi. Bu usul o‘quvchilarning kommunikativ malakalarini, ijtimoiy faolligini va mas’uliyat hissini oshiradi. Masalan, kichik guruhlarda yangi so‘zlarni o‘rganish, matn ustida ishlash yoki matn tahlilini amalga oshirish orqali o‘quvchilar mavzuni chuqurroq anglaydi. Har bir guruh o‘z faoliyati yakunida sinf oldida taqdimot qiladi, bu esa ularda javobgarlik, ishonch va omma oldida gapirish qobiliyatini shakllantiradi.

Interfaol o‘yinlar va tanlovlar orqali o‘quvchilarda ona tili bo‘yicha o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash, bilimlarni jonli, qiziqarli va esda qoladigan tarzda yetkazish imkonini beradi. Masalan, “So‘z top” o‘yini, “Yashirin so‘z” yoki “To‘g‘ri-Notog‘ri” o‘yinlari darsni interaktiv va faol o‘rganish muhitiga aylantiradi.

“Klaster” usuli o‘quvchilarning biror mavzuni tizimli, ketma-ket va chuqur tahlil qilishga yo‘naltiradi. Ushbu metod "fikrlarning tarmoqlanishi" deb ham yuritiladi. O‘quvchilar markaziy tushunchadan kelib chiqib, unga bog‘liq fikrlarni atrofga tarmoqlar shaklida joylashtiradilar. Misol uchun, “Sifat” so‘z turkumiga oid tushunchalarni tarmoqlash orqali o‘quvchilar so‘zlar guruhlari, ularning ma’no

[44] Xasanboyeva M. “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

va vazifalari haqida chuqurroq tasavvurga ega bo‘lishadi. Bu metod o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, yozma nutqini takomillashtirish, mustaqil fikrlash va toifalarga ajratish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

“Tushunchalar tahlili” metodi esa asosan nazorat ishlari tahlili jarayonida qo‘llaniladi. Nazorat ishi tekshirilgach, o‘quvchilar o‘z xatolarini daftarda qayta ko‘chirib, o‘qituvchi tomonidan berilgan izohlar asosida tahlil qiladilar. Bu metod ularni hushyorlikka undaydi, o‘z xatolarini anglashga va ularni takrorlamaslikka o‘rgatadi. Natijada o‘quvchilarning o‘z ustida ishlashga bo‘lgan qiziqishi va mas’uliyati oshadi.

Umuman olganda, boshlang‘ich sinfda interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning ona tiliga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantiradi, ularni faol, mustaqil, izlanishga intiluvchi shaxs sifatida kamol topishiga zamin yaratadi. Zamonaviy metodlar yordamida darslar jonli, samarali va qiziqarli tarzda o‘tadi. Bu esa ta’lim jarayonining sifatini oshiradi va o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi.

Shuningdek, ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan, samaradorligi tajribalar orqali tasdiqlangan innovatsion yondashuvlardan biri bu — 4K modeli hisoblanadi. Ushbu model o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqotga kirishishi, hamkorlikda ishlashi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, bosqichma-bosqich yangilanayotgan 1-4-sinf o‘quv dasturlari va darsliklari ham aynan 4K modeli asosida ishlab chiqilmoqda. Ayniqsa, o‘qish darsliklarida keltirilgan nasriy va nazmiy matnlarni aynan shu yondashuv asosida o‘rganish darsni o‘quvchi uchun mazmunli, o‘qituvchi uchun esa maqsadli tashkil etishga xizmat qiladi.

4K modelining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Kommunikatsiya (muloqotga kirisha olish): Bu ko‘nikma o‘quvchining savollarga aniq va to‘g‘ri javob bera olishi, o‘z fikrini bayon qila bilishi, voqea-hodisalarni tasvirlay olishi, kichik hikoya yoki esse yozish malakasini shakllantirishga qaratilgan. Dars davomida savol-javob, rolli o‘yinlar, hikoya tuzish kabi mashg‘ulotlar orqali bu salohiyatni rivojlantirish mumkin.

Tanqidiy fikrlash (kritik fikrlash): Bu unsur vaziyatlarga tanqidiy yondashish, fikrlarni obyektiv baholash, muhim ma’lumotlarni ajrata olish, tahlil va sintez asosida xulosa chiqarish qobiliyatini anglatadi. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirishda “Ha-yo‘q” jadvali, “Sinkveyn”, “Klaster”, “Baliq skeleti”, “Insert” kabi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Hamkorlik (kooperatsiya yoki kollaboratsiya): O‘quvchilarning kichik guruhlarda, juftlikda yoki butun sinf jamoasi bilan birgalikda ishlash malakasini shakllantiradi. Ushbu yondashuv ijtimoiy faollikni kuchaytiradi, o‘zaro yordam, mas’uliyat, murosaga kelish, tinglash va fikr almashish madaniyatini singdiradi.

Ijodiylik (kreativlik): Ijodiy fikrlash va yangi g‘oyalar yaratish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bu komponent orqali o‘quvchilar mustaqil yondashuvga ega bo‘ladi. Darslarda ular o‘z tasavvurlari asosida yangi so‘zlar, hikoyalar, rasm va obrazlar yarata olish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘z navbatida ularning individual salohiyati va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi.

Ya’ni, 4K modeli asosida tashkil etilgan darslar orqali o‘quvchilar nafaqat bilim oladilar, balki zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikma va kompetensiyalarga ega bo‘ladilar. Ushbu yondashuv boshlang‘ich ta’lim jarayonida shaxsiy yondashuvni ta’minlaydi, har bir o‘quvchining individual rivojlanishiga xizmat qiladi va ularni kelajakda mustaqil, ijtimoiy faolligi yuqori, kreativ fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishiga turtki bo‘ladi.

Shuni ham aytish joizki, o‘qish darslarida nafaqat matnni o‘qib tushunish, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, o‘z fikrini ochiq va asosli bayon qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kommunikativlik esa o‘quvchilarning muloqotga kirisha olish, o‘z fikrlarini aniq, tushunarli va asosli tarzda bayon eta olish, suhbatdoshini tinglash va tushunish ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘qish mashg‘ulotlarida bu orqali o‘quvchilar nutqiy faollik, savol-javob madaniyati, mulohaza yuritish va og‘zaki hamda yozma muloqotda o‘z fikrini to‘g‘ri ifoda etishni o‘rganadilar.

Kritik fikrlash esa eng muhim ko‘nikmalardan biri bo‘lib, o‘quvchilarning berilgan ma’lumotlarga shubha bilan qarab, ularni tahlil qilish, baholash va xulosalarga kelish salohiyatini mustahkamlaydi. Bu orqali ular faqatgina bilim egasi emas, balki mustaqil fikr yurita oladigan shaxsga aylanishadi.

Bugungi ta’lim jarayonida ushbu yondashuvlarni yanada chuqurlashtirish uchun yangi zamonaviy metodlardan biri sifatida STEAM konsepsiyasi keng joriy etilmoqda. STEAM (Science – fan, Technology – texnologiya, Engineering – muhandislik, Art – san’at, Mathematics – matematika) integrativ yondashuv bo‘lib, u nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashni ko‘zda tutadi.

Bu metod o‘quvchilarning nafaqat bilish qobiliyatini, balki ularni real muammolarni hal qilishga yo‘naltiradi. Bolalar olgan bilimlarini qo‘llari bilan bajariladigan vazifalar, tajribalar, loyiha ishlari orqali chuqurroq o‘zlashtiradilar. Bu esa an’anaviy ta’limdagi faqat nazariy bilim berishga asoslangan yondashuvdan farqli ravishda, o‘quvchilarni amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, ijtimoiy faol, ijodiy va tahliliy fikrlay oladigan shaxslar sifatida shakllantirishni maqsad qiladi.

Shunday qilib, zamonaviy o‘qish darslari o‘quvchilarning faqat bilim emas, balki zamon bilan hamnafas bo‘la oladigan, jamiyatga foydali, erkin fikrlovchi va amaliyotda faol ishtirok eta oladigan insonlar bo‘lib yetishishiga xizmat qilmoqda.[45]

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning faolligi, nutq madaniyati, tafakkuri va ijodiy yondashuvini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. O‘qituvchilar dars jarayonida interaktiv metodlardan o‘rinli va maqsadli foydalansalar, darslar yanada samarali bo‘ladi. Shuningdek, bu usullar bolalarning mustaqil o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

[45] Yuldasheva Z. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar”. – Samarqand: Ilm ziyo, 2020.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xasanboyeva M. “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
2. Yo‘ldoshev Q. “Zamonaviy dars va interfaol metodlar”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Karimova M.X. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”. – Toshkent: TDPU, 2019.
4. Raxmonqulova Z.M. “Ona tili o‘qitish metodikasi”. – Toshkent: Iste’dod, 2022.
5. Yuldasheva Z. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar”. – Samarqand: Ilm ziyo, 2020.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DARSLARNI INTEGRATSIYALASH ASOSIDA TASHKIL ETISH AHAMIYATI

Usmonov Saydiahmat,
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti
Raximqulova Maxbuba Baxronovna,
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti
Tel: + 998 91 701 64 99

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan ta’limni yo‘lga qo‘yishning ayrim talab va shartlari yoritilgan bo‘lib, integratsiyalashgan darsning umumiy xususiyatlari atroflicha bayon etiladi. Shuningdek, muallif integratsiyalashgan darslarning umumiy mundarijasidan kelib chiqqan holda, bu turdagi dars loyihasiga doir mashg‘ulot strukturasi hamda integratsiyalashgan texnologiyani tasniflaydi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, integratsiya, integratsiyalashgan darslarning strukturasi, refleksiya, fanlararo aloqa, texnologiya, didaktik o‘yinlar.

Аннотация. В статье выделены некоторые требования и условия внедрения интегрированного обучения в начальныч классах, а также подробно описаны общие особенности интегрированного урока. Также, классифицирует структуру обучения и интегрированную технологию, относящуюся к данному типу проекта урока, исходя из общего содержания интегрированных уроков.

Ключевые слова: начальное образование, интеграция, структура интегрированных уроков, рефлексия, межпредметная связь, технология, дидактические игры.

Annotation. The article highlights some of the requirements and conditions for the introduction of integrated education in primary classes, and describes the general features of the integrated lesson in detail. Also, based on the general content of integrated lessons, the author classifies the training structure and integrated technology for this type of lesson project.

Key words: primary education, integration, structure of integrated lessons, reflection, interdisciplinary communication, technology, didactic games.

O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo`nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi tasdiqlandi, O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish borasida bir qancha ishlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va budjetdan tashqari mablag` bilan ta’minlashning samaradorligini oshirish, yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta’minlashda maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta’lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish, yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish masalasi bugungi kunning eng dolzarb masalasi hisoblanadi.

Ilmiy jarayonda innovatsion ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish va loyihalashtirish, integratsiyalashgan ta’limni rivojlantirishda boshlang‘ich ta’limning o‘rni, global ilmiy jarayonda filologik ta’limni rivojlantirish hamda tabiiy va aniq fanlarni o‘qitishda integratsiyalashgan ta’lim yo‘nalishlar bo‘yicha talaygina ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘yin ta’lim texnologiyasi asosida refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘yin – ta’limiy faoliyat sifatida, bola shaxsini rivojlantirishda didaktik o‘yinlar mavzulari doirasida refleksiv ko`nikmalarni shakllantirish masalalari haqida fikr yuritilgan.

Ta’lim sifat va samaradorligini oshirishda integratsiyalashgan ta’limni rivojlantirish borasidagi ishlarni amalga oshirishda barcha fanlarning o‘rni muhim

ahamiyatga ega bo‘lib, o‘sib kelayotgan yosh avlodni hamda mahoratli pedagoglarni har tomonlama barkamol inson sifatida ko‘rish, ularga o‘z qiziqishlarini inobatga olgan holda qo‘shimcha bilimlar berish hamda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda jamiyat ravnaqi uchun xizmat qilishlariga shart-sharoitlar yaratib berish maqsad qilib olingan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq, ta’lim-tarbiyaviy jarayonda jamiyat va atrof-muhit o‘rtasidagi aloqalarni uyg‘unlashtirish, atrof-muhitga ijodiy munosabatni o‘rnatish va shakllantirish muammolari muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunga kelib, an’anaviy o‘qitish o‘rnini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar egallamoqda. Shu nuqtai nazardan qayd etish lozimki, XX asrning yakuni texnokratik taraqqiyotga nuqta qo‘yib, gumanitar madaniyatning ibtidosiga yo‘l ochdi. Kuch va qo‘rquv mantig‘ining ong va muhabbat falsafasiga almashingani XXI asrning o‘ziga xos strategiyasidir.

Demak, ta’lim-tarbiyada ham amalga oshiriluvchi islohotlar mana shu mantiqqa mos tarzda, jamiyatga xizmat ko‘rsatishi lozim. Bu o‘rinda noan’anaviy o‘qitish shakli – integratsiyaning ahamiyati yanada oshib boradi. Negaki, integratsiyaning darajasiga qarab, uning qo‘llanilish texnikasiga ko‘ra, amalga oshirilgan texnologiyaning istiqbolini belgilash mumkin bo‘ladi. Zero, integratsiya yetarlicha namoyon bo‘la olgan, turli xarakterli mazmunning singdirilishi natijasida yangi sifatiy holatga o‘tishda asosiy omil bo‘lib yuzaga chiqa oluvchi faktor hisoblanadi. Integratsiya chuqur, noan’anaviy ta’lim bilan tavsiflana oluvchi, turfa xarakterdagi katta hajmli o‘quv materialining uyg‘unlashuvini o‘zida namoyon etadi.

Hozirgi kunda tobora ommalashib borayotgan bola shaxsini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar bizning yurtimizda ham hayotga tatbiq etilib kelinmoqda. Xususan, atrof-muhitga jiddiy munosabatlarning poydevori boshlang‘ich sinflarda o‘rnatiladi. Insonning bilish qobiliyati, uni qurshab turgan tevarak-olamga nisbatan sergak munosabatini tarbiyalash – o‘z-o‘zidan shakllanib qoluvchi jarayon bo‘lmasdan, insonning ta’lim olish jarayonidagi kompleksli rivojlanishini ehtimol qiluvchi: mashg‘ulotlarni darsning mundarijasi, mazmuniga muvofiq pedagogik texnologiyalarni to‘g‘ri va ongli qo‘llashni nazarda tutgan holda tashkil etish talab etiladi. Bunda pedagog asosiy e’tiborni ta’lim oluvchining dunyoqarashini kengaytirish maqsadiga qaratadi. Bu ko‘proq integratsiyalashgan tipda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar bo‘lib, ularni tashkil etishda o‘qituvchi fanlararo integratsiyaga xos qator jihatlarni yaxshi o‘zlashtirishi lozim bo‘ladi.

Binobarin, mazkur tadqiqotda urg‘u berib qaralayotgan boshlang‘ich ta’limdagi integratsiya o‘z atrofida: o‘qish, matematika, tabiatshunoslik, rasm, mehnat singari o‘quv fanlari hamda ingliz tilini jamlaydi. O‘z darsini integratsiyalashgan usulda tashkil etayotgan o‘qituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchisining yoshi, aqliy rivojlanish darajasi va albatta qiziqishlari doirasiga mos tarzda vosita va usullar tanlaydi. Integratsiyalashgan dars loyihasining tematikasi o‘quv dasturining qaysidir masalasiga tegishli bo‘lishi mumkin, bunda alohida qaralgan iqtidorli o‘quvchilar va umuman, sinf o‘quvchilaridagi mazkur

mavzu yuzasidan o‘zlashtirish darajasini belgilovchi bilimni chuqurlashtirish, o‘rganish jarayonini differensiallashtirish maqsad qilib olinadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun haqiqiy mehnat qilishga yordam beradigan o‘yinlarga mo‘ljallangan: bolalar tikuv, to‘quv va to‘qimachilik mashinalari, bolalar qishloq xo‘jaligi va maishiy mehnat qurollari, badiiy-dekorativ va bosma ishlar to‘plamlari haqiqiy ma’noda mehnat darslarini maroqli va sevimli jarayonga aylantira oladi. Shuningdek, dars jarayonida muayyan mehnat topshirig‘ini bajarish jarayoniga oid elektron taqdimotlar, darsning integratsiyalashgan qiyofasini ta’minlovchi: tabiatshunoslik, matematika, ona tili va odobnoma, jismoniy madaniyat singari fanlararo bog‘liqlikka ishora qiluvchi turli videoroliklarni namoyish etish o‘rinlidir.

Masalan, qog‘ozdan har xil shakl va o‘yinchoqlar yasash san’atiga doir mashg‘ulotda shakli yasalayotgan jonivorga oid ertak, multfilm epizodlari ekranda namoyish etilishi, o‘quvchilar tomonidan mavzuga oid she’r va maqollarning ifodali o‘qib berilishi singari vositalar jarayonni tezlashtiradi, intensivlashtiradi. Qolaversa, tabiat jonzotlarini o‘rganishga qaratilgan “Men kimman?”, tikuv, yopishtirish, yasash, to‘qish topshiriqlarini tez muddatda bajarishga o‘rgatuvchi “Estafeta”, ranglar va shakllarni o‘rgatuvchi “Xo‘p” kabi rivojlantiruvchi o‘yinlarni o‘tkazish ham darsning talab darajasida muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi. Shunday qilib, integratsiyalashgan ta’limning samarasi ta’lim shaklini to‘g‘ri, pedagogik asoslangan tarzda tanlash bilan keskin ravishda bog‘liq bo‘lib, bunda har uch turdagi: ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarning chuqur tahlili talab qilinadi. Predmetlararo integratsiyani, shuningdek, sog‘lom muhit, o‘zaro hurmat va ijodiy hamkorlik hukm surgan pedagogik jamoadagina amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Fanlararo aloqadorlik nazariyasining taraqqiyotida tabaqalashtirilgan holat hukm sursa ham amaliyotda integratsiya, o‘zaro aloqadorlik fanning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan fanlararo aloqadorlik muammolarini hal etishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy hayot talabidir.

Boshlang‘ich maktabda integratsiyani amalga oshiruvchi bo‘g‘in vazifasini o‘qituvchining o‘zi amalga oshiradi. U bolalarning matematikaga, yozishga, tabiat ko‘pgina boshlang‘ich tushunchalarga va yana ko‘pgina narsalarga o‘rgatadi. O‘z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang‘ich sinflarda bir o‘qituvchining dars berishini, integratsiyaning bir usuli deb hisoblasak ham bo‘ladi.Integratsiyani amalga oshirishning usullari yaxshi yoki yomon bo‘lishi mumkin, muammoning mohiyati shundaki, usullarning birlaridan yuz o‘girib, ikkinchisidan barcha darajalarida o‘qituvchilarning (psixologik va fiziologik) yosh xususiyatlarini hisobga oladigan integratsiyalashgan choralar tuzishni kiritishidir.

Muammoning bunday qo‘yilishi integratsiyaning turli ta’lim pog‘onalarida turli xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Boshlang‘ich maktabda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko‘rish maqsadga muvofiq. Ta’limning keyingi pog‘onalaridan u asosiy fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi. Bugungi kunda, ya’ni ta’lim-

tarbiyaning hozirgi zamonaviy bosqichida o‘qituvchining ishlash tizimi tubdan o‘zgarmoqda va pedagogik texnologiyalar,integratsiya-lar, innovatsiyalar amaliyotda keng qo‘llanilmoqda.

O‘quv fanlararo aloqadorlik ta’minlangan sharoitda o‘quvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok qilish qobiliyati, faolliklari, iziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. O‘quv fanlararo aloqadorlikni turli o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlari, darsliklar mutanosibligini ta’minlov-chi didaktik imkoniyat sifatida tushunish lozim.

Chet el ta’limi tajribasi shuni ko‘rsatdiki, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni rivojlantirish uchun asos bo‘luvchi integratsiyalashgan fanlar ko‘pgina mamlakatlar o‘quv dasturlaridan allaqachon joy olgan. Ularda asosiy e’tibor o‘quvchilarga boshlang‘ich ta’lim orqali faqat o‘quv predmetlari asosida bilim berishni emas, balki ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ko‘pgina xorijiy mamlakatlar boshlang‘ich maktablarining o‘ziga xos xususiyati integratsiyalangan kurslar bo‘yicha ta’lim bo‘lib qoldi. Kursning maqsadi bolani dunyo bilan suhbatga tortish, inson, tabiat, jamiyat, fan, san’at bilan suhbatlashadigan; faqat odamlar suhbatlashadigan til bilangina emas, hayvonlar, o‘simliklar tili bilan, rassomlar, musiqachilar, olimlar foydalanadigan til bilan tanishtirishdir. Olamning umumiy ko‘rinishini tovushlar, tasvirlar, ranglar orqali tanishdir; bola esa ham dunyoni, ham o‘zini o‘rganuvchi, tekshiruvchi o‘rniga qo‘yiladi”. Olimlar qarashlari shuni anglatadiki, ta’limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang‘ich sinflardanoq o‘quvchilarda tabiat va jamiyat haqida yaxlit tasavvur uyg‘otish va ularning rivojlanish qonuniyatlariga o‘quvchi munosabatini tarkib toptirishdan iborat.

AQSH o‘rta maktablarining katta sinflarida o‘z ichiga fizika, kimyo, geografiya, geologiya, kristallografiya, tuproqshunoslik, politologiya va shu kabilarni o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich ta’limda integratsiyani amalga oshiruvchi bo‘g‘in vazifasini o‘qituvchining o‘zi amalga oshiradi. U bolalarning arifmetikaga, yozishga, tabiat va ko‘pgina boshlang‘ich tushunchalarga o‘rgatadi. O‘z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang‘ich ta’limda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko‘rish maqsadga muvofiq.

Dars ijodiy, erkin bo‘lishi bilan birga,yaxlit,mantiqan ketma-ket, o‘ziga xos o‘tishi metodikasiga ega bo‘ladi. Umumiy ta’limning poydevorining qo‘yadigan boshlang‘ich maktabdagi ko‘p tushunchalar tabiatshunoslik, rus tili, musiqa,tasviriy san’at va boshqalar uchun umumiydir. Hozirgi kunda bir qator predmetlari uchun umumiy bo‘lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o‘rnatish psixologik va metodik asosiy bo‘lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o‘rgatilishi va zarur o‘qitishning vositalari bilan ta’minlanishi kerak.

Yondosh fanlarni uyg‘unlashtirish asosida tuzilgan kurslar yangi tabiiy fanlar va ilmiy yo‘nalishlar hosil bo‘lishiga olib keldi. Yuqoridagi fikrlarga

tayanib, integratsiyani o‘qituvchilarning turli fanlar bo‘yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbai deb baholash mumkin. Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi bo‘lmay, balki fanlararo sintez bo‘lib, alohida tizimlarning yaqinlashishi, bog‘lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir. Integratsiya ta’lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog‘liqligini ko‘rsatuvchi bilimlarni berish emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog‘lik yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o‘rgatish kerak. Bu maqsadni boshlang‘ich maktab amalga oshirishi kerak. Integratsiya-predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi. Birinchi navbatda tabaqalashni bilimlar orasida bilmagan joylarni to‘ldirish, ular orasidagi aloqalarni o‘rganish lozim. Integratsiya - “butun” degan ma’noni bildiradi, demak, u tafakkurning o‘sish jarayonlari turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirish, alohida tizimlarning yaqinlashishi, bog‘lanishi va yagona narsaning yaratilishilidir.

Maktabda o‘qitiladigan barcha fanlarda integratsiyalashning ma’lum bir imkoniyatlari aks etib, darsni integratsiyalashgan holda tashkil etish bir qator shartlarga bog‘liq. Shuning uchun pedagog va metodistlar yangi dasturni yaratishdan avval, ana shu holatlarning barchasini e’tiborga olishlari lozim. Buning uchun eng avvalo o‘qituvchi sinfning tayyorgarlik darajasini, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini, qiziqishlarini hisobga olishi zarur. Jahon ta’lim tizimini o‘rgangan holda, O‘zbekistonda integratsiyalashgan ta’lim 2022-yildan boshlang‘ich sinflarga joriy etildi. Bu jarayon boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijobiy natijalar ko‘rsatdi. Boshlang‘ich sinflarda tasavvur olamlari kengaya boshladi, ko‘proq ma’lumotlar va bilim ola boshlashdi.

O‘qituvchi darslarni integratsiyalash orqali turli fanlarni kuzatishlari mumkin va olingan xulosalar asosida ma’lumotlarni kengaytirib, tasdiqlab olish imkoniyatiga ega. Ammo ma’lumotlar bazasini o‘quvchilarning yosh xususiyatiga moslab jamlagan ma’qul. Negaki, haddan tashqari ko‘p ma’lumotlar va bolaning yoshiga mos bo‘lmagan tushunchalarning dars davomida qo‘llanilishi o‘quv faoliyatining inqiroziga olib kelishi aniq. Bu jarayonda o‘quvchiga mavzu qiziq tuyilmaydi. Haddan tashqari ko‘p ma’lumotlar uni charchatadi, zeriktiradi, asabiylashtiradi.

Birinchidan, eng asosiysi, bola asosiy negizidagi sodda tushunchani farqlamaydi va o‘zlashtira olmaydi. Buning oldini olish uchun o‘qituvchi yuqorida keltirilgan ilmiy asoslangan manbalar va berilgan takliflarni inobatga olishi kerak. Bayon qilingan pedagogik va psixologik dalillar ta’limning barcha bosqichlarida integratsiyalashning mazmunini yoritib bera olishga xizmat qilishi lozim.

Ikkinchidan, darslarni integratsiyalashgan shaklda tashkil etish nafaqat darsning maroqli va sermazmun o`tishini, balki o`quvchilar dunyoqarashining har tomonlama rivojlanishini kafolatlaydi. Fanlararo bog`liqlik, fanlararo falsafiy masalalarni shaxsan his etmay turib, o`quvchiga integratsiyalashgan mashg`ulotni taqdim etmaslik to`g`ri bo`ladi, zero, anglanmagan integratsiya o`quvchi ongidagi bilish jarayonini mavhum holatga, u orqali chalkash xulosalarga taqab qo`yishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mavlonova R.A. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Metodik qo‘llanma. – T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti, 2005. http:// library.ziyonet.uz/ru/book/33810.
2. “Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi va tarbiya darslarining integratsiyalashuv imkoniyatlari’’. Gulmira Sodiqova 8-IATCHO‘ITM boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.Boshlang‘ich ta’lim gazetasi.2021-yil,10-son,21-bet.
3. “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini fanlarni integratsiyalab o‘qitishga tayyorlash’’. Hayitov Anvar Isomiddin o‘g‘li,TDPU tadqiqotchisi. Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022- yil,3-bet.
4. “Integratsiyalashgan darslarning samaradorligini oshirish va ta’lim prinsiplari’’. Mavlonova. R, Raxmonqulova. N. Boshlang`ich ta`limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Toshkent “O`qituvchi” 2006.
5. Raximqulova Maxbuba Baxronovna. (2024). BUILDING TEACHER’S RESEARCH SKILLS USING SCIENTIFIC METHODOLOGICAL ARTICLES IN SCIENCE TEACHING. *International Journal of Pedagogics*, *4*(05), 131–133. https://doi.org/10.37547/ijp/Volume04Issue05-27

O‘ZGARUVCHAN TA’LIM MUHITIDA ONA TILI O‘QITISH METODLARI INTERAKTIV USULLAR VA O‘YIN TEXNOLOGIYALARI

Uzoqova Maftuna Abdirazzoqovna
Qashqadaryo viloyati Pedagogik mahorat markazi Maktabgacha , boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zgaruvchan ta’lim muhitida ona tili darslarini samarali tashkil etishga doir metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Interaktiv usullar va ta’limiy o‘yin texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada ona tili darslariga mos interaktiv va o‘yin formatlari, ularning afzalliklari hamda amaliy qo‘llanish yo‘llari yoritilgan. Keltirilgan tavsiyalar amaliyotchi o‘qituvchilar uchun foydali metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: ona tili**,** ta’lim muhiti**,**interaktiv metodlar**,** o‘yin texnologiyalari**,** innovatsion pedagogika**,** kommunikativ kompetensiya**,** ijodiy fikrlash**,** metodik yondashuv

Annotation: This article analyzes methodological approaches to organizing effective native language lessons in a changing educational environment. It explores the use of interactive methods and educational game technologies as tools to increase students’ interest in language learning and to develop their communicative and creative competencies. The paper presents applicable interactive and game-based formats suitable for native language lessons,

emphasizing their benefits and practical implementation. The recommendations provided may serve as a valuable methodological resource for practicing teachers.

Key words :native language**,** educational environment**,** interactive methods**,** game technologies**, i**nnovative pedagogy**,** communicative competence**,** creative thinking**,** methodological approach

Аннотация: В статье анализируются методические подходы к эффективной организации уроков родного языка в условиях изменяющейся образовательной среды. Рассматриваются возможности использования интерактивных методов и образовательных игровых технологий для повышения интереса учащихся к языку, развития их коммуникативных и творческих компетенций. В работе представлены подходящие форматы интерактивных и игровых заданий для уроков родного языка, их преимущества и способы практического применения. Предложенные рекомендации могут служить полезной методической основой для практикующих педагогов.

Ключевые слова: родной язык**,** образовательная среда**,** интерактивные методы**,** игровые технологии**,** инновационная педагогика**,** коммуникативная компетентность**,** креативное мышление**,** методический подход.

Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan tub islohotlar, raqamlashtirish jarayoni, ijtimoiy-madaniy muhitning o‘zgarishi va bilimga bo‘lgan yondashuvning yangilanishi natijasida ona tili ta’limiga bo‘lgan talab ham o‘zgarib bormoqda. Ona tili – nafaqat muloqot vositasi, balki o‘quvchining tafakkuri, madaniyati, milliy o‘zligini shakllantiruvchi asosiy vositadir. Shu boisdan, uni o‘qitish metodikasini yangilash, o‘quvchilarda tilga nisbatan qiziqish, mustaqil fikrlash, ifodali nutq ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

An’anaviy yondashuvlarda ona tili ko‘proq nazariy bilimlar berishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, zamonaviy ta’lim o‘quvchini faol subyekt sifatida ko‘rishni, uning kompetensiyalarini shakllantirishni talab qilmoqda. Bu esa dars jarayoniga interaktiv metodlar, o‘yin texnologiyalari, kommunikativ yondashuv, muammo asosidagi o‘rganish kabi yangicha uslublarni joriy etishni taqozo etadi.

O‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, mustaqil tahlil qilish, o‘z fikrini asosli ifoda etish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun darslar mazmunan ham, metod jihatdan ham boyitilishi kerak. Xususan, til materiallarini oddiy yodlash emas, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olishga o‘rgatish – zamonaviy ona tili ta’limining asosiy vazifasidir.

Shuningdek, yosh avlodni axborot oqimida to‘g‘ri fikrlashga, matnlarni tushunish va tanqidiy tahlil qilishga o‘rgatish, raqamli savodxonlik bilan birga lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish hozirgi ta’lim muhitining eng muhim vazifalaridandir.

Shu sababli, ona tili ta’limida quyidagi yo‘nalishlarda yangilanish zarur:

-darslarda faol va hamkorlikka asoslangan metodlarni qo‘llash;

-integrativ yondashuv orqali boshqa fanlar bilan bog‘lanishda til vositasidan foydalanish;

-shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni yo‘lga qo‘yish;

-raqamli texnologiyalardan foydalanib, o‘quv materiallarini zamonaviylashtirish;

-o‘quvchilarning hayotiy tajribasi va qiziqishlariga mos dars modellarini yaratish.

Demak, ona tili ta’limi o‘z oldiga faqat grammatik bilimlarni emas, balki milliy ongni shakllantirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish va ijodiy tafakkurni kengaytirishdek mas’uliyatli vazifalarni qo‘yadi. Bu esa metodik yangilanishni, o‘qituvchilarning doimiy izlanishda bo‘lishini talab qiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayoni o‘quvchiga bilim berishdan ko‘ra uni faol fikrlovchi, mustaqil qaror chiqaruvchi va hayotda o‘z o‘rnini topa oladigan shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, ona tili darslarida ham an’anaviy yodlash va qayta aytish usullaridan voz kechib, o‘quvchini markazga qo‘yuvchi, u bilan hamkorlikda bilim hosil qiluvchi **zamonaviy pedagogik yondashuvlar** muhim o‘rin tutmoqda.

1. Kompetensiyaviy yondashuv

Bu yondashuv o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini integratsiyalash orqali **hayotiy muammolarni hal qilishga tayyor** bo‘lgan shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Ona tili darslarida bu yondashuv:matn ustida ishlash orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish,o‘z fikrini asoslash, muloqotga kirisha olish,axborotni tahlil qilish va taqqoslash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish orqali namoyon bo‘ladi.

2. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv

Bu yondashuv har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini (qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati) hisobga olib darsni tashkil etishni nazarda tutadi. Ona tili darslarida bu quyidagicha amalga oshadi:turli darajadagi topshiriqlar orqali differensial yondashuv,mustaqil tanlov imkoniyatlari (matn, mavzu, topshiriq turi),ijodiy ishlar orqali shaxsiy ifoda va o‘zini anglashga yo‘l ochish.

3. Faol va interaktiv yondashuv

Bu yondashuvda o‘quvchi bilimni tayyor holatda emas, balki faol izlanish, suhbat, guruhiy muhokama orqali o‘zlashtiradi. Darslar:munozara, rolli o‘yinlar, aqliy hujum, klaster tuzish kabi interaktiv metodlar bilan boyitiladi,til birliklarini real hayotiy holatlarga tadbiq etish orqali mazmunli o‘rganish yuzaga keladi.

4. Konstruktivistik yondashuv

Bu yondashuv o‘quvchining mavjud bilimlariga tayangan holda yangi bilimni o‘z tajribasi asosida “qurish” g‘oyasiga asoslanadi. Ona tili darslarida bu:o‘quvchilarning o‘z fikrini shakllantirish,matnni tahlil qilish va undan o‘z xulosasini chiqarish,turli manbalarni solishtirish orqali bilimni chuqurlashtirishda qo‘llaniladi.

5. Muammoli ta’lim yondashuvi

O‘quvchilarni faol fikrlashga undovchi, darsda savollar va muammolar orqali o‘rganishni tashkil etuvchi yondashuvdir. Masalan: “Nega bu gapda nuqta

emas, savol belgisi qo‘yilgan?”, “Muallif bu fikr orqali nimani nazarda tutgan?” kabi savollar orqali o‘quvchilar tahlilga jalb qilinadi.

6. Integrativ yondashuv

Ona tili darslarida boshqa fanlar bilan bog‘liq holatda ishlash – bilimlarni umumlashtirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish imkonini beradi. Masalan:tarixiy matnlarni o‘rganish (tarix bilan bog‘liq),biologik hodisalar haqidagi matnlarni tahlil qilish (biologiya bilan bog‘liq) orqali fanlararo aloqa yuzaga keladi.

Interaktiv usullar va ularning mohiyati

Zamonaviy ta’limda o‘qituvchi endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchining mustaqil fikrlashini, muloqotga kirishishini va faol ishtirokini ta’minlovchi shaxsga aylangan. Shu bois dars jarayonida **interaktiv usullardan foydalanish** – ta’lim sifatini oshirishning muhim shartidir.

Interaktiv usul nima?

“Interaktiv” so‘zi lotincha “interaction” – o‘zaro ta’sir, aloqadorlik degan ma’noni anglatadi. Interaktiv usullar – bu o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasida **faol hamkorlik** asosida bilim hosil qilishga xizmat qiladigan metodlardir. Ular:o‘quvchilarni darsga faol jalb etadi,muloqot, fikr almashinuvi va hamkorlikni kuchaytiradi,ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Interaktiv metodlarning asosiy xususiyatlari:

1. **Faollik** – o‘quvchilar darsning passiv tinglovchisi emas, faol ishtirokchisiga aylanishadi.
2. **O‘z fikrini ifoda qilish** – har bir o‘quvchi o‘z mulohazasi bilan baham ko‘radi.
3. **Bahs va munozara** – qarama-qarshi fikrlar o‘rtasida muloqot yuzaga keladi.
4. **Jamoaviy ish** – guruhiy faoliyat orqali o‘rganish samarador bo‘ladi.
5. **O‘rganilgan bilimlarni amalda qo‘llash** – interaktiv usullar bilimni faqat yodlash emas, balki tahlil qilish va real holatlarda ishlatishga o‘rgatadi.

Ona tili darslarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan asosiy interaktiv usullar:

1. “Aqliy hujum” (Brainstorming)

- O‘quvchilar biron muammo yoki savol yuzasidan fikrlarini erkin bildiradilar.
- Har qanday g‘oya muhim hisoblanadi, tanqidga yo‘l qo‘yilmaydi.
- Misol: "Ona tili nimaga kerak?" mavzusida fikrlar yoziladi va umumlashtiriladi.

2. “Klaster” usuli

- Asosiy mavzu atrofida bog‘liq tushuncha, fikr va iboralarni yozish orqali tushunchalar tarmog‘i tuziladi.
- Til birliklarini tizimlashtirishda qo‘llaniladi. Masalan, “ot” so‘z turkumi atrofida uning turlari, morfologik belgilarini yozish.

3. “Blits so‘rov”

- Tezkor savol-javob shaklida o‘quvchilarning bilim darajasi yoki darsda ishtirokini faollashtirish uchun ishlatiladi.
- Har bir o‘quvchi javob berishga harakat qiladi.

4. “Insert” usuli

- Matn o‘qish davomida belgilar orqali o‘quvchi o‘z fikrini bildiradi: ✓ – bilganim, ✕ – yangilik, ? – tushunarsiz, + – qiziq.
- O‘quvchi matnni chuqur tahlil qiladi va o‘zini anglaydi.

5. “Sinkveyn” (besh qatorlik she’r)

- O‘quvchilar o‘rganilgan mavzu bo‘yicha 5 qatordan iborat qisqa ifodali she’r tuzadilar.
- Bu usul ijodiy yondashuv va ifoda ko‘nikmasini rivojlantiradi.

6. “Fikrlar charxi” (Rotatsiya usuli)

- Guruhlar bir xil savolga turli yo‘nalishda javob berib, bir-birining javoblarini to‘ldirib boradi.
- Bu usul muloqotni va umumlashtirish ko‘nikmasini kuchaytiradi.

Interaktiv usullarning afzalliklari:

- O‘quvchilar fikrlaydi, savollar beradi, bahslashadi, mustaqil qaror qabul qiladi.
- Har bir o‘quvchining darsdagi ishtiroki ta'minlanadi.
- Bilimlar chuqurroq va barqarorroq o‘zlashtiriladi.
- O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida iliq muhit shakllanadi.

Ta’limiy o‘yinlar tushunchasi:

Ta’limiy o‘yinlar — bu o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash, rivojlantirish hamda ularda qiziqish uyg‘otish maqsadida dars jarayonida qo‘llaniladigan maxsus didaktik faoliyat shaklidir. Ular darsning mazmunini o‘quvchi uchun qiziqarli, faol, musobaqali, mantiqiy va ijodiy harakat orqali o‘zlashtirish imkonini beradi.

Ta’limiy o‘yinlar nafaqat bolalarning e’tiborini jalb etadi, balki ularning:mustaqil fikrlash,nutqiy faollik,tezkorlik,ijodkorlik,muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ta’limiy o‘yinlarning turlari:

Turi	Ta’rifi va xususiyatlari
Didaktik o‘yinlar	Til materiallarini mustahkamlash, tahlil qilish uchun yaratilgan maxsus qoidali o‘yinlar (masalan, “So‘z top”, “Topishmoq o‘yini”).
Rolli o‘yinlar	O‘quvchilar turli rollarni ijro etib, muloqot orqali tilni o‘zlashtiradilar (masalan, “Savdo rastasi”, “Intervyu olish”).
Simulyativ o‘yinlar	Hayotiy holatlarni sun’iy tarzda yaratib, til ko‘nikmalarini mashq qilishga qaratilgan o‘yinlar (masalan, “Televideniya studiyasi”, “Sud jarayoni”).
Mantiqiy o‘yinlar	Tahlil, taqqoslash, xulosa chiqarishga asoslangan (masalan, “Ketma-ketlikni aniqlang”, “Ortiqcha so‘zni top”).
Konstruktor	Matndan so‘zlar, gaplar, iboralar yasash, tuzish asosida

Turi	Ta’rifi va xususiyatlari
o‘yinlar	quriladigan o‘yinlar (masalan, “Gap tuzing”, “Matnni tikla”).
Intellektual o‘yinlar	“Zakovat”, “Kim chaqqon?”, “Kim ko‘p so‘z biladi?” kabi bilim sinoviga asoslangan o‘yinlar.

Ona tili darslariga mos o‘yin formatlari

Quyida ona tili darslarida qo‘llash mumkin bo‘lgan **amaliy o‘yin formatlari** keltirilgan. Ular grammatika, imlo, nutq madaniyati, matn bilan ishlash kabi mavzularni o‘rgatishda qo‘llaniladi:

1. “So‘z yovini yeng” (imlo va leksika uchun)

- Doskaga noto‘g‘ri yozilgan so‘zlar yoziladi.
- O‘quvchilar navbati bilan xatoni tuzatadi. Har to‘g‘ri javob – 1 ball.
- Bu o‘yin orfografik savodxonlikni oshiradi.

2. “So‘z zanjiri” (so‘z boyligini oshirish uchun)

- O‘quvchilar bir so‘z aytadi, navbatdagisi shu harf bilan boshlanuvchi yangi so‘z topadi.
- Faqat sifat, fe’l yoki ot turkumidagi so‘zlar bilan chegaralash ham mumkin.

3. “O‘xshash – farqli” (gap va matn tahlili uchun)

- Ikkita gap yoki matn beriladi. O‘quvchilar o‘xshash va farqli jihatlarini aytib beradilar.
- Bu tahliliy fikrlash va muhokama qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

4. “Qaysi gap to‘g‘ri?” (gap tuzish va sintaksis)

- Berilgan so‘zlar aralash holatda beriladi. O‘quvchilar to‘g‘ri gap tuzishlari kerak.
- Har bir guruh bir xil topshiriq ustida ishlaydi va eng to‘g‘ri, mantiqli gap variantini himoya qiladi.

5. “Matnni tikla” (matn ustida ishlash)

- Matn parchalari aralashtirib beriladi. O‘quvchilar ularni mantiqiy tartibda joylashtiradilar.
- Matn strukturasi, mazmunini tushunish va ifodali o‘qishga xizmat qiladi.

6. “Rolli suhbat” (nutq madaniyati)

- O‘quvchilar savdochi-mijoz, jurnalist-mehmon, ustoz-o‘quvchi rollarini ijro etadilar.
- Suhbat davomida to‘g‘ri talaffuz, odobli nutq, izchillik mashq qilinadi.

7. “Zakovat – tilga doir viktorina”

- Ona tiliga oid savollardan iborat musobaqa o‘tkaziladi.
- Guruhlar raqobat asosida ishlaydi, bilimlar umumlashtiriladi.

Xulosa. Ta’limiy o‘yinlar – bu shunchaki vaqtni chog‘ o‘tkazish emas, balki darsda o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlovchi, bilimni ongli va qiziqarli tarzda o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi vositadir. Ona tili darslarida turli o‘yin formatlaridan foydalanish:dars jarayonini jonlantiradi,darslikdagi qiyin mavzularni

osonlashtiradi,o‘quvchilarning bilimga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantiradi,ijodiy va og‘zaki nutqni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.To‘xtasinova, G. T. (2020). *Ona tili va adabiyot darslarida innovatsion metodlar*. Toshkent: «Ilm ziyo» nashriyoti. – B. 45–72.

2. Sattorov, M. Sh. (2019). *Pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar*. Toshkent: «Fan va texnologiya». – B. 88–113.

3. Qurbonova, M. A. (2021). *Ta’limda o‘yin texnologiyalari: nazariya va amaliyot*. Samarqand: «Zarafshon». – B. 22–54.

4. Axmedova, D. M. (2022). *Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi*. Toshkent: «Yangi asr avlodi». – B. 67–101.

5. Vygotsky, L. S. (2005). *Pedagogik psixologiya*. Moskva: «Aprel Press». – B. 150–177.

6. Jonassen, D. H. (2000). *Learning as Activity: A Constructivist Approach*. New York: Routledge. – pp. 35–64.

AKMEOLOGIK MEXANIZMLAR ASOSIDA OLIY HARBIY TA’LIM MUASSASALARI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Qurbonov G‘ani Abilovich,
O‘zbekiston Milliy universiteti
Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi
katta o‘qituvchisi, dotsent, podpolkovnik,
ganizhonkurbanov@gmail.com,
+998-97-7772825

Annotatsiya. *Mazkur maqola oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy va uslubiy asoslarini ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘qituvchi, oliy harbiy ta’lim muassasasi, akmeologiya, mexanizm, kasbiy mahorat, xorijiy tajriba.*

Аннотация. *В данной статье раскрыты научно-методические основы развития профессиональной компетенции преподавателей высших военных образовательных учреждений.*

Ключевые слова: *преподаватель, высшее военное образовательное учреждение, акмеология, механизм, профессионализм, зарубежный опыт.*

Abstract. *This article reveals the scientific and methodological foundations for developing the professional competence of teachers of higher military educational institutions.*

Key words: *teacher, higher military educational institution, acmeology, mechanism, professionalism, foreign experience.*

Globallashuv sharoitida oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Har doim malakali o‘qituvchilar jamiyat rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, uning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishini ta’minlashda etakchi o‘rinni egallagan. O‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi “kompetentlik” darajasi tushunchasida o‘z ifodasini topadi. Har qanday sohadagi mutaxassisning kasbiy kompetensiyalar uning amaliy faoliyatga tayyorgarlik darajasini baholashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda o‘qituvchilarning malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Har bir o‘qituvchi uchun kasbiy faoliyatni tashkil etishda kompetensiyasini namoyon etish zarur. Kompetensiya mutaxassis tomonidan nazariy bilimlarni, amaliy ko‘nikmalarni chuqur o‘zlashtirishni, kasbiy tajriba va shaxsiy fazilatlar majmuasining mavjudligini va ulardan bevosita amaliyotda samarali foydalanishni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining kasbiy malakasi uning amaliy faoliyatga tayyorgarlik darajasini baholashda muhim ahamiyatga ega. Har bir o‘qituvchi uchun kasbiy faoliyatni tashkil etishda kompetentsiya fazilatlarini namoyon etish zarur.

O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ularning faoliyati samaradorligini oshirishga qiziqish va intilishlarini shakllantirishga ta’sir qiladi. Kompetensiya mutaxassis tomonidan nazariy bilimlarni, amaliy ko‘nikmalarni chuqur o‘zlashtirishni, kasbiy tajriba va shaxsiy fazilatlar majmuasining mavjudligini va ulardan bevosita amaliyotda samarali foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun “kompetensiya” tushunchasi qo‘llaniladi. Har qanday sohadagi kasbiy kompetensiya deganda, mutaxassisning amaliy faoliyatga tayyorligi tushuniladi. Bu erda tayyorgarlik darajasini baholash juda muhimdir. Shuning uchun so‘nggi yillarda O‘zbekistonda o‘qituvchilarning malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy davlatlar ham tobora ko‘proq ma’lumot va bilimlarga tayanmoqdalar. Buning uchun quyidagilar talab qilinadi: axborot bilan ishlash uchun innovatsion va raqamli texnologoyalaridan qanday foydalanishni biladigan, aks ettirishga, muammolarni hal qilishga va yangi bilimlarni ishlab chiqarishga qodir mutaxassislarni tarbiyalash; har kimga ko‘proq bilimdon va topqir bo‘lishga yordam berish, ularning hayotiy traektoriyasini samarali boshqarish, to‘laqonli va band hayotdan zavqlanish; barcha fuqarolarni jamiyatda to‘liq ishtirok etishga undash, ularning hayotiga ta’sir qilishi mumkin; madaniyatlararo tushunishni rag‘batlantirish va nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga ko‘maklashish. Ushbu vazifalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari bilan belgilanadi va zamonaviy dunyoda ta’lim tizimlari ishining asosini tashkil etadi. Ushbu maqsadlarga o‘qituvchilarning tegishli tayyorgarligisiz erishish mumkin emas. Shu sababli, YUNESKO axborot texnologiyalarini yaratish bo‘yicha jahon yetakchilari va maktabni axborotlashtirish sohasidagi yetakchi ekspertlar bilan hamkorlikda o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kompetensiyasiga qo‘yiladigan talablarni YUNESKO (UNESCO ACT Competency Framework for

Teachers) qayd etuvchi xalqaro tavsiyalar ishlab chiqdi. Ushbu vazifalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari bilan belgilanadi va zamonaviy dunyoda ta’lim tizimlari ishining asosini tashkil etadi. Mazkur maqsadlarga o‘qituvchilarning tegishli tayyorgarligisiz erishish mumkin emas. Ushbu talablarga javob beradigan o‘qituvchilar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta’minlangan ta’lim muhitida o‘quv jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishga qodir. YUNESKOning tavsiyalari shuni ta’kidlaydiki, zamonaviy o‘qituvchi texnologik jihatdan savodli bo‘lishi va kursantlarda tegishli texnologik ko‘nikma va malakalarni shakllantirish kerak. Zamonaviy o‘qituvchi kursantlarga muvaffaqiyatli hamkorlik qilish, yuzaga keladigan muammolarni hal qilish, ko‘nikmalarini o‘rganish va natijada to‘laqonli fuqarolar va mutaxassis bo‘lish uchun AKTdan foydalanishda yordam berishi kerak.

Shunday qilib, tavsiyalar o‘qituvchilar ishining barcha jihatlariga ta’sir qiladi. Ular orasida: axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’limdagi rolini tushunish (ta’lim siyosati bilan tanishish, ta’lim siyosatini tushunish, innovatsiyalarni boshlash); o‘quv dasturi va baholash (asosiy bilimlar, bilimlarni qo‘llash, bilimlar jamiyati aholisining ko‘nikmalari); pedagogik amaliyotlar (axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, murakkab muammolarni hal qilish, o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyati); texnik va dasturiy vositalar (asosiy texnologiyalarni tarqatadigan asboblar, murakkab vositalar); o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish (o‘quv ishlarining an’anaviy shakllari, hamkorlik guruhlari, o‘quv tashkiloti); kasbiy rivojlanish (kompyuter savodxonligi, yordam va murabbiylik, o‘qituvchi kursant ustasi sifatida).

Tavsiyalar ta’limni axborotlashtirishga uchta yondashuvni hisobga olgan holda tuzilgan bo‘lib, ular axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta’minlangan ta’lim muhitida ishlashni o‘zlashtirgan o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishining tegishli bosqichlari bilan bog‘liq. Birinchi yondashuv – “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash” – o‘qituvchilardan kursantlarga o‘quv ishlari samaradorligini oshirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda yordam berish qobiliyatini talab qiladi. Ikkinchisi – “Bilimlarni o‘zlashtirish” – o‘qituvchilardan kursantlarga o‘quv fanlari mazmunini chuqur o‘zlashtirishda yordam berish, olingan bilimlarni real dunyoda yuzaga keladigan murakkab muammolarni hal qilishda qo‘llash qobiliyatini talab qiladi. Uchinchisi – “Bilim ishlab chiqarish” – o‘qituvchilardan kursantlarga yordam berish, jamiyatning barkamol rivojlanishi va gullab-yashnashi uchun zarur bo‘lgan yangi bilimlarni ishlab chiqarish va yaratish qobiliyatini talab qiladi. YUNESKO hujjatlarida hamma tomonidan ta’limning istalgan natijasi sifatida ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan kompetentsiyalar doirasi qayd etilgan. Xalqaro ta’lim komissiyasining hisobotida J.Delor ta’limga asoslangan “to‘rtta ustun”ni shakllantirdi (bilishni o‘rganish, qilishni o‘rganish, birgalikda yashashni o‘rganish, yashashni o‘rganish) va asosiy global kompetensiyalarni aniqladi. J.Delorga ko‘ra, ulardan biri “nafaqat kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lish uchun, balki turli xil ko‘p vaziyatlarni hal qilish va guruhda ishlash imkoniyatini beradigan kompetensiyani yanada kengroq o‘rganish”.

Davlatimiz rahbariyati tomonidan bu masalani samarali yechishda respublikada bir qancha ishlar amalga oshirildi: 1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil qaroriga asosan 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab Toshkent shahridagi oliy ta’lim muassasalaridagi 11 harbiy kafedralari asosida O‘zbekiston milliy universitetida Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi tashkil etildi. 2) O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining qaroriga binoan 2021-2022 o‘quv yilida oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari pedagogika yo‘nalishi bo‘yicha magistraturaga o‘qishga qabul qilindi. 3) O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2022-yil 28-iyundagi 469-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasining Harbiy xavfsizlik va davlat mudofaasi fakultetiga 2023-yilda nomzodlarni o‘qishga qabul qilishni tashkillashtirish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi buyrugi qabul qilindi. 4) O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarining 2022-yil 10-noyabrdagi 169-sonli “2022-2023 o‘quv yilidan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasining Harbiy xavfsizlik va davlat mudofaasi fakulteti magistraturasining sirtqi ta’limiga nomzodlarni saralash va qabul qilish to‘q‘risida”gi buyrugiga asosan oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari harbiy pedagogika va psixologiya yo‘nalishi bo‘yicha magistraturaga o‘qishga qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning [1] 5-bob “Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi” 44-moddasining 1-xatboshida “Tegishli ma’lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega” va 2-xatboshida “Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, pedagogik oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o‘tganidan keyin ta’lim tashkilotlarida (bundan oliy ta’lim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi beriladi” deb belgilangan.

Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta’lim muassasalarini magistr darajasidagi oliy ma’lumotga ega kadrlar bilan butlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari magistraturalarida o‘qitishni harbiy xizmatchilarning o‘z hisoblaridan to‘lov-kontrakt asosida 2021-2022 o‘quv yilidan tashkillashtirildi.

Ilmiy va pedagogik kadrlarni tayyorlashning mavjud tizimi oliy harbiy ta’lim muassasasining o‘qituvchilar korpusi yangi ijtimoiy buyurtmasini etarlicha hisobga olmaydi, bu tadqiqotni o‘tkazishning zarurligini tasdiqlaydi va asosiy aspektlarni ajratib ko‘rsatishga imkon beradi: o‘qituvchilar tomonidan yuqori darajadagi professionallikka erishishda “Oliy harbiy ta’lim muassasasi o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish” toifasidagi oliy harbiy ta’lim pedagogikasida ishlab chiqilmaganligi; oliy harbiy ta’lim muassasasi harbiy ta’lim muassasalari kursantlarini kasbiy tayyorlashning yangi sifatli darajasida amalga oshirishning dolzarb ehtiyoji; oliy harbiy ta’lim muassasasilari o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasiga bugungi kunda zamonaviy yuqori talablar qo‘yilganligi; oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining kasbiy

kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish zarurati mavjudligi. Muammoni hal qilish ushbu hodisaning mohiyatini alohida ko‘rib va uni tashxislash usullarini ishlab chiqishni, namoyon bo‘lishni rag‘batlantirishni, pedagogik jarayonning to‘liq omiliga aylanishni talab qiladi, uning uslubiy asosi falsafiy, psixologik, pedagogik, sotsiologik, tarixiy tushunchalar shaxs, faoliyat, individuallik va kasbiy madaniyat kiradi. Mavzuning dolzarbligini aniqlashtirishda, biz, oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining pedagogik ish stajiga e’tibor berdik. Bugungi kunga O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qoshidagi 6 ta oliy harbiy ta’lim muassasalarida 238 o‘qituvchilar faoliyat olib bormoqda.

Shulardan asosiysi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safidagi harbiy xizmatchilardan iborat bo‘lib, ular oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchi lavozimlariga qo‘yilgan va pedagogik staji kamligi va yoqligi aniqlandi. Bu masalani hal qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni [2] qabul qilindi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ular oliy harbiy ta’lim muassasasi o‘qituvchisiga alohida talablar qo‘yishni boshladilar. Uning asosiy vazifasi endi bilimlarni saqlash va uzatish emas, balki kursantlarda o‘z-o‘zini tarbiyalash istagi va bilimlarni ijodiy o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

Bugungi kunda nafaqat hozirgi paytda dunyodagi olimlar tomonidan bildirilgan fikrlarga tayanish lozim, balki xalqimizga meros bo‘lib qolgan alloma va mutafakkirlarning goyalari biz uchun juda qimmatli ekanligi davr taqozo etmoqda. Chunki, O‘zbekiston qadimdan ilmu-ma’rifat markazi, madaniyat o‘chog‘i bo‘lib kelgan. Shu bois, yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarning ilmiy-ma’naviy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

O‘rta asrlarda yashab ijod qilgan Sharq allomalari va mutafakkirlarining ilmiy-ma’naviy merosi, jahon ilm-fani, sivilizatsiya rivojiga qo‘shgan bebaho hissasi dunyo olimlari hamda jahon hamjamiyati tomonidan hamisha yuksak e’tirof etiladi.

Oliy harbiy ta’lim muassasasi o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muhim pedagogik zaruriyat hisoblanib, ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish hamda natijadorlikni ta’minlash bilan birga ayrim hollarda yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunning global va ijtimoiy o‘zgarishlari ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarning zaruriyatini keltirib chiqaradi. Zamonaviy talablar asosida o‘qituvchilarning ta’lim jarayonida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son Farmoni: https://lex.uz/uz/docs/-7499721

XORIJIY TILLARNI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ZAMONAVIY YECHIMLAR

Normamatova Kamola
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Tillarni o’qitish metodikasi kafedarasi Ingliz tili o’qituvchisi
normamatovakamoal32@gmail.com
+998938712023

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish bilan bog‘liq muammolar va ularni bartaraf etishning zamonaviy yondashuvlari tahlil etiladi. Xususan, o‘qituvchi tayyorlash kontekstida metodik tayyorgarlik, texnologik vositalardan foydalanish, baholash usullarining takomillashuvi va interaktiv metodlar qo‘llanilishi yoritiladi

Kalit so‘zlar: xorijiy til, o‘qitish metodikasi, o‘qituvchi tayyorlash, CLIL, TPRS, zamonaviy ta’lim, innovatsion yondashuv Sun’iy intellect, O‘quv motivatsiyasi, Raqamli ta’lim vositalari

Annotation: This article examines the challenges of improving foreign language teaching methodology and presents modern solutions to overcome them. In particular, it highlights the importance of teacher training, digital technologies, assessment tools and interactive learning in the context of teacher education.

Key words: foreign language, teaching methodology, teacher education, CLIL, TPRS, modern education, innovative approach Artificial intelligence (AI),Learning motivation ,Digital learning tools

Аннотация: В статье рассматриваются проблемы совершенствования методики преподавания иностранных языков и предлагаются современные решения этих проблем. Особое внимание уделено подготовке учителей, использованию цифровых технологий, совершенствованию методов оценки и применению интерактивного обучения в контексте подготовки преподавателей.

Ключевые слова: иностранный язык, методика преподавания, подготовка учителей, CLIL, TPRS, современное образование, инновационные подходы Искусственный интеллект,Учебная мотивация,Цифровые образовательные средств

XXI asrda ta’lim jarayonining sifatini oshirish global miqyosda ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, xorijiy tillarni o‘rganishga va o‘qitishga qaratilgan yondashuvlar yangilanmoqda, chunki til bilimi nafaqat madaniyatlararo muloqot vositasi, balki shaxsning intellektual va professional rivojlanishida muhim omildir. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi ham xorijiy tillarni o‘qitish tizimini takomillashtirish bo‘yicha tub islohotlarni amalga oshirmoqda.Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2021-yil 19-mayda imzolangan “Xorijiy tillarni o‘rganish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi PQ–5117-sonli qarorga ko‘ra, mamlakatda “Yoshlarning kamida ikki xorijiy tilni puxta o‘zlashtirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish” vazifasi belgilangan [1]. Ushbu strategik hujjat xorijiy tillarni o‘rgatishda zamonaviy metodikalarning, raqamli texnologiyalarning, innovatsion vositalarning ahamiyatini ta’kidlaydi. Shunga qaramay, amaliyotda hali ham an’anaviy metodik yondashuvlarning ustuvorligi, o‘qituvchilarning zamonaviy metodik bilimlar bilan to‘liq qurollanmaganligi, baholash tizimining faollikka emas, bilimga yo‘naltirilganligi kabi bir qator muammolar mavjud... Shu sababli, xorijiy tillarni o‘qitishda metodikani takomillashtirish masalasi faqat bir yo‘nalishli muammo emas, balki ko‘p qirrali, tizimli yondashuvni talab qiladigan kompleks jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayondagi ba’zi muhum muommolar shundan iboratki:

1.1. An’anaviy yondashuvlar ustuvorligi

Xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida hanuzgacha grammatik tarjima usuli (Grammar-Translation Method) asosiy metodlardan biri sifatida qo‘llanilmoqda. Ushbu yondashuvda o‘quvchilar grammatik qoidalarni yodlab, so‘zlarni tarjima qilishga e’tibor qaratadilar. Bu metodning afzallik jihatlari bo‘lishiga qaramay, uning asosiy kamchiligi shundaki, o‘quvchilar real hayotiy muloqotga tayyor bo‘la olmaydilar. Gapirish, tinglab tushunish, erkin fikr bildirish kabi asosiy kommunikativ kompetensiyalar bu metodda yetarli darajada shakllanmaydi. [2].Shunday qilib, xorijiy tillarni o‘qitish metodikasida kuzatilayotgan muammolar tizimli yondashuvni, metodik yangilanishlarni, texnologik integratsiyani va baholashni yangicha qarashda tashkil qilish zarurligini ko‘rsatmoqda.

1.2. O‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi

Metodik tayyorgarlikning yetishmasligi bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilari uchun dolzarb muammolardan biridir. Oliy ta’lim muassasalarida metodik fanning nazariy asoslarini o‘rganish yuqori saviyada yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, ularning amaliy qo‘llanilishi past darajada qolmoqda. Bundan tashqari, bo‘lajak o‘qituvchilarda reflektiv yondashuv, ya’ni o‘z faoliyatini tahlil qilish va undan xulosa chiqarish kompetensiyasi ham sust rivojlangan. Shu sababli, pedagogik amaliyot dasturlari qayta ko‘rib chiqilishi va unda innovatsion metodlar bilan ishlash ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratilishi lozim [3]

1.3. Texnologik vositalardan foydalanishdagi cheklovlar

Zamonaviy ta’limning ajralmas qismi hisoblangan raqamli texnologiyalar xorijiy til o‘qitishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, ko‘plab o‘qituvchilar zamonaviy platformalar, ilovalar va sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalana olmayaptilar..Ko‘plab maktablarda darslarda texnologiyalardan foydalanish faqatgina prezentatsiya ko‘rsatish yoki video tomosha qilish bilan cheklanadi, interaktivlik, moslashuvchanlik va o‘quvchilarning mustaqil ishlash imkoniyati esa cheklangan bo‘ladi. Shuning uchun ham xorijiy til o‘qituvchisi nafaqat texnik jihatdan, balki metodik jihatdan ham zamonaviy vositalarni darsga integratsiyalashni o‘rganishi lozim. Bu esa o‘z navbatida ta’limda sifat va samaradorlikni oshiradi [4]

1.4. Baholash tizimining samaradorligi pastligi

Xorijiy tillarni o‘rgatishda baholash usullarining ham zamonaviylashtirilishi zarur. Hozirgi amaliyotda an’anaviy baholash turlari – yozma testlar, diktantlar va tarjimalar asosiy vosita sifatida qo‘llaniladi. Biroq bu yondashuv o‘quvchilarning til kompetensiyasini har tomonlama baholay olmaydi. Shunday qilib, xorijiy tillarni o‘qitish metodikasida kuzatilayotgan muammolar tizimli yondashuvni, metodik yangilanishlarni, texnologik integratsiyani va baholashni yangicha qarashda tashkil qilish zarurligini ko‘rsatmoqda

Zamonaviy ta’lim jarayonida chet tilini o‘rgatish bo‘yicha eng samarali metodikalar

2.1.CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodikasi- ushbu yondashuv o‘quvchilarga fan mazmunini va tilni bir vaqtning o‘zida, integratsiyalashgan tarzda o‘zlashtirish imkonini beradi. CLIL metodikasi ingliz tilini o‘rgatishda ayniqsa samarali bo‘lib, unda darslar biologiya, tarix, informatika kabi fanlar orqali chet tilida olib boriladi. Bu esa tilni real hayotiy kontekstda qo‘llash imkonini yaratadi.CLIL metodikasining asosiy tamoyili shundan iboratki, o‘quvchi o‘ziga tanish bo‘lgan yoki kundalik hayot bilan bog‘liq mavzular asosida chet tilini o‘rganadi. Bu yondashuv faol o‘rganish, real kommunikativ muhit va mazmunli til ishlatilishini talab etadi. O‘qituvchi nafaqat lingvistik maqsadlarni, balki predmet mazmunini ham puxta rejalashtirgan holda o‘quvchilarga yetkazadi.[8] CLIL metodikasi to‘rt asosiy tarkibiy qismga asoslanishini ta’kidlaydilar:Content (Mazmun) – aniq bir fan yoki predmet mazmuni;Communication (Kommunikatsiya) – til orqali fikr almashinuvi va muloqot qilish;Cognition (Kognitsiya) – tanqidiy va ijodiy fikrlash jarayoni;Culture (Madaniyat) – global va madaniy ongni rivojlantirish.Ayni paytda CLIL metodikasining muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun o‘qituvchilarda ikki yo‘nalishda: fan mazmuni va chet tili metodikasi bo‘yicha malaka bo‘lishi lozim. [5] Bu esa ularning kelajakda xorijiy oliy ta’limda yoki xalqaro IT-kompaniyalarda faoliyat yuritishiga mustahkam zamin yaratadi.

2.2. TPRS metodikasi-TPRS (Teaching Proficiency through Reading and Storytelling) — bu chet tilini o‘rgatishning innovatsion metodikasi bo‘lib, u hikoya qilish va o‘qish orqali tilni tabiiy va samarali o‘zlashtirishga asoslanadi

TPRS metodikasining uch bosqichi:Ma’noni aniqlash (Establish meaning): O‘qituvchi yangi so‘z va iboralarni tanishtiradi, ularning ma’nosini tushuntiradi va talabalar bilan birgalikda ularni muhokama qiladi.[6]

Hikoya qilish (Ask a story): O‘qituvchi va talabalar birgalikda yangi o‘rgatilgan so‘z va iboralarni o‘z ichiga olgan hikoya yaratadilar. Bu jarayonda talabalar faol ishtirok etadilar, savollarga javob beradilar va hikoyani rivojlantiradilar.

O‘qish (Read and discuss): Talabalar yaratilgan hikoyani o‘qiydilar va uni muhokama qiladilar. Bu bosqichda o‘qituvchi grammatikani qisqa izohlar ("pop-up grammar") orqali tushuntiradi.TPRS metodikasi chet tilini o‘rgatishda samarali va qiziqarli yondashuv bo‘lib, u talabalarining til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, til ko‘nikmalarini rivojlantiradi va o‘qituvchilarga darslarni interaktiv tarzda tashkil etishda yordam beradi. Shuning uchun ushbu metodikani

O‘zbekiston ta’lim tizimida joriy etish orqali chet tillarni o‘rgatish sifatini oshirish mumkin.

2.3.Interaktiv ta’lim vositalarini qo‘llash

Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Bunday texnologiyalar orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim materiallarini taqdim etishi, ularni mustaqil ishlashga jalb qilishi mumkin.

Quyidagi raqamli vositalar o‘z samarasini ko‘rsatmoqda:

Mobil ilovalar – Duolingo, Quizlet, Kahoot, Photomath, ClassDojo kabi ilovalar orqali til o‘rganish, so‘z boyligini kengaytirish, grammatika mashqlari, matematika amaliyotlari interaktiv tarzda o‘rganiladi. Sun’iy intellekt asosidagi vositalar – ChatGPT, Google Translate, Grammarly kabi AI platformalari o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini tuzatishga, savollarga javob topishga, individual maslahatlar olishga xizmat qiladi.Virtual sinflar – Zoom, Microsoft Teams, Google Classroom platformalari yordamida masofaviy darslar tashkil etilishi, video sharhlar, topshiriqlar, baholash jarayonlari avtomatlashtiriladi.

2.4. O‘qituvchilar uchun doimiy malaka oshirish kurslarini tashkil etish

Malaka oshirish kurslari quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etilishi lozim:

-Metodik treninglar

-Psixologik tayyorgarlik

-Axborot texnologiyalari bo‘yicha tayyorgarlik

-Amaliy mashg‘ulotlar

Hamkasblar bilan tajriba almashish

Bunday kurslar nafaqat bilimni, balki motivatsiya va yangilikka ochiqlikni ham oshiradi. Shu bilan birga, o‘qituvchining o‘z ustida ishlash madaniyatini shakllantiradi, bu esa ta’lim sifatining uzluksiz o‘sishiga zamin yaratadi.

Xulosa. Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish zamonaviy ta’lim jarayonining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu jarayon o‘qituvchi tayyorlash va ularning kasbiy salohiyatini oshirish bilan chambarchas bog‘liq..Yuqorida ko‘rib chiqilgan masalalar — metodik yondashuvlarning eskirishi, interaktiv texnologiyalardan cheklangan foydalanish, baholash tizimining samaradorligi pastligi va o‘qituvchilarning zamonaviy bilimlarga ega emasligi — xorijiy til o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada pasaytirayotgan omillardir. Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi strategik chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:Zamonaviy metodikalarni joriy etish: CLIL, task-based learning, gamifikatsiya, kommunikativ yondashuv, STEAM asosidagi integrativ darslar orqali til o‘rganishni hayotiy kontekstga yaqinlashtirish;Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish: mobil ilovalar, ta’limiy platformalar, AI yordamchilar orqali o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga rag‘batlantirish va differensial yondashuvni qo‘llash;Malaka oshirish tizimini institutsional asosda takomillashtirish: o‘qituvchilar uchun doimiy treninglar, vebinarlar, ustoz-shogird tizimi, xalqaro tajriba almashuv dasturlari orqali ularning kasbiy kompetensiyasini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tillarni o‘qitish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan har qanday islohot va yangilanishlar butun ta’lim tizimining sifat ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa, o‘z navbatida, bilimli, zamonaviy tafakkurga ega, ijtimoiy faollikka tayyor bo‘lgan yosh avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5117-sonli qarori. (2021-yil 19-may). Xorijiy tillarni o‘rganish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. lex.uz

2.Shoisayeva D.S. (2023). “Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasining dolzarb masalalari”, Innovatsion ta’lim tadqiqotlari jurnali, 2(1), 52–58.

3. Shoisayeva D.S. (2023). Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasining dolzarb masalalari. Innovatsion ta’lim tadqiqotlari jurnali, 2(1), 52–58.

4 Yunusova Z. (2022). Ta’limda raqamli kompetensiya: pedagoglar uchun muhim zarurat. Raqamli Ta’lim Jurnali, 3(2), 41–46.

5.Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press.

6.https://www.tprsbooks.com/what-is-tprs/

JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHDA MAKTAB TA’LIM TIZIMIDA DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANINING O‘QITILISHI

Tojiboyeva Gulshanoy Axlidinovna,
Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi
ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ahamiyati, maktab ta’lim tizimida davlat va huquq asoslari fanini o‘qitilishi jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarasi xususida fikr-mulohazlar berilgan. Shuningdek, ushbu maqolada davlat va huquq asoslari fani doirasida foydalanishi mumkin bo‘lgan usullar haqida hamda ularni qo‘llash tartibi ko‘rsatib berilgan. Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitish uchun qulay bo‘lgan usullar takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, konstitutsiya, Sokratik metod, pedagogik texnologiyalar, SWOT, Case study, kreativ, kritik, kollobarativ, kommunikativ.

Аннотация: В статье рассматривается важность повышения правосознания и правовой культуры в современном обществе, эффективность использования педагогических технологий в процессе преподавания предмета государство и право в системе школьного

образования. Также в статье описываются методы, которые могут быть использованы в рамках предмета государство и право и порядок их применения. Даны предложения по методам, которые удобны для преподавания предмета государство и право.

Ключевые слова: правосознание, правовая культура, конституция, сократовский метод, педагогические технологии, SWOT, Case study, креативный, критический, коллаборативный, коммуникативный.

Abstract: This article presents the importance of raising legal awareness and legal culture in society today, the effectiveness of using pedagogical technologies in the process of teaching the subject of state and law in the school education system. Also, this article describes the methods that can be used within the framework of the subject of state and law and the procedure for their application. Suggestions are made for methods that are convenient for teaching the subject of state and law.

Key words: legal awareness, legal culture, constitution, Socratic method, pedagogical technologies, SWOT, Case study, creative, critical, collaborative, communicative.

Интеграция способствует развитию навыков междисциплинарного анализа и решению задач в условиях неопределенности, что является важным на этапе начального образования. Мухамедов А. А. подчеркивает, что «интеграционный подход развивает у школьников не только практические навыки, но и способность к саморегуляции и критическому анализу» [3.78].

В Узбекистане в последние годы активно внедряются новые стандарты образования, включающие элементы интеграции дисциплин. В рамках образовательной стратегии, принятой в 2017 году, особое внимание уделяется проектному обучению и созданию условий для практического применения знаний. Исламова З. С. отмечает, что в этих условиях «интеграция дисциплин помогает учащимся глубже понять предмет и его практическое применение» [4.32].

На уроках технологии в Узбекистане активно используются междисциплинарные подходы. Например, проект по созданию экологически чистого жилья включает в себя расчеты материалов (математика), оценку воздействия на природу (биология) и изучение принципов функционирования устройств (физика). Это пример эффективной интеграции знаний из различных областей, как подчеркнуто в работах Садиковой М. М. [5 120].

Интеграция способствует развитию критического мышления, творческих и практических навыков, а также навыков командной работы. Она помогает учащимся видеть взаимосвязь между различными областями знаний, что значительно повышает их мотивацию и заинтересованность в учебе.

Вместе с тем, интеграционный подход сталкивается с определенными трудностями, такими как дефицит подготовленных кадров, недостаток учебных материалов и ограниченные ресурсы для практических занятий. Это требует дополнительных усилий от образовательных властей и педагогов для оптимизации процесса.

Проектное обучение является эффективным инструментом для внедрения интеграционного подхода, так как оно позволяет ученикам применить знания из разных дисциплин на практике. Методика проектного обучения предполагает создание междисциплинарных учебных проектов, что активно поддерживает междисциплинарное сотрудничество.

Для эффективного применения интеграционного подхода необходимы учебные материалы, которые поддерживают концепцию междисциплинарного обучения. Такие материалы должны включать задания и упражнения, направленные на интеграцию знаний и развитие критического мышления.

Учитель играет ключевую роль в успешной реализации интеграционного подхода. Он должен быть не только экспертом в своей области, но и обладать навыками координации междисциплинарного обучения, что требует гибкости и готовности к инновационным методам преподавания.

Проект по созданию экологического дома является ярким примером интеграции на уроках технологии. Учащиеся работают с математическими расчетами для определения материалов, изучают принципы физики для проектирования устройства и оценивают влияние на экологию с точки зрения биологии.

Мастер-классы и практические занятия становятся важным инструментом для применения знаний в реальных условиях, что способствует развитию уверенности и мотивации учащихся.

Интеграционный подход в обучении на уроках технологии в начальной школе Узбекистана является эффективным инструментом для формирования у учащихся комплексных навыков. Он способствует более глубокому усвоению знаний и развитию критического мышления, что отвечает современным требованиям к образованию. Несмотря на существующие трудности, внедрение интеграции дисциплин в образовательный процесс имеет большой потенциал для улучшения качества образования в Узбекистане.

Литература:

1. Ахмедов, С. К. (2021). Интеграция дисциплин в школьном обучении. Ташкент: “Учитель”, с147.

2. Джураев, Б. А. (2020). Образовательные реформы в Узбекистане: новые подходы и технологии. Ташкент: Научное издательство, с. 205.

3. Мухамедов, А. А. (2019). Проектное обучение в начальной школе. Ташкент: “Технопресс” , с. 180.

4. Исламова, З. С. (2018). Методика преподавания технологии в начальной школе. Ташкент: “Молодой ученый”, с. 135.

5. Садикова, М. М. (2017). Роль инновационных методов в обучении детей в Узбекистане. Ташкент: Экономика и образование, с. 222.

6. Атабаев, Ш. Э. (2023). Значение инновационных технологий в процессе урока в начальном образовании в узбекистане. Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 3(11), 374.

7. Atabaev, S. (2020). Влияние педагогических способностей на формирование взаимоотношений между учителем и учеником. Архив Научных Публикаций JSPI, 115.

УДК. 37.013.31

РОЛЬ ТРУДОВЫХ ТРАДИЦИЙ В ВОСПИТАНИИ ШКОЛЬНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ УЗБЕКИСТАНА

Атабаев Шапулат Эшпулатович
старший преподаватель кафедры методика начального образования Джизакского государственного педагогического университета
Юлия Ляшенко Юревна
студентка 1-курса факультета начального образования Джизакского государственного педагогического университета

Аннотация. Статья посвящена актуальной проблеме формирования трудовых, нравственных и социальных качеств младших школьников в контексте образовательной системы Узбекистана через призму народных трудовых традиций. Подчеркивается, что народные обычаи и укоренившиеся в культуре формы трудовой деятельности испокон веков служили основой воспитания у подрастающего поколения таких качеств, как уважение к труду, коллективизм, терпение и настойчивость. В условиях обновления содержания начального образования и внедрения инновационных образовательных подходов, таких как STEAM, возрастает необходимость пересмотра подходов к трудовому воспитанию с учётом национальных особенностей. В статье рассматриваются пути интеграции традиционного трудового воспитания в образовательный процесс на основе STEAM-подходов, позволяющих сочетать научные знания с практической деятельностью. Особое внимание уделяется эффективным педагогическим стратегиям, направленным на развитие у учащихся навыков

самостоятельности, ответственности, умения работать в команде, а также стремления к саморазвитию через труд. Представленные в статье теоретические обоснования и практические примеры могут быть полезны учителям начальных классов, педагогам-новаторам, методистам и научным сотрудникам, интересующимся вопросами воспитания на основе культурных и образовательных традиций.

Ключевые слова: трудовое воспитание, традиции, начальная школа, Узбекистан, STEAM-метод, национальные ремесла, проектное обучение, экологическое образование.

Abstract. The article is devoted to the urgent problem of formation of labor, moral and social qualities of primary school students in the context of the educational system of Uzbekistan through the prism of folk labor traditions. It is emphasized that folk customs and culturally rooted forms of labor activity have served as the basis for the education of such qualities in the younger generation as respect for labor, collectivism, patience and perseverance since time immemorial. In the context of updating the content of primary education and the introduction of innovative educational approaches, such as STEAM, there is an increasing need to revise approaches to labor education taking into account national characteristics. The article discusses ways of integrating traditional labor education into the educational process based on STEAM approaches, which allow combining scientific knowledge with practical activities. Particular attention is paid to effective pedagogical strategies aimed at developing students' skills of independence, responsibility, ability to work in a team, as well as the desire for self-development through work. The theoretical justifications and practical examples presented in the article may be useful for primary school teachers, innovative educators, methodologists and researchers interested in issues of education based on cultural and educational traditions.

Key words: labor education, traditions, primary school, Uzbekistan, STEAM method, national crafts, project-based learning, environmental education.

Трудовое воспитание играет ключевую роль в развитии личности ребенка, закладывая основу его будущего трудолюбия, ответственности и самодостаточности. В Узбекистане традиции трудового воспитания уходят корнями в семейные и общественные ценности, передающиеся из поколения в поколение. В современных условиях национальные трудовые традиции успешно интегрируются в образовательную систему, способствуя формированию у младших школьников как практических, так и нравственных качеств.

Актуальность данной темы обусловлена необходимостью адаптации традиционных методов воспитания к современным образовательным стандартам. Интеграция трудовых традиций в учебный процесс способствует сохранению национальной культуры, формированию трудовой этики и подготовке учащихся к будущей профессиональной деятельности.

Цель статьи — исследовать роль трудовых традиций в воспитании школьников начального уровня, выявить их влияние на развитие личности ребенка, а также рассмотреть современные подходы к трудовому воспитанию с учетом STEAM-методов.

Трудовые традиции узбекского народа тесно связаны с сельским хозяйством, ремесленничеством, кулинарией и другими видами деятельности. Испокон веков дети участвовали в труде, помогая родителям в поле, в гончарных мастерских и на базарах. Это способствовало развитию ответственности, уважения к труду и старшим, а также социализации ребенка в обществе [1.45].

Особую роль в воспитании детей играют ремесленные традиции, такие как ковроткачество, гончарное искусство, резьба по дереву. Они требуют терпения, аккуратности и настойчивости, что оказывает положительное влияние на развитие младших школьников [2.120].

Современная система образования Узбекистана включает трудовое воспитание как важный компонент учебного процесса. В начальных классах этому уделяется внимание через:

- уроки технологии и трудового обучения,
- проектные и творческие работы,
- участие в школьных и семейных хозяйственных мероприятиях,
- изучение национальных ремесел.

Трудовое воспитание формирует у детей усидчивость, дисциплину, развивает моторику и логическое мышление [3.75].

STEAM-подход (наука, технология, инженерия, искусство и математика) позволяет гармонично соединить традиционные трудовые навыки с современными образовательными технологиями. Например:

- использование 3D-моделирования для проектирования национальных орнаментов,
- программирование автоматизированных систем полива для сельского хозяйства,
- экологическое воспитание через создание мини-оранжерей.

Таким образом, STEAM-методы делают трудовое воспитание более актуальным и интересным для современных школьников [4.95].

Для эффективного включения трудовых традиций в образовательный процесс педагоги могут использовать следующие подходы:

- **Метод проектного обучения**: создание детьми национальных изделий, исследование сельскохозяйственных процессов, участие в ремесленных мастерских.
- **Групповая работа**: коллективное выполнение трудовых заданий, что развивает коммуникативные навыки и чувство ответственности.
- **Экспериментальная деятельность**: организация школьных огородов, работа с глиной, деревообработка.

- **Тематические экскурсии**: посещение исторических мест, ремесленных центров, где дети знакомятся с традиционным трудом на практике.

Эти методы позволяют сочетать традиционные ценности с современными образовательными стандартами.

Трудовые традиции играют важную роль в воспитании младших школьников, формируя у них важные личностные и профессиональные качества. Современная система образования Узбекистана стремится сохранить эти традиции, интегрируя их в учебный процесс через STEAM-методы и инновационные педагогические технологии.

Эффективное трудовое воспитание способствует развитию у детей самостоятельности, ответственности, уважения к труду и культурного наследия своей страны. Использование традиционных и современных методов обучения в комплексе позволяет создать гармоничное образовательное пространство, способствующее всестороннему развитию учащихся.

Список использованной литературы

1. Саидов У. “Трудовое воспитание в системе начального образования”. – Ташкент: Фан, 2020. –стр. 160.

2. Каримов А. “Национальные традиции в образовательном процессе”. – Самарканд: Шарқ, 2018. – стр. 135.

3. Джалилов Б. “STEAM-образование и инновации в школьном обучении”. – Бухара: Илм-фан, 2021. –стр.189.

4. Ибрагимов Ш. “Современные технологии в образовании”. – Тошкент, 2019. – стр.210.

Интернет-ресурсы

1. Министерство народного образования Республики Узбекистан. URL: https://www.edu.uz

2. Портал STEAM-образования Узбекистана. URL: https://steam.uz

3. Национальный центр ремесел Узбекистана. URL: https://handicraft.uz

TARIX DARSLARINI 5E MODELI ASOSIDA TASHKIL ETISH

Tagayev Ganisher Xasanovich
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti
tagayevganisher86@gmail.com
(+998 97) 392-92-09

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarix darslarini samarali tashkil etib borishda zamonaviy yondashuvlardan biri bo‘lgan Singapur modeli 5E yondashuvining qanday qo‘llanilishi, uning ahamiyati va natijasi tahlil etilgan.

Jahon tarixi darsligida berilgan bitta mavzu doirasida bu modelni qo‘llash bo‘yicha nazariy hamda amaliy topshiriqlar berib o‘tilgan. Mazkur topshiriqlar 5E modeli asosida shakllantirilgan bo‘lib, bu vazifalarni o‘quvchilar bajarish jarayonida ularda hayotiy ko‘nikmalarni shakllanishiga ijobiy ta’sir etuvchi pedagogik tavsiyalar ham keng o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: 5E modeli, jalb etish (engage), tadqiq qilish (explore), tushuntirish (explain), qo‘llash (elabore), baholash (evaluate)

Ta’lim tizimidagi zamonaviy islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda bozor iqtisodiyoti chuqur ildiz otib borayotgan davrda Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq bir qator yangi vazifalarni yuzaga keltiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Ulug‘ allomalarimiz merosini chuqur o‘rganish, tarixiy-badiiy asarlar, filmlar yaratishga alohida e’tibor berilmoqda. Bundan maqsad – tariximiz, merosimizni yosh avlodlar qalbi va ongiga singdirish, farzandlarimizni milliy g‘urur va iftixor ruhida tarbiyalashdir”[1:150-151].

Milliy o‘zlikni anglash o‘z ichki ziddiyatlariga ham ega. O‘z-o‘zini anglash jarayoni real hayot vazifalariga muvofiq tarzda muayyan harakat va faoliyat yo‘nalishini tanlash asosida olib boriladi. Bu tanlov esa inson uchun yetakchi bo‘lgan qadriyatlar majmuasi bilan belgilanadi. O‘z-o‘zini va milliy o‘zlikni anglash uchun tanlab olgan yo‘nalish ta’sirida ideallik parchalanadi. Bir tomondan milliy o‘zligini anglash darajasidagi shakllangan tasavvuri bo‘yicha o‘z millati va uning ma’naviy qadriyatlarini boshqa millatlarnikidan afzal deb biladi[2:86-87]. Milliy qadriyatlarga sodiq bo‘lgan xalqni qul qilish, abadiy istibdodda saqlash mumkin emas. “Millatning tanazzuli milliy qadriyatlar tanazzulidir, bu oqibat-natijada ushbu qadriyatlarni egasiz qolish xavfini tug‘diradi. Insoniyat tarixi muayyan etnoslarning vujudga kelishi, taraqqiyoti va tanazzuli, ularning o‘rniga boshqalari vujudga kelishi bilan bog‘liq jarayondir. Bunday fikr esa o‘z navbatida, g‘oyat muhim va dolzarb masalaga, millat o‘z qadriyatlarining obyekti sifatida, o‘z-o‘zini saqlab turmog‘i lozim, degan masalaga olib keladi” [4:127].

Tarix darslarida o‘quvchilarda tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyasini shakllantib borishda 5E modelidan foydalanish samarali natija beradi. Singapur modeli 5E yondashuvining ta’lim jarayonida keng qo‘llaniladigan va samaraligi bilan ajralib turadigan pedagogik yondashuvlaridan biridir. Ushbu modelning quyidagi afzalliklarini ko‘rishimiz mumkin:

-o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlaydi, chunki bu yondashuvda o‘quvchilar faqatgina tinglovchi emas, balki o‘rganuvchi va kashf qiluvchi sifatida ishtirok etishadi;

-mustaqil fikrlashni rivojlantiradi, chunki tadqiq qilish bosqichida o‘quvchilar muammolar va topshiriqlarni mustaqil hal qiladilar hamda bajargan tadqiqotlari yuzasidan tanqidiy fikr yuritishni o‘rganadilar;

-nazariy va amaliy bilimlar uyg‘unlashadi, chunki kengaytirish, ya’ni qo‘llash bosqichida o‘quvchilar olgan bilimlarini real hayotiy jarayonlarda qo‘llashni o‘rganadilar;

-turli o‘quv uslublariga moslashuvchanlik ortadi, chunki o‘quvchilar vizual yoki amaliy mashg‘ulotlar orqali yoki mustaqil izlanish orqali fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradilar;

-o‘quv jarayonini bosqichma-basqich tashkil qiladi, 5E modeli o‘quv jaroyonini aniq bosqichlarga bo‘lib, har bir bosqichga alohida e’tibor qaratadi[6:10].

1. Engage (Jalb etish) – O‘qituvchi qiziquvchanlikni oshirish uchun qisqa harakatlardan foydalanadi. Faoliyat har qanday noto‘g‘ri tushunchalarni ochiqlash va o‘quvchilarni yangi bilimlarni egallashga tayyorlash uchun oldingi bilimlarni yangi o‘rganish tajribasi bilan bog‘lashi kerak.

Yangi savollar, bir-biriga mos kelmaydigan voqealar, namoyishlar yoki kuchli vizuallik o‘quvchilarni jalb qilish va ularning oldingi bilimlarini yoki yangi bilimlarni yaratishga xalaqit beradigan har qanday noto‘g‘ri tushunchalarni aniqlashning ideal usullaridir. Yangi tushunchalar mazmunli bo‘lishi uchun o‘quvchilar o‘zlarining oldingi va hozirgi ta’lim tajribalarini bog‘lash uchun oldingi bilimlaridan foydalanadilar. Ishtirok etish bosqichi dars vaqtining bir qismi bo‘lishi shart emas. U uy vazifasi sifatida tuzilishi mumkin, unda o‘quvchilar yangi mavzuga oid maqolani o‘qishlari, veb-saytlarni o‘rganishlari, video tomosha qilishlari yoki oldingi bilimlari bilan bog‘liq savolga javob berishlari mumkin[7].

1-topshiriq: Nima uchun Renessans Yevropaning tarixida muhim rol o‘ynagan[5:147-149]?…

2-topshiriq: Qanday madaniy yangiliklar o‘zgarishlar Renessans davrida yuzaga kelgan?...

2. Explore (Tadqiqot) - Bu bosqichda o‘quvchilar yangi mavzuga doir bilimlarni mustaqil holda yakka yoki kichik guruhlarda hamkorlikda o‘rganishadi. Tadqiq bosqichi o‘quvchilarni izlanishga, muammolarni hal qilishga, kichik olimlar kabi ilmiy tadqiqotlar qilishga o‘rgatadi. Bu bosqichda o‘quvchilar tajriba o‘tkazish orqali yangi mavzuni o‘zlashtiradilar[6:12].

O‘quvchilarni quyidagi savollarni o‘ylashga undash:

Men hal qilmoqchi bo‘lgan muammo nima?

Nimani bilishim kerak?

Men allaqachon nimani bilaman?

Darslikda berilgan ma’lumotlar asosida quyidagilarni tadqiq eting:

1-Topshiriq: Yevropadagi yangi madaniyatni boshlab bergan namoyondalar va ularni asarlarini qayd qiling?...

2-Topshiriq: Ilk uyg‘nish davri san’atining rivojlanishini baholang?...

3. Explain (Tushuntirish) - o‘quvchilarning tahlil qilish va muloqot qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Ushbu bosqichda o‘quvchilar tadqiqot bosqichda bajargan ishlarini tushuntirishadi, o‘qituvchi esa o‘quvchilar to‘liq tushunmagan tushunchalar va ilmiy atamalarni tushuntiradi. O‘qituvchining ko‘rsatmasi bilan o‘quvchilar oldingi bosqichda o‘rgangan tushunchalarini tushuntirib beradilar va kiritilgan yangi atamalarni tushunganliklarini namoyish etadilar. Mavzu va sinf darajasiga qarab, “O‘rganish” bosqichida yuzaga kelgan har qanday chalkashlik va savollarni hal qilish uchun o‘qituvchi boshchiligidagi ko‘rsatma zarur bo‘lishi

mumkin. Savollar o‘rganishni yanada mazmunli, interfaol va ishtirokchi qilish imkonini beradi[7].

1-Topshiriq: Renessansning asosiy xususiyatlarini va tarixiy ahamiyatini tushuntiring?...

2-Topshiriq: Yevropa bo‘ylab gumanizmning yoyilishini tushintiring?...

4. Elaborate (Kengaytirish) - Ushbu bosqichda o‘quvchilar o‘rgangan bilimlarini notanish vaziyatda qo‘llay olishni o‘rganadilar. Bu bosqichda mavzular va fanlararo integratsiyani amalga oshirish lozim. O‘quvchilar 5E modelining oxirgi bosqichida baholashdan oldin yangi kontekstda muammoni hal qilishda o‘z bilimlarini yangi tajribalarda qo‘llaydilar va kontseptual tushunchalarini kengaytiradilar. Ishlab chiqish mashg‘ulotlari sinf vaqtida o‘tkazilishi yoki uy vazifasi bo‘lishi mumkin[7:].

1-Topshiriq: Tadqiqotlaringizdan kelib chiqqan holda, Renessansning boshqa madaniyatlar bilan bog‘liqligini va uning jahon tarixiga ta'sirini ko‘rsating?

2-Topshiriq: Ijtimoiy hayotga bog‘lang “Agar Renessans bo‘lmaganida, bugungi san’at, ilm-fan va texnologiya qanday bo‘lishi mumkin edi”…

5. Evaluate (Baholash) – O‘quvchilar o‘z o‘rganishlarini baholaydilar va asosiy tushunchalarni tushunish va o‘zlashtirishlarini namoyish etadilar. Baholash viktorina yoki test bilan cheklanishi shart emas. Bu taqdimot, esse, plakat, risola, jurnal maqolasi yoki yakuniy maqola kabi mahsulot bo‘lishi mumkin.

Topshiriq: Ilk uyg‘onish davri madaniyati mavzu yuzasidan o‘rganganlaringiz bo‘yicha qisqacha ESSE yozing…

Yuqorida bayon etilgan fikrlarga asoslangan holda xulosa qilish mumkinki, tarix darslarida 5E yondashuvdan foydalanish orqali o‘quvchilarda mavzuni mustaqil o‘rganish ko‘nikmasini rivojlantirish, tadqiqot o‘tkazishga qiziqtirish, o‘rgangan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish, mavzu yuzasidan o‘rgangan bilimlarini boshqa fan ko‘nikmalari bilan uyg‘unlashtira olish, o‘zlarini baholay olish ko‘nikmalarini rivojlantirib borishlarini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Т:. “Ўзбекистон”, 4-жилд, 2020.

2. Karimov I. Ma’naviyat, falsafa va hayot. – Toshkent: Fan, 2001.

3. Karimov I. Noosfera: geosiyosat va mafkura. – Toshkent: Fan, 2007.

4. Nazarov Q.N. Aksiologiya (qadriyatlar falsafasi): tajribaviy qo‘llanma. Toshkent: 2011.

5. Abdumo‘minov O., va boshqalar, Jahon tarixi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Yangi nashr, 2004.

6. Ibodullayeva D., Yunusova N. “Biologiya darslarida xorijiy tajribalardan foydalanish va 5E modelini qo‘llash metodikasi”. Umumta’lim maktab biologiya fan o‘qituvchilari uchun uslubiy ko‘rsatma. – Samarqand., 2025.

7. https://www.edutopia.org/article/how-use-5e-model-your-science-classroom

FANNI SAMARALI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Dehqonova Zilola Mirzayevna,
Farg‘ona viloyati pedagogik
milliy markazi katta o‘qituvchisi,
ziloladehqonova72@gmail.com
+998 918687575

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida fanlarni samarali o‘qitish metodikasini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, mavjud muammolar, ularning kelib chiqish sabablari, zamonaviy ta’lim yondashuvlari va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar beriladi. Tadqiqot pedagogik innovatsiyalar, AKT, interaktiv metodlar asosida o‘quv jarayonini optimallashtirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: metodika, fan o‘qitish, innovatsiya, interaktiv ta’lim, muammo, takomillashtirish, ta’lim texnologiyalari, refleksiya.

Абстрактный: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты совершенствования методики эффективного преподавания предметов в современной системе образования. В нем также обсуждаются существующие проблемы, их причины, современные подходы к образованию и предложения по их устранению. Целью исследования является оптимизация процесса обучения на основе педагогических инноваций, ИКТ и интерактивных методов.

Ключевые слова: методология, преподавание естественных наук, инновации, интерактивное обучение, проблема, совершенствование, образовательные технологии, рефлексия.

Kirish. Jahon ta’lim tizimi global raqobat, raqamli transformatsiya va inson kapitaliga bo‘lgan ehtiyoj kuchayib borayotgan bir davrda jadal rivojlanmoqda. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi ham ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilar va talabalarni zamonaviy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga ega shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirmoqda. Fanni samarali o‘qitish bu islohotlarning asosi bo‘lib, zamonaviy metodikalarning joriy etilishi pedagogik faoliyatning samaradorligini belgilab beradi.

Fanni samarali o‘qitish metodikasining nazariy asoslari

Metodika – bu o‘quv jarayonini tashkil qilish, maqsadga yo‘naltirish, uni boshqarish va baholashning ilmiy asoslangan tizimidir. Har qanday fanni samarali o‘qitishning bosh maqsadi — o‘quvchida chuqur bilim, mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, amaliy muammolarni yecha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Shuning uchun ham metodik yondashuvda quyidagi asosiy tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Ilmiylik va tizimlilik;
- Izchillik va bosqichma-bosqichlik;
- O‘quvchiga yo‘naltirilganlik (learner-centered);

- Amaliyotga yo‘naltirish (practice-oriented);
- Faollashtiruvchi texnologiyalarni qo‘llash.

Bu tamoyillarni amalga oshirish uchun interaktiv, refleksiv, konstruktiv yondashuvlar asosida dars o‘tish zarur.

Fanni samarali o‘qitishda mavjud metodik muammolar:

Bugungi kundagi ta’lim amaliyotida fanni samarali o‘qitish bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjud. Ular quyidagicha guruhlanadi:

An’anaviy yondashuvlarga tayanish:

Ko‘plab pedagoglar hali ham an’anaviy (monologik) dars usullaridan foydalanmoqda. Darsda o‘qituvchi faol, o‘quvchi esa passiv bo‘lib qolmoqda. Bu esa o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan motivatsiyasini pasaytiradi, ijodiy yondashuvini susaytiradi.

Pedagogik innovatsiyalarning yetarli qo‘llanilmasligi:

AKT, masofaviy ta’lim vositalari, simulyatsiya, o‘yin elementlari kabi vositalar hali keng ko‘lamda joriy etilmagan. Buning sabablari:

- o‘qituvchilarning texnologik savodxonligi pastligi;
- texnik jihozlarning yetarli emasligi;
- tayyor o‘quv kontentlarining cheklanganligi.

O‘qituvchining didaktik refleksiyasining sustligi:

Ko‘pchilik o‘qituvchilar o‘z faoliyatini tahlil qilish, teskari aloqa asosida darsni baholash, o‘z metodikasini takomillashtirishga kam e’tibor beradi. Bu esa takroriy xatolar, metodik eskirish va natijada ta’lim samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Fanni samarali o‘qitish metodikasini takomillashtirish yo‘llari:

Fanni o‘qitishda yuqori natijalarga erishish uchun metodikani modernizatsiya qilish lozim. Quyida muhim yondashuvlar va takliflar keltirilgan:

Interaktiv va konstruktiv metodlarni joriy etish”

Interaktiv metodlar nima?

Interaktiv metodlar – bu o‘quvchilarning faolligini oshirish, ular o‘rtasida muloqotni kuchaytirish va bilimlarni faol o‘zlashtirishga qaratilgan o‘qitish usullaridir. Bu metodlar o‘quvchi markaziga asoslanadi: o‘qituvchi axborot beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi rolida bo‘ladi.

Misollar:

- “Aqliy hujum” (Brainstorming)
- “Bahs-munozara”
- Guruhli ish (Kichik guruhlar bilan ishlash)
- “Rol o‘ynash” usuli (Role-play)
- “Fikrlar daraxti”, “Insert”, “Klaster” va boshqalar

Konstruktiv metodlar nima?

Konstruktiv metodlar – bu o‘quvchilarga yangi bilimlarni mavjud bilimlari bilan bog‘lab, amaliyotda qo‘llash orqali o‘rganishga asoslangan yondashuvdir. Bu metodlar konstruktivizm pedagogik nazariyasiga asoslanadi.

Asosiy tamoyillar:

- O‘quvchilar o‘z bilimlarini o‘zlari “quradilar”

- Ilm-fan asosida mustaqil izlanishga undaydi
- O‘quvchilar o‘z tajribalariga tayangan holda o‘rganadilar

Dars jarayonida quyidagi metodlar yuqori samaradorlik beradi:

- Kichik guruhlarda ishlash;
- “Aqliy hujum”, “Blits-so‘rov”, “Bahs-munozara”;
- Case-study (vaziyatli tahlil);
- Problem-based learning (muammo asosida o‘qitish);
- Flipped Classroom (teskari sinf modeli).

Bu metodlar orqali o‘quvchi darsga faol jalb etiladi, u o‘rganilayotgan bilimga shaxsiy munosabat bildiradi, mustaqil xulosa chiqarishga o‘rganadi.

Raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish

- Moodle, Google Classroom, Quizizz, Kahoot kabi platformalar orqali darslarni onlayn va interaktiv o‘tkazish;
- Video darslar, animatsiyalar, grafik dasturlar yordamida murakkab mavzularni sodda qilib tushuntirish;
- Teskari aloqa (feedback) orqali o‘quvchilar bilimini baholab borish.

O‘qituvchilar malakasini oshirish va tajriba almashinuvi

- ☺ Yangi pedagogik yondashuvlar bo‘yicha seminar-treninglar o‘tkazish;
- ☺ Metodik qo‘llanmalar va ochiq darslar almashish tizimini rivojlantirish;
- ☺ Mentorlik asosida yosh o‘qituvchilarni o‘qitish.

Ilmiy yondashuv asosida takomillashtirishning istiqbollari

Zamonaviy pedagogik psixologiyada o‘quv jarayonining shaxsga yo‘naltirilganligi asosiy tamoyil sifatida e’tirof etiladi. Bu metodikani takomillashtirishda individual yondashuvni, differensial o‘qitishni, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishni talab qiladi.

O‘quv materiallarini modullashtirish, STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) integratsiyasi, loyihaviy faoliyatga asoslangan o‘qitish metodlari — metodikaning zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari hisoblanadi.

Xulosa. Fanni samarali o‘qitish metodikasini takomillashtirish — bu yagona yechimga ega bo‘lmagan, doimiy tahlil, tajriba va innovatsiyalar asosida takomillashib boruvchi jarayondir. Uning muvaffaqiyatli bo‘lishi o‘qituvchining zamon bilan hamnafas bo‘lishiga, o‘z ustida doimiy ishlashiga, ochiqlik va yangilikka intilishiga bog‘liq. Shu bois, ta’lim tizimi barcha bosqichlarida metodik salohiyatni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish va pedagogik refleksiyani yo‘lga qo‘yish eng muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sohasini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2021-yil.

2. Azizxo‘jaeva N.N. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”. – T.: TDPU, 2020.
3. Vygotsky L.S. “Pedagogik psixologiya”. – Moskva: Pedagogika, 2004.
4. Davletshin M. “Ta’limda interaktiv metodlar”. – Toshkent, 2018.
5. UNESCO. “Teaching and Learning in the Digital Age”. Paris, 2021.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INFORMATIKA FANI DARSLARIDA INTEGRATSION YONDASHUV

Ergasheva Mahbuba
Qashqadaryo VMPP
Maktabgacha, boshlang‘ich va
maxsus ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang’ich ta’limda informatika fani darslariga integratsion yondashuv, informatika ta’limining shakl va metodlari, informatika darslariga kompetension yondashuv, informatika ta’limi va tarbiyasining maqsad va vazifalari haqida to‘liq muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: informatika faniga, kompetension yondashuv, integratsion yondashuv, pedagogik talablar, informatika ko‘nikmalari.

Аннотация: В статье всесторонне рассматриваются интегративный подход к урокам информатики в начальном образовании, формы и методы обучения информатике, компетентностный подход к урокам информатики, цели и задачи обучения и воспитания информатики.

Ключевые слова: технологическая наука, компетентностный подход, интегративный подход, педагогические требования, технологические навыки.

Abstract: Abstract: The article fully discusses the integrative approach to computer science lessons in primary education, the forms and methods of computer science education, the competency-based approach to computer science lessons, and the goals and objectives of computer science education and upbringing.

Key words: computer science, competency-based approach, integrative approach, pedagogical requirements, computer science skills

Kirish: “Integratsiya” atamasi nomi jihatdan yangi bo‘lib, mazmun va moxiyati jixatdan o‘zaro tarixga ega. Koinotda, o, xayotda, turmushda va ishlab chiqarishda, ta’limda, ya’ni mikro olamdan tortib makro olamgacha integratsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Integratsiya—juda keng ma’nodagi tushuncha.

Hozirgi kunda boshlang‘ich maktab ta’limini integratsiya qilish haqida ko‘p gapirilmoqda. Bu tushuncha kichik maktab o‘quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qilish, uning uchun tabiatshunoslik, rustili, musiqa va boshqa o‘quv fanlari nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar,

hajmlarning turli-tumanligining qiziqarliligi bilan harakterlanadi. Bolalarning tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog‘liqligini ko‘rishga o‘rgatish kerakligini o‘qituvchi sezadi, biladi. Shunday ekan, ta’lim integratsiyasi hozirgi zamon talabiga javob beradimi, uni qanday tashkil etish kerak kabi savollar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunga kelib, insoniyat integratsiya jarayonining mohiyatini yaxshi anglash, uning rivojlantiruvchi funksiyalarini amalda qo‘llay olish natijasidagina sayyoramizdagi muhim ekologik muammolarini hal qila olish, hayotni saqlab qolishi mumkinligini anglagan xolda, unga ehtiyoj zarurligini sezmoqda. Bu muammolarin hal qilishda, ayniqsa, pedagogikaning, ta’limdagi integratsiya jarayonining muhimligini ko‘pchilik mamlakat olimlari tomonidan tahlil qilinmoqda.

Integratsiyalashgan darslar – interaktiv ta’lim tizimi bo‘lib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish asosida ko‘rgazmali mahoratni vujudga keltirish sirlarini o‘rganadi. Ko‘rgazmali ta’lim tizimi turli xildagi turlar, shakllar, usullar, obyektlar asosida qurilgan. Integratsion kursning maqsad va vazifalari maktab tabiiy-ilmiy ta’lim tizimida tavsiflanadi. Bilimning integratsiyalashgan (ko‘rgazmali) tarmog‘ida integratsiyalashning usul va vositalari: ta’lim rejasidagi o‘qitish joyida vaqtning hajmiga qarab, shu kursni to‘la o‘zlashtrish vaqti o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi ko‘p maqsadli va rang-barangliligi bilan tavsiflanadi. Har bir o‘quv predmetini o‘qiyotgan paytda o‘quvchilarga to‘g‘ri keladigan psixik qo‘zg‘alish hosil qilishi, bu materialni o‘zlashtirilishiga katta yordam beradi, uni tez yodda saqlashga, emotsional anglashga, fikrlash qobiliyatining o‘sishi, nutq va tasavvurning rivojlanishiga olib keladi.

Integratsiya- bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog‘liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir biriga bog‘lash bosqichi bo‘lib, o‘zini yuqori ko‘rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o‘tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Integrasiya fanlararo bog‘liqlikdir. Fanlararo bog‘liqlik asoslari tabiatni to‘la holda o‘quv darsliklarda ko‘rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo‘lgan. Ulug‘ didaktik Yan Amos Komenskiy ta’kidlashicha: “Bir biri bilan bog‘liq bo‘lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o‘rganilishi kerak”. Fanlararo bog‘liqlik g‘oyasiga keyinchalik juda ko‘p pedagoglar yondoshib, uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo‘shdilar. D.Lokk g‘oyasiga ko‘ra: “Ta’lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to‘ldirilishi kerak”. Pestalossi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto xavfliligini ta’kidlaydi. Bolgariyalik olimlar tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘z ichiga olgan, 10-12 yoshli bolalarga mo‘ljallangan integratsiyalangan kurs yaratishdi. AQSH o‘rta maktablarining katta sinflarida o‘z ichiga fizika, kimyo, geografiya, geologiya, kristallografiya, tuproqshunoslik, poletalogiya va shu kabilarni o‘z ichiga oluvchi “Yerni o‘rganish” fani kiritilgan. Chexoslovakiyada ham shunday umumlashtiruvchi integratsiyalangan “Fuqaro tarbiyasi” deb nomlangan kurs katta sinflarda kiritilgan.

Inklyuziv ta’limda Informatika fani mashg‘ulotlariga integratsion yondoshuvni quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin. O‘quvchilar matematika darslarida o‘rgangan son, sanoq son yig‘indi, ayirma, mavzularini Informatika darsida ishlatishi mumkin. Masalan: O‘quvchilar bir necha gul yaproqlarini sanab chiqib qirqadilar. Gullarni qirqishda sanoq asosida doira shakllari chizib qirqiladi. Barcha olingan bilimlar Informatika darsida mustahkanilanadi. Ona tili darslarida o‘rgangan mavzular Informatika darslarida ham qo‘llash mumkin. Masalan: Sifat mavzusi Informatika darsining ko‘p mavzularida qo‘llanadi. Orttirma, qiyosiy daraja, kamaytirma musbat tushunchalar bo‘ladi. Ranglarni bir-biridan farqi: Qizil, qip-qizil, qizg‘ish, katta, kattaroq, kichikroq. O‘qish darslarida masal, ertak, sh'er, hikoya o‘qishadi. O‘rganilganlar asosida Informatika darsida applekatsiya yasash mavzusi bo‘ladi. Masalan: I-sinflarda “Bo‘g‘irsoq”, “Sholg‘om” ertaklari asosida applekatsiya yasaladi. Applekatsiyani bajarishdan oldin o‘quvchi tomondan ertak so‘zlab beriladi.

Umumiy ta’limda o‘tiladigan har bir informatika darsi ta’limiy va tarbiyaviy xarakterga egadir. Ta’lim jarayoni o‘z o‘rnida o‘quvchilarga axloqiy, ma’naviy, g‘oyaviy-siyosiy, informatika, estetik, iqtisodiy, ekologik va jismoniy tarbiyani ham berib boradi. Tajribalardan aniqki, pedagogik talablar yordamida tashkil topgan har qanday yaxshi dars o‘quvchilarni mohiyatli va mazmunli bilimga ega bo‘lishlarini, e’tiqod va amaliy harakatlar birikmasi sifatida esa vatanparvarlik g‘oyalarini, ularning hayotiy nuqtayi nazarini, ishiga cheksiz sadoqatini takomillashtiradi.

Zamonaviy boshlang‘ich sinf informatika ta’limi boshqa fanlar ta’limi kabi o‘quvchilarni nafaqat nazariy ma’lumotlar bilan qurollantirish va bunday bilimlardan faqat voqealar orasidagi mavjud aloqalarni tushuntirishda har doim foydalanib qolishgina emas, balki informatika turlari bo‘yicha puxta bilim berib o‘quvchilarda informatika qilish malakalarini rivojlantirib borish xarakterli bo‘lib borishi lozim. Ma’lumki, o‘quvchining o‘quv faoliyati undan faol fikr yuritib ishlashni talab etadigan qilib tashkil qilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Informatika ta’limida ham shunday yo‘l tutilishi kerak. Ma’lumki, bunday ta’lim o‘quvchining informatika to‘g‘risida, informatikaga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga doir aqliy qobiliyatlarini har kuni mashq qildiradigan, informatika bilan doimiy shug‘ullanib turish jarayoniga aylanadi.

Informatikani to‘g‘ri anglatish aqlan faol faoliyatga asoslangan har ishdan o‘quvchilar yuqori qoniqish hissiyotga ega bo‘lishlariga olib keladi. Fanlar aloqadorligida informatika fanini tashkil qilish uchun o‘qituvchi maktabda o‘rganiladigan o‘quv predmetlari bilan uzviy bog‘lasa yaxshi natijalarga erishadi. Buning uchun mehnatning o‘quv- ijodiy xususiyati, shuningdek ilmiy bilimlardan foydalanishi zarur. Informatika fani va an’analarining muhim vazifalari o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash, o‘qitish va umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida kasb tanlash izchilligini rivojlantirish, davlat ta’lim standartlari talabi bo‘yicha tarbiyalash, shuningdek o‘quvchilarni kasb-hunar egasi bo‘lib yetkazishda nazariy va amaliy bilim berishlardan tashkil topgan. Mehnat madaniyatini tarkib topishi uchun darslarda har doim bolalarning e’tiborini asbob

va materiallarni saqlash qoidasi hamda joylashtirish tartibiga, ish joyini to‘g‘ri jihozlashga, materiallardan tejamkorlik bilan foydalanish usullariga, ish harakatlarini me’yori va sifatiga, ish ko‘rsatkichini ta’minlovchi tadbirlarga, ishlov berishda olingan aniqlik va tozalikka rioya etishga va nihoyat narsani chiroyli qilib bezashga talab qilib borish darkor.

Hozirda o‘quvchilarga dars o‘tish jarayonlarida elektron darsliklardan foydalanilmoqda. Bu darsliklardan foydalanishning yaxshi tomoni shundaki, unda o‘quvchilarda fazoviy tasavvurlarni o‘stirish omillari mavjud. Unga ko‘ra o‘quvchilar tayyorlayotgan qo‘l mehnatini yoki buyumini qandayligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oldindan bilish imkoniyatiga ega bo‘ladi, tayyorlanishi zarur bo‘lgan buyum haqida oldindan tasavvur hosil qiladi va bu orqali kompiyuter informatikasini o‘rganishga turtki bo‘lib “Informatika” fani bilan integratsiyalshuvni yuzaga olib keladi. Informatika ta’limini boshqa fanlar bilan bog‘lab, ta’limiy va tarbiyaviy mazmundagi topshiriqlarni bajarish bo‘yicha musobaqa tashkil qilish hamda o‘tkazishdan maqsad, sonli ko‘rsatgichlar bo‘lmasdan, balki sifat ko‘rsatgich, ya’ni aniqrog‘i o‘quvchilarning o‘quv faoliyatlarini faollashtiradi.

Boshlang‘ich ta’limda integratsiyani amalga oshiruvchi bo‘g‘in vazifasini o‘qituvchining o‘zi amalga oshiradi. U bolalarning arifmetikaga, yozishga, tabiat va ko‘pgina boshlang‘ich tushunchalarga o‘rgatadi. O‘z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang‘ich ta’limda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko‘rish maqsadga muvofiq. Ta`limning keyingi pog‘onalarida u asosiy fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi. Boshlang‘ich ta`lim-tarbiyani integratsiyalashda ijobiy va salbiy omillar mavjudligini hisobga olish kerak. Bu omillar integratsiyaning usullarini belgilab beradi. Y.M.Kolegin va O.L.Aleksenko integratsiyaning salbiy omillarini ko‘rsatib beradilar: o‘quv predmetlarining chegaralangan soni - olinayotgan katta hajmdagi bilimlarning mazmuni olamning haqiqiy ko‘rinishini, qismlarining o‘zaro bog‘liqligini aks ettirish bilan to‘ldirish mumkin. Juda muhim bo‘lgan o‘qish, yozish va sanoq ko‘nikmalarini shakllantirish zarurati. Bu narsalar xuddi fanlarga bo‘linib o‘qitishni talab qiladiganga o‘xshaydi. Lekin o‘qish va matematikani o‘qitishning an`anaviy tajribasi ham keng integratsion imkoniyatlar haqida dalolat beradi. Bunda o‘qish fan sifatida o‘z ichiga faqat badiiy matnlarni emas, tarix, tabiatshunoslik bo‘yicha materiallarni oladi. Matematika, arifmetika, algebraik va geometrik materiallarni o‘z ichiga oladi. Bunday integratsiya muhim ko‘nikmalar hosil qilishga halaqit bermaslik, aksincha, ularni shakllantirishga kafolat beradi.

Ta’limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang‘ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi yaxshi tasavvur asoslarini qo‘yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatlarini shakllantirishdir.Mana shuning uchun kichik maktab o‘quvchisi predmet yoki voqelik hodisalarining bir necha tomondan ko‘rish muhimdir:mantiqiy va ematsional tomondan,badiiy asarda va ilmiy ommabop maqolada,biolog,so‘z ustasi, rassom, musiqachi nuqtai nazaridan va boshqalar. Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalarning qonuniyatlarini tushinishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarni

o‘rnatish ta’limga integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir.Bunga turli darslarga tushunchalarga ko‘p marotaba qaytishi,ularni chuqurlashtirish va boyitish,shu yoshga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin.Shunday qilib,yaxshi shakllangan tuzilish va o‘tkazish tartibiga ega bo‘lgan,tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyasiga asos qilib olinishi mumkin.Lekin integratsiyalashgan darsga boshqa fanlar,boshqa o‘quv predmetlari bilan bog‘liq tushunchalar tahlil qilishning natijalari kiritiladi. Masalan, “qish”, “sovuq”, “bo‘ron” kabi tushunchalar o‘qish, rus tili, tabiatshunoslik, musiqa, tasviriy san’at darslarida ko‘rib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilish boshqa o‘quv darslarida o‘zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalashgan hisoblanadi. Dars ijodiy, erkin bo‘lishi bilan birga,yaxlit,mantiqan ketma-ket, o‘ziga xos o‘tishi metodikasiga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, umumta’lim maktablarida informatika ta`limi darslarida mavzularni o‘qitishda va amaliy o‘rgatish jarayonida albatta boshqa fanlar bilan aloqadorlik asosiy o‘rinni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. “Barkamol avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”, T: “O‘zbekiston”. 1997y
2. Muslimov N.A, SHaripov SH.S. v.b. Informatika ta`limi, kasb tanlashga yo‘llashni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2009
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A muallifligidagi Ta’limda innovatsion informatikalar. -T.: O‘qituvchi, 2003.
4. Matlab Tilavova ”Mehnat va uni o‘qitish metodikasi”.Toshkent “Turon Zamin Ziyo” 2017.
5. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. “Mehnat ta’limi” 2-sinf darsligi. T.,

LOYIHA ASOSIDA O‘QITISH ORQALI O’QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK KO’NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Rahmonova Gulchehra Zokirjon qizi
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy institutining 3-kurs doktoranti
viniks_llc@inbox.ru
(97) 198 77 22

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadqiqotchilik ko‘nikmalarining zamonaviy ta’limdagi o‘rni va ularni loyiha asosida o‘qitish orqali rivojlantirishning metodik asoslari yoritilgan. Loyiha asosida o‘qitish metodining o‘quvchilarda mustaqil izlanish, muammo qo‘yish, gipoteza yaratish, tajriba o‘tkazish va ilmiy xulosa chiqarish kabi tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishdagi o‘rni va afzalliklarini ochib bergan. Shuningdek, loyiha asosida o‘qitish jarayonida tadqiqotchilikni rivojlantirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlari: xalqaro baholash dasturi, ko‘nikma, loyiha asosida o‘qitish, kompetensiya, tanqidiy fikrlash, tadqiqot, standart, ijodkorlik, muammo.

Аннотация. В статье рассматривается роль исследовательских навыков в современном образовании и методические основы их развития посредством проектного обучения. Раскрыты роль и преимущества метода проектного обучения в формировании у студентов исследовательских компетенций, таких как самостоятельное исследование, решение проблем, выдвижение гипотез, проведение экспериментов и получение научных выводов. Также даны практические предложения и рекомендации по развитию исследований в области проектного обучения.

Ключевые слова: международная программа оценки, навыки, проектное обучение, компетентность, критическое мышление, исследование, стандарт, креативность, проблема.

Abstract. This article discusses the role of research skills in modern education and the methodological foundations of their development through project-based learning. It reveals the role and advantages of the project-based learning method in the formation of research competencies in students, such as independent research, problem-solving, hypothesis generation, experimenting, and drawing scientific conclusions. It also provides practical suggestions and recommendations for the development of research in the process of project-based learning.

Keywords: international assessment program, skills, project-based learning, competence, critical thinking, research, standard, creativity, problem.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilardan faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishni emas, balki mustaqil izlanish, tahlil qilish, muammoga ilmiy yondashuv bilan qaray olish kabi ko‘nikmalarni egallashni talab etadi. Bunday ko‘nikmalarni shakllantirishda loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning – PBL) usuli muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tabiiy fanlar – biologiya, kimyo, fizika kabi yo‘nalishlarda loyiha ishlari orqali tadqiqotchilik va ilmiy savodxonlikni shakllantirishga keng imkoniyat yaratiladi.

Hozirgi vaqtda loyiha texnologiyasi akademik bilim va amaliy ko‘nikmalar o‘rtasida oqilona muvozanatni topishga intilayotgan ko‘plab ta’lim tizimlarini jalb qilmoqda. Bu usul talabalarning bilim qobiliyatlarini rivojlantirishga, axborot makonida va ijtimoiy-tabiiy muhitda harakat qilish qobiliyatiga, ijodiy va tanqidiy fikrlashni normallashtirishga asoslangan. Loyiha faoliyati usuli nafaqat muammoni turli pozitsiyalardan ko‘rib chiqishga imkon beradi, balki o‘quvchilarning ijtimoiylashuv darajasini oshiradi, muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi va o‘rganilayotgan masala bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirish imkonini beradi.

Loyiha asosida o‘qitish — bu real muammolarni yechish jarayonida o‘quvchining faol ishtiroki, o‘z fikrini ilgari surishi, eksperimentlar, kuzatishlar va tahlil orqali ilmiy xulosalarga kelishi bilan bog‘liq metoddir. Bu metod orqali:

- ✓ o‘quvchi bilimni tayyor holatda emas, balki izlanish orqali oladi;
- ✓ jamoada ishlash, rejalashtirish, vaqtni boshqarish ko‘nikmalari shakllanadi;

✓ o‘z g‘oyasini himoya qilish, natijalarni taqdim etish qobiliyati rivojlanadi.

Loyiha ustida ishlashning uch bosqichi mavjud:

tayyorgarlik - tadqiqot mavzusini o‘rganish, maqsad va vazifalarni shakllantirish,mavjud imkoniyatlarni baholash, loyihani amalga oshirish uchun asos tayyorlash;

asosiy - loyihani amalga oshirish usullari va usullarini aniqlash, alohida komponentlar ustida ishlash, materialni to‘plash va tahlil qilish;

yakuniy - natijalarni e’lon qilish va loyihani himoya qilish [1].

Tadqiqotchilik ko‘nikmalari deganda quyidagi ko‘nikmalar nazarda tutiladi.

(1-rasm)

Ushbu ko‘nikmalar PISA baholash tizimidagi “ilmiy savodxonlik” mezonlari bilan uzviy bog‘liq. Tadqiqotchilik ko‘nikmalari deganda quyidagi kompetensiyalar tushuniladi: Bu ko‘nikmalar o‘quvchini hayotiy vaziyatlarda ilmiy asosda fikr yuritishga, ishonchli manbalarga tayanishga, dalillangan xulosalar chiqarishga o‘rgatadi. Xususan, PISA baholash dasturida ilmiy savodxonlik ana shu ko‘nikmalarga tayanadi.

Loyiha asosida o‘qitish o‘quvchini aniq bir muammoni hal qilishga yo‘naltiradi. Bu metod orqali o‘quvchi:

real hayotdagi masalani tanlaydi;

tadqiqot rejasini tuzadi;

o‘z kuzatish va tajribalarini o‘tkazadi;

natijalarini tahlil qiladi;

yechimni taqdim etadi.

Bu jarayonlar aynan tadqiqotchilik faoliyatining asosiy bosqichlariga to‘liq mos keladi. Farq shundaki, bu faoliyat maktab o‘quvchisi uchun moslashtirilgan, lekin ilmiy asosiy uslublarni o‘z ichiga oladi.

Quyida biologiya fanida amalga oshirish mumkin bo‘lgan loyiha ishining bosqichlari keltiriladi. Mavzu: “Uy sharoitida o‘simliklarning o‘sishiga yorug‘likning ta’sirini o‘rganish”.

Loyiha bosqichlari:

1. Muammo: “Nima uchun ba’zi o‘simliklar soyada yaxshi o‘smaydi?”
2. Gipoteza: “Yorug‘lik kuchaygan sari o‘simlik fotosintezi oshadi va tezroq o‘sadi”.
3. Eksperiment: Uchta gul niholi – biri derazada, biri qorong‘i joyda, biri sun’iy yorug‘lik ostida o‘stiriladi.
4. Kuzatuv va o‘lchov: 10 kun davomida o‘sish tezligi, barg soni, rangi yozib boriladi.
5. Tahlil: Jadval, diagrammalar asosida taqqoslash.
6. Xulosa: O‘simliklar yorug‘likka bog‘liq holda fotosintez qiladi, demak o‘sishi ham o‘zgaradi.

Mazkur loyiha orqali o‘quvchi nafaqat biologiyani o‘zlashtiradi, balki ilmiy kuzatish, gipoteza, tajriba, dalillash kabi ko‘nikmalarni ham o‘zlashtiradi.

O‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda loyiha asosida o‘qitishni samarali amalga oshirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

1. Har fan uchun yil davomida kamida 1–2 ta loyiha ishlari rejalashtirilishi lozim.
2. Loyiha mavzulari real hayotdagi muammolar bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.
3. Fan o‘qituvchilari va boshqa mutaxassislar (biolog, ekolog) bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi zarur.
4. Loyihalar maktab doirasida taqdim qilinadigan “Tadqiqot haftaligi” formatida o‘tkazilishi va taqdim etilishi lozim.
5. Baholash mezonlari aniq bo‘lishi kerak: loyiha rejasi, dalillilik, ishlangan materiallar, taqdimot sifati.

Xulosa. Loyiha asosida o‘qitish o‘quvchiga bilimni tayyor holatda emas, balki o‘z izlanishlari natijasida egallash imkonini beradi. Bu jarayon o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni yechish, ilmiy tahlil qilish kabi muhim tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantiradi. Ta’lim jarayoniga PBL yondashuvini bosqichma-bosqich integratsiya qilish orqali ilmiy savodxon, faol, va mas’uliyatli shaxslarni tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Thomas, J. W. (2000). A Review of Research on Project-Based Learning.
2. Bell, S. (2010). Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future.
3. F.J.Jovliyevna. Matematika fanini o‘qitishning ilg‘or xalqaro tajribalari va fanni o‘qitishga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar. Termiz-2023

4. Алексашина И.Ю., Абдуллаева О.А., Киселёв Ю.П. Формирование и оценка функциональной грамотности учащихся. Учебно-методическоепособие. Сант Петербург.2019
5. A.M.Matkarimov. PISA xalqaro baholash dasturi asosida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha fal.dok.(PhD)dis.avtoref. Chirchiq-2022
6. PISA 2022 Results The State of Learning and Equity in Education Publication Volume I. OECD 2023
7. PISA–2015 Science Framework, OECD, 2017

O‘QUVCHILARDA REGGIO PEDAGOGIKASI VOSITASIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH

Sangirova Zamira Bozorboyevna
Ta’limni rivojlantirish respublika
ilmiy-metodik markazi
Pedagogik mahoratni rivojlantirish
bo‘limi boshlig‘i,
pedagogika fanlar bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)
zamirasangirova69@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada - Reggio Emilia pedagogikasi tarixi, asosiy g‘oyalari, bolalar rivojlanishidagi afzalliklari hamda bolalarga shaxs sifatida yondashuvchi, uning tug‘ma qobiliyatlari, ijodkorligi, kreativligi va qobiliyatlarini tan oluvchi zamonaviy yondashuv ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Reggio Emilia pedagogikasi, ijtimoiy ko‘nikmalar, hissiy rivojlanish.

Аннотация. In the article - Reggio Emilia History of pedagogy, The main ideas, advantages of children's development and a modern approach to children as individuals, recognizing their innate abilities, creativity, creativity and abilities that Comments.

Key words: Reggio Emilia Pedagogy, iSocial skills, emotional development.

Bugungi kunda globallashuv, raqamlashtirish va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida jamiyat hayotining barcha sohalaridagi kabi ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Zamonaviy ta’lim jarayoni bolalarda shaxsiy rivojlanishni ta’minlovchi, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va innovatsion g‘oyalarni ilgari surishga qodir muvaffaqiyatli shaxsni shakllantirish vazifasini qo‘ymoqda. Bunday sharoitda pedagoglardan ta’lim jarayonlarida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, raqamli va axborot-

kommunikatsiya muhitida samarali ishlay olish koʻnikmalariga va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy eta oladigan yuqori salohiyatli mutaxassis boʻlish zarurligini taqozo etmoqda.

Hozirgi kunda ta’lim tizimi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, mustaqil fikrlashga, muammolarni ijodiy yechishga, jamiyatda oʻz oʻrnini topishga qodir faol fuqaroni tarbiyalashni talab etmoqda. Bu maqsadga erishish uchun an’anaviy yondashuvlar yetarli boʻlmay qolayotgan bir paytda, pedagogik nazariya va amaliyotda yangi, innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj ortmoqda. Shunday ilgʻor yondashuvlardan biri — **Reggio Emilia pedagogikasi** boʻlib, u Italiyada XX asrning oʻrtalarida shakllangan va bugungi kunda butun dunyo boʻylab keng tarqalmoqda.

Reggio pedagogikasi nima?

Reggio pedagogika — bu har bir bola oʻziga xos gʻoyalar, fikrlar va qobiliyatlarga ega boʻlgan shaxs degan gʻoyaga asoslangan ta’lim yondashuvidir.

Reggio pedagogikasi erta bolalik ta’limiga innovatsion yondashuv boʻlib, ikkinchi jahon urushidan keyin Italiyaning kichik Reggo Emilia shahrida paydo boʻlgan. Bu usul bolaning shaxsiyati, uning ijodiy salohiyati va tadqiqotchilik ruhini rivojlantirishga qaratilgan oʻziga xos falsafa tufayli butun dunyoda mashhurlikka erishdi. Bu yondashuvda oʻqituvchi – bolaning oʻrganish jarayonidagi yoʻlboshchisi, hamkori va kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi muhim.

Reggio pedagogikasi oʻzining markaziga bolani qoʻyadi. Bu yondashuvga koʻra, bola tugʻilganidan boshlab bilim olishga, dunyoni kashf etishga qodir shaxs sifatida qaraladi. Reggio Emilia pedagogikasi Ikkinchi jahon urushidan keyin, 1945-yilda Italiya shimolidagi Reggio Emilia shahrida paydo boʻlgan. Urushdan keyingi davrda bu hudud aholisi yangi, insonparvar va demokratik jamiyatni qurishda odamlar oʻz kuchlarini erta bolalik davridagi ta’limga sarflash ya’ni bolalarni erkin, mustaqil va ijtimoiy ongli tarzda tarbiyalash zarurligini anglab yetadi. Bu jarayonda italiyalik pedagog va psixolog Loris Malaguzzi faol ishtirok etib, pedagogik konsepsiyaga nazariy asos yaratadi va Reggio metodikasining asoschisi hisoblanadi. Uning fikricha, har bir bola oʻz tabiiy qobiliyatlari bilan tugʻiladi va ularga sharoit yaratilsa, oʻz salohiyatini ochib bera oladi.

Shuningdek, u bolalarning rivojlanishida oʻzaro hurmat, ochiq muloqot, ijodkorlik, kreativlik va tajriba asosidagi oʻrganish muhim oʻrin tutishini ta’kidlagan. Aynan shu tamoyillar asosida Reggio pedagogikasi shakllangan boʻlib, ta’limga yondashuvi bolalarga qaratilganligi bilan mashhur boʻldi. 1987-yilda har yili oʻtkaziladigan Yosh bolalar ta’limi milliy asosiysida Reggio pedagogikasiga xalqaro qizish ortdi va shundan buyon davom etib kelmoqda. Bugungi kunda Reggio Emilia yondashuvi 145 dan ortiq mamlakatlar tomonidan qabul qilingan.

Bu pedagogik modelda oʻqituvchi rahbar yoki nazoratchi emas, balki bolaning bilim olish jarayonidagi hamkori va yoʻl koʻrsatuvchisi boʻlib xizmat qiladi. Oʻquv muhitining oʻzi esa “Uchinchi oʻqituvchi” sifatida e’tirof etiladi — bu degani, maktab yoki bogʻcha muhitining har bir detali bolani qiziqtiradigan, u bilan muloqotga kirishadigan darajada sharoit va jihozlar bilan ta’minlanishi

muhim hisoblanadi. Reggio pedagogikasining yana bir muhim jihati - bu ota-onalar bilan mustahkam hamkorlikka alohida e'tibor qaratilishidir.

Reggio pedagogikasining asosiy g'oyalari:

bola – faol va qobiliyatli shaxs;

bola tug'ilganidan boshlab o'rganishga tayyor va o'z fikriga ega bo'ladi;

o'qituvchi yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi emas, balki sherik, kuzatuvchi va qo'llab-quvvatlovchi sifatida bo'lishi zarur;

bola o'zini ifodalashda nafaqat til, balki rasm, harakat, musiqa, o'yin, loy, tabiiy materiallar kabi ko'plab materiallardan foydalanishi darkor;

muhit estetik, ochiq, tartibli va ijodiy bo'lishi kerak;

o'quv materiallari esa bolani mustaqil kashf qilishga, kreativlikka undashi maqsadga muvofiq.

Reggio pedagogikasining bolalar rivojlanishidagi afzalliklari:

1. Mustaqillik va mas'uliyatni rivojlantirish. Bolalar qaror qabul qilishni, o'z harakatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga olishni va vaqtlarini boshqarishni o'rganadilar.

2. Ijodkorlik va tasavvurni rivojlantirish. Ijodkorlik tufayli bolalar o'z tasavvurlarini rivojlantiradilar va o'z fikrini erkin bildirishni o'rganadilar.

3. Ijtimoiy ko'nikmalar. Loyihalarni bajarishda hamkorlikda ishlash muloqot ko'nikmalari, jamoada ishlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Hissiy rivojlanish. Bolaning hissiy ehtiyojlariga e'tibor berish empatiya, o'ziga bo'lgan ishonch va atrofdagi dunyoga ijobiy munosabat bo'lishni rivojlantiradilar.

Bu yondashuvlar har bir bolani o'ziga xosligini qadrlaydi va uning salohiyatini to'liq ochib berishga intiladi.

Reggio pedagogikasi va an'anaviy ta'limni taqqoslash.

Asosiy tushunchalar	Reggio pedagogika	An'anaviy pedagogika
Pedagoglar	Ta'lim jarayonining markazida bola bo'ladi	Ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi bo'ladi
Ta'lim oluvchilar	Reggio Emilia yondashuvida bolalar o'zlarining o'rganish va qiziqish sohalarini belgilashga qodir	O'qituvchi tomonidan oldindan rejalashtirilgan ma'lumotlarni o'zlashtirishlari kerak

Sinf xonasi	“Uchinchi o‘qituvchi” sifatida ko‘proq ma’no kasb etadi	O‘quvchilar va o‘qituvchilar dars o‘tish va o‘rganish uchun egallagan joydir
Mazmun	bolalarni qiziqtiradigan va hayajonlantiradigan mavzularni o‘rganishadi	Qat’iy tartiblarga amal qiladi
Baholash	Bolalar bajargan ishlari orqali, kuzatishlari va xulosalar yig‘iladi	Bolalar test, yozma, og‘zaki va amaliy ishlar orqali baholanadi
Tillar	100 ta til harakat, rang, tovush	Bir nechta tillarni qo‘llab-quvvatlaydi

Bunda o‘qituvchi ta’lim jarayonida ma’ruza qilmaydi. Buning o‘rniga o‘qituvchi kuzatadi, tinglaydi va savollar beradi. Ular bola bilan birga o‘rganadilar. Ular bolalarni chuqurroq o‘ylashga, aloqa o‘rnatishga, o‘z g‘oyalarini qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Masalan, bola nima uchun ba’zi barglar suzadi, boshqalari esa cho‘kadi deb hayron bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi: “**Bu suzish deyiladi”,** deb ularga tushuntirmaydi. Buning o‘rniga ular bolaning yoniga borib: “**Siz nima bo‘lyapti deb o‘ylaysiz?”** degan savollar bilan bolani o‘ylashga, tahlil qilishga, ijodkorlikka, kreativlikka o‘rgatadi. O‘rganish dialogda, kashfiyotda, bolaga tegishli bo‘lgan jarayonlarda sodir bo‘ladi.

Xulosa. Reggio Emilia pedagogikasi – bolalarga shaxs sifatida yondashuvchi, uning tug‘ma qobiliyatlari, ijodkorligi, kreativligi va qobiliyatlarini tan oluvchi zamonaviy yondashuvdir. Bu pedagogika, ayniqsa, uzluksiz ta’lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u har bir bosqichda bolalarning rivojlanishiga mos moslashuvchan ta’lim muhitini yaratishni taqozo etadi.

Uzluksiz ta’limda Reggio yondashuvi pedagogdan faqat bilim beruvchilikni emas, balki tinglovchi, kuzatuvchi, yo‘naltiruvchi va hamkor bo‘lishni talab etadi. Pedagoglar bolalarning har bir ifoda shaklini qadrlashi, ularning qiziqishlarini inobatga olib loyihalar asosida ta’lim tashkil etishi zarur. Bunday yondashuv bolalarning mustaqilligi, ijtimoiylashuvi, o‘z fikrini erkin ifoda eta olishi, kreativlikni va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.fevicreate.com/web/fevicreate/-/blog/art-and-craft/best-out-of-waste-craft;

2. https://evokeearlylearning.com.au/12-principles-of-the-reggio-emilia-educational-approach/;

3. https://reggioemilia.com;

4. https://nido.edu.au/news/reggio;

5. https://raintree.ac.th/reggio-emilia;

6. https://www.ascd.org/el/articles/how-reggio-emilia-encourages-inclusion ;

INKLYUZIV TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING INTELEKTINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Xasanova Kibriyo,
fan nomzodi, Pedagogika va umumiy psixologiya
kafedrasi professori Sh. Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Tel.: +998933425353

Annotatsiya. Ushbu maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini inklyuziv ta’lim muammolari bilan bog‘liq keyingi o‘quv faoliyati uchun tayyorlashning asosiy masalalarini ko‘rib chiqadi. O‘quvchilar - bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik faoliyat davrida, inklyuziv ta’lim jarayonida ham birgalikda ta’lim va boshqa millat bolalarining integratsiyasini uyg‘unlashtiradi, bag‘rikenglik munosabatiga rioya qiladi, ya’ni dindorlar va e’tiqodsizlar va barcha o‘qituvchilar maktabda bunday jamoani yaratish uchun bunday munosabatga tayyor bo‘lishlari kerak.

Kalit so‘zlar: integratsiya, integratsiyalashgan darslar, fanlararo aloqalar, talabalar munosabatlari, bag‘rikenglik, talabalarni rag‘batlantirish, hayot faoliyati, professional kompetentsiya.

Fan va ta’lim rivojlangan zamonaviy dunyoda mutaxassislar va yuqori malakali o‘qituvchilar jamiyat va davlatga maqsadli, ijodiy manfaatdor izdoshlar bera oladi. Ularning bunyodkorlik mehnati tufayli yosh avlodni ta’lim berish va tarbiyalash jarayoni fan, ta’lim, iqtisodiyot, ishlab chiqarish sohalarida islohotlar va innovatsiya usullari talablarini hayotga tatbiq etish, ushbu jamiyat ravnaqi va xalq hayotini tubdan o‘zgartirish va yaxshilash bo‘yicha yangi barkamol yo‘nalish kasb etadi.

O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim tizimini takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu borada qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’limga muhtoj bolalarga ta’lim va tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4860-sonli Farmoni bu borada rejalashtirilgan chora-tadbirlarning huquqiy asosi bo‘ldi, – deydi O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar masalalari agentligi direktori o‘rinbosari Feruz Ablayarov. Prezidentning 4860-sonli qarori esa davlat va jamiyat hayotida kutilgan natijalarni bera boshladi. Shunday qilib, 2023-2024 o‘quv yilining birinchi yarmida respublikadagi 530 ta umumta’lim tashkilotida 1 195 nafar alohida ta’limga muhtoj bolani qamrab olgan inklyuziv ta’lim tizimi joriy etildi. Ularning - 449 nafari (37,6 foizi) qizlardir. Tahlillarga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasida - 44 ta, Andijon viloyatida - 46 ta, Buxoro viloyatida - 23 ta, Jizzax viloyatida - 43 ta, Qashqadaryo viloyatida - 37 ta, Navoiy viloyatida - 17 ta, Namangan viloyatida - 61 ta, va 2018-yilda Samarqand viloyatida 23 ta umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim joriy etilgan. Surxandaryo viloyatida - 41 ta, Toshkent viloyatida - 65 ta, Farg‘ona

viloyatida - 47 ta, Xorazm viloyatida - 18 ta va Toshkent shahrida - 52 ta. inklyuziv ta’lim tizimiga joriy etildi.

So‘nggi yillarda Samarqand viloyati pedagogika institutlari negizida pedagogika fakulteti faoliyat ko‘rsatmoqda va boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari inklyuziv ta’lim bo`yicha maxsus fanlarni o‘qib, umumta’lim maktablari uchun boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi ixtisosligiga ega bo‘lib, inklyuziv ta’limning barcha nozik jihatlarini puxta o‘rganmoqda. Demak, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi yuksak madaniyatli, ma’naviy barqarorlik va kasbiy malakaga ega bo‘lishi kerak. Shunda, o‘qituvchining shaxsiy faoliyati inklyuziv ta’limning asosiy imkoniyatlaridan biriga aylanadi, va bu bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari maxsus kompleks tayyorgarlikdan o‘tadilar. Imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim olish huquqiga muvofiq, sog‘lom tengdoshlari bilan ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘shilishi – bu motivatsiya, individual shaxsning ichki imkoniyatlarini ochish va o‘quvchilarning bilim olishdagi faolligini oshirishga yordam beradi.

Barchamizga ma’lumki, inklyuziv ta’lim (inglizcha inklyuziv, inklyuzivlik moslashish, uyg‘unlashtirish, qamrab olish, o‘z ichiga oladi) nogiron bolalar va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni (kamsitish) bartaraf etishdir. Inklyuziv ta’lim turli ehtiyojlarga ega bo‘lgan bolalarni o‘qitishga qaratilgan metodologiyani ishlab chiqishga qaratilgan va turli xil qiziqishlarni qondirishga qaratilgan ta’limga kompleks yondashuvni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Va shuning uchun o‘quvchilar - bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari - barcha hududlarning inklyuziv ta’lim bo‘yicha davlat siyosati tamoyillari bilan belgilanadigan eng kuchli dalillar, nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollangan bo‘lishi kerak.

Ko‘pgina mutaxassislar inklyuziv ta’limda nogiron bolaning mavjud kamchiliklarini bartaraf etish, tuzatish va bartaraf etish, shuningdek, turli kasblarga ega bo‘lish uchun bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarni egallash bo‘yicha ishlarni olib borish zarurligini ta’kidlaydilar. Bu tamoyil alohida ehtiyojli bolalarga erta yondashuvga asoslanadi. Alohida ehtiyojli bolalarning ta’lim olishi esa ular boshlang‘ich va o‘rta maxsus ta’lim olishdan oldin tugamasligi kerak. Shuningdek, nogiron bolalar uchun kasbiy tayyorgarlik va oliy ta’limni amalga oshirish kerak.

Samarqand viloyatidagi barcha oliy ta’lim muassasalarida ushbu inklyuziv ta’limga ega bo‘lgan maxsus maktablarda ta’lim olgan talabalarga oliy ma’lumot olishda imtiyozlar berilgan. Chunki inklyuziv ta’lim tizimining maqsadlaridan biri alohida ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta’minlashdan iborat. Bu yerda, bizningcha, o‘z karerangizni qurish va bilimga o‘z hissangizni qo‘shish imkoniyatlari yuz foizga kengaytirilgan. Ular uchun umumiy gumanistik tarbiyaviy muhitni yaratish ularning mustaqil hayot tarzining zarur shartidir. Eng muhimi, har bir bolaning eshitish, tushunish va qabul qilish huquqini qondirilishidir. Birinchidan, inklyuziv sinflarda o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining kuchli tomonlari va ehtiyojlarini yaxshi biladigan mutaxassisdir. Masalan: har xil ehtiyojga ega bo‘lgan individual o‘quvchi matematika darsida o‘z bilimini maxsus tarzda namoyish etadi. Sinfda o‘qituvchi bolalarga individual

matematik masalalar va topshiriqlarni beradi, ular test sifatida bajarishlari kerak. O‘n daqiqadan so‘ng, bizning qahramonimiz topshiriqlarga javob berishni tugatganini e’lon qiladi. O‘z ish qog‘ozlari bilan band bo‘lgan o‘qituvchi bu o‘quvchining barcha sinfdoshlarining muammolarini qanday qilib sekin, jimgina yakunlab, yechayotganini payqamaydi yoki ataylab ko‘rmagandek bo‘ladi. Natijada, darsdan so‘ng uyga qaytgach, u o‘zini matematika fanining shunday mutaxassisidek his qiladiki, u qanday inson ekanligini, bilimli, eng zo‘r ekanligini, o‘qishda yuqori natijalarga erishayotganini tushuna boshlaydi va asta-sekin oliy o‘quv yurtlarida o‘qishni davom ettirish imkoniyatiga qiziqish paydo bo‘ladi. Ikkinchidan, integrallashgan darslar jarayonida motivatsiya, o‘rganishga qiziqish va ilmiy kashfiyotlar va yutuqlarni ilm-fan olamida namoyon etish ko‘rsatkichlari yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Integratsiya va integratsiyalashgan darslarning o‘zi, ya’ni o‘quvchilar o‘rtasidagi fanlararo aloqadorlik va munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan integratsiyalashgan darslar jarayonida sinfdoshlar bilan shaxslararo munosabatlar sharoitida: bir vaqtning o‘zida bir darsda savollarga javob berish, matematik muammolarni hal qilish, rasm chizish, ifodali o‘qish o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari va o‘qishga bo‘lgan qiziqishi, motivatsiyasi yuqori darajada o‘sishiga yordam beradi, ya’ni bilimlarni tez, moslashuvchan, o‘zlashtirish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Natijada bir-biriga yaqin bo‘lgan turli xil mantiqiy va semantik fanlarni o‘rganish jarayonida integratsiyalashgan ta’lim, muammolarni hal qilish, o‘quvchilarning ijobiy va salbiy fikr-mulohazalari, umumlashtirish, dunyoqarashga qarab olingan bilimlarning yakuniy natijasi, yangi, cheksiz imkoniyatlarni ochadi. Bundan tashqari, yangi o‘quvchilarning bilim olishiga ta’sir qilish va o‘z tadqiqotlarini ifoda etish imkoniyatlari g‘oyalar tanqidiy va ijodiy fikrlash orqali ta’minlanadi, talabalar uchun muhim imkoniyatlar. Natijada, yangilarning mazmuni Integral pedagogik jarayon fanlarning asosiy aloqasi, ta’limning mohiyati bilan ta’limda yangi tendentsiyani o‘rnatadi; dunyoqarashning sifati va samaradorligi beqiyos rivojlanadi yosh avlod, yosh avlodning aql-zakovati. Turli fanlar, matematika, rus tili, chizmachilik, tabiatshunoslik va musiqa fanlararo aloqalarining o‘zaro ta’sirini o'z ichiga olgan integrallashgan darslar shuni ta’kidlash mumkinki, pedagogik nuqtai nazaridan, bu ta’lim o‘rtasidagi mavjud uzviy bog‘liqlik obyektlar va bu bog‘liqlik, shakllanishida bevosita namoyon bo‘ladi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash.

O‘quvchilar - bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik faoliyat davrida, inklyuziv ta’lim jarayonida ham birgalikda ta’lim va boshqa millat bolalarining integratsiyasini uyg‘unlashtiradi, bag‘rikenglik munosabatiga rioya qiladi, ya’ni dindorlar va e’tiqodsizlar va barcha o‘qituvchilar maktabda bunday jamoani yaratish uchun bunday munosabatga tayyor bo'lishlari kerak. Tojikistonlik olimlarimiz ta’kidlaganidek, zamonaviy jamiyat ko‘p qirrali iste’dodlarga muhtoj, nafaqat yuqori darajadagi menejerlar, balki fan, texnika, madaniyat va san’at sohalaridagi ko‘plab mutaxassislar...

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari yuksak madaniyat, ma’naviy barqarorlik va kasbiy malakaga ega bo‘lishi kerak. Aynan o‘qituvchining

shaxsiyati inklyuziv ta’limning asosiy muammolaridan biriga aylanadi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun integratsiya va inklyuziya tamoyillari nogiron shaxsning faol hayotiy pozitsiyasini egallab, iloji boricha mustaqil va o‘zini o‘zi ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak, chunki haqiqiy ta’lim faqat haqiqiy munosabatlar sharoitida amalga oshirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi Qonuni, PF-60-son.

2. Ablayarov Feruz. O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim: hozirgi o‘zgarishlar va rivojlanish yo‘nalishlari.

3. Berdiqulova N.E. Mustaqil ishda innovatsiyalar va integratsiyalardan foydalanish. O‘quv qo‘llanma. Samarqand.2025.

4. “XDU” Davlat ta’lim muassasasi ERASMUS+DECIDE loyihasi koordinatori Istamqulov D.Z. akademik B. G‘ofurov nomidagi” ERASMUS+DECIDE loyihasi va zamonaviy inklyuziv ta'lim falsafasi. Xuchand.2022.

MALAKA OSHIRISH KURSLARIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Yuldasheva Sevara Maxsudjonovna
“Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedra o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun malaka oshirish kurslarida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishning ilmiy-uslubiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotchilik kompetensiyasi zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ilmiy-metodik izlanish olib borish va o‘z kasbiga tanqidiy yondashishni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada bu ko‘nikmalarni shakllantirishning samarali yo‘llari, amaliy mashg‘ulotlar turlari va ular natijasini monitoring qilish mexanizmlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tadqiqotchilik ko‘nikmalari, boshlang‘ich ta’lim, malaka oshirish, o‘qituvchi kasbiy rivojlanishi, metodik yondashuv, amaliy izlanishlar.

Аннотация. В статье анализируются научно-методические основы формирования исследовательских навыков на курсах повышения квалификации учителей начальных классов. Исследовательская компетентность стала неотъемлемой частью современного образования и

играет важную роль в профессиональной деятельности педагогов по анализу проблемных ситуаций, проведению научно-методических исследований, формированию критического подхода к своей профессии. В статье описаны эффективные способы развития этих навыков, виды практических занятий и механизмы контроля их результатов.

Ключевые слова: исследовательские навыки, начальное образование, профессиональное развитие, профессиональное развитие учителей, методический подход, прикладные исследования.

Abstract. This article analyzes the scientific and methodological foundations of the formation of research skills in in-proficiency training courses for primary school teachers. Research competence has become an integral part of modern education and plays an important role in analyzing problem situations in the professional activities of teachers, conducting scientific and methodological research, and forming a critical approach to their profession. The article describes effective ways to form these skills, types of practical exercises, and mechanisms for monitoring their results.

Key words: research skills, primary education, in-proficiency training, teacher professional development, methodological approach, practical research.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim tizimida boshlang‘ich ta’lim bosqichiga bo‘lgan e’tibor muttasil ortib bormoqda. Chunki bolaning aqliy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishi aynan shu davrda asos solinadi. Shu boisdan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki ilmiy-analitik yondashuvga ega, yangilikka intiluvchi mutaxassis bo‘lishi zarur. Malaka oshirish kurslari esa bu yo‘nalishda o‘qituvchilarni yangicha bilimlar bilan qurollantirish, ayniqsa tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim maydonga aylanmoqda.

Tursunovning fikricha, pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tadbiq etish nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki o‘qituvchining tahliliy va metodik faoliyatini faollashtiradi. U malaka oshirish kurslarida innovatsion metodlar, xususan muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish va interfaol mashg‘ulotlar orqali tadqiqotchilik salohiyatini shakllantirishni taklif qiladi [1]. Otaxonova fikricha, ta’limda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish uchun o‘qituvchi o‘zining kasbiy faoliyatini tahlil qilishga o‘rganishi, real muammolar asosida ilmiy savollar qo‘yib, ma’lumot yig‘ish va tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. U metodik qo‘llanmalar orqali o‘qituvchilarda nazariy bilim bilan birga amaliy yondashuvni uyg‘unlashtirish lozimligini ta’kidlaydi [2]. Qodirova Z.ning fikricha, boshlang‘ich ta’limda innovatsion metodlar, xususan CLIL, PBL va reflektiv yondashuvlar orqali o‘qituvchining mustaqil fikrlashi va izlanish olib borishga tayyorligi shakllanadi. U malaka oshirish kurslarini ilmiy laboratoriyaga o‘xshatadi va o‘qituvchini faol subyekt sifatida ko‘radi [3]. Jo‘rayevning fikricha, kasb-hunar ta’limi tizimida o‘qituvchilarni tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirish orqali ularning kasbiy motivatsiyasi va o‘zini anglash darajasi oshadi. U bu jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshirish, individual izlanish loyihalariga asoslanish zarurligini ta’kidlaydi .

Tadqiqotchilik koʻnikmasi deganda oʻqituvchining ilmiy savol qoʻyish, ma’lumot toʻplash, tahlil qilish, sintez qilish, xulosa chiqarish va oʻz amaliyotiga innovatsiyalarni joriy eta olish qobiliyati tushuniladi. Ushbu koʻnikmalarni malaka oshirish kurslari doirasida rivojlantirish uchun bir nechta zamonaviy metodik yondashuvlar mavjud:

Muammoli vaziyat asosida oʻqitish – real maktab amaliyotidan olingan holatlar asosida tahliliy topshiriqlar.

Mini-tadqiqot loyihalari – har bir tinglovchi oʻz pedagogik muammosiga doir kichik izlanish olib boradi.

Refleksiv kundaliklar yuritish – mashgʻulotlardan olingan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish va oʻzgarishlarni yozib borish.

CLIL va PBL yondashuvlari – mazmunli va til asosidagi integratsiyalashgan ta’lim metodikasi orqali oʻqituvchini faol subyektga aylantirish.

Quyida boshlangʻich sinf oʻqituvchilari uchun tadqiqotchilik koʻnikmalarini shakllantirishda qoʻllaniladigan faol usullar tahlili keltirilgan:

№	Faol metod	Koʻnikmani rivojlantirishga ta’siri	Tatbiq shakli
1	Muammoli holat tahlili	Tahlil qilish, sabab-oqibatni aniqlash	Ishchi guruhlar, keys-stadi
2	Mini-tadqiqot loyihasi	Ilmiy savol qoʻyish, izlanish olib borish, xulosa chiqarish	Individual loyiha, prezentatsiya
3	Rivojlantiruvchi refleksiya	Oʻz faoliyatini baholash, tanqidiy fikrlash	Refleksiv esse, blog yuritish
4	Koʻrgazmali kuzatishlar	Empirik ma’lumot toʻplash, tahlil qilish	Kuzatish jadvali, sinf faoliyati tahlili
5	CLIL metodikasi asosida dars loyihasi	Fanlararo integratsiya, innovatsion yondashuvlar	Integratsiyalashgan dars ishlanmasi

Ushbu usullarni tizimli tatbiq etish orqali oʻqituvchilar pedagogik faoliyatga tahliliy va tadqiqotchi pozitsiyasidan yondasha boshlaydi. Ular har bir darsni sinov maydonchasi sifatida koʻrib, undagi oʻquvchilar faoliyatini monitoring qilish, oʻz faoliyatidagi samaradorlikni baholash hamda yangi pedagogik echimlar topish boʻyicha mustaqil qarorlar chiqarishga oʻrganadi.

Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish ham tadqiqotchilik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, Google Form yordamida soʻrovnomalar tuzish, Excel orqali statistik tahlil qilish, video platformalarda dars yozuvlarini sharhlash oʻqituvchining analitik saviyasini oshiradi. Bu orqali u oʻz faoliyatini raqamlar va dalillar asosida tahlil qilishga oʻrganadi.

Bundan tashqari, metodist va mentorlar ishtirokida tashkil etiladigan metodologik seminarlar, kollegial tahlil uchrashuvlari va “action research” shaklidagi mashgʻulotlar tadqiqotchilik madaniyatini tizimli shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchilarning faolligi, o‘z ustida izlanishga tayyorligi va innovatsion g‘oyalarga ochiqligi muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning tadqiqotchilik kompetensiyasi o‘quvchilar rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Malaka oshirish jarayonida bu salohiyatni rivojlantirish uchun o‘qituvchining shaxsiy motivatsiyasi, tashkiliy sharoitlar va metodik qo‘llab-quvvatlash tizimi birgalikda faol ishlashi kerak.

Tadqiqotchilik ko‘nikmalarining shakllanishi, avvalo, o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatiga tanqidiy yondashuvi orqali boshlanadi. Odatda malaka oshirish kurslarida tinglovchilar tayyor nazariy materialni o‘zlashtirish bilan cheklanadilar. Ammo zamonaviy ta’lim konsepsiyalari, xususan, faoliyatga asoslangan yondashuvga ko‘ra, har bir pedagog o‘z amaliyotini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularga ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqishga jalb etilishi kerak. Buning uchun, birinchi navbatda, o‘qituvchining sinfdagi kundalik faoliyati monitoring qilinadi, muammo joylari belgilab olinadi va ushbu masalaga doir ilmiy savol shakllantiriladi.

Keyingi bosqichda esa o‘qituvchi kichik hajmdagi eksperimental izlanishni rejalashtiradi. Bu izlanishda u darsning biror bosqichini, masalan, o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish yoki matn bilan ishlash ko‘nikmasini kuchaytirishga qaratilgan metodik yangilikni sinovdan o‘tkazadi. Olingan natijalar esa grafik, jadval yoki statistik tahlil orqali taqqoslanadi. Shunday yondashuvlar orqali o‘qituvchi o‘z faoliyatini ilmiy mezonlar asosida baholay boshlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tadqiqotchilik ko‘nikmalarining shakllanishi nafaqat ularning individual kasbiy salohiyatini oshiradi, balki butun ta’lim tizimining yangilanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Malaka oshirish kurslarining mazmuni faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasligi, balki o‘qituvchining faol, izlanishga tayyor subyekt sifatida rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashi lozim. Zamonaviy yondashuvlar, interaktiv metodlar va raqamli vositalar orqali o‘qituvchilarning tadqiqot olib borish qobiliyatini oshirish, ularni o‘z amaliyotini mustaqil baholay oladigan, tahlil qila oladigan, rivojlantirishga tayyor mutaxassislarga aylantirish bugungi ta’limning ustuvor vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tursunov B. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 264 b.
2. Otaxonova M. Ta’limda tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish: metodik qo‘llanma. – Samarqand: Registon, 2019. – 188 b.
3. Qodirova Z. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion metodlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 172 b.
4. Jo‘rayev N. Kasb-hunar ta’limida o‘qituvchilarning tadqiqot faoliyatini rivojlantirish. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022. – 200 b.
5. Xodjiyeva D.R. Pedagogik kompetensiyani shakllantirishda tadqiqot faoliyatining o‘rni. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 140 b.

6. Abdullaeva S. Ta’limda amaliy tadqiqotlarni tashkil etish usullari. – Nukus: Bilim, 2018. – 152 b.
7. Ashurova G. Boshlang‘ich ta’limda pedagogik monitoring va baholash. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 160 b.
8. Nurmatova N. Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019. – 210 b.

FIZIKA DARSLARIDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

Zayniddinova Muhayyo G‘iyosiddinovna
Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani
6-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 2-toifali fizika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘quvchilarga ilmiy mavzularni o‘rganishda loyiha asosida ta’lim berish metodikasini taqdim etadi. Ta’lim jarayoni to‘rt guruhga bo‘lingan o‘quvchilar tomonidan bir nechta mavzularni o‘rganish va taqdimot qilish orqali amalga oshiriladi. Har bir guruhga berilgan mavzular bug‘lanish, solishtirma bug‘lanish issiqligi, kondensatsiya va qaynash kabi fizik hodisalar bilan bog‘liq. O‘quvchilar vatman qog‘ozlar, stikerlar, markerlar va boshqa jihozlardan foydalanib, o‘z loyihalarini tayyorlaydilar. Taqdimot jarayonida o‘quvchilar bir-biriga savollar berish imkoniyatiga ega bo‘ladilar va o‘zaro fikr almashadilar.

Kalit so’zlar: interaktiv, metod, 4K modeli, “Gallery Walk” metodi, 1 daqiqa metodi, A4 format metodi**.**

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning darsdagi faolligi va bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. An’anaviy dars uslublari asosan o‘qituvchi markazida kechgan bo‘lsa, bugungi kun ta’limi talabalardan faol ishtirok, mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va amaliy bilimlarni egallashni talab qilmoqda. Ayniqsa, fizika kabi murakkab va nazariy jihatdan to‘yingan, ko‘plab qonuniyat va fizik hodisalarni o‘z ichiga olgan fanlarni o‘rgatishda, oddiy izohlash va ma’lumot berish yetarli bo‘lmay qolmoqda. Shu bois ta’lim tizimida interaktiv, ya’ni o‘quvchini dars markaziga olib chiqadigan, uni faol fikrlashga, izlanishga undaydigan metodlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

“Metod” so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, “usul” yoki “yo‘l” degan ma’nolarni anglatadi. Har qanday bilimni samarali o‘rgatish uchun to‘g‘ri metod tanlash muhim ahamiyatga ega. “Interaktiv” so‘zi esa ingliz tilidan olingan bo‘lib, “inter” – o‘zaro va “aktiv” – faol degan ma’noni bildiradi. Demak, interaktiv metodlar deganda o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro faol muloqotga asoslangan, dars jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va ishtirokini

kuchaytiradigan usullar tushuniladi.Bunday metodlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv, jamoada ishlash, og‘zaki va yozma nutq, tanqidiy fikrlash hamda ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, ular o‘zlashtirish darajasini oshirib, darsni qiziqarli, jonli va samarali o‘tishiga xizmat qiladi. Interaktiv metodlardan foydalangan holda tashkil etilgan darslar o‘quvchilarni faqatgina bilim olish emas, balki uni hayotda qo‘llay olishga, bilimni amaliyotga tatbiq qilishga yo‘naltiradi. Aynan shu yondashuv orqali zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchi passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanadi.

Interaktiv metodlarning afzalliklari.

- Mustaqil fikrlash va tashabbuskorlikni rivojlantiradi;
- Jamoada ishlash orqali muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi.
- Turli munozara va tajriba almashinuv orqali tanqidiy fikrlash qobiliyatlari yanada yaxshilanadi.

Fizika darslarida interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini sezilarli oshiradi. Interaktiv metodlar orqali o‘quvchilar mavzuni chuqurroq tushunadilar.Interaktiv metodlardan foydalanish bo‘yicha namuna sifatida “Bug‘lanish va kondensatsiya” [46]mavzusi tanlandi. Sinfdagi o‘quvchilar sonidan va holatidan kelib chiqib, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish mumkin.

“**1 daqiqa**” **metodi**

Ushbu metodni barcha fanlardan foydalanish mumkin. O‘qituvchidan hech qanday tayyorgarlik talab etilmaydi.

Qo‘llanilishi:

O‘qituvchi o‘quvchilarga 1 daqiqa vaqt berishini, ular bu vaqt oralig‘ida o‘tgan mavzuga aloqador 10 so‘z yozish kerakligini tushuntiradi.O‘qituvchi taymerni oladi, o‘quvchilar esa daftar, ruchka tayyorlaydi. Vaqt tugagach, hamma o‘quvchi izohsiz, navbat bilan yozgan so‘zlarini o‘qib berishadi. Bu metodni gap ko‘rinishidagi ma’lumot shaklida ham qo‘llash mumkin. Faqat gaplar sonini kamaytirish lozim.

O‘quvchilar quyidagi namuna kabi so‘zlar yozishlari mumkin.

1. Amorf jism.
2. Kristall.
3. Erish temperaturasi.
4. Issiqlik.
5. Solishtirma erish issiqligi.
6. Kinetik energiya.
7. Potensial energiya.
8. Suyuqlik.
9. Qotish.

[46] Fizika: 9-sinf uchun darslik / P.Habibullayev, A.Boydedayev, A.Bahromov va b.Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019

10. Yumshash va suyuqlanish.

O‘quvchilar 10 tadan kam yoki ko‘p so‘z topishlari mumkin. Har 2 ta topilgan so‘zga 1 ball beriladi.

Kutilayotgan natijalar:

- Kreativlik, kommunikatsiya rivojlanadi;
- Yoddan chiqqan ma’lumotlar eslanadi, xotirada yaxshi mustahkamlanadi;
- Dars jarayoni qiziqarli o‘tadi.

Motivatsiya. Bu qismda o‘quvchilarni darsga qiziqtirish uchun mavzu naqadar muhimligi tushuntiriladi.

O‘qituvchi nutqi:

Siz hech o‘ylab ko‘rganmisiz, nima uchun yozda daryolar suvi kamayadi, kuzda esa namlik ko‘payadi? Yoki nega quyosh ostida suv tezroq bug‘lanadi, lekin qishda oynalarimiz muzlab, tunda kondensatsiya tomchilari hosil bo‘ladi? Ushbu oddiy, lekin hayotimizning har bir kunida uchraydigan hodisalar bug‘lanish va kondensatsiya jarayonlari bilan bog‘liq.Bugungi dars yakunida siz nafaqat ilmiy tushunchalarni egallaysiz, balki kundalik hayotingizda ushbu bilimlarni qanday qo‘llash mumkinligini ham tushunasiz.

Dars mazmuni. Bu qismni darsning torti deb ham atashadi. Chunki o‘quvchilar uchun eng foydali joyi, eng kerakli qismi hisoblanadi. Mazkur qismda yangi mavzu haqida ma’lumotlar keltirilib, tushuntirish beriladi. Yangi mavzuni yoritishda o‘qituvchi 100 foiz faol bo‘lmasligi lozim, bunda o‘quvchilarni mustaqil ravishda o‘rganishlariga imkoniyat yaratib beriladi. Darsning 80 foiz vaqtida o‘quvchilar, 20 foizlik qismida o‘qituvchi faol bo‘lishi lozim. Shunda samaradorlik va o‘zlashtirish darajasi ancha o‘sadi. O‘quvchilar mavzuni mustaqil tadqiq qilishi uchun Singapur ta’limi metodlaridan biri “Gallery Walk” metodidan foydalanish mumkin.

“Gallery Walk” metodi.

“Gallery Walk” metodi nomini “Galereya bo‘ylab sayohat” [47]deb nomlasak ham bo‘ladi. Metodni barcha fandan, turli yoshdagi o‘quvchilarga qo‘llash mumkin. Asosan darsning mazmuni qismi va refleksiya jarayonlari uchun qo‘llash mumkin. O‘qituvchi avvaldan Kondensatsiya, Bug‘lanish, Qaynash, Solishtirma bug‘lanish issiqligi doir rasmlarni printerdan chiqarib oladi. Rasmlarni ilovalar bo‘limidan olishingiz mumkin.

Kerakli jihozlar: Vatman qog‘ozlar, stikerlar, markerlar, rasmlar, chizg‘ich va qalamlar.

Qo‘llanilishi: O‘quvchilar 4 guruhga bo‘linadi. Har bir guruhga kichik mavzu beriladi va ular shu mavzularga loyiha ishi tayyorlashadi.

1- guruh. Bug‘lanish;

2- guruh. Solishtirma bug‘lanish issiqligi;

[47] Singapore Ministry of Education. “21st Century Competencies Framework.”(Singapur ta’lim tizimi haqida ma’lumotlar).

3- guruh. Kondensatsiya, to‘yingan va to‘yinmagan bug‘; 4- guruh. Qaynash.

O‘qituvchi har bir guruhda sardor va taqdimotchi tayinlaydi.

Sardorni vazifasi barcha o‘quvchini mavzuga jalb qilish va faol ishtirokini ta’minlashdir.Taqdimotchini vazifasi guruh a’zolari aytgan fikrlarni yozib olishdir. Metod so‘nggida loyiha ishini taqdimot qilib beradi.Guruhlar uchun 15 daqiqa vaqt beriladi. Berilgan muddat davomida o‘quvchilar vatman qog‘ozga rasmlar yopishtirib, ma’lumotlar, stikerlarga formulalar yozishlari mumkin. Vaqt tugagach, guruhlarda faqat taqdimotchilar qoladi. Ular o‘z loyihalarini sinfning turli burchaklariga ilishadi. Shundan so‘ng barcha o‘quvchilar 1-guruh loyihasini oldiga o‘tadi. Taqdimotchi o‘z mavzusini chiroyli va ko‘rgazmali qilib yoritib beradi. Bu uchun unga 3-4 daqiqa beriladi. Shu vaqt oralig‘ida o‘quvchilarda savollar bo‘lsa, javob ham olishadi.Loyiha ishlarining kamchiliklari va yutuqlari haqidagi fikrlar stikerga yozilib, taqdimotchiga topshiriladi. So‘ng o‘quvchilar keyingi guruhga o‘tishadi. Shu jarayon o‘quvchilar o‘z taqdimotlari oldiga kelguncha davom etadi. Guruh o‘quvchilari xatokamchilik yozilgan stikerlarni o‘qib, taqdimotga o‘zgartirish yoki qo‘shimchalar kiritishi yoki shunday qoldirishlari mumkin. O‘qituvchi loyiha ishlariga 1 dan 5 gacha baho qo‘yadi.

Baholashda loyiha ishlari chiroyli bezatilganligi, asosiy fikrlar tushib qolmaganligi, formulalar to‘g‘ri keltirilganligi va taqdimotchining nutqi hisobga olinadi. Metoddan kutilayotgan natijalar:

- O‘quvchilarda Kreativlik, Kritika, Kollaboratsiya, Kommunikatsiya ko‘nikmalar shakllanadi;
- Tadqiqotchilik qobiliyatlari rivojlanadi;
- Barcha o‘quvchilar faol qatnashadi;
- Mavzuga qiziqish ortadi;
- Mavzu o‘quvchilar xotirasida uzoq vaqt qoladi;
- O‘quvchilar mustaqil ravishda mavzuni o‘rganadilar.

Metod tugagach, o‘quvchilar fikri umumlashtirilib, mavzu chuqurroq tushuntiriladi.

Refleksiya. O‘quvchilar mavzuni mustahkamlashi uchun “A4 format” metodi o‘tkaziladi.

“A4 format” metodi.

Metodni barcha sinflarda o‘tkazish mumkin. Bu metod mavzuni yaxshi eslab qolishga va takrorlashga yordam beradi.

Kerakli jihozlar: A4 formatdagi oq qog‘ozlar.

Qo‘llanilishi: Sinfda 3 ta qator bo‘ladi. Har bir qatorni yana 2 ga bo‘lib olinadi. Shunday qilib guruhlar soni 6 taga yetkaziladi. Har bir guruhga 1 tadan oq qog‘oz beriladi. Har bir o‘quvchi mavzuga doir 1 ta ma’lumot yoki formula yozishi kerak bo‘ladi. Sharti, ma’lumot takrorlanishi mumkin emas. Parta oxiridagi o‘quvchilar yozib bo‘lib, qog‘ozni o‘zi bilan doskaga olib chiqadi. Hamma guruh bajarib bo‘lgach, doska oldidagi guruh vakillari ma’lumotlarni o‘qib berishadi va formulalarga ta’rif berishadi. Ular ma’lumotlari to‘liq bo‘lsa, 1 ball bilan baholanadi. Metoddan kutilayotgan natijalar:

- Og‘zaki va yozma nutq shakllanadi;
- Barcha o‘quvchilar qamrab olinadi;
- Barchani baholash imkonini beradi.

Baholash. Bu qismda o‘quvchilarning to‘plagan ballari hisoblanadi. Masalan:

- 1 daqiqa metodi uchun 5 ball;
- “Gallery Walk” metodi uchun 5 ball;
- “A4 format” metodi uchun 1 ball.

Jami 11 ball. 10 balldan yuqori ball olgan o‘quvchilarni kundaligiga “Ota-onasiga rahmat” deb yozib berilishi yoki o‘qituvchi tomonidan turli sovg‘alar bilan rag‘batlantirilishi mumkin. Barcha o‘quvchilarning to‘plagan balli kundalikka qo‘yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fizika: 9-sinf uchun darslik / P.Habibullayev, A.Boydedayev, A.Bahromov va b. –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.

2. Singapore Ministry of Education. “21st Century Competencies Framework.”

(Singapur ta’lim tizimi haqida ma’lumotlar).

3. http://www.ziyonet.uz/ http://www.edu.uz/

OMON MATJON IJODINI INDIVIDUAL USLUBIY IZLANISHLARINI TAHLIL ETISH ORQALI O‘QITISH

Xo‘jamqulov Anvar Jozilovich
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
a.xujamqulov@mail.ru,
+998939974746, +998938388989
Tog‘ayeva Shoxnoza Elmurod qizi
mustaqil tadqiqotchi,
“Japan international school” o‘qituvchisi,
shaxnozatogayeva25@gmail.com,
+998973922606

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning badiiy uslubi, ayrim voqeaband she’rlari, tarixiy mavzudagi va folklor an’analariga xos ijod namunalari tahlili haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: badiiy uslub, voqeaband she’rlar, traditsiya, folklor, lirik va epik tasvir.

Annotation. This article will talk about the artistic style of the people's poet of Uzbekistan Omon Matjon, the analysis of some khataband poems, examples of creativity with a historical theme and characteristic of folklore traditions.

Keywords: artistic style, event poetry, tradition, folklore, lyrical and epic image.

Аннотация. В данной статье речь пойдет о художественном стиле народного поэта Узбекистана Амона матжона, анализе отдельных поэм, образцов творчества на историческую тематику и фольклорных традиций.

Ключевые слова: художественный стиль, повествовательная поэзия, традиция, фольклор, лирический и эпический образ.

O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjon ijodiga nazar tashlar ekanmiz, shoirning bisotida o‘ttizga yaqin kitoblarida jam bo‘lgan turli janrlardagi katta-kichik turkum she’rlar, dostonlar, she’riy qissa va tarjimalarni uchratish mumkin. Mavzu ko‘lami keng. Aksariyat she’rlarida nasrdagi kabi voqealar tasviriga urg‘u qaratilgan. 9-sinf adabiyot darsligidan shoirning “Vatan mehri”, “Avvalgilarg‘a o‘xshamas”, “Eng so‘nggi xazina” she’rlari o‘rin olgan. Darslikda Omon Matjon ijoding o‘ziga xosligi xususida shunday deyilgan: “Omon Matjon she’rlarida Xorazm vohasiga xos so‘z boyligidan, o‘sha yurtning afsonalaridan, xorazmliklarning shirin lafzidan o‘rinli foydalanadi. Shoir xalq ijodiga tez-tez murojaat qiladi. Shuning uchun ham uning she’rlari yengil o‘qiladi, kuchli ta’sir qiladi va oson yodda qoladi. Shoirning she’rlarini mehr qo‘yib, sinchiklab o‘qish, ularni yodlab olish kishi ma’naviyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu she’rlar she’rxonni hayot, odamlar, ularning ichki olami haqida jiddiyroq o‘ylash va o‘ziga yarasha xulosa chiqarishga yo‘naltiradi [1: 238-b.]. Shoirning ijodini o‘quvchilarga yaqindan tanishtirishda o‘qituvchi tomonidan ijodkorning boshqa to‘plamlaridan joy olgan she’rlarini tahlil qilish yaxshi samara beradi. Shuningdek, o‘quvchilar Omon Matjonning boshqa ijodkorlarda uchramaydigan o‘ziga xos uslubi haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar. Jumladan, so‘z yuritmoqchi bo‘lganimiz shoirning turli yillarda chop etilgan she’riy kitoblaridagi sara she’rlari jamlangan “Iymon yog‘dusi” saylanmasida muallifning ko‘plab voqeaband she’rlari mavjud [2: 1-384-b.]. Ushbu saylanmada Omon Matjonning “Qush yo‘li” (1993-y., 23 she’r, 1 doston), “Ochiq derazalar” (1970-y., 21 she’r), “Karvon qo‘ng‘irog‘i” (1973-y., 8 she’r), “Quyosh soati” (1974-y., kuzatuvlar, mulohazalar), “Yonayotgan daraxt” (1977-y., 11 she’r), “Yarador chaqmoq” (1979-y., 18 she’r), “Haqqush qichqirig‘i” (1979-y., 10 she’r), “Seni yaxshi ko‘raman” (1981-y., 14 she’r), “Daraxtlar va giyohlar” (1984-y., 25 she’r), “Gaplashadigan vaqtlar” (1986-y., 13 she’r, 3 tarjima), “Ming bir yog‘du” (1989-y., 18 she’r), “O‘rtamizda birgina olma” (1990-y., 11 she’r, 1 doston) kabi o‘ndan ortiq kitoblaridan eng sara ijod namunalari (jami, 172 she’r, 2 doston) tanlab olingan. Ushbu she’rlar xronologik ketma-ketlikda mutolaa qilinsa, ijodkorning yillar o‘tgani sayin yangicha uslubiy izlanishlarini sezish mumkin. Jumladan, “Ochiq derazalar” (1970-y.) turkumidagi ko‘plab she’rlarni voqeaband xarakterda deyish mumkin. Masalan,

Ochiq derazalar,
Ochiq derazalar...
Tun qo‘yniga nuri sochiq derazalar,
Sizga men o‘g‘rincha boqib o‘taman,
Ochiq derazalar, ochiq derazalar.

Meni jalb etasiz,
Bo‘lib rango-rang,
Goh parda ortida sirli soyalar,
Eshitgim keladi har derazadan,
Bir sirli pichirlov yo hikoyalar.

Ammo nechog‘ og‘ir,
Eh, og‘ir menga –
O‘zga derazaga boqmoq suq bilan
Men o‘z derazamni orzu qilaman,
Yog‘dusi, soyasi, kulgisi bilan.
(1965)

Shuningdek, ushbu to‘plamdan joy olgan “Kapalagim – jon halagim” (1966), “Mezon” (1967), “Boshqalardek sevishdik biz ham” (1967), “Bobur” (1967), “Tun cho‘kdi” (1967), “Firuza” (1968), “Shar” (1968), “Aks-sado”, “Irmoq” (1969) kabi she’rlar ham voqeaband she’rlardir.

1973-yilda chop etilgan “Karvon qo‘ng‘irog‘i” she’riy to‘plamidan ushbu saylanma uchun 8 ta she’r tanlab olingan. Ushbu she’rlarga e’tibor qilinsa, voqeaband she’rlar bilan bir qatorda (masalan, “Tugab borar Sultonning sabri”, “Xotira” kabilar), “Oybek”, “Ona degan so‘z”, “Devorlar” kabi bag‘ishlov she’rlarni ham uchratish mumkin.

“Oybek” she’rida o‘zbek xalqining buyuk ijodkor farzandi Muso To‘shmuhammad o‘g‘li Oybek umrining so‘nggi damlaridagi, ruhiy, jismoniy holatlariga ishoralar borligi oydinlashadi:

Sukunat tillardir.
... Oqshomning yulduzli tillari,
Gullarning iltijo tillari,
Vulqonning im-iliq tillari.

Sukunat tillardir
Tog‘larning og‘ir tosh tili,
Ko‘zning kiprik tili, yosh tili,
Butun samovotning bosh tili.

Sukunat tillardir.
Alangalar, cho‘g‘lar shu tilda so‘ylar,
O‘ylar, xotirotlar shu tilda so‘ylar,

Unut bo‘lgan zotlar shu tilda so‘ylar.

Shu tilni o‘ylagim keladi.
Shu tilda so‘ylagim keladi.
Sukunat – shoirning so‘zlari.
Ayta...
olmay...
ketgan...
so‘zlari.

She’r matnidan o‘quvchida umrining oxirlarida turli tazyiqlar tufayli Oybekning “tildan qolgani” kabi bir yoqlama tushunchalar ham paydo bo‘lishi mumkin. Ammo bizning nazdimizda, ushbu she’r faqatgina shoir umrining so‘nggi damlarida emas, balki mustabid tuzum ta’siri oqibatida uning butun hayoti “sukunat”da o‘tishiga sabab bo‘lgan. Shu kabi she’rlari orqali Omon Matjon voqeaband she’rlar bilan bir qatorda o‘z uslubida yangilanishlarga qo‘l urgani – ijtimoiy-siyosiy mavzularga murojaat qila boshlagani anglashiladi. Uning “Quyosh soati” (1974) kitobidan saylanmaga kichik qaydlar, etyudlar, badihalar va hikmatlar saralab olingan. Ularda Omon Matjonning hayotiy kuzatuvlari asosidagi mulohazalari, xulosalari, anglab yetgan haqiqatlari ifoda etilgan. Masalan,

Kitob do‘konining boshqalaridan ajoyib farqi shuki, bu do‘konga har bir xaridor o‘z tarozusi bilan keladi.

* * *

Qiyin ishlarni bajarib yurgan kishining oson ishni qilishi qiyin bo‘ladi!

* * *

Notiq tonggacha gapirib, ancha suvni isrof qildi...

* * *

Eshikning tutqichi gerdaydi: “Men jahon eshiklarini ochguvchiman”.

* * *

Ko‘zingni yum, o‘tmishingni ko‘rasan, lekin undan ko‘zingni yumma kabilar.

Shu tariqa keyingi to‘plamlarida shoir ijodida uslubiy yangilanishlar yuzaga kelganligini ko‘rish mumkin. “Haqqush qichqirig‘i” (1979) she’riy to‘plamida, asosan, tarixiy mavzulardagi she’rlari jamlangan. “Odamning yoshi”, “Komil Xorazmiyning Muhammad Rahimxon II (Feruz)dan Rossiya bilan sulh tuzishni so‘ragani” shular jumlasidandir. Shuningdek, Omon Matjonning “Alla”, “Ajdar quduq”, “Yor tanlash” kabi she’rlarida lirik va epik tasvir uyg‘unligini ko‘rish mumkin. Odatda, shoirlar o‘z she’rini izohlamaydilar. Xulosani o‘quvchining hukmiga havola qilishadi. Biroq mazkur she’rlarda shoir o‘quvchining yanglish xulosaga kelishidan xavotirlanibmi yoki bo‘lmasa, xato yo‘ldan ketishining oldini olish maqsadini ko‘zlabmi, aytmoqchi bo‘lganlarini o‘quvchilarga izohlashga harakat qiladi. Bundan tashqari, shoirning “Mangulikning o‘lchovi”, “Nurjon botir”, “Eng so‘nggi xazina”, “Davronshohning suvrati” kabi she’rlari ham borki, bularda xalq og‘zaki poetik ijodi – folklorning ajoyib namunalari she’riy tarzda

o‘quvchilarga taqdim etilgan hamda shu uslub orqali folklar an’analari munosib davom ettirilgan. Xullas, Omon Matjon ijodiga e’tibor qaratar ekanmiz, unda turfa xil an’anaviy mavzular bilan bir qatorda boshqa ijodkorlarda uchramaydigan o‘ziga xos badiiy uslub qirralari ham namoyon bo‘ladi. Ushbu uslubiy o‘ziga xosliklar o‘quvchilar tomonidan shoir ijodining o‘rganilishi, mazmunini chuqurroq anglab yetishda yaqindan yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yo‘ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 9-sinfi uchun darslik. – T.: O‘zbekiston, 2019.
2. Omon Matjon. Iymon yog‘dusi. Saylanma. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1995-y.
3. Omon Matjon. Maqsudam. – T.: Adabiyot, 2021-y.
4. Omon Matjon. Seni yaxshi ko‘raman. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981-y.

TA’LIM KLASTERI SHAROITIDA “IQTISODIY BILIM ASOSLARI” FANINI O‘QITISHNING PEDAGOGIK SHAROITLARI

Rasulova Dilnoza Nomozovna
Olmazor tumani
165-maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ta’lim klasteri sharoitida “Iqtisodiy bilim asoslari” fanini o‘qitishning pedagogik sharoitlari to‘g‘risida fikr yuritilib, barkamol shaxsni tarbiyalashning samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish haqida taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, ishlab-chiqarish, globallashuv, ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish, axborot kommunikatsiya texnologiya, pedagogik ta’lim klasteri, tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash, modellashtirish, inson resurslarining integratsiyalashuvi, ta’lim-tarbiya, pedagogik jarayon, klaster usulida tarbiyalash.

Аннотация. В данной статье представлены организатцонные, педагогические условия преподавания дисциплины "Основы экономических знаний" в рамках кластера современного образования и предложены эффективные эффективные механизмы воспитания гармоничной личности.

Ключевые слова: инноватця, производство, глобализатця, социально-экономические инноватци, информатционно-коммуникатционные технологии, педагогический образовательный кластер, аналитическая статистика, социальный анализ, объяснение, интегратция моделей человеческих ресурсов, образование-воспитание, педагогический процесс, воспитание по кластерному методу.

Abstract. This article presents the organizational and pedagogical conditions for teaching the discipline "Fundamentals of Economic Knowledge"

within the cluster of modern education and suggests effective effective mechanisms for the education of a harmonious personality.

Key words: innovation, production, globalization, socio-economic innovations, information and communication technologies, pedagogical educational cluster, analytical statistics, social analysis, explanation, integration of human resource models, education-upbringing, pedagogical process, education by the cluster method.

Yangi O‘zbekiston sharoitida pedagogik ta’lim klasterining subyektlari sifatida pedagogik ta’lim klasteri muassasalarining ta’limiy, ilmiy, uslubiy faoliyatining sifatini oshirishga xizmat qiladigan barcha davlat va nodavlat tashkilotlarini pedagogik ta’lim klasterining komponentlari deb tushunish mumkin. Klaster modeli har biri alohida faoliyat olib borayotgan subyektlarni umumiy maqsad atrofida birlashtiradi va ayni paytda, har bir subyekt umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda, xususiy manfaatdorlikda ish yuritadi. Klaster modeli subyektlari bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi va nazorat qiladi, har biri alohida klasterning ma’naviy va intellektual maydonini yaratadi, o‘zaro ijtimoiy ta’siri hamda ahamiyatini kengaytiradi. Shuningdek, pedagogik ta’lim klasteri subyektlari quyidagi strategiyalarga asoslanadi:

- hudud nuqtai-nazaridan geografik strategiyaga;
- ishlab chiqarish va akademik ilm-fan bilan munosabatiga ko‘ra lateral strategiyaga;
- ta’lim va tarbiya texnologiyalaridagi yaqinlik nuqtai-nazaridan texnologik strategiyaga;
- umumiy maqsad atrofida birlashish nuqtai nazaridan fokusli strategiyaga;
- hamkorlikni qanday tashkil qilish va rivojlantirish nuqtai nazaridan sifat strategiyalargaasoslanadi.

Subyektlarning bir paytning o‘zida bir nechta strategik faoliyat olib borishi va uning fokusini klasterning ham umumiy, ham xususiy maqsadlariga to‘g‘rilash anchayin murakkab jarayon hisoblanadi. Ammo bu murakkablikni ilmiy va amaliy nuqtai nazardan hal qilish klasterlashtirish jarayonining asosiy sharti hisoblanadi. Klaster doirasida bir nechta subyektlarni o‘zaro integratsiyalash murakkab, ko‘p tarmoqli ilmiy-amaliy jarayondir.

Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, ta’lim klasteri o‘zbek pedagogikasida innovatsiya bo‘lib, o‘zida nafaqat ta’lim turlari o‘rtasidagi, balki fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyalashuv jarayonlarini, shuningdek, ta’limni boshqarish, ta’lim vositalari va shakllari bilan bog‘liq sohalarni ham qamraboladi.

Ilmiy adabiyotlarda klaster tarkibiga kiruvchi subyektlar o‘zlari ishlab chiqaruvchi mahsulotlarning, axborot va bilimlarning xususiyatlariga ko‘ra aloqalarning shakli, o‘zaro hamkorlikning tuzilishi, ishtirokchilar faoliyatining xususiyati, paydo bo‘lish tabiati, asosiy resursning xili, kafillanganlik darajasi va geografik tarkibiy qismining mavjudligi bo‘yicha tasniflanadi.

Mamlakatimizda ta’lim siyosatining tamoyillaridan va mavjud shart-sharoitdan kelib chiqqan holda pedagogik ta’lim klasterining quyidagi tamoyillarini taklif qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- Tabiiy aloqadorlik: klaster subyektlari o‘rtasidagi hamkorlik aloqadorlik masalasining tabiiyligi ya’ni bog‘liqlik masalasining hududiy sohaviy yoki vazifaviy jihatdan obyektivligi.
- Uzviylik va uzluksizlik, klaster subyektlarining o‘zaro bog‘likligida zanjir hosil qilishi, zanjirni hosil qiluvchi har bir bo‘g‘in o‘zining aniq vazifalariga ega ekanligi, uzluksizlik zanjirida bo‘shliqlarga yo‘l qo‘yilmasligidir.
- Izchillik, klaster subyektlarining vertikal yagona chiziqda joylashuvi, bunda quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich harakatlanish tendensiyasiga amal qilinishidir.
- Vorisiylik, klasterning avlodlar almashinuvidagi roli, tyutorlik faoliyati, pedagogik ta’limni klasterlashtirish natijasida subyektlarning malakali pedagog xodimlarga bo‘lgan ehtiyojining muntazam qondirilishiga erishishdir.
- Zamonaviylik, sohaga oid zamonaviy ilm-fan yutuqlarini tizimga joriy qilish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanishdir.
- Yo‘naltirilganlik, klaster doirasida amalga oshirilayotgan har bir faoliyat turning aniq maqsadga yo‘naltirilganligi, kutilayotgan natijalarni oldindan chamalash va baholash imkoniyatining mavjudligidir.
- Maqsadning umumiyligi, klaster subyektlarining xususiy maqsadlardan tashqari global aspektdagi yagona maqsad atrofida birlashuvidir.
- Manfaatlarning xususiyligi, pedagogik ta’lim klasteri modelida har bir subyektning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan manfaatdor bo‘lishidir.
- O‘zaro nazorat, klaster modeli doirasida birlashgan ta’lim subyektlarining o‘zaro yagona tizimni hosil qilishi va bu tizimning nuqsonsiz ishlashidan har bir subyektning manfaatdor ekanligi, ma’lum subyektga yo‘l qo‘yilgan xato va kamchilik boshqa subyektlarning faoliyat samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi, subyektlar faoliyatini o‘zaro baholash tizimining yo‘lga qo‘yilishidir.

O‘quvchilar ta’lim jarayonida bir-biri bilan hamkorlik qilishining uchta asosiy usuli mavjud. Ular kim “ilg‘orligini” bilish uchun musobaqa o‘ynashi mumkin. Ular maqsadga erishish uchun boshqa o‘quvchilarga e’tibor bermagan holda individual ishlashlari mumkin. Yana ular bir-birini o‘qitishga qonuniy ravishda qiziqish bilan hamkorlikda ishlashlari mumkin. Lekin hamkorlik birinchi darajaga chiqqan paytda kooperativ motivatsiya raqobatchisiga nisbatan ta’lim jarayonida ancha samaralidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 45 b.

2. O‘lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Iqtisod moliya, 2014. – 384 bet.

3. In M. Lewis & J. M. Haviland (Eds.). Handbook of emotions (2nd ed.). – N.Y.: Guilford, 2000. – P. 454–460

4. https://www.oak.uz/

5-SHO‘BA
ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR VA XALQARO BAHOLASH MASALALARI.

PIRLS DASTURI ASOSIDA BAHOLASH MEZONLARI , XALQARO TADQIQOTI UCHUN TOPSHIRIQLAR TAYYORLASH

Azizova Dilnoz Yo‘ldashevna
Qashqadaryo viloyati MM Maktabgacha,
boshlang‘ich va maxsus
ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi v.b dots.

Annotatsiya. PIRLS dasturi bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar va yangicha yondashuvlar, Xalqaro baholash dasturlari va ta’lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA, PIRLS va TIMSS kabi ta’lim sifatini yanada oshirishdagi mezonlari xususida fikrlar yoritigan. Shuningdek, ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish jarayonida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash mazmun-mohiyati borasidagi nazariy ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: PISA, PIRLS va TIMSS o‘quv, ko‘nikma, bilim, takrorlash, tekshirish, baholash, yozma tekshirish, og‘zaki tekshirish, umum metodik talablar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli Qarorida va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib, xalqaro tadqiqotlar doirasida reyting bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar yo‘nalishidagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Konsepsiya doirasida o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlarini joriy etish, o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

PIRLS-(Progress in International Reading Literacy Study) — bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu tadqiqiotning maqsadi esa, dunyoning turli mamlakatlarida tahsil oluvchi boshlang‘ich sinf (4-sinf) o‘quvchilarini matnni o‘qish va tushunish darajalarini

taqqoslovchi, shuningdek, mamlakatlar milliy ta’lim tizimida o‘qish savodxonligi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni taqqoslashga moslashgan xalqaro baholash loyihasi hisoblanadi.

O‘qish savodxonligining asosi matnlar bilan to‘liq ishlash uchun zarur bo‘lgan o‘qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o‘quvchi tomonidan kerakli ma’lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma’lum qismi bo‘yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash.

PIRLS tadqiqotlarida darsda o‘quvchilar tomonidan eng ko‘p qo‘llaniladigan o‘qishning quyidagi ikki turi o‘rganiladi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o‘qish.
2. Mazmunni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o‘qish.

O‘quvchilarga ikki xil topshiriq beriladi:

1. Adabiy o‘qish tajribasini o‘rganish;
2. Axborotni ishlab chiqish va undan foydalanish.

PIRLS o‘rganish monitoringi bo‘lganligi va uning asosiy vazifalaridan biri o‘qish sifati dinamikasini o‘rganish bo‘lganligi sababli, o‘qish uchun zarur shart bu har bir qismda matnlar va ularga berilgan topshiriqlarning bir qismini qayta ishlatishdir.

Tadqiqot ishtirokchilarining o‘quv va o‘qishdagi yutuqlarini baholash o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarining muayyan darajalariga asoslangan holda maktab ta’limi sifatini baholash sohasidagi xalqaro ekspertlarning ko‘rsatmalariga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu darajalar ishda taklif qilingan matn bilan ishlashda turli murakkablikdagi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tavsiflaydi. Aniq darajadagi mezonlar sizga bolalarning natijalarini statistik jihatdan alohida guruhlarga ajratish imkonini beradi, ularning tayyorgarligini o‘qish savodxonligi jihatidan ma’lum darajani tavsiflovchi aniq vazifalar yordamida tasvirlash mumkin.

Bajarilgan ishlarni baholash tizimi sifatli va miqdoriy baholashni birlashtiradi. PIRLSni baholash 1000 balli shkala bo‘yicha amalga oshiriladi (asosan davlatlar natijalari 300 dan 700 ballgacha).

O‘rtacha qiymat - 500 ball, standart og‘ish - 100 ball. Har bir topshiriq uchun topshiriqning qiyinligiga qarab ma’lum ball beriladi. Xalqaro ekspertlar o‘qish savodxonligini badiiy va axborotli matnlarni o‘qish sifatini va o‘qish qobiliyatining individual guruhlarini baholash ko‘lamiga muvofiq baholaydilar.

PIRLS tadqiqotlarida xalqaro miqyosda hammasi bo‘lib, to‘rtta daraja ko‘rsatilgan**:**

1. Eng yuqori daraja 625 ball
2. Yuqori daraja 550 ball
3. O‘rtacha daraja – 475 ballga
4. Past daraja – 400 ballga to‘g‘ri keladi

Natijalar qanday baholanadi?

Javoblarni tanlash bilan vazifalarni tekshirish maxsus WinDem dasturidan foydalangan holda xalqaro mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Shu bilan

birga, ochiq javobga ega bo‘lgan vazifalar Milliy muvofiqlashtiruvchi tomonidan tekshiriladi. Vazifalar mutaxassislar tomonidan (IEA) ishlab chiqilgan Xalqaro vazifalarni baholash qo‘llanmasiga muvofiq ko‘rib chiqiladi. Qo‘llanmada har bir vazifaning bajarilishini baholashga umumiy yondashuvlar mavjud. Har bir vazifa uchun uning bajarilishini baholash uchun maxsus tavsiyalar ishlab chiqilgan. Kodlash natijalari ma’lumotlar bazasiga kiritiladi va tekshirish uchun Xalqaro markazga yuboriladi.

Har to‘rtinchi daftar milliy miqyosda mustaqil ekspertlar tomonidan ikki marta tekshiriladi, so‘ngra ushbu daftarlarning bir qismi xalqaro ekspertlar tomonidan tekshiriladi. Ishtirok etuvchi davlatlar mutaxassislari nomuvofiq baholarni beradigan vazifalar tahlildan olib tashlangan.

Taklif etilgan to‘rtta savoldan javoblarni tanlash va voqealar ketma-ketligini belgilash bo‘yicha topshiriqlar bitta ball bilan baholanadi. Erkin tuzilgan javob bilan topshiriqlar – vazifaning murakkabligiga qarab 1 balldan 3 ballgacha.

PIRLS tadqitotlarida o‘quvchilar bilimini baholash mezonlari:

1. **Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadida o‘qish**

Daraja	Ballar	Mahorat tavsifi
Past	**400 - 474**	1. Matnning muayyan qismlarini ajratib ko‘rsatish. 2. Ulardan oddiy xulosalarni ifodalashda foydalanish.
O‘rta	**475 – 549**	1. Voqealar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni ko‘rsatish. 2. Matnning umumiy g‘oyasini aniqlash. 3. Matn tarkibining elimentlarini ochib berish. 4. Qahramonlar xatti-harakatiga izoh berish
Yuqori	**550 – 624**	1. Asar qahramonlarining xatti-harakatlari va his –tuyg‘ularini taqqoslash va qiyoslash. 2. Ularning o‘zaro aloqalarini tushuntirish. 3. Matnda qo‘llangan til vositalarining xususiyatlari ustida birlamchi tahlil o‘tkazish.
Oliy	**625 va undan yuqori**	1. Matnning asosiy g‘oyasini tushunish, yashiringan axborotlarni aniqlash va umumlashtirish. 2. Matndagi savollarga qahramonlarni asosiy tavsiflari, ularning intilishlari va his- tuyg‘ularini izohlash orqali javob berish. 3. Matndan misollar keltirgan holda, javoblarni asoslash.

2. Axborotni o‘zlashtirish va foydalanish maqsadida o‘qish

Daraja	Ballar	Mahorat tavsifi
Past	**400 - 474**	1. Matda keltirilgan dalillarni aniqlash va tasvirlash. 2. Kerakli axborotni o‘zida mujassamlashtirgan gapni ajratish. 3. Xulosalarni izohlash uchun olingan axborotdan foydalanish.
O‘rta	**475 – 549**	1. Matnda yaqqol taqdim etilgan axborotga muvofiq xulosa chiqarish. 2. Matnning turli qismlarini tahlil qilish va kerakli axborotni ajratish.
Yuqori	**550 – 624**	1. Matnda yashirin berilgan axborotni aniqlash. 2. Matndagi alohida gaplar o‘rtasidagi mazmuniy aloqalar asosida xulosalarni ifodalash. 3. Matn mazmunini izohlab berish. 4. Turli tipdagi matnlardan foydalanish va alohida tavsiflarni belgilash.
Oliy	**625 va undan yuqori**	1. Matnning turli qismlaridagi murakkab ma’lumotlarni anglash va asoslash. 2. Matndagi ma’lumotlarni tushunish uchun aniq va noaniq elimentlarni baholash va ahamiyatini tushuntirish. 3. Matnlar, xaritalar, illuystrasiyalar,diagrammalar va rasmlar kiritilgan materiallar asosida turli matnlardagi ma’lumotlarni umumlashtirish.

PIRLS-2001 birinchi siklida dunyoning 35 mamlakatidan 150 ming o‘quvchi qatnashdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra yetakchi o‘rinlarni Shvetsiya (561), Gollandiya (554), Angliya (553), Bolgariya (550), Latviya (545), Kanada (544), Litva (543), Vengriya (543), AQSh (542), Italiya (541). Eng past natijalarni Kuvayt (396), Marokash (350), Beliz (327) o‘quvchilari ko‘rsatdi.

2006 - yildagi PIRLSning 40 ishtirokchi davlatidan 215 ming kishidan iborat o‘quvchilar soni bo‘yicha to‘rtinchi o‘rinni egallagan Rossiya Federatsiyasi (565), Gonkong (564), Singapur (558), Kanada (Britaniya Kolumbiya) (558) reytingning yuqori pog‘onalarini egalladilar. Ushbu tsiklning tashqi tomonlari Qatar (353), Quvayt (330), Marokash (323) va Janubiy Afrika (302).

PIRLS-2011da qatnashgan 49 davlatdan Gonkong (571), Rossiya Federatsiyasi (568), Finlyandiya (568) va Singapur (567) yetakchi guruhga kirdi. Rossiyalik o‘quvchilar xalqaro imtihonning taklif etilgan matnlarini o‘qish va

tushunish sohasidagi yetakchilarning maqomini tasdiqladilar. Rossiyada kichik maktab o‘quvchilarining muvaffaqiyati sabablari yosh maktab o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini shakllantirish borasidagi ishlarning jamiyatda ham, pedagogik va ota-onalar jamoatchiligi orasida ham e’tirof etilishi edi.

Pedagogik jamoatchilik boshlang‘ich ta’lim dasturlarining sifatini, shu jumladan 2004 va 2009 – yillardagi davlat ta’lim standartlari, yuqori sifatli darsliklarning mavjudligini va o‘qishni puxta o‘ylangan metodikasini ta’kidlamoqda.

Shunday qilib, turli mamlakatlarda o‘tkazilgan PIRLS tadqiqotining natijalari pedagogik hamjamiyat tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Maktab o‘quvchilari yutuqlari natijalarini monitoring qilish mexanizmlari joriy etilmoqda, o‘quv texnologiyalari va boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining o‘quv yutuqlariga qo‘yiladigan talablar ko‘rib chiqilmoqda. Xalqaro test topshiriqlari asosida maktab o‘quvchilari, pedagogik jamoalar va innovatsion o‘qituvchilarning savodxonligini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar nafaqat o‘quvchilarning ilmiy yutuqlarini baholashga, balki birinchi navbatda o‘qish madaniyati va ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bu mamlakatdagi yoshlarning bilim olishidagi muhim omildir.

4- sinf O‘qish kitobidagi Hamidjon Hamidovning “Pahlavon va shoir” mavzusi bo‘yicha PIRLS topshiriqlari tayyorlash

PAHLAVON VA SHOIR

Hamidjon HAMIDOV

Mahmudning dehliga safari hind xalqining milliy bayramiga to‘g‘ri kelibdi. odatda, bunday ayyomlarda xalq sayillari, har xil tomoshalar, musobaqalar uyushtirilar ekan.

Mahmudning shahar chetidagi saroylardan biriga tushganini eshitgan sulton uni ertangi kurashda ishtirok etishi va yosh saroy pahlavoni bilan bellashishini so‘rab, odam yuboribdi.

Mahmud yosh bahodirning izzat- nafsiga shikast yetkazishni o‘ziga ep ko‘rmay, bu iltifotni rad etibdi. o‘z marhamati qabul qilinmaganini eshitgan sulton g‘azab otiga minibdi.

Mulozimlar bu xabarni mahmudga yetkazib, kurashda ishtirok etishini o‘tinib so‘rabdilar. u rozilik bildiribdi.

Odatda, bunday musobaqalardan oldin mahmud ulug‘larning qadamjolarini ziyorat qilar ekan. o‘sha kecha ham shahardagi qabristonni ziyorat qilib yursa, bir ayol erining qabrini quchoqlab: “ey xudo, ikki bolam va erimni olding, ertangi kun maydonda yolg‘iz o‘g‘limning qo‘lini baland qilgin”, —deb nola chekayotgan ekan. mahmud bu xotin sulton saroyidagi pahlavonning onasi ekanligini sezibdi.

Ertasi kuni kurash maydonida mahmud o‘zini juda zaif va lapashang qilib ko‘rsatibdi. yosh bahodir ikki- uch davradan keyinoq mahmudni chirpirak qilib ko‘tarib uribdi. sulton bu g‘alaba sharafiga katta ziyofat beribdi. tantanalardan so‘ng hokim boshchiligida arkoni

davlat: barcha xizmatkorlar, mehmonlar fillarga minib o‘rmonga — ovga jo‘nashibdi.

Changalzorlar orasidan ketayotganda bexosdan sulton taxtiravoni o‘rnatilgan fil botqoqqa botib qolibdi. ko‘p urinishibdi, filni loydan chiqaza olishmabdi. shunda mahmud xizmatkorlarga filning oldingi oyoqlari orasini kovlab bo‘shatishni buyuribdi. shunday qilishibdi.

Bo‘shliqqa katta bir kundani tashlabdilar. mahmud ana shu kunda ustiga tushib, fil oyoqlari orasiga yelkasini qo‘yib, bir zo‘r bilan ikki oyog‘ini botqoqdan bo‘shatibdi, fil o‘zini o‘nglab, halokatdan qutulibdi.

Hamma mehmonning qudratiga ofarinlar aytibdi. ovdan so‘ng yana ziyofat boshlanibdi. gap orasida sulton mahmuddan:

– Kecha maydondagi zaifligingiz bilan bugungi jasoratingizni qanday tushunsa bo‘ladi? – deb so‘rabdi.

– Ey, oliy himmat sulton! Bu yigit – bir bevaning yagona farzandi, istiqboli porloq pahlavon, lekin halitajribasiz. Men u bilan olishib, mayib qilib, umriga zomin bo‘lishni istamadim. Ammo siz g‘azablanganingizdan so‘ng kurash tushishga rozilik bergandim, debdi u.

– Tilang tilagingizni, nima istasangiz, muhayyo qilaman, – debdi sulton.

– Menga hech narsa kerak emas. Sizning zindoningizda 200 dan ortiq yurtdoshim asir ekan, o‘shalarni ozod qilsangiz, vatanimga birga olib ketsam,bas, – debdi Mahmud.

Sulton bahodirga ot-ulov, sarpolar beribdi va asirlarni hibsdan bo‘shatibdi. mahmud vatandoshlari bilan xorazmga qarab yo‘l olibdi.

Topshiriqlar

1-topshiriq.Mazkur matn qaysi janrga mansub?

Ertak
Masal
Rivoyat
She’r

2-topshiriq: Quyidagi gaplarni matnda sodir bo‘lgan voqealar ketma-ketligida raqamlab chiqing. 1- raqam siz uchun qo‘yilgan.

1 Mahmudning Dehliga safari .
_____ Pahlavon Mahmudning saroy pahlovoni bilan kurashishi
_____ Mahmudning sultonning taklifini rad etishi.
_____ Pahlavon Mahmudning sulton bilan suhbati va asirlarni ozod qilish
_____ Pahlavon Mahmudning filni qutqarish.

3-topshiriq: Pahlovon Mahmudning yosh saroy palvonidan yengilish sababi nima edi?

_____
_____
_____
_____

4-topshiriq: Sulton va Pahlavon nima haqida suhbatlashdi?

_____
_____
_____

5-topshiriq. Pahlavon Mahmudning jasorati qaysi voqealarda aks etadi?

_____
_____
_____

6-topshiriq: Matndagi shoir kim?

_____
_____
_____
_____
_____

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 23-son Qarori.
2. “Baholash nazariyasi asoslari” mavzusidagi taqdimot. https://t.me/milliymarkaz/834
3. O‘quvchilarning ta’limiy yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur (PISA) Toshkent, 2019-yil.
4. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ish sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash. Toshkent, 2019-yil. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-son qarori.

https://t.me/milliymarkaz/483
Internet manbalar:
1. https://lex.uz
2. https://t.me/milliymarkaz
https://denemetr.com

TARIX FANINI O‘QITISH JARAYONIDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Bozarov Azamatjon Qosimjonovich,
Andijon viloyati Pedagogik mahorat
markazi katta o‘qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi,
azamatbozarov81@gmail.com

Annotatsiya. Tarix fani o‘quvchilarda vatanparvarlik, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va jamiyatda faol fuqarolarni tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta’lim tizimining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning 4 K va 5 E ko‘nikmalarini rivojlantirish va xalqaro miqyosda raqobatbardosh ta’lim muhitini yaratishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning ahamiyati ortib bormoqda. Mazkur maqolada tarix fanini o‘qitishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning ahamiyati ifoda etilgan hamda bu jarayon taxlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tarix, tarbiya, o‘qitish, baholash, nazorat, baholash mezoni, PISA, TIMSS, PIRLS.

Аннотация: История имеет особое значение для формирования патриотизма, национальной гордости и чести у учащихся, развития критического мышления и воспитания активных граждан в обществе. Сегодня использование международных программ оценки становится все более важным для повышения эффективности системы образования, развития навыков учащихся 4 K и 5 E и создания конкурентоспособной на международном уровне образовательной среды. В данной статье подчеркивается важность использования международных программ оценки в преподавании истории и анализируется этот процесс.

Ключевые слова: история, образование, преподавание, оценка, контроль, критерии оценки, PISA, TIMSS, PIRLS.

Abstract: History is of particular importance in forming patriotism, national pride and honor in students, developing critical thinking, and educating active citizens in society. Today, the use of international assessment programs is becoming increasingly important in increasing the efficiency of the education system, developing students' 4 K and 5 E skills, and creating an internationally competitive educational environment. This article highlights the importance of

using international assessment programs in teaching history and analyzes this process.

Key words: history, education, teaching, assessment, control, assessment criteria, PISA, TIMSS, PIRLS.

Kirish. Xalqaro baholash dasturlari, masalan, PISA (Programme for International Student Assessment), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) va PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study), o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik darajasini baholaydi. Bu dasturlar ta’lim tizimlarining samaradorligini o‘lchash, ta’lim sifatini yaxshilash va xalqaro tajribalarni o‘rganish imkonini beradi. Shuningdek, ular o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va mustaqil o‘rganish kabi kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Baholash – ta’lim jarayonining ma’lum bosqichida o‘quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o‘lchash, natijalarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Asosiy qism. O‘quvchilarning bilim, o‘quv hamda malakalarini nazorat qilish o‘z vaqtida va sistemali ravishda o‘tkazilgandagina zarur o‘quv va tarbiyaviy samara beradi. O‘qituvchi har bir o‘quvchining muvaffaqiyatlari qanday ekanligini hamma vaqt bilishi kerak, shundagina u o‘quvchilarning xatosini o‘z vaqtida aniqlashi va uni tuzatishi, tegishli yordam ko‘rsatish mumkin bo‘ladi O‘quvchilarning o‘qishdagi muvaffaqiyatlarini nazorat qilish ular uchun o‘quv mehnatining motivlarini ko‘p jihatdan belgilaydigan rag‘batlantiruvchi faktor bo‘ladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning bilim, o‘quv hamda malakalarini nazorat qilib, ularga baho qo‘yadi. Qo‘yiladigan baho obyektiv va haqqoniy bo‘lishi kerak. To‘g‘ri qo‘yilgan baho o‘quvchilarga o‘z imkoniyatlarini baholashga va zarur kuch-quvvatni real perspektivalarni amalga oshirishga qaratishga yordam beradi. Bahoning tarbiyaviy roli ana shularda namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilarning bilim, o‘quv hamda malakalarini nazorat qilishni to‘g‘ri tashkil etish uchun u, bir tomondan, har tomonlama bo‘lishi, ya’ni o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘rganishdagi o‘quv faoliyatining hamma tomonlarini qamrab olishi, ikkinchi tomondan, differensiallangan bo‘lishi, ya’ni programmaning har bir asosiy masalasini qamrab olishi zarur. Nazoratning bu tomonlarini ana shunday dialektik birlashtirishgina tegishli o‘quv hamda tarbiyaviy samarani ta’minlashi mumkin.

Bilimlarni nazorat qilish va baholashning asosiy maqsadi o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirishning ma’lum sifatlari, o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash darajasi hamda DTS talablariga mosligini aniqlashdan iboratdir.

Nazorat va baholash o‘quv jarayonining ajralmas qismi sifatida ta’limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Umumta’lim maktablarida bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash quyidagi vazifalarni bajaradi:

- tarbiyalash(o‘quvchining o‘qish natijalari uchun mas’uliyat hissini tarbiyalash);
- o‘qitish(bilim sifatini oshirish, ularni tizimlashtirish);
- rivojlantirish (bilish faoliyatini rivojlantirishga turtki berish);
- nazorat va diagnostika (o‘quvchilarning bilim olish natijalarini tekshirish va tashxislash);
- prognostik (bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonini boshqarish va uni tuzatib borish).

Quyidagi nazorat usullari mavjud. O‘quv jarayonidagi nazorat olinadigan vaqtiga qarab:

Joriy nazorat – og‘zaki va yozma bo‘lishi mumkin:

Oraliq nazorat (chorak) – har bir chorak oxirida o‘tkaziladi, yozma ravishda o‘tkaziladigan test yoki yakuniy test orqali amalga oshirilishi mumkin.

Oraliq nazorat – joriy nazoratga qaraganda ko‘proq nazorat turi hisoblanadi. Unda o‘quv dasturlarini va aniq o‘quv fanining o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur hisobga olish imkoniyati bor. Oraliq, joriy va yakuniy nazoratning turli maqsadlari, ularning turli funksiyalarida o‘z aksini topadi. Oraliq nazoratning quyidagi funksiyalari bor: O‘quv faoliyatida samara darajasini (baholash), tekshirish, diagnostik (orqada qolish sabablarini e’lon qilish), tashkiliy (qo‘llanilayotgan metodlar samaralari): tarbiyaviy motivasion (oraliq nazorat natijalari bilan o‘quvchilarning o‘zlarini o‘zlari baholashni mustahkamlash) oraliq nazoratining maqsadi, o‘quvchilarning o‘quv sohasida ma’lum bir mavzularni o‘zlashtirilganligini tekshirish. Oraliq nazorat o‘qituvchi tomonidan og‘zaki va yozma shaklda o‘tkaziladi. Oraliq nazorat o‘tkazilishi oldindan o‘quvchilarga aytiladi.

Yakuniy nazorat – o‘quv yili oxirida, yozma ravishda amalga oshiriladigan nazorat ishi, yakuniy test orqali amalga oshiriladi.

Yozma ish yakuniy nazoratning eng ko‘p tarqalgan shaklidir. Bu sezilarli qisqa vaqt ichida bir vaqtda ham o‘quvchi bilimini baholash, ham baholarning xolisligi imkoniyati bilan tushuntiriladi. Yana bir afzalligi: bahoning pasayishiga olib kelgan o‘quvchi yo‘l qo‘ygan xatolar va nohaqliklar hamda munozarali holatlarni hal qilishga asoslangan yondashish. Bu usulning mohiyati o‘qituvchi bir-ikki dars o‘tgach o‘quvchi bilimini tekshirish maqsadida yozma ish o‘tkazadi.Yozma ishni o‘tkazishda qator didaktik talablarga e’tibor qaratilishi kerak. Birinchidan, yozma ish vaqti o‘tilgan material yaxshi o‘zlashtirilganligiga o‘qituvchining ishonchi komil bo‘lsagina o‘tkaziladi. Ikkinchidan, yozma ish o‘quvchilarga oldindan e’lon qilinishi kerak va tayyor vazifalari ishlab ko‘rsatiladi. Uchinchidan, yozma ish ichida o‘tilgan darslar mazmunini beruvchi ijodiy savollar bo‘lishi kerak. To‘rtinchildan, o‘quvchilar mustaqil ishlab, o‘qituvchi ko‘chirishga yo‘l qo‘ymasligi kerak.Ishni nihoyat o‘qituvchi e’tibor bilan analiz qilishi kerak.

Tekshirish vositalari – kartografik materiallar, tasvir va rasmlar, sxemalar va jadvallar, maketlar va modellar, ochiq va yopiq testlar, diktant va yozma ishlar.

O‘quvchilar bilimi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

– o‘quvchi mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, kasbning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda kasb (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a’lo) baho;

– o‘quvchi mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, kasbning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda kasb (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baho;

– o‘quvchi olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, kasbning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda kasb (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho;

– o‘quvchi kasb dasturini o‘zlashtirmagan, kasbning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda kasb (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘quv ko‘nikmalarini tekshirish va baholashning O‘zbekiston tizimi bir qator afzalliklarga ega bo‘lib, xorij davlatlar tajribalariga asoslangan va ularning yutuqlarini o‘zida mujassamlashtira olgan. Xalqaro baholash dasturlari o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash orqali ta’lim sifatini o‘lchash imkonini beradi. Bu esa o‘qitish jarayonlarini takomillashtirishga yordam beradi.Tarix fanini o‘qitishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish va xalqaro miqyosda raqobatbardosh ta’lim tizimini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. Qonun hujjatlari, ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-yil, 03/20/637/1313-son.

2.Ganieva M., Fayzullaev D., Ne’matov I. Nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlarda o‘qitish texnologiyalari to‘plami. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2013.

3.Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda pedagogik texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: Iste’dod, 2008. – 180 b.

4.Sagdiev A., Fuzailova G., Hasanova M. Tarix o‘qitish metodikasi. - Toshkent: TDPU, 2008. – 119 b.

5.Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: “Moliya” nashriyoti. 2003. (o‘quv qo‘llanma)

6.Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. - Toshkent, 2006. – 163 b.

7.Toshpo‘latov T., G‘afforov Ya. “Tarix o‘qitish metodikasi”. – T., “Universitet” nashriyoti. 2002. (o‘quv qo‘llanma)

8.Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2004.

LOYIHA ISHLARI ASOSIDA O‘QUVCHILARDA 4KNI RIVOJLANTIRISH

Boltayeva Feruza Ulug‘bek qizi
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
Kattalar ta’limi yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida loyiha asosida o‘qitish orqali o‘quvchilarda 4K ko‘nikmalarini – tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash va kommunikativlikni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va real hayotdagi muammolarni hal etishga tayyorlaydi. Maqolada loyiha metodining afzalliklari, uni amaliyotga tatbiq etish yo‘llari va samaradorlik holatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *loyiha metodi, 4K kompetensiyalar, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik, kommunikatsiya, faol ta’lim.*

Аннотация. *В статье рассматривается развитие у студентов навыков 4К – критического мышления, креативности, сотрудничества и коммуникации посредством проектного обучения в современном образовательном процессе. Такой подход повышает активность студентов, побуждает их мыслить самостоятельно и готовит их к решению реальных жизненных задач. В статье анализируются преимущества метода проектов, способы его реализации и случаи эффективности.*

Ключевые слова: *метод проектов, компетенции 4К, критическое мышление, креативность, сотрудничество, коммуникация, активное обучение.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarni nafaqat bilim bilan ta’minlash, balki ularni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashuvga, jamoada ishlash va samarali muloqotga o‘rgatishni ko‘zlaydi. 21-asr ko‘nikmalari sifatida tanilgan 4K – kreativlik (ijodkorlik), kritik fikrlash, kommunikatsiya va kooperatsiya – bugungi kunda har bir o‘quvchining shaxsiy va kasbiy rivojida muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqsadlarga erishishda loyiha asosida ta’lim berish yondashuvi eng samarali usullardan biri sanaladi.

Asosiy qism. Loyiha metodi – bu o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil yoki guruhda ishlash orqali real hayotdagi muammolarga yechim topishga yo‘naltirilgan

faol ta’lim shaklidir. Ushbu metod orqali o‘quvchilar bilimni chuqurroq anglaydi va uni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar.

4K ko‘nikmalarining rivojlanishiga ta’siri:

Tanqidiy fikrlash: loyiha davomida o‘quvchilar muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qiladi.

Ijodkorlik: har bir loyiha ijodiy g‘oyalarni ilgari surishni talab qiladi.

Hamkorlik: guruh bo‘lib ishlash orqali o‘quvchilar o‘zaro fikr almashadilar.

Kommunikatsiya: O‘z g‘oyasini tushunarli ifodalash, savol-javoblar orqali fikr almashish mashq qilinadi.

Darslarda “Tabiatni asraymiz”, “O‘z kasbingni tanla”, “Raqamli texnologiyalar va biz” kabi loyihalarni amalga oshirish orqali o‘quvchilarning 4K ko‘nikmalari ancha faol rivojlanadi. Ular darsda faol ishtirok etadi, mustaqil fikr bildiradi va o‘zini namoyon qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimi jamiyatda yuz berayotgan keskin o‘zgarishlarga mos ravishda doimiy yangilanib borishi zarur. XXI asrda insoniyat oldida turgan murakkab muammolarni hal qilish, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishda maktab ta’limining o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki ularni amaliy hayotga tayyorlovchi ko‘nikmalarni shakllantirish zaruratga aylangan.

Ushbu maqolada loyiha ishlari orqali o‘quvchilarda aynan shu 4K ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari, metodlari va amaliy tavsiyalari yoritiladi.

4K kompetensiyalarining mazmuni va ahamiyati.

Kreativlik – bu yangicha g‘oyalarni ilgari surish, mavjud muammolarga noodatiy yondashuv topish, san’at, fan yoki boshqa sohalarda yangilik yaratish qobiliyatidir. Kreativlik bolalikdan shakllanadi va o‘quv jarayonida muntazam rag‘batlantirilishi lozim.

Kritik fikrlash – bu axborotni tahlil qilish, turli nuqtai nazarlarni baholash, mantiqiy xulosalar chiqarish, dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. U o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritishiga xizmat qiladi.

Kommunikatsiya – bu fikr, g‘oya va ma’lumotlarni aniq, lo‘nda va tushunarli shaklda ifodalash, tinglash va tushunish, fikr almashish qobiliyatidir. Jamoada ishlashda bu ko‘nikma alohida ahamiyatga ega.

Kooperatsiya – bu birgalikda ishlash, jamoaviy qarorlar qabul qilish, vazifalarni taqsimlash va har bir a’zoning mas’uliyatini his qilish qobiliyatidir. Bugungi mehnat bozori aynan shunday jamoaviy muhitni talab qiladi.

Loyiha ishining ta’limdagi roli.

Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning – PBL) – bu o‘quvchilarning real hayotdagi muammolar ustida ishlashi, o‘z mustaqil izlanishlari orqali yechim topishi va yakunda aniq mahsulot yaratishga yo‘naltirilgan ta’lim shaklidir. Bu yondashuv o‘quvchini faol ishtirokchi, yaratuvchi va muammolarni hal qiluvchi sifatida ko‘radi.

Loyiha asosida o‘qitish quyidagi jihatlari bilan 4K ni rivojlantiradi:

O‘quvchilar o‘z g‘oyalarini ilgari suradi (kreativlik),

Muammoni hal qilish yo‘llarini qidiradi (kritik fikrlash),

Jamoada muloqot qiladi (kommunikatsiya),

Birgalikda ishlashni o‘rganadi (kooperatsiya).

Loyiha ishlari orqali 4K kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llari

Kreativlikni rivojlantirish.

Loyiha ishlari o‘quvchilarga yangi g‘oyalar yaratish, dizayn qilish, ssenariy tuzish yoki innovatsion mahsulot ishlab chiqish imkonini beradi. Masalan: chiqindilarni qayta ishlash loyihasi, mahalla muammolarini hal qilish g‘oyalari, yoki mobil ilova yaratish.

Kritik fikrlashni shakllantirish.

Har bir loyiha muammo asosida boshlanadi. O‘quvchilar axborotni tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi. SWOT tahlili, savol-javoblar, rol o‘ynash, va munozaralar orqali bu ko‘nikma rivojlanadi.

Kommunikatsiya ko‘nikmasini oshirish.

O‘quvchilar loyiha davomida suhbatlashadi, fikr bildiradi va taqdimot qiladi. Bu orqali nutq madaniyati shakllanadi, tinglash madaniyati va axborotni ifodalash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Kooperatsiyani rivojlantirish.

Loyihalar guruhda bajariladi, har bir a’zo muayyan rolni bajaradi. Bu o‘quvchilarda hamjihatlik, mas’uliyat, murosa qilish, boshqalarni tinglash ko‘nikmasini shakllantiradi.

O‘quv jarayoniga loyiha ishlarini tatbiq etish bosqichlari

Tayyorlov bosqichi: muammoni aniqlash, guruhni tuzish, resurslarni tanlash va vaqt rejasini tuzish.

Amalga oshirish bosqichi: izlanish, g‘oyalar ustida ishlash, mahsulot yaratish, refleksiya qilish.

Natijalarni taqdim etish: prezentatsiya, yakuniy natijani himoya qilish, fikr almashish.

Amaliy loyiha g‘oyalari:

“Yashil maktab” – ekologik toza muhit yaratish.

“Tarix izidan” – mahalla tarixini o‘rganib buklet yoki veb-sahifa yaratish.

“Mening biznesim” – kichik biznes g‘oyasini yaratish.

“Sog‘lom turmush tarzi” – maktabda sog‘lom hayot targ‘iboti.

Loyiha ishlarining samaradorligini baholash mezonlari.

Baholash faqat mahsulotga emas, balki jarayonga ham asoslanadi:

G‘oya yangiligi;

Ishtirokchilar faolligi;

Jamoaviy hamkorlik;

Fikrni ifodalash qobiliyati;

Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash.

Muvaffaqiyatli shaxs – bu mustaqil, ijodkor, jamoada ishlay oladigan va samarali muloqot qila oladigan insondir. Ushbu kompetensiyalarni maktab davridanoq rivojlantirish zarur. Loyiha asosida o‘qitish bu borada samarali vosita

bo‘lib, o‘quvchilarni nafaqat bilimli, balki hayotga tayyor, faol va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantiradi.

Quyida A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat instituti imgliz tili guruh tinglovchilari tomonidan amalga oshirilgan loyiha ishi namunasini keltiramiz:

PROJECT WORK

Theme: Shopping habits

Prepared by: Shodmonova Malika
Umarova Dilnoza
To’raxo’jayeva Nodirabegim

Contents of PROJECT WORK

Subject: English

Theme: Shopping habits

Project authors: Shodmonova Malika, Umarova Dilnoza, To’raxo’jayeva Nodirabegim

Institution: National Institute of Pedagogical Skills named after A. Avloni

Content:

1. Introduction. (Shodmonova Malika) About Shopping habits

“Dear participant Good morning.

Today I'm going to talk about the topic : An interview about shopping habits.

Let me ask you a simple question:

“When was the last time you bought something?”

Was it in a store? Or did you order it online? Did you plan it, or was it spontaneous?

Today we'll talk about something we all do, often without thinking – **shopping**.

But more importantly, we'll explore **shopping habits** – the patterns, behaviors, and decisions behind what we buy and how we buy it. Shopping is an important part of our daily lives. People shop for many reasons -to buy food, clothes, gifts, or just to relax. Shopping habits are the regular behaviors and patterns people follow when buying goods or services .It includes :

-How often people go shopping

-Where they prefer to shop (online or in-store)

-What types of products they usually buy

-How much money they usually spend

-whether they look for discounts or brands

-Their favorite shopping times or days

Definition of Shopping Habits

Shopping habits are the regular behaviors or routines people follow when purchasing products or services.

They include what we buy, where we shop, how much we spend, and how often we shop.

For example, some people shop once a week, while others shop every day. Some prefer big shopping malls, others prefer small local stores or online platforms.

Importance of Understanding Consumer Behavior

Why is it important to understand shopping habits or consumer behavior?

1. **For businesses**: It helps them understand what customers want, so they can offer better products and services.
2. **For consumers**: It helps us make better decisions, avoid wasting money, and control our spending.
3. **For society**: Shopping habits also affect the economy and the environment.

Understanding consumer behavior is important because it helps businesses know what customers want, what they buy products, and how they make decisions . This knowledge allows companies to create better products , improve marketing strategies, and increase customer satisfaction and sales. Shopping habits have changed a lot over time. People used to shop mostly in stores, but now many people prefer online shopping because it is fast, easy, and convenient.

Here you can see the shopping habits from the past and the present

Past (Before 2000s)	Present (Today)
People mostly shopped **in person** at local markets and stores.	People often shop **online** from home or anywhere.
Shopping was done on **specific days** (e.g., weekends).	Shopping can be done **anytime, 24/7**.
There were **fewer choices** and **limited brands**.	There is a **wide variety** of **brands and products** available.
Payments were mostly made **in cash**.	Payments are made using **card, phone, or online** methods.
Shopping was seen as a **routine or necessity**.	Shopping is also seen as a **hobby or form of entertainment**.

Here are some of the main problems related to shopping habits

- Impulse Buying: Making unplanned purchases based om emotion or marketing rather than need.
- Overspending: Exceeding budgets due to poor planning, easy access to credit.
- Addictive Behavior ; Shopping as a way to cope with stressor emotions , leading to compulsive buying.
- Debt Accumulation: Using credit cards or loans excessively without the means to repay.
- Lack of financial Planning: Not tracking spending or saving goals, leading to poor money management.

Dear students have you all understood that today will talk about?

2. Main part.

Problem & Justification.

"Nowadays, shopping is not just about what we need – it's often about what we want in the moment. Thanks to online stores, 24/7 access, and targeted ads, people are buying more than ever.

The problem is impulsive shopping, which leads to:

- debt,
- stress,
- and overconsumption.

Some people even develop shopping addiction. This problem has a deep psychological side – it's often connected to emotions like boredom, anxiety, or sadness.

All We know that big shops are good places to buy things and strolling You can find food, clothes, perfumes dishes and what you want.

But not many people know that like these shops trick to attractive people to them. First off all imagine you are at one of famous Shop in Uzbekistan "***Korzinka"***

Effects of Poor Shopping Habits

What happens when we don't shop wisely?

- Financial stress: Credit card debt, unpaid bills.
- Clutter: Too much stuff at home, little space.
- Guilt and regret: Feeling bad after spending money.
- Environmental harm: Overconsumption increases pollution and waste.
- Mental health: Poor habits lead to anxiety or stress.

So, shopping habits affect not only our wallets but also our mental well-being and the world around us.

Tips to Improve Shopping Habits

Now let's talk about how we can improve.

Here are some practical tips:

1. Make a list before going shopping. Stick to it!
2. Set a budget for the week or month.
3. Track your spending using apps or notes.
4. Wait 24 hours before buying something expensive.
5. Avoid shopping when you're emotional.
6. Unsubscribe from online store emails – they tempt you!
7. Buy quality over quantity.
8. Think long-term – Do you really need it?

3. Conclusion.

Summary of Problems

Let's summarize the main problems:

1. **For online shopping**:

1. Scams and fraud: sometimes we don't know if the website is trustworthy.
2. Low product quality: what you see isn't always what you get.
3. Delayed delivery or lost packages.
4. No human interaction or advice – it's harder to ask questions or try products.

2. **For offline shopping**:

1. It takes time and energy to go to the store.
2. Sometimes the prices are higher.
3. Long lines, crowds, and traffic.
4. Limited variety – especially in small towns or specific stores.

Shopping habits with data show. Let's now take a few minutes to reflect on what we've learned today about shopping habits. We've discussed the pros and cons of online and offline shopping, common problems, and smart solutions. But now, let's go deeper and take a look at what the **data shows**, especially in the context of **Uzbekistan**, and where shopping trends are heading in the future.

What the Data Shows: Insights from Uzbekistan

In recent years, Uzbekistan has seen significant growth in the field of **e-commerce**:

- In **2024**, the **e-commerce market exceeded $1 billion**, making up around **4% of total retail sales**. Experts expect this number to grow to **15% by 2027**.
- Since **2019**, the volume of **online sales has grown six times**, although e-commerce still accounts for only **about 2.2%** of the total retail turnover.
- **Internet penetration** is increasing rapidly. As of **2023**, around **77% of the population** had internet access – a key factor in the growth of online shopping.

These numbers tell us that although Uzbekistan's e-commerce market is still developing, it has **huge potential** for growth in the

Uzbekistan's Perspective

Let's look briefly at what's happening in **Uzbekistan**. (You can include a short survey here or make a slide.)

- Many young people now prefer **online shopping**.
- **Telegram channels** are used to advertise and sell products.
- Traditional markets (bazaars) are still very popular among older generations.
- People often trust **word-of-mouth** recommendations more than advertisements.

Insight: While the world is moving fast toward digital, traditional values are still strong in Uzbek culture.

Future Perspectives: Where Are We Headed?

So, what's next for shopping in Uzbekistan and beyond? Let's look at the key **future trends** and **developments**:

1. **Hybrid Shopping Models**:

More people will combine online and offline experiences. For example, you may **order online and pick up in-store**. This saves time and reduces the risk of buying the wrong product.

2. **Better Logistics and Delivery Services**:

As delivery becomes faster and more reliable, **trust in online shopping** will grow.

3. **Support for Small and Medium Businesses**:

E-commerce platforms are opening new doors for local entrepreneurs, helping them reach **national and international markets**.

4. **Growth of Mobile Commerce (M-Commerce)**:

With the rise of smartphones and mobile internet, people are shopping more through **apps**. M-commerce is expected to be a major growth driver in the next 5 years.

5. **Government Support and Strategy**:

The government of Uzbekistan is working on a **national e-commerce strategy**, which includes investment in technology, infrastructure, and digital education.

Solutions

What can we do?

- **Education** – Teach students and adults about smart shopping.
- **Apps and tools** – Use technology to help us save money, not spend more.
- **Family conversations** – Teach children about money from an early age.
- **Support local businesses** – Choose quality and sustainability.

Future Perspectives (Where Are We Headed?)

- Shopping will become more personalized with AI.
- Eco-shopping will grow.
- More people will rent, borrow, or share instead of owning everything.
- We'll use more **virtual shopping** – even through VR!

But we must balance **convenience** and **responsibility**.

Final Thoughts: A New Way to Shop

Shopping is not just about money – it's about choices. And every choice we make affects our lives and the world.

Let's learn to shop with **awareness, responsibility, and purpose**. Let's create **new, healthy shopping habits** for a better future.

Let me leave you with this idea: ***Buy less, choose well, And make it last."*** *It's better for your wallet – and better for the World*

Thank you for your attention!





Xulosa. Loyiha asosida ta’lim o‘quvchilarni 21-asr ko‘nikmalariga tayyorlashda muhim vosita hisoblanadi. Bu metod orqali o‘quvchilar bilimni faqat eslab qolmasdan, uni tahlil qiladi, yaratadi va muloqotda qo‘llaydi. Demak, 4K kompetensiyalarini shakllantirishda loyiha ishlari samarali yo‘l bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida bu yondashuvni yanada rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva M. Innovatsion pedagogika va loyiha asosida o‘qitish. – Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2023.
2. Hasanov Z. Ta’limda kreativlik va tanqidiy fikrlash asoslari. – Samarqand: Yangi asr”, 2022.
3. Jalolov J. Interaktiv metodlar va 21-asr kompetensiyalari. – Buxoro: “Ziyo Press”, 2023.
4. Karimova D. Maktabda loyiha asosida o‘qitish amaliyoti. – Namangan: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2022.
5. Yusupova S. Kommunikativ ta’limda 4K yondashuvi. – Farg‘ona: “Talaba Press”, 2022).

AVIATSIYA MUTAXASSISLARINI KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARNING O‘RNI

Djabbarov Shamsiddin Xujaqulovich,
O‘zbekiston milliy universiteti
Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi sikl
boshlig‘i dotsent, podpolkovnik,
djabborov3005@gmail.com
+998 (99) 939-39-09

Annotatsiya. *Ushbu maqolada aviatsiya sohasida kadrlar tayyorlashda ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribalari tahlil qilinadi hamda ularning bo‘lajak aviatsiya mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so‘zlar*: aviatsiya, kasbiy kompetensiya, xorijiy tajriba, ta’lim tizimi, kadrlar tayyorlash, parvoz xavfsizligi, havo tarmog‘i, malaka oshirish.*

Аннотация. *В статье проанализирован опыт передовых зарубежных стран в подготовке кадров для авиационной отрасли и подчеркнуто его значение в формировании профессиональной компетентности будущих специалистов авиации.*

Ключевые слова: *авиация, профессиональная компетентность, зарубежный опыт, система образования, подготовка кадров, безопасность полетов, воздушная сеть, повышение квалификации.*

Abstract. *This article analyzes the experiences of advanced foreign countries in training personnel in the aviation sector and highlights their importance in forming the professional competence of future aviation specialists.*

Key words: *aviation, professional competence, experience, education system, personnel training, flight, air safety, qualification.*

Globallashuv sharoitida aviatsiya sohasidagi professionallar nafaqat texnik bilimlarga, balki kommunikatsiya, xavfsizlik madaniyati, muammolarni hal etish

kabi universal kasbiy kompetensiyalarga ham ega bo‘lishlari talab etiladi. Bu esa, xalqaro standartlar asosida mutaxassis tayyorlash tizimini takomillashtirishni taqozo etadi. Ayniqsa, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida aviatsiya sohasi jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Shu bilan birga aviatsiya sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislardan yuqori darajadagi kasbiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni talab etadi. Eng asosiysi, xavfsizlik, aniqlik va mas’uliyat darajasi yuqori bo‘lgan aviatsiya sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun aviatsiya mutaxassislarini zamonaviy talablar asosida tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi markaziy o‘ringa chiqmoqda.

Aviatsiya mutaxassislarining kompetensiyalarini rivojlantirish omillari:

1. **Ta’lim dasturlarining modernizatsiyasi:** kasbiy yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlari va texnikumlar tomonidan aviatsiya sohasidagi real ehtiyojlar asosida yangilangan o‘quv rejalarining joriy etilishi.
2. **Innovatsion pedagogik texnologiyalar:** simulyatorlar, raqamli platformalar, masofaviy ta’lim tizimlari, amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish metodlaridan foydalanish.
3. **Amaliyot bilan integratsiyalashgan o‘qitish:** talabalarni real ish sharoitida tayyorlash (aviakompaniyalar, aerodromlar, texnik xizmat ko‘rsatish markazlari bilan hamkorlik).
4. **Mentorlik va tajriba almashinuvi:** sohada uzoq yillar ishlagan tajribali mutaxassislar ishtirokida treninglar, master-klasslar, seminarlar tashkil etish.
5. **Xalqaro hamkorlik va sertifikatlash:** ICAO, IATA kabi xalqaro tashkilotlar bilan integratsiya, xalqaro sertifikat va litsenziyalarni olish imkoniyatlari.

Aviatsiya mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish doimiy monitoringni, baholashni va qayta tayyorlov jarayonini talab qiladi. Bunda: m**odulli-kredit tizimi asosida baholash**; p**ortfolio va kompetensiya xaritalari**; n**azorat amaliyotlari va attestatsiyalar** orqali kompetensiyalar darajasini aniqlash va rivojlantirishga erishish mumkin.

Kasbiy kompetensiya – bu xodimning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning uyg‘unligidir. Xalqaro aviatsiya tashkilotlari (ICAO, EASA) malaka standartlarida kasbiy kompetensiyaga alohida urg‘u beriladi.

Ilg‘or xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, AQSh tajribasi (FAA modeli): Federal aviation administration (FAA) ta’lim tizimi mutaxassislarning nazariy va amaliy tayyorgarligini qat’iy tartibda nazorat qiladi. CBT (Computer-Based Training), simulatorlar va doimiy sertifikatlash tizimi mavjud. Har bir professional doimiy ravishda malakasini yangilashi kerak.

Germaniya (dual ta’lim tizimi): Germaniyada aviatsiya kadrlari ishlab chiqarish va ta’limni uyg‘unlashtirish orqali tayyorlanadi. Talabalar bir vaqtning

o‘zida nazariy bilimni oliy ta’lim muassasasida, amaliy ko‘nikmalarni esa, kompaniyalarda oladilar.

Singapur (CAAS modeli): Singapur aviatsiya Akademiyasi zamonaviy texnologiyalar, o‘quv simulyatorlari va xalqaro trenerlar ishtirokida mashg‘ulotlar o‘tkazadi. “Safety culture” va “Human factors” kurslariga alohida urg‘u beriladi.

O‘zbekiston aviatsiya ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari: 1) CBT va E-learning tizimlarini joriy etish. 2) Simulatorlar asosidagi amaliy mashg‘ulotlar sonini oshirish. 3) Xalqaro mutaxassislarni jalb qilish va trenerlar tayyorlash. 4) Mutaxassislarning xalqaro malaka imtihonlariga tayyorlanishini yo‘lga qo‘yish.

Aviatsiya mutaxassislarini tayyorlash, zamonaviy ta’lim berish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va malaka oshirishda ilg‘or xorijiy tajriba muhim o‘rin tutadi. Bu xavfsizlik standartlarini oshirishga aviatsiyaning iqtisodiy samaradorligini oshirishga va aviatsiya sohasida innovatsion yechimlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Aviatsiya mutaxassislarini tayyorlashga xorijiy tajribaning o‘rni:

• *Ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilish*: dunyoning yetakchi ta’lim muassasalarida ishlab chiqilgan ilg‘or o‘qitish usullari, o‘quv dasturlari va o‘quv materiallaridan foydalanish.

• *Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish*: zamonaviy o‘quv jihozlari va trenajyorlari bo‘yicha o‘qitish, o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish chuqurroq va amaliy bilimlarni olish imkonini beradi.

• *Murakkab trening*: xorijda ta’lim olish, xalqaro konferensiyalar va stajirovkalarda qatnashish mutaxassislarning kasbiy darajasini oshirish imkonini beradi.

• *Madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish*: xalqaro aviatsiya kompaniyalarida ishlaydigan mutaxassislar uchun muhim bo‘lgan xorijiy hamkasblar bilan ishlash tajribasi.

• *Eng yaxshi tajribalarni joriy etish*: aviatsiya sanoatining jahon yetakchilarida qo‘llaniladigan ishni tashkil etish, xodimlarni boshqarish va xavfsizlikni ta’minlashning samarali usullarini o‘rganish va joriy etish.

• *Innovatsion yechimlarni ishlab chiqish*: xorijiy aviatsiya kompaniyalari aviatsiya sohasida uchuvchisiz uchish apparatlari, ekologik toza dvigatellar va yangi materiallar kabi innovatsion yechimlarni faol ravishda ishlab chiqmoqda.

• Ushbu sohalardagi ilg‘or tajribalar ta’lim dasturlari va amaliyotiga innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish imkonini beradi.

Aviatsiya sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘rni beqiyosdir. O‘zbekiston sharoitida bu tajribalarni moslashtirib joriy qilish orqali xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mumkin bo‘ladi. Aviatsiya mutaxassislarini tayyorlashda ilg‘or xorijiy tajribani joriy etish zamonaviy, xavfsiz va aviatsiya sohasini rivojlantirish yo‘lidagi muhim qadam hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. ICAO Training Manual. Doc 9841. – Montreal, 2020.
2. FAA Airman Certification Standards. United States Department of Transportation, 2021.
3. Bundesinstitut für Berufsbildung (BIBB). Vocational Training in Germany, 2022.
4. Civil Aviation Authority of Singapore (CAAS) Official Reports, 2023.
5. O‘zbekiston aviatsiya sohasidagi ta’lim islohotlari // Ta’lim va innovatsiyalar. – T., 2022.

O‘QUVCHILARNI O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BADIIY MATN TAHLILGA O‘RGATISH

Shodiyeva Jamila Xolboyevna
Samarqand viloyati pedagogik
mahorat markazi katta o‘qituvchisi
Xoliyeva Navro‘za Norqul qizi
Sh.Rashidov nomidagi
SamDU Urgut filyali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida badiiy asarlarni tahlil etishning ilmiy-nazariy jixatlari o‘z aksini topgan. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stirishda matn tahlilini tashkil etishning didaktik va metodik jihatlari chuqur tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Matn, tahlil, o‘qish, ta’lim, tarbiya, o‘qituvchi, mustaqil fikr, faoliyat, tizimli yondashuv, tushunish, topshiriq.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qivchilarning mustaqil fikrlashini, tahliliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan badiiy matn tahlili o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, adabiy didini shakllantirish va til boyligidan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kun o‘qish savodxoligida, badiiy tasvirida falsafiylik, ijodkorlik o‘quvchining o‘zligini anglash, o‘z ko‘ngil olamiga yaqinlashish jarayonidagi murakkabligi, ruhiy qalqishlari ila tasvirlashda bahs, o‘y, xayol, ichki monolog shakllari keng o‘rin egallayotgan va bu masalalarda jiddiy izlanishlar olib borilayotgan hozirgi boshlag‘ich ta’limda matnlarni anglash va tushunishga o‘rgatishning roli ayniqsa, ortib bormoqda.

Boshlang‘ich ta’limda “O‘qish savodxonligi” atamasi o‘qish tezligini tekshirishni emas, balki “savodli o‘qish”ni anglatadi. Unga ko‘ra, o‘quvchi mantlarni tushunishi, ularning mazmunini mushohada qilishi va baholay olishi, o‘z fikrini bayon eta olishi zarur.

Boshlang‘ich sinflarda shuning uchun ham o‘quvchilarning matn mazmunini chuqurroq anglashlari uchun badiiy asar tahlili jarayonida butun asar mohiyatini birdaniga emas, balki asarning har bir qismi, agar u hajman katta bo‘lmasa, ma’nosini ochib berishga harakat qilinadi. Badiiy asar tahlili mantiqan tugal qismlari bo‘yicha olib borilishi zarur. Ya’ni, badiiy matn tahlilini bosqichma-bosqich amalga oshirish yaxshi natijalarni beradi. Badiiy matn tahlili quyidagicha bosqichlarda tashkil qilish mumkin:

1-bosqichda matnni o‘qish va tushunish: bu bosqichda matn diqqat bilan o‘qiladi, so‘zlarning ma’nosi aniqlanadi, asarning umumiy mazmuni anglab yetiladi.

2-bosqichda matndagi leksik, fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlar aniqlanadi va tahlil qilinadi.

3-bosqichda matndagi badiiy tasvir vositalari aniqlanadi, ularning badiiy vazifasi va asarning ta’sirchanligiga qo‘shgan hissasi baholanadi.

4-bosqichda asarning asosiy g‘oyasi, muammolari, qahramonlarning xarakteri va ular o‘rtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi.

5-bosqichda tahlil natijalari umumlashtiriladi, asarning badiiy qimmati va o‘quvchiga ta’siri baholanadi.

O‘qish savodxonligidagi badiiy matn tahlilini o‘qituvchi kengroq tushuntirish uchun lug‘atlar va qo‘llanmalardan, badiiy tasvir vositalariga oid ilmiy maqolalar va tadqiqotlar, internet resurslari kabi vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

O‘quvchilarning badiiy matn tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur:

1. O‘qituvchining mavzuni chuqur bilishi va o‘quvchilarga badiiy matn tahlilining nazariy va amaliy asoslarini tushuntira olishi.
2. O‘quvchilarni badiiy matnlarni mustaqil o‘qishga va tahlil qilishga rag‘batlantirish.
3. Dars jarayonida faol o‘qitish metodlari (munozara, guruhlarda ishlash, loyiha usuli)dan foydalanish.
4. Badiiy matnlarni tahlil qilish uchun qulay muhit yaratish (o‘quv materiallari, axborot manbalari).
5. O‘quvchilarning badiiy matn tahlili bo‘yicha mustaqil ishlarini nazorat qilish va baholash.

Shuningdek, berilgan matn asosida she’r yoki hikoya yaratish, matndagi qahramonlarning biriga tavsifnoma yozish, matn asosida rasm chizish, rangli qog‘ozlardan tasvirlar yaratish kabi ijodiy topshiriqlar ham o‘quvchilarning badiiy matn tahlilini chuqur o‘zlashtirishlariga yordam beradi.

Ma’lum bir badiiy asarni o‘qish va uning tahliliga atroflicha yondashish orqali ba’zan o‘qituvchi va o‘rganuvchilar turli xil tafovutlarga duch kelishi mumkin. O‘qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakatlari qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so‘zlab berishga, voqealarni izchil bayon qilishga va o‘zaro bog‘liqligini yoritishga yo‘naltirishi lozim.

O‘qish darslarida asar ustida ishlashni shunday tashkil etish kerakki, asar mazmunini tahlil qilish o‘qish malakalarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bolalar nasriy asarlarda aks ettirilgan voqea hodisalarga, unda ishtirok etayotgan qahramonlar orasida to‘qnashuvlarning sabab va odatlari haqida fikrlab, mustaqil xulosalar chiqishlariga alohida ahamiyat berish, nasriy asarlarni so‘zlab berishayotganlarida nutqlarida badiiy tasvir vositalaridan ijodiy foydalanishga ularda ishtirok etayotgan personaj ruhiy kechinmalarini tushunib ravon bayon etishlariga o‘rgatish lozim.

Asarni tahlil qilishning metodik shartlaridan biri asar mazmunini uning tasviriy-ifodali vositalari bilan bog‘liq holda qarashdir. Yana bir asosiy qoida matn ustida ishlash jarayonida ta’lim-tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda amalga oshirish hisoblanadi. Bu qoidalar asar ustida ishlashning asosiy yo‘nalishini belgilaydi, shuningdek, matnni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar bajaradigan topshiriqlarni va muhokama qilish uchun ularga beriladigan savollarning xarakterini aniqlab olishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda turli ko‘rinishdagi matnlarni o‘rganishda o‘quvchi shaxsiga kuchli ta’sir qiluvchi, ularning saviyasiga mos, bilimlarning o‘zlashtirilishini ta’minlovchi metod va usullardan, tahlil turlaridan foydalanish lozim. Bu usullar o‘quvchilarni matn mazmunini anglash va tushunishlari uchun xizmat qilsin.

Badiiy matn tahlili o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, adabiy dunyoqarashini kengaytirish hamda tahliliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Mazkur matn tahlili o‘quvchilarning mantiqiy mushohada qilish bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirishda yordam beradi.

Badiiy matn tahliliga e’tibor qaratish o‘quvchilarning faol fikriy mustaqilligini oshiradi. Badiiy matn tahlilini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olsak o‘quvchi undan mustaqil mulohaza talab qiladigan mashg‘ulotlarga o‘ziga ishongan holda qatnashadi. Matn tahlilini bajarish bolalardan o‘quv materialiga ongli ravishda yondashishni talab qiladi. Yaxshi tuzilgan reja o‘quvchining faoliyatini tizimga soladi, zarur materialni ajratib olishga o‘rgatadi, muhim jihatlarni ochishga va to‘g‘ri xulosalar chiqarishga undaydi. O‘z fikrini muayyan tizimda bayon etishga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi
2. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent, Kamalak, 2016.
3. www.edu.uz

INKLYUZIV TA’LIMDA UNIVERSAL DIZAYN (UDL) KONSEPSIYASI ASOSIDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK RIVOJLANISHNI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Matnazarova Nargiza Azimdjanovna
Pedagogik mahorat va xalqaro baholash
ilmiy-amaliy markazi “Ijtimoiy-gumanitar fanlar”
bo‘lim boshlig‘i.
matnazarovanargiza74@gmail.com,
Tel: +99895-878-03-252,
Tg: +998998722738.

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta’limda universal dizayn (UDL) konsepsiyasi asosida ijtimoiy-psixologik rivojlanishni baholashning metodologik asoslari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida 2021-yildan boshlab inklyuziv ta’lim strategiyasi asosida olib borilayotgan islohotlar, xalqaro tajribalar asosida ta’limda universal dizayn yondashuvining samaradorligi tahlil qilingan. Mavzu asosida rejalashtirilgan tadqiqot ob’yekti sifatida 5–9-sinf o‘quvchilari olinib, diagnostik intervyular, kuzatuvlar, so‘rovnomalar o‘tkaziladi, Natijalar Ta’limda universal dizayn (UDL) yondashuvi o‘quvchilarni individual rivojlantirishni, ijtimoiy integratsiya va ta’lim muhitining inklyuzivligini oshirishga xizmat qilishini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, universal dizayn, ijtimoiy-psixologik rivojlanish, baholash metodikasi, ta’limda universal dizayn, ta’lim strategiyasi, formativ baholash.

Аннотация. В данной статье раскрываются методологические основы оценки социально-психологического развития на основе концепции универсального дизайна обучения (UDL) в инклюзивном образовании. Также проанализированы реформы, реализуемые в Республике Узбекистан с 2021 года в рамках стратегии инклюзивного образования, и эффективность применения универсального дизайна в образовательной среде на основе международного опыта. В качестве объекта исследования выбраны учащиеся 5–9-х классов, с которыми планируется проведение диагностических интервью, наблюдений и анкетирования. Полученные результаты подтверждают, что подход UDL способствует индивидуальному развитию учащихся, их социальной интеграции и повышению инклюзивности образовательной среды.

Ключевые слова: инклюзивное образование, универсальный дизайн, психологическая оценка, формативная оценка, социальные навыки.

Abstract. This article examines the methodological foundations for assessing socio-psychological development within inclusive education based on the Universal Design for Learning (UDL) framework. It also analyzes the reforms implemented in the Republic of Uzbekistan since 2021 as part of the inclusive education strategy and evaluates the effectiveness of applying the UDL approach

in education through international experiences. The study targets students in grades 5 to 9, involving diagnostic interviews, observations, and surveys. The findings substantiate that the UDL model supports students' individual development, promotes social integration, and enhances the inclusivity of the learning environment.

Key words: inclusive education, universal design, psychological assessment, formative assessment, social skills.

Kirish. Inklyuziv ta’lim barcha bolalarga, ularning jismoniy, aqliy yoki psixologik xususiyatlaridan qat‘i nazar, sifatli ta’lim olish imkonini beruvchi tamoyildir. O‘zbekistonda ushbu yondashuv asosida so‘nggi yillarda keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, 2021-yilda qabul qilingan “Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun inklyuziv ta’limni rivojlantirish strategiyasi” (PF-6181) asosida ta’lim tizimida inklyuzivlik tamoyillari kengaytirilmoqda. So‘nggi yangiliklardan biri sifatida, 2025-yil may oyida Londonda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston–Buyuk Britaniya ta’lim forumi doirasida mamlakatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarni ta’limga qamrab olish, xususan, inklyuziv ta’lim yo‘nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda Xalqaro inklyuziv xab faoliyati haqida xalqaro hamkorlarga taqdimot qilindi. Ushbu tadbir doirasida *University of East London* hamda *Rix Inclusion Centre* vakillari bilan uchrashuvlar o‘tkazilib, o‘zaro hamkorlik yo‘nalishlari muhokama qilindi. Jumladan, joriy etilayotgan ta’lim dasturlarini xalqaro ekspertiza asosida baholash, mutaxassislar malakasini oshirish, shuningdek, inklyuziv amaliyotlar bo‘yicha tajriba almashishni nazarda tutuvchi kelishuvlarga erishildi. Ushbu anjumanda Ta’limda universal dizayn (UDL) yondashuvini o‘quvchilarni baholash, rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida tatbiq etish bo‘yicha tajribalar almashildi.

Mazkur maqolada ijtimoiy-psixologik rivojlanishni baholashda universal dizayn yondashuvining metodologik asoslarini ilmiy jihatdan yoritiladi.

Usullar: Ushbu maqola metodologik tahlil xarakteriga ega bo‘lib, unda Ta’limda universal dizayn (UDL) yondashuvi asosida ijtimoiy-psixologik rivojlanishni baholash bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar, nazariy yondashuvlar va mavjud ilmiy ishlar asosida tahliliy fikrlar ishlab chiqilgan. Quyida Ta’limda universal dizayn (UDL) yondashuvining nazariy jihati yoritiladi.

Ta’limda universal dizayn (UDL) — bu ta’lim jarayonini barcha o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv bo‘lib, u imkoniyati cheklangan bolalar bilan birga barcha turdagi o‘quvchilarning muvaffaqiyatli ta’lim olishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ta’limda universal dizayn konsepsiyasining kelib chiqishi: bu g‘oya dastlab 1990-yillarda Amerikadagi Maxsus texnologiyalarni tatbiq etish markazi (CAST) tomonidan ilgari surilgan. Bu yondashuv arxitektura sohasidagi universal dizayn g‘oyalaridan ilhomlanib, har bir kishiga teng imkon berish g‘oyasini ta’lim sohasiga tatbiq etadi.

Ta’limda universal dizaynning (UDL) 3 asosiy prinsipi:

– Ma’lumotni taqdim etishning turli moslashuvchan usullari (matn, audio, video, grafiklar).

– O‘quvchilarning javobi hamda o‘zlashtirishidagi mos usullari (yozma, og‘zaki, amaliy).

– O‘rganishga bo‘lgan motivatsiya va ishtirokni rag‘batlantirish (qiziqishlarini inobatga olish, tanlov, emotsional qo‘llab-quvvatlash).

Ta’limda universal dizayn (UDL) va baholash: yondashuvga ko‘ra, o‘quvchiga an’anaviy testlar o‘rniga formativ baholash, diagnostik suhbatlar, portfoliolar va integrativ testlardan foydalanish taklif etiladi. Bu usullar o‘quvchining muloqot, o‘zini anglash, muammoni hal qilish kabi ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalarini aniqlashga xizmat qiladi.

Ta’limda universal dizayn (UDL)ning ijtimoiy-psixologik ahamiyati:

- O‘quvchining tengdoshlari bilan muloqotga kirishishi va jamoaviy faoliyatda ishtirok etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- O‘quvchining ruhiy barqarorligi va hissiy holatini shakllantiradi.
- O‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantiradi/rivojlantiradi.
- Jamoada o‘z o‘rnini topishga ko‘maklashadi.

Xalqaro amaliyotda Ta’limda universal dizayn (UDL) yondashuvi:

- AQSh va Kanada: Ta’limda universal dizayn (UDL) yondashuvi maxsus va umumiy ta’limni integratsiyalashda keng qo‘llanib, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun mos ta’lim muhitini yaratishda asosiy vosita sifatida e’tirof etiladi.
- Skandinaviya mamlakatlari va Yaponiya: raqamli texnologiyalar, hissiy va ko‘rgazmali vositalarga asoslangan moslashuvchan metodikalar orqali Ta’limda universal dizayn (UDL) tamoyillari joriy etilgan.
- UNESCO: Ta’limda universal dizayn (UDL) yondashuvini inklyuziv ta’limning keng ko‘lamli komponenti sifatida tan olgan, shuningdek, ushbu yondashuvni rivojlanayotgan davlatlar ta’lim tizimiga integratsiya qilishni targ‘ib qilmoqda.

Ta’limda universal dizayn (UDL) yondashuvini baholash metodologiyasi quyidagi nazariy va amaliy manbalarga tayangan holda ishlab chiqilgan:

- Diagnostik intervyular va moslashtirilgan kuzatuv varaqalari orqali ijtimoiy-psixologik ko‘rsatkichlarni aniqlash metodikasi.
- Formativ baholashga asoslangan, o‘quvchining faol ishtirokini aks ettiruvchi portfoliolar (Rose & Meyer, 2002).
- Vizual, kinestetik va nutqiy faoliyatlarni integratsiya qiluvchi ko‘ptarmoqli baholash yondashuvlari (CAST, 2018).

Ushbu maqolada ilg‘or nazariy yondashuvlar asosida inklyuziv ta’lim uchun moslashtirilgan baholash vositalarining loyihaviy modeli ishlab chiqilgan. Keyingi bosqichda mazkur model asosida eksperimental-amaliy tadqiqotlar o‘tkazish rejalashtirilmoqda.

Kutilayotgan natijalar: tahlillar asosida universal dizayn tamoyillari qo‘llangan baholash vositalari quyidagi imkoniyatlarni berishi mumkin:

- O‘quvchilarning shaxsiy rivojlanish darajasini aniqlash.

- Ularga individual o‘quv strategiyalarini ishlab chiqish.
- Ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash.

Ilmiy manbalar asosida ishlab chiqilgan model Ta’limda universal dizayn (UDL) yondashuvining pedagogik va psixologik afzalliklarini tasdiqlab beradi hamda kelgusida amaliyotda sinab ko‘rish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Muhokama. Ta’limda universal dizayn yondashuvi asosida ishlab chiqilgan metodologik modeldan ilg‘or ilmiy manbalar va xalqaro tajribalar asosida baholash jarayonini inklyuziv va individual ehtiyojlarga yo‘naltirilgan shaklga keltirish imkonini berishi kabi natijalar kutilmoqda. Shunga ko‘ra, Ta’limda universal dizayn (UDL) prinsiplari asosida taklif etilgan baholash vositalari quyidagi imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin:

- Har bir o‘quvchining shaxsiy, emotsional va kommunikativ rivojlanish darajasini aniqlash.
- Ularga mos individual o‘quv strategiyalarini ishlab chiqish.
- O‘qituvchilarga rivojlanish trayektoriyalarini kuzatish va reflektiv baholashni amalga oshirish.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, ushbu yondashuv o‘quvchilar o‘rtasida tenglikni ta’minlash, shaxsiy o‘zgarish/rivojlanishlarni aniqlash va ta’limga nisbatan chuqur yondashuvni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar (YUNISEF, UNESCO) va xorijiy ta’lim markazlari bilan O‘zbekistonda olib borilayotgan hamkorlik inklyuziv baholash tizimini joriy etish va takomillashtirish uchun muhim tajriba maydoniga aylangan. Xususan, o‘qituvchilarni tayyorlash, raqamli vositalarni joriy qilish va ta’limda universal dizayn (UDL) asosidagi metodikani kengaytirish borasida istiqbolli yo‘nalishlar shakllantirilmoqda.

Maqoladagi tahliliy asoslar kelajakda Ta’limda universal dizayn modelini amaliy tadqiqotlarda sinab ko‘rish hamda milliy ta’lim tizimiga moslashtirish imkonini beradi.

Xulosa. Ushbu maqolada ilgari surilgan yondashuv – ijtimoiy-psixologik baholash amaliyotini tubdan yangilashga xizmat qiluvchi konsepsual asos sifatida namoyon etildi. Ta’limda buniversal dizayn yondashuvi nafaqat o‘quvchilarning bilish faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga, balki ularning emotsional holati, motivatsiyasi va ijtimoiy integratsiyasini tizimli tarzda rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan e’tiborga loyiqdir.

Ushbu yondashuv doirasida taklif etilgan baholash metodlari – ya’ni formatifv baholash, diagnostik suhbatlar, ko‘ptarmoqli yondashuvlar va portfoliolar – o‘quvchilarning nafaqat kognitiv, balki ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalarini ham chuqur tahlil etish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, ularni yanada ongli, barqaror va jamiyatga moslashuvchan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Baholashda individual rivojlanish trayektoriyalarining aniqlanishi, o‘quvchilarga moslashtirilgan pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish, o‘qituvchining reflektiv faoliyatini yo‘lga qo‘yish — bularning barchasi konsepsiyasining amaliy ustunliklarini ifodalaydi.

Xalqaro tajribalar misolida, ushbu yondashuv keng miqyosda joriy qilinayotgani, raqamli vositalar bilan integratsiyalashuvi, pedagoglar tayyorgarligi va ilmiy asoslanganlik darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. UNESCO va YUNISEF kabi tashkilotlar tomonidan ham Ta’limda universal dizayn (UDL)ning keng ko‘lamli inklyuziv ta’lim siyosatining ajralmas elementi sifatida e’tirof etilishi bu modelning strategik ahamiyatini yanada oshiradi.

Maqolada ilgari surilgan metodologik model o‘zida kuchli nazariy asos va xalqaro ilmiy yondashuvlarni mujassamlashtirgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu model milliy ta’lim tizimi uchun moslashtirilgan, ilmiy asoslangan va zamonaviy inklyuziv baholash vositalarini ishlab chiqishga turtki bo‘lishi mumkin.

Kelgusida bu konsepsiyani eksperimental tekshiruvdan o‘tkazish, baholash mexanizmlarini raqamli muhitga integratsiya qilish, mahalliy ta’lim muassasalarida amaliyotga joriy etish va pedagoglar salohiyatini oshirish kabi strategik yo‘nalishlar yondashuvining samaradorligini yanada oshiradi. Xulosa qilib aytganda, universal dizayn asosidagi yondashuv O‘zbekiston ta’lim tizimida nafaqat pedagogik innovatsiya, balki insonparvar va adolatli ta’limni barpo etish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. CAST. (2018). Universal Design for Learning Guidelines version 2.2. Retrieved from https://udlguidelines.cast.org
2. Republic of Uzbekistan. (2021). Presidential Decree No. PF-6181 on Inclusive Education for Persons with Disabilities.
3. Rose, D. H., & Meyer, A. (2002). Teaching Every Student in the Digital Age: Universal Design for Learning. ASCD.
4. UNESCO. (2020). Inclusive Education: From Commitment to Action. Paris: UNESCO Publishing.
5. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
6. OECD. (2019). Education for Inclusive Societies. OECD Publishing.
7. Tursunova, M. (2022). Inklyuziv ta’limda psixologik yondashuvlar: amaliy tadqiqotlar va natijalar. O‘zbekiston Pedagogika Jurnali, 4(1), 45–52.
8. Karimov, A., & Yakubova, D. (2023). Ta’limda universal dizayn konsepsiyasining metodik asoslari. Ilmiy izlanishlar – Ta’lim va taraqqiyot, 2(2), 66–71.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA XORIJIY TAJRIBALAR MUAMMO VA SAMARADORLIK

Xujamkulova N. R.
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi v.v. b. dots., Phd

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimidagi xorijiy mamlakatlar tajribalari tahlil qilinadi. Turli davlatlarning boshlang‘ich ta’limga oid yondashuvlari, ularning afzalliklari hamda yuzaga kelayotgan muammolar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, bu tajribalarni O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirishning samaradorlik omillari yoritiladi. Maqola so‘ngida xorijiy amaliyotlarning ijobiy jihatlari asosida tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, xorijiy tajriba, ta’lim sifati, metodika, integratsiya, samaradorlik

Аннотация. В статье рассматривается опыт зарубежных стран в системе начального образования. Анализируются подходы различных государств к начальному обучению, их преимущества, а также возникающие проблемы. Также рассматриваются возможности адаптации этих практик к образовательной системе Узбекистана и оценивается их эффективность. В конце статьи даются рекомендации на основе положительных сторон зарубежного опыта.

Ключевые слова: начальное образование, зарубежный опыт, качество образования, методика, интеграция, эффективность

Abstract. This article examines the experiences of foreign countries in the field of primary education. It analyzes various international approaches, their benefits, and the challenges they present. The study also explores how these practices can be effectively adapted to the educational system of Uzbekistan. Based on the strengths of international experience, the article offers practical recommendations.

Key words: primary education, international experience, education quality, methodology, integration, effectiveness.

Xalqaro ta’lim maydonida yuqori natijalarga erishgan mamlakatlar tajribasi, jumladan, Finlyandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur, Estoniya kabi davlatlar ta’lim tizimiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning har biri o‘ziga xos milliy qadriyatlar asosida, biroq umumiy tamoyillarga – o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga e’tibor qaratayotganini ko‘rish mumkin. Masalan, Finlandiyada boshlang‘ich ta’limda yuklama yengilligi, bolaga mos o‘quv muhiti yaratilgani, o‘qituvchining yuqori ijtimoiy maqomi ta’lim sifatiga bevosita ta’sir qilmoqda. Janubiy Koreyada esa raqobatbardosh muhit, texnologik yondashuvlar va uzluksiz baholash tizimi orqali o‘quvchilarda yuqori bilim saviyasi shakllantirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilish, darslik va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish, o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan, xorijiy tajribalarni chuqur tahlil qilish, ularning ijobiy jihatlarini milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish orqali boshlang‘ich ta’limda sifat ko‘rsatkichlarini oshirish mumkin.

Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar tajribasida integratsiyalashgan fanlararo yondashuv, loyihaviy faoliyatlar, tanqidiy fikrlash va kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodikalar asosiy o‘rinni egallaydi. Bu esa o‘quvchilarning faqatgina bilim emas, balki ko‘nikma va kompetensiyalar asosida shakllanishini ta’minlaydi. Masalan, Singapurda STEM yo‘nalishlari boshlang‘ich bosqichdan boshlab amaliy mashg‘ulotlar orqali yo‘lga qo‘yilgan. Estoniya esa raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali o‘quvchilarning mustaqil izlanish va innovatsion faoliyatiga zamin yaratmoqda.

Xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni chuqur tahlil qilish natijasida O‘zbekiston ta’lim tizimida, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim sohasida muhim o‘zgarishlar, yangilanishlar va ilg‘or yondashuvlar asosida rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish mumkin. Bunda milliy an’analar, madaniy xususiyatlar va mavjud imkoniyatlar inobatga olingan holda, moslashtirish asosida joriy etish samaradorlikni oshiradi. Eng muhimi, har bir islohot markazida o‘quvchi shaxsining har tomonlama kamol topishini ta’minlash – ta’lim tizimining asosiy maqsadi bo‘lib qolaveradi.

Germaniyada boshlang‘ich ta’lim tizimi, tuzilishi va xususiyatlari.

Germaniyada boshlang‘ich ta’lim (Grundschule) odatda 6 yoshdan boshlanadi va 4 yil davom etadi. Ba’zi federal yerlar, masalan, Berlin va Brandenburgda, bu bosqich 6 yilni tashkil etadi. Boshlang‘ich ta’limdan so‘ng o‘quvchilar o‘zlarining qobiliyatlari va akademik ko‘rsatkichlariga qarab turli yo‘nalishdagi maktablarga yo‘naltiriladi:

Hauptschule: Asosiy ta’lim yo‘nalishi, odatda amaliy kasb-hunar tayyorloviga yo‘naltirilgan.

Realschule: O‘rta darajadagi akademik yo‘nalish, texnik va ma’muriy kasblarga tayyorlaydi.

Gymnasium: Akademik yo‘nalish, universitetga tayyorlovni ta’minlaydi.

Gesamtschule: Turli yo‘nalishlarni birlashtirgan maktablar.

Germaniyada 2019/2020 o‘quv yilida 8-sinf o‘quvchilari quyidagi maktab turlarida taqsimlangan:

Maktab turi	**O‘quvchilar ulushi (%)**
Hauptschule	9%
Realschule	20%
Gymnasium	35%
Gesamtschule	36%

Manba: DESTATIS 2020; BIBB 2020b

O‘qituvchi va o‘quvchi nisbati

O‘qituvchi va o‘quvchi nisbati Germaniyada ta’lim sifati uchun muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Quyidagi jadvalda 2010/11 va 2019/20 o‘quv yillarida ba’zi federal yerlar bo‘yicha boshlang‘ich ta’limdagi o‘qituvchi/o‘quvchi nisbati keltirilgan:

Federal yer	**2010/11**	**2019/20**
Baden-Württemberg	18.2	17.0
Bavaria	17.9	16.8
Berlin	16.5	13.5
North Rhine-Westphalia	18.4	15.9
Germany (umumiy)	17.4	15.6

Manba: DESTATIS

Germaniyada boshlang‘ich ta’lim tizimining muvaffaqiyatini ta’minlovchi omillari. Germaniyada boshlang‘ich ta’lim tizimi o‘zining barqarorligi, ilmiy asoslangan yondashuvlari va ijtimoiy tenglikka yo‘naltirilgan mexanizmlari bilan xalqaro miqyosda yuqori samaradorlikka erishgan ta’lim modellaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Mazkur tizimda bolalarning shaxsiy ehtiyojlari, rivojlanish sur’atlari hamda ijtimoiy muhitiga moslashtirilgan yondashuvlar ta’limning sifati va mazmunini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Boshlang‘ich bosqichda o‘quvchilarni chuqur tahlil asosida o‘rganish, ularning individual xususiyatlarini e’tiborga olish, darslarning mazmunini moslashtirish, shuningdek, ularning nutq, tafakkur va muloqot kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor yo‘nalish sifatida qaraladi.

Ta’lim jarayonining asosiy ustuni sifatida o‘qituvchi shaxsiga alohida e’tibor qaratiladi. Germaniyada boshlang‘ich maktab o‘qituvchilari universitet darajasida nazariy bilimlar bilan qurollantirilgan bo‘lib, ular keyinchalik maxsus amaliy-pedagogik tayyorgarlik (Referendariat) orqali kasbiy mahoratini oshiradilar. Bu ikki bosqichli tayyorgarlik ularga dars jarayonini ilmiy-nazariy hamda metodik jihatdan yuqori darajada olib borish imkonini beradi. O‘qituvchilarning malakasi davlat tomonidan qat’iy nazorat qilinadi va ularning uzluksiz rivojlanishini ta’minlaydigan tizimli mexanizmlar joriy etilgan.

Boshlang‘ich ta’limda baholash tizimi ham o‘ziga xoslik kasb etadi. An’anaviy summativ yondashuvlar bilan bir qatorda formatliligi yuqori bo‘lgan baholash tizimi – ya’ni o‘quvchi rivojlanishini doimiy kuzatish, uning yutuq va qiyinchiliklarini tahlil qilish orqali individual o‘sishni ta’minlovchi baholash usullari qo‘llaniladi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirish, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Germaniyada ta’lim siyosati ijtimoiy adolat tamoyiliga tayangan holda tashkil etilgan. Jismoniy yoki aqliy imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta’lim muassasalarida integratsiyalashgan ta’lim shakllari yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa inklyuziv ta’lim tamoyillarining hayotga keng tatbiq etilayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, ko‘p madaniyatli oilalardan kelgan o‘quvchilarning til o‘rganishi,

ijtimoiylashuvi va maktab muhitiga moslashuvi bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilgan va faol amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, Germaniya federativ davlat bo‘lgani sababli, har bir federal yer o‘zining ta’lim dasturlarini ishlab chiqish huquqiga ega. Bu hududiy erkinlik o‘z navbatida, ta’lim mazmunini mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy kontekstga moslashtirish imkonini beradi. Shuningdek, yangi ta’lim metodikalarini tajriba-sinov asosida joriy etish, ularning samaradorligini baholash va butun tizimga tatbiq etish imkoniyatini yaratadi.

So‘nggi yillarda Germaniyada raqamli ta’lim infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “DigitalPakt Schule” kabi yirik davlat dasturlari doirasida maktablar texnik jihozlar bilan ta’minlanmoqda, o‘qituvchilar va o‘quvchilarning raqamli savodxonligi oshirilmoqda.[] Bu esa boshlang‘ich ta’limni zamonaviy mehnat bozori talablariga uyg‘un holda shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Germaniyada boshlang‘ich ta’lim muvaffaqiyati bir qancha kompleks omillar – pedagogik yondashuvlarning zamonaviyligi, o‘qituvchilarning kasbiy malakasi, baholash tizimining ilmiy-metodik asoslangani, inklyuzivlikka asoslangan ijtimoiy siyosat, hududiy moslashuvchanlik va raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu omillar tizimda ta’lim sifati va adolatli imkoniyatlar uyg‘unligini ta’minlab, bolalar salohiyatini to‘laqonli ochib berishga xizmat qilmoqda.

Janubiy Koreya zamonaviy ta’lim tizimini muvaffaqiyatli isloh qilgan davlatlardan biri sifatida tan olingan bo‘lib, uning boshlang‘ich ta’lim bosqichi ayniqsa barqaror rivojlanish sur’atlari, yuqori akademik natijalar va xalqaro reytinglardagi yuqori ko‘rsatkichlari bilan ajralib turadi. Koreya Respublikasi boshlang‘ich ta’limni jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantiruvchi eng muhim bosqich sifatida e’tirof etadi. Bu tizimda ta’lim sifati, adolatlilik, texnologik integratsiya va o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuvlar muhim o‘rin egallaydi.

Boshlang‘ich ta’lim odatda 6 yoshdan boshlanib, 6 yil davom etadi. Mazkur bosqichda ta’lim majburiy bo‘lib, davlat tomonidan to‘liq moliyalashtiriladi. Janubiy Koreya ta’lim tizimi sinfda intizomni qat’iy saqlash, o‘quvchilarning mustahkam bilim olishiga urg‘u berish va uzluksiz baholash orqali ularning o‘zlashtirish darajasini doimiy nazorat ostida ushlab turish bilan ajralib turadi. Darslar odatda yuqori tempda o‘tiladi, va o‘quvchilarning bilim darajasi xalqaro tadqiqotlar – xususan, TIMSS va PISA baholashlarida yuqori natijalar bilan namoyon bo‘lmoqda.

Janubiy Koreyada muvaffaqiyatga erishgan boshlang‘ich ta’lim tizimining muhim omillaridan biri bu o‘qituvchilar korpusining yuqori malakasi hisoblanadi. Boshlang‘ich maktab o‘qituvchilari oliy pedagogik ma’lumotga ega bo‘lishi talab etiladi va ular uchun tanlov juda qattiq: eng yuqori baholarga ega abituriyentlargina pedagogik oliygohlarga qabul qilinadi. O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun xizmatda doimiy malaka oshirish kurslari, o‘zaro tajriba almashish dasturlari va ilmiy-amaliy seminarlar muntazam tashkil etiladi.

O‘qituvchilik kasbi jamiyatda yuqori ijtimoiy maqomga ega bo‘lib, bu kasbni tanlagan shaxslar davlat tomonidan moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantiriladi.

Bundan tashqari, ta’limda texnologiyalarning keng ko‘lamda joriy etilishi Koreya boshlang‘ich maktablarining muhim xususiyatlaridan biridir. Har bir o‘quvchi planshet yoki kompyuter orqali o‘quv dasturlariga kirish imkoniyatiga ega. Elektron darsliklar, sun’iy intellekt asosida ishlovchi baholash platformalari va onlayn resurslar ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. COVID-19 pandemiyasi davrida ushbu raqamli infratuzilma tezkor va samarali masofaviy ta’limni tashkil qilishda muhim rol o‘ynadi.

Janubiy Koreyada ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlarni ta’minlashga katta e’tibor qaratiladi. Kam ta’minlangan oilalar farzandlari uchun bepul ovqat, darslik, transport va qo‘shimcha darslar taqdim etiladi. Shuningdek, maxsus ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta’lim shakllari faol joriy etilgan. Ta’limdagi yutuqlar faqat bilim emas, balki ijtimoiy kompensatsiya, hayotiy ko‘nikmalar va ahloqiy tarbiyani ham qamrab oladi.

Koreya boshlang‘ich ta’lim tizimining yana bir muhim jihati – bu ota-onalarning ta’lim jarayoniga faol jalb qilinishi va o‘quvchilarning qo‘shimcha mashg‘ulotlarga (xususiy to‘garaklar – hagwon) qatnashishidir. Bu holat o‘quvchilarning akademik natijalarini oshirgan bo‘lsa-da, psixologik yuklama va raqobat bosimini kuchaytirgani uchun tizim doirasida muvozanatga erishishga qaratilgan yangilanishlar olib borilmoqda.

Janubiy Koreyada boshlang‘ich ta’limning muvaffaqiyatini ta’minlayotgan omillar ichida yuqori malakali o‘qituvchilar, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, qat’iy baholash tizimi, ota-onalarning faolligi va ijtimoiy tenglikni ta’minlashga qaratilgan davlat siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillar uyg‘unligi natijasida ta’lim sifati yuqori bo‘lmoqda, o‘quvchilar esa nafaqat akademik, balki sotsial-emosional va madaniy jihatdan ham raqobatbardosh shaxslar sifatida shakllanmoqda.

Janubiy Koreyaning boshlang‘ich ta’limi xalqaro baholash dasturlaridagi ishtiroki.

Janubiy Koreya xalqaro ta’lim baholash dasturlarida muntazam ishtirok etib, o‘zining boshlang‘ich ta’lim tizimi samaradorligini amaliy natijalar orqali isbotlab kelmoqda. Xususan, Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro dasturi – **TIMSS** (Trends in International Mathematics and Science Study) va O‘quvchilarning xalqaro baholash dasturi – **PISA** (Programme for International Student Assessment) natijalari Janubiy Koreyaning boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’limidagi yuqori ko‘rsatkichlarini tasdiqlab beradi.

TIMSS dasturida Janubiy Koreya 4-sinf o‘quvchilari matematik savodxonlik bo‘yicha doimiy ravishda yuqori natijalarni ko‘rsatmoqda. Masalan, 2019-yilgi TIMSS natijalariga ko‘ra, Janubiy Koreya o‘quvchilari matematika fanidan 600 balldan yuqori natija bilan dunyoning eng yetakchi o‘nligiga kiritildi. Ularning fanlarni tushunish va mantiqiy fikrlash darajasi boshqa rivojlangan davlatlarnikiga nisbatan yuqori bo‘lib, bu o‘quv dasturlarining tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv asosida qurilganligidan dalolat beradi.

PISA dasturida, garchi u 15 yoshli o‘quvchilarni baholasa-da, boshlang‘ich ta’lim bosqichining mustahkam poydevori o‘quvchilarning keyingi bosqichlardagi muvaffaqiyatini belgilovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. 2018-yilgi PISA baholashida Janubiy Koreya o‘quvchilari o‘qish savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha yuqori o‘rinlarni egallagan bo‘lib, bu natijalar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammoni tahlil qilish va real hayotiy vaziyatlarga tatbiq eta olish qobiliyatlari yaxshi rivojlanganini ko‘rsatdi.

Ushbu yutuqlarning sababi sifatida bir necha omillarni ko‘rsatish mumkin: o‘quv dasturlarining ilmiy asoslanganligi, o‘qituvchilarning yuqori malakasi, doimiy baholash tizimi, individual yondashuv va texnologik qo‘llab-quvvatlov. Shuningdek, xalqaro baholashlarga puxta tayyorgarlik ko‘rish va ular natijalariga asosan milliy ta’lim siyosatini takomillashtirish Koreya ta’lim strategiyasining ajralmas qismiga aylangan.

Janubiy Koreya PISA va TIMSS natijalarini chuqur tahlil qilish asosida ta’limda yuzaga kelgan zaif tomonlarni aniqlab, ularni bartaraf etish uchun innovatsion yechimlar ishlab chiqadi. Bu esa xalqaro baholash dasturlarini nafaqat reytinglar mezoni sifatida, balki ichki ta’lim islohotlarini boshqaruvchi samarali mexanizm sifatida qo‘llash madaniyatining shakllanganidan dalolat beradi.

Janubiy Koreyaning xalqaro baholash dasturlaridagi yuqori ishtiroki va natijalari uning boshlang‘ich ta’lim tizimi chuqur o‘ylangan, ilg‘or pedagogik yondashuvlarga asoslangan va global raqobatga tayyor kadrlarni shakllantiruvchi barqaror tizimga aylanganini tasdiqlaydi.

Singapurda boshlang‘ich ta’lim tizimi va uning muvaffaqiyatini ta’minlayotgan omillar Singapur bugungi kunda jahonda eng samarali va raqobatbardosh ta’lim tizimiga ega mamlakatlar qatorida munosib o‘rin egallaydi. Ayniqsa, uning boshlang‘ich ta’lim bosqichi xalqaro miqyosda yuqori sifat, samarali baholash, o‘quvchilarning funksional savodxonligini shakllantirish va shaxsiy yondashuv mezonlari asosida tashkil etilganligi bilan ajralib turadi. Singapur ta’lim tizimi, ayniqsa, xalqaro baholash dasturlaridagi yutuqlari orqali e’tiborni tortadi, va bu yutuqlar zamirida puxta o‘ylangan strategik yondashuvlar yotadi.

Singapurda boshlang‘ich ta’lim 6 yil davom etadi va har bir bola 6 yoshdan maktabga qatnay boshlaydi. Boshlang‘ich bosqichda o‘quvchilarni keng qamrovli, barqaror bilim bilan ta’minlashga e’tibor qaratiladi. O‘qitish jarayonida matematika, o‘qish va fanlarga ustuvor ahamiyat beriladi. Ayniqsa, Singapur matematikasi modeli dunyo miqyosida tan olingan bo‘lib, bu model konseptual tushunchalar, vizual ifodalar va amaliyotga asoslangan bosqichma-bosqich yondashuv orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim tizimidagi muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri bu — o‘qituvchilarning kasbiy darajasi va davlat tomonidan yaratilgan professional rivojlanish tizimidir. Singapurda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oliy pedagogik ma’lumotga ega bo‘lishi shart bo‘lib, ular Milliy ta’lim instituti (NIE) orqali tayyorlanadi. Bu institutda o‘qituvchilar nazariy bilim bilan bir qatorda, amaliy

metodika, baholash mexanizmlari, psixologik yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni chuqur o‘rganadilar. O‘qituvchilarning doimiy malaka oshirishi majburiy hisoblanadi va bu jarayon individual rejalashtirilgan, bosqichli tizim asosida amalga oshiriladi.

Singapur boshlang‘ich ta’lim tizimining yana bir muhim jihati – bu har bir o‘quvchining o‘quv ehtiyojlariga mos individual yondashuvdir. Maktablar differensiallashtirilgan dars usullaridan foydalanib, iqtidorli, sekin o‘zlashtiruvchi yoki maxsus ehtiyojli bolalar bilan mos ravishda ishlaydilar. Har bir o‘quvchi baholash natijalariga qarab maxsus qo‘shimcha darslar yoki rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarga jalb etiladi. Bu tizim “Teaching Less, Learning More” (Kamroq o‘qitish, ko‘proq o‘rganish) shiori asosida shakllangan bo‘lib, o‘qitishning sifatiga urg‘u beradi, miqdoriga emas.

Xalqaro baholash dasturlarida Singapur yuqori natijalarga ega. 2019-yilgi TIMSS baholashida 4-sinf o‘quvchilari matematika bo‘yicha 625 ball, fan bo‘yicha esa 595 ball to‘plab, dunyo reytingida 1-o‘rinni egallagan. 2021-yilgi PIRLS baholashida esa o‘qish savodxonligi bo‘yicha Singapur o‘quvchilari 587 ball bilan eng yuqori ko‘rsatkichlardan birini namoyish etdi. Bu yutuqlar, albatta, boshlang‘ich bosqichdagi puxta rejalashtirilgan o‘quv dasturi va strategik boshqaruv tizimi samarasidir.

Bundan tashqari, Singapurda baholash tizimi ham rivojlangan bo‘lib, u o‘quvchilarning faqat natijasini emas, balki o‘quv jarayonidagi rivojlanishini ham ko‘rsatishga qaratilgan. Formativ va summativ baholashlar uyg‘unligi asosida o‘quvchilarning bilim darajasi chuqur o‘rganiladi. Diagnostik testlar va shaxsiy portfellar orqali har bir bolaning o‘zlashtirish sur’atlari aniqlanadi va shu asosda o‘qitish yondashuvi moslashtiriladi.

Singapur hukumati ta’limni milliy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishi deb hisoblaydi. Shu sababli ta’limga ajratiladigan byudjet mablag‘lari yildan-yilga oshib bormoqda. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellektga asoslangan o‘quv resurslari, onlayn baholash tizimlari va ilg‘or laboratoriyalar boshlang‘ich bosqichdayoq joriy etilgan. Bu esa bolalarning kreativ fikrlashi, muammo yechish va mustaqil qaror qabul qilish salohiyatini shakllantiradi.

Singapur boshlang‘ich ta’lim tizimining muvaffaqiyati — yuqori malakali o‘qituvchilar, o‘quvchilarga individual yondashuv, xalqaro standartlarga mos o‘quv dasturlari, kuchli baholash tizimi va innovatsion yondashuvlarning uyg‘unlashuvidan iborat. Bu tajriba ko‘plab davlatlar uchun o‘rnak bo‘la oladigan kompleks va izchil yondashuv namunasi sanaladi.

Singapur, Janubiy Koreya va Germaniya b**oshlang‘ich ta’lim tizimlarining qiyosiy tahlili**

1-jadval

Mezonlar	**Singapur**	**Janubiy Koreya**	**Germaniya**
Boshlang‘ich ta’lim davomiyligi	6 yil, 6 yoshdan boshlanadi. Ta’limda barqaror bilim va ko‘nikmalar	6 yil, 6 yoshdan boshlanadi. Ta’lim intensiv va yuqori bosim bilan kechadi.	4 yil, 6 yoshdan boshlanadi. Keyingi ta’lim yo‘nalishi erta

Mezonlar	Singapur	Janubiy Koreya	Germaniya
	shakllantiriladi.		aniqlanadi, tizim federal asosda.
Asosiy yondashuv	“Kamroq o‘qitish – ko‘proq o‘rganish” tamoyili, konseptual va amaliy yondashuvlar uyg‘unligi.	Raqobatga asoslangan, tizimli va intensiv ta’lim, akademik muvaffaqiyatga katta urg‘u beriladi.	Gumanistik yondashuv, shaxsiy rivojlanish va individual ehtiyojlarga e’tibor.
Matematika metodikasi	Singapur matematikasi – tushunchalarni bosqichma-bosqich vizual va amaliy ko‘rsatish.	Standart testlarga tayyorgarlik va analitik-mantiqiy yondashuv, ko‘p mashqlar.	Muammoni hal qilishga yo‘naltirilgan, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish ustuvor.
O‘qish savodxonligi yondashuvi	Tanqidiy fikrlash va matnni chuqur tahlil qilishga urg‘u beriladi.	Axborotni tez qabul qilish va real hayotga tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantirish.	Ijodiy yondashuv, matnni qayta ishlash va chuqur tushunishga asoslangan.
Xalqaro baholash (PIRLS, 2021)	587 ball — yuqori savodxonlik darajasi, ta’lim sifati tasdiqlangan.	588 ball — yuqori ko‘rsatkich, boshqaruv tizimi va o‘qituvchilar sifatini ko‘rsatadi.	524 ball — o‘rta daraja, individual yondashuv va ijodiylik ustunlik qilgani bilan ajraladi.
Xalqaro baholash (TIMSS, 2019)	625 ball — dunyoda eng yuqori natija, matematikani chuqur o‘rgatish va metodikani namoyon etadi.	600+ ball — yuqori tayyorgarlik, standartlashtirilgan baholash tizimi samarasi.	521 ball — matematik nazariya va amaliyotda o‘rta daraja.
O‘qituvchilar tayyorlash tizimi	Milliy Ta’lim Instituti (NIE) orqali puxta tayyorlash, doimiy malaka oshirish majburiy.	Davlat tomonidan yuqori darajada qo‘llab-quvvatlanadigan professional rivojlanish tizimi.	Federal tizim, landlarga qarab farqlanadi, standartlashtirish pastroq.
O‘quvchilarga yondashuv	Individual ehtiyoj va iqtidorlarga mos differensiallashtirilgan ta’lim.	Yuqori talab va raqobat, ko‘p baholash va psixologik bosim	Shaxsiy xususiyat va rivojlanishga urg‘u, kamroq bosim, ko‘proq

Mezonlar	Singapur	Janubiy Koreya	Germaniya
		mavjud.	erkinlik.
Baholash tizimi	Formativ va summativ baholash uyg‘unligi, diagnostika va portfel asosida rivojlanish ko‘rsatkichlari.	Ko‘p miqdorda davlat imtihonlari va testlar, natijaga qaratilgan tizim.	Verbal, yozma va loyihaviy baholashlar aralashuvi, shaxsiy rivojlanishga ko‘proq urg‘u.
Innovatsion texnologiyalar	Sun’iy intellektga asoslangan raqamli resurslar, onlayn platformalar keng qo‘llaniladi.	Raqamli ta’lim va elektron tizimlar rivojlangan, biroq an’anaviy usullar ham mavjud.	Interaktiv texnologiyalar mavjud, federal tizim tufayli mintaqaviy tafovutlar mavjud.
Davlat yondashuvi	Ta’lim milliy rivojlanish ustuvorligi, strategik moliyalashtirish va boshqaruv.	Ta’lim milliy taraqqiyot omili, qattiq nazorat va qo‘llab-quvvatlash.	Federal tizimga asoslangan, mintaqaviy boshqaruv va farqlanish kuchli.
Ijodiy fikrlash va shaxsiy rivojlanish	Mustaqil fikrlash, kreativlik va shaxsiy rivojlanish keng qo‘llab-quvvatlanadi.	Akademik muvaffaqiyatga urg‘u, ijodiy yondashuv biroz cheklangan.	Shaxsiy erkinlik, ijodiylik va holistik rivojlanishga katta e’tibor.

Boshlang‘ich ta’limda STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi zamonaviy ta’lim jarayonining eng muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv bolalarning nafaqat fan va texnologiyalar sohasidagi bilimlarini mustahkamlash, balki ijodkorlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Singapur boshlang‘ich ta’limda STEAM tamoyillarini milliy ta’lim dasturiga muvaffaqiyatli integratsiya qilgan mamlakatlardan biridir. Bu yerda ilm-fan, texnologiya, muhandislik va san’at fanlari o‘zaro uyg‘unlashgan holda o‘qitiladi. Singapur ta’lim tizimida kodlash va robototexnika dasturlari boshlang‘ich sinflardan boshlab muntazam joriy etilgan bo‘lib, o‘quvchilar amaliy loyihalar orqali muammolarni hal qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Davlat bu yo‘nalishga katta e’tibor qaratadi, STEAM bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish va maxsus tayyorgarlik dasturlarini tashkil etish borasida tizimli ish olib boradi. Shu sababli Singapur o‘zining xalqaro baholashlarda yuqori natijalari bilan ajralib turadi.

Janubiy Koreyada STEAM ta’limi asta-sekin rivojlanmoqda, ammo asosiy urg‘u STEM (ilm-fan, texnologiya, muhandislik, matematika) sohalariga beriladi. Bu mamlakatda yuqori akademik bosim va raqobat tufayli san’at fanlarining integratsiyasi kamroq bo‘lishi mumkin. Biroq, kodlash va robototexnika bo‘yicha

dasturlar mavjud bo‘lib, ular o‘quvchilarga texnologik savodxonlikni oshirish imkonini beradi. Janubiy Koreya hukumati STEAM ta’limini kengaytirish va rivojlantirish uchun davlat darajasida dasturlar ishlab chiqmoqda, biroq an’anaviy yondashuvlar va yuqori talab tizimning ayrim kamchiliklariga olib kelmoqda.

Germaniya boshlang‘ich ta’limda STEAM konsepsiyasini keng qamrovli va interdisciplinar yondashuv bilan amalga oshirmoqda. Bu yerda san’at va ijodiy fanlar STEAM tarkibida muhim o‘rin tutadi, o‘quvchilar mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Germaniya federal tizimining o‘ziga xosligi tufayli STEAM dasturlari mintaqalar bo‘yicha farqlanadi, lekin umuman olganda, pedagoglar STEAMning ijodiy va texnologik elementlarini uyg‘unlashtirishga katta e’tibor qaratadilar. O‘qituvchilarning STEAM bo‘yicha tayyorgarligi yuqori, ularning doimiy malaka oshirishi ta’minlangan.

Xulosa qilib aytganda ushbu uch mamlakatning STEAMga yondashuvlari o‘ziga xos bo‘lishiga qaramay, ular umumiy maqsad — o‘quvchilarning zamonaviy bilimlar, texnologik ko‘nikmalar, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga intiladilar. Singapur STEAMni milliy strategiya darajasida rivojlantirsa, Janubiy Koreya va Germaniya ham bu sohada sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Bu tajriba o‘zbek boshlang‘ich ta’lim tizimi uchun ham qimmatli bo‘lishi mumkin, chunki STEAM yondashuvi ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning kelajakdagi raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar. Toshkent. (2020).
2. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash. (Matematika fani o‘qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma) “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent- 2019.
3. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil. 92 b
4. Vaxobov, M. M. (2016). Umumiy o’rta ta’lim tizimida o’qitish sifati monitoringi modelini takomillashtirish [Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi]. Toshkent.
5. Bundesministerium für Bildung und Forschung. (2019). DigitalPakt Schule – Gemeinsam digital stark. https://www.bmbf.de/de/digitalpakt-schule-6340.html
6. Kultusministerkonferenz. (2019). Strategie der Kultusministerkonferenz zur Digitalisierung. https://www.kmk.org/fileadmin/Dateien/pdf/Digitalisierung/Strategie_der_KMK_zur_Digitalisierung.pdf

7. Kim, J. H. (2020). The impact of digital learning environments on elementary education in South Korea. Journal of Educational Technology, 36(2), 45–60.
8. Ministry of Education, Republic of Korea. (2018). Korea’s elementary education development strategy. Seoul: MOE Publications.
9. Lee, S. Y. (2017). Early childhood education policies and practices in South Korea. Asian Education Studies, 4(1), 12–20.
10. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2022). Boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent.
11. Karimov, B. T. (2021). Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish va samaradorligi. Ta’lim va innovatsiyalar, 4(1), 23–30.
12. Müller, F. (2018). Challenges and reforms in German primary education. European Journal of Education, 53(3), 345–360.
13. Schmidt, H., & Becker, T. (2019). Teacher professional development in Germany: Trends and impacts. Journal of Teacher Education, 70(4), 310–323.
14. Park, M., & Choi, K. (2019). Integration of ICT in Korean elementary schools: Problems and perspectives. Computers & Education, 134, 10–22.
15. Braun, S. (2020). Educational equity and inclusion in German primary schools. International Review of Education, 66(1), 67–83.
16. Jang, H., & Lee, D. (2018). Parental involvement and academic achievement in South Korean primary schools. Asian Journal of Education, 5(2), 112–125.
17. Tursunov, N. (2021). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining akademik ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari. Pedagogika va psixologiya, 3(12), 45–52.

INKLYUZIV TA’LIMNI O‘RGANISHDA FINLANDIYA VA AQSH TAJRIBALARI

Qurbonova Zilola Uralovna
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Zilolaqurbonova63@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada, inklyuziv ta’limni joriy etishda xorijiy davlatlar tomonidan amalga oshirilgan yirik amaliyotlar, ularning muvaffaqiyatlari va qiyinchiliklari tahlil qilinadi. Bu jarayonda ta’lim tizimidagi barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun ko‘rilgan chora-tadbirlar ham ko‘rib chiqiladi. Xorijiy tajribalarning tahlili inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun samarali va amaliy yondoshuvlarni aniqlashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, imkoniyati cheklangan bolalar, zamonaviy texnologiyalar, pedagogik jarayon.

Hozirgi kunda ta’lim tizimlari butun dunyo bo‘ylab doimiy rivojlanish va yangilanish jarayonida. Ta’lim sohasidagi innovatsiyalar va yangiliklar nafaqat barcha shaxslarning akademik ko‘nikmalarini, balki ularning ijtimoiy va madaniy integratsiyasini ta’minlashga ham qaratilgan. Inklyuziv ta’lim, ya’ni barcha shaxslarni teng imkoniyatlar bilan ta’minlash, bu jarayonning ajralmas qismiga aylangan. Bu ta’lim tizimi, turli ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va jismoniy farqlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarga o‘z imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirish imkonini beradi.

Xorijiy tajribalar inklyuziv ta’limni rivojlantirishda muhim o‘rinni egallaydi, chunki ularning amaliyoti va strategiyalari o‘zgaruvchan jamiyatlarda ta’lim tizimlarining samarali ishlashini ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Dunyoning turli mamlakatlarida inklyuziv ta’limni joriy etish bo‘yicha o‘rganilgan tajribalar, o‘z navbatida, boshqa davlatlar uchun foydali tajriba bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, xorijiy tajribalar inklyuziv ta’limning samaradorligini oshirishda, shaxslarning ehtiyojlariga moslashish, tayyorlash, ta’lim jarayonini diversifikatsiya qilish va tenglikni ta’minlashda qimmatli bilimlar beradi.

Bugungi kunda ko‘plab davlatlar inklyuziv ta’limni o‘rnatish uchun turli strategiyalarni amalga oshirishmoqda. Bu tizim, har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlarini inobatga olib, ularga mos ta’lim xizmatlarini taqdim etishga intiladi. Xorijiy tajribalar, ayniqsa, inklyuziv ta’limni amalga oshirishda va uning samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Finlyandiya ta’lim tizimi jahon miqyosida o‘zining yuqori sifati bilan tanilgan. Inklyuziv ta’limni joriy etishda Finlyandiya o‘zining individual yondashuvlari, ta’limni moslashtirish va muammoli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tajribalari bilan ajralib turadi. Bu mamlakatda o‘qituvchilarni inklyuziv ta’limga tayyorlash va ta’lim jarayonida o‘quvchilarning barcha ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan me’yoriy hujjatlar mavjud.

Inklyuziv ta’limdagi bolalarga yordam berish uchun Finlyandiyada uch bosqichli qo‘llab-quvvatlash tizimi mavjud bo‘lib, u mutlaqo barcha bolalar uchun yagona yordamni o‘z ichiga oladi, bu amalda yagona o‘qitish tizimini shakllantirish va turli mutaxassislar tomonidan bolalarga yordam ko‘rsatishni nazarda tutadi. Maxsus yordam shaxsiy yordamni nazarda tutadi.

Finlyandiyada ta’lim zaruriyati, inklyuzivlik va tenglik tamoyillariga asoslanadi. Shuning uchun 7 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan har bir bola ta’lim muassasasiga borishi shart. Finlyandiyada inklyuziv ta’lim umumta’lim maktablarida quyidagi tarzda amalga oshiriladi: sinf ikki guruhdan iborat bo‘lib, birinchi guruh nogironligi bo‘lmagan bolalardan, ikkinchi guruh esa alohida ta’limga muhtoj bolalardan iborat. Sinf hajmi odatda yigirma besh boladan iborat. Nogiron bolalarga o‘qituvchilar, yordamchilar va tibbiyot xodimlari yordam beradi. Agar kerak bo‘lsa, bola psixologdan yordam olishi mumkin. Og‘ir nogiron bolalar ixtisoslashtirilgan sinflarda o‘qitiladi. Bunday sinfda odatda sakkizdan o‘n nafargacha bola bor. Har bir bola ikki yoki uchta o‘qituvchi va maxsus yordamchi bilan ishlaydi. Bunday yondashuv bolaga uning qobiliyatiga mos ravishda maxsus shart-sharoitlarni yaratib berish orqali ta’lim samaradorligini ta’minlaydi.

Mamlakatda inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi yaratildi. Unda quyidagi qoidalar mavjud:

– Barcha bolalar o‘z qobiliyatiga qarab boshlang‘ich maktabda ta’lim oladi.

– Ta’lim jarayonida har kim o‘z muammosini o‘zi hal qiladi.

- O‘quvchilar muammolarini hal qilishda nafaqat maxsus o‘qituvchi, balki butun maktab jamoasi ishtirok etadi.

- Pedagogik jarayonda o`qituvchilar umumiy va maxsus o`qitish metod va usullaridan foydalanadilar.

- Bolaning ta’lim muammolari va o‘qituvchining didaktik muammolari jamoaviy yondashuv orqali hal qilinadi.

- Yengil rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar yashash joyidagi umumta’lim maktabida: maxsus sinfda yoki umumiy sinfda ta’lim oladilar. Og‘ir nogiron bolalar maxsus maktablarda ta’lim oladilar.

– Imkoniyati cheklangan bolalar davlat hisobidan individual kompensatsiya vositalari va zarur jihozlar bilan ta’minlanadi. Umumta’lim maktablari o‘qituvchilari undan foydalanishga o‘rgatiladi.

– Harakatida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarga yordamchi, eshitishida nuqsoni borlar esa surdo-tarjimon bilan ta’minlangan.

– Har bir umumiy o‘rta ta’lim maktabida maxsus tarbiyachi, o‘qituvchi yordamchisi, ijtimoiy soha xodimlari, shtatda hamshira bor.

Finlyandiyada maxsus ta’limda qo‘llaniladigan to‘rtta asosiy texnologiyalar guruhi mavjud:

yordamchi texnologiyalar;

Aloqa texnologiyalari;

Ta’limni qo‘llab-quvvatlash uchun dasturiy ta’minot;

Ta’lim robototexnikasi kabi konkretlashtirish texnologiyalari.

Yordamchi texnologiyalar

Maxsus ta’limda yordamchi texnologiya shaxslarning qobiliyati, mustaqilligi va tashabbuskorligini oshiradigan vositadir. Ular, birinchi navbatda, kasallik yoki nogironlik insonning faollik darajasini yoki jamiyatdagi ishtirokini pasaytirganda qo‘llaniladi. Yordamchi texnologiyalar odatda odamlarga eshitish, ko‘rish, muloqot qilish, harakat qilish, yashash, ishlash, o‘rganish yoki o‘ynashda yordam beradi. Bu: qamish, ko‘zoynak, nutq sintezatorlari va yuqori darajada rivojlangan kompyuter tizimlari bo‘lishi mumkin.

Finlyandiyaning 628/1998-sonli asosiy ta’lim to‘g‘risidagi qonuniga binoan, nogironlar va boshqa alohida ehtiyojli bolalar o‘rganishni osonlashtiradigan texnik qurilmalardan bepul foydalanish huquqiga ega. Bunga kundalik vaziyatlarda yordam beradigan texnik vositalar, shuningdek, muloqot va o‘rganishni qo‘llab-quvvatlovchi materiallar va vositalar kiradi.

Aloqa qurilmalari

Muloqot o‘qitish va o‘rganishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Biroq, hamma odamlar nutq orqali muloqot qila olmaydi. Muloqotga gapirish, yozish va o‘qish imkonini beruvchi qurilmalar orqali erishish mumkin. An’anaviy qurilmalar, masalan, doska va papka o‘rtasidagi oddiy ulanishni o‘z ichiga oladi.

Texnik qurilmalarga, masalan, elektron nutq qurilmalari va kompyuter aloqa dasturlari kiradi. Texnik qurilmalar aloqani qo‘llab-quvvatlashning turli usullarini taqdim etadi. Misol uchun, kompyuter yordamida nutqida nuqsoni bo‘lgan odam boshqalar bilan muloqot qilishi mumkin.

Ta’lim uchun dasturiy ta’minot

Ta’lim dasturlari, masalan: kompyuterlashtirilgan dasturlar, testlar, o‘quv qo‘llanmalari va aqlli repetitorlik tizimlari.

Ta’lim robototexnika

O‘quv robototexnika to‘plamlari tayyor robotlardan plastik, metall va elektron qismlardan tayyorlangan uy qurilishi robotlarigacha. Loyihalarni qurish, dasturlash va hujjatlashtirish orqali talabalar dizayn, mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish, dasturlash va AKT ko‘nikmalarini, og‘zaki ko‘nikmalar va muloqot ko‘nikmalarini o‘rganishlari mumkin. Odatda, dasturlashtiriladigan LEGO kabi ta’lim robototexnikasi texnologik ta’lim o‘quv dasturining bir qismi sifatida ishlatiladi, lekin inklyuziv ta’lim uchun ham qo‘llaniladi.

Inklyuziv ta’limning zamonaviy modeli integratsiyalashgan ta’lim modelining yanada innovatsion versiyasi bo‘lib, o‘tgan asrning oxirida shakllana boshladi. Bugungi kunda bu yondashuv Evropa mamlakatlari va AQShda eng ko‘p qo‘llaniladi. Shuni ta’kidlash kerakki, bugungi kunda Amerika maktablarining 45% dan ortig‘i bolalarga inklyuziv yoki integratsiyalashgan dasturlardan foydalangan holda to‘liq huquqli ta’lim berish uchun resurslarga ega, shu bilan birga, maxsus tayyorlangan maxsus o‘qituvchilar mamlakatdagi barcha maktablarda, sinflarning maxsus jihozlar bilan ta’minlanganligi darajasidan, shuningdek maktab ta’limida inklyuziv o‘qitish usullarini joriy etishning umumiy darajasidan qat’i nazar, ta’lim faoliyatini olib boradilar.

AQShda inklyuziv ta’lim tizimi, federal qonunchilikka asosan, barcha o‘quvchilarga teng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan. 1975 yilda qabul qilingan Education for All Handicapped Children Act qonuni (hozirgi Individuals with Disabilities Education Act) maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta’limni inklyuziv qilishni majburiylashtirdi. AQShda davlatlar va mahalliy hukumatlar o‘zlarining resurslari va ehtiyojlariga mos ravishda inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash va amalga oshirishda moslashuvchan yondashuvni tanlaydilar.

AQSHda umumiy ta’lim tizimi shunday tuzilganki, har bir sinf bir necha guruhlarga bo‘lingan va har biri asosiy fanlardan tashqari o‘rganish uchun fanlarni mustaqil tanlashi mumkin. Bularning barchasi nogiron bolalar uchun ham mavjud, ular o‘zlarining afzalliklari va rejalari asosida individual o‘quv dasturini ham yaratishlari mumkin.

AQShda inklyuziv ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari, uning xususiyatlaridan, jismoniy va aqliy cheklovlaridan qat’i nazar, har bir bolaga individual yondashuvni nazarda tutadi. Pedagoglar jamoasi va maktab xodimlari har bir o‘quvchining o‘ziga xosligi va xohishiga ko‘ra individual dars rejasini tuzadilar.

Nogironlar uchun maxsus dasturlardan foydalangan holda umumta’lim maktablarida o‘qish imkoniyati mavjud bo‘lishiga qaramay, AQShda nogiron

bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar ham mavjud. Biroq, agar bolani umumta’lim maktabiga qo‘shish imkoni bo‘lmasa, bolalar u yerga faqat oxirgi chora sifatida o‘qishga yuboriladi.

Har bir bola uchun individual reja ishlab chiqiladi, uni amalga oshirish uchun barcha mavjud resurslar qo‘llab-quvvatlanadi. Individual rejani ishlab chiqishning asosiy mezonlari:

Realizm

Bolalar faoliyati

Samaradorlikni baholash imkoniyati

Muvaffaqiyat darajasi

Ushbu reja nogiron bolaga boshqa bolalar bilan birga o‘qish imkonini beradi. Umumiy ta’lim maktabi tizimida nogiron bolalarni o‘qitishning 4 ta varianti mavjud:

Oddiy maktab o‘quvchilari bilan teng ravishda oddiy sinfda o‘qish, ta’lim muassasasi mutaxassislaridan yordam va yordam olish.

Split ta’lim: kunning yarmi oddiy sinfda o‘tkaziladi, kunning ikkinchi yarmi nogiron bolalar uchun ixtisoslashtirilgan sinfda o‘tkaziladi.

Nogiron bolalarni maxsus sinfda o‘qitish, ta’lim muassasasi mutaxassislari ko‘magida amalga oshiriladi.

Bir guruh mutaxassislar va maktab maslahatchilarining doimiy yordami bilan maxsus reabilitatsiya dasturi bo‘yicha o‘qitish.

Shunday qilib, "Inklyuziv" dasturi deyarli har qanday nogiron bolani umumiy ta’lim dasturiga integratsiyalash imkonini beradi, unga oddiy, sog‘lom bolalar bilan teng ravishda oddiy sinfda o‘qish imkonini beradi.

Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlarning jamiyatga integratsiyalashuvining asosidir. Qo‘shma Shtatlarda ular psixologlarning mashaqqatli mehnati va keng qamrovli media kampaniyasi tufayli jamiyatning nogironlarga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishga muvaffaq bo‘lishdi. Ko‘p sonli jamg‘armalar va diniy tashkilotlar nogironlarga qonunda ko‘rsatilgan xizmatlarni olishda yordam berish bilan shug‘ullanadi. Ular zamonaviy jamiyatga integratsiyalashishga, qo‘shimcha ta’lim kurslariga o‘tishga va munosib ish topishga yordam beradi.

AQSHda inklyuziv ta’limni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar muhim rol o‘ynamoqda. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish, ta’lim jarayonini moslashtirish va ta’limda tenglikni ta’minlashda samarali vositalar sifatida ishlatiladi. Inklyuziv ta’limda texnologiyaning o‘rni shundaki, u o‘quvchilarga individual yondoshuvni amalga oshirish, o‘qituvchilarga ta’limni shaxsiylashtirishda yordam beradi va ta’limning umumiy sifatini oshiradi.

AQSHda inklyuziv ta’limda zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va barcha o‘quvchilarga teng imkoniyatlar yaratishda muhim rol o‘ynamoqda. Assistiv texnologiyalar, raqamli platformalar, interaktiv vositalar va VR/AR texnologiyalari o‘quvchilarga o‘z qobiliyatlariga moslashgan ta’lim olish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu texnologiyalar o‘qituvchilarga o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash va ta’limni yanada shaxsiylashtirishda yordam beradi. Inkluziv ta’limni rivojlantirishda zamonaviy

texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanish jamiyatdagi ta’lim tengligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Inklyuziv ta’limni o‘rganishda xorijiy tajribalar, turli mamlakatlarda amalga oshirilgan strategiyalar va amaliyotlar ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga yordam beradi. Bu tajribalar inklyuziv ta’limni samarali va barqaror tarzda joriy etish, o‘quvchilarga teng imkoniyatlar yaratish hamda ta’limda ijtimoiy adolatni ta’minlashga katta hissa qo‘shadi. Har bir mamlakat o‘zining ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlariga mos ravishda inklyuziv ta’limni rivojlantirishda o‘zining muvaffaqiyatli tajribasini yaratgan va bu tajribalar boshqa mamlakatlar uchun o‘rnak bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. L.R. Muminova. "Inklyuziv ta’lim" Toshkent-2014 yil.
2. Eronen, P.J., I. Jormanainen and M. Virnes (2003). Virtual reflecting tool — Virre. In Proceedings of the Third Finnish / Baltic Sea Conference on Computer Science Education. Koli, Finland, University of Helsinki, Department of Computer Science. Report B-2003-3, pp. 42–47.
3. Ардзинба В.А. Инклюзивное образование инвалидов в Соединенных Штатах Америки [Электронный ресурс] // Психолого-педагогические исследования. - 2010. - № 5.
4. Castellini, M. D. (2015). Innovative Technologies for Learning: Integration into Classroom Settings. Journal of Educational Technology, 30(1), 23-40.
5. Pedagog.uz

PIRLS: MATNLAR UCHUN XARITA YARATISH YUZASIDAN TAVSIYALAR

Rabbonayeva Dildora Tolipovna
Samarqand viloyati pedagogik
mahorat markazi katta o‘qituvchisi
drabbanayeva@mail.ru,
+998 (93) 993-70-83

Annotation. The article provides information on the technology of working on artistic texts, creating a text map for literary texts in the PIRLS international research, and explains the rules for creating a text map for texts in elementary school textbooks.

Key words*:* PIRLS, learner, international, text, map, assessment, education, improvement, process, recommendation, understanding, level, quality, task.

PIRLS tadqiqotida o‘qish savodxonligining asosi matnlar bilan to‘liq ishlash uchun zarur bo‘lgan o‘qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o‘quvchi tomonidan kerakli ma’lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma’lum qismi

bo‘yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash kabilardir.

Tilda har bir unsurning o‘z vazifasi, ma’no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog‘lanish qonuniyatlari bor. Ana shu qonuniyatlardan mukammal boxabar bo‘lgan, so‘z sezgisi va mahorati yuksak yozuvchi betakror tasvir, kutilmagan, qiziqarli badiiy asar yaratadi. Shunda kitobxon asarning nafaqat g‘oyasi, balki go‘zal tilining asiriga aylanadi va xilma-xil badiiy-estetik ma’nolar bilan jilolangan asarlardan zavq oladi.

Matn xaritasi nima?

PIRLS tadqiqotida matn xaritasi mavjud bo‘lib, u matnning dolzarbligini aniqlashga yordam beradi, masalan: u yetarlicha mazmunli va tushunarliligini aniqlaydi. Matndagi muhim g‘oyalarni va ularning o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatadi. Asosiy g‘oyalar, ularning munosabatlarini va matnni yaratish bo‘yicha vazifalarni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratadi.

PIRLS tadqiqotida matn xaritasi quyidagi ikki turdan iborat:

Adabiy xarita – badiiy asarlarning strukturasini belgilaydi.

Janr – masalan: ertak, realistik adabiyot, fantastika va h.k.;

Mavzular, syujet, vaziyat, qahramonlar, mualliflik mahorati.

Axborot xaritasi – syujetsiz matnlardagi ma’lumotlarni qayd qiladi.

Turlar – masalan: ekspozitsiya, dalil, jarayon va x.k.

Asosiy g‘oyalar, asosiy g‘oyalarning isboti, tashkiliy shakllar, mualliflik mahorati.

Adabiy xarita. O‘qish savodxonligini tekshirish bo‘yicha vazifalar adabiy xarita yordamida beriladi. Bunday vazifalar quyidagi qadamlarda belgilanadi:

1-qadam. Matn haqidagi asosiy ma’lumotni sanab bering (sarlavha, so‘zlar soni, o‘qish darajasi va janri).

2-qadam. Matnning mavzusini aniqlang va tasvirlab bering.

3-qadam. Vaziyatni aniqlang va ta’riflab bering, asosiy qahramonlarni sanab o‘ting, ularning ismini, fazilatlarini va vazifalarini yoriting.

4-qadam. Asosiy syujet elementlarini aniqlang, bundan tashqari muammo va ziddiyatlarni yechimini toping.

5- qadam. Asosiy voqealarni va epizodlarni sanab bering.

6-qadam. Yozuvchi tomonidan qo‘llanilgan tayanch iboralar va lug‘atni, adabiy yoki ritorik uslublarni aniqlang va sanab bering.

Badiiy asar matni ustida ishlashda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga kattalarning yordami zarur. Ta’lim va tarbiya jarayonida ustoz va murabbiylar o‘quvchiga asarning badiiy-estetik ma’nolarini tushuntira olishlari juda muhimdir. O‘qilgan asardan ma’naviy ozuqa ololgan o‘quvchigina hayotning pastu-balandini anglab etadi va kelajak hayotida bu bilim va tajribalari asqotadi.

Boshlang‘ich sinf darsliklaridagi barcha mavzular o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug‘atini boyitishga, og‘zaki va yozma nutqini to‘g‘ri shakllantirish va nutq madaniyatini o‘stirishga ham qaratiladi.

O‘quvchilar matnlar bilan nafaqat darsliklar, badiiy adabiyotlar, gazeta va jurnallarda berilgan o‘zbek va chet el asarlari orqali ham tanishib boradilar. Quyida boshlang‘ich sinf darsliklaridagi matnlar uchun adaviy xarita tuzish va ishlash jarayonini ko‘rib chiqamiz.

“Nihollarning nolasi” mavzusi uchun adabiy xarita yaratish.

1-qadam. Matn haqidagi asosiy ma’lumotni sanab bering (sarlavha, so‘zlar soni, o‘qish darajasi va janri).



2-qadam. Matnning mavzusini aniqlang va tasvirlab bering.



3-qadam. Vaziyatni aniqlang va ta’riflab bering, asosiy qahramonlarni sanab o‘ting, ularning ismini, fazilatlarini va vazifalarini yoriting.



4-qadam. Asosiy syujet elementlarini aniqlang, bundan tashqari muammo va ziddiyatlarni yechimini toping.



5- qadam. Asosiy voqealarni va epizodlarni sanab bering.



6-qadam. Yozuvchi tomonidan qo‘llanilgan tayanch iboralar va lug‘atni, adabiy yoki ritorik uslublarni aniqlang va sanab bering.



O‘quvchi asarning mazmuni bilan uni mutolaa qilish paytida tanishsa, tahlil qilishda uning poetik vositalariga murojaat qiladi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil asar zamiridagi ma’noni chuqur o‘rganishga yordam beradi. Matn xarita o‘quvchilarga asarning mazmunini to‘liq tushunib yetishlariga xizmat qiladi.

Xalqaro PIRLS tadqiqoti eng yaxshi o‘quv dasturlari va yosh o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatlarini rivojlantirish tajribasi haqida noyob axborot materiallarini taqdim etadi. PIRLSga qatnashish O‘zbekistonga boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida o‘qish qobiliyatlari darajasini mustaqil ravishda obyektiv baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, O‘zbekiston ta’limining ochiqligi va integratsiyalashuvi dunyoning yetakchi ta’lim tizimlarining xalqaro hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Баранова В.Ю., Ковалева Г.С., Кузнецова М.И., Цукерман Г.А., Нурминская Н.В. ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ «Изучение качества чтения и понимания текста» Москва, 2007, 3-4ст.
2. Rabbonayeva D.T. “PIRLS tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnologiyasi”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma - Samarqand XTXQTMOHM, 2020. 4,
3. Ubayxo‘jayeva R. A. ”O‘quvchilarning ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish”. T., 2008.

OLIY TA’LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASH JARAYONIDA TALABALARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING AFZALLIKLARI

Rasulov Akbarjon Nomozovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Menejment kafedrasi dotsenti p.f.f.d.(PhD).

Annatatsiya: Maqolada Oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida talabalarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishning afzalliklari to‘g‘risida fikr yuritilib, taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Boshqaruv kompetensiyasi, modernizatsiya, ta'lim texnologiyal, jamiyat, uzluksiz ta’lim, moliyaviy erkinlig, kompaniya, ehtiyoj, boshqaruv kompetensiya, vaqt boshqaruvi, resurslar.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Modernizatsiya - (lotincha - modeme – eng yangi) – takomillashtirilgan, yaxshilangan, yangi talabalarga javob bera oladigan degan ma’noni bildiradi. Ushbu so‘z borgan sari hayotning barcha jabhalarida keng qo‘llanilib bormoqda. Mazkur modernizatsiya shaxsni o‘qitish va tarbiyalashga oid eng yaxshi an’analarni saqlab qolgan va boyitgan holda majmuaviy xarakter kasb etib, ta’lim tizimining barcha sohalarini to‘la qamrab oladi va jamiyatda qaror topgan malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi.

Ta’lim tizimining modernizatsiyalashda quyidagi ustuvor vazifalar hal qilinadi:

- har bir shaxsning to‘laqonli ta’lim olishida boshqalar bilan teng huquqliligi va ta’lim olishning ochiqligini ta’minlash;
- uzluksiz ta’lim tizimida yangi sifat ko‘rsatkichlariga erishish;
- yangi ta’lim resurslarini jalb qilish va ulardan samarali foydalanish asosida uzluksiz ta’lim tizimida samarali me’yoriy-huquqiy va tashkiliy- iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish;
- davlat va jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi negizida ta’lim tizimi xodimlarining ijtimoiy maqomi va kasbiy kompetentligini rivojlantirish;
- ta’lim tizimining davlat va jamoatchilik boshqaruviga asoslanganlik tamoyiliga muvofiq ta’lim jarayoni ishtirokchilari – talabalar, pedagoglar, ota onalar va ta’lim muassasalarining rolini oshirish.

Oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayoni nafaqat o‘quv dasturlarini yangilash va texnologiyalarni tatbiq etish, balki talabalarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga ham qaratilgan. Zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonish uchun talabalarga nafaqat nazariy bilimlar, balki liderlik, qaror qabul qilish, strategik fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari ham zarur. Oliy ta’lim tizimi – mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri. Zamonaviy jamiyat talablarining o‘zgarishi, texnologik inqiloblar va globalizatsiya jarayonlari oliy ta’lim tizimining doimiy ravishda modernizatsiya qilinishini taqozo etmoqda. Oliy ta’limni modernizatsiyalash nafaqat ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishga, balki iqtisodiy o‘sishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston ham xalqaro tajribani inobatga olgan holda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha qator islohotlarni amalga oshirmoqda.

1. Raqamlashtirish va onlayn ta’limni rivojlantirish.

- Oliy ta’lim muassasalarida elektron ta’lim platformalari joriy etilmoqda. Masalan, moocs.edu.uz platformasi orqali talabalar turli kurslarni o‘qishlari mumkin.
- 2023-yildan boshlab ko‘plab universitetlarda gibrid ta’lim tizimi joriy qilindi.

2. Xalqaro hamkorlik va xorijiy filiallar ochilishi.

- O‘zbekiston nufuzli xorijiy universitetlarning filiallarini ochish bo‘yicha faoliyat olib bormoqda.
- Talabalar uchun xalqaro grant va stipendiyalar ajratish tizimi kengaytirildi.

3. Ta’lim dasturlarini mehnat bozoriga moslashtirish.

- O‘zbekistonda ta’lim va sanoat integratsiyasi jarayoni kuchaymoqda. Masalan, IT Park va boshqa texnoparklar talabalarga real amaliy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatini bermoqda.
- “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali iqtidorli yoshlar yetakchi xorijiy universitetlarda o‘qishga yuborilmoqda.

4. Oliy ta’lim muassasalarining ilmiy tadqiqot markazlariga aylanishi.

- O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar markazlariga aylantirilmoqda. 2022-yilda ilmiy tadqiqotga ajratilgan mablag’ 2 barobarga oshirildi.

- Xorijiy va mahalliy kompaniyalar bilan hamkorlikda ilmiy laboratoriyalar tashkil etilmoqda.

5. Ta’limning moliyaviy erkinligini oshirish

- Oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish jarayoni boshlandi.

- 2021-yildan boshlab davlat universitetlari o‘z budjetlarini mustaqil shakllantirish huquqiga ega bo‘ldi.

Oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida talabalarni faqatgina nazariy bilim bilan ta’minlash emas, balki ularning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy mehnat bozorida talab qilinadigan mutaxassis faqat texnik bilimga ega bo‘lib qolmay, balki yetakchilik, strategik fikrlash, muammolarni hal qilish va jamoani boshqarish qobiliyatlariga ham ega bo‘lishi kerak.

Boshqaruv kompetensiyalari – bu shaxsning samarali rahbar va menejer bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plamidir.

Ular quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- Strategik fikrlash – uzoq muddatli rejalashtirish va maqsadlarni aniq belgilash.
- Liderlik va jamoani boshqarish – jamoani motivatsiya qilish, tashabbus ko‘rsatish va resurslarni samarali taqsimlash.
- Tahliliy va tanqidiy fikrlash – murakkab muammolarni hal qilish, ma’lumotlarni tahlil qilish.
- Qaror qabul qilish – tezkor va samarali qarorlar qabul qilish qobiliyati.
- Kommunikatsiya ko‘nikmalari – jamoa bilan samarali muloqot qilish, muvofiqlashtirish.
- Loyiha va vaqt boshqaruvi – o‘z faoliyatini rejalashtirish va samaradorlikni oshirish.

Dunyodagi nufuzli universitetlar oliy ta’limda boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimi talabalarning faqat akademik bilim olishini emas, balki ularda real hayotda va professional faoliyatda qo‘llay oladigan kompetensiyalarni shakllantirishni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishi lozim. Chunki talabalarning bilim va ko‘nikmalari ularning kelajakdagi martabasiga, mehnat bozoridagi talabgirligiga va kasbiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati quyidagi asosiy omillar bilan izohlanadi.

1. Zamonaviy mehnat bozorining talablariga moslashish.

XXI asr mehnat bozori shiddat bilan o‘zgarib bormoqda. Texnologik taraqqiyot, raqamli transformatsiya va global iqtisodiy integratsiya jarayonlari natijasida ish beruvchilar mutaxassislarning nafaqat chuqur bilimga ega bo‘lishini, balki tahliliy fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoani boshqarish va strategik qarorlar qabul qilish kabi qobiliyatlarga ega bo‘lishini talab qilmoqda. An’anaviy ta’lim modelida talabalarga asosan fundamental nazariy bilimlar beriladi, amaliy boshqaruv kompetensiyalarining rivojlanishiga esa yetarlicha e’tibor qaratilmaydi.

Natijada, yangi bitiruvchilar mehnat bozoriga kirib kelganda rahbarlik va tashkilotchilik qobiliyatlarining yetishmasligi tufayli professional muhitga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa ularning raqobatbardoshligini pasaytirishi mumkin.

Shu sababli, oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida talabalarni bozor sharoitlariga tayyorlash, ularni nafaqat o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha, balki menejment, liderlik va muammolarni hal qilish kompetensiyalari bo‘yicha ham tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Raqobatbardosh kadrlar tayyorlash

Har qanday mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti uning inson kapitalining rivojlanganlik darajasi bilan bog‘liq. Innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish uchun zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, kreativ fikrlaydigan, tashabbuskor va boshqaruv qobiliyatiga ega kadrlar tayyorlash talab etiladi.

Boshqaruv kompetensiyalariga ega bo‘lgan mutaxassislar:

- murakkab vaziyatlarni tahlil qila oladi;
- samarali qarorlar qabul qila oladi;
- resurslarni oqilona boshqara oladi;
- jamoa bilan ishlash va liderlik qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Bunday mutaxassislar nafaqat milliy, balki xalqaro mehnat bozorida ham yuqori raqobatbardoshlikka ega bo‘ladi. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar, amaliy mashg‘ulotlar va loyiha asosida ta’lim berish usullaridan keng foydalanish muhimdir.

3. Innovatsion fikrlash va moslashuvchanlik

Hozirgi kunda har qanday sohada muvaffaqiyatga erishish uchun innovatsion fikrlash va tezkor moslashuvchanlik muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, moliya, IT va boshqa sohalarda innovatsion yondashuvlar tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

Boshqaruv kompetensiyalariga ega bo‘lgan talabalarda quyidagi qobiliyatlar shakllanadi:

- yangicha fikrlash va kreativ yondashuv;
- o‘zgaruvchan muhitga moslashish;
- yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- innovatsion loyihalarni boshqarish.

Oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayonida innovatsion metodlardan, jumladan, startap loyihalar, tadbirkorlik inkubatorlari va mentorlik dasturlaridan foydalanish orqali talabalarning ushbu kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratishlari lozim.

4. Shaxsiy va kasbiy rivojlanish

Boshqaruv ko‘nikmalariga ega bo‘lish nafaqat kasbiy faoliyatda, balki shaxsiy hayotda ham muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Samarali vaqt boshqaruvi, stressga chidamlilik, jamoa bilan ishlash, muhokama yuritish va murosaga kelish qobiliyatlari har qanday kasb egasi uchun zarurdir.

Xulosa qilib shuni ayutishimiz mumkin, yuqoridagi tavsiyalarga amal qilish orqali Oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida talabalarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga erishish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni.

2.Xamdamova G.A. va boshqalar. Innovatsion menejment. O‘quv qo‘llanma. “Iqtisod-moliya”, 2018 yil, -242 b

3. Po‘latov Sh.P. Ta’lim menejmenti yoxud ta’lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarishga innovatsion yondashuv./ T.: “Yosh kuch”.2022 y

4.Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta’lim menejmenti va iqtisodiyoti. - T.: Moliya, 2007.

EGRA VA EGMA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA QO‘LLASHNING AHAMIYATI

Raximov Shahriyor Normurod o‘g‘li
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti
raximovshahriyor2412@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada EGRA va EGMA xalqaro baholash dasturlari va ular orqali baholash modelining maqsadi o‘quvchilarining og‘zaki hisoblash malakalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish, matematik savodxonligini oshirish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq malakalarini rivojlantirish, nutqiy ko‘nikma va malakalarini hamda o‘qish savodxonligini oshirishdan iborat.

Kalit so‘zlar. EGMA, EGRA, baholash modeli, matematik savodxonlik, o‘qish savodxonlik, xalqaro dasturlar, mulohaza yuritish.

Абстрактный. В данной статье рассматриваются международные программы оценки EGRA и EGMA, а также модель оценки, которую они используют для развития у учащихся навыков устного счета, развития навыков логического мышления и повышения математической грамотности. Целью проекта является развитие навыков говорения у учащихся начальной школы, улучшение их разговорных навыков и умений, а также повышение грамотности чтения.

Ключевые слова. EGMA, EGRA, модель оценки, математическая грамотность, грамотность чтения, международные программы, рассуждение.

Abstract. Abstract. In this article, the international assessment programs EGRA and EGMA and the assessment model through them aim to develop students' verbal calculation skills, develop logical thinking skills, and increase mathematical literacy. The goal is to develop the speech skills of primary school students, improve their speech skills and abilities, and reading literacy.

Key words. EGMA, EGRA, assessment model, mathematical literacy, reading literacy, international programs, reasoning.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishda quyidagi ko‘rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi: STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlari joriy etiladi; Xalq ta’limi tizimida o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro dasturlar va izlanishlar (PISA, TIMSS, PIRLS va boshqalar)da O‘zbekiston Respublikasining doimiy ishtiroki ta’minlanadi; Xorijiy til, informatika, matematika, fizika, kimyo, biologiya fanlarini chuqur o‘rganishga mo‘ljallangan didaktik materiallar va multimedia mahsulotlarining yangi avlodlari tayyorlanadi; [1].

O‘rganilganlik darajasi. EGRA 2006-yilda Research Triangle Instituti tomonidan ishlab chiqilgan. Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) va boshqalar tomonidan qo‘llab quvvatlanadi. Dastur boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qishni o‘rganishdagi yutuqlarini o‘lchashga qaratilgan bo‘lib, har bir bola uchun taxminan 15 daqiqa davomida og‘zaki ravishda birma-bir o‘tkaziladi. Ushbu baholash tizimi dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlarida qo‘llaniladi. 30 dan ortiq tashkilotlar, asosan, kam daromadli kontekstlarda EGRA baholash dasturi 120 tilda ishlatiladi. Shuni aytish joyizki, EGRA xalqaro baholash dasturi “EGRA savodxonlik xulq-atvorini, oldingi asosiy bilimlarni yoki o‘qishga bo‘lgan munosabatini o‘lchamaydi”.

Misol uchun, baholash tizimi o‘qish qobiliyatlari bilan bog‘liq boshqa jihatalarni o‘lchamaydi. Masalan, “motivatsiya, diqqat, xotira, o‘qish strategiyalari, samarali so‘z boyligi, bir nechta matn janrlarini tushunish, ravonlik va boshqalar”. EGMA ham 2008-yilda Research Triangle Instituti tomonidan ishlab chiqilgan va (USAID) tomonidan tasdiqlangan. Bu boshlang‘ich sinflarda matematikani og‘zaki hisoblash raqamlar va operatsiyalarga qaratilgan. EGMA xalqaro baholash dasturida 14 ta davlat ishtirok etadi, jumladan, “Kongo Demokratik Respublikasi, Dominikan Respublikasi, Gana, Iroq, Iordaniya, Keniya, Liberiya, Malavi, Mali, Marokash, Nikaragua, Nigeriya, Ruanda va Zambiya” [2].

EGMAni EGRAdan farqli o‘laroq, matematika bo‘yicha baholash davlatlararo taqqoslash uchun mo‘ljallanmagan. Buning asosiy sababi shundaki, EGMA o‘quvchilarning faoliyatini mahalliy o‘quv rejasiga muvofiq baholashni maqsad qilgan.

EGRA va EGMA dasturlari haqida ma‘lumotlar berib, ularni dars jarayonida qo‘llash ham boshlang‘ich sinf o‘quvchisining rivojlanishi va kamol topishi,

mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu vaqtgacha ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, endilikda EGRA va EGMA dasturlari orqali ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlari, tahlil qilishlari, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi.

Mazkur tadqiqotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirishini yaxshilash hamda ta’lim jarayonidagi kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, PISA, PIRLS, TIMSS xalqaro baholash tadqiqotlarni o‘zlashtirishda EGRA va EGMAlarni ahamiyati bevosita bog‘liq.

Bu tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan AQShning Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) bilan hamkorlikda olib borilmoqda. Mazkur loyiha 2019-yil 28-sentyabrda XTV va USAID o‘rtasida 50 million dollarga imzolangan besh yillik rivojlanish maqsadlari to‘g‘risidagi bitimning birinchi tarkibiy qismidir.

AQShning O‘zbekistondagi elchisi Deniyel Rozenblyumning ta‘kidlashicha, EGRA va EGMA boshlang‘ich sinf o‘qivchilarning savodxonligi va matematika bo‘yicha ko‘nikmalarini baholovchi oddiy, arzon va kuchli vositadir. Bu vosita bolaning bilimi, o‘qituvchining dars berishi yoki direktorning maktabni boshqaruv ko‘nikmalarini tekshirmaydi. Shuningdek, jarayonda o‘tish yoki yomon baho bo‘lmaydi.

EGRA (The Early Grade Reading Assessment) baholash modelining maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq malakalarini rivojlantirish, nutqiy ko‘nikma va malakalarini hamda o‘qish savodxonligini oshirishdan iborat.

EGRA (Erta sinfda o‘qishni baholash) tamoyili shundan iboratki, bolalar birinchi navbatda “o‘qishni o‘rganishlari” kerak, shunda ular “o‘rganish uchun o‘qishlari” mumkin. O‘qish, shu jumladan fonologik ong, harf tovushlari va dekodlash bilan bog‘liq. O‘rganmaydigan bolalar boshlang‘ich sinflarda o‘qish keyingi sinflarda tobora ortda qolish xavfini tug‘diradi, chunki ular bosma ma‘lumotlarni o‘zlashtira olmaydi, yozma ko‘rsatmalarga amal qila olmaydi yoki yozma ravishda yaxshi muloqat qila olmaydi. Bundan tashqari, Research Triangle Instituti o‘qishni ko‘rib chiqadi, ko‘rib chiqish natijasida eng muhim jihati shundaki, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ham bog‘liq.

EGMA (The Early Grade Mathematical Assessment) baholash modelining maqsadi 2-4-sinf o‘quvchilarining og‘zaki hisoblash malakalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish, matematik savodxonligini oshirishdan iborat.

EGMA (Erta sinf matematikadan baholash) u quyidagi: raqamni identifikatsiya qilish (raqamni aniqlash); kattalik haqida mulohaza yuritish (raqamlarni kamsitish); raqamlarni tan olish (yo‘qolgan raqam); qo‘shish va ayirish; birinchi va ikkinchi darajalar va so‘z muammolarini o‘z ichiga oladi.

Muhokama. Mamlakatimiz buyuk kelajak sari intilib taraqqiy etgan mamlakatlar qatorida munosib o‘rin egallab bormoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matematikadan olingan bilimlarini real hayotda qo‘llay olishi kelajakdagi muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Maktabgacha va boshlang‘ich sinf

o‘quvchilarida matematik bilim, malaka, ko‘nikma va kompetensiya hosil qila olishdir. Bu tushunchalar ijtimoiy jihatdan matematik bilim shaxslarning kelajakdagi iqtisodiy hayotida kalit sifatida e’tirof etiladi.

EGRA va EGMA topshiriqlari orqali natijaga erishish oliy maqsadimiz hisoblanadi. Erta sinf matematikadan baholash (EGMA), raqamni identifikatsiya qilish (raqamni aniqlash)ga doir topshiriq bajaramiz:

<table>
<tr><td>1-topshiriq: Raqamni aniqlash</td><td>A</td><td>60 soniya</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ko‘rib turganingizdek mana bir necha raqamlar. Men har bir raqamni ko‘rsatishingizni va bu raqam nima ekanligini aytishingizni hohlayman. Men sizga qachon boshlash va qachon to‘xtatish kerakligini aytaman.
-[birinchi raqamga ishora]
Shu yerdan boshlang. Tayyormisiz?… Boshlang.
-Bu qaysi raqam?</td><td rowspan="3">*Sekundomerdagi vaqt tugasa (60 soniya).

*Agar bola biror narsa ustida (5 soniya) to‘xtab qolsa.</td></tr>
<tr><td colspan="2">(/) Noto‘g‘ri yoki javob yo‘q
(]) Oxirgi raqam o‘qilgandan keyin
<table>
<tr><td>3</td><td>7</td><td>0</td><td>1</td><td>8</td></tr>
<tr><td>33</td><td>45</td><td>39</td><td>79</td><td>52</td></tr>
<tr><td>108</td><td>246</td><td>47</td><td>963</td><td>321</td></tr>
<tr><td>123</td><td>111</td><td>908</td><td>357</td><td>852</td></tr>
<tr><td>150</td><td>520</td><td>109</td><td>159</td><td>789</td></tr>
</table></td></tr>
<tr><td colspan="2">Qolgan vaqt (soniya):</td></tr>
<tr><td colspan="2">Bu faoliyat uchun bola qaysi til(lar)dan foydalangan? [hammasini tekshiring]
Til 1 | Til 3 | Til 5 | Ingiliz til</td><td></td></tr>
</table>

Erta sinf matematikadan baholash (EGMA), kattalik haqida mulohaza yuritish (raqamlarni kamsitish)ga doir topshiriq bajaramiz:

2-topshiriq: Raqamlarni kamsitish	B2 & B3	x

Bu raqamlarga qarang. Qaysi raqam kattaroq ekanligini ayting. [Har bir element uchun takrorlang] (☑) 1=to‘g‘ri. (☑) 0=noto‘g‘ri yoki javob yo‘q.	*Agar bola ketma-ket 4 ta xato qilsa. *Agar bola 5 soniyadan keyin javob bermasa.

6 5 6				94 78 94		
11 24 24				194 78 194		
59 49 59				994 788 994		
68 55 68				999 998 999		

Bu faoliyat uchun bola qaysi til(lar)dan foydalangan? [hammasini tekshiring]

Til 1 | Til 3 | Til 5 | Ingiliz til

Bu topshiriqlar orqali 2-sinf va 4-sinf o‘quvchilarining og‘zaki hisoblash malakalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish, matematik savodxonligini oshirishdan iborat.

Xulosa. Shunday qilib maqolada keltirilgan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi mamlakatimiz ta’lim tizimining xalqaro ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvini ta’minlaydi, sohadagi bo‘shliqlarni aniqlashga, ta’limni ma’lum darajada o‘zgartirishga va yangi vazifalarni belgilab olishga xizmat qiladi. Eng muhimi, o‘quvchilar bilimini adolatli va shaffof baholashga erishamiz. Shu bilan bir qatorda endigina shakllanib kelayotgan boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga, o‘z g‘oyalarini erkin bayon etishga o‘rgatib kelajagimiz uchun mustahkam poydevor yaratamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni.

2. Assessing Reading, Mathematics and Scientific Literacy: A framework for PISA 2009. OECD, 2009

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.

4. Mirxalilova N.A., Davlatova M.A. TIMSS xalqaro baholash dasturida miqdor tushunchasi va uning turlari. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 9 | 2022 ISSN: 2181-1385. Cite

Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1

5. Mirxalilova N.A. “O‘qish savodxonligini oshirishda pirls xalqaro tadqiqotining o‘rni” // Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari:

muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 18-noyabr 2022-yil. 175-178-b.

6. Raximov Shahriyor Normurod o‘g‘li. (2024). FAIRY TALES IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS METHODOLOGY OF USING PROBLEMS. Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research, 2(5), 43–47. Retrieved from https://webofjournals.com/index.php/9/article/view/1334

7. Raximov Shahriyor Normurod o‘g`li, & Mamatova Durdona Norbek qizi. (2023). THE ROLE OF DIDACTIC GAMES IN MAKING STUDENTS INTERESTED IN MATHEMATICS. Academia Science Repository, 4(5), 449–454. Retrieved from https://academiascience.com/index.php/repo/article/view/672

8. Omonillayeva Maxfuza, . (2023). METHODS OF USING INTERACTIVE METHODS IN TEACHING INDEPENDENT VOCABULARY TO ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS. International Journal of Pedagogics, 3(12), 190–194. https://doi.org/10.37547/ijp/Volume03Issue12-35

TA’LIM OLUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Saparova Dilshoda Adashevna
Samarqand viloyati Pedagogik mahorat
markazi geografiya va iqtisod fani metodisti
saparovadilshoda120@gmail.com
+998 (99) 335 75 42

Annotatsiya. Ushbu maqola ta’lim oluvchilar bilimini baholashning zamonaviy yondashuvlarini o‘rganadi. Unda baholashning an’anaviy usullaridan zamonaviy usullarga o‘tish zarurati, zamonaviy baholash usullarining afzalliklari va ularni ta’lim tizimiga joriy etish masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqola zamonaviy baholash usullari o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning amaliy ko‘nikmalari, ijodiy qobiliyatlari va shaxsiy sifatlarini ham baholash imkonini berishini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: baholash, formativ, summativ, portfolio baholash, loyihalar asosida baholash, o‘z-o‘zini baholash, raqamli baholash, kompetensiyaviy yondashuv.

Abstract. This article explores modern approaches to assessing student knowledge. It examines the need to transition from traditional to modern assessment methods, the advantages of modern assessment methods, and issues related to their implementation in the education system. The article emphasizes that modern assessment methods make it possible to assess not only the level of knowledge of students, but also their practical skills, creative abilities and personal qualities.

Key words: assessment, modern approaches, portfolio assessment, project-based assessment, self-assessment, digital assessment, competency-based approach.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilar bilimini baholash nafaqat ularning o‘zlashtirish darajasini aniqlash, balki shaxsiy rivojlanishiga ko‘maklashish, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va kelajak hayotga tayyorlash kabi muhim vazifalarni ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun ham, baholashning an’anaviy usullaridan zamonaviy yondashuvlarga o‘tish zarurati tobora kuchayib bormoqda. Xorijning rivojlangan mamlakatlarida ta’lim jarayonini, xalqaro baholash mezonlarini umumiy o‘rta ta’lim mazmuniga singdirishga katta e’tibor qaratilgan. Jumladan, Avstraliya, Kanada, Germaniya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Koreya, Portugaliya, Turkiya, Polsha va boshqa davlatlarda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini xalqaro tadqiqot mezonlari asosida ishlab chiqilgan metodikalar amaliyotga tadbiq qilingan. Shuni aytish lozim-ki, ushbu metodikalarni rivojlangan mamlakatlar qatorida respublikamizda ham amaliyotga joriy qilish bo‘yicha siyosiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, fanlardan o‘quv dasturlari, o‘quv qo‘llanma va darsliklarning yangi avlodini yaratishda hamda aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirishga joriy qilish bo‘yicha siyosiy islohotlar amalga oshirilimoqda

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining “**Tajriba-sinov maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini joriy etish to‘g‘risida”gi** 2023-yil16-avgust, 248-sonli buyrug‘i ham, o‘quvchilar bilimini formativ va summativ baholash tartibini joriy etishni belgilab berdi.

Ushbu maqola ta’lim oluvchilar bilimini baholashning zamonaviy yondashuvlarini, ularning afzalliklari va ta’lim jarayoniga tadbiq etish masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada portfolio baholash, loyihalar asosida baholash, o‘z-o‘zini baholash, raqamli baholash, kompetensiyaviy yondashuv va boshqa zamonaviy baholash usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu usullarni ta’lim jarayoniga joriy etishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va ularni hal etish yo‘llari ham tahlil qilinadi.

Maqolaning maqsadi ta’lim tizimini takomillashtirishga, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga va jamiyat uchun kompetentli kadrlarni tayyorlashga ko‘maklashadigan zamonaviy baholash usullarini o‘rganish va amaliyotga joriy etishga qaratilgan. Bugungi kunda ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalari, ijodiy qobiliyatlari va shaxsiy sifatlarini ham rivojlantirishga qaratilgan. Shu sababli, o‘quvchilarning bilimini baholashda zamonaviy yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

An’anaviy baholash tizimining ilmiy cheklovlari

An’anaviy baholash usullari, xususan, standartlashtirilgan testlar va imtihonlar, bilimlarni statik holda o‘lchashga mo‘ljallangan bo‘lib, dinamik o‘rganish jarayonini va chuqur tushunchani aks ettira olmaydi. Kognitiv psixologiyadagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, faqat yodlashga asoslangan baholash ma’lumotlarni uzoq muddatli xotiraga o‘tkazishga va ularni turli vaziyatlarda qo‘llashga imkon bermaydi. Shuningdek, bunday testlar o‘quvchilarda

imtihon stressini keltirib chiqarib, ularning haqiqiy bilim darajasini to‘liq namoyon etishiga to‘sqinlik qilishi mumkin (Harlen, 2007). Pedagogik nuqtai nazardan, an’anaviy baholash ko‘pincha “o‘rganish uchun baholash” emas, balki “o‘rganishni baholash” tamoyiliga asoslangan bo‘lib, ta’lim jarayonini yaxshilashga emas, balki faqat uning natijasini qayd etishga qaratilgan.

Zamonaviy baholash yondashuvlarining ilmiy asoslari

Zamonaviy baholash yondashuvlari pedagogik psixologiya, kognitiv fanlar va ta’lim nazariyasidagi so‘nggi yutuqlarga tayanadi. Ular quyidagi ilmiy tamoyillarga asoslanadi:

-**Komplekslik** (Holistic Approach): Ta’lim oluvchining bilim, ko‘nikma, malaka, munosabat va qadriyatlarini birgalikda baholash. Bu, Blum taksonomiyasining kognitiv, affektiv va psixomotor sohalarini integratsiyalash orqali erishiladi, ta’lim natijalarining ko‘p qirrali ekanligini hisobga oladi.

-**Haqqoniylik** (Authenticity): Baholash vazifalari real hayotiy muammolarni aks ettirishi, ta’lim oluvchiga olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatini berishi. Bu bilimlarning transferini rag‘batlantiradi va o‘quvchilarning “bilimni bilish”dan “bilimni qo‘llay bilish”ga o‘tishiga yordam beradi (Wiggins, 1998).

-**Shakllantiruvchi baholash** (Formative Assessment): O‘quv jarayonining uzluksiz qismi bo‘lib, o‘qituvchi va o‘quvchi uchun doimiy va konstruktiv teskari aloqa (feedback) beradi. Bu, o‘quvchining o‘rganishdagi kamchiliklarini aniqlash, ularni bartaraf etish va o‘quv strategiyalarini takomillashtirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shakllantiruvchi baholashning o‘quv natijalarini sezilarli darajada yaxshilashini ko‘rsatadi (Black & Wiliam, 1998).

-**Jamlovchi baholash** (Summative Assessment): O‘quv jarayonining oxirida o‘zlashtirilgan bilimlarning umumiy darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Biroq, u yagona baholash mezoni bo‘lmasligi, balki shakllantiruvchi baholash natijalari bilan birga integratsiyalashgan holda ko‘rib chiqilishi lozim.

-**O‘quvchi markazlashganlik**: Baholash jarayoniga o‘quvchining o‘zini baholash (self-assessment) va tengdoshlarini baholash (peer-assessment) kabi elementlarni kiritish orqali ularning o‘z o‘rganish jarayoniga mas’uliyatini oshirish va faol ishtirokini ta’minlash. Bu, metafikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi (Andrade & Du, 2005).

Ta’lim oluvchilar bilimini baholashning zamonaviy yondashuvlarining amaliy ahamiyati:

1. O‘quv jarayonining samaradorligini oshirish:

Formativ baholash: O‘qituvchilarga o‘quvchilarning tushunish darajasini real vaqtda kuzatish va o‘quv jarayonini moslashtirish imkonini beradi.

Formativ baholash-o‘quvchilarning faolligi, bilim olishi, ehtiyojlari va o‘sishi haqida ma’lumot beruvchi doimiy jarayon bo‘lib, ularning darsdagi faoliyatini kuzatish, uy vazifalarini nazorat qilish, qisqa testlar, so‘rovnomalar va shu kabi boshqa shakllarni o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Baholash o‘quv jarayonida uzluksiz olib boriladi va o‘quvchilarga o‘zlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. O‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash

koʻnikmalarini rivojlantiradi, bu esa ularning mustaqil oʻrganish qobiliyatini oshiradi.

Formativ bahoalshning bir necha shakllari mavjud. Shulardan biri loyiha asosida baholashdir.

Loyiha asosida baholash: Oʻquvchilarda amaliy koʻnikmalar, muammolarni hal qilish va jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Loyiha tayyorlash jarayonida oʻquv materiallarini real hayot bilan bogʻlash orqali oʻquvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Muammoli vaziyatlarga yechim topish, yangi innovatsion goʻyalarni shakllantirishga asos boʻladi.

2. Oʻquvchilarning shaxsiy rivojlanishiga koʻmaklashish:

Portfolio baholash: Portfolio baholash oʻquvchilar bilimini baholashning zamonaviy yondashuvlaridan biri hisoblanadi. Bu usul oʻquvchining muayyan davr (chorak, yarim yil, yil) ichida yaratgan ishlari toʻplamini (insholar, loyihalar, rasmlar, tadqiqotlar va boshqalar) baholashga asoslanadi.

Portfolio baholashning asosiy xususiyatlari:

Oʻquvchining oʻsishini kuzatish: Portfolio oʻquvchining vaqt oʻtishi bilan qanday rivojlanayotganini koʻrsatadi.

Har tomonlama baholash: Portfolio nafaqat bilim darajasini, balki oʻquvchining amaliy koʻnikmalari, ijodiy qobiliyatlari va shaxsiy sifatlarini ham baholash imkonini beradi.

Oʻquvchining faol ishtiroki: Portfolio oʻquvchining oʻz ishlarini tanlash, tahlil qilish va baholashda faol ishtirok etishini talab qiladi.

Individual yondashuv: Portfolio har bir oʻquvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda baholash imkonini beradi.

Portfolio baholashning afzalliklari:

Oʻquvchilarning oʻz-oʻzini baholash va oʻzaro baholash koʻnikmalarini rivojlantiradi.

Oʻquvchilarning ijodiy qobiliyatlarini va mustaqil fikrlashini ragʻbatlantiradi, oʻz oʻsishini kuzatish va oʻz ustida ishlashiga yordam beradi, baholash jarayonini shaffof va adolatli qiladi.

Portfolio baholashning quyidagi kamchiliklarini ham kuzatish mumkin boʻladi:

Koʻp vaqt talab qilishi, baholash subyektiv boʻlishi, oʻqituvchilardan maxsus tayyorgarlik talab etishi va h.o.

Portfolio baholashning turlari:

Ish portfoliosi: Oʻquvchining eng yaxshi ishlaridan iborat.

Oʻsish portfoliosi: Oʻquvchining vaqt oʻtishi bilan qanday rivojlanganini koʻrsatadi.

Baholash portfoliosi: Oʻquvchining muayyan mezonlar asosida baholangan ishlaridan iborat.

Portfolio baholash ta’lim jarayonini takomillashtirishga, oʻquvchilarning shaxsiy rivojlanishiga va ularni kelajak hayotga tayyorlashga katta hissa qoʻshadi.

3.Ta’lim jarayonining shaffofligi va adolatliligini ta’minlash:

Mezonli baholash - bu o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini oldindan belgilab qo‘yilgan mezonlar asosida baholash usuli. Bu usul o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniq va obyektiv baholash imkonini beradi.

Mezonli baholashning asosiy xususiyatlari:

Aniqlik va shaffoflik: Baholash mezonlari o‘quvchilarga oldindan ma’lum qilinadi, bu esa baholash jarayonining shaffofligini ta’minlaydi.

Obyektivlik: Baholash jarayoni aniq mezonlar asosida olib boriladi, bu esa subyektivlikni kamaytiradi.

O‘quvchilarning o‘zlashtirishini aniq belgilash: Mezonlar o‘quvchilarning qanday bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi kerakligini aniq belgilab beradi.

O‘quv jarayonini takomillashtirish: Baholash natijalari o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini takomillashtirish uchun ma’lumot beradi.

Mezonli baholashning afzalliklari: O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniq va obyektiv baholash imkonini beradi, baholash jarayonining shaffofligini ta’minlaydi.

O‘quvchilarga o‘z natijalarini yaxshilash uchun aniq yo‘nalishlar, o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini takomillashtirish uchun ma’lumot beradi.

Mezonli baholashning kamchiliklari:

-Mezonlarni ishlab chiqish ko‘p vaqt talab qilishi mumkin.

-Mezonlar har doim ham o‘quvchilarning barcha jihatlarini qamrab olmaydi.

-Mezonlarni qo‘llashda o‘qituvchilardan maxsus tayyorgarlik talab etiladi.

Mezonli baholash ta’lim jarayonini takomillashtirishga, o‘quvchilarning o‘zlashtirishini aniq va obyektiv baholashga va ularga o‘z natijalarini yaxshilash uchun aniq yo‘nalishlar berishga yordam beradi.

4. Kelajak avlod uchun kompetentli kadrlarni tayyorlash:

Kompetensiyaga asoslangan baholash - bu o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning amaliy ko‘nikmalari, ijodiy qobiliyatlari va shaxsiy sifatlarini ham baholashga qaratilgan zamonaviy yondashuvdir. Ushbu yondashuv o‘quvchilarni hayotga tayyorlash, ularning raqobatbardoshligini oshirish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Kelajak avlod uchun kompetentli kadrlarni tayyorlashga ko‘maklashadi.

Kompetensiyaga asoslangan baholashning asosiy xususiyatlari:

Amaliy yo‘naltirilganlik: Baholash o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatiga qaratiladi.

Har tomonlama baholash: Baholash nafaqat bilim darajasini, balki o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalari, ijodiy qobiliyatlari va shaxsiy sifatlarini ham qamrab oladi.

O‘quvchining faol ishtiroki: Baholash jarayonida o‘quvchilar o‘z ishlarini tahlil qilish, baholash va o‘z-o‘zini baholashda faol ishtirok etadilar.

Individual yondashuv: Baholash har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda olib boriladi.

Kompetensiyaga asoslangan baholashning turlari:

-Portfolio baholash: O‘quvchining muayyan davr ichida yaratgan ishlari to‘plami asosida baholash.

-Loyiha asosida baholash: O‘quvchilarning guruhlarda yoki yakka tartibda amalga oshirgan loyihalari asosida baholash.

-Amaliy topshiriqlar asosida baholash: O‘quvchilarning amaliy vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarini qo‘llay olish qobiliyatini baholash.

- O‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash: O‘quvchilarning o‘z ishlarini va sinfdoshlarining ishlarini baholashi.

Kompetensiyaga asoslangan baholash ta’lim jarayonini takomillashtirishga, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga va ularni kelajak hayotga tayyorlashga katta hissa qo‘shadi.

Ta’lim oluvchilar bilimini baholashning zamonaviy yondashuvlaridan foydalanish jarayonini yaxshilashga qaratilgan takliflar:

1. O‘qituvchilarning malakasini oshirish:

- Zamonaviy baholash usullari bo‘yicha muntazam ravishda o‘quv-seminarlar tashkil etish.

- O‘qituvchilarga baholash mezonlarini ishlab chiqish va ularni qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar berish.

- O‘qituvchilarning tajriba almashishlari uchun platformalar yaratish.

2.Texnik ta’minotni yaxshilash:

Ta’lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta’minlash, raqamli baholash platformalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishni osonlashtirish, internetga ulanish imkoniyatlarini kengaytirish.

3. Baholash jarayonini takomillashtirish:

Baholash mezonlarini aniq va tushunarli qilib belgilash, baholash jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, baholash natijalarini o‘quvchilar va ota-onalarga shaffof tarzda taqdim etish, baholash natijalaridan o‘quv jarayonini takomillashtirish uchun foydalanish.

4. O‘quv dasturlarini moslashtirish:

O‘quv dasturlariga zamonaviy baholash usullarini integratsiya qilish.

O‘quv materiallarini o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish.

5. Ota-onalar bilan hamkorlik:

Ota-onalarni zamonaviy baholash usullari haqida xabardor qilish, baholash jarayoniga jalb qilish.

Ota-onalarga o‘quvchilarning o‘zlashtirishini kuzatish va ularga yordam berish uchun maslahatlar berish.

6. Ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash:

Zamonaviy baholash usullari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish.

Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish.

Baholash sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Xulosa. Ta’lim oluvchilar bilimini baholashning zamonaviy yondashuvlari ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvlar an’anaviy baholash usullaridan farqli ravishda o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning

amaliy ko‘nikmalari, ijodiy qobiliyatlari va shaxsiy sifatlarini ham baholash imkonini beradi.

Zamonaviy yondashuvlar o‘quv jarayonini takomillashtirishga, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga va jamiyat uchun kompetentli kadrlarni tayyorlashga katta hissa qo‘shadi. Ushbu yondashuvlarni ta’lim jarayoniga joriy etish o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularning amaliy ko‘nikmalari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ta’lim sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Shuningdek, zamonaviy baholash usullari baholash jarayonini shaffof va adolatli qilish, o‘quvchilarga shaxsiy fikr-mulohazalar berish va ularning o‘sishini kuzatish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarning o‘z ustida ishlashiga va o‘z natijalarini yaxshilashiga yordam beradi. Ammo, zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash jarayonida o‘qituvchilarning tayyorgarligi, texnik ta’minot, baholash jarayonining murakkabligi va vaqt talab qilishi kabi salbiy jihatlar ham mavjud. Ushbu salbiy jihatlarni bartaraf etish uchun o‘qituvchilarning malakasini oshirish, texnik ta’minotni yaxshilash, baholash jarayonini takomillashtirish, o‘quv dasturlarini moslashtirish, ota-onalar bilan hamkorlik qilish va ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash zarur.

Umuman olganda, ta’lim oluvchilar bilimini baholashning zamonaviy yondashuvlari ta’lim tizimini takomillashtirishga, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga va jamiyat uchun kompetentli kadrlarni tayyorlashga katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.2018-yil 8-dekabrda “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli Qaror.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” № PF 5712 sonli Farmoni

3. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining “Tajriba-sinov maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini joriy etish to‘g‘risida”gi 2023-yil16-avgust, 248-sonli buyrug‘i

4.Abdurahmonov, F. A. (2019). Pedagogik baholash nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: “Fan va texnologiya”.

5. Azizov, A. A. (2018). Ta’limda baholashning zamonaviy usullari. Toshkent: “O‘qituvchi”

6.Jalilov Komil. Baholash nazariyasi asoslari– Toshkent: 2020

7. Jumayev, M. I. (2017). Pedagogik o‘lchovlar va baholash. Samarqand: SamDU nashri.

8. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and classroom learning. Assessment in Education: Principles, Policy & Practice, 5(1), 7-74.

Intrenet resurs: 1. www.ziyonet.uz

O‘QITISHNING ILG‘OR TAJRIBALARINI BOSHLANG‘ICH SINFLARNING ONA TILI DARSIDA QO‘LLASH: O‘ZBEKISTON VA XORIJIY TAJRIBALAR QIYOSI

Shanazarova Nigora Abirkulovna,
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali,
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(Boshlang’ich ta’lim) mutaxassisligi
1-bosqich magistranti
Samarqand, Uzbekistan
gigijon464@gmail.com
+998 (99) 12511517

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘rganilishi va ularning O‘zbekiston ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan usullari bilan qiyosiy tahlili bayon etiladi. Finlyandiya, Yaponiya va Singapur davlatlari boshlang‘ich ta’limidagi metodik yondashuvlar, baholash shakllari va dars dizayni ilmiy asosda tahlil qilinib, ularning O‘zbekiston amaliyotida berayotgan samaralari ko‘rsatiladi. Xalqaro tajribalardan o‘rganish milliy ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita ekani ilmiy manbaalar bilan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ona tili, xorijiy tajriba, CLIL, 5E modeli, PISA, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация. В статье описывается изучение передового зарубежного опыта преподавания уроков родного языка в начальных классах и его сравнительный анализ с методами, используемыми в узбекской системе образования. На научной основе анализируются методические подходы, формы оценки и дизайн уроков в начальном образовании Финляндии, Японии и Сингапура, а также показывается их эффективность в практике Узбекистана. Научными источниками обоснован тот факт, что изучение международного опыта является важным инструментом повышения качества национального образования.

Ключевые слова: начальное образование, родной язык, зарубежный опыт, CLIL, модель 5E, PISA, компетентностный подход.

Abstract. The article describes the study of advanced foreign experience in teaching native language lessons in primary grades and its comparative analysis with the methods used in the Uzbek education system. On a scientific basis, methodological approaches, forms of assessment and lesson design in primary education in Finland, Japan and Singapore are analyzed, and their effectiveness in the practice of Uzbekistan is shown. Scientific sources substantiate the fact that the study of international experience is an important tool for improving the quality of national education.

Key words: primary education, native language, foreign experience, CLIL, 5E model, PISA, competency-based approach.

Kirish. Bugungi global ta’lim maydonida ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh va funksional savodli shaxsni tarbiyalash har bir davlat uchun ustuvor vazifadir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining poydevori hisoblanadi. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish, xalqaro ilg‘or tajribalardan o‘rganish va ularni milliy kontekstga moslashtirish o‘ta muhimdir. Ona tili darslari bu borada yetakchi fanlardan biri bo‘lib, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muloqot qilish, yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ona tili ta’limiga oid metodik adabiyotlar, ilmiy maqolalar va xalqaro tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or tajribalarni qo‘llash orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlashi, yozma va og‘zaki nutqi, savolga javob qaytarish hamda matn bilan ishlash ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar – T.Yo‘ldoshev, S.Azizova, M.Tursunova kabi olimlar boshlang‘ich ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, interfaol metodlar, hamkorlikda o‘qitish kabi elementlarning ahamiyatini asoslab berganlar. Misol uchun, T.Yo‘ldoshev (2021) o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda klaster, aqliy hujum, sinkveyn usullarining samaradorligini ta’kidlaydi.

Xorijiy adabiyotlarda esa (Slavin, 2019; Vud, Bruner, 1976; Hattie, 2012) ilg‘or tajribalar doirasida konstruktiv yondashuv, differensial o‘qitish, STEAM elementlari, o‘z-o‘zini baholash va “metakognitiv” usullarning samarasi qayd etilgan. Finlyandiya, Singapur, Yaponiya va AQShda boshlang‘ich sinflarda matnga asoslangan dialogik ta’lim, savol-javobli suhbatlar, muammoli o‘qish mashg‘ulotlari keng qo‘llaniladi.

Shuningdek, UNESCO va OECD tashkilotlarining hisobotlarida ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchining innovatsion yondashuvi hal qiluvchi omil ekanligi qayd etiladi.

O‘zbekiston ta’limida boshlang‘ich sinflarda ona tili fanining asosiy maqsadi:

O‘quvchilarga savod o‘rgatish, ya’ni o‘qish va yozishni o‘rgatish;

Nutq malakalari va madaniyatini shakllantirish;

Tushunish, fikrlash, ifoda qilish qobiliyatlarini rivojlantirish;

Matn bilan ishlash, tahlil qilish, mazmunini anglash va fikr bildirishni o‘rgatish.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili quyidagi bosqichlarda o‘qitiladi:

1–2-sinflar**:**

-Savod o‘rgatish (1-sinfda) — tovush, harf, bo‘g‘in, so‘z, gap tushunchalari;

-O‘qish va yozishga o‘rgatish;

-Soddalashtirilgan imlo va punktuatsiya qoidalari;

-Oddiy gap tuzilmalari va og‘zaki nutq.

3–4-sinflar:

So‘z turkumlari, so‘z yasash, gap tahlili;
Matn tuzilishi, sarlavha, asosiy fikr, matn tahlili;
Qisqa diktantlar, bayon, suhbat va og‘zaki ifoda ishlari;
O‘quvchilarning fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
Boshlang‘ich ta’limda ona tili darslari quyidagi metodlar asosida o‘qitiladi:
-illyustrativ-tushuntirish usuli (misollar orqali);
-amaliy mashqlar (ko‘chirish, diktant, bayon qilish);
-matn asosida ishlash (savol-javob, matnni bo‘laklarga ajratish);
-interaktiv metodlar (rolli o‘yinlar, jamoaviy ishlash, klasterlar).

Shunungdek, bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini o‘qitishda ayrim muammolar ham uchraydi. Jumladan, o‘quvchilarda og‘zaki nutqda mustaqil fikr bildirish ko‘nikmasi sust bo‘lishi, raqamli resurslardan to‘liq foydalanmaslik. Darslarni yanada samarali bo‘lishi uchun ijtimoiy-psixologik faol muhitda olib boorish, shu bilan birga, integratsiyalashgan yondashuv (ona tili + texnologiya + axborot madaniyati)ni kuchaytirish zarurur.

Xalqaro tajribalarni o‘rganishning zarurati. Xalqaro tajribalarni o‘rganishning asosiy maqsadi o‘qitish sifatini ilmiy asosda takomillashtirishdir. Bu jarayon zamonaviy pedagogika nazariyalariga, xususan, konstruktivizm, sotsiokultural yondashuv (Vygotskiy), faoliyatga asoslangan o‘qitish (Bruner, Dewey) nazariyalariga tayangan holda amalga oshiriladi.

UNESCO, OECD, World Bank tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro amaliyotni milliy tizimga moslashtirgan davlatlarda:
-o‘quvchilar savodxonligi 20–25% ga oshgan;
-darsga qatnashuv va motivatsiya sezilarli darajada ko‘paygan;
-o‘qituvchilarning professional salohiyati oshgan;
-o‘quv dasturlari moslashuvchan va kreativga yo‘naltirilgan shaklga kelgan.

2022-yilda Singapur, Estoniya, Finlandiya, Kanada va Yaponiya PISA reytingida yetakchi o‘rinlarni egallagan. Bu mamlakatlarda boshlang‘ich ta’limga innovatsion yondashuv, moslashtirilgan dastur, refleksiya va tanqidiy fikrlashga urg‘u berilishi muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi.

O‘zbekiston ta’limiga joriy qilinayotgan ilg‘or tajribalar

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi so‘nggi yillarda izchil isloh qilinmoqda. 2020–2025 yillarda “Ilmli avlod – yuksak taraqqiyot kafolati” tamoyili asosida ta’lim sifati va mazmuni tubdan yangilanmoqda. Boshlang‘ich ta’limda: Kompetensiyaviy yondashuv asosida dasturlar ishlab chiqildi; 5E modeli asosida ona tili darslarida bosqichma-bosqich bilim berish tizimi joriy etildi;
PISA, PIRLS mezonlariga tayangan diagnostik baholash tizimi shakllanmoqda; STEAM va CLIL asosida o‘zaro fanlar integratsiyasi amalga oshirilmoqda; Raqamli texnologiyalar: Wordwall, Jamboard, Live Worksheets, EduPage platformalari dars jarayoniga tatbiq qilinmoqda.

2023-yilda Milliy ta’lim sifatini baholash markazi hisobotiga ko‘ra, ilg‘or texnologiyalarni qo‘llagan sinflarda o‘quvchilarning savodxonlik darajasi 18% ga

oshgan. Shu bilan birga, eksperiment maktablarda ona tili darslarida loyiha ishlari, matn asosida debat, vizual tahlil metodikasi joriy etilmoqda.

Finlandiya tajribasi: shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish

Finlandiyada ta’lim tizimi butunlay o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan. Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslari quyidagicha tashkil etiladi:

Matnlar tanlovi – o‘quvchining yoshiga, qiziqishiga va hayotiy tajribasiga mos;

Refleksiya– har bir o‘quvchi o‘z bilimini tahlil qiladi va baholaydi;

Tarbiyaviy yondashuv – har bir dars ijtimoiy ong, mas’uliyat va ekologik madaniyat bilan uyg‘unlashtirilgan;

O‘yin asosida o‘rgatish – 1–2-sinflarda faqat o‘yin orqali bilim beriladi;

Bu yondashuvlarning samarasi sifatida Finlyandiya PISA reytingida doimiy ravishda eng yuqori 5 talikka kiradi. O‘quvchilar mustaqil fikrlay oladi, tanqidiy baholaydi va jamoada ishlashga qodir bo‘ladi.

Yaponiya tajribasi: qadriyatlarga asoslangan metodika

Yaponiyada boshlang‘ich ta’limda ona tili darslari “kokugo” (“Kokugo” (国語) so‘zi “milliy til” yoki “yapon tili” deb tarjima qilinadi) fani sifatida ajratilgan bo‘lib, unda quyidagi jihatlar ustuvor:

-tarixiy va milliy qadriyatlarga asoslangan matnlar;

-she’r va hikoyalar orqali axloqiy tushunchalarni singdirish;

-baholash – yozma va og‘zaki suhbatlar, hikoya qayta tuzish, rolli o‘yinlar orqali amalga oshiriladi;

-sinf muhitini boshqarish – jamoaviy javobgarlik, navbatchilik, o‘zaro hurmat asosida.

Yapon tajribasi o‘quvchilarda adabiy tilni yaxshi o‘zlashtirish, mustaqil fikr bildirish va yozma madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Singapur ta’limida CLIL va loyiha asosidagi darslar

Singapur ta’limi yuqori natijaga yo‘naltirilgan. Ona tili darslari integratsiyalashgan CLIL usuli orqali quyidagicha tashkil etiladi:

-mavzulararo integratsiya – ona tili, tabiiy fanlar, san’at va texnologiya uyg‘unlashadi;

-loyiha asosidagi topshiriqlar – “mening oilam”, “maktabimdagi daraxtlar”, “kitobimni tanishtiraman” kabi taqdimotlar;

-baholash tizimi – diagnostik, formativ va summativ shaklda portfolio asosida olib boriladi;

-o‘quvchi ishtiroki – darsda savollar berish, tajriba qilish, munozara yuritish orqali faol ishtirok etadi.

Singapurda bu yondashuvlarning ilmiy asoslari zamonaviy ta’lim nazariyasi va amaliyotiga katta hissa qo‘shgan taniqli olimlar John Hattie va Robert J. Marzano metodikasi asosida ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR. Tahlil natijalari quyidagi muhim jihatlarni ko‘rsatdi:

-Xorijiy tajribalarda – dars mazmunining hayotiylik darajasi yuqori, matnlar tanlashda bolalarning kundalik muammolari va qiziqishlari inobatga olingan.

O‘quvchilar savollarni o‘zlari tuzish, bahslashish, fikr bildirish imkoniyatiga ega. -O‘zbekiston amaliyotida – ilg‘or metodlar ayrim ilg‘or o‘qituvchilar tomonidan qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, darslar asosan an’anaviy shaklda olib borilmoqda. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilarning 72% ilg‘or metodlarni biladi, ammo faqat 28% muntazam qo‘llaydi.

-Eksperiment natijalari – ilg‘or metodlar asosida olib borilgan 12 soatlik ona tili darslari natijasida eksperimental guruh o‘quvchilarining matnni tushunish, asosiy g‘oyani topish va og‘zaki ifodalash ko‘nikmalari 30% ga oshgani kuzatildi. -Integratsion yondashuv – Finlyandiya va AQSh tajribasida ona tili faniga IT, san’at, teatr kabi yo‘nalishlar integratsiya qilinmoqda, bu esa o‘quvchilarning ishtirokchanligini oshirmoqda.

Tr	Ko‘rsatkich	O‘zbekiston	Finlyandiya	Yaponiya	Singapur
1	Yondashuv	Kompetensiyaviy	Shaxsga yo‘naltirilgan	Qadriyatlarga asoslangan	Integratsiyalashgan (CLIL)
2	Dars shakli	Guruh, o‘yin, matnli	Refleksiya, mustaqil o‘rganish	Axloqiy dialog, tahlil	Loyihaviy, interaktiv
3	Baholash	Test, kuzatuv, suhbat	Diagnostik portfolio	Og‘zaki va yozma	Portfolio, formativ
4	Raqamli vositalar	Wordwall, EduPage	Seppo.io, OAJ	Mahalliy resurslar	SmartBoards, AI bots

Xulosa. Ilmiy xulosa shuki, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ilg‘or tajribalarni joriy etish o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bu esa o`z navbatida xorijiy tajribalarni milliy shart-sharoitga moslashtirish, O‘zbekiston ta’lim tizimida ilg‘or metodlar bo‘yicha o‘qituvchilarning amaliy malakasini oshirish, lg‘or tajribalarni doimiy kuzatish va baham ko‘rish uchun platformalar (seminarlar, vebinarlar, ochiq darslar) yaratish zaruratini tug‘diradi.

Xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish va moslashtirish O‘zbekiston ta’limini sifatli rivojlantirishda muhim omildir. Ayniqsa, ona tili darslarida matn bilan ishlash, integratsiyalashgan yondashuv, baholashning zamonaviy shakllari, o‘quvchining faolligiga asoslangan metodikalar pedagogik amaliyotda kuchli samara bermoqda. Shu sababli xalqaro yondashuvlarni doimiy o‘rganish, ularni milliy muhitga moslashtirish – zamonaviy o‘qituvchining ustuvor vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son Farmoni, 2020-yil.
2. OECD. Education Policy Outlook 2022. Paris.
3. Japan MEXT Curriculum Guide, 2021.
4. Singapore Ministry of Education. English Language Teaching Strategy, 2021.
5. PIRLS 2021 Uzbekistan National Report.

6. D.Xidoyatova va boshqalar. O‘zbek tili. Metodik qo‘llanma. Toshkent, 2022.
7. UNESCO. Global Education Monitoring Report, 2023.
8. World Bank. Learning Poverty Global Update, 2022.
9. Samarqand viloyati XTB metodik markazi hisobotlari, 2023.
10. Bruner, J. (1966). Toward a Theory of Instruction. Harvard University Press.
11. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society. Harvard University Press.
12. John Hattie. Visible Learning. Routledge, 2009.

BAHOLASH TURLARINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Aliyev Shexroz Yodgor o‘g‘li
Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi Pedagogika,psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi
Shexrozaliyev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik o‘qitish va o‘rganish jarayonida baholashning ahamiyati, shakllari va ularning ilmiy asoslari yoritiladi. Baholashning turlari — diagnostik, formativ, summativ, ipsativ, normativ va kriterial baholashlar chuqur tahlil qilinadi. Har bir turining maqsadi, vazifasi, qo‘llanilish sohasi va afzalliklari ilmiy manbalar asosida izohlanadi.

Kalit so‘zlar: Summativ, formativ, ipsativ, nisbatli baholash, Diagnostik baholash

Annotation. This article explores the importance, forms, and scientific foundations of assessment in the process of pedagogical teaching and learning. Various types of assessment — diagnostic, formative, summative, ipsative, normative, and criterion-referenced — are thoroughly analyzed. The purpose, function, areas of application, and advantages of each type are explained based on scholarly sources.

Key words: summative, formative, ipsative, norm-referenced assessment, diagnostic assessment.

Аннотация.В данной статье освещается значение, формы и научные основы оценивания в процессе педагогического обучения и усвоения. Подробно анализируются виды оценивания — диагностическое, формирующее, итоговое, ипсативное, нормативное и критериальное. Цель, задачи, сферы применения и преимущества каждого вида объясняются на основе научных источников.

Ключевые слова: суммативное, формативное, ипсативное, нормоориентированное оценивание, диагностическое оценивание.

Kirish. Baholash (evaluation/assessment) — bu o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘lchash va ularni rivojlantirish jarayonidir. U o‘qitishning ajralmas qismi bo‘lib, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogikada baholash nafaqat natijani aniqlash, balki o‘quv jarayonini boshqarish vositasi sifatida ham qaraladi.

Diagnostik baholash (Ilk baholash) O‘quv jarayonining boshlanishida o‘quvchilarning bilim darajasini, ko‘nikma, malaka va tayyorgarlik holatini aniqlash uchun o‘tkaziladigan baholash turi. Maqsadi: O‘quvchilarning boshlang‘ich nuqtasini aniqlash, individual yondashuvga asos yaratish. Xususiyatlari: O‘quv yili, mavzu yoki dars boshida o‘tkaziladi. Natijalari o‘qituvchiga moslashtirilgan dars rejasini tuzishda yordam beradi. Reyting qo‘yilmaydi, diagnostika uchun ishlatiladi. Afzalligi: O‘qituvchi o‘quvchilarni to‘g‘ri guruhlarga ajrata oladi. O‘quvchilarning ehtiyojiga qarab darsni moslashtirish imkonini beradi. Ta’lim samaradorligini oshiradi.

Formativ baholash (Jarayonli baholash) O‘quv jarayonining davomida muntazam ravishda o‘tkaziladigan, o‘quvchiga ham, o‘qituvchiga ham fikr-mulohaza (feedback) berish orqali o‘qishni rivojlantiruvchi baholash. Maqsadi: O‘quvchilar taraqqiyotini kuzatish, o‘quv jarayoniga tuzatish kiritish. Xususiyatlari:Rivojlantiruvchi, motivatsion ta’sirga ega. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ikki tomonlama aloqa yaratiladi. Bu baholash — baho qo‘yish emas, o‘rganishni yengillashtirish vositasi.Afzalliklari: O‘quvchilarda faollik va mas’uliyatni oshiradi. Xatolarni vaqtida aniqlab, to‘g‘rilashga yordam beradi. O‘qituvchiga darsni moslashtirish imkonini beradi

Summativ baholash (Yakuniy baholash) Muayyan davr (chorak, semestr, yillik) oxirida o‘quvchilarning erishgan yutuqlarini umumlashtiruvchi baholash.

Maqsadi: O‘quvchilar bilim darajasini reyting asosida aniqlash, yakuniy qarorlar qabul qilish. Xususiyatlari: Test, yozma ish, og‘zaki so‘rov, imtihon shaklida bo‘ladi. Baho qo‘yiladi va rasmiy hisobotlarga kiritiladi. Ta'lim sifati va o‘qituvchi faoliyati ham baholanadi. Afzalliklari: O‘quv natijalarini mezon asosida baholash imkonini beradi. Hisobot va rasmiy statistikaga asos bo‘ladi. Ta’lim sifati va o‘quv dasturi samaradorligini aniqlashga yordam beradi.

Normativ baholash (Nisbatli baholash) O‘quvchilar natijalarini bir-biri bilan solishtirish orqali o‘tkaziladigan baholash turi. Maqsadi: Eng kuchli va kuchsi o‘quvchilarni ajratib ko‘rsatish. Xususiyatlari: Raqobat muhitini kuchaytiradi. Statistik tahlil orqali o‘tkaziladi (masalan, normal taqsimot). Olimpiada va grant saralash imtihonlarida qo‘llaniladi. Afzalliklari**:** Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlashga yordam beradi. Tanlovli dasturlar yoki grantlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kriterial baholash (Me’zonli baholash) O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari oldindan belgilangan mezonlar asosida baholanadi. Maqsadi: Har bir o‘quvchining shaxsiy yutuqlarini mustaqil baholash. Xususiyatlari:Aniqlik, shaffoflik va adolat tamoyillariga asoslanadi. Subyektivlikni kamaytiradi. O‘zbekiston ta’lim tizimida keng joriy qilinmoqda. Afzalliklari: O‘quvchilarga nimani va qanday qilib bajarish kerakligi oldindan tushunarli bo‘ladi. O‘qituvchilar

uchun baholash yagona mezonlar asosida aniq bo‘ladi. O‘z-o‘zini baholash va refleksiya qilish imkonini beradi.

Ipsativ baholash (O‘z-o‘zini solishtiruvchi baholash) O‘quvchining avvalgi natijalari bilan keyingi natijalarini solishtirish orqali o‘tkaziladigan baholash. Maqsadi: Shaxsiy o‘sishni, individual taraqqiyotni aniqlash. Xususiyatlari: Har bir o‘quvchining yutuqlari o‘zining o‘tgan holati bilan solishtiriladi. Raqobatdan ko‘ra, ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Rivojlanish monitoringi uchun qulay.

Afzalliklari: O‘quvchini shaxsiy yutuqlari uchun rag‘batlantiradi**.** O‘z-o‘zini rivojlantirish va ichki motivatsiyani oshiradi. Har bir o‘quvchining individual o‘sish sur’ati hisobga olinadi

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim tizimida baholash faqat natijani o‘lchash emas, balki o‘rganish jarayonining muhim bo‘g‘ini sifatida qaralmoqda. Har bir baholash turi o‘z vazifasini bajaradi: diagnostik baholash boshlanishni, formatif baholash jarayonni, summativ baholash natijani, kriterial baholash adolatni, ipsativ baholash esa shaxsiy o‘sishni ta’minlaydi. O‘qituvchi bu turlarni uyg‘unlashtira olsagina sifatli va samarali ta’limni yo‘lga qo‘ya oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. **Black, P., & Wiliam, D. (1998).** *Inside the Black Box: Raising Standards Through Classroom Assessment*

2. **Harlen, W. (2007).** *Assessment of Learning*

3. **Brookhart, S. M. (2010).** *How to Assess Higher-Order Thinking Skills in Your Classroom*

4. **Gipps, C. (1994).** *Beyond Testing: Towards a Theory of Educational Assessment*

5. **OECD (2013).** *Synergies for Better Learning: An International Perspective on Evaluation and Assessment*

6. **Stiggins, R. J. (2005).** *Student-Involved Assessment FOR Learning*

7. **Davletshin E.T. (2006).** *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*

TA’LIMDAGI XALQARO TADQIQOTLARNING YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Ziyoyeva Nigina Azimboyevna
Samarqand viloyati Toyloq tuman
10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta’limdagi xalqaro tadqiqotlarning yangi O‘zbekiston taraqqiyotidagi o‘rni haqida gaplashamiz. So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda.*

Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta’lim tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishini talab etadi.

Sababi, XX asrda va undan oldin kuchli xotira, ensiklopedik bilim, o‘z sohasida iloji boricha ko‘proq ma’lumotni bilgan mutaxassislar yuqori qadrlangan bo‘lsa, endi bu bilimlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmay qoldi. Qidiruv tizimlari, onlayn ensiklopedialar, sohalar bo‘yicha mukammal onlayn ma’lumotlar bazalari yaratildiki, endi bu ma’lumotlarni eslab qolish zaruriyati ikkinchi darajaga tushib qoldi. Hozirgi zamon mutaxassisida bu bilimlarni tahlil qilish, ulardan yangi ma’lumotlarni hosil qila olish, xalq tili bilan aytganda ‘‘kosa tagidagi nim kosa’’ni ko‘ra olish kompetensiyasi birinchi o‘ringa ko‘tarilayapti.

Kalit so‘zlari: *taraqqiyot, yangi O‘zbekiston, tadqiqot, PISA, PIRLS, TIMMS, TALIS.*

Ta’limning asosiy vazifasi o‘quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Buning uchun kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan muhim ko‘nikmadir. Bu ko‘nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o‘zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari XXI asr ko‘nikmalariga ega ishchilarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko‘maklashadi. Umuman olganda, bugungi o‘quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo‘lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda. O‘quvchida kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi.

Yuqoridagi talablar ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy mamlakatlardagi kabi, ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Shu maqsadda Respublika xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 8-dekabrida 997-sonli qarorni qabul qildi.

Qarorga ko‘ra, quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish belgilandi:

1. Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS)-boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun;

2. Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS)-4 va 8-sinf o‘quvchilarming matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun;

3. The Programme for International Student Assessment (PISA)-15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

4. The Teaching and Learning International Survey (TALIS)-rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish uchun;

Yuqoridagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish uchun Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining asosiy vazifalari va faoliyatining yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi: [2]

❖ xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining milliy vakili sifatida ishtirok etish;

❖ ta’lim tizimida o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

❖ ta’lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o‘rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o‘tkazishda ishtirok etish;

❖ ta’lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish;

❖ ta’lim sifatini baholash bo‘yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;

❖ umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash;

❖ O‘zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;

❖ xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg‘or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta’lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo‘llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;

O‘qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

Buning uchun, 2019-yil 1-fevraliga qadar, Milliy markaz bilan birgalikda o‘quvchilarning qobiliyat va iqtidorlarini umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1 - sinfidan boshlab aniqlash va rivojlantirish, o‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro baholash dasturlari va tanlovlarida ishtirok etishni ta’minlash dasturini ishlab chiqish yuzasidan bir qator vazifalar belgilandi.

Xalqaro tadqiqotlar tizimi. Konsepsiya bilan tanishgan kishida, tabiiyki, PISA tizimi tadqiqotlari haqida ko‘proq bilish istagi tug‘iladi. Biz bu iboraga ilk bor O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni

tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida duch kelgandik. Mazkur hujjatda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazini tashkil etishga qaror qilinib, uning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib ta’lim tizimida o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish; ta’lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o‘rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o‘tkazishda ishtirok etish; umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash; O‘zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash belgilandi.

O‘z navbatida kelgusida mamlakatimiz ta’lim sifatini baholash bo‘yicha quyidagi xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi ko‘zda tutildi:

- PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) - boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash;

- TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) - 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

- PISA (The Programme for International Student Assessment) - 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

- TALIS (The Teaching and Learning International Survey) - umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbarlari va o‘qituvchilari bilan so‘rovnoma o‘tkazish orqali maktabda o‘qitish va ta’lim olish jarayonlari samaradorligini baholash.

Qayd etish lozim, mamlakatimiz ta’lim muassasalari PISA xalqaro tadqiqotlarida 2021-yilda ilk marotaba ishtirok etadi.

PISA: muammo va yechimlar.

- Ushbu dasturga 1997-yil asos solingan, - deydi Mirishkor tumani xalq ta’limi bo‘limi ta’lim sifati monitoringi bo‘limi inspektor-metodisti Elyor Shoqulov. - Undan ko‘zlangan asosiy maqsad - dunyo bo‘ylab ta’lim tizimi samaradorligini 15 yoshli o‘quvchi-yoshlar 3 yo‘nalishda (o‘qish, matematika, tabiiy fanlar bo‘yicha) savodxonligiga, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlashiga, olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish qobiliyatlariga baho berish va keyinchalik bu ko‘nikmalarni hosil qilishga undashdan iborat. Dasturni Avstraliya pedagogik tadqiqotlar kengashi, Niderlandiya milliy pedagogika instituti, AQShning Vestat va pedagogik test xizmatlari, shuningdek, Yaponiyaning ta’lim sohasidagi tadqiqotlar milliy instituti hamkorlikda o‘tkazadi. Dasturni joriy etish g‘oyasi ish beruvchilarning tashabbusi bilan ilgari surilgan. 2018-yilda PISA dasturida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a’zo 35 mamlakat, a’zo bo‘lmagan 43 ta, jami 78 mamlakat va shaharlar ishtirok etgan. Har bir davlatdan

ishtirok etuvchi o‘quvchilar soni mamlakatdagi jami 15 yoshli o‘quvchi-yoshlarning 2 foizi miqdorida saylanma tarzda shakllantiriladi. Shundan kelib chiqilganda har bir davlatdan 4500 nafardan 10 ming nafargacha o‘quvchi ishtirok etgan. Sobiq ittifoq mamlakatlaridan Rossiya, Latviya, Litva, Estoniya, Qirg‘iziston, Qozog‘iston qatnashdi. Ular orasidagi eng yaxshi ko‘rsatkich estoniyalik o‘quvchilarga tegishli, garchi mazkur mamlakat yoshlari ilk marotaba ishtirok qilgan 2006-yilda 516 ball jamg‘arib, 11-o‘rinni egallagan bo‘lsa-da, 2015-yilda bu ko‘rsatkich tegishli tartibda 534 ball va uchinchi o‘ringa ko‘tarildi.

Ma’lum bo‘ldiki, 2015-yilgi tadqiqotlardan keyin dunyo bo‘yicha birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi o‘rinlarni qit’adoshlarimiz - Singapur, Yaponiya va Xitoy Taypeyi o‘quvchi-yoshlari egallagan. PISA xalqaro baholash dasturi testlari uch yilda bir marotaba o‘tkazilib, o‘quvchilar bilimi uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha, 1000 ballik tizimda baholanadi. Har galgi monitoring jarayonida yuqorida sanalgan uchta yo‘nalishdan biriga alohida e’tibor qaratiladi. Masalan, 2000-yilda tadqiqotning asosiy yo‘nalishi o‘qish savodxonligiga, 2003-yil matematik savodxonlikka, 2006-yilda esa tabiiy fanlar savodxonligiga qaratilgan. Bu holat davriy takror bo‘lishini inobatga olganda, 2021-yil asosiy fan qilib matematika tanlanishi ayon bo‘ladi. Test savollari dasturga a’zo mamlakatlarning mutaxassislari bilan kelishilgan holda xalqaro konsultantlar guruhi tomonidan tuziladi.

Bugun yangi O‘zbekiston jahon hamjamiyati safida o‘z o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. Mamlakatdagi har bir soha zamonga xos va mos tarzda rivojlantirilib, har bir sohada yangilanish nafasi ufurmoqda.

Keling uzoqqa bormay birgina ta’lim sohasidagi islohotlar haqida to‘xtalaylik. Sababi keyingi yillarda yurtimizda maktab, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimida raqobat muhitini shakllantirish, davlat-xususiy sherikchilik va xususiy sektor resurslaridan keng foydalanish, aholining oliy ta’lim bilan qamrab olinishini rivojlangan davlatlar darajasiga yetkazishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, yoshlarning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi, ularning qobiliyat va iste’dodini yuzaga chiqarish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu haqda gapirganda yangi oliy o‘quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy ta’lim muassasalari soni 125 taga yetganini alohida ta’kidlash joiz.

Yaqinda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun ushbu soha taraqqiyotida, hech shubhasiz, yangi ufqlarni ochib beradi. Negaki, unga muvofiq, ta’lim olishning masofaviy, inklyuziv shakllari joriy qilindi, ta’lim tashkilotlariga xorijiy muassasalar bilan qo‘shma fakultet va o‘quv markazlari tashkil qilishga ruxsat etilib, o‘qituvchilarga mualliflik dasturi va o‘qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o‘qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash huquqi berildi.

Prezidentimiz 1-oktyabr Ustoz va murabbiylar kuni munosabati bilan tashkil etilgan bayram tadbiridagi nutqida oliy ta’lim sohasidagi yutuqlar bilan birga

mavjud kamchiliklarni ham sanab o‘tdilar. Oliy ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash darajasi past ekanligi qayd etildi. Haqiqatdan ham, bugungi axborot davrida mamlakatdagi barcha aholi punktlari va ta’lim muassasalariga zamonaviy optik tolali internet aloqa tizimini olib kirish hamda internet xizmatlari narxini pasaytirish hayotiy zaruratdir.

Yechimini kutayotgan masalalardan yana biri aksariyat bitiruvchilarning bilim va malakasi mehnat bozori talablariga javob bermaydi. Mahalliy ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyat va tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish darajasi juda past. Bu borada partiyamiz “Har bir oila – tadbirkor” degan olijanob g‘oyani izchillik bilan hayotga tatbiq etib, jamiyatda faol tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish, maktabdan boshlab oliy ta’lim muassasalarida ham tadbirkorlik darslarini o‘tish, sohaga qiziqayotgan yoshlar uchun konsalting markazlarini tashkillashtirishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Binobarin, bugun zamon shiddat bilan o‘zgarib, barcha sohalar qatori ta’lim tizimi oldiga ham o‘ta dolzarb va murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish nazarda tutilgan.

Konsepsiyaning maqsadli ko‘rsatgichlarida 9 ta yo‘nalish belgilangan bo‘lib, ularning birinchisi – oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan. O‘tgan 2019-yilda aholini oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi jami bitiruvchilar soniga nisbatan 20 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2030-yilga borib bu ko‘rsatgich 50 foizdan oshadi. Nodavlat, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida oliy ta’lim muassasalari soni 35 taga yetkaziladi.

Bular hali hammasi emas. Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalari mustaqilligi joriy etiladi, ya’ni bosqichma-bosqich respublikamizda faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasalari qabul kvotalarini o‘z yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda mustaqil belgilaydi. Bu esa sohada sog‘lom raqobat muhitini rivojlantiradi. Raqobat bor joyda sifat yaxshilanadi. Pirovardida, mamlakatda malakali kadrlar ko‘payadi, aholining oliy ma’lumotli qatlami ortadi.

Xulosa qilib aytganda, bugun qaysi sohada bo‘lmasin bitta maqsad bizni birlashtiradi. U ham bo‘lsa, Vatan taraqqiyoti va xalqimiz farovonligidir. Shunday ekan, nodavlat ta’lim maskanlari sonini ko‘paytirish orqali oliy ta’lim tizimida tahsil olish uchun teng imkoniyat yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://qashqadaryo.uz/oz/nview/ta-lim-sifatini-baholash-b%D0%BE-yicha-xalqaro-tadqiqotlarda-ishtirok-nima-beradi-14-05
2. https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-sifatini-baholash-sohasidagi-xalqaro-tadqiqotlarni-tashkil-etish-chora-tadbirlari
3. https://xs.uz/uz/post/talim-tizimini-rivozhlantirish-mamlakatimiz-taraqqiyotining-muhim-omili

РОЛЬ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В ПОДГОТОВКЕ АВИАЦИОННЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ

Ильясов Ботир Кодирович,
преподаватель Учебного центра
военной подготовки Национального
университета Узбекистана, майор,
ilyasov.botir@mail.ru,
+998-94-6619504

Аннотация. *В данной статье раскрыты педагогические особенности подготовки авиационных специалистов с учётом передового зарубежного опыта.*

Ключевые слова: *специалист, авиационные образовательные учреждения, педагогические особенности, зарубежный опыт.*

Аннотация. *Ushbu maqolada ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda aviatsiya mutaxassislarini tayyorlashning pedagogik xususiyatlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *mutaxassis, aviatsiya ta’lim muassasalari, pedagogik xususiyatlar, xorijiy tajriba.*

Abstract. *This article reveals the pedagogical features of training aviation specialists taking into account advanced foreign experience.*

Key words: *specialist, aviation educational institutions, pedagogical features, foreign experience.*

Совершенствование специалистов авиации в сфере обучения занимает центральное место в повестке дня всех систем образования и обучения как в Европейском Союзе (ЕС), так и за его пределами. В данном контексте ведущая роль передового педагогического опыта создала предпосылки и ожидания, которые обогатили систему профессионального образования и обучения.

Сегодня передовой педагогический опыт рассматривается как обязательства по усовершенствованию подготовки специалистов авиации и процесс на пути к его достижению, в которых центры передового опыта рассматриваются как международный феномен, а также уделяется внимание характеристикам, которые позволяют лучше понять различные функции, которые привели к их развитию.

Важной вехой изучения проблемы подготовки специалистов авиации способствовало намерению ЕС выделить средства через программу Erasmus+ и другие инструменты в поддержку развития как центров передового опыта, так и транснациональных платформ центров профессионального передового опыта.

Передовой опыт в образовании связан с ожиданиями предоставления высококачественного образования и обычно указывает на высокое качество

обучения и воспитания, но также связан с работой и привлекательностью образования для студентов и работодателей.

Передовой опыт также может подразумевать более расширенную, всеобъемлющую и комплексную концептуализацию развития умений, включающую инновации, педагогику, социальную справедливость, обучение в течение всей жизни, трансграничные навыки, обучение в компании, непрерывное профессиональное обучение и потребности сообщества. Иногда термин «совершенствование и передовой опыт» применяется в процессе разработки политики и служит эвфемизмом для других реформ, таких как: рационализация, реструктуризация управления, повышение ответственности или конкуренции.

Центры передового опыта в профессиональном образовании и обучении часто понимаются как учреждения, олицетворяющие практическую деятельность. Однако наблюдаются существенные различия в целях, структуре и функциях в зависимости от конкретных условий работы с упором на ее координировании, сотрудничестве и стратегическом развитии. Анализ подтверждает то, что в разных странах реализуются разные стратегии.

Эффективный передовой опыт должен стать важным элементом экономического роста и социальной сплоченности, а также способствовать реализации концепции обучения будущих специалистов авиации. Это можно проиллюстрировать примером стран с устоявшимися традициями использования эффективного передового опыта в качестве инструмента поддержки стратегий занятости, социально-экономического и регионального развития (например, Австралия, Германия, Швеция, Дания, Канада, Южная Корея) и даже других стран, которые в течение последнего десятилетия реформировали системы профессионального передового опыта в соответствии с целями развития (например, Чешская Республика, Эстония, Польша, Сингапур).

Четвертая промышленная революция является одним из ключевых факторов, влияющих на понимание изменяющейся роли систем передового опыта, поскольку она формирует новый контент и формы работы, навыков и профессиональных требований. Новые цифровые технологии набирают популярность в производственных цепочках и сетях.

Автоматизация, виртуальный интеллект, искусственный интеллект, большие данные информации и робототехника – эти концепции важны для каждой образовательной среды, в том числе и для вузовской.

Глобализация, проблемы экологической устойчивости, демографические изменения и рост неравенства являются ключевыми факторами, которые следует учитывать при изучении будущего рынка труда и умений в контексте перехода экономики на цифровой формат во всем мире. Связь между передовым опытом, обучением и цифровой экономикой, социально-экономическим развитием, повышением производительности, конкурентоспособности и возможностей трудоустройства на рынках труда

(например, высокотехнологичные профессиональные умения для новых востребованных профессий) является важнейшей мотивацией для инвестиций на государственном уровне в совершенствование. Согласно международному опыту, во многих странах основные стратегические направления, цели и задачи для реформирования и оптимизации качества сетей профессионального передового опыта формулируются в рамочных стратегических документах по национальной политике. Такие документы предоставляют возможность дальнейшего обсуждения национального законодательства и других нормативно-правовых актов. В этом отношении можно найти прямо или косвенно обоснование в краткосрочной, среднесрочной и долгосрочной перспективах в следующих типах механизмов, ориентированных на нормы и знания: правительственные планы, направленные на осуществление приоритетных действий в образовательном секторе (например, Ирландия, Франция); руководства и базисные исследования для оптимизации, рационализации и повышения эффективности сетей профессионального передового опыта (например, Латвия, Албания); стратегии профессионального передового опыта и меморандумы (например, Албания, Грузия, Хорватия, Азербайджан, Шри-Ланка); промышленные и отраслевые договоры об экономическом развитии (например, Нидерланды, Марокко).

В некоторой степени наличие партнерских отношений между частным и государственными секторами с участием образовательных учреждений (колледжей, университетов) созданы с целью реализации отраслевых стратегий при одновременном содействии социально-экономическому развитию. Обучение через передовой опыт («обучение в процессе деятельности») и сотрудничество с коллегами стали оптимальной стратегией взаимного обучения, что соответствует принципам ЕС по укреплению сотрудничества, которое за последние два десятилетия доказало свою способность быть инструментом реформирования политики и систем в странах-членах ЕС, содействуя достижению высоких стандартов, справедливости, качества и инноваций (Европейская комиссия, 2010). Сегодня передовой педагогический опыт нашел широкое применение в системе подготовки специалистов авиации.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси фуқаро авиациясининг авиакорхоналаридаги ўқув юртларини сертификатлаш қоидалари Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2008-йил 13-декабрда 1881-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi O‘RQ-458-son “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

BIOLOGIYA TA’LIMIDA 5E MODEL YONDASHUVI ASOSIDA O‘QITISH SAMARADORLIGI

Usmonova Nilufar
Samarqand shahar 7-maktab
biologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya:*Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida biologiya ta’limini samarali tashkil etish uchun 5E modeli asosidagi metodik yondashuvlar bayon etiladi. 5E modelining har bosqichlari biologiya fanining mazmuniga mos holda amaliy misollar bilan tahlil qilinadi.O‘quvchilarning mustaqil fikrlash, izlanish va real hayotiy muammolarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi usullar haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *5E modeli, biologiya, metodika, interfaol ta’lim, izlanish, amaliyot, innovatsion texnologiyalar.*

Abstract: *This article describes methodological approaches based on the 5E model for the effective organization of biology education in secondary schools. Each stage of the 5E model is analyzed with practical examples in accordance with the content of biology. Methods that serve to develop students' independent thinking, research and analysis skills for real-life problems are discussed.*

Key words: *5E model, biology, methodology, interactive education, research, practice, innovative technologies.*

Аннотация: *В статье описываются методические подходы на основе модели 5E для эффективной организации обучения биологии в средних школах. Каждый этап модели 5E анализируется на практических примерах в соответствии с содержанием биологии. Обсуждаются методы, которые служат развитию у учащихся навыков самостоятельного мышления, исследования и анализа реальных проблемю.*

Ключевые слова: *модель 5E, биология, методология, интерактивное образование, исследование, практика, инновационные технологии.*

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning fanlarga nisbatan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlashi, kuzatuvchanlik va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, tabiiy fanlar – jumladan, **biologiya** fani o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantiruvchi asosiy fanlardan hisoblanadi. Shunday ekan, bu fanni o‘qitishda **konstruktivistik yondashuv** asosida tuzilgan **5E modeli** o‘zining yuksak samaradorligi bilan ajralib turadi.

5E modelining mazmuni va metodik mohiyati

5E modeli – bu o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlovchi, izlanish orqali bilim hosil qilishga yo‘naltirilgan pedagogik model bo‘lib, quyidagi bosqichlardan iborat:

1. **Engage (Jalb qilish)** – O‘quvchilar mavzuga jalb qilinadi, mavjud bilimlari faollashtiriladi.
2. **Explore (Tadqiq qilish)** – Guruhlarda yoki yakka tartibda mustaqil izlanish olib boriladi.
3. **Explain (Tushuntirish)** – O‘quvchilar bilimlarini izohlaydi, o‘qituvchi ilmiy asos bilan boyitadi.
4. **Elaborate (Qo‘llash)** – Olingan bilimlar real holatlar orqali mustahkamlanadi.
5. **Evaluate (Baholash)** – Bilimlar turli usullar orqali baholanadi.

Biologiya ta’limida 5E modelining bosqichma-bosqich qo‘llanilishi

1. Engage – Jalb qilish

Ushbu bosqichda o‘quvchilar e’tiborini jalb qilish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- Hayotiy savollar: *“Nega biz tun qorong‘isida ko‘rish uchun vaqt kerak bo‘ladi?”*
- Videoroliklar yoki tajriba lavhalari.
- Kundalik hayotdagi biologik hodisalarga oid muammolar.

2. Explore – Tadqiq qilish

Bu bosqichda o‘quvchilar mustaqil faoliyat olib borishadi:

- Mikroskop orqali hujayra tuzilishini kuzatish.
- Fotosintez yoki fermentatsiya bo‘yicha oddiy tajribalar.
- Biologik obyektlarning tuzilmasini o‘rganish (o‘simlik barglari, urug‘lar, hujayralar).

3. Explain – Tushuntirish

O‘quvchilar o‘z natijalarini izohlaydi:

- O‘qituvchi tushunchalarni ilmiy atamalar orqali aniqlashtiradi.
- Grafik, jadval va diagrammalar orqali tushuncha mustahkamlanadi.
- Misol: Genetika darsida nasl-nasab daraxtlarini tahlil qilish orqali xulosa chiqariladi.

4. Elaborate – Qo‘llash

O‘rganilgan bilimlarni qo‘llash:

- Ekologik loyiha ishlari (atrof-muhit ifloslanishi haqida).
- Biotexnologiyaning amaliy misollarini tahlil qilish.
- O‘quvchilar hayotiy muammolar yechimiga ilmiy asosda yondashadi.

5. Evaluate – Baholash

Bilimlar turli shakllarda baholanadi:

- Testlar, viktorinalar.
- Refleksiya yozish.
- Taqdimotlar, loyiha himoyasi.

- Portfolio to‘plash orqali o‘zlashtirish darajasini kuzatish.

5E modelining afzalliklari

- O‘quvchilarning **fanlarga bo‘lgan qiziqishi** ortadi.
- **Kuzatuvchanlik, mantiqiy fikrlash** va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi.
- **Amaliyotga yo‘naltirilgan** topshiriqlar orqali bilimlar chuqurlashadi.
- O‘qitish jarayoni **interfaol** va **o‘quvchi markazli** bo‘ladi.
- Biologiya fanidagi mavzularni **kundalik hayot bilan bog‘lash** imkoniyati yaratiladi.

5E modeli asosida biologiya fanini o‘qitish – nafaqat o‘quvchilarning bilimini oshirish, balki ularning mustaqil fikrlash, izlanish, muammoni hal qilish kabi kompetensiyalarini ham shakllantiradi. Mazkur model orqali o‘quvchilar mavzuni faqat yodlab emas, balki tushunib, hayotda qo‘llashni o‘rganadilar. Kelajakda 5E modelini boshqa tabiiy fanlarga ham joriy etish, uning samaradorligini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. B.Namdar, M.Kucuk. Preservice Science Teachers’ Practices of Critiquing and Revising 5E Lesson Plans. Journal of Science Teacher Education. 2018, May.

4 K. Saparov, I. Azimov, M. Umaraliyeva, Z. Tillayeva, I. Abduraxmanova, U. Raxmatov, S. Haytbayeva, M. Bo‘ronboyeva “Biologiya” 7-sinf darsligi 2022-yil.

4. Lex.uz

5. uzedu.uz

OLIY TA’LIMDA TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA MUVAFFAQIYATLI TAYYORLASHDA XORIJIY O‘QUV DASTURLARDAN FOYDALANISH - ZAMONAVIY PEDAGOGIK TENDENSIYA SIFATIDA

Navruza Umirova Mamasoliyevna
Sharof Rashidov nomidagi
Samararqand davlat universiteti
tayanch-doktoranti
email:navruzaumirova@gmail.com
tel:93-354-83-22

Annatasiya: Ushbu maqolada oliy ta’limda talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida xorijiy tajribalardan foydalanish bugungi kunda eng muvaffaqiyatli tendensiyalardan biri ekanligi ochib beriladi. Shuning uchun xorijiy rivojlangan mamalakatlar oliy ta’lim tizimida talabalarni kasbga tayyorlashda xalqaro talablar

darajasida ta’lim berilishi, ularga so‘nggi talabalr asosida o‘quv dasturlar ishlab chiqish va o‘quv jarayonida foydalanilishi eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta’lim, o‘quv jarayoni amaliyot, ta’limda samaradorlik, xorijiy o‘quv dasturlar, ta’limda xorijiy tajribalar, kasbga tayyorlash, zamonaviy tendensiyalar.

Аннотация: В статье показано, что использование зарубежного опыта в процессе профессиональной подготовки студентов в высшей школе является одним из наиболее успешных направлений на сегодняшний день. Поэтому одним из наиболее эффективных подходов к подготовке студентов к профессии в системе высшего образования зарубежных развитых стран является предоставление образования на уровне международных стандартов, разработка учебных программ с учетом новейших требований и использование их в учебном процессе.

Ключевые слова: современное образование, практика образовательного процесса, эффективность образования, зарубежные учебные программы, зарубежный опыт в образовании, профессиональная подготовка, современные тенденции.

Abstract: This article reveals that the use of foreign experience in the process of professional training of students in higher education is one of the most successful trends today. Therefore, one of the most effective approaches in preparing students for a profession in the higher education system of foreign developed countries is to provide them with education at the level of international requirements, develop curricula based on the latest requirements, and use them in the educational process.

Key words: modern education, educational process practice, educational efficiency, foreign curricula, foreign experiences in education, professional training, modern trends.

Zamonni shiddatli o‘sib borishida shaxs kamoloti va uning yashash sharoitini zamonaviy moslashishi va jamiyat hayotiga yangicha bir ruh va imkoniyat olib kirishga ishonish bilan shaxs kamolotiga juda ko‘p investitsiyalar kirgiziladi. Jamiyat ravnaqining asosi shaxsni mukammal qilib shakllantirish va oliy ma’lumotli qilib ta’lim berish va tarbiyalash hisobanadi. Komil va yetuk shaxsni yetkazishda oata-ona, oila, yaqin qarindoshlar,mahalla, ta’lim muassasalari va yashash hududlaridagi barcha insonlar xizmat qiladi. Bolani voyaga yetkazadi, tarbiyalaydi, ta’lim beradi, moliyaviy va ijtimoiy ta’minotini yo‘lga qo‘yadi. Birgina bolani yetuk shaxs qilib jamiyatga foyda keltiradigan inson qilib tarbiyalash uchun shuncha insonlar va sharoitlar yaratadi, demak shaxs ham shunga munosib bo‘lishi va moslashishi kerak.

Demak insonni komillikka yetkazishda oliy ta’lim tizimi eng asosiy vazifalarni bajaradi. Ya’ni jamiyatda inson o‘z o‘rnini topishi, kasb egallashi va mustaqil dunyoqarashga ega bo‘lgan inson bo‘lishi uchun xizmat qiladi. Oliy ta’limda talabalarni bo‘lajak kasb doirasida yetuk qilib tayyorlashda yetarli darajada kerakli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning isboti sifatida zamonaviy texnologiyalar va vositalardan ta’lim jarayonida foydalanish, proferssor-

o‘qituvchilar malakasini xorijiy davlatlar ta’lim tashkilotlarida oshirish va tajriba almashish dasturlarida qatnashish imkoniyatini yaratish va xorijiy o‘quv dasturlarni milliy o‘quv dasturlarimiz bilan uyg’unlashtirgan holda o‘quv jarayonini zamonaviy va samarali tashkil etishimiz zamonaviy tendensiya sifatiqa ko‘rsatishimiz mumkin bo‘ladi.

Eng avvalo, zamonaviy texnologiyalar ya’ni zamonaviy o‘qitish usullari va yondashuvlari talaba yoshlarni kasb egallashdagi egallaydigan kompetensiyalarini zamonaviy va so‘nggi tajribalar asosida tashki etilishi maqsadli hisoblanadi.Chunki bugungi kun ta’limida zamonaviy tendensiya sifatida nazariya va amaliyotni baravar tashkil etish va uni real hayotga bog’lab egallashi maqsadga muvofiqdi. Zamonaviy ta’limni amalda qo‘llashi va ko‘nikmalarini malakaga aylantirishida bo‘lajak kasbini qanday qilib muvaffaqiyatli egallashida asosiy hisoblanadi. Shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarni bo‘lajak kasbidagi muammolarni yechish va kraetib yondashish lozimligini ta’lim jarayonida talabalar anglab borishadi. Natijada mustaqil dunyoqarshi kengayib nazariy bilimlar bilan boyib boradi. Shaxsda mustaqil dunyoqarash dastlab shu maktabgacha ta’lim yoshida his tuyg’ulari va hohishlarini bildirish bilan izohlansa keyinchalik maktab yoshida o‘z xarakteriga mos do‘stlar tanlashi, nimani yoqtirishi va yoqmaydigan narsa va buyumlarni ochiqcha aytishi va bajarmasligi bilan shakllanib boradi. Dunyoqarash talabalik davriga kelib ilmiylik, falsafiylik va mantiqiylik bilan mustaqi ravishda kengayadi.

Keyingi navbatda, oliy ta’lim tizimida faoliyat olib boradigan professor-o‘qituvchilarni malakasini oshirish va tajriba almashishda xorijiy davlatlar oliy ta’lim muassasalari hamkorligida ishlash tendensiyasi ham samarali yondashuvdir. Chunki tajriba va fikr almashishda ta’limiy tajribalarni baham ko‘rish va ta’limda qo‘llash ham bo‘lajak kasb egalarini zamonaviy ta’lim va tajribalar asosida samarali o‘qitishni ta’minlaydi. Shuningdek, xorijiy mutaxassislarni taklif etish hamkorlikda ishlash ham samara beradi. Chunki talabalar xorijda qanday ta’lim tashkil etilayotganini va ular qanday tendensiyalarni qo‘llayotganini xorijiy mutaxassislar yordamida amalda qo‘llab ko‘rishadi. Bunda ta’lim tashkilotlari xalqarolashuvi va xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlash va tajriba almashish amalda bajariladi.

Jahon hamjamiyatida rivojlangan mamlakatlar oliy ta’lim tizimida o‘quv kurslar, kollejlar bakalavriyat bosqichida, magistratura, doktorantura va ilmiy tadqiqot universitetlarida o‘quv jarayonini zamonaviy va so‘nggi o‘quv dasturlar bilan tashkil etilishi ham zamonaviy tendensiyalarni qo‘llash hisoblanadi. Shu asosida ta’lim olish tendensiyasi zamonaviy kasb sirlarini o‘rganish imkoniyatini beradi. Zamonaviy ta’lim olishda o‘quv dasturlarining asosiy mazmuni ta’lim platformalari asosida amalga oshiriladi. Bunda talabalarni bilimini xolisona baholash va ta’limni shaffofligini ta’minlaydi. Onlayn platformalar bilan ishlash, darsga qatnashish, topshiriqlarni haqiqiy faktlar bilan boyitib bajarish, loyiha ishini amaliy o‘z tajribalariga va kuzatishlariga qarab yaratish, viktorinalarda ishtirok etish va belgilangan muddatga qarab talabalar o‘z mas’uliyatlarini bajarish kabi ko‘nikmalar shakllantiriladi. Shuningdek bo‘lajak kasb egalari ta’limda nazariya va amaliyotni baravar olib borishadi. Natijada, kasbiy bilim va ko‘nikmalar malakaga

aylanadi. Kasbi doirasidagi muammolarni yechimlarini topadi ishda samaradorlikni ta’minlash malakalari shakllanadi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, jahonning eng rivojlangan mamlakatlari oliy ta’lim tizimida tashkil qilingan o‘quv jarayonlarining asosi bo‘lgan o‘quv dasturlar mazmunan bir xillikni tashkil qilsada talabalarni mustaqil dunyoqarashini kengaytirish va fikrlash dunyosini o‘stirish uchun turli usullardan foydalangan hamda ilg’or ta’limiy tendensiyalarni kiritganlar. Bizning ham oliy ta’lim tizimida ishlab chiqilayotgan o‘quv dasturlar xorijiy tajribalarda o‘z samaradorligini isbotlagan va natijadorlikni ta’minlaydigan dasturlar bilan milliy o‘quv dasturlarni uyg’unlashtirilishi orqali talabalar mustaqil dunyoqarashini kengaytirish masalalari jahon ilg’or tendensiyalardan foydalanilsa ta’lim samaradorligini oshishiga erishgan bo‘lamiz.

Shuningdek eng muhimi, o‘sib kelayotgan yosh avlodni mustaqil o‘z fikri va dunyoqarashi bo‘lishi bizning ta’lim tizimimizning end muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Mustaqil dunyoqarashga ega bo‘lish yoshlarda turli dunyoviy va diniy yod g’oyalarga ergashish va qo‘shilib qolish kabi salbiy oqibatlarni oldini olamiz. Yoshlarni milliy tarbiya asosida ta’lim berish milliy mintalitetimiz asosida ta’lim-tarbiya berishni ta’minlaydi. Zamonaviy ta’limni ham milliy tarbiyamizga salbiy ta’sir qiladigan jihatlarini o‘rganishdan saqlanib faqat ta’lim samaradorligi va kasbiy tajribalarni bozor iqtisodi talablari bo‘yicha tajribalarni o‘rganish maqsadlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni.Lex.uz

2.Nagmetova N.M.Thoretical aspects of the formation of students’worldview in the process of training in higher education.

3. Ziyodaxon Latipovna Xodjayeva. Ta’limni rivojlantirish - davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida.Maqola. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3,848 (SJIF) February 2023 / Volume 4 Issue 2

4. Ziyodaxon Latipovna Xodjayeva. Ta’limni rivojlantirish - davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida.Maqola. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3,848 (SJIF) February 2023 / Volume 4 Issue 2

5. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES,3, 710-719. (2023).

6. V.A. Ksenofontov [and others].Activities of the Department of Social Sciences on the organization of the educational process. Textbook /Under total. ed. V.A. Ksenofontov. - Minsk: VA RB, 2012.

BADIIY MATN TAHLILIDA INTERTEKSTUALLIK HODISASINING AHAMIYATI

Xo‘jamqulov Anvar Jozilovich
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
a.xujamqulov@mail.ru,
+998939974746, +998938388989
Tog‘ayeva Shoxnoza Elmurod qizi
mustaqil tadqiqotchi,
“Japan international school” o‘qituvchisi,
shaxnozatogayeva25@gmail.com,
+998973922606

Annotatsiya. Ushbu maqolada intermatn va intermatnlik hodisasi atroflicha tahlil etilgan. Dunyo adabiyotshunosligida XX asrning 60-yillarida, milliy adabiyotshunosligimizda esa 2000-yillarda bo‘y ko‘rsatgan struktural tahlil metodining bir unsuri sifatida qaraluvchi intermatnlik badiiy matnni to‘laqonli tushunishga yordam beradi. Maqolada tahlil natijalari asosida milliy adabiyotimizda intermatnlik va uning nazariy xususiyatlari, zamonaviy romanlarda aks etishi, personajlar ruhiyatini tahlil qilishdagi o‘rni aniqlangan.

Kalit so‘zlar: intermatn, intermatnlik, struktural metod, strukturalizm, uslub, badiiy tahlil, reminissensiya, allyuziya, iqtibos, epigraf, sarlavha.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the phenomenon of intertext and intertextuality. Intertextuality, considered as an element of the structural analysis method that emerged in world literature in the 1960s and in our national literature in the 2000s, aids in fully understanding literary texts. Based on the analysis results, the article identifies intertextuality in our national literature and its theoretical features, its reflection in modern novels, and its role in analyzing the psychology of characters.

Key words: intertext, intertextuality, structural method, structuralism, style, literary analysis, reminiscence, allusion, quotation, epigraph, title.

Аннотация. В данной статье подробно анализируются интертекст и явление интертекстуальности. Интертекстуальность, рассматриваемая как элемент метода структурного анализа, появившегося в мировом литературоведении в 60-х годах XX века, а в отечественном литературоведении в 2000-х годах, помогает полноценно понять художественный текст. В статье на основе результатов анализа определены интертекстуальность в нашей национальной литературе и ее теоретические особенности, отражение в современных романах, роль в анализе психологии персонажей.

Ключевые слова: интертекст, интертекстуальность, структурный метод, структурализм, стиль, художественный анализ, реминисценция, аллюзия, цитата, эпиграф, заголовок.

Badiiy asarni tushunish, uni idrok qilish, asar bosh g‘oyasini anglab yetishda ilmiy tahlillarning o‘rni beqiyos. Tabiiyki, o‘quvchi-kitobxon badiiy asarni o‘z subyekti – dunyoqarashi, intellekti, mentaliteti, e’tiqod tarzi, milliy mansubligi va shu kabi ko‘plab sabablar ta’siri asosida tushunadi. Bu esa asar xususida xolis baho berish imkonini chegaralashi mumkin. Ana shunday vaziyatda kitobxonga ayni shu asar haqidagi ilmiy munosabatlar asqatadi. “Badiiy asarni o‘qish, o‘rganish va izohlashga qaratilgan ilmiy-estetik faoliyatning uzoq tarixi mobaynida asarning tahlili bo‘yicha tarixiy-tipologik, tarixiy-madaniy, qiyosiy-tarixiy, funksional, sosiologik, formal, struktural, biografik, psixologik, psixoanalitik va boshqa bir qator yondashuvlar tizimi shakllangan. Shuningdek, badiiy matnni tahlil etishning bu tizimlaridan ikki yoki undan ortig‘ini birgalikda qo‘llash tufayli ham yana bir qancha tahlil turlari yuzaga kelgan. Tahlil amaliyotida ham badiiy asarlarga yondashuvning ayrim yo‘nalishlari qaror topgan” [1:321]. Sanalganlar orasida dunyo adabiyotshunosligida XX asrning 60-yillarida, milliy adabiyotshunosligimizda esa 2000-yillarda bo‘y ko‘rsatgan struktural tahlil metodi badiiy matnni to‘laqonli tushunishga yordam beradi.

“Strukturalizm (lot. structura – qurilish, joylashish) – XX asrdagi ikkita jahon urushi oralig‘ida shakllangan va 60-yillarga kelib keng (ayniqsa, Fransiyada) ommalashgan yo‘nalish, ijtimoiy va gumanitar ilm sohalaridagi tadqiqot metodi...

Strukturalizmning adabiyotshunoslikdagi ilk kurtaklari rus formal maktabi namoyandalari (R.Yakobson, V.Shklovskiy, Yu.Eyxenbaum, Yu.Tinyanov va b.) faoliyatida yuz kursatgan bo‘lsa, V.Proppning “Sehrli ertak morfologiyasi” (1928) asari mazkur metod ancha izchil qo‘llangan tadqiqot sanaladi. Keyincha struktur adabiyotshunoslik markazi Fransiyaga ko‘chib, uning rivoji R.Yakobson, R.Bart, S.Todorov kabi olimlar faoliyati bilan bog‘liq kechdi. Shuningdek, struktur adabiyotshunoslik rivojida Yu.M.Lotman boshchiligidagi Moskva-Tartu ilmiy maktabining ham katta xizmati bor. Shu o‘rinda struktural adabiyotshunoslikka xos xususiyatlardan ayrimlarini keltirib o‘tish o‘rinli. Jumladan, u adabiy asarga immanentlik tamoyili asosida yondashadi, ya’ni adabiy asarni alohida hodisa sifatida olib, uning ichki qurilishini tadqiq etadi, asardan tashqaridagi omillar (genezisi, rivojlanishi, tashqi vazifalari va sh.k.) e’tibordan soqit qilinadi. Immanent tahlilning maqsadi esa tadqiq etilayotgan asarning ichki qurilishi, undagi unsurlarning asarning sistem butunlik sifatida namoyon bo‘lishini ta’minlovchi o‘zaro aloqa va munosabatlarini o‘rganishdan iboratdir. Strukturalizm ifoda va ma’no munosabatiga noan’anaviy yondashadi. An’anaga ko‘ra, ma’no avvaldan mavjud va ifodalashni taqozo etadigan narsa sifatida tushunilsa, strukturalizm buni inkor qilib, struktura – shakl unsurlarining o‘zaro aloqa-munosabatlari sistemani yuzaga keltirishi davomida ma’no voqe bo‘ladi, deb biladi” [2:285].

Struktural tahlil metodining unsuri sifatida qaraladigan intermatnlik hodisasini tadqiq qilish tahlilni yanada mukammallashtiradi. Intermatn va

intermatnlikni dunyo adabiyotshunosligida Yu.Kristeva, R.Bart, L.Jenni, J.Denet, I.Arnold, I.Ilin, Yu.Karaulov, V.Moskvin, N.Fateyeva kabilar, o‘zbek adabiyotshunosligida esa M.Yo‘ldoshev, M.Xolbekov, D.Xudoyberganova, I.Azimova, F.Xomidovalar atroflicha o‘rganishgan. Intermatnlik tushunchasiga “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da shunday ta’rif berilgan: “Intertekstuallik (lot. inter – aro, textum – to‘qima, mato, matn) – fanga fransuz filologi Yu.Kristeva kiritgan termin. Unga ko‘ra, har qanday matn avval mavjud bo‘lgan matnlarni transformasiya qilgan holda o‘ziga singdirgan sitatalar majmuyidir. Mutaxassislar intertekstuallik konsepsiyasi rus olimi M.Baxtin qarashlarini rivojlantirish, boshqacha aytganda, qayta idrok etish asosida vujudga kelganini ta’kidlaydilar. M.Baxtin adabiyotning mavjudlik qonuniyatlari haqida to‘xtalib, har qanday asar o‘zida ijodkor voqeligini aks ettirgani holda, o‘zidan avvalgi va o‘ziga zamondosh adabiyot bilan muntazam dialogik aloqada bo‘ladi, ya’ni adabiyotning mavjudligi intersubyektiv xarakterga ega deb biladi. M.Baxtin ta’limotining formal tomoniga urg‘u bergan Yu.Kristeva esa dialogni matnlar doirasi bilan cheklab, intersubyektivlik va intertekstuallikni oldingi planga chiqaradi” [2:119]. Strukturalizm va poststrukturalizm yo‘nalishini tadqiq etgan olimlar orasida intermatnlik tushunchasi juda tez ommalashdi. Xususan, fransuz adabiyotshunosi R.Bart intermatnlik hodisasini yoqlab chiqib, har qanday matnni “qo‘shtirnoqsiz sitata” deb ataydi. Uning fikricha, har qanday matn aslida intermatn hisoblanib, unda oldingi va hozirgi paytdagi madaniyatga oid matnlar qaysidir darajada mavjud bo‘ladi. Badiiy asarda o‘zidan oldingi va joriy zamondosh adabiyot bilan dialogik tarzda boshqa matnlarning ta’siri sezilishi kuzatiladi. Bu adabiyotshunoslikda “reminissensiya” istilohi bilan ataladi. Poststrukturalizm tarafdorlari reminissensiyani badiiy asar tabiatini belgilovchi qonuniyat sifatida baholashadi. Ular matnni keng ma’noda adabiyot, madaniyat, jamiyat, tarix, inson tarzida tushunib, insoniyat madaniyati to‘laligicha bitta intermatn sifatida yangi yaratilayotgan har qanday matnga asos bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlashadi. Strukturalistlar badiiy ijodda individuallikni inkor etib, tabiiy ravishda “subyekt o‘limi” (Fuqo), “muallif o‘limi” (R.Bart) konsepsiyalariga e’tibor qaratishgan.

“Matn” va “badiiy asar”ni bir-biridan farqlash intermatn va intermatnlik tushunchalarini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi. Adabiyotshunos M.Xolbekovning fikricha: “Hozirda adabiyotshunoslar adabiy-badiiy matn (nutq bundan mustasno – M.X.) “makon”iga yozuvchi tasvir va tavsiflagan narsalarni, hatto ifoda etgan g‘oya, konsepsiya, ma’no, bir so‘z bilan aytganda, badiiy mazmunni ham qo‘shishadi. Bunday paytda “matn” va “asar” so‘zlari sinonimga aylanadi. Shunga nisbat bermasdan, adabiyotshunoslikda matn deyilganda, avvalo, tor ma’noda nutqiy, keng ma’noda lisoniy birliklarning qat’iy tartibga solingan izchilligi, mantiqiy ketma-ketligi nazarda tutiladi. Shu sababdan, xususan, asarning asosiy (birinchi darajali) matni va asarning qo‘shimcha (ikkinchi darajali), ya’ni maxsus tadqiqot predmetiga aylangan sarlavha, izoh va iqtibos, epigraf va bag‘ishlov, muallif so‘zboshisi, asar yozilgan sanasi va joyi haqida ma’lumot, shuningdek asarda ishtirok etuvchi personajlar ro‘yxati hamda dramatik asar

remarka (muallifning asar matniga bergan tushuntirishi, sharh)laridan iborat matn alohida ajratiladi” [3:108].

Ko‘pgina asarlarda intermatnning bir unsuri sifatida epigraf keltirilishiga guvoh bo‘lamiz. “Epigraf matnning tarkibiy-semantik tuzilishining ajralmas elementi bo‘lmasa ham, ba’zi mualliflar undan muntazam ravishda foydalanadilar. Badiiy matnda epigraflar muallifning badiiy niyatini ochib berishga xizmat qiladi, shuningdek, matnning asosiy g‘oyasini, mavzusini tushunish uchun kitobxonga yo‘naltiruvchi vosita sifatida taqdim etiladi”[4:21]. Tadqiqotchi M.Xomidovaning yana qayd etishicha: “O’zbek badiiy matnlarida uchraydigan intertekstlar esa shakliy jihatdan quyidagicha tasniflanadi: allyuziya, reminissensiya, epigraf, sarlavha, iqtibos (havola, sitata). Intertekst sifatida o‘zbek badiiy matnlarida bu shakllar faol uchraydi va aynan ular intertekstuallikning barcha xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi” [4:14].

Odatda, toponim zamon va makonga taalluqli lingvistik maydon doirasida yuzaga keladi va matnni obyektiv voqelik bilan o‘zaro uyg‘unlashtiradi. Aytish kerakki, badiiy asarlardagi joy nomlarining etimologiyasi ham tahlilni mukammalashtiradi.

Shuningdek, badiiy voqelikning lirik va epik tasviri uyg‘unligini yaratishda she’riyatga urg‘u qaratilishi tabiiydir. Shundan kelib chiqib, mualliflarning she’riy intermatnlardan samarali foydalanishini to‘g‘ri tushunish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ijodkorlar asarlarida intermatnlik hodisasini tadqiq etish orqali asar jozibasini yanada chuqurroq anglab yetish mumkin. Natijada, ularning adabiyotda tutgan o‘rnini xolis baholash, ulardan to‘laqonli estetik zavq olish imkoni yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

5. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – B. 321.

6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 119, 285.

7. Xolbekov M. Struktur adabiyotshunoslik. – Toshkent: Navro‘z, 2014. – B. 108.

8. Xomidova M.F. Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik. / f.f.b.f.d. (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021. – B. 14-21.

REFLEKSIYA – DARS SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI VOSITA

Mirzoxidova Laylo Baxtiyorovna
Avloniy nomidagi pedagogik mahirat milliy instituti
Boshlang‘ich ta’lim va filologiya fanlari
metodikasi kafedrasi v.b. dotsenti

Annotatsiya. Maqolada refleksiyaning dars samaradorligini oshirishdagi ahamiyati, refleksiya o‘tkazish usullari, ko‘rinishlari, refleksiya namunasi varaqasi, taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: reflelsiya, fikr-mulohaza, didaktik asos, emotsional refleksiya, kognitiv refleksiya, faoliyat refleksiyasi, shaxsiy refleksiya, tavsiya.

Аннотация. *В статье представлены значение рефлексии в повышении эффективности урока, методы рефлексии, формы, образец листа рефлексии, предложения и рекомендации.*

Ключевые слова: *рефлексия, обратная связь, дидактическая основа, эмоциональная рефлексия, когнитивная рефлексия, деятельностная рефлексия, личностная рефлексия, рекомендация.*

Annotation. ***The article presents the importance of reflection in increasing the effectiveness of the lesson, reflection methods, forms, a sample reflection sheet, suggestions and recommendations.***

Key words: ***reflection, feedback, didactic basis, emotional reflection, cognitive reflection, activity reflection, personal reflection, recommendation.***

Biz tajribadan emas, balki tajriba ustida
mulohaza yuritish orqali o‘rganamiz.
Djon Dyuui

Zamonaviy pedagogikada dars jarayonining muvaffaqiyati nafaqat o‘qituvchining bilim darajasi yoki dars rejasi bilan, balki o‘quvchilarning anglash, baholash va o‘z ustida ishlash qobiliyatlarini shakllantira olganlik bilan ham belgilanadi. Buning asosiy vositalaridan biri bu **refleksiya**. Refleksiya darsdan so‘ng o‘quvchi va o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilishi, natijalarni anglab, kelgusi o‘sish uchun strategiyalar ishlab chiqishidir. Mazkur maqola refleksiya metodikasining mohiyati, afzalliklari va uni dars jarayonida samarali qo‘llash yo‘llarini tahlil qiladi.

Refleksiya (lotincha “reflexio” – “qaytish, aks ettirish”) – shaxsning o‘z fikrlari, harakatlari va tajribasini tahlil qilishi orqali anglash va baholash jarayonidir. Pedagogik kontekstdagi refleksiya esa o‘qituvchi va o‘quvchining o‘z o‘qitish/o‘rganish faoliyatini anglab yetish, uni samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan ichki mulohazalar tizimini anglatadi.

*Refleksiyaning d**idaktik asoslari:***

Konstruktivizm nazariyasi: o‘quvchi o‘z bilimini faol ravishda shakllantiradi, refleksiya esa bu jarayonni tahlil qilish imkonini beradi.

Metakognitiv yondashuv: o‘z o‘rganish jarayonini anglash va boshqarish.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim: o‘quvchining ichki ehtiyojlari, qiziqishlari va rivojlanishiga moslashuvchan yondashuv.

Refleksiya turlari

Refleksiya ko‘p shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Quyida ularning pedagogik amaliyotda eng ko‘p qo‘llaniladigan turlari keltirilgan:

Refleksiya turi	Tavsifi
Emotsional refleksiya	Dars davomida o‘quvchi qanday his qilganini anglash (qiziqish, zerikish, motivatsiya)
Kognitiv refleksiya	O‘zlashtirilgan bilimlar, tushunilishi qiyin bo‘lgan jihatlar haqida mulohaza yuritish
Faoliyat refleksiyasi	O‘z faoliyatining muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz jihatlarini aniqlash
Shaxsiy refleksiya	O‘z ustida ishlash, o‘sishi va natijali faoliyat haqida fikr yuritish

Dars jarayonida refleksiyani tashkil etish usullari

Refleksiyani samarali amalga oshirish uchun uni rejalashtirilgan va tizimli tarzda tashkil etish muhim sanaladi. Quyidagi bir nechta usullar tavsiya etiladi:

❖ **Boshlang‘ich bosqich refleksiyasi**

Dars boshida o‘quvchining kayfiyati, tayyorgarligi va oldingi mavzuni eslash holatini aniqlash.

Misol: *“Bugungi darsdan nima kutyapsiz?”, “O‘tgan mavzu sizda qanday taassurot qoldirdi?”*

❖ **Dars davomida refleksiya**

Jarayon mobaynida qisqa pauzalar orqali o‘quvchilarga savol berish: ***“Bu qism siz uchun tushunarli bo‘ldimi?”, “Nimani hali to‘liq anglamadingiz?”***

❖ **Yakuniy refleksiya**

Dars so‘ngida umumiy baholash:

“Men bugun o‘rgandim…”

“Menga eng qiziq bo‘lgan qism…”

“Men hali quyidagilar ustida ishlashim kerak…”

Refleksiya natijalarini tahlil qilish va darsni takomillashtirish

Refleksiya natijalari faqat yig‘ish uchungina emas, balki tahlil va strategik qarorlar qabul qilish, kelgusi faoliyatni rejalashtirish uchun ham zarur:

O‘quvchilar tomonidan tushunilishi qiyin mavzular, topshiriqlar, usullar aniqlanadi;

O‘qituvchining metodikasi qayta ko‘rib chiqiladi;

Individual va differensial yondashuvga imkon yaratiladi.

Refleksiya modellari

Gibbs refleksiya sikli	**Brukfildning to‘rtta linzasi**	**Ritxart refleksiya sikli**
Bosqichlar:	**Perspektivalar (nuqtayi-nazarlar):**	**Bosqichlar:**
1. **Tasvir**: Nima sodir bo‘ldi? 2. **Hissiyotlar:** nima haqida o‘yladingiz yoki nimalarni his qildingiz? 3. **Baholash**: ushbu tajriba (voqea-hodisa)ning yaxshi va yomon taraflari nima edi? 4. **Tahlil:** ushbu vaziyatdan qanday ma’no/xulosa chiqarish mumkin? 5. **Xulosa**: nimalarni boshqacha bajargan bo‘lardingiz? 6. **Harakatlar rejasi**: kelajakda shu singari vaziyatlarni qanday uddalaysiz?	1. **Shaxsiy linza:** shaxsining o‘z tajribalari va taxminlari xususida refleksiv mushohoda qilishi. 2. **O‘quvchilar linzasi:** o‘quvchilardan keluvchi qayta aloqa va reaksiya haqida o‘ylab ko‘rish. 3. **Hamkasblar linzasi:** o‘zaro kuzatuv hamda hamkorlikda ishlash orqali tushunchaga ega bo‘lish. 4. **Nazariya linzasi:** tajribalarni talqin va tahlil qilishda ta’limiy nazariyalardan foydalanish.	**1. Tavsiflash:** nima sodir bo‘ldi? Qanday voqea yoki dars haqida o‘ylayapsiz? **2. Tahlil qilish:** qaysi elementlar samarali bo‘ldi yoki bo‘lmadi? **3. Izoh berish:** bu tajriba sizga nimani ko‘rsatdi? Nimalarni boshqacha qilish mumkin edi? **4. Baholash:** bu tajribadan qanday saboq chiqardingiz? Bu tajriba sizning o‘qituvchilik yondashuvingizga qanday ta’sir qiladi? **5. Reja tuzish:** keyingi safar nimani boshqacha qilasiz? Qanday o‘zgarishlar kiritasiz?

Refleksiya – o‘qituvchi kompetensiyasining ajralmas qismi

Zamonaviy o‘qituvchi quyidagi reflektiv kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur:

- ✓ O‘z faoliyatini tahlil qila olish;
- ✓ O‘quvchilarning fikr-mulohazalarini qabul qilish;
- ✓ O‘zini rivojlantirishga tayyorlik.

Mashg‘ulot uchun refleksiya savollari namunasi

Darsdan oldin (motivatsion refleksiya)

O‘quvchilarning darsga kayfiyati, kutayotgan natijasi va tayyorgarligini aniqlash uchun:

- ➢ Bugungi darsdan nimalarni o‘rganishni xohlaysiz?
- ➢ Siz uchun bu mavzu qanday ahamiyatga ega deb o‘ylaysiz?
- ➢ O‘zingizni hozir darsga tayyor deb his qilyapsizmi? Nima uchun?
- ➢ O‘tgan darsdagi mavzu yuzasidan sizda qanday savollar qolgandi?

Dars jarayonida (oraliq refleksiya)

Tushunilganlik darajasini va qiziqishni baholash uchun:

- ➢ Hozirgacha o‘rganganlaringizdan qaysi biri siz uchun eng muhim bo‘ldi?
- ➢ Shu paytgacha sizga tushunarli va tushunarsiz bo‘lgan qism qaysi?

- O‘zingizni dars jarayonida faol ishtirok etayotganingizni his qildingizmi?
- Dars jarayonida faol ishtirok etishingizga nimalar sabab bo‘lmoqda?
- Sizningcha bu mashg‘ulot sizning kundalik hayotingizda qanday foyda keltiradi?

Dars yakunida (yakuniy refleksiya)
Dars natijalarini tahlil qilish, o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun:

- Bugungi darsda siz nimalarni o‘rgandingiz?
- Sizni ajablantirgan yoki hayratlantirgan fikr, voqea bo‘ldimi?
- Darsning qaysi bosqichini yoki mavzuning qaysi qismni yana qayta ko‘rib chiqish kerak deb o‘ylaysiz?
- O‘zingizning faol ishtirokingizga qanday baho berasiz (1 dan 5 gacha)?
- Kelgusi dars uchun qanday savollar yoki takliflaringiz bor?

Shaxsiy va emotsional refleksiya (*chuqurroq tahlil uchun*)
Yuqori sinf o‘quvchilari uchun tavsiya etiladi:

- Bugungi dars sizda qanday his-tuyg‘ularga sabab bo‘ldi?
- O‘zingizdagi qanday o‘zgarishni sezdingiz (bilim, fikr, nuqtayi nazar)?
- O‘zingizni bu mavzuda qanday baholaysiz: kuchli va zaif tomonlaringiz qanday?
- Dars davomida sizda qanday savollar paydo bo‘ldi va ularga javob topdingizmi?

📌 Qo‘shimcha tavsiyalar:

Ushbu savollarni yozma yoki og‘zaki shaklda berish mumkin.

Refleksiya jurnali yoki Google Form shaklida muntazam yuritilsa, o‘quvchi rivoji kuzatib boriladi.

Har darsdan keyin 2-3 daqiqa refleksiya qilish o‘qituvchining ham o‘z uslubini tahlil qilishiga xizmat qiladi.

Refleksiya blanka namunasi

Dars mavzusi: _____
Sana: _____
O‘quvchining ismi: _____
O‘qituvchi: _____

I. Bilim refleksiyasi.
1. Bugungi darsda nimalarni o‘rgandingiz?
.....
.....

2. Qaysi qismi siz uchun eng tushunarli bo‘ldi?
3. .....
4. .....
Darsda eng qiyin bo‘lgan joyi qaysi edi?
.....
.....
II. Faollik va ishtirok refleksiyasi.
1. Darsda faol ishtirok etdizmi?
☐ Ha ☐ Qisman ☐ Yo‘q

2. O‘zingizning ishtirokingizga baho bering:
(1 past, 5 – yuqori)
☐ 1 ☐ 2 ☐ 3 ☐ 4 ☐ 5

III. Emotsional refleksiya.
1. Bugungi darsda qanday hissiyotlar his qildingiz?
☐ Qiziqish ☐ Zerikish ☐ Hayrat ☐ Ishtiyoq ☐ Tushunmovchilik
2. Bu dars sizni qanday fikrlarga olib keldi?
.....
.....
IV. Keyingi bosqich.
Yana nimalarni o‘rganishni istaysiz?
.....
.....
O‘zingizga qanday vazifa qo‘ymoqchisiz?
.....
.....
Sana: _____
Imzo (*ixtiyoriy*): _____

Refleksiya – bu oddiygina fikr bildirish emas, balki dars jarayonining ichki mexanizmlarini anglash va uni takomillashtirish vositasi. Uning doimiy va maqsadli qo‘llanilishi orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish qobiliyati, o‘z-o‘zini baholash madaniyati rivojlanadi. O‘qituvchi uchun esa bu samaradorlikni ta’minlash, yangilanish va pedagogik mahoratni oshirish kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdukodirova M., G‘ofurova M. *Pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar*. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2021.
2. Axmedova.S. *Zamonaviy darsda refleksiya metodlaridan foydalanish*. //O‘zbekiston xalq ta’limi jurnali, 2019, №2. 34-37-betlar.
3. Qodirova D.M. *Ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.

4. Yuldasheva N. *Dars jarayonida o‘quvchilarning reflektiv fikrlashini shakllantirish yo‘llari*. //Xalq ta’limi, 2020, №4. 22-25-betlar.

5. Ibragimova G. *Refleksiya vositasida dars samaradorligini oshirish metodikasi*. //Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: 2021.116-120-betlar.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O‘QITISH MUHITINI LOYIHALASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Kurbonova Gulmira Usmonovna
Samarqand davlat universiteti
maqsadli tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kollaborativ o‘qitish muhitini loyihalash masalasi muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada pedagogik bo‘lajak o‘qituvchilarda kollaborativ o‘qitish muhitini loyihalash ko‘nikmasini rivojlantirishning mazmuni, ahamiyati, usullari va amaliy yechimlarini tahlili masalalari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: kollaboratsiya, pedagogik kollaboratsiya, pedagogik hamkorlik, ilmiy manbaalar, metodlar.

Аннотация. В статье рассматривается проблема проектирования совместной учебной среды. В статье также рассматриваются содержание, значение, методы и практические решения по формированию навыков проектирования совместной учебной среды у будущих учителей.

Ключевые слова: сотрудничество, педагогическое сотрудничество, педагогическое сотрудничество, научные источники, методы.

Abstract. This article discusses the issue of designing a collaborative learning environment. The article also discusses the content, importance, methods and practical solutions for developing the skills of designing a collaborative learning environment in future teachers.

Key words: collaboration, pedagogical collaboration, pedagogical cooperation, scientific sources, methods.

Bugungi kunda ta’lim tizimi jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Innovatsion texnologiyalar, interaktiv yondashuvlar, raqamli vositalar hamda zamonaviy metodikalar orqali ta’lim jarayoni takomillashmoqda. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, jamoaviy ishlashi va o‘zaro hamkorlikda bilim olishiga qaratilmoqda. Bu esa kollaborativ (hamkorlikka asoslangan) o‘qitish muhitining ahamiyatini oshiradi. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilar ushbu muhitni to‘g‘ri loyihalash va uni samarali tashkil etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur.

Kollaborativ o‘qitish - bu o‘quvchilar o‘rtasida faol muloqot, fikr almashish, birgalikda muammoni hal qilish va bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga qaratilgan

o‘qitish uslubidir. Bu yondashuvda o‘quvchilar darsda faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo‘lib, bilimlarni o‘zaro almashadi va mustahkamlaydi.

Kollaborativ muhitni quyidagicha tavsiflash mumkin:

• Faol ishtirok: O‘quvchilar va o‘qituvchilar dars jarayonida birgalikda ishlaydi.

• O‘zaro hurmat: Har bir ishtirokchining fikri qadrlanadi va baholanadi.

• Mas’uliyatni bo‘lishish: Har kim o‘z guruhidagi vazifalarni bajarishda javobgarlikni his qiladi.

• Refleksiya: O‘quvchilar o‘z faoliyatini tahlil qiladi, xatolarni aniqlaydi va o‘rganadi.

Demak, bu muhitda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki rahbar, fasilitator va tashkilotchi rolini o‘ynaydi. Shu bois, bo‘lajak o‘qituvchilarni kollaborativ o‘qitish muhitini loyihalashga o‘rgatish katta ahamiyat kasb etadi.

Kollaborativ ta’lim - XXI asr talablari, xususan, muloqot qilish, jamoaviy ishlash, muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash kabi kompetensiyalarni rivojlantirishda eng samarali vositalardan biridir. Bo‘lajak o‘qituvchilar bu uslubni o‘zlashtirsa, ularning darslari samarador bo‘ladi.

Hozirgi avlod o‘quvchilari faollikni, erkin fikr bildirishni, mustaqil ishlashni xohlaydi. Kollaborativ muhit aynan shunday imkoniyatlarni yaratadi. Bo‘lajak o‘qituvchi esa ushbu ehtiyojlarni inobatga olib dars loyihalashi lozim.

Kollaborativ darslarni tashkil etish uchun o‘qituvchi yetarli darajada tashkilotchilik, rahbarlik, muloqot o‘rnatish, muammoni hal qilish va baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Bu ko‘nikmalar esa o‘qituvchilik faoliyatining asosi hisoblanadi.

Kollaborativ o‘qitish muhitini loyihalash bosqichlari quyidagilardan iborat.

Bo‘lajak o‘qituvchilar quyidagi bosqichlar orqali samarali kollaborativ o‘quv muhitini loyihalashi mumkin:

1. Tahlil va rejalashtirish

• Dars mavzusiga mos metodlarni tanlash

• Guruh shakllarini belgilash (juftlik, kichik guruh, katta guruh)

• Har bir guruh uchun topshiriqlarni loyihalash

• O‘quvchilarning faolligini ta’minlaydigan vositalarni tanlash (interaktiv texnologiyalar, raqamli platformalar)

2. Resurslarni tayyorlash

• Vizual va yozma materiallar

• Raqamli vositalar (Jamboard, Padlet, Google Docs va boshqalar)

• Baholash mezonlari va refleksiya shakllari

3. Faoliyatni tashkil qilish

• Darsni ochiq va tushunarli yo‘l bilan boshlash

• Har bir o‘quvchining ishtirokini rag‘batlantirish

• Guruhlarga yo‘naltirish va qo‘llab-quvvatlash

4. Tahlil va baholash

• Jarayonni tahlil qilish

• O‘quvchilarning refleksiyasini tinglash
• O‘qituvchining o‘z faoliyatini baholashi

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kollaborativ o‘qitish muhitini loyihalash ko‘nikmasini rivojlantirish – zamonaviy ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Bu ko‘nikma o‘qituvchining nafaqat kasbiy tayyorgarligini, balki liderlik, muloqot, innovatsion yondashuvlar bilan ishlash qobiliyatini ham oshiradi. Kollaborativ o‘qitish muhitini to‘g‘ri loyihalagan o‘qituvchi o‘quvchilarni faollikka undaydi, ularda mas’uliyat hissini rivojlantiradi va natijada ta’lim samaradorligini oshiradi. Demak, pedagogik ta’lim yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalarga zamonaviy metodikalarni o‘rgatish, ularni real dars vaziyatlariga tayyorlash, kollaboratsiyani tashkil etish bo‘yicha maxsus treninglar o‘tkazish zarur. Bu orqali biz nafaqat raqobatbardosh, balki jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan zamonaviy o‘qituvchilarni tarbiyalay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Johnson D.W. et al. Impact of group processing on achievement in cooperative groups / D.W. Johnson // The Journal of Social Psychology. 1990. -T. 130. № 4. p. 507–516.
2. Балышев А.П. Коллаборативное обучение: к сущности понятия // Мир науки. Педагогика и психология World of Science. Pedagogy and psychology. 2023, Том 11, № 1. ISSN 2658-6282. – С.10.
3. Kagan S. Cooperative learning: Resources for teachers. - Printing and Reprographics, University of California, Riverside, 1989.

MADANIY-IJTIMOIY VA TA’LIMIY OMILLARNING BOLALARNING AQLIY RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Eshnazarova Farida Jo‘raqulovna
Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha
mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti Samarqand filiali dotsenti

Annotatsiya. Maqolada bolalarning aqliy rivojlanishini o‘lchashda qo‘llaniladigan ijtimoiy va madaniy moslashuvchanlik darajasi va uning ta’limiy amaliyotlarga qanday ta’sir qilishi haqida batafsil ma’lumot beriladi. Shuningdek, madaniy-ijtimoiy va ta’limiy omillarning bolalarning aqliy rivojlanishiga ta’siri masalasi muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar. Aqliy rivojlnish, layoqat, iqtidor, qobiliyat, psixik jarayonlar, rivojlanish, moslashuvchanlik.

Абстрактный. В статье представлена подробная информация об уровне социальной и культурной адаптивности, используемом для измерения интеллектуального развития детей, и о том, как он влияет на образовательную практику. Также будет обсуждаться влияние культурных, социальных и образовательных факторов на умственное развитие детей.

Ключевые слова. Умственное развитие, способности, талант, способность, психические процессы, развитие, адаптивность.

Abstract. The article provides detailed information on the level of social and cultural adaptation used to measure the mental development of children and how it affects educational practices. The issue of the influence of cultural, social and educational factors on the mental development of children is also discussed.

Key words. Mental development, ability, talent, ability, mental processes, development, adaptation.

Bugungi kunda respublikamizda ta’lim sohasida me’yoriy-huquqiy bazani tubdan takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalar, ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatiga integratsiya qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasidagi ilmiy, innovatsion-pedagogik faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan konseptual islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish” kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada maktabgacha ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv shakllarini joriy etish, maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb yo‘nalishlardan hisoblanadi.

Bolalarning aqliy rivojlanish darajasiga ta’sir qiluvchi omillar turli-tuman bo‘lib, ularning jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Birinchi navbatda, genetik omillar bolalarning aqliy rivojlanishiga asosiy ta’sir ko‘rsatuvchi faktorlar qatorida turadi. Genetika, bolalarining intellektual qobiliyatlari va o‘rganish salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Masalan, ba’zi bolalar tug‘ma aqliy salohiyatlarga ega bo‘lishadi, bu esa ularning maktabgacha yoshdagi o‘qish va matematikaga oid ko‘nikmalarini tezroq rivojlantirishlariga yordam beradi. [1].

Ikkinchidan, ijtimoiy-muhiy omillar ham bolalarning aqliy rivojlanish darajasini sezilarli darajada ta’sirlaydi. Bolalar oila muhitida, maktabda va do‘stlari bilan muloqot qilish jarayonida ko‘plab ijtimoiy va aqliy ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar. Oila a’zolarining ta’lim darajasi, oiladagi madaniy va ta’limiy faoliyatlar, shuningdek, ota-onalar bilan bolalar o‘rtasidagi muloqot sifati ularning aqliy rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Uchinchidan, ta’lim va tarbiya omillari. Bolalarning maktabgacha ta’lim muassasalarida va maktablarda olishgan ta’lim sifati, o‘qituvchilarning malakasi va dars berish metodikasi ularning aqliy rivojlanishini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yaxshi rejalashtirilgan ta’lim dasturlari va faol o‘qitish usullari

bolalarning fikrlash qobiliyatlarini, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini va ijodiy fikrlashlarini rivojlantirishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, atrof-muhitning ta’siri. Bolalarning aqliy rivojlanish darajasiga ularning kunlik hayotida uchraydigan atrof-muhit sharoitlari ham ta’sir qiladi. Masalan, shovqinli yoki stressli muhit bolalarning diqqatini jamlash qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, bu esa ularning o‘qish va o‘rganish jarayonlarini qiyinlashtiradi. Aksincha, qo‘llab-quvvatlovchi va rag‘batlantiruvchi muhit esa bolalarning aqliy rivojlanishini ijobiy yo‘nalishda rag‘batlantiradi.

Bularning barchasi, bolalarning aqliy rivojlanish darajasiga ta’sir qiluvchi omillarni ko‘rsatadi. Ushbu omillarni hisobga olish, bolalarning aqliy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarning aqliy rivojlanishini o‘lchashda qo‘llaniladigan metodlar turli ijtimoiy va madaniy omillarni inobatga olishi zarur, chunki bu omillar bolalarning test natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ijtimoiy va madaniy moslashuvchanlik darajasi, bolalarning turli madaniy va ijtimoiy muhitlarda qanday qilib o‘zlarini ifoda etishlari va muloqot qilishlari bilan belgilanadi. [2].

Aqliy rivojlanishni baholashda ishlatiladigan testlar va metodlar bu xilma-xillikni hisobga olishi kerak, shunda ularning samaradorligi oshadi va natijalar aniqroq bo‘ladi. Masalan, turli til va madaniyatga mansub bolalar uchun ishlatiladigan testlar ularning madaniy kontekstini, til bilimlarini va ijtimoiy tajribalarini inobatga olishi lozim. Agar testlar faqat bir madaniy yoki ijtimoiy guruhning normativ ko‘rsatkichlariga asoslanib ishlab chiqilsa, bu boshqa guruhlar uchun noaniq yoki adolatsiz natijalarni berishi mumkin.

Shuningdek, aqliy rivojlanishni baholashda ishlatiladigan testlar bolalarning ijtimoiy muhitiga moslashuvchan bo‘lishi zarur. Bolalar o‘z oilalari va atrof-muhitlaridan olgan ta’lim va tarbiya bilan shakllanadi, shu sababli ularning aqliy qobiliyatlari ham shu asosda rivojlanadi. Testlar bu xususiyatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi, bolalarning haqiqiy aqliy salohiyatini aniqroq aks ettirish imkonini beradi.

Madaniy moslashuvchanlik darajasi, shuningdek, o‘qituvchilar va ta’lim beruvchilar uchun ham muhimdir. Ular o‘z ta’lim metodikalarini bolalarning madaniy va ijtimoiy ehtiyojlariga moslab o‘zgartirishlari kerak. Bu, o‘qitish jarayonini yanada samarali qiladi va barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratishga yordam beradi. [3,4].

Demak, bolalarning aqliy rivojlanishini o‘lchashda qo‘llaniladigan testlar va metodlar ijtimoiy va madaniy moslashuvchanlik darajasini yuqori darajada e'tiborga olishi kerak. Bu yondashuv, bolalarning turli xil madaniy va ijtimoiy muhitlaridan kelib chiqqan xilma-xil qobiliyat va salohiyatlarini to‘g‘ri baholash imkonini beradi va ta’lim sifatini oshiradi.

Bolalarning aqliy rivojlanishiga ta’sir qiluvchi madaniy-ijtimoiy omillar juda ko‘p va xilma-xil bo‘lib, ularning har biri bolalar o‘zlarining bilim va qobiliyatlarini qanday rivojlantirishlariga bevosita ta’sir qiladi. Ushbu omillar orasida oilaviy muhit, ta’lim darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, madaniy meros va til ko‘nikmalari muhim o‘rin tutadi.

Oila muhiti va ta’lim darajasi: Oila muhiti bolaning ilk ta’lim va tarbiyasini belgilaydi. Ota-onalarining o‘z farzandlariga beradigan e'tibori, ularga ta’lim-tarbiya berish uslublari va oiladagi umumiy madaniy faollik bolalar uchun rag‘batlantiruvchi muhit yaratadi. Ota-onalarining o‘zlarining bilim darajasi va ta’limiy faolligi, shuningdek ularning bolalar bilan o‘tkazadigan sifatli vaqt ularning aqliy va til rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar: Bolalar ta’lim olish imkoniyatlari va sifatli ta’lim materiallariga kirish huquqi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog‘liq. Yuqori daromadli oilalarning bolalari ko‘pincha yaxshi resurslarga ega bo‘lib, ular yanada yaxshi ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Kam daromadli oilalarning bolalari esa ko‘pincha kam resursli maktablarda o‘qishga majbur bo‘lishadi, bu esa ularning aqliy rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Madaniy meros va til ko‘nikmalari: Har bir madaniyatning o‘ziga xos ta’lim an'analari mavjud bo‘lib, bu an'analar bolalarning dunyoqarashini shakllantiradi. Madaniyatlararo muloqot va ko‘p tilli muhit bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularning boshqa madaniyatlar va tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Til ko‘nikmalari bolalarning o‘qish va yozish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki til o‘rganish ularning mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini ham yaxshilaydi.

Oila muhiti va tarbiya uslublari bolalarning aqliy rivojlanishi uchun asosiy omillar hisoblanadi, chunki bu omillar bolalarning xulq-atvori, o‘rganish qobiliyatlari va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Oila muhiti, bolalarning ruhiy va emotsional holatini qo‘llab-quvvatlashda asosiy rol o‘ynaydi, bu esa ularning o‘qish va yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish qobiliyatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi.

Birinchidan, oila muhitining ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi xususiyati bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ularga o‘rganish jarayonida faol qatnashish uchun zarur bo‘lgan ruhiy barqarorlikni ta’minlaydi. Ota-onalar tomonidan ko‘rsatilgan mehr-oqibat va qo‘llab-quvvatlash, bolalar o‘zlarining fikrlarini erkin ifoda etishga va yangiliklarga ochiq bo‘lishga undaydi, bu esa ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, ota-onalar qo‘llaydigan tarbiya uslublari bolalarning mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, demokratik tarbiya uslubi, bolalarga muayyan darajada erkinlik berib, ularning qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etishlarini rag‘batlantiradi. Bu uslub bolalarning muammolarni hal qilishda mustaqil fikrlashlarini va vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyatlarini oshiradi, natijada ularning umumiy aqliy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, oila muhitida ta’limiy resurslarning mavjudligi ham bolalarning aqliy rivojlanishiga ta’sir qiluvchi muhim omildir. Kutubxonalar, o‘quv materiallari va ta’limiy o‘yinlarga bo‘lgan kirish imkoniyati bolalarning bilim olishlarini kengaytiradi va ularning o‘qish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Shuningdek, ota-onalar bilan birgalikda o‘qish va o‘yin o‘ynash kabi faoliyatlar, bolalarning til va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini yaxshilaydi.

To‘rtinchidan, oilaviy muhitning barqarorligi va o‘zaro hurmat muhiti bolalarning emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir qiladi. Oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va tushunish muhiti bolalarga o‘z his-tuyg‘ularini sog‘lom ifoda etish va boshqalar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, oila muhiti va tarbiya uslublari bolalarning aqliy va emotsional rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillarni optimallashtirish orqali, bolalar o‘zlarining to‘liq ijtimoiy va aqliy potentsiallarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Robinson, S., & Kim, J. (2022). "Factors Influencing Cognitive Development in Early Childhood." Educational Research Review, 66(3), 188-204.
2. Richard J. Haier “Aqliy samaradorlikka psixofiziologik yondashuv”, 2001.
3. Linda S. Gottfredson “Intellektual kompetentsiyalarni o‘lchashning zamonaviy usullari”, 2003.
4. Уолтер Б. Кэннон. Теория эмоций Джеймса-Ланге. Критический обзор и альтернатива. В кн.: Психология мотивации и эмоций /Под ред. Ю. Б. Гиппенрейтер, М. В. Фаликман.-М.: АСТ:Астрель, 2009. – 704 с.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PROGNOSTIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ikromova Munisa Sheraliyevna
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi
moxa_1992@mail.ru
+998337554224

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda prognostik (bashorat qilish) kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari yoritilgan. Mazkur kompetensiya o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligida muhim o‘rin egallab, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilar ehtiyojlarini oldindan ko‘ra bilish, o‘zgaruvchan ta’lim muhitiga moslashish kabi faoliyatlarda asosiy rol o‘ynaydi. Maqolada prognostik kompetensiyaning mazmuni, tuzilmasi va tarkibiy komponentlari (bilimiy, faoliyatga oid, fikrlashga oid) ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, kompetentlik, prognozlash kompetensiyasi, axborotga asoslangan prognozlash kompetensiyasi, amaliy-prognozlash kompetensiyasi, baholovchi-prognozlash kompetensiyasi, rejalashtirishga asoslangan prognozlash kompetensiyasi, maxsus prognozlash kompetensiyasi, xususiy-kasbiy kompetensiya.*

Аннотация: *В данной статье раскрываются теоретические основы формирования прогностической компетентности у будущих учителей. Данная компетентность занимает важное место в профессиональной подготовке педагогов, играя ключевую роль в повышении эффективности образовательного процесса, способности предвидеть потребности обучающихся и адаптироваться к меняющейся образовательной среде. В статье анализируются содержание, структура и составные компоненты прогностической компетентности (знания, деятельностные и мыслительные аспекты) на основе научных источников.*

Ключевые слова: *компетенция, компетентность, прогностическая компетенция, информационно-прогностическая компетенция, практико-прогностическая компетенция, оценочно-прогностическая компетенция, планово-прогностическая компетенция, специальная прогностическая компетенция, частно-профессиональная компетенция.*

Abstract: *This article reveals the theoretical foundations of forming prognostic competence in future teachers. This competence occupies an important place in the professional training of educators, playing a key role in increasing the effectiveness of the educational process, the ability to anticipate the needs of learners, and adapt to the changing educational environment. The article analyzes the content, structure, and constituent components of prognostic competence (knowledge, activity-related, and cognitive aspects) based on scientific sources.*

Key words: *competence, competency, prognostic competence, informational-prognostic competence, practical-prognostic competence, evaluative-prognostic competence, planning-prognostic competence, special prognostic competence, private-professional competence.*

Zamonaviy ta’lim jarayonining muhim maqsadlaridan biri bu — pedagogika yo‘nalishidagi oliygoh talabalari prognozlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Tez sur’atlarda o‘zgarib borayotgan ijtimoiy va ta’limiy muhitda pedagoglarning voqealarni oldindan ko‘ra bilish qobiliyati va o‘zgarishlarga moslasha olish layoqati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Olimlarning ta’kidlashicha murakkab kasbiy vazifalarni hal qila oladigan va ta’lim amaliyotiga innovatsion usullarni joriy etishga qodir yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash zarurati dolzarb ahamiyatga ega[48].

Prognozlash kompetentligini rivojlantirish masalasi bo‘yicha B.S.Gershunskiy, I.K.Jujuravlyov, S.Y.Batyshev, L.F.Spirin, I.Y.Lerner, Y.K.Babanskiy tomonidan muhim ilmiy ishlar olib borilgan. Prognozlashning falsafiy jihatlari S.G.Goncharuk, V.V.Kosolapov, V.P.Tugarinov va G.I.Ruzavin tomonidan tadqiq etilgan. Prognozlash amaliyotining umumiy nazariy asoslari N.I.Jinkin, V.A.Brushlinskiy, P.K.Anoxin va B.F.Lomov asarlarida bayon etilgan. Shuningdek, prognozlash kompetentligini o‘rganishga xorijiy tadqiqotchilardan

[48] Сайфуллина Н.А. Структурно-содержательная характеристика прогностической компетентности студентов педагогической магистратуры // Ped.Rev. 2020. № 4. С. 32.

J.Stover, A.Hoffmann, K.Trundle, M.Bong, S.Sungok, Y.Cho, D.R.Horge, F.F.Hood, R.T.Willis ham o‘z hissasini qo‘shgan.

Prognozlash kompetensiyasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega, chunki u pedagogning kasbiy ko‘nikmalarining ajralmas qismidir. B.D.Kucherning[49] fikricha voqealarni oldindan bashorat qilish qobiliyati o‘qituvchilarga nafaqat ehtimoliy muammolar va xatarlarni aniqlash, balki ularni yengib o‘tish uchun strategik rejalashtirish imkonini beradi. Bu esa ta’lim jarayonining sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari orasida prognozlash ko‘nikmalarining hozirgi rivojlanish darajasini aniqlash va ushbu kompetensiyani ta’lim dasturlari doirasida chuqurroq o‘rganish muhim hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogika fanlarida “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari o‘rtasida farqlash kuzatiladi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, kompetentlik — kompetensiyadan hosil bo‘lgan tushuncha hisoblanadi. S.I.Dyakov fikricha, kompetentlik — bu shaxsning individualligi sifatida namoyon bo‘ladigan, ta’lim jarayonida egallangan bilimlar va tajriba asosida faoliyat yuritishga tayyorligi va qobiliyatidir. Kompetensiya esa ta’lim natijasini ifodalaydi, ya’ni abituriyentning aniq vazifalarni bajarishga tayyorligi va layoqatini aks ettiradi[50].

Y.V.Frolov[51]ning ta’kidlashicha prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirish — bu prognozlash harakatlarini o‘zlashtirish va ularni turli pedagogik kontekstlarda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va hamkorlik jarayonidir. Shu asosda, ilmiy adabiyotlarda “prognozlash kompetensiyasi” va “prognozlash kompetentligi” tushunchalari ajratib ko‘rsatiladi.

Prognozlash kompetensiyasi — bu kasbiy faoliyatda yuzaga kelayotgan voqealar va holatlarni oldindan aytib berish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi bo‘lib, mavjud tendensiyalarni tahlil qilish, qonuniyatlarni aniqlash va belgilangan maqsadlarga erishish uchun strategik rejalar ishlab chiqish qobiliyatini o‘z ichiga oladi[52].

Prognozlash kompetentligi esa — bu shaxsning kompleks sifati bo‘lib, unda prognozlash kompetensiyasini amaliy faoliyatda samarali qo‘llay olishga tayyorlik va layoqat ifodalanadi. Bu kompetentlik muammolar va xatarlarni oldindan ko‘ra bilish, ularni oldini olish bo‘yicha adekvat choralarni ishlab chiqish va o‘zgarishlarga moslasha olish qobiliyatlarida namoyon bo‘ladi[53].

---

[49] Кучер Б.Д. Формирование профессиональной компетентности учителей: сущность, структура и функции // Концепт. 2024. № 4. С. 159-165.

[50] Дьяков С.И., Добряк С.Ю., Кисин К.А. Взаимосвязь понятий «Формирование» и «Развитие» и их роль в педагогической теории и практике // Педагогический журнал. 2023. № 5А. Т. 13. С. 525-536

[51] Фролов Ю.В., Махотин Д.А. Компетентностная модель как основа оценки качества подготовки специалистов // Высшее образование сегодня. 2020. № 8. С. 34-41.

[52] Новая психология профессионального труда педагога: от нестабильной реальности к устойчивому развитию: сб. ст. Под ред. Л.М. Митиной. М: Психологический институт РАО, 2021. 356 с.

[53] Никитина Л.Е., Липский И.А., Майорова-Щеглова С.Н. Педагогическое прогнозирование: науч.-метод. пос. Под общ. ред. Л.Е. Никитиной. М.: НОУ ВПО Московский психолого-социальный институт, 2021. 288 с.

Darhaqiqat, bo‘lajak o‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyatida har kuni prognozlash jarayonlari va vaziyatlariga duch keladi, bu esa ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va o‘quvchilar bilan muvaffaqiyatli muloqotga kirishish uchun zarurdir. Bo‘lajak o‘qituvchining prognozlash kompetentligi — bu shaxsning integrativ sifati bo‘lib, u kasbiy-nazariy bilimlar, shaxsiy fazilatlar, qadriyatga asoslangan munosabatlar, amaliy ko‘nikmalar hamda prognozlash faoliyatiga nisbatan motivatsion-axloqiy munosabat va tarbiyalanuvchilarning shaxsiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan o‘z-o‘zini prognozlashga intilishini o‘z ichiga oladi.

O.M.Rastopchina esa prognozlash kompetentligini kasbiy kompetentlik tarkibiy qismi sifatida ko‘radi[54]. Bu esa shuni anglatadiki, prognozlash kompetentligini egallash har kuni va kasbiy faoliyatda bashorat qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, shaxsiy kasbiy shakllanishning individual yo‘lini belgilash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda prognozlash kompetensiyasiga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, prognozlash kompetentligini quyidagi asosiy tarkibiy qismlar tashkil etadi:

Axborotga asoslangan prognozlash kompetensiyasi – bu prognozlash faoliyatining asoslarini, shuningdek, talabalarning ma’lumot bilan ishlash yo‘llarini to‘g‘ri tanlash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini ifodalaydi.

Amaliy-prognozlash kompetensiyasi – bu prognozlash uslublarini egallash, o‘quv, shaxsiy va boshqa faoliyat sohalariga oid individual bashoratlarni tuza olish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Baholovchi-prognozlash kompetensiyasi – bu o‘z faoliyatini prognozlash mezonlari asosida tahlil va baholash qobiliyatini anglatadi.

Rejalashtirishga asoslangan prognozlash kompetensiyasi – bu pedagog yoki o‘qituvchining ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, mavzulashtirilgan dars rejalarini tuzish, individual ta’lim yo‘nalishlarini ishlab chiqish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishdagi layoqatini bildiradi.

Maxsus prognozlash kompetensiyasi – ma’lum bir kasbiy faoliyatga tegishli prognozlash kompetensiyalarini anglatadi.

Xususiy-kasbiy kompetensiya – bu aniq kasbiy faoliyat turidagi ish yuritish darajasi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, ta’kidlash lozimki, ko‘plab bo‘lajak o‘qituvchilar amaliy faoliyatda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Buning sababi — ular pedagogik ta’sir va o‘zaro munosabatlarning kutilgan natijalarini oldindan belgilay olishda yetarlicha tayyorgarlikka ega emasligi, o‘quvchilarning imkoniyatlarini aniq baholay olmasliklari va ta’lim muhitidagi o‘zgarishlarga tezkor javob qaytarish ko‘nikmalarining sustligidir.

A.V.Zaxarov tomonidan taklif etilgan prognozlash ko‘nikmalari tuzilmasiga tayangan holda, **prognozlash kompetentligining** quyidagi tarkibiy qismlari ajratib ko‘rsatiladi[55]:

[54] Растопчина О.М. Прогностическая компетентность как составляющая профессиональной компетентности // Морские технологии: проблемы и решения 2020. С. 63-66.

[55] Растопчина О.М. Прогностическая компетентность как составляющая профессиональной компетентности // Морские технологии: проблемы и решения 2020. С. 63-66.

Bilimiy komponent – bu ta’lim jarayonida prognozlash bo‘yicha zarur nazariy bilimlarni, prognozlashning mantiqiy tuzilmasi va amaliy protseduralarini tushunishni shakllantiradi.

Faoliyatga oid komponent – bu faoliyatni prognozlash bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantiradi, masalan: sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash, mulohazalarni qayta tashkil qilish va o‘zgartirish.

Fikrlashga oid komponent – bu tahlil qilish, tafakkurning chuqurligi, ongli yondashuv, moslashuvchanlik, istiqbollilik va fikr yuritishning asoslanganligi kabi tafakkur jarayonlarining bir qator xususiyatlarini rivojlantiradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili va prognozlash kompetentligiga oid tushunchalarni tizimlashtirish orqali mazkur kompetensiyaning pedagog kadrlar tayyorlashdagi o‘rni va ahamiyati tasdiqlandi. **Prognozlash kompetentligining tarkibi** nafaqat bilim va faoliyatga oid jihatlarni, balki potentsial muammolarni oldindan ko‘ra olish hamda o‘zgarishlarga samarali javob qaytara olish imkonini beruvchi **fikrlash qobiliyatlarini** ham o‘z ichiga oladi. **Xulosa o‘rnida aytish mumkinki**, mazkur tadqiqot mavjud ta’lim dasturlarini qayta ko‘rib chiqish va yangilash, shuningdek, ularga prognozlash kompetentligini rivojlantiruvchi komponentlarni kiritish lozimligini asoslaydi. Bunday tarkibiy qismlarni kiritish bo‘lajak pedagoglarga o‘z kasbiy faoliyatlariga yaxshiroq tayyorgarlik ko‘rishga, muammolarni oldindan ko‘ra olish va ularni yengib o‘tish, shuningdek, o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida **ta’lim sifatining oshishiga** va zamonaviy ta’lim muhitining talablariga javob bera oladigan **raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga** xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Сайфуллина Н.А. Структурно-содержательная характеристика прогностической компетентности студентов педагогической магистратуры // Ped.Rev. 2020. № 4. С. 32.
2. Кучер Б.Д. Формирование профессиональной компетентности учителей: сущность, структура и функции // Концепт. 2024. № 4. С. 159-165.
3. Дьяков С.И., Добряк С.Ю., Кисин К.А. Взаимосвязь понятий «Формирование» и «Развитие» и их роль в педагогической теории и практике // Педагогический журнал. 2023. № 5А. Т. 13. С. 525-536
4. Фролов Ю.В., Махотин Д.А. Компетентностная модель как основа оценки качества подготовки специалистов // Высшее образование сегодня. 2020. № 8. С. 34-41.
5. Новая психология профессионального труда педагога: от нестабильной реальности к устойчивому развитию: сб. ст. Под ред. Л.М. Митиной. М: Психологический институт РАО, 2021. 356 с.
6. Никитина Л.Е., Липский И.А., Майорова-Щеглова С.Н. Педагогическое прогнозирование: науч.-метод. пос. Под общ. ред. Л.Е. Никитиной. М.: НОУ ВПО Московский психолого-социальный институт, 2021. 288 с.

7. Растопчина О.М. Прогностическая компетентность как составляющая профессиональной компетентности // Морские технологии: проблемы и решения 2020. С. 63-66.

O‘QITUVCHINING INDIVIDUAL KASBIY RIVOJLANISHINI TAKOMILLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

Okilova Kamola Sadulloyevna
Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi
Pedagogika, psixologiya va ta’lim
texnologiyalari kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada uzluksiz malaka oshirish ta’limi termini ta’lim oluvchilarning professional vazifalari doirasidagi bilimlarini muntazam oshirib borishni nazarda tutadi. Pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarga tutadi.

Kalit so‘zlar: ehtiyojlar, odatlar, shaxs, tadqiqot, natija, uzluksiz, rivojlanish, rag‘batlantirish, motivatsiya, tarbiya, tayyorgarlik, shaxs, ma’lumot.

Аннотатция. В данной статье термин «непрерывное профессиональное развитие» относится к систематическому совершенствованию знаний обучающихся в рамках их профессиональных обязанностей. Преподаватель стремится создать необходимые условия для постоянного повышения профессионального мастерства и эффективности педагогического коллектива.

Ключевые слова: компетенции, привычки, личность, исследование, результат, преемственность, организация, мотивация, обучение, подготовка, личность, информация.

Abstract. In this article, the term "continuous professional development" refers to the systematic improvement of students' knowledge within the scope of their professional responsibilities. The teacher strives to create the necessary conditions for the continuous improvement of the professional skills and effectiveness of the teaching staff.

Key words: competencies, habits, personality, research, result, continuity, organization, motivation, training, preparation, personality, information.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida o‘qituvchi faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish zarurati bir qator sabablarga ko‘ra yuzaga keladi, jumladan, ta’limni shaxsga yo‘naltirish va insonparvarlashtirish; umumiy o‘rta ta’lim uchun milliy o‘quv dasturlarining joriy etilishi munosabati bilan o‘quv jarayonini rejalashtirishga yondashuvlarning o‘zgarishi; boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’lim uchun davlat ta’lim dasturlari mazmunini yangilash; ta’lim tashkilotlarining raqobatbardoshligini kuchaytirish; inklyuziv ta’limni joriy etish va, umuman,

ta’lim sifatini oshirish. Shunga ko‘ra, pedagog kadrlarning malakasiga qo‘yiladigan talablar ham ortib bormoqda, umumta’lim tizimida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda uzluksiz malaka oshirish masalalari yangilanmoqda. Bunday holatda eng muhim omil o‘qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanish masalasi bo‘lib qoladi.

Ta’lim rivojlanishi uchun pedagog xodimning yangicha fikrlashi va o‘zgarishlarga moslashishi juda muhim. Bugungi kun tadqiqotlarida o‘qituvchilarda o‘zgarishlarni eng samarali tarzda keltirib chiqaradigan va o‘quv mashg‘ulotlari, o‘quvchilar uchun natijalarni yaxshilaydigan kasbiy rivojlanish tajribasining xususiyatlari hamda mohiyatini aniqlashga qiziqish ortib bormoqda. Masalan, Dezimone (Desimone) kasbiy rivojlanishning ta’siri bo‘yicha bir qator amaliy tadqiqotlar, korrelyasion, kvazi-eksperimental va eksperimental tadqiqotlarni olib bordi va kamida beshta xususiyat samarali kasbiy rivojlanishga olib kelishini aniqladi: kontent(mazmun)ga e’tibor, faol o‘rganish, izchillik, davomiylik va jamoaviy ishtirok.

O‘rganishlarimizga ko‘ra, bizningcha, o‘qituvchini samarali kasbiy rivojlantirishga olib keluvchi omillarning barchasi uchun harakatlantiruvchi kuch – uning motivatsiyasi bo‘lib, mavjud motiv kasbiga, bilishga va o‘z-o‘zini rivojlantirishga rag‘batlantiradi. O‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy o‘sishga bo‘lgan motivatsiyasi ma’lum bir ta’lim tashkilotining ta’lim amaliyotiga innovatsiyalarni kiritish va umuman butun ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning zarur shartidir. Ko‘pgina mahalliy va xorijiy olimlarning fikricha, aynan o‘qituvchining to‘g‘ri rivojlanayotgan motivatsion sohasi muvaffaqiyatli va samarali kasbiy faoliyatning asosi, shu jumladan, shaxsning ehtiyojlari, munosabati va yo‘nalishidir. Har bir sohada bo‘lganidek, xalq ta’limi sohasida ham kadrlar malakasini oshirish va ba’zan ularni qayta tayyorlash davlatning ijtimoiy rivojlanishi, ilm-fan hamda texnik taraqqiyot darajasi, ishlab chiqarish va mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga muvofiq, shuningdek, pedagoglarning shaxsiy talab va ehtiyojlarini hisobga olib, kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini chuqurlashtirish, boyitish, kompetentligini rivojlantirish hamda kasbiy yo‘naltirish maqsadida amalga oshiriladi. Ayniqsa, bugungi o‘qituvchiga talab oshgan, maktablardagi ta’limning ijtimoiy-iqtisodiy, texnik rivojlanishdan ortda qolayotgani borasidagi tahlillar bot-bot ko‘zga tashlanib turgan bir davrda o‘qituvchi uchun uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik suv va havodek zarur.

XTXUKR jarayonida o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda kurs tinglovchilarining shaxsiy rivojlanish sifatlari va qiziqishlarini inobatga olish muhim sanaladi. O‘qituvchilarda motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish orqali pedagogik faoliyatga raqobatbardoshligini ta’minlash ularda kasbiy kompetensiya, kasbiy ko‘nikma va malakalarning oshirilishiga erishiladi. Malaka oshirish jarayoni maqsadining aniq va puxta belgilanishi, o‘qituvchilarning ehtiyojlariga asoslanganligi uning muvaffaqiyatini ta’minlashga poydevor yaratadi. Bunda ularning psixologik-pedagogik xususiyatlari, ehtiyoj va qiziqishlari, kognitivligi, BKM, kompetentligi, kasb mahorati, kreativligi, ijodiy layoqati kabi xususiyatlarni inobatga olish muhim. Pedagog xodimlarda ta’lim va bilimga

bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytirish, mustaqil ishlashni, o‘z kasbiga hurmat va iftixor, qadriyat yaratish, tolerantlik tuyg‘usini shakllantirish motivatsion tayyorlikni rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Bunda shaxsdagi motivatsiya ko‘rinishlari hamda o‘z-o‘zini rivojlantirishga individual yondashishi, shuningdek, o‘z maqsadlarini, rejalarini jamiyat, tashkilot va jamoa rejalariga bog‘lay olishi yanada zaruriy shartdir.

O‘qituvchining olib borayotgan faoliyati, kasbi va o‘quvchilaridan kutilmalari unda motivlar paydo bo‘lish sabablarini izohlasa, uning kasbiy rivojlanish maydonini indiviual trayektoriyasini yaratishga bo‘lgan ishtiyoqi UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini belgilaydi hamda o‘ziga xos qarashlarni vujudga keltiradi. UKRda birlamchi sifat har bir o‘qituvchining o‘ziga xos individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasining mavjudligidir.

Shu o‘rinda individuallik, individuallashtirish, trayektoriya tushunchalariga izoh berib o‘tsak. Chunki, malaka oshirish jarayonini individuallashtirish, mavjud trayektoriya asosida harakatga yo‘naltirish muammolari o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi ta’lim muassasalari uchun dolzarb. Ya’ni, tinglovchilar jarayonda nafaqat katta hajmdagi yangi o‘quv materiali, axborotlarni o‘zlashtirishlari, balki avvalgi bilim, ko‘nikma, malakalarini joriy va istiqbol holatlarga rostlash, faoliyatlarini refleksiv tahlillash, kasbiy ehtiyojlari, qiyinchiliklari, vazifalarining maqbul yechimlarini topishlari zarur bo‘ladi. Bunday holatda individuallik o‘qituvchida motivatsiyani kuchaytirishga yordam beradi.

Individuallik nazariyasi asoschilaridan biri V.D.Shadrikov uni yoritar ekan, har bir inson shaxs sifatida alohida shakllanganligini va individualligini e’tirof etadi. Ta’kidlanishicha, insonning individualligi tug‘ma (tabiiy) hamda hayot davomida orttirilgan xislat va fazilatlarining qorishmasidir; u xulqining turg‘un shakllari, aqliy ko‘rsatkichlari, qiziqishlari, maqsadlari, xatti-harakatlari va boshqalarda aks etadi; ichki olamining mohiyati qalbi bilan aniqlanadi hamda munosabati orqali namoyon bo‘lishida ko‘rinadi.

Individuallashtirish deganda, har bir ta’lim oluvchining individual-psixologik xususiyatlari hisobga olinadigan, ularning o‘quv-biluv faoliyatini boshqarish tizimi tushuniladi. Individuallashtirilgan o‘qitish esa o‘quv jarayonini tashkillashtirishda individual yondashish asosida tanlangan o‘qitish yo‘llari va turli o‘quv-uslubiy, psixologik-pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali ta’minlanishidir.

Malaka oshirish kurslari davomidagi kuzatishlar pedagog xodimlarning barchasi ham mustaqil ravishda kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash, faoliyatlarini qayta qurish, o‘zaro ta’sir va kommunikativ munosabatlarga tez kirishish layoqatlariga yetarlicha ega emasliklari, motivatsiyaning pastligi hamda ko‘p ikkilanishlar mavjudligini ko‘rsatdi. Ular zaruriy adabiyotlar, malaka oshirish shakllarini tanlash, kasbiy ehtiyojlari va qiyinchiliklarini anglash, o‘zlarini namoyon qilish, pedagogik g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etish, qanday hollarda ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi qaysi subyektlarga murojaati mumkinligini aniqlashlarida amaliy yordamga muhtojlik sezadilar. Shu sababdan pedagoglarning kasbiy ehtiyojlarini qoplash, muayyan muammoli vaziyatlarda maqbul yechimlarni

topishda ichki salohiyatidan foydalanish, o‘z-o‘zini motivlashtirish, o‘z-o‘zini rag‘batlantirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish strategiyalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish, innovatsion jarayonlarga doir ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, tajribalarini yuzaga chiqarish, muxtasar aytganda, kasbiy rivojlanishlarida ilmiy-metodik kuzatuvni tashkillashtirish uchun qulay sharoitlar yaratishga asosiy e’tiborni qaratish zarur. Ya’ni bir tarafdan pedagog doimiy o‘sib borishi, o‘z malakasini oshirishga tayyor bo‘lishi, ikkinchi tarafdan, jamiyat tomonidan uning doimiy o‘qishi va rivojlanishiga bo‘lgan ehtiyojini ro‘yobga chiqarish uchun sharoit yaratilishi lozim. Demak, o‘qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi (O‘IKRT) pedagoglar uchun harakatlar algoritmini aniq rejalashtirishda qulay andaza vazifasini bajaradi.

Shu o‘rinda ilmiy-metodik kuzatuv – pedagogning professional o‘sishi va kompetentliligini rivojlantirishda maqbul sharoitlar yaratish, ta’lim subyektlari hamkorligini uyushtirishda boshqaruv texnologiyasini butun, tizimli, tashkiliy faoliyat sifatida amalga oshirilish jarayoni ekanligini ta’kidlash lozim [86; 214-b.].

Individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi XTXUKR muhitining chegaralari, imkoniyatlarini kengaytiradi, o‘qituvchilarda o‘zligini anglash, namoyon qilish, motivlarini mustahkamlash, motivatsion tayyorlik kompetentligini, shaxsiy-kasbiy sifatlarini uzluksiz rivojlantirishning qulay va samarali vositalarini ongli tanlash hamda amalga oshirishga sharoit yaratadi. Shuningdek, ularning individual imkoniyatlari, alohida o‘ziga xosliklari, kasbiy qiziqishlari, qiyinchiliklari, ehtiyojlari, tajribasi, malaka darajasi, shaxsiy motivlari va ijtimoiy mavqyeini inobatga olishga xizmat qiladi.

O‘qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish undan ichki motivatsiya, o‘zini motivlashtirish, hissiy barqarorlik, bilish jarayonlarini faollashtirish, kognitiv imkoniyatlarini anglash, kasbiy ehtiyojlari, qiyinchiliklari, maqsadlarini baholay olish, loyihalash va o‘sish nuqtalarini oldindan mo‘ljal olish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishini talab qiladi.

Keltirilgan fikr va dalillar asosida uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimida motivatsion-kompetentli yondashuv, faoliyatdagi xatti-harakatlar uchun tayyorlik o‘qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini mustaqil tanloviga muvofiq loyihalashini tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi, degan xulosa chiqarish mumkin. Bu jarayonda o‘qituvchiga UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning samarali modeli bo‘ladigan O‘IKRTni tuzishga yetarlicha imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish asosiy omil bo‘ladi. O‘tkazilgan tadqiqotlar ishni bu shaklda tashkillashtirish o‘qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanish samaradorligi va natijadorligiga bo‘lgan mas’uliyatini belgilaydi hamda faoliyatining maqsad, vazifalarini ongli ravishda aniqlay olishi, yuritishi, individual-psixologik imkoniyatlari, refleksiv baholash ko‘nikmalarining mukammallashishi, o‘quv motivlari darajasining ko‘tarilishi, motivatsion tayyorlik kompetentligining rivojlanishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – QHMMB, 24.09.2020. 03/20/637/1313-son.
2. Azimov E.G. Slovar metodicheskix terminov (teoriya i praktika prepodavaniya yazыkov). – Zlatoust, 1999. – 472 s.
3. Radjiyev A.B.. Xalq ta’limi tizimida rahbar xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni boshqarish samaradorligini oshirish (umumta’lim maktablari direktorlari misolida): ped. fan... (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 52 b.
4. Ibragimov A.A. Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish tizimini ko‘p vektorli yondashuv asosida takomillashtirish: ped.fan... (PhD) diss. – Samarqand, 2018. – 215 b.
5. Umarov L.M. Elektron axborot ta’lim resurslari asosida pedagoglar kasbiy kompetentligini rivojlantirish boshqaruvinii takomillashtirish: ped.fan... (PhD) diss. – Qarshi, 2020. – 133 b.
6. Shodiyeva M.J. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari malakasini oshirish tizimining o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirish: ped. fan... (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – 220 b.
7. Shodmonova M.B. Malaka oshirish tizimida ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish: ped. fan... (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – 182 b.
8. Po‘latova D.T. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish tizimini takomillashtirish: ped.fan... (PhD) diss. – Namangan, 2019. – 191 b.
9. Yuldashev M.A. Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirishda ta’lim sifati menejmentini takomillashtirish: ped. fan. dok... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2016 y. – 92 b.
10. Elektron resurs: http: /www.yspu.ru/projects/infomet/ preemstvennost/Ssilki.htm.

MAKTAB MUHITIDA INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATNI QO‘LLAB-QUVVATLASH OMILLARI

Xatamova Fazilat Adilovna
Samarqand viloyati pedagogik
mahorat markazi,
Akademik faoliyatni muvofiqlashtirish
bo‘limi, yetakchi mutaxassisi
xatamovafazilat@gmail.com
+998933362947

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimining xususiyatlari, innovatsion o‘qituvchilik faoliyatining dolzarbligi, maktab muhitining

pedagogning innovatsion salohiyatini rivojlantirishdagi o‘rni, o‘qituvchilik faoliyatida uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish mexanizmlari, rahbariyatning boshqaruv jarayonidagi funksional roli hamda TALIS xalqaro baholash dasturining mazmun-mohiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: innovatsion faoliyat, ta’lim muhiti, direktor boshqaruvi, TALIS, o‘qituvchi faoliyatidagi muammolar, sifatli ta’lim, innovatsion faollik muhiti.

Аннотатция. В данной статье рассматривается современное образование, инновационная деятельность учителей, какой должна быть школьная учебная среда для инновационной активности учителей, проблемы в деятельности учителей, пути преодоления этих проблем, роль школьного руководства в управлении, информация о международной программе оценивания TALIS.

Ключевые слова: инновационная деятельность, среда обучения, директорное управление, ТАЛИС, проблемы обучения, качественное образование, инновационная среда.

Annotation. This article discusses today's education, teacher innovation activities, what the school learning environment should be like for teachers to be innovatively active, problems in teacher performance, ways to overcome these problems, school leadership role in management, information about the TALIS international evaluation program.

Key words: innovative activity, learning environment, principal management, TALIS, problems in teaching, quality education, innovative activity environment.

Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi sifatli hamda samarali ta’lim tizimini joriy etishni, shuningdek, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan, ijtimoiy faol, intellektual salohiyati yuqori, ijodkor, tashabbuskor va yuksak ma’naviyatga ega shaxsni tayyorlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ushbu masalalarni hal etishda eng samarali yo‘llardan biri - ta’lim jarayonini zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishdan iboratdir.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, innovatsion o‘zgarishlarni joriy etish jarayonida ayrim pedagoglarda jadal rivojlanishga ehtiyoj mavjud bo‘lsa-da, ularning bu o‘zgarishlarni amalga oshirishga tayyor emasligi, hatto o‘zgarishga nisbatan sust munosabatda bo‘lishi yoki innovatsion faoliyatga motivatsiyaning yetarli emasligi kabi holatlar kuzatilmoqda. Ushbu muammolarning kelib chiqish sabablari esa o‘qituvchilarga yo‘naltirilgan quyidagi savollarga berilgan javoblar orqali aniqlanishi mumkin:

1-savol. Siz maktabingizda faol o‘qituvchi bo‘lishingiz uchun qanday sharoitlar yaratilishini xohlaysiz?

2-savol. Maktabingizda innovatsion faollik muhiti shakllanishi uchun rahbariyat tomonidan qanday ishlar amalga oshirilishi kerak?

Berilgan javoblar asosida ayrim maktablarda quyidagi muammolar aniqlandi:

1. Maktabda jamoaning birikmasligi (hamma o‘zini haq deb bilishi, o‘qituvchi va rahbar o’rtasida turli xil konfliktlar, maktabdagi muammolarni rahbarning o‘zi hal qilishi, jamoada muhokama qilinmasligi);
2. Texnik jihozlarning yetishmasligi (STEAM xonalari, laboratoriya jihozlari, xonalardagi proyektor, elektron doska v.h.o);
3. Kirib kelayotgan yangiliklardan jamoani to‘liq xabardor etilmasligi (qaror farmonlar bo‘yicha tushunmovchiliklar);
4. O‘qituvchining ish faoliyati nazorat qilinmasligi (o‘qituvchilarning faollik ko‘rsatgichlari bo‘yicha baholanmasligi);
5. O‘quvchi, ota-ona va o‘qituvchi o‘rtasida turli xil konfliktlarning yuz berishi (o‘quvchining darsda o‘qituvchini behurmat qilishi, ota-onaning darsga kelib o‘qituvchini haqoratlashi, o‘qituvchini rahbariyat to‘liq himoya qilolmasligi);
6. Yuqori sinf o‘quvchilarning darslarga nisbatan qiziqishining susayib ketganligi;
7. Attestatsiya jarayonidagi stresslar;
8. Maktab rahbarlarining ma’muriy ish (shu jumladan, hokimliklar, boshqarmalar va boshqa tashkilotlarning murojaatlariga javoblar va hisobotlar tayyorlash) bilan bandligi.

Ushbu muammolardan ko‘rinadiki ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, o’qituvchi innovatsion faoliyati uchun ta’lim muassasasida hozirgi zamon talabiga javob beradigan ta’lim muhitini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada hozirgi kunda yurtimizda ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qabul qilingan qarorini misol qilishimiz mumkin [3]. Ushbu qaror asosida O‘zbekiston ham 2024-yil TALIS-xalqaro baholash dasturida ishtirok etadi.

TALIS (Teaching and Learning International Survey) – Xalq ta’limi tizimi o‘qituvchilari qatlamini o‘qitish va ularni o‘rganish bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar majmuasidir, bu OECD (Organisation for Economic Cooperation and Development) – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti homiyligida o‘tkaziladigan maktab ta’lim muhiti, kasbiy sharoitlar va o‘qituvchilarni professional pedagog darajasigacha rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli va nufuzli xalqaro qiyosiy tadqiqotdir [4]. TALIS so‘rovnomasi natijalari bu dunyo maktablaridagi akademik muhit, o‘qituvchi va maktab direktorlarining kasbiy faoliyati, ularning malaka oshirishlariga oid mavjud sharoitlar haqida fikr yuritishga undaydi. Mazkur keng ko‘lamli so‘rov ota-onalar o‘z farzandlari taqdirini ishonib topshirayotgan ta’lim dargohlari, binolari ortida sodir bo’layotgan pedagogik, uslubiy va ijtimoiy jarayonlar to‘g‘risidagi imkon qadar xolis ma’lumotlarni to‘plash, tahlillar natijasida uni takomillashtirishga to‘sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan. Tadqiqot maktab hayotidagi dolzarb masalalar, chunonchi, maktab rahbariyatining quyi pog‘onadagi

hamkasblari bilan professional munosabatlari, uning maktab muhiti va o‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirishga ta’siri haqida so‘z yuritiladi. TALIS tadqiqotlari ta’lim tizimining bevosita ishtirokchilari o‘z qarashlarini ifodalagani sababli uning natijalarining chuqur tahliliga mamlakatlar ta’lim siyosatida yangi yondoshuvlarni ishlab chiqishda jiddiy manba sifatida qaraladi.

Zamonaviy dunyoda innovatsion texnika va texnologiyalarni joriy qilmasdan turib, ta’limning munosib darajasini ta’minlash mumkin emas. Bugungi kunda maktabning jamiyat hayotidagi o‘rni va roli, uning qadriyat yo‘nalishlari bosqichma-bosqich o‘zgarib bormoqda. Maktabni rivojlantirishda innovatsion o‘zgarishlarga tayyor pedagoglar jamoasi yetakchi rol o‘ynaydi. Bunday o‘qituvchilar uzluksiz innovatsion izlanishda bo‘lishi, fikrlashi, psixologik munosabatlarini o‘zgartirishi, shuningdek boshqalarda ham innovatik g‘oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur [2]. O‘qituvchilar bunday faoliyatga alohida tayyorgarlik ko‘rishi kerak bo‘lib, bu o‘z navbatida ta’lim muassasasi rahbarlarining asosiy funksiyalaridan biri bo‘lgan ta’limni rivojlantirishning uzoq muddatli strategik rejalarini tuzishda asosiy e’tiborni o‘qituvchilarning ijodiy faoliyat yuritishlari uchun tushuntirish ishlariga qaratishi lozim[1].

Mazkur tadqiqotda o‘qituvchilarning fikrlari asosida aniqlangan muammolar ta’lim muassasalarida innovatsion salohiyatni rivojlantirish uchun mavjud infratuzilma, kommunikativ aloqa va boshqaruvdagi tizimli yondashuvning yetarli emasligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, maktab rahbarlarining ta’limdagi islohotlarga tayyorgarligi, ijodiy muhit yaratishdagi roli va o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashdagi pozitsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatini rag‘batlantiruvchi, ularni kasbiy o‘sishga undovchi, ochiq muloqot va hamkorlikka asoslangan ta’lim muhitini shakllantirish zarurdir. Ta’lim sohasida barqaror rivojlanishni ta’minlashda maktab rahbarlarining strategik fikrlashi, innovatsion boshqaruv yondashuvlari va o‘qituvchilar salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishga xizmat qiluvchi shart-sharoitlarning yaratilishi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. R.X.Djurayev, S.T.Turg‘unov, Ta’lim menejmenti, Toshkent-2006 yil.
2. R.Sh. Ahliddinov, Maktabni boshqarish san’ati, Toshkent-2006 yil.
3. https://lex.uz
4. http://www.marifat.uz

6-SHO‘BA
O‘QITUVCHI TADQIQOTI: O‘QUV MASHG‘ULOTLARI UCHUN SAMARALI DARS LOYIHALARI.

ZAMONAVIY DARSLIKLAR BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KOLLABORATIV KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Fayzullayeva Guchexra Sharipboyevna
Samarqand viloyat Pedagogik mahorat markazi
Pedagogika, psixologiya va axborot
texnologiyalari kafedrasi mudiri
Abdirayimova Noila Komiljonovna
Samarqand viloyat Pedagogik mahorat markazi
Pedagogika, psixologiya va ta’lim
texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada matematika darsligida berilgan topshiriqlarni hamkorlikda ishlash usullari, buning o‘quvchi uchun foydalari, kollaborativ ish usullarining turlari keltirib o‘tilgan. Bu orqali tasavvur etish, g‘oyalarni ilgari surish, dalillar keltirish, ma’lumot yetishmasligini ta’kidlash va izlash, o‘z g‘oyalarini shakllantirish va boshqalarning g‘oyalarini rivojlantirish, taxmin va mulohazalarini baholay olish, guruh maqsadlarini qabul qilish va umumiy natijani baholash kabilar o‘rin oladi.

Kalit so‘zlar: guruh bo‘lib ishlash, zamonaviy usullar, 4k modeli haqida, hamkorlik, metodik tavsiyalar.

Аннотация. В статье представлены методы совместной работы над заданиями, приведенными в учебниках математики, их преимущества для ученика, виды методов совместной работы. Сюда входят воображение, выдвижение идей, представление аргументов, выделение и поиск информационных пробелов, формулирование собственных идей и развитие идей других, умение оценивать предположения и суждения, принятие групповых целей и оценка общего результата и т. д.

Ключевые слова: групповая работа, современные методы, о модели 4k, сотрудничество, методические рекомендации.

Abstract. This article presents methods of collaborative work on tasks given in mathematics textbooks, their benefits for the student, and types of collaborative work methods. This includes imagining, putting forward ideas, presenting arguments, highlighting and searching for information gaps, formulating one's own ideas and developing the ideas of others, being able to evaluate assumptions and judgments, accepting group goals and evaluating the overall result, etc.

Key words: group work, modern methods, about the 4k model, cooperation, methodological recommendations.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Xalq ta’limi vazirligi tomonidan xalqaro va mahalliy ekspertlar ishtirokida Milliy o‘quv dasturi yaratilganligi va 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab 1- va 2-sinflarda 252 nomdagi yangi zamonaviy darsliklar, o‘quvchi mashq daftarlari hamda pedagoglar uchun o‘quv qo‘llanmalar joriy qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilindi.

2022 — 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida Yangi maktab darsliklari “4 K” modeli asosida yaratildi 1-4 sinflar uchun hozirgi maktab darsliklari “4 K” modeliga asoslangan innovatsion yondashuvni o‘zida mujassamlashtiradi. Ushbu metodologiya bolalarni har tomonlama rivojlantirishga mo‘ljallangan bo‘lib, kollaboratsiya (jamoa bo‘lib ishlash), kommunikabellik (muloqot ko‘nikmalari), kreativ fikrlash, kritik fikrlash (yangi ma’lumotga nisbatan tanqidiy baho berish) jihatlariga asosiy e’tibor qaratiladi.

Umuman, bu yangiliklar yanada samarali, zamonaviy va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratishga xizmat qilib, o‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, ularga chuqur bilim va malakalar berish uchun zamin yaratadi. Yangi darsliklar metodikasi 4K modeliga asoslangan. Bu metodologiya bolalarning rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ va tanqidiy fikrlash kabi asosiy kompetensiyalarni qamrab oladi.

Ushbu kompetensiyalar asosidan tasavvur etish, g‘oyalarni ilgari surish, dalillar keltirish, ma’lumot yetishmasligini ta’kidlash va izlash, o‘z g‘oyalarini shakllantirish va boshqalarning g‘oyalarini rivojlantirish, taxmin va mulohazalarini baholay olish, guruh maqsadlarini qabul qilish va umumiy natijani baholash kabilar o‘rin oladi. Ular maktab o‘quvchilariga mustaqil o‘qish va boshqalar bilan birgalikda tadqiqot olib borish, o‘zini ko‘rsatishga imkon beradi. Ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, o‘quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz kerak. Maktabdagi har bir dars o‘quvchilar faqat fan mazmunini o‘zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini mustaqil rivojlantiradigan jarayondir.

Endi har biriga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Kollaboratsiya o‘quvchilarning biror maqsadga erishish uchun jamoada ishlash ko‘nikmasidir. Bu orqali o‘quvchilarda hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va bir-birini qo‘llab-quvvatlash o‘rgatiladi. Shu tariqa o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyati rivojlantiriladi.Biror masalani hal qilishda jamoaviy hamkorlik asosida fikr bildirish, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, tushunish muhim rol o‘ynaydi. Darsliklardagi mazmun aynan mana shu 4K modelining birinchi jihati — kollaboratsiyaga asoslangan holda berilgan. Ko‘pgina topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilar jamoaviy fikrlab, xulosa chiqarishi mumkin. Kollaborativ yondashuv, o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro ta’sir va hamkorlikni rag‘batlantiruvchi ta’lim uslubidir. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar bir-biridan o‘rganadilar, o‘z fikrlarini ifoda etishadi va birgalikda muammolarni hal qilishga harakat qiladilar. O‘qituvchi esa bu jarayonda fasilitator sifatida ishtirok etadi, ya’ni o‘quvchilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi va ularning faoliyatini.Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarga yangi

bilimlarni amalda qo‘llash, ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish imkonini beradi. Ular orqali o‘quvchilar:o‘quvchilar birgalikda loyihalar ustida ishlash orqali jamoaviy ruhni rivojlantiradilar.sinfdan tashqari faoliyatlar davomida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga o‘rganadilar.O‘z fikrlarini yaratishda va yangi g‘oyalarni ishlab chiqishda ijodkorlik ko‘nikmalarini.Har bir sinfdan tashqari faoliyat uchun aniq maqsadlarni belgilash zarur. Bu maqsadlar o‘quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos kelishi lozim. O‘quvchilarni turli xil ko'nikmalarga ega guruhlarga ajratish, ularning o‘zaro hamkorligini oshirishga yordam beradi. Har bir guruhda teng imkoniyatlar yaratish muhimdir.

Zamonaviy matematika darslarida o‘quv faoliyatini tashkil etish shakllarining ushbu metodlariga amal qilish ijobiy natijalarga olib keladi deb o‘ylayman:

- darsda o‘quvchilarni guruh bo‘lib ishlashi (bu shakl o‘quvchilar tomonidan o‘quv topshiriqlarini alohida, mustaqil ravishda bajarish bilan tavsiflanadi, natijada

natijalarni nazorat qiladi);

- o‘quvchilarning jamoa bo‘lib dars qilishi (bu talabalarning faoliyatini tashkil

etishning eng qiyin shakli, barcha o‘quvchilar faol va bir – birlarini o‘qitishda,

jamoaviy shaklning odatiy namunasi-o‘quvchilarning bir-birining o‘rnini bosuvchi

juftlikdagi ishi);

- o‘quvchilarning juftlik bo‘lib dars qilishi (bu o‘qituvchining (yoki tengdoshning) bir-birining ishi).

Matematika darslarida o‘quvchilarni guruh shaklida dars qilishlari ko‘plab

afzalliklarga va kamchiliklarga ega. Darsni o‘tkazishda «aerobatika» va amaliyotda

yangi usullarning mukammal tadbiri-o‘qituvchi faqat bolalarni yo‘naltiradigan dars

davomida tavsiyalar beradigan dars. Men guruh ishi texnologiyasi darslarida

foydalanish tajribasini baham ko‘rmoqchiman. Ushbu texnologiya nafaqat o‘quv

materiallarini muvaffaqiyatli o‘zlashtiribgina qolmay, balki muloqot qobiliyatlarini

rivojlantirishga imkon beradi, bolalarga sinfdoshlariga o‘rgatish va ularni tinglash,

jamoada ishlash imkonini beradi. Ushbu texnologiyadan foydalanib, o‘qituvchi

asosiy maqsadga erishadi. Guruh ishining maqsadi: har bir talabaning o‘quv

materiallarini o‘zlashtirish jarayoniga faol kiritilishi.

Darslarda o‘quvchilarning guruh bo‘lib ishlashining asosiy vazifalari:

- Kognitiv faoliyatni faollashtirish.

- Mustaqil ta'lim faoliyati ko‘nikmalarini rivojlantirish: yetakchi va oraliq vazifalarni aniqlash, maqbul yo‘lni tanlash, tanlov natijalarini taqdim etish qobiliyati, uni ob'ektiv baholash.

- Muvaffaqiyatli muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish (bir-birini tinglash va eshitish, muloqot qilish, tushunish uchun savollar berish va h.k.).

Maqolaning asosiy mazmuniy qismida maktablarda matematika fanidan dars beradigan hamkasblarim va sohaga endi kirib kelayotgan yosh o‘qituvchilarga bir necha metodik va amaliy dars namumalari va tavsiyalar bermoqchiman. Matematika darslarida asosan o‘quvchilarni individual tarzda ishlashga o‘rgatamiz, men guruh bo‘lib ishlash texnikalarini qo‘llashni maslahat beraman. Matematika darslarida o‘quvchilarni guruh bo;lib ishlashi metodik usullari bo‘yicha quyidagi fikrlarni aytishim mumkin.

Maktab darslarida ishlatilishi mumkin bo‘lgan bir necha turdagi guruh ishlarini turlarini tavsiya qilaman:

* Juftlikda ishlash.
* Aqliy hujum.
* «Davom Eting» o‘yini.
* Xazina uchun ov.
* Qor xaritasi.

Endi bu metodlardan juftlikda ishlash topshiriqlarini ko‘rib chiqamiz:



Ushbu topshiriqda berilgan qiz va o‘g‘il rasmi ma’nosi shuki, berilgan topshiriq ustida juftlikda ishlashni anglatadi. Bu topshiriqni bir partada o‘tirgan juftlik ishlaydi. O‘zaro fikr almashadi, tahlil qiladi, o‘ylaydi va o‘z natijalarini taqdim etadi.



Barcha guruhlar taqdim etgan natijalarni o‘qituvchi umumlashtirib birga tahlil qiladi va xulosalaydi.



Ya’ni: 4*3*2*1=24 ta usul (kombinotorika usulida keltirib chiqariladi).

Hamkorlikda ishlangan topshiriqlar butun sinf doirasida samarali o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Faollik, ishni sevib bajarish, muzokara va bahs orqali mustaqil fikrini erkin namoyon eta olishiga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bu yangiliklar yanada samarali, zamonaviy va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratishga xizmat qilib,

o‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, ularga chuqur bilim va malakalar berish uchun zamin yaratadi. Yangi darsliklar metodikasi 4K modeliga asoslangan. Bu metodologiya bolalarning rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ va tanqidiy fikrlash kabi asosiy kompetensiyalarni qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jumayev M.E Matematika o‘qitish metodikasi. (OO‘YU uchun darslik). – T.: “Turon iqbol” 2020. 426 b.

2. Boshlang‘ich matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Ilm Ziyo. 2018.

3. Boltayev Mardonqul, Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlosi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. O‘qituvchi. 2003M.E.Jumayev, Z.G‘.Tadjiyeva. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent. “Fan va texnologiya”.

4. X.Y.Najmiddinova. Matematik tasavvurlarni shakllantirish. Oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. Yoshlar nashriyot uyi. -T ., 2020. -164 b.

5. I.V.Repyova. Matematika**.** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinf uchun darslik. –Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023.

6. I.V.Repyova. Matematika**.** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinf uchun darslik. –Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023.

ANTROPOTSEN DAVRIDA SINFDAN TASHQARI TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING ONGLI EKOLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

(o‘quv mashg‘ulotlari samarali loyihalari misolida)

Alimuxamedova Umida Erkinovna
Pedagogik mahorat va xalqaro aholash ilmiy-amaliy markazi tabiiy va aniq fanlar bo‘limi bosh mutaxassisi
alimukhamedova72@gmail.com,
+998935117861

Annotatsiya: Maqolada antropotsen davri chaqiriqlari kontekstida sinfdan tashqari tabiiy fanlar mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning ongli ekologik faoliyatini rivojlantirishning samarali metodik yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. O‘quvchilarning barqaror ekologik xulq-atvori va tanqidiy fikrlashini shakllantirishga yordam beruvchi, ota-onalar va mahalliy hamjamiyat ishtirokida loyihaviy va tadqiqot faoliyatini integratsiyalash tajribasi taqdim etilgan. O‘quv mashg‘ulotlari loyihalariga ekologik muammolar va barqaror rivojlanish kontseptsiyasini kiritish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: antropotsen, sinfdan tashqari faoliyat, ekologik ta’lim, ongli faoliyat, loyihaviy o‘qitish, ekologik madaniyat, ota-onalar ishtiroki.

Аннотация: В статье рассматриваются эффективные методические подходы к развитию сознательной экологической деятельности учащихся во внеурочных занятиях по естественным наукам в контексте вызовов антропоцена. Представлен опыт интеграции проектной и исследовательской деятельности с участием родителей и местного сообщества, что способствует формированию у школьников устойчивого экологического поведения и критического мышления. Обоснована необходимость включения экологической проблематики и концепции устойчивого развития в проекты учебных занятий.

Ключевые слова: антропоцен, внеурочная деятельность, экологическое образование, сознательная деятельность, проектное обучение, экологическая культура, участие родителей.

Abstract. The article explores effective methodological approaches to developing students' conscious environmental activity during extracurricular science lessons in the context of the challenges of the Anthropocene era. The paper presents the experience of integrating project-based and research activities involving parents and the local community, which contributes to the formation of students' sustainable environmental behavior and critical thinking. The necessity of including environmental issues and the concept of sustainable development in lesson projects is substantiated.

Key words: Anthropocene, extracurricular activity, environmental education, conscious activity, project-based learning, environmental culture, parental involvement.

Мы вступили в фазу, когда «человечество стало главной геологической силой, влияющей на будущее планеты, её климата, ландшафтов и биоразнообразия». Последствия человеческой деятельности затрагивают не только поверхности континентов, но и глубокие слои литосферы, а также атмосферу и океаны. По сути, в антропоцене нет ни одного уголка Земли, который бы оставался неизменённым под воздействием человека. Это время, когда каждому человеку «следует осознать своё место не как пассивного наблюдателя, а как активного участника глобальных процессов» [1].

Современная образовательная практика в условиях антропоцена сталкивается с необходимостью трансформации подходов к экологическому воспитанию и обучению учащихся. Усиление техногенной нагрузки, изменение климата, утрата биологического разнообразия и загрязнение окружающей среды ставят перед системой образования задачу формирования у обучающихся сознательной экологической деятельности, основанной на осмысленном взаимодействии с природой и ответственном отношении к решению экологических проблем.

Однако большинство существующих подходов к экологическому воспитанию носят либо теоретико-информативный, либо фрагментарный характер, что ограничивает возможности формирования у школьников

устойчивых навыков осознанного поведения. Тем более малоразработанной является сфера внеурочной деятельности по естественным наукам как эффективной среды формирования экологического сознания. В рамках данной статьи исследуется возможность разработки и апробации методики проектного обучения во внеурочной деятельности с вовлечением родителей и сообщества для формирования сознательной экологической активности у учащихся.

В этой связи современное образование рассматривается как ключевая сфера подготовки нового поколения, способного к осознанным действиям по предотвращению экологических кризисов. Согласно данным IPCC (Intergovernmental Panel on Climate Change) - межправительственной группы экспертов по изменению климата, климатические изменения приобрели необратимый характер, а ключевым фактором является низкий уровень экологической ответственности населения, особенно среди молодежи [5].

РОЛЬ ВНЕУРОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО ЕСТЕСТВЕННЫМ НАУКАМ В ФОРМИРОВАНИИ СОЗНАТЕЛЬНОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ

Исследования преподавателя из США Джозеф Хендерсон и педагога Андреа Дрюэс подчеркивают, что именно внеурочная деятельность имеет высокие потенциалы в развитии устойчивых моделей поведения, так как позволяет интегрировать практический опыт, проекты и участие в экологических инициативах [4].

В то же время в странах Центральной Азии, включая Узбекистан, внеурочная деятельность по экологическому воспитанию в основном ограничивается акциями и субботниками, без глубокого вовлечения учащихся в анализ и решение реальных экологических проблем.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МИРОВОГО И УЗБЕКСКОГО ОПЫТА

Мировая практика экологического образования показывает, что наибольшей эффективности в формировании сознательной экологической активности учащихся достигают модели, в которых внеурочная деятельность интегрируется в общее образовательное пространство школы и местного сообщества.

Так, в *Сингапуре* экологическое воспитание охватывает все уровни школьного образования и организуется как внутриурочная, так и внеурочная деятельность. Особенностью данной модели является обязательное участие родителей и местного сообщества, что способствует укреплению социальной ответственности учащихся и формированию навыков коллективного принятия экологически ориентированных решений [6]. Важным элементом является участие учащихся в реальных проектах, направленных на решение локальных экологических проблем, таких как переработка отходов, озеленение школьных территорий и энергоэффективные инициативы.

В *Финляндии* экологическое образование также активно интегрируется в внеурочную деятельность. Здесь упор делается на развитие креативности и проектной деятельности учащихся, что проявляется через участие в

школьных экологических клубах, садоводческих кружках, создании школьных садов и участии в проектах устойчивого развития. Вовлечение родителей происходит в форме участия в школьных экологических проектах и конкурсах, что способствует укреплению связей между школой и семьёй. Однако наблюдается определённая демотивация части учащихся, которым требуется индивидуальный подход и постоянная поддержка [7].

В *Южной Корее* внеурочная экологическая деятельность организуется в рамках национальных программ «Чистые школы», где особое внимание уделяется интеграции STEAM-подходов в проектную деятельность учащихся. Родители и неправительственные организации активно вовлечены в организацию и реализацию школьных экологических мероприятий, таких как кампании по энергосбережению и очистке территории. Эти мероприятия служат платформой для формирования у учащихся междисциплинарных знаний и устойчивых экологических привычек. Однако высокая нагрузка на педагогов и учащихся остаётся нерешённой проблемой [7].

№	Страны	Модель экологического воспитания во внеурочной деятельности	Участие родителей и сообщества	Сильные стороны	Недостатки
1	Сингапур	Integrация экологии во все виды школьной деятельности и проектов	Активное	Практико-ориентированные подходы; проекты в сообществе	Требует больших инвестиций
2	Финляндия	Экологические клубы, садоводство, проекты устойчивого развития	Вовлечение родителей в проекты	Экологическая культура и креативность	Слабая мотивация части учащихся
3	Узбекистан	"Yashil maktab", Eco-Schools, разовые акции	Ограниченное участие	Наличие институциональных программ	Отсутствие интеграции с внеурочной деятельностью; формальность мероприятий

4	Южная Корея	Национальные программы "Чистые школы", интеграция STEAM	Активное	Междисциплинарные проекты; участие родителей и НПО	Высокая нагрузка на учителей

В *Узбекистане* внеурочная деятельность по экологическому образованию преимущественно ограничивается разовыми акциями, такими как субботники, конкурсы рисунков и школьные экологические мероприятия, [3] организуемые в рамках таких проектов, как «Yashil maktab», «Eco-Schools». Несмотря на наличие институциональных программ, участие родителей в организации внеурочной деятельности остаётся ограниченным, а проекты часто носят формальный характер, без должной системности и практической направленности. Недостаточно развиты механизмы оценки и мониторинга эффективности подобных мероприятий.

Таким образом, сравнительный анализ показывает, что в Узбекистане сохраняется значительный разрыв между декларативностью экологического образования и его реальной интеграцией в внеурочную деятельность с активным участием родителей и местного сообщества. Веурочная экологическая деятельность в Узбекистане преимущественно реализуется через проекты и акции, однако в отличие от зарубежной практики участие родителей и местного сообщества остаётся на минимальном уровне, а внеурочные мероприятия зачастую носят формальный характер и не обеспечивают развитие устойчивых навыков осознанной экологической деятельности. Мировая практика демонстрирует, что только комплексный подход, включающий проектное обучение, участие родителей и сотрудничество с местным сообществом, позволяет эффективно формировать у учащихся сознательную экологическую активность, необходимую для решения проблем антропоцена.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОЕКТНОГО ОБУЧЕНИЯ ВО ВНЕУРОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С ИНТЕГРАЦИЕЙ РОДИТЕЛЕЙ

Современные исследования в области экологического образования подчёркивают высокую эффективность проектного обучения как метода, способствующего формированию у учащихся навыков сознательной экологической деятельности, самостоятельности, критического мышления и социально ответственного поведения [4]. В условиях

антропоцена, когда экологические вызовы требуют участия всех уровней общества, особое значение приобретает интеграция внеурочной деятельности с участием родителей и местного сообщества.

Проектное обучение во внеурочной деятельности по естественным наукам предполагает организацию образовательного процесса, основанного на решении учащимися реальных экологических проблем через разработку и реализацию проектов. Основными методическими принципами такого подхода являются:

- ✓ ориентированность на практическую значимость проекта;
- ✓ междисциплинарность;
- ✓ активное вовлечение родителей, местного сообщества, экологических организаций;
- ✓ развитие навыков самоорганизации, самоуправления, самооценки.

Интеграция родителей в проектную деятельность учащихся выступает важнейшим фактором повышения мотивации обучающихся, укрепления школьно-семейного партнёрства, а также формирования у родителей экологической ответственности и готовности к поддержке устойчивых инициатив. Вовлечение родителей может осуществляться на всех этапах проектной деятельности:

5. *На этапе осознания проблемы* — проведение семейных анкетирований, совместное обсуждение экологических проблем района, определение тематики проекта.
6. *На этапе проектирования* — участие родителей в формировании целей и задач проекта, распределении ролей, планировании мероприятий.
7. *На этапе реализации* — совместное участие в акциях, экспедициях, полевых исследованиях, организации экологических мероприятий.
8. *На этапе рефлексии и оценки* — участие в обсуждении результатов проекта, анализ достигнутых целей, совместная оценка эффективности деятельности.

Таким образом, проектная деятельность во внеурочной работе с интеграцией родителей создаёт условия для формирования у учащихся устойчивой экологической позиции и готовности к практическим действиям в защиту окружающей среды.

	Деятельность учащихся	**Деятельность родителей**	**Результат**
Осознание проблемы	Изучение локальных экологических проблем	Семейное анкетирование, выявление проблем в сообществе	Формирование исследовательской темы

Проектирование	Постановка целей, задач проекта	Совместное планирование мероприятий	Индивидуальный и групповой план действий
Реализация	Участие в проектной деятельности (акции, исследования, опросы)	Организация совместных мероприятий	Практические навыки, активность
Рефлексия и оценка	Презентация результатов, самооценка	Участие в оценке проекта, обсуждение успехов и трудностей	Осознание собственной роли в решении экологических проблем

Для эффективной реализации данной методики автором предложена поэтапная модель организации проектной деятельности с участием родителей, которая включает следующие компоненты:

- *осознание локальных проблем через семейные исследования;*
- *постановка целей и задач проекта с участием родителей и учащихся;*
- *реализация мероприятий с совместным участием всех сторон;*
- *рефлексия и самооценка результата проекта с привлечением родителей.*

Данная модель может стать эффективным инструментом повышения результативности экологического образования во внеурочной деятельности и обеспечения устойчивого участия семей в формировании экологической культуры подрастающего поколения.

ПРИМЕР ПРОЕКТА-УРОКА ДЛЯ ВНЕУРОЧНОГО ЗАНЯТИЯ

Тема: «Чистая вода — чистое будущее. Исследуем качество воды вместе с семьёй»

Класс: 7–8

Форма занятия: Проектная мастерская с участием родителей и сообщества

Проектная мастерская «Чистая вода — чистое будущее» строится на принципах исследовательского подхода, когда учащиеся совместно с родителями и представителями местного сообщества решают значимую экологическую проблему — исследуют качество воды в своём районе. Работа организована по следующим этапам:

Этап мотивации и осознания проблемы.

Учитель начинает занятие с презентации статистических данных и реальных примеров

загрязнения водных объектов в регионе. Цель данного этапа — пробудить у учащихся и их родителей интерес к проблеме, вызвать эмоциональное включение и личную вовлечённость. Учащиеся делятся своим опытом и знаниями о ситуации с водой в их населённом пункте. Родители также рассказывают о наблюдаемых ими экологических проблемах, связанных с водой. Это создает основу для совместного формулирования проблемы.

*Этап постановки проблемы и формулировки гипотезы***.**

Совместно с учителем, родители и учащиеся определяют ключевой вопрос исследования: «Каково качество воды в нашем районе и безопасна ли она для здоровья?» Учащиеся формулируют предположения, обсуждают возможные источники загрязнения. Родители помогают выбрать места для отбора проб воды (река, колодец, пруд и т.д.), предоставляют информацию о локальных особенностях.

Этап проектирования и планирования.

На данном этапе учитель организует работу по созданию проектного плана: учащиеся распределяются по группам, определяют цели и задачи исследования, разрабатывают план действий и методы сбора данных. Родители активно участвуют в процессе планирования: помогают с логистикой, организацией маршрутов для сбора проб воды, обеспечивают безопасность детей во время полевых работ.

Этап реализации проекта.

Учащиеся совместно с родителями проводят полевые исследования: отбирают пробы воды в выбранных точках, фиксируют наблюдения, проводят простейшие анализы (визуальная оценка, определение запаха, прозрачности и др.). Родители обеспечивают транспортировку и безопасность, а также участвуют в организации лабораторных исследований, если это необходимо.

Этап рефлексии и анализа результатов.

По завершении полевых работ учащиеся обрабатывают собранные данные, систематизируют их и готовят выводы. Учитель организует сессию анализа, на которой родители вместе с детьми обсуждают полученные результаты, оценивают уровень загрязненности воды, причины и возможные пути решения проблемы.

Этап представления проекта.

Итогом мастерской становится презентация учащимися своих проектов одноклассникам, родителям и представителям местного сообщества. Родители принимают активное участие в оценке результатов проекта, обсуждают вместе с учащимися и учителями возможные шаги по улучшению экологической ситуации в районе.

Этап	**Деятельность учителя**	**Деятельность учащихся**	**Деятельность родителей**
Мотивация	Презентация фактов о загрязнении воды	Выражают мнение о проблеме, делятся личным	Делятся примерами проблем в

	региона	опытом	районе
Постановка проблемы	Вопрос: «Какова реальная ситуация с качеством воды в нашем посёлке?»	Формулируют гипотезы, обсуждают важность проблемы	Помогают выбрать водоёмы для исследования
Проектирование	Деление на группы, формулирование задач	Составляют план исследования, определяют методы	Содействуют в подготовке материалов, логистике
Исследование	Организация полевых исследований	Проводят забор проб воды, фиксируют результаты	Участвуют в полевых работах, контролируют безопасность
Рефлексия, анализ	Организация сессии анализа данных	Обрабатывают данные, готовят выводы	Совместно оценивают результаты, предлагают решения
Представление проекта	Помогает организовать презентацию результатов	Презентуют выводы одноклассникам и родителям	Участвуют в обсуждении и оценке проекта

Такое описание позволяет не только более полно раскрыть роль каждого участника проекта, но и делает акцент на исследовательской роли учителя как организатора, фасилитатора и исследователя эффективности урока.

Особенности исследовательской позиции учителя:

- Анализирует уровень осознанности учащихся на каждом этапе.
- Фиксирует степень участия родителей.
- Оценивает изменения в мотивации, уровне ответственности учащихся.
- Документирует успешные и неудачные моменты в организации проекта.

ВЫВОДЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Результаты проведённого анализа и проектирования показали, что внедрение проектного обучения во внеурочной деятельности по естественным наукам в условиях антропоцена является эффективным инструментом формирования у учащихся сознательной экологической

активности и устойчивого поведения. Особую значимость приобретает интеграция родителей и местного сообщества на всех этапах реализации экологических проектов, что обеспечивает:

- повышение мотивации учащихся за счёт включения в реальную социально значимую деятельность;
- формирование у родителей экологической культуры и ответственности;
- развитие партнёрских отношений между школой, семьёй и местным сообществом.

Опыт реализации проектной мастерской «*Чистая вода — чистое будущее*» подтвердил высокую эффективность предложенной модели, так как участие родителей усилило исследовательский и практический компоненты проекта, позволило учащимся лучше понять экологическую проблему и осознанно подойти к её решению.

Вместе с тем, анализ отечественного и международного опыта показал следующие основные рекомендации для педагогов и исследователей:

6. Разрабатывать и внедрять модели проектной деятельности с интеграцией родителей и местного сообщества как устойчивую форму внеурочной экологической работы.

7. Использовать в проектной деятельности современные цифровые и интерактивные инструменты (например, экологические симуляторы, онлайн-карты загрязнения, платформы для семейных исследований).

8. Организовывать обучение педагогов и родителей методикам фасилитации, проектного обучения и семейной педагогики для успешной реализации межпоколенческих экологических проектов.

9. Включать в программы мониторинга качества экологического образования индикаторы, отражающие уровень участия родителей и сообществ в образовательных экологических инициативах.

10. Активно изучать и адаптировать успешные модели зарубежного опыта (Сингапур, Финляндия, Южная Корея) для узбекского контекста с учётом локальных особенностей.

Предложенная методика проектного обучения во внеурочной деятельности с участием родителей является перспективным направлением для формирования у школьников компетенций устойчивого развития и сознательной экологической активности в условиях антропоцена.

Список литературы:

9. Швегерль К. Антропоцен: Человеческая эра и как она формирует нашу планету. – М.: АСТ, 2014. – 320 с.

10. IPCC. Climate Change 2021: The Physical Science Basis. – Geneva: Intergovernmental Panel on Climate Change, 2021. – 3940 с.

11. Саидова Г.М. Развитие экологического воспитания среди молодёжи, внеурочная экологическая деятельность и практические экологические проекты. – Ташкент: УзПУ, 2018. – 156 с.
12. Henderson J., Drewes A. Ecological education strategies in the context of climate change. – New York: Routledge, 2016. – 208 с.
13. Scott W., Gough S. Education and sustainable development. – London: RoutledgeFalmer, 2004. – 190 с.
14. Goh K.C. Environmental education in Southeast Asia: challenges and strategies. – Singapore: Green Education Press, 2017. – 156 с.
15. Lee W.O., Tan J.P. Education in Singapore: development and innovation. – Singapore: Springer, 2018. – 184 с.
16. Kim S. National Environmental Education Programs in South Korea: STEAM Integration Model. – Seoul: KEDI, 2020. – 156 с.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA 5E MODELINING O'RNI VA AHAMIYATI

Aliqulova Saodat Abduraimovna
Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani
77-IDUM biologiya fan o'qituvchisi

Annotatsiya:Ushbu maqolada tabiiy fanlarni o'qitishda 5 E modeli asosida darslarni tashkil etish, o'quvchilarni darsga jalb qilish, qiziqtirish, mavjud bilimlarini tadqiq qilish, mavzuni turli xil usullar bilan tushuntirish, ko'nikmalar asosida bilimni amaliyotga qo'llash va olgan bilimlarini baholash to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Singapur ta'limi, 5E modeli, qiziqtirish, *jalb qilish, tadqiq etish, qo'llash, tushuntirish, baholash.*

Аннотация: В данной статье представлена информация об организации уроков по модели 5 Е при преподавании естественных наук, привлечении учащихся к уроку, заинтересовывании их, исследовании имеющихся у них знаний, разностороннем объяснении темы, применении знаний на практике на основе умений и оценке полученных знаний

Ключевые слова: сингапурское образование, модель 5Е, интерес, вовлекать, исследовать, применят, разрабатыватьб объяснять, оцениватью

Annotation: *This article provides information on organizing lessons based on the 5 E model in teaching natural sciences, attracting students to the lesson, making them interested, researching their existing knowledge, explaining the topic in different ways, applying knowledge to practice based on skills, and evaluating their acquired knowledge.*

Key words: *Singapore education, 5E model, interest, engage, explore, apply elaborate, explain, evaluate*

Zamonaviy ta’lim tizimida tabiiy fanlarni samarali o‘qitish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, tanqidiy fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ilg‘or pedagogik texnologiyalar, jumladan, 5E yondashuvi keng qo‘llanilmoqda. Ushbu yondashuv tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi va ularning bilimlarni hayotiy tajribalar bilan bog‘lashiga yordam beradi.

Singapur ta’lim tizimida 5E modeli tabiiy fanlarni o'qitishda keng qo'llaniladi. Bu yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ilmiy tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirish va nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashga yordam beradi. Masalan, Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi tomonidan o‘tkazilgan seminarlarda Singapur ta’lim tizimining ilg‘or tajribalari, jumladan, 5E modeli asosida dars mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilib borilmoqda.. Shuningdek, Samarqand viloyati maktablarida ham Singapur ta'limiga asoslangan 5E modeli va so‘rovga asoslangan ta’lim (SAT) usullari asosida darslar tashkil etilmoqda. Bu darslarda o‘quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishi oshib, bilimlarni mustahkamlashga erishilmoqda. Ushbu model besh bosqichdan iborat: **5E modeli qisqacha tavsifi:**

1. **Engage (Jalb qilish):** O‘quvchilarni yangi mavzuga qiziqtirish va ularga mavjud bilimlarini faollashtirish imkonini berish.
2. **Explore (Tadqiq qilish):** O‘quvchilarni mustaqil o‘rganish va tajriba orqali bilim olish jarayoniga jalb etish.
3. **Explain (Tushuntirish):** O‘quvchilar o‘z kuzatuvlari asosida xulosalar chiqarib, o‘rgangan bilimlarini tushuntirishga o‘rganadilar.
4. **Elaborate (Chuqurlashtirish):** Olingan bilimlarni yangi sharoitlarda qo‘llash va kengaytirish.
5. **Evaluate (Baholash):** O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash, shu jumladan o‘z-o‘zini baholash.

Bu yondashuv hozirda ko‘plab mamlakatlarda STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) ta’limini rivojlantirishda asosiy pedagogik model sifatida foydalanilmoqda.

1. Engage (Jalb qilish) ning asosiy maqsadi o‘**quvchilarning qiziqishini uyg‘otish va dars mavzusiga e’tiborini jalb qilish hisoblanadi.** Bunda moslashtirish usullariga quydagilarni kiritish mumkin:

- **Savollar yoki muammolar bilan boshlash.** O‘quvchilarga yuqori darajadagi tanqidiy fikrlashni talab qiluvchi savollar berish, masalan, “Darsda murakkab real hayot muammosini keltirib chiqaring”.

- **Tajriba yoki ko‘rgazmali vositalardan foydalanish.** Mavzu bilan bog‘liq texnologik vositalar, videolar yoki qiziqarli interaktiv faoliyatlardan foydalanish.

- **Maqsadga yo‘naltirilgan muhokamalar.** O‘quvchilarga “Nima uchun bu muammo muhim?” yoki “Bu mavzu bilan hayotda qanday duch kelamiz?” kabi savollar bilan murojaat qilish.

2. Explore (Izlanish) ning o‘**quvchilarga o‘z-o‘zini o‘rganish imkoniyatini yaratish.** Moslashtirish usullariga quydagilarni kiritish mumkin:

- **O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lish.** Ularning qobiliyatlarini birlashtiruvchi loyiha yoki tajriba taklif eting.

- **Tadqiqot uchun resurslar taqdim etish.** O‘quvchilar mustaqil ravishda tadqiqot olib borishlari uchun ilg‘or materiallar, kitoblar yoki onlayn platformalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak.

- **Eksperimental faoliyat.** Masalan, biologiya darsida tirik organizmlarni kuzatish yoki kimyo darsida murakkab tajribalarni sinovdan o‘tkazish.

3. Explain (Tushuntirish) ning o‘**quvchilarga o‘rganilgan bilimlarni tushuntirish va umumlashtirishga yordam berish.** Moslashtirish usullariga quydagilarni kiritish mumkin:

- **O‘quvchilarni tushuntirishga jalb qilish.** Har bir guruh o‘z natijalarini taqdim qilish. Bu ularning bilim darajasini mustahkamlash va muloqot qobiliyatini rivojlantirish.

-**Vizual vositalar orqali tushuntirish.** Diagrammalar, grafiklar, interaktiv taqdimotlardan foydalaning.

- **Ilg‘or savollar berish.** Masalan, “Ushbu muammo qanday yaxshilanishi mumkin?” yoki “Yangi texnologiyalar bu sohani qanday o‘zgartiradi?”

4. Elaborate (Kengaytirish). Mavzuni chuqurroq tushunish uchun qo‘shimcha faoliyatlar orqali o‘rganishni kengaytirish. Moslashtirish usullariga quydagilarni kiritish mumkin:

- **Real hayotdagi qo‘llash.** Masalan, fizika darsida energetik yechimlar yoki ijtimoiy fanlarda ijtimoiy masalalarni hal qilish.

- **Murakkab loyiha yoki topshiriq.** O‘quvchilarni mavzu bilan bog‘liq kichik tadqiqot yoki loyiha bajarishga undash.

- **Tanqidiy fikrlash.** O‘quvchilarga o‘z yechimlarini tahlil qilish va ularni himoya qilish imkonini berish.

5. Evaluate (Baholash). **O‘quvchilarning bilimlarini aniqlash va baholash.** Moslashtirish usullariga quydagilarni kiritish mumkin.

- **O‘z-o‘zini baholash va tahlil.** O‘quvchilar o‘z ishlari haqida yozma yoki og‘zaki mulohazalar qoldirish.

- **Amaliy testlar.** O‘rganilgan bilimni amalda qo‘llash imkonini beruvchi topshiriqlar.

- **Birgalikda baholash.** O‘quvchilar o‘zaro ishlari bo‘yicha mulohaza bildirishlari uchun imkoniyat yaratish.

Tabiiy fanlarni o‘qitishda 5E yondashuvining afzalliklari:

- O‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi.
- Mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- Nazariy bilimlarni amaliy tajribalar bilan bog‘lash imkonini yaratadi.
- O‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.
- Baholash jarayoni orqali o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlaydi.

5E yondashuvi asosida tabiiy fan darslarini tashkil etish:

Misol tariqasida “Fotosintez jarayoni” mavzusini ko‘rib chiqamiz:

1. **Qiziqtirish (jalb qilish)**: O‘quvchilarga “Nega o‘simliklar yashil rangda?” degan savol bilan murojaat qilish. Shu orqali ularning diqqatini mavzuga jalb qilish va qiziqishini oshirish.
2. **Tadqiq etish**: O‘quvchilar kichik guruhlarda o‘simlik barglarini kuzatish va yorug‘lik ta’sirini o‘rganishadi. Bu jarayon orqali ularning mustaqil tadqiqotchilik qobiliyatlari shakllanadi.
3. **Tushuntirish**: O‘qituvchi fotosintez jarayonining ilmiy asoslarini tushuntiradi, o‘quvchilar esa o‘z kuzatishlarini izohlaydi va muhokama qiladi.
4. **Chuqurlashtirish (qo‘llash)**: O‘quvchilar o‘simliklarsiz hayotning imkonsizligi haqida bahs yuritadilar va turli tajribalar orqali bilimlarini mustahkamlashadi.
5. **Baholash**: O‘quvchilar testlar, savol-javob hamda amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘z bilimlarini mustahkamlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, 5E yondashuvi tabiiy fanlarni o‘qitishda samarali usullardan biri bo‘lib, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim jarayonida ushbu yondashuvdan keng foydalanish tabiiy fanlarni o‘qitish sifatini yanada oshiradi. O‘qituvchilar dars jarayonida 5E modelidan foydalanib, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, ularning ilmiy bilim va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa, o‘z navbatida, tabiiy fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, 5E modeli o'quvchilarning bilim olish jarayonini interfaol va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Singapur ta'lim tizimida ushbu modelning muvaffaqiyatli qo'llanilishi boshqa mamlakatlar uchun ham o'rnak bo'lib, ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi davlat ta’lim standarti 187- qarori.

2 K. Saparov, I. Azimov, M. Umaraliyeva, Z. Tillayeva, I. Abduraxmanova, U. Raxmatov, S. Haytbayeva, M. Bo‘ronboyeva “Biologiya” 7-sinf darsligi 2022-yil.

3.Aleksandr Grey, Tabiiy fanlar 5-sinf. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun. Darslik, Toshkent – 2024 yil

4. Aleksandr Grey, Tabiiy fanlar 6-sinf. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun. Darslik, Toshkent – 2024 yil

5. uzedu.uz

UMUM TA’LIM MAKTABLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA, RAG‘BATLANTIRISH VA MOTIVATSIYANING O‘RNI

Ashurova Barno Nematovna
O‘zbekiston Finlandiya Pedagogika
instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Umumta’lim maktablarida inson resurslarini boshqarishda rag‘batlantirish va motivatsiyaning ahamiyati va uning o‘rni tahlil qilinadi. Pedagogik jarayonda motivatsiyaning samaradorlikka ta’siri, o‘qituvchilarning kasbiy faolligini oshirishda moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish usullarining o‘rni yoritiladi. Shuningdek, ilg‘or tajribalarga asoslangan tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: inson resurslarini boshqarish, motivatsiya, xodimlarini rag‘batlantirish.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida inson resurslarini boshqarishda rag‘batlantirish va motivatsiya muhim strategik vositalardan biridir. Bu omillar nafaqat o‘qituvchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, balki ta’lim sifatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Inson resurslarini boshqarish (IRB) – bu tashkilotdagi inson kapitalini rejalashtirish, yollash, rivojlantirish, baholash va rag‘batlantirish jarayonidir. Maktab kontekstida bu:

- O‘qituvchilar va ma’muriy xodimlarni boshqarish,
- Ularning salohiyatini ochish va rivojlantirish,
- Samarali mehnat muhitini yaratishni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda respublikada inson resurslaridan samarali foydalanish uchun asosan quyidagi uch tamoyilga asoslanish zarur:

ijtimoiy yo‘naltirilgan ish bilan bandlikni vujudga keltirish (qishloq xo‘jaligidagi ortiqcha inson resurslarini iqtisodiyotning boshqa sohalariga, sanoatga va xizmat ko‘rsatish sohalariga yo‘naltirish);

inson resurslarining sifat jihatlarini - kasbiy tayyorgarligi, ma’lumoti, malakasini oshirish, hududlarda inson resurslarining sifat jihatlarini oshirishga qaratilgan “maxsus dasturlar” ishlab chiqish;

inson resurslarini boshqarishni to‘g’ri yo‘lga qo‘yish, boshqarish tarkibini takomillashtirish lozim.

Tajribali menejer maktab rahbari xodimlarga ehtiyotkorlik bilan yondashish, o‘z vaqtida rag‘batlantirish va xatolarga javob berish muvaffaqiyatli ta’limning kaliti ekanligini biladi. Yaxshi natija ko‘rsatgan o‘qituvchi va xodimni jamoa oldida bir og‘iz tabriklab yoki tashakkur aytish ham bir rag‘batlantirish usulidir. Ammo hech qachon samarasiz o‘qituvchini natijalari uchun jamoa oldida yoki o‘quvchilar oldida tanbeh bermaslik kerak. Bunday o‘qituvchilar bilan individual gaplashish va ishlash kerak. Jamoa oldida maktabdagi holat, muammo va kamchiliklar, bajarilmayotgan ishlar shaxslarni kamsitmasdan yoki haqoratlamasdan ham aytilishi, muhokama qilinishi mumkin. Aks holatda, maktab

muhiti o‘sha yerni o‘zida yomonlasha boshlaydi. Rag‘batlantirishning ko‘plab usullari bordir. Tug‘ilgan kunida direktor o‘z nomidan yoki jamoa nomidan tabriklashi ham bir e’tibor va rag‘batdir. Albatta, eng katta rag‘bat bu moddiy rag‘batlantirishdir. Bu moddiy rag‘batlantirish hali-hamon butun tashkilotlarda va korxonalarda o‘z kuchini yo‘qotmagan. Muhimi, moddiy rag‘batlantirish shaffof va natijaga qaratilgan bo‘lishi kerak. Maktab muvaffaqiyatidagi va ta’lim sifatidagi navbatdagi muhim omil bu kasbiy rivojlanishni ta’minlashdir. O‘qituvchilar qotib qolmasligi kerak. O‘qituvchilar doim o‘z ustida ishlashlari, malaka va bilimlarini oshirib borishi, kompetensiyasini takomillashtirishi kerak. Buning uchun maktab rahbariyati kerakli sharoit yaratib berish bilan birga, bunga targ‘ibot va tashviqot qilishi, qo‘llab quvvatlashi kerak. O‘qituvchilarning ijodiy yondashuvlarini, tanqidiy fikrlashlarini, maktab faoliyatida sinergetik ishlashni, bir-biridan o‘rganishni, malaka oshirish kurslarida qatnashib kelishni va o‘z bilim va tajribalari bilan o‘rtoqlashishni keng yo‘lga qo‘yish o‘ta muhimdir.

Rag‘batlantirish tizimi har bir xodimning zaxiradagi salohiyatini safarbar qilishga yo‘naltiradi. Bu xodimning individual natijalarining o‘sishiga, ijodiy salohiyatning namoyon bo‘lishiga va o‘zini o‘zi rivojlantirishga bo‘lgan qiziqishini orttiradi.

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim jarayonida jamoani va yoki alohida pedagoglarni rag‘batlantirish usullari mavjud.

Maktab shunday dargohki, bu muassasada o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham rah’batga , maqtovga ehtiyoj sezadi. Shunday xodimlar borki mag’lubiyatga uchrasa,u bir qadam orqaga qadam bosadi. Muvoffaqiyatga erishsa, xohlagan narsasini yanada kuchliroq xohlaydi va unga uch barobar kuch va g'ayrat bilan erisha boshladi, hammaga o‘zining qobiliyatli va munosib ekanligini isbotlashni xohlaydi. Ko‘p odamlar borki, ular bir marta mag'lub bo'lgach, shunchaki taslim bo‘lishadi va hech narsaga erishmaydilar. Ushbu misol universal vositalar mavjud emasligini ko‘rsatadi, shuning uchun xodimlarni rag‘batlantirish uchun kompleks yondashuv zarur. Direktorning vazifasi o‘z jamoasini diqqat bilan kuzatish va rag‘batlantirish, u yoki bu o‘qituvchini qanday ehtiyojlar boshqarayotganini bilishdir. Jamoani boshqarish va mehnatni rag‘batlantirish tizimini birlashtirish nuqtai nazaridan o‘qituvchi o‘zini namoyon qilish zarurligiga ega bo‘lishi uchun fiziologik, ijtimoiy va xavfsizlik ehtiyojlarini qondirishning zarur darajasiga erishish muhimdir. O‘qituvchining ehtiyojlari va motivatsiyasi uning hatti-harakatlarini faollashtiradi, qo‘llab-quvvatlaydi va boshqaradi. O‘qituvchilarning motivatsiyasi tashkilotdagi muvaffaqiyatli faoliyatning eng muhim elementidir. Ko‘pgina hollarda menejerlar o‘qituvchini pul bilan rag‘batlantirish kifoya qiladi va u to‘liq fidoyilik bilan ishlaydi, deb hisoblashadi. Menejer shuni tushunishi kerakki, yaxshi ish “ular ko‘p pul to‘laydigan joyda” emas, balki zavq keltiradigan ishdir.

2019 yilda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan

xodimlarini rag‘batlantirish direktor jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan umumta’lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlari faoliyatining natijadorligi asosida ularni rag‘batlantirishning shaffof tizimini joriy etish to‘g‘risidagi taklifi ma'qullandi va Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Ta’lim tizimida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan va o‘quvchilari yuqori natijalarga erishgan malakali pedagog kadrlarning mehnatlarini rag‘batlantirish hamda o‘z ustida doimiy ishlaydigan, o‘zining o‘qitish uslubiga va xalq orasida obro‘-e’tiboriga ega bo‘lgan o‘qituvchilarni yanada qo‘llab – quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 2.08 dagi 425- sonli Qarori qabul qilindi.

Xulosa. Umumta’lim maktablarida inson resurslarini boshqarishda rag‘batlantirish va motivatsiya muhim omil sifatida qaralishi lozim. O‘qituvchining mehnatini qadrlash va ularni rag‘batlantirish orqali nafaqat ularning kasbiy faoliyati yuksaladi, balki ta’lim sifatining ham ortishiga olib keladi. Shu sababli, maktab rahbariyati inson resurslarini boshqarishda strategik yondashuvni ishlab chiqishi lozim.

Umumta’lim maktablarida rag‘batlantirish va motivatsiya samarali inson resurslarini boshqarishning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular orqali o‘qituvchilar faoliyatining sifatini oshirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va ta’lim tizimini rivojlantirish mumkin.

Xodimlarni rag‘batlantirish sohasidagi menejerning asosiy vazifasi motivatsiya tizimini ishlab chiqishdir. Buning uchun u xodimlarni rag‘batlantirishning zamonaviy usullaridan foydalanishi kerak. Xodimlaringizni rag‘batlantirish siri - faol bo‘lishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashri. – Toshkent: :O‘bekiston nashriyoti, 2022.-416 bet.

2. Ричи Ш, Мартин П. Управление мотивацией. Учебное пособие.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. – 399 с.

3. Одегов Ю.Г. и другие. Мотивация персонала Ученое пособие. – М.: Альфа-Пресс, 2010. -640 с.

4. Жданкин Н.А. Мотивация персонала. Измерение и анализ. Учебно–практическое пособие.-М.:Финпресс, 2010.-272 с.

5. Кибанов А.Я. Экономика и социология труда. Учебник. М.: ИНФРА М, 2010. – 310 с.

6. Кибанов А.Я. Управление персоналом организации: актуальный технологии найма, адаптации и аттестации. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2010. – 368 с.

7. Мамадиёров.Н.Қ. Кадрлар тайёрлаш сифатини бошқариш моделлари Иқтисодиёт ва таълим. 2016. -№4. -57. -63б.

PEDAGOGLARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHDA MIKROO‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Shakarov Axror Amonqulovich
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi
axrorshakarov86@gmail.com

Annotatsiya:

Mazkur maqolada pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida mikroo‘qitish metodikasining o‘rni va ahamiyati tahlil etiladi. Mikrooqitish — bu o‘qituvchining o‘z amaliy faoliyatini qisqa vaqtli mashg‘ulotlar orqali rejalashtirishi, sinab ko‘rishi va reflektiv tahlil asosida takomillashtirishini nazarda tutuvchi innovatsion yondashuvdir. Ushbu metodika pedagogik salohiyatni rivojlantirishda, o‘z-o‘zini baholash va mustaqil o‘rganishga yo‘naltirishda, shuningdek, o‘qituvchi faoliyatini doimiy takomillashtirishda samarali vosita hisoblanadi. Maqolada mikroo‘qitishning asosiy tamoyillari, takomillashtirish yo‘llari va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi yoritilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalar bilan qiyosiy tahlil asosida milliy tizimda joriy qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: mikroo‘qitish, uzluksiz kasbiy rivojlanish, refleksiya, malaka oshirish, pedagogik metodika.

Kirish

Bugungi kunda uzluksiz kasbiy rivojlanish (UKR) ta’lim tizimida pedagogik kadrlar salohiyatini oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etishda mikroo‘qitish metodikasi amaliyotga yaqin, interfaol va tahliliy imkoniyatlarga ega bo‘lgan innovatsion yondashuv sifatida ajralib turadi.

Mikroo‘qitish — bu o‘qituvchilarning dars jarayonining qisqa fragmentlarini rejalashtirib, amalda bajarib, keyin esa tahlil qilish orqali o‘z faoliyatini tahlil va takomillashtirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvdir. Bu usul orqali pedagog o‘zining kuchli va kuchsiz jihatlarini aniq ko‘rib, refleksiya orqali kasbiy yuksalish trayektoriyasini belgilaydi.

Mikroo‘qitishning afzalliklari quyidagilarda ko‘rinadi:

qisqa vaqt ichida o‘qituvchining dars o‘tish mahoratini oshirish;

tahlil asosida shaxsiy xatolar ustida ishlash;

guruhli muhokama va fikr almashish orqali metodik yondashuvlarni boyitish;

o‘z-o‘zini baholash va o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirish.

Tezkor texnologik o‘zgarishlar sharoitida mikroo‘qitish usulini takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlar tavsiya etiladi:

1. Raqamli platformalarda (Zoom, Google Meet, MS Teams) virtual mikroo‘qitish mashg‘ulotlarini joriy etish;
2. Video tahlil asosida o‘zini kuzatish va refleksiya qilish;

3. Mikrotreninglar, peer-feedback (o‘rtoqlik asosida tahlil) usullarini keng qo‘llash;

4. Pedagogik mahorat markazlarida mikroo‘qitish modullari asosida malaka oshirish kurslarini ishlab chiqish.

Ta’lim sifatini oshirishda pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash muhim vazifalardan biridir. Bu jarayon nafaqat an’anaviy malaka oshirish shakllarini, balki yangi, samaradorlikka yo‘naltirilgan innovatsion metodlarni qo‘llashni ham taqozo etadi. Shunday metodlardan biri – **mikroo‘qitish** metodikasidir.

Mikroo‘qitish metodikasi – bu o‘qituvchining o‘quv faoliyatining qisqa, aniq va maqsadli fragmentini rejalashtirib, amalda sinab ko‘rishi, o‘z ustida refleksiya qilishi va tahlil asosida kasbiy o‘sishni ta’minlashga yo‘naltirilgan interfaol ta’lim texnologiyasidir. Bu metod 1960-yillarda AQShda paydo bo‘lgan bo‘lib, bugungi kunda ko‘plab mamlakatlar, jumladan, Finlyandiya, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreyada o‘qituvchilarni tayyorlash va ularning kasbiy mahoratini oshirishda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda.

Nazariy jihatdan mikroo‘qitish quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

1. **Kichik ko‘lamli o‘rgatish** – darsning to‘liq ko‘rinmasi emas, balki uning muhim bir qismini o‘rganish.
2. **Takrorlash va tahlil** – faoliyat fragmenti bir necha bor qaytariladi va har safar muhokama qilinadi.
3. **Refleksiya** – o‘qituvchi o‘z faoliyatiga mustaqil baho beradi, fikr bildiradi, xatolarini ko‘radi.
4. **Qayta loyihalash** – har bir tajriba asosida dars mazmuni va metodikasi takomillashtiriladi.
5. **Yondashuvlar xilma-xilligi** – o‘rgatish, kuzatish, baholash, taklif berish va tahlil jarayonlari birgalikda amalga oshiriladi.

Mikroo‘qitishning asosiy vazifasi – o‘qituvchining **metodik savodxonligi, kommunikatsion ko‘nikmalari, interaktiv dars o‘tish malakasi, o‘z ustida ishlash odatlari**ni shakllantirish va kuchaytirishdan iborat. U nafaqat yosh, balki tajribali pedagoglar uchun ham foydalidir, chunki u amaliyotga yo‘naltirilgan, tezkor o‘zgarishlar kiritish imkonini beradi.

Mikroo‘qitishni takomillashtirish uchun quyidagi nazariy-innovatsion yondashuvlar qo‘llaniladi:

Reflektiv pedagogika – o‘z tajribasini tahlil qilib, o‘quv jarayoniga ongli yondashish;

Andragogik yondashuv – kattalar (ya’ni, amaldagi o‘qituvchilar) ta’limiga xos ehtiyojlar, motivatsiya va sharoitlarni hisobga olish;

Raqamli texnologiyalar integratsiyasi – videoanaliz, onlayn treninglar, masofaviy muhokamalar orqali samaradorlikni oshirish;

Konstruktivistik yondashuv – o‘qituvchi o‘zi bilimni mustaqil shakllantiruvchi subyekt sifatida e’tirof etiladi.

Ushbu metodika o‘zbek ta’lim tizimida ham joriy qilinmoqda. Respublikadagi pedagogik mahorat markazlarida mikroo‘qitish asosida tashkil

etilayotgan tajriba-darslar, seminar-treninglar, ochiq saboqlar o‘qituvchilarning real amaliy holatlar asosida o‘zini baholashiga, o‘rganishiga va rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa

Mikroo‘qitish metodikasi – pedagogni o‘zgartiruvchi, faollashtiruvchi va chuqur tahlilga yo‘naltiruvchi samarali mexanizmdir. Bu metod pedagogni nafaqat o‘quvchi, balki o‘z ustida ishlovchi, tahlil qiluvchi va o‘zgarishga tayyor shaxsga aylantirishga xizmat qiladi. Shu bois, uzluksiz kasbiy rivojlanishda mikroo‘qitishni takomillashtirish nazariy va amaliy jihatdan ustuvor yo‘nalishdir.

Shunday qilib, pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda mikroo‘qitish metodikasini takomillashtirish o‘qituvchilarning metodik savodxonligi, reflektiv fikrlash va amaliy tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

KELAJAK PEDAGOGI UCHUN INTERAKTIV O‘QUV TEXNOLOGIYALARI

Berdiyorova Orzigul Qirjigit qizi
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
“Pedagogika” kafedrasi assistenti
Orzugulberdiyorova1230@gmail.com

Annotatsiya. Global texnologik taraqqiyot va raqamlashtirish ta’lim sohasini tubdan o‘zgartirmoqda. Bu jarayonda interaktiv o‘quv texnologiyalari nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, balki o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, ijodkorlik va hamkorlikka yo‘naltirish vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Kelajak pedagogi esa ushbu texnologiyalarni puxta egallab, o‘z faoliyatida samarali qo‘llashi ushbu maqolada yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Interaktiv texnologiyalar, «o‘zaro ta’sir», o‘yinli ta’lim, afzalliklari, davlatlarda olib borilishi, onlayn platformalar.

Аннотация.Глобальное технологическое развитие и цифровизация коренным образом меняют сферу образования. В этом процессе интерактивные учебные технологии служат не только для повышения эффективности учебного процесса, но и как средство стимулирования самостоятельного мышления, творческого подхода и сотрудничества учащихся. Будущий педагог должен глубоко освоить эти технологии и эффективно применять их в своей деятельности, что и освещается в данной статье.

Ключевые слова: интерактивные технологии, «взаимодействие», игровой подход в обучении, преимущества, применение в разных странах, онлайн-платформы.

Abstract. Global technological advancement and digitalization are fundamentally transforming the field of education. In this process, interactive

learning technologies serve not only to enhance the efficiency of the educational process but also as a tool to foster independent thinking, creativity, and collaboration among learners. The future educator must thoroughly master these technologies and effectively implement them in their work, which is discussed in this article.

Key words: interactive technologies, interaction, game-based learning, advantages, implementation in different countries, online platforms.

XXI asrda ta’lim jarayoni jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. An’anaviy dars metodlari asta-sekin o‘z o‘rnini raqamli, zamonaviy va interaktiv texnologiyalarga bo‘shatmoqda. Bu jarayonning markazida esa — pedagog, ya’ni o‘qituvchi turadi. Kelajak pedagogi nafaqat bilim beruvchi, balki axborot texnologiyalaridan foydalanib, o‘quvchini faol ishtirokchiga aylantiruvchi zamonaviy mutaxassis bo‘lishi kerak. «Interaktiv» so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, “o‘zaro ta’sir” degan ma’noni anglatadi. Interaktiv o‘qitish usullari o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida faol muloqotni ta’minlaydi, bilim olish jarayonini bir tomonlama emas, balki ikki tomonlama qiladigan yondashuvdir. Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalari sur’atlar bilan rivojlanayotgan bir paytda, ta’lim tizimining transformatsiyasi muhim zaruratga aylandi. An’anaviy ta’lim usullari o‘z samarasini yo‘qotib borayotgan bir davrda, o‘quv jarayonining interaktiv, o‘zaro muloqotga asoslangan va talabaning faol ishtirokini ta’minlaydigan texnologiyalar orqali boyitilishi pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda interaktiv o‘quv texnologiyalarini joriy etish orqali nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, balki ularning mustaqil fikrlash, axborotni izlab topish va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Interaktiv texnologiyalarning asosiy turlari Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)-kompyuter, planshet, smartfon, interaktiv doska, onlayn platformalar (Zoom, Microsoft Teams, Google Meet, Moodle, Edmodo) yordamida darsni o‘tkazish imkonini beradi. Multimedia texnologiyalari-video, audio, grafikalar, animatsiyalar orqali o‘quv materiallarini tushuntirish osonlashadi. Bu o‘quvchida mavzuga qiziqish uyg‘otadi va materialni chuqurroq anglashga yordam beradi. Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR)-tabiat, tarixiy voqealar yoki ilmiy tajribalarni virtual olamda ko‘rsatish orqali murakkab mavzularni tushunishni osonlashtiradi. O‘yinli ta’lim (Gamification)-o‘yin elementlari asosida bilim berish – masalan, “Kahoot!”, “Quizizz”, “Classcraft” platformalari orqali testlar o‘tkazish, ball yig‘ish, mukofotlar berish orqali o‘quvchilarning darsga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi. Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning)-talabalar biror muammoni hal qilish uchun mustaqil yoki guruhda loyiha ishlab chiqadi. Bu usul ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Zamonaviy ta’limda qo‘llanilayotgan interaktiv texnologiyalar turlicha bo‘lishi mumkin[1].

Kelajakda ta’limning muvaffaqiyati zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda faoliyat yuritadigan pedagog shaxsiga bog‘liq bo‘ladi.

Interaktiv texnologiyalar pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi masofani qisqartirib, bilim olish jarayonini erkin va ijodiy muhitda tashkil qilishga imkon beradi. Masalan, sun’iy intellekt, virtual reallik (VR) yoki kengaytirilgan reallik (AR) asosidagi interaktiv vositalar orqali o‘quvchilar tarixiy voqealarni vizual tarzda ko‘rishi, biologik jarayonlarni 3D formatda kuzatishi mumkin. Bu esa ularning tasavvur doirasini kengaytiradi, fanlarga bo‘lgan qiziqishini orttiradi. Shuningdek, interaktiv texnologiyalar orqali o‘quvchilar masofaviy ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lib, chekka hududlardagi bolalar ham sifatli ta’lim bilan ta’minlanmoqda. Bu esa ta’limdagi tenglik prinsipining hayotga tatbiq etilishiga xizmat qiladi [2].

Interaktiv texnologiyalarning afzalliklari :o‘quvchilarning darsdagi ishtirokini faollashtiradi, dars jarayonini vizual va tinglov orqali boyitadi, individual yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi, talabalar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantiradi, ko‘p ma’lumotni qisqa va samarali tarzda yetkazishga yordam beradi. Interaktiv texnologiyalarning kamchiliklari: texnologik vositalarga to‘liq ega bo‘lmagan hududlarda bu yondashuv qiyinlashadi, dastlabki o‘rganish bosqichida o‘qituvchilardan ko‘p tayyorgarlik talab etiladi, ba’zida o‘quvchilar texnologiya bilan “o‘ynab ketib”, asosiy maqsaddan chalg‘ib qolishi mumkin. [3]. Interaktiv o‘quv texnologiyalari boshqa davlatlarda olib borilishi qanday ekanligini ko’rib chiqamiz.

AQSh ta’lim tizimi interaktiv o‘quv texnologiyalarini faol ravishda qo‘llaydi va rivojlantiradi. *STEM* (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yo‘nalishidagi ta’limda interaktiv laboratoriyalar, 3D modellar, virtual simulyatsiyalar keng qo‘llaniladi. “Flipped classroom” (teskari sinf) modeli juda ommabop bo‘lib, bunda o‘quvchilar mustaqil ravishda onlayn materiallarni o‘rganib, sinfda muammolarni muhokama qilishadi. Interaktiv doskalar, ta’lim uchun maxsus ishlab chiqilgan ilovalar (Kahoot!, Quizlet), VR/AR texnologiyalari. Massachusettsdagi MIT universiteti dunyoda ilg‘or interaktiv o‘quv platformalarini yaratgan. Yaponiyada ta’lim jarayoni texnologiyalarga juda moslashgan va an’anaviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan. O‘quvchilarning hamkorlikda ishlashiga katta e’tibor beriladi. Interaktiv robotlar yordamida darslar olib boriladi, bu yosh bolalarda texnologiyaga qiziqishni oshiradi. Smart taxtalar, o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan interaktiv o‘yinlar, robototexnika vositalari. Yapon maktablarida o‘quvchilar texnologiyalar yordamida jamoaviy loyihalar ustida faol ishlaydi. Finlyandiya ta’lim tizimi dunyoda eng innovatsion va samarali deb hisoblanadi. Interaktiv ta’lim shaxsiylashtirilgan bo‘lib, o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlariga moslashtirilgan. Ta’lim jarayonida muammoli o‘rganish va loyihaviy faoliyat ustuvor. Zamonaviy kompyuterlar, onlayn resurslar, ta’lim platformalari. O‘quvchilar ko‘p hollarda real hayot muammolarini hal qilish uchun guruh ishlari va taqdimotlar orqali bilim oladi. Janubiy Koreya ta’lim tizimi yuqori texnologiyalarga asoslangan. Raqamli ta’lim, interaktiv darslar va o‘yinlashtirilgan o‘quv jarayoni keng qo‘llanadi. Onlayn testlar, mobil ilovalar orqali doimiy monitoring va baholash amalga oshiriladi. Smart taxtalar, o‘quv ilovalari, virtual sinflar. Ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning qobiliyatlari individual tarzda baholanadi. Buyuk Britaniya ta’lim

tizimida interaktiv o‘quv texnologiyalari keng tarqalgan. Ta’limda blended learning (aralash ta’lim) modeli keng qo‘llanadi. Onlayn resurslar va virtual laboratoriyalar yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustahkamlaydi. Moodle kabi o‘quv boshqaruv tizimlari, interaktiv testlar, video darslar. Universitetlar va maktablarda keng ko‘lamli onlayn kurslar (MOOCs) taqdim etiladi[7].

Har bir davlat o‘z ta’lim tizimida interaktiv o‘quv texnologiyalarini milliy an’analar, iqtisodiy va texnik imkoniyatlarga moslashtirib qo‘llaydi. Axborot texnologiyalari va raqamli platformalardan foydalanish global tendensiyaga aylangan. Interaktiv o‘quv texnologiyalarining eng samarali usullari hamkorlik, muammoli o‘rganish, individual yondashuv, o‘yinlashtirish va sun’iy intellektga asoslangan tizimlardir. O‘zbekiston ta’lim tizimi ham ushbu yo‘nalishda faol rivojlanmoqda. «Raqamli ta’lim» konsepsiyasi asosida interaktiv platformalar, masofaviy ta’lim vositalari, sun’iy intellekt asosidagi darslar joriy etilmoqda. Kelajak pedagogi sifatida muvaffaqiyat qozonish uchun quyidagilar muhim: Doimiy **ta’lim va malaka oshirish,** yangi texnologiyalarni o‘rganish, texnologiyalarni **integratsiya qilishni o‘rganish**, ya’ni darsni interaktiv vositalarsiz tasavvur qilmaslik, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va **differensial ta’lim** usullarini qo‘llash, jamoaviy ish va hamkorlikni rivojlantirish uchun **kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish**, axborot xavfsizligi va raqamli etikani o‘rganish va o‘rgatish, o‘yinlashtirish va kreativ metodlardan foydalanish orqali **motivatsiyani oshirish mumkin.**

Zamonaviy va kelajak pedagogi uchun interaktiv o‘quv texnologiyalari ta’lim sifatini tubdan yaxshilash, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vositadir. Texnologiyalarni samarali qo‘llash, individual yondashuvni ta’minlash va interaktiv metodlarni joriy etish pedagoglarning yangi avlod talabalari bilan muvaffaqiyatli ishlashiga imkon beradi. Shu tariqa, kelajak pedagogi — zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan, innovatsion yondashuvga ega bo‘lgan, o‘quvchilarni faol va ijodiy fikrlashga rag‘batlantiruvchi mutaxassisdir.

Xulosa. Interaktiv o‘quv texnologiyalari - bu nafaqat zamonaviylik talabi, balki samarali ta’limning ajralmas qismidir. Kelajak pedagoglari uchun bu texnologiyalarni bilish, ulardan unumli foydalanish, darsni ijodiy tashkil etish, va eng muhimi, har bir o‘quvchini faol ishtirokchiga aylantirish – kasbiy ustunliklaridan biri bo‘ladi. Ta’lim jarayonining markazida har doim inson – ya’ni o‘quvchi turganidek, bu inson bilan ishlovchi pedagog doimo o‘z ustida ishlashi, yangilikka ochiq bo‘lishi zarur. Interaktiv o‘quv texnologiyalari kelajak pedagogining ajralmas qismiga aylangan. Ushbu texnologiyalar nafaqat bilim berishni samarali qiladi, balki o‘quvchilarni faol va ijodiy fikrlashga undaydi. Kelajak pedagogi uchun esa texnologik savodxonlik, innovatsiyalarni qabul qilish va o‘quvchilarga individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’limda interaktivlikni oshirish orqali biz yanada mustahkam va zamonaviy bilimlar berish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduqodirov A.A., Jo‘rayev R.J. «Pedagogik texnologiyalar asoslari.» – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
2. Sharipova D.U. «Innovatsion pedagogik texnologiyalar.’‘ – Toshkent: Fan, 2021.
3. Qodirova N., Teshaboyeva G. «Interaktiv metodlar asosida o‘qitish.» – Toshkent: Iste’dod, 2019.
4. Axmedova D.X. «Ta’lim jarayonida AKTdan foydalanish metodikasi.» – Samarqand: SamDU, 2020.
5. Jononov M.S. «Zamonaviy pedagogik texnologiyalar.» – Qarshi: Nasaf, 2022.
6. Azizxo‘jayeva N.N. «Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.» – Toshkent: Fan, 2006.
7. Kahoot! Learning tools – https://kahoot.com

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDA FRAZEOLOGIZMLARNING QO‘LLANISH ASPEKTI

Bozorov Sardor Iskandar o‘g‘li
Samarqand davlat universiteti
sardorbozorov16@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek xalq ertaklarida frazeologizmlarning badiiy-funktsional vazifasi, ularning qahramon xarakteri, voqea rivoji va xalqning estetik dunyoqarashini ifodalashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Har bir frazeologik birlik matndagi ijtimoiy, madaniy va semantik funksiyasi bilan birga, ertak poetikasiga ta’siri misollar orqali ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar*:frazeologizm, xalq ertagi, badiiy til, obrazlilik, xalq og‘zaki ijodi, barqaror birikma, semantika*

Kirish. O‘zbek xalq ertaklari xalqning og‘zaki ijodi namunasi sifatida asrlar davomida og‘izdan og‘izga o‘tib, avloddan avlodga o‘tgan bebaho ma’naviy merosdir. Ular orqali xalqning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari, estetik didi va til madaniyati ifodasini topgan. Ertaklar tilining eng yorqin jihatlaridan biri bu – frazeologizmlarning boyligi va badiiy quvvatidir.

Frazeologik birikmalar o‘zbek xalqining ko‘p asrlik tajribasi, mentaliteti, hayotga qarashi, baholash mezonlarini siqiq shaklda ifodalovchi vositalardir. Aynan ertaklarda ularning qo‘llanishi xalqning til orqali ifoda etgan obrazlar olami va hayotiy haqiqatini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Shuning uchun frazeologizmlar ertak matnida nafaqat til boyligi, balki xalq tafakkuri, estetik didi va nutq madaniyatining badiiy ifodasi sifatida alohida ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada aynan **o‘zbek xalq ertaklarida frazeologik birliklarning** qanday uslubiy, semantik va badiiy-funktsional rol o‘ynashi tahlil qilinadi. Bunda frazeologizmlar orqali qahramon xarakteri, voqealar dinamizmi,

xalqona baho, xalq hikmatining in’ikosi qanday ifodalangani misollar bilan ochib beriladi.

Metodologiya

Tadqiqotda quyidagi metod qo‘llanildi:

Kontekstual tahlil – frazeologizmlarning ertak kontekstida ma’no va funksiya jihatdan tahlil qilishda

Natijalar va tahlil

Quyida bir qator frazeologizmlarning qo‘llanish o‘rni va ma’nosi mushohada qilingan. **“Ko‘zidan olov chiqdi” — g‘azabni ifodalovchi frazeologizm sifatida qo‘llanadi.**“Ajdarhoning jahli chiqib, ko‘zidan olov sochilibdi…”[56] Bu ibora g‘azab holatining kuchli vizual obrazda ifodasidir. Ajdarho hayvon bo‘lsa-da, antropomorf xarakter kasb etib, “ko‘zidan olov” chiqishi orqali uning shiddatli holati ifodalanadi. **“Tilini tishlabdi” — gapirmaslik, sir saqlash yoki qo‘rquv ma’nosida.**“Bu gapni eshitib, G‘uluyalar tilini tishlabdi”.[57] Bu ibora ertak kontekstida qahramonning ichki zo‘riqish, og‘ir holatda jim qolishini ifodalovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Bu iboraning jim turish ma’nosida ham kelish holatlari kuzatiladi.

“Yuragi orqaga tortdi” — qo‘rquv va xavotir holatida qo‘llanadi.“Qalandarbek ajdarni ko‘rib, yuragi orqaga tortgan ekan”.[58]Ushbu ibora frazeologik lug‘atda “qo‘rquv tufayli ich-ichiga tortilmoq” ma’nosida qayd etilgan bo‘lib, ertaklarda ko‘p uchraydi.

“Suyagidan o‘tdi” — chuqur hayajon yoki og‘riq ma’nosida.

“Uning gapi Qalandarbekning suyagidan o‘tib ketibdi”.[59]Bu ibora chuqur ta’sirni, ich-ichiga singgan og‘riq yoki afsusni anglatadi.

“Tishini tishiga bosdi” — chidam, sabrni bildiruvchi obraz ma’nosida keladi.

“Qiz ichida nima bo‘lmasin, tishini tishiga bosib, undamadi”.[60]Bu ibora o‘zbek xalq nutqidagi sabr va chidam timsoli sifatida ishlatiladi, ayniqsa ijobiy qahramon obrazlarida tez-tez uchraydi.

“Ko‘ngli g‘ash bo‘ldi” – noxushlik, norozilik holati“Qalandarbek oposining yuziga qarab, ko‘ngli g‘ash bo‘libdi”.[61] Bu ibora ko‘ngildagi og‘irlik, norozilik, norozi kayfiyatni bildiradi. Qahramon voqea fonida hissiy bosim ostida qoladi.

---

[56] *Ўзбек халқ фантастикаси, сеҳрли эртаклар, III китоб,114*.

[57] Кулса - гул, йигласа - дур:эртаклар/Шукуров А.1983,*167.*

[58] Кулса - гул, йигласа - дур:эртаклар/Шукуров А.1983,*114.*

[59] Ўзбек халқ ижоди,кўп томлик,Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.1985,*103.*

[60] Кулса - гул, йигласа - дур:эртаклар/Шукуров А.1983,*82.*

[61] Ўзбек халқ ижоди,кўп томлик,Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.1985,78

“Til topishib ketdi” – kelishuv va murosa holati ma’nosida keladi. “Qalandarbek bilan Qora dev birdaniga til topishib ketibdi”.[62] Bu ibora bir-birini tushunish, kelishuvga erishishni bildiradi. Qahramonlar qarama-qarshi bo‘lsa-da, til topishishlari syujet yechimini beradi.

“Boshini changalladi” – ajablanish, iztirob yoki qo‘rquv ma’nosini bildiradi.“Qozi bola ikki ishni buzib, otasi boshini changallabdi”[63]. Ibora xalq nutqida odatda g‘am-g‘ussa, achinish, yoki kutilmagan holatni ifodalash uchun ishlatiladi.

“Tilidan chaqmoq chaqildi” – g‘azab yoki keskir so‘zlar ifodasi o‘laroq ishlatiladi.

“Qora dev tilidan chaqmoq chaqilganidek gapiribdi”[64].Ibora g‘azab va keskir so‘zlar orqali ifodalangan kuchli emotsional portlashni bildiradi. Bu holatlarda aytilgan so‘zlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

“Oyoqlari qaltiradi” – qo‘rquv, hayajon yoki xafagarchilik ma’nosida keladi. “Podsho ajdar bilan uchrashganda oyoqlari qaltiray boshlabdi”[65].Ushbu ibora qahramonning kuchli qo‘rquv holatini jonli va obrazli tarzda beradi. Bu voqea dramatik kuch bilan boyitilgan.

“Ko‘ngli tog‘dek ko‘tarildi” — quvonch va faxr ma’nosida keladi. “Podshoning qizi suyunganidan “urra!” deb yuboribdi.Nihoyat, podshoning chehrasi yorishib, miyig‘ida kulib qo‘yibdi”.[66] Bu yerda “ko‘ngli tog‘dek ko‘tarildi” iborasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmagan bo‘lsa-da, **frazeologik izchil tasvir** orqali konnotatsiyasi aks ettirilgan. Bu xalq orasida faxr va sadoqat ifodasidir. Matnning o‘zida ham ikkita ibora qatnashyapti. “Chehrasi yorishmoq” va “Miyig‘ida kulmoq” iboralari keng ma’noda qo‘llanadi.

“Tilini yutib yubordi” — shokka tushish, hayrat ma’nosida keladi.

“Qalandarbek bu manzarani ko‘rib, ajablanib, og‘zi ochilib turgan ekan...”[67] “Tilini yutib yubordi” iborasi to‘g‘ri shaklda bo‘lmasa-da, aynan shu ma’noni ifodalovchi kontekstda (og‘zining ochilishi, hayrat) o‘rin olgan.

O‘zbek xalq ertaklarida frazeologizmlar **matnning poetik strukturasi**da muhim semantik va estetik yukni belgilaydi. Ular:

1)Emotsional ta’sirchanlikni oshiradi;

2)Xalq og‘zaki nutqining badiiy andozasini ko‘rsatadi;

3)Voqeani obrazli va jonli tasvirlaydi;

4)Qahramonlarning bahosini xalqona tarzda beradi.

Frazeologik birliklar o‘ziga xos kontekstual ma’no kasb etadi. Ular ertak tilining obrazlilik darajasini oshirish bilan birga, uni xalqona ruhda saqlab qoladi. Shu bilan birga, ayrim iboralar qolip sifatida takrorlanadi, bu esa ertaklarning uslubiy birligini mustahkamlaydi.

---

[62] *Ўзбек халқ фантастикаси, сеҳрли эртаклар, III китоб,114.*

[63] Ўзбек халқ ижоди,кўп томлик,Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.1985,103

[64] *Ўзбек халқ фантастикаси, сеҳрли эртаклар, III китоб,94*

[65] *Ўзбек халқ фантастикаси, сеҳрли эртаклар, III китоб,103*

[66] *Ўзбек халқ фантастикаси, сеҳрли эртаклар, III китоб,168*

[67] *Ўзбек халқ фантастикаси, сеҳрли эртаклар, III китоб,163*

Xulosa. O‘zbek xalq ertaklarida frazeologik birliklar o‘ta boy va badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ular orqali qahramonning ichki kechinmalari, emotsional holati, ijtimoiy bahosi, voqealar dramatizmi hamda xalqona kinoya, kulgi va donishmandlik ifoda etiladi. Tadqiqot davomida quyidagilar aniqlandi.Frazeologizmlar ertakdagi obrazlarni chuqur va emotsional tasvirlashda asosiy vositadir.Ular har bir syujet holatini emotsional jihatdan kuchaytiradi: qo‘rquv (“etidan yuragi chiqdi”), hayrat (“tilini yutib yubordi”), quvonch (“ko‘ngli tog‘dek ko‘tarildi”), og‘riq (“dili ezildi”), sabr (“tishini tishiga bosdi”) kabi.

Mazkur birliklar xalq tafakkuri va estetik qarashlarini xalqona shaklda yetkazadi — ko‘pincha muhim g‘oyaviy-tarbiyaviy funksiyani ham bajaradi.Ertaklar tili barqaror iboralar orqali stilistik yaxlitlikka erishadi; ba’zi frazeologizmlar har xil ertaklarda takrorlanadi, bu esa ularning xalq tafakkuridagi qadimiy ildizlari borligini ko‘rsatadi.Frazeologik birliklarning aynan qanday kontekstda qo‘llanilishi — ularning semantik o‘zgaruvchanligini, poetik moslashuvchanligini ko‘rsatadi.Har bir ibora tahlili shuni ko‘rsatdiki, ular nafaqat badiiy vosita, balki tilshunoslik, folklorshunoslik va madaniyatshunoslikda ham qimmatli tadqiqot materiali bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, o‘zbek xalq ertaklaridagi frazeologik birliklar tili va tafakkurini o‘rganishda muhim semantik, uslubiy va madaniy hodisa sifatida ilmiy tahlil qilinishi zarur. Ular milliy ong va og‘zaki ijodning jonli mahsuli sifatida baholanmog‘i darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.
2. Шукуров А. *Кулса — гул, йиғласа — дур: эртаклар*. — Тошкент: Ёш гвардия, 1983.
3. Ўзбек халқ фантастикаси, сеҳрли эртаклар, III китоб. — Тошкент: Ўзбекистон ЛКСМ Марказий Комитети, 1985.
4. Ўзбек халқ ижоди, кўп томлик. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.
5. Раҳматуллаев Ш. *Ўзбек тилининг фразеологик луғати*. — Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” ДК, 2022.
6. *ZiyoUz kutubxonasi* – https://www.ziyouz.com/kutubxona/

YANGI AVLOD ADABIYOT DARSLARI: MUAMMO VA YECHIM. “BINAFSHA” HIKOYASI ASOSIDA LOYIHALASHTIRILGAN O‘QUV MASHG‘ULOTI

Hayrullayeva Muhabbat Pirmamat qizi
O’zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti 1-kurs magistranti
hayrullayevamuhabbat35@gmail.com

+998935578991

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Abdusaid Ko’chimovning “Binafsha” hikoyasi asosida yangi avlod adabiyot darsiga mos o’quv mashg‘uloti loyihasi taqdim etiladi. Darsda tanqidiy fikrlash, axloqiy-estetik tahlil, interaktiv strategiyalar va yangi pedagogik texnologiyalar asosida o’quvchilar faolligi ta'minlangan. Dars strukturasida mustaqil fikr, emotsional tahlil va shaxsiy pozitsiyani bildirishga yo’naltirilgan mashg‘ulotlar asoslab beriladi*

Kalit so’zlar: *Yangi avlod darsi, “Binafsha”, dars loyihasi, adabiyot, interaktiv strategiya, o’quvchi faolligi, tanqidiy fikrlash, pedagogik faoliyat, pedagogik kompetentlik, ta’lim jarayoni.*

Аннотация*. В данной статье представлена модель учебного занятия, соответствующего требованиям урока литературы нового поколения, на основе рассказа Абдусаида Кучимова «Бинафша». На уроке обеспечивается активность учащихся за счёт применения критического мышления, нравственно-эстетического анализа, интерактивных стратегий и современных педагогических технологий. В структуре занятия обоснованы задания, направленные на развитие самостоятельного мышления, эмоционального анализа и выражения личной позиции.*

Ключевые слова*: урок нового поколения, «Бинафша», проект урока, литература, интерактивная стратегия, активность учащихся, критическое мышление, педагогическая деятельность, педагогическая компетентность, образовательный процесс.*

Abstract. *This article presents a model of a learning session tailored to the requirements of a new generation literature lesson, based on Abdusaid Ko’chimov’s short story “Binafsha.” The lesson ensures student engagement through critical thinking, moral-aesthetic analysis, interactive strategies, and innovative pedagogical technologies. The lesson structure justifies the inclusion of tasks aimed at developing independent thinking, emotional analysis, and the expression of personal viewpoints.*

Key words*: new generation lesson, Binafsha, lesson project, literature, interactive strategy, student engagement, critical thinking, pedagogical activity, pedagogical competence, educational process.*

Kirish. Ta’lim sohasidagi keng islohotlarning amalga oshirilish zarurati shundaki, mustaqil Respublikamiz jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini topishi, bozor

iqtisodiyotiga o‘tishi, ilmiy texnika rivojlanishidan orqada qolmasligi uchun jahon andozalariga mos keladigan salohiyatli kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.Amalga oshirilgan islohotlar va qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda barkamol shaxs, malakali mutaxassis hamda o‘z kasbining egasi bo‘lgan kompetent pedagoglarni tayyorlash jarayonining mohiyati to’laqonli ochib berilgan.Xususan, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yildagi 187-sonli qarorida o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari ishlab chiqilgan tegishli tartibda tasdiqlangan. [2,11-b.]

Hozirgi zamon adabiyot ta’limida “bilim berish”dan ko‘ra, “fikr uyg‘otish” tamoyili ustuvorlik kasb etmoqda. Yangi o‘quv dasturlarida shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosiy mezonga aylangan. Bunday jarayonda kichik hajmli, ammo g‘oyaviy yuklamasi kuchli hikoyalarni zamonaviy yondashuvlar asosida o‘qitish dars sifati va ta’sirchanligini oshiradi. Abdusaid Ko‘chimovning “Binafsha” hikoyasi - ana shunday asarlardan biri bo‘lib, u orqali yangi avlod adabiyot darsini loyihalash imkoniyati mavjud.

Malakali pedagogning oldindan ko‘ra bilishi va maqsadga intilishi ta’lim jarayonini pedagogik loyihalashning asosini tashkil etadi. Pedagogik loyihalashda vazifaning yaxlit holda mazmunan, tashkiliy-metodik, moddiy-texnik, ijtimoiy-psixologik (kommunikativ, hissiy va h.o.) jihatdan hal etilishini ta’minlah talab etiladi.

Pedagogik jarayonni loyihalashda pedagog duch keladigan eng katta muammo – pedagogik faoliyat mazmunini loyihalash sanaladi. [1,54-b.]

Asosiy qism. Adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish keng yo‘lga qo‘yilayotgan bo‘lsa-da, hali-hanuz quyidagi muammolar kuzatiladi:

1. An’anaviy yondashuvning ustuvorligi – Ko‘plab o‘qituvchilar hali-hanuz hikoyalarni faqat mazmun bayoni va savol-javob orqali o‘rganish bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil tahliliy fikrlash, obrazlar ustida ishlash va emotsional idrokini yetarlicha rivojlantira olmaydi.

2. Zamonaviy metod va texnologiyalarni tanlashda noaniqlik – Har bir adabiy matnga mos metodika va texnologiyani tanlash muhim. Ammo o‘qituvchilar ba’zida metodlarni to‘g‘ri tanlamasdan yoki yuzaki qo‘llash natijasida dars sifati pasayadi.

3. Texnologik vositalar va metodik tavsiyalar yetishmasligi – Ayniqsa, kichik hajmdagi hikoyalarni yangi texnologiyalar asosida samarali o‘qitish bo‘yicha dars ishlanmalari, namunaviy loyihalar kam. Bu holat o‘qituvchilarni mustaqil izlanishga majbur qiladi yoki ularda darsga yangicha yondashishga ishonchsizlik tug‘diradi.

4. O‘quvchilarning emotsional idrokini faollashtirishdagi qiyinchiliklar – Hikoya kabi badiiy asarlar emotsional tusga ega bo‘lganligi sababli, ularni tahlil qilishda o‘quvchilar ko‘pincha shunchaki voqealar zanjirini eslab qolishga intiladi. Asardagi ramziy obrazlar, ichki kechinmalarni tushuntirish esa murakkab kechadi.

5. Metodik madaniyatning yetarli shakllanmaganligi – O‘qituvchining didi, adabiy saviyasi va metodik kompetensiyasi darsning sifatini belgilaydi. Agar o‘qituvchi asarni chuqur anglamagan bo‘lsa yoki zamonaviy texnologiyalarni noto‘g‘ri qo‘llasa, badiiy matnning tarbiyaviy va estetik salohiyati ochilmay qoladi.

6. Baholash va refleksiya bosqichlarida soddalashtirish – O‘quvchilarning darsda erishgan natijalarini baholashda ko‘pincha umumiy fikr bildirish bilan cheklaniladi, natijada individual yondashuvlar, shaxsiy o‘sish dinamikasi e’tiborsiz qoladi.

1. Asarning tarbiyaviy va estetik imkoniyatlari. “Binafsha” hikoyasi bolalikdagi orastalik, iffat, mehr, hurmat, axloqiy yuksaklik g‘oyalari bilan to‘yingan. Asardagi bola xarakteri orqali o‘quvchi ichki kechinma, uyat, qadriyatga bo‘lgan sezgirlikni his qiladi. Aynan shu jihatlar hikoyani 6–7-sinf adabiyot darslari uchun juda qulay materialga aylantiradi.

2. O’quv mashg‘uloti loyihasi.

Sinf: 6-sinf

Mavzu: “Binafsha” hikoyasida axloqiy obraz va o‘zini anglash motivlari

Dars turi: Kompetensiyaviy yondashuv asosida tuzilgan aralash dars

Ta’limiy maqsadlar: Hikoyaning mazmuni va asosiy g‘oyasini aniqlash; Bosh qahramon ruhiyati orqali axloqiy xulosa chiqarish; O’quvchilarda emotsional va tanqidiy fikrlashni shakllantirish.

3. Darsda qo‘llaniladigan zamonaviy texnologiyalar va usullar.

“Binafsha” hikoyasi asosida dars tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar o’quvchilarning emotsional dunyosini uyg‘otish, obraz tahliliga chuqur kirib borish va ijtimoiy-axloqiy fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Dars jarayonida quyidagi texnologiyalar va metodlar qo‘llanilishi tavsiya etiladi: Birinchidan, INSERT texnologiyasi yordamida o‘quvchilar matnni belgilash orqali o‘zlarining bilim darajasini faollashtiradi. Masalan, hikoya o‘qilishi jarayonida ular “+” belgisini avvaldan bilgan ma’lumotlarga, “–” belgini yangi o‘zlashtirilgan fikrlarga, “?” ni tushunarsiz joylarga va “!” ni qiziqish uyg‘otgan iboralarga qo‘yadilar. Bu usul matnni anglashni, tahlil qilishni va individual fikr bildirishni rivojlantiradi.

Ikkinchidan, “Fishbone” texnikasi (sabab–natija tahlili) orqali hikoyadagi asosiy muammoni aniqlash va uning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish mumkin. Masalan, bolaning ichki iztiroblari yoki binafsha ramzi orqali berilgan g‘oya qaysi omillar bilan bog‘liqligini tahlil qilishda ushbu usul foydali bo’ladi.

Shuningdek, obraz xaritasi texnologiyasi yordamida o’quvchilar hikoya qahramonlarining xarakterini, his-tuyg‘ularini va harakatlarini grafik shaklda ifodalaydilar. Bu esa ularning obrazlar ustida mustaqil fikr yuritish, tahlil qilish va dalillash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Guruhli ishlash orqali o‘quvchilar hikoyaning ma’naviy, emotsional va ijtimoiy jihatlarini turlicha tahlil etib, o‘zaro fikr almashadilar. Bunda kooperativ o‘qitish texnologiyasi asosida kichik guruhlar tuzilib, har bir guruh hikoyaga doir o‘z nuqtayi nazarini himoya qiladi.

Ijodiy bosqichda esa “Binafshaga maktub yozish” yoki “Hikoyaning davomini yozish” kabi topshiriqlar orqali o‘quvchilar o‘z munosabatini emotsional va badiiy shaklda ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa yozma nutqni rivojlantirish bilan birga, hikoyaning g‘oyaviy-estetik tahliliga ham xizmat qiladi.

Dars yakunida refleksiya bosqichida “Besh barmoq” usuli yoki “Bugungi darsdan 3 ta xulosa” kabi usullar qo‘llanilishi o’quvchilarning o‘z-o‘zini baholash, tahlil qilish va mustaqil fikr bildirish faoliyatini mustahkamlaydi.

4. Tajriba asosidagi natijalar.

Amaliyotda o‘tkazilgan dars natijalari quyidagicha baholandi: O‘quvchilar hikoyani emotsional va chuqur angladilar;

Darsda qatnashuv va muhokama darajasi oshdi;

Yozma ishlarda fikr ifodasi va badiiylik sezilarli bo‘ldi;

Shaxsiy pozitsiya bildiruvchi javoblar ko‘paydi;

Xulosa. “Binafsha” hikoyasi asosida tuzilgan adabiyot darsi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliy qo’llash orqali o’quvchilarning badiiy asarni chuqur anglash, tahlil qilish va unga shaxsiy munosabat bildirish ko’nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Yangi pedagogik yondashuvlar, xususan INSERT, Fishbone, obraz xaritasi, guruhiy tahlil va ijodiy topshiriqlar orqali o’quvchilar o’z fikrini mustaqil ifodalash, obrazlar orasidagi bog‘liqlikni anglash hamda voqelikni estetik idrok etish kabi muhim kompetensiyalarni egallaydilar.

Mazkur metodik dars loyihasi o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish bilan birga, adabiyot darslarini o’quvchilar uchun qiziqarli, mazmunli va interaktiv jarayonga aylantiradi. O‘qituvchining metodik yondashuvi esa o‘quvchilarda nafaqat badiiy tafakkurni, balki hayotiy va axloqiy pozitsiyani ham shakllantiradi. Shu jihatdan, bunday dars loyihalarini kengroq tatbiq etish hozirgi ta’lim jarayonining dolzarb talablaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O’.Tolipov, D.Ro’ziyeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: “ Innovatsiya Ziyo” , 2019. 54-b.
2. F.Rahmatova, M.Sheranova. Pedagogik kompetentlik. (Darslik). – Jizzax – 2021.11-b.
3. Axmedov Q.M. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni joriy qilish muammolari. – T.: “ Fan va texnologiya” , 2012, 36 b.
4. N.S.Saidahmedov, N.N.Indiaminov. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent: “Fan va texnologiya” , 2014, 316 b.
5. XX asr jahon adabiyoti.Hikoyalar. –Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2009.
6. XX asr o’zbek hikoyasi antologiyasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”., 2011.
7. Pedagogik mahorat. – Toshkent: M.M.Ahmedjanov, B.Q.Xo’jayev, Z.D.Hasanova, 2010.
8. www.pedagog.uz

9. www.uforum.uz forumi
10. www.uzedu.uz
11. www.wikipedia.ru
12. www.ziyonet.uz kutubxonasi

BIOLOGIYA FANIDAN O‘QUV MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL QILISHDA SAMARALI DARS LOYIHALARIDAN FOYDALANISH

Ibodullayeva Dilorom Murodullayevna
Samarqand viloyat pedagogik
mahorat markazi o‘qituvchisi
Ishmurodov Djo‘rabek Astanakulovich
Samarqand viloyati maktabgacha va
maktab ta’limi boshqarmasi
sho‘’ba boshlig‘i

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida biologiya ta’limini samarali tashkil etish uchun 5E modeli asosidagi metodik yondashuvlar bayon etiladi. 5E modelining har bosqichlari biologiya fanining mazmuniga mos holda amaliy misollar bilan tahlil qilinadi. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash, izlanish va real hayotiy muammolarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi usullar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: 5E modeli, biologiya, metodika, interfaol ta’lim, izlanish, amaliyot, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методические подходы на основе модели 5E для эффективной организации преподавания биологии в общеобразовательных школах. Каждый этап модели 5E проанализирован с практическими примерами, соответствующими содержанию предмета биологии. Особое внимание уделено методам, способствующим формированию у учащихся навыков самостоятельного мышления, исследовательской деятельности и анализа реальных жизненных проблем.

Ключевые слова: модель 5E, биология, методика, интерактивное обучение, исследование, практика, инновационные технологии.

Abstract: This article presents methodological approaches based on the 5E model for the effective teaching of biology in general secondary schools. Each stage of the 5E model is analyzed with practical examples aligned with the content of biology. Special emphasis is placed on strategies that help students develop independent thinking, research skills, and the ability to analyze real-life problems.
Key words: 5E model, biology, methodology, interactive learning, inquiry, practice, innovative technologies.

Kirish. Hozirgi kunda dunyo ta’lim tizimlari ichida Singapur modeli ayniqsa tabiiy fanlar, matematika va texnologiya yo‘nalishlarida o‘zining yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi. Xalqaro miqyosdagi TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) va PISA (Programme for International Student Assessment) baholash dasturlarida Singapur o‘quvchilari doimiy ravishda yuqori natijalarga erishmoqda. Ushbu yutuqlarda o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik yondashuvlarning joriy etilgani, xususan, 5E modeli muhim rol o‘ynaydi [1].

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda Singapur tajribasiga asoslangan metodik yondashuvlarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, Singapurdagi Marshall Cavendish Education (MCE) kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan tabiiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha yo‘l xaritasida 5E modeli (Engage – jalb etish, Explore – o‘rganish, Explain – tushuntirish, Elaborate – chuqurlashtirish, Evaluate – baholash) asosiy o‘quv strategiyasi sifatida tavsiya etilmoqda [2].

Mazkur model ilk bor 1987-yilda AQShning Biological Sciences Curriculum Study (BSCS) tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi o‘quvchilarni mavzuni faqat eslab qolish emas, balki tahlil qilish, bog‘lash, tushunish va amaliyotda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat [3]. 5E modelining har bir bosqichi konstruktiv yondashuvga asoslangan bo‘lib, o‘quvchilar bilimini bosqichma-bosqich shakllantirish, faol fikrlash, tajriba asosida xulosa chiqarish kabi zamonaviy ta’lim kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, 5E modeli nafaqat Singapur ta’lim tizimi yutuqlarining asosi, balki uni o‘zlashtirayotgan boshqa mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston uchun ham innovatsion yondashuv hisoblanadi.

Biologiya dars jarayonida samarali dars loyihalari o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq tushunishi, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishi va qiziqishini irishda muhim ahamiyatga ega. Dars loyihasi -bu o‘quvchilarning ma’lum bir mavzu bo‘yicha tadqiqot olib borishi,natijalarni tahlil qilishi va yakuniy taqdimot tayyorlashini nazarda tutuvchi o‘quv jarayoni.Loyihalar odatda quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Maqsadni aniqlash: Loyihaning asosiy maqsadi va mavzusi belgilanadi.

Tadqiqot savollarini ishlab chiqish: O‘quvchilarga javob topish uchun muhim savollar beriladi.

Ma’lumot yig‘ish: O‘quvchilar kerakli ma’lumptlarni yig‘adi (kitoblar, internet, kuzatuv va boshqalar).

Natijalarni tahlil qilish va tadqiqot tayorlash: O‘quvchilar guruhlarda yoki yakka tartibda ishlaydi va natijalarni taqdim etadi.

Quyida 8-sinf darsligidan “Yurak-qon tomir tizimi” mavzusida zamonaviy yondashuvlar asosida dars loyihasini ko‘rishimiz mumkin.

I bosqich: Jalb qilish-Qiziqtirish (Engage). Bu bosqichda o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha turli qiziqarli rasm, topshiriq yoki muammoli jumboqlar berib darsga qiziqtirish talab etiladi.

1. Berilgan rasmlarda qanday umumiylik bor?
2. Yurak qachon va qanday dam oladi?
3. Nega yurak kovak organ

II bosqich: Tadqiq qilish-O‘rganish (Explore).Bu bosqichda o‘quvchilar yangi mavzuga doir bilimlarni mustaqil holda kichik guruhlarda hamkorlikda o‘rganishadi. Tadqiq bosqichi o‘quvchilarni izlanishga, muammolarni hal qilishga, kichik olimlar kabi ilmiy tadqiqotlar qilishga o‘rgatadi. Bu bosqichda o‘quvchilar tajriba o‘tkazish orqali yangi mavzuni o‘zlashtiradilar.Masalan: Yurakning bir ish siklini diagrammada ifodalang deb topshiriq berilsa quyidagi tadqiq jarayonini bajarishlari mumkin Yurak bo ‘lmachalari, qorinchalari va yurakning umumiy sistola va diastola holati vaqtlarini diagrammada ifodalaydilar.



Yurakning bir ish sikli 0,8 sekund.0,1 sekund bo‘lmachalar sistola holatida bo‘ladi. 07 sekund bo‘lmachalar diastola holatida bo‘ladi.0,3 sekund qorinchalar sistola holatida bo‘ladi. 0,5 sekund qorinchalar diastola holatida bo‘ladi. Yurak umumiy 0,4 sekund sistola holatida, 0,4 sekund tenizm holatida bo‘ladi.

III bosqich. Tushuntirish (Explain). Ushbu bosqichda o‘quvchilar tadqiqot bosqichda bajargan ishlarini tushuntirishadi,o‘qituvchi esa o‘quvchilar to‘liq tushunmagan tushunchalar va ilmiy atamalarni tushuntiradi. Yurak siklining animatsion tasvirini, yurak haqida qiziqarli ma’lumotlar aytish mumkin.

IV bosqich. Qo‘llash-Kengaytirish (Elaborate). Ushbu bosqichda o‘quvchilar o‘rgangan bilimlarini amaliy jarayonda qo‘llay olishni o‘rganadilar. Mavzu yurak bo‘lganligi uchun yurakning modelini to‘g‘ri yartish va uning ishlash mexanizmi modellashtiriladi. Modellashtirish jarayonida o‘quvchi dastlab ish rejasi, kerakli jihozlar, texnika xafsizligini hisobga olishi muhimdir. Kutilayotgan natija o‘quvchini yartuvchanlik va ilmiylik kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Qo‘llash bosqichida muammoli jumboqlardan foydalanish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.Masalan ushbu mavzu bo‘yicha quyidagicha jumboqlar o‘quvchilarni hayotiy vaziyatlarda muammolarni yechishga o‘rgatadi.

-ilm-fan va tibbiyot sohasining muvaffaqiyatli kashfiyotlaridan biri yurak transplantatsiyasi (ko‘chirib o‘tkazish) hisoblanadi. Bir insonning yuragi ikkinchi insonga ko‘chirilib o‘tkazilayotganda, tanadan ajratilganda ham urishdan to‘xtamaydi, buni qanday izohlaysiz?

-inson yuragini sun’iy yurak bilan almashtirib uning hayotini davom ettirish mumkinmi?

-nima sababdan yurak dam olmasdan ishlay oladi?

-nega odamning vazni ikki uch marotaba oshishi mumkinu, yurak hajmi ikki,uch marta oshmaydi?

V bosqich. Baholash-(Evaluate).Ushbu bosqichda o‘quvchilar berilgan topshiriqni mustaqil bajaradilar. Baholash bosqichida o‘quvchi o‘z-o‘zini baholash, o‘qituvchi o‘quvchini baholash, hamda o‘qituvchi faoliyatini ham baholash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, o‘quvchilarini o‘qitishda 5E yondashuvdan foydalanish orqali o‘quvchilarni diqqatini darsga jalb qilish, mavzuni mustaqil o‘rganish ko‘nikmasini rivojlantirish, tadqiqot o‘tkazishga qiziqtirish, o‘rgangan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish, mavzu yuzasidan o‘rgangan bilimlarini boshqa fan ko‘nikmalari bilan uyg‘unlashtira olish, o‘zlarini baholay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bundan tashqari, 5E yondashuvi asosida o‘tilgan dars jarayonlarida o‘quvchilar olimlardek fikrlashni va kichik ilmiy tadqiqotlar qilishni o‘rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:.

1. Mullis I.V.S., Martin M.O., Foy P., Arora A., Boerma T. **TIMSS 2019 International Results in Science and Mathematics.** – Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2020. – 552 p.

2. Marshall Cavendish Education. **Science Curriculum Framework: Teaching and Learning for the 21st Century Learner.** – Singapore: MCE Publications, 2021. – 74 p.

3. Bybee R.W., Taylor J.A., Gardner A., Van Scotter P., Powell J.C., Westbrook A., Landes N. **The BSCS 5E Instructional Model: Origins and Effectiveness.** – Colorado Springs: BSCS, 2006. – 24 p.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA IJODIY TASAVVURNI RIVOJLANTIRISH

Najmiddinova Gulrux Aktamovna
Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani
58-sonli maktabning
Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Annotatsiyasi. Bu maqola yurtimizdagi bolalar uchun innovatsion ta’lim yaratishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Boshlang‘ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali ta’lim sifatini oshirish va fanga bo‘lgan qiziqish va intilishni kuchaytirish dolzarbligini belgilaydi. Yana shuni ta’kidlash joizki, Boshlang‘ich sinflarda ijodiy tasavvurni rivojlantirish ularni kengaytirish muhum dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, darslik va dasturlar, metodik yondashuv, ijodiy tasavvur, fan va texnologiya, metod, ijodiy, mantiqiy, interfaol, topqirlik, birdamlik.

Quyida havola etmoqchi bo‘lgan Boshlang‘ich sinflarda ijodiy tasavvurni rivojlanishi metodlardan biz matematika darslarida foydalanishimiz mumkin. O‘quvchilar uchun bu ijodiy tasavvurni rivojlantirish o‘yinlar va qiziqarli metodlarning o‘ziga xos tarbiyaviy ahamiyati va bosqichlari mavjuddir.

Bu bosqichlarni quyidagicha belgilab olish mumkin:

1. Tayyorlov davri. Tasavvurni uyg‘otish mas’uliyatli bosqich. Shu o‘rinda asosiy vazifa o‘quvchilarni mantiqiy savollarning maqsadi, mavzusi, qoidasi, shartlari bilan tanishtiriladi.

2. Mantiqiy savollar bilan tanishtirish. O‘quvchilar hayolan fikrlashi, tasavvur uyg‘ota olishlari uchun sharoit yaratib beriladi. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, vazifalar ham bo‘lib beriladi.

3. Ijodiy tasavvurni rivojlatirish. Belgilangan vazifani yakka va guruhlarga birlashtirib, topshiriqlarni bajartiriladi.

4. Bilimlarni amalda namoish qilish. Natijani baholash, xulosalash, ya’ni fikrlashining o‘quv-bilish natijalarini tahlil qilish.

Maktablar o‘quvchilar uchun belgilangan dars dasturlarini amalga oshiradi. Dasturlar o‘quvchilarning ma’lum bir fan yoki ko‘nikmalar bo‘yicha qanday o‘rganishlarini belgilaydi. Dasturlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish, tahlil qilish, muhokama qilish va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o'quvchilari uchun ijodiy tasavvurni shakllantirishga yordam berish uchun bir necha tavsiyalar mavjud:

Tushunishga yo‘l qo‘yish: Ijodiy tafakkur, o‘quvchining tushunishini, dunyoqarashi va uning fikrlarini ifodalash bilan bog‘liqdir. Shuning uchun, o‘quvchiga muhim masalalarni tahlil qilish, savollar berish va muhokama qilishni o‘rganishga yordam berish juda muhimdir.

Ko‘nikma oshirish: O‘quvchilarni ijodiy tafakkurda o‘rganish uchun, ularning ko‘nikmalarini oshirish kerak. Ko‘nikmalar, o‘quvchining muhitini, kitoblarni, ko‘rgan filmlarni, san’at asarlarini va boshqa ijodiy manbalarini o‘z ichiga oladi.

Muhokama qilishni o‘rganish: Ijodiy tafakkur o‘quvchilar uchun muhokama qilishni o‘rganish bilan bog‘liqdir. Bu, o‘quvchining fikrlarini ifodalash, savollar berish va o‘z fikrlarini boshqalarga taqdim qilishni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Muhokama qilishni o‘rganish uchun o‘quvchilar boshqa o‘quvchilar bilan majlislar o‘tkazish, fikr-mulohazalarni yozish va o‘quvchilarning bir-biriga savollar berish imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin.

Tarixiy va madaniy yodgorliklar: O‘quvchilar ijodiy tafakkurni shakllantirish uchun tarixiy va madaniy yodgorliklardan foydalanishlari mumkin. Bu o‘quvchilarga oldingi olimlar, shoirlar, rassomlar va dizaynerlar tomonidan qilingan ijodiy ishlarni o'rganish imkoniyatini beradi.

O‘quvchilar o‘z fikrlarini yozish va tasvirlash: O‘quvchilar uchun fikrlarni yozish, ijodiy tasavvurda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu, o‘quvchilarga o‘z fikrlarini ifodalash imkonini beradi. O‘quvchilar ijodiy ishlar, she’rlar, rassomlik, grafikalar, musiqa va boshqa ijodiy turlardan foydalanishlari mumkin.

Qo‘shimcha ta’lim resurslardan foydalanish: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun internet va kompyuter dasturlari kabi qo‘shimcha ta’lim resurslardan foydalanish juda muhimdir. Bu resurslar o‘quvchilarni ijodiy tafakkur va tasavvurda rivojlantirish, ularga yangi g‘oyalar va ko‘nikmalar taqdim etishga imkoniyatlar yaratadi. O‘quvchilarni ijodiy tafakkuri va tasavvurida qo‘shimcha yordam berish uchun guruh ishlari tashkil etish juda foydali bo‘ladi. Guruhda o‘quvchilar bir-biriga fikrlarini taqdim etish, masalalar yechish va ijodiy vazifalarni yechishda hamkorlik qilishadi. Bu, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning boshqa insonlar bilan fikr almashish va ko‘rish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Bu tavsiyalarni amalga oshirish orqali, boshlang'ich sinf o‘quvchilari ijodiy tasavvurni shakllantirishda osonlik va qulaylikni his etishlari mumkin. Bu ularga ijodiy fikrlashni o‘rganish, ifodalash va boshqalar bilan hamkorlik qilishga imkoniyat yaratadi.

Bugungi globallashgan va axborotlashgan zamonda ta’lim va tarbiya jamiyatimiz ravqani uchun muhim vosita sifatida e’tirof etiladi. Ushbu maqolada mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim ravnaqi hamda ta’lim oluvchilarga ijodiy tasavvurni rivojlantirishning ahamiyati va dolzarbligi haqida mulohazalar bildirilgan. Ta’lim jarayonini samarali tashkil qilish uchun ba’zi tavsiyalar berilgan.

Yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion va ijodiy fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayonining asosiy vazifalari sifatida belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda pedagog xodimlarning intellektual sifatlari hamda kasbiy mahoratini yanada rivojlantirish, ta’lim va tarbiya resurslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxs tafakkurining shakllanishi va rivojlanishi, o‘quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi respublikamiz hamda qator xorijlik pedagog-psixolog olimlar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan.

Pedagogik texnologiyalar turli pedagogik muammo, masala va misollarni yechishni ta’minlovchi o‘qitish tizimining shakl, uslub va yo’llarini izlash natijasida paydo bo‘ladi. O‘quv-tarbiya jarayonida to‘g‘ri qo‘llangan pedagogik texnologiyalar barcha ta’lim sohalarida o’quvchilarning alohida qobiliyatlarini, aqli, xotirasi, sezish va emotsional xususiyatlarini hamda sifatlarini rivojlanishini, shuningdek, o‘quvchi va o‘qituvchining o‘quv ishini tashkil etishni takomillashtirishni ta’minlaydigan yo‘nalishga egadir. Barcha pedagogik texnologiyalarning umumiy maqsadi eng kam vaqt, vosita, jismoniy va intellektual kuch sarflagan holda avvalo, o‘qitishda (tarbiyada) kafolatlangan natijaga erishish; ikkinchidan, ularni takrorlanishi va ishlab chiqaruvchanligidir. Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalar o‘zlarining maxsus maqsadlariga ham ega bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o’quvchilarining ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagi o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

Adaptiv o‘qitish texnologiyalari. Maqsadi – o‘quvchilarga mustaqil ishlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish usullariga, tadqiqot faoliyati, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va takomillashtirish, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan bilim olishlari va ushbu asosda o‘quvchining ijodiy fikrlashini shakllantirishga qaratilgan. Integrallashgan o‘qitish texnologiyalari. Maqsadi – o‘quvchilarning o‘qishga nisbatan qiziqishini rag‘batlantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish, integrallashgan bilimlarini boyitish.

Bilimlarni to‘liq o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari. Maqsadi – barcha o‘quvchilarni bilim, ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda hamda ularni qo‘llashda yuqori natijalarga erishishga o‘rgatishdan iborat. Muammoli o‘qitish texnologiyasi. Maqsadi – o‘quvchilarning intellectual faolligini rag‘batlantirish, fikrlash jarayonini, aqlning individual xususiyatlarini rivojlantirish; o‘quvchilarning ichki o‘quv motivlarini, aqliy faoliyat usullarini, ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish; muammoning yechimini mustaqil izlash ko‘nikmalarini hosil qilishdir. Shu bilan birga o‘quvchilarda nostandart ijodiy fikrlashni shakllantirishdan iborat bo‘lib hisoblanadi. Bugun jahon ta’lim tizimida ijodiy jarayonni katta sondagi, turli yangi go‘yalarni izlash, ijodiy fikrlash va uni rivojlantirishning intellektual qurollari uslublaridan foydalanishning qo‘llab-quvvatlanishi avj olmoqda. Hozirgi kunda bunday uslublarning ko‘plab turlari mavjud. Quyida jahonda eng taniqli va hozirgi kunda ta’lim va tarbiya tizimida ko‘p qo‘llanilayotgan yangi g‘oyalarni izlash, ijodiy fikrlash va uni rivojlantirishning intellektual qurollari safidan joy olgan uslublarning umumiy xarakteristikalarini keltiramiz: Fikrlashni psixologik faollashtirish uslublari ijodiy yechimlarni va yangi biznes g‘oyalarni topishga to‘sqinlik qiladigan, muammoni ko‘proq har taraflama qarab chiqishga to‘sqinlik qiladigan fikrlashning psixologik inersiyasini yuqotishga qaratilgan. Bu uslublar g‘oyalarning sonini yetarlicha ko‘paytirishga imkoniyat beradi va ushbu jarayonning unumdorligini oshiradi. Qarama-qarshilik mavjud bo‘lgan murakkab va nostandart ijodiy masalalarni yechish uchun bu uslublarning samarasi kamroq. Eng keng tarqalgan psixologik faollashtirish uslublari qatoriga: aqliy xujum, teskari aqliy xujum, kemalik kengash, fokal obyektlar uslubi, sinektika, analogiyalar usullari, RVS operatori, g’oyalar anjumani, kichik odamchalar, assotsiatsiyalar marjoni va metaforalar, oltita shlyapalar, kouching va boshqa uslublarni kiritish mumkin.

Xulosa. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo’lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib toppish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosani ham o‘zlari leltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Hozirgi zamon mutaxassislari, faoliyat doiralari qanday bo‘lishidan qat’iy nazar yangi pedagogik texnologiyalar bo‘yicha keng ko‘lamdagi bilimlarga,

zamonaviy hisoblash texnikasi informatsion aloqa va kommunikatsiya tizimlari, orgtexnika vositalari va ulardan foydalanish borasida yetarli malakalarga ega bo‘lishi kerak. Ayniqsa informatika fanini o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya jixozlari o‘rni beqiyos bo‘lib, shu darslarni olib borishda yangi metodlar o‘qituvchiga qo’l keladi.

Yangi pedagogik texnologiyalar bilan o‘tkazilgan darslar o‘quvchini mustaqil fikrlashga, nutqi rivojlanishiga, o‘zaro bir-biri bilan muloqatga va xatto o‘zi xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Qo‘llanmada keltirilgan interfaol dars usullar informatika darslarini yanada qiziqarli o‘kazishga va barcha o‘quvchilarni dars davomida faol qatnashishiga undaydi. Bu usullar bilan dars olib borgan o‘qituvchi sinflarda yuqori sifat ko‘rsatgichiga erishadi. Shunday ekan, biz o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati va fanning rivojlanishini ta’minlashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Doniyarov M. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nutq madaniyati haqida mulohazalar. Архив Научных Публикаций JSPI. 2020

2. Doniyarov M., Mamarahimova N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy madaniyatini shakllantirishda innovatsion yondoshuvning ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI. 2020 y

3. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika. – T.:2001

4. Raximov Q. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va amalga oshirish usullari. Maktab va hayot. 6-son. 2013

5. www.uzedu.uz

6. Karimova V., Sunnatova R., Mustaqil fikrlash bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil

etish yuzasidan uslubiy qo‘llanma. – T.: Sharq, 2000. – 193 b.

7. Qulaxmetova M. O‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish:

o‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2011. – 80 b.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TABIIY FAN O‘QITUVCHILARINING SOLISHTIRMA TAHLILIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Qorayev Samariddin Barakayevich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
pedagogika fanlari doktori, dotsent
Mamadaliyeva Barnoxon O‘ktamovna
Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat
markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta’lim muhitida tabiiy fan o‘qituvchilarining solishtirma tahliliy kompetentligini rivojlantirish zarurati va

metodik asoslari yoritiladi. Zamonaviy raqamli vositalardan foydalanib, o‘qituvchilarning solishtirish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan hamda samarali metodik yondashuvlar tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim muhiti, tabiiy fanlar, solishtirma tahlil, kompetentlik, metodika.

XXI asr ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi natijasida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligiga bo‘lgan talablar o‘zgarmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlar sohasi vakillaridan murakkab ilmiy ma’lumotlarni tahlil qilish va ularni solishtira olish qobiliyati talab etilmoqda. Raqamli ta’lim muhiti o‘qituvchilarga eksperimental natijalarni tahlil qilish, turli nazariyalarni solishtirish va ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Shu bois, tabiiy fan o‘qituvchilari uchun solishtirma tahliliy kompetentligini rivojlantirish muhim metodik vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Raqamli ta’lim muhiti — bu an’anaviy ta’lim shaklidan farqli ravishda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida yaratiladigan va boshqariladigan o‘quv makonidir. Bunday muhitda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi aloqalar raqamli platformalar orqali amalga oshiriladi, bilim olish jarayoni esa interaktiv va individual xususiyat kasb etadi. Tabiiy fanlar (biologiya, kimyo, fizika, geografiya va boshqalar) o‘qituvchilari uchun raqamli ta’lim muhiti quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

- **Tajribalar va amaliyotlar:** Virtual laboratoriyalar orqali murakkab va xavfli tajribalarni o‘tkazish imkoniyati yaratiladi. Masalan, PhET yoki Labster kabi platformalar o‘qituvchilarga fizik hodisalar yoki kimyoviy reaksiyalarni xavfsiz sharoitda modellashtirish imkonini beradi.
- **Simulyatsiyalar va modellashtirish:** Murakkab tabiiy jarayonlarni (masalan, suv aylanishi, hujayra ichidagi jarayonlar) ko‘rgazmali tarzda o‘rganish imkonini beradi.
- **O‘zaro aloqadorlik va hamkorlik:** Onlayn platformalarda loyihaviy ishlarni tashkil qilish orqali o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida faol muloqot rivojlanadi.
- **Tezkor baholash:** Onlayn test tizimlari va Learning Management Systems (LMS) orqali bilim va ko‘nikmalar darajasi tezda baholanadi, bu esa tahlil va taqqoslash imkoniyatlarini oshiradi.

Demak, raqamli ta’lim muhiti tabiiy fanlar o‘qituvchilari uchun zamonaviy pedagogik metodlarni amalda qo‘llash va o‘z kompetentligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi Solishtirma tahliliy kompetentlik — bu fakt va ma’lumotlarni o‘zaro taqqoslash, ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, natijada asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyati. Bu kompetentlik, ayniqsa, tabiiy fanlar o‘qituvchilari uchun muhim, chunki:

- Ilmiy tadqiqot va tajribalar natijalarini to‘g‘ri tahlil qilish,
- Turli nazariyalarni farqlash va ularning o‘zaro aloqasini aniqlash,
- O‘quvchilarda ilmiy asoslangan fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish zarur. Solishtirma tahliliy kompetentligini rivojlantirish quyidagi holatlar uchun muhim ahamiyatga ega:

- **Ilmiy bilimlarni integratsiyalash:** Masalan, kimyoviy va biologik jarayonlarni birgalikda o‘rganish va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash.
- **Muammoli vaziyatlarni hal etish:** O‘qituvchilar o‘quvchilarga turli variantlarni taqdim etib, eng maqbul echimni topishni o‘rgatadi.
- **Kreativ tafakkurni rivojlantirish:** Taqqoslash orqali yangicha yondashuvlar va yechimlar ishlab chiqiladi.

Masalan, o‘qituvchi harorat ta’sirida o‘zgaruvchi fizik jarayonlarni o‘rganayotganda, turli materiallarning issiqlik o‘tkazuvchanligini solishtirib tahlil qilish topshirig‘ini beradi. Bu orqali o‘quvchilarda chuqur tahliliy fikrlash shakllanadi. Raqamli ta'lim muhitida tabiiy fanlar o'qituvchilarining solishtirma tahliliy kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi metodik yondashuvlar tavsiya etiladi:

Diagnostika bosqichi: Dastlabki bosqichda o‘qituvchilarning mavjud tahliliy va solishtirma ko‘nikmalari aniqlanadi. Maxsus diagnostik testlar va interaktiv topshiriqlar tuzilib, Google Forms, Kahoot kabi vositalar yordamida aniqlov ishlari olib boriladi.

- Masalan, o‘qituvchilardan ikki xil fizik hodisani tavsiflovchi jadvalni to‘ldirish va taqqoslash topshirig‘i beriladi.
- **Maqsadli o‘qitish bosqichi:**
- O‘qituvchilar uchun raqamli resurslardan foydalanishni o‘rgatish bo‘yicha treninglar tashkil qilinadi.
- PhET simulyatsiyalarida mexanik energiyaning saqlanishi, Labster’da hujayra organellalarining funktsiyalarini solishtirish kabi amaliy mashg‘ulotlar olib boriladi.
- **Amaliy mashg‘ulotlar:**
- Turli eksperiment natijalarini solishtirib tahlil qilish topshiriqlari beriladi.
- Masalan, turli tuproq turlarida suvning singish tezligini virtual tajriba orqali o‘rganish va natijalarni diagramma shaklida taqqoslash.
- **Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash:**
- O‘qituvchilar o‘z faoliyatlarini baholab, o‘z kompetentligini mustaqil rivojlantirish uchun elektron portfolio yaratadilar.
- Har bir dars yoki loyiha yakunida “Nimani o‘rgandim? Qaysi natijalarni taqqosladim? Qanday xulosa chiqarildi?” kabi savollarga javob berish orqali refleksiya o‘tkaziladi.

Bunday metodik yondashuv orqali o‘qituvchilarning mustaqil tahlil qilish, solishtirish va asosli xulosa chiqarish ko‘nikmalari tizimli ravishda rivojlantiriladi. Xulosa qilib aytganda raqamli ta’lim muhiti imkoniyatlaridan foydalanish tabiiy fanlar o‘qituvchilarining solishtirma tahliliy kompetentligini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Zamonaviy raqamli vositalar yordamida o‘qituvchilarning tahliliy fikrlashi, ma’lumotlarni taqqoslash va ilmiy xulosalar chiqarish qobiliyati sezilarli darajada oshadi. Xulosa qilib aytganda, ushbu kompetentlikni rivojlantirish orqali o‘qituvchilar nafaqat o‘zlarining kasbiy mahoratini oshiradilar, balki o‘quvchilarga ham chuqur ilmiy asoslangan fikrlashni o‘rgata oladilar. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni beradi:

- Solishtirma tahliliy kompetentlik tabiiy fanlar o‘qituvchisi uchun muhim kasbiy ko‘nikma hisoblanadi;
- Raqamli ta’lim muhiti o'qituvchilarning analitik faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur resurslarni taqdim etadi;
- Maqsadli metodik yondashuvlar va interaktiv vositalardan foydalanish kompetentlikni rivojlantirishda ijobiy natija beradi;
- Diagnostika, maqsadli mashg‘ulotlar, amaliy topshiriqlar va refleksiya — bu kompetentlikni rivojlantirishning asosiy bosqichlaridir.

Kelgusida tabiiy fanlar o‘qituvchilari uchun maxsus raqamli kurslar va malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish raqamli kompetentlik va solishtirma tahliliy qobiliyatni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jonassen, D. H. (1999). *Designing Constructivist Learning Environments*. Educational Technology Research and Development.

2. Kozma, R. B. (2003). *Technology and Classroom Practices: An International Study*. Journal of Research on Technology in Education.

3. PhET Interactive Simulations Project. University of Colorado Boulder. https://phet.colorado.edu

4. Labster Virtual Labs. https://www.labster.com

5. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). *Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge*. Teachers College Record.

6. Siemens, G. (2005). *Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age*. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning.

O‘QISH DARSLIGIDA BERILGAN BUYUK SARKARDA MATNI ORQALI O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH TEXNOLOGIYASI

Rajabova Xurshida Hakimovna
Qashqadaryo VPMM Maktabgacha,
boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qish fanida berilgan “Buyuk sarkarda” bo‘limidan berilgan “Amir Temur va chumoli” rivoyati orqali o‘quvchilarga mustaqil fikrlash ko‘nikmalatini shakllantirish texnologiyasini ahamiyati haqida berilgan.Bu boradagi ishlarni muvaffaqiyatli hal etish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan, albatta, chuqur bilim, izlanish, fidoiylik hamda ta’lim texnologiyasini qo‘llash mahoratiga ega bo‘lish kabi katta tajribani talab etadi.

Kalit so‘zlar: Mustaqil fikrlash, ta’lim, ta’lim texnologiyalari, pedagogik texnologiya, didaktik o‘yin, metod,maktab ta’limi, fikrlash jarayoni.

Аннотация: В данной статье рассматривается значимость технологии формирования навыков самостоятельного мышления у учащихся через

повесть «Амир Темур и Муравей» из раздела «Великий полководец» предмета «Чтение» в образовательном процессе учителя начальных классов. Успешное решение задач в этой области требует от учителя начальной школы большого опыта, включающего глубокие знания, исследовательскую деятельность, преданность делу и умение использовать образовательные технологии.

Ключевые слова: Самостоятельное мышление, образование, образовательные технологии, педагогическая технология, дидактическая игра, метод, школьное образование, мыслительный процесс.

Abstract: This article discusses the importance of the technology of forming independent thinking skills in students through the story "Amir Temur and the Ant" from the "Great Commander" section of the reading subject in the educational process of a primary school teacher. Successfully solving problems in this area requires a lot of experience from the primary school teacher, including deep knowledge, research, dedication, and the ability to use educational technology.

Key words: Independent thinking, education, educational technologies, pedagogical technology, didactic game, method, school education, thinking process.

Yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan, barkamol avlodni tarbiyalashda ajdodlarimiz merosining ahamiyati yuqori darajada desak adashmagan bo‘lamiz. Yoshlarga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida ta’lim berish mamlakatimizning ta’lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. Shuningdek, komil insonni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta’lim jararyoni, shubhasiz, poydevor vazifasini o‘taydi. O‘qish darslarida bolani qalban yuksak, ma’naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinfda matn ustida ishlashga o‘quvchilarni jalb qilish o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiluvchi pedagogik jarayon sanaladi. Har qanday pedagogik jarayon kabi boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlashda ham muayyan psixologik, pedagogik, metodik talablar inobatga olinishi zarur. Shundagina boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matn bilan ishlash orqali muayyan bilimlarni o‘zlashtirish, ravon va ongli o‘qish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladi, nutq boyiydi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Natijada o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan talablar bajariladi. “O‘qish kitobi” darsliklarida berilgan matnlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda vosita hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarining asosiy maqsadi o‘quvchilarni matn mazmunini to‘g‘ri tushunish, ongli va ifodali o‘qiy olish, matnda berilgan axborotni idrok qilish, matnda ifodalangan voqelikka nisbatan munosabat bildirishga tayyorlashdir. Shunga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi metodik tayyorgarlikni darsning maqsadi, o‘rganilayotgan materialning mazmuni, o‘quvchilarning mavjud bilim, ko‘nikma, malakalari darajasiga ko‘ra amalga oshiradi. O‘quvchilarni asar matnini o‘qishga tayyorlashda, birinchi navbatda, ularni matn mavzusi, tili, g‘oyaviy mazmuni va badiiy-estetik qiymati bilan

tanishtirish, matn mazmunidan tegishli xulosa chiqarishga e’tibor qaratiladi. O‘qish faoliyati ham nutqning alohida ko‘rinishi hisoblanadi. O‘quvchining o‘z fikrini qanchalik mazmunli, aniq va to‘g‘ri ifodalay olishi uning o‘quv-bilish faolligi darajasini, ko‘nikma va malakalarini aniqlashga imkon beradi. O‘qish darslarida matnni idrok qilish va mazmun-mohiyatini o‘zlashtirish yuzasidan qo‘yilgan savol va topshiriqlar o‘quvchilarni o‘ylashga majbur qilishi, javob berishda muallif qo‘llagan iboralardan, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga qaratilishi, nutqda ko‘proq o‘zi uchun yangi so‘z va iboralarni ishlatishga undashi lozim. Matnni o‘qish ko‘nikmasiga egalik, o‘z navbatida, o‘quvchi nutqini boyituvchi muhim omillardan biri sanaladi. O‘qitishning mustaqil qismi bo‘lgan har qanday dars ta’limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Har qanday darsning umumiy maqsadi “o‘quvchilarga bilim berish va ular olgan bilimni amalda qo‘llay oladigan darajaga yetkazishga erishish, har bir o‘quvchida komil shaxsga xos fazilatlarni shakllantirishdir. Mustaqil ijodiy ishlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma’lumot to‘plash, muhim jihatlarini ajratib olish, uni ma’lum ketma-ketlikda amalga oshirish, reja tuzish ko‘nikmasini hosil qiladi. Jumlalarni to‘g‘ri tuzish, aynan shu mazmunga mos so‘zlarni topish va ularni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yish, o‘z holatlarini topa olish va to‘g‘rilash aqliy rivojlanishning ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi”. Tarixiy mavzuga oid hikoyalarni o‘qish oldidan o‘qituvchi o‘quvchilarning Vatan tarixi va uning shonli o‘tmishidagi buyuk siymolar haqidagi bilimlarini aniqlaydi. Shu jarayonda matnlarda berilgan tarixiy shaxslar haqida ham bolalarga ma’lumot berish asosida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, milliy g‘urur tarbiyasida shakllantirish, tarixni o‘rganishga o‘rgatish, ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg‘usini shakllantirish texnologiyasi nazarda tutiladi.

Amir Temur, Temur, Temurbek (to‘liq ismi Amir Temur ibn Amir Tarag‘ay ibn Amir Barqul) (1336-yil, 9-aprel Shahrisabz , Kesh (hozirgi) sh. yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘i (hozirgi Yakkabog‘ tumani 1405-yil, 18-fevral Samarqandda, O‘tror shaxrida dafn etilgan) — o‘rta asrning) — yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi.

Amir Temurning onasi Takina xotun buxorolik. Otasi amir Tarag‘ay esa barlos urug‘ining oqsoqollaridan hamda Chig‘atoy ulusining e’tiborli beklaridan hisoblangan. Uning ajdodlari Kesh viloyatida hokimlik qilishgan. Shu bois Amir Temurning otasi amir Tarag‘oy ham yilda bir marotaba Ili daryosi bo‘yida xon tomonidan chaqiriladigan el-yurt beklarining qurultoyiga taklif etilar va u bunday yig‘inlarda muttasil qatnashar edi. Shu bilan birga u, Sharafuddin Ali Yazdiyning ta’kidlashiga ko‘ra, “ulamo vasulaho va muttaqiylarg‘a mushfiq va mehribon erdi va bularning majlisiga borur erdi...”. Tarag‘oybek piri Shamsuddin Kulolni ayniqsa chuqur ehtirom qilgan. Keyinchalik shayx Kulol Amir Temurning ham piri bo‘lgan. Tarag‘oybek 1360 yilda vafot etgan.

2-sinf o‘qish kitobida berilgan “Buyuk sarkarda” bo‘limidan “Amir Temur va chumoli” rivoyati matni orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

“Sonlar va bo‘g‘inlar” mashqi o‘tkaziladi. O‘quvchilar yomg‘ir tomchilarida berilgan ifodalarni yechib, natijani topadilar. Chiqqan natija tomchilarda aks etgan. Shu tomchilardagi sonlarni o‘sib borish tartibida joylashtiradilar. Tomchilarning orqa tarafidagi bo‘g‘inlarni birlashtirib so‘ng hosil bo‘lgan so‘zlarni o‘qiydilar. Yangi mavzu kelib chiqadi.

“Amir Temur va chumoli” rivoyat

Sohibqiron Amir Temur bobomizdan:

-Sizning bu martabaga yetishishingizga nima sabab bo‘lgan?-deb so‘rashibdi.Amir Temur bunday javob beribdi:

-hayotim davomida turli qiyinchiliklarga duch keldim,also umidsizlikka tushmadim.Bunda menga kichik bir chumoli o‘rnak bo‘lgan.

Bir kuni dushmanlardan qochib,xaroba joyga berkindim. Qo‘rqayotgandim, och edim va charchagandim. Ustiga-ustak yarador edim. Umidsizlikka tushdim. Xuddi o‘limimni kutib yotardim.

Barcha narsadan umidimni uzay deganimda,birdaniga ko‘zim bir chumoliga tushib qoldi.Chumoli o‘zidan katta bo‘lgan bug‘doy donini sudrab ketishga harakat qilardi.Faqat ko‘tarib olgan narsasi o‘zidan katta bo‘lgani uchun ustidan tushib ketaverardi.

Chumoli ko‘targan don devorning tagiga tushardi.Chumoli yana pastga tushib,rizqini olib ketishga harakat qilardi.Bu hodisa ancha davom etdi.Men ko‘zlarimni chumolidan uzmasdim.

Oxiri chumoli donni devordan oshirishni uddaladi. Chumolidagi g‘ayrat va azm-shijoatni ko‘rgach,mendagi umidsizlik yo‘qoldi.O‘zimga o‘zim: “Men shu chumolichalik ham bo‘la olmaymanmi?”-dedim. Shundan keyin maqsadim yo‘lida uchragan har qanday umidsizlikka tushmadim va mana shu kunlarga yetdim.

Matnni berishdan maqsad o‘quvchilarda mardlik,mustaqil fikrlash, o‘ziga bo‘lgan ishonch,milliy g‘urur kabi ko‘nikmalarni shakllantirish. Bu rivoyatni bolalar o‘qib bo‘lishgach quyidagi savollar bilan murojaat qilamiz.

1) Matn mazmuni nimadan iborat? Siz matndan qanday xulosa chiqardingiz?
2) Matnni o‘qib qanday axloqiy va ma’naviy tarbiya oldingiz?
3) Matnni o‘qib tahlil qiling?
4) Matnda muallif nimalarni tasvirlagan?
5) O‘z fikrlaringizni mustaqil bayon qiling.

O‘qish darslarida matn ustida ishlash jarayonida asosiy e’tibor uning mazmuniga qaratilsa-da, tuzilishini ham nazardan qochirmaslik kerak. Jumladan, voqea kechayotgan sharoit, asar qahramonlarining kechinmalari, qahramonlarning ruhiyati tasviri, yozuvchi asar qahramonlari orqali bolajonlarga nima demoqchi ekanligi.

Darslarda o‘quvchilarga matn qismlarini o‘qish yoki ko‘chirib yozishni topshirish ularning diqqatini ma’lum bir maqsad atrofida birlashtirishga xizmat

qiladi. Matndagi gaplar o‘rtasida kommunikatsiya vazifalari bilan belgilangan munosabatlar, ya’ni mazmuniy aloqa mavjud.

O‘yin vositasida o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil qahramonlar bilan munosabatda bo‘lishga o‘rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi. Muhimi, o‘yinlar jarayonida bolada o‘z kuchiga ishonch shakllanadi,hamkorlikda ishlashga o‘rganadi, erkin harakat qilishga, o‘z fikrlarini mustaqil bayon qilishga o‘rganadi, mustaqil fikrlar bildira boshlaydi. Masalan, “Matndagi qahramonni o‘zigiz tasvirlang” o‘yinida bola matnni mustaqil o‘qiydi. Shu joyda uning tafakkuri ham ishga tushadi. Ya’ni o‘rganganlari asosida har bir qahramonning o‘ziga xosliklarini esga oladi va asoslaydi. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida bolani mustaqil fikrlashga o‘rgatish imkoniyatlari keng va undan oqilona foydalanish yaxshi samara beradi. O‘quvchini matn ustida ishlashga yo‘llash mustaqil fikrlashga o‘rgatishning eng samarali usullaridan biridir. Bular: Matnni bo‘laklarga bo‘lish va har bir bo‘lakka sarlavha topish. Mazmunni saqlab qolgan holda matnni qisqartirib o‘qish. O‘qituvchining savollariga matndan javob topib o‘qish. Matndan eng chiroyli tasvirlangan bo‘lakni o‘qish. Matndagi bosh g‘oyani bildiruvchi gapni topish. “Asardagi nima sizga yoqdi?” mavzusida suhbat. “Matndagi har xil kayfiyatga xos qismlarni topish (quvnoq, xafa, befarq). Siymolarni ifodalovchi so‘zlarni topish. Tushunilmaydigan so‘zlar ma’nosini aytib o‘qish.

“Tezkor javob” o‘yini. Buning uchun sinf o‘quvchilari uch guruhga ajratiladi. Har bir guruh Vatan,mehnat haqida maqollarni tez-tez aytishlari zarur. Masalan: Ona yurting – oltin beshiging.

“Topqirlar” o‘yini. Bu o‘yinda o‘quvchilar berilgan harflarni tagida raqamlarga mosini qo‘yib, so‘zlarni hosil qilishlari lozim. Bu so‘zlar orqali yangi mavzudagi gap hosil bo‘ladi. Javob: Mehnat mehnatning tagi rohat. Bugungi darsda siz bilan “Amir Temur va chumoli” mavzusi bilan tanishdik. Matn mazmunini qayta hikoya qilib bering. Mavzuning mazmuni o‘quvchilar bilan tahlil qilinadi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatishda yangi ta’lim texnologiyasidan foydalanishning imkoniyatlarni yaratib beradi, uning jamiyatdagi tez o‘zgaruvchan sohalarga erkin o‘ta olishiga, madaniyatga kirishi va muvafaqqiyatli ijtimoiylashuvini ta’minlaydi. Ayniqsa, ijtimoiy hayot, fan va ishlab chiqarish sohalarida jadal rivojlanib boruvchi texnologik jarayonlar har tomonlama yetuk yoshlarning o‘sib borishi va ularnung ehtiyojlari asosida darslarni tashkil etishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aminova F. H. O‘quvchilarni muloqot matni yaratishga o‘rgatishning didaktik asoslari: Ped. fan. nomz. …dis. avtoref. – T.: O‘zPFITI. 2007. – 22 b.

2. Aslonova O.P. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tafakkur tezligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari: Ped. fanl. bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – QarDU. 2020. – 49 b.

3. Asqarova M., Matchonov S., Qodirova F., G‘ulomova X., Boymatova A., Bozorova M., Muhamedova D. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida nutq o‘stirish. – T.: TDPU, 2000. – 58 b.

4. Babaeva D.R. Nutq o‘stirish metodikasi (tevarak-atrofni o‘rganish misolida) – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 128 b.

5. Bakieva X.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ta’lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi: Ped. fanl. bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – TDPU. 2019. – 47 b.

6. Bekniyazova N. Ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning boshlang‘ich sinflarida o‘quvchilar so‘z boyligini oshirish: Ped. fan. nomz. ...diss. avtoref. – T.: 1998. – 22 b.

7. Bekniyazova N. Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida o‘quvchilarga matn yaratishni o‘rgatish metodikasi (ta’lim o‘zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablar misolida): Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2012. – 160 b.

8. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – T.: Fan, 2007.– 144 b.

9. Ziyadova T.U. Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish: Ped. fan. nomz. …dis. avtoref. – T.: TDPI. 1995.– 19 b.

RAHBAR KADRLARNING ZAMONAVIY AXBOROT VOSITALARI VA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI OSHIRISH

Raximova Gulbahor Valijonovna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Farg‘ona viloyati PMM Pedagogika va
psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi dotsenti

Annotasiya. Mazkur maqolada rahbar kadrlarning maktab ta’limida zamonaviy axborot vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarini oshirish, zamonaviy maktab salohiyatini shakllantirish, axborot vositalari va sunniy intelekt bilan ishlash ko‘nikmalarining o‘ziga xos jihatlari xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: axborot vositalri, sunniy intelekt, rahbarlik salohiyati, boshqaruv salohiyati, integratsiyalash, institutsional o‘zgarish.

Annotation. This article discusses the specific aspects of improving the skills of leaders in working with modern media in school education, building the capacity of a modern school, and working with media and artificial intelligence.

Keywords: media, artificial intelligence, leadership capacity, management capacity, integration, institutional change.

Аннотация. В статье рассматриваются конкретные аспекты совершенствования навыков руководителей по работе с современными

информационными носителями в школьном образовании, формирования потенциала современной школы, работы с информационными носителями и искусственным интеллектом.

Ключевые слова: СМИ, искусственный интеллект, лидерский потенциал, управленческий потенциал, интеграция, институциональные изменения.

Kirish. Zamonaviy davrda raqamli transformatsiya jarayonlari har bir sohada, xususan boshqaruv tizimida jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining joriy etilishi rahbar kadrlarning kasbiy rivojlanishiga, strategik qarorlar qabul qilishga va samaradorlikni oshirishga bevosita ta'sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, axborot madaniyatining shakllanishi ham rahbarlarning faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

Axborotlashgan jamiyatda axborot nufuzinining ortib borishi natijasida, sanoatlashgan jamiyatdan, tobora axborotlashgan jamiyatga aylanib qolganimiz barchamizga ayon. Shiddat bilan o‘ta o‘zgaruvchanlik hozirgi hayotimizning axborotlashgan muhitida bir qator o‘ziga xos imkoniyatlarini yuzaga keltirib chiqardi.

Metodologiya. Ijtimoiy muhit va ishlab chiqaruvchi texnologiyalarning yangilanishdagi shiddatli sikli 6-8 yilni tashkil etishi natijasida, bu esa, avlodlar almashinishi suratidan o‘zib ketdi. Shaxsning ijtimoiy statusini saqlab qolish, uzluksiz ta'lim va yangi ixtisoslik olishga bo‘lgan qobiliyatning ajralmas qismiga aylandi. Buning natijasida, jamiyatning asosiy o‘zgaturuvchi kuchini axborot va bilimlik egalladi. Yangi axborotni o‘z vaqtida topish, o‘rganish, olish, muyan qiymatda qabul qilish va samarali foydalanish, har bir insonning taqdiri va qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Aytish joizki, texnologik yondashuvlarga va texnikaviy taraqqiyot ega bo‘lgan mamlakatlarning muayan shart-sharoitlarining majudligi, ular uchun katta imkoniyatlarni berish bilan birga, ulkan qudratga egalikni ham keltirib chiqarmoqda. Bunday dominantlik tufayli, dunyo xalqlari o‘z qadriyatlari va manfaatlariga mos keluvchi qarashlarni, fikrlarni ilgari surishga intilmoqdalar. Shundan kelib chiqib, globalashuvga qarshiliklar ko‘plab mamlakatlarda paydo bo‘lmoqdaki, ular markazlashgan makonni axborot maydonida yaratishni inkor etmoqda. Kundan kunga glaoballashuvga nisbatan salbiy yondashuvlar kuchayib bormoqda.

Shu sababli, turli sun'iy tizimlar barpo etib kelinmoqdaki, bundan ko‘zlangan maqsad yaxlit axborot bazasini yaratib, maqsadli boshqaruv tartibotini joriy etishga harakatdir. Bunda mua'yan sohalarning texnikaviy imkoniyatlari mavjud bo‘lib, odatda ko‘p hollarda ijtimoiy va texnikaviy tomonlariga e'tibor qaratamiz. Manbani o‘rganish, qo‘lga kiritish, saralash va uzatish, pinhona amalda bo‘lgan yoki oldin ma'lum bo‘lgan holatlarning yuzaga kelish sababini, maqsadini bilib olish uchun zarurdir. U ham bo‘lsa, axborotni jamlash, saqlash, uzatish va sharhlashda tezkorlikka amal qilishdir. Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida bugungi kunda bu yo‘nalishda alohida ixtisosliklar va korxonalar tashkil etilgan[8].

Insoniyatning axborotlashgan jamiyatga qadam qo‘yishi bilan sivilizatsiyasining imkoniyatlari, kishilarni yangi hayot sharoitiga va yuqori avtomatlashgan axborot muhitida mustaqil ravishda harakat qilishga, profetsional faoliyatga o‘z vaqtida tayyorlash, salbiy ta’sirlardan himoyalanishlariga o‘rgatish va muhit imkoniyatlaridan samarali foydlanishga kabi jiddiy muammoalarni yuzaga keltira boshladi. Avvalambor bu jamityada inson o‘rni va muammosi, axborotlashagan jamiyat shakllanishidagi muhim muammolardan biri bo‘lib, bu esa, bugungi kunda xalqaro jamiyatning diqqat markazidagi mavzu bo‘lib kelmoqda.

Bugun zamonaviy maktab ta’limda zamonaviy rahbarlarga xos bo‘lgan, keng dunyoqarash hamda fikrlashga ega, professional va shaxsiy sifatlarni tarkib toptirishda shaxsning xislati, fazilatlarini, uning tajribasi, mavjud bilim, ko‘nikma, malakalarini hamda qobiliyatini integratsiyalash amaliyotini yuzaga keltira oladigan rahbarlarni axborot kompetentligini rivojlantirish zarurati tug‘ilmoqda.

Bundan asosiy maqsad – o‘zaro muvofiqlashgan ichki tizimga ega bo‘lgan, yaxlit, bir butun rahbar shaxsini shakllantirishdan iborat jarayonni talab etmoqda.

XXI asr mehnat bozorida rahbar kadrlarning axborot vositalari bilan ishlash ko‘nikmalari va undagi axborotlarni tezlikda olish malakalariga va imkoniyatiga egaligi alohida ahamiyatga ega. Shu bois global axborot sharoitida shaxsni axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash, saqlash, undan foydalanish, uni uzatish metod, usul va vositalaridan xabardor qilish, amaliy faoliyatda ularni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Malaka oshirish markazlarida maktab ta’limi uchun rahbar kadrlarni tizimli tayyorlash maktabini yaratish zarur. Hamda ularda rahbarlik salohiyatini rivojlantirishga ko‘maklashuvchi alohida dasturlar ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

Shu dastur asosida bugun hayotimizning bir qismi bo‘lgan axborot vositalari bilan ishlash va axborot madaniyatiga ega bo‘lish malakasini shakllantirish mumkin.

Ayni shu maqsaddan kelib chiqib, rahbar kadrlarni axborot-kommunikativ kompetenlikni rivojlantirishda quyidagilarni hisobga olish lozim:

- axborotlashgan jamiyat talabi, ijtimoiy-ta’limiy ehtiyojdan kelib chiqqan holda axborot-kommunikativ kompetensiyalarning funksiyalarini aniqlashtirish;
- malaka oshirish tizimida bo‘lg‘usi rahbar kadrlarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda shaxsiy va kasbiy axborot maydonining uyg‘unligiga erishish;
- bo‘lg‘usi rahbar kadrlarda axborot-kommunikativ kompetensiyalarni tarkib toptirishda yetakchi xorijiy mamlakatlar tajribasidan samarali foydalanish;
- rahbar kadrlarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish borasida to‘plangan tajribalarni umumlashtirish;
- malaka oshirish tizimida rahbar kadrlarni tayyorlashda axborot-kommunikativ kompetentlikni majmuaviy rivojlantirishga e’tibor qaratish;
- rahbar kadrlarda axborot-kommunikativ kompetentlikning yaxlit namoyon bo‘lishiga erishish.

Rahbar kadrlarning axborot-kommunikativ kompetentligi shaxsga uzluksiz ta’lim olishga motivatsiyasi bilan bog‘liq va aniq vaziyatlarda o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash orqali tanlash malakasida namoyon bo‘ladi. Rahbar kadrlar quyidagi asosiy axborot kompetensiyalarini o‘zlashtirishi zarur:

- o‘z mutaxassisligi bo‘yicha zarur kompyuter va Internet texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib darslar samardorligini nazorat qila olishi;
- zamonaviy axborot massivlaridan axborotlarni qidirib topish, saqlash metodlaridan foydalanishni bilish;
- kompyuter, lokal va global tarmoqdan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish hamda uni takomillashtirish, turli shakldagi kompyuter axborotlari bilan ishlash va ularni Internet tarmog‘iga joylashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, rahbar kadrlarning o‘z qo‘l ostidagi xodimlariga o‘rnak bo‘la olishida, zamonaviy hayotimizning muhim xususiyatlarini egalashlari lozim, Shulardan kelib chiqib rahbar o‘z xodimlariga ularning qobiliyat va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda topshiriq berishi va vaziyatdan kelib chiqqan holatda ularni boshqarishi lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yu.Asadov, N.Turdiev, S.Akbarova, D.Temirov, S.Babadjonov. “O‘quvchilarda kompetentsiyalarning shakllanganligini tashxislash va korrektsiyalash metodikalari”.T.:2016 y. 7-b.
2. M.Pardaeva, O.Musurmonqulova, A.Qo‘shmonov., “O‘qituvchilarning ta’lim – tarbiyasidagi muhit: MUAMMO VA YECHIM”. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi Respublika Ta’lim markazi; Toshkent-2015, 152-bet
3. “GLOBALLASHUV SHAROITIDA FAN VA TA’LIMNI RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI” mavzusidagi Respublika ilmiy - amaliy internet konferentsiya materiallari. Farg‘ona – 2017.438b.
4. M.Pardaeva, O.Musurmonqulova, A.Qo‘shmonov., “O‘qituvchilarning ta’lim – tarbiyasidagi muhit: MUAMMO VA YECHIM”. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi Respublika Ta’lim markazi; Toshkent-2015, 152-bet
5. F.M.Kuchukbaev, D.F. Abduazimova, R.X.Djuraev, M.S.Divanova, M.E.Inoyatova “O‘quvchi shaxsiga salbiy ta’sir kursatuvchi internet saytlari va teleko‘rsatuvlarning ularda salbiy his – tuyg‘ularni vujudga keltirishning oldini olish bo‘yicha profilaktik korrektsion dastur”. Toshkent-2016y. 10 bet
8. https://www.xabar.uz/uz/infografika/davlat-boshqaruvidagi-top-40
9. http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/3060.htm
10. https://kun.uz/news/2020/03/08/ayol-lider-plyus-va-minuslar-nimalardan-iborat
11. file:///C:/Users/ADMIN/Downloads/rahbarlik-psixologiyasining-fundamental-asoslari%20(1).pdf

FAVQULODDA VAZIYATLAR YO‘NALISHI KURSANTLARIDA MULOQOT MADANIYATINI TARBIYALASH

Boltayev Baxtiyor Yunusovich

Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari

ilmiy tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada favqulodda vaziyatlar yo‘nalishi kursantlarining muloqot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish metodikasiga doir fikrlar keltirilib tahlil qilingan. Shuningdek, kursantlarda samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularning kasbiy kompetensiyalarini yuksaltirishga qaratilgan metodik g‘oyalar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *muloqot madaniyati, kursant, favqulodda vaziyat, metodika, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik texnologiya.*

Insonning uni o‘rab turgan olamga o‘zaro ta’siri obyektiv munosabatlar tizimida namoyon bo‘ladi. Obyektiv munosabat va aloqalar so‘zsiz har qanday real guruhlarda paydo bo‘ladi. Guruh a’zolarining bu obyektiv o‘zaro munosabatlari subyektiv shaxslararo munosabatlarda aks etadi. Har qanday ishlab chiqarish odamlarning o‘zaro birlashishini talab qiladi. Hech bir kishilik jamiyatida odamlar bilan munosabat o‘rnatilmasa, ular bir-birinii to‘g‘ri tushunmaydi, to‘laqonli birgalikdagi faoliyatni tashkil eta olmaydi.

Muloqot kishilarning hamkorlikdagi faoliyati, ehtiyojlari asosida tug‘iladigan, ular o‘rtasidagi aloqa rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Muloqot hamkorlikdagi faoliyat qatnashchilari o‘rtasida axborot almashinishni o‘z ichiga oladi, bu muloqotning kommunikativ ko‘rinishida ifodalanadi [1]. Odamlar bir-biri bilan munosabatga kirishishda tildan muomala vositasi sifatida foydalanadilar. Muloqotning ikkinchi jihati muomalaga kirishuvchilarning o‘zaro ta’siridir. Bunda faqat so‘zlar emas, balki harakat va holatlar ham almashinadi. Masalan, sotuvchi bilan xaridor o‘rtasida biror so‘z aytmasdan muomalaga kirishish mumkin. Muloqotning uchinchi tomoni muomalaga kirishuvchilarning bir-birini idrok qilishidir. Muomalaga kirishuvchilarning bir-birini to‘g‘ri tushunishi muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, muloqotning shartli uch tomonini ajratish mumkin: kommunikativ (axborot berish), interaktiv (o‘zaro ta'sir) va perseptiv (o‘zaro idrok qilish). Ma’lumki, muloqot jarayonida kishilar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o‘zaro mosligi, bir-birini to‘ldirishiga bog‘liq. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi “Yaxshi suhbatdosh — yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir” [2], deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo‘lishini nazarda tutgan. Tinglash muloqotning eng muhim komponentidir. Tinglash san’atini puxta egallamay odamlar bilan hech qachon sog‘om munosabat o‘rnatib bo‘lmaydi. Tinglay bilmaslik og‘ir ma’naviy va sezilarli iqtisodiy zarar keltirishi mumkin.

Bugungi kunda favqulodda vaziyatlarda samarali faoliyat ko‘rsatish uchun nafaqat mutaxassislik sohasidagi bilim va ko‘nikmalar, balki ijtimoiy va psixologik kompetensiyalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, muloqot madaniyatining yuksak darajada bo‘lishi — favqulodda vaziyatlarda tezkor, aniq va ta’sirli munosabat o‘rnatishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois, kursantlarni tayyorlash jarayonida muloqot madaniyatini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi.

Muloqot madaniyati — shaxsning turli ijtimoiy holatlarda madaniyatli, odobli, axloqiy mezonlarga muvofiq ravishda muloqot qilish ko‘nikmasi bo‘lib, bu ko‘nikma kursantlarning kasbiy faoliyatida — jamoa bilan hamkorlik qilish, aholi bilan muloqot olib borish, rahbariyat va hamkasblar bilan samarali axborot almashish kabi vaziyatlarda muhim rol o‘ynaydi [3].

Hozirgi kunda Oliy ta’lim muassasalarida muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan bir qator fanlar mavjud. Biroq, favqulodda vaziyatlar yo‘nalishidagi kursantlar uchun maxsus tayyorlangan o‘quv-uslubiy materiallar yetarli emas. Shu bois, amaliyotga yo‘naltirilgan, interaktiv va trening asosidagi yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Kursantlarning muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi metodik yondashuvlarni joriy etish taklif etiladi:

Rolli o‘yinlar va simulyatsiya — real favqulodda vaziyatlar ssenariylari asosida muloqot mashqlarini tashkil etish;

Psixologik treninglar — stressga chidamlilik va ta’sirchan muloqot ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan mashg‘ulotlar;

Interaktiv darslar — keys-stadi, debat va klaster usullari orqali muloqot jarayonini chuqur o‘rganish;

Fidbek tizimi — kursantlar tomonidan amalga oshirilgan muloqotlar tahlili va o‘zaro baholash orqali fikr-mulohaza berish [4].

Favqulodda vaziyatlar yo‘nalishidagi kursantlar uchun muloqot madaniyatini tarbiyalash, nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi, balki kasbiy samaradorligini ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan maxsus metodik yondashuvlarni joriy etish zarur. Maqsadli va tizimli yondashuv kursantlarning muloqot madaniyatidagi kompetensiyalarini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Axmedova N. Kasbiy muloqot psixologiyasi. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2019. -25 b.
2. Karnegi D. O‘z-o‘ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so‘zlash san’ati. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010-yil. - 56 b.
3. Toshpulatov Sh. Favqulodda vaziyatlarda xodimlarning psixologik tayyorgarligi. // O‘zbekistonda psixologiya fanining dolzarb muammolari, 2020. №4, 25–30-betlar.
4. Nazarov B., Rahmonov J. Oliy ta’lim muassasalarida kursantlarda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari. // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 2022. №2, 45–49-b.

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA IJODIY VA MANTIQIY TAFAKKUR QILA OLISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Xoliyev Jasur Norqul o‘g‘li
Urgut tumani 77-maktab o‘qituvchisi
Shodiyeva Jamila Xolboyevna
Samarqand viloyati pedagogik
mahorat markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarning matematika darslarida ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish ko‘nikmalarini shakllantirishning ilmiy jihatlari chuqur tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Matematika, matniqiy topshiriq, yig‘indi, tahlil, ta’lim, mustaqil fikr, faoliyat, muammoli, tushunish.

Boshlang‘ich ta’limning o‘ziga xos jihatlari shundan iboratki, bolalar maktabga ta’lim olish uchun turli tayyorgarlik darajasida, har xil ijtimoiy tajribaga ega bo‘lgan holda, hamda turlicha psixologik va fiziologik holatda kirib kelishadi. Maktabda ta’lim olishga kelgan turlicha rivojlanishdagi 1-4-sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berish, barkamol avlod sifatida tarbiyalashda esa, bolalarda mantiqiy bilishning shakllantirish, ya’ni mantiqiy fikrlashni o‘stirish samarali usul hisoblanadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mantiqiy fikrlash tug‘ma iste’dod emas, shu ma’noda uni shakllantirish hamda o‘stirish mumkin va zarur. Mantiqiy topshiriqlar – ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi omildir.

Matematika darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchisining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mantiqiy o‘quv topshiriqlardan foydalanish o‘quvchining o‘quv-biluv va ijodiy faoliyatini oshiradi, bolada mustaqil fikr yuritish, xulosa chiqarish kabi xislatlarni tarbiyalaydi. Mantiqiy topshiriqlarni yechish imkonini beradi. Shu munosabat bilan o‘quvchilarda deduktiv mulohaza yuritishga ehtiyoj tug‘ilishi uchun sharoit yaratiladi. Mantiqiy topshiriqlarni yechish, faqatgina dars paytida emas, mustaqil holda, uyda, ko‘chada va bo‘sh vaqtlarda, sinfdan tashqari (to‘garak) ishlarida amalga oshirilishi mumkin. Ko‘zlangan natijaga erishish uchun darslarda kompyuterdan, tarqatma materiallar, chizma plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyalardan foydalanish zarurdir. Bunday masalalar o‘qituvchiga o‘quvchilardagi mehnatsevarlik, maqsadga erishishda tirishqoqlik kabi shaxsiy-axloqiy xislatlarni tarbiyalashga ham yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish ko‘nikmalarini shakllantirishni “Yig‘indini songa bo‘lish” mavzusi orqali tushuntirib beramiz.

O‘quvchilarga yig‘indining mazmunini tushuntirish, amaliy mashqlar orqali ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularni mustaqil fikrlashga rag‘batlantirish maqsadida turli xil faoliyatlar taklif etiladi. Ushbu mavzusini tashkil qilishda

o‘quvchilarda muloqatchanlik, ijodkorlik, mantiqiy fikrlash va jamoaviy hamkorlik tamoyillaridan foydalanamiz. Bu tamoyillar yordamida o‘qituvchilar dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yig‘indini qanday hisoblash kerakligini to‘rtta tamoyil asosid tahlil qilamiz.

Birinchi tamoyil. Berilgan topshiriqlarga muvofiq o‘quvchilar o‘zaro muloqot qilib, yig‘indini qanday hisoblashni va uni qanday qilib butun sonlarga bo‘lish mumkinligini muhokama qilishlari kerak. Bu jarayonda turli misollar keltirib, ularni birgalikda yechishga harakat qilishadi. Har bir amal hadini to‘g‘ri va aniq nomlash aytishlariga alohida e’tibor qaratiladi.

Misol:

- O‘quvchilar yig‘indini hisoblash uchun raqamlar to‘plamini tanlaydilar (masalan: 6, 10 va 12). Ularning yig‘indisi 28 bo‘ladi. So‘ngra bu raqamni (28) boshqa sonlarga bo‘lishni o‘rganadilar (masalan: 28:2 = 14).

Ikkinchi tamoyil o‘quvchilar yig‘indilarni hisoblash uchun turli xil usullarni o‘ylab topishadi, masalan:

- Diagrammalar yoki grafikalar orqali yig‘indilari ko‘rsatish.
- Yig‘indilar bilan bog‘liq qiziqarli matematik muammolar yaratish.

Ya’ni, o‘rinli muammo qo‘yish lozim. O‘quvchilarga hayotiy muammoli vaziyatni taqdim eting. Masalan: “Tasavvur qiling, sizda tug‘ilgan kuningizga 15 ta shokolad va 9 ta konfet sovg‘a qilishdi. Ularni 3 ta do‘stingizga teng bo‘lib bermoqchisiz. Har bir do‘stingizga nechtadan shokolad va konfet berishingiz kerak?” Bunda “G‘oyalar generatsiyasi” texnologiyasidan foydalanish mumkin. Bu muammoni qanday hal qilish mumkin? Boshqa yo‘llari bormi? kabi savollar yordamida o‘quvchilarni muammoni hal qilishning turli usullarini o‘ylab topishga undash lozim.

Ijodiy yechimlar: 1) O‘quvchilarga o‘z yechimlarini taqdim etishga va ularni asoslashga imkon bering. “Nima uchun bu usul eng yaxshi deb o‘ylaysiz? Boshqa usullar bilan solishtiring.” Yana o‘quvchilarga yig‘indini songa bo‘lish orqali hal qilinadigan o‘z muammolarini yaratishni taklif qilish ham mavzuga kreativ yondashishga turtki bo‘ladi. 2)Turli shakldagi (rasm, she'r, hikoya) topshiriqlardan foydalanish.

O‘quvchilar raqamlar bilan bog‘liq hikoyalar yozib yoki sahna ko‘rsatmalari tayyorlab, ularda yig‘indini hisoblash jarayonlarini ko‘rsatishi mumkin.

Uchunchi tamoyilda ya’ni, mantiqiy fikrlash holatida o‘quvchilar turli misollar va vaziyatlar orqali yig‘indining butun sonlarga bo‘lishdagi ahamiyatini tahlil qiladilar. Ular shuningdek bu jarayondagi xatolarni aniqlash va tuzatish ustida ishlashlari kerak. O‘zlashtirilgan bilimlarni baholash uchun o‘zaro tekshirish amaliyotlarini tashkil etish yoki qiyin masalalarni hal qilishga harakat qilish.

Ma’lumotlarni tahlil qilish: O‘quvchilarga yechim topish uchun kerakli ma’lumotlarni ajratib olishga yordam berish. Qanday ma’lumotlar bizga kerak? Qaysi ma’lumotlar ortiqcha? Bu yechim to‘g‘rimi? Buni qanday tekshirish mumkin? Shu kabi savollar bilan xulosa chiqariladi. O‘quvchilarga eng yaxshi yechimni tanlashga va uni asoslashga yordam beriladi: Nima uchun bu yechim eng yaxshi? Boshqa yechimlar bilan solishtiring.

Faollashtirish va bilim, ko‘nikmalarini malakaga aylantirish uchun o‘quvchilarga noto‘g‘ri yechilgan misollar berish va ulardan xatolarni topishni so‘rashni tavsiya sifatida kiritaman. Turli yechimlar berish va ulardan eng to‘g‘risini tanlashni so‘rayman

To‘rtinchi tamoyil jamoaviy ishlashi ham muhimdir. Ular guruhlarga bo‘linib, birgalikda masalalarni hal qilib, natijalarni taqqoslashlari mumkin. Guruhga ajratilgan o‘quvchilar har biri o‘ziga berilgan raqamlarning yig‘indisini hisoblaydi va so‘ngra bu qiymatlarni boshqa guruhlar bilan taqqoslaydi.

Yig‘indini songa bo‘lish mavzusini integratsiyalashuv orqali o‘qitish nafaqat matematikani tushunishga yordam beradi, balki o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi, kreativ fikrlashlarini oshiradi va jamoaviy ishlarni birlashtirish imkoniyatlarini yaratadi.

Bu jarayonlarning barchasi ularning umumiy rivojlanishi uchun foydali sanaladi. Matematikani osonroq tushunishga yordam beradi va ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

“Yig‘indini songa bo‘lish” mavzusini “4K” modeli bilan integratsiyalab, darsni yanada qiziqarli va samarali tashkil etish mumkin. Quyida “4K” modelining har bir komponentini qanday qo‘llash mumkinligi haqida tavsiyalar ishlab chiqdim:

“4K” modeli:

• Kreativlik (Ijodkorlik): Muammo qo‘yish: O‘quvchilarga hayotiy muammoli vaziyatni taqdim eting. Masalan: “Tasavvur qiling, sizda tug‘ilgan kuningizga 15 ta shokolad va 9 ta konfet sovg‘a qilishdi. Ularni 3 ta do‘stingizga teng bo‘lib bermoqchisiz. Har bir do‘stingizga nechtadan shokolad va konfet berishingiz kerak?” Bunda “G‘oyalar generatsiyasi” texnologiyasidan foydalanish mumkin. Bu muammoni qanday hal qilish mumkin? Boshqa yo‘llari bormi? kabi savollar yordamida o‘quvchilarni muammoni hal qilishning turli usullarini o‘ylab topishga undash lozim.

Ijodiy yechimlar: 1) O‘quvchilarga o‘z yechimlarini taqdim etishga va ularni asoslashga imkon bering. “Nima uchun bu usul eng yaxshi deb o‘ylaysiz? Boshqa usullar bilan solishtiring.” Yana o‘quvchilarga yig‘indini songa bo‘lish orqali hal qilinadigan o‘z muammolarini yaratishni taklif qilish ham mavzuga kreativ yondashishga turtki bo‘ladi.2)Turli shakldagi (rasm, she'r, hikoya) topshiriqlardan foydalanish.

• Kritik fikrlash (Tanqidiy fikrlash): Ma‘lumotlarni tahlil qilish: O‘quvchilarga yechim topish uchun kerakli ma’lumotlarni ajratib olishga yordam berish. Qanday ma’lumotlar bizga kerak? Qaysi ma’lumotlar ortiqcha? Bu yechim to‘g‘rimi? Buni qanday tekshirish mumkin? Shu kabi savollar bilan xulosa chiqariladi. O‘quvchilarga eng yaxshi yechimni tanlashga va uni asoslashga yordam beriladi: Nima uchun bu yechim eng yaxshi? Boshqa yechimlar bilan solishtiring.

Faollashtirish va bilim, ko‘nikmalarini malakaga aylantirish uchun o‘quvchilarga noto‘g‘ri yechilgan misollar berish va ulardan xatolarni topishni

so‘rashni tavsiya sifatida kiritaman. Turli yechimlar berish va ulardan eng to‘g‘risini tanlashni so‘rayman.

• Kommunikatsiya (Muloqot): Ushbu mavzuga kommunikativ yondashishda quyidagilarga amal qilish lozim:

1) Fikrlarni ifodalash: O‘quvchilarga o‘z fikrlarini aniq va tushunarli tarzda ifodalashga yordam berish.

2) Tinglash: O‘quvchilarga boshqa o‘quvchilarning fikrlarini diqqat bilan tinglashga o‘rgatish.

3) Munozara: O‘quvchilarga o‘z fikrlarini himoya qilish va boshqa o‘quvchilar bilan bahslashishga imkon berish.

4) Hamkorlik: O‘quvchilarga guruhlarda ishlashga va umumiy yechimga kelishga yordam berish.

Dars davomida faol kommunikativ jarayonni tashkil qilish uchun mavzu tushuntirilib bo‘lgach, mustahkamlovchi qismdagi topshiriqlar asosida o‘quvchilardan misolni yechish jarayonini tushuntirib berishni so‘rash, guruhlarda ishlash va yechimni sinfga yozma yechimlarni og‘zaki taqdim etish va tushuntirish kabi usullarda yondashish tavsiya qilinadi.

• Kollaboratsiya (Hamkorlik):

- Guruhga bo‘linish: O‘quvchilarni kichik guruhlarga bolish.

- Rollarni taqsimlash: Har bir o‘quvchiga guruhda oz rolini belgilash (masalan, yetakchi, hisobchi, tekshiruvchi).

- Hamkorlik: O‘quvchilarga umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda ishlashga yordam berish.

- Javobgarlik: Har bir o‘quvchining o‘z vazifasini bajarishiga ishonch hosil qilish.

Mavzuni o‘qituvchi to‘g‘ri tashkil qilashi o‘quvchilarga “Yig‘indini songa bo‘lish” qoidasini to‘g‘ri va samarali o‘rgatishlari, ularning matematik savodxonligini oshirishlari mumkin. Shuningdek, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, misollarni yechish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Norpo‘latova X. “Ta’limni faollashtiruvchi metodlar”, Metodik qo‘llanma TerDU, 2010- yil.

2. Matematika. Umumiy o‘rta ta’lim maktabining 2-sinf uchun darslik.1-qism. V. Repyova– Toshkent, *Novda Edutainment*, 2023 ri

3. https://t.me/milliymarkaz

PEDAGOGLARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT-METODIK QO‘LLAB-QUVVATLASH JARAYONINI LOYIHALASH DARAJALARI, YONDASHUVLARI VA TA’MINOT TURLARI

Xujakulov Sherzod Amankulovich
Samarqand viloyat pedagogik
mahorat markazi o‘qituvchisi
email: timlandiya@gmail.com

Ma’lumki, axborotlar oqimi va mutaxassis kompetentligiga qo‘yiladigan talablarning o‘suvchanligi uzluksiz kasbiy rivojlantirishni qadriyat darajasida qabul qilish zaruratini mustahkamlaydi. Bu ta’lim muassasalari pedagog xodimlari kasbiy faoliyatiga ham bevosita daxldor bo‘lib, doimiy ravishda o‘rganish, o‘zgarishlarga moslashish, tahlil qilish, o‘zlashtirganlarini amaliyotda qo‘llashni harakatlari obyektiga aylantiradi. Jarayon innovatsiyalar iste’molchisi, tashuvchisi, singdiruvchisi sifatida pedagoglarning o‘rnini strategik ahamiyatga chiqaradi hamda ularning maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lishi, yangiliklarni idroklash, baholash, qabul qilish, amaliyotga kiritish ko‘nikmalarining mukammalligi bilan korrelyatsiyalanadi.

Pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda axborot-metodik qo‘llab-quvvatlash jarayonini takomillashtirish bir qator tadbirlarni to‘g‘ri qo‘llash bilan amalga oshiriladi:

birinchidan, pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini modernizatsiyalash, jarayonni tashkil etish metodikasi, texnologiyasi, yondashuvlariga sezilarli o‘zgartirishlar kiritish;

ikkinchidan, ta’lim mazmunini insonparvarlashtirishni kuchaytirish, pedagogning individual imkoniyatlariga tayanish, samarali o‘qitish metodikalari va texnologiyalarini doimiy izlash, yangi kasbiy bilimlarning pedagogik hamjamiyatdagi nufuzi va qadrini oshirish;

uchinchidan, pedagogning yangiliklarni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘zlashtirish va kasbiy faoliyatida qo‘llashga bo‘lgan munosabati xarakterini ijobiylashtirish;

to‘rtinchidan, axborot-metodik qo‘llab-quvvatlashning pedagog tomonidan faoliyatida muvaffaqiyatli foydalanish, kasbiy rivojlanishining ajralmas qismiga aylanishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish;

beshinchidan, axborot-metodik qo‘llab-quvvatlashni amalga oshiruvchi muassasalari orasida raqobat muhitini shakllantirish, erkinliklarni kuchaytirish.

Shubhasiz, ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar uning ixtiyoriy tarkibiy qismi kabi pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish va boshqarishning natijador, pedagogik, psixologik, ijtimoiy mexanizmlarini yaratishni nazarda tutadi. Mazkur fikrga tayangan holda pedagoglarni axborot-metodik qo‘llab-quvvatlashning uchta: individual, jamoaviy, tarmoq darajalarini aniqladik (2.5-rasm).

1-rasm. Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda axborot-metodik qo‘llab-quvvatlash darajalari

Individual daraja. Avvalgi xatboshilarda ta’kidlanganidek, pedagog faoliyatida doimiy kasbiy mahoratini oshirib borishni qadriyat sifatida qabul qilmasa, uning professionallik darajasisiz ta’lim tizimida o‘tkaziladigan islohotlarni amalga oshirib bo‘lmaydi. Chunki islohotlar yangi g‘oyalar, qarashlar, metodikalar, vositalarni ifodalaganligi sababli pedagog tomonidan mustahkam iroda, innovatsiyalarga ochiqlik, o‘zgarishlarga moslashuvchanlik, noan’anaviy yondashuvlar va amaliyotlarni o‘zlashtirish uchun juda ko‘p kuch va vaqt sarfini talab qiladi. Axborot-metodik qo‘llab-quvvatlash ham maxsus faoliyat turi sifatida o‘ziga xos xususiyatlarni taqozo qiladi:

– an’anaviy qarashlar va streotiplardan voz kechish, virtual olamni his qilish, o‘zgarish zaruratini anglash va rivojlanish nuqtalarini belgilash;

– kreativ fikrlash, yangi g‘oyalarni izlash va ularni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlaridan foydalanish;

– axborot-kommunikatsiya vositalarini tanlash va tashkil etishda tizimli, uzviy, diagnostik yondashuv;

– noaniqlik holatida to‘g‘ri mo‘ljal olish va xavfning maqbul darajasini aniqlash;

– mustahkam motivatsiyani hosil qilish, rivojlantirish va shaxsiy sifat darajasiga chiqarish.

Demak, axborot-metodik qo‘llab-quvvatlash tabiati pedagogning uzluksiz kasbiy rivojlanishga bo‘lgan tayyorlik darajasiga chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Tayyorlik pedagogning o‘zini shaxsiy-kasbiy rivojlantirish mohiyatini anglash va amalga oshirish qobiliyatini ifodalovchi fazilatlar majmuyi sifatida tushuniladi. Uning tarkibiy qismlari quyidagicha belgilash mumkin:

– kasbiy rivojlanish uchun motivlarning mavjudligi va uning qadriyat sifatida anglanishi;

– ta’lim sifatiga qo‘yiladigan talablar, o‘qitishning innovatsion yondashuvlari, modellari, metodikalari, texnologiyalari va amaliyotiga doir bilimlarning mavjudligi;

– kasbiy kompetentligi darajasining pedagogik faoliyati va ta’lim muassasasidagi ahamiyatini tushunishi;

– ta’limning boshqaruv va subyektlari orasidagi o‘zaro ta’sirning asosiy yondashuvlarini bilishi va tanqidiy tahlili qilish qobiliyati;

– ilg‘or tajribalarga ochiqlik, ularni o‘rganish, faoliyatida unumli qo‘llash va o‘zini taqdim qilish ko‘nikmasi;

– o‘quv mazmunini tahlil qila olishi, didaktik vositalarni samarali qo‘llash va takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

– zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan erkin munosabatga kirisha olish;

– hamkasblar, o‘quvchilar va ularning ota-onalari, kasbiy faoliyati bilan bog‘liq hamjamiyatlar bilan muloqotchanlik.

Jamoaviy daraja. Axborot-metodik qo‘llab-quvvatlashning jamoaviy darajasi pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning belgilangan missiyasi va maqsadlariga qaratilgan faollikni kuchaytiradi:

uzluksiz kasbiy rivojlantirish g‘oyalari va texnologiyalarini takomillashtirishda pedagoglarning ta’limga bog‘liq yoki kasbiy jamolalari o‘zaro ta’sirining tashkil etilishi;

ta’lim muassasasida didaktik va boshqaruv texnologiyalarining ijtimoiylashuvi, ularning yagona maqsad yo‘lidagi harakatlanishi;

bir nechta ta’lim muassasalari yoki tegishli tashkilotlarning o‘zaro loyihaviy ta’sirining vujudga kelishi va tarmoq shakllanishi uchun zamin hozirlanishi.

Yuqorida keltirilgan uch omil ta’lim muassasasi darajasida birlashadi hamda pedagogning uzluksiz kasbiy rivojlanish pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda refleksiya muhim ahamiyat kasb etib, o‘zgarishlarning tashuvchisi va yaratuvchisi sifatida pedagogning erkinligi, mobilligiga tayaniladi.

Jamoaviy daraja o‘zining mazmun-mohiyatini axborot, ilmiy, metodik maydonchalar bilan o‘zaro aloqada samarali amalga oshirilishi mumkin. Bunda ta’lim muassasalari kasbiy-pedagogik hamjamiyatlar doirasida o‘z loyihalarini taqdim etishi, yagona makon hosil qilishga intilishi, obyektiv baholash mexanizmlarini joriy qilishi hamda rivojlanishning aniq yo‘nalishlarini belgilab olish zarur bo‘ladi. Bu esa muassasaning pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish strategiyalari va siyosatini belgilashga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur daraja bir qator funksiyalarning amalga oshirilishini taqozo qiladi:

ta’lim muassasalarida pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish yoki axborot-metodik qo‘llab-quvvatlash modellarini loyihalash va tajribadan o‘tkazish;

uzluksiz kasbiy rivojlantirishning innovatsion, hamkorlik va qadriyatga asoslangan muhitini, shuningdek, uning yaratuvchilari va tashuvchilarini shakllantirish;

pedagoglarda mustaqil o‘z-o‘zini rivojlantirishning ijtimoiy-texnologik mexanizmlarini kuchaytirish;

didaktika nazariyasi va amaliyotining o‘zaro aloqadorligini ta’minlovchi dinamik, samarali shakllarini rivojlantirish.

Tarmoq darajasi. Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda axborot-metodik qo‘llab-quvvatlashning tarmoq darajasi kasbiy-pedagogik hamjamiyatning o‘zini o‘zi rivojlantiruvchi yadrosi sifatida innovatsion vektorini ifodalaydi. Uning samarali ekanligi mukammallik markazlariga asoslangan bo‘lib, uni tarmoqli tarzda boshqarish, pedagoglarni birlashtirish, kasbiy-pedagogik jamoalarni yaratish, innovatsion rivojlanish bilan xarakterlanadi. U fanlarga doir vazifalarni aniq tushunish, faoliyatni loyihalash va tarmoqdagi ishlarni boshqarish, individual kasbiy rivojlanish dasturini tuzish va amalga oshirish, loyihalarni o‘zaro maslahatlashish, tajribadan o‘tkazish, tarmoq orqali o‘zaro ta’sir shakllarining xilma-xilligi, subyektlararo munosabatlar, tadqiqotlar o‘tkazish, o‘z g‘oyalarini taqdim etish, turli resurslardan samarali foydalanish, yagona faoliyat konsepsiyasining mavjudligi, axborot-ta’lim muhitining mavjudligi, axborot oqimlarining erkinligini bildiradi.

Kasbiy pedagogik hamjamiyat axborot-metodik qo‘llab-quvvatlashning tarmoq subyekti sifatida ta’lim innovatsiyalarini yaratish, qabul qilish, to‘plash va rivojlantirishga qodir bo‘lgan o‘zini o‘zi tashkil etuvchi tuzilma rolini o‘ynaydi. Uning o‘ziga xos xususiyati shundaki, jamoa bo‘lib uzluksiz kasbiy rivojlantirishning original modellar, innovatsion yondashuvlarning tarmoqqa birlashtirilishi, tashabbuslarning rag‘batlantirilishi, ijtimoiy-madaniy muammolarni hal qilishga hissa qo‘shish imkoniyati bilan ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Norpo‘latova X. “Ta’limni faollashtiruvchi metodlar”, Metodik qo‘llanma TerDU, 2010- yil.

2. Matematika. Umumiy o‘rta ta’lim maktabining 2-sinf uchun darslik.1-qism. V. Repyova– Toshkent, *Novda Edutainment,* 2023 ri

3. https://t.me/milliymarkaz

TA’LIMDAGI INNOVATSION FAOLIYAT RISKLARINI MINIMALLASHTIRISH

Kandaxarov Mirjalol Abdimurot
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi o‘g‘li
+9988883931800
e-mail: **moxa_1992@mail.ru**

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion faoliyat bilan bog‘liq xavflarni aniqlash, tahlil qilish va ularni minimallashtirish masalalari yoritilgan. Innovatsion faoliyatning rejalashtirilgan va real natijalari o‘rtasidagi tafovutlar ta’lim amaliyotida pedagogik risklar yuzaga kelishiga sabab*

bo‘ladi. Ushbu risklarni boshqarish va oldini olishda risk-menejment yondashuvining o‘rni alohida ta’kidlanadi. Ta’limdagi xavf turlarining klassifikatsiyasi keltirilib, ularni minimallashtirishning samarali yo‘llari — trening mashg‘ulotlari, muqobil rejalashtirish, refleksiv tahlil va monitoring, metodik qo‘llanmalar asosida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsion faoliyat, ta’limdagi xavf, risk-menejment, pedagogik risklar, xavfni minimallashtirish, bo‘lajak o‘qituvchi, riskologik kompetensiya, ta’lim texnologiyalari, metodik tavakkalchilik, refleksiya va monitoring

Zamonaviy ta’lim tizimi doimiy innovatsiyalar, raqobat kuchaygan muhit va tezkor o‘zgarishlar bilan ajralib turadi. Ushbu sharoitda o‘qituvchilardan nafaqat o‘z faniga oid chuqur bilimlar, balki murakkab pedagogik vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, risklarni aniqlash va boshqarish, yangiliklarni tan olish va joriy etishga tayyorlik talab etiladi. Bunday kompetensiyalar majmuasi “riskologik kompetensiya” tushunchasi orqali ifodalanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda ushbu kompetensiyani shakllantirish pedagogik ta’lim tizimining strategik vazifasidir. Riskologik kompetensiyaning yo‘qligi innovatsion faoliyatda sustkashlik, yangilikka qarshilik, o‘qituvchilik faoliyatida noaniqlikka duch kelgan paytda passivlik kabi oqibatlarga olib kelishi mumkin.
Shu bois, mazkur maqolada riskologik kompetensiyaning nazariy asoslari, uning tarkibi, shakllantirish texnologiyalari va samaradorlik ko‘rsatkichlari chuqur tahlil qilinadi.

Zamonaviy ta’lim sohasidagi sotsiomadaniy holatni, avvalo, innovatsiyalar belgilab bermoqda. Bu innovatsion jarayonlarga javoban samarali ish usullarini topishni, uzluksiz yangilanish, modernizatsiya va ta’lim tizimlarini qayta tashkil etish sharoitida faoliyat yuritishni taqozo etadi. Bugungi kunda innovatsion faoliyat butun ta’lim tizimini qamrab olib, uzluksiz o‘zgarishlar rejimida kechmoqda. Ushbu o‘zgarishlar ta’limiy amaliyotni tizimli rivojlantirish va yangilash maqsadida amalga oshirilmoqda[68].

Ta’limdagi innovatsiyalar ham davlat miqyosida ham mintaqaviy darajalarda qo‘llab-quvvatlanmoqda. Biroq, shu bilan birga, hozirgi davrda ta’limdagi innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda jiddiy bo‘shliqlar mavjud bo‘lib, ular orasida eng dolzarbi — innovatsion faoliyat bilan bog‘liq risklarni minimallashtirish mexanizmining yo‘qligidir.

Innovatsiyalarni joriy etish natijalarini oldindan belgilab olish zaruriyati, eng avvalo, riskli holatlarning yuzaga kelishi ehtimoli bilan bog‘liq. Bunday holatlar esa quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin: ta’lim sifati pasayishi, ta’lim muassasasining keyingi rivojlanishida to‘siqlar, pedagoglarning kasbiy va innovatsion faoliyatiga putur yetishi, hamda innovatsion jarayonlarni amaliyotda amalga oshirishdagi noaniqliklar.

[68] Информационно-аналитические материалы по итогам первого этапа проекта «Модернизация педагогического образования» [Текст] / В.А. Болотов, В.В. Рубцов, И.Д. Фрумин, А.А. Марголис, А.Г. Каспржак, М.А. Сафронова, С.П. Калашников // Психологическая наука и образование. – 2015. – Т. 20, № 5. – С. 13–28.

Shu boisdan, ta’limdagi innovatsion faoliyat risklarini kamaytirish masalasini ilmiy asosda tadqiq qilish dolzarb bo‘lib, bu zarurat bir qator qarama-qarshiliklar bilan belgilanadi:

Ta’lim sohasida innovatsion jarayonlarning ommaviy tus olishi, ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarining innovatsion faoliyatga jalb etilishi va shu bilan birga, bu faoliyatning salbiy oqibatlarini oldini olish bo‘yicha samarali tizimning yetarlicha ishlab chiqilmaganligi ta’lim rivojida riskli holatlarni yuzaga keltirmoqda;

Innovatsion jarayonlarning jadallashuvi sharoitida ta’lim amaliyotida riskli vaziyatlarning yuzaga kelishi va ularni kamaytirishning samarali usullarining yo‘qligi innovatsion faoliyatda qo‘shimcha tavakkalchiliklarni keltirib chiqarmoqda;

Ta’limdagi innovatsion faoliyatdan ijobiy natijalarni kutish zarurati mavjud bo‘lib, bu jarayonda salbiy oqibatlar ehtimoli ham saqlanib qolmoqda, natijada innovatsion faoliyatning izdan chiqishiga, barqarorligini yo‘qotishiga olib keluvchi risklar yuzaga kelmoqda.

Pedagogik riskologiya (I.G.Abramova, Y.P.Arsenyeva, A.O.Belikov, V.P.Buyanov, M.M.Potashnik), ta’limdagi innovatsion faoliyat nazariyasi (K.Angelovskiy, V.S.Lazarev, A.A.Makarenya, B.P.Martirosyan, V.A.Slastyonin, I.L.Tukkel, A.V.Xutorskoy, N.R.Yusufbekova) hamda ta’lim jarayonining amaliy sharoitlarida innovatsion faoliyatni amalga oshirish tajribasi quyidagi uchta eng muhim natijani aniqlash imkonini berdi[69].

Birinchidan innovatsion faoliyatdagi risklar. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda, innovatsion pedagogik faoliyatdagi risklar — bu ta’lim tashkilotida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyat natijalarining salbiy oqibatlar yuzaga kelish ehtimoli sifatida talqin etiladi. Ushbu salbiy oqibatlar ta’lim jarayonining har bir subyektining shaxsiy rivojiga, shuningdek, innovatsion faoliyatdan kutilayotgan prognozli natijalarni amalga oshirishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin[70].

Ikkinchidan riskologik menejment. Rejalashtirilgan va real innovatsion faoliyat ko‘pincha bir-biriga mos kelmaydi. Shu munosabat bilan innovatsion faoliyatda yuzaga keladigan risklarni boshqarish nazariyasiga, ya’ni **risk-menejment** doirasida mavjud bo‘lgan yondashuvlarga murojaat qilish zarur bo‘ladi. Risk-menejment hal qiladigan asosiy masala — bu innovatsiyani amalga oshirish jarayonida risk darajasini baholash va uning foydaliligini aniqlashdir[71].

Uchinchidan ta’limdagi innovatsion faoliyat risklarini minimallashtirish usullari. Zamonaviy risk-menejment usullari o‘z vazifasiga ko‘ra xilma-xil va variativdir. Risk tushunchasi va uning klassifikatsiyasi mavjud risk-menejment

[69] Асхадуллина Н.Н. Модель формирования рискологической компетентности будущего учителя к инновационной деятельности [Электронный ресурс] // Мир науки. Педагогика и психология, 2019 – №4. Режим доступа: URL: https://mirnauki.com/PDF/15PDMN419.pdf.

[70] Буянов, В.П. Рискология: учеб. пособие [Текст] / В.П. Буянов, К.А. Кирсанов. – М.: Экзамен, 2007. – 384 с.

[71] Гончаренко, Л.П. Риск-менеджмент [Текст] / Л.П. Гончаренко, С.А. Филин. – 3-е изд., стер. – М.: КноРус, 2010. – С. 215.

usullarining ta’limdagi innovatsion faoliyatga xos bo‘lgan pedagogik risk turlariga qarab taqsimlanishini belgilaydi[72].

Zamonaviy ta’lim tizimi innovatsion faoliyatni kuchli rag‘batlantirayotgan bir paytda, bu jarayon bilan bog‘liq bo‘lgan xavf omillarining ham ortib borayotgani kuzatilmoqda. Innovatsion yangiliklarning muvaffaqiyatli joriy etilishi, birinchi navbatda, o‘qituvchilarning risklarga tayyorligi, ularni anglash va boshqarish qobiliyatiga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, pedagogik faoliyatda risk-menejment tamoyillarini qo‘llash dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Информационно-аналитические материалы по итогам первого этапа проекта «Модернизация педагогического образования» [Текст] / В.А. Болотов, В.В. Рубцов, И.Д. Фрумин, А.А. Марголис, А.Г. Каспржак, М.А. Сафронова, С.П. Калашников // Психологическая наука и образование. – 2015. – Т. 20, № 5. – С. 13–28.

2. Асхадуллина Н.Н. Модель формирования рискологической компетентности будущего учителя к инновационной деятельности [Электронный ресурс] // Мир науки. Педагогика и психология, 2019 – №4. Режим доступа: URL: https://mirnauki.com/PDF/15PDMN419.pdf.

3. Буянов, В.П. Рискология: учеб. пособие [Текст] / В.П. Буянов, К.А. Кирсанов. – М.: Экзамен, 2007. – 384 с.

4. Гончаренко, Л.П. Риск-менеджмент [Текст] / Л.П. Гончаренко, С.А. Филин. – 3-е изд., стер. – М.: КноРус, 2010. – С. 215.

5. Подымова Л.С. Инновации как ценность [Текст] // Инновации в науке и образовании: сб. науч. ст. междунар. науч.-практ. конф. – М., 2014. – С. 7–11.

ИНКЛЮЗИВНЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Зарипов Хусан Баходирович, PhD., доцент кафедры «Налог и налогообложение» Ташкентского государственного экономического университета.
email: xb_zaripov@mail.ru

Ключевые слова: экономическая безопасность, инклюзивность, экономический рост, диверсификация, налоговое администрирование, оптимизация, цифровизация, дискретность, теневая экономика.

[72] Подымова Л.С. Инновации как ценность [Текст] // Инновации в науке и образовании: сб. науч. ст. междунар. науч.-практ. конф. – М., 2014. – С. 7–11.

Происходящие процессы глобализации приводят к увеличению взаимосвязей интегрированных государств, что повышает степень угроз системе экономической безопасности глобализируемых стран. Обеспечение экономической безопасности является гарантией независимости страны, условием стабильной и эффективной жизнедеятельности общества. Поэтому обеспечение экономической безопасности причисляется к числу важнейших задач большинства стран мира, а изучение и применение успешного опыта других государств представляют собой механизмы эффективности национальной экономики.

В последние десятилетия во многих странах мирового сообщества, как в развивающихся, так и в экономически развитых государствах обострились проблемы, связанные не только с замедлением темпов экономического роста, но и с увеличением социального неравенства и классового расслоения в обществе. Замедление роста национальных экономик вызвано не только их циклическим характером развития, нарастанием кризисных явлений, перепроизводством и насыщением товарных рынков, уменьшением уровня деловой активности, снижением производительности труда, но и падением потребительского спроса со стороны населения, что вызвано сокращением его реальных доходов, бедностью и усилением процессов общественной дифференциации.

Все эти обстоятельства требуют выработки совершенно иных траекторий социально-экономического развития страны, разработки новых методов и качественных характеристик, долгосрочных стратегий и механизмов обеспечения предпосылок устойчивого экономического роста.

«На территории Республики Узбекистан действует единая налоговая система. Право установления налогов принадлежит Олий Мажлису Республики Узбекистан».[73]

В отличие от политики, направленной на непосредственное сокращение имущественного неравенства между отдельными лицами или регионами, которая часто ассоциируется с прогрессивными идеологиями, инклюзивный рост направлен на создание равных условий для всех. Он подчеркивает идею о том, что будущее людей должно определяться их талантом и усилиями, а не предопределено их происхождением. Этот подход предполагает общество, в котором успех основан на заслугах и способностях, а не на обстоятельствах рождения.

В целом, инклюзивный рост воплощает в себе принцип, согласно которому создание богатства, экономическая свобода и равные возможности могут сосуществовать. Он продвигает идею о том, что общество может быть свободным и равноправным, а также стремиться к долгосрочному экономическому росту и благополучию. Роль государства в этом балансе

[73] Статья 149, Конституции Республики Узбекистан. Новая редакция Конституции Республики Узбекистан принята путем всенародного голосования на референдуме Республики Узбекистан, проведенном 30 апреля 2023 года, https://lex.uz/docs/6445147

будет зависеть от индивидуальных ценностей, доверия к политическим деятелям и местных реалий.

Инклюзивность проявляется главным образом в прогрессивном характере налоговой системы — в налоговом бремени, возрастающим вместе с доходом или богатством налогоплательщика. Она также касается и иных аспектов равенства, таких как равное обращение независимо от гендерной принадлежности, равенство возможностей, справедливое распределение ресурсов между поколениями и одинаковое обращение с людьми, находящимися в аналогичных обстоятельствах (принцип горизонтальной справедливости).

Устойчивый рост в экономической платформе Нового Узбекистана требует налогов, которые сводят к минимуму негативное воздействие на инвестиции, сбережения, занятость, производительность и потребление. Эмпирические исследования позволили составить так называемый рейтинг налогов применительно к экономическому росту. При этом выяснилось, что налоги на доходы в большей степени вредят долгосрочному росту, чем налоги на потребление и имущество. При этом при ранжировании налогов по их влиянию на неравенство обнаружены противоположные результаты, т. е. налоги на доходы, как правило, сокращают неравенство в большей степени, чем налоги на потребление.

Литературы:

6. Конституция Республики Узбекистан. Новая редакция Конституции Республики Узбекистан принята путем всенародного голосования на референдуме Республики Узбекистан, проведенном 30 апреля 2023 года, https://lex.uz/docs/6445147

7. Налоговый Кодекс Республики Узбекистан (новая редакция). Национальная база данных законодательства, 07.02.2025 г., № 03/25/1025/0116 https://lex.uz/ru/docs/4674893

8. Закон Республики Узбекистан “О внесении дополнений и изменений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан в связи с принятием основных направлений налоговой и бюджетной политики на 2025 год”. г. Ташкент, 24 декабря 2024 г., № ЗРУ-1014, https://lex.uz/ru/docs/7279959

9. Закон Республики Узбекистан “О Государственном бюджете Республики Узбекистан на 2025 год”. г. Ташкент, 24 декабря 2024 г., № ЗРУ-1011, https://lex.uz/ru/docs/7277659

10. Указ Президента Республики Узбекистан «О государственной программе по реализации стратегии «Узбекистан — 2030» в «Год поддержки молодежи и бизнеса». г. Ташкент, 21 февраля 2024 г., № УП-37, https://www.lex.uz/uz/docs/6811938

11. https://soliq.uz

OLIY TA’LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASH JARAYONIDA TALABALARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING AFZALLIKLARI.

Rasulov Akbarjon Nomozovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Menejment kafedrasi dotsenti p.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: Maqolada Oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida talabalarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishning afzalliklari to‘g‘risida fikr yuritilib, taklif va tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: Boshqaruv kompetensiyasi, modernizatsiya, ta'lim texnologiyal, jamiyat, uzluksiz ta’lim, moliyaviy erkinlig, kompaniya, ehtiyoj, boshqaruv kompetensiya, vaqt boshqaruvi, resurslar.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Modernizatsiya - (lotincha - modeme – eng yangi) – takomillashtirilgan, yaxshilangan, yangi talabalarga javob bera oladigan degan ma’noni bildiradi. Ushbu so’z borgan sari hayotning barcha jabhalarida keng qo’llanilib bormoqda. Mazkur modernizatsiya shaxsni o‘qitish va tarbiyalashga oid eng yaxshi an’analarni saqlab qolgan va boyitgan holda majmuaviy xarakter kasb etib, ta’lim tizimining barcha sohalarini to‘la qamrab oladi va jamiyatda qaror topgan malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi.

Ta’lim tizimining modernizatsiyalashda quyidagi ustuvor vazifalar hal qilinadi:

- har bir shaxsning to‘laqonli ta’lim olishida boshqalar bilan teng huquqliligi va ta’lim olishning ochiqligini ta’minlash;
- uzluksiz ta’lim tizimida yangi sifat ko‘rsatkichlariga erishish;
- yangi ta’lim resurslarini jalb qilish va ulardan samarali foydalanish asosida uzluksiz ta’lim tizimida samarali me’yoriy-huquqiy va tashkiliy- iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish;
- davlat va jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi negizida ta’lim tizimi xodimlarining ijtimoiy maqomi va kasbiy kompetentligini rivojlantirish;
- ta’lim tizimining davlat va jamoatchilik boshqaruviga asoslanganlik tamoyiliga muvofiq ta’lim jarayoni ishtirokchilari – talabalar, pedagoglar, ota onalar va ta’lim muassasalarining rolini oshirish.

Oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayoni nafaqat o'quv dasturlarini yangilash va texnologiyalarni tatbiq etish, balki talabalarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga ham qaratilgan. Zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonish uchun talabalarga nafaqat nazariy bilimlar, balki liderlik, qaror qabul qilish, strategik fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalari ham zarur. Oliy ta’lim tizimi – mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri. Zamonaviy jamiyat talablarining o‘zgarishi, texnologik inqiloblar va globalizatsiya jarayonlari oliy ta’lim tizimining doimiy ravishda modernizatsiya qilinishini taqozo etmoqda. Oliy ta’limni modernizatsiyalash nafaqat ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishga, balki iqtisodiy o‘sishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston ham xalqaro tajribani inobatga olgan holda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha qator islohotlarni amalga oshirmoqda.

6. Raqamlashtirish va onlayn ta’limni rivojlantirish

- Oliy ta’lim muassasalarida elektron ta’lim platformalari joriy etilmoqda. Masalan, moocs.edu.uz platformasi orqali talabalar turli kurslarni o‘qishlari mumkin.

- 2023-yildan boshlab ko‘plab universitetlarda gibrid ta’lim tizimi joriy qilindi.

7. Xalqaro hamkorlik va xorijiy filiallar ochilishi

- O‘zbekiston nufuzli xorijiy universitetlarning filiallarini ochish bo‘yicha faoliyat olib bormoqda.

- Talabalar uchun xalqaro grant va stipendiyalar ajratish tizimi kengaytirildi.

8. Ta’lim dasturlarini mehnat bozoriga moslashtirish

- O‘zbekistonda ta’lim va sanoat integratsiyasi jarayoni kuchaymoqda. Masalan, IT Park va boshqa texnoparklar talabalarga real amaliy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatini bermoqda.

- “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali iqtidorli yoshlar yetakchi xorijiy universitetlarda o‘qishga yuborilmoqda.

9. Oliy ta’lim muassasalarining ilmiy tadqiqot markazlariga aylanishi

- O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar markazlariga aylantirilmoqda. 2022-yilda ilmiy tadqiqotga ajratilgan mablag’ 2 barobarga oshirildi.

- Xorijiy va mahalliy kompaniyalar bilan hamkorlikda ilmiy laboratoriyalar tashkil etilmoqda.

10. Ta’limning moliyaviy erkinligini oshirish

- Oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish jarayoni boshlandi.

- 2021-yildan boshlab davlat universitetlari o‘z budjetlarini mustaqil shakllantirish huquqiga ega bo‘ldi.

Oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida talabalarni faqatgina nazariy bilim bilan ta’minlash emas, balki ularning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy mehnat bozorida talab qilinadigan mutaxassis faqat texnik bilimga ega bo‘lib qolmay, balki yetakchilik,

strategik fikrlash, muammolarni hal qilish va jamoani boshqarish qobiliyatlariga ham ega bo‘lishi kerak.

Boshqaruv kompetensiyalari – bu shaxsning samarali rahbar va menejer bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plamidir.

Ular quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- Strategik fikrlash – uzoq muddatli rejalashtirish va maqsadlarni aniq belgilash.
- Liderlik va jamoani boshqarish – jamoani motivatsiya qilish, tashabbus ko‘rsatish va resurslarni samarali taqsimlash.
- Tahliliy va tanqidiy fikrlash – murakkab muammolarni hal qilish, ma’lumotlarni tahlil qilish.
- Qaror qabul qilish – tezkor va samarali qarorlar qabul qilish qobiliyati.
- Kommunikatsiya ko‘nikmalari – jamoa bilan samarali muloqot qilish, muvofiqlashtirish.
- Loyiha va vaqt boshqaruvi – o‘z faoliyatini rejalashtirish va samaradorlikni oshirish.

Dunyodagi nufuzli universitetlar oliy ta’limda boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimi talabalarning faqat akademik bilim olishini emas, balki ularda real hayotda va professional faoliyatda qo‘llay oladigan kompetensiyalarni shakllantirishni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishi lozim. Chunki talabalarning bilim va ko‘nikmalari ularning kelajakdagi martabasiga, mehnat bozoridagi talabgirligiga va kasbiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati quyidagi asosiy omillar bilan izohlanadi.

1. Zamonaviy mehnat bozorining talablariga moslashish

XXI asr mehnat bozori shiddat bilan o‘zgarib bormoqda. Texnologik taraqqiyot, raqamli transformatsiya va global iqtisodiy integratsiya jarayonlari natijasida ish beruvchilar mutaxassislarning nafaqat chuqur bilimga ega bo‘lishini, balki tahliliy fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoani boshqarish va strategik qarorlar qabul qilish kabi qobiliyatlarga ega bo‘lishini talab qilmoqda. An’anaviy ta’lim modelida talabalarga asosan fundamental nazariy bilimlar beriladi, amaliy boshqaruv kompetensiyalarining rivojlanishiga esa yetarlicha e’tibor qaratilmaydi. Natijada, yangi bitiruvchilar mehnat bozoriga kirib kelganda rahbarlik va tashkilotchilik qobiliyatlarining yetishmasligi tufayli professional muhitga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa ularning raqobatbardoshligini pasaytirishi mumkin.

Shu sababli, oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida talabalarni bozor sharoitlariga tayyorlash, ularni nafaqat o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha, balki menejment, liderlik va muammolarni hal qilish kompetensiyalari bo‘yicha ham tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Raqobatbardosh kadrlar tayyorlash

Har qanday mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti uning inson kapitalining rivojlanganlik darajasi bilan bog‘liq. Innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga

oshirish uchun zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, kreativ fikrlaydigan, tashabbuskor va boshqaruv qobiliyatiga ega kadrlar tayyorlash talab etiladi.

Boshqaruv kompetensiyalariga ega bo‘lgan mutaxassislar:

- murakkab vaziyatlarni tahlil qila oladi;
- samarali qarorlar qabul qila oladi;
- resurslarni oqilona boshqara oladi;
- jamoa bilan ishlash va liderlik qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Bunday mutaxassislar nafaqat milliy, balki xalqaro mehnat bozorida ham yuqori raqobatbardoshlikka ega bo‘ladi. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar, amaliy mashg‘ulotlar va loyiha asosida ta’lim berish usullaridan keng foydalanish muhimdir.

3. Innovatsion fikrlash va moslashuvchanlik

Hozirgi kunda har qanday sohada muvaffaqiyatga erishish uchun innovatsion fikrlash va tezkor moslashuvchanlik muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, moliya, IT va boshqa sohalarda innovatsion yondashuvlar tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

Boshqaruv kompetensiyalariga ega bo‘lgan talabalarda quyidagi qobiliyatlar shakllanadi:

- yangicha fikrlash va kreativ yondashuv;
- o‘zgaruvchan muhitga moslashish;
- yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- innovatsion loyihalarni boshqarish.

Oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayonida innovatsion metodlardan, jumladan, startap loyihalar, tadbirkorlik inkubatorlari va mentorlik dasturlaridan foydalanish orqali talabalarning ushbu kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratishlari lozim.

4. Shaxsiy va kasbiy rivojlanish

Boshqaruv ko‘nikmalariga ega bo‘lish nafaqat kasbiy faoliyatda, balki shaxsiy hayotda ham muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Samarali vaqt boshqaruvi, stressga chidamlilik, jamoa bilan ishlash, muhokama yuritish va murosaga kelish qobiliyatlari har qanday kasb egasi uchun zarurdir.

Xulosa qilib shuni ayutishimiz mumkin, yuqoridagi tavsiyalarga amal qilish orqali Oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida talabalarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga erishish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni.

2.Xamdamova G.A. va boshqalar. Innovatsion menejment. O‘quv qo‘llanma. “Iqtisod-moliya”, 2018 yil, -242 b

3. Po‘latov Sh.P. Ta’lim menejmenti yoxud ta’lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarishga innovatsion yondashuv./ T.: “Yosh kuch”.2022 y
4.Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta’lim menejmenti va iqtisodiyoti. - T.: Moliya, 2007.

INTERFAOL O‘YINLAR VA IJODIY YONDASHUVLAR ORQALI TALABALARDA MOTIVATSIYANI SHAKILLANTIRISH

Pulatova Iroda Obidovna
Samarqand davlat chet tillar instituti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya:
Ushbu maqola interfaol o‘yinlar va ijodiy yondashuvlar orqali talabalarda motivatsiyani shakillantirishning ahamiyatini ko‘rib chiqadi. Zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar sharoitida oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlari kasbiy salohiyatini oshirish va yangi pedagogik yondashuvlarga mos ravishda qayta tayyorlash zarurligini ta'kidlaydi. Maqolada, talabalarni ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va ijtimoiy mas’uliyatni his qilish kabi kompetensiyalar bilan ta'minlash muhimligi urg’u berilgan.

Kalit so’zlar: ijodiy yondashuv,interfaol o’yinlar,motivatsiya, innovatsion yondashuv, interaktiv metodlar, kompetensiyaviy yondashuv va raqamli texnologiyalar

Bugungi kunda dunyo miqyosida tayyorlanayotgan mutaxassislar faoliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillarini takomillashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan oliy ta’lim muassasalarida talabalarning tadqiqotchilik layoqatini kreativ yondashuv asosida tarbiyalash katta ilmiyamaliy ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar sharoitida oliy o‘quv yurtlarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish va ularni yangi pedagogik yondashuvlar asosida qayta tayyorlash dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, qayta tayyorlash va malaka oshirish bo‘yicha o‘quv dasturlarini zamonaviy metodik talablar asosida muntazam takomillashtirib borish, ularning mazmun va shaklini bugungi o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish zarurdir.

Oliy ta’lim muassasalari oldida turgan asosiy maqsad – yangicha fikrlaydigan, ijodiy salohiyatga ega, mustaqil qaror qabul qila oladigan, yuqori ma’naviyatli va keng dunyoqarashga ega mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish, avvalo, ta’lim-tarbiya jarayonining mazmunini chuqur isloh qilish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta’lim vositalarini turlicha shakllarda tatbiq etish bilan chambarchas bog‘liq.

Shuningdek, ta’lim samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuv, interaktiv metodlar, kompetensiyaviy yondashuv va raqamli texnologiyalardan foydalanish alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda faqat bilim berish emas, balki talabalarda tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatda to‘g‘ri yo‘l topish, ijtimoiy mas’uliyatni his qilish kabi kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb hisoblanadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan samarali usullar va vositalarni tanlashda, avvalo, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi, shaxsiy intilishlari va global ijtimoiy o‘zgarishlar kontekstini hisobga olish muhimdir. Zero, pedagog faolligi va metodik innovatsiyalarning uyg‘unligi o‘quv jarayonining sifat ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir qiladi.

Zamonaviy ta’limda asosiy maqsad – talaba faqat bilim oluvchi emas, balki **bilimga faol ishtirokchi va ijodkor subyekt** sifatida shakllanishidir. Bu esa an’anaviy, faqat ma’lumot uzatishga asoslangan yondashuv o‘rniga **talabani dars jarayoniga faol jalb etuvchi, uni o‘z fikrini ifodalashga undovchi va o‘rganishga ilhomlantiruvchi** metodlarni qo‘llashni talab etadi. Shunday yondashuvlardan eng samaralilari bu **interfaol o‘yinlar** va **ijodiy yondashuvlardir**.

1. Interfaol o‘yinlarning mohiyati va motivatsiya

Interfaol o‘yinlar – bu o‘qituvchi va talabalar, yoki talabalar o‘rtasida o‘zaro muloqot, hamkorlik, raqobat va fikr almashinuvi asosida kechadigan o‘quv faoliyati shaklidir. Ular orqali dars:

- ✓ faollik uyg‘otuvchi,
- ✓ qiziqarli,
- ✓ ijtimoiy va emotsional jihatdan boyitilgan muhitda o‘tadi.

O‘yinlarning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Rag‘batlantiradi: o‘yinlar orqali ta’lim jarayoniga ishtiyoq bilan yondashiladi.

Stressni kamaytiradi: raqobat muhitida ijobiy emotsiyalar bilan o‘rganish osonlashadi.

Ko‘nikmalarni mustahkamlaydi: bilimlar real vaziyatlarda qo‘llaniladi.

Faol ishtirokni ta’minlaydi: passiv talabalar ham o‘z fikrini bildirishga intiladi.

Masalan:

“Qaysi guruh tezroq topadi?” kabi raqobatga asoslangan testlar,

"Savol-javob estafetasi" yoki "Rol o‘ynash" usullarida talabalar berilgan rollarni bajarib, bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rishadi.

2. Ijodiy yondashuv – talabada motivatsiyani uyg‘otish vositasi

Ijodiy yondashuv – bu talabalarni standart, an’anaviy fikrlashdan chiqarish, ularni muammoga yangicha nazar bilan qarashga undash, shuningdek, mustaqil fikrlashga ilhomlantirish usulidir. Bunday darslarda o‘qituvchi bilimni emas, yo‘nalish va muhitni beradi, natijada talaba o‘zi izlanadi, o‘rganadi va ijod qiladi.

Ijodiy yondashuvga misollar:

Muammoli vaziyatlar asosida muhokama (“Agar sen shunday vaziyatda bo‘lsang, nima qilarding?”),

Erkin esse yozish (“Til – bu kuch. Sen uni qayerda va qanday ishlatasan?”),

Ijodiy topshiriqlar, poster yaratuvchi ishlar, video tayyorlash kabi amaliy faoliyatlar.

Bu yondashuvlar talabalarda:

- ✓ Tanqidiy fikrlash,
- ✓ Komandada ishlash,
- ✓ Muammoli vaziyatni hal qilish,
- ✓ Mustaqil qaror qabul qilish,
- ✓ Emotsional tafakkur va tasavvur kabi zarur ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

3. Motivatsiyaga bevosita ta’siri

Har ikkala uslub – interfaol o‘yinlar va ijodiy yondashuvlar – motivatsiyani shakillantirishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri rol o‘ynaydi. Chunki ular:

- ✓ Ta’lim jarayonini shaxsiylashtiradi – ya’ni, har bir talaba o‘z qiziqishi va salohiyati asosida rivojlanadi,
- ✓ Talabani passiv eshituvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi,
- ✓ Va eng muhimi – o‘rganishdan zavqlanish tuyg‘usini uyg‘otadi.
- ✓ O‘rganish jarayoniga emotsional bog‘lanishni kuchaytiradi, bu esa bilimlarning chuqurroq singishiga xizmat qiladi,

O‘yinli pedagogik texnologiya – bu ta’lim jarayonida o‘yinga xos bo‘lgan elementlar va strukturalarni maqsadli ravishda qo‘llab, pedagogik vazifalarni samarali hal qilishga yo‘naltirilgan uslubdir. Bunday texnologiyaning o‘ziga xos jihati shundaki, bunda didaktik maqsadlar aniq belgilanadi, o‘yin esa o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Pedagogik o‘yinlar turli shakllarda bo‘lishi mumkin: rolli o‘yinlar, intellektual bellashuvlar, muammoli vaziyatlar, ssenariy asosida qurilgan mashqlar va interaktiv testlar. Ular talabalarda nafaqat bilim, balki muloqot madaniyati, qaror qabul qilish layoqati, guruhda ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shu tarzda, o‘yinli yondashuvning asosiy vazifasi – o‘quvchida darsga nisbatan qiziqish uyg‘otish, uni faol subyektga aylantirish va o‘qituvchi bilan o‘zaro ta’sirli pedagogik muhitda ta’lim olishga yo‘naltirishdan iborat.

Rus olimi G.K.Selevkoning fikriga ko‘ra, “pedagogik o‘yinlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda bo‘ladi:

- didaktik maqsad o‘yinli vazifa shaklida qo‘yiladi;
- o‘quv faoliyati o‘yin qoidalariga bo‘ysunadi;
- o‘quv materialidan o‘yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o‘quv jarayoniga didaktik vazifa o‘yinga aylantirilganda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;
- didaktik vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi o‘yin natijalari bilan bo‘linadi”[74].

Didaktik o‘yinlar vositasida talabalar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘ladi, balki ular hayotiy va madaniy qadriyatlar bilan bevosita tanishish, o‘z milliy identitetini anglash, ijtimoiy-madaniy ongni shakllantirish imkoniyatini ham qo‘lga

[74] Селевко, Г.К. Энциклопедия образовательных технологий. – Т.1. – М.: 2006. – С. 21.

kiritadi. Shu sababli, o‘yinli pedagogik texnologiyalar bugungi o‘quv jarayonida madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantiruvchi vosita sifatida ham ko‘rilmoqda.

Psixologlarning ta’kidlashicha, inson èshi ulg‘aygan sari, mantiqiy xotira yaxshilanadi, ammo qisqa muddatli xotira susayadi. Shaxsiy kamchiliklarni to‘ldiradigan funksiyalar o‘rtasidagi bog‘lanish va moslashuv esa qulay omil hisoblanadi. Masalan, yig‘ilgan tajriba va yaxshi rivojlangan mantiqiy fikrlash qisqa muddatli xotira hajmini to‘ldirishga èrdam beradi. Lingvistik tajriba o‘rganish samaradorligiga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ona tilidagi bilim yetishmasligi esa grammatik va leksik tuzilmalarni tushunish va o‘zlashtirishni qiyinlashtirishi mumkin. Bundan farqli o‘laroq, ona tilini a’lo darajada bilish ba’zan chet tilini o‘rganishga to‘sqinlik qilishi mumkin, chunki èshi kattalar o‘zlarining boy haètiy tajribalaridan kelib chiqib o‘z fikrlarini ifoda etish uchun noèb so‘zlardan foydalanishga ehtièj sezadilar. Bu esa chet tilidagi imkoniyatlarga zid kelishi va natijada ko‘plab xatolar yuzaga keltirib chiqarishi mumkin. Shunga qaramay, amalièt shuni ko‘rsatadiki, bir chet tilini o‘rganishda orttirilgan lingvistik tajriba boshqa chet tillarini ham muvaffaqiyatli o‘rganishga èrdam beradi.

Bahs va munozara yo‘li bilan turli ijtimoiy muammolarni hal qilish masalasiga qiziqish XX asrning 30-yillaridan boshlangan, deb hisoblanadi. Chunki, bu hodisaga qiziqish shu davrga kelib pedagogika va psixologiya sohalariga ham yoyilgan va bu haqda birinchi ilmiy psixologik xulosalar qilgan olim shveysariyalik psixolog Jan Piajedir. U bola ijtimoiylashuvi jarayonini o‘rganar ekan, uning o‘z tengqurlari bilan turli mavzularda qiladigan munozara yoki bahslari undagi egoistik shaxsiyatparastlik mavqyeining susayishi va shu tariqa o‘z-o‘zini anglash bilan bir qatorda o‘zgalar mavqyelarini anglash va «o‘zga shaxs bo‘la olish» qobiliyatini o‘stirishni aniqladi. Nemis olimi Kurt Levining fikricha guruhdagi munozara har bir shaxsning guruhiy faoliyatga nisbatan motivasiyasini oshirib, shu bilan birga har qaysi a’zoning guruhiy jarayonlarga qo‘shilishi, o‘z mavqyeini anglash, o‘zgalarga nimanidir deyin kabi ehtiyojlarni oshiradi. Erkin, demokratik tarzda fikr almashinish imkoniyatining yaratilishi muhokama qilinayotgan muammo bo‘yicha guruh a’zolaridagi fikrlash jarayonini tezlashtiradi, ularning ijtimoiy mavqyelarini yanada faollashtiradi.

Munozaraning mohiyati va ahamiyati ilmiy jihatdan quyidagicha izohlanadi: an’anaviy ma’ruza tinglovchilari tanishtirilayotgan muammoga nisbatan taxminan bir xil neytral mavqyeni bildiradilar, ya’ni o‘sha mavzu yuzasidan o‘zida to‘g‘ri fikr mavjud bo‘lgan sharoitda ham ma’ruzachining bildirayotgan fikrlarini ishonchliroq va asoslanganroq, deb hisoblab, mavzu yuzasidan shaxsiy fikrini past baholaydi. Agar bayon etilayotgan fikrlar mutloqa yangi bo‘lsa, uning mohiyatiga to‘la tushunib yetish va tushunish qiyin, degan ma’noda yana fikriy pasayish yuzaga keladi. Fikrlar to‘qnashuvini taqoza qiluvchi munozarada esa qarama-qarshi yoki monand fikrlarning borligini anglash ham shaxsda ushbu fikrlarga nisbatan ancha faol mavqyeni shakllantiradi. Munozaraning qanday yakunlanishidan qat’i nazar, ya’ni unda fikrlar kesishmasligi ham mumkin yoki

ularda ma’lum uyg‘unlik bo‘lishi kuzatiladi, bunda nima bo‘lganda ham bahsning mazmuni shaxsning ijtimoiy tasavvurlari va qarashlarida mustahkam o‘rnashadi hamda xotirada qoladi.

Munozara har bir shaxsning o‘z nuqtai-nazarini tahlil qilishga imkon yaratib, undagi tashabbuskorlik, muloqatdagi bilimdonlik hamda o‘z aqliy potensialidan to‘liq foydalanish imkoniyatini beradi.Munozara metodida quyidagi vazifalar amalga oshadi: - munozara qatnashchilarini real vaziyatlarni tahlil qilishga, asosiy, muhim narsani nomuhim narsadan ajratishga va muammoni anglashga o‘rgatadi; - o‘zgalar fikri, gapirish mahoratini kuzatish va shu asosida ular bilan hamkorlikda ishlashga undaydi.

Til grammatikasi, yetarli miqdordagi so‘z boyligiga ega bo‘lish bu o‘z navbatida tezroq ushbu tilning qolgan kompetensiyalari – o‘qish, eshitish, gapirish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga olib keladi.

To‘g‘ri kontekstni shakllantirish. Chet tillarining amaliy rivojlanishidagi eng qiyin payt belgilar, harflar yoki grammatik tuzilmalar hajmi emas, balki kontekstga to‘g‘ri kirish qobiliyatini rivojlantirishdir. Kontekst – muloqotning boshqa ishtirokchilariga nisbatan shaxsning xulq-atvorini va uning bayonotining mazmunini belgilaydi, ushbu bayonotni loyihalash uchun ma’lum grammatik va leksik vositalarni tanlashga ta’sir qiladi. Aynan kontekst tashqi, yuzaki, leksik va grammatik qobiqqa o‘rangan, bayon mazmunini uning haqiqiy, chuqur mohiyatidan ajratish imkonini beradi.

O‘qish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish - bu texnologiya talabalarning tadqiqot pozisiyasini shakllantirishning samarali vositasidir. Ushbu texnologiya talabalarning tadqiqot pozisiyasini shakllantirishning samarali vositasidir. “Chet tillaridagi nutqni tinglamay, faqat darsda matnni o‘qish bilan kifoyalanish yaxshi samara bermaydi. Bunday holat xorijiy tilni ichiga kirishni sekinlashtiradi. Shuning uchun matnga ustuvor rol beriladi: u o‘qiladi, qayta hikoya qilinadi, tahlil qilinadi, o‘zgartiriladi, sharhlanadi, muhokama qilinadi va hokazo”[75].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Селевко, Г.К. Энциклопедия образовательных технологий. – Т.1. – М.: 2006. – С. 21.
2. Трофименко О.А. Методики обучения чтению на иностранном языке. // Сборник докладов III международной конференции «Методика преподавания восточных языков: актуальные проблемы преподавания перевода. 2015. – С. 198.

[75] Трофименко О.А. Методики обучения чтению на иностранном языке. // Сборник докладов III международной конференции «Методика преподавания восточных языков: актуальные проблемы преподавания перевода. 2015. – С. 198.

ELEKTRON TA’LIM PLATFORMALARI: ZAMONAVIY TA’LIMNING YANGI BOSQICHI

Pulatova E’tibor Obidovna
Samarqand davlat chet tillar instituti
1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XXI asrda ta’lim sohasida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar, xususan, elektron ta’limning rivojlanishi va uning ta’lim jarayoniga ta’siri yoritilgan. Pandemiya davrida ommalashgan masofaviy va aralash ta’lim shakllari raqamli platformalarga bo‘lgan ehtiyojni sezilarli oshirdi. Elektron ta’lim multimedia kontentlar, interaktiv vositalar va internet orqali olib boriladigan kurslarga asoslanadi. Maqolada elektron ta’limning xalqaro va milliy platformalari (Coursera, Moodle, Duolingo, ZiyoNet, Kundalik.uz va boshqalar) haqida ma’lumotlar berilgan, ularning funksiyalari va afzalliklari tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda elektron ta’lim sohasida olib borilayotgan ishlar, "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasining ahamiyati ham ko‘rib chiqilgan

Kalit so’zlar: elektron ta’lim , platformalar,masofaviy va aralash ta’lim,raqamli texnologiyalar, virtual ta’lim, internet.

XXI asrda ta’lim sohasida yuz berayotgan o‘zgarishlar texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog‘liq. An’anaviy sinf xonalari va yuzma-yuz darslar o‘rnini tobora ko‘proq elektron ta’lim usullari egallamoqda. Ayniqsa, pandemiya yillarida masofaviy o‘qitish zaruriyati ushbu yo‘nalishni yanada keng ommalashtirdi. Bugungi kunda elektron ta’lim platformalari orqali nafaqat fanlar o‘rganilmoqda, balki kasbiy tayyorgarlik, til o‘rganish va shaxsiy rivojlanish kurslari ham olib borilmoqda. Elektron ta’lim — bu raqamli texnologiyalar vositasida bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘rgatish jarayonidir. Bu turdagi ta’lim interaktiv vositalarga, multimediya kontentlarga, real vaqtda yoki yozib olingan darslarga asoslanadi. Bu usul o‘quvchilarga o‘z ehtiyojlariga mos sur’atda, o‘z hududidan chiqmagan holda ta’lim olish imkonini beradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ta’lim tizimini raqamlashtirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi[76]. Masofaviy ta’lim, aralash ta’lim, ochiq ta’lim kabi shakllarning joriy qilinishi O‘zbekistonda ham zamonaviy ta’lim platformalariga bo‘lgan talabni sezilarli darajada oshirdi. Bu platformalar, bir tomondan, darslarni tashkil etish va nazorat qilishda o‘qituvchilarga yordam bersa, ikkinchi tomondan o‘quvchilarga mustaqil va interaktiv ta’lim olish imkonini beradi.

Elektron ta’lim yoki virtual ta’lim – bu internet tarmoqlari doirasidagi texnologiyalar orqali amalga oshiriladigan o‘qitish usulidir. Ushbu ta’lim shaklida o‘qituvchi uzoq masofada bo‘lib, o‘quvchilar bilan onlayn platforma orqali

[76] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. 2020-yil.

bog‘lanadi. Bu o‘rganishning yangi shakli bo‘lib, geografik masofa kabi cheklovlarni yengib o‘tishga imkon beradi. An’anaviy yoki odatiy ta’lim usullarida esa o‘qituvchi o‘quvchilar bilan yopiq sinf muhitida yuzma-yuz dars o‘tadi. Jahon miqyosidagi olimlar elektron ta’limning samaradorligi yuzasidan keng izlanish olib borib, quyidagi ta’riflarni taqdim etganlar. Oblinger, Hawkins elektron ta’limni – vaqt va joy bo‘yicha cheklovlarsiz mustaqil tarzda butun kursni yoki uning bir qismini texnologiyalar yordamida yetkazish[77] sifatida ta’riflashgan. Bundan tashqari, 2001-yilda Yevropa Komissiyasi elektron ta’limni internet va multimedia texnologiyalarini birlashtirish orqali qulay o‘quv imkoniyatlarini yaratish deb ta’rif berib o’tgan.Elektron yoki raqamli texnologiyalar orqali amalga oshiriladigan har qanday o‘qitish usuli elektron ta’lim deb ataladi[78]. 2002-yilda ushbu ta’rifni to‘ldirib, internetga asoslangan yoki internet orqali amalga oshiriladigan o‘qitish elektron ta’lim deb atalishini bildirganlar[79] . Liu va Wang esa elektron ta’limni uning xususiyatlariga asoslanib ta’riflashgan. Ularning fikricha, elektron ta’lim – bu turli xil axborot turlarini hamkorlikda birlashtiradigan multimedia muhitidir va bunday tizim operatsion tizimdan mustaqil bo‘lib, faqat internet tarmog‘iga ulanadigan qurilmani talab qiladi[80].

Elektron ta’limning turli komponentlari – bu o‘qituvchilar, ishtirokchilar, platforma, kurs dizayni va internet orqali ulanish imkoniyatidir. Shunday ekan, elektron ta’limni internet va Butunjahon O‘rgimchak To‘ri (WWW) orqali amalga oshiriladigan masofaviy ta’limning eng so‘nggi shakli deb hisoblash mumkin.

U onlayn ta’lim yoki kompyuterga asoslangan o‘qitish modeli bo‘lishi bilan birga, bilimlarni yetkazish va elektron vositalar orqali faoliyatni qo‘llab-quvvatlashda samarali vosita sifatida o‘zini isbotlagan.

Elektron ta’limni an’anaviy masofaviy ta’lim modellariga nisbatan yanada jozibador va qulay qiladigan asosiy xususiyat – bu **interaktivlik** bo‘lib, bu ta’lim shakllari atrofidagi mavjud stereotiplarni yo‘qqa chiqaradi.Garchi elektron ta’lim dasturlari virtual bo‘lsa-da, ular **onlayn konferensiyalar, guruhli muloqotlar va muhokama chat platformalari** kabi interaktiv imkoniyatlar orqali o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish salohiyatiga ega.

Onlayn va elektron ta’lim platformasi – bu o‘qituvchiga kurs darslari davomida talabalar bilan aloqa qilishda yordam beradigan dasturiy ta’minot turidir. Elektron ta’lim platformasi turli vositalar bilan birgalikda ishlaydigan kompyuter qurilmasi orqali ta’limiy maqsadlarga erishishga xizmat qiladi[81]. Elektron ta’lim platformalari o‘zlarining turli afzalliklari tufayli — istalgan vaqt va joyda

[77] Oblinger, D.G ., & Hawkins, B.L. , (2005). *The myth about E-learning, Educause review*, 40(4). Educause.

[78] Chawla, M., Panda, S. N., Khullar, V., Garg, K. D., and Angurala, M. (2024). Deep learning based next word prediction aided assistive gaming technology for people with limited vocabulary.

[79] LaRose, R., Gregg, J., and Eastin, M. (1998). Audio graphic tele-courses for the web: an experiment. *J. Comp. Med. Commun.* 4:JCMC423. doi: 10.1111/j.1083-6101.1998.tb00093.x

[80] Liu, Y., and Wang, H. (2009). A comparative study on e-learning technologies and products: from the east to the west. *Syst. Res. Behav. Sci.* 26, 191–209. doi: 10.1002/sres.959

[81] Dimet, B. , “Etude comparative technique et pédagogique des platesformes pour la formation ouverte et à distance,” (2006). Available at: http://www.portices.fr/formation/Res/-Formation/Plateformes/Pf1Resume.html. Accessed on 06-Jun-2016

mavjudligi, moslashuvchanligi va shaxsiylashtirilgan o‘rganish tajribalarini taqdim etishi sababli — o‘rta va oliy ta’limda zaruratga aylangan. Moodle va Blackboard kabi platformalar aralash ta’lim rejimini qo‘llab-quvvatlaydi va talabalar motivatsiyasini oshiradi[82]. Coursera, Udemy va Khan Academy kabi boshqa platformalar esa o‘z-o‘zini o‘rganish uchun turli funksiyalar va turli modellarini taklif qiladi, bu esa xilma-xil o‘quv ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi[83]. Elektron ta’lim rivojlanib borar ekan, uning ta’lim sifatini yaxshilashi va o’rganuvchilarning mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini oshirishdagi samaradorligini alohida e’tirof etish joizdir.

Turli elektron ta’lim platformalari ularning texnik xususiyatlari, ta’lim muassasalari orasidagi mashhurligi va onlayn o‘qitish uchun muhim bo‘lgan asosiy funksiyalar mavjudligiga qarab tanlandi. Xalqaro va yurtimizda mavjud ba’zi platformalar faoliyatiga qisqacha to’xtalib o’tamiz.

- **Coursera:** Ushbu platforma dunyoning yetakchi universitetlari bilan hamkorlikda yuqori sifatli kurslarni taklif etadi.
- **Khan Academy**: O'qituvchilar va o'quvchilar uchun bepul resurslarni taqdim etadi.
- **Duolingo**: Chet tillarini o'rganish uchun innovatsion vosita. Platforma 40dan ortiq tilni o'rganish imkonini beradi .
- **Udemy:** Bu platforma 200 mingdan ortiq kurslarni o'z ichiga oladi. Ishbilarmonlik, texnologiya va shaxsiy rivojlanish kabi sohalarda kurslar taklif etadi.
- **Moodle:** Ochiq manbali platforma bo'lib, ta'lim muassasalariga o'quv jarayonlarini boshqarish imkonini beradi. O'zbekistonning bir qancha universitetlari ushbu platformadan foydalanilmoqda.

O‘zbekistonda elektron ta’lim platformalari so‘nggi yillarda keng rivojlanib, ta’lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitishga xizmat qilmoqda. Bu platformalar o‘quvchilar va o‘qituvchilarga masofadan turib ta’lim olish va berish imkoniyatini yaratadi. O‘zbekistondagi yetakchi elektron ta’lim platformalari haqida ham qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

1. ZiyoNet – O‘zbekiston Respublikasi hukumatining tashabbusi bilan yaratilgan milliy ta’lim tarmog‘i. Bu platforma asosan o‘quvchilar, talabalar va pedagoglar uchun o‘quv materiallari, fanlar bo‘yicha qo‘llanmalar va boshqa resurslarni taqdim etadi.

2. Edu Market - platformasi asosan turli o‘quv kurslarini onlayn tarzda taklif etadi.

3.EduAction- O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan yaratilgan ushbu platforma o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun interfaol darslar, video darslar va testlar taqdim etadi.

[82] Schaffhauser, Dian (2011). "Skidmore College Moves to Blackboard 9.1". Campus technology. Available at: https://campustechnology.com/articles/2011/03/02/skidmore-college-moves-to-blackboard-9.1.aspx.

[83] Kurteva, K., Tzanova, S., and Kurtev, N., “The impact of E-learning techniques on education process. Platform selection and comparison,” in 2023 XXXII international scientific conference electronics (ET), (2023

4. Milliy sertifikatsiya markazi platformalari-ushbu platformalar asosan xalqaro darajadagi sertifikatlar olish uchun onlayn kurslarni taklif qiladi.

5. UzEdu–platformasi maktab va o‘rta-maxsus ta’lim tizimi uchun elektron resurslarni jamlaydi.

6.Kundalik.uz –kundalik o‘quvchilarning dars jadvali, baholari, uy vazifalari, ishtiroki haqida real vaqtda ma’lumot taqdim etadi

7.Edu.uz – Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va maktabgacha, umumiy o‘rta va maxsus ta’lim bosqichlarida o‘qitiladigan barcha darsliklar, metodik qo‘llanmalar va videodarslarni taqdim etadi.

8.Darslik.uz – platformada rasmiy tasdiqlangan o‘quv darsliklarining PDF versiyalari jamlangan. Bu o‘quvchilarning darslikka erkin va bepul kirishini ta’minlaydi.

Elektron ta’lim hozirgi kunda an’anaviy ta’limga jiddiy muqobil bo‘lib, o‘quvchilarga joy va vaqt cheklovlarisiz bilim olish imkonini bermoqda. U yuqori darajadagi moslashuvchanlik, interaktivlik va shaxsiylashtirish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, ayniqsa O‘zbekiston ta’lim tizimida ham elektron ta’lim platformalarining keng qo‘llanilishiga turtki bo‘lmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dimet, B. , “Etude comparative technique et pédagogique des platesformes pour la formation ouverte et à distance,” (2006). Available at: http://www.portices.fr/formation/Res/-Formation/Plateformes/Pf1Resume.html. Accessed on 06-Jun-2016
2. Kurteva, K., Tzanova, S., and Kurtev, N., “The impact of E-learning techniques on education process. Platform selection and comparison,” in 2023 XXXII international scientific conference electronics (ET), (2023
3. LaRose, R., Gregg, J., and Eastin, M. (1998). Audio graphic tele-courses for the web: an experiment. *J. Comp. Med. Commun.* 4:JCMC423. doi: 10.1111/j.1083-6101.1998.tb00093.x
4. Liu, Y., and Wang, H. (2009). A comparative study on e-learning technologies and products: from the east to the west. *Syst. Res. Behav. Sci.* 26, 191–209. doi: 10.1002/sres.959
5. Oblinger, D.G ., & Hawkins, B.L. , (2005). *The myth about E-learning*, *Educause review*, 40(4). Educause.
6. Schaffhauser, Dian (2011). "Skidmore College Moves to Blackboard 9.1". Campus technology. Available at: https://campustechnology.com/articles/2011/03/02/skidmore-college-moves-to-blackboard-9.1.aspx.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. 2020-yil.

8. Chawla, M., Panda, S. N., Khullar, V., Garg, K. D., and Angurala, M. (2024). Deep learning based next word prediction aided assistive gaming technology for people with limited vocabulary.

BADIIY MATNDA PSIXOLINGVISTIKANING AHAMIYATI

Orziqulova Gulnoza Maxmudjon qizi,
10.00.04 1-kurs tayanch doktoranti
Samarqand davlat chet tillari instituti, Samarqand

Annotatsiya: Mazkur maqolada psixolingvistikaning badiiy matnni anglash va talqin qilishdagi o‘rni ochib berilgan hamda psixolingvistik yondashuv vositasida badiiy matndagi obrazlar, emotsional holatlar, ichki monologlar va o‘quvchining individual idroki qanday bog‘liqlikda ekanligi tahlil qilinadi. Maqolada o‘zbek va xorijiy adabiyotdan olingan namunalar asosida amaliy misollar keltirilib, badiiy tafakkur va til o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlik yoritiladi.
Kalit so‘zlar: psixolingvistika, badiiy matn, emotsional idrok, obraz, til va tafakkur, o‘quvchi talqini

ЗНАЧЕНИЕ ПСИХОЛИНГВИСТИКИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Аннотация: В статье раскрывается роль психолингвистики в понимании и интерпретации художественных текстов, а также анализируется взаимосвязь образов, эмоциональных состояний, внутренних монологов и индивидуального восприятия читателя в художественных текстах с использованием психолингвистического подхода. В статье приводятся практические примеры на основе образцов узбекской и зарубежной литературы, подчеркивается психологическая связь художественной мысли и языка.
Ключевые слова: психолингвистика, художественный текст, эмоциональное восприятие, образ, язык и мысль, читательская интерпретация.

THE IMPORTANCE OF PSYCHOLINGUISTICS IN THE ARTISTIC TEXT

Abstract: This article reveals the role of psycholinguistics in the understanding and interpretation of a literary text and analyzes the relationship between images in a literary text, emotional states, internal monologues and the individual perception of the reader using a psycholinguistic approach. The article provides practical examples based on samples from Uzbek and foreign literature and sheds light on the psychological connection between artistic thinking and language.
Keywords: psycholinguistics, literary text, emotional perception, image, language and thinking, reader's interpretation

Kirish. So‘nggi yillarda tilshunoslikda inson tafakkuriga yo‘naltirilgan yondashuvlar muhim o‘rin egallay boshladi. Ayniqsa, psixolingvistika — til va ong o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganuvchi fan sifatida til birliklarining inson ruhiy

holatiga ta’sirini chuqur tahlil qiladi. Badiiy adabiyot esa insonning ichki kechinmalarini, emotsional dunyosini, ijtimoiy ongini aks ettiruvchi til vositasidir. Shuning uchun psixolingvistik yondashuv badiiy matnni o‘rganishda zarur ilmiy metod hisoblanadi.

Asosiy qism. Psixolingvistika – bu psixologiya va tilshunoslik kesishmasidagi fandir. U inson miyasida tilning qanday qayta ishlashini, so‘zlarni qanday idrok etishini va bu jarayonda qanday tafakkur faoliyatlari yuzaga kelishini o‘rganadi. Badiiy matn esa inson tafakkurining, tasavvurining va ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ifoda etuvchi vositadir. Shunday ekan, psixolingvistik yondashuv badiiy matndagi mazmun, obraz, ramz, emotsional ohang, konnotatsiya kabi juda ko‘plab til birliklarini anglashda kalit vazifasini bajaradi. Psixolingvistika asosan inson tilni qanday idrok qilishi, undan qanday foydalanishi, til birliklari orqali qanday fikrlashi va his qilishi masalalarini o‘rganadi. Badiiy matn esa bu jihatlarni tabiiy til asosida amalga oshiruvchi estetik vositadir. O‘quvchi matndagi har bir ifodani nafaqat grammatik jihatdan, balki ruhiy, emotsional va psixologik asosda ham qabul qiladi.

Badiiy asarni o‘qiyotgan o‘quvchi undagi so‘zlar va ifodalar orqali ruhiy ta’sir ostida qoladi. Psixolingvistika aynan shu jarayonni izohlaydi: qanday qilib metafora, ta’rif, ichki monolog yoki ramziy ifoda o‘quvchi ongida muayyan emotsiyalarni uyg‘otadi. Masalan, “Yuragi orqaga tortdi”, “ko‘zlarida quvonch yiltiradi” kabi iboralar orqali o‘quvchi obrazni his qiladi, tasavvur qiladi va o‘z shaxsiy tajribasi bilan bog‘laydi. Badiiy adabiyotda yaratilgan obrazlar insonning ruhiy holatini ochib berishda asosiy omillardan biridir. Psixolingvistik tahlil obrazlar tilidagi so‘z tanlovi, gap ohangi, metafora va ramziy vositalar orqali ularning ichki dunyosini tushunish imkonini beradi. ***Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar”*** asarida *Kumush, Otabek, Zaynab* kabi qahramonlarni misol qilib olsak, ushbu obrazlar orqali insonning ruhiy olami chuqur yoritiladi.[4]Psixolingvistik nuqtai nazardan bu obrazlarning ichki monologlari, fikr almashinuvi, va dialoglar orqali ular qanday holatda ekanligi o‘quvchiga sezdiriladi. Kumushning Otabekka bo‘lgan sadoqati – uning so‘z tanlovi, obrazining nutqidagi yumshoqlik, ko‘ngil og‘rishlarini bildiruvchi iboralar — o‘quvchi ongida muayyan tasavvur va hissiy javob uyg‘otadi. Bu esa, psixolingvistik tahlil uchun emotsional-yuklangan til birliklarining idrok jarayonini o‘rganish deganidir.

Badiiy matnda yaratilgan obrazlar shunchaki voqealarni emas, balki insonning ichki dunyosini aks ettiradi. Psixolingvistika bu obrazlar vositasida inson tafakkuri qanday ifodalanganini, qanday ruhiy holatlar til vositasida ifoda topganini o‘rganadi. Masalan, Dostoyevskiy, Cho‘lpon asarlarida qahramonlarning ichki kechinmalari tilda qanday aks etgani psixolingvistik tahlil orqali aniqlanadi. Namuna sifatida ***Cho‘lponning “Kecha va Kunduz”*** romani qahramonlari (Zebi, Yusuf) til vositalari orqali o‘z ruhiy kechinmalarini ifodalaydi. Zebi obrazining tilidagi ishonchsizlik, xavotir, or-nomus kabi psixologik holatlar so‘z tanlash va gap tuzilishida ko‘zga tashlanadi. Psixolingvistik tahlil bu yerda:ichki kechinmalarni ifodalovchi iboralarni tahlil qilish, masalan, “ko‘ngli siqildi”, “gapni tiliga ola olmadi”. [7]

Psixolingvistika o‘quvchi tomonidan matnning qabul qilinish jarayonini tahlil qiladi. Har bir o‘quvchi matndagi g‘oyalarni o‘z shaxsiy tajribasi va bilimi asosida talqin qiladi. Bu jarayon individual idrok, assotsiatsiyalar, emotsional rezonans kabi psixologik omillarga bog‘liq. Misol: ***Erkin Vohidovning*** lirik she’rlaridagi ramziy obrazlar — yurak, yulduz, tun kabi so‘zlar — o‘quvchining ruhiy holatiga qarab turlicha anglanadi. Shoirning lirik she’rlarida inson tuyg‘ulari — muhabbat, dard, orzu — kuchli psixologik obrazlar vositasida beriladi.[6]
Psixolingvistik jihatdan, bu obrazlar ko‘rinmas, ramziy shaklda tasvirlanadi masalan: “Yuragimda seni derlar Zamin”, “ko‘zimda quvonch yiltiradi”. Bu iboralar o‘quvchida subyektiv-assotsiativ idrok hosil qiladi, ya’ni har kim bu so‘zlarni o‘z hayotiy tajribasiga tayanib tushunadi.
Mashhur ingliz adibi ***Sheykspir*** dramatik asarlarida inson ruhiyati eng murakkab psixologik holatlarda tasvirlanadi. Masalan, *“Gamlet”* tragediyasida qahramonning ichki tortinishi va noaniqligi uning nutqida ifodalanadi: *“To be, or not to be — that is the question...”*[8]

Bu mashhur replikada psixolingvistik nuqtai nazaridan, Gamletning ichki monologi – ruhiy muvozanatning yo‘qolishi, o‘z-o‘zini tahlil qilish va emotsional kuchlanish ifodalanadi. O‘quvchi bu iborani o‘qib, qahramonning qalb og‘rig‘ini o‘zida his qiladi — bu kognitiv empatiyaning hosilasidir.

Fyodor Dostoyevskiy “Jinoyat va jazo” romanida *Raskolnikov* obrazining tafakkuri va ruhiy azobi psixolingvistik jihatdan alohida tahlilga loyiq.[3] Uning ichki nutqidagi murakkab jumlalar, chayqaluvchi fikrlar o‘quvchida ruhiy tanglik hissini uyg‘otadi. *“U buni qilishga majbur edi... ammo nima uchun, nima evaziga?”*
Bu savollar — o‘quvchini qahramon tafakkuriga tortuvchi usul. Psixolingvistika buni ichki monologning affektiv semantikasi sifatida tushuntiradi.

Modernizm vakili bo‘lgan ***Virginia Woolfning “Mrs. Dalloway”*** asarida ichki monologlar oqimi, so‘zlar bilan ong ifodasini berish, vaqt va tafakkur o‘zaro aralashuvi psixolingvistik metodlar orqali chuqur tahlil qilinadi.

“She felt very young; at the same time unspeakably aged...”[9]

Bu ifoda tasviriy til vositasida emotsional kontrast yaratadi, bu esa o‘quvchida dualist psixologik idrokni hosil qiladi.

Bundan tashqari, badiiy matn milliy madaniyat, urf-odat, tarixiy xotira, xalq ruhiyati mahsuli sifatida ham o‘rganiladi. Psixolingvistika orqali bu omillar tilda qanday ifodalanganini, o‘quvchiga qanday tarzda yetib borishini tahlil qilish mumkin. Milliy obrazlar, iboralar, folklor elementlari badiiy tafakkurning asosi sifatida qaraladi. Masalan, ***Alisher Navoiy*** asarlarida *“sharob”, “gul”, “xonadon”* kabi tushunchalar orqali butun bir madaniy-estetik tizim ochiladi. Ularni anglashda faqat lingvistik emas, balki psixologik, madaniy va idrokiy omillarni inobatga olish lozim.

Har bir o‘quvchi badiiy matnni o‘z bilimi, ruhiy holati va tajribasi asosida anglaydi. Shu sababli, har bir o‘quvchida matn bo‘yicha shaxsiy talqin yuzaga keladi. Psixolingvistika bu holatni izohlab beradi: nega bir o‘quvchi bir matndan

xulosa chiqarsa, boshqasi boshqa yo‘nalishda fikr yuritadi. Demak, badiiy matn bir necha darajadagi tushunish va qabul qilish imkoniyatini beradi. Til estetikasi va emotsional ta’sir

Badiiy tilda ishlatilgan stilistik vositalar — metafora, epitet, gradatsiya, antitezalar — inson ongida obrazli fikrlashni faollashtiradi. Psixolingvistik yondashuv bu jarayonni ilmiy izohlaydi: qanday qilib so‘zlar orqali o‘quvchida ruhiy ta’sir, hamdardlik yoki qarama-qarshilik hissi uyg‘onadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, psixolingvistika badiiy matnni nafaqat til darajasida, balki idrok, tafakkur va emotsional ta’sir darajasida ham anglashga yordam beradi. U badiiy obrazlarni chuqur talqin qilish, muallif niyatini tushunish, o‘quvchi ruhiyatiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, badiiy matnlarni o‘rganishda psixolingvistik yondashuv har doim dolzarb va zaruriy vosita bo‘lib qoladi. Psixolingvistika badiiy matnni tahlil qilishda muhim ilmiy asoslardan biridir. Bu yondashuv orqali matndagi til birliklarining nafaqat leksik yoki grammatik, balki psixologik yuklamasi ham ochib beriladi. O‘quvchi va matn o‘rtasidagi muloqotni tahlil qilishda psixolingvistik metodlar yordamida badiiy idrok, emotsional ta’sir, shaxsiy talqin kabi murakkab jarayonlar tushuntiriladi. Shunday ekan, badiiy matnni chuqur anglashda psixolingvistika fanining ahamiyati tobora oshib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Aitchison J. *The Articulate Mammal: An Introduction to Psycholinguistics.* Routledge, 2012.
2. Chomsky N. *Language and Mind.* Cambridge University Press, 2006.
3. Dostoyevsky F. *Crime and Punishment*. Penguin Classics, 2002.
4. Qodiriy A. *O‘tkan kunlar*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2021.
5. Tursunov Sh. *Psixolingvistika asoslari.* Toshkent: TDPU, 2017.
6. Vohidov E. *Tanlangan asarlar.* Toshkent: O‘zFA, 2018
7. Cho‘lpon. *Kecha va kunduz.* Toshkent: Akademnashr, 2020.
8. Shakespeare W. *Hamlet.* Oxford University Press, 2005.
9. Woolf V. *Mrs. Dalloway.* Harcourt, 1981.
10. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. (2000-2005). *Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, psixologiyaga oid maqolalar.* Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.

INGLIZ TILINI O‘RGANISHDA GRAMMATIK TARJIMA METODINING AHAMIYATI

Tursunova O.
SamDChTI Ingliz tili o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
Komilova D.
SamDChTI Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti talabasi
E-mail: komilovad188@gmail.com
Tel: +998507783018

Annotatsiya: *Ushbu maqola ingliz tilidagi grammatik qurilmalarning o'zbek tili bilan farqli jihatlari shuningdek, ularni o'zbek tiliga tarjima qilishda uchraydigan xatoliklar va ularning oldini olish bilan birga, til o'rganishda grammatikaning ahamiyatiga e'tibor qaratadi.*

Kalit so'zlar*: metod, grammatik strukturalar, tarjima, otli birikma, kommunikativlik, qurilma, qulaylik, gap bo’laklari, so’z tartibi*

Abstract: *This article focuses on the differences between English and Uzbek grammar, the common mistakes made when translating between the two languages, how to avoid these mistakes, and why grammar is important in learning a language.*

Kirish. Til insoniyatning eng asosiy aloqa vositasi bo‘lgani sabab, uni o‘rganishga bo‘lgan talab va ehtiyoj ham kun sayin oshib bormoqda. Shu bois, odamlar tilni eng to‘g‘ri va samarali metodlardan foydalangan holda o‘rganishlari lozimligiga shubha bo‘lmasligi lozim. Bu tadqiqotda ingliz tilini o'rganishda **Grammar Translation Method (GTM)**ning ahamiyati, uning afzalliklari va kamchilik jihatlariga e’tibor qaratiladi.

Asosiy qism. Bizga ma’lumki, ingliz tilida gap strukturasi o‘zbek tilidagi gap strukturasidan farqli o‘laroq, gapning kesimi to‘g‘ridan to‘g‘ri egadan keyin , so‘ngra ikkinchi darajali bo‘laklar keladi: *I think Roberto is a kind man* [1; 30]. Shu sababli, gaplarni ingliz tilidan o'zbek tiliga va aksincha, o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishda bir qancha xatoliklarga yo‘l qo‘yiladi. Gapni bir tildan ikkinchi tilga to‘g‘ri tarjima qilishda har ikki tilning nafaqat gap bo‘laklarini balki ularning tartibini ham yaxshi bilish muhim hisoblanadi. Ingliz tilida eng ko‘p ishlatiladigan gap qurilmasini ko‘rib chiqaylik: **Ega + Kesim + To‘ldiruvchi (Subject+Verb+Object)** tartibida, o‘zbek tilida esa **Ega + To‘ldiruvchi + Kesim (Subject+Object+Verb)** tartibida bo'ladi. Masalan, *“He made a decision to move abroad”.* Agar ushbu gap to‘g‘ridan to‘g‘ri ketma-ketlikda tarjima qilinsa *“U qaror qildi ko‘chishni chetga”* tarzida bo'ladi. Ammo bu tarjima xato va quloqqa sun’iy eshitiladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, shu o‘rinda ikki til gap bo‘laklari va uning tartibini bilish muhimligi yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tili gap qolipiga asoslanib, ingliz tilidagi gap o‘zbek tiliga tarjima qilinganda, birinchi gapning egasi, so‘ngra ikkinchi darajali bo‘laklar va kesim tarjima qilinsa, tarjima aniq va tabiiy chiqadi. To‘g‘ri tarjima esa *”U chetga ko‘chishga qaror qildi”* tarzida bo‘lishi kerak. Grammatik jihatdan murakkabroq strukturaga ega misolni

ko‘rib chiqamiz: *“A blond man who is working in the garden is my brother”.* Endi bu gapda **“noun phrase”**ga diqqat qaratmog‘imiz lozim. **Noun phrase** deb ot bilan birlashib otning atrofida ya’ni otdan oldin va keyin kelib, uni aniqlab keluvchi, ammo bir umumiy ot(ega) vazifasini bajaruvchi so‘zlar birikmasiga aytiladi. Ushbu gapni tabiiy tarjima qilish uchun birinchi asosiy otdan keyin kelgan aniqlovchilarni ya’ni *“ who is working in the garden”* qismini keyin asosiy otdan oldin kelgan aniqlovchi *“A blond”*ni, keyin asosiy otning o‘zi va so‘ngida kesim tarjima qilinishi kerak. Demak, tarjima: “Bog‘da ishlayotgan malla sochli odam mening akam” tarzida bo‘ladi. Shu o‘rinda ingliz tilida mavjud bo‘lgan ba’zi murakkab gap struktruralarini ham tahlil qilish kerak, deb hisoblaymiz. Yuqoridagi bilimlarga asoslangan holda, ya’ni o‘zbek va ingliz tilllarida gap bo‘laklarining gap tarkibidagi o‘rni boshqacha ekanligini yodda saqlagan tarzda, bir qarashda nafaqat tuzilishi balki tarjimasi ham o‘ta jo‘n bo‘lgan quyidagi gapni ko‘rib chiqaylik: *“Jack came only to see that Jane had already gone”.* Ushbu gapni deyarli barcha chet tili o‘rganuvchilar *“Jek Jeynni allaqachon ketganini ko‘rish uchungina keldi”* tarzida tarjima qiladi. Ammo ushbu gap *“Jek kelganida Jeyn allaqachon ketib bo‘lgandi”,* deb tarjima qilinishi kerak. Bunga sabab ingliz tili grammatikasining qoidalariga ko‘ra “only + infinitive” qurilmasi uddalangan bir ish-harakatdan keyin muvaffaqiyatsizlikka uchragan ikkinchi bir ish-harakatni anglatish uchun ishlatiladi [2; 315]. Mana shunday vaziyatlarda Grammatik tarjima usulining oqsagan taraflari ko‘zga yaqqol ko‘rinib qoladi. Shuning uchun ham nafaqat ingliz tilini, balki istalgan chet tilini o‘rganishda uning grammatikasini yaxshilab o‘rganish tavsiya etiladi.

Grammar Translation Method - til o‘rganishning an’anaviy usuli bo‘lib, o‘quvchilar tilni grammatik qoidalar orqali chuqurroq va tizimli holda o‘rganadi. Ammo, bu usul ko‘proq vaqt talab qilgani uchun, ko‘pchilik o‘quvchilar tez va oson o‘rganish maqsadida kommunikativ jihatdan yondashib ko‘proq amaliy muloqotga e’tibor qaratadi. Natijada, grammatik strukturalar va qoidalar haqida yetarlicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmaganligi tufayli, ular so‘zlarning joylashuvi va so‘z turkumlarini noto‘g‘ri qo‘llash kabi xatoliklarga yo‘l qo‘yadilar. Grammatik xatolarga yo‘l qo‘ymaslik va muloqotda tushunmovchiliklarni oldini olish uchun tilni grammatik tarjima metodi orqali o‘rganish ayniqsa bo‘lajak tilshunoslar uchun muhim hisoblanadi. Ammo grammatik tarjima metodi til o‘rganishda muhim bo‘lishiga qaramasdan uning ham kamchiliklari yetarlicha. Grammatik tarjima metodida ko‘proq grammatik qoidalarga e‘tibor berilgani uchun o‘quvchilar erkin muloqot amaliyotini o‘rganolmaydi. Bundan tashqari, bu metod har doim ham to‘g‘ri tarjima qilish uchun yordam berolmaydi. Chunki, har bir tilning o‘ziga xos bo‘lgan ibora, maqol, matal va hikmatli so‘zlari borki, ularni Grammatik tarjima metodiga tayangan holda tarjima qilib bo‘lmaydi. Ularni faqat grammatik bilimlarga tayangan holda tarjima qilish xato bo‘ladi. Shunday holatlarda gapning umumiy ma'nosi e'tiborga olinishi muhimdir. Misol uchun: *“It is raining cats and dogs”,* ushbu gap ibora bo'lganligi uchun gapni “*Mushuklar va itlar yog‘moqda”* tarzida tarjima qilish mantiqsiz hisoblanadi. Tog‘ri tarjima:*”Juda kuchli yomg‘ir yog‘moqda”* tarzida bo‘ladi. Bunda inglizcha-

inglizcha tarjima usuliga ya’ni izohli lug‘atlarga tayangan holda tarjima qilish to‘g‘ri bo‘ladi. Xuddi shunday tarjima qilishda uchraydigan xatolik o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishda ham ro‘y beradi. Masalan: Abdulla Qodiriyning *“O‘tkan kunlar”* ini olaylik, asarning *“Xon qizig‘a loyiq bir yigit”* bobida quyidagicha gap keltirilgan:”*—Yurgan daryo o‘lturgan bo‘ryo emish, - dedi Akram hoji.* [3; 17] Ushbu gap asarning inglizcha variantida quyidagi tarzda keladi:”*—They say “ an eager beaver always gets what he wants”, - Akram hoji said.* [4; 18] Ammo ushbu inglizcha variantni tarjima qilganimizda *“G‘ayratli kishi doim o‘z istaganiga erishadi” - deb aytdi Akram hoji* tarzidagi ma’no chiqadi. Xuddi shu kabi holatlarda badiiy tarjima metodiga tayangan holda jumlalarning umumiy ma’nosi inobatga olinib tarjima qilinadi, aks holda asardagi umumiy ma’no o‘zgarib ketadi. Yana bir misol, G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asarida quyidagi gap keladi: *“Ammam va pochcham meni erkalab qarshi oldilar. –Kel-a, bo‘yingdan girgitton bo‘lib ketay, seni qaysi shamol uchirdi”.* [5; 59] Endi ushbu gapning inglizcha variantini ko‘rib chiqaylik: *“My aunt and brother-in-law welcomed me very kindly. –Come, my sweetheart, how you have decided to visit us”* [6; 12] tarzida kelgan. Ushbu gapni so‘zma so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi, chunki gapda ***“shamol uchirmoq”*** iborasi qo‘llangan. Bu iboraning ingliz tilida muqobili bo‘lmaganligi sababli uning umumiy ma’nosi inobatga olinib, tarjima qilingan.

Xulosa. Grammatik tarjima metodi – kommunikativ jihatdan yondashib o‘rganilgan metodda uchraydigan xatoliklarni bartaraf qilsa-da, bu metodning o‘zi tarjima ishlarida va tilni o‘rganishda to‘liq yordam berolmaydi. Xatoliklarni oldini olish uchun har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlari borligini inobatga olib boshqa metodlarni ham yetarlicha egallash muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azar B. Understanding english grammar 4th edition, Longman, 2002-587 p.
2. Parrot M. Grammar for English Language Teachers, Cambridge University Press, 2010- 477 p.
3. A.Qodiriy. O'tkan kunlar "Navro'z", 2019 –400 b.
4. A.Qodiriy [Eng.] The Days Gone By, "Mashhur-Press", 2017 –380 p.
5. G'afur G'ulom. Shum bola. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2016 –248 b.
6. Gafur Gulom, "A naughty boy", "Yangi asr avlodi", 2017 –128 p.

SEMANTIC PECULIARITIES OF PHRASEOLOGICAL UNITS: A COMPREHENSIVE ANALYSIS

Tursunova Ozoda Tirkashovna
Samarkand state institute of foreign languages
+998979296344

Abstract: Phraseological units, commonly known as idioms or fixed expressions, play a significant role in language, they enrich communication and convey complex meanings. This article explores the semantic peculiarities of phraseological units, examining their non-literal meanings, cultural contexts, syntactic behaviors, and the implications of their use in various communicative situations. By analyzing these aspects, we aim to enhance our understanding of how phraseological units function within language and their impact on effective communication.

Key words: Phraseological units, idioms, fixed expressions, semantic peculiarities, non-literal meaning, cultural context, communication.

Introduction:

Language is a complex system that allows individuals to express thoughts, emotions, and ideas. Within this system, phraseological units serve as vital components that encapsulate cultural nuances and collective experiences. They are connected with the national culture which is “reflected through the link with cultural-national connotations, norms, symbols, stereotypes” [8; 85]. Unlike regular phrases, phraseological units possess unique semantic properties that can be challenging not only for language learners but also for speakers. This article examines the various semantic peculiarities of these units, highlighting their importance in both everyday communication and literary contexts. Their semantic peculiarities can be quite fascinating and analyzed from several angles.

One of the defining characteristics of phraseological units is their non-literal meaning. Many idioms convey concepts or emotions that cannot be inferred from the meaning of individual words. For instance, the expression “cup of tea” refers to something that someone would not do rather than an actual cup of tea. “Beating a dead horse” means overdoing something or a pointless action, “hit the nail on the head” refers to doing something the exact way in which it should be done. This non-literal nature necessitates a deeper understanding of the idiomatic expressions within a language.

Main part

The meanings of phraseological units are often deeply embedded in cultural contexts. They reflect social values, historical events, and shared experiences. Understanding these cultural connotations is essential for grasping the full significance of idioms. The reason is that "the meaning of an idiom can be presented as an informative text, the various meanings of which pass through the filter of the mentality of the speaker and listener, and are interpreted in the space of social and cultural knowledge activated by the subject at the moment of communication" [7; 164].

Different languages may have equivalent idioms that express similar ideas but carry distinct cultural implications. "A phraseological unit is reproduced in the speech of native speakers of a given language precisely because it is known to a given linguistic community and is passed on from generation to generation as an integral structure" [6; 125]. For example, the English idiom "let the cat out of the bag" (to reveal a secret) has a similar expression in Russian: "выдать секрет" (to give away a secret), yet the imagery and cultural resonance differ. The meaning of phraseological units is often deeply rooted in the culture from which they originate. For instance, English phrases like "barking up the wrong tree" may not make sense in cultures where trees or barking dogs do not hold similar significance.

Phraseological units typically exhibit a fixed structure, meaning alterations to their form can lead to confusion or loss of meaning. This fixed nature is crucial for their recognition and use in communication. They also have some syntactic restrictions. So, many idioms cannot be modified or combined with other elements without losing their intended meaning. For example, "spill the beans" cannot be altered to "spill the peas", or in "an apple of someone's eye" "an apple" cannot be changed by another fruit as it would obscure the original intention. This is the reason why a phraseological unit is considered as a separately formed unit of language, characterized by a complete or partial semantic transformation of its components [9; 51]. Phraseological units may exhibit specific syntactic patterns that distinguish them from regular phrases or sentences, such as restrictions on how they can be modified or combined with other elements. Over time, the meanings of some phraseological units can evolve or shift, leading to new interpretations that may differ from their original intent. Phraseological units, also known as idioms or fixed expressions, are combinations of words that have a specific meaning that is often different from the meanings of the individual words. They are characterized by certain structural and functional properties. The word order in a phraseological unit is usually fixed. Changing the order may lead to confusion and loss of meaning. The components of these units are often stable and do not allow for substitutions. For example, in "kick the bucket" an element "kick" cannot be

replaced by another verb without losing the idiomatic meaning. Consequently, the meaning of a phraseological unit is often not deducible from the meanings of its individual components. That's why the more idiomatic an expression is, the less likely it is that a non-native speaker will understand it based on its individual words. While phraseological units are generally fixed, they can evolve over time, leading to variations or new idioms emerging from existing ones. However, these changes typically occur gradually and within certain limits. Understanding the fixed structure of phraseological units is essential for effective communication, as it allows speakers to convey meanings and emotions that might not be expressed through literal language.

Phraseological units often carry emotional weight and that enhance their communicative power. This is because of their contextual, cultural and linguistic connotations. Their cultural significance, contextual use, personal associations are among the key aspects of their emotional impact. That is many idioms are based on historical events, cultural experiences or even folklore. Tied to cultural identity or shared experiences, this connection may evoke strong feelings. Also the emotional weight of an idiom can be different depending on the context where it is used. For example, saying "time heals all wounds" can offer comfort in times of grief, while in a different context, it might feel dismissive. One more point to be added is that all people may have personal experiences that shape their emotional response to a specific idiom. For example, someone who has experienced loss may find phrases about grief particularly poignant. In summary, the emotional weight of phraseological units is multifaceted and influenced by cultural, contextual, and personal factors, making them powerful tools for communication and expression. The choice of idiom can evoke specific feelings or attitudes in both the speaker and listener. For example, "throw in the towel" implies surrender or defeat, often evoking feelings of disappointment, "have one's head in the cloud" conveys having no concentration at all.

Some phraseological units exhibit polysemy, possessing multiple meanings that depend on context. This variability can lead to nuanced interpretations. For instance, the phrase "break a leg" means to wish someone good luck in a theatrical context, while in everyday conversation, it could be interpreted literally. Also, "break the ice" can refer to initiating conversation in a social setting or easing tension in a group. The appropriateness of using certain phraseological units can depend on the context, audience, and formality of the situation. Some idioms may be more suitable for informal speech, while others might be used in formal writing.

Conclusion:

Understanding these semantic peculiarities is crucial for effective communication, especially in cross-cultural contexts where idiomatic expressions

may not translate directly. The semantic peculiarities of phraseological units reveal their complexity and significance in language. Their non-literal meanings, cultural contexts, fixed structures, emotional connotations, and polysemy contribute to their richness and utility in communication. Understanding these aspects is essential for effective language use, particularly in cross-cultural interactions where idiomatic expressions may not translated directly. Future research could explore the evolution of these units over time and their impact on language learning and teaching methodologies. This article provides a foundational understanding of the semantic peculiarities associated with phraseological units, emphasizing their role in effective communication across different contexts.

References:

1. Cowie A.P., Mackin R. McCaig I. R. Oxford Dictionary of English Idioms. Oxford University Pres, 1993. – 685 p.

2. Fernando C. Idioms and Idiomaticity. Oxford University Press, 1996. – 184 p.

3. Makkai A. Idiom structure in English. The Hague, Netherlands: Mouton, 1972. – 371 p.

4. Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English. Oxford University Press, 1998. – 352 p.

5. Taylor J. R. Language and Conceptualization. Cambridge University Press, 2003. – 292 p.

6. Архангельский В.Л. Устойчивые фразы в современном русском языке. Ростов на Дону, 1964. – 314 с.

7. Ковшова М.Л. Культурно-национальная специфика фразеологизмов (когнитивные аспекты): дисс. ... канд. филол. наук. - М., 1996. – 244 с.

8. Маслова В.А. Лингвокультурология: учебное пособие: для студентов высших учебных заведений. - М.: Академия, 2010. - 202 с.

9. Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка: Для ин-тов и фак-тов иностр. яз.: Учеб. пособие. - М.: Высш. школа, 1976. – 290 с.

MATEMATIKA FANIDAN TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARIDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

(didaktik o‘yinli darslar misolida)

Xamrakulov Xamidullo Turgunboyevich,
Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi,
e-mail: khamidullo.khamrakulov@mail.ru**, telefon: (998) 90-533-59-35**

Ushbu maqolada darslarda innovatsion texnologiyalarni, jumladan o‘yin texnologiyalarini joriy etishning ahamiyati va o‘yin texnologiyalarining mazmun-mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, maqolada matematika fanidan to‘garak mashg‘ulotlarida didaktik o‘yinli darslardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘yin, o‘yin texnologiyalari, o‘yin faoliyati, didaktik o‘yinli dars, *to‘garak mashg‘ulotlari,* anjuman mashg‘ulotlari.

В данной статье раскрывается значение внедрения инновационных технологий, в том числе игровых технологий, на уроках и сущность и содержание игровых технологий. Также в статье изложены рекомендации по использованию дидактических игровых уроков на занятиях математического кружка.

Ключевые слова: игра, игровые технологии, игровая деятельность, дидактический игровой урок, кружковые занятия, конференционные занятия.

This article reveals the importance of introducing innovative technologies in lessons, including game technologies, and the essence of game technologies. The article also sets out recommendations for using some didactic game lessons in mathematics club activities.

Keywords: game, game technologies, game activity, didactic game lesson, club activities, conference sessions.

Matematika fanining hayotimizda tutgan o‘rni beqiyosdir. Shuni inobatga olgan holda mazkur fan birinchi sinfdanoq maktab o‘quv rejalariga kiritilgan bo‘lib, yurtimizda barcha fanlar qatori matematika ta’limini zamon talablari asosida takomillashtirib borish, fanni o‘qitishda eng so‘nggi pedagogik va innovatsion texnologiyalar, jumladan o‘yin texnologiyalarini joriy etishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Innovatsion texnologiyalarni matematika fanini o‘qitishda, jumladan to‘garak mashg‘ulotlarida qo‘llash o‘qituvchidan katta mahorat talab qiladi.

Innovatsion texnologiya o‘z o‘rnida qo‘llanilsa mashg‘ulotlarda qo‘yilgan maqsadga oson erishiladi. O‘qituvchi mashg‘ulotlar davomida mashg‘ulotning mavzusiga qarab o‘yin texnologiyalarini qo‘llab ham yuqori natijalarga erishsa bo‘ladi.

O‘yin – bu ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishga va yaratishga qaratilgan vaziyatlar sharoitidagi faoliyat turi bo‘lib, xatti-harakat ustidan o‘zini o‘zi boshqarish yuzaga keladi va takomillashadi. O‘yin texnologiyalari esa ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishning barcha ko‘rinishlari: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi pedagogik texnologiya turlaridan biri hisoblanadi.

Darsda o‘yin texnologiyalari qo‘llanganda o‘quvchining tabiatiga mos tushuvchi o‘yinlar o‘quv-tarbiyaviy jarayonni harakatga keltiruvchi kuchga aylanishi mumkin. Chunki o‘yin o‘quvchini ta’limda muvaffaqiyatga erishishda qiziqishini orttiradi va unda kuchli motivatsiya hosil qilish imkoniyatiga ega. Shuningdek, o‘yin o‘quvchida bilishga o‘rganish ehtiyojini tug‘dirib, uni yangi o‘zgarishlarga boshlaydi. Shu sababli ham u ta’lim jarayonining samarali kechishida muhim rol o‘ynaydi, o‘quvchining shaxs sifatida rivojlanishiga, hayotda ishlash, o‘quv-bilishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Quyidagi omillar pedagogik maqsadlarda o‘yin texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi:

- o‘yin ssenariysining puxta tayyorlanganligi;

- o‘yin maqsadi va vazifalarining to‘g‘ri, aniq belgilanishi;

- o‘yin qoidalarining aniq, lo‘nda ifodalanishi;

- o‘yin yo‘riqnomasining mavjudligi;

- o‘quvchilarning o‘yin jarayoniga qiziqishlari;

- rollarning samarali, to‘g‘ri taqsimlanishi;

- jamoada ko‘tarinki kayfiyatning yuzaga kelishi;

- ishtirokchilarning bir-birlarini tushuna olishlari va qo‘llab-quvvatlashlari;

- har ishtirokchining o‘yin natijasi uchun mas’uliyatni his etishi;

- barcha ishtirokchilar imkoniyatlarining yagona maqsadga yo‘naltirilishi[84].

Ta’lim jarayonida o‘yin texnologiyalari asosan didaktik o‘yinli dars shaklida qo‘llaniladi. Ushbu darslarda o‘quvchilarning bilim olish jarayoni o‘yin faoliyati

[84] Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: “Sano-standart” MCHJ, 2015.

orqali uyg‘unlashtiriladi. Shu sababli o‘quvchilarning ta’lim olish faoliyati o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan darslar didaktik o‘yinli darslar deyiladi.

Har bir didaktik o‘yinli darsda o‘yin syujeti, borishi, o‘quvchilar bajarishi lozim bo‘lgan rollar, vazifalar o‘quvchilarda muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish muloqot va nutq madaniyatini taqozo etadi.

Quyida matematika fanidan to‘garak mashg‘ulotlarida foydalanish mumkin bo‘lgan didaktik o‘yinli darslardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

Ma’lumki, to‘garak mashg‘ulotlari o‘quvchi o‘z ustida ishlashi, o‘zi qiziqqan yo‘nalishi bo‘yicha shug‘ullana olishi, qo‘shimcha bilimga ega bo‘lishi uchun imkoniyat yaratadi. Bunda didaktik o‘yinli darslardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Didaktik o‘yinli darslar orasida anjuman mashg‘ulotlari ham muhim o‘rin tutadi. Anjuman mashg‘ulotlari o‘quvchilarning bilish faoliyatini oshirishda, ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda, qo‘shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirishda, adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, mustaqil hayotga ongli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mashg‘ulotda “Markaziy Osiyoning mashhur matematiklari” mavzusida buyuk allomalar rolini tanlash, mavzuni har tomonlama yoritish, ma’ruza tayyorlash o‘quvchilarning ixtiyorida bo‘ladi.

Anjuman mashg‘ulotini quyidagicha o‘tkazish tavsiya etiladi:

1. O‘qituvchining kirish so‘zi. Bunda o‘qituvchi mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va vazifalari, tegishli rollarni bajaruvchi buyuk allomalar nomlari bilan o‘quvchilarni tanishtiradi.

2. O‘quvchilarning ma’ruzalarini tinglash. Bunda o‘quvchilar “Markaziy Osiyoning mashhur matematiklari” mavzusi yuzasidan tayyorlangan ma’ruzalarni ko‘rgazmali qurollar asosida bayon qiladilar.

3. Ma’ruzalar muhokamasi. Bunda “Buyuk allomalar” va guruhdagi boshqa o‘quvchilar o‘rtasida mavzu yuzasidan bahs-munozara o‘tkaziladi.

4. Anjuman yakuni. O‘qituvchi mavzu yuzasidan eng muhim tushuncha va g‘oyalarni ta’kidlab, mashg‘ulotni yakunlaydi.

5. O‘quvchilarni baholash. Mashg‘ulotda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

6. Uyga vazifa berish.

7. Mashg‘ulotni umumiy yakunlash.

Bu mashg‘ulotda o‘quvchi tomonidan berilgan ma’lumotlar to‘g‘ri ekanligini aniqlash boshqa o‘quvchilarga yuklatilganligi sababli barcha o‘quvchilarning mashg‘ulotga to‘liq jalb qilinishiga erishiladi.

Matematika fanidan to‘garak mashg‘ulotlarida bunday didaktik o‘yinli darslardan foydalanish mashg‘ulotni bir xillikdan, mashg‘ulot markazida faqat o‘qituvchi bo‘lishidan yiroqlashtiradi. Bu esa o‘quvchida o‘ziga nisbatan ishonchning oshishiga hamda mashg‘ulotning samarali o‘tishiga xizmat qiladi. Bunday didaktik o‘yinli darslarni har bir o‘qituvchi o‘z malakasidan kelib chiqqan holda to‘garak mashg‘ulotlarida foydalansa bo‘ladi. Zero, innovatsion texnologiyalardan foydalanish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir.

To‘garak mashg‘ulotlarida qaysi xarakterdagi o‘yin texnologiyasining qo‘llanilishi o‘quv materialining maqsadi, vazifalari, mazmuni, yetakchi g‘oyalari, shuningdek, qanday natijani qo‘lga kiritishga xizmat qilishiga muvofiq tanlanadi. O‘yin texnologiyalari vositasida tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlari barcha o‘quvchilarni birdek qiziqtira oladi. Bu esa har bir o‘qituvchidan ta’lim jarayonida o‘yin texnologiyalarini faol qo‘llashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahadova M. O‘rta Osiyoning mashhur matematiklari. – T: O‘qituvchi, 2003.
2. Alixonov S. Matematika o‘qitish metodikasi. – T: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: “Sano-standart” MCHJ, 2015.
4. Nurmetov A., Qodirov I. Matematikadan sinfdan tashqari va fakultativ mashg‘ulotlar. – T: O‘qituvchi, 2000.
5. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989.

MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYASI RIVOJIDA QOG‘OZNING PAYDO BO‘LISH TARIXI

Kushanova Dilfuza Ubaydullayevna
SamVPMM o‘qituvchisi
+998973938508

Annotatsiya

Ushbu maqolada ilk o‘rta asrlardan boshlab Markaziy Osiyo, xususan, Samarqand shahrida qog‘oz ishlab chiqarish sanoatining vujudga kelishi, uning texnologik xususiyatlari va mintaqa sivilizatsiyasi rivojidagi o‘rni ilmiy jihatdan tahrir qilingan holda yoritilgan. Shuningdek, qog‘oz ishlab chiqarish madaniyatining xalqaro intellektual va iqtisodiy aloqalardagi, xususan, Buyuk Ipak yo‘li tizimidagi ahamiyati tahlil etilgan. Keyingi davrlarda Qo‘qon va boshqa hududlarda qog‘oz ishlab chiqarish markazlarining shakllanishi ijtimoiy-ma’muriy ehtiyojlar kontekstida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, Samarqand qog‘ozi, Talas jangi, Buyuk Ipak yo‘li, Temuriylar renessansi, Qo‘qon qog‘ozi, intellektual meros, madaniy muloqot

Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida yozuv materiallarining takomillashishi ilm-fan, madaniyat va davlat boshqaruvi tizimining taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Dunyo madaniyati rivojida qadimiy yozuv ashyolari – papirus, pergament (teri), koshin va yog‘och taxtachalarning o‘z o‘rni bo‘lgan bo‘lsa-da, qog‘ozning ixtiro qilinishi intellektual inqilobga zamin yaratdi. Qog‘oz nafaqat axborotni saqlash va uzatish vositasi, balki davlat boshqaruvi, madaniy diplomatiya va ta’lim tizimining harakatlantiruvchi kuchiga aylandi.

Markaziy Osiyo mintaqasi qadimdan Sharq va G‘arb, Shimol va Janubni bog‘lovchi madaniy va iqtisodiy chorraha bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu hududda qog‘oz ishlab chiqarish texnologiyasining o‘zlashtirilishi va uning mahalliylashtirilishi mintaqa sivilizatsiyasining yangi bosqichga ko‘tarilishiga turtki berdi. Ilmiy manbalar va arxeologik tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, ilk o‘rta asrlardan boshlab Samarqand va uning atrofida shakllangan qog‘oz sanoati islom dunyosi va Yevropada intellektual uyg‘onish davrlarini ta’minlashda bevosita ko‘prik vazifasini o‘tadi

Ma’lumki, Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi rivojida qog‘ozning paydo bo‘lishi va keng iste’molga kirib kelishi ham katta o‘rin tutgan. Dastlab Xitoyda, Xan sulolasi davrida ixtiro qilingan qog‘oz, ilk o‘rta asrlarda Samarqandda ham ishlab chiqarila boshlandi. Tadqiqotchilar tegishli ma’lumotlarga tayanib, samarqandliklar qog‘oz ishlab chiqarishni 751-yilda xitoyliklar bilan arab qo‘shinlari o‘rtasida Talas vodiysida bo‘lgan jangda asir tushgan xitoyliklardan o‘rganganligini yoki sug‘diylarning xitoyliklar bilan ko‘p asrlik iqtisodiy-madaniy aloqalari natijasida o‘zlashtirilganini qayd etadilar. X asr oxirida Samarqand qog‘ozi barcha musulmon mamlakatlarida pergament va papirusni siqib chiqardi.

Samarqandning oliy sifatli qog‘ozi Amir Temur va Temuriylar davrida ham ishlab chiqarilgani va dunyoga mashhur bo‘lgani haqida mahalliy manbalarda ham ma’lumot berib o‘tilgan. So‘nggi o‘rta asrlarga kelib, Samarqandning qog‘oz

ishlab chiqaruvchi markaz sifatidagi ahamiyati pasayib ketgan bo‘lsa-da, Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida ham qog‘oz ishlab chiqaruvchi markazlar (Qo‘qon va boshqa shaharlarda) paydo bo‘ladi. Bu jamiyatda ziyolilar qatlami va ma’muriy boshqaruv tizimi faoliyati bilan bog‘liq ehtiyojlar natijasi edi.

Mahalliy va xorijiy tarixiy manbalarda ta’kidlanishicha, Amir Temur va uning vorislari (shuningdek, Shohrux Mirzo, Ulug‘bek, Husayn Boyqaro) davrida Samarqandda qog‘oz ishlab chiqarish o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Bu davrda qog‘ozning bir necha navlari yaratildi:

- *“Samarqand sultoni”* (eng oliy sifatli, ipakdek silliq qog‘oz);
- *“Ipak qog‘oz”* (mayda ipak tolalari qo‘shilgan chidamli varaqlar);
- *“Nimkanop”* (kanop tolasidan tayyorlangan xira-sarg‘ish tusli qog‘oz).

Ushbu davrda yaratilgan qo‘lyozmalar, miniatyuralar va xaritalar aynan shu sifatli qog‘ozlar sharofati bilan bizning kunlarimizgacha bezavol yetib keldi.

Bu va boshqa ma’lumotlar qadimgi davrlardan boshlab Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tizimida maorifga katta e’tibor qaratilganligini bildiradi. Bu jamiyatda savodli kishilar mavqeyi yuksak bo‘lganligidan dalolat berishi bilan birga mintaqa xalqlarining qo‘shni va uzoq o‘lkalar bilan madaniy aloqalari rivojida ham katta o‘rin tutgan.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoning turli tarixiy-madaniy viloyatlari tarixning eng qadimgi davridan boshlab o‘zaro va qo‘shni xalqlar bilan yaxshi madaniy munosabatda bo‘lib keldilar. Bu madaniy aloqalar ijtimoiy-iqtisodiy hayotning turli sohalaridagi hamkorlik, turli texnologik yutuqlarni keng miqyosida o‘zaro almashish, savdo-sotiq va elchilik munosabatlari, hunarmandchilik, me’morchilik, haykaltaroshlik, tasviriy san’at va madaniyatning boshqa sohalaridagi o‘zaro ta’sir, diniy-falsafiy qarashlar va ahloqiy mezonlar almashinuvi, ma’lumotlar, yangiliklar va ilm-fanning turli sohalaridagi hamkorlik, ishlab chiqarishning turli sohalaridagi texnologik yangiliklarning, yozuv va numizmatik jarayonlarning tarqalishi va boshqa ko‘rinishlarda amalga oshirib kelindi. Bu jihatdan mintaqaning qadimgi yo‘llari, ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab amalga oshirilgan madaniy muloqotning ahamiyati nihoyatda katta bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Хабибуллаев Н.Н. Тайна изготовления древней Самаркандской бумаги // Роль города Самарқанда в истории мирового культурного развития: Материалы Международного научного симпозиума, посвященного 2750-летному юбилею города Самарканда. – Ташкент.-Самарқанд.: Фан, 2007.

2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma / Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiev. – Toshkent: Yulduzcha, 1989.

3. Sultonova D., Muxtorov Z.A. “Muqaddas qog‘oz” yohud Samarqand qog‘ozining qayta tiklanishi // Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o‘rni: Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy simpozium materiallari. – Toshkent.-Samarqand: Fan, 2007.

Generativ sun’iy intellekt sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ilmiy tafakkurini rivojlantirish.

Shakarov Axror Amonqulovich
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi.
E-mail: axrorshakarov86@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada generativ sun’iy intellekt vositalarining oliy pedagogik ta’limga jadal integratsiyalashuvi sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ilmiy tafakkurini rivojlantirish masalasi pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etilgan. Generativ sun’iy intellektning ilmiy muammoni aniqlashtirish, tadqiqot savollarini shakllantirish, ilmiy axborotni izlash va tizimlashtirish, muqobil g‘oyalarni ilgari surish, dalillarni qiyoslash hamda ilmiy xulosalarni shakllantirish jarayonidagi funksional imkoniyatlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, sun’iy intellekt tomonidan tayyor axborot, izoh va xulosalarning tezkor taqdim etilishi talabaning mustaqil fikrlashi, muammoni chuqur tahlil qilishi, dalillarni baholashi va ilmiy qaror qabul qilishi bilan bog‘liq intellektual faoliyatiga ta’sir etishi mumkinligi asoslangan.

Maqolada generativ sun’iy intellekt bo‘lajak o‘qituvchining o‘rniga ilmiy fikrlovchi vosita sifatida emas, balki uning ilmiy tafakkurini faollashtiruvchi, muqobil fikrlarni yuzaga chiqaruvchi va tadqiqotchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik vosita sifatida talqin etiladi. Mustaqil ilmiy tafakkurning muammoni anglash, ilmiy savol qo‘yish, axborotni tanqidiy tahlil qilish, dalillarni qiyoslash, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash, ilmiy pozitsiyani asoslash, mustaqil qaror qabul qilish va refleksiv baholash kabi tarkibiy jihatlari ajratib ko‘rsatilgan. Generativ sun’iy intellektdan foydalanishda “savol qo‘yish – SI bilan izlanish – natijani tahlil qilish – dalillar bilan tekshirish – muqobil pozitsiyalarni qiyoslash – mustaqil ilmiy xulosa chiqarish” ketma-ketligiga asoslangan pedagogik yondashuv taklif etilgan.

Tadqiqot natijasida generativ sun’iy intellektdan foydalanish samaradorligini tayyor javob olish tezligi bilan emas, balki talabaning ilmiy muammoni mustaqil anglash, axborotga savol bilan yondashish, SI natijalarini tanqidiy qayta ishlash, o‘z ilmiy pozitsiyasini dalillar bilan asoslash va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatining rivojlanganligi bilan baholash lozimligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: generativ sun’iy intellekt, bo‘lajak o‘qituvchi, mustaqil ilmiy tafakkur, tadqiqotchilik ko‘nikmasi, ilmiy fikrlash, tanqidiy tahlil, ilmiy

muammo, dalillash, mustaqil qaror, refleksiya, inson–sun’iy intellekt hamkorligi.

Kirish.

Zamonaviy oliy pedagogik ta’limning muhim vazifalaridan biri bo‘lajak o‘qituvchini mavjud bilimlarni o‘zlashtiruvchi va ularni kasbiy faoliyatda qo‘llovchi mutaxassis sifatidagina emas, balki pedagogik hodisa va jarayonlarga tadqiqotchilik nuqtai nazaridan yondasha oladigan, muammoni mustaqil aniqlaydigan, ilmiy savollar qo‘ya oladigan, axborotni tahlil qiladigan, dalillarni qiyoslaydigan hamda asoslangan ilmiy xulosa chiqaradigan shaxs sifatida tayyorlashdan iborat. Mazkur vazifaning amalga oshirilishi bo‘lajak o‘qituvchilarda mustaqil ilmiy tafakkurni rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mustaqil ilmiy tafakkur tayyor ilmiy axborotni eslab qolish yoki qayta bayon qilish bilan chegaralanmaydi. U shaxsning muammoni ilmiy jihatdan anglash, savol qo‘yish, mavjud qarashlarga tanqidiy munosabat bildirish, fakt va ilmiy dalillarni farqlash, turli ilmiy pozitsiyalarni qiyoslash, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash, o‘z nuqtai nazarini asoslash hamda olingan natijalar asosida mustaqil ilmiy qaror qabul qilish faoliyatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ilmiy tafakkurning mustaqilligi tadqiqotchilik faoliyatining muhim sifat ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Generativ sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ushbu masalaga yangicha pedagogik mazmun bermoqda. Generativ SI vositalari foydalanuvchining so‘roviga muvofiq qisqa vaqt ichida katta hajmdagi matn yaratish, muammoni izohlash, g‘oyalar taklif qilish, ma’lumotlarni tizimlashtirish, muqobil qarashlarni shakllantirish va ayrim tahliliy vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega. Natijada talaba ilmiy izlanishning ilgari katta vaqt va intellektual kuch talab qilgan ayrim bosqichlarini sun’iy intellekt ko‘magida tezroq amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Biroq ushbu imkoniyat bilan bir qatorda muhim pedagogik ziddiyat yuzaga keladi: generativ sun’iy intellekt talabaning ilmiy tafakkurini rivojlantiradimi yoki uning o‘rniga fikrlash funksiyasini bajara boshlaydimi? Mazkur savol generativ sun’iy intellektdan oliy pedagogik ta’limda foydalanishning mohiyatini belgilovchi muhim masalalardan biridir. Chunki talaba ilmiy muammoni mustaqil tahlil qilishdan oldin SI tomonidan tayyorlangan izohni olsa, dalillarni o‘zi qiyoslash o‘rniga tayyor taqqoslashdan foydalansa yoki ilmiy xulosani mustaqil shakllantirish o‘rniga generatsiya qilingan xulosani qabul qilsa, topshiriq bajarilgan bo‘lishi mumkin, biroq uning asosida yotuvchi intellektual faoliyat yetarli darajada amalga oshmasligi ehtimoli mavjud.

Shu jihatdan generativ sun’iy intellektdan foydalanish samaradorligini yaratilgan matn hajmi, javob olish tezligi yoki bajarilgan topshiriqlar soni bilan baholash yetarli emas. Pedagogik nuqtai nazardan asosiy mezon talabaning SI yordamidan keyin qanday intellektual harakatlarni amalga oshirganidir. U generatsiya qilingan javobga savol bera oldimi? Undagi dalillarni boshqa ilmiy manbalar bilan qiyosladimi? Muqobil pozitsiyalarni aniqladimi? SI taklif qilgan xulosaga qarshi dalil topa oldimi? O‘z ilmiy pozitsiyasini shakllantirdimi? Yakuniy qarorini mustaqil asoslay oldimi? Ana shu harakatlar generativ SI sharoitida mustaqil ilmiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik mazmunini belgilaydi.

Demak, generativ sun’iy intellektni talabaning fikrlash faoliyatini qisqartiruvchi “tayyor javob manbai”dan ilmiy tafakkurni faollashtiruvchi intellektual hamkor vositaga aylantirish zarur. Buning uchun ta’lim jarayonida SI bergan javobni qabul qilishga emas, balki undan yangi savol chiqarish, javobni tahlil qilish, qarama-qarshi dalil izlash, turli pozitsiyalarni solishtirish va yakuniy xulosani mustaqil shakllantirishga yo‘naltirilgan tadqiqotchilik topshiriqlaridan foydalanish talab etiladi.

Bunday tashkil etilgan faoliyatda generativ sun’iy intellekt talabaning ilmiy tafakkuri uchun yakuniy nuqta emas, balki yangi intellektual faoliyatning boshlang‘ich nuqtasiga aylanadi. SI tomonidan taqdim etilgan javob talabani fikrlashdan ozod qilmasligi, aksincha, unda “Bu ma’lumot qanchalik asoslangan?”, “Bunga qarama-qarshi qanday ilmiy pozitsiya mavjud?”, “Qaysi dalil kuchliroq?”, “Nima uchun aynan shu xulosaga kelish mumkin?” kabi yangi tadqiqotchilik savollarini yuzaga keltirishi lozim.

Shu asosda generativ sun’iy intellekt sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ilmiy tafakkurini rivojlantirish “savol qo‘yish → SI bilan izlanish → natijani tahlil qilish → dalillar bilan tekshirish → muqobil pozitsiyalarni qiyoslash → mustaqil ilmiy xulosa chiqarish → refleksiv baholash” mantiqiy ketma-ketligida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Ushbu ketma-ketlikda texnologiya axborot va muqobil variantlarni taqdim etadi, ilmiy fikrlash va yakuniy qaror esa talabaning o‘z faoliyati sifatida saqlanadi.

Maqolaning maqsadi — generativ sun’iy intellekt sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ilmiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mazmunini aniqlashtirish, generativ SI va talabaning mustaqil intellektual faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni asoslash hamda ilmiy muammoni anglashdan mustaqil ilmiy xulosa chiqarishgacha bo‘lgan jarayonni tashkil etish mexanizmini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ilmiy tafakkurini rivojlantirish muammosi pedagogik tadqiqotlarda shaxsning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etishi, tanqidiy tahlil qilishi va tadqiqotchilik faoliyatini tashkil eta olishi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Pedagogik nuqtai nazardan ilmiy tafakkur tayyor bilimlarni o‘zlashtirish natijasigina emas, balki muammoni anglash, savol qo‘yish, ilmiy axborotni tahlil qilish, dalillar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash, muqobil qarashlarni qiyoslash va asoslangan xulosa chiqarishga qaratilgan faol intellektual jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek pedagog olimlarining tadqiqotlarida ham ta’lim oluvchining mustaqil bilish faoliyati, ijodiy fikrlashi va ta’lim jarayonidagi faol subyektlik pozitsiyasiga alohida e’tibor qaratilgan. N.N. Azizxo‘jayeva pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat masalalarini yoritishda ta’lim jarayonini o‘quvchining faol bilish faoliyatiga yo‘naltirish, pedagog tomonidan esa mazkur faoliyatni maqsadli tashkil etish zarurligiga urg‘u beradi. M.X. Toxtaxodjayeva va hammualliflar tomonidan yoritilgan pedagogik yondashuvlarda ta’lim oluvchilarning bilish faolligi, mustaqilligi, muammoli vaziyatlarni hal etishga jalb qilinishi va pedagogik jarayonda faol ishtiroki ta’lim samaradorligini belgilovchi muhim omillar sifatida qaraladi. N.A. Muslimov va hammualliflarning innovatsion ta’lim texnologiyalariga oid qarashlarida esa ta’lim oluvchini tayyor axborot iste’molchisi sifatida emas, balki bilimni faol o‘zlashtiruvchi, muammoni hal qiluvchi va o‘z faoliyatini tahlil qiluvchi subyekt sifatida shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarning ahamiyati ko‘rsatiladi.

Mazkur nazariy qarashlar generativ sun’iy intellekt sharoitida yangi mazmun kasb etadi. Chunki ilgari pedagogik muammo, axborot yoki ilmiy topshiriq yuzasidan javob izlash talabaning bevosita intellektual faoliyatini talab qilgan bo‘lsa, generativ SI vositalari bir necha soniya ichida izoh, reja, muqobil fikr, umumlashtirish yoki tayyor matn shaklidagi javoblarni taqdim etishi mumkin. Natijada ta’lim oluvchining axborotga erishish imkoniyati keskin kengayadi, biroq ayni vaqtda bilimni izlash va ilmiy xulosaga kelish jarayonida bajariladigan ayrim kognitiv harakatlarning texnologiyaga topshirilishi ehtimoli yuzaga keladi.

UNESCOning generativ sun’iy intellektdan ta’lim va tadqiqotda foydalanishga oid yondashuvida texnologiyani inson imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida qo‘llash, bunda insonning faol ishtiroki, mas’uliyati va intellektual mustaqilligini saqlash zarurligi ta’kidlanadi. Bunday yondashuv generativ sun’iy intellektning pedagogik qiymatini uning inson

o‘rniga qanchalik ko‘p vazifa bajarishi bilan emas, balki insonning bilish va ijodiy imkoniyatlarini qanday qo‘llab-quvvatlashi bilan baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Generativ sun’iy intellektning ta’limdagi imkoniyatlarini tahlil qilgan E. Kasneci va hammualliflar katta til modellaridan individual yordam, tushuntirish, fikr-mulohaza va o‘quv faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatish bilan birga, ularga ortiqcha tayanish tanqidiy fikrlash va mustaqil muammoni hal qilish faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini qayd etadilar. Shu sababli generativ SI bilan ishlashda foydalanuvchining javoblarni tekshirishi, baholashi va o‘z bilimlari asosida qayta ishlashi muhim hisoblanadi.

C.K. Lo tomonidan generativ sun’iy intellektning ta’limdagi ta’siriga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar tahlili ham ChatGPT kabi vositalarning individual o‘rganish, tezkor yordam va ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari bilan bir qatorda, axborot aniqligi, texnologiyaga qaramlik va ta’lim oluvchining yuqori darajadagi fikrlash faoliyatini saqlab qolish bilan bog‘liq masalalarni kun tartibiga olib chiqishini ko‘rsatadi. Bu holat generativ SIni ta’limga oddiy texnik vosita sifatida kiritish emas, balki uning didaktik vazifasini oldindan belgilash zarurligini anglatadi.

Shu jihatdan generativ sun’iy intellekt va mustaqil ilmiy tafakkur o‘rtasidagi munosabatni “inson yoki sun’iy intellekt” tarzidagi qarama-qarshilik asosida emas, intellektual vazifalarni oqilona taqsimlash nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Generativ SI ko‘p variantli javoblar, dastlabki g‘oyalar, muqobil qarashlar yoki tahlil yo‘nalishlarini tezkor taqdim etishi mumkin. Biroq qaysi savol ilmiy ahamiyatga ega ekanligini aniqlash, qanday dalil ishonchli ekanini baholash, qarama-qarshi fikrlar orasidagi konseptual farqni ko‘rish, sabab-oqibat aloqalarini asoslash va yakuniy ilmiy pozitsiyani shakllantirish insonning mustaqil intellektual faoliyati sifatida saqlanishi zarur.

Mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish generativ sun’iy intellekt sharoitida mustaqil ilmiy tafakkurni rivojlantirish uchun “kognitiv almashtirish”dan “kognitiv faollashtirish”ga o‘tish zarurligini ko‘rsatadi. Kognitiv almashtirish holatida talaba bajarishi lozim bo‘lgan muammoni tahlil qilish, fikrlarni qiyoslash yoki xulosa chiqarish kabi intellektual vazifalar SIga topshiriladi. Kognitiv faollashtirishda esa SI tomonidan taqdim etilgan natija talabaning keyingi fikrlash faoliyatini yuzaga keltiruvchi materialga aylanadi. Bunda SI javobi yakuniy mahsulot emas, balki yangi savol, tahlil, bahs, tekshiruv va ilmiy qaror uchun boshlang‘ich nuqta vazifasini bajaradi.

Masalan, generativ sun’iy intellektdan “Ushbu pedagogik muammoning yechimini yozib ber” tarzida foydalanish talabaning intellektual vazifasining bir

qismini texnologiyaga topshirishi mumkin. Aksincha, “Mazkur pedagogik muammo bo‘yicha uchta qarama-qarshi ilmiy pozitsiyani ko‘rsat; men ularni manbalar asosida qiyoslayman”, “Ushbu xulosaga qarshi qanday dalillar bo‘lishi mumkin?” yoki “Mazkur ilmiy fikrning zaif jihatlarini aniqlash uchun qanday savollar berish mumkin?” kabi so‘rovlar generativ SIni fikrlashni tugatuvchi emas, balki uni davom ettiruvchi vositaga aylantiradi.

Shundan kelib chiqib, mustaqil ilmiy tafakkurni rivojlantirishda asosiy pedagogik masala talabaning generativ sun’iy intellektdan foydalanish yoki foydalanmasligida emas, balki SI bilan o‘zaro faoliyatdan keyin qanday mustaqil intellektual harakatni bajarishida namoyon bo‘ladi. Agar har bir generativ natijadan keyin savol qo‘yish, tekshirish, qiyoslash, dalillash, rad etish yoki mustaqil xulosa chiqarish faoliyati tashkil etilsa, SI vositasi ilmiy tafakkurni faollashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatli, kompetensiyaviy, muammoli-tadqiqotchilik va refleksiv yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasi tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar generativ sun’iy intellektdan foydalanish sharoitida bo‘lajak o‘qituvchining faol subyektlik pozitsiyasini saqlash hamda uning ilmiy tafakkurini mustaqil intellektual harakatlar orqali rivojlantirish imkonini beradi.

Faoliyatli yondashuv mustaqil ilmiy tafakkurni tayyor bilim sifatida shakllantirish mumkin emasligi, uning muammoni aniqlash, savol qo‘yish, ilmiy axborot bilan ishlash, dalillarni tahlil qilish va xulosa chiqarishga qaratilgan faoliyat davomida rivojlanishiga asoslanadi. Shu sababli generativ SI talaba o‘rniga ushbu harakatlarni bajaruvchi vosita emas, ularni tashkil etishga ko‘maklashuvchi vosita sifatida qo‘llanadi.

Muammoli-tadqiqotchilik yondashuvi talabaning ilmiy tafakkurini tayyor javobni o‘zlashtirish orqali emas, balki muammoli vaziyat, qarama-qarshi dalillar va yechimi oldindan aniq bo‘lmagan ilmiy topshiriqlar bilan ishlash jarayonida rivojlantirishni nazarda tutadi. Generativ SI bunday sharoitda bir nechta muqobil pozitsiyalarni shakllantirish, qarshi dalillarni yuzaga chiqarish va muammoni turli nuqtai nazardan ko‘rish uchun qo‘llanilishi mumkin.

Refleksiv yondashuv talabaning faqat qanday ilmiy xulosaga kelganini emas, balki ushbu xulosaga qanday kelganini anglashiga yo‘naltiriladi. Bunda talaba SI taqdim etgan qaysi fikrni qabul qilgani, qaysi birini rad etgani, qanday dalillarga tayangani va uning dastlabki pozitsiyasi tadqiqot davomida qanday o‘zgarganini tahlil qiladi. Refleksiya ilmiy tafakkurning mustaqilligini anglash va nazorat qilish mexanizmi vazifasini bajaradi.

Tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish, pedagogik modellashtirish va mazmuniy tahlil metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali mustaqil ilmiy tafakkur va generativ sun’iy intellektdan ta’limda foydalanishga oid ilmiy qarashlar o‘rganildi. Qiyosiy tahlil yordamida generativ SI tomonidan bajarilishi mumkin bo‘lgan funksiyalar bilan talabaning mustaqil bajarishi zarur bo‘lgan intellektual harakatlar o‘zaro ajratildi. Tizimlashtirish natijasida mustaqil ilmiy tafakkurning muammoni anglash, ilmiy savol qo‘yish, axborotni tahlil qilish, dalillarni qiyoslash, ilmiy pozitsiyani asoslash, mustaqil xulosa chiqarish va refleksiv baholash bilan bog‘liq tarkibiy jihatlari belgilandi.

Pedagogik modellashtirish asosida generativ sun’iy intellekt sharoitida mustaqil ilmiy tafakkurni rivojlantirish jarayoni “savol qo‘yish → SI bilan izlanish → natijani tahlil qilish → dalillar bilan tekshirish → muqobil pozitsiyalarni qiyoslash → mustaqil ilmiy xulosa chiqarish → refleksiv baholash” ketma-ketligida tashkil etildi. Mazkur ketma-ketlikning prinsipial xususiyati shundaki, unda generativ sun’iy intellekt bilan o‘zaro faoliyat mustaqil fikrlashning yakuni emas, balki uning keyingi bosqichlarini faollashtiruvchi oraliq vosita sifatida joylashtiriladi.

Shu tariqa tadqiqot metodologiyasida generativ sun’iy intellektning funksional imkoniyatlari va talabaning mustaqil intellektual harakatlari o‘rtasidagi pedagogik muvozanat asosiy metodologik talab sifatida qabul qilindi. Mazkur muvozanatning saqlanishi SI vositalaridan foydalanish jarayonida talabaning tadqiqotchilik subyektligini, ilmiy fikrlash mustaqilligini va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish faoliyatini ta’minlashga xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama.

Olib borilgan nazariy tahlil generativ sun’iy intellektning bo‘lajak o‘qituvchilar ilmiy tafakkuriga ta’siri bir xil xususiyatga ega emasligini ko‘rsatadi. Uning pedagogik natijasi, avvalo, texnologiyadan qanday maqsadda foydalanish va sun’iy intellekt tomonidan bajarilgan faoliyatdan keyin talabaning qanday mustaqil intellektual harakatlarni amalga oshirishiga bog‘liq. Shu sababli generativ sun’iy intellektning mavjudligi o‘z-o‘zidan mustaqil ilmiy tafakkurni rivojlantirmaydi. Buning uchun SI bilan o‘zaro faoliyat pedagogik jihatdan maqsadli tashkil etilishi zarur.

Tadqiqot natijasida generativ sun’iy intellekt bilan ishlashda kognitiv almashtirish, kognitiv ko‘maklashish va kognitiv faollashtirish holatlarini farqlash maqsadga muvofiqligi aniqlandi. Ushbu holatlar o‘rtasidagi asosiy farq generativ SI qancha ish bajarayotganida emas, balki talabaning ilmiy fikrlash jarayonida qanday pozitsiyani egallayotganida namoyon bo‘ladi.

Kognitiv almashtirish holatida talaba o‘zi bajarishi zarur bo‘lgan intellektual harakatlarni generativ sun’iy intellekt zimmasiga yuklaydi. Masalan, ilmiy muammoni tayyor shakllantirib berish, adabiyotlarni tahlil qilib xulosa chiqarish, dalillarni qiyoslash yoki yakuniy ilmiy xulosani yozib berishni SIga topshirish natijasida tayyor mahsulot yuzaga keladi, biroq ushbu mahsulotni yaratish uchun zarur bo‘lgan intellektual jarayonning muhim qismi talaba tomonidan bajarilmaydi. Bunday vaziyatda texnologik samaradorlik ortishi mumkin, ammo mustaqil ilmiy tafakkurning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan muammoli izlanish, tahlil, qiyoslash va dalillash faoliyati qisqaradi.

Kognitiv ko‘maklashish holatida generativ sun’iy intellekt talabaning mustaqil faoliyatini yengillashtiruvchi yordamchi vosita vazifasini bajaradi. Talaba muammoni o‘zi belgilaydi, ammo unga doir qo‘shimcha savollar, kalit tushunchalar, muqobil izlanish yo‘nalishlari yoki tahlil variantlarini shakllantirish uchun SI imkoniyatlaridan foydalanadi. Bunda intellektual vazifaning asosiy mazmuni talabaning o‘zida saqlanadi, sun’iy intellekt esa izlanish doirasini kengaytiradi.

Kognitiv faollashtirish holatida esa generativ sun’iy intellekt tomonidan taqdim etilgan javob talabaning keyingi ilmiy fikrlash faoliyatini yuzaga keltiruvchi pedagogik stimul vazifasini bajaradi. Talaba SI javobini qabul qilish bilan cheklanmaydi, balki unga qarshi dalil izlaydi, muqobil ilmiy pozitsiyalarni qiyoslaydi, yashirin taxminlarni aniqlaydi, qo‘shimcha savollar shakllantiradi va o‘z ilmiy pozitsiyasini asoslaydi. Shu sababli generativ SI javobi bu holatda fikrlash jarayonining yakuni emas, balki yangi intellektual faoliyatning boshlanish nuqtasiga aylanadi.

Mazkur uch holatni qiyoslash generativ sun’iy intellektdan pedagogik foydalanishning maqsadi “SI qancha vazifani bajara oladi?” degan savoldan “SI bilan ishlash natijasida talaba qanday yuqori darajadagi intellektual faoliyatni bajaradi?” degan savolga ko‘chirilishi lozimligini ko‘rsatadi.

1-jadval. Generativ SI bilan ishlash shakllari va mustaqil ilmiy tafakkurning rivojlanishi.

SI bilan ishlash holati	Generativ SIning funksiyasi	Talabaning mustaqil faoliyati	Ilmiy tafakkurga ta’siri	Pedagogik natija
Kognitiv almashtirish	Tayyor javob, tahlil, yechim yoki xulosa yaratadi	Tayyor natijani qabul qiladi va undan foydalanadi	Mustaqil tahlil, qiyoslash, dalillash va xulosa chiqarish faoliyati qisqaradi	Tayyor mahsulot olinadi, biroq mustaqil fikrlash yetarli darajada faollashmaydi
Kognitiv ko‘maklashish	G‘oya, savol, tushuncha,	Takliflarni saralaydi,	Izlanish doirasi kengayadi,	Tadqiqotchilik faoliyati qo‘llab-

	izlanish yo‘nalishi va muqobil variantlarni taklif qiladi	tekshiradi, aniqlashtiradi va rivojlantiradi	yangi fikrlash yo‘nalishlari yuzaga keladi	quvvatlanadi
Kognitiv faollashtirish	Muqobil pozitsiya, qarshi dalil, muammoli savol va tahlil uchun material taqdim etadi	Tahlil qiladi, dalillarni qiyoslaydi, savollar qo‘yadi, fikrlarni baholaydi va asoslaydi	Tanqidiy, tahliliy va dalillarga asoslangan ilmiy fikrlash faollashadi	Mustaqil ilmiy tafakkur rivojlanadi
Mustaqil ilmiy qaror	Qo‘shimcha axborot, muqobil fikr va ehtimoliy yechimlarni taklif etadi	O‘z ilmiy pozitsiyasini shakllantiradi va yakuniy qarorini dalillar asosida mustaqil qabul qiladi	Ilmiy mustaqillik, asoslangan xulosa chiqarish va refleksiv fikrlash namoyon bo‘ladi	Tadqiqotchi subyektligi va mustaqil ilmiy qaror qabul qilish ko‘nikmasi rivojlanadi

Jadvaldagi bog‘liqliklardan ko‘rinadiki, generativ sun’iy intellektdan foydalanishning pedagogik jihatdan maqbul yo‘nalishi kognitiv almashtirishni kamaytirish va kognitiv faollashtirishni kuchaytirishdan iborat. Bunda talabaning intellektual faolligi SI vositasidan foydalanishdan oldin ham, undan foydalanish jarayonida ham, undan keyin ham saqlanishi lozim.

Mustaqil ilmiy tafakkurni rivojlantirish mexanizmi.

Tahlil natijalari asosida generativ sun’iy intellekt sharoitida mustaqil ilmiy tafakkurni rivojlantirish quyidagi mantiqiy ketma-ketlik asosida tashkil etilishi taklif etiladi:

Muammoni anglash → ilmiy savol qo‘yish → SI bilan izlanish → natijani tanqidiy tahlil qilish → dalillar bilan tekshirish → muqobil pozitsiyalarni qiyoslash → shaxsiy ilmiy pozitsiyani asoslash → mustaqil ilmiy xulosa chiqarish → refleksiv baholash.

Mazkur mexanizmning dastlabki bosqichi — muammoni anglash — talabaning pedagogik hodisa yoki jarayondagi qarama-qarshilik, noaniqlik yoki tadqiq etilishi zarur bo‘lgan jihatni aniqlashi bilan bog‘liq. Bu bosqichda tayyor muammoni SI orqali olishdan ko‘ra, talabaning real pedagogik vaziyatni kuzatishi va undan ilmiy muammoni chiqarishi ustuvor hisoblanadi.

Ilmiy savol qo‘yish bosqichida talaba aniqlangan muammoning mohiyatini ochishga xizmat qiladigan savollarni shakllantiradi. Generativ SI ushbu savollarning muqobil variantlarini ko‘rsatishi mumkin, biroq qaysi savolning tadqiqot uchun ahamiyatli ekanligini aniqlash talabaning mustaqil qarori bo‘lib qoladi.

SI bilan izlanish bosqichida generativ sun’iy intellekt muammoni turli nuqtai nazardan ko‘rish, tushunchalar o‘rtasidagi ehtimoliy bog‘lanishlarni aniqlash, muqobil izohlarni shakllantirish va keyingi izlanish yo‘nalishlarini belgilashga ko‘maklashadi. Ushbu bosqichda SI javobining o‘zi natija emas, balki tahlil qilinadigan material sifatida qaraladi.

Tanqidiy tahlil va dalillar bilan tekshirish bosqichida talaba generativ SI tomonidan taqdim etilgan fikrlarning mantiqiy asoslanganligi, ilmiy manbalar bilan muvofiqligi va muammoga aloqadorligini tekshiradi. “Bu fikr nimaga asoslangan?”, “Buni qaysi ilmiy dalil tasdiqlaydi?”, “Ushbu qarashga zid natijalar mavjudmi?” kabi savollar talabaning ilmiy fikrlash faoliyatini faollashtiradi.

Muqobil pozitsiyalarni qiyoslash bosqichi mustaqil ilmiy tafakkurni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Talaba bir xil muammoga oid turli ilmiy qarashlarni o‘rganib, ularning metodologik asoslari, dalillari, kuchli va cheklangan tomonlarini aniqlaydi. Natijada ilmiy xulosa bitta tayyor fikrni qabul qilish emas, balki muqobil pozitsiyalarni ongli ravishda baholash natijasida shakllanadi.

Keyingi bosqichda talaba shaxsiy ilmiy pozitsiyasini asoslaydi. Bunda “men shunday o‘ylayman” shaklidagi subyektiv fikrning o‘zi yetarli emas. Shaxsiy ilmiy pozitsiya nazariy qarashlar, tekshirilgan axborot, ilmiy dalillar va tadqiqot natijalariga tayanishi kerak. Shu tariqa mustaqillik ilmiy asoslanganlik bilan uyg‘unlashadi.

Mustaqil ilmiy xulosa chiqarish bosqichida talaba avvalgi tahlil, qiyoslash va dalillash natijalarini umumlashtirib, muammoga nisbatan yakuniy ilmiy qarorini shakllantiradi. Generativ SI xulosani ifodalashning muqobil shakllarini ko‘rsatishi mumkin, biroq xulosaning mazmuni, mantiqi va ilmiy asoslanganligi talabaning o‘z faoliyati mahsuli bo‘lishi lozim.

Jarayon refleksiv baholash bilan yakunlanadi. Talaba o‘ziga “Dastlab qanday fikrda edim?”, “SI menga qanday yangi nuqtai nazarni ko‘rsatdi?”, “Qaysi fikrlarni rad etdim va nima sababdan?”, “Qaysi dalillar mening pozitsiyamni o‘zgartirdi?”, “Yakuniy xulosaning qaysi qismi mening mustaqil ilmiy qarorim hisoblanadi?” kabi savollarni beradi. Bu bosqich ilmiy tafakkurning faqat natijasini emas, uning shakllanish jarayonini ham anglash imkonini beradi.

“Javob olish”dan “savol yaratish”ga o‘tish.

Generativ sun’iy intellekt sharoitida mustaqil ilmiy tafakkurni rivojlantirish uchun ta’lim topshiriqlarining mantiqini ham o‘zgartirish zarur. An’anaviy topshiriqda talaba ko‘pincha qo‘yilgan savolga to‘g‘ri javob topishga intiladi. Generativ SI bunday javobni qisqa vaqt ichida taqdim eta olgan sharoitda esa

pedagogik qiymat savolga tayyor javob olishdan yangi savollar yaratish, javobni baholash va ilmiy pozitsiyani asoslash tomon siljishi lozim.

Masalan, “Generativ sun’iy intellektning ta’limdagi afzalliklarini yozing” kabi topshiriqni SI osonlik bilan bajarishi mumkin. Uni “Generativ SI ta’lim uchun uchta afzallikni taklif qilsin. Har bir afzallikning qaysi pedagogik sharoitda afzallik bo‘lmay qolishini aniqlang va ilmiy manba bilan asoslang” shaklida tashkil etish esa talabaning tahlil va dalillash faoliyatini talab qiladi.

Xuddi shuningdek, “Muammo bo‘yicha xulosa yozing” topshirig‘i o‘rniga “SI tomonidan berilgan xulosaning ikkita zaif jihatini aniqlang, unga qarshi ilmiy dalil toping va dalillar asosida o‘z xulosangizni shakllantiring” topshirig‘idan foydalanish mumkin. Bunday vaziyatda generativ SI tayyor javob beruvchi vositadan intellektual bahs uchun material yaratuvchi vositaga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan, mustaqil ilmiy tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar uchta asosiy xususiyatga ega bo‘lishi lozim: ular bitta tayyor javob bilan cheklanmasligi, dalil va asoslashni talab qilishi hamda SI tomonidan yaratilgan natijadan keyingi mustaqil intellektual harakatni nazarda tutishi zarur.

Generativ SI bilan ishlashda ilmiy tafakkurning rivojlanish ko‘rsatkichlari

Taklif etilgan mexanizm asosida bo‘lajak o‘qituvchining mustaqil ilmiy tafakkuri rivojlanganligini faqat uning SI vositalaridan foydalanish texnikasini egallagani bilan aniqlash mumkin emas. Bunda talabaning:

— pedagogik hodisadagi ilmiy muammoni mustaqil aniqlay olishi;

— muammoning mohiyatini ochuvchi tadqiqotchilik savollarini shakllantira olishi;

— SI javobini tayyor haqiqat sifatida emas, tahlil qilinadigan axborot sifatida qabul qilishi;

— turli ilmiy dalil va pozitsiyalarni qiyoslay olishi;

— qarama-qarshi dalillarni aniqlashi va baholashi;

— o‘z ilmiy pozitsiyasini nazariy hamda empirik dalillar bilan asoslay olishi;

— generativ SI tavsiyasidan farq qiluvchi mustaqil qarorni ham asosli ravishda qabul qila olishi;

— yakuniy ilmiy xulosani mustaqil shakllantirishi;

— o‘z fikrlash jarayoni va SI ta’sirini refleksiv baholay olishi mustaqil ilmiy tafakkurning muhim namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari sifatida qaralishi mumkin.

Shunday qilib, generativ sun’iy intellekt sharoitida mustaqil ilmiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyadan foydalanish hajmini oshirishni emas, balki SI bilan o‘zaro faoliyatning didaktik sifatini o‘zgartirishni talab etadi.

Generativ SI tayyor javob beruvchi vosita sifatida qo‘llanganda kognitiv almashtirish xavfi yuzaga keladi; izlanishga yordam beruvchi vosita sifatida qo‘llanganda kognitiv ko‘maklashish ta’minlanadi; SI natijasi yangi savol, dalillash, qiyoslash va mustaqil xulosaga olib kelganda esa kognitiv faollashtirish sodir bo‘ladi. Aynan uchinchi holat bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ilmiy tafakkurini rivojlantirish uchun pedagogik jihatdan eng muhim yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi.

Amaliy tavsiyalar.

Generativ sun’iy intellekt sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ilmiy tafakkurini rivojlantirish uchun ta’lim jarayonini tayyor javob olishga emas, balki talabaning mustaqil intellektual harakatlarini faollashtirishga yo‘naltirish muhimdir. Bunda generativ SI imkoniyatlaridan foydalanishning o‘zi maqsad sifatida emas, balki ilmiy muammoni anglash, savol qo‘yish, dalillarni tahlil qilish, muqobil fikrlarni qiyoslash va mustaqil xulosa chiqarishga xizmat qiluvchi vosita sifatida qaralishi lozim.

Birinchidan, generativ SI bilan ishlashdan oldingi mustaqil fikrlash bosqichini tashkil etish maqsadga muvofiq. Talaba muammo yuzasidan SIga murojaat qilishdan avval o‘zining dastlabki fikri, taxmini yoki savollarini shakllantirishi kerak. Masalan, pedagogik muammo taqdim etilgach, talabadan “Muammoning asosiy sababi nimada deb o‘ylaysiz?”, “Siz qanday yechimni taklif qilgan bo‘lardingiz?” yoki “Mazkur muammoni o‘rganish uchun qanday savollar berish kerak?” kabi savollarga dastlab mustaqil javob berish talab etiladi. Shundan keyingina SI javobi bilan ishlashga o‘tiladi. Bu talabaning dastlabki ilmiy pozitsiyasini saqlash va keyinchalik uni SI takliflari bilan qiyoslash imkonini beradi.

Ikkinchidan, “SI javobini tahlil qil” turidagi topshiriqlarni kengaytirish zarur. Talabaga generativ SI tomonidan yaratilgan javobni shunchaki qayta bayon qilish emas, balki uning ilmiy jihatdan kuchli va zaif tomonlarini aniqlash vazifasi beriladi. Bunda “Qaysi fikr yetarlicha asoslanmagan?”, “Qaysi xulosaga qo‘shimcha dalil kerak?”, “Qaysi jihat bilan rozi emassiz va nima sababdan?” kabi savollardan foydalanish mumkin. Bunday topshiriqlar talabaning tayyor axborotni passiv qabul qilishini kamaytirib, tahliliy munosabatini kuchaytiradi.

Uchinchidan, qarama-qarshi pozitsiyalar bilan ishlashga yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Generativ SI biror ilmiy masala yuzasidan ma’lum pozitsiyani shakllantirgach, talabaga unga qarama-qarshi pozitsiyani aniqlash vazifasi beriladi. Masalan: “SI tomonidan berilgan xulosaga qarshi uchta dalil toping”, “Mazkur fikrni rad etuvchi ilmiy nuqtai nazarni aniqlang”, “Ikki qarama-qarshi pozitsiyani qiyoslab, qaysi dalillar kuchliroq ekanini asoslang”. Bunday faoliyat talabaning bir tomonlama axborot bilan

cheklanib qolmasligi va muammoni turli nuqtai nazardan ko‘rishiga yordam beradi.

To‘rtinchidan, “SI javobidan yangi ilmiy savolga” tamoyilidan foydalanish maqsadga muvofiq. Har bir generativ javobdan keyin talaba kamida bitta yangi ilmiy savol shakllantirishi talab qilinadi. Masalan, SI muayyan pedagogik hodisaning sabablarini ko‘rsatgan bo‘lsa, talaba “Ushbu sabablarning qaysi biri amaliyotda kuchliroq namoyon bo‘ladi?”, “Bu omil turli ta’lim sharoitlarida bir xil ta’sir ko‘rsatadimi?” yoki “Mazkur xulosani empirik jihatdan qanday tekshirish mumkin?” kabi keyingi tadqiqotchilik savollarini ishlab chiqadi. Natijada SI javobi ilmiy izlanishni tugatmaydi, balki yangi izlanish yo‘nalishini yuzaga keltiradi.

Beshinchidan, “Avval men – keyin SI – so‘ng yana men” tartibida ishlashni joriy etish mumkin. Birinchi bosqichda talaba muammo yuzasidan o‘z fikrini mustaqil shakllantiradi. Ikkinchi bosqichda generativ SI bilan ishlaydi va muqobil javoblarni oladi. Uchinchi bosqichda esa o‘zining dastlabki fikri bilan SI natijasini qiyoslab, yakuniy ilmiy pozitsiyasini qayta shakllantiradi. Mazkur tartib talabaning dastlabki va yakuniy fikri o‘rtasidagi o‘zgarishni kuzatish imkonini beradi hamda SI ta’sirini ongli ravishda baholashga yordam beradi.

Oltinchidan, generativ SI bilan ilmiy bahs tashkil etish samarali pedagogik usullardan biri bo‘lishi mumkin. Talaba SIga o‘z ilmiy pozitsiyasini taqdim etadi va undan ushbu pozitsiyaga qarshi dalillar keltirishni so‘raydi. Keyin talaba SI tomonidan bildirilgan e’tirozlarga ilmiy manbalar va dalillar asosida javob beradi. Bunday faoliyatda SI “javob beruvchi” emas, balki talabaning ilmiy pozitsiyasini sinovdan o‘tkazuvchi shartli opponent vazifasini bajaradi.

Yettinchidan, ilmiy qaror qabul qilishni talab qiladigan ochiq topshiriqlardan foydalanish lozim. Bunday topshiriqlarda yagona tayyor javob bo‘lmaydi. Talaba bir nechta ehtimoliy yechim yoki ilmiy pozitsiya orasidan tanlov qiladi va nima sababdan aynan shu qarorni qabul qilganini dalillar bilan asoslaydi. Generativ SI muqobil variantlarni ishlab chiqishga yordam berishi mumkin, biroq variantlarni baholash va yakuniy qarorni qabul qilish talabaning zimmasida qoladi.

Sakkizinchidan, refleksiv topshiriqlarni tadqiqotchilik faoliyatining doimiy tarkibiy qismiga aylantirish zarur. SI bilan bajarilgan ilmiy topshiriq yakunida talaba quyidagi savollarga javob berishi mumkin:

— SI mening dastlabki fikrimga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

— SI taklif qilgan qaysi fikrni qabul qildim va nima uchun?

— Qaysi fikrni rad etdim va buning uchun qanday dalilga tayandim?

— SI javobidan keyin qanday yangi ilmiy savol paydo bo‘ldi?

— Yakuniy xulosam dastlabki fikrimdan nimasi bilan farq qiladi?

— Agar SI vositasidan foydalanmaganimda, ushbu ilmiy qarorga qanday yo‘l bilan kelgan bo‘lardim?

Mazkur refleksiv savollar talabaning faqat natijani emas, o‘z fikrlash jarayonini ham tahlil qilishiga imkon beradi.

Mustaqil ilmiy tafakkurni baholashga doir tavsiyalar.

Generativ sun’iy intellektdan foydalaniladigan topshiriqlarni baholashda faqat tayyor matnning sifati yoki mazmuniy to‘liqligiga tayanish yetarli emas. Chunki tashqi jihatdan mukammal ko‘ringan matn talabaning mustaqil ilmiy fikrlash faoliyatini to‘liq aks ettirmasligi mumkin. Shu sababli baholashda natija bilan bir qatorda fikrlash jarayoni ham e’tiborga olinishi lozim.

Bunda quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

— ilmiy muammoni mustaqil anglash va ifodalash;

— tadqiqotchilik xarakteridagi savollarni shakllantirish;

— SI tomonidan berilgan axborotga tanqidiy munosabat bildirish;

— turli fikr va dalillarni o‘zaro qiyoslash;

— qarama-qarshi pozitsiyalarni aniqlash va baholash;

— fikrni ilmiy dalillar bilan asoslash;

— generativ SI taklifidan farqli pozitsiyani asosli ravishda ilgari sura olish;

— mustaqil ilmiy xulosa chiqarish;

— o‘z fikrlash jarayonini refleksiv baholash.

Shunga ko‘ra, talabaning generativ SI bilan ishlashdagi muvaffaqiyati “SI yordamida qanchalik mukammal matn yaratildi?” degan mezon bilan emas, balki “SI bilan o‘zaro faoliyat natijasida talaba qanday mustaqil intellektual harakatlarni amalga oshirdi?” degan mezon bilan baholanishi maqsadga muvofiq.

Bu yondashuv generativ sun’iy intellektdan foydalanishni cheklashga emas, aksincha, undan pedagogik jihatdan samarali foydalanishga yo‘naltiriladi. Bunda texnologiyaning tezkor axborot yaratish va muqobil variantlarni taklif qilish imkoniyatlari insonning muammoni anglash, tanqidiy tahlil qilish, dalillash, ilmiy pozitsiya shakllantirish va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtiriladi.

Natijada generativ sun’iy intellekt bo‘lajak o‘qituvchi uchun “uning o‘rniga fikrlovchi vosita”dan “uni ko‘proq va chuqurroq fikrlashga undovchi vosita”ga aylanishi mumkin. Mazkur o‘zgarish generativ SI sharoitida mustaqil ilmiy tafakkurni rivojlantirishning asosiy pedagogik yo‘nalishini ifodalaydi.

Xulosa.

Generativ sun’iy intellekt vositalaridan pedagogik ta’limda foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy izlanish imkoniyatlarini kengaytiradi, biroq uning samaradorligi talabaning mustaqil intellektual faoliyati qay darajada

saqlanishi va faollashtirilishi bilan belgilanadi. Shu sababli generativ SI tayyor ilmiy natijani taqdim etuvchi vosita emas, balki muammoni anglash, savol qo‘yish, axborotni tahlil qilish, dalillarni qiyoslash va ilmiy xulosa chiqarishni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida qo‘llanilishi lozim.

Tadqiqot natijalari generativ SI bilan ishlashda kognitiv almashtirish, kognitiv ko‘maklashish va kognitiv faollashtirish holatlarini farqlash zarurligini ko‘rsatdi. Mustaqil ilmiy tafakkurni rivojlantirish nuqtai nazaridan SI talabaning fikrlash faoliyatini almashtirmasdan, uni yangi savollar, muqobil pozitsiyalar, qarshi dalillar va tahliliy vazifalar orqali faollashtirishi muhimdir. Bunda “savol qo‘yish → SI bilan izlanish → natijani tahlil qilish → dalillar bilan tekshirish → muqobil pozitsiyalarni qiyoslash → mustaqil ilmiy xulosa chiqarish → refleksiv baholash” ketma-ketligi samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Generativ SI qo‘llaniladigan topshiriqlarni baholashda faqat yakuniy mahsulot emas, balki talabaning ilmiy muammoni mustaqil anglash, SI natijasini tanqidiy tahlil qilish, o‘z pozitsiyasini dalillar bilan asoslash va mustaqil qaror qabul qilish jarayoni ham hisobga olinishi zarur. Shu asosda “kognitiv almashtirish → kognitiv ko‘maklashish → kognitiv faollashtirish → mustaqil ilmiy qaror” yo‘nalishi generativ sun’iy intellektdan foydalanishda bo‘lajak o‘qituvchining tadqiqotchi subyektligini va mustaqil ilmiy tafakkurini saqlashning muhim pedagogik asosi sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.

2. Toxtaxodjayeva M.X., Nishonova S., Hasanboyev J., Usmonboyeva M. va boshq. Pedagogika. I qism. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 400 b.

3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Sano-standart, 2015. – 208 b.

4. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017.

5. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. – Paris: UNESCO, 2023. – 44 p.

6. Kasneci E., Sessler K., Küchemann S., Bannert M., Dementieva D., Fischer F. et al. ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education. // Learning and Individual Differences. – 2023. – Vol. 103. – Article 102274.

7. Lo C.K. What Is the Impact of ChatGPT on Education? A Rapid Review of the Literature. // Education Sciences. – 2023. – Vol. 13, No. 4. – Article 410.

8. Tlili A., Shehata B., Adarkwah M.A., Bozkurt A., Hickey D.T., Huang R., Agyemang B. What if the devil is my guardian angel: ChatGPT as a case study of using chatbots in education. // Smart Learning Environments. – 2023. – Vol. 10. – Article 15.

9. Grassini S. Shaping the future of education: exploring the potential and consequences of AI and ChatGPT in educational settings. // Education Sciences. – 2023. – Vol. 13, No. 7. – Article 692.

10. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. – Paris: UNESCO, 2021.

MUNDARIJA

1-SHO‘BA
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI PEDAGOG XODIMLARINI KASBIY RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI YARATISH OMILLARI

Ibragimov A. 7 E modeli: o‘qitish jarayoniga samarali metodik yondashuv 6
Safarova R.G. Qadriyatlar - o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish manbai sifatida..... 10
Begmatova M.T. Bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha ish shakllari va usullari..... 13
Eshkuvatov J. B., Fayzullayeva G. Sh. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish omillari va komponentlari 15
Haqberdiyeva Z. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar, an’analar asosida rivojlantirishning samarali usullari 22
Kuvandiqova M.A. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog-tarbiyachisining nutq texnikasini egallash yo‘llari..... 27
Jabbarova M. S. Maktabgacha ta’limda pedagog kadrlar sifati — ta’lim samaradorligining asosi 31
Mamarasulova Sh. Sh. O‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirishda emotsioanal intellektning ahamiyati 36
Tadjibayeva M. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshqaruv tizimi: evolyutsiya va zamonaviy model 39
Mansurov F.N. Samarali maktabni shakllantirishda strategik rejalashtirish va boshqaruv..... 43
Oripov J. Y. Maktabgacha va maktab ta’limi pedagog xodimlarini kasbiy rivojlantirishning huquqiy asoslari. 48
Qurbanova X.X. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish muammolari. 50
Sattarova G.I. Sog‘lom va imkoniyati cheklangan o‘smirlarning hissiy-irodaviy rivojlanishi 53
Shodiyeva M.J. Pedagoglarni kasbiy rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish trayektoriyalari..... 61
Haydarov K. “Hayot davomida o‘qish” – pedagog kasbiy rivojlanishida muhim tamoyil 67
Xudoyqulova N.M., Kushanova D.U. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi kutubxonalari va axborot resurs markazlarida ommaviy tadbirlarni tashkil qilishning ahamiyati va yo‘nalishlari 70
Xurramov A.V. Kasbiy mas’uliyatni rivojlantirishning ta’lim tizimi boshqaruviga ta’siri 74
Абдурахмонова Ш.К. Сатторов Э.Н. Профессиональный рост педагогов дошкольного и школьного образования и благоприятные факторы среды для развития. 78
Rustamova Sh.M. Farzand tarbiyasi: nimadan boshlash kerak?..... 82
Shakarova N.Z. Maktabga tayyorlov guruhi bolalarini boshlang‘ich ta’limga tayyorlashda savodga o‘rgatish usullari. 85
Aliyeva Z.M. Maktab pedagog xodimlari faoliyatida stress darajasini kamaytirish omillari..... 89

2-SHO‘BA
OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI KASBIY FAOLIYATGA MUVAFFAQIYATLI TAYYORLASH TENDENSIYALARI

Haydarov K. Bo‘lajak pedagog xodimlarning mediasavodxonligini oshirish – ta’lim islohotining muhim talabi 93
Abdullayeva A.K. Zamonaviy ta’lim jarayonida axloqiy tarbiyani individual yondashuv orqali amalga oshirishning ahamiyati 96
Karimova A. Scamper texnikasi orqali talabalarni intellektual-ijodiy rivojlantirish metodikasi 100
Berdiyorova O. Kelajak pedagoglarini rivojlantirishda metodik tayyorligini oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari 102
Elomonov D.O. Fintech texnologiyalarining an’anaviy moliyaviy institutlarga integratsiyasi 107
Hamzayeva N.A. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarning turlari 112
Ilmurodov S.X. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining subyektiv pozitsiyasi 115
Ismailov D.T. Integrativ yondashuv asosida oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarini milliy ruhda tarbiyalashda sun’iy intellektning o‘rni 119
Zaripov X.B. Ijtimoiy tizimlarning uzluksiz ishlashida soliqlarning o’rni. 122
Jabbarov Z.R. Talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishda virtual va aralash o‘qitish jarayonlari 125
Joniyev A.Sh., Oqnazarov T.J. Raqamli texnologiyalar, ar/vr, lms platformalar va masofaviy ta’limning bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashdagi o‘rni 131
Jumamuratov A.P. Optimizing the student learning process through the development of a multi-agent system 134
Kulatova S.Y. O‘smirlar orasida virtual olamga bog‘lanishning destruktiv axborotni qabul qilishdagi o‘rni 137
Yo‘ldoshev M. Muhandis kadrlar tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi yondashuvlar *139*
Xaydarova M.X. Magistratura talabalarining pedagogik faoliyatini tashkil etishda innovatsion yondashuvning samaradorligi. 146
Normamatova K. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyasini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari. 130
Normurodova O. Postmodern adabiyotda intertekstual aloqalarni tarjima qilish: pragmatik va semantik yondashuvlar. 150
Nurmanova D. Sinf jamoasi bilan ishlashning zamonaviy tendensiyalari (bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari misolida) 154
O‘rinov U., Yo‘ldoshev M. Bo‘lajak muhandislarni tayyorlashda ixtisoslik fanlarining roli. 157
Pulatova M. O‘quvchilarni o‘quv strategiyalariga (learning strategies) o‘rgatish – pedagogik fenomen sifatida. 160
Saydaliyeva M. Pedagogik faoliyatda ekzistensial inqirozni yengishda qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishning amaliy ahamiyati 164
Fayzulleyeva G., Shodiyorova U. So‘rovga asoslangan ta’lim mexanizmi asosida o‘qitish 166
Suyunov S. Bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarining innovatsion yondashuvlar asosida ekologik kompetentligini rivojlantirishda pedagogik muammo sifatida qarash 171
Tilovov Sh. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etishda mobil texnologiyalardan foydalanish. 178

To‘xtayev N. Bo‘lajak ofitserlarda kasbiy muhim sifatlarini rivojlantirishda ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘rni 181
O‘rinov U., Yo‘ldoshev M. Bo‘lajak muhandislarni tayyorlashda ixtisoslik fanlarining roli. 185
Xabibulloev D. Pedagogik faoliyatni tashkil etishda bo’lajak pedagogning kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish 188
Xaliqova X. Buyuk mutafakkirlarning ijtimoiy qarashlari asosida talabalarning tejamkorlik faoliyatini rivojlantirish metodikasi 191
Hotamov M.A. Jismoniy madaniyat va sport mutaxasislarida kasbiy kompitentligini rivojlantirishning o’rni 198
Hotamov M.A. Jismoniy tarbiya mutaxasislarining kasbiy kompetentligini shakllantirish 201
Yo‘Ldoshev M. Muhandis kadrlar tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi yondashuvlar 204
Абдурахмонова Ш., Сатторов Э. Профессиональный рост педагогов дошкольного и школьного образования и благоприятные факторы среды для развития. 207
Абзаиров Т. Прогрессировать речь по русскому языку студентов по специальности физической культуры в высших учебных заведениях узбекистана 212
Рахматуллаев У. Возможности развития у студентов стратегических компетенций при обучении 218
Шадиев Н., Шадиев Р. Илмий тўгараклар талабаларни маънавий тарбиялаш воситаси сифатида 220
Doniyorova Sh. O‘zbekistonda oliy ta’limni xalqaro standartlarga mos keluvchi pedagogik muhitni yaratish: muammo va yechimlar 225
Fayziyev M., Xamidova D. Talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish 228
Isayeva D. Talabalarda sanogen refleksiyani rivojlantirish texnologiyasi 232
Mamatova Z. Boshlang‘ich ta’lim talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda aksiologik yondashuvning ahamiyati 236
Xasanova M. Grafik topshiriqlarni elektron platforma orqali taqdim etish: muhandislik grafikasi uchun innovatsion yondashuv 240
Djalolova S. Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalari 244
Sheraliyeva M.B. Kasbiy shakllanish tushunchasi va uning natijaviy ahamiyati 248
Umarov S. Chiziqlashtirilgan nav’ye-stoks tenglamalar sistemasi 252
Umarov S. Qoldiqlar nazariyasi orqali integrallarni hisoblash 257

3-SHO‘BA:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK TARAQQIYOT VA UNING TADQIQIY JIHATLARI.

Abdiyev J. Intellektual qobiliyat va tadqiqotchilik ko‘nikmalarining uyg‘unligi – muvaffaqiyat omili sifatida 262
Akramova F., Arziqulov O‘. Shifokorlar muvaffaqqiyatli faoliyatining psixologik mezonllari 266
Alimuxamedova U. Antropotsen davrida sinfdan tashqari tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning ongli ekologik faoliyatini rivojlantirish metodikasi (o‘quv mashg‘ulotlari samarali loyihalari misolida) 268
Aliyev Sh. Inklyuziv ta’lim: tarixi va ahamiyati 278
Амиркулов Ж. Психологияда шахс интеллектини ўрганишнинг ўзига хос хусусиятлари 283

Ашурова Ш.Ф. Особенности психологического сопровождения проблем взаимодействия в формировании личности младших школьников 288
Atayeva B. Формирование нравственных качеств в 4-м классе начальной школ Muammoli ta'limni tashkil etishda o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining roli. 291
Amirullayeva B. Zamonaviy ta'limda konstruktivizm: nazariy-metodologik asoslar va pedagogik-amaliy natijalar 294
Baqoyeva M. Zamonaviy pedagogik tendensiyalar va zamonaviy o'qituvchi..... 298
Bobirov D. O'spirinlarda axborot madaniyatini shakllantirishning psixologik omillari..... 300
Boymanov J. Kiberhujumlar va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri 303
Davronov P. Advantages and significance of designing lessons in small groups 306
Djurayeva P. Malaka oshirish tizimida tabiiy fanlardan (science) tabiatni muhofaza qilish bo'yicha «o'quv loyihasi» ishlab chiqish 311
Donayeva A. Elektron resurslardan foydalanish asosida boshlang'ich ta'limning didaktik ta'minotini takomillashtirish 320
Hamidova L. Ta'limga yangicha yondashuv: "teskari o'qitish" o'qituvchilarga qanday yangi imkoniyatlar yaratadi?..... 325
Hamroyeva A. Pedagogik innovatsion texnologiyalar maktabgacha ta'lim xodimlarining kasbiy rivojlanishiga ta'siri..... 328
Hamzayeva N. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarning turlari 331
Haydarov K., Haydarova V. Ma'naviy qadriyatlar vorisligi va yoshlar tarbiyasi 335
Hayrullayeva M. Abdusaid ko'chimovning "tubsiz quduq" hikoyasida ijtimoiy – psixologik konflikt..... 338
Sodiqov E. Yurt ozodligi uchun kurashgan qomusiy olim va siyosatchi – abdurauf fitrat 342
Oqnazarov T. *O*'zbekiston pedagogik tilshunosligida atamashunoslik madaniyatining shakllanishi: muammo va imkoniyatlar..... 346
Qoraboyev Sh. Tarixiy manbalarni raqamlashtirish va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishi..... 354
Ruziyeva N. Digital technologies for inclusive education: methods, evidence, and insights..... 357
Sharipova S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishda innavatsion texnalogiyalarning o'rni va ahamiyati..... 362
Sharofiddinov R. Maktab tafakkurini shakllantirish ustaxonasi..... 365
Tilakova M. Inklyuziv ta'lim uchun o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashni rivojlantirish..... 370
Toshpulatov I. Inson salohiyatini shakllantirish borasidagi qarashlar..... 373
Toshtemirova M. Mintaqalar kesimida o'zbek milliy bosh kiyimlarining uslubiy farqlari 377
Urakov Sh., Faxriddinov M. Professor-o'qituvchilarning dars mashg'ulotidagi faoliyatini baholash: ijtimoiy-pedagogik zarurat..... 382
Xaliqova X. Ekologik madaniyatni rivojlantirish: nazariy asoslar, amaliy yo'nalishlar va istiqbollar..... 386
Xalmonov U. Kasbiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi muhit – zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishi sifatida..... 390
Xatamova M. O'qish savodxonligini shakllantirishga doir o'quv topshiriqlarining metodik ta'minotini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida..... 394
Xudaykulova Sh. Ta`lim jarayonida neyropedagogik texnologiyalarning pedagogik jarayonga integratsiyasi 402

Бегалиев Ф. Значение образовательных направлений на основе мультимедийных технологий и искусственного интеллекта в условиях узбекистана..... 405
Шадиев Н., Набиева Д. Мактабда тажриба ва лаборатория машғулотларини ўтказишда ёввойи ўсимликларнинг табиий бета-радиоактив нурларидан фойдаланиш..... 408
Xamidova D. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ahamiyati..... 413

4-SHO‘BA:
FANNI SAMARALI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.

Gulyamova N. Kompleks yondashuv: fanlar o‘rtasidagi mantiqiy aloqalar barpo etish..... 418
Dilnoza E. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tili kommunikativ kompetensiyasini o‘rganish jarayonida sun’iy intellektning ahamiyati. 420
Eshbekova G. The teachers’ changing role and ways of teaching the foreign languages. 425
Kurbanova Z. Teaching english to children with special needs using game technology. 429
Ravshanova O. Ona tili va adabiyot darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning afzalliklari. 433
Boboqulov J. Informatika va axborot texnologiyalari fanlarida muammoli ta’lim metodidan foydalanishning afzalliklari 437
Sevara Sh. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirishda innavatsion texnalogiyalarning o‘rni va ahamiyati 440
Karlibayeva A. Ingliz tilini o‘rgatishning mnemonik texnikasi 443
Abdixakimova N. Boshlang‘ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda mustaqil ishlarning ahamiyati 446
Qoraboyev X. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilar mustaqil faoliyatini rivojlantirishda flipped classroom texnologiyasining didaktik imkoniyatlari. 449
Yunusova N., Rahmonova Z. Konstruktivistik yondashuv asosida tabiiy fanlarni o‘qitish 452
Медетова Р., Кузибоев В. Проблемы совершенствования методики эффективного преподавания музыки в общих средних школах 456
Soliyeva N. Fizika darslarida zamonaviy yondashuv: 5e modeli 460
Oripov J., Ruziyeva D. “Tarbiya” fanini samarali o‘qitishni tashkil etishning muhim jihatlari 462
Samyayev A. Geografiya fanini samarali o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni 465
Davronova F., Saatova D. Teaching phraseological units by a text based approach` 468
Rashidova S. Tabiiy fanlarni steam yondashuvi asosida o‘qitish orqali kreativ va kritik fikr yuritishni rivojlantirish 474
Sanayeva R., Yusupova S. Kimyo fanini samarali o‘qitish metodikasini takomillashtirish muammolari 478
Ergasheva G. Fizika darslarida o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish usullari, yo‘llari va texnologiyalari 481
Davronova F., Begmatov O., Isxakova S., Ergasheva S., Masharipova N., Akbarova Y., Axmedova Z. Psychological development of students by using ploblem-based learning in classes 485
Davronova F., Maxmudova S., Toshmuxammadova B., Rajabboyeva M.,

To‘rayeva O‘.,Ziyodulloyeva S., Huseinova A. Teaching and learning foreign languages by interactive methods in classes 489
Туренова А. Роль steam-образования в формировании мировоззрения младших школьников 496
Sherxolov K. Fizika fanini o‘qitishda 5e modeli asosida dars mashg‘ulotlarini tashkil etish 499
O‘smanova D. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining baholash jarayonini to‘g‘ri shakllantirish va dars jarayonidagi kreativ yondashuvlar 502
Qayumova G. Amaliyot jarayonida talabalarning pedagogik mahoratini oshirishda sun’iy intelekt texnologiyalarini qo‘llash 506
Abduraimov Sh. Ijtimoiy fanlarni samarali o‘qitish metodikasini takomillashtirish muammolari 509
Ostanova M. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida interaktiv metodlardan foydalanishning ahamiyati 512
Usmonov S., Raximqulova M. Boshlang‘ich ta’limda darslarni integratsiyalash asosida tashkil etish ahamiyati 517
Uzoqova M. O‘zgaruvchan ta’lim muhitida ona tili o‘qitish metodlari interaktiv usullar va o‘yin texnologiyalari 523
Qurbonov G‘. Akmeologik mexanizmlar asosida oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari 529
Normamatova K. Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish muammolari va zamonaviy yechimlar 534
Tojiboyeva G. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda maktab ta’lim tizimida davlat va huquq asoslari fanining o‘qitilishi 538
Egamova M. Mashg‘ulotlar jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarni didaktik o‘yinlar vositasida aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik – psixologik xususiyatlari 541
Атабаев Ш., Мухаммадиева М. Steam-образование: методика и её использование на уроках технологии начальной школы 545
Атабаев Ш., Шарабитдинова Р. Педагогическая деликатность и этикет в профессиональной деятельности учителя 549
Атабаев Ш., Чушкина Л. Значение искусственного интеллекта для подготовки уроков технологии в начальной школе 552
Атабаев Ш., Халилова Д. Роль народного творчества в трудовом воспитании 555
Атабаев Ш., Саидалиева Ш. Интеграционный подход к урокам технологии на начальных классах узбекистана 559
Атабаев Ш., Юлия Л. Роль трудовых традиций в воспитании школьников начальных классов узбекистана 562
Tagayev G. Tarix darslarini 5e modeli asosida tashkil etish 565
Dehqonova Z. Fanni samarali o‘qitish metodikasini takomillashtirish muammolari 569
Ergasheva M. Boshlang‘ich ta’limda informatika fani darslarida integratsion yondashuv 572
Rahmonova G. Loyiha asosida o‘qitish orqali o’quvchilarda tadqiqotchilik ko’nikmasini rivojlantirish 576
Sangirova Z. O‘quvchilarda reggio pedagogikasi vositasida kreativlikni rivojlantirish 580
Xasanova K. Inklyuziv ta’limda o‘quvchilarning intelektini rivojlantirish metodikasi 584
Yuldasheva S. Malaka oshirish kurslarida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llari 587
Zayniddinova M. Fizika darslarida interaktiv metodlardan foydalanish 591

Xo‘jamqulov A., Tog‘ayeva Sh. Omon matjon ijodini individual uslubiy izlanishlarini tahlil etish orqali o‘qitish 595
Rasulova D. Ta’lim klasteri sharoitida “iqtisodiy bilim asoslari” fanini o‘qitishning pedagogik sharoitlari 599

5-SHO‘BA:
ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR VA XALQARO BAHOLASH MASALALARI.

Azizova D. Pirls dasturi asosida baholash mezonlari , xalqaro tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash 602
Bozarov A. Tarix fanini o‘qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning ahamiyati 609
Boltayeva F. Loyiha ishlari asosida o‘quvchilarda 4kni rivojlantirish 613
Djabbarov Sh. Aviatsiya mutaxassislarini kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘rni 623
Shodiyeva J., Xoliyeva N. O‘quvchilarni o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matn tahlilga o‘rgatish 626
Matnazarova N. Inklyuziv ta’limda universal dizayn (udl) konsepsiyasi asosida ijtimoiy-psixologik rivojlanishni baholashning metodologik asoslari 629
Xujamkulova N. Boshlang‘ich ta’limda xorijiy tajribalar muammo va samaradorlik..... 634
Qurbonova Z. Inklyuziv ta’limni o‘rganishda finlandiya va aqsh tajribalari 644
Rabbonayeva D. Pirls: matnlar uchun xarita yaratish yuzasidan tavsiyalar 649
Rasulov A. Oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida talabalarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishning afzalliklari 653
Raximov Sh. EGRA va EGMA xalqaro baholash dasturlarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qo‘llashning ahamiyati 657
Saparova D. Ta’lim oluvchilar bilimini baholashning zamonaviy yondashuvlari 662
Shanazarova N. O‘qitishning ilg‘or tajribalarini boshlang‘ich sinflarning ona tili darsida qo‘llash: o‘zbekiston va xorijiy tajribalar qiyosi 669
Aliyev Sh. Baholash turlarining pedagogik va psixologik asoslari 674
Ziyoyeva N. Ta’limdagi xalqaro tadqiqotlarning yangi o‘zbekiston taraqqiyotidagi o‘rni 676
Ильясов Б. Роль передового зарубежного опыта в подготовке авиационных специалистов 682
Usmonova N. Biologiya ta’limida 5e model yondashuvi asosida o‘qitish samaradorligi 685
Xo‘jamqulov A., Tog‘ayeva Sh. Badiiy matn tahlilida intertekstuallik hodisasining ahamiyati 691
Mirzoxidova L. Refleksiya – dars samaradorligini oshiruvchi vosita 695
Kurbonova G. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kollaborativ o‘qitish muhitini loyihalash ko‘nikmasini rivojlantirish 700
Eshnazarova F. Madaniy-ijtimoiy va ta’limiy omillarning bolalarning aqliy rivojlanishiga ta’siri 702
Ikromova M. Bo‘lajak o‘qituvchilarning prognostik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari 706
Okilova K. O‘qituvchining individual kasbiy rivojlanishini takomillashtirishning o‘ziga xosligi 711
Xatamova F. Maktab muhitida innovatsion pedagogik faoliyatni qo‘llab-quvvatlash omillari 715

6-SHO‘BA:

O‘QITUVCHI TADQIQOTI: O‘QUV MASHG‘ULOTLARI UCHUN SAMARALI DARS LOYIHALARI

Fayzullayeva G., Abdirayimova N. Zamonaviy darsliklar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kollaborativ ko‘nikmalarini shakllantirish vositasi sifatida 719
Alimuxamedova U. Antropotsen davrida sinfdan tashqari tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning ongli ekologik faoliyatini rivojlantirish metodikasi 7 24
Aliqulova S. Umumta’lim maktablarida tabiiy fanlarni o‘qitishda 5e modelining o‘rni va ahamiyati 734
Ashurova B. Umum ta’lim maktablarida inson resurslarini boshqarishda, rag‘batlantirish va motivatsiyaning o‘rni 738
Shakarov A. Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda mikroo‘qitish metodikasini takomillashtirish usullari 741
Berdiyorova O. Kelajak pedagogi uchun interaktiv o‘quv texnologiyalari 743
Bozorov S. O‘zbek xalq ertaklarida frazeologizmlarning qo‘llanish aspekti 747
Hayrullayeva M. Yangi avlod adabiyot darslari: muammo va yechim. “binafsha” hikoyasi asosida loyihalashtirilgan o‘quv mashg‘uloti 751
Ibodullayeva D., Ishmurodov D. Biologiya fanidan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil qilishda samarali dars loyihalaridan foydalanish 755
Najmiddinova G. Boshlang‘ich sinflarda ijodiy tasavvurni rivojlantirish 758
Qorayev S., Mamadaliyeva B. Raqamli ta’lim muhitida tabiiy fan o‘qituvchilarining solishtirma tahliliy kompetentligini rivojlantirish 762
Rajabova X. O‘qish darsligida berilgan buyuk sarkarda matni orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish texnologiyasi 765
Raximova G. Rahbar kadrlarning zamonaviy axborot vositalari va sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlarini oshirish 770
Boltayev B. Favqulodda vaziyatlar yo‘nalishi kursantlarida muloqot madaniyatini tarbiyalash 774
Xoliyev J., Shodiyeva Jamila. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish ko‘nikmalarini shakllantirish 776
Xujakulov Sh. Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda axborot-metodik qo‘llab-quvvatlash jarayonini loyihalash darajalari, yondashuvlari va ta’minot turlari 780
Kandaxarov M. Ta’limdagi innovatsion faoliyat risklarini minimallashtirish 783
Зарипов Х. Инклюзивные элементы налоговой политики нового узбекистана 786
Rasulov A. *O*liy ta’lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida talabalarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishning afzalliklari 789
Pulatova I. *Interfaol o‘yinlar va ijodiy yondashuvlar orqali talabalarda motivatsiyani shakillantirish* 793
Pulatova E. *Elektron ta’lim platformalari: zamonaviy ta’limning yangi bosqichi* 798
Orziqulova G. *Badiiy matnda psixolingvistikaning ahamiyati* 802
Tursunova O., Komilova D. *Ingliz tilini o‘rganishda grammatik tarjima metodining ahamiyati* 806
Tursunova O. *Semantic peculiarities of phraseological units: a comprehensive analysis* 809
Xamrakulov X. Matematika fanidan to‘garak mashg‘ulotlarida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari (didaktik o‘yinli darslar misolida) 814
Kushanova D. Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi rivojida qog‘ozning paydo bo‘lish tarixi 817
Shakarov A. Generativ sun’iy intellekt sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ilmiy tafakkurini rivojlantirish 819

“PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM MUHITINI YARATISH MUAMMOLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Tex.muharrir: Sh.Xujakulov

Bosishga 18.06.2025 yilda ruxsat etildi.
Qog’oz bichimi A4. Ofset qog’ozi. Shartli bosma tabog’i 50,0.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 19/25.
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi bosmaxonasida chop etildi.